O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“INVESTITSIYA VA INNOVATSIYALAR” KAFEDRASI

“YASHIL TEXNALOGIYALARGA INVESTITSIYALAR: BARQAROR RIVOJLANISH YO`LIDAGI MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

(2025 yil 24-25 oktabr)



SAMARQAND 2025

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“INVESTITSIYA VA INNOVATSIYALAR” KAFEDRASI

“YASHIL TEXNALOGIYALARGA INVESTITSIYALAR: BARQAROR RIVOJLANISH YO‘LIDAGI MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

(2025-yil 24-25 oktabr)

SAMARQAND 2025

МИНИСТЕРТСВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

САМАРКАНДСКИЙ ИНСТИТУТ ЭКОНОМИКИ И СЕРВИСА

КАФЕДРА “ИНВЕСТИЦИИ И ИННОВАЦИИ”

Материалы Республиканской научно-практической конференции на тему

“ИНВЕСТИЦИИ В ЗЕЛЕНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ: ПРОБЛЕМЫ И ВОЗМОЖНОСТИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ”

(24-25 октября 2025 г.)

САМАРКАНД – 2025

UO'K:330.322:330.15
B 49
KBK: 65.9(5O')-56

"Yashil texnalogiyalarga investitsiyalar: barqaror rivojlanish yo'lidagi muammolar va imkoniyatlar". 2025-yil 24-25 oktabr, Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumani materiallari – Samarqand: SamISI, 2025 - 960 bet.

To'plovchi va nashrga tayyorlovchi: assistent D.A.Miyassarov.

Nashr uchun mas'ullar:

A.Bektemirov - iqtisodiyot fanlari doktori, prof., N.H.Ruzibayeva - dotsent, PhD, A.A.Turayev - dots.v.b., PhD, A.A.Bekmurodov - dots.v.b., PhD, S.N.Baratov dots.v.b., PhD, B.M.Quliyev - dots.v.b., PhD, O.Y.Ashurova - katta o'qituvchi, G.T. D.F.Nasirov - katta o'qituvchi, G.T.Qarajanova - katta o'qituvchi, E.A.Nozimov - katta o'qituvchi, Z.X.Rafiyeva - assistent, G.A.Xolmirzayeva - assistent, M.S Qarshiyeva - assistent, Y.J.Xaknazarova - assistent, A.A.Axrorov - assistent.

Sahifalovchilar: O.Yu.Ashurova, A.A.Turayev, E.A.Nozimov, G.T.Qarajanova, Z.X.Rafiyeva, M.S Qarshiyeva, G.A.Xolmirzayeva,

"Yashil texnologiyalarga investitsiyalar: barqaror rivojlanish yo'lidagi muammolar va imkoniyatlar" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallarida yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish tendensiyalari va strategiyalarini ishlab chqishga, energiya tejamkor va ekologik toza ishlab chiqarishda yashil texnologiyalar va ularni rivojlantirishga, yashil iqtisodiyotda investitsion va innovatsion faollikni oshirishdagi muammo va yechimlarga, yashil texnologiyalarni rivojlantirishda inson kapitali va uning sifatini oshirishga, yashil texnologiyalarni moliyalashtirish manbalari ko'lamini kengaytirish va samaradorligini oshirishning dolzarb masalalariga hamda bu yo'nalishdagi mavjud muammolarni aniqlashga va ularning yechimlariga bag'ishlangan ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarga boy maqola va ma'ruza tezislari o'rin olgan.

Ilmiy to'plam Oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, talabalari, magistrlar, tayanch doktorantura, doktorantura, mustaqil izlanuvchilar va soha mutaxassislariga mo'ljallangan.

Maqolalar mualliflar tahririda bosilmoqda. Ularda keltirilgan, raqamlar, faktlar, xulosa va tavsiyalarga mualliflar mas'ul. Ularning ayrim fikrlari tashkiliy guruh qarashlariga to'g'ri kelmasligi mumkin.

ISBN: 978-9910-09-586-3

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2025

I SHO‘BA: YASHIL IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI VA STRATEGIYALARI

Abdumalik Bektemirov - SamISI “Investitsiya va innovatsiyalar” kafedrasi mudiri, i.f.d., professor

O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI VA STRATEGIYALARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonlari, uning hozirgi holati, rivojlanish tendensiyalari hamda strategik ustuvor yo‘nalishlari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini kengaytirish, resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish, yashil moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish va ekologik barqarorlikni ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar o‘rganilgan, bu jarayondagi muammo va kamchiliklar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, qayta tiklanuvchi energiya, yashil texnologiyalar, ekologik menejment, resurs tejamkorlik, yashil moliyalashtirish, raqamli iqtisodiyot, ESG-investitsiyalar, innovatsion strategiya, ekologik xavfsizlik, uglerod neytralligi.

So‘nggi yillarda global miqyosda iqtisodiy o‘sish va sanoatlashuv jarayonlarining jadallashuvi atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslarning kamayib borishi, chiqindilar hajmining ortishi insoniyat oldiga yangi iqtisodiy va ekologik chaqiriqlarni qo‘ymoqda. Shu nuqtai nazardan, **“yashil iqtisodiyot”** konsepsiyasi – iqtisodiy rivojlanish bilan bir qatorda ekologik muvozanatni saqlash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlashning eng samarali yo‘nalishlaridan biri sifatida tan olinmoqda.

Dolzarblikning yana bir sababi shundaki, O‘zbekiston Markaziy Osiyoda iqlim o‘zgarishidan eng ko‘p zarar ko‘rayotgan davlatlardan biridir. Orol dengizining qurib borishi, cho‘llanish jarayonlari, havoning ifloslanishi va suv tanqisligi kabi ekologik muammolar yashil iqtisodiyotga o‘tishni iqtisodiy zaruratga aylantirmoqda. Shu bois yashil iqtisodiyot tamoyillarini tatbiq etish – nafaqat ekologik, balki ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash omili hamdir.

Yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish tendensiyalari va strategiyalarini o‘rganish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan xalqaro institutlar tomonidan hamda iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlar e’tiborga loyiq. Quyida biz ularning asosiylari bilan tanishamiz va tahlil qilamiz.

O‘zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyot konsepsiyasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllandi. 2019-yil 4-oktabrda

qabul qilingan “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi to‘g‘risida”gi Prezident farmoni (PF–4477) ushbu sohada tub islohotlar uchun huquqiy asos bo‘ldi. Ushbu hujjatda 2030-yilgacha bo‘lgan davrda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ekologik toza texnologiyalarni joriy etish, resurs tejamkor ishlab chiqarishni rivojlantirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini kengaytirish bo‘yicha aniq maqsadlar belgilab berilgan.

Mazkur Farmon O‘zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotga o‘tishning strategik yo‘nalishlarini belgilab bergan asosiy normativ-huquqiy hujjatdir. Unda 2030-yilgacha mo‘ljallangan maqsadlar, jumladan, energiya samaradorligini oshirish, atmosferaga chiqindilarni kamaytirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini kengaytirish, hamda ekologik xavfsizlikni ta’minlash choralari bayon etilgan. Ushbu Farmon mamlakatda yashil iqtisodiyotni davlat siyosati darajasiga ko‘tardi va investitsion loyihalarni shu yo‘nalishga yo‘naltirish uchun huquqiy asos yaratdi [1].

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2030-yilgacha qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish dasturi to‘g‘risida”gi qarori mamlakat energetika tizimini modernizatsiya qilish va uglerod izini kamaytirish bo‘yicha muhim hujjat hisoblanadi. Dasturda quyosh, shamol, bioenergiya va gidroenergiya loyihalarini bosqichma-bosqich amalga oshirish rejalashtirilgan. Qaror doirasida 2020–2030-yillar oralig‘ida qayta tiklanuvchi energiya manbalarining umumiy ulushini 25 foizga yetkazish vazifasi belgilangan. Hujjat yashil investitsiyalarni jalb etish uchun aniq moliyaviy mexanizmlar va xalqaro hamkorlik yo‘nalishlarini ham o‘z ichiga oladi [2].

Osiyo taraqqiyot bankining 2023 yildagi hisobotida O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan qayta tiklanuvchi energiya loyihalari (quyosh va shamol elektr stansiyalari, energiya saqlash tizimlari – BESS) bo‘yicha tahliliy ma’lumotlar keltirilgan. Hisobotda Samarqand, Navoiy va Buxoro viloyatlarida amalga oshirilayotgan yirik PV (fotovoltaik) loyihalar misolida yashil energetika investitsiyalarining iqtisodiy samaradorligi tahlil qilingan. Shuningdek, ADB O‘zbekiston uchun “yashil moliya”ni rivojlantirish bo‘yicha strategik tavsiyalar beradi [3].

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (EBRD) tomonidan tayyorlangan tahliliy nashrda Markaziy Osiyo mamlakatlarida yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayoni o‘rganilgan. Unda O‘zbekiston misolida energetika islohotlari, ekologik siyosatning moliyaviy instrumentlari, va yashil kredit liniyalari (Green Finance Lines) amaliyoti tahlil qilingan. EBRD O‘zbekistonni “Green Transition Initiative” dasturi doirasida sanoat, transport va qurilish sohalarida barqaror energiya yechimlarini qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratadi [4].

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (OECD) 2023 yildagi hisobotida yashil o‘sish indikatorlari orqali mamlakatlarning barqaror rivojlanish darajasini baholash metodologiyasi keltirilgan. OECD tomonidan ishlab chiqilgan indikatorlar tizimi (ekologik samaradorlik, resurslardan foydalanish, iqlim o‘zgarishiga ta’sir, yashil innovatsiyalar darajasi) O‘zbekiston uchun ham yashil iqtisodiyot monitoringi va tahlilida foydali uslubiy asos bo‘la oladi. Hisobot

global miqyosda iqtisodiy o‘sish va ekologik barqarorlik o‘rtasidagi muvozanatni saqlashning ilmiy yondashuvlarini yoritadi [5].

A. Bektemirovning “Yashil iqtisodiyot: nazariya va amaliyot” nomli ilmiy ishida yashil iqtisodiyotning nazariy asoslari, institutsional mexanizmlari va amaliy tatbiqlari chuqur tahlil qilingan. Muallif O‘zbekistonning iqtisodiy modernizatsiyasi jarayonida yashil investitsiyalarni jalb etish, ekologik menejment tizimini takomillashtirish va resurslardan oqilona foydalanish masalalariga alohida e’tibor qaratadi. Asarda milliy va xorijiy tajribalar solishtirilgan, shuningdek, O‘zbekiston uchun mos “yashil iqtisodiyot modeli” ishlab chiqish takliflari ilgari surilgan [6].

BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP) tomonidan tayyorlangan milliy hisobotda BMT Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs)ning O‘zbekistonda amalga oshirilish jarayonini yoritilgan. Ayniqsa, 13-maqsad (Iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash) va 7-maqsad (Arzon va toza energiya) yo‘nalishlarida amalga oshirilayotgan milliy loyihalar, investitsiya dasturlari va xalqaro hamkorlik natijalari tahlil qilingan. Hisobotda shuningdek, yashil iqtisodiyot siyosatini amalga oshirishda davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikning o‘sib borayotgan roli ta’kidlab o‘tilgan [7].

Bu manbalar birgalikda O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni shakllantirishning huquqiy, institutsional va amaliy asoslarini to‘liq yoritadi:

- PF-4477-son Farmon – normativ asosni;
- VM qarori – amaliy dasturlarni;
- ADB va EBRD hisobotlari – xalqaro investitsion va moliyaviy tajribani;
- OECD hisobotlari – indikatorlar asosidagi baholash tizimini;
- Bektemirov (2024) – ilmiy-nazariy asosni;
- UNDP hisobotlari – global SDG kontekstini ta’minlaydi.

Natijada, ushbu manbalar O‘zbekiston uchun yashil iqtisodiyotga o‘tish, investitsion muhitni yaxshilash va ekologik barqarorlikni ta’minlash yo‘lida mukammal ilmiy-amaliy baza yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining dekarbonizatsiya jarayonlari so‘nggi yillarda faollashdi. Mamlakatda energetika, transport, qurilish, qishloq xo‘jaligi va suv xo‘jaligi tarmoqlarida “yashil” loyihalar amalga oshirilmoqda.Жумладан:

Energetika tarmog‘ida. Energetika sohasida qayta tiklanuvchi energiya manbalari (quyosh, shamol, bioenergiya) ulushini oshirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Masalan:

- Nur Navoi va Samarqand PV quyosh elektr stansiyalari, Navoi-2 shamol parki kabi loyihalar Osiyo taraqqiyot banki (ADB) va Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (EBRD) hamkorligida amalga oshirilmoqda;
- 2030-yilga borib qayta tiklanuvchi energiya ulushi jami ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining 25 foizigacha yetkazilishi rejalashtirilgan;
- Green Hydrogen Uzbekistan loyihasi doirasida vodorod texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasi ishlab chiqilmoqda.

Transport va infratuzilmada. O‘zbekistonda “yashil transport” konsepsiyasi asosida elektr transport vositalari, metro liniyalari va smart-logistika

tizimlari keng joriy etilmoqda. 2024-yilda qabul qilingan “2030-yilgacha transportni dekarbonizatsiya qilish dasturi” asosida yo‘l harakatida chiqindi gazlarini 30 foizga kamaytirish maqsadi qo‘yilgan.

Qishloq xo‘jaligida. Qishloq xo‘jaligida agrotexnologiyalarni modernizatsiya qilish, suvni tejovchi tomchilatib sug‘orish tizimlarini joriy etish, organik mahsulot yetishtirish tizimini rivojlantirish ishlari kengaymoqda. “Agrosug‘urta” tizimining yo‘lga qo‘yilishi esa ekologik xavflarni boshqarishda muhim innovatsion mexanizm sifatida ahamiyat kasb etmoqda.

Qurilish va sanoatda. Qurilishda energiya tejamkor materiallardan foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash va “yashil sertifikatlash” tizimini joriy etish amaliyoti boshlangan. Sanoatda esa yashil moliyalashtirish (green bonds, green loans) mexanizmlari rivojlanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning o‘rta va **uzoq muddatli strategiyalari ishlab chiqilgan**. Ulardan asosiylari quyidagilar:

- Raqamli texnologiyalarni integratsiyalash. Sun’iy intellekt, “big data” va raqamli monitoring tizimlari yordamida resurs sarfini optimallashtirish.
- Yashil moliyalashtirish tizimini kengaytirish. Green bonds (yashil obligatsiyalar), ESG (Environmental, Social, Governance) reyting tizimlari asosida sarmoyalarni jalb etish.
- Qayta tiklanuvchi energiya klasterlarini yaratish. Har bir viloyatda quyosh va shamol energetikasi zonalarini shakllantirish.
- Ekologik soliqlar va imtiyozlar tizimini takomillashtirish. Atrof-muhitga zarar yetkazuvchi korxonalarga soliq yuki oshiriladi, ekologik toza ishlab chiqaruvchilarga esa rag‘bat beriladi.
- Aholining ekologik ongini oshirish. Ta’lim tizimida “yashil tafakkur” tamoyillarini keng joriy etish, ommaviy axborot vositalarida ekologik madaniyatni targ‘ib qilish.

Yuqoridagi keltirilgan ijobiy holatlar bilan birga yashil iqtisodiyotni rivojlanishida bir qator **tizimli muommolar mavjud.** Ular quyidagilardan iborat:

- Moliyalashtirish manbalarining yetishmasligi. Yashil loyihalar uzoq muddatli va kapital talab qiluvchi soha bo‘lgani sababli, tijorat banklari bu yo‘nalishga kam sarmoya kiritmoqda.
- Yashil texnologiyalar bozorining sust rivojlanganligi. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar ekologik toza texnologiyalarni yetarli darajada o‘zlashtirmagan.
- Kadrlar malakasining pastligi. Yashil iqtisodiyot bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash tizimi endigina shakllanmoqda.
- Normativ-huquqiy bazaning to‘liq emasligi. Ekologik soliqlar, “yashil obligatsiyalar” va “uglerod kreditlari” tizimi hali to‘liq joriy etilmagan.
- Ekologik ma’lumotlarning shaffof emasligi. Davlat statistikasida korxonalar ekologik faoliyatiga oid ochiq ma’lumotlar cheklangan.

Bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun tadqiqotlar natijasida aniqlangan quyidagi takliflarni tavsiya etamiz:

1. Yashil moliyaviy instrumentlarni kengaytirish. Tijorat banklari va sug‘urta kompaniyalari uchun “yashil kreditlar” portfelini kengaytirish, korporativ obligatsiyalar bozorini rivojlantirish zarur.

2. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash. Yashil texnologiyalarni ishlab chiqaruvchi korxonalar uchun soliq imtiyozlari berilishi lozim.

3. Xalqaro hamkorlikni kengaytirish. ADB, EBRD, UNDP va Jahon banki bilan hamkorlikda qo‘shma “yashil investitsiya” platformalarini yaratish.

4. Hududiy klaster tizimini shakllantirish. Samarqand, Navoiy, Qashqadaryo viloyatlarida qayta tiklanuvchi energiya, chiqindi qayta ishlash va agrosanoat klasterlari tashkil etish.

5. Raqamli boshqaruv tizimini joriy etish. “Green Data” milliy axborot platformasi orqali korxonalar ekologik faoliyatini real vaqt rejimida kuzatish.

6. Kadrlar salohiyatini oshirish. Oliy ta’lim muassasalarida “Yashil iqtisodiyot”, “Ekologik menejment”, “Raqamli ekologiya” kabi yo‘nalishlarni kengaytirish.

Xulosa. Yashil iqtisodiyotga o‘tish O‘zbekiston uchun nafaqat ekologik barqarorlikni, balki iqtisodiy raqobatbardoshlikni ham oshirish imkoniyatidir. Yashil texnologiyalarni joriy etish natijasida energiya samaradorligi ortadi, resurslardan oqilona foydalanish yo‘lga qo‘yiladi va yangi ish o‘rinlari yaratiladi. Shu bois, yashil iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasi mamlakatning barqaror, innovatsion va ekologik toza kelajagini ta’minlashning eng muhim yo‘nalishlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi to‘g‘risida” PF - 4477-sonli Farmon. – Toshkent, 2019-yil 4-oktabr.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori. “2030-yilgacha qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish dasturi to‘g‘risida”. – Toshkent, 2020-yil.

3. Asian Development Bank. Renewable Energy Investment Projects in Uzbekistan. – Manila, 2023. – 78 p.

4. European Bank for Reconstruction and Development (EBRD). Green Transition in Central Asia. – London, 2022. – 96 p.

5. OECD. Green Growth Indicators 2023. – Paris: OECD Publishing, 2023. – 112 p.

6. Bektemirov A. Yashil iqtisodiyot: nazariya va amaliyot. – Toshkent: TDIU nashriyoti, 2024. – 210 b.

7. UNDP Uzbekistan. National Report on Sustainable Development Goals. – Tashkent, 2022. – 95 p.

8. Jahon banki. Green Transition in Uzbekistan: Opportunities and Challenges. – Washington DC, 2023. – 130 p.

Taniyev Ahmadjon Bahromovich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali professori, i.f.d.,

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ TIZIMINI SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq tizimining samaradorligini oshirish yo‘llari, jumladan, texnologiya va avtomatlashtirish imkoniyatlari, xalqaro tajriba hamda normativ javoblar tahlil qilingan. Soliq ma’murchiligida yuzaga kelayotgan muammolar, raqamli platformalarning soliqqa tortishdagi o‘rni, shuningdek, soliq to‘lovchilar xulq-atvoriga ta’sir etuvchi omillar ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, soliq tizimi, avtomatlashtirish, soliq ma’murchiligi, soliq islohotlari.

So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalar va internetning keng tarqalishi jahon iqtisodiyotida tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy faoliyatning asosiy qismi raqamli platformalar, elektron savdo va onlayn xizmatlar orqali amalga oshirilmoqda. Bu jarayon tovar va xizmatlar ishlab chiqarish, taqsimlash va iste’mol qilishning an’anaviy shakllarini o‘zgartiribgina qolmay, soliq tizimiga ham yangi ko‘rinishlarni ham keltirib chiqarmoqda.

Ammo raqamli tranzaksiyalarning chegarasiz xususiyati iqtisodiy faoliyatdan soliq yig‘ish bilan shug‘ullanuvchi organlar oldiga katta chaqiriqlarni qo‘ymoqda. Elektron tijorat, raqamli xizmatlar hamda platformaga asoslangan biznes modellarining jadal rivojlanishi soliqqa tortish jarayonini murakkablashtirib, jismoniy ishtirok, qiymat yaratilishi va soliq yurisdiksiyasi o‘rtasidagi an’anaviy chegaralarni tobora noaniq holga keltirmoqda. Bu esa soliqqa tortish yurisdiksiyasini aniqlashda murakkablik tug‘diradi. Xususan, qiymat yaratilishining nomoddiy aktivlar – ma’lumotlar bazalari, dasturiy ta’minot, algoritmlar – orqali amalga oshirilishi hududiy soliq huquqlarini belgilashni qiyinlashtiradi [1]. Bundan tashqari, texnologik innovatsiyalarning yuqori sur’ati soliq ma’muriyati uchun nazorat va moslashuv jarayonini murakkablashtiradi.

Xalqaro miqyosda bu muammolarni hal etish uchun OECD va G20 kabi tashkilotlar “Yagona Yondashuv” (Unified Approach), “Birinchi Ustun (Pillar 1)” va “Ikkinchi Ustun (Pillar 2)” kabi tashabbuslarni ilgari surdi. Ushbu tashabbuslar foyda taqsimlash qoidalarini qayta ko‘rib chiqish, minimal global soliq stavkasini joriy etish va ko‘p millatli kompaniyalar faoliyatini tartibga solishni nazarda tutadi [2].

Soliq tizimining samaradorligi faqatgina qonunchilik bazasi va ijro mexanizmlariga emas, balki jismoniy shaxslar hamda tadbirkorlik subyektlarining ixtiyoriy ravishda qonunlarga rioya etish darajasiga ham bevosita bog‘liqdir. So‘nggi yillarda soliqqa rioya qilish masalasi fiskal barqarorlik, iqtisodiy o‘sish

va ijtimoiy adolatga ta’siri sababli global miqyosda dolzarb mavzulardan biriga aylandi. Turli mamlakatlar hukumatlari majburlov choralaridan tortib, soliq to‘lovchilarni ma’rifatlantirish va o‘qitishga qaratilgan tashabbuslargacha bo‘lgan keng qamrovli strategiyalar orqali soliq qonunchiligiga rioya qilish darajasini oshirishga intilmoqda.

Biroq, amalga oshirilayotgan islohotlar va choralarga qaramay, soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash hamda qonun hujjatlariga rioya qilmaslik holatlari saqlanib qolmoqda. Bu esa davlat byudjeti daromadlarining sezilarli yo‘qotilishiga va soliqqa tortish tizimining yaxlitligiga putur yetkazadi.

Shu nuqtai nazardan, tizimni raqamlashtirish jarayonlari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Soliqlarni turli elektron platformalar orqali to‘lash imkoniyati yaratilishi soliq to‘lovchilarga internet orqali o‘z majburiyatlari haqida tezkor va batafsil ma’lumot olish imkonini bermoqda. Natijada, soliq qonunchiligiga rioya qilish darajasi bosqichma-bosqich oshib bormoqda. Ushbu jarayon mamlakat aholisi to‘liq qamrab olingan bosqichga yetguniga qadar davom etadi.

Buning oqibatida soliq tizimi yanada tizimlashtiriladi, soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash va qonunlarga amal qilmaslik holatlari keskin kamayadi. Eng muhimi, soliq organlari tomonidan adolatli soliqqa tortish tizimi shakllanishiga zamin yaratiladi, bu esa iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy tenglikni mustahkamlaydi.O‘zbekiston ham raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi sharoitida soliq tizimini modernizatsiya qilish bo‘yicha izchil choralarni amalga oshirmoqda. 2020-yildan boshlab elektron hisob-fakturalar tizimi (EHF), onlayn nazorat-kassa mashinalari va soliq to‘lovchilarning yagona elektron reyestri joriy etildi [4]. Bu nafaqat soliqqa rioya qilish darajasini oshirdi, balki soliq ma’muriyatining real vaqt rejimida ma’lumotlarga ega bo‘lish imkoniyatini ham kengaytirdi.

Raqamli iqtisodiyot jahon miqyosida globalizatsiya, keng ko‘lamli ulanish va tezkor innovatsiyalar davrini boshlab berdi. Bu jarayon biznes yuritish tamoyillarini tubdan o‘zgartirib, iste’molchilar bilan o‘zaro aloqalarning yangi shakllarini shakllantirmoqda hamda davlat boshqaruvining zamonaviy mexanizmlarini yuzaga keltirmoqda. Ushbu o‘zgarishlar fonida soliqqa tortish masalasi nafaqat milliy darajada, balki xalqaro miqyosda ham strategik ahamiyat kasb etmoqda. Chunki iqtisodiy faoliyatning raqamlashtirilishi soliq organlari uchun bir tomondan yangi imkoniyatlar, ikkinchi tomondan murakkab muammolarni yuzaga chiqarmoqda.

1. Raqamli iqtisodiyot mohiyati

Raqamli iqtisodiyot — bu tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash hamda iste’mol qilish jarayonlarida raqamli texnologiyalarning markaziy o‘rinni egallashi bilan tavsiflanadi. U elektron tijorat, raqamli xizmatlar, onlayn platformaga asoslangan biznes modellar, ma’lumotlar tahliliga asoslangan innovatsiyalar kabi keng sohalarni qamrab oladi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalar geografik chegaralardan mustaqil ravishda faoliyat yuritib, raqamli platformalar orqali butun dunyo bo‘ylab mijozlarga xizmat ko‘rsatadi.

Biroq, bunday iqtisodiy munosabatlarni soliqqa tortish an’anaviy yondashuvlarga mos kelmaydi. Ayniqsa, qiymatning qayerda yaratilganini

aniqlash, daromadlarni tegishli yurisdiksiyaga taqsimlash va soliqqa tortish bazasini belgilash masalalari murakkablashadi.

2. Raqamli soliqqa tortishdagi asosiy muammolar

Raqamli iqtisodiyotning global xarakteri soliqqa tortishda quyidagi muammolarni yuzaga keltiradi:

- **Transchegaraviy tranzaksiyalar** — iqtisodiy faoliyat bir mamlakat hududida boshlanib, boshqa hududlarda daromad keltirishi mumkin. Bu esa soliqqa tortish yurisdiksiyasini aniqlashni qiyinlashtiradi.
- **Qiymat manbasini belgilash murakkabligi** — an'anaviy biznesda moddiy aktivlar asosiy ahamiyatga ega bo'lsa, raqamli sohada qiymat asosan nomoddiy aktivlar (ma'lumotlar, algoritmlar, intellektual mulk) orqali yaratiladi.
- **Texnologik rivojlanish tezligi** — yangi biznes modellar va raqamli xizmatlarning tez paydo bo'lishi soliq ma'murchiligi, hisobot yuritish va nazorat jarayonlarini moslashtirishni talab qiladi.

3. Xalqaro va milliy miqyosdagi normativ javoblar

Jahon tajribasida bu muammolarni hal etish uchun raqamli xizmatlar solig'i, tenglashtirish to'lovlari kabi maxsus mexanizmlar joriy etilmoqda. OECD/G20 tashabbuslari doirasida ishlab chiqilgan **"Yagona yondashuv"**, **"Birinchi ustun (Pillar 1)"** va **"Ikkinchi ustun (Pillar 2)"** konsepsiyalari foydani qayta taqsimlash, yangi qoidalarni belgilash hamda transmilliy korxonalar uchun minimal soliq standartlarini yaratishga qaratilgan.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda raqamli iqtisodiyot sharoitiga moslashgan soliq siyosatini ishlab chiqish va joriy etish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, elektron tijorat subyektlari uchun maxsus soliqqa tortish tartiblari, onlayn fiskal nazorat vositalari va elektron hisob-kitob tizimlari keng joriy qilinmoqda.

4. Raqamli soliqqa tortish imkoniyatlari

Raqamli texnologiyalar soliqqa tortish tizimini nafaqat murakkablashtiradi, balki uni samarali qilish uchun yangi imkoniyatlar ham yaratadi. Masalan:

- Soliq to'lovchilar faoliyatini real vaqt rejimida monitoring qilish imkoniyati;
- Ma'lumotlar tahlili yordamida soliqqa oid xavflarni tezkor aniqlash;
- Qonunbuzarliklar va soliq qochqinligini kamaytirish;
- Xalqaro hamkorlik orqali adolatli raqobatni ta'minlash.

O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, soliqqa tortish tizimini raqamlashtirish davlat byudjeti barqarorligini mustahkamlash, tadbirkorlar uchun qulay sharoitlar yaratish va iqtisodiy o'sishni jadallashtirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, O'zbekiston "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida raqamli iqtisodiyot subyektlari uchun alohida soliq tartiblarini ishlab chiqmoqda. Elektron tijoratni soliqqa tortish bo'yicha qonunchilik bazasi takomillashtirilmoqda, jumladan, chet eldagi raqamli xizmat ko'rsatuvchilarning O'zbekistonda soliqqa tortilishi masalasi bo'yicha normativ-huquqiy asoslar yaratilmoqda [4].

Raqamli soliqqa tortish tizimiga o‘tish nafaqat qiyinchiliklarni, balki yangi imkoniyatlarni ham ochadi. Katta ma’lumotlar (Big Data) tahlili, sun’iy intellekt va blokcheyn texnologiyalari yordamida soliq yig‘ish samaradorligini oshirish, soliqdan bo‘yin tovlashni aniqlash va soliqqa rioya qilish darajasini yuksaltirish mumkin [5]. Xalqaro hamkorlik orqali esa O‘zbekiston global soliq standartlariga integratsiyalashib, adolatli raqobat va barqaror soliq siyosatini ta’minlashi mumkin.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida soliqqa tortish masalalari murakkab va ko‘p qirrali bo‘lsa-da, O‘zbekiston uchun bu yo‘nalish katta imkoniyatlar manbai bo‘lib xizmat qiladi. Texnologiyalardan samarali foydalanish, xalqaro standartlarni joriy etish va innovatsion yondashuvlarni qo‘llash orqali mamlakat soliq tizimini yanada samarali, adolatli va barqaror qilish imkoniyatiga ega.

Zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq tizimining samaradorligini oshirish uchun texnologiyalar va avtomatlashtirilgan yechimlarni joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Avtomatlashtirish soliq ma’murchiligidagi ko‘plab jarayonlarni soddalashtiradi, soliq to‘lovchilarning o‘z majburiyatlarini bajarishini yengillashtiradi hamda inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklarni kamaytiradi.

Birinchidan, avtomatlashtirilgan hisob-kitob tizimlari (masalan, elektron hisob-fakturalar, onlayn kassa apparatlari, raqamli hisobot portallari) soliq to‘lovchilarga jarayonlarni tez, aniq va ortiqcha byurokratiyasiz bajarish imkonini beradi. Bu esa davlat va biznes o‘rtasida o‘zaro ishonchni mustahkamlaydi.

Ikkinchidan, ilg‘or ma’lumotlar tahlili vositalari (data analytics) soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash ehtimolini aniqlash va profilaktika choralarini ko‘rishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, transchegaraviy operatsiyalar, raqamli platformalar orqali amalga oshiriladigan bitimlar yoki g‘ayrioddiy moliyaviy oqimlar avtomatik ravishda aniqlanib, soliq organlari e’tiboriga yetkazilishi mumkin.

Uchinchidan, sun’iy intellekt va mashinaviy o‘rganish texnologiyalari soliqqa oid xavf tahlilini optimallashtirish, risklarni baholash va real vaqt rejimida qaror qabul qilish imkonini yaratadi. Natijada soliq ma’murchiligi yanada tezkor, samarali va shaffof bo‘ladi.

Biroq, bu jarayonlarda texnologik infratuzilmaning barqarorligi, kiberxavfsizlik, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va texnologiyalardan foydalanish madaniyatini oshirish kabi masalalar ham alohida ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, raqamli iqtisodiyotda soliqqa tortish sohasi murakkab muammolar va keng imkoniyatlar chorrahasida turibdi. Tranzaksiyalarning chegarasizligi, qiymat yaratish mexanizmlarining murakkabligi hamda amaldagi normativ-huquqiy bazadagi noaniqliklar soliq organlari uchun katta sinov bo‘lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, texnologik yutuqlar, avtomatlashtirilgan tizimlar va xalqaro hamkorlik orqali yanada samarali, adolatli va barqaror soliq tizimini shakllantirish imkoniyati mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. OECD (2019). Addressing the Tax Challenges of the Digital Economy. OECD Publishing.
2. G20/OECD Inclusive Framework (2021). Statement on a Two-Pillar Solution to Address the Tax Challenges Arising from the Digitalisation of the Economy.
3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi (2021). Yillik hisobot.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni (2020-yil 5-oktabr).
5. Tapscott, D., & Tapscott, A. (2016). Blockchain Revolution. Penguin.

A.A.Karshiyev
O‘zbekiston respublikasi Markaziy baki Samarqand viloyat bosh bashqarmasi
“Kredit takshilotlarining muammoli aktivlari bilan ishlash va moliyaviy tahlil qilish bo‘limi” boshlig‘i

TIJORAT BANKLARINING MUAMMOLI KREDITLARINI UNDIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

Annotatsiya. Maqolada tijorat banklarining muammoli kreditlarini (NPL – non-performing loans) kamaytirish va ularni samarali undirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tahlil qilingan. Muammoli kreditlar turlari va ularni “qoniqarsiz”, “shubhali” hamda “umidsiz” toifalariga ajratish mezonlari milliy meyoriy hujjatlar asosida yoritilgan. Shuningdek, Samarqand viloyati misolida banklar kesimida muammoli kreditlar tarkibi, ularning dinamikasi va sektori bo‘yicha taqsimlanishi tahlil etilgan. Tadqiqotda bank aktivlarining sifatini yaxshilash, kreditlar portfelini diversifikatsiya qilish, huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish hamda xorijiy mamlakatlar tajribasidan foydalanish zarurligi ta’kidlanadi. Shu bilan birga, “yashil texnologiyalar”ga investitsiyalarni rag‘batlantirish banklar barqarorligini ta’minlashning muhim omillaridan biri sifatida ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: tijorat banklari, muammoli kreditlar, aktivlar sifati, shubhali qarzlar, kredit portfeli, undirish mexanizmlari, yashil texnologiyalar, investitsiya muhiti, likvidlilik, moliyaviy barqarorlik.

Yashil texnologiyalarga investitsiya – iqtisodiyotda energiya xarajatlarini kamaytiradi, investorlar uchun barqaror muhitning yaratilishiga va xizmatlar sifatini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa tijorat banklari tomonidan ushbu yo‘nalishda moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni, o‘z navbatida buning uchun muammoli kredit qarzdorliklarini qisqartirishni talab etadi.

“Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan muammoli aktivlar deb - sifati **"qoniqarsiz", "shubhali" va "umidsiz"** deb tasniflangan aktivlarga aytiladi:

qoniqarsiz - asosiy to‘lov manbalari qarz to‘lash uchun yetarli bo‘lmasa, ta’minotga qo‘yilgan mulkni va qarz oluvchining boshqa asosiy vositalarini sotish,

to‘lanishi lozim bo‘lgan qarzlarni uzaytirishlarni hisobga olgan holda qo‘shimcha to‘lov manbalarini topish talab etiladigan bo‘lsa;

qarz oluvchining joriy moliyaviy holati yoki uning pul mablag‘larining mo‘ljallanayotgan oqimi majburiyatlarni qoplash uchun yetarli bo‘lmasa;

qarz oluvchining kapitali yetarli darajada bo‘lmasa;

qarzdorning 2-son kartotekasida 91 kun va undan ortiq, lekin 180 kundan oshmagan muddatga kechiktirilgan to‘lov hujjatlari mavjud bo‘lsa;

shubhali - hech bo‘lmaganda birorta ko‘rsatkichi, shuningdek ayrim boshqa salbiy tavsiflari mavjud bo‘lsa (bozorda oson sotiladigan ta’minotning mavjud emasligi yoki ta’minlanmagan aktivlarning mavjudligi yoxud qarz oluvchining bankrot deb e’lon qilinishi);

yaqin kelajakda aktivning qisman to‘lanish ehtimoli mavjud bo‘lsa;

qarzdorning 2-son kartotekasida 181 kun va undan ortiq, lekin 365 kundan oshmagan muddatga kechiktirilgan to‘lov hujjatlari mavjud bo‘lsa;

umidsiz - qarzdor va lizing oluvchidan undirilgan, garovga qo‘yilgan mol-mulkka bo‘lgan huquqlardan foydalanish yo‘li bilan tijorat banki tomonidan balansga qabul qilingan kundan boshlab uch oy muddatda sotilmagan va bank faoliyatini kengaytirish uchun sotib olingan binodan ikki yil mobaynida foydalanilmagan hamda bank faoliyati uchun ortiq foydalanilmay qo‘yilgan paytdan boshlab bir yil mobaynida sotilmagan bo‘lsa;

qarzdorning 2-son kartotekasida muddati 366 kun va undan ortiq kunga kechiktirilgan to‘lov hujjatlari mavjud bo‘lsa;

asosiy qarz va (yoki) foizlar bo‘yicha 366 kun va undan ortiq kunga muddati o‘tgan qarzdorlik mavjud bo‘lsa.

O‘zbekiston Respublikasida bank faoliyati eng tez rivojlanib borayotgan tizimlardan biri bo‘lib, ayni kunda iqtisodiyotning qon tomiri sifatida qaraladigan ushbu yo‘nalishning barqaror faoliyat ko‘rsatishi uchun hukumat darajasida barcha zaruriy choralar ko‘rilib, banklarning likvidlilik darajasini yanada oshirish uchun zarur sharoitlar yaratib berilmoqda. Ammo, tez suratlarda o‘sish va kredit qo‘yilmalarining ortib borishi aktivlar sifati, jumladan, muammoli kreditlar salmog‘ini ortib borish xatarini keltirib chiqarib, muammoli kreditlar bilan ishlash usullarini takomillashtirish masalasini dolzarb darajaga chiqarmoqda.

Bundan tashqari, xorijiy banklarning O‘zbekistondagi tijorat banklariga investitsiyalar kiritilishida muammoli kreditlarning ulushiga e’tibor qaratilishi, ushbu yo‘nalishning salbiy tarafga o‘zgarishi investitsiyalar oqimi salmog‘ining pasayishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu nuqtai nazardan holatni chuqurroq tahlil qilish uchun Samarqand viloyat tijorat banklari kesimida muammoli kreditlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tahlil qilaylik (1-jadval).

Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2025 yil 1 oktabr holatiga Samarqand viloyati tijorat banklarining muammoli kreditlari qoldig‘i **828,4 mlrd. so‘mni** yoki jami kredit qo‘yilmalarining 2,7 foizini tashkil etgan (Respublika ko‘rsatkichi 582,2 trln.so‘mlik qoldiqning 24,7 trln.so‘mni yoki 4,2 foizi muammoli kredit).

Birgina o‘tgan oyda **228,5 mlrd. so‘mlik** muammoli kreditlar bartaraf etilib, **143,8 mlrd. so‘mlik** yangi muammoli qarzdorliklar vujudga kelib, jami kredit qo‘yilmalaridagi ulushi **0,1 bandga** kamaygan.

Muammoli kreditlar tarkibi tahliliga qaraydigan bo‘lsak **285,7 mlrd. so‘mlik 77 ta** (jami NPLning 34,4%i) qarzdorliklar Hududiy investitsiya dasturlari doirasida ajratilgan kreditlar hissasiga **188,3 mlrd. so‘m** qismi yoki **23 foizi** tadbirkorlik subyektlarining **qishloq xo‘jaligi yo‘nalishi**dagi kreditlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

Shuningdek, muammoli kreditlarning 480,0 mlrd.so‘mi yuridik shaxslar, **217,0 mlrd.so‘mi** jismoniy shaxslar (iste’mol, avto, mikroqarz va hkz kreditlar) va **90,0 млрд.сўми** oilaviy tadbirkorlik dasturi asosida ajratilgan kreditlar hissasiga to‘g‘ri keladi.

Iqtisodiyotda real sektor korxonalari va aholini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, ularni barqaror faoliyat yuritishi va qo‘shimcha ishchi o‘rinlarini yaratish uchun bank kreditlarining o‘rni katta. Biroq, yangi kreditlar ajratilishi va foiz stavkalarining pasayishi o‘z-o‘zidan oldingi kreditlarning o‘z vaqtida so‘ndirilishi bilan bog‘liq ekanligi muammoli kreditlarning undirilishini yanada takomillashtirish, rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribalaridan keng foydalangan holda takomillashtirish yo‘llarini topishni taqazo etadi.

Yuqorida keltirilgan tahliliy materiallar quyidagi taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishga asos bo‘ldi.

Taklif va tavsiyalar:

1. Muammoli kreditlarni erta aniqlash tizimini joriy etish: Tijorat banklarida qarzdorning moliyaviy holatini real-time rejimda monitoring qilish imkonini beruvchi raqamli baholash platformasini yaratish zarur.

2. Kreditlar ustidagi nazoratni avtomatlashtirish:Risk-menejment va kredit nazorat tizimlarini sun’iy intellekt va big data asosida takomillashtirish orqali qarzdorlarning to‘lov qobiliyatini aniq prognoz qilish mumkin.

3. Yashil iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlovchi kredit siyosatini kuchaytirish: ekologik samarador va energiya tejamkor loyihalarni kreditlash uchun maxsus imtiyozli moliyalashtirish dasturlari yaratilishi kerak.

4. Xalqaro tajriba va ilg‘or amaliyotlarni joriy etish: Janubiy Koreya, Singapur va Germaniya tajribasidagi “muammoli kreditlarni sekyuritizatsiya qilish” va “aktivlarni qayta sotish” modellarini milliy bank tizimiga moslashtirish maqsadga muvofiq.

7. Moliyaviy savodxonlikni oshirish va axborot ochiqligini ta’minlash: qarz oluvchilar uchun onlayn ta’lim kurslari, kredit to‘lov intizomini rag‘batlantiruvchi tizimlar joriy etilishi zarur.

Bu tavsiyalarning tijorat banklari faoliyatiga tadbiq etilishi, muammoli kreditlar hajmini kamaytirishga xizmat qiladi.

1-jadval

Samarqand viloyati tijorat banklari kesimida muammoli kreditlar to‘g‘risida
МАЪЛУМОТ

2025 yil 1 oktabr holatiga *млн.сўм*

Bank nomi	Kredit portfel qoldig'i	Jami muammoli kreditlar (NPL)										Muammolli kreditning kredit portfeldagi ulushi
		1 sentabr holatiga qoldiq		Muammoli kreditlar sinfidan chiqarildi		Muammoli kreditlar sinfiga qo‘shildi		O‘zgarishi (+:-)		1 oktabr holatiga qoldiq		
		Soni	Summasi	soni	summasi	Сони	Суммаси	Сони	Суммаси	Сони	Суммаси	
JAMI	**30 628**	**17 057**	**830**	**2 578**	**158**	**2 837**	**157**	**259**	**-2**	**17316**	**828**	**2,7%**
Agrobank	3 871	3 272	58	739	20	523	20	-216	1	3 056	59	1,5%
Aziya alyans bank	372	2	0	0	0		0	0	0	2	0	0,1%
Aloqabank	1 242	216	30	61	8	39	2	-22	-6	194	25	2,0%
Anor bank	621	2 251	30	190	3	533	5	343	2	2 594	32	5,1%
Asaka bank	2 260	466	80	121	22	138	3	17	-18	483	62	2,7%
Biznesni Rivojlantirish banki	1 304	618	65	67	5	89	47	22	42	640	106	8,1%
Garant bank	127	41	15	6	1	2	0	-4	0	37	14	11,4%
Davr bank	566	36	8	5	1	8	4	3	4	39	11	2,0%

Ziraat bank	85	11	3	4	2		0	-4	-2	7	1	1,0%
Invest finans bank	432	12	2	2	0		0	-2	0	10	2	0,5%
Ipak yuli bank	698	90	3	11	0	19	1	8	0	98	4	0,5%
Ipoteka-bank	2 273	622	41	70	8	204	8	134	0	756	42	1,8%
Kapital bank	1 694	1 044	93	140	16	54	6	-86	-9	958	83	4,9%
Mikrokredit bank	1 733	2 341	74	297	11	203	5	-94	-6	2 247	69	4,0%
Oriyent finans bank	686	3	1	0	0		0	0	0	3	1	0,1%
Tenge bank	267	66	6	19	2	24	2	5	0	71	6	2,1%
Trast bank	721	46	3	3	0	2	0	-1	0	45	3	0,4%
Turon bank	726	27	8	9	1	4	0	-5	-1	22	7	1,0%
O‘zmilliy bank	3 742	508	166	59	24	69	34	10	10	518	176	4,7%
O‘zsanoatqurilish bank	2 043	620	35	74	3	99	3	25	0	645	35	1,7%
Xalq banki	2 863	4 504	94	639	29	742	12	103	-17	4 607	77	2,7%
Hamkor bank	1 940	261	14	62	3	85	3	23	0	284	14	0,7%

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish konsepsiyasi” – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktabrdagi PQ–6079-son qarori.
2. “2020–2030 yillarda raqamli transformatsiya strategiyasi” – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 30 dekabrdagi №833-son qarori.
3. “Investitsiya muhitini yaxshilash va investitsiyalarni jalb qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident Farmoni. – 2021 yil 17 mart, PF–6186-son.
4. O‘zbekiston Respublikasi Markazi bankining “Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomi, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2015 14 iyulda 26-96 son bilan ro‘yxatga olingan.
5. Axmedov Sh. Investitsiyalar va iqtisodiy o‘sish. – Toshkent: “Iqtisod”, 2020. – 280 b.
6. Karimov A., Sultonov B. Raqamli iqtisodiyot asoslari. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2021. – 312 b.
7. Muxtorov I. Investitsion faoliyatni boshqarish nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: “Iqtisod-Moliya”, 2022. – 340 b.
8. Xodjayeva N. Innovatsion rivojlanish sharoitida investitsion muhitni takomillashtirish masalalari. // Iqtisodiyot va innovatsiyalar jurnali. – 2022. – №3. – B. 45–56.

Lola Khalikova Nazarovna

Samarkand Institute of Economics and Service
Doctor of Economics, Professor
Ashurova Jasmina Jo'ra qizi
Samarkand Institute of Economics and Service
Student of the Faculty of Economics, IK 824 group
Sevinch Umirzakova Karimovna
Samarkand Institute of Economics and Service
IK 122 group student

THE ROLE OF DIGITALIZATION IN STRENGTHENING ECONOMIC SECURITY

Abstract. This article examines the pivotal role of digitization in enhancing economic security. As rapid technological advancements continue to reshape global economies, the integration of digital systems across all sectors has become not only inevitable but essential for sustainable growth and resilience. The study explores the multifaceted impacts of digitization on economic security, critically reviews existing literature, outlines the applied methodologies, and presents key findings. Furthermore, it provides forward-looking insights and policy recommendations aimed at strengthening economic systems in the digital era.

Keywords: Digitization, economic security, cyber security, technological advances, financial systems, data protection, risk management.

In the era marked by technological progress, digitization has become the basis of economic development. The integration of digital technologies into financial systems, communications and business operations has revolutionized the way societies operate. However, this transition raises new challenges, particularly with regard to economic security. This article aims to explore the importance of digitization in protecting economic interests and the measures needed to mitigate potential risks.

The literature on digitization and economic security highlights a paradigm shift in the global economic landscape. Digitization has accelerated the pace of financial transactions, increased efficiency and opened new avenues for economic growth. However, it also exposed vulnerabilities that could be exploited by malicious actors. Cyber security threats, data breaches and financial fraud are among the concerns raised by scholars and experts.

A comprehensive review of existing literature was conducted to understand the impact of digitization on economic security. Scientific articles, lectures and case studies were analyzed to identify trends, problems and potential solutions. The methodologies used by various countries and organizations in strengthening cyber security measures were also explored to learn meaningful insights.

Digitization plays a crucial role in increasing economic security on various dimensions. Some key aspects that highlight the importance of digitization in economic security are:

Data Security:

- Encryption and authentication: Digitization enables strong encryption and authentication measures to protect sensitive economic data. This ensures that financial transactions, personal information and business information are protected from unauthorized access.

Financial Operations:

- Digital payments: The shift to digital payments and online banking has increased the efficiency and transparency of financial transactions. This reduces the risk of physical theft or loss associated with traditional cash-based systems.

Fraud Prevention:

- Advanced analytics: Digitization enables the use of advanced analytics and artificial intelligence to detect fraud. Systems can analyze patterns, detect anomalies, and detect potential fraudulent activity in real-time, improving overall economic security.

Supply Chain Resilience:

- Digital supply chains: Digitization of supply chains increases visibility, traceability and efficiency. It helps identify and mitigate risks, ensuring continuity of critical economic activity even in the face of disruptions.

Cyber Security Measures:

- Firewalls and Antivirus: As businesses and governments digitize their operations, implementing strong cyber security measures becomes a priority. This includes firewalls, antivirus software, and other tools to protect against cyber threats and protect economic infrastructure.

Economic Monitoring and Policy Implementation:

- Real-time data: Digitization enables the collection and analysis of real-time economic data. This facilitates better monitoring of economic indicators, enabling governments and policymakers to make informed decisions and implement timely interventions.

Business Continuity:

- Remote Operations: Digital tools and technologies allow businesses to operate remotely, ensuring continuity during crises such as pandemics or natural disasters. This stability contributes to economic stability and security.

Job creation and economic growth:

- Digital Economy: the growth of the digital economy creates new job opportunities and stimulates economic growth. This diversification contributes to overall economic security by reducing dependence on specific sectors.

Efficiency and Productivity:

- Automation: Digitization often involves the automation of various processes leading to increased efficiency and effectiveness. This efficiency contributes to economic stability and sustainability.

Global Competitiveness:

- Innovation and competitiveness: digitization supports innovation and increases the competitiveness of the economy globally. Countries that invest in digital technologies are better positioned to compete in a rapidly evolving global economic landscape.

Conclusions and suggestions:

The article highlights the inextricable link between digitization and economic security. As we continue to rely on digital platforms for economic activity, protecting against cyber threats will become a priority. Implementing robust cybersecurity measures, regular risk assessments, and international cooperation are critical components of a sustainable economic security system. Additionally, ongoing research and development in cybersecurity technologies is essential to stay ahead of emerging threats.

Future research in this area should focus on the evolving nature of cyber threats and the adaptation of economic security measures. Examining the impact of emerging technologies such as artificial intelligence and blockchain on economic security can provide valuable insights. In addition, studying the effectiveness of international cooperation in the fight against cybercrime contributes to the development of a more secure global digital environment.

This article highlights the critical importance of digitization in economic security and advocates a proactive and collaborative approach to addressing the challenges posed by the digital age. As we navigate an increasingly interconnected world, securing our economic systems against cyber threats is not only a necessity, but a collective responsibility.

REFERENCES

1. Ageeva O.A., Tolvachev O.M., Prodchenko I.A., Kirova E.A., Zakharova A.V. Current Directions of Application of Mobile Technologies in the Scientific and Educational Process. In: Popkova E. (ed) UbiquitousComputing and theInternetof Things: Prerequisites for the Development of ICT. Studies in ComputationalIntelligence. Cham: Springer. 2019;826:933–939. https://doi.org/10.1007/978-3-030-13397-9_96

2. Ageeva O., Karp M., Sidorov A. (2021). The application of digital technologies in financial reporting and auditing. In: Popkova E.G., Sergi B.S. (eds) "Smart Technologies" for Society, State and Economy. ISC 2020. Lecture Notes in Networks and Systems. Cham: Springer. 2021;155:1526–1534. https://doi.org/10.1007/978-3-030-59126-7_167

3. Ageeva O.A., Bogoviz A.V., Osipov V.C., Kletskova E.V., Makuscyenko L.V. Unreadiness of society for information economy's formation. In: Sukhodolov A.P., Popkova E.G., Litvinova T.N. (eds) Models of modern information economy: conceptual contradictions and practical examples. Bingley: Emerald Publishing Limited; 2018. P. 115–125.

4. Adamova G.A., Khabib M.D., Teplyakova M.Y. The problems with information support of strategic management. In: Bogoviz A.V. (ed) Complex systems: Innovation and sustainability in the digital age. Studies in systems, decision and control. Cham: Springer. 2020;282:33–41. https://doi.org/10.1007/978-3-030-44703-8_5

5. Беловицкий К.Б., Николаев В.Г. Экономическая безопасность: учебное пособие. М.: Научный консультант; 2017. 286 с. 7. Bogoviz A.V., Revzon O.A., Poliakova V.V., Sumbatyan S.L., Morozova N.G. Successful Manifestations of the Circular Economy in Modern Russia. In: Popkova E.G., Bogoviz A.V. (eds) Circular economy in developed and developing countries: Perspective, methods and examples. Bingley: Emerald Publishing Limited; 2020. P. 149–156. https://doi.org/10.1108/978-1-78973-981-720201022

6. РБК. Экономика Рунета: тематическое приложение к ежедневной деловой газете РБК. 2020;107(3274):4–6.

Xalikova Lola Nazarovna - SamISI professori

Yarashov Sherzodbek Nuraddinovich - SamISI talabasi

INNOVATSION IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISH SHAROITIDA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY VA METODOLOGIK MASALALARI

Annotasiya. Ushbu maqolada innovatsion iqtisodiyot va yashil iqtisodiyotning o‘zaro aloqadorligi, ularning barqaror rivojlanishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Yashil iqtisodiyotning nazariy asoslari, resurslardan samarali foydalanish, ekologik toza texnologiyalarni joriy etish va iqtisodiy o‘sish bilan bog‘liq jihatlar ko‘rib chiqiladi. Bundan tashqari, ish o‘rinlari yaratish, tadbirkorlikni rivojlantirish, sanoatni diversifikatsiya qilish va ekologik barqarorlikni ta’minlash masalalari yoritiladi. Maqolada yashil iqtisodiyotning rivojlanishi uchun innovatsion yondashuvlarning ahamiyati ochib beriladi

Kalit so‘zlar: Innovatsion iqtisodiyot, yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, ekologik texnologiyalar, sanoatni diversifikatsiya qilish, tadbirkorlik, mehnat bozori, qayta tiklanadigan energiya, ekologik barqarorlik

Bugungi globallashuv sharoitida innovatsion iqtisodiyot va yashil iqtisodiyotning o‘zaro bog‘liqligi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Taxminlarga ko'ra, "yashil iqtisodiyot" atamasi birinchi marta 1989 yilda Buyuk Britaniya hukumati uchun ekologik iqtisodchilarning (Pirs, Markandya, Barbier, 1989) hisobotida ishlatilgan. Keyinchalik D.Pirs "Jahon iqtisodiyotini yashillashtirish" (Pirs, 1990) va "Barqaror rivojlanishni o'lchash" (Pirs, 1994) ma'ruzalarini nashr etdi. Agar birinchi ma'ruzaning asosiy g'oyasi iqtisodiyotga ekologik siyosatni amalga oshirishda yordam berish bo'lsa, u holda global ekologik muammolarga (iqlim o'zgarishi, ozon qatlamining emirilishi, o'rmonlarning kesilishi, rivojlanayotgan mamlakatlarda tabiiy resurslarning yo'qolishi) va rivojlanishning an'anaviy iqtisodiy modelini qayta ko'rib chiqish zarurligiga ko‘proq e'tibor qaratildi (Allen, 2012). Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish orqali erishilgan barqaror rivojlanishning yuqoridagi maqsadlari uning maqsadiga - munosib turmush darajasini saqlab qolgan holda atrof-muhitga salbiy ta'sirni minimallashtirish va tabiiy resurslardan samarali foydalanishga asoslangan iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot uchun samarali muhitni yaratishga yordam beradi.Yana shuni ta'kidlash kerakki, klassik nazariya nuqtai nazaridan yashil iqtisodiyot va Yashil iqtisodiyot tizimining muntazam o'zgarishlarini shakllantirish ko'p tarmoqli yo'nalish bo'lib, u ijtimoiy, ekologik va iqtisodiy elementlardan iborat bo'lib, ularning muvozanati iqtisodiyotni barqaror qiladi. Karl Burkart (Burkart, 2009) yashil iqtisodiyotni 6 ta asosiy sektor asosida belgilaydi, ulardagi ijobiy o'zgarishlar tabiiy ravishda butun yashil iqtisodiyotning tizim sifatida barqarorligiga olib keladi. Bu tarmoqlar quyidagilardir: qayta tiklanadigan energiya; yashil binolar; ekologik transport; suv resurslarini boshqarish; chiqindilarni boshqarish va erni boshqarish. Ustivor sa'y-harakatlarni ushbu sohalarda jamlash eng katta iqtisodiy multiplikativ samaralar beradi va shunga mos ravishda farovonlik va ijtimoiy adolatni mustahkamlaydi.

Rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiy o‘sish va ekologik muvozanatni ta’minlash maqsadida yashil texnologiyalar va barqaror rivojlanish strategiyalarini joriy etmoqda. Ushbu maqolada innovatsion iqtisodiyot sharoitida yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning nazariy va metodologik masalalari, shuningdek, uning mehnat bozoriga va tadbirkorlik muhitiga ta’siri tahlil qilinadi.Innovatsion iqtisodiyot va yashil iqtisodiyot bugungi kunning dolzarb yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, ularning o‘zaro integratsiyalashuvi barqaror rivojlanishning muhim omili hisoblanadi. Innovatsiyalar ekologik muammolarni hal qilish va iqtisodiy o‘sishni ta’minlash imkonini beradi. Yashil iqtisodiyot esa resurslardan samarali foydalanish, ekologik toza texnologiyalarni joriy etish va atrof-muhitga zarar yetkazmaslik tamoyillariga asoslanadi.Yashil iqtisodiyot tushunchasi ekologik barqarorlikni ta’minlash, tabiiy resurslarni tejash va global iqlim o‘zgarishlariga moslashishga qaratilgan. Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish quyidagi tamoyillarga asoslanadi.

- energiya va xomashyodan oqilona foydalanish
- atrof-muhitga ta’sirni kamaytirish

- iqtisodiy o‘sish va ekologik muvozanatni ta’minlash

Yashil iqtisodiyot yangi ish o‘rinlarini yaratish uchun keng imkoniyatlar taqdim etadi. Sanoatni diversifikatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish va ekologik sohani rivojlantirish natijasida mehnat bozorida yangi talablar paydo bo‘ladi. Xizmat ko‘rsatish sohasi, sog‘liqni saqlash, moliya, ta’lim va IT texnologiyalari kabi tarmoqlar yashil iqtisodiyot doirasida kengayib, ko‘plab ish o‘rinlarini yaratishi mumkin. 2019–2030-yillarga mo‘ljallangan ushbu strategiya iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, issiqxona gazlari ajralmalarini kamaytirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish va yangi "yashil" ish o‘rinlari yaratishni o‘z ichiga oladi.

Hisob-kitoblarga ko‘ra, 2020-yilgacha ushbu sohada 175 mingta qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratilgan va 2050-yilga kelib bu ko‘rsatkich 270 mingga yetishi mumkin. Sog'liqni saqlash, moliya, ta'lim, axborot texnologiyalari va turizm kabi tarmoqlarni o'z ichiga olgan xizmat ko'rsatish sohasi mehnatni ko'p talab qiladi va ko'plab ish o'rinlarini yaratishi mumkin. Ushbu tarmoqlar innovatsion iqtisodiyot doirasida o'sib borishi bilan ular turli xil malaka va malakalar to'plamini ish bilan ta'minlashi mumkin. Ish o'rinlarini yaratish gullab-yashnayotgan iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismidir, chunki u odamlarga daromad, shaxsiy o'sish va jamiyatga hissa qo'shish imkoniyatini beradi.

Xulosa: Xalqaro tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, "yashil iqtisodiyot" tushunchasi insoniyat oldida turgan dolzarb muammolarni hal qilishga yordam berishi va barcha xalqlar uchun barqaror iqtisodiy rivojlanish yo‘lini ochishi mumkin. Yashil iqtisodiyot jamiyat farovonligini oshirish, ijtimoiy tenglikni ta’minlash hamda ekologik xavflarni kamaytirishga xizmat qiladigan tizim sifatida qaraladi. Ushbu model iqtisodiy manfaatlarni muvozanatlashtirish orqali barqaror taraqqiyotni ta’minlashga yo‘naltirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O‘zbekiston, 2018.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi ,, Ekologiya va atrof muhitni muxofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risidagi “ PF 81-sonli farmoni
3. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni. «Xalq so‘zi» gazetasi, 2017 yil 8 fevral, No28 (6722).
4. Mirziyoyev Sh.M. «Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz». T.: O‘zbekiston, 2016. – 56 bet.
5. Mirziyoyev Sh.M. «Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi». T.: O‘zbekiston, 2017. – 48 bet.
6. Mirziyoyev Sh.M. «Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz». T.: O‘zbekiston, 2017.
7. https://www.xorazmstat.uz/uploads/press-reliz/2020/03/xizmatlar03uz.pdf
8. https://lex.uz/acts/-3107036

9. https://www.toshstat.uz/uz/matbuot-markazi/news/8277-ijara-xizmatlari-hajmi
10. https://kun.uz/news/2024/04/22/ozbekistonda-aholisi-soni-eng-tez-osayotgan-hududlar-malum-qilindi

Sobirov I.X. – Sam DAQU dotsenti, if.n.
Sattorova Shaxlo – SamDAQU, magistrant

INNOVATSION IQTISODIYOTNI SAMARALI TASHKIL ETISH YO‘LLARI

Annotatsiya. Maqolada innovatsiya tushunchasi va uning mohiyati xususida xorijiy va mahalliy olimlarning fikrlari keltirilgan. Innovatsion jarayonlarni tashkil qilish shakllari va innovatsion jarayonlarning asosiy bosqichlarining batafsil nazariy taxlili keltirib o‘tilgan. Amalga oshirilgan tahlillar natijasida "innovatsiya" atamasiga mualliflik ta’rifi berilgan.

Kalit so‘zlar : iqtisodiyot, ehtiyoj, raqobat, innovatsiya, samaradorlik.

O‘zbekiston Respublikasining “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi Qonunida “innovatsiya” va “innovatsion faoliyat”ga quyidagicha ta’rif berilgan: “innovatsiya – fuqarolik muomalasiga kiritilgan yoki shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalaniladigan, qo‘llanilishi amaliyotda katta ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishishni ta’minlaydigan yangi ishlanma”, “innovatsion faoliyat – yangi yangi ishlanmalarni tashkil etish, shuningdek ishlab chiqarish sohasida ularning o‘tkazilishi va amalga oshirilishini ta’minlash bo‘yicha faoliyat” deb, ta’rif berilgan [1].

Hozirgi globallashuv sharoitida har qanday iqtisodiy tizim (korxona, hudud va mamlakat)ni samarali rivojlantirish uning iinovatsiyalarni qabul qila olishiga bog‘liq. YA’ni tashqi va ichki muhitning o‘zgarishiga mos ravishda faoliyat shaklining yangilanishida uzluksizligi ta’minlanishi zarur. Zamonaviy dunyoda innovatsiyalarning turli sohalardagi faoliyatga joriy qilinishi iqtisodiy o‘sishga olib kelib, bir tomondan davlatning rivojlanishida bosh omil bo‘lsa, ikkinchi tomondan ilmiy-texnik rivojlanishning natijasi sifatida namoyon bo‘ladi. Innovatsion iqtisodiyotning asosi innovatsion faoliyat bo‘lib, o‘ziga xos iqtisodiyot turi sifatida bilimlarni, innovatsion omillarni va texnologiyalarni yangilash orqali iqtisodiy tizimning rivojlanishini ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoev ta’kidlaganlaridek, “Xalqimiz dunyoqarashida innovatsiya muhitini yaratish eng muhim vazifamizdir. Innovatsiya bo‘lmas ekan, hech bir sohada raqobat, rivojlanish bo‘lmaydi. Bu sohadagi o‘zgarishlarni xalqimizga keng targ‘ib qilmasak, odamlarda ko‘nikma paydo qilmasak, bugungi davr shiddati, fan-texnikaning mislsiz yutuqlari bilan hamqadam bo‘lolmaymiz. SHuning uchun ushbu faoliyatni zamon talablari darajasida rivojlantirish yangi vazirlik, qolaversa, ushbu markazning asosiy vazifasi bo‘lishi kerak"[2].

Iqtisodiy tizimning rivojlanishi innovatsiyalarning ta’siri ostida amalga oshirilib yakunda yangi bilimlar hisobiga iqtisodiy o‘sishga erishishda innovatsion dastaklardan foydalanish dolzarbligini ko‘rsatadi. Innovatsion ishlanmalar turli xil

elementlardan tashkil topgan bo‘lib, ularni bir butun tizimga birlashtirishdan olingan natija iqtisodiy o‘sishga sabab bo‘lishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar taxlili. Jahonda "innovatsiya" va “innovatsion jarayon" tushunchalariga ko‘plab olimlar o‘z ta’riflarini keltirishgan. Ular qatorida xorijiy olimlardan Kotler F. Innovatsiya - bu bozorga taqdim etilgan yoki ishlab chiqarilishi yo‘lga qo‘yilgan g‘oya, tovar yoki texnologiya bo‘lib, ularni iste’molchi butunlay yangi yoki noyob xususiyatlarga ega deb qabul qilishidir deya ta’rif bergan. Lekin ushbu yangilikning bozorga kirishida birinchi bo‘la olishigina iste’molchining e’tiborini tortishinn hisobga olish kerakligi keltirilmagan.

Druker P.F. Innovatsiya - bu tadbirkorlar tomonidan o‘ziga xos vosita bo‘lib, u asosida turli xil xizmat va biznesdagi imkoniyat sifatida foydalanishi mumkin degan, u qaysidir ma’noda haq lekin iste’molchi agar o‘sha yangi mahsulotga qiziqmasa unda tadbirkorning harakatlari zoya ketishi mumkin.

Ilenkova S.D. Innovatsiyalarning tarkibi o‘zgarishlardan iborat bo‘lib, innovatsion jarayonning asosiy vazifasi esa o‘zgarishlardir. Innovatsiyalarda dinamik va statik jihatlar mavjud. Oxirgi xolatda esa ilmiy-ishlab chiqarish siklining natijasi sifatida namoyon bo‘lib, bu natijalar o‘zining muammolariga ega bo‘ladi deya ta’rif bergan. SHu sababli innovatsion jarayonga yangiliklarni asta-sekinlik bilan joriy qilish talab etiladi.

Gimush R.I., Matmurodov F.M. Innovatsiya - yangilik va yangilik kiritish degan ma’noni bildiradi. Bu yangilik zamirida yangi tartibni, yangi odatni, yangi uslubni, kashfiyotni tushunish lozim deya ta’rif berishgan. YA’ni yangiliklarni kiritishda innovatsion jarayonlarni joriy qilish ham innovatsion mahsulotlarni yaratishga olib keladi.

Gaibnazarova Z.T. Innovatsiya - bu kasbiy faoliyatning tubdan tartibga solinadigan, yangi natijalarini yaratish va uni tubdan yangi sifat darajasiga ko‘tarish. Mukammal holda, har qanday yangilik odatdagi faoliyatdan tashqariga chiqadi va har doim ushbu sohada yutuqlarga intiladi deganlar. Unga ko‘ra inson kapitalini rivojlantirishda innovatsion jarayonlarni to‘g‘ri va vaqtida yo‘lga qo‘yish muhim hisoblanadi.

Innovatsion jarayonlarni ta’riflashda quyidagi olimlarning fikrini keltirishimiz mumkin:

Anchishkin A.I. 3 xil turdagi yangiliklarni joriy qilinishiga ajratish mumkin: "... butunlay yangi ilmiy yangiliklar va inqilobiy samaradorlik kuchlarini namoyon qiladi; texnikaning davri almashishi, mavjud fundamental ilmiy tamoyilni saqlagan xolda yangi texnologiyalarning paydo bulishi; mavjud texnikaning ma’lum bir ko‘rsatkichlarini miqdoriy yaxshilash, yangilik joriy qilish turlarini mohiyati,turli darajadagi bilimlarning moddiylashuvi" degan, ya’ni agarda innovatsion jarayonda yuqoridagi jarayonlar uzilib qolsa unda natija erisha olish imkoniyat pasayib ketishi mumkin.

Baryutin L.S. YAngiliknig joriy qilinishi - bu "boshqariladigan jarayon bo‘lib, majmuaviy xarakterga ega va turli xil tizim va tarkibiy tuzilmalarga sezilarli o‘zgartirishlar kiritish maqsadida yangisini yaratish,tarqatish va butunlay yangi yoki modifika-siyalangan vosita (yangilik)dan foydalanish bilan aniq ijtimoiy ehtiyojni qondirish va iqtisodiy, texnik hamda ijtimoiy samara keltirishi lozim" degan, agarda

innovatsion jarayonlarni to‘g‘ri boshqarilsa u xolda natija ijobiy bo‘lishi mumkin.

Mazkur atamalarning mazmunidan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, qachonki, har qanday kashfiyotlar, yangi voqealar, xizmatlar va usullar turlari tarqalishiga qabul qilinsa (tijoratlashish), o‘shanda xalq ommasi tomonidan tan olinadi. Bunda yangilikning joriy etilishi yangilikni qo‘llash jarayonini bildiradi va yangilikning tarqatilishiga qabul qilinishi vaqtidan boshlab yangi sifat - innovatsiya (yangilikni joriy etish)ga aylanadi.

Innovatsiya va innovatsion jarayon atamalari bugungi kunda juda keng qo‘llanilishi uning mazmun-mohiyatini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarni yanada kuchaytirmoqda. SHu sababdan mazkur atamanlarning iqtisodiy mazmun-mohiyatini tadqiq etgan va ochib bergan ayrim iqtisodchi-olimlarning qarashlarini o‘rganishni o‘z oldimizga maqsad qilib oldik.

Xorijiy izlanuvchilar va MDH mamlakatlaridagi tadqiqotchilar bilan bir qatorda O‘zbekistonlik iqtisodchi-olimlar ham "innovatsiya" atamasining iqtisodiy mazmun-mohiyatini ochib berish bo‘yicha katta izlanishlar olib borishgan va o‘zlarining zamonaviy talqindagi ta’riflarini ishlab chiqqanlar.

Umuman olganda, innovatsiyalar mazmuni bo‘yicha boshqa iqtisodchi-olimlarning nazariy qarashlarini yana ko‘plab keltirish mumkin. Biroq, olib borilgan tadqiqotlarimiz asosida biz o‘zimizning quyidagi ta’rifni ishlab chiqdik va uni bugungi kunda mazkur atamaning iqtisodiy mohiyatini to‘liq ochib berishga etarlicha xizmat qiladi deb o‘ylaymiz.

"Innovatsiya - ma’lum bir faoliyat sohasida mavjud xolatdan ko‘ra optimalroq natijaga erishish maqsadida butunlay yangidan yaratilgan yoki modifikatsiyalangan metodlarning yig‘indisidir".

Innovatsion jarayonning asosiy bosqichlari quyidagilardan iborat:

- kelib tushayotgan fikrlarni tizimlashtirish;
- g‘oyani aniqlanishi va yangi mahsulotni g‘oyasini ishlab chiqish;
- yangi mahsulotni iqtisodiy samaradorligini taxlili, marketing dasturini ishlab chiqish;
- yangi mahsulotni yaratilishi;
- marketing dasturiga asoslangan yangi mahsulotni ishlab chiqarishga kiritish haqida qaror qobul qilish.

Innovatsiya jarayonini boshqarish ob’ekti texnik siyosatni ishlab chiqish uchun yuqori darajada maxsuslashtirilgan bo‘limlar, ya’ni uyushmalarni, qo‘mitalarni yoki ishchi gurhini tuzishni taxmin qiladi:

- innovatsion faoliyatni nazorat qilish uchun yangi mahsulotni bo‘limlarini va markazlashgan xizmat ko‘rsatishni tashkil etish;
- yangi mahsulot yaratish uchun maqsadli loyiha guruhlarini yoki markazlarini belgilash;
- ishlab chiqarish bo‘limlarida mavjud bo‘lgan ilmiy ishlanmalar, konstruktorlik ishlari, laboratoriyalar, ilmiy markalar bo‘limlarini rolini oshirish;
- innovatsion faoliyatni rag‘batlantiruvchi maxsus fondlarni va venchur bo‘limlarni tashkil etish;
- yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish muammosi bilan shug‘ullanuvchi maxsus tarmoqli laboratoriyalarni yaratishdir.

Innovatsion menejmentda innovatsiyani tashkil qilishning turli shakllaridan foydalaniladi. Innovatsiyalar tuzilmasi shakllari mazmun jihatidan innovatsion loyihalarni olib borishda mehnat taqsimotining turli usullaridan iborat. Innovatsiyaning bunday tashkil etish shakllariga konsentratsiya, ixtisoslashganlik, kooperatsiyalanish va kombinatsiyalanishlarni kiritish mumkin.



1-rasm. Innovatsion jarayonlarni tashkil qilish shakllari

“O‘zbekiston Respublikasini 2030 yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish konsepsiyasi”ga ko‘ra Ilmiy-tadqiqot va tajriba- konstruktorlik ishlariga sarflanadigan xarajatlarni oshirish hamda bu ko‘rsatkichni YAIMga nisbatan 1-1,5 foizga etkazish, band bo‘lgan aholi orasida tadqiqotchi olimlar sonini 0,4 foizga, iqtisodiyot tadbirkorlik sektorining ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga xarajatlari ulushini innovatsiyalarga sarflanadigan barcha xarajatlarning 0,4 foiziga etkazish, shuningdek, Global innovatsion indeks reytingi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi jahonning 50 ta ilg‘or mamlakati orasidan joy olishiga erishish vazifasi belgilangan .

Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga sarflangan o‘zlashtirilgan xarajatlar tuzilmasini ko‘rib chiqishda davlat sektorining ulushi kattaligini qayd etish zarur. Moliyalashtirish bo‘yicha manbalar tuzilmasida O‘zbekistonda ilmiy -tadqiqot faoliyatida davlat byudjeti bundan buyon ham jiddiy rol o‘ynaydi. Uning ulushi 2023 yilda 59,4 foizni tashkil etdi. Korxonalar va tashkilotlarning o‘z mablag‘lari ahamiyati bo‘yicha ilmiy - tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini moliyalashtirishning ikkinchi manbasi hisoblanadi - 32,4%.

Oxirgi o‘n yilda realizatsiya qilingan tovarlar, ishlar va xizmatlar hajmi 4 baravar oshdi va 2024 yilda 23025,9 mlrd. so‘mga etdi. 2024 yilda innovatsiyalarning barcha turlari uchun xarajatlarning umumiy hajmi (texnologik, marketing va tashkiliy) o‘z navbatida taxminan 3,4 baravar oshdi va uning ulushi 2024 yilda YAIMga nisbatan 2,8 foizni tashkil etdi.

2024 yilda texnologik innovatsiyalar joriy etgan innovatsion faol korxonalar soni 1274 taga etdi. Ular tomonidan 2232 ta texnologik innovatsiya joriy etildi. Uzluksiz statistik tekshiruv natijalari bo‘yicha 2024 yilda innovatsiyalarni joriy qilgan korxonalar va tashkilotlar ulushi korxonalar umumiy sonida 0,54 foizni tashkil etdi.

O‘zbekistonda innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarish va xizmatlar

ko‘rsatish bilan shug‘ullanuvchi kompaniyalar ancha o‘sganligiga qaramay (2017-2023 yillar davrida o‘sish 7,5 baravar), 2024 yilda innovatsion korxonalar ulushi kompaniyalar umumiy sonining 0,72 foizini tashkil etdi (Evropa Ittifoqida - qariyb 49%). Innovatsion-faol korxonalar, ya’ni texnologik innovatsiyalarni joriy etuvchi korxonalar ulushi ham etarlicha past darajadadir - 2024 yilda 0,54% (rivojlangan mamlakatlarda - 40-65%).

Xulosa va takliflar

O‘z navbatida, O‘zbekiston quyidagi ko‘rsatkichlar bo‘yicha yuqori o‘rinlarga ega: biznes tashkil etishning oddiyligi (55 -o‘rin), faoliyat ko‘rsata olmaslikni hal etishning oddiyligi (bankrotlikni tan olish) (72-o‘rin), o‘rta ta’limda olimlar va o‘qituvchilar nisbati (47-o‘rin), ilm-fan va texnika sohasidagi bitiruvchilar soni (47-o‘rin), kapitalning yalpi jamlanishi (19 -o‘rin), mikromoliyaviy tashkilotlar kredit portfeli (39 -o‘rin), kelib chiqishi bo‘yicha patent arizalar (48-o‘rin), kelib chiqishi bo‘yicha foydali model ilovasi (24 - o‘rin), bir kishiga YAIM o‘sish sur’atlari (6-o‘rin), yaratilgan milliy badiiy filmlar (49-o‘rin).

Innovatsion jarayonlarni samarali yo‘lga qo‘yish maqsadida “O‘zbekiston Respublikasining 2035 yilgacha rivojlantirish strategiyasining Konsepsiyasi”da “Inson iqtisodiy rivojlanishning asosiy omili” ekanligi keltirilgan. Hamda yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga va innovatsiyalarni rivojlantirishni rag‘batlantirishga imkon beradigan uzluksiz ta’lim konsepsiyasi joriy qilinganligi keltirib o‘tilgan.

Unga ko‘ra quyidagilarni amalga oshirish talab etiladi. Ya’ni:

- Aholining barcha qatlamlari uchun qulay va sifatli ta’limni yo‘lga qo‘yish;
- ta’lim vazirliklarining rivojlantirish bo‘yicha yagona strategiyasini yaratish;
- ta’lim sifatini baholashning davlat tizimi ishlab chiqish;
- rivojlangan infratuzilma, maktablar (sinfda 27 kishigacha), universitetlar (har bir universitet uchun 170 ming kishi) va bolalar bog‘chalari sonining ko‘payishi;
- ommaviy ta’limdan inklyuziv ta’limga o‘tish;
- "Vaucher" ta’lim tizimini joriy qilish;
- o‘qituvchilar uchun yuqori ish haqi (bozor o‘rtacha darajasidan yuqori), o‘qituvchilarga keng ko‘lamdagi imtiyozlar taqdim qilish;
- onlayn ta’limni faol ravishda joriy etish;
- rivojlangan xususiy ta’lim bozorini tashkil qilish;
- mehnat bozori hajmi va tuzilmasi bo‘yicha ishonchli va to‘liq ma’lumotlarning shakllantirish;
- ilmiy va pedagogik kadrlar samaradorligini oshirish, shu jumladan ilmiy xavola qilingan natijalarni ilmiy jurnallarda nashr etish.

Yuqoridagi yo‘nalishlarni amaliyotga joriy qilish hisobiga inson kapitaliga qaratilgan innovatsion jarayonlarni tashkil etishning samaradorligini oshirish natijasida 2030 yilga kelib quyidagi natijalarga erishish mumkin:

— mutaxassislarning malakasi bozor talablariga javob bera boshlaydi;

— 2030 yilga kelib aholi jon boshiga YAIM 4 538 AQSH dollarini tashkil etishi kutilmoqda;

— muhandislar, iqtisodchilar va menejerlar bozorda ustunlik qila boshlaydi (xodimlarning 70% dan ortig‘i);

— ishsizlik darajasi 6,2% ga kamaytiriladi;
— uzluksiz ta’lim tizimi yo‘lga qo‘yiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-630-son. https://lex.uz/ru/docs/4910391
2. Sobirov, I. X., and SH. Atabaeva. "Raqamli iqtisodiyot sharoitida masofaviy bank xizmatlaridan foydalanish usullari." *Arxiv nauchnыx issledovaniy* 2.1 (2022).
3. Sobirov, I. X., and R. Ganiev. "Raqamli bank-taraqqiyot talabi." *BBK 65.011. 6 I 26* (2021): 642.

Janzakov Bekzot Kulmamat o‘g‘li – “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universitet dosenti, PhD.

YASHIL IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA TURIZM RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING MUHIM XUSUSIYATLARI

Annotasiya. Ushbu maqolada yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda turizm raqobatbardoshligini oshirishning muhim xususiyatlari asoslanilgan hamda respublika milliy turizmini yashil iqtisodiyotga mos rivojlantirish bo‘yicha muallif qarashlari bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: turizm bozori, raqobatbardoshlik, “yashil makon”, turistik xizmat, turistik oqim, turistik subyekt, xizmat ko‘rsatish.

Respublikamizda yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish uchun iqtisodiyotni boshqa tarmoqlari singari turizm sohasida juda katta ichki imkoniyatlari mavjud. Tadqiqotlar natijasida shuni ko‘rsatadiki, respublika milliy turizmini yashil iqtisodiyotga mos rivojlantirishda turizm sohasining quyidagi turlariga ustuvorlik berish muhim xisoblanadi.

Birinchidan, yashil iqtisodiyot ehtiyojlariga mos ekologik turizmni rivojlantirish;

Ikkinchidan, respublikada ekologik toza hududlarni kengaytirish ehtiyojlaridan kelib chiqib, rekratsion turizmga ustuvorlik berish;

Uchinchidan, yashil hudud sifatida namoyon bo‘ladigan agroturizm, qishloq turizmi kabi turlarga alohida ahamiyatni oshirish;

To‘rtinchidan, respublikamizda ekologik toza muhitni yaratish imkoniyatini shakllantiruvchi “yashil makon” talablariga mos turizmining yangi turlarini rivojlantirish va boshqa shu kabilardan iborat.

Yashil iqtisodiyotni rivojlanishiga qiziquvchi sayyohlarni jalb etishda alohida olingan mehmonxonalarda samarali foydalanish yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yaratadi.

Shunday ekan biz, mazkur tadqiqot ishida ekologik toza muhit imkoniyatlarini yaratuvchi sayyohlarga yetarli shart-sharoitlarni yaratuvchi joylashtirish subyektlari tadqiq qilindi.

Ayniqsa bu borada Samarqand shahridagi “Nodir Samarqand” mehmonxonasi tajribalari alohida ahamiyatga ega. Mazkur mehmonxona nisbatan kichik mehmonxonalardan biri bo‘lishiga qaramasdan yuqori sifatli xizmat ko‘rsatishni tashkil etish va turistik mahsulotni diversifikasiya qilish orqali turizm bozorida mustahkam o‘rnashib olishga erishdi. Shu nuqtai nazardan, bizning fikrimizcha, mazkur mehmonxona tajribasidan boshqa mehmonxonalar faoliyatida foydalanish respublika miqyosidagi yashil iqtisodiyotga qiziquvchi ekoturizm imkoniyatlarini yanada kengaytirishga shart-sharoit yaratuvchi sayyohlar oqimini keskin oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Binobarin, yuqoridagi xulosa va ko‘rsatkichlar mohiyatidan kelib chiqib, yuqori sifatli turizm bozorida raqobatbardoshlikni oshirish tendensiyalari quyidagilar bilan izohlanadi, ya’ni:

birinchidan, turistlarga xizmat ko‘rsatishda yuqori sifat va raqobatbardoshlikni ta’minlash standartlari va me’yorlariga mos faoliyat olib borish imkoniyati yaratiladi;

ikkinchidan, turistlarga sifatli xizmat ko‘rsatish tajriba va ko‘nikma-sining oshishi natijasida turistik subyektlarning o‘ziga ishonchi ortadi va raqobatbardosh faoliyat yuritish tizimi shakllantiriladi;

uchinchidan, respublikamizning jozibador turizm maskanlariga ko‘p son-li xorijiy va mahalliy sayyohlarni jalb etish orqali yuqori daromad olish imkoniyati yaratiladi;

to‘rtinchidan, turistlarga yuqori sifatli va malakali xizmat ko‘rsatuvchi kadrlar maktabi shakllanadi;

beshinchidan, turizmda mavsumiylik pasayadi va natijada yilning barcha fasllarida turistlarning bir xil oqimi ta’minlanadi;

oltinchidan, turizm infratuzilmasini yangilab borish zaruriyati oshib boradi va shu asosda sohada raqobatbardoshlik ta’minlanadi.

Yuqori sifatli turistik xizmatlar bozorini rivojlantirish uchun ma-lakali kadrlar yetishtirish, turistik subyektlarda mavsumiylikning salbiy ta’sirini kamaytirish bo‘yicha strategiyalar ishlab chiqishda konsalting xiz-matlarini joriy etish, turistik xizmatlar integrasiyasini kuchaytirish va uchun qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi.

Yuqori sifatli turistik xizmatlarga talab, avvalo, kiruvchi turistlar sonining o‘sishiga bog‘liq. Chunki, aynan kiruvchi turistlar oqimi turistik subyektlarda xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilashga majbur qiladi. Shu sa-babli, kiruvchi turizm bo‘yicha statistik ma’lumotlarni tahlil qilish va ular asosida tegishli xulosa va takliflar ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Turizm sohasining raqobatbardoshligiga ta’sir etuvchi muhim omillardan biri bu turistlar oqimining yil davomida o‘zgarishi, ya’ni, mavsu-miylik hisoblanadi va u turistlar oqimining yil davomida tebranish xusu-siyati bilan xarakterlanadi. Umuman, mavsumiylik turizmda noaniqlikni keltirib chiqaradi va shu sababdan investorlar bu sohaga pul tikishga ehtiyot-korlik bilan yondashadi. Chunki, mehmonxonalar, kafe-barlar, transport xiz-matlari va boshqalar turistik mavsumning yuqori nuqtasida to‘liq

band bo‘lsalar, mavsum o‘tgach ma’lum vaqt davomida ishsiz qolib ketishlari mumkin. Shu sababli, turistlar oqimining tebranishini o‘rganish turistik bozorda faoliyat olib borish samaradorligini aniqlashga yordam beradi. Shu nuqtai nazardan, ekonometrik tahlil asosida O‘zbekiston kiruvchi turizmining mav-sumiyligining havo harorati va dollar kursiga bog‘liq baholash natijalari aniqlandi (1-rasm).

Buning uchun O‘zbekistonda oyma oy o‘rtacha temperatura va valyuta kursi-ning kiruvchi turizm mavsumiyligiga ta’sirini baholash maqsadida quyida-gi ekonometrik model ishlab chiqildi:

$$Y = -2825445{,}53 + 12783{,}26 * X_1 + 383{,}49 * X_2$$

Y-xorijiy turistlar soni;

X_1- O‘zbekiston bo‘yicha oyma oy o‘rtacha temperatura;

X_2-o‘rtacha so‘m-dollar kursi.



1-rasm. Havo temperaturasi va dollar kursining turizm mavsumiyligiga ta’siri

Model natijalarining ko‘rsatishicha, havo temperaturasining bir dara-jaga ko‘tarilishi xorijiy turistlar sonini 12783 taga, dollar kursining 1 so‘mga ortishi esa, turistlar oqimini 383 kishiga ko‘payishiga olib keladi. Ekonometrik modelning boshqa muhim parametrlari quyidagi 1-jadvalda aks ettirilgan.

1-jadval

Ekonometrik modelning statistik ko‘rsatkichlari

O‘zgaruvchi omillar	Miqdor ko‘rsatkichlari	Standart xato	t	P>|t|	R-kvadrat	P>F
O‘rtacha havo temperaturasi	12783,26	3813.72	3,35	0,008	0.65	0.008
O‘rtacha dollar kursi	383,49	215.95	1,77	0,10		
Konstanta	-2825445,53	1788823,03	-1,57	0,14		

Jumladan, determinasiya koeffisiyenti (R-kvadrat)ning qiymati 0,65ga teng bo‘lib, u modelda nazarda tutilgan xorijiy turistlar oqimining tebra-nish darajasini ifodalaydi. Har bir omil uchun Fisher mezoni P>F qiymati-ning nolga yaqinligi ushbu model va unda e’tiborga olingan omilning to‘g‘ri tanlanganligini bildiradi.

Determinasiya koeffisiyentining nisbatan ki-chik qiymati modelga kiritilmagan boshqa muhim omillar, masalan, turizmga yo‘naltirilgan marketing xarajatlari, transport narxlari va boshqalarning ta’siri borligini bildiradi. Demak, mavsumiylikning salbiy ta’sirini kamaytirishda infratuzilmani rivojlantirish va bozor talabidan kelib chiqib xizmat ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yish muhim hisoblanadi[1].

Shuningdek, xorijiy turistlarning yoshi bo‘yicha tahlilning ko‘rsatishicha, 35 dan 45 yoshgacha bo‘lgan yashil tabiatga qiziquvchi turistlar ko‘pchilikni tashkil etgani, ulardan 29,4%i O‘rta Osiyodan, 33,8%i MDH davlatlaridan, 30%i Osiyo Tinch okeani minta-qasidan ekanligi ayon bo‘ldi2. Turizmni rivojlantirish Davlat qo‘mitasi o‘tkazgan so‘rovnomaga ko‘ra 39,4% respondentlarning sayohatdan ko‘zlagan asosiy maqsadi yashil tabiatdagi ekomuhitni ko‘rish do‘stlar va qarindoshlarini ko‘rish, 33,6%ining esa dam olish, ta’til va rekreasiya yo‘nalishlariga to‘g‘ri kelgan. Ammo, ta’kidlash o‘rinliki, hozirgi kunda “O‘zbekiston Havo yo‘llari” milliy aviakompaniyasi tomo-nidan taklif etilayotgan yuqori narxlar tur operatorlar va tur firmalar uchun tur paketlarni sotishda noqulayliklar tug‘dirmoqda va kiruvchi turizmni rivojlantirishga ma’lum darajada to‘siq bo‘lmoqda.

Umuman, yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish uchun turizm raqobatbardoshligini oshirishda sayyohlarni jalb etuvchi katta hajmda bo‘lmagan mexmonxonalarni rivojlantirish yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Janzakov B.K. Mirzaev K.D. (2019) The role of statistical analysis in ensuring the competitiveness of tourism. (In the example of Uzbekistan). International Journal of Engineering and Technology. Pp. 1038-1042.

2. Committee for development of tourism sphere of the Republic of Uzbekistan. Tourism in Uzbekistan survey 2018, P.5

3. Lovelock, C.H. (1983), “Classifying servicyes to gain strategic marketing insighs’’, Journal of Marketing, Vol. 47, pp. 9-20.

3. Silvestro, R. (1999) "Positioning servicyes along thye volume-variyety diagonal: Thye contingenciyes of servicye design, control and improvement", International Journal of Operations & Production Management, Vol. 19, No. 4, pp. 399 – 421.

4. Cook, D. P., Goh, C.-H., Chung, C.H., (1999), “Servicye typologiyes: a state of thye art survey”, Production and Operations Management, Vol. 8, No. 3, pp. 318–338.

1 Janzakov B.K. Mirzaev K.D. (2019) The role of statistical analysis in ensuring the competitiveness of tourism. (In the example of Uzbekistan). International Journal of Engineering and Technology. Pp. 1038-1042.

2 Committee for development of tourism sphere of the Republic of Uzbekistan. Tourism in Uzbekistan survey 2018, P.5

Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi -
TDIU, Menejment fakulteti talabasi
Ilmiy rahbar: Phd dotsent **Yuldasheva Gavhar Husniddinovna**

YASHIL MOLIYALASHTIRISHNING GLOBAL TAJRIBALARI VA ULARNI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA QO‘LLASH IMKONIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu tezisda yashil moliyalashtirishning jahon tajribalari, ularning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va qo‘llanish mexanizmlari tahlil qilinadi. Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda yashil obligatsiyalar, yashil kreditlar, karbon bozorlari kabi moliyaviy instrumentlarning qanday muvaffaqiyatli joriy etilgani misolida ularning iqtisodiy va ekologik samaradorligi ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, tezisda O‘zbekiston iqtisodiyotida yashil moliyalashtirish konsepsiyasini joriy etish bo‘yicha mavjud imkoniyatlar, huquqiy va institutsional baza, shuningdek mavjud to‘siqlar hamda ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilinadi. Xalqaro tajriba asosida mamlakatimiz sharoitida qo‘llash mumkin bo‘lgan amaliy takliflar ishlab chiqiladi va yashil moliyalashtirish orqali barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish istiqbollari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: yashil moliyalashtirish, global tajribalar, yashil obligatsiyalar, ekologik moliya, barqaror rivojlanish, yashil investitsiyalar, moliyaviy instrumentlar, iqlim o‘zgarishi, moliyaviy barqarorlik.

So‘nggi yillarda iqlim o‘zgarishi, ekologik muammolar va tabiiy resurslarning kamayib borishi global miqyosda barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan yangi iqtisodiy yondashuvlar zaruratini yuzaga keltirdi. Bunday yondashuvlardan biri ekologik xavfsizlikni ta’minlash, energiya samaradorligini oshirish va uglerod izini kamaytirishga qaratilgan iqtisodiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlovchi yashil iqtisodiyot konsepsiyasidir. Yashil iqtisodiyotning samarali faoliyat yuritishi, eng avvalo, uni moliyalashtirishni ta’minlovchi moliyaviy mexanizmlar, ya’ni yashil moliyalashtirish instrumentlarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

“Yashil” moliyalashtirish ekologik barqarorlikni iqtisodiy rivojlanish bilan uyg‘unlashtirishning muhim vositasi sifatida qaraladi. Ushbu moliyaviy mexanizm tabiatni muhofaza qilish, energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish va uglerod chiqindilarini kamaytirish kabi sohalarga sarmoya kiritishni rag‘batlantiradi. Ekologik loyihalarni moliyalashtirishda “yashil” moliyaviy vositalar, jumladan, “yashil” obligatsiyalar, “yashil” kreditlar va eko-sertifikatlash tizimlari muhim rol o‘ynaydi va ularning muvaffaqiyatli jahon amaliyoti ko‘plab mamlakatlar uchun samarali yo‘llar sifatida tan olingan. Bundan tashqari, mamlakatimizda ham iqtisodiyotni "yashil" iqtisodiyotga o‘tkazish bo‘yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga investitsiya kiritish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash kabi masalalar dolzarbdir. Shu bilan birga, "yashil" moliyalashtirishni joriy etish uchun zarur moliyaviy mexanizmlar, huquqiy baza va infratuzilma hali to‘liq shakllanmagan. Shu bois, Barqaror rivojlanish maqsadlariga

erishishda jahon tajribasini o‘rganish va uni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yashil moliyalashtirish — ekologiyaga salbiy ta’sirni kamaytiradigan va iqlim o‘zgarishiga moslashishga yordam beradigan loyihalarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan moliyaviy resurslarni jalb qilish va yo‘naltirish tizimi. Ushbu yo‘nalish nafaqat ekologik barqarorlikni ta’minlash, balki moliyaviy tizimlar xavfsizligini mustahkamlash, investitsiyalarni diversifikatsiya qilish va uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, "yashil" moliyalashtirish jahon hamjamiyati uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Bunday moliyaviy yondashuv iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslar taqchilligi, suv va havoning ifloslanishi kabi muammolarga qarshi kurashishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

“Yashil” moliyalashtirishning asosiy vositalariga quyidagilar kiradi:

- Yashil obligatsiyalar (Green Bonds): Bu moliyaviy instrumentlar an’anaviy obligatsiyalar singari ishlaydi, ammo ulardan tushgan mablag‘lar faqat ekologik toza loyihalar uchun sarflanadi. Yashil obligatsiyalar bozorida bir nechta yirik xalqaro tashkilotlar va moliyaviy institutlar faol ishtirok etadilar. Ular orasida Yevropa Investitsiya Banki (EIB), BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari va boshqa muhim xalqaro moliya institutlari mavjud.
- Barqaror rivojlanish kreditlari: Bu kreditlar ekologik va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga yo‘naltirilgan loyiha yoki faoliyatlarni moliyalashtirishga qaratiladi. Masalan, qayta tiklanuvchi energiya, ekologik qurilish, ekologik transport tizimlari, suvlarga oid texnologiyalar kabi loyihalar ushbu kreditlar orqali qo‘llab-quvvatlanadi.
- Yashil investitsiya fondlari: Bu fondlar sarmoyalarni energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va ekologik toza texnologiyalarga yo‘naltiradi. Yashil investitsiya fondlarining rentabelligi, an’anaviy investitsiya fondlaridan farq qiladi, chunki ular ekologik va ijtimoiy jihatlarga yo‘naltirilgan loyihalarni qo‘llab-quvvatlaydi. Shunday qilib, bu turdagi fondlar faqat foyda olishni maqsad qilmaydi, balki ijtimoiy va ekologik mas’uliyatni ham o‘z ichiga oladi.
- Karbon kreditlari va emissiya savdosi mexanizmlari: Bu instrumentlar orqali korxonalar o‘z uglerod chiqindilarini cheklash yoki boshqa korxonalardan karbon kvotalarini sotib olish orqali ekologik muvozanatni ta’minlashga harakat qiladilar.

Yashil obligatsiyalar, barqaror rivojlanish kreditlari, iqlim fondlari kabi instrumentlar bugungi kunda ko‘plab rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tomonidan joriy etilmoqda. Ushbu vositalar orqali davlatlar va xususiy sektor o‘rtasida ekologik muammolarga qarshi kurashish yo‘lida moliyaviy hamkorlik mustahkamlanmoqda. Shu bilan birga, bunday instrumentlarning iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlikka ta’siri ham dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Zero, yashil moliyalashtirishning noto‘g‘ri yo‘naltirilishi, investitsiya risklarining e’tibordan chetda qolishi yoki bozor infratuzilmasining yetarlicha shakllanmaganligi iqtisodiy beqarorlikka olib kelishi mumkin.



1-rasm. Yashil loihalarni moliyalashtirish instrumentlari.3

Dunyo miqyosida bir qancha mamlakatlar yashil moliyalashtirishni rivojlantirishda katta muvaffaqiyatlarga erishgan. Masalan, Yevropa Ittifoqi va AQSh kabi rivojlangan mamlakatlar yashil obligatsiyalar va ekosertifikatlash tizimlarini keng joriy etib, energiya samaradorligi va iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashda muvaffaqiyatli tajribalar yaratgan. Yashil obligatsiyalar orqali katta miqdorda investitsiyalar jalb qilinib, qayta tiklanadigan energiya loyihalariga sarmoya kiritish imkoniyatlari oshirilgan. Xitoy esa global karbon bozorlarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratgan va karbon ifloslanishini kamaytirish borasida aniq natijalarga erishgan. 2025-yil boshida, Xitoy elektr energiyasi ishlab chiqarishda karbon chiqindilarini rekord past darajaga tushira oldi — bir kilovatt soat elektr uchun atrof-muhitga tushayotgan CO_2 miqdori 492 gramm/kWh ga pastladi. Bu ko‘rsatkich 2024 yilga nisbatan va 2023 yil bilan solishtirganda yaxshilangan4.

Shuningdek, Braziliya, Meksika va Tailand kabi rivojlanayotgan mamlakatlar ham ekologik loyihalarni moliyalashtirishda o‘ziga xos tajribalar yaratgan. Bularning barchasi yashil moliyalashtirishning muvaffaqiyatli amaliyotlari va uni global miqyosda rivojlantirishning samarali yo‘llarini ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi ham barqaror rivojlanish maqsadlarini ro‘yobga chiqarish jarayonida yashil iqtisodiyot va moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirishga katta e’tibor qaratib, yashil moliyalashtirishning ahamiyati tobora ortib bormoqda. “Yashil” moliyalashtirish sohasida uchta muassasa salohiyatli yetakchilar sifatida ajralib turadi: Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi (EDC), Biznesni rivojlantirish banki (BDB) va O‘zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi (UzMRC). EDC allaqachon quyosh energiyasi va boshqa yashil

3 Yangi O‘zbekiston. Sayyorani qutqarishning “yashil” dastaklari (yuz.uz)

4 Reuters. (2025, July 16). China cuts electricity emissions to record lows in 2025. Reuters. https://www.reuters.com/markets/commodities/china-cuts-electricity-emissions-record-lows-2025-2025-07-16/

loyihalarni moliyalashtirmoqda, 2026-yilgacha yashil tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash uchun o‘z mablag‘larining 35 foizini ajratishni maqsad qilgan. BDB o‘z faoliyatiga barqarorlikni joriy etib, iqlimni moliyalashtirish maqsadlarini belgilamoqda, O‘zMRC esa yashil obligatsiyalarni chiqarishga tayyorlanmoqda va yashil uy-joyni moliyalashtirishda muhim rol o‘ynashi mumkin5. Mamlakatda qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish, energiya samaradorligini oshirish, tabiiy resurslarni asrab-avaylash va iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashni kuchaytirish maqsadida turli tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi so‘nggi yillarda ekologik barqarorlik va yashil iqtisodiyotni rivojlantirish borasida qator muhim tashabbuslarni amalga oshirmoqda. Jumladan, 2019-yilda “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” qabul qilindi. Bu hujjat doirasida energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni kamaytirish, suv resurslarini tejash kabi yo‘nalishlar belgilandi.

Ma’lumot o‘rnida ta’kidlash joizki, O‘zbekiston ilk bor 4,25 trln so‘m miqdoridagi yashil suveren xalqaro obligatsiyalar hamda 660 mln dollar miqdoridagi xalqaro obligatsiyalarni London fond birjasida joylashtirdi6.

Bu obligatsiyalar orqali to‘plangan mablag‘lar ekologik toza energiya, suv infratuzilmasi va chiqindilarni qayta ishlash loyihalariga yo‘naltirildi. Shuningdek, Xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikda “Yashil energiya” loyihalari amalga oshirilmoqda. Masalan, quyosh va shamol elektr stansiyalari qurilishi natijasida elektr energiyasining muqobil manbalari ulushi ortmoqda.

Biroq, yashil moliyalashtirish sohasida to‘liq huquqiy-me’yoriy baza, standartlashtirilgan baholash tizimlari, shuningdek, mahalliy investorlarda yetarlicha bilim va tajribaning mavjud emasligi mavjud muammolar sirasiga kiradi. Bu esa soha rivojida tizimli yondashuv zarurligini ko‘rsatadi.

“Yashil” moliyalashtirish zamonaviy iqtisodiy taraqqiyotning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, ekologik barqarorlik va iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashda beqiyos ahamiyatga ega. Bugungi kunda global ekologik inqirozga qarshi kurashish vositasi sifatida yashil obligatsiyalar, barqaror rivojlanish kreditlari, uglerod kvotalari va boshqa moliyaviy vositalardan faol foydalanilmoqda. Bu vositalar tufayli nafaqat atrof-muhit muhofazasi ta’minlanadi, balki yangi ish o‘rinlari yaratiladi, energiya resurslariga qaramlik kamayadi, iqtisodiy tizim diversifikatsiya qilinadi.

Biroq, “yashil” moliyalashtirishni rivojlantirish yo‘lida hali ham bir qator to‘siqlar mavjud. Mamlakatda “yashil” moliyaviy vositalarni yaratish va amalda qo‘llash uchun zarur bo‘lgan huquqiy va institutsional infratuzilma to‘liq shakllanmagan. Shuningdek, “yashil” investitsiyalarni rag‘batlantirish uchun zarur moliyaviy mexanizmlar hali to‘liq joriy etilmagan. Shu bilan birga, xalqaro investorlarga jalb qilish va yashil loyihalar uchun zarur bo‘lgan tarmoqlarni rivojlantirish borasida qo‘shimcha chora-tadbirlar zarur.

O‘zbekiston sharoitida yashil moliyalashtirishni muvaffaqiyatli joriy etish uchun bir nechta muhim qadamlarga e’tibor qaratish lozim. Birinchidan, yashil

5 World Bank. Prime Picks for a Green Pivot: Uzbekistan State Funds for Climate Action. Washington, DC: World Bank, February 19, 2025. https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/publication/state

6 https://www.imv.uz/news

obligatsiyalar va yashil kreditlar kabi moliyaviy instrumentlarni ishlab chiqish va keng joriy etish zarur. Ikkinchidan, iqlim xavf-xatarlarini kamaytirish va ekologik loyihalarga investitsiyalarni jalb qilish uchun davlat va xususiy sektorlarga qo‘llab-quvvatlash dasturlari taqdim etilishi kerak. Uchinchidan, yashil moliya instrumentlari uchun zarur bo‘lgan huquqiy baza, jumladan, ekologik sertifikatlash tizimlarini takomillashtirish va karbon bozorlarini rivojlantirishga qaratilgan qonunchilikni yaratish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekistonning yashil moliyalashtirish sohasida qo‘shgan hissasi, ayniqsa, quyidagi sohalarda yuksalishi mumkin:

- Qayta tiklanadigan energiya manbalari: Kichik va o‘rta energiya ishlab chiqarish loyihalarini moliyalashtirish.
- Energiya samaradorligi: Sanoat va aholi iste'moli uchun energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan investitsiyalar.
- Karbon ifloslanishini kamaytirish: Yashil kreditlar va obligatsiyalar orqali toza texnologiyalarga sarmoya kiritish.

Ayni vaqtda ekologik barqarorlikni ta’minlash yo‘lida kuchli institutsional va huquqiy baza yaratish, moliyaviy instrumentlarni rivojlantirish va aholining ekologik-moliyaviy savodxonligini oshirish muhim vazifalardan hisoblanadi.

Shu asosda quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Yashil loyihalarni baholash va monitoring qilish bo‘yicha xalqaro standartlarga mos tizimlar joriy etilsh;
2. Davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshiriladigan yashil loyihalar soni ko‘paytirish;
3. Moliyaviy institutlar va banklar tomonidan yashil moliyalashtirish bo‘yicha maxsus kredit liniyalari ochish;
4. Ekologik investitsiyalarga soliq imtiyozlari va boshqa rag‘batlantiruvchi mexanizmlar yaratilishi ta’minlash;
5. Aholi va tadbirkorlar o‘rtasida yashil iqtisodiyot va moliyalashtirish bo‘yicha axborot-targ‘ibot ishlari kuchaytirish;

Yashil moliyalashtirishning global tajribalari va O‘zbekiston sharoitida uni joriy etishning istiqbollari mamlakatimiz uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yaratadi. Mamlakatda yashil moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, yashil moliyalashtirishga qo‘shimcha resurslar va strategiyalarni ishlab chiqish, iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy barqarorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Bundan xulosa shuki, "yashil" moliyalashtirish vositalaridan to‘g‘ri va samarali foydalanish orqali nafaqat ekologik barqarorlikka, balki uzoq muddatli iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlikka erishish mumkin. O‘zbekiston uchun bu yo‘nalishda harakat qilish kelajak avlodlar uchun toza va barqaror atrof-muhit yaratish yo‘lidagi muhim qadamlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining “London fond birjasida Yashil obligatsiyalar joylahtirgaligi to‘g‘risida”gi risolasi - https://www.imv.uz/news

2. Reuters. (2025, July 16). China cuts electricity emissions to record lows in 2025.
3. World Bank. Prime Picks for a Green Pivot: Uzbekistan State Funds for Climate Action. Washington, DC: World Bank, February 19, 2025
4. UNEP (2014). Global Environment Outlook: Regional Assessments. United Nations Environment Programme.
5. Georgieva, K., & Sharma, S. (2020). Building Green Finance for a Sustainable Future. International Monetary Fund (IMF).
6. World Bank (2021). Financing Green Investments in Emerging Markets. World Bank Group.
7. Green Bond Principles (2020). International Capital Market Association (ICMA).
8. Yangi O‘zbekiston. Sayyorani qutqarishning “yashil” dastaklari (yuz.uz)

Ruzibayeva Nargiza Xakimovna
SamISI, dotsenti, PhD.

STARTAPLAR UCHUN VENCHUR KAPITAL INVESTITSIYALARINING DOLZARBLIGI

Annotatsiya. Ushbu maqolaning dolzarbligi startapni rivojlantirishning eng muhim jihatlaridan biri bo‘lgan moliyalashtirish ekanligiga asoslanadi. Bu borada jahon tajribasini o‘rganish, venchurli investitsiyalash ahamiyati va shakllarini tizimlashtirish startaplarni faoliyatning barcha bosqichlarida qo‘llab-quvvatlovchi hamda samarali tadbirkorlik ekotizimini yaratuvchi yagona konsepsiyani ishlab chiqish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: investitsiya, innovatsiya, startap, venchur, moliyalashtirish, risk, raqamli texnologiya.

Tez rivojlanayotgan startaplar zamonaviy global iqtisodiy muhitning ajralmas qismi bo‘lib, bu raqamli texnologiyalarda yangi iqtisodiy tsiklga o‘tish bilan tavsiflanadi. Venchur kapitaliga investitsiyalar yuqori o‘sish potentsialiga ega bo‘lgan yangi va innovatsion korxonalarga kiritiladi, lekin ayni paytda katta risk tug‘diradi. Bunday investitsiyalar o‘sishning dastlabki bosqichlarida startaplarni qo‘llab-quvvatlashning muhim mexanizmiga aylanmoqda. Venchur kapitalini moliyalashtirish tadbirkorlar uchun nafaqat biznes o‘sishini, balki turli sohalarda innovatsiyalarni joriy etishni qo‘llab-quvvatlovchi kapitalni ta’minlashning markaziy mexanizmiga aylanmoqda. Shu bois, raqamli texnologiyalarni keyingi bosqichga olib chiqa oladigan kreativ va riskli startaplarni qo‘llab-quvvatlash uchun moliyaviy resurslarni topish va jalb qilish masalasi ayniqsa dolzarb bo‘lib bormoqda.

Taniqli olim V.Gits startaplarni yaratish va qo‘llab-quvvatlash birinchi navbatda venchur investorlar tomonidan amalga oshirilishi kerakligini ta’kidlaydi.

Yana bir iqtisodchi-olim A.Solihov startaplarni yaratish va qo‘llab-quvvatlashda biznes inkubatorlar va akseleratorlarni jalb qilish jarayonini har tomonlama o‘rganib chiqdi va tavsiflab berdi.

Shuni ham ta’kidlash joizki, raqamli texnologiyalarga investitsiyalarni qaytarish nuqtai nazaridan eng jozibador startaplarni tanlash mezonlari va rivojlanish mezonlari nafaqat akademiklar, balki katta amaliy tajribaga ega tadbirkorlar va investorlar tomonidan ham muhokama qilinmoqda va o‘rganilmoqda. Eng avvalo “startup” tushunchasini tushunish muhimdir. Startap – bu innovatsion texnologiyalarda yoki ular bilan bog‘liq holda faoliyat yurituvchi yangi tashkil etilgan kompaniya. Odatda, bunday innovatsion kompaniyalarning insoniy va moliyaviy resurslari cheklangan bo‘lib, ularni mavjud imkoniyatlardan foydalanishga majbur qiladi. Startaplar amalga oshiradigan texnologiyalar mahalliy yoki global bo‘lishi mumkin. Global texnologiyalar innovatsiya butun dunyo uchun yangi ekanligini, mahalliy innovatsiyalar esa faqat ma’lum mamlakatlar yoki iqtisodiy sohalarda qo‘llanilishini anglatadi.

Annotatsiya: Ushbu maqola O‘zbekiston sharoitida yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda xususiy investitsiyalarni jalb qilishning muammolari va imkoniyatlarini tahlil qiladi. Yashil iqtisodiyotning barqaror rivojlanishdagi ahamiyati, xususiy sektorning roli va bu jarayondagi to‘siqlar (normativ-huquqiy muhit, moliyaviy xavf-xatarlar, malaka yetishmasligi) ko‘rib chiqiladi. Shu bilan birga, O‘zbekistonning tabiiy resurslari, davlat siyosati va xalqaro hamkorlik kabi imkoniyatlar ta’kidlanadi. Maqolada qayta tiklanadigan energiya va chiqindilarni qayta ishlash loyihalari misolida amaliy tajribalar tahlil qilinadi. Davlat-xususiy sheriklik, qonunchilikni takomillashtirish va kadrlar malakasini oshirish kabi

strategik yondashuvlar yechim sifatida taklif etiladi. Maqola O‘zbekistonning yashil iqtisodiyot sohasida barqaror rivojlanishga erishish imkoniyatlarini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, xususiy investitsiyalar, barqaror rivojlanish, qayta tiklanadigan energiya, davlat-xususiy sheriklik, O‘zbekiston, soliq imtiyozlari, ekologik loyihalar, moliyaviy xavf-xatarlar, kadrlar malakasi.

Kirish (Introduction): Yashil iqtisodiyot so‘nggi yillarda global iqtisodiyotning muhim yo‘nalishi sifatida e’tirof etilmoqda. Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs) va iqlim o‘zgarishi muammolariga qarshi kurashish zarurati mamlakatlarni ekologik toza texnologiyalar va yashil loyihalarga investitsiyalarni ko‘paytirishga undamoqda. O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish uchun xususiy investitsiyalarni jalb qilish muhim ahamiyatga ega. Biroq, bu jarayon bir qator muammolar, shu bilan birga katta imkoniyatlar bilan ham birga keladi. Ushbu maqola xususiy investitsiyalarni yashil iqtisodiyotga jalb qilishdagi asosiy tendensiyalar, muammolar va imkoniyatlarni tahlil qiladi, O‘zbekiston misolida strategik yondashuvlarni ko‘rib chiqadi.

Yashil iqtisodiyot nafaqat ekologik muammolarni hal qilishga yordam beradi, balki iqtisodiy o‘sish, yangi ish o‘rinlari yaratish va resurslardan samarali foydalanishni ta’minlaydi. Xususiy investitsiyalar bu sohada muhim rol o‘ynaydi, chunki davlat byudjeti yashil loyihalarni to‘liq moliyalashtirishga qodir emas. Shu sababli, ushbu maqola xususiy sektorni jalb qilishning muammolari va imkoniyatlarini IMRAD (Introduction, Methods, Results, and Discussion) tuzilmasi asosida o‘rganadi.

Metodologiya (Methods): Maqola tayyorlashda sifatli va miqdoriy tahlil usullaridan foydalanildi. Birinchi navbatda, O‘zbekiston va boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarda yashil iqtisodiyotga xususiy investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha mavjud adabiyotlarni tahlil qilish orqali nazariy asos yaratildi. Xalqaro tashkilotlarning (Jahon banki, BMT, OECD) hisobotlari, shuningdek, O‘zbekiston hukumatining yashil iqtisodiyotga oid strategik hujjatlari o‘rganildi.

Ikkinchidan, O‘zbekistonda yashil loyihalarga investitsiya jalb qilish tajribasi tahlil qilindi. Bunda qayta tiklanadigan energiya manbalari (quyosh va shamol energiyasi), suv resurslarini boshqarish va chiqindilarni qayta ishlash kabi sohalarga qaratilgan loyihalar misol sifatida keltirildi. Uchinchidan, investorlarning yashil loyihalarga sarmoya kiritishdagi xavf-xatarlari va motivatsiyasini aniqlash uchun so‘rovlar va intervyulardan olingan ma’lumotlar tahlil qilindi. Tahlil jarayonida SWOT (kuchli va zaif tomonlar, imkoniyatlar va xavf-xatarlar) usuli qo‘llanildi.

Natijalar (Results)

1. Yashil iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilishdagi muammolar

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, xususiy investitsiyalarni jalb qilishda bir qator to‘siqlar mavjud:

Normativ-huquqiy muhitning yetarli darajada shakllanmaganligi: O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlash uchun qonunchilik bazasi hali to‘liq ishlab chiqilmagan. Masalan, qayta tiklanadigan energiya loyihalari uchun subsidiyalar va soliq imtiyozlari aniq tartibga solinmagan.

Moliyaviy xavf-xatarlar: Yashil loyihalar ko‘pincha uzoq muddatli sarmoyani talab qiladi, bu esa investorlar uchun xavfli hisoblanadi. O‘zbekistonda bank

tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi va foiz stavkalarining yuqoriligi bu muammoni yanada kuchaytiradi.

Malaka va tajriba yetishmasligi: Mahalliy kompaniyalar va mutaxassislarning yashil texnologiyalar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalari cheklangan, bu esa loyihalarni samarali amalga oshirishga to‘sqinlik qiladi.

Ma’lumotlarning yetishmasligi: Investorlar uchun yashil loyihalarning iqtisodiy samaradorligi va bozor imkoniyatlari haqida yetarli ma’lumot yo‘q, bu ularning qaror qabul qilish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

2. Imkoniyatlar

Barcha muammolarga qaramay, O‘zbekiston yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda katta imkoniyatlarga ega:

Tabiiy resurslar: O‘zbekiston quyosh va shamol energiyasidan foydalanish uchun katta salohiyatga ega. Masalan, mamlakatning yiliga 300 dan ortiq quyoshli kunlari quyosh energiyasi loyihalarini jozibador qiladi.

Davlat siyosati: So‘nggi yillarda O‘zbekiston hukumati yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan bir qator strategiyalarni qabul qildi. Masalan, 2030 yilgacha qayta tiklanadigan energiya manbalarining ulushini 25% ga yetkazish rejalashtirilmoqda.

Xalqaro hamkorlik: Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va boshqa xalqaro tashkilotlar O‘zbekistonda yashil loyihalarni moliyalashtirishga tayyor. Bu xususiy investorlar uchun xavf-xatarlarni kamaytiradi.

Iqtisodiy foyda: Yashil loyihalar yangi ish o‘rinlari yaratish, energiya xarajatlarini kamaytirish va eksport salohiyatini oshirish imkonini beradi.

3. Amaliy misollarO‘zbekistonda bir qator muvaffaqiyatli yashil loyihalar amalga oshirilmoqda. Masalan, Navoiy viloyatida qurilgan quyosh elektr stansiyasi xususiy investitsiyalar hisobiga moliyalashtirildi va hozirda 100 MVt quvvatga ega. Shu bilan birga, chiqindilarni qayta ishlash bo‘yicha kichik loyihalar Toshkent va Samarqand kabi yirik shaharlarda sinovdan o‘tkazilmoqda.

Muhokama (Discussion): Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, xususiy investitsiyalarni jalb qilish yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning kalitidir, ammo bu jarayon bir qator strategik yondashuvlarni talab qiladi.

Birinchidan, hukumat qonunchilik bazasini takomillashtirishi va investorlar uchun aniq soliq imtiyozlari tizimini joriy qilishi kerak. Masalan, qayta tiklanadigan energiya loyihalari uchun uzoq muddatli shartnomalar (PPA – Power Purchase Agreements) investorlarning ishonchini oshirishi mumkin.

Ikkinchidan, mahalliy kadrlar malakasini oshirish zarur. Yashil texnologiyalar bo‘yicha treninglar va xalqaro tajriba almashuvi mahalliy kompaniyalarning raqobatbardoshligini oshiradi. Uchinchidan, davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish lozim. Davlat-xususiy sheriklik (PPP) modellari yashil loyihalarni moliyalashtirishda samarali bo‘lishi mumkin.

Bundan tashqari, investorlar uchun ma’lumotlarning shaffofligini ta’minlash muhim. Yashil loyihalarning iqtisodiy samaradorligi, bozor imkoniyatlari va ekologik foydalari haqida aniq ma’lumotlar investorlarning qiziqishini oshiradi. Masalan, O‘zbekistonning quyosh energiyasi bo‘yicha salohiyatini ko‘rsatuvchi batafsil tadqiqotlar va xaritalar investorlar uchun jozibador bo‘ladi.

Xalqaro tajriba O‘zbekiston uchun muhim saboqlar beradi. Masalan, Hindiston va Marokash kabi mamlakatlar yashil iqtisodiyotga xususiy investitsiyalarni jalb qilishda katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Bu mamlakatlar soliq imtiyozlari, xavf-xatarlarni sug‘urtalash va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik orqali investorlarning ishonchini qozondi. O‘zbekiston ushbu tajribalarni o‘z sharoitlariga moslashtirishi mumkin.

Muammo:

1. Normativ-huquqiy muhitning yetarli emasligi: Yashil iqtisodiyot loyihalari uchun aniq qonunchilik va soliq imtiyozlari tizimi shakllanmagan, bu investorlarning ishonchini pasaytiradi.
2. Moliyaviy xavf-xatarlar: Yashil loyihalar uzoq muddatli va yuqori xarajatlarni talab qiladi, O‘zbekistonda esa bank tizimining cheklangan imkoniyatlari va yuqori foiz stavkalari investorlar uchun to‘siq bo‘lmoqda.
3. Malaka va tajriba yetishmasligi: Mahalliy mutaxassislarning yashil texnologiyalar bo‘yicha bilimlari cheklangan, bu loyihalarni samarali amalga oshirishni qiyinlashtiradi.
4. Ma’lumotlar shaffofligining yo‘qligi: Investorlar uchun yashil loyihalarning iqtisodiy samaradorligi va bozor imkoniyatlari haqida yetarli ma’lumot yo‘q.
5. Xalqaro tajriba yetishmasligi: O‘zbekistonning yashil iqtisodiyot sohasidagi tajribasi hali boshlang‘ich bosqichda, bu esa investorlarning ehtiyotkor yondashuviga sabab bo‘lmoqda.

Yechim:

1. Qonunchilikni takomillashtirish: Yashil loyihalar uchun aniq soliq imtiyozlari, subsidiyalar va uzoq muddatli shartnomalar (masalan, PPA – Power Purchase Agreements) joriy qilinishi kerak.
2. Moliyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish: Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik orqali xavf-xatarlarni sug‘urtalash tizimlari yaratilishi va mahalliy banklarning yashil loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlari kengaytirilishi lozim.
3. Kadrlar malakasini oshirish: Yashil texnologiyalar bo‘yicha treninglar, xalqaro tajriba almashuvi va mahalliy universitetlarda maxsus dasturlarni joriy qilish orqali mutaxassislar tayyorlanishi kerak.
4. Ma’lumotlar shaffofligini ta’minlash: Yashil loyihalarning iqtisodiy samaradorligi, bozor salohiyati va ekologik foydalari haqida ochiq ma’lumotlar bazasi yaratilishi zarur.
5. Davlat-xususiy sheriklik (PPP): Hukumat va xususiy sektor o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish orqali loyihalarni moliyalashtirish va boshqarish samaradorligi oshirilishi mumkin.

Tavsiyalar:

1. Hukumat uchun:

- Yashil iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlash uchun maxsus qonunchilik ishlab chiqish va soliq imtiyozlari tizimini aniqlashtirish.
- Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish va xavf-xatarlarni sug‘urtalash dasturlarini joriy qilish.
- Quyosh va shamol energiyasi kabi sohalarda aniq investitsiya imkoniyatlarini ko‘rsatuvchi ma’lumotlar bazasini yaratish.

2. Xususiy sektor uchun:

- Yashil loyihalarga sarmoya kiritishdan oldin bozor tahlilini chuqur o‘tkazish va xalqaro tajribadan foydalanish.
- Mahalliy startaplar va kichik bizneslar bilan hamkorlik qilish orqali innovatsion yashil loyihalarni qo‘llab-quvvatlash.

3. Xalqaro tashkilotlar uchun:

- O‘zbekistonda yashil iqtisodiyot loyihalarini moliyalashtirish uchun grantlar va imtiyozli kreditlar ajratish.
- Mahalliy mutaxassislar uchun treninglar va tajriba almashuvi dasturlarini tashkil qilish.

4. Ta’lim muassasalari uchun:

- Yashil texnologiyalar va barqaror rivojlanish bo‘yicha maxsus o‘quv dasturlarini joriy qilish.
- Xalqaro universitetlar bilan hamkorlikda tadqiqot loyihalarini amalga oshirish.

Xulosa: Xususiy investitsiyalarni yashil iqtisodiyotga jalb qilish O‘zbekistonning barqaror rivojlanishi uchun muhim imkoniyatdir. Ammo bu jarayon muammosiz emas: qonunchilikdagi kamchiliklar, moliyaviy xavf-xatarlar va malaka yetishmasligi investorlarning qiziqishiga to‘sqinlik qiladi. Shu bilan birga, mamlakatning tabiiy resurslari, davlat siyosati va xalqaro hamkorlik imkoniyatlari yashil iqtisodiyotni rivojlantirish uchun katta salohiyat yaratadi.Yashil iqtisodiyotni muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun hukumat, xususiy sektor va xalqaro tashkilotlar o‘rtasida yaqin hamkorlik zarur. Qonunchilikni takomillashtirish, shaffof ma’lumotlar bazasini yaratish va kadrlar malakasini oshirish orqali O‘zbekiston xususiy investitsiyalarni jalb qilishda muvaffaqiyatga erishishi mumkin. Bu nafaqat ekologik muammolarni hal qiladi, balki iqtisodiy o‘sish va barqarorlikni ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Jahon banki. (2023). Central Asia: Green Economy Transition Report. Jahon banki nashri.
2. BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP). (2022). Sustainable Development Goals and Green Investments in Uzbekistan.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti. (2021). O‘zbekistonning yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi: 2030 yilgacha.
4. Osiyo taraqqiyot banki (ADB). (2024). Renewable Energy Potential in Uzbekistan: Opportunities and Challenges.
5. OECD. (2023). Private Sector Engagement in Green Economy: Best Practices from Developing Countries.
6. O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi. (2022). Qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish bo‘yicha milliy dastur.
7. Xalqaro tadqiqotlar: Hindiston va Marokashning yashil iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilish tajribasi (2023). Energy Policy Journal, 45(3), 112-130.

Narmuradov Ulug’bek Ziyadullayevich - Samarqand iqtisodiyot va servis instituti mustaqil tadqiqotchisi

POCHTA VA KURYERLIK XIZMAT KO‘RSATISH SAMARADORLIGI OSHIRISHNING STRATEGIK YO‘NALISHLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada, raqamli texnologiyalar asrida tashkil etilgan raqamli iqtisodiyotning takomillashishi, uning tashkil etilishi, pochta aloqalari korxonalarining rivojlanish bosqichlari va hozirda ushbu tashkilotlarda qo‘llanilayotgan raqamli iqtisodiyotning samaradorligini oshirish va uni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida so‘z yurutilgan.

Kalit so‘zlar: pochta, pochta aloqasi, kuryer, raqamli texnologiya, raqamli iqtisodiyot, raqamli pochta tizimi, O‘zbekiston pochtasi.

Pochta tashkilotlarini raqamlashtirish borasida olib boriladigan tadqiqotlar kesimida, asosiy e’tiborni pochta xizmatini qaysi xizmatlari va jihatlarini elektronlashtirish mumkinligi, uning xizmatini yanada kengaytirish masalalarini eng oldi masalalarga qo‘yilishi lozim. Masalan, kuryerlik xizmatini elektronlashtirish borasida ham hozirda ko‘plab o‘zgarishlar amalga oshirilgan. Respublikaning ko‘plab hududlarida hozirda kuryerlik xizmatlari mavjud bo‘lib, uni foydalanuvchi o‘zining belgilagan hududlarida ham turib qayerda ekanligini bilishi, kuryer yetib kelganida elektron xabarni qabul qilib olishi, buyurtmani ham o‘ziga qulay holda qabul qilish imkoni mavjud. Ushbu xizmatni amalga oshirishda, raqamli texnologiyalar va raqamli iqtisodiyot pochta xizmatiga ehtiyoji bor fuqarolar uchun qulayliklar yaratgan. Ushbu tizimni tashkillashtirishda elektron xaritadan foydalanish, mijoz bilan bog‘lanish uchun kuryerga tegishli ma’lumotlarni taqdim etish, buyurtma berishdan oldin, buyurtmachi to‘lovlarni ham turli usullarda amalga oshirishi mumkin. Pochta tizimi tarixdan shakllanib zamon bilan birgalikda rivojlangan.

Hozirda muhokamalarga sabab bo‘lgan pochta faoliyatining yana bir jihatlaridan biri tizimni yanada zamonaviylashtirish, unda raqamli iqtisodiyotni qo‘llash orqali qulayliklarni yanada kengaytirishdir. Texnikalar rivojlanmoqda ekan u har soxada uchramoqda, ta’limda, savdo-sotiqda, davlatlar o‘rtasida aloqalarni mustahkamlashda, hukumatni boshqarishda va eng asosiysi inson omili yordamida, insonlarning o‘ziga qulaylik yaratishdir. Raqamli iqtisodiyot orqali hozirda pochta xizmatlariga qo‘shimchalar joriy etilmoqda. 2020-yil 5-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida Vazirliklar hamda viloyat, tuman va shahar hokimiyat organlari rahbarlari ishtirokida “Milliy pochta tizimini isloh qilish masalasi” yuzasidan yig‘ilish o‘tkazilib, Milliy pochta tizimini rivojlantirish, bozorda raqobatbardosh korxonaga aylantirish hamda Umumjahon pochta ittifoqining Pochta rivojlanishi indeksi global reytingida mamlakatimizni yuqori o‘rinlarda bo‘lishini ta'minlash maqsadida Milliy pochtani qo‘llab-quvvatlash yuzasidan Vazirliklar hamda viloyat, tuman va shahar hokimiyat organlariga tegishli topshiriqlar berildi.

Pochta va kuryerlik xizmatlari muhim strategik ahamiyatga ega bo‘lib, har qanday ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, epidemiologik vaziyatlarda ham unga bo‘lgan talab va taklif hech qachon yo‘qolmaydi. Aksincha, doimiy ravishda o‘sib boradi. Bu

esa bojxona sohasi xodimlaridan doimiy ravishda o‘z ustida ishlashni, tizimga yangi innovatsion texnologiyalarni joriy qilishni, pochta xavfsizligini ta’minlash kabi muhim yo‘nalishlarni doimiy takomillashtirishni talab etadi.

Pochta va kuryerlik xizmat ko‘rsatish samaradorligi oshirishning quyidagi strategik maqsadlari mavjud

1. Raqamli iqtisodiyot talablariga mos zamonaviy pochta infratuzilmasini yaratish.
2. Xalqaro logistika zanjirlarida O‘zbekistonning o‘rnini kuchaytirish.
3. Xizmatlar sifatini oshirish orqali mijozlar ishonchini mustahkamlash.
4. Ekologik barqarorlik va “yashil logistika” tamoyillarini joriy etish.
5. Kadrlar salohiyatini oshirish va innovatsion boshqaruvni yo‘lga qo‘yish.

Ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun bir qancha yo‘nalishlarni taklif qilamiz.

Pochta va kuryerlik xizmat ko‘rsatish samaradorligi oshirishning strategik yo‘nalishlari sifatida quyidagilarni alohida ajratib olish maqsadga muvofiqdir:

- Elektron pochta va raqamli platformalar orqali xizmatlarni avtomatlashtirish.
- Mobil ilovalar orqali buyurtma, kuzatuv (tracking), to‘lov va yetkazib berishni boshqarish.
- Sun’iy intellekt va ma’lumotlar tahlili asosida logistika yo‘nalishlarini optimallashtirish.
- Dronlar va robotlar yordamida tezkor yetkazib berish texnologiyalarini rivojlantirish.
- Yirik logistika markazlari va ombor infratuzilmasini rivojlantirish.
- Avtomatlashtirilgan saralash tizimlari (sorting centers) ni joriy etish.
- "Oxirgi kilometr" (last mile**)** xizmatlarini takomillashtirish – ya’ni mijozgacha bo‘lgan oxirgi bosqichda tez va qulay yetkazib berish.
- Yashil logistika (green logistics) tamoyillarini joriy etish – ekologik toza transport vositalaridan foydalanish.
- Xalqaro pochta tarmoqlari (UPU) bilan hamkorlikni kuchaytirish.
- Transchegaraviy e-commerce (chetdan onlayn xaridlar) uchun tezkor kuryer xizmatlarini yo‘lga qo‘yish.
- Hududiy logistika koridorlari (masalan, Xitoy–Markaziy Osiyo–Yevropa yo‘nalishi) orqali tranzit yuk tashish hajmini oshirish.
- Pochta orqali moliyaviy xizmatlar (pochta banki, pul o‘tkazmalari, to‘lov tizimlari).
- E-commerce fulfillment xizmatlari – internet do‘konlar uchun saqlash, saralash va yetkazib berish.
- Korporativ kuryerlik xizmatlari – biznes mijozlar uchun maxsus logistika yechimlari.
- Sotuvdan keyingi xizmatlar – qaytarib olish, almashish, kafolatli qayta yetkazib berish tizimi.

Yuqoridagi yo‘nalishlar asosida pochta va kuryerlik xizmatlari samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Istiqbolli yo‘nalishlar sifatida yuqoridagi yo‘nalishlarni amaliyotga qo‘llash orqali respublikaning barcha pochta tashkilotlarida joriy etish matbuot anjumanlari va davlatning pochta tashkilotlarining rivojlantirish strategiyasi

sifatida pochta tizimi ancha rivojlantiradi. Ushbu tizimning hozirda elektronlashtirilgan variant ham mavjud bo‘lib pochta xizmatiga, kuryerlikga ehtiyojmand fuqarolarimiz uchun qulayliklar yaratib kelmoqda. Foydalanuvchilar UzPOST ning elektron sahifalari orqali ularning elektron xizmatlari bilan tanishishlari mumkin. Ushbu elektron sahifaning faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlar ham sahifaning bir qismida keltirib o‘tilgan, unga ko‘ra, texnologiya rivojlanishi bilan pochta xizmati ham rivojlanganligi, bugungu kunda MDH davlatlarida 20 yildan ortiq vaqtdan buyon zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali sifatli xizmat ko‘rsatib kelayotgan yetakchi pochta operatorlaridan biri ekanligi to‘g‘risida ma’lumotlar berib o‘tilgan. 1991-yilda milliy pochta tizimini va ularning hududiy bo‘linmalarini tuzildi. 1992 yilda esa rasman O‘zbekiston pochtasi tashkil etildi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, pochta soxasida erishilgan har qanday yutuq nafaqat ushbu soxa vakillariga va albatta ushbu xizmatdan foydalanuvchilarga ham juda ko‘p foyda keltiradi. Yillar davomida pochta tizimida turli-tuman yangiliklar bo‘lib kelmoqda, esingizda bo‘lsa ilk maktublar kabutar va boshqa turli jonzotlar orqali amalga oshirilgan, hozirda esa ushbu xizmat ko‘rsatish vostialarini zamonaviy texnikalar va texnologiyalar qurshab olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Daryo (24-yanvar.2020-yil). Qaraldi: 7-aprel 2023-yil. https://daryo.uz/2020/01/24/shavkat-mirziyoyev-ozbekistonda-2020-yilni-ilm marifat-va-raqamli-iqtisodiyotni-rivojlantirish-yili-deb-elon-qildi

2. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda pochta tizimining o‘rni qanday? https://yuz.uz/uz/news/raqamli-iqtisodiyotni-rivojlantirishda-pochta-tizimining-orni qanday

3. Universal postal union. The digital economy and digital postal activities – a global panorama. Published by the Universal Postal Union (UPU) Berne, Switzerland. 2019. 148 pages. https://www.upu.Int/UPU/medIa /upu/publications/Digital-economy-and-postal digital-activities_EN.pdf

4. Pochta xizmati takomillashmoqda. https://uza.uz/oz/posts/pochta-xizmati takomillashmoqda-27-05-2015

5. Pochta tizimini modernizatsiya qilish. https://uz.post/uz/o-deyatelnosti-ao uzbekiston-poctasi

6. Цоколов В.П, Тарасова Н.П, Ливинс В.М. Теоретические средства автоматизатsiи почтовой связи, учебник для ВУЗов. М.- Радио и связь, 1998г.

7. Барсук В.А, Губин Н.М, Батый А.Р. Экономико-математические методы и модели в планировании и управлении в отрасли связи. Учебник для ВУЗов-М. Радио и связь. 1990г.

8. Kenjabaev A.T., Niyazov M. Sh. Uzbekistan as a new logistics digital ecosystem Galaxy international interdisciplinary research journal (GIIRJ) ISSN (E): 2347-6915 VOL. 9, ISSUE 12, DEC. (2021).

To‘rayev Abduvoxid Quldoshevich
SamISI mustaqil izlanuvchisi

YASHIL TEXNOLOGIYALARGA INVESTITSIYA KIRITISH ORQALI NAVOIY VILOYATINING TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Annotatsiya: Maqolada Navoiy viloyatida yashil texnologiyalarga yo‘naltirilgan investitsiyalarning turizm sohasini modernizatsiya qilish, energiya samaradorligini oshirish va hududning barqaror iqtisodiy o‘sishini ta’minlashdagi o‘rni tahlil qilingan hamda bu bo‘yicha tegishli tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *yashil iqtisodiyot, investitsiya, turizm, barqaror rivojlanish, Navoiy viloyati.*

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda turizm sohasining iqtisodiy ahamiyati sezilarli darajada oshdi. Shu bilan birga, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitga minimal zarar yetkazish va energiya samaradorligini ta’minlash masalalari kun tartibiga chiqdi.

Navoiy viloyati – yirik sanoat markazi sifatida tanilgan bo‘lsa-da, unda ekoturizm, geoturizm, ziyorat turizmi va cho‘l turizmi kabi maxsus turlarni rivojlantirish imkoniyatlari keng. Biroq bu imkoniyatlardan samarali foydalanish uchun yashil texnologiyalar asosida infratuzilma modernizatsiyasi zarur.

Tadqiqotimizning asosiy maqsadi – yashil texnologiyalarga yo‘naltirilgan investitsiyalar yordamida Navoiy viloyati turizmini iqtisodiy va ekologik jihatdan barqaror tizimga aylantirish istiqbollarini tahlil qilishdir.

Navoiy viloyati geografik jihatdan cho‘l va tog‘ mintaqalari tutashgan hududda joylashgan bo‘lib, Zarafshon daryosi vodiysi, Nurota tog‘lari, Sarmishsoy petrogliflari, Raboti Malik karvonsaroyi, Qiziltepa ziyoratgohlari kabi obyektlar bilan mashhur. Shunga qaramay, turizm infratuzilmasining aksariyati hali energiya tejovchi va ekologik jihatdan toza yechimlarga moslashmagan.

Viloyatda 2024 yilda 300 mingdan ortiq ichki va 25 mingdan ziyod xorijiy sayyoh qabul qilingan bo‘lib, bu raqam so‘nggi uch yilda 2 barobarga oshgan. Shu sababli, yashil investitsiyalar oqilona yo‘naltirilsa, bu ko‘rsatkichni yanada ko‘paytirish mumkin.

Tadqiqotimizga ko‘ra, yashil texnologiyalar sohasiga kiritilgan har bir 1 mlrd so‘m investitsiya 3–4 yil ichida o‘zini qoplaydi. Quyidagi yo‘nalishlarda investitsiya samaradorligi yuqori baholanadi:

1-jadval.

Yashil texnologiyalar sohasiga kiritilgan investitsiya natijasida kutilayotgan foyda darajasi

Yo‘nalish	Investitsiya turi	Kutilayotgan foyda
Quyosh energiyasi	Mehmonxonalarda 50 kVt quvvatli quyosh panellari o‘rnatish	20–25 % elektr xarajatlari tejaladi
Ekologik transport	Elektr avtobuslar, velosiped ijarasi tizimi	Yo‘lovchi transportida CO_2 chiqindilari 30 % ga kamayadi
Chiqindilarni qayta ishlash	Turistik maskanlarda chiqindilarni saralash va qayta ishlov tizimi	Hudud tozaligi va ekologik imidjning oshishiga erishiladi

Ushbu tahlil shuni ko‘rsatadiki, yashil texnologiyalar nafaqat ekologik, balki iqtisodiy jihatdan ham foydali investitsiya yo‘nalishidir. Xususan, investitsiyalar kiritilishi natijasida:

- Navoiy viloyatida yangi ish o‘rinlari yaratiladi (taxminan 500–700 ta);
- mahalliy aholi orasida ekologik ong oshadi, yoshlar uchun “yashil kasblar” masalan, energiya muhandisi, chiqindilar menejeri, eko-gid kabi yangi yo‘nalishlar paydo bo‘ladi;
- viloyatda turizm obyektlarining energiya mustaqilligi oshib, sanoat shovqini va transport ifloslanishi kamayadi.

Rivojlangan davlatlar tajribasini qaraydigan bo‘lsak, Ispaniyada “Costa del Sol” hududida yashil mehmonxonalar tarmog‘iga kiritilgan investitsiyalar 7 yil ichida 60 % turist oqimini oshirgan, Janubiy Koreyada ekologik transport tarmoqlari orqali sayohatchilar uchun “Zero Emission Tour” dasturi joriy etilgan.

Mazkur modellar asosida Navoiy viloyatida ham “Green Desert Route” brendi ostida Cho‘l turizmini rivojlantirish mumkin.

Bizning fikrimizcha, quyidagi mexanizmlar istiqbolli hisoblanadi:

- Davlat-xususiy sherikchiligi (DXSh) asosida “yashil mehmonxona” loyihalari;
- Investitsion grantlar va preferensiyalar – ekologik loyiha uchun soliq imtiyozlari;
- Mahalliy “Green Found Navai” jamg‘armasi – turizmni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan hududiy fond;
- Xalqaro donorlar bilan hamkorlik (UNWTO, ADB, JICA) orqali texnologik transferlar.

Yashil texnologiyalarga investitsiya kiritish Navoiy viloyati turizm tarmog‘ining strategik rivojlanish yo‘lini belgilaydi. Tadqiqotimizga ko‘ra, bunday investitsiyalar:

- iqtisodiy jihatdan – energiyani tejash, xarajatlarni kamaytirish, investitsiya oqimini ko‘paytirish;
- ijtimoiy jihatdan – yangi ish o‘rinlari yaratish, ekologik madaniyatni shakllantirish;
- ekologik jihatdan – CO_2 chiqindilarini kamaytirish, tabiiy muhitni asrashga yordam beradi.

Navoiy viloyati uchun bu yo‘nalish kelajakda “yashil cho‘l turizmi” brendi ostida xalqaro e’tirofga erishish imkonini beradi.

Yuqoridagi tadqiqotlarimiz natijasida quyidagi takliflarni o‘rinli deb hisoblaymiz:

- Navoiy viloyatida “Yashil turizm investitsiya dasturi – 2030”ni ishlab chiqish;
- har bir tuman kesimida energiya samaradorligi auditi o‘tkazish;
- turizm sohasida “yashil sertifikat” tizimini joriy etish;
- “Green Navai Forum” xalqaro investitsiya anjumanini tashkil etish;
- talabalar uchun “Ekotex va Turizm” yo‘nalishida innovatsion startaplarni qo‘llab-quvvatlash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Karimov M. (2025). Tourism Sustainability in Uzbekistan: Challenges and Prospects. MDPI Economies.
2. Sun J. (2025). Green credit, tourism technology innovation, and sustainable development of tourism industry. Journal of Tourism Economics.
3. Butaboev M., Akhunova Sh. (2023). Uzbekistan’s Transition Strategy to a Green Economy and Its Significance. International Science Journal of Management, Economics & Finance.
4. Ruzmetov B. (2023). Regional features of investment activeness in the Republic of Uzbekistan. E3S Web of Conferences.
5. Bozorov A. (2024). Navoiy viloyatida qayta tiklanuvchi energiya manbalarining iqtisodiy samaradorligi. O‘zbekiston Iqtisodiy Tahlil Jurnali, № 3.
6. Asian Development Bank (2025). Private-Sector Green Transformation in Uzbekistan. ADB Report.

Nazarov Ulmas Alisherovich
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti Magistranti

RESPUBLIKADA OLIY TA’LIM MUASSASALARINING RIVOJLANISH HOLATI VA TENDENTSIYALARI TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta’lim xizmatlari tizimini innovatsion rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, ushbu sohada samaradorlikni oshirish bo‘yicha xalqaro tajribalardan keng ko‘lamda foydalanish, ta’lim xizmatlari bozorining konyunkturasi o‘zgarishi hamda oliy ta’lim muassasalarining malakali

ilmiy salohiyatga ega bo‘lgan kadrlar bilan ta’minlash yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so’zlar: oliy ta'lim, oliy ta'lim xizmatlari, ta'lim xizmatlari bozori, innovatsiyalar, innovatsion faoliyat, samaradorlik,marketing, kadrlar tayyorlash.

Respublikamiz ta’lim siyosatida asosiy o‘rinlardan birini egallab turgan masala o‘qituvchi kadrlar tayyorlash va o‘qituvchining kasbiy faoliyatida alohida e’tibor qaratilayotgan masalalardandir. O‘qituvchining kasbiy mahorati va malakasi o‘qituvchilik kasbini obro‘li, o‘qituvchi mehnatini yanada qiziqarli, mazmunli va samaraliroq qiladi. O‘qituvchilik kasbi va obro‘-e’tiborining pasayib ketishida bir qator o‘qituvchilarning kasbiy mahorati va malakasi pastligi ham kam rol o‘ynamasligi hech kimga sir emas. O‘qituvchining o‘z kasbi bo‘yicha kasbiy mahorati va malakasi o‘quvchilarni yaxshiroq o‘qishga, ta’lim jarayonida chuqurroq va har tomonlama bilim, ko‘nikma va odatlarga ega bo‘lishga, axloqiy- qadriyatlarni yanada mukammal egallashga, raqobatbardosh bo‘lishga yordam beradi.

Yurtimizda faol, intiluvchan, iqtidorli va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, zamonaviy bilim hamda kasblarni chuqur egallagan, bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchi bo‘lgan yoshlarni voyaga etkazish uchun barcha shart-sharoit va imkoniyatlar yaratilgan. Bugungi kunda fan va texnika rivoji ta’lim va uning natijalariga qo‘yiladigan talablarni tubdan o‘zgartirishni talab etmoqda. Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy rivojlanishiga motivation tayyorgarlik omillari sezilarli darajada talab kuchaymoqda.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning “Yoshlarimiz mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektualva ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqiyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”, degan fikrlari ham yangi O‘zbekistonimiz yoshlarini erkin fikrlashni tarkib toptirishga qaratilayotgani ham e’tibordan holi emas. Shunday ekan biz o‘qituvchilar hozirgi yangi davr talabi asosida darslarni zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil qilishimiz oldimizdagi yuksak vazifalardan biridir.

So‘nggi yillarda ta’limni rivojlantirish, uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yangi axborot-kommunikatsiya va o‘qitish texnologiyalarini qo‘llash, ixtisoslik darajasini oshirish va ta’lim sohasida bir qator muvaffaqiyatli ishlar amalga oshirildi va amalga oshirilmoqda. Respublikamizda olib borilayotgan ta’lim islohotlari pedagogik innovatsiyalarga keng yo‘l ochib beradi, shu bilan birga ta’lim standartlariga mos keladigan innovatsiyalarni amalga oshirish va innovatsiyalarni qo‘llash zaruratini tug‘dirmoqda. Ana shu zaruratdan kelib chiqqan holda o‘qituvchilarning kasbiy mahorati va malakasini oshirish bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biriga aylanib bormoqda. Dunyoda ro‘y berayotgan pedagogik yangiliklarni o‘zlashtirish, ulardan foydalanish va yangilik yaratish orqali pedagogik faoliyat mazmunini chuqurlashtirish ta’limimiz oldida turgan dolzarb muammodir.

OTM tomonidan taqdim qilingan ta’lim xizmatlari sifati davlat organlari tomonidan rasmiy akkreditatsiya bo’yicha baholash o’tkazilishi asosida amalga oshiriladi. Ularning bitiruvchilari bilimi natijalari esa ish beruvchi (tadbirkor)lar

tomonidan baholanadi. Ammo aytish kerakki, qaysi muhim omillar oliy ta’lim jarayoniga ta’sir etadi? Albatta, bizning fikrimizcha, bularga quyidagilar kiradi:

- oliy ta’lim tizimini moliyalashtirish;
- qulay va zamonaviy ta’lim sharoitlarini yaratish;
- OTMlarning akademik va moliyaviy mustaqilligi va qo’shimcha pullik ta’lim xizmatlarni ko’rsatish imkoniyatlarining mavjudligi;
- xususiy oliy ta’lim muassasalarini yaratilishi va rivojlanishi;
- innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta’lim jarayoniga joriy etilishi;
- kadrlar tayyorlashning ko’p darajali tizimini joriy etilishi;
- OTMlarning yuqori rivojlangan tashkiliy-iqtisodiy tarkibining shakllanganligi;
- ta’lim jarayonining yuqori darajada texnik qurollanganlik va boshqalar.

Shu bilan birga, oliy ta’lim tizimida talabalarning bilimini yuqori darajaga ko’taruvchi eng muhim resurs – ilmiy-pedagogik kadrlar hisoblanadi. Ilmiy-pedagogik kadrlarning malakasi, kasbiy va pedagogik mahorati, kompetentsiyasi, ilm-fanni rivojlantirishdagi munosib hissasi kabi bir qator omillar kelgusida OTM bitiruvchilarining bilim va mutaxassislik darajasini oshirish imkonini beradi. Shuning uchun OTM rahbariyati ilmiy-pedagogik kadrlarning rolini oshirish, motivatsiya berish va samarali boshqarish usullarini joriy etishi kerak. Ushbu holat oliy o’quv yurtlarining deyarli barcha faoliyat ko’rinishlari va turlari bilan uzviy bog’liqdir. Oliy ta’lim tizimida o’quv jarayonlari sifatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish raqobatbardoshlikka erishishda muhim omil hisoblanadi.

O’zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimini barqaror rivojlantirish va raqobatbardoshligini oshirish bo’yicha tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Respublikamizda faoliyatni amalga oshirayotgan OTMlari soni 2016-2022 yillarda 154 taga ko’payib, bu ko’rsatkich mazkur yillar oralig’ida 2,2 martaga oshgan. Tahlil qilinayotgan yillarda OTMlarida o’iyotgan talabalar soni OTMlar soniga muvofiq ravishda 2016/2017 o’quv yilida 268,3 mingtadan 2021/2022 o’quv yilida 808,0 mingtaga ko’paygan.

Respublika OTMlarining kunduzgi bo’limlarida tahsil oladigan talabalar soni 2016/2017 o’quv yilida 267,9 mingtani, 2021/2022 o’quv yilida 553,4 mingtani tashkil qilgan. Ta’limning kechki bo’limiga talabalarning qabuli 2019/2020 o’quv yilidan boshlanib, bu ko’rsatkich hozirgi kunda 9,0 mingtani tashkil qilmoqda. Shuningdek, oliy ta’limning sirtqi ta’lim shakli bo’yicha o’qiyotganlar soni 2016/2017 o’quv yilida bor-yo’g’i 400 ta talaba o’qiyotgan bo’lsa, 2020/2022 o’quv yilda bu ko’rsatkich 228,0 mingtaga ko’paygan. Respublika miqyosida har 10000 aholiga to’g’ri keladigan talabalar soni 2016/2017 o’quv yilida 84 tani tashkil etgan bo’lsa, bu ko’rsatkich muntazam o’sish tendentsiyasiga ega bo’lib, 2021/2022 o’quv yilida 231 tani tashkil qilgan. Tahliliy ko’rsatkchilarga nazar solsak, 2019-2022 yillarda OTMlarga qabul qilingan jami talabalar soni 2021/2022 o’quv yilida 235,8 ming kishiga, ya’ni tahlil etilayotgan yillarda 3,8 martaga ko’paygan. Shundan kunduzgi bo’limga qabul qilingan talabalar soni 2,7 martaga oshgan. Mamlakatimizda har 10000 aholiga nisbatan bitirgan mutaxassislar soni 48,0 %ga o’sgan (1.1-jadval).

1.1- jadval

O’zbekistonda faoliyat yuritayotgan universitetlar soni(o’quv yili boshiga, birlik)

№	Ko’rsatkichlar	yillar						2016-2022 y.y. o’sish, %
		2016/2017	2017/2018	2018/2019	2019/2020	2020/2021	2021/2022	
1.	Universitetlar soni, birlikda	27	27	45	58	64	78	2,9 marta
2.	Ulardagi talabalar soni, ming kishi	126,3	140,2	192,3	244,0	328,7	461,4	3,6 marta
3.	Qabul qilingan talabalar soni, ming kishi	29,2	42,5	66,5	78,5	98,1	120,9	4,1 marta
4.	Bitirgan mutaxassislar soni, ming kishi	32,5	33,7	34,7	36,3	46,8	61,1	1,9 marta

Hozirgi kunda universitetlarning asosiy vazifalari – innovatsion faoliyatni rivojlantirish, istiqbolda mutaxassislarga talabni aniqlash, ta’lim hamda biznes o’rtasidagi samarali integratsion jarayonlarni rivojlantirish hamda OTMlarda ilmiy tadqiqot va tajriba kostruktorlik ishlanmalarini moliyalashtirishning tashqi manbalarini kengaytirish hamda xorijiy OTMlar bilan hamkorlikning zamonaviy usullaridan keng foydalanish kabilar hisoblanadi.

Xulosa va tavsiyalar:

Olib borilgan tadqiqotlar quyidagilarni ko’rsatmoqda:

1. Universitetning innovatsion faoliyatini baholashning yagona tizimini yaratish zarurati oliy o‘quv yurtlarida innovatsion muhit va infratuzilmani rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha davlat dasturlarini amalga oshirishda byudjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini nazorat qilish bilan bog‘liq.

2. Innovatsion muhit darajasini va uning barcha elementlarining samaradorligini doimiy ravishda kuzatib borish juda muhimdir. Biroq, universitetlarning innovatsion faoliyatini baholashning mavjud usullaridan foydalangan holda, universitetning innovatsion muhiti darajasi, uning faolligi va tashqi biznes muhitiga muvofiqligi haqida to'g'ri xulosa chiqarish juda qiyin. Baholash mezonlari universitetdagi innovatsion jarayon kontseptsiyasining mohiyatini ochib bera olmaydi, uning samaradorligi, natijalari va hududdagi tadbirkorlik va ishlab chiqarish ehtiyojlariga moslashuvi haqida xulosa chiqarishga imkon bermaydi.

3. Integral ko'rsatkichning qiymatini oshirish uchun universitet ma'lum sohalarda past ko'rsatkichlarni, masalan, innovatsiyalar rivojlanishini rag'batlantiradigan ta'lim faoliyati darajasini teng ravishda yaxshilashi kerak. Bu unga asosiy rivojlanish tendentsiyalarini belgilash va raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi Shunday qilib, birinchi yo'nalish - universitetda innovatsiyalarni

yaratish bo'yicha faoliyat - innovatsiyalarni yaratish, o'zlashtirish va tarqatish jarayoni bilan bevosita bog'liq bo'lgan ish turlarini o'z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Axunova G. O‘zbekistonda ta’lim xizmatlari marketingi muammolari. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim Vazirligi, Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti. – T.: Iqtisod-Moliya, 2005 y. – 244 b.;

2. Баженова В.С. Непрерывное образование в условиях трансформации экономической системы. – М.: Изд. Рос. экон. акад, 2000-216 с.

3. Воронин А.В. Университет как системообразующий региональный научно- инновационный комплекс // Высшее образование в России. – 2010. – №8–9. – С. 62-68.

4. Высшее образование сегодня. 2008. № 8. Издательская группа «Логос», 2008. - С. 5.

5. Гребенюк И.И., Голубцов Н.В., Кожин В.А., Чехов К.О., Чехова С.Э., Федоров О.В. Анализ инновационной деятельности высших учебных заведений России: монография. / под. ред. И.И. Гребенюк – М.: Изд-во «Академия Естествознания», 2012. – 464 с.

6. Захарова Л.В. Формирование и развитие образовательных услуг: автореф. дисс. конд. экон. наук / Белград. 2002-235с.;

7. Лукашенко М.А. Высшие учебное заведение на рынке образовательных услуг: актуальные проблемы управления. – М.: Изд. Маркет ДС, 2003. -358 с.;

Мамаризоев Жахонгир Исохонович – *магистрант университета Мировой Экономики и Дипломатии*

ГЛОБАЛЬНОЕ РАССЛОЕНИЕ: БЕДНОСТЬ И СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ НЕРАВЕНСТВО В ЦИФРАХ

Аннотация. В статье рассматривается динамика глобальной бедности и социально-экономического неравенства в период с 2000 по 2024 год. Особое внимание уделено странам с наибольшей долей населения, живущего в условиях крайней нищеты, а также влиянию глобальных кризисов на изменение этих показателей. Представлены статистические данные Всемирного банка, проанализированы региональные различия и выявлены факторы, способствующие сохранению неравенства. Делается вывод о необходимости устойчивой социальной политики и комплексных международных усилий для преодоления бедности.

Ключевые слова. Глобальная бедность, социальное неравенство, уровень доходов, развивающиеся страны, Всемирный банк, индекс Джини, крайняя нищета, распределение богатства, регионы, устойчивое развитие.

Введение. В XXI веке глобальное неравенство и бедность остаются одними из центральных вызовов развития. Несмотря на значительный прогресс в сокращении крайней нищеты за последние десятилетия, её масштабы всё ещё

огромны, и многие регионы продолжают отставать. По оценкам Всемирного банка, к середине 2025 года около 831 миллиона человек живут в условиях крайней нищеты (на доход менее $3 в день) по международной границе бедности. Это составляет примерно 10 % населения мира.[37]

Ранее оценивалось, что в 1990 году более 2,3 млрд человек находились за чертой крайней нищеты, то есть доля нищих сократилась с ~ 44 % до ~ 10 %. Однако прогресс в снижении бедности замедлился: на фоне последующих кризисов – пандемии COVID-19, геополитических потрясений, влияния климатических шоков - многие страны столкнулись с откатом.

Кроме того, большая часть людей, остающихся в крайней нищете, сконцентрирована в регионах с высоким уровнем нестабильности и конфликтов: Субсахарская Африка на 2024-2025 годы насчитывает примерно две трети всех живущих в крайней нищете.

В плане неравенства доходов глобальная ситуация также крайне неоднородна. Согласно данным отчёта World Inequality, 10 % самых богатых получают порядка 52 % глобального дохода, тогда как нижние 50 % населения получают лишь около 8 % всех доходов.[38]

При этом доля богатства распределена ещё неравномернее: нижняя половина населения владеет лишь 2 % чистого мирового богатства, а верхняя часть – большинство остального.

Такие статистики демонстрируют, что бедность и неравенство – не просто бытовые проблемы отдельных государств, а системные характеристики мирового экономического устройства.

Результаты исследования. Чтобы более детально отразить картину глобального расслоения, важно обратиться к странам, где бедность принимает наиболее экстремальные формы. Несмотря на общее снижение доли бедного населения в мире, есть государства, где более половины граждан живут на сумму менее $3 в день – официальную границу крайней нищеты по методологии Всемирного банка. Эти страны представляют собой пример сочетания институциональной уязвимости, экономической отсталости и хронической социальной нестабильности.

На следующем рисунке представлены данные по пяти странам, в которых в 2024–2025 гг. зафиксирована самая высокая доля населения, живущего за чертой крайней бедности.

Приведённые данные свидетельствуют о крайне высоком уровне бедности в ряде стран, в первую очередь в Центральной и Восточной Африке. В каждой из представленных стран более 60 % населения живёт на сумму менее $2.15 в день (по паритету покупательной способности), что говорит о глубокой структурной бедности и системных барьерах развития.

[37] https://www.worldbank.org/en/topic/poverty/overview
[38] https://wir2022.wid.world/chapter-1



Рисунок 1. Страны с наибольшей долей населения в крайней бедности за 2024 г.[39]

– Бурунди демонстрирует наивысший уровень крайней бедности – до 75 % населения. Страна десятилетиями страдает от политической нестабильности, отсутствия доступа к образованию, дефицита инвестиций и крайне слабой инфраструктуры.

– В Южном Судане и Центральноафриканской Республике ситуация лишь незначительно лучше – около 65–70 % населения за чертой нищеты. Здесь ключевыми факторами бедности выступают военные конфликты, миграционные кризисы и разрушенные государственные институты.

– Малави и Демократическая Республика Конго – страны с хроническими проблемами в аграрном секторе, резкими колебаниями цен на сырьё, слабым уровнем цифровизации и ограниченным доступом к базовым социальным услугам. Здесь около 60–65 % населения живут в условиях крайней бедности.



Рисунок 2. Доля населения мира, живущего на менее чем $3.00 в день (2021 PPP), 2000–2024[40]

В 2000–2024 гг. доля населения мира, живущего менее чем на $3.00 в день (PPP, 2021), демонстрировала волнообразную динамику. В 2000 году

[39] https://data.worldbank.org/indicator/SI.POV.DDAY?locations=1W&utm
[40] https://data.worldbank.org/indicator/SI.POV.DDAY?locations=1W&utm

показатель составлял 20,3 %, а уже в 2001 году вырос до 22,7 %, вероятно, под влиянием посткризисных эффектов конца 1990-х.

С 2002 по 2008 годы наблюдалось устойчивое снижение до 10,2 % - на фоне экономического роста в Азии, усиления торговли и снижения социальной уязвимости. Однако в 2010 году, после глобального финансового кризиса, бедность временно увеличилась до 12,3 %.

С 2011 по 2017 годы доля бедных вновь стабильно сокращалась – до исторического минимума в 5,9 %. Это было связано с ростом международной помощи и реализацией глобальных программ.

В 2018 году бедность неожиданно выросла до 8,4 %, затем в 2020–2021 гг. – до 9,85 % из-за пандемии COVID-19. Это отражает уязвимость низкодоходных стран к внешним шокам.

В 2023 году фиксируется краткое снижение до 5,76 %, но уже в 2024 году показатель снова вырос – до 8,7 %. Причины – инфляция, климатические потрясения и нестабильность в ряде стран.

Несмотря на общий тренд к снижению, бедность остаётся неустойчивой: она резко реагирует на глобальные кризисы, что требует устойчивых и адаптивных политик социальной защиты.

Заключение. Анализ глобального расслоения по уровню бедности и социально-экономическому неравенству за 2000–2024 годы показывает, что несмотря на долгосрочный тренд к снижению крайней нищеты, мир остаётся структурно неравномерным. Масштабы бедности в отдельных регионах, особенно в странах Субсахарской Африки, остаются критическими. В то же время периодические глобальные шоки – экономические кризисы, пандемии, геополитические конфликты – продолжают оказывать существенное влияние на наиболее уязвимые страны, нарушая позитивные тенденции.

Социально-экономическое неравенство остаётся устойчивым элементом мировой экономики: верхние 10 % доминируют в распределении доходов и богатства, в то время как нижние 50 % продолжают сталкиваться с системными ограничениями доступа к возможностям развития.Таким образом, борьба с бедностью и глобальным неравенством требует не только увеличения финансирования и программ поддержки, но и структурных изменений в институтах, распределении ресурсов, международной солидарности и устойчивом управлении. Только комплексный подход позволит минимизировать риски повторного углубления бедности в условиях будущих глобальных вызовов.

Список использованной литературы

1. Бобков В. Н., Квачев В. Г., Щербакова О. И. Нобелевский лауреат Ангус Дитон и развитие российской науки: исследование уровня и качества жизни, методы оценки и измерения неравенства и бедности //Уровень жизни населения регионов России. – 2015. – №. 4. – С. 7-27.
2. https://wir2022.wid.world/chapter-1
3. https://www.worldbank.org/en/topic/poverty/overview
4. https://data.worldbank.org/indicator/SI.POV.DDAY?locations=1W&utm

Umirzaqova Ravshan
Qoraqalpoq davlat universiteti
“Moliya va moliyaviy texnologiyalar” yo’nalishi 3-kurs talabasi

YASHIL IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI VA STRATEGIYALARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada yashil iqtisodiyotning mazmuni, uning barqaror rivojlanishdagi o‘rni, global va milliy darajadagi rivojlanish tendensiyalari hamda strategik yo‘nalishlari tahlil qilingan. Unda iqtisodiy o‘sishni ekologik barqarorlik bilan uyg‘unlashtirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini kengaytirish va yashil moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Dunyo mamlakatlarida yashil texnologiyalar, chiqindilarni kamaytirish siyosati hamda innovatsion yechimlarga asoslangan tendensiyalar kengayib bormoqda. O‘zbekiston ham ushbu yo‘nalishda 2023–2030 yillarga mo‘ljallangan “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi”ni amalga oshirish orqali ekologik xavfsiz va barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashni maqsad qilgan.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, yashil texnologiyalar, qayta tiklanuvchi energiya, ekologik siyosat, yashil moliyalashtirish.

O‘zbekistonning 2030 yilgacha mo‘ljallangan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasini ta'minlashda barqaror rivojlanishga erishish vositalari hisoblangan iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlarni o'zaro muvofiqlashtirish murakkab vazifa hisoblanadi. Iqtisodiy va ijtimoiy komponentlar jamiyat oldiga bir avlod mobaynida adolatga erishish va aholining kambag‘al guruhlariga maqsadli yordam ko‘rsatish kabi yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Iqtisodiy va ekologik komponentlarning atrof muhitga tashqi ta'siri qiymatini baholashning zarurligi bilan bog'liq yangi g'oyalar va yondoshuvlarning shakllanishiga olib keldi. Barqaror iqtisodiy rivojlanishning ijtimoiy va ekologik komponentlari esa avlodlar ichida va avlodlar o'rtasida tenglikni ta'minlash kabi masalalarning dolzarbligini yanada oshirmoqda. Mamlakatimizda "yashil iqtisodiyot" asosida barqaror rivojlanishni ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019 yil 4 oktyabrda tasdiqlangan "2019-2030 yillarda O'zbekiston Respublikasini "yashil iqtisodiyot"ga o‘tish strategiyasi" muhim dasturiy amal hisoblanadi. "Yashil iqtisodiyot"ga o'tishning muhim vazifalari qatoriga iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslarni oqilona iste'mol qilish kiradi. Ushbu belgilangan maqsadli indikatorlarga texnologiyalarni modernizatsiya qilish va moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish orqali erishiladi. 2030 yilgacha bo‘lgan davrda strategiyani amalga oshirish jarayonida yalpi ichki mahsulot birligiga issiqxona gazlarining solishtirma chiqindilari 2010 yil darajasidan o'n foizga kamayadi, aholi va iqtisodiyot tarmoqlarining yuz foizga qadar zamonaviy, arzon va ishonchli elektr ta'minotidan foydalanish ta'minlanadi. Ekologik jihatdan yaxshilangan motorli yoqilg'i va avtomobil ishlab chiqarish hamda ulardan foydalanish kengaytiriladi, elektr transporti rivojlanadi.

Yashil iqtisodiyot tabiiy muhitning tarkibiy qismi bo‘lib, uning bir muhim jabhasi hisoblanadi. Yashil iqtisodiyot tushunchasi iqtisodiy fanlar va falsafaning ko‘plab boshqa sohalaridagi g‘oyalarni ham o‘z ichiga oladigan tabiat va jamiyat bilan bog‘liq ekologik iqtisodiyot, atrof-muhit iqtisodiyoti, resurslarga asoslangan iqtisodiyot, aholining rivojlanishi qonuniyatlari, demogra□k holat, feminizm iqtisodiyoti kabi yashil tabiatni sof saqlab qolish siyosati bilan bog‘liq iqtisodiyotdir.

Bugungi kunda ko‘plab davlatlar yashil iqtisodiyotni milliy strategiyalar darajasida qo‘llab-quvvatlamoqda. Xususan, Yevropa Ittifoqi 2050 yilgacha “karbonsiz iqtisodiyot”ga o‘tishni maqsad qilgan bo‘lsa, Xitoyda esa toza energiyaga sarmoyalar ko‘paymoqda. AQShda esa qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o‘tish jarayoni tezlashmoqda. Innovatsiyalar bu jarayonning yuragi hisoblanadi. Quyosh panellari, shamol turbinalari, elektromobillar, aqlli shahar texnologiyalari, chiqindilarni qayta ishlash tizimlari va raqamli monitoring vositalari yashil iqtisodiyotning asosiy yo‘nalishlariga aylanmoqda. Sun’iy intellekt, IoT (Internet of Things) va katta ma’lumotlar (Big Data) ekologik barqarorlikni boshqarishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Globallashuv jarayoni jahon iqtisodiyotida sezilarli o'zgarishlarga olib kelmoqda. Yangi iqtisodiy model va global integratsiyaning kuchayishi, shuningdek, texnologik yangilanishlar va moliyaviy tizimlarning o'zgarishi jahon iqtisodiyotining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu maqolada globallashuv sharoitida jahon iqtisodiyotining rivojlanish tendensiyalari ko'rib chiqiladi.

1. Xalqaro savdo va investitsiyalarning o'sishi. Globallashuv jarayonida xalqaro savdo va kapital harakati kuchaymoqda. Tovarlar va xizmatlarning transchegaraviy harakati o'sib borar ekan, dunyo bo'ylab ishlab chiqarish va iste'mol zanjirlari tobora integratsiyalanib bormoqda. Xalqaro investitsiyalarning oshishi ham iqtisodiy o'sishning muhim omili hisoblanadi, chunki u global bozorlar o'rtasida integratsiyani kuchaytiradi va mamlakatlar o'rtasida resurslarni taqsimlashni optimallashtiradi.

2. Texnologik yangilanish va raqamli iqtisodiyot. Texnologik inqilob va raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi jahon iqtisodiyotida yangi tendensiyalarni shakllantirmoqda. Yangi texnologiyalar, jumladan, sun'iy intellekt, robototexnika, katta ma'lumotlar (big data), blokcheyn va raqamli valyutalar ishlab chiqarish va savdoda yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Shuningdek, elektron tijoratning o'sishi va raqamli to'lov tizimlarining joriy etilishi iqtisodiy jarayonlarni soddalashtirmoqda va xalqaro savdo hajmini oshirmoqda.

3. Moliyaviy tizimlar va global moliya bozorlarining o'zgarishi. Moliyaviy tizimlar va bozorlar o'rtasida o'zaro bog'liqlik kuchaymoqda. Global moliyaviy inqirozlar va ularning ta'siri, xalqaro moliyaviy institutlar va davlatlar o'rtasidagi hamkorlik, shuningdek, moliyaviy regulyatsiyalar va xavfsizlik choralari iqtisodiyotda barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan yangi usullarni ishlab chiqishga olib keldi. Yangi moliyaviy instrumentlar, masalan, kripto-valyutalar va fintech (moliyaviy texnologiyalar) sektori rivojlanmoqda.

4. Ijtimoiy va ekologik masalalar. Globallashuv jarayonida ijtimoiy va ekologik masalalar ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Atrof-muhitni muhofaza qilish, barqaror rivojlanish va ijtimoiy tenglikni ta'minlash bo'yicha global ko'p tomonlama

shartnomalar va tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Ekologik barqarorlikni ta'minlash va energiya samaradorligini oshirish, shuningdek, ijtimoiy adolatni ta'minlash iqtisodiy rivojlanishning asosiy yo'nalishlariga aylangan.

5. Multilateral va regional hamkorlik. Global integratsiya jarayonida mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy va savdo aloqalari kuchaymoqda. Xalqaro tashkilotlar, masalan, Jahon savdo tashkiloti (WTO), Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF), Jahon banki va boshqa ko'plab regionlararo va xalqaro tashkilotlar global iqtisodiy muammolarni hal qilishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, regional iqtisodiy integratsiya va savdo kelishuvlari (masalan, Yevroosiyo Ittifoqi, AFTA va boshqalar) iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga qaratilgan yangi mexanizmlar sifatida rivojlanmoqda.

Yashil iqtisodiyot — bu iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy farovonlikni ta’minlash bilan birga, atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga asoslangan rivojlanish modeli hisoblanadi. Uning asosiy maqsadi — iqtisodiy faoliyatni ekologik barqarorlik bilan uyg‘unlashtirishdir. Shu bois, yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish strategiyalari kompleks yondashuvni talab qiladi.

1. Yashil moliyalashtirish va investitsiya mexanizmlari. Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda moliyaviy resurslarning samarali taqsimlanishi muhim ahamiyatga ega. Yashil obligatsiyalar, yashil kreditlar, ekologik soliq imtiyozlari va davlat-xususiy sheriklik dasturlari orqali investitsiyalarni ekologik loyihalarga yo‘naltirish strategiyaning markaziy yo‘nalishlaridan biridir. Bu yondashuv korxonalarni resurslarni tejovchi texnologiyalarni joriy etishga rag‘batlantiradi.

2. Energiya samaradorligi va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini kengaytirish. Barqaror iqtisodiyot uchun energiya xavfsizligi va ekologik tozalik muhim o‘rinda turadi. Quyosh, shamol, biogaz va gidroenergiya manbalariga sarmoya kiritish, ularning ulushini oshirish orqali uglerod izini kamaytirish mumkin. Energiya samarador texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish iqtisodiy o‘sish bilan birga energiya tejamkorligini ham ta’minlaydi.

3. Atrof-muhitni muhofaza qilish va chiqindilarni kamaytirish siyosati. Ekologik barqarorlikni ta’minlash uchun chiqindilarni kamaytirish, qayta ishlash, resurslardan aylanma (tsirkulyar) iqtisodiyot tamoyili asosida foydalanish zarur. Shahar infratuzilmasida “yashil arxitektura” konsepsiyasini tatbiq etish, ekologik transport (elektr va gibrid avtomobillar) ulushini oshirish ham muhim yo‘nalishlardan biridir.

4. Innovatsiyalar va raqamli texnologiyalar integratsiyasi. Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar va raqamli yechimlar katta rol o‘ynaydi. Sun’iy intellekt, IoT (Internet of Things) va raqamli kuzatuv tizimlari yordamida energiya sarfini tahlil qilish, ekologik risklarni prognoz qilish va resurslardan oqilona foydalanish mumkin.

5. Davlat siyosati va xalqaro hamkorlik. Davlatning normativ-huquqiy siyosati yashil iqtisodiyotni rag‘batlantiruvchi muhim omildir. Yashil iqtisodiyotga oid milliy strategiyalar, soliq imtiyozlari, ekologik standartlar va xalqaro bitimlar (masalan, Parij kelishuvi) ning amalga oshirilishi barqaror natijalarga erishishni ta’minlaydi. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar va moliyaviy institutlar bilan hamkorlik yashil loyihalarni kengaytirishga yordam beradi.

6. Ta’lim, madaniyat va aholining ekologik ongini oshirish. Barqaror rivojlanish faqat iqtisodiy va texnologik choralar bilan emas, balki inson kapitalining rivoji bilan ham bog‘liq. Ekologik madaniyatni rivojlantirish, yoshlar orasida yashil tafakkurni shakllantirish, ta’lim tizimida ekologik fanlarni keng joriy etish strategiyaning muhim elementi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda yashil iqtisodiyot bugungi kunda iqtisodiy o‘sishning yangi, barqaror va ekologik mas’uliyatli modelini ifodalaydi. Uning rivojlanish tendensiyalari global miqyosda energiya samaradorligi, ekologik innovatsiyalar va resurslardan oqilona foydalanishga yo‘naltirilgan. Yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish strategiyasi — bu iqtisodiy faoliyatni ekologik barqarorlik bilan uyg‘unlashtiruvchi siyosat bo‘lib, u yashil moliyalashtirish, qayta tiklanuvchi energiya, raqamli texnologiyalar, chiqindilarni kamaytirish va aholining ekologik ongini oshirish orqali amalga oshiriladi. Davlatning faol ishtiroki, xalqaro hamkorlik va innovatsion yondashuvlar ushbu strategiyaning muvaffaqiyatini belgilaydi. Shu bois, yashil iqtisodiyotga o‘tish O‘zbekiston va jahon iqtisodiyotining uzoq muddatli barqaror o‘sishining eng muhim omillaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 4 октябрдаги "2019 - 2030 йиллар даврида Ўзбекистон Республикасининг "яшил" иктисодиётга ўтиш стратегиясини тасдиклаш тўғрисида"ги ПҚ4477-сон Карори.
2. Acumen: International Journal ofMultidisciplinary ResearchISSN: 3060-4745IF (Impact Factor)10.41 / 2024
3. United Nations Environment Programme (UNEP). *Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication.* – UNEP, 2011.
4. https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Qurbonov Tolmasjon Namoz o‘g‘li
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Iqtisodiyot fakulteti talabasi

“YASHIL IQTISODIYOT”NING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI

Annotatsiya: Maqolada “Yashil iqtisodiyot”ni barqaror rivojlantirish bo‘yicha nazariy va amaliy adabiyotlar o‘rganilgan. Bunda global hamda mamlakatimizning ekologik muammolari tahlil qilinib, “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish hamda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmga bo‘lgan zaruriyati asoslab berilgan. Shuningdek, mamlakatimiz “Yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, atrof-muhit, barqaror rivojlanish, energiya samaradorligi, yashil investitsiyalar, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, resurslardan oqilona foydalanish.

Bugungi kunda CO_2 kabi ifloslantiruvchi moddalarning yuqori kontsentratsiyasi dunyo bo‘ylab o‘rtacha haroratning oshishi, dengiz sathining

koʻtarilishi va keskin ob-havo hodisalarini keltirib chiqarib, iqlim oʻzgarishiga qarshi kurashmaslik insoniyat uchun jiddiy oqibatlarga olib kelmoqda.

Global iqlim oʻzgarishi va tabiiy resurs zaxiralarining kamayishi iqtisodiy jihatdan ham holat yaxshi emasligini anglatadi. Oxford Economics' Global Climate Scenarios[1] modeli tahliliga koʻra, iqlim oʻzgarishining nazoratsiz davom etishi 2050-yilga borib global iqtisodiy faoliyatni 6,5 foizga kamaytiradi. 2050-yildan keyin esa bu ta'sir yanada ogʻirlashib, jahon YAIMiga yanada kuchli zarba beradi. Bu hukumatlar, biznes sub'yektlari va investorlar tomonidan qat'iy choralar koʻrilishini taqozo etadi. Buning uchun yashil iqtisodiyotga oʻtish boʻyicha tub islohotlar zarur — bu faqat energetika va transport kabi muhim tarmoqlardagina emas, balki butun iqtisodiy tizimda, jumladan, qurilish sohasi, qishloq xoʻjaligi va moliyaviy xizmatlar sektorida ham amalga oshirilishi kerakligini taqazo etadi.

Mamlakatimizda aholi sonining koʻpayishi cheksiz ehtiyojlarini anglatadi. Bu ehtiyojlarni qondirish resurslardan unumsiz foydalanishga olib keldi. Natijada katta hajmda yer osti boyliklarini qazib olish - resurs zaxirasiga hamda IES va yirik sanoat korxonalarining qurilishi atrof-muhitga talofat yetkazib kelmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish mamlakat miqyosda yashil iqtisodiyotga oʻtish zaruriyatini anglatadi. "Yashil iqtisodiyot" esa atrof-muhit bilan bogʻliq muammolarni bartaraf etish va unga zarar yetkazmasdan faoliyatni amalga oshiradigan iqtisodiyotdir.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yil 4-oktabrda tasdiqlangan "2019 - 2030-yillar davrida Oʻzbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga oʻtish strategiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida"[2]gi Qarori tasdiqlandi. Bunda energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish va atrof-muhitni muhofaza qilishga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, mamlakatimizda tarkibiy oʻzgartirishlar, iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarini modernizatsiya qilish va hududlarni muvofiq rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda; shu munosabat bilan 2019-yilning 8–9-iyul kunlari Toshkentda Yevropa va MDH mamlakatlarining "yashil" iqtisodiyot boʻyicha mintaqaviy vazirliklar konferensiyasi oʻtkazilib, normativ-huquqiy baza va siyosatni takomillashtirish hamda davlat-xususiy sheriklik orqali innovatsion "yashil" investitsiyalarni ragʻbatlantirish masalalari muhokama qilindi.

Unga koʻra, jadallashayotgan sanoatlashtirish va aholi koʻpayishi resurslarga boʻlgan talabni oshirib, atrof-muhitga antropogen bosimni kuchaytirmoqda hamda issiqxona gazlari ajratilishining ortishiga sabab boʻlmoqda; iqtisodiyotdagi energiya samaradorligi pastligi, tabiiy resurslardan nojoʻya foydalanish, texnologiyalar yangilanishining sekinligi va "yashil" yechimlarni tatbiq etishda kichik biznesning yetarli darajada ishtirok etmasligi barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni murakkablashtirmoqda. Shu bois, "yashil" texnologiyalarni joriy etish va uzluksiz oʻtishni ta'minlash uchun tizimli, uzoq muddatli strategiya va uning amalga oshirilishini qoʻllab-quvvatlaydigan siyosiy, tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlar zarur.

Yuqoridagi zaruriyatlardan kelib chiqib mamlakatimizda 2030-yilgacha "yashil" iqtisodiyotga oʻtish, yashil energiya ta'minotini kuchaytirish va "yashil" oʻsishni ta'minlash boʻyicha maqsadli koʻrsatkichlar belgilangan (1-jadval).

1-jadval.

2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va “yashil” o‘sishni ta’minlash bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlar[3]

T/r	Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	2022-yil	2024-yil	2026-yil	2028-yil	2030-yil
1.	Yalpi ichki mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan energiya hajmini kamaytirish *(2021-yilga nisbatan)*	%	5,0	14,0	22,0	27,0	30,0
2.	Sanoatda elektr energiyasi iste’moli, umumiy iste’moldagi ulushi	%	26,0	25,0	23,0	21,0	20,0
3.	Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushini kengaytirish *(gidroenergetika bilan birga)*	%	8,0	9,0	24,3	29,0	30,5
		kVt/s	6,5	8,6	25,0	34,0	40,7
4.	Kichik quvvatli quyosh fotoelektr stansiyalarini qurish	MVt	10,0	150,0	400,0	800,0	1500,0
5.	Yaxshilangan ichimlik suv manbalaridan foydalanish imkoniyatiga ega aholi, jami aholi soniga nisbatan	%	69,7	80,93	87,12	88,5	90,0
6.	O‘rmon fondi hududlarida daraxt va butalar zaxiralarini ko‘paytirish	mln.m^3	64,2	68,1	77,0	85,5	92,3
7.	“Yashil makon” loyihasi doirasida shaharlardagi yashil maydonlarni kengaytirish *(aholi punktining umumiy maydoniga nisbatan)*	%	8,3	12,4	15,8	23,8	30,0

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, yalpi ichki mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan energiya hajmini 30 foizgacha kamaytirish rejalashtirilgan bo‘lib, bu energiya samaradorligini oshirish va resurslardan oqilona foydalanishni nazarda tutadi. Sanoat tarmoqlarining elektr energiyasi iste’molidagi ulushi 26 foizdan 20 foizgacha qisqaradi, bu esa energiya tejovchi texnologiyalar joriy etilishini anglatadi.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 8 foizdan 30,5 foizgacha oshiriladi, quyosh stansiyalari quvvati esa 10 MVtdan 1500 MVtgacha kengayadi. Shu bilan birga, aholining ichimlik suv manbalaridan foydalanish imkoniyati 90 foizgacha yetkazilishi, o‘rmon zaxiralari 64,2 mln m^3 dan 92,3 mln m^3 gacha ko‘paytirilishi mo‘ljallangan.

“Yashil makon” loyihasi doirasida shaharlardagi yashil maydonlar ulushi 8,3 foizdan 30 foizgacha oshadi, chiqindilarni yig‘ish uchun esa 600 ta yangi shaxobcha barpo etiladi. Umuman, ushbu ko‘rsatkichlar mamlakatda ekologik barqarorlikni ta’minlash, qayta tiklanuvchi energiyani rivojlantirish va “yashil” iqtisodiyotga bosqichma-bosqich o‘tish yo‘lida muhim qadam hisoblanadi.

Ushbu maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish uchun “Yashil iqtisodiyot” mexanizmini ishlab chiqish kerak. Bizningcha ushbu mexanizm ekologik barqarorlik, resurslardan oqilona foydalanish va iqtisodiy o‘sishni uyg‘unlashtirishga xizmat qiladigan ikki yo‘nalishda — tashkiliy va iqtisodiy jihatdan amalga oshiriladi hamda u quyidagicha bo‘lishi kerak (1-rasm).



1-rasm. “Yashil iqtisodiyot”ning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi[41].

“Yashil iqtisodiyot”ning tashkiliy mexanizmlar orqali davlat boshqaruvi tizimini institutsional mustahkamlash, sohalar kesimida yashil texnologiyalarni joriy etish va natijadorlik monitoringini yo‘lga qo‘yish ekologik boshqaruv samaradorligini oshiradi. Iqtisodiy mexanizmlar esa moliyaviy rag‘batlar, ekologik soliqlar va yashil investitsiyalarni rivojlantirish orqali korxonalar va investorlarda ekologik mas’uliyatni kuchaytiradi. Ushbu mexanizmlarning uyg‘un faoliyati natijasida ekologik xavfsizlik, resurslardan oqilona foydalanish va iqtisodiy o‘sish o‘rtasida muvozanat ta’minlanib, mamlakatda barqaror va raqobatbardosh yashil iqtisodiy modelning shakllanishiga zamin yaratiladi. Bu tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlar O‘zbekistonda ekologik xavfsiz, resurs tejamkor va barqaror iqtisodiyotni shakllantirishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasida “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish davlat iqtisodiyotining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u iqtisodiy o‘sish va ekologik barqarorlikni uyg‘unlashtirishga qaratilgan. Yashil iqtisodiyotning

[41] Muallif tomonidan mavzuga oid adabiyotlar asosida tuzilgan.

tashkiliy mexanizmlari davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish va ekologik nazoratni kuchaytirishga xizmat qilsa, iqtisodiy mexanizmlar soliq imtiyozlari, subsidiyalar, yashil investitsiyalar va ekologik moliyalashtirish orqali barqaror rivojlanishni ta’minlaydi. Shu tariqa, ushbu mexanizmlarning samarali integratsiyasi O‘zbekistonda “yashil iqtisodiyot”ni barqaror rivojlantitishga imkon beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi takliflar ishlab chiqillgan:

Birinchidan, energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha milliy dastur ishlab chiqilib, unda sanoat, transport va uy-joy sektorida energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish uchun aniq mezonlar belgilanishi;

Ikkinchidan, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga investitsiyalarni ko‘paytirish maqsadida xususiy sektor uchun soliq imtiyozlari, grantlar va subsidiyalar tizimini kengaytirish;

Uchinchidan, monitoring va baholash tizimini raqamlashtirish, ya’ni energiya samaradorligi, chiqindilarni kamaytirish va yashil hududlar kengayishini real vaqt rejimida kuzatish imkonini beruvchi milliy axborot platformasini yaratish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

[1]. Oxford Economics’ Global Climate Scenarios https://www.oxfordeconomics.com/resource/the-value-of-the-green-opportunity/

[2]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019 — 2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori, 04.10.2019 yildagi PQ-4477-son https://lex.uz/docs/-4539502

[3]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, 02.12.2022 yildagi PQ-436-son https://lex.uz/ru/docs/-6303230

4. Xashimova S.N. “yashil iqtisodiyot” darslik Toshkent “Ma’rifat” 2024 https://renessans-edu.uz/files/books/2024-11-30-05-26-30

5. Boboqulov S.B., Qurbonov T.N. va Shodiyev F.Q. “Yashil” texnologiyalar – yashil iqtisodiyotning bo‘g‘ini sifatida Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali 2025-yil, yanvar. № 1-son. https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

6. Uzakova K.B. va Qurbonov T.N. “Principles of Green Economy Financing” Amnerican Journalof Business Practice 2025 https://semantjournals.org/index.php/AJBP

7. Mustafoyev G.S., Kurbonov T.N. “Prospect of the development of the green economy in Uzbekistan” “Science and Practice” scientific and analytical journal of the Plekhanov Russian University of Economics T. 17. №1 (57). 2025 Журнал "Наука и Практика" - РЭУ им. Г.В. Плеханова

Юсупова Нигина Тажиевна
Докторант 3 курса СамИЭС

РЕГИОНАЛЬНЫЙ ТУРИСТСКИЙ КЛАСТЕР КАК МЕХАНИЗМ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Аннотация: В статье рассматривается роль региональных туристских кластеров как одного из ключевых инструментов устойчивого развития туризма в Республике Узбекистан. Особое внимание уделено анализу предпосылок, факторов и механизмов кластерного подхода в сфере туризма. Раскрыты особенности взаимодействия государственных структур, бизнеса и образовательных учреждений в рамках кластерных систем. В заключение обоснована необходимость внедрения инновационных и цифровых решений в развитие кластерных моделей туризма.

Ключевые слова: туризм, региональный кластер, устойчивое развитие, инновации, конкурентоспособность, инфраструктура, цифровизация.

В последние годы туризм стал одной из ключевых отраслей экономики многих государств, выступая не только источником валового внутреннего продукта, но и механизмом диверсификации регионального развития. В случае Республики Узбекистан, обладающей богатым культурно-историческим наследием, уникальными природными ландшафтами и благоприятным географическим положением, потенциал туристской отрасли остаётся ещё далеко не исчерпанным. В этих условиях концепция формирования региональных туристских кластеров приобретает особую значимость как средство не только экономического роста, но и устойчивого развития территорий. Туристский кластер понимается как объединение взаимосвязанных предприятий туристской индустрии, инфраструктуры, образовательных и научных учреждений, государственных органов и иных участников, функционирующих в рамках определённого региона и направленных на создание и продвижение конкурентного туристского продукта.В контексте Узбекистана кластерный подход предлагает решение задач пространственного неравенства, сезонности спроса, слабой диверсификации туристских продуктов и недостаточного уровня локальной участия. Соответствующие исследования показывают, что региональный туризм в Узбекистане сталкивается с инфраструктурными пробелами, ограничениями в кадровом обеспечении и необходимостью интеграции цифровых и экологических технологий[42]. Особое внимание в Узбекистане уделяется региональному измерению туризма. Несмотря на значительный рост числа международных визитов и развитие главных туристских узлов, таких как Самарканд, Бухара и Хива, существует неравномерность развития между регионами[43].

[42] https://cajitmf.casjournal.org/index.php/CAJITMF
[43] https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/6930

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ.

Развитие туризма в Узбекистане в последние годы приобретает стратегический характер, особенно в контексте формирования региональных туристских кластеров. Этот подход позволяет объединить инфраструктуру, природные ресурсы, культурное наследие и предпринимательскую активность в единую систему, обеспечивая устойчивое развитие территорий. В условиях глобальной конкуренции на туристическом рынке кластеры становятся не только механизмом экономического роста, но и инструментом социальной стабильности, создавая рабочие места и способствуя сохранению национальной идентичности. В Узбекистане этот процесс особенно активно развивается в Самаркандской, Бухарской, Хорезмской и Ташкентской областях, где сосредоточены основные туристические ресурсы страны. Согласно официальным данным Государственного комитета по развитию туризма, за последние годы наблюдается устойчивый рост туристического потока. После пандемийного спада в 2020 году, уже к 2023 году количество иностранных туристов достигло более 6,6 миллиона человек, а внутренний туризм превысил отметку в 12 миллионов посещений. Это стало возможным благодаря активной государственной поддержке, инвестициям в инфраструктуру и расширению международных авиасообщений.

Таблица 1.

Динамика развития туризма в Узбекистане (2020–2025 гг.)

Год	Количество иностранных туристов (млн чел.)	Доход от туризма (млрд USD)	Количество занятых в отрасли (тыс. чел.)
2020	1.5	0.3	210
2021	2.9	0.6	245
2022	5.2	1.3	310
2023	6.6	1.7	360
2024	7.4	2.1	410
2025 (прогноз)	8.2	2.5	450

Как видно из таблицы, темпы восстановления туризма впечатляют. В течение пяти лет объем иностранных туристических потоков вырос более чем в пять раз, а доходы отрасли увеличились почти в восемь раз. Этот рост напрямую связан с реализацией кластерного подхода, при котором каждая область разрабатывает собственные туристские маршруты и бренды, соответствующие её культурным и природным особенностям. Самаркандский кластер ориентирован на историко-культурный туризм и международные конференции, Бухарский — на сохранение архитектурного наследия и развитие ремесленного туризма, а Хорезмский кластер активно продвигает экотуризм и этнографические маршруты. В Ташкентской области формируется кластер делового и спортивного туризма, что создаёт диверсифицированную структуру внутри страны. Кроме того, кластеры стимулируют развитие человеческого

капитала. Появляются новые образовательные программы в университетах и колледжах по направлениям «Туризм и гостеприимство», «Менеджмент в туризме», «Маркетинг услуг». Молодёжь получает возможность трудоустройства в родных регионах, что снижает уровень трудовой миграции. Одним из ключевых факторов устойчивого развития туризма является экологический баланс. Туристские кластеры формируются с учетом принципов «зеленого» развития: использование возобновляемых источников энергии, минимизация отходов, сохранение природных территорий. В частности, в Зарафшанском и Ферганском регионах реализуются проекты по созданию экопарков, экологических троп и агротуристических комплексов, сочетающих традиционные формы хозяйствования с современными технологиями.

ВЫВОДЫ И ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Проведённый анализ показал, что региональные туристские кластеры являются одним из наиболее эффективных механизмов устойчивого развития туризма в Республике Узбекистан. Кластерная модель обеспечивает синергетический эффект, объединяя государственные структуры, частный сектор, образовательные учреждения и местные сообщества в единую систему, способную не только повышать экономическую отдачу, но и укреплять социальную стабильность регионов. В последние годы развитие туризма в стране приобрело чёткую стратегическую направленность. Рост количества туристов, расширение географии маршрутов, модернизация инфраструктуры и активная цифровизация создают благоприятные предпосылки для долгосрочного роста отрасли. При этом использование кластерного подхода позволяет концентрировать ресурсы, избегать дублирования функций и стимулировать межрегиональное сотрудничество.

Сформированные в Самаркандской, Бухарской, Хорезмской и Ташкентской областях туристские кластеры демонстрируют устойчивую положительную динамику: увеличивается число инвестиций, растёт занятость населения, активизируется малый бизнес. Это подтверждает, что кластеризация способствует более равномерному распределению экономических выгод между регионами, что особенно важно для страны с богатым, но неоднородным туристским потенциалом.

Список использованной литературы

1. Porter M. E. *Clusters and the New Economics of Competition.* Harvard Business Review, Vol. 76, No. 6, 1998.

2. Odinokova T. *Tourism Cluster as a Form of Innovation Activity.* Economics Ecology Socium, Vol. 3, 2019.

3. Mukanov A. H., Mussina K. P., Mutaliyeva L. M. *Formation of Tourist Clusters in Ecotourism Centers: Case of Zerenda Resort Center in Kazakhstan.* Journal of Environmental Management and Tourism, Vol. 14, No. 6(70), 2023.

4. Suyunova K. B., Tokhirov A. A., Lutfilloyev Y. A. *The Role of Clusters in Promoting a Country's Brand using Cluster Tools.* Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance, Vol. 5, No. 7, 2024.

II - SHO‘BA. ENERGIYA TEJAMKOR VA EKOLOGIK TOZA ISHLAB CHIQARISH - YASHIL TEXNOLOGIYALAR ASOSIDIR

Abdumalik Bektemirov - *SamISI “Investitsiya va innovatsiyalar” kafedrasi mudiri, i.f.d., professor*

QURILISHDA TEJAMKOR VA EKOLOGIK TOZA TEXNOLOGIYALAR VA ULARNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada qurilish sohasida tejamkor va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish zarurati, ularning iqtisodiy va ekologik samaradorligi, shuningdek, O‘zbekistonda ushbu yo‘nalishda olib borilayotgan islohotlar tahlil qilinadi. Qurilish materiallarini ishlab chiqarish, bino va inshootlarni barpo etish, energiya samaradorligi, chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash kabi jarayonlarda “yashil texnologiyalar”dan foydalanishning afzalliklari ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, maqolada mavjud muammolar, jumladan, moliyaviy, texnik, me’yoriy-huquqiy va kadrlar bilan bog‘liq cheklovlar tahlil qilinadi hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: yashil qurilish, ekologik toza texnologiyalar, energiya samaradorligi, resurs tejamkorlik, barqaror rivojlanish, qurilish materiallari, chiqindisiz ishlab chiqarish, qayta tiklanuvchi energiya, uglerod neytralligi, innovatsion texnologiyalar.

So‘nggi yillarda jahon miqyosida ekologik muammolar, iqlim o‘zgarishi va tabiiy resurslarning kamayib borishi qurilish sohasida yangi yondashuvlarni talab etmoqda. Binolar va inshootlar energiyaning 40 foizgacha qismini iste’mol qilishi, chiqindilarning 30 foizdan ortig‘i qurilishdan kelib chiqishini inobatga olsak, bu tarmoq ekologik yuklamaning asosiy manbalaridan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan qabul qilingan **“Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” (2019–2030 yillar)**, **“Qurilish materiallari sanoatini rivojlantirish konsepsiyasi”** hamda **“Uglerod neytral rivojlanish strategiyasi – 2050”** kabi hujjatlar ushbu sohada ekologik barqaror yondashuvni joriy etishga huquqiy asos yaratdi.

Qurilish sohasining yuqoridagi xuquqiy asoslarga hamda global va milliy strategiyalarga moslik nuqtai nazardan tahlil qiladigan bo‘lsak, quyidagilar alohida ahamiyatga ega:

- **Global iqlim va milliy strategiyalar bilan mosligi:**

jahon hamjamiyati iqlim o‘zgarishi va uglerod chiqindilarini kamaytirish bo‘yicha qat’iy maqsadlar qo‘ygan (Parij kelishuvi va boshqa tashabbuslar). Qurilish sektori dunyo bo‘yicha energiya iste’moli va chiqindilarining katta qismiga javob berishi sababli (binolar energiya sarfi, materiallar ishlab chiqarish) mamlakatning iqlim siyosatini amalga oshirishda ushbu soha muhim ahamiyatga ega;

O‘zbekistonning “yashil iqtisodiyotga o‘tish” strategiyasi va boshqa milliy hujjatlari (energetika samaradorligi, uglerod neytralligi maqsadlari) qurilish sektorida tejamkor va ekologik texnologiyalarni joriy etishni тақозо этади.

❖ **Iqtisodiy samaradorlik va energiya mustaqilligi:**

energiya tejamkor binolar va qayta tiklanuvchi energiya (quyosh, PV, BESS va boshq.) qurilish xarajatlari va ekspluatatsiya xarajatlarini sezilarli kamaytiradi. Bu iqtisodiy jihatdan investitsiyalarning tezroq qaytishiga va makroiqtisodiy barqarorlikka xizmat qiladi;

mahalliy ishlab chiqarish va modern texnologiyalarni joriy etish eksport salohiyatini oshirishi, xomashyo importiga bo‘lgan bog‘liqlikni kamaytirishi mumkin.

❖ **Sog‘liq va ijtimoiy hamda yashash sifati:**

tejamkor, yaxshi izolyatsiyalangan va ekologik materiali bilan qurilgan binolar ichki mikroiqlimni yaxshilaydi, aholining sog‘lig‘i va turmush sifatini oshiradi. Bunday inshootlar uzoq muddatda ijtimoiy xarajatlarni kamaytiradi.

❖ **Yashil ish o‘rinlari va innovatsion rivojlanish:**

yashil texnologiyalar rivoji yangi kasb va xizmat turlarini, o‘qitish va ilmiy tadqiqotlar uchun talabni oshiradi. Bu iqtisodiyotning yangi sektorlarini shakllantirishga imkon beradi.

❖ **Chiqindilarni kamaytirish va resurslar samaradorligi:**

qurilish chiqindilarining katta qismi axloqsiz boshqarilganda atrof-muhitga jiddiy zarar yetkazadi. Qayta ishlash, modul prinsiplari va resurs tejovchi texnologiyalar bu yukni sezilarli kamaytiradi.

❖ **Xalqaro investitsiya va sertifikatlash imtiyozlari:**

xalqaro moliya institutlari (WB, EBRD, ADB va boshq.) yashil loyiha va standartlarga sarmoya yo‘naltiradi. Milliy darajada yashil sertifikatlash joriy etilsa, loyihalar uchun tashqi moliyalashtirish imkoniyati ortadi.

❖ **Texnologik yangilanish va raqobatbardoshlik:**

global bozor va xalqaro me’yorlar talablariga mos keladigan qurilish sektori mamlakatni raqobatbardosh qiladi. Innovatsion materiallar va raqamli boshqaruv (BIM, IoT, AI) resurs va vaqtni tejaydi, sifatni oshiradi.

Yuqoridagi omillar birgalikda shuni anglatadiki, qurilishda tejamkor va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish – nafaqat ekologik majburiyat, balki iqtisodiy, ijtimoiy va strategik manfaatga asoslangan zaruratdir. O‘zbekiston kontekstida bu yo‘nalish milliy strategiyalar, investitsiya jalb qilish va aholining hayot sifatini yaxshilash nuqtai nazaridan ham alohida ahamiyatga ega.

Shu boisdan, qurilishda tejamkor va ekologik toza texnologiyalarni qo‘llash – bu nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki ekologik xavfsizlik, ijtimoiy mas’uliyat va xalqaro standartlarga mos rivojlanishni ta’minlashning ham muhim omilidir.

Qurilish sohasining hozirgi holati tahlili. O‘zbekiston qurilish tarmog‘i mamlakat yalpi ichki mahsulotining (YAIM) qariyb 6-7 foizini tashkil etadi va har yili o‘rtacha 8-10 foiz o‘sish sur’atiga ega. So‘nggi yillarda yirik infratuzilma loyihalari, uy-joy qurilishi, turizm va sanoat obyektlarini barpo etish jadal rivojlanmoqda.

Biroq bu rivojlanish bilan birga ekologik bosim ham kuchaymoqda. Qurilish materiallari ishlab chiqarishda ko‘mir va sementning haddan tashqari ishlatilishi, energiya tejamkor texnologiyalarning yetarli joriy etilmagani, chiqindilarni qayta ishlashning sustligi kabi omillar muammo sifatida dolzarb bo‘lib qolmoqda.

So‘nggi ma’lumotlarga ko‘ra:

- Qurilishda ishlatilayotgan energiyaning 70% dan ortig‘i issiqlik ishlab chiqarishga sarflanadi;
- Yangi uy-joylarning 60% gacha qismi issiqlik izolyatsiyasiz barpo etilgan;
- Qurilish chiqindilarining faqat 10–15% i qayta ishlanadi;
- “Yashil sertifikat” tizimi hali to‘liq joriy etilmagan.

Қурилиш соҳасда мавжуд муаммоларни қуйидаги гуруҳларга ажратиш мумикн:

- **Texnologik muammolar** – energiya tejamkor qurilish materiallari ishlab chiqarish va sertifikatlangan texnologiyalarni joriy etish sust kechmoqda.
- **Moliyaviy muammolar** – “yashil texnologiyalar”ni qo‘llash dastlab yuqori sarmoya talab etadi, bu esa xususiy sektor uchun to‘siq bo‘lmoqda.
- **Huquqiy va me’yoriy cheklovlar** – ekologik standartlar va “yashil qurilish kodeksi” to‘liq ishlab chiqilmagan.
- **Kadrlar salohiyati** – muhandis, arxitektor va loyihachilar orasida ekologik dizayn bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar yetarli emas.
- **Monitoring tizimining sustligi** – qurilish jarayonida ekologik nazorat mexanizmlari samarali ishlamaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, sohada vujudga keladigan muammolarni bartaraf etish bo‘yicha quyidagi taklifva tavsiyalarni larni berish maqsadga muvofiq:

1. Yashil qurilish kodeksini ishlab chiqish va xalqaro standartlar (LEED, BREEAM) asosida milliy sertifikatlash tizimini joriy etish.
2. Yashil kreditlar va subsidiyalar mexanizmini kengaytirish – energiya samarador loyihalarni moliyaviy rag‘batlantirish.
3. Innovatsion materiallar (nanoizolyatsiya, kompozit panellar, quyosh panellari bilan integratsiyalashgan tom tizimlari) ishlab chiqarishni mahalliylashtirish.
4. Qurilish chiqindilarini qayta ishlash infratuzilmasini yaratish, “nol chiqindi” tamoyiliga asoslangan ishlab chiqarish tizimlarini joriy etish.
5. Kasbiy ta’lim tizimida “Yashil muhandislik” va “Barqaror qurilish texnologiyalari” yo‘nalishlarini kengaytirish.
6. Davlat-xususiy sheriklik asosida ekologik qurilish klasterlarini tashkil etish.
7. Raqamli texnologiyalar (BIM, IoT, AI) yordamida resurs sarfini real vaqtda monitoring qilish.

Xulosa. Qurilishda tejamkor va ekologik toza texnologiyalarni keng joriy etish O‘zbekistonning barqaror rivojlanish strategiyasida muhim o‘rin tutadi. Bu

yo‘nalishdagi muvaffaqiyat mamlakatning energiya mustaqilligini mustahkamlash, atrof-muhitga zararli ta’sirni kamaytirish, xalqaro “yashil iqtisodiyot” standartlariga moslashish imkonini beradi.

Ekologik barqaror qurilish modeli O‘zbekistonni mintaqada “yashil texnologiyalar markazi” sifatida shakllantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va investitsion jozibadorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori – “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi to‘g‘risida” PQ - 4477-son, 2019-yil 4-oktabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi ma’lumotlari, 2024-yil.
3. “Qurilish materiallari sanoatini rivojlantirish konsepsiyasi – 2020–2030 yillar”.
4. United Nations Environment Programme (UNEP). *Green Building and Construction Sector Report*, 2023.
5. World Bank. *Energy Efficiency in the Building Sector: Global Trends and Country Cases*, 2022.
6. OECD. *Sustainable Infrastructure for Low-Carbon Development*, Paris, 2020.
7. Хайдаров А.Қ. “Инновацион технологиялар ва қурилишда барқарор ривожланиш”. – Тошкент: Иқтисодиёт, 2023.
8. Azimov Sh. “Yashil iqtisodiyot va ekologik menejment asoslari”. – Samarqand: SamISI nashriyoti, 2022.

Abdusalomov Abdushukur
SamISI, “Bank-moliya xizmatlari fakulteti” talabasi
Imiy rahbar: i.f.d., professor A.Bektemirov

YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGI STRATEGIYALARI

Annotatsiya: maqolada yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda davlat va xususiy sektor hamkorligining strategik ahamiyatini tadqiq qilingan. Iqlim o'zgarishi va resurslar tanqisligi tufayli ekologik muammolar kuchaymoqda. Davlat va xususiy sektor hamkorligi nafaqat ekologik muammolarni hal qilishga, balki iqtisodiy o'sishni ta'minlashga ham yordam beradi. Tadqiqot O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lib, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda davlat-xususiy sheriklikning rolini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, davlat-xususiy sheriklik, barqaror rivojlanish, iqlim o'zgarishi, innovatsion moliyalashtirish, ekologik infratuzilma.

Zamonaviy dunyoda iqtisodiy rivojlanish va ekologik barqarorlik o'rtasidagi ziddiyat tobora keskinlashmoqda. Iqlim o'zgarishi, resurslar tanqisligi va urbanizatsiya jarayonlari global miqyosda jiddiy tahdidlarga aylangan bo'lib, ularni bartaraf etish uchun an'anaviy iqtisodiy modellardan voz kechish zarur. Yashil

iqtisodiyot tushunchasi aynan shu kontekstda paydo bo'lgan bo'lib, u past uglerodli, resurs tejovchi va ijtimoiy inklyuziv o'sishni ta'minlaydigan yondashuvni ifodalaydi. BMTning Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (BRM) doirasida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish global siyosatning markaziy yo'nalishi sifatida belgilangan, ammo bu jarayonni amalga oshirish uchun katta moliyaviy va texnologik resurslar talab etiladi. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan O'zbekiston, kabi davlatlarda bu masalalar yanada dolzarbdir, chunki ular iqtisodiy o'sishni ta'minlash bilan birga, ekologik xavflarni kamaytirishga majburdirlar.

Bugungi kunda yashil iqtisodiyotning zarurligi shundaki, global iqtisodiyotning 80 foizdan ortig'i qazib olinadigan yoqilg'i va an'anaviy sanoatga asoslangan bo'lib, bu esa yiliga 50 milliard tonnadan ortiq CO2 emissiyasiga olib kelmoqda. 2024-yilga kelib, Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda infratuzilma loyihalari uchun zarur bo'lgan investitsiyalar hajmi 15 trillion dollarga yetgan, ammo mavjud resurslar faqat 30 foizini qoplay oladi. Bu holatda davlat va xususiy sektor hamkorligi asosiy mexanizm hisoblanadi. DXSHlar davlatning siyosiy va tartibga solish qudratini xususiy sektorning innovatsion va moliyaviy imkoniyatlari bilan birlashtirib, yashil infratuzilmani rivojlantirishga imkon beradi. Masalan, 2023-yilda Yevropa Ittifoqining Green Deal dasturi doirasida DXSHlar orqali 270 milliard yevro investitsiya jalb etilgan bo'lib, bu qayta tiklanadigan energiya loyihalarini 40 foizga tezlashtirgan.

Yashil iqtisodiyot tushunchasi 2008-yil BMT Muhitni Muhofaza qilish Dasturi (UNEP) tomonidan taklif etilgan bo'lib, u iqtisodiy o'sishni ekologik barqarorlik bilan bog'lashni nazarda tutadi. 2022–2025 yillarda bu tushuncha global siyosatlarda markaziy o'rin egalladi: masalan, AQShning Inflation Reduction Act (2022) va Yevropa Ittifoqining Net-Zero Industry Act (2023) dasturlari davlat va xususiy sektorning hamkorligini rag'batlantirishga qaratilgan. Bu dasturlar orqali xususiy investitsiyalar hajmi 2024-yilda 1 trillion dollarga yaqinlashdi, ammo muammolar ham ko'p: xavf-xatarlarning notekis taqsimlanishi, qonunchilik bazasining yetarli emasligi va texnologik cheklovlar. Jahon Iqtisodiy Forumi (WEF)ning 2024-yilgi hisobotiga ko'ra, DXSHlarning 60 foizi iqlim hujumlaridan himoyalanmagan loyihalar bo'lib, bu ularning barqarorligini pasaytiradi.

Shu bilan birga, hamkorlikning muammolari ham e'tiborga loyiq: xususiy sektor uchun xavf-xatarlar yuqori, davlat uchun esa nazorat yo'qolishi mumkin. 2024-yilda BMTning hisobotida ta'kidlanganidek, DXSHlarning 40 foizi ijtimoiy ta'sirni hisobga olmaganligi sababli muvaffaqiyatsiz tugagan. Shu sababli, strategiyalar inson kapitalini rivojlantirish va xalqaro standartlarga moslashishga qaratilishi lozim. Umuman olganda, yashil iqtisodiyotda davlat va xususiy sektor hamkorligi nafaqat ekologik, balki iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi asosiy vosita bo'lib, bugungi kunda uning ahamiyati global inqirozlar sharoitida yanada ortmoqda. Bu hamkorlik orqali nafaqat uglerod emissiyasini kamaytirish, balki yangi ish o'rinlari yaratish va texnologik taraqqiyotga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar tahlili. Jahon Bankining 2022 yildagi “Yashil infratuzilmani moliyalashtirish: davlat-xususiy sheriklikdan foydalanish” to‘g‘risidagi hisoboti yashil infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda DXSHlarning rolini tahlil qiladi. Hisobotga ko‘ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda

yashil loyihalar uchun investitsiya ehtiyoji yiliga 1,5 trillion dollarni tashkil etadi, ammo davlat byudjetlari bu ehtiyojning atigi 25 foizini qoplay oladi. Manba DXSHlarni xavf-xatarlarni taqsimlash va innovatsion moliyalashtirish vositasi sifatida ko‘rib chiqadi, ayniqsa, quyosh va shamol energiyasi loyihalarida. O‘zbekiston kabi mamlakatlar uchun bu manba muhim, chunki u xususiy sektorning davlat kafolatlari orqali jalb qilinishini ta’kidlaydi. Biroq, hisobot xavf-xatarlarning notekis taqsimlanishi va qonunchilikdagi bo‘shliqlarni muammo sifatida ko‘rsatadi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (OECD) 2023 yildagi “Barqaror rivojlanish uchun davlat-xususiy sheriklik: amaliy tadqiqotlar va ilg‘or tajribalar” to‘g‘risidagi nashri yashil iqtisodiyot loyihalarida DXSHlarning muvaffaqiyatli namunalari, masalan, Hindiston va Janubiy Koreyadagi quyosh energiyasi loyihalarini tahlil qiladi. Hisobot davlatning tartibga solish roli va xususiy sektorning innovatsion salohiyatini birlashtirish orqali loyihalarning samaradorligini oshirish mumkinligini ta’kidlaydi. O‘zbekiston uchun bu manba ayniqsa foydali, chunki u xalqaro tajribani mahalliy sharoitlarga moslashtirish bo‘yicha takliflar beradi. Masalan, davlat tomonidan taqdim etilgan subsidiyalar va soliq imtiyozlari xususiy investitsiyalarni 30 foizga oshirishi mumkin.

Jahon iqtisodiy forumining (WEF) 2024йилдаги "Yashil investitsiyalarni ko'paytirish: rivojlanayotgan bozorlarda Davlat-xususiy sherikchilikning (DXSH) roli" тўғрисидаги hisoboti rivojlanayotgan bozorlarda Davlat-xususiy sherikchiliги orqali yashil investitsiyalarni kengaytirishga qaratilgan. Hisobotda ta’kidlanishicha, 2023-yilda global yashil investitsiyalarning 65 foizi DXSH lar orqali amalga oshirilgan, ammo loyihalarning 40 foizi monitoring va xavf-xatarlarni boshqarishning yetishmasligi tufayli muvaffaqiyatsiz tugagan. O‘zbekiston kontekstida bu manba davlat-xususiy hamkorlikda shaffaf tender jarayonlari va xavf-xatarlarni baholashning muhimligini ko‘rsatadi. Hisobot, shuningdek, ijtimoiy inklyuziya va gender tengligini hisobga olish zarurligini ta’kidlaydi.

“Yashil o‘tishni moliyalashtirish: davlat-xususiy hamkorlik imkoniyatlari” to‘g‘risida BMTning Atrof Muhitni muhofaza qilish dasturi (UNEP) tomonidan chop etilgan ushbu hisobot yashil iqtisodiyotga o‘tishda moliyaviy resurslarni jalb qilishning yangi usullarini muhokama qiladi. Xususan, yashil obligatsiyalar va iqlim fondlari kabi vositalar PPPlarni qo‘llab-quvvatlashda muhim hisoblanadi. Hisobotda keltirilgan misollar orasida O‘zbekistonning Xalqaro Moliya Korporatsiyasi (IFC) bilan hamkorligi alohida e’tibor beriladi, bu orqali 2023-yilda 300 million dollarlik quyosh energiyasi loyihasi moliyalashtirilgan. Ushbu manba mavzuga moliyaviy innovatsiyalar nuqtai nazaridan yondashadi.

Xalqaro moliya korporatsiyasining 2024 yildagi “Markaziy Osiyoda yashil energiya sarmoyalari: imkoniyatlar va muammolar” to‘g‘risidagi hisobotida Markaziy Osiyo, xususan O‘zbekiston va Qozog‘istondagi yashil energiya loyihalariga qaratilgan. Hisobotda PPPlar orqali jalb qilingan investitsiyalar 2022–2024 yillarda 1,2 milliard dollarga yetgani, ammo loyihalarni amalga oshirishda qonunchilik va infratuzilma muammolari mavjudligi ta’kidlanadi. O‘zbekiston uchun bu manba ayniqsa muhim, chunki u mahalliy sharoitlarni hisobga olgan holda PPPlarni rivojlantirish strategiyalarini taklif qiladi.

Yevropa investitsiya bankining 2023 yildagi "Iqlim bo‘yicha davlat-xususiy sherikchilik: Yevropa ittifoqidan saboqlar” mavzusidagi hisoboti Yevropa Ittifoqidagi yashil loyihalarni moliyalashtirishda davlat-xususiy sherikchilikning rolini tahlil qiladi. Masalan, Green Deal doirasida 2022–2023 yillarda 200 milliard yevro xususiy investitsiya jalb etilgan. Hisobot davlat tomonidan taqdim etilgan kafolatlar va xavf-xatarlarni taqsimlash mexanizmlari muvaffaqiyat kaliti ekanligini ko‘rsatadi. O‘zbekiston uchun bu tajriba qonunchilikni takomillashtirish va xalqaro investorlarni jalb qilishda foydali bo‘lishi mumkin.

Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda PPPlar bir qator strategik yondashuvlar orqali amalga oshirilmoqda. Quyida asosiy strategiyalar va ularning amaliy qo‘llanilishi keltiriladi. PPPlar yashil loyihalarni moliyalashtirishda muhim vosita sifatida ishlatilmoqda. Masalan, ADB (2024) hisobotiga ko‘ra, Osiyo mintaqasida yashil obligatsiyalar orqali 2023-yilda 150 milliard dollar jalb qilingan. O‘zbekistonda bu jarayon Xalqaro Moliya Korporatsiyasi (IFC) bilan hamkorlikda amalga oshirilmoqda, masalan, 2024-yilda Navoiy viloyatida quyosh elektr stansiyasi loyihasi uchun 350 million dollarlik PPP shartnomasi imzolandi. Bu loyiha nafaqat uglerod emissiyasini 200 ming tonnaga kamaytirishga, balki 500 ta yangi ish o‘rni yaratishga xizmat qildi. PPPlarning muvaffaqiyati xavf-xatarlarni adolatli taqsimlashga bog‘liq. OECD (2023) hisobotida ta’kidlanishicha, xususiy sektor uchun iqlim xavflari va moliyaviy noaniqliklar asosiy to‘siq hisoblanadi. O‘zbekistonda bu muammo davlat kafolatlari va soliq imtiyozlari orqali hal qilinmoqda. Masalan, 2023-yilda O‘zbekiston hukumati quyosh energiyasi loyihalari uchun investorlarga 10 yillik soliq imtiyozlari taqdim etdi, bu esa xususiy sektor ishtirokini 25 foizga oshirdi. PPPlar orqali yashil texnologiyalarni joriy etish tezlashmoqda. Masalan, Janubiy Koreyada PPP loyihalari orqali vodorod energiyasi texnologiyalari 2023-yilda 15 foizga kengaydi (OECD, 2023). O‘zbekistonda bu jarayon hali boshlang‘ich bosqichda bo‘lsa-da, IFC tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan loyihalar orqali quyosh paneli ishlab chiqarishni mahalliylashtirish rejalashtirilmoqda. Bu nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki texnologik mustaqillikni ham ta’minlaydi. Yashil iqtisodiyot loyihalarining muvaffaqiyati malakali kadrlar bilan ta’minlanishiga bog‘liq. UNEP (2023) hisobotida ta’kidlanishicha, PPPlar orqali ta’lim va malaka oshirish dasturlari moliyalashtirilishi loyihalarning barqarorligini oshiradi. O‘zbekistonda bu yo‘nalishda 2024-yilda “Yashil iqtisodiyot” bo‘yicha maxsus ta’lim dasturlari joriy etildi, bu dasturlar xususiy sektor tomonidan moliyalashtirilib, 2000 nafar mutaxassisni tayyorlashga xizmat qildi. PPPlar nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ekologik maqsadlarni ham ko‘zlaydi. Masalan, Hindistonda PPP loyihalari orqali qishloq joylarida quyosh energiyasi tarmoqlari o‘rnatilib, 10 million aholiga barqaror energiya ta’minlandi (Jahon Banki, 2022). O‘zbekistonda esa Farg‘ona viloyatida 2024-yilda PPP asosida qurilgan shamol elektr stansiyasi 150 ming tonna CO_2 emissiyasini kamaytirdi va mahalliy jamoalarga barqaror energiya yetkazib berdi.

Amaliy loyihalar va ularning natijalari. O‘zbekistonda PPPlar yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda tobora faol qo‘llanilmoqda. Quyida bir nechta muhim loyihalar va ularning natijalari keltiriladi:

- Sirdaryo quyosh stansiyasi (2023): IFC va O‘zbekiston hukumati o‘rtasidagi PPP shartnomasi asosida 400 million dollarlik loyiha amalga oshirildi. Ushbu loyiha yiliga 1 million MWh elektr energiyasi ishlab chiqaradi va 300 ming tonna CO2 emissiyasini kamaytiradi.
- Buxoro shamol energiyasi loyihasi (2024): Xususiy investorlar va davlat hamkorligida 200 million dollar sarmoya kiritilib, 100 MW quvvatga ega shamol stansiyasi qurildi. Bu loyiha mahalliy iqtisodiyotga 1000 ta yangi ish o‘rni yaratdi.
- Toshkentda energiya tejovchi infratuzilma (2023): PPP asosida shahar issiqlik tarmoqlarini modernizatsiya qilish loyihasi amalga oshirildi, bu esa energiya sarfini 15 foizga kamaytirdi.

Global miqyosda PPPlar yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda turli yo‘nalishlarda qo‘llanilmoqda. Masalan, Yevropa Ittifoqida Green Deal dasturi doirasida PPP loyihalari 2023-yilda 250 milliard yevro investitsiya jalb qildi, bu esa qayta tiklanadigan energiya ulushini 40 foizga oshirdi (EIB, 2023). O‘zbekiston uchun bu tajriba qonunchilikni takomillashtirish va investorlar uchun shaffaf shart-sharoitlar yaratishda muhim yo‘l-yo‘riq bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, Yevropada qo‘llaniladigan xavf-xatarlarni sug‘urta qilish mexanizmlari O‘zbekistonda ham joriy etilishi mumkin. Tadqiqotda bir qator cheklovlar mavjud. Birinchidan, O‘zbekistonga oid ma’lumotlar cheklangan, chunki mahalliy PPPlarning ko‘pi hali boshlang‘ich bosqichda. Ikkinchidan, global tajribani to‘liq moslashtirish qonunchilik va iqtisodiy farqlar tufayli qiyin. Uchinchidan, iqlim o‘zgarishi kabi uzoq muddatli omillarni bashorat qilish qiyinligi tahlilning aniqligiga ta’sir qilishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda davlat va xususiy sektor hamkorligi (PPP) strategiyalari global va mahalliy miqyosda barqaror rivojlanishga erishishning asosiy vositalaridan biriga aylandi. Ushbu tadqiqot davlat-xususiy sheriklikning yashil iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyatini, ayniqsa, O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun uning strategik imkoniyatlarini ochib berdi. Tadqiqot davomida aniqlangan xulosalar va takliflar PPPlarni yanada samarali qilish va mahalliy sharoitlarga moslashtirishga qaratilgan bo‘lib, iqlim o‘zgarishi, resurslar tanqisligi va iqtisodiy diversifikatsiya kabi dolzarb muammolarni hal qilishga xizmat qiladi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, PPPlar yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda moliyaviy resurslarni jalb qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va ijtimoiy ta’sirni oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Global miqyosda, masalan, Yevropa Ittifoqining Green Deal dasturi orqali PPPlar yashil infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda muvaffaqiyatli model sifatida namoyon bo‘ldi. O‘zbekiston kontekstida esa PPPlar quyosh va shamol energiyasi loyihalarida, shuningdek, energiya tejovchi infratuzilmalarni modernizatsiya qilishda samarali ekanligi isbotlandi. Biroq, muvaffaqiyatga erishish uchun bir qator muammolar bartaraf etilishi kerak, jumladan, qonunchilikdagi noaniqliklar, xavf-xatarlarni boshqarishning yetishmasligi va investorlar ishonchining pastligi. PPPlarning samaradorligi davlatning tartibga solish roliga, shaffaf tender jarayonlariga va xavf-xatarlarni adolatli taqsimlashga bog‘liq. O‘zbekistonda bu jarayon hali boshlang‘ich bosqichda bo‘lib, mahalliy qonunchilik va infratuzilma cheklovlari loyihalarni amalga oshirishda to‘siqlar yaratmoqda. Shu bilan birga, xalqaro tajriba, masalan, Janubiy Koreya va Hindistondagi muvaffaqiyatli loyihalar, O‘zbekiston uchun foydali

saboqlar beradi. Ushbu tajribalar shuni ko‘rsatadiki, davlat tomonidan taqdim etilgan kafolatlar va soliq imtiyozlari xususiy sektorning ishtirokini sezilarli darajada oshiradi. Tadqiqot shuni ham aniqladiki, PPPlar nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ekologik foyda keltiradi. Masalan, mahalliy jamoalarga barqaror energiya ta’minoti orqali ijtimoiy inklyuziya kuchayadi, yangi ish o‘rinlari yaratiladi va uglerod emissiyasi kamayadi. Biroq, loyihalarning uzoq muddatli barqarorligi uchun monitoring va baholash tizimlari joriy etilishi zarur. O‘zbekistonda PPPlar orqali amalga oshirilgan loyihalar iqtisodiy diversifikatsiyaga xizmat qilmoqda, ammo ularning hajmi hali global standartlarga yetmaydi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalar O‘zbekistonning yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda davlat-xususiy sherikchiligini yanada samarali qilish uchun quyidagi takliflarni kiritish uchun asos bo‘ladi:

1. Qonunchilik bazasini takomillashtirish: PPPlarni tartibga soluvchi qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish zarur. Masalan, shartnomalar shaffaf bo‘lishi, investorlar uchun xavf-xatarlarni kamaytirish uchun aniq kafolatlar berilishi lozim. Buning uchun xalqaro tajriba, xususan, Yevropa Ittifoqining qonunchilik modellari asos qilib olinishi mumkin.

2. Moliyaviy rag‘batlantirish vositalarini kengaytirish: Yashil obligatsiyalar va iqlim fondlari kabi innovatsion moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish orqali xususiy sektor ishtiroki oshirilishi kerak. O‘zbekiston hukumati mahalliy banklar bilan hamkorlikda yashil obligatsiyalar bozorini rivojlantirishi mumkin, bu esa investorlar uchun jozibadorlikni oshiradi.

3. Inson kapitalini rivojlantirish: Yashil iqtisodiyot loyihalarini amalga oshirish uchun malakali kadrlar zarur. PPPlar orqali maxsus ta’lim dasturlari va malaka oshirish kurslari moliyalashtirilishi lozim. Masalan, xususiy sektor tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan “Yashil texnologiyalar” bo‘yicha o‘quv markazlari tashkil etilishi mumkin.

4. Monitoring va baholash tizimlarini joriy etish: Loyihalarning barqarorligini ta’minlash uchun mustaqil monitoring tizimlari joriy etilishi kerak. Bu tizimlar loyihalarning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy ta’sirini baholashga yordam beradi. Xalqaro tashkilotlar, masalan, IFC yoki ADB, ushbu tizimlarni joriy etishda texnik yordam ko‘rsatishi mumkin.

5. Mahalliy jamoalarni jalb qilish: PPPlar nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy maqsadlarga ham xizmat qilishi kerak. Mahalliy jamoalarni loyihalarni rejalashtirish va amalga oshirish jarayonlariga jalb qilish orqali ijtimoiy qabul qilishni oshirish mumkin. Masalan, qishloq hududlarida quyosh energiyasi tarmoqlarini o‘rnatishda mahalliy aholi uchun ish o‘rinlari yaratilishi lozim.

6. Xalqaro hamkorlikni kengaytirish: O‘zbekiston xalqaro moliyaviy institutlar (IFC, EIB) bilan hamkorlikni chuqurlashtirishi kerak. Bu nafaqat moliyaviy resurslarni jalb qilishga, balki xalqaro tajriba va texnologiyalarni transfer qilishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jahon Banki. (2022). Green Infrastructure Finance: Leveraging Public-Private Partnerships. Washington, DC: World Bank Publications.

2. OECD. (2023). Public-Private Partnerships for Sustainable Development: Case Studies and Best Practices. Paris: OECD Publishing.
3. World Economic Forum. (2024). Scaling Green Investments: The Role of PPPs in Emerging Markets. Geneva: WEF.
4. UNEP. (2023). Financing the Green Transition: Opportunities for Public-Private Collaboration. Nairobi: United Nations Environment Programme.
5. International Finance Corporation. (2024). Green Energy Investments in Central Asia: Opportunities and Challenges. Washington, DC: IFC.
6. European Investment Bank. (2023). Public-Private Partnerships for Climate Action: Lessons from the EU. Luxembourg: EIB.
7. Asian Development Bank. (2024). Green Growth in Asia: The Role of PPPs. Manila: ADB.
8. United Nations. (2025). Global Green Economy Report: Partnerships for a Sustainable Future. New York: UN Publications.

Abdusalomov Abdushukur - SamISI, “Bank-moliya xizmatlari fakulteti” talabasi **Imiy rahbar: i.f.d., professor A.Bektemirov**

XALQARO MOLIYAVIY INSTITUTLARNING YASHIL TEXNOLOGIYALARNI MOLIYALASHTIRISHDAGI RO‘LI

Annotatsiya: Ushbu maqola xalqaro moliyaviy institutlarning (XMI) yashil texnologiyalarni moliyalashtirishdagi strategik rolini o‘rganadi. Iqlim o‘zgarishi va resurslar tanqisligi sharoitida yashil texnologiyalarni rivojlantirish global iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Maqola XMIlarning moliyaviy vositalari, loyihalarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari va rivojlanayotgan mamlakatlardagi ta’sirini tahlil qiladi. 2022–2025 yillardagi adabiyotlar asosida ishlab chiqilgan ushbu tadqiqot O‘zbekiston kabi mamlakatlar uchun amaliy yondashuvlarni taklif qiladi. Xulosalar shuni ko‘rsatadiki, XMIlar moliyaviy resurslar bilan birga texnologik transfer va siyosiy islohotlarni rag‘batlantirish orqali yashil iqtisodiyotga o‘tishni tezlashtiradi.

Kalit so‘zlar: yashil texnologiyalar, xalqaro moliyaviy institutlar, barqaror rivojlanish, moliyalashtirish, iqlim o‘zgarishi, yashil obligatsiyalar, O‘zbekiston.

Zamonaviy dunyoda iqlim o‘zgarishi, resurslar tanqisligi va atrof-muhitning ifloslanishi global iqtisodiyot va jamiyatlar uchun jiddiy tahdidlar sifatida namoyon bo‘lmoqda. BMTning 2023-yilgi hisobotiga ko‘ra, global haroratning 1,5°C chegarasini saqlab qolish uchun 2030-yilga qadar uglerod emissiyasini 45 foizga kamaytirish zarur. Bu esa yashil texnologiyalarga, xususan, qayta tiklanadigan energiya manbalari, energiya tejovchi infratuzilmalar va ekologik toza ishlab chiqarishga sarmoya kiritishni talab qiladi. Biroq, Jahon Bankining 2024-yilgi ma’lumotlariga ko‘ra, yashil texnologiyalarni rivojlantirish uchun yiliga 2,5 trillion dollarlik investitsiya kerak bo‘lib, rivojlanayotgan mamlakatlar bu ehtiyojning atigi 20 foizini mustaqil ravishda qoplay oladi. Bu holatda xalqaro moliyaviy institutlar

(XMI) – masalan, Jahon Banki, Xalqaro Moliya Korporatsiyasi (IFC), Osiyo Taraqqiyot Banki (ADB) va Yevropa Investitsiya Banki (EIB) – moliyaviy resurslar, texnologik tajriba va siyosiy islohotlarni qo‘llab-quvvatlash orqali muhim rol o‘ynaydi. Yashil texnologiyalar tushunchasi qayta tiklanadigan energiya (quyosh, shamol, gidroenergiya), energiya tejovchi texnologiyalar, chiqindilarni qayta ishlash va past uglerodli transport tizimlarini o‘z ichiga oladi. BMT Muhitni Muhofaza qilish Dasturi (UNEP) 2022-yilda ta’kidlaganidek, yashil texnologiyalar iqtisodiy o‘sishni ekologik barqarorlik bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. XMIlar bu jarayonda asosiy katalizator sifatida ishlaydi, chunki ular davlatlar va xususiy sektor o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajaradi. Masalan, ADB 2024-yilda O‘zbekistonda shamol energiyasi loyihalari uchun 250 million dollarlik grant va kredit ajratdi, bu esa mahalliy iqtisodiyotda 800 ta yangi ish o‘rni yaratdi. Shu bilan birga, XMIlarning faoliyati qator muammolarga duch kelmoqda: loyihalarni monitoring qilishning yetishmasligi, mahalliy infratuzilma cheklovlari va ijtimoiy ta’sirni baholashdagi qiyinchiliklar. XMIlarning moliyalashtirish mexanizmlari turli shakllarda namoyon bo‘ladi: to‘g‘ridan-to‘g‘ri kreditlar, grantlar, yashil obligatsiyalar va xavf-xatarlarni sug‘urta qilish dasturlari. Masalan, EIB 2023-yilda yashil obligatsiyalar orqali 100 milliard yevro jalb qildi, bu esa Yevropa Ittifoqida qayta tiklanadigan energiya loyihalarini 35 foizga kengaytirdi. O‘zbekiston uchun bunday mexanizmlar hali keng qo‘llanilmagan bo‘lsa-da, 2024-yilda IFC bilan hamkorlikda joriy etilgan yashil obligatsiyalar pilot loyihasi ijobiy natijalar bermoqda. Bu loyiha mahalliy banklar orqali 50 million dollar jalb qildi va energiya tejovchi infratuzilmalarni modernizatsiya qilishga yo‘naltirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar tahlili. Jahon Banki (2023). "Financing Sustainable Development in Emerging Markets." Ushbu hisobot rivojlanayotgan mamlakatlarda yashil texnologiyalarni moliyalashtirishda XMIlarning rolini tahlil qiladi. O‘zbekiston misolida, Jahon Banki 2022–2023 yillarda quyosh energiyasi loyihalari uchun 400 million dollarlik kredit ajratgan, bu esa qayta tiklanadigan energiya ulushini 12 foizga oshirishga yordam berdi. Hisobot XMIlarning davlat-xususiy sheriklik (PPP) loyihalarini qo‘llab-quvvatlash orqali moliyaviy bo‘shliqlarni to‘ldirishdagi ahamiyatini ta’kidlaydi. O‘zbekiston uchun bu manba muhim, chunki u mahalliy infratuzilma cheklovlarini bartaraf etishda XMIlarning texnik yordamini ko‘rsatadi. Masalan, qonunchilik islohotlari va xavf-xatarlarni sug‘urta qilish mexanizmlari taklif qilinadi. Biroq, hisobotda ijtimoiy ta’sirni baholashning yetishmasligi muammo sifatida qayd etiladi, bu esa O‘zbekistonda loyihalarni monitoring qilish zarurligini ko‘rsatadi. Manba global tajribani mahalliy sharoitlarga moslashtirishda foydali, ammo mahalliy kadrlar malakasini oshirish masalasiga yetarlicha e’tibor bermaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi (2024). "O‘zbekistonning yashil iqtisodiyot strategiyasi: moliyalashtirish istiqbollari." Ushbu mahalliy manba O‘zbekistonning 2030-yilgacha yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tahlil qiladi. Hisobotda XMIlar, xususan, IFC va ADB, quyosh va shamol energiyasi loyihalarini moliyalashtirishda muhim rol o‘ynayotgani ta’kidlanadi. Masalan, 2023-yilda IFC tomonidan 300 million dollarlik kredit Navoiy viloyatidagi quyosh stansiyasi uchun ajratildi. Manba O‘zbekistonning moliyaviy

imkoniyatlari cheklanganligini va XMIlar orqali jalb qilingan sarmoyalar iqtisodiy diversifikatsiyaga xizmat qilishini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, mahalliy qonunchilikdagi noaniqliklar va investorlar ishonchining pastligi muammo sifatida qayd etiladi. Ushbu hisobot O‘zbekiston uchun amaliy ahamiyatga ega, chunki u mahalliy sharoitlarni hisobga olgan holda XMIlarning rolini yoritadi, lekin global tajribaga yetarlicha e’tibor bermaydi.

International Finance Corporation (2024). "Green Energy Investments in Central Asia: Opportunities and Challenges." IFCning ushbu hisoboti Markaziy Osiyo, xususan O‘zbekistonda yashil texnologiyalarni moliyalashtirishdagi muammolar va imkoniyatlarni tahlil qiladi. 2023-yilda O‘zbekistonda quyosh energiyasi loyihalari uchun 500 million dollarlik sarmoya jalb qilingan, bu esa 150 ming tonna CO2 emissiyasini kamaytirishga xizmat qildi. Hisobot XMIlarning moliyaviy yordam bilan birga texnologik transfer va mahalliy kadrlar malakasini oshirishdagi rolini ta’kidlaydi. O‘zbekiston uchun bu manba muhim, chunki u mahalliy loyihalarni qo‘llab-quvvatlashda IFCning aniq hissasini ko‘rsatadi. Biroq, hisobotda loyihalarni monitoring qilish va ijtimoiy ta’sirni baholashdagi kamchiliklar qayd etiladi, bu esa O‘zbekistonda uzoq muddatli barqarorlikni ta’minlashda to‘siq bo‘lishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi (2023). "Qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish: xalqaro hamkorlik." Ushbu mahalliy hisobot O‘zbekistonda qayta tiklanadigan energiya loyihalarini moliyalashtirishda XMIlarning rolini yoritadi. 2022–2023 yillarda ADB va EIB bilan hamkorlikda 450 million dollarlik sarmoya jalb qilindi, bu esa Buxoro va Samarqand viloyatlarida shamol va quyosh stansiyalarini qurishga imkon berdi. Hisobot XMIlarning mahalliy infratuzilmani rivojlantirish va ish o‘rinlari yaratishdagi ahamiyatini ta’kidlaydi. O‘zbekiston uchun bu manba amaliy ahamiyatga ega, chunki u mahalliy loyihalarni moliyalashtirishning aniq natijalarini ko‘rsatadi. Biroq, hisobot global tendensiyalarni yetarlicha yoritmaydi va loyihalarni boshqarishdagi mahalliy muammolarga chuqur e’tibor bermaydi.

Asian Development Bank (2024). "Financing Green Technologies in Asia: The Role of Multilateral Institutions." ADBning ushbu hisoboti Osiyo mintaqasida yashil texnologiyalarni moliyalashtirishda XMIlarning rolini tahlil qiladi. O‘zbekistonda 2023-yilda ADB tomonidan 200 million dollarlik grant va kredit ajratilgan, bu esa energiya tejovchi infratuzilmalarni modernizatsiya qilishga yordam berdi. Hisobot XMIlarning yashil obligatsiyalar va iqlim fondlari orqali investitsiyalarni jalb qilishdagi muvaffaqiyatini ta’kidlaydi. O‘zbekiston uchun bu manba muhim, chunki u mahalliy loyihalarni global strategiyalar bilan bog‘laydi. Biroq, hisobotda mahalliy qonunchilik cheklovlari va ijtimoiy ta’sirni baholash masalalari yetarlicha chuqur yoritilmagan.

O‘zbekiston Milliy universiteti (2023). "Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish: O‘zbekiston tajribasi." Ushbu mahalliy tadqiqot O‘zbekistonda yashil texnologiyalarni moliyalashtirishda XMIlarning rolini tahlil qiladi. 2022–2023 yillarda Jahon Banki va IFC tomonidan 350 million dollarlik sarmoya quyosh energiyasi loyihalariga yo‘naltirildi, bu esa mahalliy iqtisodiyotda 600 ta ish o‘rni yaratdi. Tadqiqot XMIlarning mahalliy banklar bilan hamkorligini va yashil

obligatsiyalar bozorini rivojlantirishdagi rolini ta’kidlaydi. O‘zbekiston uchun bu manba muhim, chunki u mahalliy sharoitlarga mos yondashuvlarni taklif qiladi. Biroq, tadqiqot xalqaro tajribaga yetarlicha e’tibor bermaydi va loyihalarni monitoring qilishdagi muammolarni chuqur tahlil qilmaydi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi XMIlarning yashil texnologiyalarni moliyalashtirishdagi rolini tahlil qilish va O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda ushbu jarayonni optimallashtirish uchun strategiyalar ishlab chiqishdir. XMIlar yashil texnologiyalarni rivojlantirishda bir qator strategiyalar orqali faol ishtirok etmoqda. XMIlar yashil texnologiya loyihalarini moliyalashtirish uchun past foizli kreditlar va grantlar taqdim etadi. Masalan, ADB (2024) ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda 2023-yilda Farg‘ona viloyatida shamol energiyasi loyihasi uchun 150 million dollarlik grant ajratildi. Bu loyiha yiliga 120 ming tonna CO2 emissiyasini kamaytirishga va 400 ta ish o‘rni yaratishga xizmat qildi. Ushbu strategiya O‘zbekistonning mahalliy byudjet cheklovlarini bartaraf etishda muhim ahamiyatga ega. XMIlar yashil obligatsiyalar orqali investitsiyalarni jalb qilishni rag‘batlantiradi. EIB (2023) hisobotida ta’kidlanishicha, yashil obligatsiyalar global miqyosda 2023-yilda 300 milliard dollarlik sarmoya jalb qildi. O‘zbekistonda bu yo‘nalish hali boshlang‘ich bosqichda bo‘lib, 2024-yilda IFC tomonidan 50 million dollarlik yashil obligatsiyalar pilot loyihasi ishga tushirildi. Bu loyiha Toshkent shahridagi energiya tejovchi infratuzilmalarni modernizatsiya qilishga yo‘naltirildi. yashil texnologiyalarni joriy etishda texnik yordam ko‘rsatadi.

Masalan, Jahon Banki (2023) O‘zbekistonda quyosh paneli ishlab chiqarishni mahalliylashtirish uchun 100 million dollarlik texnik yordam dasturini boshladi. Bu dastur mahalliy korxonalarga xalqaro standartlarga mos texnologiyalarni joriy etishga yordam berdi, shu bilan birga 200 nafar mutaxassisni o‘qitishni ta’minladi. XMIlar mahalliy qonunchilikni takomillashtirish orqali yashil texnologiyalarni rivojlantirishga yordam beradi. IFC (2024) ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda 2023-yilda qayta tiklanadigan energiya loyihalari uchun soliq imtiyozlari joriy etildi, bu esa investorlar ishtirokini 20 foizga oshirdi. XMIlarning bunday yordami mahalliy biznes muhitini yaxshilashga xizmat qiladi. XMIlar loyihalarni moliyalashtirishda ijtimoiy ta’sirga e’tibor beradi. Masalan, ADB (2024) tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan Qashqadaryo viloyatidagi quyosh energiyasi loyihasi mahalliy jamoalarga barqaror energiya ta’minotini ta’minlab, 300 ta ish o‘rni yaratdi, ulardan 40 foizi ayollar uchun ajratildi. Bu yondashuv ijtimoiy tenglikni oshirishga xizmat qiladi.

Global miqyosda XMIlar yashil texnologiyalarni moliyalashtirishda keng ko‘lamli tajribaga ega. Masalan, Yevropa Ittifoqida EIB tomonidan moliyalashtirilgan yashil obligatsiyalar 2023-yilda qayta tiklanadigan energiya loyihalarini 30 foizga kengaytirdi. O‘zbekiston uchun bunday tajriba yashil obligatsiyalar bozorini rivojlantirish va investorlar ishonchini oshirishda foydali bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, Hindistonda ADB tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan qishloq joylaridagi quyosh energiyasi tarmoqlari O‘zbekistonning qishloq hududlari uchun mos model sifatida qaralishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Xalqaro moliyaviy institutlar (XMI) yashil texnologiyalarni moliyalashtirishda global va mahalliy miqyosda muhim rol

o‘ynaydi, ayniqsa, O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda barqaror rivojlanishni ta’minlashda strategik ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot XMIlarning moliyaviy resurslar, texnologik transfer va siyosiy islohotlarni qo‘llab-quvvatlash orqali yashil iqtisodiyotga o‘tishni tezlashtirishdagi hissasini ko‘rsatdi. O‘zbekistonning yashil iqtisodiyot strategiyasi doirasida XMIlar nafaqat investitsiyalar jalb qilish, balki mahalliy infratuzilma va inson kapitalini rivojlantirishda ham muhim vosita sifatida namoyon bo‘ldi. Ushbu bo‘lim yangi xulosalar va amaliy takliflar taqdim etadi, avvalgi qismlardagi ma’lumotlarni takrorlamaydi va O‘zbekistonning mahalliy sharoitlariga moslashtirilgan yechimlarga e’tibor qaratadi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, XMIlar yashil texnologiyalarni moliyalashtirishda ko‘p qirrali yondashuvlarni qo‘llaydi, bu esa rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy foyda keltiradi. O‘zbekistonning tajribasi XMIlarning kreditlar, grantlar va yashil obligatsiyalar orqali investitsiyalarni jalb qilishda muvaffaqiyatli ekanligini isbotladi. Shu bilan birga, mahalliy qonunchilikdagi noaniqliklar, loyihalarni monitoring qilishning yetishmasligi va ijtimoiy ta’sirni baholashdagi kamchiliklar muhim to‘siqlar sifatida qolmoqda. XMIlarning faoliyati nafaqat moliyaviy resurslar taqdim etish bilan cheklanmaydi, balki mahalliy biznes muhitini yaxshilash va global standartlarni joriy etishga ham xizmat qiladi. Bu esa O‘zbekiston kabi mamlakatlar uchun iqtisodiy diversifikatsiya va global raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi. XMIlarning yashil texnologiyalarni moliyalashtirishdagi muvaffaqiyati ularning davlatlar va xususiy sektor o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajarishida yotadi. O‘zbekistonda bu jarayon qayta tiklanadigan energiya loyihalarida, xususan, quyosh va shamol energiyasi tarmoqlarida sezilarli natijalar berdi. Biroq, loyihalarning uzoq muddatli barqarorligi uchun shaffaf boshqaruv va monitoring tizimlari zarur. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, XMIlarning yordami bilan O‘zbekiston yashil texnologiyalar bozorida global tendensiyalarga moslashish imkoniyatiga ega, ammo mahalliy infratuzilma va kadrlar malakasini oshirish masalalari hali to‘liq hal etilmagan.

O‘zbekistonning yashil texnologiyalarni rivojlantirishda XMIlarning rolini yanada kuchaytirish uchun quyidagi takliflar keltiriladi:

1. Yashil obligatsiyalar bozorini kengaytirish: O‘zbekiston mahalliy banklar va XMIlar bilan hamkorlikda yashil obligatsiyalar bozorini rivojlantirishi kerak. Bu mahalliy investorlarni jalb qilish va xususiy sektor ishtirokini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, mahalliy banklar orqali yashil obligatsiyalar chiqarishni rag‘batlantirish uchun soliq imtiyozlari joriy etilishi mumkin.
2. Mahalliy infratuzilmani modernizatsiya qilish: XMIlar tomonidan taqdim etilgan texnik yordam mahalliy infratuzilmani yaxshilashga yo‘naltirilishi kerak. Masalan, quyosh va shamol energiyasi tarmoqlarini kengaytirish uchun zamonaviy energiya saqlash tizimlari joriy etilishi lozim. Bu loyihalar samaradorligini oshiradi va energiya yo‘qotishlarini kamaytiradi.
3. Shaffaf monitoring tizimlarini joriy etish: XMIlar moliyalashtirgan loyihalarni baholash uchun mustaqil monitoring tizimlari tashkil etilishi kerak. Bu tizimlar loyihalarning iqtisodiy va ekologik ta’sirini muntazam ravishda tahlil qiladi va shaffaf hisobotlarni taqdim etadi. O‘zbekiston hukumati XMIlar bilan hamkorlikda bunday tizimlarni joriy etishi mumkin.

4. Mahalliy kadrlar malakasini oshirish: XMIlar tomonidan moliyalashtiriladigan ta’lim dasturlari kengaytirilishi kerak. Masalan, yashil texnologiyalar bo‘yicha maxsus o‘quv markazlari tashkil etilib, mahalliy mutaxassislarni xalqaro standartlarga moslashtirish zarur. Bu loyihalarni boshqarish va texnik xizmat ko‘rsatishda mahalliy resurslardan foydalanishni oshiradi.

5. Ijtimoiy inklyuziyaga e’tibor berish: XMIlar moliyalashtirgan loyihalar mahalliy jamoalarni, xususan, ayollar va yoshlarni jalb qilishga qaratilishi kerak. Masalan, qishloq hududlarida quyosh energiyasi tarmoqlarini o‘rnatishda mahalliy aholi uchun ish o‘rinlari yaratilishi va ta’lim imkoniyatlari taqdim etilishi lozim.

6. Xalqaro hamkorlikni chuqurlashtirish: O‘zbekiston XMIlar bilan hamkorlikni kengaytirib, texnologik transfer va innovatsion yechimlarni joriy etishga e’tibor berishi kerak. Masalan, vodorod energiyasi kabi yangi texnologiyalarni sinovdan o‘tkazish uchun pilot loyihalar ishga tushirilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Jahon Banki. (2023). Financing Sustainable Development in Emerging Markets. Washington, DC: World Bank Publications.
2. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. (2024). O‘zbekistonning yashil iqtisodiyot strategiyasi: moliyalashtirish istiqbollari. Toshkent: Iqtisodiyot va moliya vazirligi.
3. International Finance Corporation. (2024). Green Energy Investments in Central Asia: Opportunities and Challenges. Washington, DC: IFC.
4. O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi. (2023). Qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish: xalqaro hamkorlik. Toshkent: Energetika vazirligi.
5. Asian Development Bank. (2024). Financing Green Technologies in Asia: The Role of Multilateral Institutions. Manila: ADB.
6. O‘zbekiston Milliy universiteti. (2023). Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish: O‘zbekiston tajribasi. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.

Abduhamidov Sarvar Adhamovich
SamISI, Turizm kafedrasi mudiri, i.f.f.d., dotsent,

TURISTIK MINTAQALARNI RAQAMLASHTIRISH ORQALI TURISTLARNING SAYOHAT YO‘NALISHINI TANLASH IMKONIYATLARI OSHIRISH YO‘LLARI

Annotatsiya: Maqolada turizm sohasida raqamlashtirish jarayonlarining ahamiyati va ular orqali turistik mintaqalarning jozibadorligini oshirish masalalari yoritilgan. Turizm infratuzilmasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali turistlarga qulaylik yaratish, yo‘nalish tanlash imkoniyatlarini kengaytirish hamda mintaqaviy turizmni samarali boshqarish imkoniyatlari ochib berilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, yagona “Mintaqaviy turizm portali”ni yaratish

O‘zbekiston turizm brendining xalqaro nufuzini oshirishda muhim omil sifatida taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: turizm, raqamlashtirish, mintaqaviy turizm, axborot texnologiyalari, virtual turlar, geoaxborot tizimi, raqamli marketing.

Bugungi kunda mamlakatimizda turizm sohasini barqaror rivojlantirish, yangi yo‘nalishlardagi turistik marshrutlar va paketlarni ishlab chiqish, turizmning istiqbolli turlarini rivojlantirish, turistik infratuzilma ob’ektlarini xalqaro standartlar asosida shakllantirish masalalalari oldimizda turgan muhim vazifalar sirasiga kiradi. Shunday ekan, mamalkatimizda mintaqaviy turizmni rivojlantirish imkoniyatlarini keng tadqiq qilish, O‘zbekictonning mintaqaviy turistik imkoniyatlaridan foydalanish yo‘llarini izlab topish va buning natijasida mamlakatimizga turistlarni keng jalb qilish dolzarb vazifalarimizdan biridir.

Hozirgi kunda faol iste’molchi o‘ziga kerakli, xizmatlar haqida individual tasavvurini shakllantiradi va bu taklifga bevosita ta’sir o‘tkazadi. Natijada turizm industriyasi o‘z tarkibini o‘zgartirib, yangi, zamonaviy turistning xohish-istaklari hisobga olingan turistik ob’ektlarni yaratadi hamda turistlarga xizmat ko‘rsatish sohasiga yashash tarzining qulayligi va ko‘rsatilayotgan xizmatlarning yuqori sifatliligini, originalligini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan yangi faoliyat turlarini jalb etadi. Bu esa, o‘z navbatida, turizm infratuzilmasini tashkil etuvchi muhit va resurslardan jadal foydalanishga hamda avvallari turistik hisoblanmagan yangi resurslarni (qishloq, agrar va ekologik turizm) muomalaga jalb etishga undaydi. Turizm infratuzilmasi mavjud resurslardan shunchaki foydalanib qolmasdan, balki muhitga nisbatan o‘z individual talabini shakllantirib, o‘zaro ta’sir harakterini o‘zgartiradi.

Turistik mintaqalarni raqamlashtirish turistlarga qulaylik yaratish, ularning yo‘nalish tanlash imkoniyatlarini oshirish va turistik salohiyatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuning uchun, raqamlashtirish jarayonida interaktiv ma’lumotlar bazasi, shaxsiylashtirilgan yo‘nalishlar va qulay infratuzilma yechimlari ishlab chiqilishi kerak.

Turizm sohasida foydalaniladigan axborot-kommunikatsion texnologiyalari va tizimlarini quyidagi guruhlarga ajratish maqsadga muvofiq bo‘ladi (1-rasm).



1-rasm. **Turizm sohasida foydalaniladigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va tizimlari**

Ta’kidlash lozimki, axborot-kommunikatsiya tizimlari zamonaviy turizm industriyasi rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Ushbu tizimlar nafaqat turizm

mahsulotlari va xizmatlarini reklama qilish hamda sotish jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi, balki ularning maqsadli auditoriyaga tez va samarali yetkazilishiga ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar turizm sohasida yangi marketing kanallarini shakllantirish, xizmatlarni personallashtirish, mijozlar bilan interaktiv aloqani mustahkamlash va global bozorda raqobatbardoshlikni oshirish imkoniyatlarini yaratadi. Shuningdek, turizm sohasidagi raqamli marketing vositalari turistik oqimlarni tahlil qilish, mijozlarning talab va istaklarini aniqlash hamda ularga mos xizmatlarni taklif etish imkonini berib, soha samaradorligini yanada oshirishga hissa qo‘shadi.

O‘zbekiston Respublikasining turizm mintaqalarida turizmni rivojlantirishni rejalashtirishda asosiy turistik resurslar to‘g‘risida to‘liq va ishonchli ma’lumot hamda statistikaning yetarli darajada mavjud emasligi muhim muammolardan biri hisoblanadi. Bu esa samarali rejalashtirish va boshqarish jarayonlarini murakkablashtiradi. Shu munosabat bilan, turizm sohasida mavjud axborot tizimlarining holatini tahlil qilish, axborot texnologiyalarini keng qo‘llagan tarmoqlarni o‘rganish hamda axborot tizimlaridan foydalanish asosida mintaqaviy turizmni samarali boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga oid ilmiy va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi. Bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar raqamli transformatsiya jarayonlarini joriy etish orqali turizm infratuzilmasini rivojlantirish, xizmatlarni raqamlashtirish hamda turistik resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi.

Axborot texnologiyalari taraqqiyotining yo‘nalishlaridan biri turistik ma’muriyat faoliyatiga saytlar amaliyotining joriy etilishidir. Deyarli cheklanmagan imkoniyatlarga ega bo‘lgan Internet mintaqalar turistik ma’muriyatlari faoliyati uchun ulkan ahamiyatga ega, chunki u nisbatan past narxda jahondagi odamlarga katta miqdorda turistik mahsulotlar va xizmat-lar to‘g‘risidagi axborotni yetkazadi. Biroq, turizm mintaqalarining va turizm korxonalarning saytlarini faqatgina tijorat vositasi sifatida qarab bo‘lmaydi, ular butunjahon Internet tarmog‘ida, eng avvalo, mintaqani namoyish etadi hamda uning maqbul imidji shakllanishiga ko‘p jihatdan ko‘maklashadi.

Shularni hisobga olib, 2024 yil davomida O‘zbekistonning 5 ta turizm mintaqalaridagi turizmga oid veb-saytlar dizayni va ma’lumotlar bazasi tahlili shuni ko‘rsatdiki, turizm sohasida raqamli marketing va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish hamda veb-saytlarning vizual jozibadorligi va foydalanuvchiga moslashuvchanligini oshirish bo‘yicha xali qilinishi kerak bo‘lgan ishlar anchagina. O‘z navbatida, veb-saytlar dizayni va foydalanish qulayligini yaxshilash orqali mintaqaviy turizm salohiyatini oshirish va sayyohlarni jalb qilish imkoniyatlarini kuchaytirish mumkin.

Ta’kidlash lozimki, turizm mintaqalarida tayyorlangan veb-saytlarning talab darajasida emasligi, ayrim saytlarning talab darajasida ishlanmaganligi mavjud turistik mahsulotning sotilishiga hamda, turizm mintaqasining turistik imidjiga salbiy ta’sir qilishi aniqlandi. O‘zbekistonning turizm mintaqalaridagi veb-saytlarning samaradorligini oshirish maqsadida ularning axborot bazasini kengaytirish, boshqarish, yuklanish va axborotlarni tezda yangilab turish jarayonlarini amalga oshirish lozim.

O‘zbekiston Respublikasi turizm bozorining samaradorligini oshirish va turizm mintaqalarining jozibadorligini kuchaytirish maqsadida innovatsion texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, turizm mintaqalari uchun shakllantiriladigan veb-saytlarga mintaqa turistik obidalarining 3D, 5D yoki 7D modellarini joylashtirish tavsiya etiladi. Bu texnologiyalar yordamida virtual turlar tashkil qilinib, sayyohlarga mamlakatga tashrif buyurishdan oldin tarixiy va madaniy ob’ektlar bilan tanishish imkoniyati yaratiladi.

Shuningdek, virtual sayohatlar orqali turistlar voqelikni realistik ko‘rinishda anglay olishadi, bu esa ularning manzilga bo‘lgan qiziqishini oshirish va tashrif buyurish ehtimolini ko‘tarishga xizmat qiladi. Bunday raqamli yondashuvlar sayyohlar oqimini ko‘paytirish, marketing samaradorligini oshirish hamda O‘zbekiston turizm bozorining raqobatbardoshligini mustahkamlashda muhim omillardan biri hisoblanadi.

Virtual turlarning tashkil qilinishi, mamlakatimizning, jumladan, turizm mintaqalarimizning turistik salohiyatini va imkoniyatlarini asosli va ishonchli tarzda targ‘ib qilish, bo‘lajak turistlar oqimini ko‘paytirish, ularda O‘zbekistonga kelish ishtiyoqini bir necha barobarga oshirish imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

“3D, 5D yoki 7D panoramali ekskursiya” ya’ni virtual turlar an’anaviy reklama roliklariga nisbatan inson ongi va hissiyotiga tezroq ta’sir ko‘rsatadi. Sababi, bu texnologiyalar yordamida foydalanuvchilar hudud yoki turistik obidalarni 360° burchakda tomosha qilish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Natijada, ularda mazkur mintaqani o‘z ko‘zlari bilan real hayotda ko‘rish istagi kuchayadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish xalqaro turizm bozorida raqobatbardosh turistik mahsulotlarni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Shu munosabat bilan, biz axborot texnologiyalariga asoslangan, turistik mahsulotlarning raqamli transformatsiyasini ta’minlovchi yagona “Mintaqaviy turizm portali”ni yaratishni taklif qilamiz. Ushbu platforma turizm mintaqalarining jozibadorligini oshirish, turistik xizmatlarni markazlashtirilgan tarzda taklif etish, virtual sayohatlar orqali sayyohlar oqimini rag‘batlantirish va xalqaro bozorda O‘zbekiston turizm brendining nufuzini oshirishda samarali vosita bo‘lishi mumkin.

Zamonaviy geoaxborot texnologiyalari yordamida turistik resurslarning joylashuvi, ularning holati, mavsumiy o‘ziga xosliklari haqida to‘liq ma’lumot olish mumkin. Bu esa turizmni rejalashtirish va rivojlantirishda strategik qarorlar qabul qilish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Boltabayev, M. R., I. S. Tuxliyev, B. Sh. Safarov, and S. A. Abduhamidov. "Turizm: nazariya va amaliyot: darslik." Toshkent: Fan va texnologiya (2018).

2. Amriddinova, R. S., and S. A. Abdukhamidov. "Factors for Determining the Specialization of the Regions of the Republic of Uzbekistan in Tourism and the Assessment of Tourist Attractiveness." Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance 2.10 (2021): 51-55.

3. Abdukhamidov, S. A. "DISTINCTIVE FEATURES OF REGIONAL TOURISM DEVELOPMENT." Theoretical & Applied Science 4 (2019): 337-341.

4. Tukhliev, I. S., S. A. Abdukhamidov, and A. N. Muhamadiev. "Features of the use of digital technology in the development of geographic information systems in tourism." Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems 12.7 Special Issue (2020): 2206-2208.

Xamitov Mubin Xabibjonovich
SamISI "Menejment" kafedrasi dotsenti

MEHMONDO‘STLIK INDUSTRIYASI SERVIS FAOLIYATIDA RAQAMLI PORTAL VA PLATFORMALARNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya: Ushbu maqolada turizm sohasini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarni joriy qilish istiqbollari hamda mehmondo‘stlik industriyasi servis faoliyatida raqamli portal va platformalarning o‘rni va ahamiyati yoritilgan.

Tayanch so‘zlar: turizm, mehmonxona, mehmondo‘stlik industriyasi, mehmonxona xizmatlari, raqamli texnologiyalar, raqamli portal, onlayn portal, platforma, “UzbekistanPass”, “Uzbekistan.travel”.

Yangi O‘zbekistonning 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi ustuvor yo‘nalishida raqamli iqtisodiyotni asosiy “drayver” sohaga aylantirib, uning hajmini kamida 2,5 baravar oshirishga qaratilgan ishlarni olib borish vazifasi qo‘yilgan[44]. Ushbu vazifani bajarilishi makro darajada turizm sohasini rivojlantirish, YaIMdagi ulushini oshirish, aholini yangi ish o‘rinlari bilan ta’minlash maqsadida, raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, mehmondo‘stlik industriyasini kengaytirish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishni taqozo etmoqda.

O‘zbekistonda pandemiyadan keyingi davrda mehmondo‘stlik industriyasining jadal tiklanishida ijobiy tendensiyalar kuzatilmoqda, bu davlat tomonidan xorijiy sayohatlar uchun maksimal sharoit yaratish va barcha cheklovlarni olib tashlash bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar tufayli amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarni joriy etish mehmondo‘stlik industriyasini rivojlantirishning asosiy tendensiyalarini shakllantiradi, bu esa tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish va raqamli xizmatlar va platforma-lar ishtirokchilarining xabardorligini oshirish orqali turizm mahsulotining deyarli barcha tarkibiy qismlariga tobora ko‘proq ta’sir ko‘rsatmoqda.

Raqamli platformalar mamlakat mehmondo‘stlik industriyasini rivojlantirishda bugun hal qiluvchi rol o‘ynamoqda va bundan keyin ham shunday bo‘ladi. Raqamli texnologiyalar bu yil va kelgusi yillarda ham turizm industriyasi pandemiyadan keyingi tiklanish xolati sababli muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Raqamli kontent va onlayn platformalar butun dunyo bo‘ylab potensial mijozlar e’tiborini jalb qilish qobiliyatini oshirishi mumkin, bo‘lajak sayohatni

[44] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni.

rejalashtirish jarayonining barcha bosqichlarini: orzu qilish, rejalashtirish, bron qilish, tashrif buyurish va olgan ta’surotlari bilan baham ko‘rish jarayonlarini o‘z ichiga qamrab oladi.

Turistlarning e’tiborini sayohatni rejalashtirishning barcha besh bosqichida raqamli muhitda faol ishtirok etishi bilan, ularni ilhomlantirish orqali jalb qilish mumkin, aniq bir turmahsulotga ishonchini mustahkamlash, bron qilish jarayonini soddalashtirish va iste’molchilarga o‘z ta’surotlarini baham ko‘rishga yordam berish orqali sayohat qilishni ta’minlaydi.[45]

Bugungi kunda butun dunyo bo‘ylab turistlarning qariyb 80% o‘z sayohatlarini onlayn tarzda rejalashtirishmoqda. Bunga misol, Turkiya o‘zining turizm sanoati uchun raqamli marketingga katta sarmoya kiritishga tayyorligini e’lon qildi. Shri-Lanka turistlar uchun jozibador marshrut sifatida mamlakatning keng ko‘lamli raqamli promo-ko‘rsatuvi boshlanganini e’lon qildi. Indoneziya, Airbnb xalqaro kengayishiga javoban, davlat ko‘magida o‘zining ijara bron qilish tarmog‘ini ishga tushirdi.

Hozirgi sharoitda onlayn-portal va platformalar XXI-asrda xalqaro turizmning istiqbolini belgilamoqda. Turizmni baholash byurosi, www.tourism-review.com, butun dunyo bo‘ylab mehmondo‘stlik mutaxassislariga turizm bo‘yicha yagona yechim provayderi bo‘lishga yordam berish uchun o‘z xizmatlarini kengaytirganini e’lon qilmoqda. Dunyodagi yetakchi sayohat portali Buyuk Britaniyada joylashgan bo‘lib, uning vazifasi turizm mutaxassislariga tez o‘zgaruvchan raqamli muhitda o‘z maqsadlariga erishishda yordam berishdan iborat.

Moskvada yaratilgan, turistlar uchun turli xizmatlarga ega veb-sayt va mobil ilovani o‘z ichiga olgan “Russpass” raqamli platformasi butun mamlakat bo‘ylab ishlaydi. Ichki turizmni rivojlantirishda ijobiy natijalarni Moskva hukumati tomonidan ishlab chiqilgan Russpass raqamli platformasi ham beradi. Ushbu platformaning Russia.travel resursidan farqi shundaki, u nafaqat ma’lumotga ega bo‘ladi, balki turistlarga o‘z qiziqishlari va xohishlaridan kelib chiqib, Moskva va Rossiyaning boshqa hududlari bo‘ylab sayohatni rejalashtirish imkonini beradi.

Platformaning mobil ilovasida ekskursiyalar, muzeylar va teatrlarga chiptalar xarid qilish mumkin. Moskvaga sayohat qilishdan oldin turist poytaxtning barcha hududiy muzeylariga bepul kirish imkoniyati bilan uch, besh yoki yetti kunga tayyor sayohat paketini tanlash yoki o‘zining sayohat rejasini tuzish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ilova tashrif buyuriladigan obyektlar bilan yakuniy marshrutni ko‘rsatadi. Rossiyaning istalgan mintaqalari va turoperatorlari ushbu platformaga bepul ulanishlari mumkin.

Bugungi kunda mehmondo‘stlik industriyasi raqamli texnologiyalarnini amliyotga qo‘llash bo‘yicha faol rivojlanmoqda. Ko‘pgina zamonaviy shaharlar turistlar uchun tobora “aqlli” bo‘lib bormoqda, chunki ularda chiptalar sotib olish, ekskursiyalar va turli tadbirlarni bron qilish, jamoat transportidan foydalanish, velosipedlarni ijaraga olish va boshqa ko‘p narsalarni sotib olish imkonini beruvchi onlayn-raqamli xizmatlar mavjud. Aqlli turizm har bir kishi uchun ajoyib sayohat

[45] Данные и цифровые платформы как фактор роста отрасли туризма в России. Tourism Economics и Google.2021.

olamini ochib beradi va eng muhimi, ko‘p vaqitni va mablag‘ni tejashga yordam beradi.

Raqamli texnologiyalarni qo‘llashda mobil ilovalar tufayli turistning smartfoni yo‘lboshchi, tarjimon va xarita vazifasini o‘taydi. Turizm va madaniy me’ros vazirligi Axborot texnologiyalari va kommunika-siyalarini rivojlantirish vazirligi hamda Ichki ishlar vazirliklari bilan birgalikda “E-MEHMONXONA” avtomatlashtirilgan axborot tizimi ishlab chiqildi. Mazkur tizim ishga tushirilgach, davlat organlariga hisobot taqdim etish bilan bog‘liq qog‘ozbozlik tugatildi. Biroq, asosiy yutuq shundaki, bundan buyon mehmonxona korxonalari mehmonlarni ro‘yxatga olish jurnalini yuritishi shart emas. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.02.2018 yildagi “O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni asosida, turizm sohasida bir kator interaktiv elektron portallar, va saytlar yaratildi. Turistlar uchun 2018-yilda muhim ishlanmalardan biri bo‘lgan, turli xizmatlarini uz ichiga qamrab olgan “UzbekistanPass” loyihasi taklif qilindi (1-rasm).



1-rasm. “UzbekistanPass” onlayn platformasi

“UzbekistanPass” – O‘zbekistonda turistik xizmatlarini keng spektorini taqdim etuvchi birinchi milliy turistik ilovasi va portali bo‘ldi. Ushbu ilova, mamlakatda Smart turizmni rivojlantirish platformasiga aylanishi ta’kidlab o‘tilgan edi. Uzbekistan Pass maxsus milliy elektron portali, turistlar uchun quyidagi xizmatlarni taklif qildi:

- bank xizmatlari – “Kapital Bank” bankomatlari butun O‘zbekiston bo‘ylab sayyohlarga qulaylik maqsadida AQSh dollarini, O‘zbekistonning so‘miga ayriboshlash xizmati;

- onlayn funksiyalar – mehmonxonalarni bronlash, tur paket sotib olish, gid, transport xizmatlarini buyurtma qilish, samolyot va poyezdga chipta xarid qilish xizmatlari;

- diskont xizmati – O‘zbekiston hududida sotib olingan tovar va xizmatlar uchun chegirmalar va bonuslar olish imkoniyati;

- elektron xarita – navigator, geolokatsiya xizmati sayyohlar uchun xaritada yullar, kerakli barcha obyektlarni tasvirlash;

- xavfsizlik – ushbu portalda SOS nuqtasi mavjud bo‘lib, sayohatchilarni xavfsilzligini kafolatlashi;

- turistik sug‘urta – yuzaga kelgan tibbiy yordamga muhtoj bo‘lgan sayohatchilarning xarajatlarini qoplaydi;

- elektron gid – ushbu portalda O‘zbekiston haqida barcha ma’lumotlar olishga imkon berishi va boshqa ko‘plab imkoniyatlardan iborat.

Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi tomonidan bir qator boshqa portallar, va saytlar joriy qilinmoqda. Jumladan vazirlik qoshida Milliy PR markazi DUK jamoasi tomonidan “Uzbekistan.travel” sayyohlik veb-portali tashkil etildi (2-rasm).



2-rasm. “Uzbekistan.travel” sayyohlik veb-portali

Ushbu raqamli kontent brinchi navabatda turizm sohasi vakillari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, mahalliy va xorijiy turoperatorlar, sayyohlik agentliklari, ommaviy axborot vositalari vakillari, gidlar va sayohat blogerlari, turizm bilan bog‘lik bo‘lgan yondosh tarmoqlar uchun mo‘ljallangan. Maqsadi O‘zbekiston turistik resurslarini turistik mahsulot sifatida respublika ichida ham, xorijda ham targ‘ib qilishdan iborat. Ushbu sayyohlik veb-portali quyidagi sahifalardan iborat:

- ✓ O‘zbekiston shaharlari va obidalari haqida ma’lumot;
- ✓ sayyohlar uchun umumiy ma’lumot (Uzbekistan.safe.travel GUARANTEED tizimi, sayohatchilar uchun qoidalar);
- ✓ on-line turlar, madaniy-meros obyektlari haqida ma’lumotlar;
- ✓ foto va video lavhalar;
- ✓ turistik marshrutlar;
- ✓ turizmni barcha yo‘nalishlari bo‘yicha ma’lumotlar va boshqa turdagi ma’lumotlar berilgan.

“Uzbekistan.travel” sayyohlik veb-portalni yanada samarali va turistlar uchun jozibodor qilish maqsadida quyidagi tavsiyalarni hisobga olishni taklif qilamiz:

- mehmonxonalar (va boshqa turdagi turar joy vositalari) xaqida umumiy ma’lumotlar bazasini yaratish (manzili, to‘la faoliyati haqida sayti, tarixi);
- tarixiy obida va mehmonxonalarni xaritada joyini ko‘rsatish (geolokatsiya);
- tarixiy obida va mehmonxonalarni 360° formatida binosini, atrofini, va xonalarini tasvirlash;
- tarixiy obida va mehmonxonalar xakida sayyohlar va turistlar ta’surot-lari asosida reyting ko‘rsatgichlarini ishlab chiqish;
- booking.com mehmonxona bronlash saytini manzillarini alohida sahifa ochib portalga biriktirish;
- O‘zbekistonda turizm transport xizmati haqida ma’lumotlar ba’zasini yaratish.

Yangi O‘zbekistonda raqamli texnologiyalarni qo‘llash orqali turizm xizmatlarining raqobatbardoshligini oshirishning xorijda sinalgan va isbotlangan usullaridan biri bo‘lgan geoaxborot tizimini shakllantirish zarur. Shu munosabat bilan Turizm qo‘mitasi va mahalliy hokimiyat organlari bilan birgalikda “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini[46] amalga oshirishning “Yo‘l xaritasi”da belgilangan vazifalarni bajarish maqsadida O‘zbekiston turizm sohasini raqamli transformasiyalashuvi jarayonida turizm geoportalini ishlab chiqishni taklif qilamiz.

A.A.Safaryan o‘zining maqolasida global tarmoqda turistik ma’lumotlarni qayta ishlash, tahlil qilish va taqdim etish vositalaridan biri bu interaktiv xaritaga ega turistik portaldir, bunday vosita Armaniston Respublikasining turizm sektorini rivojlantirish uchun muhim qadam bo‘lishi mumkin, deb hisoblaydi[47].

Bizning fikrimizcha, iqtisodiyoti rivojlangan aksariyat turistik mamlakatlar amaliyotiga asoslanib, O‘zbekistonda turizm geoportalini shakllantirish ko‘p qirrali ahamiyatga ega bo‘lib, bir tomondan, geoportal hududning turistik salohiyatini o‘rganish natijalarini vizual tarzda ko‘rsatishi va kelgusidagi ilmiy-ma’rifiy tadqiqot ishlar uchun asos bo‘lishi mumkin bo‘lsa, ikkinchi tomondan, turistlarga distenasiyalar farqini va xususiyatlarini tushunish imkonini beradi, investorlarga esa mehmondo‘stlik industriyasini rivojlanish uchun istiqbolli hududlarni tanlash imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni.

2. I.S.Tuxliyev, A.A.Eshtayev. Turizmda geoaxborot tizimlari**.** (Darslik)**.** – Samarqand; «Ipak yo‘li» turizm xalqaro universiteti nashriyoti, 2023. 306 bet.

3. А.А.Сафарян. Туристский геопортал как инструмент визуализации результатов исследования и продвижения дестинации. ФГБОУ ВО «Пермский

[46] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 yildagi PF-6079-sonli Farmoni,. https://lex.uz/ru/docs/5030957.

[47] А.А.Сафарян. Туристский геопортал как инструмент визуализации результатов исследования и продвижения дестинации. ФГБОУ ВО «Пермский государственный национальный исследовательский университет», г. Пермь, Российская Федерация. 2021.

государственный национальный исследовательский университет», г. Пермь, Российская Федерация. 2021.
4. https://www.unwto.org/

Allayarov Suxrob Rustamovich,
TDIU "Moliya va moliyaviy texnologiyalar" kafedrasi dotsenti, PhD va talabasi
Qurbonov Xusrav Xudoyberdi o'g'li,

BANKLAR FAOLIYATIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI VA XIZMAT KO'RSATISH SOHALARIDAGI SALMOG'I

Bugun biz global raqamli iqtisodiyot asrida banklar faoliyatida innovatsion yondashuvlarga asosan ijobiy o'zgarib borayotganini kuzatmoqdamiz. Hozirgi payt banklar orasida raqobatbardoshlikni saqlab qolish uchun tashkiliy innovatsion o'zgarishlarini modernizatsiya qilish banklar orasidagi dolzarb masalaga aylangan. Shundan kelib chiqib, ayni vaqtda biznesdagi muvaffaqiyatning asosiy omillaridan biri – bu doimiy innovatsiya siyosatidir.

Kelajakda ilg'or bank texnologiyalarini rivojlantirish va bu orqali bank tizimi va xizmatlari sifatini oshirish bank muassasalari uchun faoliyatining asosiy tamoyili sifatida qaralishi mumkin. Mavjud innovatsion yondashuv bank loyihalari va xizmatlari ko'lamini kengaytirish, shuningdek, tijorat banklari tomonidan mijozlarga xizmat ko'rsatishni samarali tashkillashning muhim shartlaridan biri bo'lib, aksariyat hollarda bank faoliyatining samaradorligini va rivojlanish istiqbollarini belgilab beradi.

Jahon amaliyotiga ko'ra, tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlari hamda yangi raqamli texnologiyalar orqali bank tizimidagi muammoli holatlarni bartaraf etish maqsadida moliyaviy yechimlar ishlab chiqishni taqazo qilmoqda. Xususan, jahon bank tizimini mobil texnologiyalar, raqamli banklar, biometrik texnologiyalar, blokcheyn texnologiyasi va sun'iy intellekt kabi zamonaviy texnologiyalar bilan o'zaro bog'liq ravishda rivojlanishni ilgari surmoqda. Bu esa banklar uchun masofaviy bank xizmatlarini innovatsion va texnologik jihatdan takomillashtirish borasida o'zaro bog'liq ilmiy-amaliy tadqiqotlar qilishni taqazo qilmoqda.

Bu texnologiyalarni O'zbekiston respublikasida ham qo'llash to'g'risida ko'plab tizimli ishlar olib borilmoqda. Bunga yaqqol misol sifatida O'zbekiston respublikasi pezidenti Shavkat Mirziyoyevning bank ishi to'g'risida "*Bank boshqaruvi: strategik maqsadlarni, korporativ boshqaruv siyosatini, bankning boshqa ichki siyosatlarini, shu jumladan tavakkalchiliklarni aniqlash, boshqarish, monitoring qilish va tavakkalchiliklar to'g'risida xabardor etish, kapitalning yetarliligini lozim darajada saqlab turish siyosatini amalga oshirishi* "[48]. Albatta hozirgi kun talablariga binoan bank ishida yangi innovatsiya qo'llash ham dolzarbligini aytish joyiz.

[48] https://tengebank.uz/ "Bank faoliyati to'g'risidsada" O'zR 05.11.2019 y. O'RQ-580-son Qonuni bilan tasdiqlangan.

Bu mazmundagi qonunlar joriy etilishi tarmoqlar bo‘yicha yangilanishlar uchun asosiy burilish vazifasini o‘tadi

Masofadan bank xizmatlarini iste’molchilarga taqdim etish mohiyatiga ko‘ra, moliyaviy o‘tkazmalarni amalga oshirish va ma’lumotlar olib turish tizimlariga ajratishimiz mumkin (1-rasm). Ma’lumotlarni uzatish turlariga axborotlarni yetkazib berish va qabul qilish, so‘nggi o‘tkazmalar haqida ma’lumotlar olish hamda boshqa xizmatlarni bank taklif etishi mumkin.



1-rasm. Masofaviy bank xizmatlari taqdim etish yo‘llari[49].

Masofaviy bank xizmatlarini ko‘rsatuvchi tizimlar mijozlar uchun uning masofadan berilgan topshiriqlarga binoan (bankka kelmasdan) bank tomonidan xizmatlar ko‘rsatilishini xarakterlovchi asosiy vosita. Bu tizimlar yaqqol ravishda simsiz aloqa kanallari orqali, xususan onlayn, kompyuter, telefon, mobil telefon, va interfaol television kabellar orqali amalga oshiriladi. Masofaviy bank xizmatlari bevosita yangi raqamli texnologiyalarga bog‘liq hamda o‘zaro yaxlitlikni kasb etadi.

Moliyaviy soha rivojlanishining yangi bosqichi muqarrar ravishda raqamli transformatsiyaga olib kelgan holda bank mahsulotlari, marketing va sotish, mijozlarga xizmat ko’rsatish hamda operatsion jarayonlar raqamli muhitga o‘tadi.

L. Koxning fikriga ko‘ra, “… bank innovatsiyalari - bevosita foydalanuvchilar uchun ishlab chiqilgan va mijozlarning o‘zlari tomonidan qo‘llanadigan, avvalgi texnologik innovatsiyalarga nisbatan takomillashtirilgan, bank jarayonining bir qismi bo‘lgan zamonaviy infokommunikatsiya texnologiyalariga o‘tkazilgan inovatsioyalardir”[50].

Banklar tizimida innovatsion texnologiyalar foydalanilishi moliyaviy xizmatlarni yanada samarali, xavfsiz va qulay qilishga yordam beradi. Quyidagi asosiy yo‘nalishlarda innovatsion texnologiyalar qo‘llaniladi:

1. Internet-banking va mobil banking: Mijozlar o‘z hisoblarini onlayn boshqarish, to‘lovlarni amalga oshirish va boshqa xizmatlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Mobil ilovalar orqali bank xizmatlariga kirish qulayligi oshadi.

2. Blockchain va kriptovalyutalar: Blockchain texnologiyasi xavfsiz tranzaktsiyalarni amalga oshirishda qo‘llaniladi. Kriptovalyutalar esa yangi moliyaviy vosita sifatida rivojlanmoqda.

---

49 Дистанционное банковское обслуживание. Коллектив авторов / КНОРУС, ЦИПСиР. – М.: 2010. (Tuzuvchi shaxs tomonidan o‘zgartirishlar kiritilgan)

50 Кох, Л.В. (2010). Принципы и механизмы повышения эффективности банковской деятельности на основе использования инноваций:

3. AI va mashina o‘rganish: Sun’iy intellekt va mashina o‘rganish algoritmlari mijozlarning xatti-harakatlarini tahlil qilish, kredit risklarini baholash va fraud (firibgarlik) aniqlashda qo‘llaniladi.

4. Big Data: Katta ma’lumotlar tahlili banklarga mijozlar haqidagi ko‘proq ma’lumot olish va shaxsiylashtirilgan xizmatlar taklif etishda yordam beradi.

Bank tizimida raqamlashtirish jarayonlari kengayib borar ekan, masofaviy xizmatlarni uyg‘unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda xizmatdan foydalanuvchilar haqidagi ma’lumotlarni to‘g‘ri va aniq yig‘ish hamda qayta ishlash uchun **katta ma’lumotlar texnologiyasi (Big Data)** qo‘llaniladi. Bunday yondashuv bank faoliyatining samaradorlikni oshirib, bozorda raqobatga chidamli va talab yuqori bo‘lgan yangi **raqamli mahsulotlarni yaratish** hamda mavjud xizmatlar qamrovni kengaytirishga asosiy dastak bo‘ladi. Big Data texnologiyasi yordamida foydalanuvchi va mijozlarga oid katta hajmdagi ma’lumotlarni **juda kam vaqt ichida** tahlil qilish mumkin, bu esa qarorlar qabul qilish aniqligini va xizmat sifati darajasini oshiradi.

5. Raqamli identifikatsiya: Biometrik texnologiyalar (barmoq izlari, yuzni tanish) va raqamli identifikatsiya tizimlari xavfsizlikni oshirish va mijozlarning shaxsini tasdiqlashda qo‘llaniladi.

6. Fintech kompaniyalari bilan hamkorlik: Banklar fintech startaplari bilan hamkorlik qilib, innovatsion xizmatlar va mahsulotlarni taklif etishda raqobatbardosh bo‘lishadi.

7. Avtomatlashtirilgan xizmatlar: Chatbotlar va virtual yordamchilar mijozlarga 24/7 xizmat ko‘rsatish imkoniyatini beradi, shu bilan birga, operatsion xarajatlarni kamaytiradi.

8. Xavfsizlik texnologiyalari: Kiberxavfsizlikni ta‘minlash uchun yangi texnologiyalar, masalan, shifrlash va xavfsizlik devorlari (firewall) qo‘llaniladi.

Tadqiqot natijalari bo’yicha olimlarning quyidagicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishmoqda:

- Mobil texnologiyalarni, birinchi navbatda, ijtimoiy-maishiy xizmatlarni ko‘rsatish, transport, savdo, ayniqsa, hududlarda joriy etish;
- Naqd pulsiz to‘lovlarni amalga oshirishda innovatsion mahsulotlarni, shu jumladan, bevosita muloqotsiz va mobiul texnologiyalarni rivojlantirishni ilg‘or surish;
- Axborotlarni “BigData” asosida yig‘ish, qayta ishlash va tahlil qilish bo‘yicha avtomatlashtirilgan tizimni joriy etish.

Xulosa qilib aytganda, masofaviy va yangi texnologiyalarga asoslangan bank xizmat turlarini amaliyotda qo‘llash davlat iqtisodiy va texnologik taraqqiy sharoitidan kelib chiqqan holda joriy qilish va ularni samaradorligini oshirish yo‘llari bilan bank xarajatlarini kamaytirishga erishiladi. Innovatsion texnologiyalarni joriy qilishda ushbu texnologiyalar bilan bog‘liq xizmatlarni unutmaslik kerak. Bugungi kunda tijorat banklari kibertahdidlar sonining keskin ortishiga duch kelmoqda. Hozirda mobil banking orqali foydalanuvchilarning shaxsiy ma’lumotlariga kirish va xakkerlik bilan bog‘liq firibgarlik harakatlari soni ortib bormoqda. Bundan tashqari, mamlakatimizda bank sektori texnologik va shaxsiy risklarga duch kelmoqda. Innovatsion texnologiyalarini joriy etishning shiddat bilan rivojlanishi malakali

boshqaruv kadrlarining yetishmasligi va axborotlar tuzilmalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqada qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Shu asosda, O‘zbekistonda iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida tijorat banklari o‘z mijozlari uchun yangi texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha keng qamrovli innovatsion siyosatni amalga oshirishlari lozim.

Komilova Mukammal Shavkatovna
SAMDAQU “Iqtisodiyot” kafedrasi mudiri
Rayimov Ma’rufjon Abdurashid o‘g‘li
SAMDAQU “Iqtisodiyot” kafedrasi o‘qituvchisi

EKOLOGIK TRANSFORMATSIYA VA YASHIL IQTISODIYOT: BARQAROR RIVOJLANISHNING YANGI MODELI.

Anotatsiya: Mazkur maqolada ekologik transformatsiya va yashil iqtisodiyotning nazariy asoslari, ularning global miqyosdagi dolzarbligi, barqaror rivojlanishdagi tutgan o‘rni va O‘zbekiston sharoitida joriy etish yo‘llari tahlil qilinadi. Yashil iqtisodiyotga o‘tish nafaqat ekologik xavfsizlikni ta’minlash, balki uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikka erishishda ham hal qiluvchi omil ekani asoslab beriladi. Mavzuga oid xalqaro tajribalar va O‘zbekiston amaliyoti solishtirilib, amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Yashil iqtisodiyot, ekologik transformatsiya, barqaror rivojlanish, iqlim o‘zgarishi, qayta tiklanuvchi energiya, uglerod neytralligi, yashil moliyalashtirish, ekologik siyosat.

Kirish: So‘nggi yillarda insoniyat taraqqiyoti ekologik inqiroz, iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslarning cheklangani kabi dolzarb muammolar bilan yuzma-yuz kelyapti. An’anaviy iqtisodiy modellar ko‘pincha atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatgan, ekologik muvozanat buzilishiga olib kelgan. Bugungi kunda esa iqtisodiy o‘sish faqat raqamlar bilan emas, balki uning ekologik, ijtimoiy va resurslar bo‘yicha barqarorligi bilan baholanmoqda. Shunday sharoitda ekologik transformatsiya va yashil iqtisodiyot tushunchalari global miqyosda iqtisodiy siyosatning markaziga chiqmoqda. Ekologik transformatsiya – bu iqtisodiyotni atrof-muhitga mos tarzda tubdan o‘zgartirish bo‘lsa, yashil iqtisodiyot esa ushbu o‘zgarishlarning amaliy modelidir. Yashil iqtisodiyot iqlimga zarar yetkazmagan holda iqtisodiy o‘sishga erishishni, barqaror bandlikni ta’minlashni, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni nazarda tutadi.

Ushbu maqolada ekologik transformatsiyaning nazariy asoslari, yashil iqtisodiyotning rivojlanish tendensiyalari, xalqaro tajribalar, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida bu borada olib borilayotgan siyosat va amaliyotlar tahlil qilinadi. Maqolaning maqsadi – yashil iqtisodiyotning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash, ularni milliy rivojlanish strategiyasiga integratsiya qilish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqishdir.

Asosiy qism: Zamonaviy iqtisodiy taraqqiyot tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan bo‘lsa-da, uning ekologik oqibatlari tobora yaqqolroq namoyon bo‘lmoqda. Iqlim o‘zgarishlari, global isish, tabiiy resurslarning kamayib borishi va

bioxilma-xillikning yo‘qolishi bularning yaqqol dalilidir. Shu sababli butun dunyo bo‘ylab iqtisodiy faoliyatni ekologik mezonlar asosida qayta tashkil qilish, ya’ni **ekologik transformatsiya**ga ehtiyoj sezilmoqda. Ushbu transformatsiyaning amaliy ifodasi sifatida esa “**yashil iqtisodiyot**” tushunchasi paydo bo‘lib, bugungi kunda ko‘plab davlatlar iqtisodiy strategiyalarida asosiy tamoyilga aylangan.

Yashil iqtisodiyot, asosan, iqtisodiy o‘sish bilan bir qatorda, atrof-muhitni muhofaza qilish va resurslardan oqilona foydalanishni o‘z ichiga oladi. BMT ta’rifi bo‘yicha, yashil iqtisodiyot – bu “inson farovonligini oshiruvchi va ijtimoiy tenglikni ta’minlovchi, shu bilan birga atrof-muhit xavfini kamaytiruvchi” iqtisodiy modeldir. Bu model qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o‘tish, chiqindilarni kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish, yashil transport tizimlarini rivojlantirish va ekologik toza texnologiyalarni joriy etishni nazarda tutadi.

Xalqaro tajribaga nazar tashlaydigan bo‘lsak, Yevropa Ittifoqi “Yashil kelishuv” (Green Deal) strategiyasi orqali 2050 - yilgacha uglerod neytralligiga erishishni maqsad qilgan. AQSh, Xitoy va Yaponiya kabi yirik iqtisodiyotlar esa trillionlab dollar mablag‘ni yashil infratuzilmaga yo‘naltirmoqda. Jahon banki, BMT Taraqqiyot Dasturi va boshqa tashkilotlar esa “yashil moliyalashtirish” dasturlari orqali rivojlanayotgan davlatlarga ko‘mak bermoqda.

O‘zbekiston Respublikasi ham yashil iqtisodiyotga o‘tish yo‘lida muhim qadamlar qo‘ymoqda. 2023 - yilda qabul qilingan “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” doirasida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish, chiqindilarni qayta ishlash, suv va yer resurslaridan samarali foydalanish bo‘yicha chora-tadbirlar belgilandi. So‘nggi ikki yilda yirik quyosh elektr stansiyalari barpo etildi, ekologik qonunchilik mustahkamlandi, xalqaro “yashil” kredit liniyalari jalb qilindi.

Biroq, mavjud muammolar ham bor. Energetika sohasida an’anaviy yoqilg‘ilarga yuqori darajadagi qaramlik, ekologik texnologiyalarning qimmatligi, moliyalashtirish manbalarining yetishmasligi, aholining ekologik savodxonligi pastligi yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonini sekinlashtiradi. Shuningdek, ishlab chiqaruvchi korxonalar va kichik biznes uchun yashil standartlar joriy etilishi hali yetarli emas. Yashil iqtisodiyotning muvaffaqiyatli joriy etilishi uchun esa tizimli yondashuv talab etiladi. Bu – ekologik qonunchilikni mustahkamlash, yashil investitsiyalar uchun imtiyozlar yaratish, innovatsion texnologiyalarni mahalliylashtirish, aholining ekologik ongini oshirish, yoshlar va tadbirkorlarni yashil tashabbuslarga jalb etishni o‘z ichiga oladi. Yashil iqtisodiyot faqat hukumat siyosati emas, balki butun jamiyat ishtirokida shakllanuvchi uzoq muddatli rivojlanish modelidir.

Xulosa va takliflar: Xulosa qilib aytganda, yashil iqtisodiyot va ekologik transformatsiya zamonaviy iqtisodiyotning muqarrar evolyutsion bosqichidir. Ular nafaqat atrof-muhitni muhofaza qiladi, balki barqaror iqtisodiy o‘sish, yangi ish o‘rinlari yaratish va aholining sog‘lom turmush tarzini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston uchun bu yo‘nalish strategik ustuvorlik bo‘lib, milliy taraqqiyot dasturlarida o‘z aksini topmoqda. Lekin bu borada amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalar ham talaygina.

- Yashil moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish**:** yashil obligatsiyalar, ekologik kreditlar, xususiy sarmoya va xalqaro grantlar hisobiga yashil loyihalarni qo‘llab-quvvatlash zarur.
- Ekologik qonunchilikni kuchaytirish**:** sanoat, qishloq xo‘jaligi va transport sohalarida ekologik standartlarni majburiy joriy etish.
- Texnologik innovatsiyalarni joriy etish: energiyani tejovchi, chiqindisiz ishlab chiqarish va qayta ishlash texnologiyalarini ishlab chiqish va mahalliylashtirish.
- Aholining ekologik savodxonligini oshirish: maktab va oliy ta’lim tizimida ekologik ta’limni kuchaytirish, ommaviy axborot vositalari orqali targ‘ibot ishlarini olib borish.
- Hududiy “yashil transformatsiya dasturlari”ni ishlab chiqish: har bir viloyatning iqlim, resurs va ishlab chiqarish xususiyatlaridan kelib chiqib, alohida yashil rivojlanish yo‘l xaritalarini ishlab chiqish.

Yashil iqtisodiyotga o‘tish – bu faqat ekologik muammo emas, balki iqtisodiy imkoniyatdir. Unga o‘z vaqtida moslasha olgan mamlakatlar global bozorning yangi bosqichida oldinga chiqadi. O‘zbekiston ham bu yo‘lda o‘z salohiyatidan to‘liq foydalanmog‘i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. (2024). *O‘zbekiston Respublikasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar holati bo‘yicha hisobot*. Toshkent: Rasmiy nashr.
2. Soliyev, A., & Karimov, N. (2021). *Investitsiyalar va iqtisodiy o‘sish: nazariya va amaliyot*. Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti.
3. Mankiw, N. G. (2020). *Principles of Economics* (9th ed.). Boston: Cengage Learning.
4. UNCTAD (2023). *World Investment Report 2023: Investment in Sustainable Energy for All*. United Nations Conference on Trade and Development. Retrieved from: https://unctad.org
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori, PQ–3212-son, 2023-yil 14-aprel. *Investitsion muhitni yanada yaxshilash va investorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida*.
6. World Bank. (2023). *Doing Business 2023: Comparing Business Regulation in 190 Economies*. Washington, DC: World Bank Publications.
7. Xolboev, B. (2022). “Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning zamonaviy mexanizmlari.” *Iqtisodiyot va innovatsiya*, 5(2), 45–52.
8. Komilova, M, Sh, "O’zbekistonda investitsiya salohiyatini oshirish yo’llari." Евразийский журнал академических исследований 2.3 (2022): 575-584.
9. M.Sh.Komilova."Raqamli iqtisodiyotning tizimli rivojlanishida boshqaruv uslublarining o’rni." Journal of marketing, business and management 1.5 (2022): 53-57.
10. Shavkatovna, K. M., & Bakhtiyarov, I, S, (2024), What is the effect of global economic changes in the world on the economy and what important measures need to be taken?, Multidisciplinary and Multidimensional Journal, 3(1), 43

Юлдуз Пирназаровна Урунбаева - *Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти доценти, PhD*
Темирова Шалола Эркиновна - *мустақил изланувчи*

ТАЪЛИМ ХИЗМАТЛАРИ РИВОЖЛАНИШИНИНГ ИЛМИЙ –НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

Ҳозирги замонавий шароитларда ҳар қандай давлатнинг ижтимоий - иқтисодий равнақи мамлакатдаги таълим хизматларининг ҳолати ва принциплари билан чамбарчас боғликлигини реал ҳаётнинг ўзи кўрсатиб турибди. Таълим хизматлари миллий иқтисодиёт учун зарур ва замон талабларига мос келадиган малакали ходим ва мутахассисларни тайёрлашда ўзига хос ўринга эга.

Бироқ таълим хизматлари фаолияти мураккаб ва кўп қиррали жараён бўлиб, ҳозирги кунда ушбу хизмат тури тез ривожланиб, табора сайқалланиб бормоқда.

Биз назарий жиҳатдан кўпроқ таълим хизматлари ҳақида тассавурга эга бўлишимизда, унинг мазмун - моҳиятини етарлича англашимиз, бунинг учун олдин “таълим” ва “хизмат” тушунчаларини алоҳида-алоҳида ажратиб талқин қилишимизга зарурият туғилади.

Ўзбек тилининг изоҳли луғатида “Таълим” сўзи - ўргатиш, ўқитиш, илм бериш, маълумот маъноларини англатиб, “Таълим” ибораси бир неча мазмунда қўлланилиши эътироф этилган. Масалан, билим бериш, малака ва кўникмалар ҳосил қилиш жараёни, кишини ҳаётга ва меҳнатга тайёрлашнинг асосий воситаси, илм-фан ёки касб-ҳунар соҳалари бўйича эгалланадиган, маълумот ва кўникмалар мажмуи, тарбия, одоб-ахлоқ, кўрсатма, йўл-йўриқ маъноларида таърифланган (1.1.1-расм)[51].

Ўзбекистон Республикасининг янги таҳрирдаги 2020 йил 23 сентябрда қабул қилинган “Таълим тўғрисида”ги қонунининг 1-боб 3-моддасида “Таълим - таълим олувчиларга чуқур назарий билим, малакалар ва амалий кўникмалар беришга, шунингдек, уларнинг умумтаълим ва касбий билим, малака ҳамда кўникмаларини шакллантиришга, қобилиятини ривожлантиришга қаратилган тизимли жараён”лиги ҳақида тушунча берилган[52]. Россиялик олимларидан Е.А. Клокова ва К.Д.Трубниковалар ўзларининг илмий асарларида “Таълим - бу билимларни ўзлаштириш, такомиллаштириш ва янгилаш жараёни бўлиб, кейинчалик инсонлар уларни амалда қўллашлари мумкин”лигини таъкидлашади[53].

Демакки, юқоридагилардан келиб чиқиб айтадиган бўлсак, таълим билим бериш, кишини ҳаётга ва меҳнатга тайёрлашнинг асосий воситасидир. Таълим жараёнида маълумот олинади ва тарбия амалга оширилади.

---

[51] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Т.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Давлат илмий нашриёти. Тўртинчи жилд, тузатилган 2-нашри. 2020, - 27-28-бетлар

[52] Ўзбекистон Республикасининг“Таълим тўғрисида”ги қонуни. 2020 йил 23 сентябрь https://lex.uz/docs/5013007

[53] Клокова Е.А., Трубникова К.Д. Понятие образовательной услуги. Платность дополнительных образовательных услуг в государственных и муниципальных учреждениях // E-Scio, 2019. С. 572-580.



1.1.1-расм. Таълим мазмунини англатувчи таркиб[54]

Ўзбек тилининг изоҳли луғатида “Хизмат” тушунчаси ҳам кенг ёритилиб унга кўра, “Хизмат” бирор иш ёки меҳнат билан шуғулланиш, бирор ишни бажариш, иш, меҳнат, бировга ёрдам кўрсатиш, холисона қилинган иш, ёрдам, яхшилик, бирор ташкилот, муассаса ёки корхонада бажариладиган иш, вазифа, лавозим, шундай жойда ишлаш, армия сафида бўлиш, ҳарбий мажбуриятни ўташ, армия таркибидаги айрим ихтисослашган соҳалар ёки тармоқлар дея таърифланади (1.1.2-расм)[55].



1.1.2-расм. Хизмат мазмунини англатувчи таркиб[56]

[54] Муаллиф томонидан ишлаб чиқилган
[55] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Т.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Давлат илмий нашриёти. Тўртинчи жилд, тузатилган 2-нашри. 2020, - 395-396-бетлар
[56] Муаллиф томонидан ишлаб чиқилган

Иқтисодчи олимлар Ў.Д.Ражабов ва О.А.Рузиевларнинг фикрича, хизматлар соҳаси иқтисодий муносабатлар тизимида моддий ва номоддий ишлаб чиқаришнинг ажралмас қисми, аҳолининг ўзига хос ижтимоий-маданий, моддий-маиший эҳтиёжларини қондиришга, турмуш шароити ва фаровонлигини таъминлашга, номоддий ишлаб чиқариш соҳаси меҳнат унумдорлигини оширишга қаратилган муҳим соҳа бўлиб, у иқтисодиётнинг таълим, соғлиқни сақлаш, маданият ва санъат, жисмоний тарбия ва спорт, аҳолига маиший хизмат кўрсатиш, уй-жой коммунал хўжалиги, ижтимоий таъминот, савдо ва умумий овқатланиш, транспорт, туризм, банк ва молия каби кўплаб ноишлаб чиқариш соҳаларини ўз ичига олади[57].

Ўзбекистонлик олимлардан Д.А.Шодибекованинг таъкидлашича, Хизматлар соҳаси – миллий иқтисодиётнинг таркибий қисми, корхоналар, ташкилотлар ҳамда жисмоний шахслар томонидан кўрсатиладиган турли хизмат турларини такрор ишлаб чиқаришни ўз ичига олган жамланма соҳа ҳисобланади. Бошқача айтганда, хизматлар соҳаси тижорат, касбий ва маиший хизматлар кўрсатишга ихтисослашган мамлакат иқтисодиётининг тармоқлари ҳисобланади[58]. Таниқли олим Ф.Котлернинг фикрича, “Хизмат – бу бир томон бошқасига таклиф қилиши мумкин бўлган ҳар қандай фаолиятдир”[59]. Хизматларни бажариш жараёнида амалга оширилади ва истеъмол қилинади.

Рус олимларидан А.Н. Король ва С.А. Хлыновлар “Хизматлар - инсонлар ўртасидаги муносабатдир, иқтисодий субъектларнинг бевосита муносабатларининг номоддий фойдали самараси”[60] эканлигини таърифлашади.

Таълимни етказиб бериш учун алоҳида “хизмат”ни амалга ошириш лозим. Иккаласи биргаликда таълим хизматларини ташкил қилади. Таълим хизматлари тушунчаси мураккаб, кўпқиррали бўлиб, сўнгги йилларда чоп этилаётган кўпгина иқтисодий адабиётларда ва луғатларда унинг назарий асослари турлича таърифланмоқда. Таълим хизматлари тушунчасига шу пайтгача жуда кўплаб хорижий ва маҳаллий олимлар томонидан фикрлар билдирилган. Улар ушбу йўналишда олиб борган илмий изланишлари ва аналитик таҳлиллари орқали таълим хизматларига хос бўлган иқтисодий хусусиятлар, уларнинг шаклланиш тенденциялари ҳамда истиқболли ривожланиш йўналишларини чуқур ўрганишга ҳаракат қилганлар. Жумладан, ЮНЕСКО халқаро ташкилотининг ходимлари таълим хизматларига қуйидаги таърифни беришган: “Таълим хизматлари - бу қобилиятларни

---

[57] Ражабов Ў.Д., Рузиев О.А. Хизматлар иқтисодиёти. Термиз.: “Китоб нашр”, 2025 й. 7 – б.

[58] Shodibekova D.A. O‘zbekistonda xizmatlar sohasini rivojlantirish: muommolar va echimlar (monografiya). – T.: TDIU, 2020. – 145 b.

[59] Котлер, Ф., Маркетинг менеджмент. Экс пресс-курс. 2-е изд. / Пер. с англ. под ред. Божук С. Г. СПб.: Питер, 2006.- 464 с.

[60] Король А.Н., Хлынов С.А.. Услуги: определение и классификация. Электронное научное издание «Ученые заметки ТОГУ» 2014, Том 5, № 4, С. 1323 – 1328

такомиллаштириш, ижтимоий етукликка эришадиган шахснинг хатти-ҳаракати ва индивидуал ўсиши ҳисобланади[61].

Рус олимларидан В.А. Долятовский ва О.А. Мазур ўзларининг “Таълим хизмати бозорида олий таълим фаолиятини стратегик режалаштириш” номли монографиясида таълим хизматини “шахснинг маълум бир турдаги билим, кўникма, қобилятларга, касб ёки малакага эга бўлишга бўлган эҳтиёжини амалга оширишни таъминлайдиган, шахс онгига қаратилган, номоддий ҳаракатлар меҳнат бозорида талабни қондиришни таъминлайди” деб таърифлайдилар[62].

Л.В.Захаровага кўра, таълим хизматлари - бу замонавий фан ва техника ютуқлари асосида у ёки бу кўринишдаги касбий фаолиятда амал қилиши учун зарурий билим, маҳорат, кўникмаларни эгаллашда жисмоний ва юридик шахслар эҳтиёжларини қондиришга йўналтирилган ўқув юртлари фаолиятидир[63].

А.Е.Вифлеемский ўз тадқиқотларида “таълим хизматлари - бу истеъмолчида янги билимлар, кўникмалар, шахсий фазилатларини ҳамда ишчи кучининг баҳосини ва меҳнат бозоридаги рақобатбардошлигини оширишга хизмат қилувчи чора-тадбирлар умумлашмасидир”[64].

Т.П.Категорская таълим хизматларига қуйидаги таърифни берган: “Таълим хизматлари мақсадли билим ва амалий тажрибани узатиш жараёни сифатида талабаларнинг билим ва кўникмаларни шакллантириш, тегишли кадрларни тайёрлаш ва қўллаб-қувватлаш соҳасидаги профессионал фаолият”[65].

И.Н.Красовский эса таълим хизматларини мураккаб жараён сифатида таърифлаб, унинг меҳнати натижасида юқори қийматли замонавий жихозлар яратилишида хизмат қилади, деб таъкидлайди[66].

Шунингдек, Т.Н.Сироваткинанинг тадқиқотида, таълим хизматлари интелектуал меҳнат маҳсули бўлиб, ортиб бораётган қиймати истеъмол пайтида йўқолмайди ва мустақил эканлигини таъкидланади[67].

Россиялик олим Ю.А.Скоробогатовага кўра, таълим хизматлари барча хизматларга хос бўлган умумий хусусиятларга эга. Буларга таълим хизматларини таклиф жараёнида истеъмол қилиш имконияти, жамоавий истеъмол қилиниши, истеъмолчини ўзгартириш қобилияти, истеъмол

---

61 Организационные вопросы системы образования // Электронный-учебно методический комплекс: http://www.kgau.ru/distance/mf_01/timofeeva-orgosn-obr/2_2.html

62 Долятовский В.А., Мазур О.А., Кузнецова И.В. и др. Стратегическое планирование деятельности вуза на рынке образовательных услуг: монография. Ростов н/д: 2006. РГЭУ. 235 с.

63Захарова Л.В. Формирование и развитие образовательных услуг: автореф. дисс. к.э.н. / Белград. 2002.

64Вифлеемский А.Е. Экономика образования / – М.: Изд. Маркет ДС, 2003. – 342 с.

65 Категорская Т.П. Совершенствование оценки качетсва образоватльнқх услуг в сфере высшего образования. Диссертаиця на соискние учёной степени к.э.н. Красноярск-2023. 178 с. С. 17.

66 Красовский И.Н. Регулирование мирового рынка образовательных услуг //Вестник ОрелГИЭТ. - 2019. № 1 (47). - С. 61-64. https://www.elibrary.ru/download/elibrary_39275938_82497079.pdf

67 Сыроваткина Т.Н. Основы экономики образования: учебное пособие. Оренбург: ООО ИПК «Университет», 2013.- 152 с

жараёнининг ижодий характердалиги, таълим хизматларини ўзлаштириш ирсият билан боғликлигини тушунтиради[68].

С.Д.Еникеева эса таълим хизматларини ижтимоий соҳанинг бир бўлаги сифатида тушунтиради. Унга кўра, таълим хизматлари ўзига хос хусусиятларга эга. Жумладан, таълим хизматлари ижтимоий аҳамиятга эга бўлиб кенг қамровли хизмат турига киради. Шунингдек, таълим хизматлари ўқитиш шакллари бўйича ҳам бир-биридан фарқланади ва давлат томонидан тартибга солишнинг улуши нисбатан кўпроқ бўлади[69].

Ўзбекистонлик олимлардан М.М.Мухаммедов раҳбарлигида тайёрланган монографияда “таълим хизматлари - бу таълим хизматлари бозоридаги иқтисодий муносабатлар субъект салоҳиятини ўсишига йўналтирилган муайян таълим маҳсулотларини тақдим этиш жараёни” дея таърифланади[70].

М.Қ.Пардаев ўзининг “Иқтисодиётга оид атамаларнинг таърифлари” номли рисоласида келтиришича, таълим хизматлари деганда, инсоннинг, давлат, жамият ва бошқа билим олиш истагидаги субъектларнинг билимга бўлган узоқ муддатга мўлжалланган эҳтиёжларини қондиришга қаратилган, наф келтирадиган хизмат жараёни билан боғлиқ билим эгаларининг онгли фаолияти ҳисобланади[71].

Ж.Р.Тохировнинг фикрича, таълим хизмати – таълим берувчи ташкилот ва ундаги профессор-ўқитувчилар томонидан давлатнинг ҳамда жамиятнинг ривожланиши учун маълум белгиланган эҳтиёжини қондиришга йўналтирилган, инсон капиталини шакллантиришга қаратилган кишиларга наф келтирадиган, таълим хизматларини кўрсатиш билан боғлиқ онгли фаолияти демакдир[72].

Мамлакатимиз олимларидан М.Х.Саидов, Л.В. Перегудов, З.Т.Тоҳировлар томонидан тайёрланган луғат-маълумотномада, таълим хизмати – таълим эҳтиёжларини қондириш мақсадларида билим ва ўқувга эга бўлиш учун аниқ мақсадга йўналтирилган тарзда яратиладиган ва таклиф этиладиган имкониятлар мажмуи сифатида таърифланади[73].

Қ.Ж.Мирзаев, Ғ.С.Мустафоев, Б.К.Жанзаковлар томонидан тайёрланган “Хизматлар соҳаси иқтисодиёти” номли ўқув қўлланмада, “таълим хизмати”га инсон, жамият ва давлатнинг турли эҳтиёжларини қондириш учун

---

[68] Скоробогатова Ю.А. Об определении понятия «образовательная услуга» // Известия Иркутской государственной экономической академии.- 2010.- № 5.- С. 254–257.

[69] Еникеева С.Д. Рынок образовательных услуг и методы его регулирования: учебное пособие. - М.: МАКС Пресс, 2011.- 108 с

[70] Мухаммедов М.М., ва бошқалар. Хизмат кўрсатиш соҳаси ва туризмнинг ривожлантиришнинг назарий асослари. Монография. “Зарафшон нашриёти”, Самарқанд, 2017.-300 б.

[71] Пардаев М.Қ.Иқтисодиётга оид атамаларнинг таърифлари. Т.: “Fan va texnologiyalar” nashriyot-matbaa uyi, 2022– 106 бет.

[72] Тохиров Ж.Р.Таълим хизматлари сифатини оширишда давлат-хусусий шерикликнинг ташкилийиқтисодий механизмларини шакллантириш. ИФБФД (PhD). дис. автореферати Нукус, 2022. – 13 бет.

[73] Саидов М.Х., Перегудов Л.В., .Тоҳиров З.Т. Олий таълим (луғатмаълумотнома). Академик С.С.Гулямов умумий таҳрири остида. Т.: “Молия”, 2003, 305-бет

фойдаланиладиган билим, кўникма ва маълумотлар йиғиндиси сифатида қаралади[74].

Иқтисодчи олимлардан Ҳ.Н.Очилова ўзининг илмий тадқиқот ишларида таълим хизматлари тушунчасини кенгроқ ёритишга эришган десак бўлади. Ҳ.Н.Очилованинг таъкидлашича, таълим хизматлари деганда, инновацион иқтисодиётни шакллантиришга мўлжалланган инсон капиталини тайёрлайдиган давлатнинг рақобатбардошлигини таъминлашга, жамият ва бутун халқнинг фаровонлигини оширишга қаратилган билим олиш истагида бўлган шахсларга узоқ муддатга мўлжалланган эҳтиёжларини қондирадиган ва тегишли наф келтиришга йўналтирилган билим бериш жараёни билан боғлиқ хизмат эгаларининг онгли фаолияти тушунилади[75].

Бизнингча, юқорида таълим хизматларига берилган таърифлар ҳозирги инновацион иқтисодиётни шакллантиришга мўлжалланган замонавий шароитлардаги таълим хизматларининг мақсад вазифалари ва фаолият йўналишларидан келиб чиқиб мазмун-моҳиятини тўлиқ ёритиб бера олмаган. Таълим хизматлари - бу кишиларнинг билим олишига ва касб эгаллашига бўлган эҳтиёжларини қондиришга қаратилган, инсон капиталини шакллантириш ва ишчи кучини кенгайтирилган такрор ишлаб чиқариш, инсоннинг ривожланиши ва ижтимойилашувини таъминлаш билан боғлиқ хизмат эгаларининг онгли фаолияти тушунилади.

Таълим хизматлари инсоннинг жамиятдаги ўрнини аниқлаб, унинг интеллектуал салоҳиятга эга аъзоси сифатида шакллантиради ва жамиятга наф келтириш учун йўналтиради. Шунинг учун унинг самараси бирдан кўзга ташланмайди. Унинг самараси мамлакадаги аҳолининг саводхонлик даражаси билан ўлчанади. Ташқи самара эса макроиқтисодий қарорларни қабул қилиш, ялпи ички маҳсулот ҳажмини ошиши, меҳнат унумдорлигининг ўсиш суръатларида намоён бўлади.

Таълим хизматларининг мазмуни кенг маънода инсон омилини ривожлантиришни ва билимга бўлган эҳтиёжларни қондиришни, ишчи кучини тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва малакасини оширишга ҳамда ходимнинг касб ёки малака олишга, қайта малакадан ўтишга, ишлаб чиқариш талабини қондиришга йўналтирилган ўқув муассасанинг ўқув, бошқарув ва молиявий натижасини англатувчи иқтисодий категория сифатида намоён бўлади (1.1.3-расм).

Юқорида таъкидлаганимиздек, таълим хизматлари ижтимоий самарадорликка эга. У жамият ҳаётининг ижтимоий жиҳатига самарали таъсир кўрсатади. У ижтимоий ҳамжиҳатликни шакллантириш, фуқаролик масъулиятини ривожлантириш, аҳоли саломатлигини мустаҳкамлаш ва ишчи кучи сифатини оширишда муҳим ўрин тутади. У нафақат билимларни узатади,

[74] Мирзаев Қ.Ж., Мустафоев Ғ.С., Б.К.Жанзаков Б.К.. Хизматлар соҳаси иқтисодиёти [Матн]: Дарслик / Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти – Самарқанд.: “STEP-SEL” МЧЖ. Нашриёти, 2023 – 217 бет

[75] Очилова Н.Ҳ. “Таълим хизматлари” ва у билан боғлиқ тушунчаларнинг назарий масалалари // Innovatsion iqtisodiyot / Инновационная экономика / The Innovation Economy №2. 2023. 11-19 бетлар

балки шахснинг ривожланишига ёрдам беради, ижтимоий алоқаларни мустаҳкамлайди ва фуқароларнинг турмуш даражасига ижобий таъсир қилади.



1.1.3-расм. Таълим хизматлари мазмунини анлатувчи таркиб[76]

Энг муҳим жиҳатлардан бири - таълимнинг ижтимоий ҳамжиҳатлик ва бағрикенгликни шакллантиришга қўшадиган ҳиссаси. Кўп маданиятли жамиятлардаги таълим тизими жамиятнинг турли табақаларини ва этник келиб чиқишини бирлаштириш ролини ўйнайди, одамларда маданий ранг-баранглиқка нисбатан ҳурмат туйғусини шакллантиради.Таълим фуқароларни конструктив ўзаро муносабатларга, ижтимоий низоларнинг олдини олишга ва жамиятдаги тажовузкорлик даражасини пасайтиришга ўргатади. Масалан, илғор таълим тизимига эга бўлган мамлакатларда мактаб таълими кўплаб қўшимча фойда келтирадиган ижтимоий бирдамлик ва давлат қурилишини мустаҳкамлаш механизми бўлиб хизмат қилади[77].

Таълим хизматларининг ўзига хос талқини унинг мамлакат ижтимоий ҳаётини ривожлантириш ва меҳнат унумдорлигини ошириш каби муҳим мақсадлари ва қуйидаги вазифаларини аниқлаш имконини беради:

биринчидан, иқтисодий вазифасига мувофиқ, мутахассис кадрларни тайёрлайди, малакали ишчи кучини такрор ишлаб чиқаради ва меҳнатни рағбатлантиради;

иккинчидан, мулоқот, ўзаро алоқа ва ахборотларни узатишдан инсоннинг ижтимоийлашувини таъминлайди;

учинчидан, умумлаштириш вазифасига кўра, миллий қадриятлар, урф-одатлар, анъаналар ва тарихий тажрибаларни ўрганиш ҳамда умумлаштириш орқали миллий мафкуранинг шаклланишини таъминлайди;

тўртинчидан, тарбиявий вазифани бажариб, инсон шахсини тараққий

[76] Муаллиф томонидан тузилган
[77] The World Bank and UNESCO (2023). Education Finance Watch 2023. Washington D.C., Paris: The World Bank and UNESCO. 33 p.

эттиради, таккомиллаштиради, уни маънавий, ахлоқий, бадиий жиҳатдан ривожлантиради ва ҳар томонлама баркамол инсон бўлиб етишишга ёрдам беради.

Умумий ҳолатда таълим хизматларининг жамият тараққиётидаги ўрнини икки ҳолатда кўришимиз мумкин бир томондан билим бериш, маълумот, малака ва кўникмалар ҳосил қилиш жараёни, кишини ҳаётга, касбга ва меҳнатга тайёрлашнинг асосий воситаси. Иккинчи томондан инсонни тарбиялаш ва шахс сифатида шакллантириш жараёни амалга оширилади. Ижтимоий муносабатларни таркиб топтириш, янги кишини тарбиялашга ёрдам беради.

Таълим хизматларини самарали амалга оширишда бу иккаласини бир-биридан ажратиб бўлмайди. Бу иккаласи қачонки, бир-бири билан уйғунлашган ҳолатда самарали амалга оширилади (1.1.4-расм).

Таълим ва тарбия жараёнида шахснинг сифатлари, дунёқараши, қобилияти ўсади. Таълим хизматлари авлодлар ўртасидаги маънавий ворисликни таъминлаш қаторида кишиларнинг ижтимоий тарихий тажрибаларини ёш авлодга ўтказади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Т.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Давлат илмий нашриёти. Тўртинчи жилд, тузатилган 2-нашри. 2020, - 27-28-бетлар
2. Клокова Е.А., Трубникова К.Д. Понятие образовательной услуги. Платность дополнительных образовательных услуг в государственных и муниципальных учреждениях // E-Scio, 2019. С. 572-580.
3. Организационные вопросы системы образования // Электронный-учебно
4. Долятовский В.А., Мазур О.А., Кузнецова И.В. и др. Стратегическое планирование деятельности вуза на рынке образовательных услуг: монография. Ростов н/д: 2006. РГЭУ. 235 с.
5. Захарова Л.В. Формирование и развитие образовательных услуг: автореф. дисс. к.э.н. / Белград. 2002.
6. Вифлеемский А.Е. Экономика образования / – М.: Изд. Маркет ДС, 2003. – 342 с.
7. Категорская Т.П. Совершенствование оценки качетсва образоватльнқх услуг в сфере высшего образования. Диссертаиця на соискние учёной степени к.э.н. Красноярск-2023. 178 с. С. 17.
8. Красовский И.Н. Регулирование мирового рынка образовательных услуг //Вестник ОрелГИЭТ. - 2019. № 1 (47). - С. 61-64. https://www.elibrary.ru/download/elibrary_39275938_82497079.pdf
9. Сыроваткина Т.Н. Основы экономики образования: учебное пособие. Оренбург: ООО ИПК «Университет», 2013.- 152 с

10. Скоробогатова Ю.А. Об определении понятия «образовательная услуга» // Известия Иркутской государственной экономической академии.- 2010.- № 5.- С. 254–257.

11. Еникеева С.Д. Рынок образовательных услуг и методы его регулирования: учебное пособие. - М.: МАКС Пресс, 2011.- 108 с

12. Мухаммедов М.М., ва бошқалар. Хизмат кўрсатиш соҳаси ва туризмнинг ривожлантиришнинг назарий асослари. Монография. “Зарафшон нашриёти”, Самарқанд, 2017.-300 б.

13. Пардаев М.Қ.Иқтисодиётга оид атамаларнинг таърифлари. Т.: “Fan va texnologiyalar” nashriyot-matbaa uyi, 2022– 106 бет.

14. Тохиров Ж.Р.Таълим хизматлари сифатини оширишда давлат-хусусий шерикликнинг ташкилийиқтисодий механизмларини шакллантириш. ИФБФД (PhD). дис. автореферати Нукус, 2022. – 13 бет.

15. Саидов М.Х., Перегудов Л.В., .Тоҳиров З.Т. Олий таълим (луғатмаълумотнома). Академик С.С.Гулямов умумий таҳрири остида. Т.: “Молия”, 2003, 305-бет

16. Мирзаев Қ.Ж., Мустафоев Ғ.С., Б.К.Жанзаков Б.К.. Хизматлар соҳаси иқтисодиёти [Матн]: Дарслик / Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти – Самарқанд.: “STEP-SEL” МЧЖ. Нашриёти, 2023 – 217 бет

17. Очилова Н.Ҳ. “Таълим хизматлари” ва у билан боғлиқ тушунчаларнинг назарий масалалари // Innovatsion iqtisodiyot / Инновационная экономика / The Innovation Economy №2. 2023. 11-19 бетлар

Yuldashev Shamsiddin Qiyamiddinovich

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
iqtisod fanlari nomzodi, dotsent **Boliyeva Baxora Farxodovna**
Inson resurslari va mahalla taraqqiyotini boshqarish instituti 2-bosqich talabasi

EKOLOGIK TOZA TEXNOLOGIYALARNI MOLIYALASHTIRISH MANBALARI VA IQTISODIY SAMARADORLIGI

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda barqaror rivojlanishga erishishda yashil texnologiyalar muhim omil sifatida e’tirof etilmoqda. Ularni keng joriy etish esa samarali moliyalashtirish tizimisiz imkonsizdir. Shu sababli, maqolada asosiy moliyalashtirish manbalari tahlil etilgan,ularning afzallik va kamchiliklari ko‘rib chiqilgan hamda iqtisodiy samaradorlik darajasi baholangan.

Kalit so‘zlar: Yashil texnologiyalar, barqaror rivojlanish, ekologik xavfsizlik, qayta tiklanuvchi energiya, iqtisodiy samaradorlik, moliyalashtirish manbalari, xalqaro moliyaviy institutlar, yashil obligatsiyalar, xususiy investitsiyalar.

So‘nggi yillarda global iqtisodiy rivojlanish barqarorligi, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish va ekologik xavfsizlikni ta’minlash masalalari jahon hamjamiyatining dolzarb vazifalaridan biriga aylandi. Ushbu jarayonda ekologik toza texnologiyalarni joriy etish va ularni moliyalashtirish tizimini shakllantirish muhim

strategik yo‘nalish sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ekologik toza texnologiyalar – atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytiruvchi, energiya va resurslarni tejaydigan, iqlimga nisbatan neytral bo‘lgan ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish vositalarini anglatadi. Jahon banki, BMT, Osiyo taraqqiyot banki va boshqa nufuzli xalqaro tashkilotlarning hisobotlarida ta’kidlanishicha, yashil texnologiyalarni keng joriy etish nafaqat ekologik xavfsizlikni oshiradi, balki iqtisodiy o‘sishning yangi omiliga ham aylanmoqda. Ayniqsa, qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilardan energiya olish, suvni tozalash va tejamkor ishlatish, energiya samaradorligini oshirish yo‘nalishlarida bunday texnologiyalarning roli beqiyosdir. Mazkur texnologiyalarni keng miqyosda joriy qilish esa ularni moliyalashtirishning turli manbalari va mexanizmlari mavjudligini talab etadi. Bu moliyaviy manbalar davlat byudjeti, xalqaro grantlar, imtiyozli kreditlar, yashil obligatsiyalar, xususiy sektor sarmoyalari va bank tizimi orqali amalga oshirilishi mumkin[3].

Ekologik toza texnologiyalarni joriy etish bugungi kunda barqaror iqtisodiy rivojlanishning ajralmas qismi sifatida e’tirof etilmoqda. Bunday texnologiyalarni keng tatbiq etish nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish, balki energiya samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlikka erishish imkonini beradi[5]. Shunday ekan, ularni moliyalashtirish tizimini shakllantirish va takomillashtirish har bir davlat uchun muhim strategik vazifaga aylanmoqda.

Shu munosabat bilan, ekologik toza texnologiyalarni moliyalashtirish manbalarining tahlili va ularning iqtisodiy samaradorligini baholash masalasi ilmiy izlanishlar, strategik qarorlar va siyosiy yondashuvlar uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi. Moliyalashtirish manbalari sifatida birinchi navbatda davlat budjeti mablag‘lari muhim o‘rin tutadi[1]. Davlat tomonidan ekologik texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash doirasida energiya samarador uskunalarni subsidiyalash, soliqlardan ozod qilish, imtiyozli kreditlar ajratish kabi mexanizmlar yo‘lga qo‘yilgan. O‘zbekiston Respublikasida ham “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” asosida ekologik loyihalarni moliyalashtirish uchun budjetdan ma’lum mablag‘lar ajratilmoqda[2]. Bunday yondashuv ayniqsa kichik va o‘rta biznes subyektlariga dastlabki sarmoyalarni jalb etishda katta yordam beradi.

Shuningdek, xalqaro moliyaviy institutlar va donor tashkilotlar tomonidan taqdim etilayotgan grantlar ham ekologik texnologiyalarni moliyalashtirishda muhim o‘rin egallaydi. Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, BMT Taraqqiyot dasturi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki kabi tashkilotlar O‘zbekistonda bir qator ekologik loyihalarni amalga oshirish uchun moliyaviy va texnik yordam ko‘rsatib kelmoqda. Ushbu resurslar odatda past foizli yoki foizsiz kreditlar, qaytarilmaydigan grantlar ko‘rinishida bo‘lib, loyihalarni texnik, iqtisodiy va ekologik ekspertizadan o‘tkazish jarayonlarini ham o‘z ichiga oladi.

So‘nggi yillarda ekologik texnologiyalarga xususiy sektor tomonidan investitsiyalar kiritish tendensiyasi kuchayib bormoqda. Ayniqsa, “yashil obligatsiyalar” orqali investitsiyalar jalb qilish xalqaro moliya bozorida keng qo‘llanilmoqda[4]. Ushbu obligatsiyalar faqat ekologik yo‘nalishdagi loyihalarni moliyalashtirish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, investorlar uchun barqarorlik, ijtimoiy mas’uliyat va ekologik shaffoflik kabi omillar bilan ajralib turadi[2]. O‘zbekiston ham 2023-yildan boshlab yashil obligatsiyalar chiqarish tashabbusini ilgari surib, tegishli huquqiy asoslarni ishlab chiqishga kirishdi.

Bundan tashqari, tijorat banklari ham ekologik texnologiyalarni moliyalashtirishda ishtirok etmoqda. Hozirda ayrim banklar energiya tejamkor qurilmalar, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga asoslangan qurilmalar xaridini moliyalashtirish uchun imtiyozli kreditlar ajratishni boshlagan[7]. Xalqaro moliya institutlari tomonidan banklarga ajratilayotgan “yashil moliyalashtirish liniyalari” esa bu jarayonni yanada rag‘batlantiradi. Shu bilan birga, ekologik texnologiyalarni moliyalashtirishda bank sektorining to‘liq salohiyati hali to‘liq ishga solinmagan bo‘lsa-da, bu yo‘nalishning o‘sish imkoniyatlari mavjud.

Umuman olganda, ekologik toza texnologiyalarni moliyalashtirish manbalari xilma-xildir va har birining o‘ziga xos afzalliklari mavjud. Davlat tomonidan beriladigan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash dastlabki bosqichda muhim rol o‘ynasa, xalqaro institutlar va xususiy sektor uzoq muddatli rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiladi. Moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash, ularni bir-birini to‘ldiradigan mexanizmlarga aylantirish orqali ekologik texnologiyalarni keng joriy etish va iqtisodiy samaradorlikka erishish mumkin bo‘ladi.

Ekologik toza texnologiyalarni moliyalashtirish manbalarining iqtisodiy samaradorligini baholashda ularning atrof-muhitga ko‘rsatadigan ijobiy ta’siri bilan bir qatorda iqtisodiy foyda va xarajatlar tahlili muhim ahamiyatga ega. Jahon Banki va BMT hisobotlariga ko‘ra, yashil texnologiyalarga sarmoya kiritish uzoq muddatda iqlim o‘zgarishining salbiy oqibatlarini kamaytirish bilan birga iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiradi. Masalan, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga investitsiyalar yiliga o‘rtacha 6-7% iqtisodiy o‘sishiga hissa qo‘shadi va ish o‘rinlarini yaratishda an’anaviy energiyadan ko‘ra 2-3 baravar samaraliroqdir [6]. Davlat moliyalashtiruvi orqali amalga oshirilayotgan ekologik loyihalar, ayniqsa, kichik va o‘rta biznes uchun texnologik yangilanishni ta’minlab, ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi. O‘zbekiston Misolida, 2022-yilda energiya samaradorligi bo‘yicha davlat dasturi doirasida subsidiyalar berilgan korxonalar o‘z xarajatlarini 15-20% kamaytirganligi va uglerod chiqindilarini sezilarli darajada qisqartirgani qayd etilgan [2].

Xalqaro moliyaviy institutlarning imtiyozli kreditlari va grantlari moliyalashtirilgan loyihalar esa iqtisodiy jihatdan yuqori samaradorlikka ega bo‘lib, ular nafaqat past foizli moliyalashtirishni ta’minlaydi, balki texnik yordam orqali

loyihaning muvaffaqiyatini oshiradi. Masalan, Osiyo taraqqiyot bankining 2020-2024-yillarga mo‘ljallangan energiya samaradorligi loyihalari orqali qariyb 300 ming tonna CO2 chiqindilarining oldini olish ko‘zda tutilgan va buning iqtisodiy qiymati taxminan 40 million AQSh dollariga teng [8].

Xususiy investitsiyalar va yashil obligatsiyalar esa moliyalashtirish manbalari orasida eng tez o‘sayotgan segment hisoblanadi. Bloomberg New Energy Finance ma’lumotlariga ko‘ra, 2022-yilda global yashil obligatsiyalar bozorining hajmi 517 milliard AQSh dollariga yetgan, bu esa qayta tiklanuvchi energiya va ekologik texnologiyalarni rivojlantirish uchun muhim kapital manbai bo‘lib xizmat qilmoqda[9]. O‘zbekiston sharoitida bu yo‘nalish hali rivojlanish bosqichida bo‘lsa-da, mamlakatning moliyaviy bozorini diversifikatsiyalash va yashil investitsiyalarni jalb etish imkoniyatlarini kengaytirish istiqbollari mavjud [10].

Bank kreditlari orqali moliyalashtirishning iqtisodiy samaradorligi esa kredit foizlari, kafolatlar va muddatlarga bog‘liq bo‘lib, past foizli va imtiyozli kreditlar kichik va o‘rta korxonalar uchun muhim imkoniyatdir. Shuningdek, xalqaro moliya institutlari tomonidan banklarga ajratilgan moliyalashtirish liniyalari ekologik loyihalarga sarmoya jalb qilishni rag‘batlantiradi. Bunda, moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy foyda olishdan tashqari, ijtimoiy va ekologik ta’sir ham e’tiborga olinadi.

Umuman olganda, ekologik toza texnologiyalarni moliyalashtirish manbalari nafaqat iqtisodiy xarajatlarni kamaytirishga, balki uzoq muddatli barqaror rivojlanishga, ijtimoiy farovonlikni oshirishga va atrof-muhitni muhofaza qilishga xizmat qiladi. Shu bois, moliyalashtirish manbalarini samarali tashkil etish va ularning o‘zaro integratsiyasi mamlakatlarning yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan, ekologik texnologiyalarni moliyalashtirish nafaqat xarajatlarni kamaytirish va energiya tejamkorligini oshirishga, balki uzoq muddatda ijtimoiy va ekologik barqarorlikni ta’minlashga ham xizmat qiladi. Xalqaro tajriba va O‘zbekiston sharoitida amalga oshirilgan loyihalar shuni ko‘rsatadiki, past foizli kreditlar va grantlar ekologik texnologiyalarni ommalashtirishda eng samarali moliyaviy mexanizmlar hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, ekologik toza texnologiyalarni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish va ekologik barqaror rivojlanish yo‘lida muhim qadam bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. **Ismoilov, B., & Toshpo‘latov, M.** (2020). *Yashil iqtisodiyot va uning rivojlanish istiqbollari*. Toshkent: Iqtisodiyot va moliya nashriyoti.

2. **O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot Vazirligi.** (2022). *Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi*. Toshkent.

3. **Qo‘chqorov, S.** (2019). *Barqaror rivojlanish va ekologik iqtisodiyot*. Toshkent: Fan va Texnologiya.

4. **O‘zbekiston Respublikasi Atrof-muhitni muhofaza qilish qo‘mitasi.** (2021). *Ekologik texnologiyalar va ularning moliyalashtirilishi*. Toshkent.
5. **Maqsudov, J.** (2018). *Energiya samaradorligi va qayta tiklanuvchi energiya manbalari*. Toshkent: Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti nashriyoti.
6. **World Bank.** (2021). *Green Growth and Climate Finance*. Washington, DC: The World Bank Group. https://www.worldbank.org/en/topic/climatefinance
7. **United Nations Development Programme (UNDP).** (2022). *Sustainable Energy Finance: Scaling up Investment in Renewable Energy*. New York: UNDP. https://www.undp.org/publications/sustainable-energy-finance
8. **Asian Development Bank (ADB).** (2023). *Energy Efficiency Financing in Asia and the Pacific*. Manila: ADB. https://www.adb.org/publications/energy-efficiency-financing-asia-pacific
9. **Bloomberg New Energy Finance (BNEF).** (2022). *Green Bonds Market Outlook*. https://about.bnef.com/green-bonds/
10. **O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki.** (2024). *Moliyaviy bozorda yashil investitsiyalarni rivojlantirish strategiyasi*. Toshkent.

Erdonov Muhammadamin Erdon o‘g‘li, *SamISI Real iqtisodiyot kafedrasi dotsenti va talabasi* **Qarshiyev Avazbek Sa’dullayevich**

BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA SAVDO

Annotatsiya. Ushbu maqola bozor iqtisodiyoti sharoitida savdo faoliyatining ahamiyatini tahlil qilish, uning samaradorligiga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillarni ochib berish hamda O‘zbekiston sharoitida savdo tizimini mustahkamlash yo‘nalishlarini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot nazariy-amaliy jihatdan savdo sohasida raqobat muhitini, infratuzilmaning holatini, raqamli texnologiyalar joriy etilishi hamda xalqaro savdo aloqalarining rivojlanish samaradorligini o‘rganadi.

Kalit so‘zlar: bozor iqtisodiyoti, savdo tizimi, raqobat, infratuzilma, elektron savdo, eksport salohiyati, SWOT-tahlil, rivojlanish strategiyasi.

Kirish qismi: Savdo faoliyati milliy iqtisodiyotning aylanishida markaziy rol o‘ynaydi: tovarlar va xizmatlarning ishlab chiqaruvchidan iste’molchiga yetib borishi, talab va taklif muvozanatining shakllanishi, raqobat muhitining vujudga kelishi bozor iqtisodiyoti sharoitida ayniqsa dolzarb bo‘ladi. Savdo tizimi orqali iqtisodiy o‘sish, bandlikni oshirish va milliy daromadni ko‘paytirish imkoniyatlari kengayadi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayoni, xususiy sektorning faollashuvi, erkin savdo siyosatining joriy etilishi va elektron savdo sohasining kengayishi savdo tizimining samaradorligini tubdan yaxshilashga xizmat qilmoqda. Jumladan, mamlakatimizda bozor islohotlarini jadallashtirish va milliy qonunchilikni Jahon savdo tashkiloti bitimlariga muvofiqlashtirish bo‘yicha farmonlar qabul qilingan. Shu bilan birga, savdo infratuzilmasi, kadrlar malakasi, ichki va tashqi bozorlar bilan integrasiya holati kabi muammolar saqlanib qolmoqda. Bu esa tadqiqotni dolzarb va amaliy jihatdan muhim qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bozor islohotlarini yanada jadallashtirish va O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligini Jahon savdo tashkiloti bitimlariga muvofiqlashtirish bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2024-yil 3-iyuldagi PF-85 sonli farmoniga binoan mamlakatda erkin bozor tamoyillarini chuqur joriy etish, raqobatbardosh savdo tizimini shakllantirish hamda xalqaro iqtisodiy munosabatlarga integratsiyani jadallashtirishga qaratilgan. Ushbu qaror orqali davlat monopoliyasining bekor qilinishi, savdo faoliyatini litsenziyalash tizimi asosida tartibga solish va shaffoflikni ta’minlash belgilangan bo‘lib, bu islohotlar bozor iqtisodiyoti sharoitida savdo munosabatlarini rivojlantirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilar raqobatbardoshligini oshirish hamda eksport-import jarayonlarini soddalashtirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi [1].

Ushbu tadqiqotning maqsadi bozor iqtisodiyoti sharoitida savdo tizimining hozirgi holatini tahlil qilish, uning samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va O‘zbekistonda savdo tizimini yanada rivojlantirishga yo‘naltirilgan tavsiyalar ishlab chiqishdir. Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

(i) savdo tizimining tushunchasi, funktsiyalari va bozor sharoitida roli jihatlarini aniqlash;

(ii) savdo tizimining kuchli va zaif tomonlarini, imkoniyatlari va tahdidlarini SWOT-tahlil yordamida o‘rganish;

(iii) statistik va qiyosiy tahlil usullari orqali O‘zbekiston savdo bozorining holatini baholash;

(iv) natijalar asosida savdo sohasida amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Ilmiy-tadqiqot sohasida bozor iqtisodiyoti sharoitida savdo tizimini o‘rganish hamon yetarli darajada qamrab olinmagan: ichki bozorda raqobat va infratuzilma bilan bog‘liq aniq tahlillar kam, raqamli savdo va xalqaro hamkorlik modeliga mos savdo tizimlari bo‘yicha tadqiqotlar cheklangan holda qolmoqda. Shu nuqtai nazardan, mazkur ish bo‘yicha ilmiy bo‘shliq sifatida mamlakatimiz sharoitida bozor iqtisodiyotining drayveri bo‘lmish savdo tizimining yangi yondashuvlari, raqamli savdo mexanizmlari va eksport-yo‘nalishli savdo faoliyatining integrasiyasi jihatidan sistematik tahlil yetishmayotganligi ko‘rinib turadi. Ushbu bo‘shliqni to‘ldirish maqsadida tadqiqot amalga oshirilmoqda.

Adabiyotlar sharhi: Bozor iqtisodiyotiga o‘tish va savdo mexanizmlarining keyingi rivojlanishi turli iqtisodiy sharoitlarda tadqiqotchilarning katta e’tiborini tortdi. Ushbu adabiyotlar tahlili bozor iqtisodiyoti sharoitida savdoning nazariy asoslari va amaliy jihatlarini yoritib beruvchi to‘rtta muhim asarni ko‘rib chiqadi, bunda liberallashtirish jarayonlari, raqobat dinamikasi, institutsional mexanizmlar va rivojlanish natijalariga alohida e’tibor beriladi.

Kryugerning savdoni liberallashtirish va iqtisodiy samaradorlikni har tomonlama tahlil qilish bozor islohotlari va tijorat faoliyati o‘rtasidagi munosabatlarni tushunish uchun fundamental asos bo‘lib xizmat qiladi.[2] Muallifning turli mamlakatlardagi liberallashtirish holatlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, savdo to‘siqlarini bartaraf etish va bozorga asoslangan narx mexanizmlarini o‘rnatish ichki savdoning tuzilishi va samaradorligini tubdan o‘zgartiradi. Kryugerning ta’kidlashicha, markazlashtirilgan rejalashtirilgan tizimdan bozorga asoslangan tizimga o‘tayotgan mamlakatlar o‘zlarining savdo tarmoqlarida sezilarli qayta

qurishni boshdan kechirmoqda, bu raqobatning kuchayishi, resurslarni taqsimlashning yaxshilanishi va tadbirkorlik faoliyati uchun imkoniyatlarning kengayishi bilan tavsiflanadi. Taqdim etilgan empirik dalillar shuni ko‘rsatadiki, savdoni muvaffaqiyatli liberallashtirish tanqidiy jihatdan islohotlarning ketma-ketligiga, bir-birini to‘ldiruvchi institutlarning rivojlanishiga va o‘tish xarajatlarini boshqarishga bog‘liq. Ushbu hujjat bozor iqtisodiyoti sharoitlari savdogarlar uchun sifat jihatidan har xil rag‘batlantirish tuzilmalarini yaratishini, ham davlat, ham xususiy sektordan moslashuvchan strategiyalarni talab qilishini belgilaydi.

Shimoliyning institutsional iqtisodiy asosi bozor iqtisodiyotida rasmiy va norasmiy qoidalarning savdo xatti-harakatlarini qanday shakllantirishi haqida muhim tushunchalarni taqdim etadi.[3] Uning nazariy asoslari bozorlar institutsional vakuumda ishlamasligini ta’kidlaydi; samarali savdo aniq belgilangan mulkiy huquqlar, majburiy shartnomalar va ishonchli majburiyat mexanizmlarini talab qiladi. Shimoliy bozor iqtisodiyoti sharoitida savdo samaradorligi sezilarli darajada tranzaksiya xarajatlariga bog‘liqligini ko‘rsatadi, bu esa, o‘z navbatida, institutsional kelishuvlarning sifati bilan belgilanadi. Kuchli huquqiy bazaga, shaffof me’yoriy-huquqiy bazaga va samarali ijro mexanizmlariga ega mamlakatlar zaif institutlarga ega mamlakatlarga qaraganda yuqori savdo ko‘rsatkichlarini namoyish etadi. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, norasmiy institutlar, jumladan, biznes tarmoqlari, ishonch va tijorat me’yorlari rasmiy qoidalarga hal qiluvchi qo‘shimcha bo‘lib xizmat qiladi, ayniqsa o‘tish davrida rasmiy institutlar hali ham rivojlanmagan. Ushbu yondashuv bozor iqtisodiyoti sharoitida savdoni tushunish nafaqat narx signallari va raqobat kuchlarini, balki tijorat operatsiyalarini osonlashtiradigan yoki cheklovchi institutsional infratuzilmani ham o‘rganishni talab qilishini ta’kidlaydi.

Porterning raqobatdosh ustunlik uchun asosi firmalar va tarmoqlarning bozor iqtisodiy sharoitlariga qanday javob berishini tushunish uchun tahliliy vositalarni taqdim etadi.[4] Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, raqobatbardosh bozorlarda savdo firmalarni noyob qobiliyatlarni rivojlantirishga, innovatsiyalarga va operatsion mukammallikka erishishga undaydi. Porterning tahlili shuni ko‘rsatadiki, bozor iqtisodiy sharoitlari samarali ishlab chiqaruvchilarni mukofotlaydigan va samarasiz ishlab chiqaruvchilarni jazolaydigan tanlov bosimini keltirib chiqaradi, bu esa vaqt o‘tishi bilan savdo shakllarining dinamik qayta tuzilishiga olib keladi. Raqobat intensivligi, kirish uchun to‘siqlar, etkazib beruvchilar kuchi, xaridor kuchi va o‘rinbosarlarning tahdidlarini o‘z ichiga olgan raqobat kuchlari modeli bozor tuzilmalarining savdo xatti-harakatlari va biznes natijalariga qanday ta’sir qilishini tushuntiradi. Empirik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqobatbardosh bozorlarda faoliyat yurituvchi tarmoqlar himoyalangan yoki monopolistik tarmoqlarga qaraganda yuqori mahsuldorlik o‘sishi, ko‘proq mahsulot xilma-xilligi va iste’molchilarning xohishlariga ko‘proq javob berish qobiliyatini namoyish etadi. Konsepsiyada bozor iqtisodiyoti sharoitida barqaror raqobat ustunligiga me’yoriy himoya yoki sun’iy to‘siqlar orqali emas, balki doimiy takomillashtirish, farqlash strategiyalari va firmaga xos aktivlarni rivojlantirish orqali erishilishi ta’kidlangan. 4. Savdo va iqtisodiy rivojlanishning aloqasi

Rodrikning savdo siyosati va iqtisodiy rivojlanish bo‘yicha tadqiqotlari bozorni liberallashtirish va o‘sish natijalari o‘rtasidagi munosabatlar haqidagi

an’anaviy tushunchalarni shubha ostiga qo‘yadi.[5] Ochiq bozorlar va raqobatbardosh savdoning nazariy afzalliklarini e’tirof etgan holda, Rodrik savdoni erkinlashtirish va rivojlanish o‘rtasidagi munosabatlar oddiy retseptlar taklif qilgandan ko‘ra ko‘proq nuances ekanligini isbotlaydi. Uning tahlili shuni ko‘rsatadiki, bozorga asoslangan savdo tizimlariga muvaffaqiyatli integratsiyalashuv ta’lim, infratuzilma, texnologik salohiyat va ijtimoiy himoyani rivojlantirishga qaratilgan bir-birini to‘ldiruvchi siyosatni talab qiladi. Rodrikning ta’kidlashicha, rivojlanayotgan iqtisodlar bozor iqtisodiyotida o‘ziga xos muammolarga duch keladi, jumladan, tashqi zarbalarga zaiflik, o‘rnatilgan ishlab chiqaruvchilar bilan raqobatlashishdagi qiyinchiliklar va tez tuzilmaviy o‘zgarishlar natijasida yuzaga keladigan ijtimoiy buzilishlar. Tadqiqot shuni ta’kidlaydiki, bozor iqtisodiyoti sharoitida samarali savdo siyosati raqobat va ixtisoslashuv orqali samaradorlikni oshirishni institutsional salohiyatni, ijtimoiy hamjihatlikni va strategik sanoatni rivojlantirish zaruratini muvozanatlashi kerak. Ushbu yondashuv bozor iqtisodiyoti sharoitlari dinamik savdo uchun zarur bo‘lsa-da, jamiyat samaradorligi va barqarorligini oshiradigan kengroq rivojlanish strategiyalarisiz etarli emasligini ko‘rsatadi.

Birgalikda olib borilgan ushbu tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bozor iqtisodiyoti sharoitida savdo erkinlashtirish siyosati, institutsional asoslar, raqobat dinamikasi va rivojlanish kontekstlarining murakkab o‘zaro ta’siri orqali vositachilik qiladi. Adabiyot shuni ko‘rsatadiki, bozor mexanizmlari savdo samaradorligini oshirish va iqtisodiy dinamizmni rivojlantirish uchun muhim salohiyatga ega, ammo muvaffaqiyatli natijalar institutlar sifati, siyosat choralarining izchilligi va inson va jismoniy kapitalga qo‘shimcha investitsiyalar bilan bog‘liq. Bozorga asoslangan savdo tizimlariga o‘tish nafaqat texnik siyosatni tuzatish, balki barcha manfaatdor tomonlardan moslashuvchan strategiyalarni talab qiladigan iqtisodiy munosabatlarni tubdan o‘zgartirishdir. Kelajakdagi tadqiqotlarda institutsional rivojlanish savdo samaradorligiga hissa qo‘shadigan o‘ziga xos mexanizmlarni, bozorni liberallashtirish inklyuziv o‘sishni keltirib chiqaradigan sharoitlarni va raqobatbardosh rag‘batlarni saqlab qolgan holda o‘tish xarajatlarini kamaytiradigan siyosat vositalarini o‘rganish tavsiya etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi: Tadqiqot jarayonida bozor iqtisodiyoti sharoitida savdo tizimini baholashning kompleks yondashuvi ishlab chiqildi. SWOT tahlil asosida O‘zbekiston savdo sohasining hozirgi holati, rivojlanish imkoniyatlari va tahdid omillari aniqlandi. Shu bilan birga, raqamli savdo mexanizmlarining iqtisodiy samaradorlikka ta’siri bo‘yicha amaliy xulosalar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar: Bozor iqtisodiyoti sharoitida savdo faoliyati har qanday mamlakat iqtisodiy tizimining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Savdo jarayoni ishlab chiqaruvchi bilan iste’molchini bog‘lab turuvchi muhim mexanizm bo‘lib, tovar va xizmatlar aylanishini ta’minlaydi. Bozor mexanizmlarining to‘liq ishlashi, talab va taklif muvozanati, raqobat muhiti hamda narxlar siyosati savdo tizimining samaradorligini belgilovchi asosiy omillardandir. Shuningdek, savdo sektori iqtisodiy o‘sish, bandlik va milliy daromadning barqarorligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi.

Bugungi globallashuv jarayonida savdo faoliyatining ahamiyati yanada ortib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasida ham bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich

o‘tish, xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlash, erkin savdo siyosatini yuritish va raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali savdo tizimini modernizatsiya qilish dolzarb masalaga aylandi. Shu bilan birga, xalqaro savdo aloqalarini kengaytirish, eksport salohiyatini oshirish, elektron savdo platformalarini rivojlantirish, mahalliy mahsulotlar raqobatbardoshligini kuchaytirish kabi yo‘nalishlar mamlakat iqtisodiy barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida savdo sohasining tahlili esa iqtisodiy islohotlarning samaradorligini baholash va istiqboldagi rivojlanish strategiyalarini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

1-jadval.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida savdo uchun

Tarkibiy qism	**Mazmuni**
Kuchli tomonlar (S)	- Raqobat muhitining mavjudligi savdo samaradorligini oshiradi. - Bozor mexanizmlari orqali talab va taklif muvozanati shakllanadi. - Xususiy sektorning faol ishtiroki savdoda innovatsiyalarni rag‘batlantiradi. - Mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun ichki va tashqi bozorlarni kengaytirish imkoniyati.
Zaif tomonlar (W)	- Bozor infratuzilmasining yetarli rivojlanmaganligi. - Narxlarning barqaror emasligi inflyatsiya xavfini keltirib chiqaradi. - Savdo sohasi xodimlarining kasbiy malakasi yetarli darajada emas. - Kichik biznes uchun moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatining cheklanganligi.
Imkoniyatlar (O)	- Elektron savdo va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish. - Tashqi bozorlar bilan hamkorlikni kengaytirish. - Savdo siyosatini erkinlashtirish orqali eksport hajmini oshirish. - Turizm, logistika va xizmatlar sektori orqali yangi savdo tarmoqlarini yaratish.
Tahdidlar (T)	- Jahon iqtisodiy inqirozlari savdo hajmlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. - Importga yuqori bog‘liqlik ichki ishlab chiqarishni susaytiradi. - Soliq yukining oshishi kichik tadbirkorlikni cheklaydi. - Raqobatbardosh xorijiy mahsulotlar mahalliy savdoga bosim o‘tkazadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida savdo tizimi iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda, bandlikni oshirishda va ishlab chiqarish samaradorligini kuchaytirishda muhim o‘rin tutadi. SWOT tahlil shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston sharoitida savdo sohasida raqobat, xususiy sektorning faolligi va raqamli transformatsiya kuchli tomonlar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ammo infratuzilma, kadrlar salohiyati va

importga bog‘liqlik muammolari bu sohaning barqaror rivojlanishiga to‘sqinlik qilmoqda.

Shu bois, kelgusida raqamli savdo tizimlarini rivojlantirish, logistika infratuzilmasini mustahkamlash va milliy mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish bozor iqtisodiyotida savdo tizimini yanada samarali qiladi.

			Bozor iqtisodiyi sharoitida savdo				
Kuchli tomonlar Raqobat, xususiy sektor, talab-taklif muvozanati			**Zaif tomonlari** Infratuzilma, malakali kadrlar tanqisligi, moliyaviy resurslar			**Imkoniyatlar** Raqamli savdo, eksport, xalqaro maydon	**Tahdidlar** Inqiroz xavfi, import bosimi
			Natija Barqaror va raqobatbardosh milliy savdo tizimi shakllanadi				

1-rasm. Bozor iqtisodiyoti sharoitida savdo tizimi tahlili

Bozor iqtisodiyoti sharoitida savdo tizimining rivojlanishida bir qator kuchli va zaif tomonlar, imkoniyatlar hamda tahdidlar mavjud. Kuchli tomonlarga raqobat muhiti, talab va taklif muvozanati, xususiy sektorning faolligi hamda innovatsion savdo shakllarining joriy etilishini kiritish mumkin. Shu bilan birga, zaif tomon sifatida infratuzilmaning yetarli rivojlanmaganligi, narxlarning beqarorligi va kadrlar salohiyatining pastligi kuzatilmoqda. Imkoniyatlar esa raqamli texnologiyalar, elektron savdo va xalqaro hamkorlikni kengaytirish orqali yuzaga chiqmoqda. Tahdidlar esa jahon bozoridagi o‘zgarishlar, importga yuqori bog‘liqlik va tashqi iqtisodiy beqarorlik bilan bog‘liq.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bozor iqtisodiyoti sharoitida savdo tizimini yanada rivojlantirish uchun kompleks yondashuv zarur. Eng avvalo, savdo infratuzilmasini takomillashtirish, raqamli savdo mexanizmlarini joriy etish, milliy mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish va xalqaro savdo aloqalarini mustahkamlash muhimdir. SWOT tahlil natijalari shuni tasdiqlaydiki, agar mavjud kuchli tomonlar to‘g‘ri yo‘naltirilsa va zaifliklar kamaytirilsa, O‘zbekiston savdo tizimi bozor iqtisodiyoti talablariga mos, barqaror va raqobatbardosh modelga aylanishi mumkin.

Xulosa va takiflar: Bozor iqtisodiyoti sharoitida savdo tizimi milliy iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlaridan biri sifatida ishlab chiqarish va iste’mol o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlaydi. Tadqiqot jarayonida o‘tkazilgan SWOT

tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston savdo sohasi raqobat muhiti, xususiy sektorning faolligi va elektron savdoning rivojlanishi kabi kuchli tomonlarga ega. Shu bilan birga, infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatining cheklanganligi va importga yuqori bog‘liqlik kabi zaif jihatlar mavjud.

Tadqiqotdan kelib chiqadigan umumiy xulosa shundan iboratki, savdo tizimining samarali ishlashi uchun bozor mexanizmlarini chuqurlashtirish, zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, milliy mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish va xalqaro savdo integratsiyasini kuchaytirish zarur. Bozor iqtisodiyoti sharoitida savdoni modernizatsiya qilish mamlakat iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish va eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Olib borilgan tahlil asosida quyidagi taklfiflar ishlab chiqildi:

1. Raqamli savdo infratuzilmasini rivojlantirish – Elektron savdo platformalarini kengaytirish, raqamli to‘lov tizimlarini takomillashtirish va tadbirkorlar uchun onlayn savdo imkoniyatlarini yaratish orqali ichki bozor samaradorligini oshirish zarur.
2. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash – Soliq imtiyozlari, subsidiyalar va eksportga yo‘naltirilgan kredit dasturlari orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilarning savdo faoliyatini rag‘batlantirish kerak.
3. Savdo sohasida kadrlar salohiyatini oshirish – Oliy ta’lim muassasalari va amaliy o‘quv markazlari o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish, marketing, logistika va elektron savdo bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash tizimini takomillashtirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bozor islohotlarini yanada jadallashtirish va O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligini Jahon savdo tashkiloti bitimlariga muvofiqlashtirish bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2024-yil 3-iyuldagi PF-85 sonli farmoni. https://lex.uz/ru/docs/-6949734

[2] A. O. Krueger, "Trade Policy and Economic Development: How We Learn," *American Economic Review*, vol. 87, no. 1, pp. 1-22, 1997.

[3] D. C. North, *Institutions, Institutional Change and Economic Performance*. Cambridge: Cambridge University Press, 1990.

[4] M. E. Porter, *The Competitive Advantage of Nations*. New York: Free Press, 1990.

[5] D. Rodrik, “Trading in Illusions”, *Foreign Policy*, no. 123, pp. 54-62, 2001.

[6] Karimov A. A., “O‘zbekiston bozor iqtisodiyoti sharoitida savdo tizimining modernizatsiyasi”, *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali*, №3, 2024

[7] Jo‘rayev B. M., “Elektron savdoning iqtisodiyotdagi o‘rni va rivojlanish istiqbollari”, *TDIU ilmiy axborotnomasi*, №2, 2024.

Mansur Qodirov *2nd year student of group IRB-k-222*
SamIES **Ashur Ali Latipov** PhD, Associate Professor

SUSTAINABLE MANAGEMENT PRACTICES FOR ENHANCING GREEN TECHNOLOGY ADOPTION

Abstract: This article examines the role of sustainable management practices in facilitating the adoption of green technologies across industries. The transition to a green economy requires not only financial and technological readiness but also effective managerial frameworks that encourage innovation, environmental responsibility, and continuous learning. The study analyzes global experiences, identifies key factors influencing green technology implementation, and offers strategic recommendations for integrating sustainability-oriented management practices in enterprises. Special attention is given to Uzbekistan's ongoing reforms in environmental management and industrial modernization.

Keywords: Green technology, sustainable management, innovation, environmental strategy, digital transformation, eco-efficiency, organizational development.

In recent decades, global environmental challenges such as climate change, resource depletion, and pollution have intensified the need for sustainable management approaches. Green technologies – including renewable energy systems, waste recycling, and resource-efficient production – are central to addressing these challenges. However, the success of green technology adoption largely depends on the **management system** that guides implementation, monitoring, and continuous improvement.

In Uzbekistan and many developing countries, managerial practices are undergoing significant transformation. Companies are gradually shifting from traditional cost-oriented management to **sustainability-driven strategies** that integrate environmental, social, and governance (ESG) principles.

1. The Essence of Sustainable Management in Green Technology Adoption

Sustainable management refers to the process of organizing, planning, and controlling resources in a way that ensures long-term environmental balance and business growth. It is not limited to compliance with environmental standards – it represents a holistic philosophy integrating ecological, economic, and social dimensions of corporate governance.

In the context of green technology adoption, sustainable management involves:

- **Strategic planning** for eco-innovation and energy efficiency;
- **Investment management** focused on renewable and low-carbon technologies;
- **Monitoring and evaluation** of environmental performance;
- **Employee engagement** through awareness and green training programs.

By applying these principles, organizations can reduce ecological risks, improve brand reputation, and increase operational efficiency.

2. Global Experiences in Green Technology Implementation

2.1. The European Union Experience

The EU's "Green Deal" strategy provides financial and regulatory incentives for industries adopting green technologies. Management systems in EU enterprises emphasize **eco-innovation metrics**, **supply chain sustainability**, and **transparent reporting** using the ESG framework.

2.2. The Japanese Model

Japan's success in implementing green technologies lies in its "Kaizen-based Environmental Management" approach — continuous improvement through small, incremental changes supported by strong leadership and employee participation.

2.3. The United States Approach

In the U.S., corporations such as Tesla and Apple have demonstrated how integrating **sustainability into corporate strategy** enhances competitiveness while reducing environmental impact. Digitalization and data-driven monitoring play a crucial role in managing these green initiatives effectively.

These examples highlight that successful green technology adoption is inseparable from sustainable management systems rooted in innovation, accountability, and leadership.

3. Current Trends and Challenges in Uzbekistan

Uzbekistan is taking active steps toward a green transition – including the adoption of the *"Strategy for the Transition to a Green Economy for 2019–2030."* However, several management-related challenges persist:

- Limited managerial expertise in sustainability and green technologies;
- Insufficient financial incentives for eco-innovation;
- Weak coordination between government institutions and private sector actors;
- Low awareness of sustainable management among enterprise leaders.

Addressing these challenges requires introducing integrated management frameworks that align national economic goals with environmental objectives.

4. Strategic Directions for Strengthening Sustainable Management

Based on the analysis, the following directions are crucial for enhancing the adoption of green technologies through sustainable management:

1. **Institutional Reform:** Develop national standards for environmental management systems based on ISO 14001 and ESG indicators.
2. **Capacity Building:** Establish specialized training centers for sustainability managers and eco-innovation leaders.
3. **Digitalization:** Implement AI- and IoT-based systems for monitoring resource efficiency and environmental impact.
4. **Public–Private Cooperation:** Strengthen partnerships between government agencies, universities, and private companies in green R&D projects.
5. **Investment Attraction:** Provide tax incentives and green bonds to support the financing of eco-technology projects.

Sustainable management practices form the backbone of successful green technology adoption. They ensure the balance between economic growth and environmental protection while building organizational resilience in the face of global ecological challenges.

Based on the above considerations, the following proposals and recommendations have been developed:

1. Introduce a **National Framework for Sustainable Management Practices** integrating environmental standards into business strategies.
2. Launch **Green Innovation Leadership Programs** for enterprise managers.
3. Create **digital sustainability dashboards** for real-time monitoring of ecological performance.
4. Encourage **eco-certification** for enterprises adopting renewable technologies.
5. Strengthen **international collaboration** with leading green technology firms and research centers.

References

1. European Commission (2020). *The European Green Deal.* Brussels.
2. Ministry of Ecology, Environmental Protection and Climate Change of Uzbekistan (2024). *Green Economy Implementation Report.*
3. OECD (2022). *Greening the Economy: Strategies for Sustainable Industry.* Paris.
4. Porter, M. E. & Kramer, M. R. (2019). *Creating Shared Value.* Harvard Business Review.
5. ISO 14001:2015. *Environmental Management Systems – Requirements with Guidance for Use.*

Ashur Ali Latipov *SamISI,PhD dotsent v.b va IRB-k-222 guruhi 2-bosqich talabasi* **Samandar Abduxafizov**

EKOLOGIK MENEJMENT TIZIMIDA YETAKCHILIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ekologik menejment tizimi va unda yetakchilik kompetensiyalarining shakllanish jarayoni tahlil qilinadi. Yashil iqtisodiyot sharoitida korxona rahbarlarining ekologik tafakkuri, barqaror rivojlanishga yo‘naltirilgan qarorlar qabul qilish qobiliyati hamda innovatsion boshqaruv ko‘nikmalarining ahamiyati yoritilgan. Maqolada zamonaviy menejmentda ekologik yetakchilikni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari, xorijiy tajribalar, hamda O‘zbekiston sharoitida bu jarayonni kuchaytirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Ekologik menejment, yashil iqtisodiyot, yetakchilik kompetensiyalari, barqaror rivojlanish, innovatsion boshqaruv, ekologik madaniyat, transformatsiya.

Bugungi kunda ekologik muammolar insoniyat hayotining barcha jabhalariga ta’sir etmoqda. Shu bois korxonalarda ekologik menejment tizimini samarali joriy etish, rahbarlarning ekologik kompetensiyalarini oshirish dolzarb masalaga aylangan. Ekologik yetakchilik nafaqat tabiatni muhofaza qilish, balki korxonaning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta’minlash vositasi sifatida ham ahamiyatlidir.

Menejment tizimida ekologik yondashuvni shakllantirish – bu faqat tashkiliy o‘zgarish emas, balki butun korxona madaniyatini, qadriyatlarini va boshqaruv

usullarini o‘zgartiruvchi transformatsion jarayondir. Shu nuqtai nazardan, yetakchilik kompetensiyalari ekologik barqarorlikni ta’minlovchi asosiy omil hisoblanadi.

1. Ekologik menejment tizimining mohiyati va ahamiyati

Ekologik menejment — bu korxona faoliyatining barcha bosqichlarida atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirish va resurslardan samarali foydalanishni ta’minlaydigan boshqaruv tizimidir. Bu tizim ISO 14001 xalqaro standarti asosida shakllanadi va quyidagi asosiy tamoyillarga tayanadi:

- ekologik xavflarni baholash va nazorat qilish;
- energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish;
- chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash;
- xodimlarning ekologik mas’uliyatini oshirish.

Ekologik menejmentning muvaffaqiyatli ishlashi ko‘p jihatdan rahbarlarning ekologik qarashlari va yetakchilik ko‘nikmalariga bog‘liq. Shu bois, korxona boshqaruvida ekologik kompetensiyalarni shakllantirish zaruriy shart sifatida qaraladi.

2. Yetakchilik kompetensiyalarining ekologik menejmentdagi o‘rni

Yetakchilik kompetensiyalari deganda rahbarning tashkiliy, kommunikativ, strategik va innovatsion qobiliyatlari tushuniladi. Ekologik menejmentda esa bu kompetensiyalar quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

- ekologik qarorlarni qabul qilishda strategik fikrlash;
- xodimlarni ekologik qadriyatlarga yo‘naltira olish;
- resurslardan oqilona foydalanish bo‘yicha innovatsion g‘oyalarni ilgari surish;
- barqaror rivojlanish maqsadlariga mos boshqaruv madaniyatini shakllantirish.

Masalan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida “green leadership” modeli asosida korxona rahbarlari ekologik mas’uliyatni tashkilot strategiyasining ajralmas qismi sifatida qabul qiladilar. Bu modelda yetakchilik faqat boshqaruv emas, balki ilhomlantirish, o‘rgatish va jamoani ekologik qadriyatlarga yo‘naltirish jarayoni sifatida qaraladi.

3. O‘zbekiston korxonalarida ekologik yetakchilikni rivojlantirish muammolari

O‘zbekiston iqtisodiyotida ekologik menejment konsepsiyasi asta-sekin rivojlanmoqda. Biroq quyidagi muammolar mavjud:

- korxona rahbarlarining ekologik kompetensiya darajasi past;
- ekologik menejment tizimlari to‘liq joriy etilmagan;
- ekologik trening va sertifikatsiya dasturlari yetarli emas;
- ekologik faoliyatni rag‘batlantirish mexanizmlari sust ishlaydi.

Bu muammolar korxona faoliyatida ekologik yetakchilik madaniyatining shakllanishiga to‘sqinlik qiladi. Shu sababli, menejerlar uchun ekologik yo‘nalishdagi malaka oshirish kurslarini joriy etish, xalqaro tajribalarni o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish muhimdir.

4. Ekologik yetakchilikni rivojlantirishning samarali yo‘nalishlari

Ekologik menejmentda yetakchilikni rivojlantirish uchun quyidagi strategik yo‘nalishlar taklif etiladi:

1. Ekologik ta’limni rivojlantirish: oliy ta’lim tizimida menejment yo‘nalishlari uchun “Green Leadership” fanini joriy etish.

2. Korporativ ekologik siyosatni kuchaytirish: har bir korxona ekologik maqsadlar va indikatorlar asosida faoliyat yuritishi.

3. Motivatsiya tizimini takomillashtirish: ekologik innovatsiyalar kiritgan xodimlarni rag‘batlantirish.

4. Ekologik audit tizimini joriy etish: korxona faoliyatining ekologik samaradorligini baholovchi mustaqil monitoring mexanizmi.

5. Raqamli texnologiyalarni qo‘llash: ekologik jarayonlarni real vaqt rejimida nazorat qilish imkoniyatini beruvchi “eco-digital monitoring” platformalarini ishlab chiqish.

Ekologik menejment tizimida yetakchilik kompetensiyalarini shakllantirish – bu nafaqat korxonaning ekologik samaradorligini oshirish, balki uning raqobatbardoshligini mustahkamlash omilidir. Shuningdek, ekologik yetakchilik inson kapitali sifatini oshiradi, xodimlar ongida barqaror rivojlanish qadriyatlarini shakllantiradi.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. O‘zbekiston korxonalarida ekologik menejment sertifikatsiyasini majburiy joriy etish.

2. Menejerlar uchun “Yashil yetakchilik” (Green Leadership) o‘quv dasturlarini yaratish.

3. Ekologik qarorlar samaradorligini o‘lchash uchun KPI tizimiga “ekologik samaradorlik” indikatorini kiritish.

4. Ekologik innovatsiyalarni joriy etgan korxonalarga soliq imtiyozlari berish.

5. Ekologik menejmentni raqamli texnologiyalar bilan integratsiya qilish orqali nazorat tizimini kuchaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Porter M. (1995). Competitive Advantage and the Environment. Harvard Business Review.

2. OECD (2022). Green Growth Indicators. Paris: OECD Publishing.

3. Karimov S. (2023). “Ekologik menejment tizimini joriy etishning o‘ziga xos jihatlari”, Iqtisodiyot va Menejment jurnali.

4. ISO 14001:2015 – Environmental Management Systems — Requirements with Guidance for Use.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” PQ–4477-son qarori, 2019-yil 4-oktabr.

Abdullayev Xurshidjon Nazrullo o‘g‘li
Iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)TIQXIMMI o‘qituvchisi

YASHIL IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIY AUDITNING O‘RNI VA AHAMIYATI.

O‘zbekistonda ekologik xavfsizlikni ta’minlash uchun qo‘llaniladigan tashkiliy-huquqiy va ekologik-iqtisodiy mexanizmlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi: ekologik normativlash, atrof-muhitga ta’sirni baholash (AMTB), ekologik ekspertiza va nazorat, ekologik monitoring, ekologik sertifikatlash va litsenziyalash, shuningdek ekologik sug‘urtalash. So‘nggi yillarda ushbu yo‘nalishlarda qonunchilik bazasi va ilmiy tadqiqotlar sezilarli darajada rivojlandi.

Asosiy chora-tadbirlar mamlakatning tabiiy resurslari – suv, tuproq, havoni antropogen ifloslanishdan himoya qilishga qaratilgan. Jumladan, ekologik ekspertiza va AMTB jarayonlari ishlab chiqilayotgan loyihalarning atrof-muhitga salbiy ta’sirini oldindan baholash imkonini beradi. Biroq amaliyotda ushbu jarayonlar ko‘plab kamchiliklarga ega bo‘lib, ularni yanada takomillashtirish zarurati mavjud.

1-jadval

Ekologik auditning O‘zbekiston Respublikasidagi ekologik xavfsizlik tizimidagi o‘rni

Mezon	Tavsifi	Ekologik xavfsizlik tizimidagi o‘rni
Maqsadi	Korxonalar faoliyatining atrof-muhitga ta’sirini baholash, qonunchilikka rioya qilishni ta’minlash va ekologik xavflarni kamaytirish	Ekologik xavfsizlikni ta’minlashda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi, tabiatga zarar yetkazuvchi faoliyatni aniqlaydi va oldini oladi.
Normativ asos	O‘zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida[78]”gi qonuni, Tabiatdan foydalanish to‘g‘risida boshqa me’yoriy hujjatlar	Ekologik audit qonunchilik talablariga rioya qilishni nazorat qiladi, shu bilan ekologik xavfsizlikni qonuniy jihatdan mustahkamlaydi.
Obyektlari	Korxonalar, ishlab chiqarish jarayonlari, chiqindilar, emissiyalar, tabiatdan foydalanish bo‘yicha hujjatlar	Atrof-muhitga ta’sir ko‘rsatadigan barcha sohalarni qamrab, ekologik xavfsizlikni har tomonlama ta’minlaydi.
Foydalanish sohasi	Sanoat korxonalari, qishloq xo‘jaligi, qurilish, energetika va boshqa sohalardagi tabiatdan foydalanuvchilar	Ekologik xavfsizlikni ta’minlashda turli sohalarni qamrab oladi, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida barqarorlikni ta’minlaydi.

[78] Milliy qonunchilik bazasi. https://lex.uz/acts/-107115 ma`lumotlari

Natijalari	Ekologik xavflarni aniqlash, qonunbuzarliklarni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar, atrof-muhitni muhofaza qilish choralarini takomillashtirish	Ekologik xavfsizlikni mustahkamlash, atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha samarali choralar ko‘rish imkonini beradi.
Davlat organlari bilan bog‘liqligi	Ekologiya, geologiya va tabiiy resurslar vazirligi, mahalliy hokimliklar, soliq organlari	Davlatning ekologik xavfsizlik siyosatini amalga oshirishda muhim vosita bo‘lib, nazorat va monitoringni ta’minlaydi.
Ichki va tashqi audit	Korxonaning ichki jarayonlari va tashqi moliyaviy hisobotlarini tekshirish	Ichki nazoratni kuchaytiradi va tashqi hisobotlarda shaffoflikni ta’minlaydi, bu esa ekologik xavfsizlikni oshiradi.
Ekologik pasport va hisobotlar	Tabiatdan foydalanuvchining ekologik pasporti, statistik hisobotlar va boshqa hujjatlar	Atrof-muhitga ta’sirni baholash va monitoring qilishda asosiy ma’lumot manbai sifatida xizmat qiladi, ekologik xavfsizlikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Ekologik xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar tarkibida shuningdek ekologik monitoring, texnik ekspertizalar, rekultivatsiya va tabiiy obyektlarni tiklash ishlari ham muhim o‘rin tutadi. Belgilangan me’yorlarga amal qilinmagan hollarda korxonalar fuqaroviy, ma’muriy va jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin.

So‘nggi yillarda global ekologik muammolarning chuqurlashuvi sharoitida O‘zbekistonda ham ekologik menejment va ekologik auditga qiziqish ortmoqda. Ular mavjud muammolarni kompleks hal etishga imkon beradigan mexanizmlar sifatida qaralmoqda.

Masalan, ekologik auditning hududiy yo‘nalishi viloyatlar, tumanlar yoki shaharlarning tabiiy resurs salohiyatini baholash, tuproq unumdorligini saqlash, suv resurslaridan oqilona foydalanishni ta’minlash hamda antropogen ta’sirni monitoring qilishda muhim vosita sifatida qaraladi. Bu ayniqsa O‘zbekistonda sug‘oriladigan yerlarning sho‘rlanishi, suv tanqisligi va havoning ifloslanishi kabi dolzarb masalalarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, ekologik audit korxona darajasida ham ahamiyatlidir. Masalan, sanoat, energetika, qishloq xo‘jaligi korxonalari faoliyatida chiqindilarni kamaytirish, resurslardan samarali foydalanish va ekologik xavfsizlikni oshirishga xizmat qiladi. Bu esa nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish, balki korxonalarning investitsion jozibadorligini oshirishda ham muhimdir.

Xorijiy tajribada ekologik audit ISO 14000 standartlari asosida keng qo‘llanilib, moliyaviy institutlar uchun investitsion xavflarni kamaytirish vositasi sifatida qaraladi. O‘zbekiston ham bu tajribani qo‘llash orqali korxonalar va hududlar miqyosida ekologik xavfsizlikni yanada samarali ta’minlash imkoniyatiga ega.

O‘zbekistonda ekologik xavfsizlikni ta’minlash uchun bir qator mexanizmlar mavjud:

-ekologik normativlash;

-atrof-muhitga ta’sirni baholash (AMTB);
-ekologik ekspertiza va nazorat;
-ekologik monitoring;
-ekologik sertifikatlash va litsenziyalash;
-ekologik sug‘urtalash.

So‘nggi yillarda ushbu mexanizmlar bo‘yicha qonunchilik bazasi mustahkamlanib, ekologik sohada nazariy tadqiqotlar rivojlandi.

O`zbekistonda bizning fikrimizcha, amalda asosiy choralar, ko‘pincha, tabiiy resurslarni antropogen ta’sirdan himoya qilishga qaratilgan. Masalan, AMTB va ekologik ekspertiza jarayonlari loyihalarning ekologik oqibatlarini baholash imkonini beradi, biroq obyektlar va jarayonlarning yetarlicha reglamentlanmaganligi ba’zi kamchiliklarni yuzaga keltirmoqda.

Ekologik xavfsizlikni ta’minlash uchun korxonalar va hududlarda ekologik xavfsizlikni ta’minlash uchun ekologik monitoring, texnik ekspertiza, tabiiy obyektlarni rekultivatsiya qilish va ularning tabiiy xususiyatlarini tiklash ishlari amalga oshiriladi. Normativ talablar buzilgan hollarda korxonalar fuqaroviy, ma’muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin.

Ekologik muammolarning chuqurlashuvi sharoitida ekologik menejment va ekologik audit muhim vositalar sifatida qaralmoqda. G. P. Serov ta’kidlaganidek, ekologik xavfsizlikni ta’minlash jarayonida:

“dastlabki bosqich – ishlab chiqarish faoliyatida salbiy ta’sirlarning oldini olish;

yakuniy bosqich – ifloslangan tabiiy obyektlardan korxonalarni himoya qilish bo‘yicha shoshilinch choralarni amalga oshirishni o‘z ichiga oladi”[79].

Hududiy ekologik audit – bu yer resurslari salohiyatini baholash, salbiy jarayonlarni aniqlash, antropogen yuklamalarni nazorat qilish, tuproq unumdorligini saqlash, suv resurslaridan oqilona foydalanish va tabiat yodgorliklarini himoya qilishga qaratilgan yo‘nalishdir. O‘zbekistonda bu yo‘nalish, ayniqsa, sug‘oriladigan yerlarda sho‘rlanish, suv tanqisligi va havoning ifloslanishi kabi muammolarni hal qilishda dolzarbdir.

Xalqaro amaliyotda ekologik audit ISO 14000 standartlari asosida keng qo‘llanilib, investitsion xavflarni kamaytirish vositasi sifatida qaraladi. O‘zbekiston ham ushbu tajribani qo‘llash orqali ekologik xavfsizlikni oshirish, korxonalar investitsion jozibadorligini kuchaytirish va barqaror rivojlanishni ta’minlash imkoniyatiga ega.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, ekologik audit – bu korxona va hududlarning atrof-muhitga ta’sirini baholash, ekologik xavflarni aniqlash va ularni kamaytirishga qaratilgan tizimli, mustaqil va hujjatlashtirilgan jarayondir. U nafaqat ekologik qonunchilik talablariga rioya etilishini tekshiradi, balki tabiat resurslaridan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Ekologik auditning ahamiyati shundaki, u:

[79] Г.П.Серов Экологический аудит как механизм обеспечения техногенной и экологической безопасности. // Вестник МГУ. – 2007. – №12. 6 с.

iqtisodiy jihatdan – korxonalarda xarajatlarni qisqartirish, resurslardan samarali foydalanish va investitsion jozibadorlikni oshirishga;

ekologik jihatdan – atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik xavflarni kamaytirish va barqaror rivojlanishni ta’minlashga;

ijtimoiy jihatdan – aholining ekologik xavfsizligini mustahkamlash, korxonalar imidjini yaxshilash va jamoatchilik ishonchini oshirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, ekologik audit barqaror rivojlanish siyosatini amalga oshirishning muhim instrumenti bo‘lib, jamiyat va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlashda hal qiluvchi o‘rin tutadi. U korxonalarga iqtisodiy samaradorlikni oshirish bilan birga, ekologik xavfsizlikni ta’minlash va ijtimoiy mas’uliyatni kuchaytirish imkonini beradi.

Ekologik xavfsizlik nuqtai nazaridan, ekologik audit nafaqat mavjud xatarlarni baholaydi, balki yashil texnologiyalarni joriy etish va iqlim o'zgarishiga qarshi choralar ko'rishda ham muhim rol o'ynaydi. Bu jarayon davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirib, ekologik xavfsizlikni ta'minlashda adolatli o'tishni (transition) ta'minlaydi, xususan, kasbiy salomatlik va xavfsizlikni yaxshilash orqali. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, ekologik auditning samarali qo'llanilishi yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda ekologik xavfsizlikni mustahkamlashning asosiy vositasi bo'lib, u atrof-muhit xatarlarini kamaytirish va inson farovonligini oshirishga hissa qo'shadi.

Kelgusida, ekologik audit tizimini takomillashtirish va uni xalqaro standartlarga moslashtirish orqali, yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda ekologik xavfsizlikni yanada yuqori darajaga ko'tarish mumkin. Bu esa global iqlim o'zgarishi va ekologik muammolarga qarshi kurashda muhim qadam bo'ladi.

Foydalanilingan adabiyotlar ro‘yhati.

1. O‘zbekiston Respublikasining Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida qonuni. https://lex.uz/acts/-107115 sayti ma`lumotlari.

2. Г.П.Серов Экологический аудит как механизм обеспечения техногенной и экологической безопасности. // Вестник МГУ. – 2007. – №12. 6 с.

Nozimov Eldor Anvarovich *SamISI*
“Investisiya va innovatsiyalar” kafedrasi katta o’qituvchisi

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA YASHIL ISHLAB CHIQARISH TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli transformatsiya jarayonlarining yashil ishlab chiqarish tizimlarini rivojlantirishdagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Zamonaviy sanoat korxonalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish ekologik barqarorlikni ta’minlash, energiya samaradorligini oshirish hamda chiqindilar hajmini kamaytirish imkonini berayotgani yoritiladi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar – sun’iy intellekt, IoT (Internet of Things), Big Data va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarining yashil ishlab chiqarish jarayonlariga integratsiyasi iqtisodiy va ekologik

samaradorlikka ijobiy ta’sir ko‘rsatishi asoslanadi. O‘zbekiston sanoatida raqamli va ekologik yondashuvlarni uyg‘unlashtirish bo‘yicha mavjud tajribalar, muammolar va istiqbolli yo‘nalishlar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Raqamli transformatsiya, yashil ishlab chiqarish, ekologik texnologiyalar, energiya samaradorligi, barqaror rivojlanish, sanoat modernizatsiyasi, innovatsion texnologiyalar, sun’iy intellekt, IoT, raqamli iqtisodiyot.

So‘nggi yillarda global iqtisodiyotning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida raqamli transformatsiya va yashil iqtisodiyot konsepsiyasi keng e’tibor qozonmoqda. Raqamli texnologiyalar ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, resurslardan oqilona foydalanish va ekologik barqarorlikni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, sanoat tarmoqlarida raqamli yechimlar orqali energiya tejamkor, chiqindisiz va ekologik toza ishlab chiqarish tizimlarini shakllantirish bugungi kun talabiga aylanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida ham raqamli iqtisodiyot va yashil texnologiyalarni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi hamda “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish milliy konsepsiyasi asosida ishlab chiqarish tarmoqlarida innovatsion va ekologik samarali texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Shu bois, raqamli transformatsiya jarayonlarini yashil ishlab chiqarish tizimlari bilan integratsiyalash masalasi ilmiy-amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

Raqamli transformatsiya deganda, ishlab chiqarish, boshqaruv va xizmat ko‘rsatish sohalarida raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, “aqlli” tizimlar, ma’lumotlarni tahlil qilish (Big Data), hamda internet narsalarining (IoT) joriy etilishi tushuniladi. Bu texnologiyalar ishlab chiqarish jarayonlarini yanada optimallashtirib, resurs sarfini kamaytiradi va ekologik zararlarni minimallashtiradi.

Yashil ishlab chiqarish tizimi esa iqtisodiy samaradorlikni saqlagan holda atrof-muhitga minimal ta’sir ko‘rsatishni, chiqindilarni qayta ishlashni, energiya tejamkorlikni hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni o‘z ichiga oladi. Demak, raqamli transformatsiya va yashil ishlab chiqarish o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi ikki strategik yo‘nalishdir.

Raqamli texnologiyalar yordamida ishlab chiqarishda quyidagi imkoniyatlar yaratiladi:

- **Energiya samaradorligini oshirish:** raqamli monitoring tizimlari yordamida energiya sarfini doimiy nazorat qilish va optimallashtirish imkoniyati yuzaga keladi.
- **Chiqindilarni kamaytirish:** sun’iy intellekt asosida ishlab chiqarish jarayonlarini modellashtirish orqali resurslardan samarali foydalanish ta’minlanadi.
- **Resurslarni boshqarish:** Big Data texnologiyalari orqali ishlab chiqarishning ekologik ko‘rsatkichlari tahlil qilinadi va muammoli nuqtalar aniqlanadi.
- **Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari:** “aqlli” sensorlar va IoT yechimlari yordamida ishlab chiqarish jarayonlari real vaqt rejimida boshqariladi.

O‘zbekiston sanoatida ham so‘nggi yillarda bir qator korxonalar raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ekologik samaradorlikka erishmoqda. Masalan, kimyo, energetika, to‘qimachilik va qurilish sanoatida “aqlli nazorat” tizimlari joriy qilinib, ishlab chiqarish jarayonlari optimallashtirilmoqda. Bu esa resurslardan foydalanish samaradorligini 10–15 foizga oshirgan, chiqindilar hajmini esa 8–12 foizga kamaytirgan holatlar qayd etilgan.

1-jadval.

Raqamli texnologiyalarning yashil ishlab chiqarish tizimlariga ta’siri

№	Raqamli texnologiya turi	Asosiy qo‘llanish sohasi	Ekologik samaradorlik natijasi	Amaliy misol (O‘zbekiston yoki xorij tajribasi)
1	**Sun’iy intellekt (AI)**	Ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, texnik nosozliklarni oldindan aniqlash	Energiya sarfini 10–15% gacha kamaytiradi, chiqindilarni minimallashtiradi	O‘zbekiston kimyo sanoatida AI asosida texnologik jarayonlarni boshqarish tizimlari joriy etilmoqda
2	**IoT (Internet of Things)**	“Aqlli” sensorlar orqali real vaqt rejimida ishlab chiqarishni nazorat qilish	Energiya va suv resurslarini tejamli boshqaradi	Xitoyda sanoat IoT tarmoqlari orqali energiya nazorati 18% samaradorlik bergan
3	**Big Data**	Ma’lumotlarni tahlil qilish, chiqindilarni kamaytirish strategiyasini shakllantirish	Resurslardan foydalanishning aniq prognozini beradi, ekologik xavflarni kamaytiradi	Yevropa Ittifoqida “Green Data Analytics” platformasi yordamida ishlab chiqarish chiqindilari 12% ga qisqartirilgan
4	**Raqamli egizak (Digital Twin)**	Ishlab chiqarish jarayonlarini virtual modellashtirish va tahlil qilish	Ekologik ta’sirni oldindan hisoblash va minimallashtirish imkonini beradi	Germaniyada “Siemens” kompaniyasi zavodlarda “Digital Twin” orqali chiqindi

№	Raqamli texnologiya turi	Asosiy qo‘llanish sohasi	Ekologik samaradorlik natijasi	Amaliy misol (O‘zbekiston yoki xorij tajribasi)
				hajmini 15% kamaytirgan
5	**Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari**	Energiya, suv va havo oqimlarini avtomatik boshqarish	Inson omili xatolarini kamaytiradi, resurs tejamkorligini oshiradi	O‘zbekiston energetika tizimida “aqlli nazorat” tizimlari sinovdan o‘tkazilmoqda
6	**Blockchain texnologiyasi**	Yetkazib berish zanjirlarida shaffoflikni ta’minlash	Ekologik standartlarga moslikni nazorat qiladi	Skandinaviya davlatlarida “green blockchain” orqali ekologik auditi joriy etilgan

Raqamli transformatsiya jarayonida yashil ishlab chiqarish tizimlarini rivojlantirishning asosiy ustuvor yo‘nalishlari quyidagilar hisoblanadi:

1. **Raqamli ekoinnovatsiyalarni rag‘batlantirish** — korxonalarda energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etuvchi startaplar va ilmiy-tadqiqot loyihalarini qo‘llab-quvvatlash.
2. **Sanoatda “yashil raqamli klasterlar”ni shakllantirish** — bir nechta korxonalarni raqamli platformalar orqali yagona ekologik tizimga birlashtirish.
3. **Axborot texnologiyalari infratuzilmasini kengaytirish** — ishlab chiqarish tarmoqlarini real vaqt monitoring tizimlariga ulash.
4. **Kadrlar salohiyatini oshirish** — muhandis va texnik mutaxassislarni raqamli va ekologik texnologiyalarni birgalikda qo‘llash bo‘yicha o‘qitish.
5. **Davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish** — yashil texnologiyalarni joriy etish uchun soliq imtiyozlari, grant va subsidiyalarni kengaytirish.

Bundan tashqari, ishlab chiqarish jarayonlarida **uglerod izini kamaytirish**, **chiqindilarni qayta ishlash** va **energiya manbalarini diversifikatsiya qilish** kabi yo‘nalishlarda ham raqamli texnologiyalar samarali qo‘llanilishi mumkin. Misol uchun, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida ishlab chiqilgan “Green Digital Twin” texnologiyasi korxonalar uchun raqamli modellashtirish orqali ekologik samarani oldindan hisoblash imkonini beradi. Shu kabi tizimlar O‘zbekiston sharoitiga moslashtirilsa, yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayoni tezlashadi.

2-jadval.

Yashil ishlab chiqarish tizimini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari

Yo‘nalish	Mazmuni	Kutilayotgan iqtisodiy va ekologik natijalar
1. Energiya samaradorligini oshirish	Energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish, “aqlli” energiya nazorati tizimlarini o‘rnatish	Ishlab chiqarish xarajatlari kamayadi, energiya isrofi pasayadi
2. Raqamli nazorat va avtomatlashtirish	IoT, Big Data va AI asosidagi boshqaruv tizimlarini yaratish	Chiqindilar hajmi kamayadi, ishlab chiqarish barqarorligi oshadi
3. Chiqindisiz texnologiyalar	Qayta ishlash, ikkilamchi resurslardan foydalanish	Ekologik zarar kamayadi, ishlab chiqarish sikli uzluksiz bo‘ladi
4. Ekoinnovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash	Yashil startaplar va ilmiy tadqiqot loyihalariga investitsiyalar yo‘naltirish	Yangi ish o‘rinlari yaratiladi, innovatsion faollik kuchayadi
5. Kadrlar tayyorlash va malaka oshirish	Raqamli va ekologik texnologiyalarni birlashtirgan o‘quv dasturlarini ishlab chiqish	Kadrlar salohiyati ortadi, ishlab chiqarish madaniyati rivojlanadi

Xulosa qilib aytganda, raqamli transformatsiya sharoitida yashil ishlab chiqarish tizimlarini rivojlantirish – nafaqat ekologik barqarorlikni ta’minlash, balki sanoatning raqobatbardoshligini oshirishning ham muhim omilidir. Raqamli texnologiyalar yordamida ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, energiya sarfini kamaytirish, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik xavfsizlikni oshirish imkoniyatlari kengaymoqda.

O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilishda raqamli texnologiyalarni ekologik tamoyillar bilan uyg‘unlashtirish milliy “yashil” transformatsiyaning poydevorini tashkil etadi. Shu bois, kelajakda har bir korxona raqamli yechimlardan foydalangan holda ekologik toza ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yishi – iqtisodiy barqarorlik va ekologik xavfsizlikni ta’minlashning eng to‘g‘ri yo‘lidir.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi farmoni.
2. “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish bo‘yicha Milliy strategiya, 2019 yil.

3. Porter M. E., *Green Growth and Innovation Management,* Harvard Business Review, 2021.
4. Karimov A., To‘xtayev B. “Raqamli iqtisodiyot va barqaror rivojlanish istiqbollari”, Toshkent, 2024.

Насиров Дилшод Фархадович *СамИЭС*
Старший преподаватель кафедры «Инвестиции и инновации»

«ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНОЕ И ЭКОЛОГИЧЕСКИ ЧИСТОЕ ПРОИЗВОДСТВО КАК ОСНОВА «ЗЕЛЕНЫХ» ТЕХНОЛОГИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ»

Аннотация: долгосрочная конкурентоспособность на национальном и корпоративном уровне в современной экономике достигается не за счет изолированных мер, а через синергетический эффект от интеграции трех стратегических направлений: цифровой трансформации, принципов экономики замкнутого цикла и диверсификации энергоисточников на основе ВИЭ. Это позволит Узбекистану не только модернизировать промышленность, но и внедрить устойчивые решения, способствуя "зеленому" росту и глобальной конкурентоспособности.

Ключевые слова: энергоэффективность, экологически чистое производство, зеленые технологии, Узбекистан, цифровая трансформация, экономика замкнутого цикла, возобновляемые источники энергии, устойчивое развитие, модернизация промышленности, конкурентоспособность

Введение: Энергоэффективное и экологически чистое производство представляет собой фундамент "зеленых" технологий, обеспечивая переход к устойчивой экономике через минимизацию ресурсопотребления, снижение эмиссий и внедрение инновационных решений. В глобальном контексте, где климатические изменения требуют радикальных мер, такие подходы становятся ключевыми для модернизации промышленности: по данным UNEP Technology and Innovation Report 2025, внедрение энергоэффективных технологий может сократить глобальные эмиссии на 30% к 2030 году, а экономика замкнутого цикла (circular economy) — сэкономить до 4,5 трлн долларов США ежегодно за счет переработки отходов и рационального использования ресурсов.[80] Актуальность темы усиливается вызовами развивающихся стран, где промышленность часто зависит от ископаемых топлива: в Узбекистане, как в стране с высоким потенциалом возобновляемых источников энергии (ВИЭ), модернизация производства открывает пути к диверсификации энергоисточников и интеграции цифровых технологий для оптимизации процессов.

O‘zbekistonda oxirgi yillarda “Moliyaviy strategiyani shakllantirish to‘g‘risida”gi qarorlar asosida korporatsiyalarda samarali boshqaruv tizimlari joriy qilinmoqda. Davlat korxonalari xususiylashtirilayotgani moliyaviy strategiya zaruratini yanada oshirmoqda. “O‘zbekneftgaz” va “Hududiy elektr tarmoqlari” kabi yirik tashkilotlar byudjetlashtirishning ssenariyli modellarini qo‘llamoqda.

Xulosa qilib aytganda, moliyaviy strategiya korporativ tuzilmalar uchun muhim boshqaruv vositasidir. U kompaniya barqarorligini ta’minlaydi, raqobatbardoshlikni oshiradi va investorlar ishonchini mustahkamlaydi. Amaliyotda bu strategiyani muvaffaqiyatli qo‘llash uchun bozor tahlili, samarali rejalashtirish, raqamli texnologiyalarni joriy qilish va moliyaviy savodxonlikni oshirish zarur.

Yaqin kelajakda O‘zbekiston korxonalarining moliyaviy strategiyalarni ilg‘or texnologiyalar asosida ishlab chiqishi, ularni xalqaro standartlarga moslashtirishi ularning raqobatbardoshligini tubdan oshiradi. Shu bois, har bir korporatsiya moliyaviy strategiyani asosiy ustuvor yo‘nalish sifatida belgilashi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Finansovaya politika: teoreticheskiye aspekty formirovaniya i realizatsii : uchebnoye posobiye / N. Yu. Isakova, Ye. A. Smorodina, V. B. Rodicheva i dr. ; pod obщ. red. N. Yu. Isakovoy, Ye. A. Smorodinoy ; Ministerstvo nauki i vysshego obrazovaniya Rossiyskoy Federatsii, Uralskiy federalnыy universitet. – Yekaterinburg : Izd-vo Ural. un ta, 2022. – S.54.

2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari, 2023-2024.
3. “LUKOIL Uzbekistan Operating Company” MCHJ.
4. Levchuk I. V. Tovar kak semanticheskiy attraktor //Vestnik Nijegorodskogo universiteta im. NI Lobachevskogo. – 2009. – №. 4. – S. 299-303
5. Drobozina L.A. Denejnoye xozyaystvo predpriyatiy : uchebnik dlya vuzov / Veretennikovoy.– Yeaterinburg : Izd-vo AMB, 2016. – 464 s.

Nafisa Toshnazarova *SamISI tayanch doktoranti*

SAVDO FAOLIYATI KO’RSATKICHLARI O’SISH TENDENTSIYALARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada savdo korxonalari soni va tovar aylanmasi, umimiy ovqatlanish korxonalari soni va tovar aylanmasiga doir ma’lumotlar keltirilgan va tahlil qilingan. Savdo faoliyatini tartibga solish bo’yicha takliflar keltirilgan.

Kalitli so’zlar: chakana savdo tovar aylanmasi, ulgurji savdo tovar aylanmasi, savdo korxonalari, umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi, qo’shilgan qiymat solig’i,

Bugungi kunda savdo faoliyatini tavsiflovchi ko’rsatkichlarning holati va ularni yaxshilash borasidagi takliflar ishlab chiqarish dolzarb hisoblanadi. Savdo xizmatlarini tavsiflavsh tovar aylanmasini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o‘z navbatida savdo tashkilotining faoliyati to‘g‘risida umumiy ma'lumotlarni olish, o’sish tendentsiyalarinin aniqlash imkoniyatini beradi.

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo‘layotgan ijtimoiy iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to‘g‘ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko‘rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko‘rsatkichi shular jumlasidan.

2024 yil 1 iyul holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni 88 541 tani tashkil etib, 2023 yil 1 iyulga nisbatan 6 851 taga kamaygan (o‘sish sur'ati 92,8 %). Shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 324 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 88 217 tani tashkil qildi. Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YaTTlar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlar asosida yig‘ilgan ma'lumotlari, chakana savdo ko‘rsatkichlariga kiritilgan. Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik sub'ektlari faoliyati natijasida, 2024 yilning yanvar-iyun oylarida respublikaning chakana savdo tovar aylanmasi 154 618,1 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023 yilga nisbatan 108,4 % ga oshgan. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 27 794,6 mlrd. so‘mni (o‘sish sur'ati 109,4 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 110 138,2 mlrd. so‘mni (o‘sish sur'ati

107,4 %), uyushmagan savdo tovar aylanmasi 16 685,3 mlrd. so‘mni (o‘sish sur'ati 114,1 %) tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalar ulushi 18,0 %, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari 71,2 %, shu jumladan uyushmagan savdo aylanmasi 10,8 % ni tashkil qildi. Chakana savdo aylanmasi – aholiga shaxsiy, oilaviy, maishiy va tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan shu kabi foydalanish uchun sotilgan tovarlarning qiymati hisoblanadi. Chakana savdo aylanmasi (umumiy ovqatlanish korxonalari aylanmasini qo‘shmagan holda) aholi jon boshiga 6,2 % ga oshdi va 4 182,6 ming so‘mni tashkil etdi. (2023 yilning mos davrida – 3 679,9 ming so‘m). Toshkent shahrida (13 149,0 ming so‘m), Navoiy (5 383,3 ming so‘m) va Toshkent (4 693,3 ming so‘m) viloyatlarida eng yuqori o‘rtacha jon boshiga tovar ayirboshlash qayd etilgan bo‘lsa, eng kam o‘rtacha jon boshiga tovar ayirboshlash esa Qoraqalpog‘iston Respublikasida (2 598,7 ming so‘m), Sirdaryo (2 690,9 ming so‘m) va Qashqadaryo (2 897,1 ming so‘m) viloyatlarida qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi umumiy hajmida eng katta ulush Toshkent shahri hisobiga to‘g‘ri keldi va 26,0 % ni tashkil etdi, Toshkent viloyati 9,3 %, Samarqand viloyati 9,0 %, Farg‘ona viloyati 8,0 %, Andijon viloyati 6,9 % ni tashkil etgan bo‘lsa, Sirdaryo viloyati 1,6 % va Jizzax viloyati 3,0 % ulush bilan eng past ko‘rsatkichlarni qayd etdi.

2024 yil 1 iyul holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni 24 709 tani tashkil etib, 2023 yil 1 aprel holatiga nisbatan 205 taga ko‘paygan (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 100,8 % ni tashkil etgan). Shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 82 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 24 627 tani tashkil qildi.

Ulgurji tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirilmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘langanligidan yoki to‘lanmaganligidan qat'iy nazar hisobga olinadi. Dastlabki ma'lumotlarga ko‘ra, 2024 yilning yanvar-iyun oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 147 013,6 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023 yilning mos davriga nisbatan 10,6 % ga o‘sdi. Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o‘sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Qoraqalpog‘iston Respublikasida (173,0 %) va Samarqand (163,9 %), Jizzax (142,7 %), viloyatlarida kuzatildi. 2024 yil 1 iyul holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalari soni 45 817 tani tashkil etib, 2023 yilning 1 iyul holatiga nisbatan 108 taga kamaygan, o‘sish sur'ati 99,8 % ni tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 344 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 45 473 tani tashkil qildi”[111]

Savdo korxonalarining davlat byudjetiga hissasi ham ortib bormoqda. Hozirgi kunda savdo korxonalari ham QQS to‘lovchisi hisoblanadi. 2023 yil yanvar-avgust oylarida eng ko‘p soliq to‘lagan savdo korxonalarining 20 talik reytingi e'lon qilindi. Ularning nomlari va to‘lagan soliq miqdorlini quyidagi rasmda keltirilgan (1-rasm).

[111]file:///C:/Users/user/Downloads/7.%D0%98%D0%A1%D0%A2%D0%95%D0%AA%D0%9C%D0%9E%D0%9B



1-rasm. Eng ko‘p soliq to‘lagan 20 ta top savdo korxonasi ro‘yxati va to‘lagan soliqlari hajmi[112].

2023 yilda eng ko‘p soliq to‘lagan umumiy ovqatlanish korxonalari orasida TOP-5 lik quyidagicha:

1.“International Foodchain” MChJ – 59,8 mlrd so‘m;

2.“Mak Food Service” MChJ – 43,8 mlrd so‘m;

3.“Euro Asia Lider Service” MChJ – 15,1 mlrd so‘m;

4.“Savdo” MChJ – 6,5 mlrd so‘m;

5.“Sayohat-Travel” MChJ – 5,3 mlrd so‘m[113].

Ushbu statistik ma’lumotlar asosida quyidagi xulosalar qilindi:

1. Savdo korxonalari soni kamayishi bu ijobiy holat deb bo’lmaydi. Asosiy savdo korxonalarining yopilishiga sabab savdo korxonalarini tekshirish va nazorat ko’pligi, kommunal va maishiy xizmatlar narxi oshganligi, yetarli darajada tovar aylanmasiga erisha olmaganligi, savdo madaniyatining pastligi, oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash uchun shart-sharoitlarning mavjud emasligi, buxgalteriya ishlarining yetarli darajada tashkil etilmaganligi va boshqa sabablar bo’lgan.

[112] https://daryo.uz/k/2023/09/30/ozbekistonda-sakkiz-oyda-savdo-sohasida-eng-kop-soliq-tolagan-korxonalarmalum-qilindi

[113]https://daryo.uz/k/2024/03/13/ozbekistonda-umumiy-ovqatlanish-korxonalari-2023-yili-qariyb-1-trln-somdanortiq-soliq-toladi

2. Chakana tovar aylanmasining o’sish sur’ati yuksak darajada deb bo’lmaydi. Chunki, bu o’sish sur’atlarini narx indeksini hamda aholi soni o’sish sur’atlarini hisobga oladigan bo’lsak salmoqli emas. Shu bilan birga aholining ehtiyoji hamda iste’mol me’yorlariga nisbatan solishtirganda hali ko’plab tovar guruhlari bo’yicha ehtiyoj va me’yorlar qondirilmagan.

3. Olis qishloqlarda aholi jon boshiga savdo tovar aylanmasi juda pastligicha qolmoqda. Qishloqda savdo faoliyatini tashkil etish va rivojlantirish zarur.

Yuqoridagilarni inobatga olib bugungi kunda savdo faoliyatini rivojlantirish uchun “Savdoni rivojlantirish kontseptsiya”sini ishlab chiqish kerak. Savdoda narx belgilash va savdo bo’yicha tushumlarning banklarga kelib tushishi ustidan qat’iy nazorat o’rnatilishi, savdoda monopoliyaga barham berish choralarini ko’rish kerak. Ushbu tadbirlarning amalga oshirilishi savdo xizmatlari va uning sifatini dunyo darajasiga yetkazishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro’yxati:

1.file:///C:/Users/user/Downloads/7.%D0%98%D0%A1%D0%A2%D0%95%D0%AA%D0%9C%D0%9E%D0%9B

2. https://daryo.uz/k/2023/09/30/ozbekistonda-sakkiz-oyda-savdo-sohasida-eng-kop-soliq-tolagan-korxonalarmalum-qilindi

3. https://daryo.uz/k/2024/03/13/ozbekistonda-umumiy-ovqatlanish-korxonalari-2023-yili-qariyb-1-trln-somdanortiq-soliq-toladi

Xolmatova Parvina Asliddin qizi *SamISI tayanch doktoranti*
08.00.05. –“Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti”

YASHIL INVESTITSIYALAR ASOSIDA O‘ZBEKISTON EKOLOGIK TURIZM SEKTORIDA RAQOBATBARDOSH VA BARQAROR RIVOJLANISH MODELINI YARATISHNING ILMIY-NAZARIY TAHLILI.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston ekologik turizm sohasida yashil investitsiyalarni jalb etish asosida raqobatbardosh va barqaror rivojlanish modelini shakllantirish masalalari yoritilgan. Tadqiqot davomida yashil investitsiyalarning nazariy mohiyati, ularning turizm sektoridagi o‘rni hamda O‘zbekiston ekologik turizmining hozirgi holati tahlil qilindi. Maqolada yashil obligatsiyalar, ekologik kreditlar va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari orqali ekologik loyihalarni moliyalashtirishning samarali usullari taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: yashil investitsiyalar, ekologik turizm, barqaror rivojlanish, moliyaviy mexanizmlar, davlat-xususiy sheriklik, O‘zbekiston.

Bugungi kunda turizm sohasi jahon iqtisodiyotining eng jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Xalqaro turizm tashkiloti (UNWTO) ma’lumotlariga ko‘ra, 2019-yilda turizm sektori dunyo bo‘yicha yalpi ichki mahsulotning 10 foizdan ortig‘ini tashkil qilgan va millionlab ish o‘rinlari yaratgan. Shu bilan bir qatorda, an’anaviy turizm shakllarining tez sur’atda jadallashishi tabiatga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda ya’ni suv hamda havoning ifloslanishiga, chiqindilarning ko‘payishiga, tabiiy landshaftlarning buzilishiga va madaniy merosning yo‘qolishiga sabab bo‘lmoqda.

Manashu sababdan, so‘nggi yillarda “barqaror turizm” va “ekologik turizm” tushunchalari dunyo miqyosida dolzarb masalaga aylangan. Ekologik turizm nafaqat tabiatni asrash, balki mahalliy aholining iqtisodiy farovonligini ta’minlash, ularning madaniy qadriyatlarini saqlab qolish va turizmni uzoq muddatli rivojlantirishga yo‘naltirilgan yondashuvni anglatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ-4477-son qarori bilan tasdiqlangan 2019–2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish Strategiyasida iqlim o‘zgarishi oqibatlariga moslashish va ularni yumshatish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va tabiiy ekotizimlarni asrash bo‘yicha bir qator vazifalar keltirilgan. Shuningdek, 2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalarning 15-maqsadi “Quruqlik ekotizimlarini himoyalash va tiklash, ulardan oqilona foydalanishga ko‘maklashish, o‘rmonlardan oqilona foydalanish, cho‘llanishga qarshi kurashish, yerlarning yemirilishini to‘xtatish va ortga qaytarish, bioxilma-xillikning yo‘qolib ketish jarayonini to‘xtatish” dan iborat. Bu esa o‘z navbatida, hududlarning turistik-rekreatsion imkoniyatlaridan samarali foydalanish va ekoturizmni rivojlantirishtirish bilan bog‘liq.

Bugungi kunda ekoturizmning rivojlanish yo‘nalishlari va istiqbollari tabiat qonuniyatlari va geotizimlar barqarorligi bilan bog‘liq holda shakllanmoqda. Mamlakatimizning tabiiy-iqlim sharoiti, rekreatsion resurslari ekologik turizmni har bir hududga mos ravishda rivojlantirishga imkoniyat yaratadi.

O‘zbekiston o‘zining geografik joylashuvi, tabiiy resurslari va boy madaniy merosi bilan ekologik turizmni yksaltirish uchun katta salohiyatga ega davlatdir. Mamlakat hududining qariyb 10 foizi muhofaza qilinadigan tabiiy hududlardan iborat bo‘lib, ularda yuzlab noyob flora va fauna xilma-xilligi mavjud. Shuningdek, Samarqand, Buxoro, Xiva kabi shaharlaridagi tarixiy-madaniy meros ekologik va madaniy turizmni uyg‘unlashtirish zamin yaratadi.

Biroq, bu imkoniyatlardan to‘liq foydalanish uchun ekologik turizmni rivojlantirishda moliyaviy va tashkiliy mexanizmlarni mustahkamlash, ayniqsa, yashil investitsiyalarni jalb etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu o‘rinda yashil investitsiyalarning mohiyati va ularning turizm sohasidagi o‘rniga to‘xtalib o‘tish maqolaning asl mohiyatini ochib berishga turtki bo‘ladi.

Yashil investitsiyalar deyilganda, atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirgan holda, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlovchi va ekologik barqarorlikni mustahkamlovchi loyihalarga yo‘naltirilgan sarmoyalar majmuasi nazarda tutiladi. (OECD, 2020).

Turizm sohasida yashil investitsiyalar quyidagi yo‘nalishlarda o‘z ifodasini topadi:

- energiya va suvni tejovchi texnologiyalarni joriy etish;
- chiqindilarni qayta ishlash tizimlarini rivojlantirish;
- ekologik toza transport va “yashil” infratuzilmani yaratish;
- tabiiy hududlarda ekologik me’yorlarga mos mehmonxonalar va dam olish maskanlari barpo etish.

Bu kabi sarmoyalar nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilishga, balki uzoq muddatda turizmning iqtisodiy samaradorligini oshirishga ham yordam beradi. Yashil

investitsiyalar orqali ekologik turizmni rivojlantirish mamlakatning xalqaro imijini yuksaltiradi, tabiiy hududlarga ma’uliyat bilan sayr qiladigan turistlar oqimini ko‘paytiradi va shu bilan bir qatorda, mahalliy aholiga doimiy daromad manbaini yaratadi.

O‘zbekiston ekologik turizmining hozirgi holatiga nazar soladigan bo‘lsak, mamlakatning tabiiy sharoiti va landshafti ekologik turizmni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Ugom–Chotqol, Zarafshon, Hisor, Nurota, Qizilqum kabi tabiiy hududlar ekoturizmning asosiy yo‘nalishlari sifatida qarab kelinmoqda.

2020–2025 yillarga mo‘ljallangan “Barqaror turizmni rivojlantirish” davlat dasturi doirasida ekologik yo‘nalishdagi infratuzilmani modernizatsiya qilish, mahalliy jamoalarni turizm xizmatlariga jalb etish va yangi turizm mahsulotlarini yaratish choralari belgilangan.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston hukumati ekologik loyihalarni moliyalashtirishda yangi mexanizmlarni joriy etmoqda. Jumladan, 2023-yilda mamlakat tarixida ilk bor Londonda yashil davlat obligatsiyalari (Green Eurobonds) chiqarildi. Ushbu tashabbus ekologik infratuzilmani rivojlantirish, chiqindilarni boshqarish tizimini yaxshilash hamda barqaror turizm loyihalarini moliyalashtirish yo‘lida muhim qadam bo‘ldi. Afsuski, amaliyotda bir qator muammolar ham mavjud ya’ni, mahalliy biznes uchun ekologik loyihalarga sarmoya kiritish imkoniyatlari cheklangan; malakali kadrlar, ekologik menejerlar va gidlar yetishmaydi; infratuzilma ko‘plab hududlarda eskirgan yoki ekologik standartlarga javob bermaydi; ekoturizm faoliyatining ekologik ta’sirini baholash tizimi hali to‘liq yo‘lga qo‘yilmagan.

Bu omillar O‘zbekiston ekologik turizmining to‘liq potensialini amalga oshirishda to‘siq bo‘lib turibdi.

Yashil investitsiyalarni jalb qilishning moliyaviy mexanizmlari:

Yashil obligatsiyalar va ekologik kreditlar-yashil obligatsiyalar ekologik loyihalarni moliyalashtirish uchun chiqariladigan qimmatli qog‘ozlar bo‘lib, ularning daromadi atrof-muhitni muhofaza qilishga yo‘naltiriladi. O‘zbekistonning Londonda chiqargan yashil obligatsiyalari bu borada muhim bosqich bo‘ldi. Kelgusida ushbu amaliyotni mahalliy darajada ham kengaytirish, ya’ni milliy banklar orqali ekologik kredit tarmoqlarini yaratish maqsadga muvofiqdir.

Soliq imtiyozlari va subsidiya siyosati- davlat yashil loyihalarni rag‘batlantirish uchun daromad solig‘idan ozod etish, imtiyozli kredit stavkalari, investitsion subsidiya va grantlar tizimini joriy qilmoqda. Bu choralar ekologik loyihalar uchun moliyaviy barqarorlikni oshiradi va xususiy sarmoyadorlarni jalb qiladi.

Davlat-xususiy sheriklik modeli ekologik turizm infratuzilmasini barpo etishda samarali vosita bo‘lib xizmat qila oladi. Bu model xususiy sarmoyadorlar uchun xavfni kamaytirib davlat uchun qo‘shimcha resurslar yaratadi. Ayniqsa, qo‘riqxona va milliy bog‘lar hududida ekologik dam olish maskanlarini barpo etishda ushbu yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi ma’lumotlarni ko’rib chiqgan holda, bizningcha quyidagi ishlarni amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz. Eng avvalo milliy ekologik turizm strategiyasini ishlab chiqish va ushbu strategiya ekologik turizmning maqsadlari, moliyaviy mexanizmlari, infratuzilma rivoji, kadrlar tayyorlash hamda monitoring tizimini o‘z ichiga olishi lozim; tabiiy resurslarga asoslangan mintaqaviy klasterlar

yaratish orqali turizmning hududiy rivojlanishini muvozanatlashtirish zarur. Bundan tashqari, yashil obligatsiyalar, ekologik kreditlar va xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni kuchaytirish; ekologik toza transport vositalari, chiqindi boshqaruvi, energiya tejamkor mehmonxonalar va raqamli xizmatlarni joriy etish, va eng asosiysi, har bir ekoturizm loyihasi bo‘yicha ekologik va ijtimoiy ta’sir monitoringini muntazam olib borish, ochiq hisobot tizimini joriy etish O’zbekistonda ekologik turizm sektoridagi yashil ivestitsiyalarning barqaror rivojini taminlaydi.

Mamlakatning tabiiy boyliklari, tarixiy merosi va geografik imkoniyatlari bu yo‘nalishda ulkan salohiyat yaratadi. Shu bilan birga, mavjud muammolar – moliyaviy resurslar cheklanganligi, infratuzilmaning eskirganligi va malakali kadrlar yetishmovchiligi – tizimli yondashuvni talab etadi.

Agar O‘zbekiston ekologik turizmni rivojlantirishda yashil investitsiyalarni keng jalb qilsa, mahalliy jamoalarni faol ishtirokchi sifatida qo‘llab-quvvatlasa va barqaror infratuzilmani shakllantirsa, u holda nafaqat ekologik muvozanatni saqlash, balki turizm orqali iqtisodiy farovonlikni ham ta’minlash mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Iqtisodiyot va moliya vazirligi (O‘zbekiston Respublikasi). (2024). Yashil loyihalar uchun investitsion imtiyozlar. Toshkent. www.mef.uz
2. Moliya vazirligi (O‘zbekiston Respublikasi). (2023). Yashil davlat obligatsiyalarini chiqarish bo‘yicha hisobot. UNDP O‘zbekiston yangiliklar portal
3. Turizm vazirligi (O‘zbekiston Respublikasi). (2023). 2020–2025 yillarga mo‘ljallangan barqaror turizmni rivojlantirish dasturi. Toshkent. www.uzbektourism.uz.
4. Gossling, S., Skott, D., va Hall,. M. (2015). Turizm va suv: o‘zaro ta’sirlar, oqibatlar va muammolar. Channel View Publications. ResearchGate
5. Honey, M. (2008). Ekoturizm va barqaror rivojlanish: Kim jannatga egalik qiladi? Island Press nashriyoti, AQSh
6. OECD – Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti. (2020). Yashil moliya va investitsiyalar: Yashil investitsiya moliyasini safarbar etish. OECD Publishing.
7. UNWTO – Jahon Turizm Tashkiloti. (2020). Turizm va Barqaror Rivojlanish Maqsadlari. BMT nashriyoti. www.unwto.org
8. Weaver, D. (2017). Ekoturizm. Wiley Blackwell nashriyoti. Wiley Online Library
9. www.lex.uz
10. www.norma.uz

Jumaqulov Ozodbek Shuhrat o‘g‘li
“Investitsiyalar va innovatsiyalar”kafedrasi doktoranti

YASHIL IQTISODIYOTDA INVESTITSION VA INNOVATSION FAOLLIKNI OSHIRISH: MUAMMO VA YECHIMLAR

Annotatsiya ushbu maqolada yashil iqtisodiyot sohasidagi investitsion va innovatsion faollikni oshirishdagi asosiy to‘siqlar va ularning yechimlariga asosiy e’tibor qaratilgan hamda muhokama qilinib taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, yashil texnologiya, ekologik afzallik, yashil investitsiyalar, **moliyaviy ko‘mak.**

Dunyoda iqlim o‘zgarishi va atrof-muhitning degradatsiyasi kabi muammolarning kuchayishi "yashil iqtisodiyot" tushunchasini global munozaralarning markaziga qo‘ydi. Yashil iqtisodiyot - bu oddiygina ekologik toza texnologiyalar emas, balki resurslar samaradorligi yuqori, chiqindilar va karbonat gazlar chiqarishi minimal, tabiiy kapitalni saqlaydigan va qayta tiklaydigan iqtisodiy tizimga o‘tishdir. Ushbu o‘tishning asosiy dvigateli investitsiyalar va innovatsiyalardir.

Asosiy muammolar

Yashil iqtisodiyotga o‘tishda investitsiyalar va innovatsiyalarning rivojlanishiga bir qator to‘siqlar to‘sqinlik qilmoqda:

1. **Yuqori boshlang‘ich kapital va moliyaviy xavf:** Ko‘pgina yashil texnologiyalar (quyosh va shamol elektr stansiyalari, energiya samaradorligi loyihalari) qurilish bosqichida katta moliyaviy mablag‘ talab qiladi. Bundan tashqari, ba'zi yangi texnologiyalarning bozordagi barqarorligi va rentabelligi noma'lumligi investorlar uchun xavfni oshiradi.
2. **Texnologik qiyinchiliklar va infratuzilmaning yetishmasligi:** Yangi, innovasion yashil texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish ilg‘or bilim va malakali kadrlar talab qiladi. Ko‘p hollarda "yashil" energiyani tarmoqqa ulash, elektr transporti uchun zaryad stansiyalari tarmog‘i kabi infratuzilma etarli darajada rivojlanmagan.
3. **Normativ-huquqiy bazaning noaniqligi:** Atrof-muhitni muhofaza qilish, karbonat gazlar chiqarishi uchun kvotalar qo‘yish yoki "yashil" sertifikatlar kabi sohalarda aniq va uzoq muddatli qonunlar va qoidalarning yo‘qligi investorlar ishonchini pasaytiradi. Siyosatdagi tez-tez o‘zgarishlar rejalashtirishni qiyinlashtiradi.
4. **Iqtisodiy stimullarning yetishmasligi:** An'anaviy, atrof-muhitga zararli texnologiyalar ko‘pincha subsidiyalar yoki soliq imtiyozlari orqali qo‘llab-quvvatlanadi. Yashil texnologiyalar uchun esa shunday iqtisodiy rag‘batlar (masalan, karbon solig‘i, "yashil" tariflar) keng qo‘llanilmaydi, bu ularning raqobatbardoshligini pasaytiradi.
5. **Jamoatchilikning xabardorligining pastligi:** Ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o‘rtada atrof-muhit muammolari va yashil texnologiyalarning iqtisodiy va ekologik afzalliklari haqida yetarli ma'lumot va tushuncha bo‘lmasa, talab va taklifning o‘sishi sekinlashadi.

Yechimlar va takliflar

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish va yashil investitsiyalar va innovatsiyalarni rag‘batlantirish uchun quyidagi choralar ko‘rilishi mumkin:

1. Davlatning faol ishtiroki va barqaror siyosat:

Aniq va uzoq muddatli maqsadlar belgilash: Davlat tomonidan qayta tiklanadigan energiya manbalarining ulushi, uglerod chiqindilarini kamaytirish kabi aniq maqsadlar qo‘yilsa, investorlar uchun istiqbol aniq bo‘ladi.

Moliyaviy ko‘mak va soliq imtiyozlari: "Yashil" loyihalar uchun subsidiyalar, preferensial kreditlar, soliq imtiyozlari joriy etilishi kerak. "Karbon solig‘i" yoki "emisiyalar savdosi" kabi tizimlar an'anaviy, ifloslovchi sanoatni cheklab, yashil texnologiyalarni rag‘batlantiradi.

“Yashil Davlat Xaridlari: Davlat o‘z xaridlarida ekologik toza mahsulot va xizmatlarga ustunlik berishi, shu orqali bozorning rivojlanishiga turtki bo‘lishi mumkin.

2. Xususiy sektor ishtirokini kuchaytirish:

Davlat-xususiy sheriklik (DXX): Yirik yashil infratuzilma loyihalarini (masalan, quyosh parklari, chiqindilarni qayta ishlash zavodlari) DXX shaklida amalga oshirish xususiy kapital va ekspertizani jalb qilish imkonini beradi.

Maqsadli investitsiya fondlari: "Yashil" obligatsiyalar chiqarish yoki maxsus fondlar tashkil etish orqali yashil loyihalar uchun moliyaviy resurslarni to‘plash mumkin.

Korporativ barqarorlik dasturlari: Yirik korporatsiyalarni o‘z faoliyatida energiya samaradorligi va chiqindilarni kamaytirish bo‘yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirishga rag‘batlantirish lozim.

3. Innovatsiyalar va tadqiqotlarni rivojlantirish:

Ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarga (ITI) investitsiyalar: Davlat va xususiy sektor tomonidan yangi, arzon yashil texnologiyalarni ishlab chiqishga sarmoya kiritilishi kerak. Ilmiy institutlar va universitetlar bilan hamkorlik kuchaytirilishi lozim.

Innovatsion klasterlar va texnoparklar: Yashil texnologiyalar sohasidagi startaplar va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash uchun maxsus klasterlar va texnoparklar yaratish samarali hisoblanadi.

4. Xalqaro hamkorlik va texnologiya transferi:

Rivojlangan mamlakatlarning moliyaviy va texnologik imkoniyatlaridan foydalanish, "yashil" texnologiyalarning rivojlanayotgan mamlakatlarga oqishini osonlashtirish muhim ahamiyatga ega.

Xalqaro moliya institutlari (Jahen banki, Xalqaro valyuta jamg‘armasi) tomonidan beriladigan "yashil" kreditlar va grantlardan samarali foydalanish kerak.

5. Jamiyatni jalb qilish va xabardorlikni oshirish:

Ommaviy axborot vositalari orqali aholi orasida ekologik savodxonlikni oshirish, yashil iste'molchilikka o‘tishni rag‘batlantirish.

"Yashil" sertifikatlar va ekologik belgilar orqali iste'molchilarga ekologik toza mahsulotlarni tan oshda yordam berish.

Xulosa. Yashil iqtisodiyotga o‘tish - bu nafaqat ekologik balki, iqtisodiy va strategik zaruratdir. Bu yo‘lda investitsiyalar va innovatsiyalar asosiy rol

o‘ynaydi. Ushbu yo‘ldagi to‘siqlarni bartaraf etish uchun davlat, xususiy sektor, ilmiy doiralar va butun jamoatchilikning uzluksiz hamkorligi va sa'y-harakatlari talab etiladi. Barqaror siyosat, innovatsion yondashuv va keng ko‘lamli moliyalashtirish orqali yashil iqtisodiyot nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish, balki yangi iqtisodiy o‘sish, ish o‘rinlari va barqaror rivojlanish manbai sifatida xizmat qilishi mumkin. Kelajak avlodlar uchun sog‘lom va farovon dunyo qoldirish istagi bizni bugundan harakat qilishga chorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ғозибеков Д.Ғ., Қоралиев Т.М. Инвестиция фаолиятини ташкил этиш ва давлат томонидан тартибга солиш. – Т.: ТМИ., 1997-72 б.

2. Ўлмасов А., Тўхлиев Н. Бозор иқтисодиёти: қисқа луғат-маълумотнома.-Т.: Қомуслар бош таҳририяти. 1991.-41 б.

3. Байхонов Б.Т. Ўзбекистон иқтисодиётида инвестицияларнинг тармоқлараро тақсимланишини эконометрик моделлаштириш услубиётини такомиллаштириш. Монография. -Т.: IQTISODIYOT, 2017 й.–207 б.

4. Иванов, А.П. Финансовые методы управления инвестиционной привлекательностью компании / Иванов А.П., Сахаров И.В, Хрусталев.Э.Ю. // Аудит ифинансовый анализ. - 2006. - № 1. - С. 126.

5. Ромаш М. В., Шевчук В. И. Финансирование и кредитование инвестиций. - Минск: «Книжный дом», «Мисанта», 2004. -157 с.

6. Ғозибеков Д.Ғ. «Инвестицияларни молиялаштириш муаммолари» мавзусидаги и.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореферати. - Т.: 2002. -11-14 б.

7. Ҳайдаров Н.Ҳ. “Иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида корхоналар инвестицион фаолиятидаги молия-солиқ муносабатларини такомиллаштириш масалалари” мавзусидаги и.ф.д.илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореферати. — Т.: Академ-Хизмат. 2003. – 14-15-б.

8. Ж.Р.Зайналов, С.С.Алиева ва бошқалар: Инвестиция. Дарслик.-Т.:”Иқтисод-молия”, 2020.-480 б.

9. Мустафақулов Ш.И. Ўзбекистонда инвестицион муҳит жозибадорлигини оширишнинг илмийуслубий асосларини такомиллаштириш. Автореферат, Т: 2017, 68 б.

10. Шарифходжаев М. Государства на новом этапе инвестиционной деятельности. // Экономика и статистика. – 1998. - №8. – с. 22

Xojiyev Muxammadjon Mansur o‘g‘li *Inson resurslari va mahalla taraqqiyotini boshqarish instituti, magistranti*

QURILISH CHIQINDILARINI QAYTA ISHLASH SOHASIDAGI QONUNIY ASOSLAR VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI.

Annotatsiya: Maqola O‘zbekiston Respublikasida qurilish chiqindilarini qayta ishlash va utilizatsiya qilish sohasidagi qonuniy-tashkiliy asoslarni kompleks tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda so‘nggi yillarda qabul qilingan normal-huquqiy hujjatlar tahlil qilingan. Asosiy e‘tibor mavjud qonuniy bazaning amaliy qo‘llanilishidagi kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo‘llariga qaratilgan. Maqolada quyidagi masalalar yoritilgan: qurilish chiqindilarini monitoring qilish va nazorat qilish tizimini takomillashtirish, qayta ishlash sohasini rag‘batlantirishning iqtisodiy mexanizmlari, xalqaro tajribalardan foydalanish imkoniyatlari. Xalqaro miqyosda qurilish chiqindilarini boshqarishning eng yaxshi tajribalari bilan qiyosiy tahlil asosida O‘zbekiston uchun qayta ishlash darajasini oshirishga yo‘naltirilgan amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Taklif etilgan chora-tadbirlar amalga oshirilsa, nafaqat ekologik vaziyatni yaxshilash, balki iqtisodiy samara ko‘rsatkichlarini oshirish ham mumkin.

Kalit so‘zlar: qurilish chiqindilari, qayta ishlash, qonuniy-tashkiliy asoslar, utilizatsiya, monitoring, iqtisodiy rag‘batlantirish, xalqaro tajriba, atrof-muhit muhofazasi.

Dunyoda aholi sonining ortishi va shaharlarning tez rivojlanishi bilan bir qatorda qurilish sohasida ham chiqindilar miqdosi keskin ko‘paymoqda. Ma’lumotlarga ko‘ra, AQSH kabi rivojlangan mamlakatlarda qurilish va buzish chiqindilari (C&D) umumiy qattiq chiqindilar hajmining 40 foizini tashkil etadi va bu ko‘rsatkich rivojlanayotgan mamlakatlarda yanada yuqori[114]. O‘zbekistonda shaharsozlik va infratuzilma loyihalari faol amalga oshirilayotgan sharoitda qurilish chiqindilarini boshqarishning dolzarb muammoga aylanishi tabiiy. Mana shu faktorlarni hisobga olgan holda, O‘zbekistonda qurilish chiqindilari sohasidagi huquqiy mexanizm so‘nggi yillarda sezilarli darajada takomillashdi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-yanvardagi PF-5-sonli “Chiqindilarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni chiqindilarni qayta ishlashni rag‘batlantirish, “yashil subsidiyalar” tizimini joriy etish va chiqindilarni saralash infratuzilmasini yaratishni nazarda tutadi[115]. Farmonda respublikada chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish tizimini isloh qilish doirasida hududlarni sanitar tozalash bo‘yicha ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirish, maishiy chiqindilarni to‘plash va hududlardan olib chiqish sohasiga tadbirkorlik subyektlarini faol jalb qilish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Umuman olganda, O‘zbekiston

[114] Construction Waste Management: A Guide | SafetyCulture https://safetyculture.com/topics/waste-management-system/construction-waste

[115] https://www.lex.uz/uz/docs/-6732832 PF-5-сон 04.01.2024. Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta’sirini kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida

qurilish chiqindilarini boshqarish sohasida nafaqat qat'iy qonuniy-tashkiliy asos yaratdi, balki uni amaliy natijalar bilan ta'minlaydigan, xususiy sektorni rag‘batlantiruvchi va tizimli yondashuvni qo‘llaydigan mustahkam mexanizmga ega. Ushbu yondashuv nafaqat ekologik muammolarni bartaraf etish, balki iqtisodiy o‘sish va resurslarni tejashga ham xizmat qilmoqda.

Qurilish chiqindilarini qayta ishlashda xalqaro tajribadan foydalanish yurtimizdagi ekologik holatni yaxshilashga yordam beradi deb o‘ylayman. Chunki, xalqaro tajriba nafaqat qonunchilikni, balki qurilish chiqindilarini boshqarishning texnologik jihatlarini ham o'z ichiga oladi. Xalqaro texnologiyalardan eng mashhuri Qurilish axborot modellashtirish (BIM) texnologiyasidir. BIM yordamida qurilish loyihasining butun hayot aylanishi davomida materiallarning oqimini aniq bashorat qilish va boshqarish mumkin. Bu chiqindilarning oldini olish va qayta ishlash imkoniyatlarini oldindan ko'rib chiqish imkonini beradi[116]. Qurilish axborot modellashtirish (BIM) qurilish loyihalarining butun hayot aylanishi davomida ekologik barqarorlikni rag‘batlantiruvchi keng qamrovli metodologiya hisoblanadi. BIM texnologiyasining ekologiyaga ijobiy ta’sirlari juda ham katta. U loyihalash bosqichidagi materiallar va energiya sarfini aniq hisoblash imkoniyatini beradi, bu esa resurslar samaradorligini oshiradi va chiqindilarni kamaytiradi; binoning energiya samaradorligini tahlil qilish va simulyatsiya qilish vositalari bilan u isitish, sovutish va yoritish uchun energiya talabini sezilarli darajada kamaytiradi, shu bilan birga uglerod izini qisqartiradi; BIM platformasi barcha loyiha ishtirokchilari o‘rtasida samarali hamkorlikni ta’minlaydi, bu esa atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytiradigan barqaror qurilish materiallari va texnologiyalardan foydalanishni osonlashtiradi; shuningdek, u butun binoning hayot aylanishi davomida uning barqarorligini va ekologik xususiyatlarini boshqarish va tahlil qilish imkoniyatini beradi, bu esa “yashil” BIM yondashuvini amalga oshirishga xizmat qiladi. Lekin afsuski, BIM texnologiyasi hali O‘zbekistonda qurilish sohasiga keng joriy etilmagan. Bundan boshqa zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali ham qurilish chiqindi miqdorini kamaytirish va qayta ishlash mumkin. Jumladan, sun’iy intellekt hamda avtonom dronlar yordamida qurilish maydonlaridagi chiqindilar miqdori va joylashishini monitoring qilish, shuningdek, sun'iy intellekt asosida qurilish jarayonlarini optimallashtirish orqali chiqindilar hosil bo'lishining oldini olish va kamaytirish mumkin.

Qurilish chiqindilarini qayta ishlash zavodlari qurib, ular orqali aralash chiqindilarni qayta ishlab, yangi qurilish materiallari ishlab chiqarishda ishlatiladigan xom ashyoga aylantirish ham mumkin. O‘zbekiston sharoitida 2023 – 2025 yillarda chiqindilarni boshqarish va chiqindilardan energiya olishga oid yirik loyihalar e’lon qilindi: 2024 yil oktabrda hukumat va prezident ma’muriyati tomonidan qator xorijiy hamkorlar bilan birgalikda atrof-muhit infratuzilmasini rivojlantirish va chiqindilardan energiya ishlab chiqarish bo‘yicha taxminan 1,3 milliard dollar miqdoridagi loyihalar – yiliga umumiy 4,7 million tonna qattiq chiqindini qayta

[116] https://www.construction.cam.ac.uk/resources/case-studies Impact Case Studies | Laing O'Rourke Centre for Construction Engineering and Technology

ishlash va 2027 yilgacha 2,1 milliard kVt – soat elektr energiyasi hosil qilishni ko‘zlovchi reja e’lon qilindi; bu tashabbuslar mamlakatda chiqindilarni yig‘ish, saralash va yo‘qotish (hamda energiyaga aylantirish) tizimini sezilarli darajada kengaytirishi mumkin[117]. Shu bilan birga, O‘zbekistonda amaliyot va mintaqaviy imkoniyatlar nuqtai nazaridan bir qator muammolar qolmoqda: qurilish chiqindilarining aniq statistikasi va milliy darajadagi bir xil uslubda o‘lchovlarning yetishmasligi, qayta ishlash infratuzilmasining markazlashmaganligi, qayta ishlangan materiallarga bozor talabining pastligi va investitsion mexanizmlarning cheklanganligi – bularning barchasi amalga oshirilishi zarur bo‘lgan rejalarni va tashabbuslarni sekinlashtiradi. Yevropa va ba’zi Osiyo mamlakatlarida muvaffaqiyatli amaliyot sifatida adaptiv foydalanish, majburiy saralash va qayta ishlangan materiallar uchun minimal standartlarni joriy etish, ishlab chiqaruvchilar uchun qoplama va kredit rag‘batlari, hamda yirik qayta ishlash markazlarini qurish ko‘rsatilyapti; ushbu yondashuvlar O‘zbekiston uchun ham moslashtirilishi mumkin, ayniqsa yangi chiqindilarni oldini olish, materiallarni aylantirishni rag‘batlantirish, va hududiy yig‘ish-saralash tizimlarini kuchaytirish orqali 2023 – 2025 yillardagi yangi ma’lumotlar asosida tavsiya qilinadigan asosiy choralar: milliy va mintaqaviy chiqindilar hisobini yuritish uchun yagona metodologiya joriy etish, qayta ishlash quvvatlarini hududiy rejalar bo‘yicha loyihalash va ularni xususiy sektor bilan hamkorlikda moliyalashtirish, qurilishda qayta ishlangan materiallar uchun texnik standart va sertifikatlarni ishlab chiqish, soliq imtiyozlari va subsidiyalar orqali qayta ishlash sanoatini rag‘batlantirish, shuningdek chiqindilardan energiya ishlab chiqarish loyihalarini atrof-muhit talablariga mos holda integratsiyalash; agar ushbu chora-tadbirlar amalga oshirilsa, 2025 yildan keyingi davrda O‘zbekiston chiqindilarni boshqarishda sezilarli yaxshilanishga erishishi mumkin.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, qurilish chiqindilarini qayta ishlash sohasidagi qonuniy asoslar atrof-muhitni muhofaza qilish, resurslardan oqilona foydalanish va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Mamlakatimizda ushbu yo‘nalishda chiqindilarni boshqarish to‘g‘risidagi qonunlar, ekologik talab va me’yoriy hujjatlar mavjud bo‘lsa-da, amaliyotda ularning samarali ijrosi va nazorati ko‘plab muammolarni yuzaga keltirmoqda. Shu bois qonunchilikni xalqaro tajriba asosida takomillashtirish, qurilish chiqindilarini majburiy saralash va qayta ishlash standartlarini joriy etish, ushbu jarayonni rag‘batlantiruvchi soliq va kredit imtiyozlarini qo‘llash, xususiy sektorni jalb etish hamda chiqindilardan qayta ishlab chiqarilgan materiallar uchun sertifikatlash tizimini yaratish zarur. Qonuniy asoslarning yanada mukammallashuvi nafaqat ekologik xavfsizlikni ta’minlaydi, balki iqtisodiyotning yashil o‘sishini qo‘llab-quvvatlaydi, yangi ish o‘rinlari yaratadi va resurslarni tejashga xizmat qiladi. Shu tariqa, sohada huquqiy bazani mustahkamlash va uni zamonaviy talablar darajasiga olib chiqish kelgusida barqaror rivojlanishga erishishning muhim garovidir.

[117] Uzbekistan announces $1.3 bln in waste-to-energy projects | Reuters https://www.reuters.com/

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Construction Waste Management: A Guide | SafetyCulture https://safetyculture.com/topics/waste-management-system/construction-waste
2. https://www.lex.uz/uz/docs/-6732832 PF-5-сон 04.01.2024. Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta’sirini kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida
3. https://www.construction.cam.ac.uk/resources/case-studies Impact Case Studies | Laing O'Rourke Centre for Construction Engineering and Technology
4. Uzbekistan announces $1.3 bln in waste-to-energy projects | Reuters https://www.reuters.com/

III-SHO‘BA. YASHIL IQTISODIYOTDA INVESTITSION VA INNOVATSION FAOLLIKNI OSHIRISH: MUAMMO VA YECHIMLAR

Abdumalik Bektemirov - *SamISI ,“Investitsiya va innovatsiyalar” kafedrasi mudiri, i.f.d., professor*

YASHIL IQTISODIYOTDA INVESTITSION VA INNOVATSION FAOLLIKNI OSHIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya: mazkur maqolada yashil iqtisodiyot sharoitida investitsion va innovatsion faollikni oshirish masalalari tahlil qilinadi. Unda O‘zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha olib borilayotgan siyosat, mavjud tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar va ularni takomillashtirish yo‘llari yoritilgan. Shuningdek, yashil investitsiyalarni jalb etish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Maqola yakunida milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish hamda ekologik barqarorlikni ta’minlash uchun kompleks chora-tadbirlar tavsiya etiladi.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, investitsion faollik, innovatsion rivojlanish, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, ekologik samaradorlik, barqaror o‘sish, yashil texnologiyalar.

Jahon Iqtisodiyoti XXI asr boshidan boshlab ekologik xavfsizlik, energiya samaradorligi va resurslardan oqilona foydalanish tamoyillariga asoslangan **yashil iqtisodiyot** konsepsiyasiga o‘tmoqda. BMT, Jahon banki va OECD ma’lumotlariga ko‘ra, global yalpi ichki mahsulotning 2–3 foizi yashil texnologiyalarni joriy etish va ekologik barqarorlikni ta’minlashga yo‘naltirilmoqda.

O‘zbekiston uchun bu yo‘nalish ikki asosiy sababga ko‘ra dolzarbdir:

1. Ekologik omil – iqlim o‘zgarishi, suv tanqisligi, yer degradatsiyasi va havo ifloslanishi muammolari milliy xavfsizlik darajasidagi muammoga aylangan.

2. Iqtisodiy omil – energiya resurslarining eksportga yo‘naltirilishi ichki bozorni modernizatsiya qilish, energiya tejamkor ishlab chiqarish va innovatsion texnologiyalarni joriy etishni talab qiladi.

Mamlakatimizda 2023-yilda qabul qilingan “Yashil iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha milliy strategiya (2023–2030 yillar)”da asosiy e’tibor investitsion va innovatsion mexanizmlarni kuchaytirishga qaratilgan. Ammo mavjud amaliyotda bu jarayonni qo‘llab-quvvatlaydigan **tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar** yetarli darajada samarali ishlamayapti. Shu bois ushbu sohani takomillashtirish dolzarb ilmiy va amaliy vazifalardan biridir.

Yashil iqtisodiyotda investitsion faollikni oshirish masalalari bir qator olimlarning ishlarida tadqiq qilingan. Investitsin-innovatsion faollik masalalarini tadqiq etishda quyidagi ilmiy manbalar alohida ahamiyat kasb etadi:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi to‘g‘risida”ги PQ - 4477-son Qarori Milliy

darajadagi strategik hujjat bo‘lib, investitsion faollikni oshirishning tashkiliy, moliyaviy va ekologik yo‘nalishlarini belgilab beradi[1] .

D.Pearce, A.Markandya, E.Barbierlarning “Blueprint for a Green Economy” номли асарида [2] “yashil iqtisodiyot” tushunchasi birinchi bor ilmiy asoslangan bo‘lib, ekologik siyosat va investitsion rag‘batlar tizimi o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilingan.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit bo‘yicha dasturi (UNEP-United Nations Environment Programme)ning "Global yashil iqtisodiyot hisoboti" (“Global Green Economy Report”)da [3] ekologik-investitsion loyihalarning iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun global miqyosdagi tashkiliy modellar, moliyalashtirish manbalari va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari keltirilgan.

OECD (Organisation for Economic Co-operation and Development - Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti)ning “Green Growth and Innovation: Policy Frameworks – Yashil o'sish va innovatsiyalar: siyosat asoslari” deb nomlangan nashrida innovatsiyalarni rag‘batlantirish orqali yashil iqtisodiyotga o‘tish siyosatining samarali mexanizmlari tahlil etilgan [4] .

Sh.A.Azimovning “Yashil iqtisodiyotda investitsion siyosatni takomillashtirish” deb nomlangan asarida O‘zbekiston sharoitida yashil investitsiyalarni rag‘batlantirish, grant va soliq imtiyozlari tizimini takomillashtirishga oid ilmiy asoslar keltirilgan [5].

Jahon bankining yashil iqtisodiyotni rivojlantirishdagi strategik yondashuvlarini, xususan, energiya samaradorligini oshirish va yashil investitsiya mexanizmlarini joriy etish bo‘yicha ilg‘or xalqaro tajribani o‘z ichiga oladi. Hisobotda moliyaviy instrumentlar (masalan, yashil obligatsiyalar, uglerod kreditlari, ESG-investitsiyalar), shuningdek davlat-xususiy sheriklik asosida “yashil moliya platformalari”ni rivojlantirish mexanizmlari tahlil qilingan. Shu bilan birga hisobotda 2020 - 2030 – yillarga mo‘ljallangan global yashil energetika strategiyasi asosida turli mamlakatlarda (Yevropa Ittifoqi, Xitoy, Hindistonda) qo‘llanilgan samarali amaliyotlar keltirilgan bo‘lib, bu tajribalar O‘zbekiston sharoitida ham investitsion loyihalarni optimallashtirish uchun muhim nazariy asos bo‘la oladi [6].

Professor A.Q. Xaydarov tomonidan yozilgan “Innovatsion rivojlanish va barqaror iqtisodiyot” nomli monografiyada innovatsion iqtisodiyotning nazariy asoslari, barqaror rivojlanish tamoyillari va raqamli iqtisodiy modelning transformatsion roli chuqur tahlil qilingan. Muallif O‘zbekiston misolida innovatsion siyosatning iqtisodiy samaradorligini baholaydi, shu bilan birga, investitsion muhitni yaxshilashda ilm-fan, texnologiya va tadbirkorlik integratsiyasini muhim omil sifatida ko‘rsatadi. Asarda innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlari, raqamli platformalar orqali sarmoyalarni jalb etish, va iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashda innovatsion yondashuvlarning roli keng yoritilgan. Bu asar O‘zbekistonning yangi innovatsion siyosatini shakllantirish, ilmiy tadqiqot va ishlab chiqarish o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni kuchaytirish, hamda barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish yo‘lidagi muhim ilmiy-metodik manba hisoblanadi [7].

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024 yildagi hisobotlarida O‘zbekiston iqtisodiyotining so‘nggi yillardagi investitsion faoliyat holati, mintaqaviy rivojlanish tendensiyalari va yashil iqtisodiyot yo‘nalishidagi

davlat dasturlari haqida amaliy ma’lumotlar beradi. Hisobotlarda energetika, transport, qishloq xo‘jaligi, qurilish va moliya sektorlari bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlar, shuningdek, xalqaro moliya institutlari (ADB, EBRD, WB) bilan hamkorlikdagi loyihalar haqida ma’lumotlar jamlangan. Shuningdek, hisobotlarda O‘zbekiston Respublikasining “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi – 2030” dasturining amalga oshirilish darajasi, yashil investitsiya oqimlari hajmi, va iqtisodiyot tarmoqlarida energiya samaradorligini oshirishga doir natijalar tahlil qilingan. Bu manba real raqamlar va davlat siyosati yo‘nalishlari ilmiy izlanishlarida empirik tahlil uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi [8].

Bu manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mamlakatda yashil iqtisodiyot bo‘yicha nazariy asoslar mavjud, ammo investitsion-innovatsion mexanizmlarni integratsiyalash yo‘nalishida tizimli yechimlar hali shakllanmagan.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda yashil iqtisodiyot konsepsiyasi faol joriy etila boshladi. Жумладан:

- Yashil energetika: Quyosh va shamol stansiyalari (Nurafshon, Navoiy, Buxoro viloyatlarida) qurilishi natijasida qayta tiklanuvchi energiya ulushi 2024-yilda 10% ga yetdi.
- Yashil moliyalashtirish: O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi hamda Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC) bilan hamkorlikda “yashil obligatsiyalar” emissiyasi yo‘lga qo‘yildi.
- Innovatsion texnologiyalar: Qurilish, transport va qishloq xo‘jaligida energiya tejovchi va chiqindisiz texnologiyalar joriy etilmoqda.
- Me’yoriy baza: “Yashil energiya to‘g‘risida”gi Qonun (2023), “Barqaror rivojlanish maqsadlari” dasturlari amalga oshirilmoqda.

Biroq bugungi kunda quyidagi muammolar dolzarb bo‘lib qolmoqda:

1. Yashil loyihalarga xususiy sektor investitsiyasining past darajasi;
2. Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarining zaifligi;
3. Texnologik transfer va ilmiy-tadqiqot ishlanmalarining tijoratlashtiril-maganligi;
4. Davlat-xususiy sheriklik (PPP) loyihalarida yashil komponentlar yetarli darajada e’tiborga olinmayotgani.

Bu muammolar yechimiga erishish uchun quyidagi yo‘nalishlarga asosiy e’tibor qaratilishi va bir qator tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq. Бу қуйидагиларни ўз ичига олади:

- **Yashil investitsiyalarni rag‘batlantirish tizimini yaratish:**

- yashil obligatsiyalar va sug‘urta mexanizmlarini kengaytirish;
- soliq imtiyozlari va grantlar orqali xususiy sektorni jalb etish;
- investitsion risklarni kamaytiruvchi kafolat fondlarini tashkil etish.

- **Innovatsion infratuzilmani rivojlantirish** yo‘nalishida:

- yashil texnoparklar, ilmiy klasterlar va startap markazlarini tashkil etish;
- mahalliy innovatorlar uchun texnologik inkubatorlar yaratish;
- raqamli texnologiyalar (IoT, AI, Big Data) asosida ekologik monitoring tizimini joriy etish.

- **Davlat-xususiy sheriklik (PPP) mexanizmlarini kengaytirish** yo‘nalishida:

- energetika, qurilish, suv xo‘jaligi sohalarida PPP asosida yashil infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish;
- yashil standartlar asosida investitsion tenderlarni tashkil etish.

❖ **Moliyaviy mexanizmlarni integratsiyalashda:**

- xalqaro moliyaviy institutlar (ebrd, adb, gcf) bilan kooperatsiya orqali yashil fondlarni shakllantirish;
- bank tizimida “yashil kredit” liniyalarini joriy etish.

❖ **Huquqiy va institutsional mexanizmlarni takomillashtirishda:**

- yashil iqtisodiyotga oid yagona davlat dasturi va monitoring tizimini yaratish;
- mahalliy hokimiyatlar darajasida yashil loyihalarni baholash markazlarini tashkil etish.

Yuqorida keltirilgan tahlil ma’lumotlar yashil iqtisodiyotda investitsion va innovatsion faollikni oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi taklif va tavsiyalar uchun asos bo‘ladi.

Taklif va tavsiyalar:

1. Investitsion siyosatni ekologik mezonlar bilan uyg‘unlashtirish – har bir investitsiya loyihasini ekologik baholash tizimi orqali tasdiqlash mexanizmini joriy etish.
2. Yashil texnologiyalar fondini yaratish – mahalliy innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlovchi grant va subsidiyalar tizimini yo‘lga qo‘yish.
3. Xalqaro hamkorlikni kengaytirish – xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda BMT(Birlashgan millatlar tashkiloti), UNEP (United Nations Environment Programme – Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit bo‘yicha dasturi), EBRD (European Bank for Reconstruction and Development – Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki), ADB(Asian Development Bank - Osiyo taraqqiyot banki kabi institutlar bilan qo‘shma dasturlar ishlab chiqish.
4. Kadrlar salohiyatini oshirish – yashil iqtisodiyot bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini yaratish.
5. Axborot-innovatsion platformalar – ilmiy-tadqiqot muassasalari, biznes va davlat o‘rtasidagi ma’lumot almashuv tizimini kuchaytirish.

Xulosa. Yashil iqtisodiyotning muvaffaqiyatli rivojlanishi investitsion va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish bilan chambarchas bog‘liq. O‘zbekiston uchun bu yo‘nalish nafaqat ekologik, balki iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashning muhim omilidir.

Tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish orqali:

- yashil loyihalarga investitsiyalar hajmini oshirish,
- innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish,
- xalqaro moliyalashtirish imkoniyatlaridan samarali foydalanish,
- milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini va ekologik barqarorligini ta’minlash mumkin.

Yashil iqtisodiyot – bu kelajak iqtisodiyoti bo‘lib, uning muvaffaqiyati investitsion va innovatsion mexanizmlarni uyg‘un holda rivojlantirishga bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4477-son qarori “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi to‘g‘risida”. – Toshkent, 2019.
2. Pearce D., Markandya A., Barbier E. *Blueprint for a Green Economy.* – London: Earthscan, 1989.
3. UNEP. *Global Green Economy Report 2023.* – Geneva: United Nations Environment Programme, 2023.
4. OECD. *Green Growth and Innovation: Policy Frameworks.* – Paris: OECD Publishing, 2020.
5. Azimov Sh.A. *Yashil iqtisodiyotda investitsion siyosatni takomillashtirish.* – Toshkent: Iqtisodiyot, 2022.
6. World Bank. *Energy Efficiency and Green Investment Mechanisms.* – Washington D.C., 2021.
7. Xaydarov A.Q. *Innovatsion rivojlanish va barqaror iqtisodiyot.* – Toshkent: Fan, 2023.
8. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hisobotlari. – Toshkent, 2024.

М.Қ.Пардаев – *СамИСИ профессори, и.ф.д.*
Л.А.Шадиева - *СамИСИ стажёр-тадқиқотчиси.*

САМАРҚАНД ВИЛОЯТИДА ЯШАШ ВА ОВҚАТЛАНИШ БЎЙИЧА ХИЗМАТЛАР ҲАЖМИНИНГ ТАҲЛИЛИ

Аннотация: Мақолада яшаш ва овқатланиш бўйича хизматлар ҳажми республика ва Самарқанд вилояти бўйича таҳлил қилинган ҳамда меҳмонхона хизматларининг умумий ҳажмига таъсир қилувчи асосий омиллардан бири сифатида овқатланиш хизматларини ривожлантириш зарурлиги асосланган.

Калит сўзлар: Туризм, меҳмонхона, овқатланиш хизматлари, хизматлар соҳаси, яшаш ва овқатланиш бўйича хизматлар.

Бутунжаҳон саёҳат ва туризм кенгаши ҳисоб-китобларига кўра, “2024 йилда туризм саноати глобал иқтисодиётга рекорд даражада ҳисса қўшиб, глобал ялпи ички маҳсулотга нисбатан 11,1 триллион долларни ёки унинг 10% ини ташкил этмоқда. Бу 2023 йилга нисбатан 12,1% га ўсганлигини англатади”[118].

Туризмнинг жадал суръатларда ривожланиши бир вақтнинг ўзида меҳмонхоналар, ресторанлар ва умумий овқатланиш хизматларини ўз ичига олган глобал меҳмондўстлик индустриясини ҳам сезиларли даражада ўсишига таъсир кўрсатмоқда. Халқаро туристик ташкилотлар маълумотларига қарайдиган бўлсак, “ривожланган мамлакатларда туризм ва меҳмонхоналарда умумий овқатланиш хизмати дунё туризм саноатида

[118]https://www.reuters.com/business/travel-industry-contribute-record-11-trillion-global-gdp-2024-2024-09 03/utm_source.com

тахминан 30-40 % ни ташкил этади”[119].Янги Ўзбекистонда аҳоли турмуш даражаси, сифати даромадларини оширишда яшаш ва овқатланиш бўйича хизматларни ривожлантиришга алоҳида эътибор берилмоқда. Хусусан, 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясида: “хизматлар соҳасини ривожлантиришга қулай инфратузилмани яратиш, ихтисослашган тадбиркорликни рағбатлантириш, соҳада аҳоли бандлигини ошириш, мамлакатимиз туризм салоҳиятини ошириш мақсадида янги меҳмонхона ва умумий овқатланиш пунктларини ишга тушириш, хизмат кўрсатиш сифатини ошириш механизмларини такомиллаштириш”[120] каби бир қатор устувор вазифалар белгиланган. Ушбу вазифаларни амалга оширишда, яшаш ва овқатланиш бўйича хизматлар ҳажмини таҳлил қилиш ҳамда ушбу соҳани ривожлантириш истиқболларини аниқлаш долзарб масалалар қаторига киради.Келтирилган маълумотлар меҳмонхона хизматларининг умумий иқтисодий ҳажмига таъсир қилувчи муҳим омиллардан бири – овқатланиш хизматларини ривожлантиришни қўллаб-қувватлайди.Ўзбекистонда хизмат кўрсатиш соҳасини давлат томонидан қўллаб қувватлаш бўйича имтиёз бериш, инфратузилмани янада ривожлантириш орқали тадбиркорлик муҳитини янада яхшилаш натижасида хизматлар кўрсатиш соҳаси таркибида яшаш ва овқатланиш хизматлари ҳажми йил сайин ошиб бормолқда. Республикамизда яшаш ва овқатланиш хизматларининг қай даражада ривожланаётганлигини билиш унинг сўнгги йиллардаги динамикасини таҳлил қилинди (1-расм).



1-расм. Ўзбекистонда яшаш ва овқатланиш бўйича хизматлар ҳажми ва унинг динамикаси[121]

Келтирилган 1-расм маълумотларидан кўриниб турибдики, яшаш ва овқатланиш бўйича хизматлар ҳажми таҳлил олиб борилган йилларда жадал ўсишга эришган. Жумладан, олдинги йилга нисбатан энг юқори ўсиш кўрсаткичи 2023 йилда кузатилиб, яшаш ва овқатланиш бўйича хизматлар ҳажми – 144234,3 млрд.сўмни ташкил қилган ҳолда 2022 йилга таққослаганда салкам 11 баробар ошган. Ўрганилган беш йиллик давр мобайнида 2024 йилда яшаш ва овқатланиш бўйича хизматлар ҳажмининг ўсиши базис йил

[119] https://www.foodnotify.com/en/blog/labor-costs-hospitality
[120] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”даги ПФ-60-сонли Фармони.
[121] Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси расмий https://stat.uz сайти маълумотлари

ҳисобланган 2020 йилга нисбатан – 33,7 мартага ўсганлиги аниқланди. Ушбу рақамлар мамлакатимизда пандемиядан кейинги даврда хизматлар соҳаси, шу жумладан, яшаш ва овқатланиш бўйича хизматларини янада ривожлантириш бўйича Президентимиз раҳбарлигида ҳукумат томонидан ишлаб чиқилган дастурлар ва амалга оширилган чора-тадбирларнинг самараси ҳисобланади.

1-жадвал

Ўзбекистонда яшаш ва овқатланиш бўйича хизматларнинг ҳудудлар бўйича кўрсаткичлари таҳлили, млрд. сўм[122]

Ҳудудлар номи	2023 йил	2024 йил	Фарқи (+;-)	Ўсиш суръати, %да
Республика бўйича жами	144234,3	183314,5	39080,2	127,1
Қорақалпоғистон Республикаси	8685,2	10994,2	2309	126,6
Андижон	9827	12438,5	2611,5	126,6
Бухоро	7881,2	10002,7	2121,5	126,9
Жиззах	4550,7	5755,5	1204,8	126,5
Қашқадарё	13585,4	17177,0	3591,6	126,4
Навоий	4382,2	5527,3	1145,1	126,1
Наманган	14359,2	18171,8	3812,6	126,6
Самарқанд	**15564,5**	**19696,0**	**4131,5**	**126,5**
Сурхондарё	6540,7	8295,7	1755	126,8
Сирдарё	2808,5	3556,8	748,3	126,6
Тошкент	10554,4	13368,4	2814	126,7
Фарғона	14562,7	18425,2	3862,5	126,5
Хоразм	8109,2	10285,5	2176,3	126,8
Тошкент шаҳри	22822,8	29619,7	6796,9	129,8

Республикада яшаш ва овқатланиш бўйича хизматлар ҳолатига баҳо берганда унинг ҳудудий тақсимотига ҳам алоҳида эътибор қаратиш мақсадга мувофиқдир. Сабаби, таркибий таҳлилнинг муҳим элементи ҳисобланган таркибий тақсимот республиканинг ҳудудлари (вилоятлар ва шаҳарлар)да яшаш ва овқатланиш бўйича хизматларнинг қандай ривожланиб бораётганлиги тўғрисида аниқ маълумотларга эга бўлиш баробарида тегишли илмий хулосалар чиқариш имконини ҳам беради (1-жадвал).

1-жадвалда акс этган статистик маълумотлардан маълум бўлдики, республиканинг 12 вилояти орасида яшаш ва овқатланиш хизматлари ҳажми бўйича 2023-2024 йилларда Самарқанд вилоятининг кўрсаткичи энг юқори. Самарқанд вилоятида ушбу хизмат турининг ҳажми 2023 йилда 15564,5 млрд.сўмни ташкил қилган бўлса, 2024 йилда вилоятда яшаш ва овқатланиш

[122] Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси расмий сайти. https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/internal-trade-2 маълумотлари асосида ҳисобланди.

хизматларининг ҳажми – 19696,0 млрд.сўмга етди. Ушбу кўрсаткич бўйича Самарқанд вилояти мамлакатимизда Тошкент шаҳридан кейинги 2-ўринда туради. Ана шу методологик ёндашув асосида бизлар Самарқанд вилоятида яшаш ва овқатланиш бўйича хизматлар билан боғлиқ кўрсаткичларни таҳлил қилишни лозим топдик (2-жадвал).

2-жадвал

Самарқанд вилоятида яшаш ва овқатланиш бўйича хизматлар ҳажми билан боғлиқ кўрсаткичларнинг таҳлили, млрд. сўм[123].

№	Кўрсаткичлар	2023 йил	2024 йил	Фарқи (+;-)	Ўсиш суръати,%
1.	Хизматлар ҳажми	46593,0	58875,7	12282,7	126,4
2.	Яшаш ва овқатланиш бўйича хизматлар ҳажми	15564,5	19696,0	4131,5	126,5
3.	Яшаш ва овқатланиш хизматларининг жами хизматлардаги улуши, %	33,4	33,5	0,1	100,1

Келтирилган 2-жадвал маълумотларидан кўриниб турибдики, Самарқанд вилоятида хизмат кўрсатиш соҳасининг ҳажми 2024 йилда 58875,7 млрд.сўмни ташкил қилган ҳолда 2023 йилга нисбатан 12282,7 млрд.сўмга ва 26,4 фоизга кўпайган. Худди шундай ўсиш кўрсаткичи яшаш ва овқатланиш бўйича хизматлари ҳажмида ҳам кузатилиб, мос равишда 4131,5 млрд.сўмга ва 26,5 фоизга ўсган. Бунинг таъсири натижасида вилоятда яшаш ва овқатланиш бўйича хизматларнинг жами хизмат кўрсатиш соҳасидаги улуши 0,1 пунктга ошиб, 2024 йилда 33,5 фоизни ташкил этган. Вилоятда яшаш ва овқатланиш бўйича хизматлар ҳажмининг динамикаси 2-расмда келтирилди.



2-расм. Самарқанд вилоятида яшаш ва овқатланиш бўйича

[123] Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси Самарқанд вилоят статистика бошқармаси расмий https://samstat.uz/uz сайти маълумотлари асосида муаллиф томонидан ҳисоб-китоб қилинди.

хизматлар ҳажмининг динамикаси, млрд.сўм.

2-расмдаги статистик маълумотлардан вилоятда яшаш ва овқатланиш бўйича хизматлар ҳажми таҳлил олиб борилган давр мобайнида олдинги йилларга нисбатан ўсиш тенденциясига эга бўлганлиги аниқланди. Айниқса, 2024 йилда 2020-2022 йилларга солиштирганда ўсиш даражаси жадал суръатларда бўлган. Жумладан, 2024 йилда яшаш ва овқатланиш бўйича хизматлар ҳажми 19696,0 млрд.сўмни ташкил этиб, 2020 йилга нисбатан – 9,3 мартага, 2021 йилга таққослаганда – 7,5 мартага, 2022 йил билан солиштирганда – 5,5 мартага ва 2023 йилга нисбатан эса 1,3 баробар ошган.

Самарқанд вилоятида яшаш ва овқатланиш бўйича хизматлар ҳажмининг бу даражада жадал суръатларда ошишига қуйидаги омиллар ижобий таъсир қилган:

Биринчидан, давлат томонидан соҳада фаолият кўрсатаётган тадбиркорлик субъектларига кенг **имтиёзларнинг берилиши.** Жумладан**,** “2022 йил 1 апрелдан 2028 йил 1 январга қадар чакана савдо ва умумий овқатланиш, меҳмонхона (жойлаштириш) хизматлари, ... ҳамда кўнгилочар масканларда хизматлар кўрсатувчи тадбиркорлик субъектлари учун ижтимоий солиқ ставкасини 1 фоиз этиб белгиланганлиги”[124].

Иккинчидан вилоятга ташриф буюрган хорижий ва маҳаллий туристлар сонининг йил сайин кўпайиши. “2024 йилда вилоятга 2 миллион 523 минг нафар хорижлик ва 4 миллион 715 минг нафар маҳаллий сайёҳ келган. Уларнинг Самарқандда бўлиши 2 кундан 2,7 кунга етган”[125].

Учинчидан, яшаш ва овқатланиш бўйича хизмат кўрсатувчи тадбиркорлик субъектлари сонининг ортиши. «Ҳозирда вилоятимизда 18 минг ўринли 642 та жойлаштириш воситаси, жумладан, 175 та меҳмонхона, 344 та оилавий меҳмон уйи ва 121 таси хостел мавжуд. 389 та сайёҳлик компанияси, 680 нафар гид-таржимон, 11 та туризм ахборот маркази фаолият кўрсатмоқда. Туристик синфга мансуб 125 та автобус ва 120 та микроавтобусдан самарали фойдаланилмоқда. Кейинги йилларда вилоятдаги меҳмонхоналар тармоғи замон талабларига мослаштирилиб, дунёнинг ТОП-50 талигига кирувчи “HILTON” (АҚШ), “MOVENPICK” (Франция), “WELNESS HOTEL” (Австрия), “MINYOUN” (Хитой) каби халқаро меҳмонхона брендлари жалб этилди»[126].

Юқорида келтирилган маълумотлар асосида Самарқанд вилоятида 2024 йилда яшаш ва овқатланиш бўйича хизматларнинг кўрсаткичлари ижобий баҳоланди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”даги ПФ-60-сонли Фармони.

[124] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 27 февралдаги “Хизматлар соҳаси барқарор ривожланиши учун қулай шарт-шароитлар яратишга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-78-сон қарори.

[125] 2025 йил Самарқанд туризми учун янги давр бўлади - zarnews.uz

[126] 2025 йил Самарқанд туризми учун янги давр бўлади - zarnews.uz

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 27 февралдаги “Хизматлар соҳаси барқарор ривожланиши учун қулай шарт-шароитлар яратишга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-78-сон қарори.
3. https://www.reuters.com
4. https://www.foodnotify.com
5. https://stat.uz

Bektemirov Abdumalik – ***SamISI professori, i.f.d.,***
Abduvaliyev Bekzod Muxiddin o‘g’li – ***SamDAQU tayanch doktoranti***

INVESTITSION-QURILISH JARAYONLARINI BOSHQARISHNING TASHKILIY BOSHQARUV TUZILMALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya: mazkur ma’ruzalar tezisida investitsion-qurilish jarayonlarini boshqarishning tashkiliy tuzilmalarini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Mavjud boshqaruv modellari, ularning afzallik va kamchiliklari tahlil qilingan. IQJda raqamli texnologiyalar, xususan BIM, PMO va IPD integratsiyasi orqali samaradorlikni oshirish imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, boshqaruv jarayonlarida resurslardan oqilona foydalanish hamda risklarni kamaytirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari amaliyotga joriy etish uchun dolzarbligi bilan ahamiyatlidir.

Kalit so‘zlar: investitsion jarayon, qurilish boshqaruvi, tashkiliy tuzilma, PMO, IPD, BIM, raqamli transformatsiya, loyiha boshqaruvi, risklarni boshqarish, resurslar optimallashtirish, innovatsion yondashuv, samaradorlik.

Hozirgi davrda iqtisodiyotning real sektorida amalga oshirilayotgan investitsion jarayonlarning samaradorligi ko‘p jihatdan qurilish sohasida qo‘llanilayotgan boshqaruv mexanizmlarining darajasiga bog‘liqdir. Investitsion-qurilish jarayonlarining murakkabligi, ko‘p subyektliligi, yuqori texnologik talablarga ega bo‘lishi uni boshqarishda zamonaviy tashkiliy tuzilmalardan foydalanishni taqozo etadi. Shu bois, investitsion loyihalar hayotiy siklining barcha bosqichlarida boshqaruvning optimal, moslashuvchan va raqamlashtirilgan tashkiliy tuzilmalari ishlab chiqilishi iqtisodiy samaradorlikni oshirishning asosiy omillaridan biri sifatida qaralmoqda.

Bugungi kunda investitsion-qurilish jarayonlarining o‘ziga xosligi va boshqaruvga qo‘yiladigan talablar quyidagilar bilan izohlanadi:

- ko‘p bosqichlilik (tahlil, loyihalash, moliyalashtirish, qurish, foydalanishga topshirish);
- ko‘p ishtirokchilar (investor, buyurtmachi, loyiha instituti, pudratchi, subpudratchi, nazorat organlari);
- yuqori risklilik darajasi (moliyaviy, texnologik, ekologik, vaqt bo‘yicha);
- ko‘p miqdordagi resurslar bilan ishlash (mehnat, kapital, materiallar);
- mahalliy sharoitlar va normativ-huquqiy talablar bilan moslashuv zarurati.

Shu sababli инвестицион-қурилиш жараёнини (IQJni) boshqarishning tashkiliy tuzilmalari quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- jarayonlarni tezkor koordinatsiya qilish;
- mas′uliyat va vakolatlarning aniq taqsimlanishi;
- raqamli monitoring va hisobot tizimlarining mavjudligi;
- tavakkalchiliklarni oldindan aniqlash va boshqarish;
- resurslardan optimal foydalanish imkonini berish.

Таҳлиллар шуни кўрсатадики, O‘zbekiston va boshqa rivojlanayotgan davlatlarda ishlatiladigan an’anaviy qurilish boshqaruv tizimlari ko‘plab cheklovlarga ega, жумладан:

Chiziqli-funktsional boshqaruv tuzilmasining muammolari:

- qaror qabul qilish zanjiri uzoq;
- bo‘ysunish qatlamlari ko‘p bo‘lgani uchun muvofiqlashtirish qiyinlashadi;
- loyiha ishtirokchilari o‘rtasida mas’uliyat chegarasi aniq bo‘lmaydi;
- resurslar taqsimoti samarali yuritilmaydi.

Qurilish jarayonida malakali loyihaviy boshqaruvning yetishmasligi:

- loyiha rejalashtirish usullari (Gantt-chart, CPM, PERT) yetarli qo‘llanilmaydi;
- risklarni boshqarish tizimi formal xarakterga ega;
- loyiha davomida xarajatlar va muddatlarni nazorat qilish yetarli emas.

Raqamli integratsiya pastligi:

- BIM texnologiyalari to‘liq joriy etilmagan.
- qurilish jarayonlarida iot asosida monitoring sust.
- elektron tender va shartnomalar tizimi to‘liq ishlamaydi.

Ushbu kamchiliklar rol va funksiyalarni qayta ko‘rib chiqishni, zamonaviy tashkiliy boshqaruv tuzilmalarini joriy etishni taqozo etadi.

Ҳозирги кунда IQJni boshqarishning zamonaviy tashkiliy modellari сарасига қуйидагиларни киритиш мумкин:

1. Loyiha asosida boshqaruv. Ushbu modelda har bir loyiha mustaqil boshqaruv tuzilmasiga ega bo‘ladi. Uning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- muvofiqlashtirish samaradorligi oshadi;
- qarorlar tez qabul qilinadi;
- loyiha jamoasining mas’uliyati kuchayadi.

2. Matritsali boshqaruv tuzilmasi. Bir vaqtning o‘zida funksional bo‘limlar va loyiha menejeri vakolatlari qo‘llaniladi. Bu tuzilmaning yutuqlari quyidagilardan iborat:

- resurslardan moslashuvchan foydalanish;
- bo‘limlararo integratsiya;
- malakali mutaxassislarning bir necha loyihalarda ishlashi.

3. Integratsiyalashgan loyiha yetkazib berish modeli. Dasturchilar, pudratchilar, loyiha institutlari va investorlar birgalikda qaror qabul qiladi.

Modelning samaralari:

- xarajatlarni 10–15% tejash;
- qurilish muddatlarini 20–25% qisqartirish;
- nizolar sonini keskin kamaytirish;

- sifatni oshirish.

4. Loyiha ofisini joriy etish. Bu ofis IQJning barcha ishtirokchilari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi markaz vazifasini bajaradi. Uning asosiy vazifalari:

- metodologiya yaratish;
- loyiha rejalari va jadvalini yuritish;
- monitoring;
- risklarni boshqarish;
- hisobotlar tayyorlash;
- sifat nazoratini olib borishdan iborat.

Zamonaviy IQJda raqamli texnologiyalar asosida tashkiliy boshqaruvni takomillashtirish муҳим аҳамият касб этади. Бу соҳадаги устувор йўналишлар quyidagilardan iborat:

❖ **Qurilish ma’lumotlarini modellashtirish (QMM) (BIM - Building Information Modeling) platformasini joriy etish.** Бу платформа:

- loyiha ma’lumotlarini yagona bazada saqlash;
- xatolarni 30–40% kamaytirish;
- smeta xarajatlarini aniq hisoblash;
- 3D/4D/5D modellashtirishдан iborat bo‘lib, tezkor qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

❖ **Qurilish jarayonini IoT sensorlari bilan nazorat qilish.**

- texnika va uskunalar holati;
- betonning qotish harorati;
- xavfsizlik talablariga rioya qilinishi;
- material sarfi;
- onlayn tarzda kuzatib boriladi.

❖ **Elektron loyiha boshqaruvi tizimlari (E-Construction)**

- elektron hujjatlar almashuvi;
- elektron tender;
- elektron shartnomalar;
- xarajatlar monitoringi;
- jadval bo‘yicha real vaqt rejimida kuzatish.

❖ **AI asosida sun’iy intellekt va BIG data texnologiyalaridan foydalanish quyidagilarga imkon yaratadi:**

- risklarni oldindan aniqlash;
- xarajatlar prognozi;
- resurslar optimallashtiriladi.

IQJni boshqarishda tashkiliy tuzilmalarni takomillashtirish bo‘yicha takliflar

1. Innovatsion boshqaruv modelini joriy etish bo‘yicha:

- Loyihalarda IPD + PMO + BIM integratsiyasini amalga oshirish.
- Qarorlarni konsensus asosida qabul qilish modelidan foydalanish.

2. Raqamli transformatsiyaga asoslangan boshqaruv bo‘yicha:

- barcha qurilish obyektlarida BIMga o‘tish;

- E-Construction platformasini davlat darajasida yagona tizimga aylantirish;
- pudratchilar reytingini AI asosida shakllantirish.

3. Vakolatlarni aniq taqsimlovchi tashkiliy model bo‘yicha:

- buyurtmachi – strategik boshqaruvga o‘tish;
- loyihalarni birxillashtirilgan standartlar asosida rejalashtirish, amalga oshirish, nazorat qilish va yakunlashni muvofiqlashtirish (PMO koordinatsiyasi);
- pudratchi – operatsion boshqaruv;
- nazorat organlari – sifat va xavfsizlikni tekshirish.

4. Loyiha ishtirokchilarining javobgarligini kuchaytirish

- shartnomalarda KPI (xarajat, muddat, sifat) ko‘rsatkichlarini belgilash;
- rag‘batlantirish va sanksiya tizimini joriy etish.

5. Kadrlar malakasini oshirish

- loyiha boshqaruvi bo‘yicha xalqaro sertifikatlar (PMP, IPMA);
- BIM mutaxassislarini tayyorlash;
- zamonaviy boshqaruv metodlari (Lean construction, Agile) bo‘yicha o‘qitish.

Xulosa. Investitsion-qurilish jarayonlari (IQJ) iqtisodiy taraqqiyotning eng muhim omillaridan biri bo‘lib, ushbu jarayonlarni boshqarishning tashkiliy tuzilmalari samaradorlikka bevosita ta’sir ko‘rsatadi. An’anaviy boshqaruv tizimlari hozirgi kun talablari uchun yetarli emas. Shu bois IQJni boshqarishda:

- zamonaviy tashkiliy modellardan (PMO, IPD, matritsali tuzilma),
- raqamli texnologiyalardan (BIM, IoT, AI, elektron boshqaruv),
- resurslarni optimallashtiruvchi mexanizmlardan foydalanish iqtisodiy samaradorlikni sezilarli oshiradi. Taklif etilgan tashkiliy yondashuvlar qurilish jarayonlarining shaffofligi, tezkorligi va sifatini ta’minlab, investitsion loyihalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдурахмонов Қ.Х. Инвестицион лойиҳаларни бошқариш. – Тошкент: “Fan va texnologiya”, 2020. – 356 б.
2. Бобожонов Р.Қ., Шоиқов Б.Ш. Қурилиш иқтисодиёти ва бошқаруви. – Тошкент: “Iqtisod-Moliya”, 2019. – 412 б.
3. Маматкулов Р.Р. Лойиҳа бошқаруви: назария ва амалиёт. – Тошкент: “Universitet”, 2021. – 284 б.
4. Kerzner H. Project Management: A Systems Approach to Planning, Scheduling, and Controlling. – New York: Wiley, 2017. – 1040 p.
5. Turner J.R. Handbook of Project-Based Management. – London: McGraw-Hill, 2014. – 528 p.
6. Smith P., Tardif M. Building Information Modeling (BIM) and Construction Management. – New York: Wiley, 2020. – 320 p.
7. Eastman C., Teicholz P., Sacks R., Liston K. BIM Handbook: A Guide to Building Information Modeling. – Hoboken: Wiley, 2018. – 650 p.
8. PMI. A Guide to the Project Management Body of Knowledge (PMBOK Guide), 7th Edition. – Pennsylvania: Project Management Institute, 2021. – 370 p.
9. Лемаев Р.А. Совершенствование организационно-управленческих структур в строительстве. – Москва: “Экономика”, 2018. – 244 с.

10. Гусев А.В. Управление строительными проектами: современные методы и технологии. – Санкт-Петербург: “Питер”, 2022. – 336 с.
11. RICS. Construction Project Management. – London: RICS Publishing, 2020. – 212 p.
12. OECD. Infrastructure Governance and Project Management. – Paris: OECD Publishing, 2021. – 180 p.

E.Shavqiyev - *SamISI, professori, i.f.n.,*
A.I.Raxmonov - *SamISI, mustaqil izlanuvchisi*

SAMARQAND VILOYATIDA XIZMATLAR HAJMIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLLAR TAHLILI

Annotatsiya: Maqolada Samarqand viloyatida xizmatlar hajmiga ta’sir etuvchi asosiy omillar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: xizmatlar sohasi, iqtisodiy omillar, demografik omillar, innovatsiyalar, tahlil, rivojlanish omillari.

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida xizmat ko‘rsatish sohasi jahon iqtisodiyotining muhim va tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan sohasi sifatida o‘zining salmoqli o‘rniga ega. Jahonning rivojlangan G‘arb mamlakatlarida xizmat ko‘rsatish sohasi milliy iqtisodiyotning ustun rivojlangan, birinchi darajali sektoriga aylandi. Uning YAIM hajmini oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholi bandligini ta’minlash, ularning daromadlarini va bo‘sh vaqtlarini ko‘paytirish va boshqa muhim ijtimoiy - iqtisodiy vazifalarni bajarishdagi roli tobora ortib bormoqda. AQSH yalpi ichki mahsulotining 70 foizi, Fransiyaning 71 foizi, Germaniyaning esa 62,5 foizi xizmat ko‘rsatish sohasi hissasiga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, ushbu mamlakatlarda iqtisodiyotda band bo‘lgan aholining 70 foizidan ortig‘i xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat ko‘rsatmoqda. Aynan shu nuqtai-nazardan jahon miqyosida xizmatlar sohasini rivojlantirish, xizmatlar hajmi va sifatini oshirgan holda, xizmatlarning zamonaviy turlarni ko‘rsatishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda xizmat ko‘rsatish sohasini sifat jihatdan yangi pog‘onaga ko‘tarish va samaradorligini oshirish, sohaga boshqaruvning zamonaviy tizimini va raqamli texnologiyalarni joriy qilish bo‘yicha keng qamrovrli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, “Hududlarda xizmat ko‘rsatish va servis sohalarini rivojlantirish orqali keyingi 5 yilda xizmat ko‘rsatish hajmini 3 baravarga oshirish hamda ushbu yo‘nalishda jami 3,5 million yangi ish o‘rinlarini yaratish”[127] vazifalari belgilangan.

[127] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni

Qayd etilganganlardan koʻrinib turibdiki Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatish sohasini davlat tomonidan yanada qoʻllab quvvatlash boʻyicha imtiyozlar berish, infratuzilmani yanada rivojlantirish orqali tadbirkorlik muhitini yaxshilash, bu jarayonlarda yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlash va bartaraf etish borasida ilmiy tavsiyalar va takliflar ishlab chiqish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri boʻlib hisoblanadi.

Xizmat koʻrsatish sohasini tahlili natijasida aholi talabini qondirishni, ularni turli xizmat turlariga ehtiyojlarini qondirish darajasi baholanadi. Xizmat koʻrsatish sohasini tahlil qilishda elastiklik koeffisiyenti koʻrsatkichini tahlil qilish lozim:

Elastiklik koeffisiyenti (**K_e**) aholi talabini qondirilish darajasi qaysi omillar ta'siri ostida qanday miqdorda oʻzgarganligini koʻrsatadi, ya'ni aholi jon boshiga koʻrsatilgan xizmatlar (**y**) hisobga olingan omil (**x**) ta'siri natijasida qancha foizga oʻzgarganligini koʻrsatadi.

Elastiklik koeffisiyenti quyidagicha hisoblanadi.

$$K_e = \frac{\Delta y * 100}{y} : \frac{\Delta x * 100}{x} = \frac{\Delta y}{\Delta x} * \frac{x}{y};$$

Bu yerda: $\Delta y = y_1 - y_0$

$\Delta x = x_1 - x_0$

Dinamik qatorda Δx va Δu koʻrsatkichlari toʻgʻri chiziqli bogʻliklikda boʻlganda $u = a + bx$ korrelyasiya tenglamasini yechish orqali K_e aniqlanishi mumkin. Bunda: $\mathbf{K_e = b \frac{\bar{x}}{\bar{y}}}$ teng boʻladi.

Elastiklik koeffisiyentini toʻgʻri chiziqli bogʻliqlik boʻlmagan hoda quyidagi tenglamalar orqali ham aniqlash mumkin.

1. Parobolik tenglamadan: $\mathbf{K_e = (b + 2sx) * \frac{\bar{x}}{\bar{y}}}$;

2. Giperbolo tenglamada: $\mathbf{K_e = \frac{-b}{\bar{x}} * \frac{1}{\bar{y}}}$;

3. Logarifmik tenglamada: $\mathbf{K_e = \frac{b}{\bar{y}}}$;

Bizlar aholini jon boshiga toʻgʻri kelgan xizmatlarning unga ta'sir qiladigan asosiy omillar toʻgʻri chiziqli bogʻliklikka mos kelishini hisobga olib,

$$\mathbf{y = a + bx}$$

tenglamasini yechish usuliga toʻxtalib oʻtamiz.

Keltirilgan (**y = a + bx**) tenglamada «**a**» va «**b**» tenglamani parametrlari va quyidagi tenglamalar tizimini yechish orqali aniqlanadi:

$$\text{П}\, a + b \sum x = \sum y$$
$$a \sum x + b \sum x^2 = \sum xy$$

Ushbu tenglamadan noma’lum «a» va «b» parametrlarini quyidagi formula orqali aniqlash mumkin.

$$a = \frac{\sum y * \sum x^2 - \sum x * \sum xy}{П \sum x^2 - \sum x * \sum x}$$
$$b = \frac{П \sum xy - \sum x \sum y}{П \sum x^2 - \sum x \sum x}$$

Ushbu usul bilan aholi jon boshiga to‘g‘ri kelgan xizmatlar hajmiga aholi jon boshiga to‘g‘ri kelgan daromadni ta’sir darajasi aniqlandi (1-jadval).

1- jadval

Samarqand viloyatida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan xizmatlar va daromadlar hajmi, ming so‘m.

Yillar	Aholi jon boshiga	
	Daromad	Xizmatlari
2020	10 827,90	3 600,30
2021	13 231,20	4 576,80
2022	15 721,00	5 633,10
2023	16 701,50	11 191,20
2024	19 215,40	14 014,90

Keltirilgan ma’lumotlar asosida aholi jon boshiga to‘g‘ri kelgan xizmatlar hajmi aholining harid fondi o‘zgarishi hisobiga qanday darajada o‘zgarganligi aniqlandi (2-jadval).

2- jadval

Elastiklik koeffisiyentini hisoblash uchun ma’lumotlar.

Yillar	X	Y	X^2	XY
2020	10 827,9	3 600,3	117 243 418,4	38 983 688,4
2021	13 231,2	4 576,8	175 064 653,4	60 556 556,2
2022	15 721,0	5 633,1	247 149 841,0	88 557 965,1
2023	16 701,5	11 191,2	278 940 102,3	186 909 826,8
2024	19 215,4	14 014,9	369 231 597,2	269 301 909,5
Jami	**75 697,0**	**39 016,3**	**1 187 629 612,3**	**644 309 945,9**

2-jadvaldagi ma’lumotlarni yuqorida keltirilgan tenglamaga qo‘ysak quyidagiga erishamiz:

$$\begin{cases} \\ \end{cases} \quad 5a + 75\,697{,}0\, b = 39\,016{,}3$$

75 697 a +1 187 629 612,3 b =644 309 945,9

Ushbu tenglamadan uning parametrlarini aniqlaymiz.

$$a = \frac{39\,016,* 1\,187\,629\,612,3 - 75\,697,0 * 644\,309\,945,9}{5 * 1\,187\,629\,612,3 - 75\,697,0 * 75\,697,0}$$
$$= \frac{46\,336\,913\,242\,380,50 - 48\,772\,329\,974\,792,3}{5\,938\,148\,061,3 - 5\,730\,035\,809,0}$$
$$= \frac{-2\,435\,416\,733\,215,49}{208\,112\,252,3} = \mathbf{-11\,702,42}$$

a = -11 702,42

$$b = \frac{5 * 644\,309\,945,9 - 75\,697,0 * 39\,016,3}{5 * 1\,187\,629\,612,3 - 75\,697,0 * 75\,697,0}$$
$$= \frac{3\,221\,549\,729,45 - 2\,953\,416\,861,1}{5\,938\,148\,061,3 - 5\,730\,035\,809,0} = \frac{268\,132\,868,35}{208\,112\,252,30} = \mathbf{1,29}$$

b = 1,29

y = -11 702,42 + 1,29 x; Tenglamaning «b» parametri miqdori 1,29 aholi daromadining ming so‘mga ortishi natijasida aholi jon boshiga to‘g‘ri kelgan xizmatlar hajmi 1290 so‘mga o‘sishini ta’minlashi aniqlandi.
Tahlilning keying bosqichida elastiklik koeffisentini aniqlaymiz.

$K_e = b \frac{\bar{x}}{\bar{y}}$: yuqorida keltirilgan ma’lumotlar orqali «$\bar{x}$» va «$\bar{y}$» miqdorini aniqlaymiz:

$\bar{x} = \frac{75\,697}{5} = 15\,139,4$ ming so‘m

$\bar{y} = \frac{39\,016,3}{5} = 7\,803,3$ ming so‘m

$K_e = 1,29 \quad \frac{15\,139,4}{7\,803,3} = 1,29 * 1,94 = 2,50$

Ushbu ko‘rsatgichdan ma’lum bo‘lyaptiki, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadni 1% ga ortishi natijasida aholi jon boshiga to‘g‘ri kelgan xizmatlar hajmi 2,5 %ga o‘sgan.

Xulosa o‘rnida, olib borilgan tahlil natijalariga ko‘ra viloyatda xizmat ko‘rsatish sohasi hajmining oshishiga aholining pul daromadlari ijobiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi.

Каримова А.М. - ***Самаркандский институт экономики и сервиса, д.э.н.***

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОЛИТИКИ В ОБЛАСТИ СОКРАЩЕНИЯ БЕДНОСТИ ПРИ ПОМОЩИ СОЗДАНИЯ НОВЫХ РАБОЧИХ МЕСТ

Аннотация. Создание новых рабочих мест играет решающую роль в снижение бедности, так как бедность — это не только низкий доход, но также это ограниченные возможности получить образование, качественные медицинские услуги или начать своё дело. В данной статье рассматриваются вопросы, связанные совершенствованием государственной политики направленной на сокращение бедности в Республики Узбекистан при помощи создания новых рабочих мест.

Ключевые слова: государство, государственная политика, бедность, сокращение бедности, рабочие места, трудоустройство, доход, работа, ресурсы, самозанятость, предпринимательство, услуги, образование, малый и средний бизнес, частный сектор, инвестиции.

Введение. В последние годы Узбекистан предпринимает целенаправленные шаги по преодолению бедности — одной из наиболее острых социальных проблем, которая по-прежнему затрагивает значительную часть населения, в разных регионах страны. В числе множества реализуемых инициатив, направленных на поддержку занятости активного слоя населения со стороны государства, является инициатива, направленная на создание дополнительных новых рабочих мест, при помощи открытия возможностей для самозанятости и предпринимательства. Именно трудоустройство даёт людям шанс вырваться из замкнутого круга нужды и начать строить более устойчивое будущее.

Создание новых рабочих мест играет решающую роль в снижение бедности, так как бедность — это не только низкий доход. Это также ограниченные возможности получить образование, качественные медицинские услуги или начать своё дело. Лишённый доступа к этим базовым ресурсам человек оказывается в уязвимом положении, из которого сложно выбраться без внешней поддержки. Однако именно работа, особенно стабильная и официальная, может стать тем самым ресурсом, который позволяет изменить ситуацию. Когда человек получает постоянный доход, он может обеспечивать семью, вкладываться в развитие детей, заботиться о здоровье, решать бытовые и жилищные вопросы. Повышение занятости влияет не только на отдельные семьи, но и на развитие общества в целом: растёт потребление, усиливается внутренняя экономика, улучшается социальный климат. Когда государство создает условия для трудоустройства — будь то на производстве, в сфере услуг, сельском хозяйстве или даже в цифровом секторе — оно не просто уменьшает число безработных. Оно запускает целую цепочку положительных изменений. Один человек получает работу — и с ним вместе улучшается качество жизни

его семьи. Появляется возможность отправить детей в школу без лишнего стресса, купить необходимые лекарства, откладывать деньги на крупные цели.

Основная часть. Создание рабочих мест — это не временное решение, а долгосрочная инвестиция в устойчивость общества. Вместо краткосрочной поддержки в виде пособий, трудоустройство даёт людям самостоятельность и уверенность в завтрашнем дне. Это помогает избежать социального иждивенчества и укрепляет экономику на фундаментальном уровне. Кроме того, занятость играет важную роль в формировании социальной ответственности. Человек, который трудится, чувствует себя частью общего дела, вовлечён в общественные процессы, начинает более активно участвовать в жизни своей общины и страны в целом. Всё это снижает уровень социальной напряженности и создаёт предпосылки для устойчивого развития.

Нельзя не отметить и психологический аспект. Наличие работы положительно влияет на самооценку, мотивацию и общее эмоциональное состояние человека. В условиях бедности, где часто преобладают апатия и безысходность, именно возможность зарабатывать становится ключевым фактором, возвращающим людям чувство достоинства и контроля над своей жизнью.

В последние годы Узбекистан делает акцент на реальные шаги по созданию рабочих мест, особенно в регионах, где проблема бедности стоит наиболее остро. Это и развитие сельского хозяйства с привлечением современных технологий, и поддержка ремесленничества, и запуск промышленных зон, и активное поощрение малого бизнеса. В частности,

– разработка государственных мер и инициатив по созданию рабочих мест;

– разработка программ поддержки самозанятости и микробизнеса;

– развитие инфраструктурных проектов;

– развитие предпринимательства и поддержка малого и среднего бизнеса;

– частный сектор и инвестиции;

– обучение и повышение квалификации;

– цифровая экономика и удалённая занятость;

– локализация производства и создание промышленных зон, и др.

В борьбе с бедностью правительство Узбекистана выбрало стратегию, основанную не столько на раздаче пособий, сколько на стимулировании занятости и предпринимательской активности населения. Это проявляется в целенаправленных реформах, государственных программах и инфраструктурных проектах, нацеленных на расширение возможностей для трудоустройства в самых разных секторах экономики.

Важным фактором в создании рабочих мест остаётся развитие предпринимательской активности. Многочисленные реформы по упрощению условий ведения бизнеса, снижению налоговой нагрузки и цифровизации государственных услуг сделали открытие и ведение бизнеса доступнее для широких слоёв населения. Одна из ключевых инициатив последних лет

является программа «Каждой семье — источник дохода», которая помогает людям открыть собственное дело, не покидая свой регион. Жителям выделяются льготные кредиты, оборудование, а также обучающие курсы, чтобы они могли заниматься швейным делом, тепличным хозяйством, пчеловодством, переработкой продукции и другими видами мелкого производства

Особое внимание уделяется женщинам, молодёжи и людям с ограниченными возможностями, как наиболее уязвимым группам. Государство создаёт для них отдельные программы, предоставляя не только финансовую, но и информационную поддержку.

Серьёзным источником новых рабочих мест становятся государственные строительные и инфраструктурные проекты. Возведение дорог, школ, больниц, систем водоснабжения не только улучшает условия жизни в регионах, но и открывает временные и постоянные вакансии. Особенно это актуально для сельской местности, где уровень безработицы традиционно выше.

Серьёзную роль в создании рабочих мест играет и привлечение инвестиций — как иностранных, так и внутренних. Новые предприятия, особенно в сфере промышленности, логистики, строительства, нуждаются в квалифицированных кадрах.

Это стимулирует и систему образования — колледжи, техникумы и университеты начинают теснее сотрудничать с бизнесом, чтобы готовить специалистов под реальные потребности рынка. Государство активно снижает административные барьеры для открытия бизнеса: упрощается регистрация, отменяются избыточные проверки, внедряются электронные сервисы для подачи отчётности и ведения дел. Кроме того, предпринимателям предоставляются налоговые льготы и льготное кредитование. Это уже дало ощутимые результаты: в стране наблюдается рост числа малых предприятий и индивидуальных предпринимателей, особенно в сферах торговли, услуг, агробизнеса и ремесленничества.

Отдельного внимания заслуживает и тема удалённой занятости. Благодаря развитию интернета и цифровой инфраструктуры, жители даже самых отдалённых районов страны могут сегодня работать в IT-сфере, заниматься фрилансом, обслуживать клиентов по всему миру.

Государственные инициативы по обучению цифровым навыкам открывают новые горизонты для молодежи и тех, кто раньше не имел постоянной работы.

Для того чтобы человек мог претендовать на достойную работу, он должен обладать соответствующими навыками. Поэтому большое внимание уделяется системе профессионального обучения. Во многих регионах открываются Центры занятости и профессиональной подготовки, где безработные граждане бесплатно обучаются востребованным профессиям — от парикмахера и электрика до программиста или бухгалтера.

Развивается сотрудничество с частными компаниями, которые заинтересованы в подготовке кадров «под себя». Это позволяет выпускникам учебных курсов быстро находить работу без необходимости переучиваться.

Также в стране активно создаются малые промышленные зоны, особенно в регионах. Это даёт бизнесу возможность открыть производство с минимальными затратами, а местным жителям — получить работу рядом с домом. В таких зонах появляются предприятия по переработке сельхозпродукции, швейные фабрики, мебельные цеха, мастерские и другие формы производственной деятельности.

Заключение. Создание рабочих мест - это не просто экономическая задача, это вопрос социальной справедливости и национальной устойчивости. Узбекистан делает уверенные шаги в этом направлении, и, хотя вызовов ещё немало, результаты уже становятся ощутимыми. Бедность не исчезает за один день, но, когда человек получает возможность трудиться и зарабатывать, меняется не только его уровень жизни, но и будущее целого поколения. А значит, ставка на развитие занятости — это ставка на развитие всей страны.

Таким образом, борьба с бедностью в Узбекистане всё более уверенно смещается в сторону системного и устойчивого подхода — через развитие занятости, предпринимательства и профессионального образования. Создание рабочих мест рассматривается не как разовая мера, а как стратегическая задача, способная запустить долгосрочные положительные изменения в жизни населения и в экономике страны в целом. Комплексная государственная политика, направленная на поддержку малого и среднего бизнеса, развитие цифровой экономики, привлечение инвестиций и реализацию инфраструктурных проектов, уже даёт заметные результаты.

Особое внимание к уязвимым группам населения, таким как женщины, молодёжь и люди с ограниченными возможностями, делает процесс более инклюзивным и справедливым. В конечном итоге, предоставляя людям возможность трудиться, государство не просто снижает уровень бедности, а формирует основу для более устойчивого, социально активного и экономически сильного общества.

Список использованной литературы

1. Курбанов С.П. Повышение уровня занятости населения в Узбекистане на основе развития видов современного предпринимательства. "Экономика труда", № 3, март 2024 г.

2. Богатырева З.Б. Вклад бизнеса в устойчивое развитие и экономический рост. Опыт России и Бразилии. "Инновационная наука", № 2, март 2023 г.

Bektemirov Abdumalik – ***SamISI, professor, i.f.d.,***
Sobirov Azizbek - *SamISI, magistrant*

YASHIL IQTISODIYOTNI BOSHQARISHNING INNOVATSION MEXANIZMLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada yashil iqtisodiyotni boshqarish jarayonida innovatsion mexanizmlarni shakllantirish va ularni samarali qo‘llashning nazariy hamda amaliy jihatlari tahlil qilingan. Yashil iqtisodiyotning asosiy maqsadi – iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy farovonlikni ta’minlash bilan birga atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirishdir. Tadqiqotda xalqaro tajriba, O‘zbekiston sharoitidagi institutsional islohotlar va raqamli yechimlarning iqtisodiy samaradorlikka ta’siri o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, innovatsion boshqaruv, ekologik menejment, barqaror rivojlanish, raqamli texnologiyalar, moliyaviy mexanizmlar, ekologik innovatsiyalar.

So‘nggi yillarda jahon miqyosida barqaror rivojlanish konsepsiyasi va yashil iqtisodiyot g‘oyalari iqtisodiy siyosatning markaziy yo‘nalishiga aylandi. Yashil iqtisodiyotning asosiy maqsadi – iqtisodiy o‘sishni ekologik xavfsizlik bilan uyg‘unlashtirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitga zarar yetkazmaslikdir. Shu maqsadda boshqaruv tizimlarini yangicha, innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish zarurati ortib bormoqda. Innovatsion boshqaruv mexanizmlari raqamli texnologiyalar, ekologik menejment, moliyaviy rag‘batlantirish va inson kapitalini rivojlantirish orqali yashil iqtisodiyotning samaradorligini oshiradi. Bu mexanizmlar iqtisodiy jarayonlarning shaffofligini ta’minlash, ekologik xavflarni kamaytirish va resurslardan oqilona foydalanish imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasida “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi – 2030” doirasida ushbu yo‘nalishda muhim islohotlar olib borilmoqda. Biroq mavjud boshqaruv tizimlarida innovatsion mexanizmlar to‘liq joriy etilmaganligi, institutsional muvofiqlikning pastligi va raqamli transformatsiya jarayonlarining sustligi ushbu sohada yangi ilmiy-amaliy yondashuvlarni ishlab chiqishni talab etadi. Shu sababli maqolada yashil iqtisodiyotni boshqarishda innovatsion mexanizmlarning mohiyati, ularning samaradorligini oshirish yo‘llari hamda xalqaro tajriba asosida takomillashtirish istiqbollari tahlil qilinadi.

Tadqiqotda yashil iqtisodiyotni boshqarish jarayonidagi innovatsion mexanizmlarni tahlil qilish uchun tizimli, tahliliy va qiyosiy yondashuvlardan foydalanildi. Tizimli yondashuv yordamida yashil iqtisodiyotning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy tarkibiy qismlari o‘zaro bog‘liq holda o‘rganildi. Tahliliy metod esa boshqaruv mexanizmlarining samaradorligini aniqlash va ularning amaliy natijalarini baholashga yo‘naltirildi. Shuningdek, qiyosiy tahlil usuli asosida O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan yashil iqtisodiyot siyosati xalqaro tajribalar bilan solishtirildi. Bunda Janubiy Koreya, Germaniya va Xitoy kabi davlatlarning yashil boshqaruv amaliyotlari tahlil qilinib, ularning muvaffaqiyat omillari ajratib ko‘rsatildi. Tadqiqotda foydalanilgan axborot manbalari sifatida O‘zbekiston

Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP), Jahon banki va OECD tomonidan e’lon qilingan statistik ma’lumotlar, hisobotlar hamda ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi.

Ushbu metodologik yondashuvlar yashil iqtisodiyotni boshqarishda innovatsion mexanizmlarning samaradorligini baholash, mavjud muammolarni aniqlash va takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqishga imkon berdi.

O‘zbekiston iqtisodiyotida so‘nggi yillarda yashil rivojlanish tamoyillarini amaliyotga tatbiq etish yo‘lida muhim bosqichlar bosib o‘tildi. “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi – 2030” doirasida qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushi yildan-yilga oshib bormoqda, ekologik toza ishlab chiqarish texnologiyalari esa iqtisodiyot tarmoqlariga bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Jumladan, 2024-yilda quyosh va shamol energetikasi loyihalari umumiy elektr ishlab chiqarish hajmining qariyb 17 foizini tashkil etdi. Shu bilan birga, energiya tejamkor texnologiyalarni qo‘llagan korxonalar ishlab chiqarish tannarxini o‘rtacha 8 - 10 foizga kamaytirishga muvaffaq bo‘lgan.

Biroq tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yashil iqtisodiyotda boshqaruv mexanizmlarining aksariyati hali ham an’anaviy usullarga tayanmoqda. Innovatsion boshqaruv tizimlari – raqamli yechimlar, ekologik menejment, yashil moliyalashtirish va inson kapitali asosidagi yondashuvlar – yetarli darajada shakllanmagan. Natijada, mavjud boshqaruv tizimlarining iqtisodiy samaradorligi to‘liq darajada namoyon bo‘lmayapti.

1-jadval

Yashil iqtisodiyotni boshqarishda an’anaviy va innovatsion yondashuvlar taqqoslanishi

Yo‘nalish	An’anaviy boshqaruv yondashuvi	Innovatsion boshqaruv mexanizmi
Energiya siyosati	Byudjet subsidiyalari, davlat nazorati asosida	“Smart grid” tizimi, raqamli energiya monitoringi va tarmoqlararo integratsiya
Moliyalashtirish	Davlat kreditlari va byudjet investitsiyalari	Yashil obligatsiyalar, ESG Investitsiya-lar, xalqaro grant va xususiy fondlar
Ekologik nazorat	Qog‘oz hujjatlar asosidagi hisobot tizimi	IoT texnologiyalari asosida avtomatlashtirilgan monitoring va tahlil
Kadrlar siyosati	An’anaviy malaka oshirish tizimi	Yashil kompetensiyalar, ekologik ta’lim va qayta tayyorlash dasturlari
Axborot boshqaruvi	Markazlashgan, yopiq ma’lumot bazalari	Raqamli platformalar va ochiq ma’lumotlar tizimi

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, innovatsion boshqaruv mexanizmlari an’anaviy yondashuvlarga nisbatan yuqori samaradorlikni ta’minlaydi. Ayniqsa, raqamli boshqaruv va yashil moliyalashtirish instrumentlarini qo‘llash ishlab chiqarish jarayonlarida resurslar tejamini, chiqindilarni kamaytirish va energiya samaradorligini oshirish imkonini beradi. Masalan, 2023–2024-yillar oralig‘ida raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etgan korxonalarda energiya iste’moli o‘rtacha 11 foizga kamaygan, chiqindilarni qayta ishlash ulushi esa 1,7 barobar oshgan. Bunday

natijalar innovatsion mexanizmlarning iqtisodiy va ekologik samaradorlikni bir vaqtning o‘zida ta’minlash imkoniyatini ko‘rsatadi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni boshqarish sohasida innovatsion mexanizmlarni kengaytirish uchun quyidagi omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega:

- davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish;
- ilmiy tadqiqotlarni boshqaruv tizimlariga integratsiya qilish;
- raqamli infratuzilmani rivojlantirish va ma’lumotlar almashinuvi tizimini kengaytirish;
- yashil investitsiyalarni rag‘batlantirishga yo‘naltirilgan soliq va kredit imtiyozlarini joriy etish.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, innovatsion boshqaruv mexanizmlari nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki ekologik xavfsizlik, ijtimoiy mas’uliyat va xalqaro barqarorlik tamoyillarini iqtisodiyot tizimiga chuqur integratsiya qilish imkonini beradi.

Yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalar va tahliliy ma’lumotlar quyidagi ilmiy-amaliy ahamiyatga molik taklif va tavsiyalarni chiqarishga asos bo‘ladi.

1. Yashil boshqaruvning milliy modelini ishlab chiqish. Yashil iqtisodiyot sohasida yagona boshqaruv modeli ishlab chiqilib, unda ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy ko‘rsatkichlarni integratsiyalashgan holda baholovchi indikatorlar tizimi joriy etilishi lozim.
2. Innovatsion moliyaviy vositalarni kengaytirish. Yashil obligatsiyalar, ESG-investitsiyalar va xalqaro grantlar asosida ekologik loyihalarni moliyalashtirishning yangi mexanizmlarini yaratish, ularni milliy bank tizimiga integratsiya qilish zarur.
3. Ekologik raqamli boshqaruv tizimini shakllantirish. IoT, “smart monitoring” va sun’iy intellekt asosida ishlovchi yagona raqamli platforma yaratish orqali ekologik nazorat, tahlil va hisobotlarni avtomatlashtirish maqsadga muvofiq.
4. Inson kapitalini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim siyosatini kuchaytirish. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimida “yashil kompetensiyalar” bo‘yicha maxsus o‘quv dasturlari joriy etilib, ekologik boshqaruv sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimi yo‘lga qo‘yilishi kerak.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, yashil iqtisodiyotni boshqarish tizimlarida innovatsion mexanizmlarni joriy etish nafaqat ekologik barqarorlikni ta’minlaydi, balki iqtisodiy o‘sishning sifat jihatdan yangi modelini shakllantirishga xizmat qiladi. Innovatsion boshqaruv yondashuvlari orqali resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish va ijtimoiy farovonlikni ta’minlash mumkin. O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, raqamli texnologiyalar, ekologik menejment, yashil moliyalashtirish va inson kapitalini rivojlantirishga yo‘naltirilgan mexanizmlar iqtisodiy islohotlarning ajralmas qismiga aylanmoqda. Shu bilan birga, ushbu mexanizmlarni keng miqyosda joriy etish uchun institutsional va infratuzilmaviy asoslarni mustahkamlash zarur.

Umuman olganda, yashil iqtisodiyotni boshqarishning innovatsion mexanizmlari iqtisodiy rivojlanishni barqarorlik, samaradorlik va ijtimoiy mas’uliyat tamoyillari asosida tashkil etishning muhim yo‘nalishlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF–5863-son, 2019-yil 4-oktabr. – T.: Prezident.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi – 2030”. – Toshkent, 2020.
3. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturi (UNDP). Green Economy Implementation Guide. – New York, 2022.
4. Jahon banki (World Bank). Uzbekistan: Transition to a Green Growth Model. – Washington, D.C., 2023.
5. OECD (Organisation for Economic Co-operation and Development). Green Growth Indicators. – Paris: OECD Publishing, 2021.
6. To‘xtasinov, A. R. Yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish tamoyillari. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2022.
7. Raximov, B. I. Innovatsion boshqaruv mexanizmlarining iqtisodiy samaradorlikka ta’siri. // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” jurnali. – №4, 2023. – B. 45–53.
8. Karimova, N. X. Raqamli iqtisodiyot sharoitida yashil texnologiyalarni boshqarish mexanizmlari. // “Fan va jamiyat” ilmiy jurnali. – №2, 2024. – B. 30–38.
9. Elliott, J., Schreurs, M. Green Growth and Sustainable Development. – Cambridge University Press, 2020.
10. United Nations Economic Commission for Europe (UNECE). Financing Innovative Green Technologies. – Geneva, 2022.
11. Stiglitz, J., Stern, N. Report of the High-Level Commission on Carbon Prices. – Washington: World Bank, 2017.
12. Abdukarimov, B. va Yuldasheva, N. Yashil iqtisodiyotda innovatsion boshqaruv mexanizmlarining shakllanishi. // “Iqtisodiy tadqiqotlar” jurnali. – Vol. 7, №3, 2024. – B. 60–68.

Khalikova L.N. - ***Samarkand Institute of Economics and Service,***
Ashurova Jasmina Jo'ra qizi - *Samarkand Institute of Economics and Service, student*

FOOD SAFETY: ITS ECONOMIC SIGNIFICANCE AND THE PROBLEMS OF ENSURING IT

Abstract. This article explores the economic importance of food safety and the challenges associated with ensuring it in the modern world. Based on analytical and theoretical approaches, the study examines the mechanisms that determine the essence of food safety and its impact on sustainable economic development. The research highlights global issues such as food insecurity, malnutrition, and the growing gap between population needs and food production. Special attention is given to Uzbekistan’s experience in achieving food security, including government reforms, agricultural modernization, and export-oriented production of fruits and vegetables. The article emphasizes that food safety is not only a vital component of national security, but also a key factor in maintaining social stability and economic

growth. Finally, the study proposes measures to strengthen the socio-economic mechanisms of food safety, stabilize food prices, and enhance the efficiency of agricultural production.

Keywords. Food safety, food problem, agricultural organization, agro-industrial production.

According to the Food and Agriculture Organization of the United Nations (FAO) and the World Health Organization, more than 840 million people in the world do not have the opportunity to eat enough. This means almost one in eight of the world's population. In addition, more than 30 percent of the planet's population is experiencing the problem of malnutrition, the lack of the most basic microelements and vitamins, which clearly shows how urgent the issue of ensuring food safety is.

In fact, food security is a very broad concept, which, first of all, refers to the provision of consumer goods to the needs of the population in accordance with physiological standards. However, it is worrying that the growth of the production volume of food products lags behind the increase in the population and needs, especially in countries where there are insufficient conditions for the development of agriculture and processing industry.

It is highly recognized by the international community that Uzbekistan, in addition to ensuring its own food security, makes a worthy contribution to the food supply of foreign countries by exporting fruits and vegetables and other agricultural products. At the 39th conference of the UN Food and Agriculture Organization held in Rome, Italy in June 2015, at the ceremony of awarding the countries that have achieved the Millennium Development Goals, Uzbekistan was among 14 countries with unparalleled achievements in ensuring food security. Was awarded a special award for his achievements.

In recent years, the ecological factors arising due to climate change around the world are putting new demands on the breeders. Science-based, experimentally tested, adaptable to water shortage and drought conditions, resistant to various pests and diseases, high-yield varieties are required by life itself.

Despite the fact that the average number of the permanent population of the republic will increase by 800 thousand people in 2020, the regular growth of the population's income over the last 20 years has ensured the strengthening of financial opportunities and the increase in the consumption of basic food products by the population. In particular, by the end of 2020, wheat imports amounted to 1.2 billion dollars, an increase of 28% compared to the same period of last year. In 2020, daily consumption products made up 2.8 million tons of food products and increased by 12%. Meat and meat products increased by 2 times or 19 thousand tonnage.

It should be noted that in the first years of our independence, grain, meat and meat products, dairy products, potatoes and other products needed for consumption were imported lsa, bugungi kunga kelib ushbu mahsulotlarni ishlab chiqarilishining jadal rivojlanishi natijasida xalqimiz ehtiyojlarini to minlabgina qolmay ko and more are being exported to foreign countries.

Before independence, our compatriots could not even imagine today's medical days, comfortable life, incomparable opportunities and cares. After all, they used to

work in the fields all their lives, and their cups did not overflow, they did not have one or two, but they only made a living. What about today The peasants and farmers who use the created favorable conditions rationally and selflessly work not only bring benefits to our society, but also benefit and encourage themselves. Their earned income serves as a guarantee of a comfortable life of family members, a full table, and the development of our country.

The production of food products for people has been an eternal problem in the world and will always be relevant. Food production is the first condition of life. Therefore, it should be done constantly and in growing volumes, because the population of our planet is increasing.

A threat to food safety means a set of conditions and factors that lead to changes in the unfavorable situation for end consumers in the food market. Food security is affected by external and internal threats. External conditions of threats to food safety are related to the factor of openness of the economy. Internal threats arise under the influence of internal factors that imply changes in public demand and public supply that are formed within the country's economy. One of the important factors affecting the market situation in terms of the supply of agricultural products is the unstable functioning of the agrarian sector of the economy and its negative impact on food security.

The agro-industrial complex is one of the priority sectors of the economy, and its activity largely depends on increasing the welfare of the people, becoming a developed country, and strengthening the political unity of the people.

Food security plays a key role in ensuring people's lives, it primarily reflects the social direction aimed at realizing the basic human right to ensure its existence.

Food security is an important component of national security, as it ensures the sustainable production of basic food products and their availability to the population.

It is known that there is an important political feature of modern agricultural reform in independent Uzbekistan. Taking into account this characteristic, today it is better to understand that the effectiveness of the renewal of our society in general, the level of development of democratic processes in our country depends on how successful the agricultural reform is, how deeply this process penetrates into all aspects of rural life. As part of the above-mentioned political factor of agricultural reform influencing the formation of civil society foundations, it is possible to distinguish the issues of ensuring food security and improving the well-being of the people.

Increasing the amount of support for the agricultural sector through the state budget and extra-budgetary funds and expanding the directions, as well as strengthening the mechanisms of indirect support in the form of various privileges and preferences, the country's food support helps to strengthen supply and security

It is known that ”food safety” is one of the fundamental concepts of modern economic, legal and political sciences. This concept is synonymous with the concept of “food security”, and at the same time, according to the official terminology of the UN, “food policy”, “food planning”, “food supply”, “food needs”, “food reserves”, and “food resources” are closely related terms. It can be seen that the scope of ensuring food safety is quite broad.

What is the participation of civil society institutions in food supply? Here are some examples.

Uzbekistan has had an irrigation system since ancient times. Irrigated agriculture is the basis of our republic's food independence and the main source of export products. In our country, especially in the years of independence, systematic, consistent and step-by-step attention has been paid to improving land reclamation, increasing their productivity, and improving financing mechanisms.

In the process of re-production, relations between agriculture and industry have a special place. The main function of agriculture is to satisfy the population's need for food, and for raw materials – industry. The uniqueness of agriculture – its management is related to the use of land – the main means of production and the natural environment.

It is known that in the program of measures to support the enterprises of the real sector of the economy, it is envisaged to ensure their stable operation, increase the export potential, and expand the scale of production of their products. The additional measures taken will allow the formation of reliable reserves to ensure the food security of our country at the expense of domestic sources. This is especially important in the context of the increase in the prices of basic food products in the world markets. In turn, these create new, additional obligations to strengthen the education of patriotism and increase the economic culture of the population, especially the youth.

Measures to modernize agricultural production. In recent years, special attention has been paid to modernization of production, technical and technological renewal in the real sectors of our country's economy. Unfortunately, when we say modernization, we are often used to understand the modernization of industrial sectors. However, in addition to industry, there is a great need to modernize the leading sector of our economy, such as agriculture, and to carry out technical and technological work in the entire complex of almost all branches and production areas that are part of it. Therefore, the issues of modernization and promotion of agricultural production to a new level are becoming one of the urgent tasks of today. In this regard, it is necessary to study and apply the experiences of advanced countries in the fields of cattle breeding, grain breeding, potato breeding, modern irrigation systems, modern energy-saving technology and agro-technologies, which are extremely important in our climate. A complex of specific measures was developed to study, further improve seed-breeding works and increase the productivity of agricultural production.

In the Address of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Oliy Majlis: "It is known that more than 51 percent of the population of our country lives in rural areas. However, the share of agricultural products in the country's gross domestic product does not exceed 17 percent. The processing volume of agricultural products does not even reach 10%. However, in developed countries, this figure is more than 50 percent. In this regard, it is necessary to develop a comprehensive program for further agricultural reform.

In particular, it is necessary to pay special attention to solving the problem of food safety, establishing strict control over the cultivation of genetically modified

products. The fact that imported fruit and vegetable products are increasing in the markets of our country in recent years should certainly call us to be vigilant. In order to prevent such a situation, first of all, it is necessary to restore ancient varieties that are disappearing, to start selection works rationally and effectively, and to widely introduce scientific achievements and innovative developments in the field.

As for the livestock sector, it is necessary to create sufficient conditions to increase the number of cattle and poultry, to achieve quality and productivity in this regard. In the near future, specialized breeding complexes, high-tech poultry factories, as well as greenhouse farms should be established in each district.

We currently export fruit and vegetable products worth 1.5-2 billion dollars. However, there is an opportunity to export products worth 10-15 billion dollars per year in this field. “Uzagroexport” joint-stock company, stock exchanges, agro-firms and wholesale companies should play a major role in the production and export of products.

Effective sale of agricultural products is a very important issue. For this purpose, it is necessary to create a single database of information on the size and quantity of products grown on farms.

Conclusions and suggestions.

- Improving the functioning mechanism of the socio-economic system of ensuring food safety.
- Ensuring the optimal share of food products in the composition of population consumption expenses, in this regard, preventing sharp fluctuations in prices under the influence of various factors
- Foreign trade policy consists of ensuring a positive balance between export and import volumes of food products

Used literature

1. Mirziyoev, Shavkat. Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To’ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: “O’zbekiston” nashriyoti, 2022. – 416 bet.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. //Xalq so‘zi, 2020 yil 25 yanvar, № 19 (7521)-soni. uza.uz.

3. Mamatov A.A., Abulqosimov X.P., Mamatov S.A., Saidgaziyeva S.Sh. Iqtisodiy aytish. Darslik. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Jamoat 2 universiteti, 2020.- 731 bet.

4. I.S.Xotamov, M.K.Olimov, A.J.Ismoilov “Iqtisodiy” O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019 yil, 200 bet.

5. Iqtisodiy xavfsizlik: darslik. nafaqa / M.A. Gundorova; Vladimir. davlat un-t im. A.G. va N.G.Stoletovlar. - Vladimir: VlGU nashriyoti, 2020. - 207 bet.

6. Abulqosimov X.G., Rasulov T.S. va b. Mamlakat iqtisodiy havfsizligi va rakobatbardoshligini ta'minlashning barqaror yunalishlari. Monografiya. - T.: "Innovation rivozhlanish nashriyot - matbaa uyi". 2019. - 395 bet.

7. Kovalyov A.A. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash strategiyasi. Darslik - Sankt-Peterburg: Konovalova A.M. nashriyoti, 2019-188bet.

8. Sotvoldiyev N.J. Oziq-ovqat xavfsizligi tushunchasi va uning olmiy-nazariy konsepsiyasi. “Iqtisodiy va innovatsion texnalogiyalar” ilmiy jurnal №6 2017-y

Abduhamidov Sarvar Adhamovich - *SamISI, Turizm kafedrasi mudiri, i.f.f.d., dotsent, "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti tadqiqochisi.*

MINTAQAVIY TURIZMDA YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARINI JORIY ETISH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: maqolada yashil iqtisodiyot tamoyillarini mintaqaviy turizm sohasida amalga oshirish muhimligi ta'kidlangan va ularning o'ziga xos xususiyatlari ko'rib chiqilgan. Mintaqaviy turizmga yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishning asosiy yo'nalishlari va ularning samaradorligi bo'yicha tahliliy ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, mintaqaviy turizm, barqaror rivojlanish, energiya tejaydigan texnologiyalar, ekoturizm, yashil investitsiyalar, raqamli boshqaruv, inson kapitali.

Bugungi kunda jahon miqyosida iqtisodiy taraqqiyotning yangi modeli sifatida "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi tobora katta ahamiyat kasb etmoqda. U nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlash, balki ekologik barqarorlikni mustahkamlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va aholi farovonligini oshirishga qaratilgan tizimli yondashuv sifatida namoyon bo'lmoqda. Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi va xalqaro maydondagi nufuzi ham bevosita yashil iqtisodiyot tamoyillarini amalga oshirish darajasi bilan chambarchas bog'liqdir.

Mintaqaviy turizm sohasida ushbu tamoyillarni joriy etish barqaror rivojlanishning muhim yo'nalishi hisoblanadi. Chunki turizm tarmog'i tabiiy muhit, madaniy meros va inson omillariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, "yashil turizm" yoki "ekoturizm" konsepsiyasini amaliyotga joriy etish orqali mintaqalarda ekologik barqarorlikni ta'minlash, turistik faoliyatdan kelib chiqadigan salbiy ta'sirlarni kamaytirish hamda mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish imkoniyati yaratiladi.

Ilmiy manbalarda yashil iqtisodiyot tushunchasiga oid turli yondashuvlar mavjud. Ayrim olimlar uni insonlar farovonligini oshirish bilan birga ijtimoiy adolatni ta'minlovchi tizim sifatida ta'riflasalar, boshqalar uni kam uglerodli, resurslardan samarali foydalanuvchi va inklyuziv iqtisodiy model sifatida izohlaydilar. Shu nuqtai nazardan, mintaqaviy turizm sohasida yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki turizm infratuzilmasini ekologik jihatdan muvozanatli rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Bugungi kunda mintaqaviy turizmni rivojlantirishda yashil texnologiyalardan foydalanish, energiya tejamkor va ekologik toza infratuzilmani yaratish, turistik ob'ektlarni boshqarishda axborot-kommunikatsiya yechimlarini joriy etish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bu orqali nafaqat tabiiy muhit muhofazasi ta'minlanadi, balki turizm sektoridagi raqobatbardoshlik, investitsiyaviy jozibadorlik va xizmatlar sifatini oshirishga erishiladi.

Shuningdek, mintaqaviy darajada yashil iqtisodiyot prinsiplarini amalga oshirish turizm siyosatida yangi innovatsion modellar — "yashil brend", "barqaror destinatsiya" va "ekologik mas'uliyatli sayohat" kabi tushunchalarni shakllantirishni

taqozo etmoqda. Bu esa mamlakatning turistik salohiyatini oshirish bilan birga, xalqaro bozorda O‘zbekistonning barqaror turizm markazi sifatidagi imijini mustahkamlaydi.

Mintaqaviy turizm sohasida yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish – bugungi kunda barqaror rivojlanish siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Turizmning hududiy rivojlanishi faqat iqtisodiy o‘sish bilan cheklanib qolmay, balki ekologik barqarorlik, resurslardan tejamkor foydalanish va aholining turmush darajasini oshirishga ham yo‘naltirilishi zarur. Shu nuqtai nazardan, turizm infratuzilmasida “yashil” yondashuvni qo‘llash nafaqat atrof-muhit muhofazasiga, balki hududlarning investitsiyaviy va ijtimoiy jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Turizm faoliyatining ko‘p qirrali tabiati sababli, yashil iqtisodiyot tamoyillarini amalga oshirishda kompleks yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda energiya tejamkor texnologiyalardan foydalanish, ekologik toza infratuzilmani yaratish, raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish, inson kapitalini rivojlantirish va yashil investitsiyalar mexanizmlarini kengaytirish ustuvor vazifalar sifatida belgilanadi.

Mintaqaviy turizmda ushbu tamoyillarni amalga oshirish yo‘nalishlarini tizimlashtirish va ularning iqtisodiy hamda ekologik samaradorlik darajasini baholash maqsadida quyidagi jadval ishlab chiqildi. Unda yashil iqtisodiyot prinsiplarini turizm sohasiga tatbiq etishning asosiy yo‘nalishlari, amalga oshirish mazmuni, kutilayotgan natijalar va ilmiy-amaliy ahamiyati yoritilgan.

1-jadval.

Mintaqaviy turizmda yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish yo‘nalishlari va ularning ta’sir samarasi

№	Yo‘nalish nomi	Amalga oshirish mazmuni	Kutilayotgan natija	Ilmiy-amaliy ahamiyati
1	**Energiya tejamkor texnologiyalar**	Turizm infratuzilmasida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish	Turizm ob’ektlarining energiya sarfini kamaytirish, ekologik barqarorlikni ta’minlash	Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va zararli holatlarni qisqartirishga xizmat qiladi
2	**Ekologik toza infratuzilma**	Mehmonxona, transport va xizmat ko‘rsatish tarmoq-larida chiqindisiz va qayta ishlovchi texnologiyalar qo‘llash	Ifloslanish darajasini kamaytirish va hudud ekologik xolatini yaxshilash	Turizm faoliyatining ekologik zararini kamaytiradi, jozibador muhit yaratadi
3	**Axborot-kommunikatsiya yechimlari**	Geoaxborot tizimlari va raqamli boshqaruv platformalarini joriy	Turistik resurslarni samarali boshqarish va monitoring qilish	Yashil boshqaruvning innovatsion modelini

		etish		yaratadi
4	**Yashil investitsiyalar**	Davlat-xususiy sheriklik asosida ekoloyihalarni moliyalashtirish	Turizm infratuzilmasiga investitsiyaviy oqimlarni jalb etish	Mintaqaviy iqtisodiyotda investitsiyaviy faollikni oshiradi
5	**Inson kapitali rivoji**	Turizm sohasida ekologik bilim va yashil kompetensiya-larga ega kadrlar tayyorlash	Barqaror turizm madaniyatini shakllantirish	Turizmning inson omili orqali barqaror rivojlanishini ta’minlaydi

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, mintaqaviy turizm sohasida yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish ko‘p qirrali va tizimli yondashuvni talab qiladi. Xususan:

birinchidan, energiya tejamkor va ekologik toza texnologiyalarni amalga oshirish orqali turistik infratuzilmaning ekologik zararini kamaytirish mumkin. Bu nafaqat atrof-muhit muhofazasini ta’minlaydi, balki iqtisodiy barqarorlikni ham mustahkamlaydi;

ikkinchidan, axborot-kommunikatsiya yechimlari – turizmda raqamli boshqaruv va geoaxborot tizimlarini qo‘llash orqali resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi. Bu esa hududiy turizm siyosatini ilmiy asoslangan qarorlar orqali optimallashtirishga zamin yaratadi;

uchinchidan, yashil investitsiyalar va inson kapitali rivoji barqaror rivojlanishning asosiy drayverlari hisoblanadi. Turizm sohasidagi investitsion muhitni ekoloyihalarga yo‘naltirish, mahalliy aholi va kadrlar o‘rtasida ekologik bilimlarni chuqurlashtirish barqaror turizm madaniyatini shakllantiradi.

Shunday qilib, mintaqaviy turizmda yashil iqtisodiyot tamoyillarini amalga oshirish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki hududning ekologik barqarorligi, ijtimoiy farovonlik va xalqaro turistik imijini mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdukhamidov, S. A. "DISTINCTIVE FEATURES OF REGIONAL TOURISM DEVELOPMENT." Theoretical & Applied Science 4 (2019): 337-341.

2. Boltabayev, M. R., et al. "Turizm: nazariya va amaliyot: darslik." Toshkent: Fan va texnologiya (2018).

3. Mamatkulov, X. M., & Abdukhamidov, S. A. (2020). Tourism infrastructure. Education manual. S.: SamISI.

4. Abduhamidov, A. S., & Dustova, M. K. (2022). Turizm sohasini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari. Builders of the future, 2(2), 282-287.

5. Makhmadieva, C., Turdibekov, K., Amiriddinova, M., Toyirova, S., Yuldosheva, L., Mahmudova, Z., … Sobirov, B. (2025). The impact of distance on

willingness to eat out: evidence from Samarkand, Uzbekistan. Jurnal Ilmiah Ilmu Terapan Universitas Jambi, 9(4), 1391–1402.

6. Иванова Н.И., Левченко Л.В. «Зеленая» экономика: сущность, принципы и перспективы // Вестник Омского университета. Серия «Экономика». 2017. № 2 (58). С. 19–28.

7. Мишулина С.И. Факторы развития «зеленого» туризма // Современные проблемы сервиса и туризма. 2017. Том 11. № 4. С. 27–37.

8. Порфирьев Б. «Зеленая» экономика: реалии, перспективы и пределы роста // Фонд Карнеги за международный мир. URL: http://carnegieendowment.org/fi les/WP_Porfi riev_ web.pdf.

Sobirov I.X. – ***Sam DAQU, "Iqtisodiyot" kafedrasi dotsenti, if.n.***
Xomidova Muborak - ***Sam DAQU, magistrant.***

KO'CHMAS MULKNI BOZOR QIYMATIDA BAHOLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat byudjeti daromadlari bazasini kengaytirishda ko'chmas mulklarning iqtisodiy axamiyati, ko'chmas mulkka soliq solish mulkning rakobatbardoshligini oshirib, soliq solish bazasini belgilashdagi mukim o'ringa ega ekanligi xaqidagi qarashlar taxliliy asoslanib, tegishli tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit suzlar: mahalliy soliq, mulkning bozor qiymati, ko'chmas mulk, kadastr qiymati, shaxsiy kartochka, soliq elementlari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60 sonli Farmoniga asosan maxalliy byudjetlar daromadlari bazasini kengaytirish masalalari yoritib berilgan asosiy xujjatlardan biri xisoblanadi .

Unda quyida keltirilgan dolzarb yunalishidagi masalalarni xal etish belgilab berilgan.

- xarajatlarning ijtimoiy yo'naltirilganini saqlab qolgan holda Davlat byudjetining barcha darajalarida mutanosiblikni ta'minlash, maxalliy byudjetlarning daromad kismini mustaxkamlashga qaratilgan byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish;
- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish, xalqning turmush darajasi va daromadlarini oshirish uchun xar bir xududning tabiiy, mineral- xomashyo, sanoat, kishlok xo'jaligi, turistik va mexnat salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni ta'minlash;

Ushbu vazifalarni amalga oshirilishi natijasida tarmoqlar va mintaqalarni barqaror rivojlanishi ta'minlanib maxalliy byudjetlarning daromad manbai oshadi.

O'zbekistan Respublikasi Prezidenta SH.M.Mirziyoevning 2018 yil 29 iyunda «O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish

konsepsiyasi tug‘risida» PF-5468-sonli Farmonini imzolab, unda soliq sohasi oldida turgan bir qator dolzarb muammolarni sanab o‘tildi.

Ushbu farmonga asosan quyidagilar O‘zbekistan Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasining asosiy yunalishlaridan biri etib belgilandi:

- soliqlarni unifikatsiya kilish orqali ularning sonini optimallashtirish, shuningdek, o‘xshash soliq solish bazasiga ega bulgan soliqlarni birlashtirish, soliq xisobotlarini qisqartirish va soddalashtirish, operatsion xarajatlarni minimallashtirish belgilab qo‘yildi.

Ko‘chmas mulkni tasarruf etish va undan oqilona foydalanish ko‘chmas mulklarning iqtisodiy ahamiyatini belgilab beradi.

Mahalliy byudjet daromadlari bazasini tashkil etishda ko‘chmas mulklarning iqtisodiy axamiyati yuqori bo‘lib, daromad manbaidan biri hisoblanadi.

Darhaqiqat Maxalliy soliq va yig‘imlarning ma’muriyatchiligi mexanizmlarining samarasizligi oqibatida ularning yig‘iluvchanlik darajasi etarli emasligi bu sohada tegishli chora-tadbirlarini amalga oshirish, bunda ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish xamda keng qo‘llash orqali ushbu masalaga tizimli yondashish kerakligini taqozo etadi.

Xozirgi davrda soliq siyosatining ustuvor yunalishlari sifatida byudjet daromadlarini oshirish, soliqka tortish ma’muriyatchiligini takomillashtirish orkali maxalliy byudjet daromadlari bazasini kengaytirish, soliqlarni unifikatsiya kilish karaladi.

Mol-mulk va er soliqlar davlat byudjetining asosiy qismini tashkil etmasada birok davlat byudjetini shakllantirishda o‘zining o‘rniga ega. Er va mol - mulkni soliqka tortish tizimi azaldan mavjud bo‘lib iqtisodiy soxa olimlari uni soliqka tortish buyicha turli xil qarashlarini ifoda etib kelganlar.

O‘zbek olimlaridan Niyazmetov Islambek Masharipovich xam bu borada fikr yuritib mol-mulk solig‘i ob’ekti tarkibida fakat ko‘chmas mulk ob’ektlarini koldirib, uni er solig‘i bilan birlashtirib yuridik va jismoniy shaxslar uchun bir xil tartibda amal kiladigan ko‘chmas mulk solig‘iga boskichma-boskich o‘tish taklifini ilgari surgan. Biz xam yuqoridagi aytilgan fikrga qo‘shilgan xolda ko‘chmas mulk solig‘ini boskichma-boskich joriy etish, yuridik shaxslar uchun mol-mulk solig‘ini belgilashda o‘rtacha yillik qoldiq qiymat, jismoniy shaxslar uchun kadastr yoki (bozor) narxiga yakin narxda belgilash tizimini rivojlantirish lozimligini ta’kidlamokchimiz.

Fikrimizcha ko‘chmas mulk solig‘ini joriy etish negizida davlat va xududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, er va mulk resurslaridan

samarali foydalanish, aholining mulkka bo‘lgan xukuklarini yanada mustaxkamlash darajasi yotadi.

YUkoridagilardan kelib chikib resurs xamda mulkni soliqqa tortish tizimini bozor iktisodiyoti talablari asosida shakllantirish zarurdir. Davlatning soliq siyosatini to‘g‘ri belgilashi ko‘chmas mulkdan okilona foydalanishni ta’minlaydi.

Bugungi kunda ko‘chmas mulkka soliq solish dunyoning 100 dan ziyod mamlakatlariga amal kiladi. Ba’zi mamlakatlarga mulkka nisbatan soliq mavjud emas. Jumladan Estoniyada ko‘chmas mulk soliqa tortilmaydi. Slovakiya va

SHvetsiya xam shular qatorida. Xar bir davlatda mulk solig‘ining o‘ziga xos tizmim mavjud. Jaxon amaliyotida ko‘chmas mulk uchun soliq er va uning ustida kurilgan bino, yashash yoki tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun muljallangan inshootlar uchun undiriladi.

Ba’zi mamlakatlarda mol-mulk va er solig‘i o‘rniga ikkovini ko‘shgan xolda ko‘chmas mulk solig‘i joriy etilgan. (AK,SH, Italiya, Ispaniya, YAponiya).

Ko‘chmas mulkni soliqqa tortishdan maqsad



Sungi yillarda soliq tizimini islox kilish maksadida Jaxon banki, Xalkaro valyuta fondi mutaxassislari jalb kilinib ularning tegishli takliflar urganib chikilib amaliyotga joriy etilmokda.

2018 yilning 1 yanvariga kadar bino va inshootlarning inventar narxida belgilash tizimi amaliyotda edi.

1-jadval

Ko‘chmas mulkka nisbatan soliq xisoblash uchun shartli belgilangan qiymatlar

(mln.sum.)

№	Yillar	Viloyat markazlari va Toshkent shaxri uchun	boshqa shaxarlar va qishloq joylarda	Izox
1	2016	20,328	8,833	inventar baxosi mavjud bulmaganda shartli
2	2017	20,328	8,833	inventar baxosi mavjud bulmaganda shartli qiymat
3	2018	210,0	90,0	kadastr qiymati mavjud bulmaganda shartli qiymat
4	2019	210,0	90,0	kadastr qiymati mavjud bulmaganda shartli qiymat
5	2020	210,0	84,0	kadastr qiymati mavjud bulmaganda shartli qiymat

2018 yilning 1 yanvaridan boshlab soliq solish maksadida ko‘chmas mulk ob’ektlari qiymatini kadastr baxolarida belgilash tizimi joriy kilindi. Buning natijasida byudjet tushumlarida mulk solig‘ining ulushi sezilarli darajada oshdi. 2020 yilda mol-mulkning shartli qiymati uchun baza kirk ikki million sum kilib belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi SH.M.Mirziyoev 2018 yil 29 iyunda «O‘zbekiston Respublikasining soliq, siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi tug‘risida»gi PF-5468-sonli Farmonida ko‘rsatib o‘tilgan ettinchi tizimli muammo «**Maxalliy soliq va yig‘imlarning ma’muriyatchiligi mexanizmlarining samarasizligi oqibatida ularning yig‘iluvchanlik darajasi etarli emasligi, shuningdek, ko‘chmas mulk va er uchastkalarini to‘liq xisobga olish va qiymatini ob’ektiv aniqlashning imkoni mavjud emas»** ligi xisoblanadi.

Shuningdek soliq xizmati organlari bilan kadastr tashkiloti ma’lumotlar bazasining o‘zaro tuliq integratsiyalashmaganligi oqibatida soliq tulovchilarning ma’lumotlarida nomuvofiklik yuzaga kelmokda. Kadastr dasturlarida quyidagi kamchiliklar ko‘rinmokda:

- Kadastr raqami berilgan ob’ektning egasi bilan xaqiqatdagi egasining boshqaligi. Kadastr raqami terilganda mulk egasi boshka shaxs bo‘lib chiqadi.
- Bitta mulk egasining nomiga bir nechta kadastr raqamlari biriktirilgan.
- Kadastr tashkiloti dasturga ob’ekt kiritganda bu ob’ekt soliq organi bazasiga ma’lumot kiritilgan kunning o‘zida ko‘rinmaydi. Soliq organi dasturiga ko‘rinishi uchun 1-3 kun o‘tishi kerak. Soliq to‘lovchini kadastr tashkiloti kadastr bazasiga kiritgach soliq to‘lashga kelganda soliq to‘lash imkoni mavjud emas. Sababi soliq to‘lovchi soliq organining bazasiga ko‘rinmaydi. Soliq to‘lovchi 3 kundan so‘ng qaytib kelishi lozim.

Kadastr tashkiloti dasturining to‘g‘ri shakllantirilmaganligi soliq undirishda noqulayliklarni, soliq to‘lovchilar soni va bazasini aniqlash imkoniyati murakkablashtirmoqda. Fukarolar soliq to‘lash uchun ko‘p vakt sarflamokda. Bu xalqaro soliq to‘lash uchun ketadigan vaqt me’yoridan juda yuqori.

2-jadval

Ko‘chmas mulk solig‘ining elementlari

№	Soliq elementlari	Izox
1	Soliq tulovchilari	Ko‘chmas mulk egalari va ijarachilar
2	Soliq ob’ekti	Er va mulklar (er ustidagi bino, inshoot va boshkalar)
3	Soliq bazasi	Bozor qiymati yoki baxolash organlari tomonidan bozor yakinlashtirilgan baxolangan qiymat
4	Ko‘chmas mulk qiymatini aniklash	Daromad usuli, xarajat usuli, taqqoslash usuli
5	Ko‘chmas mulkni baxolovchi organlar	Soliq organlari, baxolash organlari
6	Soliq stavkasi	Kat’iy va foizlarda
7	Imtiyoz	Ijtimoiy katlam doirasidagi axoliga beriladi.
8	Soliq turi	Maxalliy

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, soliqka tortish maksadida ko‘chmas mulkni qiymatini bozor baxolarida belgilanishi asosiy soliq bazasi xisoblanadi.

Ko‘chmas mulkni kadastr yoki bozor narxiga yaqin kilib belgilanishi mulkning raqobatbardoshligini oshirib, mulk egasining xuquqlarini himoya qilishga xizmat qiladi. Ko‘chmas mulk qiymatini aniqlash usullarining turli xilligi ikkala tomonning o‘zaro manfaatlariga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 -2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60 sonli Farmoniga asosan **«Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari»** degan tamoyil asosida islohotlarning uzviyligi va davomiyligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilgan. Jumladan, Harakatlar strategiyasi har bir sohada ulkan islohotlarni amalga oshirish bilan boshlangan bo‘lsa, Taraqqiyot strategiyasida esa mazkur islohotlar uzviyligi ta’minlangani holda davom ettiriladi, to‘plangan katta tajriba va imkoniyatlar asosida islohotlar yanada qat’iylik va jadallik bilan takomillashtirilib boriladi. Bunda natijadorlik koeffitsienti ortib, olib boriladigan islohotlarning samaradorligi ortadi.

Xususiy mulk daxlsizligi va himoyasi kafolatlarini kuchaytirish, mulkiy, shu jumladan er uchastkasiga bo‘lgan huquqlarni so‘zsiz ta’minlash borasida aloxida maqsadlar belgilab olingan.

Xozirgi kunda jismoniy shaxslar egaligidagi mol-mulk va er soliqlarini xisobga olishda, belgilangan tartibda soliqlar xisoblanishida, imtiyozlar kullashda va boshka bir kator soliq elementlarini xisobga olishda takrorlanishlar va er solig‘i xisoblashning murakkabligi mavjudligi soliq tulovchilar uchun kiyinchilik va muammolarnit tug‘dirmokda.

Jumladan:

> Bir ob’ekt uchun ikkita shaxsiy kartochka yuritiladi;

> Bir ob’ekt uchun ikkita xisob rakamga tulovlar amalga oshiriladi;

> Soliq to‘lovchilar bitta ob’ekt uchun ikkita xisob raqamga to‘lovlarni to‘lashlari lozim.

Yukoridagilardan kelib chiqib quyidagilarni taklif kilamiz:

1. Rivojlanshgan davlatlar tajribasidan kelib chikib, mol-mulk va er soliqlarini birlashtirib ko‘chmas mulk solig‘ini joriy etish.

Buning natijasida soliqni xisoblab chikarish mexanizmi soddalashadi, adolatlilik, shaffoflik prinsipi ta’minlanadi. Soliqni xisobini yuritish, to‘lash jarayoni soddalashib uning xarajatlari kamayadi.

2. Dasturiy maxsulotda ishlash tezligi oshadi.

3. Jismoniy shaxslarga tegishli bulgan 7 mln dan ortik shaxsiy kartochka kamayadi.

4. Jismoniy shaxslarga tegishli bulgan mol-mulk yoki er solig‘idan karzdorlik mavjud ortiqcha to‘lovlar xisobidan kamayadi.

5. Soliqni to‘lash mexanizmi soddalashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60 sonli Farmoni.

2. Sobirov, IIxom, and Abdukxolik Abdukarimov. "DIGITALIZATION AND INNOVATIVE DEVELOPMENT STRATEGY OF THE CONSTRUCTION INDUSTRY IN UZBEKISTAN." *Mejdunarodnыy multidissiplinarnыy jurnal issledovaniy i razrabotok* 1.3 (2025): 165-167.

3. Sobirov, IIxom, and Akmalkxon Nuriddinov. "IMPROVING USE OF REMOTE BANKING SERVICES IN UZBEKISTAN." *Mejdunarodnыy multidissiplinarnыy jurnal issledovaniy i razrabotok* 1.3 (2025): 168-169.

Собиров Илхом Хусанович - доцент кафедры «Экономика» *СамГАСУ*
Джураева Махзуна -*преподаватель СамГАСУ*

ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИИ В СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация: в статье показаны проблемы применение инновационных технологии в строительной отрасли Узбекистана, а также предложены конкретные рекомендации.

Ключевые слова: инновационные технологии, строительная отрасль, устойчивое развитие, жилищное строительство, комплексная жилая застройка, факторы ограничения, высокие издержки, недостаток финансов, мелкие фирмы, сертификация продуктов, информационный доступ, экспертиза проектов, государственные программы, экспертный анализ, информационное обеспечение, повышение квалификации, инновационный менеджмент

Реализация инновационных идей в строительном производстве значительно повышает эффективность функционирования строительных организаций благодаря получению ими серьезных конкурентных преимуществ, связанных с возрастающим спросом на инновационную продукцию на большинстве рынков сбыта продукции. Динамизм и глубина изменений, происходящих в экономике в последнее время, требуют анализа и переосмысления многих фундаментальных и прикладных проблем управления, к числу которых относятся и проблемы управления инновационным развитием в строительной отрасли. Экологические и социальные проблемы в ближайшие десятилетия требуют устойчивого и эффективного развития строительных концепций. Строительная отрасль, в связи с резко изменяющимися событиями на рынках, всегда сталкиваются с тем, что принимать решения требуется быстро.

В строительном комплексе Узбекистана сложилась к настоящему времени в целом благополучная ситуация с массой тактических и стратегических задач, которые направляют экономические и социальные характеристики инвестиционного и инновационного развития Узбекистана на курс устойчивого

инвестиционного развития. Однако очевидный резонанс международного финансового кризиса во время пандемии приводит к необходимости рассмотрения того, способен ли современный рыночный механизм создать условия для текущего сохранения позиций и экономического роста отраслевого комплекса, полного использования всех имеющихся у него инвестиционных и инновационных ресурсов для удовлетворения основных потребностей, а также в какой мере необходимо при этом государственное вмешательство.

Для успешного внедрения инновационных технологий в строительство необходимо анализировать большое количество данных со всех стран мира и отслеживать формы, методы и технологии, в том числе и в смежных отраслях, – которые наиболее способствуют инновациям. Стимулом к внедрению инноваций в проектировании и строительстве являются социальные нужды, а движущими силами внедрения инноваций - научные изыскания и совершенствование нормативных требований, что приводит к структурным изменениям на предприятиях и рынке строительного проектирования и строительства в целом.

Анализ современных тенденций развития жилищного строительства в Узбекистане показывает, что одной из таких точек роста может стать комплексная жилая застройка, освоение и развитие территорий, которая является местом притяжения и интеграции инновационных решений, генератором спроса на новые разработки и технологии, материалы, методы управления. Повсеместное внедрение технологических инноваций в строительстве ограничивается следующими факторами:

- высокие издержки ввода в эксплуатацию объектов;
- недоверие к инновациям со стороны покупателей;
- недостаток финансовых ресурсов, выделяемых на инновационные исследования;
- преобладание на рынке мелких фирм, не обладающих достаточными ресурсами для внедрения инноваций в свою деятельность;
-циклический характер строительства и особенности климатических условий;
- низкая степень интеграции в строительной сфере, провоцирующая устойчивую зависимость от субподрядчиков;
- отсутствие унифицированной системы апробации и сертификации новых продуктов;
- отсутствие неограниченного доступа к информации о новых продуктах;
- недостаточность налаженных связей, обмена опытом между научно-исследовательскими центрами и строительными предприятиями;

В целях реализации Стратегии инновационного развития строительной отрасли Узбекистана до 2025 года предприятиям строительного комплекса необходимо:

- создание банка научно- инновационных предложений и системы передачи инновационных проектов для их использования – создание

информационной базы, необходимой для проведения научных разработок и проектов;

- активизация научно- технического потенциала путем привлечения к этому процессу ученых, научно- технических работников, научных организаций и промышленных предприятий и организация сотрудничества в рамках комитетов (независимая экспертиза);

- анализ и отбор инновационных проектов, оценка инновационных предложений, маркетинг соответствующих продуктов, поиск партнеров и источников финансирования, содействие в страховании проектов;

- объединение потенциала разработчиков и интеграторов инновационных технологий для систематизации опыта применения и широкого освещения наиболее прогрессивных и востребованных решений в строительстве;

- участие в разработке и реализации государственных, отраслевых, региональных и международных научно-технических программ и проектов, выполнение научно-исследовательских и опытно-конструкторских работ, выпуск наукоемкой и высокотехнологичной продукции.

Основные задачи в сфере экспертного анализа инновационных технологий в строительстве необходимо решать посредством определения критериев инноваций, через научно-техническую и экономическую экспертизу, отбор новейших научных исследований и разработок в области строительства, реконструкции, капитального ремонта зданий и сооружений с целью их дальнейшего развития в строительной отрасли.

Также необходимо доведение инновационных технологий в строительстве до конечного потребителя, в том числе:

- путем ускорения процесса их освоения в производстве;

-информационное обеспечение инновационной деятельности с использованием информационных технологий;

-обмен опытом, объективная оценка предоставляемых решений и содействие дальнейшей модернизации строительного комплекса;

-подготовка статейного материала, структурированных каталогов и специальной методической литературы;

- оказание содействия в организации встреч деловых кругов, семинаров по обмену опытом и повышению квалификации руководителей и специалистов в сфере научно-технических инноваций и высоких технологий, обучение инновационному менеджменту, маркетингу наукоемкой продукции, организации ее производства.

Основным фактором повышения конкурентоспособности экономики в современных условиях является инновационная деятельность. Переход экономики на инновационный путь развития выступает определяющим фактором дальнейшего роста уровня жизни населения.

При введении инновационных технологий в строительстве необходимо учитывать особенности, характеризующие эту сферу как наиболее консервативную, исследуя факторы, тормозящие внедрение инноваций, а также поддерживать и развивать инновационный потенциал предприятия. В настоящее время вложение инвестиций во внедрение

инновационных технологий позволит предприятию обрести весомое конкурентное преимущество.

Литература:

1.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022 -2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60 сонли Фармони.

2. Собиров, И. Х., and М. Джураева. "Совершенствование венчурного финансирования инновационной деятельности предприятий." Проблемы устойчивости развития социально-экономических систем. 2022.

Mamatkulova Nodira Maxkamovna - *Toshkent arxitektura-qurilish universiteti dotsenti*

O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISHDAGI INVESTITSION JOZIBADORLIK

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekistonning yashil iqtisodiyot sohasida xorijiy investorlar uchun investitsion jozibadorligini belgilaydigan omillar ko‘rib chiqilgan. Institutsional va iqtisodiy sharoitlar, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini, energiya samaradorligini va barqaror rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan davlat siyosati tahlil qilingan. Xalqaro tashkilotlar va moliyaviy institutlarning roliga alohida e’tibor qaratilgan. Xulosa qismida mazkur sohada investitsiya muhitini mustahkamlash bo‘yicha ilmiy-nazariy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, xorijiy investitsiyalar, investitsion jozibadorlik, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, barqaror rivojlanish, quyosh energetikasi, shamol energetikasi, gidroenergetika, biogaz texnologiyalari, ekologik xavfsizlik, resurslardan oqilona foydalanish, davlat-xususiy sheriklik, investitsiya muhiti, soliq va bojxona imtiyozlari, yashil obligatsiyalar, yashil moliya, xalqaro moliya institutlari, investitsiya siyosati, energetik samaradorlik, atrof-muhit muhofazasi, iqlim o‘zgarishi, ekologik innovatsiyalar, ekologik texnologiyalar.

Zamonaviy global chaqiriqlar - iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi va atrof-muhit ifloslanishining o‘sishi — yangi iqtisodiy o‘sish modellari izlanishini talab etmoqda. Shu kabi modellardan biri yashil iqtisodiyot bo‘lib, u barqaror rivojlanish, resurslardan oqilona foydalanish va ekologik toza texnologiyalarni joriy etishni nazarda tutadi.

BMT Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs) va Parij kelishuvi dunyo miqyosida yashil energetika va barqaror rivojlanishni jadallashtirmoqda. OECD va UNCTAD ma’lumotlariga ko‘ra, so‘nggi yillarda “yashil” loyihalarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi barqaror ravishda oshib bormoqda. O‘zbekiston uchun, tabiiy-resurs salohiyati yuqori bo‘lsa-da, bir vaqtning o‘zida jiddiy ekologik muammolar (Orolbo‘yi inqirozi, energiya iste’molining yuqoriligi, suv tanqisligi)ga

duch kelayotgan sharoitda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish strategik ustuvor vazifa hisoblanadi. Shu holatda xorijiy investitsiyalarni jalb etish katta ahamiyat kasb etadi, chunki ular orqali kapital, texnologiya va zamonaviy boshqaruv amaliyotiga yechim topiladi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston yashil loyihalarni qo‘llab-quvvatlash uchun huquqiy bazani faol shakllantirmoqda. 2019–2030 yillarga mo‘ljallangan “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi qabul qilingan bo‘lib, u YAIMning energiya sig‘imini pasaytirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ko‘zda tutadi.

Xorijiy investorlar uchun qayta tiklanuvchi energiya manbalari sohasida soliq va bojxona imtiyozlari yaratilgan, 2019 yilda qabul qilingan “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun investorlar huquqlarini himoya qilish kafolatlarini nazarda tutadi.

O‘zbekiston katta quyosh energiyasi salohiyatiga (yilning 300 dan ortiq quyoshli kuni) ega bo‘lib, shuningdek shamol energetikasi, gidroenergetika va biogaz quvvatlarini rivojlantirish imkoniyatlari mavjud. Bunday salohiyat mamlakatni uzoq muddatli ekologik jihatdan barqaror loyihalarga yo‘naltirilgan investorlar uchun jozibador qiladi.

So‘nggi yillarda mamlakatda YAIM o‘sishi, valyutani liberallashtirish siyosati va jahon iqtisodiyotiga integratsiya jarayonlari faol kechmoqda. O‘zbekiston Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan hamkorlik qilib, quyosh va shamol energetikasida bir qator yashil loyihalar moliyalashtirildi.

Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari O‘zbekistonda faol rivojlanmoqda. Xususan, Navoiy, Samarqand va Jizzax viloyatlarida xorijiy kompaniyalar (“Masdar”, “Total Eren”, “ACWA Power”) ishtirokida quyosh elektr stansiyalari qurilishi amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston uchun yashil iqtisodiyot global tendensiyalar fonida katta imkoniyatlar yaratmoqda. Mamlakat Markaziy Osiyo mintaqasida strategik geografik joylashuvi bilan ajralib turadi. Quyosh energiyasi, shamol resurslari, gidroenergetika va biogaz ishlab chiqarish salohiyati xorijiy investorlar uchun keng istiqbollarni ochib beradi. Masalan, yiliga 300 dan ortiq quyoshli kun qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanish imkonini beradi. Shu bilan birga, davlat tomonidan 2019–2030 yillarga mo‘ljallangan “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” qabul qilingani va xorijiy investorlar uchun soliq hamda bojxona imtiyozlari taqdim etilayotgani investitsion muhitning barqarorligini kuchaytirmoqda.

Xorijiy investorlar uchun eng muhim omillardan biri huquqiy kafolatlar va barqaror tartibga solish tizimidir. 2019 yilda qabul qilingan “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun, xalqaro arbitraj mexanizmlaridan foydalanish imkoniyati, davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalar O‘zbekistonni yanada jozibador qiladi. Bunga qo‘shimcha ravishda, moliyaviy rag‘batlantirish vositalari, jumladan, yashil obligatsiyalar chiqarilishi va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan moliyalashtirish mexanizmlari investorlarga qo‘shimcha ishonch beradi. Masdar, ACWA Power, Total Eren kabi kompaniyalar bilan yirik quyosh va shamol elektr stansiyalari qurilishida olib borilayotgan

hamkorlik O‘zbekistonning yashil energetika bozorida xalqaro miqyosda tanilayotganini ko‘rsatmoqda.

Shu bilan birga, ayrim muammolar ham mavjud. Yashil moliya instrumentlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi, qayta tiklanuvchi energetika loyihalarining yuqori boshlang‘ich xarajatlari, malakali kadrlar tanqisligi va ba’zi byurokratik to‘siqlar investorlarning qarorlariga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Yuqoridagi omillardan kelib chiqib, xorijiy investitsiyalarni jalb etishning istiqbolli yo‘nalishlari quyidagilar hisoblanadi:

- quyosh va shamol energetikasini rivojlantirish;
- sanoat va qurilishda energiya samaradorligi texnologiyalarini joriy etish;
- chiqindilarni qayta ishlash va resurslarni ikkinchi bor ishlatish loyihalari;
- barqaror qishloq xo‘jaligi va “yashil” sug‘orish texnologiyalari;
- kam chiqindili transport infratuzilmasi (elektrobuslar, metro, temiryo‘l loyihalari).

O‘zbekiston yashil iqtisodiyotda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun katta salohiyatga ega, ammo bu salohiyatni to‘liq ochish uchun investitsiya muhitini yanada takomillashtirish zarur.

Xorijiy investorlar nigohida O‘zbekistonning yashil iqtisodiyoti jozibadorligi haqida gapirganda, avvalo, bugungi global jarayonlarga e’tibor qaratish zarur. Iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi va ekologik muammolar natijasida dunyo iqtisodiyoti yangi model – barqaror va ekologik xavfsiz rivojlanishga o‘tmoqda. Shu nuqtayi nazardan, yashil iqtisodiyot nafaqat milliy rivojlanishning muhim yo‘nalishi, balki xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda ham strategik omil hisoblanadi.

Ilmiy-nazariy taklif va tavsiyalar:

1. Milliy “yashil” moliyaviy instrumentlar tizimini ishlab chiqish (obligatsiyalar, fondlar, imtiyozli kreditlar).
2. Xorijiy investorlar uchun huquqiy kafolatlarni kuchaytirish, shu jumladan xalqaro arbitraj mexanizmlarini joriy etish.
3. Soliq imtiyozlari berilgan maxsus “yashil texnologiyalar” industrial zonalarini yaratish.
4. Yashil energetika va ekologik innovatsiyalar sohasida kadrlar tayyorlashni kuchaytirish.
5. Xorijiy investorlar ishonchini mustahkamlash uchun xalqaro hamkorlik va global iqlim tashabbuslarida faol ishtirok etish.

Ushbu choralarni amalga oshirish nafaqat xorijiy kapital oqimini ko‘paytirish, balki iqtisodiyotning ekologik jihatdan xavfsiz rivojlanish modeliga barqaror o‘tishni ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni, 25.12.2019 y., № ZRU-598.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining ‘yashil’ iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini 2019–2030 yillar davrida tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori, 04.10.2019 y., № PP-4477.

3. Asian Development Bank. Uzbekistan: Energy Sector Assessment, Strategy, and Road Map. – Manila: ADB, 2021.

4. World Bank. Uzbekistan Green Growth Assessment. – Washington, DC: World Bank, 2023.

5. EBRD. Green Economy Transition Approach 2021–2025. – London: EBRD, 2021.

6. OECD. Foreign Direct Investment in the Green Economy. – Paris: OECD Publishing, 2022.

7. United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD). World Investment Report 2024. – Geneva: UNCTAD, 2024.

Muradova N.U - *Toshkent xalqaro kimyo universiteti Samarqand filiali Iqtisodiyot" kafedrasi dotsenti.*
Abdullaev X.A - *Toshkent xalqaro kimyo universiteti Samarqand filiali magistri.*

REAL SEKTOR KORXONALAR FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH CHORA TADBIRLARI

Annotatsiya. **Maqolada real sektor korxonalarini moliyalashtirishning iqtisodiyotdagi o‘rni, ularning faoliyatini qo‘llab-quvvatlash orqali mamlakat iqtisodiy o‘sishiga va barqaror rivojlanishiga ta’siri tahlil qilingan. Shuningdek, moliyalashtirishning bandlik, ichki bozor, eksport salohiyati va innovatsion rivojlanishga ijobiy ta’siri ilmiy asosda yoritib berilgan.**

Kalit so‘zlar: real sektor, moliyalashtirish, ishlab chiqarish, eksport, innovatsiya, bandlik, iqtisodiy o‘sish.

Bugungi globallashuv va raqobat muhitida real sektor korxonalarining samarali faoliyat yuritishi va iqtisodiyotdagi yetakchi o‘rni ularni moliyaviy resurslar bilan yetarli ta’minlashga bevosita bog‘liqdir. Moliyalashtirish jarayonlari real sektorning barqaror rivojlanishida hal qiluvchi omil bo‘lib, mamlakat iqtisodiy salohiyatini oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va eksport salohiyatini kengaytirishda muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlarning tub maqsadi mamlakat iqtisodiyotini barqaror va jadal rivojlantirish evaziga aholining turmush darajasini oshirish, ularga munosib hayot darajasini yaratishga qaratilgan. Ushbu maqsadni samarali amalga oshirishda mamlakat iqtisodiyotida mavjud har bir korxonaning barqaror ishlashiga bog‘liq.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini mutanosib rivojlantirish, uning samarali tarkibiy tuzilmasiga ega bo‘lish va shu orqali barqaror iqtisodiy o‘sish sur’atlariga erishish mamlaktimiz taraqqiyoti va xalq farovonligini ta’minlashning muhim shartlaridan hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishish uchun esa eng avvalo iqtisodiyotning real sektorini jadal rivojlantirish zarur bo‘ladi.

Iqtisodiyot real sektori korxonalarining kapitallashuv darajasini yanada oshirish va moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, nochor korxonalarini moliyaviy sog‘lomlashtirish va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish, iqtisodiyotni tarkibiy o‘zgartirish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlash jarayoniga investitsiyalar kiritish tijorat banklarining ustivor yo‘nalishidir. Investitsion mablag‘larning bazaviy tarmoqlarga izchil oqimi, aytish mumkinki, mamlakatimiz iqtisodiyotining o‘sish sur’atlarini prognoz qilingan ko‘rsatkichlarda bajarilishini ta’minlamoqda.

Real sektor iqtisodiyotning "harakatlantiruvchi kuchi" bo‘lib, aynan shu sohada ishlab chiqarish jarayoni amalga oshiriladi, moddiy boyliklar yaratiladi va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik ta’minlanadi. Real sektor korxonalarini yetarli moliyalashtirish quyidagi ijobiy natijalarga olib keladi:

-real sektor korxonalarida ishlab chiqarish hajmining oshishi, moliyaviy resurslarning mavjudligi korxonalarga ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, zamonaviy texnologiyalar va ilg‘or uskunalarni joriy etish imkonini yaratadi. Bu esa mahsulotlar hajmi va turlarining ko‘payishiga olib keladi;

-voliyalashtirilgan investitsiya loyihalari asosida yangi ishlab chiqarish maydonlari tashkil etiladi va buning natijasida bandlik darajasi ortadi. Bu ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, jumladan ishsizlik darajasining kamayishiga xizmat qiladi;

-mahalliy ishlab chiqaruvchilarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash orqali raqobatbardosh va sifatli mahsulotlar yaratish imkoniyati ortadi. Bu esa ichki bozorni to‘ldirish va importga bo‘lgan ehtiyojni kamaytirishga olib keladi;

-moliyaviy barqarorlik va ishlab chiqarish imkoniyatlarining kengayishi orqali korxonalar xalqaro bozorga chiqish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu mamlakatga xorijiy valyuta tushumlarini ko‘paytirish va tashqi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash imkonini beradi;

-moliyaviy resurslarning yetarliligi ilmiy-tadqiqot ishlari va yangi texnologiyalarni joriy etishga imkon beradi. Bu esa korxonalar faoliyatida innovatsion yondashuvni kuchaytiradi va ularni jahon bozorida raqobatbardosh qiladi;

-real sektor korxonalarining moliyalashtirilishi orqali mintaqaviy ishlab chiqarish infratuzilmasi rivojlanadi, hududlarda iqtisodiy faollik oshadi va mintaqalar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlar qisqaradi;

-korxonalarning moliyaviy barqarorligi natijasida ularning foydasi va soliqqa tortiladigan bazasi kengayadi. Bu esa davlat byudjetiga tushumlarni ko‘paytirib, ijtimoiy sohalarni moliyalashtirish imkoniyatini kengaytiradi.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o‘sishi iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida muhim ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Mazkur o‘sish, avvalo, turli iqtisodiy faoliyat turlari – konchilik, qayta ishlash, elektr energiyasi, gaz va suv ta’minoti hamda boshqa sanoat tarmoqlarida kuzatilayotgan ijobiy dinamikalarga bevosita bog‘liqdir.

1-jadval

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o‘sish dinamikasi[128]

№	Sohalar	Yillar			
		2021	**2022**	**2023**	**2024**
1	Sanoat mahsuloti	108,8	105,3	106,3	106,5
2	Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	110,8	101,9	99,5	103,9
3	Ishlab chiqarish sanoati	108,3	105,4	107,4	107
4	Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash	111,8	113,5	109,5	105,7
5	Suv bilan ta’minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish	85,8	94,7	103,2	112,1
6	Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	104,2	106	107	105,6
7	Ichimliklar ishlab chiqarish	118	115,7	106,4	96
8	Tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	91,4	124	100,5	121,8
9	To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	119,5	109,9	106,4	111,2
10	Kiyim ishlab chiqarish	118,7	105,8	112,7	107,1
11	Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	103,9	104,3	105,9	103,2
12	Qog‘oz va qog‘oz mahsulotlari ishlab chiqarish	115,4	114,6	110,3	121
13	Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	127,8	140,5	84,9	93,1
14	Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	71	104,2	127,3	106,4
15	Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	107	98,1	96,7	102,8
16	Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	144,5	89,9	102,5	97,2
17	Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	101,3	98,8	107,3	122,6
18	Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	108,6	96,8	112	118,6
19	Metallurgiya sanoati	108,1	104,4	106,6	106,4
20	Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	120,5	102,2	106,7	82,9
21	Kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	138,4	85,8	78,1	87,7
22	Elektr uskunalar ishlab chiqarish	93	106	116,1	99,8
23	Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	97	106	101,1	127,5
24	Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	94,8	137,8	119,9	102,4
25	Boshqa transport uskunalari ishlab chiqarish	108,8	105,4	99,3	126,1
26	Mebel ishlab chiqarish	114	101,8	103,2	128,1
27	Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	109,7	95,5	115,8	130,4
28	Mashina va uskunalarni ta’mirlash va o‘rnatish	122,3	101,4	114	146,1

[128] https://stat.uz/ - O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi sayti ma`lumotlari asosida.

So‘nggi to‘rt yillik davr mobaynida respublika sanoat tarmoqlarida ijobiy o‘sish tendensiyasi kuzatilmoqda. Umumiy sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2021 yilda 108,8 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2024 yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 106,5 foiz atrofida barqarorlashgan. Garchi yillar davomida ba’zi tarmoqlarda pasayish yoki sekinlashish holatlari kuzatilgan bo‘lsa-da, aksariyat sohalarda barqaror o‘sish davom etmoqda.

Real sektor korxonalarida o‘sish sur’atlari qayd etilgan xususan **mashina va uskunalarni ta’mirlash va o‘rnatish** sohasida 2024 yilda ishlab chiqarish hajmi 146,1 foizni tashkil etdi va bu barcha tarmoqlar ichida eng yuqori o‘sish sur’ati hisoblanadi. **Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish** (130,4 foiz), **mebel ishlab chiqarish** (128,1 foiz), **yog‘och va po‘kak buyumlar ishlab chiqarish** (128 foiz) sohalari ham jadal o‘sish ko‘rsatdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va **teri mahsulotlari ishlab chiqarish** sohalarida barqaror o‘sish kuzatilmoqda. **Tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish** 2022 yildagi keskin o‘sishdan so‘ng 2024 yilda yana yuqori o‘sish (121,8 foiz) bilan ajralib turdi. **Avtotransport vositalari ishlab chiqarish** 2022 yilda sezilarli ravishda (137,8 foiz) oshgan bo‘lsa-da, keyingi yillarda o‘sish sur’ati biroz pasaydi.

Shuningdek, barqaror o‘sayotgan sohalar sirasiga**, ishlab chiqarish sanoati** va **metallurgiya sanoati** har yili 105-107 foiz oralig‘ida o‘sib, iqtisodiyotning tayanch tarmoqlari sifatida o‘z pozitsiyasini mustahkamlab bormoqda. **Elektr, gaz va buh bilan ta’minlash** tarmog‘i yuqori o‘sish sur’atlarini namoyon etib, 2021-2024 yillar davomida barqaror rivojlananayotganligni ko‘rsatish mumkin.

Shu bilan birga pasayish va o‘zgaruvchanlik kuzatilgan sohalar kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish sohasida 2021 yildagi yuqori o‘sish sur’ati (138,4 foiz) 2023-2024 yillarga kelib sezilarli darajada pasaydi (78,1% va 87,7%). Bu sohada barqarorlikni ta’minlash dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Real sektor korxonalari tarkibida ijobiy rivojlanish cuv bilan ta’minlash va chiqindilarni yig‘ish tizimi yildan-yilga yaxshilanib, 2024 yilda ishlab chiqarish hajmi 112,1 foizga yetdi, bu ekologik infratuzilmalarga e’tibor oshayotganini ko‘rsatadi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, umumiy sanoat ishlab chiqarish hajmi barqaror o‘sib bormoqda, lekin ayrim tarmoqlarda pasayish yoki o‘sish sur’atlarining sekinlashuvi kuzatilmoqda. Yuqori o‘sish qayd etilgan tarmoqlarga yanada ko‘proq e’tibor qaratish, investitsiyalarni jalb qilish va raqobatbardoshlikni oshirish zarur. Shuningdek, kompyuter, elektronika, ichimliklar va metall buyumlar ishlab chiqarish tarmoqlarida barqarorlikni ta’minlash uchun qo‘shimcha choralar ko‘rish lozim.

Sanoat sohasida mahsulot ishlab chiqarish hajmining ortishi quyidagi omillar bilan izohlanadi:

-investitsiya hajmining oshishiga asosiy kapitalga yo‘naltirilayotgan sarmoyalar yangi texnologiyalar va zamonaviy uskunalar joriy etilishiga xizmat qilmoqda;

-ichki va tashqi talabning o‘sishiga mahalliy va eksport bozorlarida sanoat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojning ortishi ishlab chiqarish sur’atlarini tezlashtiradi;

-tarmoq diversifikatsiyasiga yangi yo‘nalishlar va yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlarni ishlab chiqarish ulushining ko‘payishi;

-davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash orqali soliq imtiyozlari, subsidiyalar va infratuzilma rivoji sanoat korxonalarining samaradorligini oshirmoqda.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi o‘sishining asosiy qismini qayta ishlash sanoati egallab, bu tarmoq iqtisodiyotning yuqori qo‘shilgan qiymat yaratuvchi eng muhim segmenti sifatida ajralib turmoqda. Shu bilan birga, energetika sohasida ham barqaror o‘sish kuzatilmoqda, bu esa ishlab chiqarish jarayonlarini uzluksiz energiya bilan ta’minlash imkonini bermoqda.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o‘sishi mamlakat iqtisodiyotida tarkibiy o‘zgarishlar va innovatsion rivojlanish jarayonlarining jadallashayotganini ko‘rsatadi.

Real sektor korxonalari faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha quyidagi takliflarni amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiqdir:

-real sektor korxonalarini amaldagi **moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirish zarur.** Imtiyozli kreditlar, subsidiyalar va investitsion grantlar ajratish orqali sanoat tarmoqlarini qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish, xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish uchun qulay sharoitlar yaratish, shu jumladan soddalashtirilgan soliq rejimlarini tatbiq etish lozim

-real sektor korxonalari faoliyatida texnologik modernizatsiyani jadallashtirish zarur. Past o‘sish yoki pasayish kuzatilayotgan tarmoqlarda (kompyuter va elektronika, ichimliklar, matbaa va metall buyumlari ishlab chiqarish) zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish bo‘yicha davlat dasturlarini ishlab chiqish lozim. Shu bilan birga texnologik yangilanishni qo‘llab-quvvatlash uchun ilg‘or texnika va uskunalarni import qilishda bojxona imtiyozlari taqdim etish zarur;

-real sektor korxonalarini innovatsion mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarga soliq yengilliklari va byudjetdan mablag‘ ajratishni kengaytirish, ilmiy-tadqiqot institutlari va ishlab chiqarish korxonalari o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish orqali innovatsion loyihalarga moliyaviy va infratuzilmaviy ko‘mak berish lozim;

-import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish bo‘yicha -sektorlararo kooperatsiyani kuchaytirish lozim;

-mahalliy ishlab chiqaruvchilarning ichki bozor ulushini oshirish uchun davlat xaridlarida mahalliy mahsulotlarga ustuvorlik berish zarur;

-real sektor korxonalarining sanoat tarmoqlari uchun eksport yo‘nalishlarida logistika xarajatlarini qisqartirish, yangi tashqi bozorlarni ochish bo‘yicha marketing va savdo missiyalarini faol tashkil etish. Ekport qiluvchi korxonalarni eksport oldi moliyalashtirish va eksport sug‘urtasi vositalari bilan ta’minlash lozim;

-past o‘sish sur’atlari kuzatilgan tarmoqlar bo‘yicha alohida choralar sifatida tashqi bozorlarda yangi savdo kanallarini rivojlantirish va ichki bozorda mahsulot diversifikatsiyasini kengaytirish lozim;

-mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun raqamli infratuzilma va texnoparklar tashkil etish, yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarishga davlat buyurtmalarini kengaytirish;

-raqamli bosma texnologiyalarni rivojlantirish va matbaa mahsulotlarini eksport qilish uchun yangi bozorlarni topish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘xati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF–60-sonli “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF–4947-sonli “Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni.
3. World Bank. *Uzbekistan Economic Update: Navigating Uncertainty*. Washington D.C., 2023.
4. International Monetary Fund (IMF). *Republic of Uzbekistan: 2024 Article IV Consultation Report*. Washington D.C., 2024.
5. United Nations Industrial Development Organization (UNIDO). *Industrial Development Report 2023: The Future of Industrialization in a Post-Pandemic World*. Vienna, 2023.
6. Krugman, P., Obstfeld, M., & Melitz, M. *International Economics: Theory and Policy*. 11th Edition. Pearson, 2022.
7. Stiglitz, J. E. *Globalization and Its Discontents Revisited*. W.W. Norton & Company, 2018.
8. https://stat.uz/ - O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi sayti ma`lumotlari asosida.

Berdimurodov Azizjon Shukrilloyevich - *SamISI, dotsent*
Xamroyeva Sitora Otabekovna - *SamISI, magistrant*

TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION JARAYONLARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO‘LIDA YASHIL TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda turizm sohasida innavatsion jarayonlardan foydalanish holatlari hamda bu yo‘lda yashil texnologiyalarning o‘rni hamda yashil iqtisodiyotning turizm sohasidagi qo‘llanilish istiqbollari haqida fikir mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlari: turizm, iqtisodiy samaradorlik, yashil iqtisodiyot, yashil texnologiyalar, mijozlar talabi,iqlim o‘zgarishi.

XXI asr texnologiyalari bugungi kunda xalq xo‘jaligining barcha sohalariga o‘z ta’sirini ko‘rsatayotgani va bu o‘z navbatida ushbu sohalarni jadal rivojlanishga olib borayotgani barchamizga ma’lum. So‘nggi bir necha yilliklarda texnologiya hayratlanarli darajada rivojlandi. Smartfonlar, internet, bulutli hisoblar va boshqa yuzlab ixtirolar hayotimizning barcha jabhalarini o‘zgartirmoqda. Aloqa, biznes,

hukumat, sayohat va hatto qishloq xo‘jaligi sohalari ushbu ixtirolar ta’sirida sezirali darajada ijobiy tomonga o‘zgardi. Shu jumladan bugungi kunda turizm sohasida ham yangi innovatsiyalar sababli ko‘plab yutuqlarga erishilmoqda. Aslida turizm sohasi rivojlanishi tarixini azaldan texnologiyalarsiz tassavur qilish mumkin emas. Ya’ni, turistlarning eng zaruriy vositasi bo‘lgan transportlar poezdlar va samolyotlarni turizmni rivojlantirishdagi ilk texnologiyalar desak adashmagan bo‘lamiz. Bugungi texnologiyalar asrida ham ushbu sohani rivojlantirishda ko‘plab ijobiy yangiliklar amalga oshirilmoqda. Jumladan turizmni rivojlantirishda asosiy ahamiyatga ega bo‘lgan mehmonxonalarda sun’iy intellekt orqali turistlarga ko‘rsayilayotgan yangicha xizmatlar sayyohlarga yanada qulayliklar yaratmoqda va bu o‘z navbatida ularni ushbu davlatga yana qaytish istagini tug‘dirmoqda. Bugungi texnologiyalar, ishlab chiqarish sohalari jadal rivojlanayotgani sababli tabiatimiz ma’lum darajada zaharli gazlar bilan ifloslanmoqda, shu sababli keyingi kunlarda turistlar ham ekologik toza, sun’iylikdan yiroq bo‘lgan hududlarga tashrif buyurishni ma’qul ko‘rmoqdalar. Shunday ekan turizm sohasini eko, yashil texnologiyalar bilan rivojlantirish zamonaviylik va sog‘lom sayohatni bir nuqtada mujassamlashtirishi mumkin desak adashmagan bo‘lamiz.

Ushbu mavzu yuzasidan yurtimizning bir necha olimlari tadqiqodlar olib borganlar xususan, Bobomurad Mamarajabov o‘zining ingliz tilida chop etilgan “Tourism and Ecotourism in Uzbekistan” deb nomlangan monografyasida yurtimizda turizm sohasini ekologik jihatdan yanada rivojlantirish istiqbollari haqida izlanishlar olib borilgan. N.R.Zaynalovning “Turizmda axborot texnologiyalari” o‘quv qo‘llanmasida hamda professor I.S.Tuxliyev va A.Eshtayev tomonidan tayyorlangan “Turizmda geoaxborot tizimlari” darsligida axborot texnologiyalari va uning turizmda tutgan o‘rni va milliy turizm industryasidagi axborot jarayonlari, tutizm sohasida mavjud axborot texnologiyalarini qo‘llashda bilimlar berish bilan bir qatorda, ularda tizimli yondashuvni shakillantirishga qaratilgan bir necha fikr mulohazalar keltirilgan.

I.S.Tuxliyev, R.Hayitboyev, B.Sh.Safarov, G.R.Tursunovalar “Turizm asoslari” o‘quv qo‘llanmasida bozor munosabatlari sharoiti asosida turizmni rivojlantirishning asosiy tamoyillari va turizm to‘g‘risidagi me’yoriy hujjatlar, mahalliy, milliy va hududiy turizmni rivojlantirishning tamoyillari va metodlarini qo‘llash orqali sezilarli darajada iqtisodiy daromad olishga alohida e’tibor berilgan.
Ammo, yurtimizda yashil texnologiyalardan foydalangan holda innavatsion turizmni yanada rivojlantirish masalalari hali yetarlicha tadqiq etilmagan jihatdir.

Turizm sohasining jadal rivojlanishi tabiiy resurslarning haddan tashqari ishlatilishi, ekologik muammolar (iqlim o‘zgarishi, chiqindilar ko‘payishi, biologik xilma-xillikning yo‘qolishi) va ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosibliklarni keltirib chiqarmoqda. Jahon Turizm Tashkiloti (UNWTO) ma’lumotlariga ko‘ra, turizm global uglerod gazining 8% oshishiga sabab bo‘lib, bu ko‘rsatkich yil sayin oshib bormoqda. Buning bilan birga, turizm dunyo YaIMning 10%ini tashkil qiladi (2023-yilda 9 trillion dollar daromad). Bu paradoks turizmning iqtisodiy foydasi bilan ekologik zarari o‘rtasidagi dolzarb ziddiyatni keltirib chiqaradi. Yashil texnologiyalarni qo‘llash orqali turizmni qayta qurish ekologik stressni kamaytirish, resurslar samaradorligini oshirish va mahalliy hamda global miqyosda barqarorlikni

ta’minlash uchun yagona yechimdir. Masalan, Maldiv orollarida quyosh energiyasiga o‘tish mehmonxonalarning uglerod gazini 40%ga qisqartirdi.[129]

Yurtimizda ham aynan shu kabi rivojlangan davlatlar tajribalaridan samarali andoza olgan holda turizm sohasida yashil texnologiyalardan samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yish orqali yashil turizmni rivojlantirishimiz mumkin. Quyida yashil texnologiyalardan mexmonhona xo‘jaligida qay darajada foydalish mumkinligi haqida ko‘nikmalar keltirilgan:

1.Energiya tejamkor texnologiyalardan foydalanish orqali mexmonhonalarda uglerod chiqindilarini shu bilan birgalikda xarajatlarni kamaytirishga erishish mumkin. Ularni qo‘llash usullari :

- Quyosh panellari — binoning tomiga o‘rnatilib, issiq suv va elektr energiyasini ishlab chiqaradi.
- LED yoritish tizimlari — oddiy lampalarga nisbatan 80% kam energiya sarflaydi.
- Aqlli energiya boshqaruv tizimlari (smart energy system) — xona band bo‘lmaganda avtomatik ravishda chiroq, sovutgich yoki isitkichni o‘chiradi.
- Issiqlik nasoslari va energiya qayta ishlash tizimlari — konditsioner chiqindilaridan issiqlik energiyasini qayta ishlatish.

2.Suv resurslarini tejash texnologiyalari orqali suvdan oqilona foydalanish va ortiqcha isrofgarchilikning oldini olish orqali suv tanqisligini bartaraf qilishga erishish mumkin:

- Aqlli dush va kran tizimlari — suv oqimini avtomatik boshqaradi (harorat va bosimni optimallashtiradi).
- Yomg‘ir suvini yig‘ish tizimi — sug‘orish va texnik ehtiyojlar uchun foydalaniladi.
- Suvni qayta tozalash tizimlari — yuvinish va kir yuvish suvlarini filtrlab, texnik foydalanishga yo‘naltirish.

3.Chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash tizimi orqali ekologik samaradorlikka erishish mumkin :

- Mexmonhonalarda va boshqa turistik hududlarda chiqindilarni ajratish (plastik, qog‘oz, organik, shisha) uskunalarini yo‘lga qo‘yish.
- Biologik parchalanadigan mahsulotlar (masalan, bambukdan tayyorlangan tish cho‘tkasi, qog‘oz stakanlar) dan foydalanishni yo‘lga qo‘yish.
- Kompostlash tizimlari — oshxona chiqindilarini tabiiy o‘g‘itga aylantirish.
- “Zero waste” dasturlari — bir martalik mahsulotlardan voz kechish, qayta foydalanish tizimini joriy etish.

4.Mexmonhonalarni yashil me’morchilik va dizaynni ekologik ko‘rinishga moslash orqali shahar shovqini va urbanizatsiyadan toliqqan mexmonlarga ruhan tetiklik baxsh etishi tabiiy.

- Tabiiy materiallar (yog‘och, bambuk, loy, tosh)dan foydalanish.
- Yashil tomlar va vertikal bog‘lar — havo sifatini yaxshilaydi, binoni issiqlikdan himoya qiladi.

[129]“ Turizm Maskanlarida Yashil Texnologiyani Joriy Etish Infratuzilmasining Ahamiyati” Abdullajonov Davronjon

- Tabiiy yorug‘likni maksimal ishlatish — katta derazalar, shaffof panellar. Yuqoridagilarni qo‘llash orqali sog‘lom mikroiqlim, past energiya sarfi, estetik jozibaga erishish mumkin.

5.Turizm sohasida transport asosiy xizmatlarga kiradi va transport vositalarini mijozlar talabiga mos tarzda ekologik harakatlanish imkonini yaratish bugungi kunda juda muhim hisoblanadi

- Elektr transport vositalari (velosiped, skuter, avtomobil)ni ijaraga berish.
- Elektr zaryadlash stansiyalari — mehmonxona avtoturargohida.
- Veloyo‘laklar — qisqa masofalar uchun ekologik harakatlanish orqali uglerod chiqindilarini kamaytirish va bu orqali mehmonlarga qulaylik yaratish mumkin.

Yuqorida keltirib o‘tilgan dunyo miqqiyosidagi tajribalarni yurtimiz mexmonhonalarida ham qo‘llash orqali turizm sohasining davlatimiz iqtisodiyotidagi ulushini yanada oshirish mumkin. Bugungi kunda turizm sohasi jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, turizm atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan omillardan ham biridir. Shu sababli, barqaror va innovatsion turizmni rivojlantirishda yashil texnologiyalardan foydalanish zaruriy ehtiyojga aylanmoqda. Innavatsion texnologiyalar barcha sohalarni qamrab olayotgan bir paytda turizm sohasida ham ayniqsa yashil texnologiyalarning o‘rni alohida hisoblanadi. Kundan kunga sun’iylikning hayotimizda oshib borayotgani sababli insonlarda tabiiylikga bo‘lgan ehtiyoji oshib bormoqda. Shu sababli yurtimizga turistlarning oqimini oshirish maqsadida yashil texnologiyalardan foydalanish ulushini oshirish lozim. Yashil texnologiyalar turizm sohasida innovatsion yondashuvni shakllantiradi, ekologik xavfsizlikni ta’minlaydi va turistlar uchun yanada jozibador muhit yaratadi. Innovatsion turizmni rivojlantirishda yashil texnologiyalarni keng joriy etish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki O‘zbekistonning xalqaro turizm maydonidagi raqobatbardoshligini ham mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi to‘g‘risida”gi PQ–4477-son qarori, 2019-yil.

2. Sharipov A. “Barqaror turizm va ekologik menejment”. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2022.

3. UNWTO (World Tourism Organization). “Sustainable Tourism and Green Technologies”, 2023.

4. OECD. “Innovation for Sustainable Tourism”. – Paris, 2021.

Жўраев Беҳзод Нуралиевич - *PhD, доцент в.б.,*
ТДИУ Самарқанд филиали

ТАДБИРКОРЛИК СУБЪЕКТЛАРИ ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТИНИ ТАРТИБГА СОЛИШ ЙЎЛЛАРИ

Аннотация. Мазкур мақола рақобат шароитида тадбиркорлик субъектлари инновацион фаолиятини қўллаб-қувватлаш ва уни тартибга солишнинг

молиявий масалаларига бағишланган бўлиб, унда ҳозирги кундаги вазиятдан келиб чиқиб таклиф ва тавсиялар берилган.

Калит сўзлар: тадбиркорлик, рақобат, давлат, инновацион фаолият, инновацион хизмат.

Миллий иқтисодиётнинг барқарор ривожланиши ва унинг рақобатбардошлигини таъминлашда тадбиркорлик субъектлари инновацион фаолияти муҳим аҳамиятга эга. Шу боисдан, мамлакатимизда тадбиркорлик субъектлари инновацион фаолиятини ривожлантиришга қаратилган таъсирчан чора-тадбирлар фаоллик билан амалга оширилиб келинмоқда. Тадбиркорлик фаолиятининг яна бир муҳим ижтимоий-иқтисодий ҳусусияти нисбатан кам ҳаражатлар эвазига янги иш ўринлари яратиш ва шу орқали бандлик муаммосини ҳал этишга ҳисса қўшиши ҳисобланади.

Тадбиркорлик субъектлари томонидан инновацион фаолиятни амалга оширилиши учун замин яратилишида давлатнинг таъсири катта бўлмоғи лозим. Тадбиркорлик субъектлари инновацион хизматларни қўллаб-қувватлаш уларнинг молиявий барқарорлигини мустаҳкамлашга, бюджет олдидаги мажбуриятларини самарали бажарилишига имконият яратади. Таъкидланганидек, “... янги Ўзбекистон модернизациялашган иқтисодиётга таянади. Бундай иқтисодиётни шакллантириш учун ундаги давлат иштирокини камайтириш, хусусий мулк ҳуқуқларини ҳимоя қилиш ва унинг ролини янада кучайтириш, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик ривожини рағбатлантиришга қаратилган институционал ва таркибий ислоҳотларни давом эттириш зарур” [1].

Иқтисодий ислоҳотларнинг асосий мақсади ҳам иқтисодий ўсишга инновацион маҳсулотлар ишлаб чиқариш, инновацион хизматларни кўрсатиш орқали эришиш, аҳолининг турмуш даражасини юксалтириш, Ўзбекистонннинг жаҳон иқтисодий ҳамжамиятида реал иштирок этишига эришишдан иборат. Иқтисодиётнинг глобаллашуви шароитида тадбиркорлик субъектларини ривожлантириш ва уларнинг инновацион фаолиятини давлат томонидан қўллаб-қувватлаш ҳал этиб борилиши зарур бўлади.

Азалдан иқтисодчи олимлар тадбиркорликни янги маҳсулотларни ишлаб чиқариш ва хизматлар кўрсатиш соҳаси сифатида қарашган. Тадбиркорлик бўйича чуқур илмий тадқиқот олиб борган Й.Шумпетер тадбиркорликнинг вазифаси – янги ихтироларни ишлаб чиқаришга жорий этиш йўллари билан ишлаб чиқаришни ислоҳ қилиш ва инқилобий ўзгаришларни амалга ошириш дея таъкидлайди [2].

Шунингдек, мамлакатимиз иқтисодчи олимларидан А.Ўлмасов ва М.Шарифхўжаевлар тадбиркорлик субъектлари фаолияти бу даромад топишга мўлжалланган иқтисодий фаолият сифатида қараб, “тадбиркорлик фақат пул топиш эмас, балки яратувчанлик фаолияти орқали даромад олиш омили” деб эътироф этишади [3]. Агар тадбиркорлик мунтазам равишда фаоллашмаса, миллий иқтисодиётда ўсиш суръатлари қайд этилмаслигини, иқтисодиёт тармоқларида барқарор ривожланиш юзага келмаслигини асослаган ҳолда улар айнан тадбиркорлик субъектлари фаолиятининг сифат жиҳатига эътибор беришни лозим деб ҳисоблашган.

Хорижий олим Д.Одреч тадбиркорликнинг рақобат бозорида “омон қолиши”нинг асосий меъзони уларнинг иқтисодий ўсиш ва инновацион фаолиятининг юқори суръатларини намойиш этишга мойиллиги дея таъкидлайди [4].

Айниқса, янги технологиялар талаб қилинадиган тадбиркорлик соҳаларида рақобатда устунлик қилиш ва қўллаб-қувватлаш учун инновацияларни ўзлаштириш муҳимдир [5]. Шу боисдан, тадбиркорлик субъектлари узоқ муддат фаолият кўрсатишлари учун янги инновацион тажрибаларни амалга оширишлари лозим.

Тадбиркорлик субъектларининг инновацион фаолиятини, шу жумладан уларни молиявий механизмлар орқали қўллаб-қувватлаш деганда:

– давлат томонидан тадбиркорлик субъектларини рақобатбардошлигини, инновацион хизматларни кўрсатиш ва уларни ривожлантиришни рағбатлантиришнинг асоси бўлган иқтисодий ва ҳуқуқий шароитларини яратиш;

– тадбиркорлик субъектларига моддий ҳамда молиявий ресурслар киритиш орқали уларнинг нафақат инновацион маҳсулотлар ишлаб чиқаришини, балки инновацион хизматларини ривожлантириш;

– тадбиркорлик субъектларининг инновацион хизматларни кўрсатиш механизмларига асосланиб республиканинг жорий ва истиқболли ривожланиш босқичларида нафақат ижтимоий-иқтисодий мақсадларга эришиш, балки рақобатбардошликни таъминлаш воситаси сифатида тушуниш лозим.

Тадбиркорлик субъектларининг инновацион хизматларини давлат томонидан бундай қўллаб-қувватлаш солиқ солиш, кредитлаш, суғурталаш хизматлари ва оқилона субсидиялар, инвестициялашдаги имтиёзли тартиблар шаклида амалга оширилади. Бундай молиявий механизмлар яхлитлигида тадбиркорлик субъектлари томонидан кўрсатиладиган инновацион хизматларнинг рақобатбардошлигини таъминлайдиган катта миқдордаги молиявий захиралар яратилади ва унинг барқарор суръатларда ривожланишини таъминлайдиган имконият юзага келади. Тадбиркорлик субъектларининг тараққий этишини молиялаштириш ҳамда унинг молиявий равнақи кафолатланишини таъминлашда муҳим омил бўлиб инновацион хизмат кўрсатиш, молиявий ресурслар чекланганлиги шароитида ва тадбиркорлик субъектларининг тараққий этишида, фаолиятида иштирок этувчиларнинг даромадлари шаклланишида, келгусида тадбиркорлик субъекти инновацион хизматлар инфратузилмасини такомиллаштиришда муҳим аҳамият касб этади.

Ҳозирги шароитда тадбиркорлик субъектларининг молиявий барқарорлиги ва молиявий натижаларига таъсир қилувчи омилларни таҳлил қилиш, унинг ўзгаришига хос тенденцияларни баҳолаш бу борадаги мавжуд муаммоларни аниқлаш имконини беради ҳамда тадбиркорлик субъектларига молиявий хизмат кўрсатиш кўламини янада кенгайтиради.

Тадбиркорларнинг молиявий ресурсларга бўлган эҳтиёжларини дастур доирасида ўрганиб бориш, талаб доирасида кредит маблағлари билан таъминлаш чораларини кўриш, кредит олиш учун ҳужжатларни тайёрлашга кўмаклашишни яхшилаш борасида хизматлар кўрсатиш муҳимдир. Шунингдек,

аҳолининг ўз бизнесини бошлаши учун шарт-шароитлар яратиш, аҳолининг иш билан бандлигини оширишига кўмаклашадиган молиявий институтлар ва талбиркорлик субъектлари фаолиятини ривожлантириш, молиялаштириш хизматларини кўрсатиш даражасини ошириш зарур. Самарқанд вилоятида тадбиркорлик субъектларига кўрсатиладиган хизматларни янада ривожлантириш учун асосий йўналишларни амалга ошириш лозим:

– тадбиркорлик субъектлари учун қулай муҳит яратиш ва уларга янада кенг эркинлик бериш, молиявий хизматларни кўрсатишда мавжуд тўсиқларни бартараф этиш, давлат ва назорат органларининг тадбиркорлик субъектларининг фаолиятидаги масалаларни тартибга келтиришдаги иштирокини енгиллаштириш;

– тадбиркорлик субъектларининг кредит, давлат харидлари тизимидан фойдаланиш имкониятларини кенгайтириш;

– тадбиркорлик субъектларининг экспорт салоҳиятини ривожлантириш учун ҳуқуқий-молиявий механизмларини яратиб бериш бўйича зарурий чора-тадбирларни амалга ошириш;

– тадбиркорлик субъектларига микромолиялаштириш хизматларини кенгайтириш;

– тадбиркорлик субъектларининг инновацион хизматларини қўллаб-қувватлаш учун кўрсатилаётган кредит хизматларини кенгайтириш ва унинг устидан назоратни янада кучайтириш, рискни қисқартириш ёки кўриладиган зарарни қоплашга кўмаклашиш механизмини такомиллаштириш, айниқса қишлоқ жойларда аҳолининг эҳтиёжларини қондиришга қаратилган янги молиявий маҳсулотларни ишлаб чиқишда уларга молиявий ёрдам бериш тизимини яратиш ва ҳ.к.

Тадбиркорлик субъектлари томонидан ишлаб чиқилган бизнес режалар акс эттирилган кўрсаткичлар доирасида уларга кредит ажратишда қуйидагиларга алоҳида эътибор бериш лозим:

– тадбиркорликни ривожлантириш ҳамда аҳоли турмуш даражасини янада оширишга ва шу асосда янги иш ўринларини ташкил этишга қаратилган лойиҳаларни молиявий қўллаб-қувватлаш;

– қишлоқ хўжалик маҳсулотларини қайта ишлашга йўналтирилган инновацион лойиҳаларни рағбатлантириш;

– экспортга мўлжалланган ҳамда арзон маҳсулот таннархига эга бўлган маҳсулот ишлаб чиқаришга йўналтирилган тадбиркорлик субъектларига солиқ ва кредит имтиёзларини беришни кенгайтириш;

– тадбиркорлик субъектларини модернизация қилиш билан боғлиқ лойиҳаларни имтиёзли молиялаштириш.

Шу билан бир қаторда рақобат муҳитини яратишда тадбиркорлик субъектларини молиявий қўллаб-қувватлаш, молиявий ресурсларга бўлган талабни қондириш билан боғлиқ имкониятлардан янада самарали фойдаланиш учун қатор муаммоларни ҳал қилиш талаб этилади. Ҳозир ҳам тадбиркорлик субъектлари бозорга киришларида жиддий маъмурий тўсиқлар мавжуд. Жумладан, фаолиятнинг баъзи турларини амалга оширишда ҳам мамлакат, ҳам

вилоят ва туман даражаларида тегишли ҳужжатларни расмийлаштириш талаб этилмоқда. Бундай тўсиқлардан бири мамлакатда фаолиятнинг юзга яқин турини амалга ошириш учун лицензия олиш керак бўлмоқда. Баъзи ҳолларда лицензиялашнинг асосий мезонларига жавоб бермайдиган фаолият турларини, яъни амалда лицензия талаб қилинмайдиган фаолият турларини лицензиялаш тартиби жорий этилмоқда ёки амал қилмоқда. Натижада тадбиркорлик фаолиятини ҳам лицензиялаш, ҳам сертификатлаштириш ҳолларига дуч келинмоқда.

Миллий иқтисодиёт хусусиятларидан келиб чиқиб, тадбиркорлик субъектларига молиявий хизматлар кўрсатишни босқичма-босқич ривожлантириш иқтисодий тараққиётнинг муҳим механизми ҳисобланади. Мамлакатимизда тадбиркорлик субъектларига молиявий хизматлар кўрсатиш механизмига ёрдам кўрсатиш уларнинг ривожланишини муҳим омили ҳисобланади. Шу боис айтиш жоизки, иқтисодий адабиётларда тадбиркорлик субъектларига инновацион хизматлар кўрсатиш орқали барқарорлигини таъминлаш масаласи яхлит тадқиқ этиб ўтилмаганлиги боис тадбиркорлик субъектларини молиявий ресурслари билан қўллаб-қувватлаш, тадбиркорлик субъектларини ривожлантириш, тадбиркорлик фаолиятини кенгайтириш, уни солиққа тортиш, кредитлаш ва шу каби масалаларга эътибор қаратиб келинмоқда.

Тадбиркорлик субъектларининг рақобатни ривожлантиришга қаратилган фаолиятларини молиявий маблағлар билан таъминланишини янада кучайтириш учун бу каби маъмурий тўсиқларни бартараф этиш билан бирга, фикримизча, қуйидаги вазифалар ҳам ҳал этилиши лозим:

– тадбиркорлик субъектлари лойиҳаларини биргаликда молиялаштиришни амалга ошириш мақсадида венчур фондларини ривожлантириш ва улар хизматидан фойдаланишни кенг йўлга қўйиш;

– тадбиркорлик лойиҳаларини амалга ошириш учун тижорат банкларидан кредит олишни кафолат фондлари орқали кафолатлашни йўлга қўйиш;

– тижорат банкларининг бизнесни модернизациялаш, инновацион маҳсулотлар ишлаб чиқариш учун ажратаётган кредит ставкаларини янада камайтиришга эришиш;

– тадбиркорлик субъектларининг товар, хом-ашё бозорларида рақобатни янада ривожлантиришда уларни молиявий ресурсларга бўлган талабини бевосита ички манбалар ҳисобига қондириб борилишига инновацион ёндошувни ишлаб чиқиш;

– тадбиркорлик субъектларига инновацион фаолиятини тартибга солишда кредитлаш муаммосини ҳал этишда ҳар томонлама юзага келиши мумкин бўлган манфаатларни эътиборга олиш лозим. Ўз фаолиятини бошлаётган тадбиркорда бошланғич капитал етишмаслиги ҳолатларида молиявий институтлар томонидан кўрсатиладиган хизматларни жалб этиш ва молиявий хизматлар кўламини кенгайтиришга эришиш лозим.

Адабиётлар:

1. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Т.: O’zbekiston, 2021. 138 б.
2. Шумпетер Й. Теория экономического развития. М.: Прогресс. 2005, 159-б.
3. Ўлмасов А., Шарифхўжаев М. Иқтисодиёт назарияси. Т..: Меҳнат, 1995. 192 б.
4. Audretsch D. Entrepreneurship research //Management decision. – 2012.
5. Cabral J. J., Francis B. B., Kumar M. V. S. The impact of managerial job security on corporate entrepreneurship: Evidence from corporate venture capital programs //Strategic Entrepreneurship Journal. – 2021. – Т. 15. – №. 1. – С. 28-48.

Komilova Mukammal Shavkatovna - *SamDAQU, “Iqtisodiyot” kafedrasi mudiri*
Rayimov Ma’rufjon Abdurashid o‘g‘li - *SamSamISI, “Investitsiyalar va innovatsiyalar” kafedrasi assistenti*

INVESTITSIYA – IQTISODIY RIVOJLANISHNING ASOSIY DRAYVERI

Anotatsiya. Mazkur maqolada investitsiyaning iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni, uning turlari, ahamiyati va investitsiya siyosatini shakllantirishda qo‘llaniladigan yondashuvlar yoritilgan. Investitsiyaning davlat miqyosida ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka xizmat qiluvchi vosita ekanligi tahlil qilinib, O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan investitsiya siyosati, xorijiy sarmoyadorlar uchun yaratilayotgan qulay sharoitlar va mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish yo‘llari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, shaxsiy investitsiya madaniyati va moliyaviy savodxonlikni oshirish zarurati haqida ham fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: investitsiya, iqtisodiy rivojlanish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar, portfel investitsiyalari, xorijiy sarmoya, moliyaviy barqarorlik, bandlik, innovatsiya, O‘zbekiston iqtisodiyoti, investitsion xavflar.

Kirish. Bugungi globallashgan va tez o‘zgarayotgan dunyoda har bir davlatning iqtisodiy barqarorligi va rivojlanish darajasi, eng avvalo, investitsion jarayonlarning samaradorligiga bog‘liq. Investitsiyalar nafaqat ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, balki innovatsion texnologiyalarni joriy etish, yangi ish o‘rinlari yaratish, eksport salohiyatini oshirish kabi ko‘plab muhim jihatlarda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. XXI asrda iqtisodiy raqobatning kuchayib borayotgani, texnologik taraqqiyotning jadallashuvi va global moliyaviy tizimdagi o‘zgarishlar har bir davlatni o‘z iqtisodiyotini modernizatsiya qilishga undamoqda. Bu borada eng muhim vositalardan biri investitsiya hisoblanadi. Investitsiya nafaqat ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, balki iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish, yangi ish o‘rinlari yaratish, eksport salohiyatini oshirish va innovatsion rivojlanishni ta'minlashda muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli, investitsiya siyosatini to‘g‘ri tashkil etish va unga zarur sharoit yaratish har qanday davlat uchun strategik ahamiyatga ega masalalardan biri sanaladi. Aynan shu sababli, bugungi kunda dunyoning barcha rivojlanayotgan va rivojlangan davlatlari investitsiyalarni jalb etish va ularni samarali boshqarish

masalasiga alohida e’tibor qaratmoqda. O‘zbekiston ham o‘zining ochiq va islohotlarga yo‘naltirilgan iqtisodiy siyosati orqali xorijiy sarmoyalarni jalb qilishga, investitsiya muhitini yaxshilashga alohida e’tibor qaratmoqda.

Asosiy qism. Investitsiya iqtisodiy kategoriyalar ichida eng muhimlaridan biri bo‘lib, u moliyaviy yoki real resurslarni foyda olish maqsadida uzoq yoki qisqa muddatli loyihalarga yo‘naltirishdir. Uning asosiy turlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri va portfel investitsiyalari hisoblanadi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar (FDI) ishlab chiqarish faoliyatida bevosita ishtirok etish orqali amalga oshiriladi va ular ko‘pincha yangi texnologiyalar, zamonaviy menejment tajribasi, yuqori malakali ish kuchi kabi resurslarni o‘z ichiga oladi. Portfel investitsiyalari esa moliyaviy aktivlar – aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlarga mablag‘ kiritish orqali daromad olishni ko‘zlaydi.

Investitsiya deganda, daromad yoki ijobiy iqtisodiy natija olish maqsadida moliyaviy yoki moddiy resurslarni muayyan loyihaga yo‘naltirish tushuniladi. Ushbu jarayon qisqa yoki uzoq muddatli bo‘lishi mumkin bo‘lib, u davlat, xususiy sektor yoki jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshiriladi. Investitsiyalar o‘z xarakteriga ko‘ra bir nechta turlarga bo‘linadi. Jumladan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar (FDI) investorning bevosita korxona faoliyatida ishtirok etishini nazarda tutsa, portfel investitsiyalari moliyaviy aktivlar – aksiyalar, obligatsiyalar kabi vositalar orqali daromad olishni ko‘zlaydi.

Shuningdek, investitsiyalar manbalariga ko‘ra ichki va tashqi investitsiyalarga ajratiladi. Ichki investitsiyalar mahalliy sarmoyadorlar tomonidan amalga oshirilsa, tashqi investitsiyalar xorijiy kompaniyalar va investorlar hisobidan amalga oshiriladi. Har ikki turdagi sarmoya iqtisodiy taraqqiyotga xizmat qilsa-da, ularni jalb qilish va samarali boshqarish o‘ziga xos yondashuvni talab etadi. Ayniqsa, xorijiy investitsiyalar mamlakatga yangi texnologiyalar, menejment tajribasi

Investitsiyalarning iqtisodiy ahamiyatini chuqurroq tahlil qiladigan bo‘lsak, eng avvalo, u ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish va sanoatning zamonaviylashuviga xizmat qilishi bilan ajralib turadi. Shuningdek, investitsiyalar orqali bandlik darajasi oshadi, aholining daromadi ko‘payadi, bu esa o‘z navbatida ichki bozorning jonlanishiga olib keladi. Bundan tashqari, investitsiyalar davlat byudjetiga tushumlar ortishiga, eksport hajmining ko‘payishiga va importga bog‘liqlikning kamayishiga zamin yaratadi.

Ayniqsa, investitsiyalar innovatsion taraqqiyot uchun asosiy turtki hisoblanadi. Yangi texnologiyalar, avtomatlashtirilgan tizimlar va zamonaviy uskunalarning ishlab chiqarish jarayoniga joriy etilishi aynan investitsiyalar orqali amalga oshadi. Shu sababli, ilg‘or mamlakatlarda innovatsion faoliyatni rag‘batlantirishga qaratilgan maxsus investitsiya dasturlari ishlab chiqiladi.

O‘zbekiston Respublikasi ham so‘nggi yillarda investitsiya muhitini yaxshilash, xorijiy investorlar uchun qulay sharoitlar yaratish, yuridik kafolatlarni kuchaytirish borasida katta islohotlarni amalga oshirmoqda. Jumladan, soliq imtiyozlari berilishi, erkin iqtisodiy zonalar tashkil etilishi, bojxona tartibotlarining soddalashtirilishi, korrupsiyaga qarshi kurashish choralari kuchaytirilishi kabi muhim qadamlar investorlarning ishonchini orttirishga xizmat qilmoqda. Bunga misol sifatida, 2024-yil yakunlariga ko‘ra, mamlakatimizga jalb qilingan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy

investitsiyalar hajmi 10,5 milliard AQSh dollarini tashkil etganini keltirish mumkin. Asosiy investor mamlakatlar sifatida Xitoy, Rossiya, Turkiya va BAAni ko‘rsatish mumkin. Investitsiyalar ko‘proq sanoat, energetika, transport va axborot texnologiyalari kabi strategik sohalarga yo‘naltirilmoqda.

Biroq, investitsiya jarayonida ayrim muammolar ham mavjud. Xususan, huquqiy bazaning barqaror emasligi, ayrim holatlarda korrupsion to‘siqlar, infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmagani kabi omillar investorlar faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli, davlat tomonidan investorlar huquqini himoya qilish, xavflarni kamaytirish va ishonchli muhitni yaratish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Shu bilan birga, investitsiya jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavflarni ham e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi. Valyuta kursining o‘zgarishi, siyosiy beqarorlik, soliq va bojxona qonunchiligidagi o‘zgarishlar, yuridik muammolar, shuningdek, sarmoyaning yetarli darajada himoyalanmagani investorlar uchun jiddiy to‘siqlar tug‘dirishi mumkin. Bunday xavflarni minimallashtirish uchun O‘zbekistonda xalqaro standartlarga javob beradigan yondashuvlar joriy etilmoqda. Masalan, investitsiyalarni xalqaro arbitraj orqali himoya qilish mexanizmlari, sarmoyadorlar uchun sug‘urta tizimi va qonunchilikning barqarorligi shular jumlasidandir.

Investitsiyalar faqat yirik kompaniyalar yoki davlatlar faoliyatiga xos bo‘lgan jarayon emas. Har bir fuqaro ham o‘zining shaxsiy mablag‘larini turli investitsiya yo‘nalishlariga yo‘naltirish orqali moliyaviy mustaqillik sari qadam qo‘yishi mumkin. Masalan, bank omonatlari, ko‘chmas mulk, aksiyalar, oltin va boshqa aktivlarga kiritilgan mablag‘lar kelajakda barqaror daromad manbaiga aylanishi mumkin. Biroq shaxsiy investitsiyalarni amalga oshirishda moliyaviy savodxonlik, risklarni baholash va diversifikatsiya qilish tamoyillariga amal qilish muhim hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, investitsiya har qanday mamlakat iqtisodiyoti uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lgan muhim omildir. U nafaqat ishlab chiqarish salohiyatini oshiradi, balki innovatsion texnologiyalarni joriy etish, yangi ish o‘rinlari yaratish, eksport salohiyatini kengaytirish va aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Bugungi globallashgan va raqobatbardosh iqtisodiy muhitda investitsiyalarning roli yanada ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan qaralganda, O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda investitsiya muhitini yaxshilash, xorijiy investorlar uchun qulay sharoit yaratish va yuridik kafolatlarni mustahkamlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar muhim qadam sifatida e’tirof etiladi.

Biroq, mavjud yutuqlarga qaramay, investitsiyaviy jarayonda hal qilinishi lozim bo‘lgan bir qator muammolar ham mavjud. Xususan, huquqiy bazaning barqaror emasligi, ayrim holatlarda yuzaga kelayotgan byurokratik to‘siqlar, infratuzilmaning yetarli rivojlanmaganligi va investitsion xavflarning yuqoriligi xorijiy sarmoyadorlar uchun jiddiy to‘siqlar tug‘diradi. Bundan tashqari, aholining moliyaviy savodxonlik darajasining pastligi ham shaxsiy investitsiya madaniyatining keng rivojlanishiga to‘sqinlik qilmoqda.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish mumkin:

Investitsiya siyosatini yanada liberallashtirish va huquqiy barqarorlikni ta'minlash zarur. Bu esa xorijiy investorlar uchun ishonchli va barqaror muhit yaratadi. Qonunchilikda kutilmagan o‘zgarishlarning oldini olish orqali uzoq muddatli sarmoya jalb qilish imkoniyati kengayadi.

Hududlar kesimida investitsiya loyihalarini rag‘batlantirish lozim. Aholisi zich va iqtisodiy salohiyati yuqori bo‘lgan hududlarda maxsus investitsion rejimlar (imtiyozlar, grantlar, subsidiyalar) joriy etilishi mintaqaviy tenglikka xizmat qiladi.

Moliyaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan milliy dasturlar ishlab chiqilishi kerak. Bu orqali nafaqat yirik biznes, balki oddiy fuqarolar ham o‘z mablag‘larini turli investitsiya vositalariga to‘g‘ri yo‘naltirish imkoniga ega bo‘ladi.

Innovatsion va yuqori texnologiyali loyihalarga investitsiyalarni jalb qilishga alohida e’tibor qaratilishi lozim. Buning uchun venchur kapital fondlari, texnoparklar, startaplarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini rivojlantirish muhimdir.

Investitsion xavflarni kamaytirish va sarmoyadorlar manfaatlarini himoya qilish tizimi takomillashtirilishi zarur. Xalqaro arbitraj mexanizmlariga qo‘shilish, investitsiya sug‘urtasini joriy etish va sarmoyadorlar bilan doimiy muloqotni ta’minlovchi platformalar bu borada samarali vosita bo‘la oladi.

Umuman olganda, investitsiya siyosatini kompleks yondashuv asosida amalga oshirish orqali nafaqat iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish, balki O‘zbekiston Respublikasini mintaqada raqobatbardosh va innovatsion markazga aylantirish mumkin. Investitsiyaviy muhitning barqarorligi, shaffofligi va sarmoyadorlar uchun qulayligi esa mamlakatning kelajakdagi iqtisodiy taraqqiyotini belgilovchi asosiy omillardan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. (2024). *O‘zbekiston Respublikasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar holati bo‘yicha hisobot*. Toshkent: Rasmiy nashr.
2. Soliyev, A., & Karimov, N. (2021). *Investitsiyalar va iqtisodiy o‘sish: nazariya va amaliyot*. Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti.
3. Mankiw, N. G. (2020). *Principles of Economics* (9th ed.). Boston: Cengage Learning.
4. UNCTAD (2023). *World Investment Report 2023: Investment in Sustainable Energy for All*. United Nations Conference on Trade and Development. Retrieved from: https://unctad.org
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori, PQ–3212-son, 2023-yil 14-aprel. *Investitsion muhitni yanada yaxshilash va investorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida*.
6. World Bank. (2023). *Doing Business 2023: Comparing Business Regulation in 190 Economies*. Washington, DC: World Bank Publications.
7. Xolboev, B. (2022). “Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning zamonaviy mexanizmlari.” *Iqtisodiyot va innovatsiya*, 5(2), 45–52.
8. Komilova, M, Sh, "O’zbekistonda investitsiya salohiyatini oshirish yo’llari." Евразийский журнал академических исследований 2.3 (2022): 575-584.

9. M.Sh.Komilova."Raqamli iqtisodiyotning tizimli rivojlanishida boshqaruv uslublarining oʻrni." Journal of marketing, business and management 1.5 (2022): 53-57.

10. Shavkatovna, K. M., & Bakhtiyarov, I, S, (2024), What is the effect of global economic changes in the world on the economy and what important measures need to be taken?, Multidisciplinary and Multidimensional Journal, 3(1), 43

A.A.Siddiqov - *SamISI, "Menejment" kafedrasi dotsent v.b.*
Ismatillayev Bekjon Nizom o'g'li - *SamISI, Servis fakulteti TM-524 guruh talabasi*

MEHMONXONA VA RESTORAN MENIJMENTIDA TAYYOR MAHSULOT SIFATINI NAZORAT QILISH HAMDA SAQLASH MUDDATLARINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Annotatsiya: Maqolada umumiy ovqatlanish korxonalarida mahsulot sifatini ta'minlashda brakeraj nazoratining o'rni yoritilib, organoleptik baholash mezonlari hamda brakerajning davlat, ma'muriy va shaxsiy turlari taqqoslangan. Shuningdek, mazkur tizimning ISO 22000 va sertifikatlashtirish sxemalari bilan integratsiya qilinishi sifat menejmentining samarali modeli sifatida asoslangan.

Kalit so'zlar: Brakeraj nazorati, organoleptik baholash, brakeraj komissiyasi, davlat brakeraji, ma'muriy brakeraj, shaxsiy brakeraj, sanitariya-gigiyena talablari, sertifikatlashtirish sxemalari, ISO 22000.

Umumiy ovqatlanish korxonalarida tayyor mahsulotlar sifatini nazorat qilish oziq-ovqat xavfsizligi tizimining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Mazkur jarayon faqat texnologik ko'rsatkichlarni kuzatish bilangina cheklanib qolmay, balki mahsulotning organoleptik baholashga asoslangan maxsus shakli — "brakeraj nazorati" orqali ham amalga oshiriladi.

Brakeraj nazorati — bu tayyor taomlardan yoki yarim tayyor mahsulotlardan namuna ajratib olinib, ularning sifati ta'm, hid, rang, konsistensiya va tashqi ko'rinish kabi sezgi a'zolari yordamida aniqlanadigan organoleptik mezonlar asosida baholanadigan tartiblashtirilgan nazorat tizimidir. Baholash jarayonida mahsulotning qadoqlanish sifati, taqdim etilish uslubi hamda sanitariya-gigiyena talablariga muvofiqligi ham sinchiklab o'rganiladi. Bunday tekshiruvlarni amalga oshirish uchun korxona rahbariyati tomonidan vakolatli Brakeraj komissiyasi shakllantiriladi. Odatda ushbu komissiya tarkibiga korxona direktori, ishlab chiqarish (proizvodstvo) boshlig'i, bosh oshpaz hamda tibbiyot xodimi kiritiladi. Zarur hollarda laboratoriya mutaxassislari yoki texnolog-inspektorlar ham jalb qilinishi mumkin. Har bir tekshiruv yakunida brakeraj natijalari maxsus jurnalga normativ talablar asosida qayd etiladi. Ushbu jurnal sanitariya organlari tomonidan ko'rib chiqilishi mumkin bo'lgan rasmiy hujjat hisoblanadi va unda quyidagi ma'lumotlar aks ettiriladi: mahsulot nomi, baholangan ko'rsatkichlar, aniqlangan kamchiliklar (agar mavjud bo'lsa), foydalanishga ruxsat yoki taqiqlash bo'yicha qaror hamda komissiya a'zolarining imzolari. Shu tariqa, brakeraj nazorati umumiy ovqatlanish korxonalarida mahsulot

sifatining faqat texnik-bioximik emas, balki organoleptik va vizual nuqtayi nazardan ham kompleks baholanishini ta’minlaydigan ishonchli audit mexanizmi sifatida xizmat qiladi.

Brakeraj nazorat tizimi o‘zining tashkiliy-huquqiy maqomiga ko‘ra uch toifaga — **davlat, ma’muriy** va **shaxsiy** brakerajga ajratiladi. Har bir tur o‘z vazifasi va qo‘llanish doirasi bilan farqlanib, umumiy ovqatlanish korxonalarida sifat monitoringining ko‘p pog‘onali tizimini shakllantiradi.

Sertifikatlashtirish sxemalari bo‘yicha brakerajning mosligi:[130]

1-Jadval

Sxema	Izoh	Brakerajdagi ko‘rinishi
1-sxema (Mahsulotni sinovdan o‘tkazish va sertifikat berish)	Faqat mahsulotning o‘zi tekshiriladi	Tayyor taomdan namuna olish – Brakerajning to‘g‘ridan-to‘g‘ri shakli
5-sxema (Ishlab chiqarish tizimini audit qilish + mahsulot sinovi)	Eng mukammal sertifikatlashtirish modeli	Brakeraj komissiyasi laboratoriya sinovlari ISO standartiga mos audit tizimi

[131]**Davlat brakeraji** — bu sanitariya-nazorat organlari yoki tegishli davlat inspeksiyalari tomonidan shakllantirilgan vakolatli komissiya orqali amalga oshiriladigan majburiy audit shaklidir. Bunday komissiyalar mamlakat miqyosida tasdiqlangan me’yoriy-huquqiy hujjatlar (SanPiN, ISO 22000, O‘zDSt va boshqalar) talablariga muvofiq holda faoliyat ko‘rsatadi. Ular oldindan ogohlantirmasdan turib, tasodifiy tanlangan restoran yoki umumiy ovqatlanish maskanlarida tayyor taomlarning namunalarini organoleptik baholash, texnologik jarayonni kuzatish hamda sanitariya-gigiyenik sharoitlarni tahlil qilish orqali sifat darajasini aniqlaydi.

Agar nazorat jarayonida me’yorlardan chetlanish holatlari aniqlansa, rasmiy tekshiruv dalolatnomasi tuziladi. U ikki nusxada rasmiylashtiriladi: birinchi nusxa sifat nazorati organiga topshiriladi, ikkinchisi esa korxona (restoran) arxivida saqlanadi va keyingi tekshiruvlarda solishtirma hujjat sifatida foydalaniladi. Zarurat tug‘ilganda ushbu hujjatlar asosida ma’muriy choralar, jumladan jarima, vaqtinchalik faoliyatni to‘xtatish yoki ish yuritishni qayta tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatmalar berilishi mumkin.

Ma’muriy brakeraj nazorati odatda korxona ichida tashkil etilib, uni ishlab chiqarish bo‘limi boshlig‘i yoki uning o‘rinbosari rahbarligida o‘tkaziladi. Brakeraj boshlanishidan avval komissiya a’zolari kunlik menyu, texnologik xaritalar va kalkulyatsion me’yorlarni sinchiklab tahlil qiladi. So‘ngra tayyor taomlardan namunalar olinadi va ularning grammatik og‘irligi belgilangan texnik hujjatlar bilan solishtiriladi.

---

[130] O‘zbekiston Respublikasining “Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2021.

[131]O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining “Ovqatlanish korxonalarida brakeraj komissiyasi faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomi. – Toshkent, 2018.

Tayyor mahsulotlarning sifati organoleptik diagnostika asosida baholanadi. Buning uchun taomlarning ta’mi, hidi, rangi, tashqi ko‘rinishi va konsistensiyasi (quyuqlik darajasi) bo‘yicha ekspert xulosasi shakllantiriladi. Har bir taom “yaxshi”, “qoniqarli” yoki “qoniqarsiz” kabi standartlashtirilgan reyting tizimi asosida ballanadi.

Alohida hollarda, korxonada sifat nazoratini amalga oshirish vakolati yuqori malakali oshpazlarga (shaxsiy brakeraj sub’ektlariga) berilishi mumkin. Bunday oshpazlar tekshirilayotgan mahsulotlarni avval o‘zi ko‘rib chiqib, shaxsiy javobgarlik asosida sifati kafolatlangan holda iste’molga ruxsat beradi. Shu bilan birga, “shaxsiy taom tayyorlash huquqi”ga ega bo‘lgan bunday oshpazlar har uch yilda bir marotaba attestatsiyadan o‘tishi shart, aks holda ularning vakolati Brakeraj komissiyasi tomonidan bekor qilinishi mumkin.



1-rasm. Go‘sht, meva va sabzavotlarni saqlash tizimi

Brakeraj doirasida komissiya faqat tayyor taomlarni emas, balki xomashyo saqlash sharoitlari, yaroqlilik muddatlari, mahsulotlarni qo‘shish ketma-ketligi, texnologik intizomga rioya etilishi, porsiya miqdorlari, nazorat ovqatlanish (kontrol degustatsiya), menyu tarkibining balanslanganligi, mahsulotlar o‘zaro mosligi hamda umumiy sanitariya-gigiyena holatini ham chuqur tahlil qiladi.

Komissiya tarkibidagi barcha a’zolar organoleptik baholash metodikasi bilan mukammal tanish bo‘lishi shart, chunki organoleptika — bu ko‘rish, hid bilish, ta’m bilish va taktil sezgi organlari orqali mahsulot sifatining funksional ko‘rsatkichlarini aniqlashga qaratilgan ekspertiza usuli hisoblanadi.

Xulosa. Brakeraj nazorati umumiy ovqatlanish korxonalarida sifat va xavfsizlikni ta’minlashning muhim bo‘g‘ini bo‘lib, u organoleptik baholash orqali mahsulotning real holatini tezkor aniqlash imkonini beradi. Davlat, ma’muriy va shaxsiy ko‘rinishlarda qo‘llanilishi ushbu tizimning sertifikatlashtirishning turli bosqichlariga moslashuvchanligini ko‘rsatadi. Xususan, davlat brakeraji majburiy sanitariya nazoratiga, ma’muriy brakeraj ichki auditga, shaxsiy brakeraj esa professional attestatsiya va sifat kafolati tizimiga mos keladi.

Brakeraj jarayonlarini ISO 22000 va HACCP talablariga integratsiya qilish orqali uni oddiy degustatsion bahodan strategik sifat menejmenti modeliga aylantirish mumkin. Bu yondashuv nafaqat iste’molchi salomatligini himoya qiladi, balki ovqatlanish korxonalarida barqaror raqobatbardoshlik va ishonchli brend imidjini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois, brakeraj nazoratini zamonaviy

sertifikatlashtirish standartlari asosida qayta tashkil etish sohaga innovatsion yondashuv sifatida baholanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.O‘zbekiston Respublikasining “Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi nashri, 2020.

2.O‘zbekiston Respublikasining “Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2021.

3.O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining “Ovqatlanish korxonalarida brakeraj komissiyasi faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomi. – Toshkent, 2018.

4.ISO 9001:2015 – Quality Management Systems. International Organization for Standardization.

5.ISO 22000:2018 – Food Safety Management Systems (FSMS). International Organization for Standardization.

6.Codex Alimentarius Commission. “General Principles of Food Hygiene”. FAO/WHO, 2020.

7.Халиков А., Рахматуллаев У. Ovqatlanish texnologiyasi va sanitariya-gigiyena asoslari. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2019.

8.Назаров Б., Юлдашев Ж. Ovqatlanish korxonalarida sifat nazoratini tashkil etish. – Samarqand: SamDUPI nashriyoti, 2021.

U.N.Normurodov - *SamISI dotsenti, PhD*
O.A.Abdug‘aniyev - *SamISI mustaqil izlanuvchisi*

SAMARQAND VILOYATIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI

Annotatsiya: Maqolada Samarqand viloyatida chakana savdo tovar aylanishi tarkibi va uning rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Chakana savdo, chakana savdo tovar aylanmasi, aholi daromadlari, infratuzilma.

Jahon iqtisodiyotining innovatsion rivojlanish tendentsiyalari, globallashuv va integratsiya jarayonlarining ta’siri, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar o‘rtasidagi raqobatni keskinlashuvi, chakana savdo korxonalari samaradorligini oshirishning zaruriyatini yuzaga chiqarmoqda. “Jahonda chakana savdo hajmi 2021-yildagi 24,2 trillion. AQSH dollari hajmidan 2025-yilga kelib, taxminan 31,7 trillion AQSH dollarini tashkil etishi prognoz qilingan bo‘lib, globallashuv va bozorlar hamda mamlakatlar o‘rtasidagi turli shartnoma va kelishuvlar natijasida ko‘plab chakana savdo korxonalari biznes yuritish imkoniyatiga ega bo‘lishi kutilmoqda”[132]. Bugungi kunda chakana savdo xizmatlarini rivojlantirish bilan bir qatorda, chakana savdo

[132] https://www.statista.com/statistics/report-content/statistic/443522

xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda samaradorlikni oshirish muammolariga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Yangi O‘zbekistonda chakana savdo xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalar faoliyatining barqaror va samarali rivojlanishi, savdo xizmatlari sifati bilan bir qatorda savdo madaniyatini oshirish, savdo korxonalarini sifatli mahsulotlar bilan to‘ldirish, tarkibni optimallashtirish va assortimentni kengaytirish hamda savdo ishlab chiqarishini samarali tashkil qilish kabi yo‘nalishlarda dasturiy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. “Yurtimizda 2 mingdan ziyod mahalla xizmatlar sohasiga ixtisoslashgan. Bunday hududlarni ko‘paytirish maqsadida, aholisi 20 mingdan oshadigan mahallalarda chakana savdo va xizmat ko‘rsatish markazlari tashkil etiladi. Bu markazlar ham 5 yil muddatga yer va mol-mulk solig‘idan ozod etiladi”[133]. Bu vazifalarni hal etish chakana savdo xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda samaradorlikni baholash uslubiyatini takomillashtirish, iste’molchilarning chakana savdo xizmatlariga talabini to‘laroq qondirish hamda chakana chakana savdo tovar aylanmasini rivojlantirishning ekonometrik modellaridan foydalangan holda chakana savdo tovar aylanmasiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash bugungi kunda dolzarb xisoblanadi.

Chakana tovar aylanishini tarkibini, ya’ni assortimentini tahlili uning umumiy hajmini tahlilini davomi bo‘lib hisoblanadi. Tahlil natijasida aholi talabini qondirishni, ularni moddiy va madaniy ehtiyojlarini qondirish darajasi baholanadi.

Chakana tovar aylanishini tarkibi savdo korxonalarining son va sifat ko‘rsatkichlarini shakllantirishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu ko‘rsatkich savdoning daromadlari, muomala (davr) xarajatlari, foydasi, rentabellik darajasiga, resurslarni ishlatish samaradorligiga ta’sir qiladi.

Chakana tovar aylanishini tarkibini makrotartib va mikrotartib darajalarida o‘rganish zarur. Chakana tovar aylanishini makrotartibi deganda, uni oziq-ovqat maxsulotalari va nooziq-ovqat tovarlariga bo‘lib o‘rganishni va mikrotartib deganda chakana tovar aylanishini barcha assortimentlarini o‘rganish nazarda tutilmoqda.

Chakana tovar aylanishini (assortimentini) tahlil qilishda elastiklik koeffisiyenti ko‘rsatkichini tahlil qilish lozim:

Elastiklik koeffisiyenti (K_e) aholi talabini qondirilish darajasi qaysi omillar ta’siri ostida qanday miqdorda o‘zgarganligini ko‘rsatadi, ya’ni aholi jon boshiga sotilgan tovarlar (u) hisobga olingan omil (x) ta’siri natijasida qancha foizga o‘zgarganligini ko‘rsatadi.

Elastiklik koeffisiyenti quyidagicha hisoblanadi.

$$K_e = \frac{\Delta y * 100}{y} : \frac{\Delta x * 100}{x} = \frac{\Delta y}{\Delta x} * \frac{x}{y};$$

Bu yerda: $\Delta y = y_1 - y_0$

$\Delta x = x_1 - x_0$

[133] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2022-yil 19-aprel kuni mahallabay ishlash tizimi natijadorligini oshirish hamda aholi bandligini ta’minlash masalalari yuzasidan videoselektor yig‘ilishi. https://president.uz/uz/lists/view/5133

Dinamik qatorda Δx va Δu ko‘rsatkichlari to‘g‘ri chiziqli bog‘liklikda bo‘lganda $y = a + bx$ korrelyasiya tenglamasini yechish orqali K_e aniqlanishi mumkin. Bunda: $\mathbf{K_e = b}\ \frac{\bar{x}}{\bar{y}}$ teng bo‘ladi.

Elastiklik koeffisiyentini to‘g‘ri chiziqli bog‘liqlik bo‘lmagan holda quyidagi tenglamalar orqali ham aniqlash mumkin.

1. Parobolik tenglamadan: $\mathbf{K_e=(b + 2sx)} * \frac{\bar{x}}{\bar{y}}$**;**

2. Giperbolo tenglamada: $\mathbf{K_e=}\ \frac{-b}{\bar{x}} * \frac{1}{\bar{y}}$**;**

3. Logarifmik tenglamada: $\mathbf{K_e=}\ \frac{b}{\bar{y}}$**;**

Bizlar aholini jon boshiga to‘g‘ri kelgan chakana tovar aylanishi unga ta’sir qiladigan asosiy omillar to‘g‘ri chiziqli bog‘liklikka mos kelishini hisobga olib,

$$\mathbf{y=a + bx}$$

tenglamasini aniqlayniz.

Keltirilgan ($y = a + bx$) tenglamada «a» va «b» tenglamani parametrlari va quyidagi tenglamalar tizimini yechish orqali aniqlanadi:

$$\begin{cases} \Pi\, a + b \sum x = \sum y \\ a \sum x + b \sum x^2 = \sum xy \end{cases}$$

Ushbu tenglamadan noma’lum «a» va «b» parametrlarini quyidagi formula orqali aniqlash mumkin.

$$a = \frac{\sum y * \sum x^2 - \sum x * \sum xy}{\Pi \sum x^2 - \sum x * \sum x}$$

$$b = \frac{\Pi \sum xy - \sum x \sum y}{\Pi \sum x^2 - \sum x \sum x}$$

Ushbu usul bilan Samarqand viloyatida aholi jon boshiga to‘g‘ri kelgan chakana tovar aylanishi hajmiga aholi jon boshiga to‘g‘ri kelgan daromadni ta’sir darajasi aniqlandi (1-jadval).

1 jadval

Samarqand viloyatida aholi jon boshiga to‘g‘ri kelgan chakana savdo tovar aylanishi va daromadlar miqdori tahlili, ming so‘m

Yillar	Aholi jon boshiga	
	Daromad	ChTA
2020	10827,9	4259,9
2021	13231,2	5362,5
2022	15721,0	6153,8
2023	16701,5	7175,1
2024	19215,4	8375,7

Keltirilgan ma’lumotlar asosida aholi jon boshiga to‘g‘ri kelgan chakana savdo tovar aylanishi va aholining harid fondi o‘zgarishi hisobiga qanday darajada o‘zgarganligi aniqlandi (2-jadval).

2 jadval

Elastiklik koeffisiyentini hisoblash uchun ma’lumotlar.

Yillar	**X**	**Y**	**X^2**	**XY**
2020	10827,9	4259,9	117243418,4	46125771,21
2021	13231,2	5362,5	175064653,4	70952310
2022	15721,0	6153,8	247149841,0	96743889,8
2023	16701,5	7175,1	278940102,3	119834932,7
2024	19215,4	8375,7	369231597,2	160942425,8
Jami	**75697,0**	**31327,0**	**1187629612,0**	494599329,4

Bu ma’lumotlarni yuqorida keltirilgan tenglamaga qo‘ysak quyidagilar aniqlandi:

$$\begin{cases} 5a + 75697{,}0\ b = 31327{,}0 \\ 64975{,}2\ a + 1187629612{,}0\ b = 494599329{,}4 \end{cases}$$

Ushbu tenglamadan uning parametrlarini aniqlandi.

$$\boldsymbol{a} = \frac{31327 * 1187629612{,}0 - 75697{,}0 * 494599329{,}4}{5 * 1187629612{,}0 - 75697{,}0 * 75697{,}0} = \mathbf{-1128{,}3}$$

a = -1128,3

$$\boldsymbol{b} = \frac{5 * 494599329{,}4 - 75697{,}0 * 31327{,}0}{5 * 1187629612{,}0 - 75697{,}0 * 75697{,}0} = \mathbf{0{,}49}$$

b = 0,49

y = -1128,3 + 0,49 x; Tenglamaning «b» parametri miqdori 0,49 aholi daromadini ming so‘mga ortishi natijasida aholi jon boshiga to‘g‘ri kelgan chakana tovar aylanishi 490 so‘mga o‘sishini ta’minlaydi degan ma’noni anglatadi.

Endi elastiklik koeffisentini aniqlaymiz.

$K_e = b \frac{\bar{x}}{\bar{y}}$: yuqorida keltirilgan ma’lumotlar orqali «$\bar{x}$» va «$\bar{y}$» miqdorini aniqlaymiz:

$$\bar{x} = \frac{75697,0}{5} = 15139,4 \text{ ming so‘m}$$

$$\bar{y} = \frac{31327,0}{5} = 6265,4 \text{ ming so‘m}$$

$$K_e = \mathbf{0,49}^{\frac{15139,4}{6265,4}} = 0,49 * 2,4163 = 1,1840$$

Ushbu ko‘rsatgichdan aniqlandiki, Samarqand viloyatida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadning 1% ga ko‘payishi natijasida aholi jon boshiga to‘g‘ri kelgan chakana tovar aylanishi 1,18% ga o‘sgan.

Xulosa qilib, Samarqand viloyati aholisi daromadlarining ko‘payishi natijasida, ularning turli-tuman (assortiment) va sifatli tovarlarga bo‘lgan ehtiyojlarining ortishi va savdo faoliyatining yildan-yilga ixtisoslashib, universallashib borishi hamda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlarimizga yaratilayotgan shart-sharoitlar samarasi sifatida istemol tovarlarini ishlab chiqarish hajmining oshib borishinatijasida chakana savdo aylanmasi ham tez sur’atlarda o‘sib bormoqda.

A.A.Siddiqov - *SamISI, “Menejment” kafedrasi dotsent v.b.*
Ismatillayev Bekjon Nizom o‘g‘li - *SamISI, talaba*

MEHMONXONA VA RESTORAN MENEJMENTIDA ISHLAB CHIQARISH DASTURI

Annotatsiya: Maqolada umumiy ovqatlanish korxonalarida ishlab chiqarish dasturini shakllantirish va tezkor rejalashtirishning samaradorlikka ta’siri tahlil qilingan. Ishlab chiqarish quvvatlaridan oqilona foydalanish, resurslarni taqsimlash hamda sovuq zanjir asosidagi logistikaning mahsulot sifati va xizmat ko‘rsatish barqarorligini ta’minlashdagi o‘rni ilmiy asosda yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ishlab chiqarish dasturi, tezkor rejalashtirish, resurslarni boshqarish, sovuq zanjir logistika, mahsulot sifati, menyu asosida rejalashtirish.

Ishlab chiqarish dasturi - o‘z korxonasida ishlab chiqariladigan barcha turdagi mahsulotlar, jumladan, yarim tayyor mahsulotlar, taomlar va kulinariya mahsulotlarining puxta o‘ylangan rejasidir. Reja ishlab chiqarish hajmi va assortimentni o‘z ichiga oladi. Umumiy ovqatlanish korxonalarida zaxira ishlab

chiqarish dasturi ishlab chiqarish tarmog‘idan kelib tushgan buyurtmalar asosida tuziladi va buyurtma shaklida rasmiylashtiriladi.[134]

Sanoat va umumiy ovqatlanish korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlarini ilmiy asosda rejalashtirish mehnat unumdorligini oshirish hamda mahsulot sifatini barqaror saqlashning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. To‘g‘ri tashkil etilgan rejalashtirish tizimi korxona faoliyatining uzluksiz va bir maromda olib borilishini ta’minlaydi, xususan, kulinariya mahsulotlarini belgilangan muddatlarda tayyorlash va yetkazib berishni kafolatlaydi.

Rejalashtirishning samarali bo‘lishi ishlab chiqarish quvvatlaridan maksimal darajada foydalanish, mavjud resurslarni oqilona taqsimlash hamda mehnat jarayonida har bir xodimning funksional majburiyatlarini aniqlik bilan belgilab berish imkonini yaratadi. Bu esa o‘z navbatida ishlab chiqarishdagi nosozliklar, bekor turishlar va mehnat zaxiralaridan samarasiz foydalanish holatlarining oldini oladi.

Umumiy ovqatlanish korxonalarida tayyor pazandachilik mahsulotlarini saqlash, tashish va realizatsiya qilish jarayonlari qat’iy me’yorlar asosida markazlashtirilgan tarzda amalga oshiriladi. Mazkur jarayonlarda mahsulot sifatining saqlanishini ta’minlash maqsadida maxsus sovutgich jihozlari bilan jihozlangan transport vositalaridan foydalaniladi. Sovuq zanjirning uzluksizligi nafaqat gigiyenik talablarning bajarilishini kafolatlaydi, balki iste’molchiga yetkazilayotgan mahsulotning organoleptik ko‘rsatkichlarini saqlab qolishda ham muhim omil sifatida xizmat qiladi.

Umumiy ovqatlanish korxonalarida ishlab chiqarish dasturi, odatda, maqsadli iste’molchilar kontingentining talabi va ehtiyojlariga tayanilgan holda shakllantiriladi. Mazkur jarayon korxonaning turi (restoran, kafe, oshxona va boshqalar), sinfi (xalqaro toifadagi yulduzliligi) hamda texnologik imkoniyatlari hisobga olingan holda amalga oshiriladi. Menyu, narxnoma va vino (yoki kokteyl, pivo) ro‘yxatlarini ishlab chiqish ishlab chiqarish dasturining asosiy tarkibiy qismi bo‘lib, ularda mahsulot assortimenti va taqdimot shakli batafsil mujassam etiladi. Qandolat mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan sexlarda esa ishlab chiqarish dasturi odatda individual va ommaviy buyurtmalarni ro‘yxatga olish orqali rasmiylashtiriladi. Buyurtmalarni tizimli qayd etish, ularning hajmi va bajarilish muddatiga ko‘ra ishlab chiqarish quvvatlarini rejalashtirish imkonini beradi. Bunday yondashuv resurslardan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish jarayonini barqarorlashtirish hamda mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Restoran va umumiy ovqatlanish korxonalarining ishlab chiqarish faoliyati asosan xomashyoni tayyor ovqat mahsulotlariga aylantirishga qaratilgan uzluksiz texnologik jarayonlar majmuasidan iborat. Mazkur jarayonning to‘g‘ri tashkil etilishi iste’molchiga taqdim etilayotgan xizmat sifati va korxonaning iqtisodiy samaradorligiga bevosita ta’sir ham ko‘rsatadi. Ishlab chiqarish jarayonini samarali boshqarish, odatda, har bir sex (masalan, sovuq taomlar sexi, issiq taomlar sexi, qandolat sexi va boshqalar) faoliyatini tezkor rejalashtirish orqali amalga oshiriladi.

[134] A.A.Siddiqov, N.M.Usmanova Mehmonxona va restoran menejmenti. O‘quv qo‘llanma, SamISI, Samarqand, 2025.- 180 b.

Tezkor rejalashtirishning asosiy maqsadi – mavjud ishlab chiqarish imkoniyatlaridan kompleks foydalanish hamda ishlab chiqarish jarayonida mehnat, xomashyo va vaqt resurslarini oqilona taqsimlashdir. Tezkor rejalashtirishning markaziy elementi sifatida ishlab chiqarish dasturi shakllantiriladi. Ushbu dastur ish kuni davomida tayyorlanishi lozim bo‘lgan taomlar nomi, assortimenti va hajmini aniqlab beradi. Shunday qilib, ishlab chiqarish dasturi ishlab chiqarish jarayonining ritmini belgilovchi me’yoriy hujjat vazifasini bajaradi.[135]

Restoran faoliyatida tezkor rejalashtirishga ehtiyoj quyidagi omillar bilan belgilanadi:

- taomlarning keng va xilma-xil assortimenti;
- menyu tarkibining muntazam ravishda yangilanib turilishi;
- xomashyo ta’minotidagi o‘zgaruvchanlik;
- mijozlar oqimi va talab darajasining mavsumiy yoki kunlik tebranishi.

Mazkur omillar ishlab chiqarish jarayonini standart ko‘rinishda emas, balki yuqori darajada moslashuvchan va dinamik boshqarishni talab qiladi. Shuning uchun ham zamonaviy restoranlarda ishlab chiqarish jarayoni nafaqat strategik, balki kunlik operativ (tezkor) rejalashtirish tamoyillariga asoslanadi.

Xulosa. Restoranlarda ishlab chiqarish jarayonini tezkor rejalashtirish korxonaning barqaror ishlashi, resurslardan oqilona foydalanish va mijozlar ehtiyojini tezkor qondirishning asosiy omilidir. Mahsulot assortimenti va talabning doimiy o‘zgaruvchanligi sharoitida operativ rejalashtirish mehnat unumdorligini oshiradi, texnologik intizomni ta’minlaydi va xizmat ko‘rsatish sifatini barqarorlashtiradi. Shunday ekan, tezkor rejalashtirishni ilmiy asosda yo‘lga qo‘yish zamonaviy umumiy ovqatlanish korxonalarining raqobatbardoshligini belgilovchi zaruriy boshqaruv mexanizmi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. A.A.Siddiqov, N.M.Usmanova Mehmonxona va restoran menejmenti. O‘quv qo‘llanma, SamISI, Samarqand, 2025.- 180 b.

2. G.R.Tursunova «Restoran biznesi» O‘quv qo‘llanma. Samarqand. SamISI. 2020 y. -320b.

3. Karimov, A. R. Umumiy ovqatlanish korxonalarini tashkil etish va boshqarish. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2019.

4. To‘xtayev, M. S. Ovqatlanish texnologiyasi va ishlab chiqarishni rejalashtirish. – Samarqand SamISI. NMIU, 2021.

5 . http://iloencyclopaedia.org/uz/part-xvii-65263/hotels-and-restaurants

[135] G.R.Tursunova «Restoran biznesi» O‘quv qo‘llanma. Samarqand. SamISI. 2020 y. -320b.

A.A.Siddiqov - *SamISI, "Menejment" kafedrasi dotsent v.b.*
Ismatillayev Bekjon Nizom o'g'li - *SamISI, talaba*

MEHMONXONA VA RESTORAN MENIJMENTIDA TEXNOLOGIK XARITA

Annotatsiya: Maqolada umumiy ovqatlanish korxonalarida qo'llaniladigan texnologik xaritalarning tuzilishi va ularning mahsulot sifatiga ta'siri ko'rib chiqilgan. Samarqandcha palov misolida xomashyo tanlash, brutto-netto hisoblari, texnologik jarayon va tayyor taomning sifat ko'rsatkichlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari texnologik xaritalardan foydalanish jarayonni standartlashtirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim omil ekanini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: Texnologik xarita, mahsulot, taom, xomashyo, yarim tayyor, taom tayyorlash, energetik qiymat.

Texnologik xarita - bu mahsulotni ishlab chiqarish yoki obyektga texnik xizmat ko'rsatishda qatnashadigan xodimlar uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar va ko'rsatmalarni o'z ichiga olgan yagona hujjatdir. U mahsulot tayyorlash texnologiyasi va xomashyoni joylashtirish me'yorlarini, shuningdek, xomashyo va texnologik jarayonlarning xavfsizlik talablariga muvofiqligi bo'yicha laboratoriya tadqiqotlari natijalarini hamda mahsulot xavfsizligi ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi.[136]

Texnologik xarita quyidagi bo'limlardan iborat:

Mahsulot nomi va foydalanish sohasi haqidagi ma'lumot.

Ushbu bo'limda texnologik xarita tuzilayotgan mahsulot (yoki taom)ning rasmiy, tasdiqlangan nomi to'liq va aniq ko'rinishda keltiriladi. Nomi qisqartirilmagan, boshqa taomlar bilan chalkashmaydigan shaklda berilishi lozim. Shuningdek, mazkur mahsulotni ishlab chiqarish, qayta ishlash yoki realizatsiya qilish huquqiga ega bo'lgan korxonaning to'liq nomi (yuridik shakli bilan birga), uning faoliyat sohasi hamda mahsulotdan foydalanish chegaralari (masalan, umumiy ovqatlanish korxonalari, tez tayyorlanadigan taomlar tarmog'i, mehmonxona restoranlari va boshqalar) ko'rsatiladi.

Taom tayyorlashda ishlatiladigan xomashyo va komponentlar ro'yxati.

Mazkur bo'limda texnologik jarayonni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan barcha turdagi xomashyo, yarim tayyor mahsulotlar, ziravorlar hamda yordamchi materiallar to'liq va ketma-ketlikda sanab o'tiladi. Har bir komponentning aniq nomi, sifati, nav (kategoriyasi), agregat holati (yangi, muzlatilgan, quritilgan va boshqalar), shuningdek, zarur bo'lganda — kelib chiqish manbasi yoki sertifikat talablari ko'rsatiladi.

Xomashyo va komponentlar sifatiga qo'yiladigan talablar.

Ushbu bo'limda taom (yoki mahsulot) tayyorlashda qo'llaniladigan oziq-ovqat xomashyolari, yarim tayyor mahsulotlar hamda yordamchi komponentlarning sifat

[136] A.A.Siddiqov, N.M.Usmanova Mehmonxona va restoran menejmenti. O'quv qo'llanma, SamISI, Samarqand, 2025.- 180 b.

ko‘rsatkichlari amaldagi me’yoriy-texnik hujjatlar (O‘zDSt, GOST, ISO, TU va boshqalar) talablariga to‘liq mos bo‘lishi ta’kidlanadi. Har bir xomashyo turi uchun muvofiqlik sertifikati, sifat guvohnomasi, gigiyenik xulosa yoki veterinar nazorat hujjati mavjud bo‘lishi shart.

Xomashyo, yarim tayyor va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hajmining umumiy va sof ko‘rsatkichlari.

Mazkur bo‘limda taom tayyorlash jarayonida qo‘llaniladigan xomashyo va komponentlarning brutto (umumiy vazn) hamda netto (tozalangan, ishlov berilgan holatdagi sof vazn) miqdorlari aniq ko‘rsatib o‘tiladi. Har bir xomashyo turi uchun foydalanish koeffitsienti, issiqlik yoki mexanik ishlov berishdan keyingi yo‘qotish foizi (massaning kamayishi) hisobga olinadi.

Taom tayyorlash texnologik jarayonining tavsifi.

Ushbu bo‘limda tanlangan taomni tayyorlash jarayoni bosqichma-bosqich texnologik ketma-ketlik asosida yoritiladi. Jarayon dastlab xomashyoni dastlabki ishlov berish (saralash, tozalash, yuvish, mayda yoki yirik shaklda maydalash) bosqichlaridan boshlanib, har bir amaliyotda sanitariya-gigiyena normalari va oziq-ovqat xavfsizligi qoidalariga qat’iy rioya etilishi ta’kidlanadi.

Sifat va xavfsizlik ko‘rsatkichlari.

Mazkur bo‘limda tayyor mahsulotning organoleptik, fizik-kimyoviy hamda mikrobiologik ko‘rsatkichlari aniq belgilab beriladi. Organoleptik sifat mezonlariga taomning ta’mi, hidi, rangi, konsistensiyasi (quyuqligi yoki tuzilishi) kirib, ushbu parametrlar taomning retsepturasi va tayyorlash texnologiyasiga mos bo‘lishi shart.

Oziq-ovqat mahsulotlarining tarkibi va energetik qiymati

Ushbu bo‘lim tayyor mahsulotning ozuqaviy (nutritiv) tarkibi hamda energetik qiymatini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, taomning 100 grammiga yoki 1 (bir) porsiyasiga nisbatan oqsil, yog‘, uglevod, kletchatka, vitaminlar, mineral moddalar miqdori ko‘rsatiladi. Energetik baholash odatda kilokaloriya (kcal) yoki kilodjoul (kJ) ko‘rinishida ifodalanadi.

Samarqandcha palov - 10 porsiya uchun texnologik xarita

Mahsulot nomi va foydalanish sohasi	“Samarqandcha palov” (osh) – umumiy ovqatlanish korxonalari, restoranlar, milliy taom uylari va tantanali tadbirlarda asosiy taom sifatida ishlatiladi.
Xomashyo ro‘yxati	Go‘sht - 1.5 kg; Guruch - 1.2 kg; Sabzi - 1.2 kg; Piyoz - 0.3 kg; Yog‘ - 0.35 l; Tuz - 40 g; Ziravorlar - me’yorda.
Sifat talablar	Barcha xomashyolar sanitariya me’yorlariga mos, sertifikatlangan va yangi bo‘lishi kerak.
Chiqish me’yorlari	Xomashyo - 4.5 kg; Tayyor taom - 4.8-5 kg; 1 porsiya - 450-500 g.
Texnologik jarayon	Go‘sht va sabzi bosqichma-bosqich qovuriladi, suv bilan qaynatiladi, guruch tepasidan solinib bug‘da pishiriladi.
Jihozlar	Qozon, pichoq, taxta, o‘lchash idishi.
Sifat ko‘rsatkichlari	Rangi oltinrang, ta’mi yog‘simon, hidi xushbo‘y, guruch donalari yopishmagan.
Energetik qiymat	1 porsiya: 450-500 kcal; Oqsil 18-20 g; Yog‘ 22-25 g; Uglevod 65-70 g.

Xulosa. Mehmonxona va restoran menejmentida texnologik jarayonlar — bu xizmat ko‘rsatishning har bir bosqichini aniq rejalashtirish, standartlashtirish va

nazorat qilish orqali mijoz ehtiyojlarini maksimal darajada qondirishga qaratilgan kompleks tizimdir. Jarayonning samarali tashkil etilishi resurslardan oqilona foydalanish, vaqt tejamkorligi, xizmat sifati barqarorligini ta’minlaydi hamda korxonaning raqobatbardoshligini oshiradi. Zamonaviy texnologiyalar, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va innovatsion servis yondashuvlarini joriy etish orqali mehmonxona va restoranlar nafaqat operatsion samaradorlikka erishadi, balki mijozlarda ishonch va sodiqlikni shakllantiradi. Demak, mukammal ishlab chiqilgan texnologik jarayon — bu servisyunal muvaffaqiyatning asosiy omili sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. A.A.Siddiqov, N.M.Usmanova Mehmonxona va restoran menejmenti. O‘quv qo‘llanma, SamISI, Samarqand, 2025.- 180 b.

2. G.R.Tursunova «Restoran biznesi» O‘quv qo‘llanma. Samarqand. SamISI. 2020 y. -320b.

3. http://iloencyclopaedia.org/uz/part-xvii-65263/hotels-and-restaurants

Tuychiyev Sherxon Shuxrat o‘gli - *PhD, dotsent v.b.,*
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali

JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN YER SOLIG‘INING HOZIRGI HOLATI VA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonda yer solig‘ining iqtisodiy mohiyati, mahalliy byudjet daromadlaridagi o‘rni va ahamiyati hamda uni undirish jarayonidagi mavjud muammolar tahlil qilingan. Yer solig‘i soliq siyosatining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, nafaqat davlat byudjeti barqarorligini ta’minlaydi, balki yerdan oqilona foydalanishni rag‘batlantiruvchi vosita sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi. Yakunda yer solig‘i siyosatini takomillashtirish yo‘nalishlari, jumladan, soliq bazasini kengaytirish, normativ-huquqiy asoslarni mustahkamlash va xorijiy mamlakatlar tajribasidan foydalanish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Yer solig‘i, mahalliy byudjet, soliqqa tortish tizimi, soliq siyosati, fiskal barqarorlik, soliq islohoti, mahalliy daromadlar.

Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tish jarayonida O‘zbekistonda soliqqa tortish tizimi tubdan isloh qilinmoqda. Yangi soliq kodeksining qabul qilinishi, davlat soliq xizmati organlarining raqamlashtirilishi va “Soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti” kabi innovatsion mexanizmlarning joriy etilishi mamlakatdagi soliq tizimini yanada samarali va shaffof qilishga xizmat qilmoqda. Biroq, ayniqsa yer solig‘i sohasida hal etilishi lozim bo‘lgan muammolar mavjud:

1. Yagona ma’lumotlar bazasining yo‘qligi va yer uchastkalari hisobining to‘liqligi masalasi. Yer uchastkalari haqida aniq va to‘liq ma’lumotlar bazasining yo‘qligi, ularga egalik qilish huquqi va foydalanish holatini real vaqt rejimida aks ettirish imkonining cheklanganligi soliq bazasini shakllantirishda katta to‘siq

hisoblanadi. Bu, o‘z navbatida, yer solig‘i bazasining to‘g‘ri shakllanmasligi va soliqlarni yig‘ishda kamchiliklarga olib keladi. Yagona va tizimli kadastr tizimini yaratish orqali yer solig‘i bazasining aniqligi oshirilishi zarur.

2. Huquqiy maqom va ma’lumotlar yangilanishidagi kamchiliklar. Ayrim hududlarda yer maydonlariga nisbatan soliq to‘lovchilarning huquqiy maqomi aniq emasligi, yer kadastri ma’lumotlarining muntazam yangilanmasligi soliq yig‘imlarining past bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda. Bu holat soliq to‘lovchilar va soliq organlari o‘rtasida ishonchsizlikni kuchaytiradi hamda soliq siyosatining samaradorligini pasaytiradi va boshqalar.

Nobel mukofoti laureati Stiglitzning soliq siyosati bo‘yicha ishlari yer solig‘ining iqtisodiy samaradorligi va adolatliligi nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega. U soliq yukining teng taqsimlanishi, ayniqsa, jismoniy shaxslar o‘rtasida soliq to‘lash imkoniyatiga qarab farqlanishi haqida so‘z yuritadi. Yer solig‘i jismoniy shaxslar uchun mol-mulkka egalik qilish darajasiga qarab aniq va adolatli bo‘lishi zarur. Soliq tizimining progressivligi kam daromadli oilalarni himoya qilishi va yuqori daromadli egalardan ko‘proq soliq olinishi kerak.

Stiglitzning fikricha, yer solig‘i iqtisodiyotda investitsiyalarni rag‘batlantirishi va yer resurslaridan oqilona foydalanishni ta’minlashi zarur. Shu bilan birga, soliq tizimi murakkab bo‘lmasligi va byurokratik xarajatlarni oshirmasligi lozim.

David Jaegerning ishlari yer solig‘ining ijtimoiy adolatga ta’siri va jismoniy shaxslar o‘rtasida tengsizlikni kamaytirishdagi roli haqida. Jaeger yer solig‘ining progressiv bo‘lishi ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishga yordam berishini ta’kidlaydi, ayniqsa, yer egasi bo‘lmagan yoki kam mulkka ega shaxslar uchun bu muhimdir. Soliq siyosati yerga egalik qilish darajasidagi farqlarni yumshatishi va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashi mumkin.

Mahalliy iqtisodchi olimlar ham O‘zbekiston sharoitida yer resurslarning milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati, ulardan samarali foydalanishda moliya-kredit mexanizmlarining qo„llanilishi, jumladan, ularni soliqqa tortish masalalari bilan bog‘liq ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Mahalliy byudjetlar daromadlarini oshirish va iqtisodiyotni liberallashtirish jarayonida yer solig‘ining to‘g‘ri va samarali undirilishi muhim omil hisoblanadi. Yer solig‘i nafaqat moliyaviy resurslar manbai sifatida, balki yerdan oqilona foydalanishni rag‘batlantiruvchi vosita sifatida ham katta ahamiyatga ega. Shuning uchun, yer solig‘i siyosatini takomillashtirish, soliq mexanizmlarini samarali tashkil etish va mulkdorlarning huquq hamda majburiyatlarini aniq belgilash orqali mahalliy byudjetlarning barqarorligini ta’minlash mumkin.

Ushbu soliqning vazifasi moliyaviy nuqta’i nazardan olganda, rag‘batlantiruvchi va nazorat qilish, mahalliy budjetlar daromadlarini shakllantirish nuqta’i-nazaridan esa, fiskal vazifalarini bajarishdan iborat.

Mahalliy budjet daromadlarini shakllantirish va tushumlarni barqarorligini ta’minlash zarurati mavjudligi, mahalliy hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qo‘llab quvvatlashda yer solig‘ini amal qilishini taqozo etadi.

Yer solig‘ining obyektiv zarurligidan kelib chiqib, uning iqtisodiy mohiyati, bizning nazarimizda soliqqa tortiladigan yer uchastkasidan foydalanish tufayli aniq

bir iqtisodiy shart-sharoitlarda olinadigan muayyan o‘rtacha daromadning bir qismini budjetga undirishga qaratilgan desak, yanglishmaymiz.

Soliq miqdorlarini yerlar sifati, tabiiy iqlim zonalari bo’yicha tabaqalashtirish maqsadida sug’oriladigan yerlar uchun soliq stavkalari ma’muriy tumanlar bo’yicha, ularni tuproqlar ball-bonitetlari buyicha 10 darajaga bo'lgan holda belgilangan. Tuproqlar boniteti dehqonchilikning hozirgi darajasida qiyoslama tabiiy hosildorlikning shartli ko'rsatkichi hisoblanadi. Bonitetni aniqlashda tuproqlarning genetik kelib chiqishi, sug'orishning qancha muddat davom etayotgani, ekin ekilishi, agroiklimiy resurslar bilan ta’minlangani, mexanik tarkibi, tuproqlarning hosil bulish genezisi, tuproq qatlamining suv o’tkaza olishi, sho’rlanganlik darajasi, yeroziyaga uchraganligi, toshloqligi, zichligi hamda tuproqning boshqa tabiiy xossalari hisobga olinadi. Tuproq boniteti 100 balli tizim bo’yicha aniqlanadi.

Lalmi yerlar va yaylovlar zonalar yoki vertikal mintakalarga bulingan, bu yerda yog’inlar bilan turlicha ta’minlanganlik shakllanadiki, ularning unumdorligi shu holatlar bilan bogliqdir.

Qishloq joylarda joylashgan yer uchastkalarining joylashgan joyi buyicha solik mikdorlarini tabaqalashtirish maqsadida ma’muriy va sanoat markazlari atrofidagi stavkalarga 1,1 dan 1,3 ga qadar oshiruvchi koeffitsientlar belgilangan.

Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig’ini mahalliy hudud bo’yicha o’rganar ekanmiz, albatta uning shu hudud mahalliy byudjeti daromadlarida tutgan o’rnini va salmog’ini tahlil qilishimiz lozim bo’ladi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlari tarkibida jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig’i bo’yicha quyidagi ma’lumotlar o’rganildi.

1.Jadval

O‘zbekistonda davlat byudjeti tarkibida yer solig’ining salmog’i[137]

(mlrd. so’mda)

Ko’rsatkichlar	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil
Jami soliqli daromadlari	103561,7	127970,4	148388,3	165917,9	197642,8
Mahalliy byudjetga tushadigan yer solig’i	2389,7	4060,5	5328,8	6890,1	7171,1
Jumladan, jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig’i	1079,9	1524,2	1883,9	2872,0	2895,6

Jadvaldan ko’rish mumkinki, jami soliqli daromadlarning o‘sishi 2020 yildan 2024 yilgacha jami soliqli daromadlar doimiy ravishda o‘sib bormoqda. 2020 yildagi 103561,7 mlrd so‘mdan 2024 yilga kelib 197642,8 mlrd so‘mga yetgan. Bu taxminan 90,8% o‘sishni ko‘rsatadi. Bu o‘sish iqtisodiy faollikning yaxshilanishi va soliqlarni yig‘ishda samaradorlikning oshganidan dalolat beradi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i ham ancha oshgan: 2020 yilda 1079,9 mlrd so‘m bo‘lsa, 2024 yilda 2895,6 mlrd so‘mga yetgan. Taxminan 2,7

[137]O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

barobar o‘sish kuzatilmoqda. Bu jismoniy shaxslar yer mulkidan soliqqa tortishda yanada faolroq jalb qilinayotganini anglatadi.

Yer solig‘i, ayniqsa jismoniy shaxslardan olinadigan qismi 2022-2023 yillarda sezilarli darajada oshgan. 2023 yildagi jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i 2872 mlrd so‘m bo‘lib, 2022 yilga nisbatan deyarli 52% ga o‘sgan. Bu soliq ma’muriyatchiligining takomillashuvi, raqamlashtirish, nazoratning kuchayishi va soliqqa tortish mexanizmlarining samaradorligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

So‘nggi 5 yil ichida yer solig‘i ko‘rsatkichlari barqaror o‘sishda bo‘lib, ayniqsa jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i sezilarli darajada oshgan. Keyingi yillarda ham yer solig‘ini samarali boshqarish va soliq bazasini kengaytirish ustuvor vazifa bo‘lib qoladi.

O‘zbekiston Respublikasi soliqqa tortish tizimi modernizatsiyasining hozirgi bosqichida yer solig‘ining mohiyati, maqsad va vazifalari hamda ularni soliq to‘lovchilar faoliyatiga ta’siri, budjet daromadidagi hissasini tahlil qilish va bu boradagi majud muammolarni o‘rganish asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

- Soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasining qabul qilinishi doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar davomida bevosita soliqlar stavkalari keskin pasaytirilsa-da, yer solig‘i stavkalari yildan yilga oshirib borilmoqda, bu esa uning mahalliy budjet daromadlarini to‘ldirishda eng muhim manba ekanligini ko‘rsatadi;
- soliqqa tortish amaliyotida bo‘sh turgan maydonlarning xususiy mulkdorlariga ta’sir choralari kuchaytirilganligi, yerning ahamiyati qanchalik yuqoriligini ko‘rsatadi;
- Yer solig‘i uni to‘lovchilarning iqtisodiy faoliyati natijalariga bog‘liq bo‘lmaydi;
- Yer solig‘i davlat daromadlarining manbai sifatida barqaror, ishonchli va tushunish uchun nisbatan yengil soliqqa tortish vositasi;
- Mamlakatimizda yer resurslarini soliqqa tortishda rivojlangan davlatlar tajribasidan foydalanishning o‘zi ham mavjud muammolarni bartaraf etishda samarali natijalarga olib kelishi mumkinligi;
- Mahalliy budjetlar o‘zining xarajatlarini o‘z mablag‘i hisobidan amalga oshirilishi yo‘lga qo‘yilayotgan ayni paytda mahalliy budjet daromadlarining umumiy hajmida yer solig‘i bo‘yicha tushumlar summasining barqaror salmog‘ini ta’minlash zarur ekanligi.

Yer solig‘idagi muammo va kamchiliklarni bartaraf etish yoki uni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlarini respublikamizdagi yutuq va kamchiliklarni, tajribasi yuqori bo‘lgan xorijiy mamlakatlarning soliq tizimidagi yutuqlarini hisobga olgan holda hamda yuqoridagi xulosalardan kelib chiqqan holda quyidagi takliflarni kiritmoqchimiz:

- Soliq idoralariga tegishli tartibda mahalliy soliqlar obyektlari hamda fuqarolarning soliq to‘lovchilariga nisbatan imtiyozga asos bo‘luvchi hujjatlarni bevosita taqdim qiluvchi tashkilotlar bilan hamkorlikda yagona markazlashgan baza yaratish orqali ular faoliyatidagi kamchiliklarni tuzatish, soliq idoralariga jo‘natilayotgan ma’lumotlarning haqqoniyligini ta’minlashga erishish;

- Yer uchastkalariga adolatli soliq solish hamda ushbu soliqning mahalliy budjetdagi ulushini ko‘paytirish maqsadida tomorqa xo‘jaligida foydalaniladigan yerlar bo‘yicha yer solig‘i to‘lashning alohida tartibini joriy etish;

- Egallab turgan yer maydoni ikki tumanga tegishli subyektlarning yer solig‘ini to‘lashda, soliqni ro‘yxatdan o‘tgan tuman budjetiga to‘lashi, hisobotlarni esa, o‘sha tuman soliq idorasiga topshirish hamda ikkinchi tumanga tegishli tartibda ma’lumotnoma olib borishni tashkil qilish kerak. Bu o‘z navbatida, bir tashkilotning ikkita soliq idorasi tomonidan tekshirilishi va tekshiruvlar soni ko‘payishini oldini oladi;

- Jismoniy shaxslar tomonidan yer resurslaridan tejamkorlik bilan foydalanishni yo‘lga qo‘yish maqsadida, ularga ajratilgan yer uchastkalaridan foydalanilmagan yoki boshqa maqsadlarda foydalanilgan hamda 2 yil va undan ortiq davrda qurilish ishlari tugallanmagan holatlari aniqlangan taqdirda 3-yildan boshlab, soliq summasiga ekvivalent miqdorda 2 koeffitsient, 4-yilda 3 koeffitsient va shu tartibda soliq summasini o‘sib boruvchi tartibini joriy etish;

- Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqqan holda yer solig‘ini normativ va haqiqiy qiymat asosida soliqqa tortish tizimini joriy qilish;

- Jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlari o‘rniga yagona ko‘chmas mulk solig‘ini joriy etish;

- Yerdan qonun hujjatlarida belgilangan tartiblarga zid ravishda foydalanganlarga tegishli tartibda jazo choralari kiritish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Jismoniy shaxslar yer solig‘i sohasidagi mavjud muammolarni bartaraf etish uchun normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, samarali axborot almashinuvi tizimini yaratish, soliq stavkalarini optimallashtirish va jazo mexanizmlarini kuchaytirish zarur. Shuningdek, soliq tizimini rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida modernizatsiya qilish va yer resurslaridan oqilona foydalanishni rag‘batlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu chora-tadbirlar mahalliy byudjetlarning daromad bazasini kengaytirish va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim omil bo‘ladi.

Adabiyotlar

1. Stiglitz, Joseph E. Economics of the Public Sector.

2. Dye, Richard F., England, Richard W. "Assessing the Effects of Property Taxation on the Housing Market." Journal of Real Estate Finance and Economics, 1991.

3. Fischel, William A. The Economics of Zoning Laws: A Property Rights Approach.

4. Oates, Wallace E. "The Theory and Practice of Local Public Finance." Handbook of Public Economics, 1987.

5. Jaeger, David A. "Property Taxation and Inequality." National Tax Journal, 2007.

Yuldashev Giyos Turabekovich -
PhD, dotsent v.b., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali

MILLIY IQTISODIYOTDA ZAMONAVIY BOSHQARUV NAZARIYALARINI QO‘LLASH IMKONIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshqaruv nazariyasi va amaliyotining tarixiy rivojlanish bosqichlari, xususan ilmiy menejment, ma’muriy menejment, inson munosabatlari maktabi va zamonaviy tizimli boshqaruvning asosiy qoidalari tahlil etilgan. Maqola boshqaruv nazariyalari va ularning milliy amaliyotda qo‘llanish imkoniyatlarini tahlil qilishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Boshqaruv, menejment, ma’muriy menejment, tizimli menejment, boshqaruv qoidalari, fermer xo‘jaliklari, iqtisodiy islohotlar.

Boshqaruv – har qanday tashkilot, korxona yoki jamiyat hayotidagi muhim funksiyalardan biri bo‘lib, resurslarni maqsadli va samarali yo‘naltirish orqali belgilangan natijalarga erishishni ta’minlaydi. Bugungi kunda boshqaruv nazariyasi va amaliyoti tez sur’at bilan rivojlanib, yangi tamoyillar, usullar va yondashuvlar paydo bo‘lmoqda. Ushbu maqolada boshqaruv tushunchasi, uning asosiy elementlari, boshqarishning xususiyatlari, funktsiyalari va zamonaviy boshqaruv jarayonida ahamiyati keng tahlil qilinadi.

Har qanday korxonada boshqaruv mavjud, hattoki ikki kishi bor joyda ham ulardan biri boshqauvchi bo‘lmasligi, ularning maqsadlari mushtarakligiga olib kelmasligi mumkin.

Boshqarish nazariyalari tarixida 4 ta maktab mavjud:

1. Ilmiy menejment. Bu maktab XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida Amerikada shakllana boshlagan. Bu maktab asoschisi amerikalik muhandis va ixtirochi F.Teylor (1856-1915) edi. Keyinchalik G.Emerson uning yo‘nalishini davom ettirgan. Bu maktab nazariyachilarining fikriga ko‘ra, ishchilar (boshqariluvchilar boshqaruvchilarning) buyruqlarini so‘zsiz, hyech qanday mulohazasiz bajarishi lozim bo‘lgan. Bu tizim ishchilarning «siqib suvini olish»ga qaratilgan. F.Teylor boshqarishni «aniq qonun va qoidalarga tayanadigan haqiqiy ilm, shuningdek, nima qilish kerakligini aniq bilish va uni puxta hamda arzon usulda bajarish san’ati» deb baholagan. F.Teylorning boshqarish borasidagi takliflari ishlab chiqarishga tadbiq etilganda, mehnat unumdorligi ikki barobar oshgan.

2. Mumtoz yoki ma’muriy menejment. Bu maktab namoyondalari sifatida fransuz olimi Anri Fayol (Fransiyadagi ko‘mir qazib oluvchi yirik kompaniya rahbari), M.Veber va boshqalar bo‘lgan. Ularning fikricha, boshqaruvning yuqori bo‘g‘inida yuksak tajribali amaliyotchi rahbar bo‘lishi hisobiga biznes sohasidagi mashhurlikka erishish ko‘zda tutilgani holda, ularning bosh maqsadi korxona miqyosida samaradorlikka erishish bo‘lgan. Ular boshqaruvning ikki jihatiga e’tibor qaratishgan:

1) Korxonani oqilona boshqaruv tizimini ishlab chiqish. Boshqarishda tashkilotni bo‘linmalar va ishchi guruhlarga bo‘lishgan.

2) Korxonaning tarkibi va ishlovchilarning oqilona boshqarilishiga yerishish kerak. Boshqaruvchi bir kishi boʻlishi kerak.

3. «Inson munosabatlari maktabi». 1920-30 yillarga kelib AQShda yangi nazariya – «insoniy munosabatlar» maktabi paydo boʻldi. Bu maktabga amerikalik jamiyatshunos va ruhshunos E.Meyo (1980-1949) asos soldi. Shuningdek, R.Laykert, D.Mak-Gregor (1906-1964)lar ham oʻz fikrlari bilan maktabni kengaytirdilar. Ularning fikrlaricha, ishchi (boshqariluvchi)lar fikrsiz robot boʻlib qolmasdan, ular obroʻ-eʼtiborga, oʻz-oʻzini hurmat qilishga, qadr-qimmatini bilishga, shaxsiy maqsadlar va manfaatlarga erishishga intiluvchilardir.

Olim D.Mak-Gregor inson xulq-atvoriga qarab, X (iks) va Y (igrek) nazariyalarini yaratgan:

- X (iks) nazariyasiga koʻra, ishlovchi tabiatan yalqov boʻlgan kishi hisoblanib, topshirilgan ishdan boʻyin tovlashga urinadi. Unga izzatlab, maʼsuliyatni sezish, fahm-farosat yetishmaydi. Bunday holatda xodimni doimo majburan ishlatish, nazorat qilish, jazolash va jarima solish bilan qoʻrqitib turish lozim.

- Y (igrek) nazariyasiga koʻra, yollanma ishchilar tabiatan faol, ularga tashabbuskorlik va uddaburonlik, oʻz zimmasiga maʼsuliyat olish salohiyati xosdir. Bunday holda menejerlarning vazifasi ishchilarga zarur shart-sharoitlarni yaratib berishi, ularni ragʻbatlantirib turishi lozim.

Albatta, yuqoridagilarning har ikkalasi faqat nazariya hisoblanadi. Amaliyotda ular sof koʻrinishda uchramaydi.

4. Tizimli yoki zamonaviy menejment. XX asrning 60-80 yillarida Gʻarbda zamonaviy menejment rivojlana boshladi. Bu maktab namoyondalari G.Saymon, P.Druker, E.Deyl, Ch.Barnardlar hisoblanishadi. Zamonaviy menejmentning maqsadi qaror qabul qilish jarayonini elektron hisoblash texnikasi hamda eng yangi matematik usul va vositalarni qoʻllagan holda tadqiq qilishdir. Tizimli menejment qarorlarning oqilonaligini taʼminlashni oʻz oldiga vazifa qilib qoʻyadi.

1. Boshqarishning ilmiyligi. Hozirgi zamon sharoitida boshqarishning ilmiylik qoidasi tobora koʻproq ahamiyat kasb etib kelmoqda. Bu qoidani amalga oshirish ijtimoiy taraqqiyot qonunlarini tobora toʻlaroq bilib borishni va ulardan xoʻjalik yuritish amaliyotida borgan sari toʻlaroq foydalanishni taqozo etadi.

Ilmiy asosda boshqarish qoidasini amalga oshirish quyidagi shartlarning bajarilishini talab qiladi:

a) ishlab chiqarishni boshqarishning ilmiy negizlarini butun choralar bilan rivojlantirish va uning turli muammolarini ishlab chiqaruvchi maxsus ilmiy-tadqiqot institutlarini barpo qilish;

b) ishlab chiqarishni boshqarishning eng yaxshi va ilgʻor tajribalarini umumlashtirish va bilish.

2. Siyosiy va xoʻjalik rahbarligining birligi. Bu qoida iqtisodiyotga siyosat bilan chambarchas bogʻliq holda qarashga asoslanadi va oʻz ichiga quyidagilarni oladi:

a) umumiy xoʻjalik vazifalari bilan iqtisodiy vazifalarni hal etishga siyosiy yondoshuvni;

b) xalq xoʻjaligi, mexnat jamoalarini eng maqbul tarzda birga qoʻshishni taʼminlash uchun ommani siyosiy tarbiyalash usullaridan foydalanishni;

d) korxonalarni o‘zlarining aniq vazifalarini bajarishda umumdavlat maqsadlariga yo‘naltirishni.

J.R.Hoshimov tadqiqotida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarga quyidagicha ta'rif bergan, subyektlar tomonidan nisbatan yuqori darajada foyda olish maqsadida bir mamlakat hududidan mutloq boshqa mamlakat hududiga muayyan muddatga joylashtiriladigan turli ko'rinishdagi boyliklarga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar deyiladi[172].

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar turli mezonlar bo'yicha tasniflanadi va ularning umumiy tasnifini quyidagicha tasvirlash mumkin.

---

[168] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. «Xalq so'zi» gazetasi, 2018 yil 29 dekabr № 271-272 (7229-7230) soni.

[169] Liesbeth Colen, Miet Maertens and Jo Swinnen. Foreign direct investment as an engine for economic growth and human development: A review of the arguments and empirical evidence. January 2009 DOI: 10.4324/9780203076880 https://www. researchgate.net/publication/237244956

[170]Нодирханов У.С. Приямые иностранные инвестиции в Узбекистане: опыт проблемы, перспективы роста. -Т.: "Fan va texnologiya",2011. 184 б.

[171]G'ozibekov D, Nosirov E. O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy inves-titsiyalarni jalb qilish. Risola. -T.: "Iqtisod-Moliya". 2007, -B.92

[172] J.R.Hoshimov. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rivojlantirish yo'nalishlari bo'yicha Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi Avtoreferati. – T.: TMI, 2022. – 14 b.

Turli mezonlar bo‘yicha to‘g’ridan-to‘g’ri investitsiyalarning tasniflanishi ularni jalb qilish masalasiga ham bevosita daxldordir. Buguni kunda jahon amaliyotida to‘g’ridan-to‘g’ri investitsiyalarni jalb qilishning turli shakllari mavjud bo‘lib, eng ommabop shakllari sifatida (1-rasm):

– xorijiy sarmoya ishtirokida korxonalar tashkil qilish; mutlaq boshqa davlatga tegishli sarmoya asosida korxonalar ochish;

– erkin yoki maxsus iqtisodiy zonalar va offshor zonalarni tashkil qilish va ular faoliyatini rivojlantirish;

– mamlakat rezidentlari tomonidan emissiya qilingan qimmatli qog’ozlarni olish;

– konsorsium, konsessiya va alyanslar; xalqaro lizingni rivojlantirish;

– yer va boshqa tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish huquqini olish;

– barcha turdagi mulkiy va nomulkiy huquqlarini olish;

– xalqaro franchayzingni rivojlantirish;

– davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish, maxsus investitsiya dasturlarini joriy qilish va hokazo.



1-rasm. To‘g’ridan-to‘g’ri investitsiyalarni jalb qilish shakllari[173]

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda to‘g’ridan-to‘g’riv investitsiyalarning ahamiyati katta bo‘lib u quyidagilar bilan izohlanadi[174]:

– birinchidan, ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etib, eksportga mo‘ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantiradi;

– ikkinchidan, import o‘rnini bosuvchi tovar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish va buning uchun xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotning ustivor sohalariga yo‘naltirish va pirovardida aholining me’yordagi turmush darajasini ta’minlash imkonini yaratadi;

– uchinchidan, kichik biznesni, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini jadallashtirish orqali o‘sib borayotgan aholini ish joylari bilan ta’minlaydi;

– to‘rtinchidan, korxonalarning eskirgan ishlab chiqarish quvvatlarini, moddiy-texnik bazasini yangilaydi va texnik qayta qurollantiradi;

---

[173] J.R.Hoshimov. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rivojlantirish yo’nalishlari bo’yicha Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi Avtoreferati. – T.: TMI, 2022. – 15b

[174] G’ofurova U.F. “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. № 6, dekabr, 2018 yil. - 3bet

– beshinchidan, tabiiy resurslarni qayta ishlovchi korxonalarni barpo etishga ko‘maklashadi, davlat byudjetiga soliq tushumining kelib tushishi ko‘payadi.

O‘zbekiston ulkan to‘g’ridan-to‘g’ri investitsiyalar yo‘naltirilayotgan mamlakatlar guruhiga kirish uchun barcha shart-sharoitlarga, to‘g’ridan-to‘g’ri investitsiyalarni jalb etish uchun bir qator afzalliklarga ega. O‘zbekiston jahon hamjamiyati oldida o‘zining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, dunyo xaritasida geografik joylashishi, tabiiy resurslarining tarkibi va zaxirasi, hukumat olib borayotgan iqtisodiy siyosat va boshqalar bilan muhim rol o‘ynaydi.

Bozor iqtisodiyotining asosiy iqtisodiy tushunchalaridan biri investitsiyalar tushunchasi bugungi hayotimizga keng va tez kirib kelishining o‘zi uning mohiyati va ahamiyatini, zarurligini ko‘rsatadi. To‘g’ridan-to‘g’ri investitsiyalar ishtirokidagi yangi korxonalarning sonini tobora ortib borishi va barpo etilayotganligi hukumatimizning bu sohaga bo‘lgan kata e’tibori va ularga yaratib berayotgan qulayliklari natijasidir. Shu boisdan ham mamlakatimizga xorijiy sarmoyalarni jalb etayotgan korxonalarni iqtisodiy rag’batlantirish va zaruriy sharoitlarni yaratib berish o‘ta muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda to‘g’ridan-to‘g’ri investitsiyalarning ahamiyati quyidagilar bilan izohlanadi[175]:

– to‘g’ridan-to‘g’ri investitsiyalar yangi korxonalar, ishlab chiqarish quvvatlari va infratuzilma obyektlarini tashkil qilish orqali mahalliy aholi uchun ish o‘rinlarini taqdim etadi. Bu esa ishsizlikni kamaytirib, aholining daromadini oshirishga xizmat qiladi;

– to‘g’ridan-to‘g’ri investitsiyalar ko‘pincha xalqaro savdoga yo‘naltirilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan bog’liq. Bu milliy iqtisodiyotga global bozorlarni egallash imkonini beradi, eksport hajmini oshiradi va savdo balansini yaxshilaydi.;

– aholining me’yordagi turmush darajasini ta’minlash hamda ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish imkoniyati oshadi;

Shularni e’tiborga olib, mamlakatimizda tarkibiy o‘zgarishlarni yanada chuqurlashtirish, real sektor korxonalarining investitsiya faoliyatini jadallashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish dasturlarini amalga oshirishda, avvalo, to‘g’ridan-to‘g’ri xorijiy investitsiyalarga ustuvorlik qaratilmoqda. Buning uchun, eng avvalo, mamlakatning investitsion muhit jozibadorligini ta’minlash talab etiladi.

Xulosa va takliflar

Milliy iqtisodiyotga to‘g’ridan-to‘g’ri investitsiyalar ko‘pincha xalqaro savdoga yo‘naltirilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan bog’liq. Bu milliy iqtisodiyotga global bozorlarni egallash imkonini beradi, eksport hajmini oshiradi va savdo balansini yaxshilaydi. Investitsiyalarni jalb etishning zarurligi va iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o‘rni yuzasidan umumiy tarzda quydagicha xulosalar va takliflar berishimiz mumkin:

[175] Sh.Mustafaqulov. Investitsion muhit jozibadorligi: nazariya, metodologiya va amaliyot. Toshkent “Ma’naviyat” 2017 yil Monografiya. – 230b.

– Respublikada iqtisodiyotga to‘g’ridan-to‘g’ri investitsiyalar ko‘pincha xalqaro savdoga yo‘naltirilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan bog’liq. Bu milliy iqtisodiyotga global bozorlarni egallash imkonini beradi, eksport hajmini oshiradi va savdo balansini yaxshilaydi. Investitsiyalarni jalb etishda mustaqillikning dastlabki davrlaridanoq amalga oshirilishi lozim bo‘lgan tadbirlarning o‘ziga xos tamoyillari ishlab chiqilgan va bugunga qadar ularning amal qilishini ta’minlanib kelinmoqda;

– mamlakatimizda to‘g’ridan-to‘g’ri investitsiyalar ko‘pincha xalqaro savdoga yo‘naltirilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan bog’liq. Bu milliy iqtisodiyotga global bozorlarni egallash imkonini beradi, eksport hajmini oshiradi va savdo balansini yaxshilaydi. investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar va ularning ishlab chiqarish salohiyatining mintaqalar bo‘yicha nomutanosib joylashishi, avvalo, hududlarning tabiiy, mehnat va iqtisodiy shart-sharoitlarga asoslanadi. Shu bilan birga mavjud hududiy siyosatning takomillashmaganligi va hududiy imkoniyatlarning to‘liq hisobga olinmasligi bu nomutanosiblikni yanada kuchaytirmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent, 2023.

2.P. Mihayela, A. Vaqar, X. Helian. Institutional Mechanisms of Attracting Foreign Direct Investment. – International Economic Review, 2020.

3.U.S. Nodirxanov. Hududlarda investitsiya muhitini baholash va investitsion faollikni oshirish yo‘llari. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2021.

4.D. G‘ozibekov, E. Nosirov. Investitsion salohiyatni oshirishning iqtisodiy mexanizmlari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022.

5.J.R. Hoshimov. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar: nazariya va amaliyot. – Toshkent: TDYUI nashriyoti, 2021.

6.O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi ma’lumotlari. – https://www.invest.gov.uz

7.World Bank. Foreign Direct Investment Statistics and Trends 2023. – Washington D.C., 2024.

8.UNCTAD. World Investment Report 2024: Investing in Sustainable Development. – New York and Geneva: United Nations, 2024.

Qarshiyeva Maftuna Sadullayevna - *SamISI,*
“Investitsiya va innovatsiyalar” kefedrasi assistent-stajor

YASHIL IQTISODIYOTDA INNOVATSION LOYIHALARGA INVESTITSIYALARNI KO‘PAYTIRISH, O‘ZBEKISTONDAGI MUAMMOLAR VA STRATEGIK YECHIMLAR

Annotatsiya. Maqola O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotning innovatsion loyihalariga xususiy investitsiyalarni ko‘paytirishning muammolari va yechimlarini tahlil qiladi. Yashil texnologiyalarning barqaror rivojlanishdagi ahamiyati, xususiy sektorning roli va qonunchilik, moliyaviy xavf-xatarlar, innovatsion ekotizimning

zaifligi kabi to‘siqlar ko‘rib chiqiladi. O‘zbekistonning tabiiy resurslari, davlat siyosati va xalqaro hamkorlik imkoniyatlari ta’kidlanadi. Quyosh energiyasi, chiqindilarni qayta ishlash va aqlli shahar loyihalari misollar sifatida tahlil qilinadi. Qonunchilikni takomillashtirish, davlat-xususiy sheriklik va innovatsion ekotizimni rivojlantirish yechim sifatida taklif etiladi. Maqola O‘zbekistonning yashil innovatsiyalar orqali barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish imkoniyatlarini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, innovatsion loyihalar, xususiy investitsiyalar, barqaror rivojlanish, qayta tiklanadigan energiya, davlat-xususiy sheriklik, O‘zbekiston, soliq imtiyozlari, innovatsion ekotizim, moliyaviy xavf-xatarlar.

Kirish (Introduction). Yashil iqtisodiyot bugungi kunda global iqtisodiyotning eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. Iqlim o‘zgarishi, resurslar tanqisligi va ekologik muammolar mamlakatlarni barqaror rivojlanish maqsadlariga (SDGs) erishish uchun yashil texnologiyalar va innovatsion loyihalarga sarmoya kiritishga undamoqda. O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan davlatlar uchun yashil iqtisodiyot nafaqat ekologik muammolarni hal qilish, balki iqtisodiy o‘sish, yangi ish o‘rinlari yaratish va xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi. Biroq, yashil iqtisodiyotning innovatsion loyihalarini rivojlantirish uchun katta miqdorda investitsiyalar talab qilinadi, bu esa davlat byudjeti uchun qiyinchilik tug‘diradi. Shu sababli, xususiy sektorning investitsion faolligini oshirish muhim ahamiyatga ega.

Innovatsion loyihalar, masalan, qayta tiklanadigan energiya manbalari, chiqindilarni qayta ishlash va aqlli shahar texnologiyalari, yashil iqtisodiyotning asosini tashkil qiladi. Ammo O‘zbekistonda bu sohada xususiy investitsiyalarni jalb qilish bir qator muammolar, jumladan, qonunchilikdagi kamchiliklar, moliyaviy xavf-xatarlar va innovatsion ekotizimning yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan to‘qnashmoqda. Shu bilan birga, mamlakatning tabiiy resurslari, davlat siyosati va xalqaro hamkorlik imkoniyatlari katta salohiyat yaratadi. Ushbu maqola O‘zbekiston sharoitida yashil iqtisodiyotning innovatsion loyihalariga investitsiyalarni ko‘paytirishdagi muammolar va yechimlarni IMRAD tuzilmasi asosida tahlil qiladi.

Metodologiya (Methods)

Ushbu maqola sifatli va miqdoriy tadqiqot usullariga asoslanadi. Birinchi navbatda, yashil iqtisodiyot va innovatsion loyihalarga investitsiyalar bo‘yicha xalqaro va mahalliy adabiyotlar tahlil qilindi. Jahon banki, BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP), Osiyo taraqqiyot banki (ADB) kabi tashkilotlarning hisobotlari, shuningdek, O‘zbekistonning yashil iqtisodiyotga oid strategik hujjatlari o‘rganildi.

Ikkinchidan, O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotning innovatsion loyihalariga investitsiyalarni jalb qilish tajribasi tahlil qilindi. Bu jarayonda qayta tiklanadigan energiya (quyosh va shamol), chiqindilarni qayta ishlash va aqlli shahar infratuzilmasi loyihalari misol sifatida ko‘rib chiqildi. Uchinchidan, investorlarning motivatsiyasi va to‘siqlarini aniqlash uchun so‘rovlar va intervyulardan olingan ma’lumotlar tahlil qilindi. SWOT tahlili yashil iqtisodiyotdagi innovatsion loyihalarning imkoniyatlari va xavf-xatarlarini aniqlash uchun qo‘llanildi. Bundan tashqari, Singapur, Janubiy Koreya va Xitoy kabi mamlakatlarning yashil innovatsiyalarga investitsiyalarni jalb qilish tajribasi O‘zbekiston sharoitlariga solishtirma tarzda o‘rganildi.

Natijalar (Results):

1. Muammolar

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, yashil iqtisodiyotning innovatsion loyihalariga xususiy investitsiyalarni jalb qilishda quyidagi asosiy to‘siqlar mavjud:

Normativ-huquqiy muhitning yetishmasligi: O‘zbekistonda innovatsion yashil loyihalarni qo‘llab-quvvatlash uchun aniq qonunchilik va soliq imtiyozlari tizimi to‘liq shakllanmagan. Masalan, startaplar va innovatsion loyihalar uchun maxsus moliyaviy rag‘batlantirish mexanizmlari yo‘q.

Moliyaviy xavf-xatarlar: Innovatsion loyihalar ko‘pincha yuqori xavfli va uzoq muddatli qaytarim talab qiladi. O‘zbekistonda bank tizimining cheklangan imkoniyatlari va yuqori foiz stavkalari investorlar uchun qo‘shimcha to‘siq yaratadi.

Innovatsion ekotizimning zaifligi: Mahalliy startaplar va tadqiqot markazlarining yashil texnologiyalar bo‘yicha salohiyati cheklangan. Innovatsiyalarni tijoratlashtirish va bozorga chiqarish jarayonlari yetarli darajada rivojlanmagan.

Ma’lumotlar shaffofligining yo‘qligi: Investorlar uchun innovatsion loyihalarning iqtisodiy samaradorligi, bozor salohiyati va ekologik foydalari haqida yetarli ma’lumotlar mavjud emas.

Kadrlar malakasining pastligi: Yashil texnologiyalar va innovatsion loyihalarni boshqarish bo‘yicha malakali mutaxassislar yetishmasligi loyihalarni amalga oshirishda qiyinchiliklar tug‘diradi.

2. Imkoniyatlar

Muammolarga qaramay, O‘zbekiston yashil iqtisodiyotning innovatsion loyihalarini rivojlantirishda katta imkoniyatlarga ega:

Tabiiy resurslar: O‘zbekistonning quyosh va shamol energiyasi uchun katta salohiyati mavjud. Yiliga 300 dan ortiq quyoshli kunlar quyosh energiyasiga asoslangan innovatsion loyihalarni jozibador qiladi.

Davlat siyosati: O‘zbekiston hukumati 2030 yilgacha yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan strategiyalarni qabul qildi. Masalan, qayta tiklanadigan energiya manbalarining ulushini 25% ga yetkazish rejalashtirilmoqda.

Xalqaro hamkorlik: Jahon banki, ADB va boshqa tashkilotlar O‘zbekistonda yashil innovatsiyalarni moliyalashtirishga tayyor, bu xususiy investorlar uchun xavf-xatarlarni kamaytiradi.

Yosh aholining salohiyati: O‘zbekistonning yosh va faol aholisi innovatsion loyihalar uchun katta resurs bo‘lib, startaplar va yangi texnologiyalarni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Iqtisodiy foyda: Yashil innovatsiyalar ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi, yangi ish o‘rinlari yaratadi va eksport salohiyatini oshiradi.

3. Amaliy misollar

O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotning innovatsion loyihalari bo‘yicha bir qator muvaffaqiyatli tajribalar mavjud. Masalan, Navoiy viloyatidagi quyosh elektr stansiyasi xususiy investitsiyalar hisobiga qurilib, 100 MVt quvvat ishlab chiqarmoqda. Toshkent shahrida aqlli shahar texnologiyalariga asoslangan energiya tejovchi yoritish tizimlari sinovdan o‘tkazilmoqda. Shu bilan birga, chiqindilarni qayta ishlash bo‘yicha startaplar Samarqand va Buxoro kabi shaharlarda faoliyat yuritmoqda, ammo ularning ko‘lami hali cheklangan.

Muhokama (Discussion). Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yashil iqtisodiyotning innovatsion loyihalariga investitsiyalarni ko‘paytirish O‘zbekiston uchun katta imkoniyatdir, ammo bu jarayon strategik yondashuvlarni talab qiladi. Birinchidan, hukumat innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash uchun maxsus qonunchilik ishlab chiqishi va soliq imtiyozlari tizimini joriy qilishi kerak. Masalan, startaplar uchun soliq imtiyozlari yoki uzoq muddatli shartnomalar (Power Purchase Agreements) investorlarning ishonchini oshiradi.

Ikkinchidan, innovatsion ekotizimni rivojlantirish zarur. Mahalliy startaplar va tadqiqot markazlarini qo‘llab-quvvatlash uchun inkubatorlar va akseleratorlar tashkil qilinishi, shuningdek, xalqaro tajriba almashuvi dasturlari joriy etilishi lozim.

Uchinchidan, davlat-xususiy sheriklik (PPP) modellari orqali loyihalarni moliyalashtirish samaradorligini oshirish mumkin. Davlat xavf-xatarlarni qisman o‘z zimmasiga olib, xususiy sektorning ishtirokini rag‘batlantirishi kerak.

Xalqaro tajriba O‘zbekiston uchun muhim saboqlar beradi. Masalan, Singapur va Janubiy Koreya yashil innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash uchun maxsus moliyaviy fondlar va inkubatorlar tashkil qildi. Xitoy esa davlat-xususiy sheriklik orqali quyosh va shamol energiyasi loyihalarini rivojlantirdi. O‘zbekiston ushbu tajribalarni o‘z sharoitlariga moslashtirishi mumkin.

Ma’lumotlar shaffofligini ta’minlash ham muhim. Investorlar uchun innovatsion loyihalarning iqtisodiy samaradorligi va bozor salohiyati haqida ochiq ma’lumotlar bazasi yaratilishi kerak. Masalan, O‘zbekistonning quyosh energiyasi yoki chiqindilarni qayta ishlash bo‘yicha salohiyatini ko‘rsatuvchi xaritalar va tadqiqotlar investorlarning qiziqishini oshiradi.

Muammo

1. Qonunchilikdagi kamchiliklar: Innovatsion yashil loyihalar uchun aniq soliq imtiyozlari va subsidiyalar tizimi yo‘q.
2. Moliyaviy xavf-xatarlar: Innovatsion loyihalar yuqori xavfli va uzoq muddatli qaytarim talab qiladi.
3. Innovatsion ekotizimning zaifligi: Mahalliy startaplar va tadqiqot markazlarining salohiyati cheklangan.
4. Ma’lumotlar shaffofligining yo‘qligi: Investorlar uchun loyihalarning iqtisodiy samaradorligi haqida yetarli ma’lumot yo‘q.
5. Malaka yetishmasligi: Yashil texnologiyalar va innovatsiyalarni boshqarish bo‘yicha mutaxassislar kam.

Yechim:

1. Qonunchilikni takomillashtirish: Innovatsion loyihalar uchun soliq imtiyozlari va uzoq muddatli shartnomalar joriy qilish.
2. Moliyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish: Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik orqali xavf-xatarlarni sug‘urtalash va imtiyozli kreditlar taqdim etish.
3. Innovatsion ekotizimni rivojlantirish: Inkubatorlar, akseleratorlar va tadqiqot markazlarini tashkil qilish.
4. Ma’lumotlar shaffofligi: Loyihalarning iqtisodiy va ekologik foydalari haqida ochiq ma’lumotlar bazasi yaratish.
5. Kadrlar malakasini oshirish: Treninglar va xalqaro tajriba almashuvi orqali mutaxassislar tayyorlash.

Tavsiyalar:

1. Hukumat uchun:

- Innovatsion loyihalar uchun soliq imtiyozlari va subsidiyalarni aniq tartibga solish.
- Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish.
- Quyosh energiyasi va chiqindilarni qayta ishlash salohiyatini ko‘rsatuvchi ma’lumotlar bazasi yaratish.

2. Xususiy sektor uchun:

- Innovatsion loyihalarga sarmoya kiritishdan oldin bozor tahlilini chuqur o‘tkazish.
- Mahalliy startaplar bilan hamkorlik qilish.

3. Xalqaro tashkilotlar uchun:

- Grantlar va imtiyozli kreditlar orqali loyihalarni qo‘llab-quvvatlash.
- Innovatsion ekotizimni rivojlantirish uchun trening dasturlarini tashkil qilish.

4. Ta’lim muassasalari uchun:

- Yashil texnologiyalar va innovatsiyalar bo‘yicha maxsus o‘quv dasturlari joriy qilish.
- Xalqaro tadqiqot loyihalarida ishtirok etish.

Xulosa. Yashil iqtisodiyotning innovatsion loyihalariga investitsiyalarni ko‘paytirish O‘zbekistonning barqaror rivojlanishi uchun strategik imkoniyatdir. Qonunchilikdagi kamchiliklar, moliyaviy xavf-xatarlar va innovatsion ekotizimning zaifligi kabi muammolar bu jarayonga to‘sqinlik qiladi. Biroq, mamlakatning tabiiy resurslari, davlat siyosati, yosh aholisi va xalqaro hamkorlik imkoniyatlari katta salohiyat yaratadi.

Muvaffaqiyatga erishish uchun hukumat qonunchilikni takomillashtirishi, soliq imtiyozlari va subsidiyalarni aniq tartibga solishi, shuningdek, davlat-xususiy sheriklikni kuchaytirishi zarur. Innovatsion ekotizimni rivojlantirish, kadrlar malakasini oshirish va ma’lumotlar shaffofligini ta’minlash investorlarning ishonchini oshiradi. Ushbu yondashuvlar nafaqat ekologik muammolarni hal qiladi, balki iqtisodiy o‘sish, yangi ish o‘rinlari va global raqobatbardoshlikni ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jahon banki. (2023). Green Innovation and Investment in Developing Economies.
2. BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP). (2022). Sustainable Development and Green Innovation in Uzbekistan.
3. O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi. (2023). Yashil iqtisodiyot strategiyasi: 2030 yilgacha.
4. Osiyo taraqqiyot banki (ADB). (2024). Investment Opportunities in Green Innovation in Central Asia.
5. OECD. (2023). Fostering Innovation in Green Economy: Global Practices.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik tadqiqotlar instituti. (2022). O‘zbekistonda yashil innovatsiyalarni rivojlantirish.
7. Xalqaro tadqiqotlar: Singapur va Xitoyning yashil innovatsiyalarga investitsiyalar tajribasi (2023). Innovation and Development Journal, 48(2), 75-92.

Xaqnazarova Yulduz Juraqul qizi - *SamISI,*
“Investitsiya va innovatsiyalar” kafedrasi assistenti

YASHIL XIZMATLARGA INVESTITSIYA: XIZMATLAR SOHASIDA INNOVATSION FAOLLIKNI RAG‘BATLANTIRISHNING YO‘LLARI VA O‘ZBEKISTON AMALIYOTI

Annotatsiya. Maqolada yashil iqtisodiyot sharoitida xizmatlar sohasiga investitsiya qilish hamda innovatsion faollikni rag‘batlantirish muammolari va yechimlari tahlil qilinadi. Yashil xizmatlar tushunchasi, ularni moliyalashtirish mexanizmlari, xalqaro tajriba hamda O‘zbekistonda mavjud amaliyot o‘rganilgan. Tadqiqotda so‘rovnomalar, ekspert suhbatlari, hujjatli tahlil hamda solishtirma usullar qo‘llanildi. Natijalarga ko‘ra, xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar yashil loyihalarga investitsiya qilish istagiga ega bo‘lsada, moliyaviy cheklovlar, baholash mezonlarining yetishmasligi hamda investorlar ishonchsizligi kabi to‘siqlar mavjud. Maqolada alohida “Yashil xizmatlar fondi” tashkil etish, inkubatorlar tarmog‘ini kengaytirish, soliq imtiyozlari berish hamda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish orqali ushbu muammolarni hal qilish yo‘llari taklif etilgan. Tadqiqot yashil iqtisodiyot doirasida xizmat sohasini barqaror rivojlantirishning investitsion hamda innovatsion asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, yashil xizmatlar, investitsiya, innovatsiya, xizmatlar sohasi, startaplar, barqaror rivojlanish, O‘zbekiston, yashil fond, ekoturizm, raqamli xizmatlar

Kirish (Introduction)

Bugungi kunda yashil iqtisodiyot — faqat atrof-muhitni muhofaza qilish vositasi emas, balki yangi investitsiya imkoniyatlari, ish o‘rinlari va iqtisodiy o‘sish manbalarini yaratuvchi tizim sifatida qabul qilinmoqda. Xususan, xizmatlar sohasi — iqtisodiyotning eng tez rivojlanayotgan tarmog‘i bo‘lib, unda yashil investitsiyalar va innovatsiyalar katta potensialga ega. Yashil xizmatlar deb ataladigan — ekologik toza, energiya tejamkor, raqamli va ijtimoiy mas’uliyatli xizmatlar — kelajak iqtisodiyotining asosini tashkil qiladi.

Biroq, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar (turizm, ta’lim, sog‘liqni saqlash, moliya, logistika) hali ham yashil loyihalarga investitsiya qilishda qo‘rqinch, noaniqlik hamda moliyaviy cheklovlar tufayli sekin harakat qilyapti. Shu bilan birga, “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi”, “Yashil investitsiyalar fondi” kabi davlat dasturlari joriy etilayotgan bo‘lsa-da, ular xizmat sohasiga yetarli darajada yetib bormayapti.

Shu sababli ham ushbu maqolada yashil xizmatlarga investitsiya qilishning dolzarbligi, xizmat sohasida innovatsion faollikni rag‘batlantirishning amaliy yo‘llari, mavjud muammolar hamda ularni hal qilish bo‘yicha takliflar tahlil qilinadi. Maqsad — yashil iqtisodiyot sharoitida xizmatlar sohasini barqaror rivojlantirish uchun investitsion hamda innovatsion ekotizimni takomillashtirishdir.

Metodologiya (Methods)

Ushbu tadqiqotda aralash usullar qo‘llanildi. Avvalo, hujjatli tahlil orqali O‘zbekiston Respublikasi “Yashil iqtisodiyotga o‘tish to‘g‘risida”gi qonuni, “Investitsiyalarni rag‘batlantirish to‘g‘risida”gi qonun, Vazirlar Mahkamasining “Yashil investitsiyalar fondi” to‘g‘risidagi qarorlari, xalqaro tashkilotlar (BMT, IFC, Yashil iqtisodiyot bo‘yicha hisobotlar) materiallari o‘rganildi.

Ikkinchidan, so‘rovnomalar o‘tkazildi. Toshkent, Farg‘ona, Namangan, Jizzax viloyatlaridagi 180 ta xizmat ko‘rsatuvchi korxona (me’hmonxona, ta’lim markazlari, klinikalar, logistika kompaniyalari, fintech startaplari) rahbarlari so‘rovnomadan o‘tkazildi. Savollar quyidagilarni qamrab oldi:

Siz yashil loyihalarga investitsiya qilishni xohlaysizmi?

Qanday to‘siqlar sizni to‘sqinlik qilyapti?

Davlat tomonidan qanday yordam kerak?

Uchinchidan, ekspert suhbatlari o‘tkazildi — O‘zbekiston Investitsiya va tashabbuslar vazirligi, “Yashil iqtisodiyot” agentligi, “Innovatsion fond”, “Green Finance Uzbekistan” kabi tashkilotlarning vakillari bilan suhbatlar yuritildi.

To‘rtinchi, solishtirma tahlil orqali Estoniya, Singapur, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda yashil xizmatlarga investitsiya qilish mexanizmlari o‘rganildi.

Natijalar (Results)

Tadqiqot natijasida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

1. Investitsiya qilish istagi bor, lekin imkoniyat yetishmaydi: So‘rovnomaga ko‘ra, so‘ralgan korxonalarning 72% i yashil xizmat loyihalariga (masalan, ekoturizm, raqamli ta’lim, telemeditsina) investitsiya qilishni xohlaydi, lekin 65% i “mablag‘ yetishmasligi” sababli buni amalga oshira olmaydi.
2. Innovatsiya darajasi past: Xizmat sohasidagi startaplar va kichik korxonalar innovatsion g‘oyalarni (masalan, AI asosidagi energiya boshqaruvi, qayta ishlanadigan materiallardan foydalanish) ishlab chiqsa ham, ularni amalga oshirish uchun grant yoki ventura kapital topa olmaydi.
3. Muvaffaqiyatli misollar mavjud:

“EcoTravel.uz” startapi ekoturizm loyihasiga xalqaro grant (UNDP) oldi va hozirda 5 ta viloyatda ekotrekking yo‘nalishlarini rivojlantiryapti;

“MediGreen” tibbiyot startapi qog‘ozsiz tibbiyot tizimini joriy etdi va energiya xarajatlarini 20% kamaytirdi;

“GreenLog” logistika kompaniyasi elektr yuk mashinalariga o‘tish orqali yillik 120 tonna CO_2 chiqindisini kamaytirdi.

4. Xalqaro tajriba:

Estoniyada yashil xizmat startaplariga 70% gacha grant beriladi;

Singapurda “Green Innovation Fund” orqali yashil fintech loyihalari moliyalashtiriladi;

Janubiy Koreyada “yashil sertifikat” olgan korxonalar uchun soliq stavkalari 30% gacha kamaytirilgan.

5. Asosiy muammolar:

Yashil xizmat loyihalarini baholash mezonlari yetarli emas;

Investorlar yashil loyihalarning foydali ekanligiga ishonmaydi;

Innovatsion g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlovchi inkubatorlar soni cheklangan.

Munozara (Discussion)

Yashil xizmatlarga investitsiya qilish — bu faqat ekologik javobgarlik emas, balki kelajakka investitsiyadir. Xizmat sohasida innovatsiyalar tez tarqaladi, chunki ular ko‘pincha raqamli yechimlar, yangi biznes modellari yoki mijoz bilan aloqani takomillashtirishga asoslanadi. Bunday loyihalar nisbatan arzon, tez natija beradi va keng ko‘lamli ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda yashil xizmatlarga investitsiya oqimini oshirish uchun quyidagi choralarni taklif qilish mumkin:

1. Maxsus “Yashil xizmatlar fondi” tashkil etish: Hozirgi “Yashil investitsiyalar fondi” asosan ishlab chiqarishga qaratilgan. Xizmat sohasi uchun alohida yo‘nalish yaratish kerak.
2. Innovatsion inkubatorlar tarmog‘ini kengaytirish: Har bir viloyatda “yashil xizmatlar” yo‘nalishida startap inkubatorlari tashkil etilsa, yoshlar o‘z g‘oyalarini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.
3. Investorlarni o‘qitish: Yashil loyihalar foydali ekanligini isbotlovchi kichik namunaviy loyihalar (pilot loyihalar) orqali investorlarning ishonchini oshirish.
4. Soliq imtiyozlari: Yashil xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar uchun daromad solig‘ini 2 yilga bekor qilish yoki kamaytirish.
5. Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish: UNDP, IFC, Yevropa investitsiya banki kabi tashkilotlar bilan hamkorlikda grantlar, texnik yordam, malaka almashinuvi dasturlarini joriy etish.

Muhim tomoni shundaki, yashil xizmatlar — bu nafaqat “toza” xizmat, balki raqobatbardosh, fikrlangan va mijozga qulay xizmatdir. Masalan, elektron retseptlar bemorlarga vaqtdan tejash imkonini beradi, ekoturizm esa sayyohga yangi hissiyotlar taqdim etadi. Shu sababli ham investorlar bunday loyihalarga e’tibor qaratishi kerak.

Xulosa

Yashil iqtisodiyot sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirish uchun investitsion hamda innovatsion faollikni oshirish — barqaror rivojlanishning asosiy shartidir. O‘zbekistonda hozirda yashil xizmatlarga investitsiya qilish uchun siyosiy iroda, xalqaro qiziqish hamda yoshlarning g‘oyalari mavjud. Biroq, buni amalga oshirish uchun moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish, innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash tizimini mustahkamlash hamda investorlar ishonchini oshirish zarur.

Kelajakda “yashil xizmat” — oddiy tanlov emas, balki bozor talabi bo‘lib qoladi. Shu sababli ham bugundan boshlab xizmat sohasini investitsiya va innovatsiya asosida yashil yo‘nalishga qaratish — aqlli va kelajakka yo‘naltirilgan qadamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD). (2022). *Investing in the green service economy: Global trends and policy options*. Geneva: UNCTAD.
2. International Finance Corporation (IFC). (2023). *Green finance for service sector innovation in emerging markets*. Washington, DC: IFC.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2022). *Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi (2022–2030)*. Qaror № 156. Toshkent.
4. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. (2020). *Investitsiyalarni rag‘batlantirish to‘g‘risida*. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 35, 612.

5. World Bank. (2023). *Unlocking green investment in Uzbekistan's service sector*. Washington, DC: World Bank Group.
6. Lee, J., & Park, M. (2021). Green service innovation and investment incentives in South Korea. *Journal of Cleaner Production*, 315, 128210. https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2021.128210
7. European Investment Bank (EIB). (2022). *Green financing for SMEs in the service sector: Lessons from the EU*. Luxembourg: EIB Publications.
8. O'zbekiston Respublikasi Investitsiya va tashabbuslar vazirligi. (2023). *Yashil investitsiyalar fondi to'g'risida nizom*. Toshkent.
9. UNDP Uzbekistan. (2023). *Green entrepreneurship in Uzbekistan: Opportunities in the service sector*. Toshkent: United Nations Development Programme.
10. Karimov, S. (2022). Yashil iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion rivojlanish tendensiyalari. *Iqtisodiyot va innovatsiyalar*, 5(3), 55–69.
11. Tursunova, N. (2023). Investitsion faollikni oshirish orqali yashil xizmatlarni rivojlantirish. *Ilmiy axborotnoma: Ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqotlar*, 1(4), 102–115.
12. OECD. (2021). *Financing green innovation in services: Policy frameworks for sustainable growth*. Paris: OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/9789264313408-en

Tursunov Faridun Mustafoyevish - *Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, mustaqil izlanuvchi*

MIJOZLARGA INNOVATSION MASOFAVIY BANK XIZMATLARINI KO'RSATISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada innovatsion masofaviy bank xizmatlari tushunchasi, masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari, afzalliklari va kamchiliklari, masofaviy bank xizmatlarini takomillashtirish jarayonida yuzaga keladigan ba'zi muammolar o'rganib chiqilgan va bu muammolarni hal etish uchun ba'ze amaliy taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: masofaviy bank xizmatlari, onlayn-banking, internet-banking, mobil-banking, sms-banking, bank-mijoz, di-bank, chat-botlar, blokcheyn, onlayn tahlil.

Kirish. Globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklari faoliyatini tubdan yangilash zarurati kundan-kunga ortib bormoqda. Bugungi kunda moliya bozorida raqobatning kuchayishi, mijozlar ehtiyojlarining tezkor o'zgarishi hamda yangi texnologiyalarning keng tatbiqi bank xizmatlarini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, innovatsion masofaviy bank xizmatlarini joriy etish bank tizimining barqaror rivojlanishi, moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasini oshirish va moliyaviy inklyuziyani kengaytirishning muhim omili sifatida namoyon bo'lmoqda.

So‘ngi yillarda bank tizimini ommaboplashtirish va erkin raqobat sharoitiga moslashtirish ko‘zda tutilgan bir qator hujjatlar qabul qilindi. Xususan, 2018 yil 23 martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 3620-sonli Qarori qabul qilinishi bank xizmatlarini ko‘rsatishda mavjud muammolar va banklar tomonidan amalga oshirilishi kerak bo‘lgan chora-tadbirlarni belgilab berdi [1].

Asosiy qism. Innovatsion masofaviy bank xizmatlari an’anaviy bank faoliyatidan farqli ravishda mijozlarga vaqt va makonga bog‘liq bo‘lmagan holda xizmat ko‘rsatishni nazarda tutadi. Bunga internet-banking, mobil ilovalar, raqamli to‘lov tizimlari, virtual kartalar, onlayn kreditlash, sun’iy intellekt asosida ishlovchi konsultatsion tizimlar va blokcheyn texnologiyalari asosidagi yangi moliyaviy yechimlar kiradi. Ushbu xizmatlar:

– tranzaksiyalarni tezkor amalga oshirish;
– mijozlar uchun operatsion xarajatlarni kamaytirish;
– xizmat ko‘rsatish sifati va qulayligini oshirish;
– banklarning raqobatbardoshligini mustahkamlash imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasi tijorat bankla-rida masofaviy bank xizmatlarini ko‘rsatish yildan-yilga rivojlanib borayotgan bo‘lsa-da, ushbu xizmatlarning yanada taraqqiy topishida muammolar yo‘q, deb bo‘lmaydi. Masofaviy bank xizmatlarida yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish va dasturda qulayliklar yara-tish orqali mijozlar sonining ortishiga eri-shish mumkin. Masofadan boshqariladigan bank xizmatlarining paydo bo’lishiga turtki bo’lgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hisoblanadi. Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirishga muam-molardan tashqari bir qancha omillar ham ta’sir ko‘rsatadi. Shunga qaramasdan, mamla-katimiz bank tizimida ham masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish borasida bir qancha me’yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi va jadal ishlar olib borilmoqda. Bugungi kunda banklar mijozlarining soni ortib borishi, ko‘plab mijozlarni jalb qilish va ularga ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish natijasida o‘zlarining daromadini ham ko‘paytirish uchun harakat qilmoqdalar. Rus iqtisodchisi O.I. Lavrushinning fikriga ko’ra “Uy sharoitida bank operatsiyalarini amalga oshirish elektron texnologiyalardan foydalanishga asoslangan aholiga bank xizmatlari ko‘rsatishning mustaqil shakli hisoblanadi. Har bir operatsiyani boshlashdan oldin, hisob egasi tizimga noqonuniy ulanishdan himoya kodidagi kalitni oladi. Ushbu tizimdan foydalanish joriy hisob, depozit, mijozning byudjet bilan hisob-kitoblarini, to'lov va jamg'arma hisobvaraqlarini boshqarish imkonini beradi” [2].

Masofadan boshqariladigan bank xizmatlarining paydo bo’lishiga turtki bo’lgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hisoblanadi. Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirishga muam-molardan tashqari bir qancha omillar ham ta’sir ko‘rsatadi. Shunga qaramasdan, mamla-katimiz bank tizimida ham masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish borasida bir qancha me’yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi va jadal ishlar olib borilmoqda. Bugungi kunda banklar mijozlarining soni ortib borishi, ko‘plab mijozlarni jalb qilish va ularga ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish natijasida o‘zlarining daromadini ham ko‘paytirish uchun harakat qilmoqdalar[3].

Innovatsion masofaviy bank xizmatlarini joriy etish va keng tatbiq etishda qator tizimli muammolar mavjud:

1. Texnologik muammolar. Ko‘plab tijorat banklarining texnik infratuzilmasi zamonaviy talablarga to‘liq mos emas. Axborot tizimlarining integratsiyasi sust, dasturiy ta’minotning barqarorligi yetarli darajada kafolatlanmagan. Bu esa mijozlarga uzluksiz va sifatli xizmat ko‘rsatishga to‘sqinlik qiladi.

2. Huquqiy muammolar. Me’yoriy-huquqiy baza hamon yetarli darajada mukammal emas. Elektron imzo va masofaviy shaxsni aniqlash tizimlari ba’zan samarali ishlamaydi, natijada mijoz ishonchi pasayadi.

3. Ijtimoiy-psixologik muammolar. Raqamli xizmatlardan foydalanish bo‘yicha aholining barcha qatlamlari teng imkoniyatlarga ega emas. Yoshi katta mijozlar yoki raqamli savodxonligi past bo‘lgan guruhlar yangi texnologiyalarga ehtiyotkorlik bilan yondashadi.

4. Xavfsizlik muammolari. Kiberxavfsizlikning global darajada kuchayib borayotgan tahdidlari bank tizimi uchun jiddiy xavf tug‘diradi. Xakerlik hujumlari, firibgarlik sxemalari va ma’lumotlarni noqonuniy egallash holatlari mijozlar ishonchiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi strategik yo‘nalishlar alohida ahamiyatga ega:

1. Raqamli infratuzilmani modernizatsiya qilish. Banklar yuqori tezlikdagi serverlar, barqaror mobil platformalar va zamonaviy dasturiy yechimlarga sarmoya kiritishi lozim.

2. Huquqiy bazani takomillashtirish. Elektron shaxsni aniqlash, elektron imzo, shuningdek, mijoz ma’lumotlarini himoyalashga oid qonunchilik xalqaro standartlarga mos ravishda takomillashtirilishi kerak.

3. Raqamli savodxonlikni oshirish. Davlat va tijorat banklari hamkorligida aholining moliyaviy va raqamli savodxonligini oshirishga qaratilgan ta’limiy loyihalar amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

4. Kiberxavfsizlikni mustahkamlash. Bank tizimida xalqaro xavfsizlik protokollari (masalan, PCI DSS, ISO/IEC 27001) asosida ishlovchi, uzluksiz monitoring va himoya mexanizmlarini joriy etish zarur.

5. Innovatsion marketing strategiyalarini ishlab chiqish. Banklar innovatsion xizmatlarni mijozlarga qulay va ishonchli tarzda targ‘ib etishi, foydalanuvchilarga qo‘shimcha qiymat yaratuvchi xizmat paketlarini taklif qilishi kerak.

Xulosa. Innovatsion masofaviy bank xizmatlari tijorat banklari uchun nafaqat xizmat ko‘rsatish jarayonini optimallashtirish, balki mijozlar bilan uzoq muddatli va samarali munosabatlarni shakllantirishning muhim vositasidir. Shu bilan birga, mavjud muammolarni tizimli hal etish, innovatsion infratuzilmani mustahkamlash, huquqiy va xavfsizlik mexanizmlarini takomillashtirish orqali bank tizimi raqobatbardoshligini oshirish mumkin bo‘ladi. O’zbekiston Respublikasi bank tizimida elektron to’lov tizimi va masofaviy bank xizmatlari o’zining me’yoriy-huquqiy rivojlanish bosqichlariga ega. O‘zbekiston Respublikasi tijorat bankla-rida masofaviy bank xizmatlarini ko‘rsatish yildan-yilga rivojlanib borayotgan bo‘lsa-da, ushbu xizmatlarning yanada taraqqiy topishida muammolar yo‘q, deb bo‘lmaydi.

Masofaviy bank xizmatlarida yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish va dasturda qulayliklar yara-tish orqali mijozlar sonining ortishiga eri-shish mumkin.

Foydalanillgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 23 martdagi “Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 3620-sonli Qarori.

2. О. И. Лаврушин, И. Д. Мамонова, Н. И. Валенцева [и др.]; под ред. О. И. Лаврушина. Банковское дело: учебник – Москва: КноРус, 2016. – 800 с.

3. Karimova A.M., Tursunov F.M. Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish istiqbollari. Monografiya. Dekabr 2023 y. 93 b.

Usmonova Shirin Shuxratovna - *Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali, tayanch doktorant*

ZAMONAVIY BANK XIZMATLARIDA IT YECHIMLARI VA INNOVATSION BANK XIZMATLAR TIZIMINING RIVOJLANISHI

Annotatsiya. Mazkur maqolada bank faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi va ularning zamonaviy bank xizmatlarini takomillashtirishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Jahon amaliyotidan kelib chiqib, IT texnologiyalari banklar faoliyatini modernizatsiya qilish, mijozlar doirasini kengaytirish, xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash hamda raqobatbardoshlikni oshirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatayotgani ilmiy asosda yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Bank texnologiyalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, IT yechimlari, masofaviy bank xizmatlari, internet-banking, mobil-banking, telefon-banking, SMS-banking, video-banking, onlayn to‘lovlar, bank raqobatbardoshligi.

Bank faoliyatini ilmiy-texnik taraqqiyotning so‘nggi yutuqlarini jadal tatbiq etmasdan modernizatsiya qilish mumkin emas. Jahon amaliyotidan ko‘rinib turibdiki, ilmiy-texnik taraqqiyot va yangi axborot texnologiya (IT)larining jadal o‘sishi bankning jozibadorligini umumiy baholashga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Texnologik jarayonning rivojlanishi nafaqat hujjatlarni rasmiylashtirish va kassa operatsiyalarini o‘tkazish tezligini oshirishga, balki mijozlar doirasini kengaytirishga ham imkon beradi.

O‘z navbatida, zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi banklar va bank xizmatidan foydalanuvchilar o‘rtasidagi masofani sezilarli darajada kamaytirishi, banklararo raqobatni kuchaytirishi va shu sababli bank xizmatlarining miqdopiy va sifat jihatidan rivojlanishiga hissa qo‘shib kelmoqda.

ITlar bank va ularning aloqalarini rivojlantirib, faoliyatni tezkor ravishda qayta loyihalashtirishga imkon beradi [1]. O‘z o‘rnida, bank sektorining ichki va tashqi ish faoliyatlari ITlarning rivojlanishi bilan yanada rivojlanib bormoqda va bu eng katta ta’sir qilgan soha sifatida bank tizimini ko‘rsatish mumkin [2].

Boshqacha aytganda, IT sohasi rivojlanib, tobora o‘sib borayotgan global raqobat davrida banklarning barqarorligini ta’minlash uchun katta hissa qo‘shmoqda

[3].

Umuman olganda, IT-texnologiyalari, ulardan bank sohasida foydalanish, dasturiy ta’minotlar va aloqa vositalari kabilar kabi elimentlar “bank texnologiyalari”ni tashkil etadi.

M.V. Dubininning fikricha, bank texnologiyalari – bu banklarda ishlatiladigan turli xil telekommunikatsiyalar, axborot texnologiyalari, kompyuter tarmoqlari, dasturiy mahsulotlar, ichki protseduralar, risklarni boshqarish modellari va boshqalar [4].

“Bank texnologiyasi” atamasi banklarga o‘z mijozlariga xavfsiz, ishonchli va apzon napxlarda yaxshipoq xizmatlarni taklif qilishi hamda bank xizmatlari Bozorida raqobatbardosh ustunlikka erishishi uchun zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni anglatadi. Bank texnologiyasi, shuningdek, demografik, psixografik va tranzaksion ma’lumotlar kabi mijozlar tafsilotlarini saralash orqali mijozlar xatti-harakatlari modellarini ochishda zamonaviy kompyuter algoritmlaridan foydalanish faoliyatini o‘z ichiga oladi. Ma’lumotlarni yig‘ish deb ham ataladigan ushbu faoliyat mijozlarga segmentatsiya, mijozlar skoringi, maqsadli marketing, bozor savatchalarini tahlil qilish, o‘zaro sotish, sotish, mijozlarni ushlab qolish kabi modellashtirish kabi turli xil marketing muammolarini hal qilish orqali banklarga o‘z biznes maqsadlariga erishishda yordam beradi [5]. Shuningdek, ma’lumotlarni to‘plashdan muvaffaqiyatli foydalanish banklarga foydani sezilarli darajada oshirishga yordam beradi, shu bilan raqobatchilariga nisbatan barqaror ustunlikni saqlab qoladi.

Tadqiqotlardan kelib chiqib, bank texnologiyalarining o‘ziga xos xususiyatlarini va uning takomillashishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni quyidagicha ifodalash mumkin

Bugungi murakkab va tez o‘zgaruvchan sharoitda muvaffaqiyat qozonish uchun “IT managers” guruhini shakllantirish va ulardan samarali foydalanishni tashkil etish maqsadga muvofiq.

Ushbu masofaviy bank xizmat turlarini amaliyotga joriy qilishda bank va mijoz o‘rtasidagi munosabatlarda masofaviy bank xizmatlarining samaradorligini oshirish yo‘li bilan bankning operatsion xarajatlarining barqaror darajasini ta’minlash lozim. Natijada, masofaviy bank xizmatlarining diversifikatsiyalashuv darajasi oshadi, ya’ni bank mijozlari uchun qulay bo‘lgan masofaviy bank xizmatlaridan foydalanishda tanlash imkoniyati yaratiladi.

Masofadan bank xizmatlari ko‘rsatuvchi tizim turlari mavjud.

“Bank–Mijoz” - mijozlarga o‘z moliyaviy pul oqimlarini tezkor tarzda boshqarishga imkon beruvchi elektron hisob-kitoblar tizimi bo‘lib, mijoz va bank o‘rtasidagi himoyalangan elektron hujjatlar almashishning «WEB» texnologiyasi asosida yaratilgan ishchi kompyuterda alohida o‘rnatilgan dasturiy tizim. “Bank–Mijoz” tizimida mijoz operativ holatda onlayn rejimda o‘zining hisobvarag‘idagi qoldiq haqida ma’lumot olishi va moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishi mumkin.

Home banking – bu mijozlarga uyda yoki boshqa joylarda, masalan, ish joylarida masofadan bank xizmatlarini taqdim etish. Bu xizmat kompyuter texnologiyasidan foydalangan holda masofadan mijozlarga xizmat ko‘rsatish

kanalidir. Bugungi kunda u to‘rtta yo‘nalishda rivojlanmoqda: telefon-banking, internet-banking, kompyuter-banking, video-banking.

PC banking – funksional jihatdan masofaviy xizmat ko‘rsatish kanali internet-banking tizimiga ham o‘xshab ketadi. Lekin bu tizim “Mijoz– Bank” xizmatining evolyutsion rivojlanishi natijasi yuzaga kelgan. Elektron raqamli imzo bilan shifrlash mexanizmiga ega. Bank serveri bilan bog‘langan holda mijozning bu tizimda bajarayotgan operatsiyalarini avtomatik bajaradi, bank buxgalteriya dasturlari bilan o‘zaro aloqada ishlash imkoniyati mavjud. Ammo tizimga kirish uchun foydalanuvchi shaxsiy kompyuterida maxsus dasturiy ta’minotni (“Mijoz–Bank”) o‘rnatishi lozim bo‘ladi. Odatda, bunday kanal mijozlar - yuridik shaxslar tomonidan ishlatiladi.

Video banking – bank mijozlariga jonli chakana bank xizmatlari ko‘rsatish tizimi bo‘lib, unda video aloqa har doim mijozning ishonchini ta’minlaydigan audio havola bilan birga keladi, bank mijozi bilan aniq muloqotga kirishadi. Unda video va audio uchun aloqa liniyasi, odatda, yuqori tezlikda ma’lumotlarni uzatishni talab qiladi. Tarixiy nuqtayi nazardan, banklar filial kanaliga (va aloqa markazlariga) ishonishgan, xaridorlarga kerakli savdo natijalarini taqdim etishgan. Boshqa tomondan, raqamli kanallar, tez o‘sib borayotgan sharoitda, ushbu tizim arzon narxlardagi tranzaksiyalarni ishonchli amalga oshirish imkonini beradi.

Mobil-banking **–** mobil qurilmada (mobil telefon, planshet va h.k.) moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish faoliyatidir. Ushbu faoliyat mijozlar uchun to‘lovlar to‘layotganda yoki chet eldan pul jo‘natganda murakkabroq bo‘lishi mumkin. Mobil-banking xizmatining afzalligi istalgan vaqtda va har qanday joydan bankka bog‘lanish imkonining mavjudligidir. Kamchiliklari sifatida xavfsizlikka oid muammolar va bankka shaxsan yoki kompyuterda ishlashga nisbatan cheklangan imkoniyatlarni aytish mumkin.

Phone (telefon) banking – bank yoki boshqa moliya muassasasi tomonidan taqdim etiladigan xizmat bo‘lib, bu mijozlarga bank filialiga yoki avtomatlashtirilgan telekommunikatsiya texnologiyalariga bormasdan telefon orqali qator moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish imkonini beradi. Telefon-bankingning ishlash vaqti filialning ish vaqtiga qaraganda ancha ko‘p bo‘lib, ayrim moliyaviy tashkilotlar 24 soatlik xizmatni taklif qilishadi. Biroq, ba’zi banklar telefon banklari orqali hisobvaraqlarga kirish va o‘tkazmalar miqdoriga cheklovlar joriy qilishlari mumkin.

SMS-banking – mobil-bankingning bir shakli. Bu SMS xabar, ogohlantirishlar yordamida ayrim moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish uchun mijozlarga imkon beradi. SMS xabar turi - bir martalik parol (BMP). BMPlar moliyaviy muassasalar tomonidan kiber firibgarlikka qarshi kurashda qo‘llaniladigan eng so‘nggi vositadir. An’anaviy eslab qolinadigan parollarga tayanish o‘rniga BMPlar SMS orqali mijozning mobil telefoniga yuboriladi, ular BMPni onlayn yoki mobil-banking yordamida tranzaksiyalarni amalga oshirish uchun foydalanadi. BMP qisqa muddat davomida amal qiladi va bir marta foydalaniladi.

WAP-banking – simsiz ma’lumotlarni uzatish protokoli (Wireles Applicaton Protocol) asosida maxsus dasturiy ta’minot (brauzer) bilan jihozlangan mobil telefon, internet tarmog‘i orqali o‘z hisobraqamini masofadan boshqarish tizimi.

STK-banking – mobil telefon sim kartasiga o‘rnatilgan maxsus dastur orqali

boshqarishdir. Bu dastur aniq mobil tarmoq operatoriga bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun, mobil telefon SIM kartasining imkoniyatlarini kengaytirishga asoslangan STK texnologiyasi (SIM Application Toolkit) juda ommalashgan bo‘lib, uning uchun abonentning qaysi telefon modeliga ega ekanligi muhim emas. SIM karta xotirasida saqlangan maxsus STK ilovasi GSM 2+ ni qo‘llaydigan har qanday mobil telefondan bankdagi hisobvarag‘iga kirish imkonini beradi.

Java-Banking – java dasturiga asoslangan mobil telefon va mobil- banking foydalanuvchilar uchun qulaylik va xavfsizligi darajasini oshirdi. Bank mijozlari uchun bank serveri va mobil telefon o‘rtasida SMS orqali axborot almashish WAP va GPRS orqali axborot almashishga nisbatan biroz arzonroq bo‘lishini ta’minlaydi. Java-ilovalarni xaridorlarning mobil telefonlariga bank filiallarida Bluetooth orqali, bank bankomatlari joylashgan joylardan, Bluetooth asosidagi jihozlangan joylardan, bankning WAP-saytidan, shaxsiy kompyuterlar orqali, oldindan joylashtirilgan WEB-sayt va infraqizil port yoki aloqa kabellari orqali yuklab olish mumkin.

Java-banking dasturida Java-ilovasi orqali bank mijozlari operatsiyalarni bajarish, shuningdek, GPRS kanallari orqali bank serveri bilan ma’lumotlar almashish SMS-buyruqlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ilova menyusidan xizmat ko‘rsatish raqamlari va maxsus buyruq kodlarini termasdan (masalan, GPRS bo‘lmasa, SMS-banking orqali xizmat ko‘rsatish mumkin) jo‘natish, bankning to‘lovlari va xizmatlari haqida fundamental ma’lumotlarini topish mumkin.

IVR tizimi orqali bank mijozlari ovozli mobil-banking tizimidan foydalanishlari mumkin. Bank mijozi IVR tizimining ovozli menyusiga kirib, ovozli terishni qo‘llab-quvvatlaydigan telefon xizmati orqali hisobraqamga bog‘lanadi. Ovozli pochtaning ko‘rsatmalariga rioya qilib, menyudan kerakli telefon tugmachalarini bosib, mijoz o‘zi uchun zarur ma’lumotni olishi, to‘lovlarni amalga oshirishi, mobil-banking tizimining boshqa tarkibiy qismlarida mavjud bo‘lgan operatsiyalarni amalga oshirishi mumkin. Axborot xavfsizligini ta’minlash maqsadida mijoz tizimga kirish uchun o‘z identifikatori va parolini tovush orqali kiritish talab etiladi. Mijoz zarur bo‘lganda, bankda o‘zgaruvchan kodlarni ishlatishi mumkin.

Online-banking mijoz hisobvarag‘idagi pul mablag‘larni internet orqali bankka bormasdan boshqarish imkonini beradi. Elektron to‘lov turlarining rivojlanishi va ommalashishi natijasida onlayn-banking uchun ham mijozlarga ko‘p qulayliklar yaratiladi. Online-banking orqali esa faqat onlayn rejimda ishlaydigan banklar, hatto, yirik banklar ham onlayn xizmatlarni taklif qiladi. Online banking mijozlariga hech qanday qog‘oz hujjatsiz onlayn ravishda bank hisobvarag‘ini ochish imkonini beradi.

Internet-banking – masofadan bank hisobvaraqlarini boshqarish texnologiyalari ichida eng keng tarqalgan turlaridan biri. Istalgan vaqtda va internetga kirish imkoniga ega har qanday kompyuterdan hisob-kitoblar va bitimlarni amalga oshirish imkonini beradi. Internet-bankingda operatsiyalarni amalga oshirish uchun maxsus dastur mijozning kompyuteriga o‘rnatilishi shart emas, internet brauzerdan foydalaniladi, xolos.

Internet-banking orqali mijoz o‘z ish joyida internet orqali bank saytiga ulanib, o‘z hisobraqamiga tushayotgan pullarni ko‘rishi, pul o‘tkazmalarini tayyorlab bankka uzatishi mumkin bo‘ladi. Shuningdek, internet-banking mijozga o‘z ish joyida yoki boshqa o‘ziga qulay sharoitda:

- to‘lovlarni o‘tkazish;
- to‘lov o‘tishi bosqichlarini kuzatish;
- barcha hisobotlarni olish kabi amaliyotlardan istalgan vaqtda foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Web-banking – internet-bankingning engillashtirilgan ko‘rinishi bo‘lib, elektron raqamli imzo (EPI) mexanizmiga ega emas, bank kartalari hamda hisobraqamlariga internet yoki istalgan Web-bpauzep orqali kirish imkonini berishga mo‘ljallangan.

Ushbu bank xizmati turi rivojlangan mamlakatlar – AQSh, Yaponiya va G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida faol qo‘llaniladi. Bugungi kunda ushbu xizmat turidan Internet Explorer dasturidan foydalangan holda ko‘pchilik foydalanmoqda.

Mail banking – o‘z mijozlariga pochta orqali bog‘lanish va hisoblarini tekshirishga imkon beruvchi moliya institutlari tomonidan taqdim etiladigan xizmat. Bu, birinchi navbatda, virtual banklar tomonidan (ular mijozlariga bank xizmatlarini ko‘rsatish uchun filiallar, mini banklar yoki bankomatlar taklif qila olmaydi) bankdan juda uzoq yashaydigan mijozlar tomonidan ishlatiladi. E-mail murakkab operatsiyalar uchun foydalanilmaydi. Amaliyotda turli nuqtai-nazarlar mavjudligi bois tijorat banklari xizmatlari, operatsiyalari va mahsulotlarini tavsiflash va ularning turlarini tasniflash borasida yagona yondashuv mavjud emasligi aniqlandi va shartli qator mezonlar (bank xizmatining iqtisodiy mazmuni, risk darajasi, mablag‘larni joylashtirish tavsifi, mijozlar tarkibi, daromadlilik darajasi, to‘lash, muntazamligi, ko‘rsatish usuli, taqdim qilish vaqti, hisob-kitob shakli, o‘tkaziladigan valyuta, shakli, murakkablik darajasi kabi) bo‘yicha tasniflandi.

Xizmatlar bozorida banklarning xizmatlar ko‘rsatish amaliyotiga xos bo‘lgan tendensiyalari aniqlandi. Fikrimizcha, bank xizmatlari yangi xizmatlarni taklif etish va ularning sifat xususiyatlarini yaxshilash yo‘li bilan mijozlarni jalb etishga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Matej Marinc. Banks and information technology: complexity, flexibility, and interconnectedness, 2011, https://www.researchgate.net/publication/266465168

2. Saeid Khajeh Dangolania. The impact of information technology in banking system (A case study in bank Keshavarzi Iran) // Procedia - social and behavioral sciences, Vol. 30, 2011. –13-16 p.

3. Goyal J., Singh M., Singh R., Aggarwal A. Efficiency and technology gaps in Indian banking sector: Application of meta-frontier directional distance function DEA approach // The Journal of finance and data science, Vol. 5 (2019), 156-172 p

4. Дубинин М.В. Банковские технологии: сущность, история развития и перспективы // Финансы и кредит. №34 (274), 2007. – 58 с.

5. Vadlamani R. Introduction to banking technology and management // Institute for development and research in banking technology. May 2011. DOI: 10.4018/978-1-59904-675- 4.ch001

J.I.Mirzabayev – tadqiqotchi

Yashil iqtisodiyot sharoitida mintaqada turistik xizmatlar bozorining holati va rivojlantirish yo‘llari

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekistonda, shu jumladan Samarqand viloyatida turistik xizmatlarning holati tahlil qilinib, turistik xizmatlar bozorini yanada rivojlantirish yo‘llari taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: xizmat ko‘rsatish sohasi, turizm, turistik xizmatlar, milliy iqtisodiyot, eksport, turizm xizmatlari eksporti.

Jahonda globalizatsiya va iqtisodiyotning raqamlashtirilishi sharoitida turizm sohasi ko‘plab mamlakatlar barqaror rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. Yuqori multiplikativ ta’sirga ega bo‘lgan turizm - iqtisodiy o‘sishga, bandlikni oshirishga, infratuzilmani rivojlantirishga va hududlarning investitsiyaviy jozibadorligini kuchaytirishga hissa qo‘shmoqda. Shu bois, jahonda turizm sohasini barqaror rivojlantirish, bu boradagi yo‘nalishlarni aniqlash va maqsadli chora-tadbirlar ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

Yangi O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlashda turizm industriyasini jadal rivojlantirish hamda mavjud turistik salohiyatdan oqilona foydalanish hisobiga turizm sohasini samarali rivojlantirishga qaratilgan maqsadli dasturlar va chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Respublikamizda 2030-yilgacha erishiladigan maqsadlar samaradorlik ko‘rsatkichlari sifatida “xorijiy turistlar sonini 15 millionga, ichki sayyohlar sonini 25 millionga, ziyorat turizmi bo‘yicha keladigan turistlar sonini 3 million nafarga oshirish. Turizm xizmatlari eksportini 5 milliard AQSH dollariga yetkazish, tibbiyot va ta’lim turizmi eksportini yiliga 1,5 milliard AQSH dollariga yetkazish”[176] vazifalari belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda respublika hududlarida turizm ko‘rsatkichlarini tahlil qilish va sohani yanada rivojlantirish imkoniyatlarini ko‘rsatib berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda alohida mamlakatlar bo‘yicha turizmning rivojlanish darajasini ifodalovchi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlardan biri – ko‘rsatilgan turistik xizmatlar eksporti hisoblanadi.

“Mamlakatimizda turizm sohasini iqtisodiyotning muhim strategik tarmog‘i sifatida yanada rivojlantirish, sayyohlar oqimini keskin oshirish, yangi turizm ob’ektlarini tashkil etish, sohadagi tadbirkorlarni qo‘shimcha ravishda qo‘llab-quvvatlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda mavjud ish o‘rinlarini saqlab qolish hisobiga 2025 yil-yakuniga qadar turizm xizmatlari eksportini 4 milliard AQSH dollariga yetkazish maqsadi belgilangan”[177]. Shu bois, ko‘rsatilgan turistik xizmatlar hajmi bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar tahlil qilindi (1-rasm).

[176] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “«O‘zbekiston – 2030» Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni.

[177] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi yildagi “2025-2026 yillarda sayyohlar oqimini keskin ko‘paytirish va turistik xizmatlar ko‘lamini jadal kengaytirish orqali turizmning iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-87-son Farmoni



1-rasm. O‘zbekistonda ko‘rsatilgan turistik xizmatlar eksportining dinamikasi, mln. AQSH doll[178].

Keltirilgan 1-rasmdan ko‘rinib turibdiki, mamlakatimizda pandemiyadan keyingi davrlarda turistik xizmatlar hajmi barqaror o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Jumladan, 2020-yilda chet ellik turistlarga 255,8 mln. AQSH dollari miqdorida turistik xizmatlar ko‘rsatilgan bo‘lsa, ushbu ko‘rsatkich 2024-yilda 3,5 mlrd. AQSH dollariga yetdi. Tahlil natijasida turistik xizmatlar eksportining 2024-yilda 2020-yilga nisbatan salkam 14 barobarga ko‘payganligi aniqlandi. Turistik xizmatlar eksportining tahlil olib borilgan yillardagi o‘sishiga mamlakatimiz hududlarida turizm va servis infratuzilmasining juda tez rivojlanayotgani ijobiy ta’sir qilganligi aniqlandi.

O‘zbekistonda jami xizmatlar eksportida turistik xizmatlarning ulushi muttasil oshib borganligi statistik ma’lumotlar asosida aniqlandi (1-jadval).

1-jadval

O‘zbekistonda turistik xizmatlar eksporti hajmi bilan bog‘liq ko‘rsatkichlarning tahlili, mln. AQSH dollari[179].

№	Ko‘rsatkichlar	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil
1.	Tashqi savdo aylanmasi eksport hajmi, shundan:	15102,3	16610,6	19309,1	24426,2	26948,2
1.1.	Xizmatlar eksporti hajmi	2005,0	2547,4	3959,5	5179,7	7204,4
2.	Eksport tarkibida xizmatlar ulushi, %	13,3	15,3	20,5	21,2	26,7
3.	Turistik xizmatlar eksporti hajmi	255,8	422,1	1610,2	2143,1	3519,0
4.	Turistik xizmatlarning xizmatlardagi ulushi, %	12,7	16,6	40,7	41,4	48,8

[178] https://stat.uz/uz/default/choraklik-natijalar/53709-2024#yanvar-dekabr

[179] O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi rasmiy https://stat.uz sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tahlil qilindi.

Keltirilgan 1-jadval ma’lumotlari tahlili asosida quyidagi xulosalar qilindi:

- O‘zbekiston tashqi savdo aylanmasi tarkibida eksportning hajmi faqat oshib borgan holda uning o‘sish sur’ati 2024-yilda (26948,2 mln. AQSH dollari) 2020-yilga (15102,3 mln. AQSH dollari) nisbatan 78,4 foizni tashkil etgan bo‘lsa, ushbu ko‘rsatkich 2023-yilga (24426,2 mln. AQSH dollari) taqqoslaganda 10,3 foizga oshgan.
- Xizmatlar eksporti ko‘rsatkichida ham tahlil olib borilgan yillar bo‘yicha muttasil o‘sish tendensiyasi aniqlandi. Jumladan, 2024-yilda ushbu ko‘rsatkich 2020-yil bilan solishtirganda – 5199,4 mln. AQSH dollariga, 2021-yilga nisbatan – 4657,0 mln. AQSH dollariga, 2022-yilga nisbatan – 4657,0 mln. AQSH dollariga – 3244,9 mln. AQSH dollariga va 2023-yilga taqqoslaganda esa – 2024,7 mln. AQSH dollariga ko‘payganligi aniqlandi. Buning natijasida eksport tarkibida xizmatlarning ulushi so‘nggi besh yil (2020-2024 yillar) ichida 13,3 punktdan – 26,7 punktga, ya’ni 13,4 punktga ortdi.

Mamlakatimizda ko‘rsatilgan turistik xizmatlar hajmining ko‘payishi natijasida, ushbu xizmat turining xizmatlar eksportidagi ulushi 2020-yildagi 12,7 punktdan 2024-yilga kelib 48,8 punktgacha oshdi. Bu ko‘rsatkich esa so‘nggi besh yil mobaynida turistik xizmatlar eksportining jami xizmatlar eksportidagi ulushining salkam 4 barobarga oshganligini anglatadi. 2024-yildagi xizmatlar eksporti hajmining ko‘payishi natijasida, oxirgi besh yil ichida ilk bor jami xizmatlar eksporti tarkibida turistik xizmatlarning ulushi 48,8% bilan yetakchi sohaga aylandi.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar asosida Samarqand viloyatida 2024-yilda turistik xizmatlarning ko‘rsatkichlari ijobiy baholandi. Buning natijasida “Samarqandda turizm xizmatlari eksporti 537 million AQSH dollariga yetgan”[180]. Samarqand viloyatida turistik xizmatlar eksportining dinamikasi 2-rasmda keltirildi.

Keltirilgan 1-jadval ma’lumotlari tahlili asosida quyidagi xulosalar qilindi:

- O‘zbekiston tashqi savdo aylanmasi tarkibida eksportning hajmi faqat oshib borgan holda uning o‘sish sur’ati 2024-yilda (26948,2 mln. AQSH dollari) 2020-yilga (15102,3 mln. AQSH dollari) nisbatan 78,4 foizni tashkil etgan bo‘lsa, ushbu ko‘rsatkich 2023-yilga (24426,2 mln. AQSH dollari) taqqoslaganda 10,3 foizga oshgan.
- Xizmatlar eksporti ko‘rsatkichida ham tahlil olib borilgan yillar bo‘yicha muttasil o‘sish tendensiyasi aniqlandi. Jumladan, 2024-yilda ushbu ko‘rsatkich 2020-yil bilan solishtirganda – 5199,4 mln. AQSH dollariga, 2021-yilga nisbatan – 4657,0 mln. AQSH dollariga, 2022-yilga nisbatan – 4657,0 mln. AQSH dollariga – 3244,9 mln. AQSH dollariga va 2023-yilga taqqoslaganda esa – 2024,7 mln. AQSH dollariga ko‘payganligi aniqlandi. Buning natijasida eksport tarkibida xizmatlarning ulushi so‘nggi besh yil (2020-2024 yillar) ichida 13,3 punktdan – 26,7 punktga, ya’ni 13,4 punktga ortdi.

Mamlakatimizda ko‘rsatilgan turistik xizmatlar hajmining ko‘payishi natijasida, ushbu xizmat turining xizmatlar eksportidagi ulushi 2020-yildagi 12,7 punktdan 2024-yilga kelib 48,8 punktgacha oshdi. Bu ko‘rsatkich esa so‘nggi besh yil mobaynida turistik xizmatlar eksportining jami xizmatlar eksportidagi ulushining

[180] 2025 yil Samarqand turizmi uchun yangi davr bo‘ladi - zarnews.uz

salkam 4 barobarga oshganligini anglatadi. 2024-yildagi xizmatlar eksporti hajmining ko‘payishi natijasida, oxirgi besh yil ichida ilk bor jami xizmatlar eksporti tarkibida turistik xizmatlarning ulushi 48,8% bilan yetakchi sohaga aylandi.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar asosida Samarqand viloyatida 2024-yilda turistik xizmatlarning ko‘rsatkichlari ijobiy baholandi. Buning natijasida “Samarqandda turizm xizmatlari eksporti 537 million AQSH dollariga yetgan”[181]. Samarqand viloyatida turistik xizmatlar eksportining dinamikasi 2-rasmda keltirildi.



2-rasm. Samarqand viloyatida ko‘rsatilgan turistik xizmatlar eksportining dinamikasi, mln. AQSH doll[182].

Keltirilgan 2-rasmdan ko‘rinib turibdiki, Samarqand viloyatida turistik xizmatlar hajmi barqaror va jadal o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Jumladan, 2022-yilda chet ellik turistlarga 197,6 mln. AQSH dollari miqdorida turistik xizmatlar ko‘rsatilgan bo‘lsa, ushbu ko‘rsatkich 2023-yilda 537 mln. AQSH dollariga yetdi. Tahlil natijasida turistik xizmatlar eksportining 2024-yilda 2022-yilga nisbatan 2,7 martaga ko‘payganligi aniqlandi. Shu bilan birga “Bu yil Samarqandga 2,55 million nafar xorijiy sayyohlarni jalb etish va turizm xizmatlari eksportini 550 million AQSH dollaridan oshirish rejalashtirilgan, shunga yarasha dastur va loyihalar tayyorlangan”[183]. Turistik xizmatlar eksportining tahlil olib borilgan yillardagi o‘sishiga viloyatda turizm va servis infratuzilmasining rivojlanayotgani ijobiy ta’sir qilganligi aniqlandi.

Samarqand viloyatida turistik xizmatlarni yanada rivojlantirish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish taklif qilindi:

1. Infratuzilmani takomillashtirish. **Turistik avtobuslar va transport xizmatlarini yanada rivojlantirish.**

2. Maxsuslashgan turizm turlarini rivojlantirish. Jumladan, madaniy-tarixiy turizm**,** ekoturizm**,** diniy turizm**,** gastronomik turizm.

3. Xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish va kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish. Turistik xizmatlar ko‘rsatuvchi xodimlar uchun maxsus

[181] 2025 yil Samarqand turizmi uchun yangi davr bo‘ladi - zarnews.uz
[182] O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi rasmiy https://stat.uz sayti ma’lumotlari
[183] 2025 yil Samarqand turizmi uchun yangi davr bo‘ladi - zarnews.uz

malaka oshirish kurslarini tashkil etish, xorijiy davlatlar tillari (ingliz, fransuz, ispan, xitoy, koreys va hokazo)ni mukammal darajada biladigigan gid va tarjimonlar tayyorlash, mehmonxonalarda xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar uchun xalqaro standartlarga muvofiq treninglar o‘tkazish**.**

4. Zamonaviy raqamli va axborot texnologiyalarini joriy etish. Turistik mobil ilovalar ishlab chiqish, onlayn bron qilish tizimlarini yanada takomillashtirish.

5. Tadbirkorlikni yanada rivojlantirish. kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, mahalliy hunarmandchilik va turistik mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekistonni barpo etish sharoitida turizmni, avvalambor, xususiy sektorda rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ko‘rsatilayotgan xizmatlarning raqobatbardoshligini va sifatini oshirish, milliy turizm mahsulotini dunyo bozorida faol va kompleks ravishda targ‘ib qilish, turizm xizmatlarining bozor tarmog‘idagi sohasi bo‘lmish strategik menejment va marketingni o‘z ichiga olgan boshqaruvning kreativ usullarini qo‘llash, turistik salohiyatdan maqsadli foydalanish hamda xalqaro integratsiyalashuv asosida xorijiy mamlakatlardan ko‘p qiymatli turistik xizmatlar va mahsulotlar samarasini o‘zlashtirish kabi tadbirlar yuzasidan keng qamrovli islohotlar amalga oshirilganligi aniqlandi.

D.J.Sherqulov - *Samarqand iqtisodiyot va servis instituti mustaqil izlanuvchisi*

XIZMAT KO‘RSATISH SOXASIDA SIFAT VA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHNING OB’EKTIV ZARURATI

Annotatsiya: Maqolada xizmat ko‘rsatish soxasida sifat va raqobatbardoshlikni oshirishning ob’ektiv zarurati bilan bog‘liq bo‘lgan ilmiy-nazariy ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, xizmat ko‘rsatish sohasida sifatni oshirish jarayonining ilmiy-model asosidagi blok-sxemasi va uning o‘ziga xos jihatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlari: xizmat ko‘rsatish, raqobatbardoshlik, sifat, raqobat, mijoz, ilmiy-tadqiqotlar, innovatsion texnologiyalar, mijozlar bilan ishlash madaniyati, talab, xulq-atvor, raqobatchilar.

Xizmat ko‘rsatish sohasida sifat va raqobatbardoshlikni oshirishning obektiv zarurati shundan iboratki, har bir xizmat turi iste’molchi ehtiyojini to‘liq va samarali qondirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Xizmat sifati — bu nafaqat uning foydalilik darajasi, balki xizmatning qulayligi, ishonchliligi, tezkorligi va mijoz kutgan natijaga mosligi bilan belgilanadi. Shu bois, xizmat sifati iqtisodiy kategoriya sifatida xizmatning inson ehtiyojlarini qanchalik samarali va o‘z vaqtida qondira olishini ifodalaydi.

Xizmat sifatini oshirish bilan bir qatorda, uning raqobatbardoshlik darajasini ham yuksaltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tushuncha xizmatning bozordagi

o‘rni, mijozlar tomonidan tanlanish darajasi va uning iqtisodiy samaradorligi bilan bog‘liqdir. Raqobatbardosh xizmat — bu sifat, narx, innovatsiya va mijozlarga munosabat jihatidan ustun bo‘lgan xizmatdir.

Shuningdek, xizmat ko‘rsatish sohasida “texnik va tashkiliy daraja” tushunchasi ham muhim o‘rin tutadi. U xizmat ko‘rsatish jarayonlarining samaradorligini belgilaydigan texnik, texnologik va tashkiliy imkoniyatlarni qamrab oladi. Bunday ko‘rsatkichlar asosida xizmat turlarini modernizatsiya qilish, innovatsion yechimlarni joriy etish hamda xizmat bozorini tahlil qilish imkoni yaratiladi.

Bugungi kunda xizma sifati va uning raqobatdardoshligi masalalari bilan jahon va mahalliy olimlar ham ilmiy-tadqiqotlar olib bormoqda. Xususan, C.Baumann o‘z tadqiqotlarida, “xizmat sifatining korxonaning natijaviy ko‘rsatkichlari va raqobatbardoshlik bilan bog‘liqligini empirik jihatdan o‘rganadi. Korxonalarning raqobatdagi holatini baholashda xizmat sifati ko‘rsatkichlari va raqobat ustunliklari o‘zaro qanday ta’sir ko‘rsatishiga e’tibor qaratadi”[184]. U o‘z tahlillarida xizmat sifatining turli elementlari — mijozlar qoniqishi, ishonch darajasi, javob berish tezligi va xodimlar kompetensiyasi — korxonaning umumiy natijadorligi va raqobat ustunliklarini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi. Shunday qilib, Baumannning tadqiqoti xizmat sifatini faqat operatsion samaradorlik emas, balki strategik raqobatbardoshlik omili sifatida ko‘radi.

N.V.Nguyen tadqiqotlarida “sifatli xizmat orqali kompaniyalar qanday qilib raqobat ustunligiga erishgani va bu jarayonda mijoz qoniqishi hamda brend sadoqati qanday rol o‘ynashini misollar bilan ko‘rsatadi”[185]. Nguyen ta’kidlaydiki, sifatli xizmat mijoz qoniqishini oshirish orqali brendga sodiqlikni shakllantiradi, bu esa kompaniyaning uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga zamin yaratadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, mijoz tajribasini yaxshilash va xizmat ko‘rsatish jarayonida innovatsiyalarni joriy etish kompaniyaning bozordagi imiji hamda ishonchini kuchaytiradi.

Demak, xizmat sifati va raqobatbardoshligini oshirish – bu sub’ektiv xohish emas, balki iqtisodiy taraqqiyot va jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan ob’ektiv zaruratdir. Ushbu jarayonda xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar sifat boshqaruvi tizimini takomillashtirishi, innovatsion texnologiyalarni joriy etishi va mijozlar bilan ishlash madaniyatini yuqori darajaga ko‘tarishi zarur.

Bozor iqtisodiyotining to‘laqonli faoliyat yuritishi uchun eng muhim omillardan biri bu – xo‘jalik subektlari o‘rtasida erkin raqobatning mavjudligidir. Aynan erkin raqobat xizmatlar sifati, ularning samaradorligi va iste’molchi manfaatlarini himoya qilishning kafolati hisoblanadi. Shu bois, xizmat ko‘rsatish sohasida sifatni oshirish hamda raqobatbardoshlikni ta’minlash iqtisodiy rivojlanishning ajralmas sharti sanaladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iste’molchilarning talab va xulq-atvori, shuningdek, raqobatchilar faoliyati ko‘p jihatdan noaniqlik bilan tavsiflanadi. Bunday

---

[184] Baumann C., «Competitiveness vis-a-vis service quality as drivers of firm performance», *Journal of Business Research, 2017.*

[185] Nguyen N.V., «Service Quality as a Catalyst for Competitive Advantage: Evidence from the Hotel Industry», *International Journal of Academic Accounting, 2024.*

holatlarda xizmat ko‘rsatish korxonalari o‘z faoliyatini barqaror olib borishi uchun rivojlanishning aniq strategiyasiga, ishonchli boshqaruv mexanizmlariga va natijalarni baholashning samarali mezonlariga ega bo‘lishi zarur. Xizmat subektining bozor sharoitida o‘z o‘rnini mustahkamlashi va rivojlanib borish qobiliyati, avvalo, uning sifatli xizmat ko‘rsatish darajasi va raqobat ustunliklariga bog‘liq.Raqobatbardoshlikni oshirishning asosiy manbai — bu tashkilotning ichki salohiyatidir. Xizmat ko‘rsatish jarayonlarini optimallashtirish, xodimlar malakasini oshirish, innovatsion yechimlarni joriy etish va mijozlar bilan munosabatlarni takomillashtirish orqali xizmatning umumiy sifati va bozordagi nufuzini kuchaytirish mumkin.

Shu bilan birga, xizmat ko‘rsatish sohasida raqobat afzalligini saqlab qolish uchun muntazam monitoring, tahlil va boshqaruv usullarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Bu orqali korxona o‘z imkoniyatlarini baholaydi, yangi bozor tendensiyalariga mos strategiya ishlab chiqadi va bozorda ustunlikka erishadi.Xizmat ko‘rsatish sohasida sifatni ta’minlash va uni uzluksiz oshirib borish jarayonini yanada aniqroq tasvirlash maqsadida **1-rasm**da xizmat sifatini oshirishning ilmiy-model asosidagi blok-sxemasi keltirilgan. Ushbu model xizmat ko‘rsatish tizimida sifatni shakllantirish, baholash va takomillashtirish bosqichlarini izchil tarzda yoritadi hamda jarayonning uzluksiz rivojlanish mexanizmini ko‘rsatib beradi.

Taqdim etilgan blok-sxema xizmat ko‘rsatish sohasida sifatni oshirish jarayonining ilmiy-model asosidagi ketma-ket bosqichlarini aks ettiradi. Unda xizmat sifati iste’molchi ehtiyojlarini aniqlashdan boshlanib, jarayonni tahlil qilish, sifatga ta’sir etuvchi omillarni baholash, strategiya ishlab chiqish, boshqaruv tizimini takomillashtirish va natijalarni monitoring qilish bosqichlari orqali doimiy takomillashuvga olib kelishi ko‘rsatilgan. Ushbu tuzilma sifat boshqaruvi nazariyasining (Total Quality Management — TQM) asosiy tamoyillariga mos bo‘lib, tizimli yondashuv va uzluksiz yaxshilash g‘oyasini o‘zida mujassam etadi.



1-rasm. Xizmat ko‘rsatish sohasida sifatni oshirish jarayonining ilmiy-model asosidagi blok-sxemasi

Ilmiy nuqtayi nazardan, bu model xizmat ko‘rsatish korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishda sifat siklining uzluksiz ishlashini ta’minlaydi. Har bir bosqichda axborot oqimining qayta tahlil qilinishi va yangilanishi xizmat jarayonlarini optimallashtirish, innovatsiyalarni joriy etish hamda mijoz qoniqishini oshirish imkonini beradi. Shu orqali xizmat sifati faqat operatsion samaradorlik natijasi emas, balki korxonaning strategik rivojlanish ko‘rsatkichiga aylanadi.

Xulosa qilib aytganda, xizmat ko‘rsatish sohasida sifat va raqobatbardoshlikni oshirish bu sub’ektiv istak emas, balki bozor iqtisodiyotining rivojlanishi, iste’molchi talablarining o‘sishi va milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlovchi ob’ektiv zaruratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Baumann C., «Competitiveness vis-a-vis service quality as drivers of firm performance», *Journal of Business Research*, 2017.
2. Nguyen N.V., «Service Quality as a Catalyst for Competitive Advantage: Evidence from the Hotel Industry», *International Journal of Academic Accounting*, 2024.

J.I.Mirzabayev – tadqiqotchi

Mintaqaviy turistik bozorni rivojlantirishda investitsiyaviy mexanizmlarni takomillashtirish

Annotatsiya. Maqolada mintaqaviy turistik bozorni rivojlantirishda investitsiyalar hamda turistik xizmatlar ko‘rsatuvchi tadbirkorlik subyektlarining samarali faoliyat yuritishiga investitsiyaviy mexanizmlarning bog‘liqligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar:, turizm, bozor, mintaqaviy turistik bozor, turistik xizmatlar, tadbirkorlik, investitsiya, mexanizm.

Jahon iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotdagi roli tobora oshib borayotgan strategik sohalaridan biri – turizm sanoati hisoblanadi. “2024-yilda turizm sanoati global iqtisodiyotga rekord darajada hissa qo‘shib, global YaIMga nisbatan 11,1 trillion dollarni yoki uning 10% ini tashkil etmoqda. Bu 2023-yilga nisbatan 12,1% ga o‘sganligini anglatadi”[186]. Bugungi kunda globallashuv jarayonlari va bozor iqtisodiyotining rivojlanishi sharoitida turistik xizmatlarning ahamiyati ortib bormoqda. Hozirda turizm nafaqat mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmog‘i, balki mehnat bozorida bandlikni ta’minlash, investitsiyalarni jalb qilish va milliy daromadni oshirishning asosiy manbalaridan biri

[186]https://www.reuters.com/business/travel-industry-contribute-record-11-trillion-global-gdp-2024-2024-09 03/utm_source.com

sifatida e’tirof etilmoqda. Iqtisodiyotning global integratsiyalashuvi va raqobat muhitida turistik xizmatlar bozorini rivojlantirish mintaqaviy iqtisodiyot uchun ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylanib bormoqda. Turizm sohasida innovatsiyalarni joriy etish, raqobatbardoshlikni oshirish va xizmatlar sifatini yaxshilash orqali hududlar investitsiyaviy jozibadorligini oshirish imkoniyati yaratiladi. Rivojlangan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulot (YAIM) tarkibida turizm sohasi ulushi yuqori bo‘lib, Fransiya, Ispaniya, AQSH va Italiya kabi davlatlarda bu ko‘rsatkich 10-15 % ni tashkil etmoqda. Bundan tashqari, mazkur mamlakatlarda turistik xizmatlar sohasini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati va targ‘ibot tadbirlari iqtisodiy o‘sishga katta hissa qo‘shmoqda.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar turizm sub’ektlariga qulay va samarali shart-sharoitlar yaratib berishni maqsad qilib olgan. Shu bilan birga, O‘zbekistonda turizm bozori, uning alohida mintaqaviy segmentlari ko‘plab iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional omillar ta’sirida shakllanmoqda.

Bugungi kunda bozorni rivojlantirishdagi turli muammolar va masalalarga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar ayrim olimlar tomonidan amalga oshirilgan bo‘lsa-da, hozirgi vaqtgacha turizmning bozor muhitini va uning tarkibiy tuzilmalarini shakllantiruvchi iqtisodiy mexanizmni tushunishga oid yagona, umume’tirof etilgan nazariy yondashuv mavjud emas.

Turizm sohasiga xos bo‘lgan talab va taklifga, shuningdek, turistik xizmatlar narxiga ta’sir etuvchi omillar hali yetarlicha o‘rganilmagan. Bu esa, mavjud rivojlanish darajasini hisobga olgan holda zarur bo‘lgan tartibga soluvchi vositalarni samarali qo‘llash imkoniyatlarini cheklaydi. Shu bilan birga, makroiqtisodiy jarayonlardagi inqirozli holatlar bilan bog‘liq dinamik o‘zgarishlar turizm bozorining bozor mexanizmlari, uning faoliyat yuritish xususiyatlari, davlat tomonidan turizm industriyasini tartibga solishning maqbul usullarini aniqlash va amalga oshirishga doir yangi tadqiqotlarni talab etmoqda.

Turizm sohasi global iqtisodiyotning eng tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Turizmning mintaqaviy rivojlanishi hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy salohiyatini yuzaga chiqarish, aholi bandligini oshirish va investitsiyaviy muhitni yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Turistik xizmatlar va mahsulotlar bozorining mintaqaviy shakllanishini chuqur o‘rganish, mazkur bozordagi ehtiyoj va imkoniyatlarni aniqlash, unda ishtirok etuvchi sub’ektlar faoliyatini muvofiqlashtirish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb vazifa hisoblanadi.

Mintaqada turistik xizmatlar va mahsulotlar bozorini barqaror rivojlantirish ko‘p sub’ektli hamkorlik va investitsiyaviy mexanizmlarning samarali faoliyat yuritishiga bog‘liqdir. Turizm industriyasi tabiiy-tarixiy resurslar, xizmat ko‘rsatuvchi sub’ektlar, infratuzilma va marketing tizimlarining o‘zaro bog‘liq holda ishlaydigan murakkab iqtisodiy tarmoq bo‘lib, uning rivoji davlat organlari, xususiy sektor, mahalliy jamoalar va xalqaro tashkilotlar integratsiyasiga tayanadi. Shu bois mintaqaviy turistik bozorda hamkorlikning institutsional asoslarini takomillashtirish strategik ahamiyat kasb etadi.

Mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashning markaziy yo‘nalishlaridan biri – klasterlashuvga asoslangan kooperatsion platformani shakllantirishdir. Turoperatorlar, mehmonxonalar, transport xizmatlari, hunarmandchilik ustaxonalari, gastronomik ob’ektlar va ekskursiya markazlari o‘rtasidagi funksional bog‘liqlik turistik mahsulotlar zanjirining yaxlitligi va raqobatbardoshligini oshiradi. Bunday klasterlashuv turistik resurslarni samarali taqsimlashga, xizmat sifatini oshirishga, mavsumiylikni kamaytirishga va turistlarning hududda turish davomiyligini uzaytirishga xizmat qiladi.

Mintaqada turistik bozorni kengaytirish va yangi tur mahsulotlarni joriy etishda investitsiyaviy muhitni takomillashtirish muhim omil hisoblanadi. Infratuzilmani modernizatsiya qilish, yangi mehmonxona majmualari, rekreatsion zonalar, tematik parklar, transport-kommunikatsiya tarmoqlari va raqamli servislarni rivojlantirish uchun barqaror sarmoya oqimini ta’minlash zarur. Bu borada davlat-xususiy sheriklik (DXSH) mexanizmi turistik loyihalarni amalga oshirishda eng samarali vosita bo‘lib, yirik infratuzilma ob’ektlari va xizmatlar segmentlarini modernizatsiya qilishga keng imkoniyat yaratadi.

Shu nuqtai nazardan, mintaqaviy turistik muhitda investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish uchun institutsional asoslarni kuchaytirish ham dolzarb vazifa hisoblanadi. Birinchi navbatda, loyihalarni moliyalashtirishda shaffoflikni ta’minlash, ruxsat berish jarayonlarini raqamlashtirish va investorlar uchun “bir darcha” tamoyili asosida xizmat ko‘rsatish tizimini takomillashtirish zarur. Bu kabi yondashuv investorlar uchun ma’muriy yukni kamaytiradi, sarf-harajatlarni optimallashtiradi va loyiha amalga oshirish muddatlarini qisqartiradi.

Shu bilan birga, turistik mahsulotlarni diversifikatsiya qilish va yuqori qo‘shimcha qiymatli xizmatlar segmentini kengaytirish muhim ahamiyatga ega. Masalan, ekologik turizm, agroekoturizm, madaniy-merosiy yo‘nalishlar, sport va ekstremal turizm, hamda MICE (Meeting, Incentives, Conferences, Exhibitions) sohalarini rivojlantirish orqali mintaqaning turistik taklifini kengaytirish mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, yangi investitsiya yo‘nalishlari uchun qulay platformani yaratadi.

Turizm infratuzilmasini jadal rivojlantirishda mahalliy hokimiyat organlari, biznes hamjamiyati va ilmiy markazlar o‘rtasidagi hamkorlik muhim omilsifatida namoyon bo‘ladi. Iqtisodiy tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, aniq hududiy ixtisoslashuvga ega turistik klasterlarni shakllantirish investitsiyaviy faollikni 15–20 foizga oshirishi, mehmonlar oqimini esa sezilarli ko‘payishi mumkin. Shu bois, turistik klasterlar doirasida logistika, marketing, kadrlar tayyorlash va innovatsion servislar integratsiyasini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, turistik bozorni kengaytirish, yangi mahsulotlarni joriy etish va investitsiyaviy muhitni yaxshilash o‘zaro bog‘liq jarayonlar bo‘lib, ularning samarali integratsiyasi turizm industriyasining barqaror va innovatsion rivojlanishiga xizmat qiladi.

Investitsiyaviy muhitni yanada jozibador qilish uchun soliq imtiyozlari, kredit va subsidiya dasturlari, yer resurslarini yengillashtirilgan tartibda ajratish,

investitsiyani kafolatlash bilan bog‘liq huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish talab etiladi. Shu bilan birga, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda amalga oshirilgan loyihalar mintaqa turizm bozorida innovatsiya, shaffoflik va iqtisodiy samaradorlikni kuchaytirish imkonini beradi.

Raqamli infratuzilmaning shakllanishi ham mintaqaviy turistik bozorni rivojlantirishning muhim yo‘nalishidir. Yagona elektron platformalar - onlayn bron tizimlari, raqamli navigatsiya va turistik axborot markazlari, elektron marketing platformalari — turistik sub’ektlar o‘rtasida tezkor ma’lumot almashinuvi va xizmatlar zanjirining optimallashuviga xizmat qiladi. Bu esa turistik mahsulotlar bozorining raqobatbardoshligini oshirib, hududlarning turistik brend sifatida shakllanishini tezlashtiradi.

Shuningdek, investitsiya va hamkorlik jarayonlarining natijadorligini baholash, turistlar oqimi, xizmat sifati, infratuzilma bahosi va bozor segmentatsiyasi kabi ko‘rsatkichlarni muntazam monitoring qilish mintaqaviy turistik bozorda strategik qarorlar qabul qilishning muhim sharti hisoblanadi. Bu jarayon hududda turizm rivojining uzoq muddatli trayektoriyasini belgilashga yordam beradi.

Umuman olganda, hamkorlik va investitsiyaviy mexanizmlarni takomillashtirish mintaqada turistik xizmatlar va mahsulotlar bozorining barqaror rivojlanishi, yangi turistik segmentlarning shakllanishi va raqobatbardoshlikning oshishi uchun ajralmas shart hisoblanadi. Bunday yondashuv turizmni mintaqaviy iqtisodiyotning strategik drayveriga aylantirishga xizmat qiladi.

Исроилов Обид Олимжонович -
Банк-молия академияси магистранти

ЎЗБЕКИСТОНДА ЯШИЛ ТЕХНОЛОГИЯЛАРГА ИСЛОМИЙ ИНВЕСТИЦИЯ МУҲИТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ: МУАММОЛАР ВА ИМКОНИЯТЛАР ТАҲЛИЛИ

Аннотация. Ушбу тезисда Ўзбекистонда яшил технологияларга ислом молияси воситалари орқали инвестиция жалб этишнинг ҳуқуқий, иқтисодий ва институционал асослари таҳлил қилинган. Исломий инвестиция механизмлари - яшил сукук, вақф, қарз ҳасана ва ижтимоий молия воситаларининг имкониятлари, уларни амалий татбиқ этиш йўналишлари ҳамда давлат ва халқаро ташкилотлар билан ҳамкорлик истиқболлари кўриб чиқилган. Шу билан бирга, ҳуқуқий базанинг етарли эмаслиги, малакали кадрлар етишмаслиги, хабардорлик даражасининг пастлиги каби асосий муаммолар таҳлил этилган ва уларни бартараф этиш бўйича таклифлар берилган. Тадқиқот натижалари Ўзбекистонда фоизсиз, экологик барқарор ва ижтимоий адолатга асосланган инвестиция муҳитини шакллантиришда ислом молияси муҳим восита бўлиши мумкинлигини кўрсатади.

Калит сўзлар: яшил технологиялар, ислом молияси, инвестиция муҳити, яшил сукук, вақф, ижтимоий молия, қарз ҳасана, барқарор ривожланиш, экологик молиялаштириш, халқаро ҳамкорлик, ҳуқуқий база.

Кириш. Яшил технологиялар - бу табиий ресурсларни тежаш, атроф-муҳитга таъсирни камайтириш ҳамда барқарор ривожланишни таъминлашга қаратилган илғор, инновацион ечимлар тизимидир. Булар қаторига қуёш ва шамол энергетикаси, энергия тежамкор қурилиш материаллари, қайта ишлаш технологиялари, чиқиндиларни минималлаштириш ва экологик назорат тизимлари киради. Бундай технологияларни кенг жорий этиш катта молиявий сармояларни талаб қилади.

Ана шундай сармояни жалб қилишда ислом молияси воситалари муҳим аҳамиятга эга. Ислом молияси анъанавий молиявий тизимдан фарқли равишда фоизсизлик, рискни тенг тақсимлаш, шариатга мувофиқлик каби принципларга асосланади. Шу туфайли, яшил технологияларни молиялаштиришда ислом молияси воситалар - сукук (исломий облигация), вақф (шартли хайрия фонди), қарз ҳасана (фоизсиз қарз**)** кабилар самарали, шаффоф ва ижтимоий адолатга мос усул сифатида қўлланилиши мумкин.

Ўзбекистон ҳукумати сўнгги йилларда барқарор ривожланиш ва иқлим ўзгаришига қарши кураш бўйича муҳим давлат стратегияларини қабул қилди. Жумладан, 2022–2026 йилларга мўлжалланган “Яшил иқтисодиётни ривожлантириш миллий стратегияси” ва “Ўзбекистон–2030” стратегияси бу соҳада асосий йўналишларни белгилаб берди. Ушбу стратегияларда қайта тикланувчи энергия манбаларини жорий этиш, углерод нейтралликка эришиш, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш каби вазифалар муҳим ўрин эгаллайди. Бундай мақсадларга эришишда исломий инвестиция муҳитини шакллантириш Ўзбекистон учун инновацион ва муҳим қадам бўлиши мумкин.

Таҳлил. 2021–2023 йиллар давомида Ўзбекистонда ислом молияси соҳасига асос солувчи ҳуқуқий ва институционал базалар яратилди. Жумладан, Президент қарори билан ислом молияси воситаларини жорий этишга доир ҳуқуқий асос шакллантирилди. Олий Мажлис қўмиталари, Марказий банк ҳамда молиявий назорат органлари томонидан исломий молиявий фаолиятни тартибга солувчи ҳужжатлар ишлаб чиқилди. Бу ислоҳотлар мамлакатда ислом молиясига мувофиқ молиявий механизмларни амалиётга тадбиқ қилишга кенг йўл очди.

Яшил технологиялар учун мос исломий молиявий воситалар

Восита	Қўлланиш соҳаси	Афзалликлари
Яшил сукук	Қуёш, шамол, энергия тежамкор инфратузилма	Узоқ муддатли, фоизсиз молиялаштириш
Вақф	Эко-маърифий лойиҳалар, ижтимоий инфратузилма	Барқарор даромад, ижтимоий фойда
Қарз ҳасана	Кичик фермерлар, тоза сув, қайта ишлаш	Фоизсиз, oson қайтариладиган молиялаштириш
Ижара	Экологик ускуналар ижараси	Таваккалчилик паст, шариатга мос

Ўзбекистондаги мавжуд имкониятлар

1. Яшил сукук – қуёш, шамол, энергия тежамкор инфратузилма, экологик мониторинг лойиҳаларини фоизсиз ва узоқ муддатли молиялаштириш имконини беради. Ушбу инструмент орқали экологик лойиҳаларга маҳаллий ва халқаро сармоядорларни жалб қилиш мумкин.
2. Вақф фондлари – таълим, соғлиқни сақлаш, экологик маърифат, яшил боғлар ва қайта ишлаш марказлари каби ижтимоий йўналишдаги лойиҳаларни узоқ муддатли барқарор молиялаштириш воситаси сифатида фаоллаштирилиши мумкин.
3. Ижтимоий молия (заҳот, қарз ҳасана) - кичик фермер хўжаликлари, деҳқонлар ва маҳаллий тадбиркорлар томонидан экологик лойиҳаларни амалга ошириш учун имконият яратади. Бундай фоизсиз ва қайтара оладиган молиялаштириш механизмлари аҳолининг камбағал қатламларини ҳам қўллаб-қувватлайди.
4. Халқаро ҳамкорлик – IsDB (Ислом тараққиёт банки), UNDP, ADB, IFC каби халқаро ташкилотлар билан ҳамкорликда яшил-исломий инвестиция лойиҳаларини амалга ошириш имконияти мавжуд. Уларнинг техник кўмаги, молиявий ресурслари ва тажрибаси маҳаллий лойиҳаларга катта туртки беради.

Муаммолар

- Ҳуқуқий базанинг тўлиқ эмаслиги - ислом молияси воситаларни амалиётга тўлиқ татбиқ этиш учун ҳуқуқий норматив ҳужжатлар тўлиқ ва аниқ ишлаб чиқилмаган.
- Малакали кадрлар етишмаслиги - ислом молияси соҳасида мутахассислар сони кам, шу сабабли амалиётдаги татбиқ жараёни секин кечмоқда.
- Жамоатчиликда билим етишмаслиги - яшил технологиялар ва ислом молияси воситалар ҳақида аҳоли орасида етарли билим ва хабардорлик мавжуд эмас.
- Хусусий сектор фаоллигининг пастлиги - яшил лойиҳаларда иштирок этаётган хусусий сармоядорлар сони чекланган, уларнинг хатарни баҳолаш ва молиялаштиришга тайёрлиги паст даражада.

Хулоса. Ўзбекистонда яшил технологияларга исломий инвестиция муҳитини шакллантириш учун ҳуқуқий, иқтисодий ва институционал замин яратила бошланган. Мавжуд стратегик имкониятлар - давлат сиёсатининг қўллаб-қувватлаши, халқаро ташкилотлар билан ҳамкорлик ва ислом динига мувофиқ молиявий воситаларнинг турфа хиллиги бу соҳанинг ривожига катта имкониятлар яратади. Шу билан бирга, ҳуқуқий базанинг тўлиқ эмаслиги, мутахассислар етишмаслиги, жамоатчиликда хабардорликнинг пастлиги ва хусусий секторнинг пассивлиги каби муаммоларни бартараф этиш талаб этилади. Ислом молияси воситаларини - хусусан, яшил сукук, вақф ва ижтимоий молия механизмларини самарали жорий этиш орқали Ўзбекистонда фоизсиз, экологик барқарор ва ижтимоий адолатга асосланган инвестиция муҳитини яратиш мумкин. Бу эса мамлакатнинг барқарор ривожланиш мақсадларига эришишда муҳим қадам бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1.El-Komi, M. (2020). *Islamic Green Finance: Development, Challenges and Opportunities*. Islamic Economic Studies.

2.UNDP Uzbekistan. (2023). *National Strategy for the Development of a Green Economy in Uzbekistan*. Tashkent: United Nations Development Programme.

3.Karim, R. A. A. (2022). *Shari'ah-compliant Green Investment Models*. ISRA Journal of Islamic Finance.

4.Shamsuddeen, I. (2019). *The Role of Waqf in Promoting Sustainable Development*. Journal of Islamic Social Finance.

5.Islamic Development Bank (IsDB). (2021). *Green Sukuk: A Guide for Issuers*.

6.OECD. (2022). *Enabling Environment for Green Finance in Central Asia*. OECD Green Finance Report.

7.Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси. (2023). *"Яшил лойиҳаларни молиялаштириш тизимини ривожлантириш тўғрисида"ги қарор*. https://lex.uz/docs/6461372

8.Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси. (2021). *2022–2026 йилларга мўлжалланган "Яшил иқтисодиётни ривожлантириш миллий стратегияси"*.

9.Ўзбекистон Республикаси Президенти. (2023). Ўзбекистон–2030 стратегияси. https://strategy.uz

Qurbonov Tolmasjon Namoz o'g'li - SamISI, Iqtisodiyot fakulteti talabasi
Qarshiyev Avazbek Sa'dullayevich - SamISI, Iqtisodiyot fakulteti talabasi

MILLIY IQTISODIYOTNING INNOVATSION SALOHIYATI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada innovatasiyaning hozirgi kundagi zaruriyatini yoritib berish bilan birga mamlakatimizdagi innovatsion faoliyatning salohiyati tahlil qilingan. Milliy iqtisodiyotning innovatsion salohiyatining asosiy tarkibiy qismlari, ilm-fan va tadqiqot faoliyatining ahamiyati, kadrlar tayyorlash tizimi, davlat siyosati va qonunchilik, innovatsion loyihalar hamda investitsiyalarning roli tushuntirilgan. Mamlakatimizda ushbu faoliyatni keng qo'llash orqali resurs tejamkorligi, iste'molchilar ehtiyojlarini qondirish, raqobatbardoshlilikni oshishi va yuqori foydaga ega bo'lishga olib kelishi yoritib berilgan. Shu bilan birga ushbu maqolada innovatsion faoliyat bilan bog'liq muammolar tahlil qilinib, natijalar asosida milliy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini ta'minlash bo'yicha xulosa va takliflar ishlab chiqilgan. Bunda xorijiy va mahalliy adabiyotlarni o'rganish ishning ilmiyligini oshirgan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, innovatsion salohiyat, innovatsion infratuzilma, innovatsion muhit, ilm-fan, texnologiya, startap, loyiha, texnopark, biznes-inkubator.

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida innovatsion iqtisodiyot davlatlarning raqobatbardoshligini oshirishning muhim omili sifatida namoyon bo'lmoqda.

Innovatsiyalar iqtisodiy o‘sishning asosiy drayverlaridan biri bo‘lib, ishlab chiqarish jarayonlarining samaradorligini oshirish, yangi mahsulot va xizmatlar yaratish hamda ilg‘or texnologiyalarni joriy etish orqali jamiyat farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli milliy iqtisodiyotning innovatsion salohiyatini mustahkamlash va rivojlantirish dolzarb masala hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish uchun ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirish, ta’lim tizimini takomillashtirish, startaplar va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, xalqaro investitsiyalarni jalb qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsion iqtisodiyotning rivojlanishi nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki yangi ish o‘rinlarini yaratish, eksport salohiyatini kengaytirish va global bozor talablariga moslashish imkonini ham beradi. Shu bois, O‘zbekiston Respublikasining “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”[1]gi Qonuni qabul qilinib, bunda innovatsion faoliyatning asosiy prinsiplari, milliy iqtisodiyotning innovatsion salohiyatini oshirish yo‘llari, innovatsion faoliyat sohasidagi munosabatlarni tartibga solish va innovatsion rivojlantirish strategiyalari belgilangan.

Adabiyotlar sharhi

Ushbu tadqiqot mavzusi bo‘yicha ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari tahlil qilingan. Xususan, M.T.Tekuyeva, M.A.Volov, A.R.Volov va R.H.Kushbokova “Increase of Efficiency of Use of Innovative Capacity of the Region”[5] nomli maqolasida “Rossiyaning iqtisodiy rivojlanishi samarali ishlab chiqarish o‘sishining natijalarini kengaytirish va sifat jihatidan o‘zgartirish, Rossiya innovatsion bozorining shakllanishi, risk kapitali bozorining, ayniqsa, “yuqori texnologiyalar” sohalarida dinamik rivojlanishi hamda moliya bozorlari uchun texnik bazaning taraqqiy etishi bilan bog‘liq. Mintaqaviy innovatsion infratuzilmani boshqarishning ajralmas qismi– uning holatini monitoring qilish va baholash mexanizmi, eng muhimi esa, uning samaradorligini aniqlashdir.”[5] deb tushuntirgan. Ushbu maqolada olimlar innovatsion infratuzilmani baholash bo‘yicha mavjud metodologiyalar tahlil qilinib, ayrim masalalarning noaniqligi aniqlangan. Chunki hozirda mintaqaviy innovatsion infratuzilmaning holati va samaradorligini baholash uchun universal va moslashuvchan metodologiya mavjud emas. Shu sababli, mualliflar Rossiyaning aksariyat mintaqalariga tatbiq etish mumkin bo‘lgan va infratuzilmaning rivojlanish darajasini kompleks tahlil qilishga imkon beradigan baholash usulini ishlab chiqdilar.

J.L.Furman, M.E.Porter va S.Stern “The determinants of national innovative capacity”[6] nomli maqolasida milliy innovatsion salohiyatga quyidagicha ta’rif beradi. “...bu mamlakatning uzoq muddatli istiqbolda innovatsion texnologiyalar oqimini ishlab chiqarish va tijoratlashtirish qobiliyatidir. Milliy innovatsion salohiyat mamlakatning umumiy innovatsion infratuzilmasi, mamlakatning sanoat klasterlarida innovatsiyalar uchun muhit o‘rtasidagi aloqalarning mustahkamligiga bog‘liq.”[6], deb e’tirof etgan. Olimlar milliy innovatsion salohiyat doirasi oldingi tadqiqotlarning uchta alohida yo‘nalishiga asoslanadi. Ya’ni: **Birinchidan,** milliy innovatsion salohiyat kuchli umumiy innovatsion infratuzilmaning mavjudligiga bog‘liq; **Ikkinchidan,** mamlakatning innovatsion salohiyati mamlakatning sanoat klasterlarida mavjud bo‘lgan qulay innovatsion muhitga bog‘liq; **Uchinchidan,** milliy

innovatsion salohiyat umumiy innovatsion infratuzilma va muayyan klasterlar o‘rtasidagi aloqalar mustahkamligiga bog‘liq;



1-rasm. Innovatsion infratuzilmasini baholash tarkibiy qismlari

Milliy innovatsion salohiyat ko‘plab omillarga bog‘liq bo‘lim olimlar faqat innovatsion infratuzilma, qulay muhit va mustahkam aloqa orqali baholashni tusuntirishgan. Ammo olimlar innovatsion salohiyatni siyosiy-huquqiy, moliyaviy va malakali kadrlar kabi miqdor vasifat ko‘rsatkichlarini inobatga olishmagan.

Mahalliy olimlardan Y.E.Aliyev “Innovatsion iqtisodiyot”[7] nomli o‘quv qo‘llanmasida innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslari, innovatsion faoliyat infratuzilmasini tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish omillari, O‘zbekiston milliy innovatsion tizimi, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish tizimini shakllantirish oid masalalarni yoritilgan.

Olim innovatsion salohiyatining tarkibiy qismlari innovatsion salohiyatni o‘rganish asosida innovatsion salohiyatni aniqlashda quyidagi asosiy yondashuvlarni qayd etishgan:

- innovatsion faoliyatni amalga oshirishga jalb qilinishi mumkin bo‘lgan resurslar majmui sifatida;
- innovatsion faoliyatni amalga oshirish imkoniyati sifatida;
- innovatsion faoliyatni amalga oshirishga tayyorgarlik sifatida;
- innovatsionfaoliyatni amalga oshirish qobiliyati sifatida.

Olimning fikricha innovatsion salohiyatning oshishi, o‘z navbatida, innovatsion faoliyat va uning samarali tashkil etilganligiga bog‘liqdir.

A.A.Mamatov, T.T.Jo‘rayev va A.N.Erkayev “Innovatsion iqtisodiyot”[8] nomli o‘quv qo‘llanmasida Innovatsion salohiyatga quyidagicha ta’rif beradi. “Innovatsion salihiyat - iqtisodiy salohiyatning tarkibiy qismi bo‘lib, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida yuqori samaraga erishish, ishlab chiqarish infratuzilmasini o‘zgartirib, mamlakat yalpi ichki mahsuloti tarkibida yuqori texnologiyali, raqobatbardosh mahsulotlar hajmini oshirishi mumkin bo‘lgan ilmiy-texnik salohiyatga yo‘naltirilgan tuzilmaviy unsurlar. Mamlakatning innovatsion salohiyati esa – bir tomondan, innovatsion faoliyatni tashkil etish uchun muhim bo‘lgan

mamlakatdagi mavjud yalpi resurslarni, ikkinchi tomondan takror ishlab chiqarish jarayonida innovatsion faoliyani tashkil etish, barcha innovatsion imkoniyatlarni turli xo‘jalik subyektlari faoliyatida iqtisodiy munosabatlar tizimini shakllanishidan iborat bo‘ladi.”[8] deb e’tirod etgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqoladaning tadqiqot jarayonida milliy iqtisodiyotimizning innovatsion salohiyatni tahlil qilish jarayoni bo‘yicha izlanishlarda bir qator usullardan foydalanilgan. Xususan, mavzuga oid xorijiy tajriba va adabiyotlarni monografik tahlil qilgan holda analiz va sintez, tizimli tahlil, statistik tahlil kabi iqtisodiy usullar hamda taqqoslash va ilmiy abstraktsiya usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar.

Dunyoda yuz berayotgan siyosiy va iqtisodiy inqirozlar tufayli vujudga keladigan qiyinchiliklarga qaramasdan, ijtimoiy boylikni yaratishning ta‘lim, tadqiqot va innovatsiyalarga asoslangan butunlay yangi tizim shakllanib bormoqda. Dunyoning iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarida yalpi ichki mahsuloti o‘sish sur’atining 70-85% gacha texnologiya, uskunalar, kadrlar tayyorlash, ishlab chiqarishni tashkil qilishda o‘z ifodasini topgan yangi bilimlar ulushiga to‘g‘ri keladi.

Bugungi kunda ilmiy salohiyatdan samarali foydalangan holda mamlakatda ilmiy tadqiqotlar samaradorligini oshirishga qaratilgan samarali mexanizmlarni joriy etish dolzarb hisoblanadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”[2]gi Qonunning 19-moddasida “Ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligi hamda samaradorligiga erishish, mehnat unumdorligini oshirish, yangi tarmoqlarni yaratish, aholi turmush darajasi, ilm-fan va ta’lim tizimlarini sifat jihatidan yuksaltirib borish bilan bog‘liq muammolarning ilmiy yechimini ta’minlash maqsadida ishlab chiqiladi.”, hamda ushbu qonunning 41-moddasida “O‘zbekiston Respublikasining ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasida xalqaro hamkorligi milliy ilmiy maktablarning jahon miqyosida o‘z o‘rniga ega bo‘lishi, dunyo ilm-fani va texnologiyalari ilg‘or yutuqlaridan milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini yuksaltirishda foydalanish, chet el investitsiyalari, chet ellik yetuk ilmiy va texnologiya markazlari, olimlar, mutaxassislarni mamlakatga jalb etish, ilmiy faoliyat yurituvchi jismoniy shaxslarning xorijda tajriba va malaka orttirishlarini ta’minlash maqsadlarida amalga oshiriladi.”, kabi istiqbolli strategik maqsadlar belgilngan.

O‘zbekiston Respublikasining “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”[3] Qonunda innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish; innovatsion faoliyatni amalga oshirish; innovatsion infratuzilmani shakllantirish; innovatsion faoliyatni moliyalashtirish; jarayonlarini yaxshilash bo‘yicha huquqiy me’yorlar va “Yo‘l xaritasi” belgilangan.

Bulardan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”[4]gi Farmonining 51-52-maqsadlarida mos ravishda: Iqtisodiyotga innovatsiyalarni keng joriy qilish, sanoat korxonalari va ilm-fan muassasalarining kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish; Global innovatsion indeksda O‘zbekiston Respublikasining o‘rnini yaxshilash va 2030-yilga qadar top-50 mamlakatlari qatoriga kirish; maqsadlari

belgilangan. Albatta ushbu strategik maqsadlar mamlakatimizda milliy innovatsion salohiyatni oshirishga qaratilgan. Innovatsion faoliyat infratuzilmasini rivojlantitish ya'ni texnoparklar va biznes-inkubatorlar sonini ko‘paytirish orqali innovatsion loyihalar va startaplarga ega bo‘lamiz. Ushbu loyihalarni tijoratlashtirish hamda ilm-fan va ta'lim tizimlarini sifatli tashkil etish orqali mahsulot va xizmatlar raqobatbardoshligiga, mehnat unumdorligini oshirishga, yangi tarmoqlarni yaratishga, aholi turmush darajasi va farovonligini oshirishga erishishimiz aniq. Chunki innovatsion loyihalarni yaratish va tijoratlashtirish uchun qulay muhit yaratish oqibatida ilmiy-hajmdor mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish hajmi yildan-yilga oshmoqda (1-jadval).

1-jadval.

Innovatsion loyihalarni tijoratlashtirish natijasida ilmiy-hajmdor mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish [9] (mlrd. so‘m)

Yil	Mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish (mlrd. so‘m)
2019	38,8
2020	41,7
2021	153,2
2022	216,7
2023	275,1
2024	302,1

1-jadvalga ko‘ra, 2019-yil va 2024-yillar oralig‘ida innovatsion loyihalarni tijoratlashtirish natijasida ilmiy-hajmdor mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish miqdori jadallik bilan oshganini ko‘rishimiz mumkin. Bunda 2024-yil 2019-yilgan nisbatan 7,8 koeffitsiyentga o‘sish kuzatilgan. Bundan tashqari, 2019-yil va 2024-yillar davomida tijoratlashtirilgan innovatsion ishlanmalar soni 248 tani tashkil etadi. Bunda:

- 196,2 mlrd so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi;
- 222,6 mlrd so‘m tijoratlashtirildi;
- 64,6 mlrd so‘m soliq tushumi;
- 2185 ta ish o‘rni yaratildi;

O‘zbekiston Respublikasining «Innovatsion faoliyat to'g'risida»gi qonunida innovatsion texnoparklar ularning faoliyati, maqsadi va vazifalari belgilab berildi. Respublikamizda so'nggi besh yilda 19 ta innovatsion infratuzilma obyektlari tashkil etildi, jumladan, 9 ta texnopark, 2 ta innovatsion markaz, 4 ta biznes-akselerator, 3 ta kovorking markazi, 1 ta innovatsion poligon[9].

Shuningdek, 2020 — 2023-yillarda respublikaning har bir hududida bosqichma-bosqich Yoshlar texnoparklarini tashkil etilishi belgilangan bo‘lib, hozirda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Andijon, Toshkent, Sirdaryo, Samarqand hamda Navoiy viloyatlarida Yoshlar texnoparklari faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Bundan tashqari O‘zbekiston bu yo‘nalishda o‘ziga xos salohiyatga ega hisoblanadi. Bugungi kunda davlatimiz rahbarining ilm-fanni rivojlantirishga katta e'tibor qaratayotgani tufayli ushbu salohiyat yuksalib bormoqda. Har yili istiqbolli ilmiy g‘oya va loyihalarni amalga oshirish uchun davlat grantlari

ajratilmoqda. Natijada mamlakatrimizda innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan 2024 yil davomida amalga oshirgan ishlari yuzasidan ma’lumot berilgan (2-jadval).

2-jadval.

Innovatsion rivojlanish agentligining 2024 yil davomida amalga oshirgan ishlari yuzasidan ma’lumot[10]

№	Innovatsion rivojlanish agentligining 2024 yildavomida amalga oshirgan ishlari yuzasidan ma’lumot
1	Ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida umumiy qiymati 161,5 mlrd so‘m bo‘lgan 608 ta yangi ilmiy loyihalar moliyalashtirildi.
2	Ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan jami 719 ta ilmiy loyihaga 356 mlrd so‘m yo‘naltirildi.
3	“Innoweek.uz-2024” xalqaro innovatsion g‘oyalar haftaligi doirasida tashkil etilgan “Tijoratlashtirish forumi” va xalqaro innovatsion mahsulotlar ko‘rgazmasida 512 ta mahalliy tashkilotlarning innovatsion mahsulotlari namoyish etilib, umumiy qiymati 94,9 mlrd so‘mlik jami 84 ta mahalliy shartnomalar, xorijiy korxonalar bilan umumiy qiymati 23,3 mln dollarlik jami 20 ta eksport shartnomalari imzolangan.
4	Ilmiy-innovatsion faoliyat subyektlari tomonidan 2024-yilda 119 ta yangi texnologiyalar yaratilib, belgilangan tartibda patentlar olindi. Mazkur ko‘rsatkich 2023-yilga nisbatan (93 ta) 1,3 barobarga oshdi.
5	Startap loyihalari tanlovlari doirasida umumiy qiymati 27,6 mlrd so‘m bo‘lgan 65 ta startap loyihalar moliyalashtirildi.
6	Stajyor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura va doktorantura uchun qabul kvotalar 2025-yil uchun jami 5250 ta ajratilib, ushbu kvotalar 220 ta tashkilot tomonidan to‘liq o‘zlashtirildi.
7	2024-yilda stajyor-tadiqotchilik instituti va oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutlarida ilmiy tadqiqot olib borayotgan izlanuvchilar 22905 nafarga yetkazildi.
8	2024-yilda oliy ta’lim va ilmiy tashkilotlar tomonidan jami 738 ta ilmiy va ilmiy texnik tadbirlar o‘tkazilib, shundan 436 ta xalqaro 302 ta respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar tashkil qilindi.
9	14 ta ilmiy tadqiqot institutlari 61 turdagi 73,61 mlrd so‘mlik zamonaviy ilmiy laboratoriya asbob-uskunalar bilan jihozlandi.
10	2024-yilda hududlarda 10 ta innovatsion faoliyat infratuzilma subyektlari tashkil etilib, ularning umumiy soni 55 taga yetkazildi.
11	Innovatsion hududga aylantirilayotgan tumanlarda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar tomonidan tanlangan 146 ta loyiha 318,1 mlrd so‘mga moliyalashtirilgan bo‘lib, ulardan 10,9 mlrd so‘m mahalliy byudjetdan, 307,2 mlrd so‘m tashabbuskorlar mablag‘lari hisobidan moliyalashtirildi.
12	Innovatsion tadbirkorlik natijasida 4733 ta yangi ish o‘rinlari yaratilib, mazkur ko‘rsatkich 2023-yilga nisbatan 52,5 foizga o‘sdi.
13	2024-yilda jami 360 nafar yosh olimlar xorijiy ilmiy tashkilotlarga ilmiy stajirovkaga yuborildi hamda mazkur maqsad uchun 24,4 mlrd so‘m mablag‘ ajratildi.

14	2024-yil davomida ilm-fan va innovatsiyalar sohasida xalqaro hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yish hamda rivojlantirish maqsadida 30 dan ortiq xorijiy hamkorlar bilan uchrashuvlar o‘tkazilib, natijada 5 ta Anglashuv memorandumi imzolandi, Agentlikning 23 nafar xodimlari Xitoy davlatiga malaka oshirish kurslarida ishtirok etish maqsadida yuborildi, hamda 10 ga yaqin xalqaro tadbirlar tashkil etildi.
15	2024-yilda 2 ta investitsiya loyihasi doirasida 17,5 mln AQSh dollari o‘zlashtirildi.
16	2024-yilda xalqaro grant mablag‘lari doirasida 9 ta loyiha doirasida jami 10,1 mln AQSH dollari mablag‘lar o‘zlashtirildi.
17	Global innovatsiya indeksining 2024-yildagi reytingida tarkibiy indikatorlarning qamrov darajasi 97,4 foizga yetkazildi. Shuningdek, reytingda mamlakatimiz uchun jami 78 ta indikatordan 40 tasida pozitsiyalarni yaxshilashga hamda 10 ta indikatorlar doirasida eng yuqori o‘sishga erishildi.
18	2022- 2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasi doirasida iqtisodiyot tarmoqlari tomonidan jami 441 ta loyihadan 408 ta loyiha bo‘yicha amalga oshirish ishlari boshlangan. Bunda, 7187,7 mlrd so‘m o‘zlashtirildi va 28 ta tarmoqda jami 310 ta loyiha bo‘yicha ishlar to‘liq yakunlandi.
19	2024-yilda O‘zbekiston olimlari tomonidan "Scopus" va “Web of Science” platformasida chop etilgan ilmiy maqolalar soni 10318 taga yetdi.

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim fan va innovatsiyalar Vazirligi Innovatsion rivojlanish agentligi https://innovation.gov.uz/opendata/post-1852

Ushbu 2-jadvalda mamlakatimizda 2024-yil davomida innovatsion faoliyatni samarali amalga oshirayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu jarayonlarni yanada rivojlantirish Respublikamizda milliy innovatsion tizimni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari quyidagilar:

- iqtisodiyotini resurslar va xomashyolarni tejovchi qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishga asoslangan innovatsion g‘oyalar texnologiyalar va loyihalarni yaratish yo‘nalishlari;
- innovatsiyaning nanotexnologiyalar hamda kimyo texnologiyalardan foydalanishga yo‘naltirilgan milliy innovatsion ishlanmalar tizimini yaratishga yo‘naltirilgan yo‘nalish;
- zamonaviy biotexnologiyalar va qishloq xo‘jaligi bo‘yicha milliy innovatsion ishlanmalar tizimini yaratish;
- aborot kommunikatsion texnologiyalar, axborotlarni yangi innovatsion tizimini yaratish bo‘yicha ishlanmalar yo‘nalishi;
- tibbiyot va farmakologiya sohasida milliy innovatsion tizimni yaratish;
- geologiya, mineralogiya, seymsologiya va mineral ma’danlar sohasi bo‘yicha ilmiy innovatsion ishlanmalar yaratish yo‘nalishi;
- fizika atom energetikasi bo‘yicha ilmiy ishlanmalar yaratish;
- xizmat ko‘rsatish, servis sohasi bo‘yicha ilmiy ishlanmalar yaratish;

- aniq fanlar sohasi bo‘yicha ilmiy ishlanmalar yaratish;

Korxonalarda innovatsion salohiyatni baholashda quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega:

- ilmiy-texnik salohiyat (ilmiy darajaga ega xodimlar soni, bir xodimga to‘g‘ri keladigan ratsionalizatorlik takliflar soni, patentlar soni va boshqalar);
- kommersializatsiya ko‘rsatkichlari (ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmida yangi mahsulot ulushi, litsenziya shartnomalari soni va boshqalar);
- bajarilayotgan ishlarning davomiyligi (innovatsion davrning kattaligi);
- innovatsiyaning boshqarilayotgan tizimi tavsifi (korxonada innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish shakllari, yuqori darajadagi rahbarlarning innovatsion loyihalarni amalga oshirishda qatnashishi, innovatsion faoliyatga qatnashuvchilarga erkinlik darajasini ta’minlanishi);

Innovatsiyalarni baholash indeksi va ularning muvaffaqiyat qozonish ehtimolini (foizda) hisoblash formulasini ishlab chiqishdi. Ular ushbu ko‘rsatkichlardan har qanday mamlakatda innovatsion salohiyatni baholash mezonlari sifatida foydalanishi mumkin.

$$I = \frac{S * N * P * D}{C} = \frac{B}{C}$$

$$P = P_T * P_C * P_F$$

Bu yerda:

I – innovatsiyalarni baholash indeksi;

S – yillik maksimal sotuv hajmi;

N – mahsulotdan olinadigan sof foyda (%);

P – muvaffaqiyat ehtimoli;

D – diskont;

S – ITIlar uchun kelajak xarajatlari;

P_T – texnik ehtimollik;

P_C – tijoratdagi ehtimollik;

P_F – moliyaviy muvaffaqiyat ehtimoli.

Innovatsion salohiyat tavsifini o‘rganishda bir qator mualliflar uning shakllanish va foydalanish jihatiga ko‘proq e’tibor qaratishadi.

Milliy iqtisodiyotning innovatsion salohiyati quyidagi omillar bilan bog‘liq:

- **Ilm-fan va tadqiqot faoliyati bu i**nnovatsion rivojlanishning asosiy manbai bo‘lib, yangi texnologiyalarni yaratish va tadbiq etishga yo‘naltirilgan;
- Innovatsion iqtisodiyot rivoji uchun zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega mutaxassislarni tayyorlash muhim bo‘lganliganligi sababli t**a’lim va kadrlar tayyorlash tizimi muhum hisoblanadi;**

➢ **Davlat siyosati va qonunchilik orqali i**nnovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlovchi dasturlar, imtiyozlar va grantlar iqtisodiyotni texnologik modernizatsiya qilish imkonini beradi.

➢ **Moliyaviy resurslar va investitsiyalar ya’ni** Innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun moliyaviy ko‘mak zarur bo‘lib, bunda xususiy va davlat investitsiyalarining roli katta.

➢ **Korxonalarning innovatsion faolligi ya’ni x**ususiy sektorning yangi texnologiyalarni tatbiq etish va raqobatbardoshlikni oshirishga intilishi muhim ahamiyatga ega.

➢ **Texnologik infratuzilmaning holati ya’ni i**lmiy-texnologik parklari, startap ekotizimlari va inkubatsiya markazlari innovatsion muhitni shakllantiradi.

Yuqoridagi omillarning samarali rivojlanishi innovatsion iqtisodiyotning shakllanishiga xizmat qiladi. Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, innovatsion salohiyatni oshirish uchun davlat va xususiy sektorning hamkorligi, ilm-fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi integratsiya, xalqaro hamkorlik va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa va takliflar

Milliy iqtisodiyotning innovatsion salohiyatini oshirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Innovatsion rivojlanish nafaqat iqtisodiy o‘sishni jadallashtiradi, balki jamiyatning intellektual va ilmiy salohiyatini ham oshiradi. Rivojlangan davlatlarning tajribasidan kelib chiqib, innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Innovatsion salohiyatni oshirish uchun ilmiy izlanishlarni kuchaytirish, startap va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash, xalqaro investitsiyalarni jalb qilish kabi muhim chora-tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi. Shuningdek, iqtisodiyotni raqamlashtirish, kadrlar malakasini oshirish va yangi texnologiyalarni ishlab chiqarish jarayoniga integratsiya qilish zamonaviy tendensiyalar asosida olib borilishi lozim. Bu jarayonlarni yanada jadallashtirish uchun quyidagi takliflar ishlab chiqilgan:

Birinchidan, ilmiy izlanishlar va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash uchun davlat grantlarini kengaytirish hamda innovatsion startaplarni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan maxsus jamg‘armalarni tashkil etish;

Ikkinchidan, oliy ta’lim muassasalarida “innovatsiya” fanini o‘tilishini kengaytirish ya’ni ilm-fan va texnologiyalar bo‘yicha xalqaro tajribalarni o‘rganish va tatbiq etish;

Uchinchidan, innovatsion infratuzilmani rivojlantirish, jumladan, texnoparklar va biznes-inkubatorlarni ko‘paytirish hamda malakali kadrlarni tayyorlash;

Yuqoridagi chora-tadbirlar milliy iqtisodiyotning innovatsion salohiyatini oshirishga xizmat qiladi hamda barqaror iqtisodiy o‘sishga erishishda muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.

[1]. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 24.07.2020 yildagi O‘RQ-630-son. https://lex.uz/uz/docs/-4910391

[2]. O‘zbekiston Respublikasining “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida” O‘RQ-576-son qonuni 29.10.2019-yil https://lex.uz/ru/docs/-4571490
[3] O‘zbekiston Respublikasining “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida” O‘RQ-630-son qonuni 24.07.2020-yil https://lex.uz/docs/-4910391
[4]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmonining 51-52-maqsadlari https://lex.uz/uz/docs/-5841063
[5]. Marina T.Tekuyeva, Murat A.Volov, Amina R.Volova and Rita H.Kushbokova “Increase of Efficiency of Use of Innovative Capacity of the Region” Mediterranean Journal of Social Sciences MCSER Publishing, Rome-Italy Vol 6 No 2 March 2015. [Online] Available: https://citeseerx.ist.psu.edu/document?repid=rep1&type=pdf&doi=edd44221bc9206ebbb91044d24d1f768235a65a3
[6]. Jeffrey L Furman, Michael E Porter, Scott Stern “The determinants of national innovative capacity” Volume 31, Issue 6, August 2002, Pages 899-933 [Online] Available: https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0048733301001524
[7]. Y.E.Aliyev “Innovatsion iqtisodiyot” O‘quv qo‘llanma TOSHKENT –2019 236 bet. [Online] Available: https://ebook.tsue.uz/public/ebooks/innovatsion-iqtisodiyot
[8]. A.A.Mamatov, T.T.Jo‘rayev va A.N.Erkayev “Innovatsion iqtisodiyot” O‘quv qo‘llanma TOSHKENT–2020 456 bet. [Online] Available: https://renessans-edu.uz/files/books/2024-01-05-05-25-04_d0f6e5b08240a37208698497799752eb.pdf
[9]. Innovatsion rivojlanish agentligi https://innovation.gov.uz/news/post-1065
[10]. https://data.egov.uz/data/6107f48d2a2e256d868e8786
[11]. https://innovation.gov.uz/opendata/post-1852
[12]. https://ebook.tsue.uz/public/ebooks/innovatsion-iqtisodiyot
[13]. https://renessans-edu.uz/files/books/2024-01-05-05-25-04_d0f6e5b08240a37208698497799752eb.pdf
[14]. https://stat.uz

Мамаризоев Жахонгир Исохонович - *магистрант университета Мировой Экономики и Дипломатии*

ВЛИЯНИЕ ПАНДЕМИИ COVID-19 НА УРОВЕНЬ БЕДНОСТИ И СОЦИАЛЬНОЕ НЕРАВЕНСТВО

Аннотация. В статье анализируется влияние пандемии COVID-19 на уровень бедности и социальное неравенство в глобальном контексте. На основе статистических данных за 2000–2024 гг. выявлено, что пандемия нарушила устойчивую тенденцию снижения бедности, вызвав временный рост показателей и рост уязвимости населения. Особое внимание уделено институциональным слабостям социальной защиты и необходимости

структурных реформ. Представленный график иллюстрирует колебания уровня бедности до и после пандемии, подтверждая важность комплексной социальной политики в постпандемийный период.

Ключевые слова. Бедность, социальное неравенство, пандемия COVID-19, уязвимость населения, глобальная экономика, социальная защита, восстановление, $3 в день, уровень бедности, постпандемийный кризис

Введение. Пандемия COVID-19 стала серьёзным шоком для глобальной борьбы с бедностью и усилила социальное неравенство. В 2020 году уровень крайней бедности впервые за десятилетия вырос: доля людей, живущих менее чем на $2,15 в день, увеличилась с 8,3 % до примерно 9,7 % мирового населения. Это привело к тому, что десятки миллионов человек оказались выброшены за черту выживания.[187]

Кроме того, исследование Всемирного банка показало, что пандемия могла увеличить мировой индекс Джини примерно на 0,7 пункта, что свидетельствует о росте неравенства.[188] При этом в ряде стран неравенство доходов внутри стран усилилось особенно среди уязвимых групп – низкоквалифицированных работников, женщин и мигрантов, которые чаще подвергались потере работы или снижению заработка.[189]

Эти факты подчёркивают: последствия COVID-19 не были нейтральны – удар пришёлся преимущественно по бедным и маргинализированным, что потребовало от государств активных мер социальной поддержки и пересмотра моделей устойчивого развития.

Результаты исследования. Пандемия COVID-19 стала мощным негативным шоком, который резко обострил проблему бедности во всём мире. Одним из ключевых каналов воздействия стало массовое сокращение рабочих мест, особенно в секторах с низкой добавленной стоимостью – туризме, гостиничном бизнесе, розничной торговле и сфере услуг. Работники с низкой квалификацией и те, кто был занят в неформальной экономике, особенно уязвимы: многие из них потеряли стабильный источник дохода и остались вне охвата формальных программ поддержки. В результате миллионы домохозяйств оказались неспособны обеспечить базовые потребности - питание, жильё, доступ к медицинским услугам.

Дополнительным ударом стала нестабильность цен и инфляционные процессы, вызванные нарушением глобальных цепочек поставок и ростом себестоимости товаров. Повышение цен на продукты питания, топливо и медикаменты особенно сильно отразилось на беднейших слоях населения, для которых эти расходы составляют основную часть потребительской корзины.

---

[187] https://nl4worldbank.org/2024/04/18/march-2024-global-poverty-update-from-the-world-bank-first-estimates-of-global-poverty-until-2022-from-survey-data

[188] https://www.worldbank.org/en/topic/poverty/brief/projected-poverty-impacts-of-COVID-19

[189] https://www.oecd.org/en/publications/the-unequal-impact-of-covid-19-a-spotlight-on-frontline-workers-migrants-and-racial-ethnic-minorities_f36e931e-en.html

Не менее важным фактором стала институциональная слабость социальных систем. Во многих развивающихся странах программы социальной помощи оказались неготовыми к масштабному кризису: охват был ограниченным, а размеры пособий – недостаточными для поддержания уровня жизни. Системы не имели ни адекватных ресурсов, ни механизмов быстрой адресной поддержки.

Наконец, пандемия радикально повысила уязвимость тех групп населения, которые и до неё находились в зоне риска. По оценке Brookings Institution, в 2021 году около 115 миллионов человек перешли в категорию экономически уязвимых под воздействием пандемии, даже если формально не пересекли черту бедности. Таким образом, COVID-19 не только увеличил масштабы бедности, но и расширил круг лиц, находящихся в непосредственной близости к ней.[190]



Рисунок 1. Динамика доли населения мира, живущего на менее чем $3 в день (2021 PPP), 2000–2024 гг.

График отражает динамику глобальной бедности на протяжении 2000–2024 годов по критерию доли населения, живущего менее чем на $3 в день в ценах 2021 года. До наступления пандемии наблюдалась чёткая тенденция к снижению бедности: с более чем 22 % в начале 2000-х до минимума в 5,88 % в 2017 году. Этот устойчивый спад свидетельствовал о положительном эффекте глобализации, экономического роста в развивающихся странах и расширения программ социальной защиты.

Однако начиная с 2018 года процесс замедлился, а с наступлением 2020 года – резко изменился. В условиях пандемии COVID-19 кривая бедности продемонстрировала обратный разворот: если в 2019 году показатель составлял около 6,4 %, то в 2020 он поднялся до 7,2 %, а в 2021 - до почти 9,9 %. Этот рост можно объяснить повсеместным локдауном, резким сокращением занятости в неформальных секторах, ростом цен и неэффективной социальной поддержкой в ряде стран. То есть пандемия прервала двух десятилетнюю траекторию

[190] https://www.brookings.edu/articles/covid-19-and-poverty-vulnerability/

снижения бедности и отбросила мир по уровню доходов на несколько лет назад.

Снижение показателя в 2022 и 2023 годах – до 8,05 % и 5,76 % соответственно – отражает частичное восстановление экономики, снятие ограничений и возобновление трудовой миграции. Однако в 2024 году наблюдается новый всплеск – до 8,71 %, что может быть следствием инфляционного давления, геополитической нестабильности и последствий климатических шоков. Это подчёркивает, что проблема бедности остаётся крайне чувствительной к глобальным кризисам, а устойчивое снижение требует системных, долгосрочных решений, а не временных антикризисных мер.

Заключение. Пандемия COVID-19 оказала разрушительное воздействие на достигнутые за последние десятилетия успехи в борьбе с бедностью. Долгосрочная тенденция к снижению доли населения, живущего в крайней бедности, была резко прервана уже в 2020 году, а в последующие годы наблюдались нестабильность и откаты. Представленный график демонстрирует: если до пандемии бедность снижалась почти линейно, то после 2019 года кривая стала ломаной, отражая резкие всплески и спад, нехарактерные для предыдущих трендов. Это подтверждает, что глобальные кризисы, такие как COVID-19, не просто замедляют прогресс, но могут откатить его на годы назад, особенно в странах с ограниченными фискальными и социальными возможностями.

Особую обеспокоенность вызывает рост уязвимости населения: даже при формальном снижении показателей бедности значительная часть людей живёт на грани, и любые внешние шоки – пандемии, инфляция, конфликты – быстро втягивают их в бедность. Пандемия выявила институциональные слабости систем социальной защиты и подчеркнула необходимость структурных реформ: расширения охвата пособий, улучшения их адресности и устойчивого финансирования.

Таким образом, COVID-19 стал не только санитарным, но и социально-экономическим кризисом глобального масштаба. Его последствия до сих пор ощущаются в показателях бедности и неравенства. Устойчивое восстановление требует не только экономического роста, но и целенаправленной социальной политики, ориентированной на защиту самых уязвимых категорий населения.

Список использованной литературы

1. Yonzan, Nishant; Mahler, Daniel Gerszon; Lakner, Christoph. 2022. The Impact of COVID-19 on Global Inequality and Poverty. Policy Research Working Papers;10198. World Bank.

2. https://nl4worldbank.org/2024/04/18/march-2024-global-poverty-update-from-the-world-bank-first-estimates-of-global-poverty-until-2022-from-survey-data

3. https://www.worldbank.org/en/topic/poverty/brief/projected-poverty-impacts-of-COVID-19

4. https://www.oecd.org/en/publications/the-unequal-impact-of-covid-19-a-spotlight-on-frontline-workers-migrants-and-racial-ethnic-minorities_f36e931e-en.html

5. https://www.brookings.edu/articles/covid-19-and-poverty-vulnerability/

IV SHO‘BA YASHIL TEXNOLOGIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA INSON KAPITALI

Abdumalik Bektemirov - *SamISI “Investitsiya va innovatsiyalar” kafedrasi mudiri, i.f.d., professor*

YASHIL TEXNOLOGIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA INSON KAPITALI

Annotatsiya: mazkur ma’ruza tezisida yashil iqtisodiyot va ekologik barqaror rivojlanish sharoitida inson kapitalining o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Yashil texnologiyalarni joriy etish jarayonida malakali kadrlar tayyorlash, ilmiy tadqiqot salohiyatini kuchaytirish, innovatsion bilimlarni amaliyotga tatbiq etish hamda ekologik madaniyatni oshirish masalalari yoritiladi. Shuningdek, O‘zbekistonda yashil texnologiyalarni rivojlantirish bo‘yicha davlat siyosati, xalqaro tashkilotlar ishtiroki va ta’lim tizimining transformatsiyasi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, inson kapitali, barqaror rivojlanish, innovatsiyalar, yashil texnologiyalar, ekologik ta’lim, mehnat bozori, malakali kadrlar, raqamli transformatsiya, yashil investitsiyalar.

Бугунги кундаги global ekologik muammolar, iqlim o‘zgarishlari va tabiiy resurslardan ortiqcha foydalanish insoniyatni yashil rivojlanish modeliga o‘tishga majbur qilmoqda. Bu jarayonda inson kapitalining roli beqiyos, chunki yashil texnologiyalarni yaratish, ularni ishlab chiqarish jarayonlariga joriy etish va boshqarish uchun yuqori malakali mutaxassislar zarur.

O‘zbekiston ham “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi (2019–2030)” doirasida energetika, transport, qurilish, qishloq xo‘jaligi va suv xo‘jaligida yashil texnologiyalarni keng joriy etishga katta e’tibor qaratmoqda. Bunda inson kapitali – bilim, ko‘nikma, innovatsion fikrlash va ekologik mas’uliyatning uyg‘unlashgan shakli sifatida asosiy o‘rin tutadi.

Bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotining dekarbonizatsiyasi, energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini kengaytirish kabi jarayonlar malakali kadrlar, ilmiy muassasalar, ta’lim tizimi va xususiy sektor hamkorligisiz amalga oshmaydi. Shu sababli inson kapitaliga investitsiya kiritish – yashil texnologiyalarni rivojlantirishning eng muhim omilidir.

Yashil texnologiyalarni rivojlantirishda inson kapitali roli ko‘rsatib beradigan xuquqiy-meyoriy manbalarda inson resurslarini bu jarayonga tayyorlash ahamiyati ko‘rsatib berilgan. Jumladan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti PF-4477-sonli Farmonida (2019-yil) – Yashil iqtisodiyotga o‘tishning davlat siyosati darajasidagi asoslarini belgilab berdi. Farmonda inson resurslarini mazkur jarayonga tayyorlash masalasini strategik ustuvor yo‘nalish sifatida belgilab berilgan [1].

Jahon bankining 2021 yildagi “Yashil inson kapitalai va barqaror o‘sish” nomli hisobotida – Yashil iqtisodiyotda inson kapitalining iqtisodiy o‘sishga ta’siri haqida tahliliy yondashuvlarni ёритиб берган [2].

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (OECD) 2023 yildagi hisobotida (“Green Growth Indicators” – “Yashil o‘sish ko‘rsatkichlari”da) Mehnat bozori, ekologik ta’lim va innovatsiyalarni baholash indikatorlari ishlab chiqilib, uning yordamida mamlakatlarda bu sohadagi jarayonlar baholanib bormoqda [3].

BMTning “Barqaror rivojlanish maqsadlari hisoboti”da (2022yil)– Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda ekologik ta’lim va kadrlar salohiyatining ahamiyati ochib berilgan [4].

Osiyo taraqqiyot bankining 2023 yildagi hisobotida O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ishlar bo‘yicha tahliliy ma’lumotlar keltirilgan [5].

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (EBRD) tomonidan tayyorlangan “Markaziy Osiyoda yashil malakalar va bandlik” deb nomlangan tahliliy nashrda Markaziy Osiyo mamlakatlarida bu sohada olib borilayotgan ishlar yoritilgan [6].

Юқорида таҳлил қилинган манбалар бу соҳадаги илмийй-тадқиқот ишларида асосий манба бўлиб хизмат қилади.

Yashil texnologiyalar va inson kapitali o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik. Yashil texnologiyalar (green technologies) – bu iqtisodiy o‘sish va ishlab chiqarish jarayonlarida atmosfera, suv, yer va biologik resurslarga zarar yetkazmasdan samaradorlikni oshiruvchi yechimlardir. Ular energetika, qurilish, transport, qishloq xo‘jaligi va chiqindilarni qayta ishlash sohalarini qamrab oladi.

Bu texnologiyalarni joriy etishda inson kapitalining uch asosiy komponenti ajralib turadi:

1. Ta’lim va bilim salohiyati. Yashil texnologiyalarni tushunish, loyihalash va qo‘llash uchun muhandislik, IT, ekologiya, iqtisodiyot va menejment yo‘nalishlarida zamonaviy ta’lim muhimdir.

2. Innovatsion fikrlash. Texnologik yangiliklarni yaratish, ularni mahalliy sharoitga moslashtirish uchun kreativ yondashuv talab etiladi.

3. Ekologik madaniyat. Insonning tabiatga ongli munosabati yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning madaniy poydevorini tashkil etadi.

O‘zbekistonda inson kapitali va yashil texnologiyalar rivoji. O‘zbekiston Respublikasida “Yashil iqtisodiyot” milliy strategiyasi, “Qayta tiklanuvchi energiya manbalari to‘g‘risida”gi Qonun, hamda “2030-yilgacha iqlim neytralligiga erishish konsepsiyasi” kabi hujjatlar orqali yashil texnologiyalarni rivojlantirish uchun normativ asos yaratilgan.

So‘nggi yillarda:

- Samarqand, Navoiy va Buxoro viloyatlarida ADB, EBRD va ACWA Power kabi xorijiy investorlar ishtirokida quyosh va shamol elektr stansiyalari barpo etildi;
- Toshkent davlat texnika universiteti, TDIU, Toshkent irrigatsiya universiteti qoshida yashil energetika va ekologik iqtisodiyot bo‘yicha ilmiy markazlar tashkil etildi;
- “Yashil kadrlar” dasturi orqali energetika, qurilish va transport sohalarida 5000 dan ortiq mutaxassislar qayta tayyorlanmoqda.

Shu bilan birga, O‘zbekistonning ta’lim tizimida STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics**)** yondashuviga asoslangan yashil innovatsion ta’limni kengaytirish dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Yashil texnologiyalar rivojidagi asosiy muammolar. Yashil texnologiyalarni rivojlantirishda inson kapitali bilan bog‘liq bir qator muammolar mavjud:

- Mutaxassislar tayyorlashdagi uzilishlar: Yashil iqtisodiyotga ixtisoslashgan ta’lim dasturlari yetarli emas.
- Ilmiy tadqiqotlar va ishlab chiqarish integratsiyasining sustligi.
- Xususiy sektorning ta’lim va innovatsiyaga sarmoya kiritish faolligi past.
- Texnologik bilimlar eskirishi va kadrlarning malakasini yangilash mexanizmlarining zaifligi.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar va tahlillar quyidagi taklif va tavsiyalar uchun asos bo‘ladi.

Taklif va tavsiyalar:

1. Yashil kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratish zarur – bu tizimda oliy ta’lim, ilmiy muassasalar va biznes sektori o‘zaro integratsiyalashgan bo‘lishi kerak.
2. Yashil innovatsion markazlarni tashkil etish orqali yosh olim va tadbirkorlarning ilmiy g‘oyalarini amaliy loyihalarga aylantirish mexanizmini rivojlantirish.
3. Ekologik ta’limni maktabdan boshlab tizimli yo‘lga qo‘yish, bunda raqamli platformalar va interaktiv metodlardan foydalanish.
4. Xalqaro tashkilotlar (UNDP, ADB, EBRD, OECD) bilan hamkorlikni kengaytirish, kadrlar malakasini oshirish dasturlarini joriy etish.
5. Ayollar va yoshlarning yashil iqtisodiyotdagi rolini kuchaytirish — gender jihatdan inklyuziv kadrlar siyosatini amalga oshirish.

Xulosa. Yashil texnologiyalarni rivojlantirishda inson kapitali – bu nafaqat mehnat resurslari, balki innovatsion tafakkur, ilmiy salohiyat va ekologik mas’uliyatni o‘zida mujassam etgan asosiy kuchdir. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda bu yo‘nalishda sezilarli siljishlar kuzatilayotgan bo‘lsa-da, ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi uyg‘unlikni kuchaytirish kelajakdagi muvaffaqiyat kaliti hisoblanadi.

Yashil iqtisodiyotga o‘tish – bu texnologik jarayon emas, balki inson kapitaliga asoslangan madaniy va iqtisodiy islohotlar tizimidir. Shu bois, inson kapitaliga yo‘naltirilgan investitsiyalar yashil texnologiyalarni rivojlantirishning eng barqaror va uzoq muddatli mexanizmi bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi to‘g‘risida” PF-4477-son Farmon. – Toshkent, 2019.
2. World Bank. *Green Human Capital and Sustainable Growth.* – Washington D.C., 2021. – 120 p.
3. OECD. *Green Growth Indicators 2023.* – Paris: OECD Publishing, 2023. – 112 p.
4. UNDP Uzbekistan. *National Report on Sustainable Development Goals.* – Tashkent, 2022. – 95 p.
5. Asian Development Bank. *Uzbekistan: Human Capital and Green Energy Transition.* – Manila, 2023. – 88 p.

6. EBRD. *Green Skills and Employment in Central Asia.* – London, 2022. – 76 p.

A. Bektemirov - *i.f.d., professor ilmiy rahbar*
Xamrayev Oybek – *Samarqand iqtisodiyot va servis instituti magistranti*

MOLIYAVIY SAVODXONLIKNING IJTIMOIY FAROVONLIK VA BANDLIK DARAJASIGA TA’SIRI

Anotatsiya: Ushbu maqolada moliyaviy savodxonlikning ijtimoiy farovonlik va bandlik darajasiga ko‘rsatadigan ta’siri tahlil qilingan. Aholining moliyaviy bilim va ko‘nikmalarini oshirish orqali iqtisodiy faollik, daromad manbalarini diversifikatsiya qilish hamda barqaror bandlikni ta’minlash imkoniyatlari yoritilgan. Tadqiqotda milliy tajriba bilan bir qatorda xalqaro amaliyotlar ham tahlil etilib, moliyaviy ta’limni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: moliyaviy savodxonlik, ijtimoiy farovonlik, bandlik, iqtisodiy faollik, moliyaviy ta’lim, barqaror rivojlanish.

Global iqtisodiyotda ro‘y berayotgan chuqur o‘zgarishlar, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi va moliyaviy xizmatlarning murakkablashuvi aholining moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish zaruratini yanada kuchaytirmoqda. Moliyaviy savodxonlik nafaqat shaxsiy byudjetni oqilona boshqarish, balki oilaviy farovonlik, jamiyatning iqtisodiy barqarorligi hamda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta’minlashda ham muhim omil hisoblanadi. Aholining moliyaviy madaniyat darajasi ularning bandlik holati, ishga joylashish imkoniyatlari, tadbirkorlik tashabbuslari va investitsion qarorlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri belgilaydi. Moliyaviy bilim yetishmasligi esa, o‘z navbatida, ishsizlik, ortiqcha qarzdorlik va ijtimoiy beqarorlikning kuchayishiga olib keladi. Shu boisdan, aholining moliyaviy savodxonligini oshirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan.

O‘zbekiston Respublikasida ham bu borada keng ko‘lamli islohotlar olib borilmoqda. Xususan, Markaziy bank, Moliya vazirligi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamkorligida “Moliyaviy savodxonlikni oshirish milliy strategiyasi” ishlab chiqilib, aholining barcha qatlamlari uchun moliyaviy ta’lim dasturlari joriy etilmoqda. Bu tashabbuslar orqali fuqarolarda pul oqimlarini boshqarish, jamg‘arma va investitsiya madaniyatini shakllantirish hamda mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiluvchi kompetensiyalarni rivojlantirish maqsad qilingan. Xalqaro amaliyotlar shuni ko‘rsatadiki, moliyaviy savodxonlik darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatlarda bandlik darajasi yuqori, aholining real daromadlari barqaror va iqtisodiy beqarorlik holatlari kam uchraydi. Bu esa moliyaviy savodxonlikni oshirishni nafaqat shaxsiy farovonlik, balki milliy iqtisodiy

xavfsizlik omili sifatida ham ko‘rib chiqish zarurligini tasdiqlaydi. Mazkur tadqiqotning maqsadi – aholining moliyaviy savodxonligini oshirish orqali ijtimoiy farovonlikni ta’minlash va bandlik darajasini oshirishga qaratilgan asosiy yo‘nalishlarni aniqlash hamda ilmiy-nazariy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Mazkur tadqiqotda moliyaviy savodxonlik, ijtimoiy farovonlik va bandlik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tahlil qilish uchun tizimli, statistik va taqqoslovchi yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy rivojlanish strategiyalari, Markaziy bank hisobotlari hamda Jahon banki va OECD kabi xalqaro tashkilotlarning ma’lumotlari tanlab olindi.

Tizimli tahlil yordamida aholining moliyaviy savodxonligi darajasi va mehnat bozoridagi faollik o‘rtasidagi munosabatlar o‘rganildi. Aholining moliyaviy qaror qabul qilishdagi ishtiroki, shaxsiy jamg‘arma madaniyati, kredit olishga bo‘lgan yondashuvi va investitsion faolligi ularning bandlik darajasiga bevosita ta’sir etuvchi omil sifatida baholandi.

Shuningdek, statistik va analitik metodlar yordamida 2018 - 2024-yillar oralig‘ida aholining moliyaviy bilim darajasi, ish bilan band aholining ulushi va real daromad o‘sish sur’atlari o‘rtasidagi o‘zgarishlar tahlil qilindi. Ma’lumotlar asosida moliyaviy savodxonlik oshgani sari aholi o‘rtasida tadbirkorlik faoliyati, barqaror daromad manbalarining shakllanishi va ijtimoiy barqarorlikning mustahkamlanishi kuzatilgani aniqlangan.

Tadqiqotda, shuningdek, taqqoslovchi yondashuv qo‘llanilib, O‘zbekiston tajribasi Janubiy Koreya va Polsha davlatlarining moliyaviy ta’lim siyosati bilan solishtirildi. Qiyosiy tahlil natijasida xorijiy mamlakatlarda aholining moliyaviy bilimini oshirish bandlikni rag‘batlantiruvchi muhim omil sifatida qaralishi, bunda davlat, ta’lim muassasalari va moliya institutlari o‘rtasida uzviy hamkorlik mavjudligi aniqlangan.

Bundan tashqari, **SWOT-tahlil** orqali O‘zbekistonda moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish jarayonining kuchli va zaif jihatlari, imkoniyatlari hamda tahdid omillari baholandi. Ushbu metodik yondashuv tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta’minlash, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishga imkon berdi.

Kuchli jihatar	Zaif jihatiar
• Davlat siyosatining izchilligi • Ta'lim tizimida iqtisodiy fanlar qamrovining kengayishi • Bank sektorining ochiqikka intilishi • Raqamli moliyaviy texnologiyalarning rivojlanishi	• Aholi o'rtasida moliyaviy ma'lumolarning yetishmassligi • Raqamli savodxonlik darajasining pastligi • Ayrim ijtimoiy guruhlarning moliyaviy xizmatlardan chetda qolishi • Notekislik
Imkoniyatiar	**Tahdidlar**
• Yoshlar orasida startap madaniyatining rivojianishi • Moliyaviy ta'limga oid onlayn kurslar va treninglar • Ayollar iqtisodiy fawlligining ortishi • Xalqaro investitsiyalarning kirib kelishi	• Mamlakatdagi iqtisodiy beqarorliklar • Aholining ayrim qatlamlarida konservatiy moliyaviy xatti-harakatlarningustunligi • Moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi tufayli ljtimoiy notekisilkning • Korrupsiya

Natijalar va muhokama

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, aholining moliyaviy savodxonligi oshgani sari ularning iqtisodiy faolligi, bandlik darajasi va ijtimoiy barqarorlik ko‘rsatkichlari o‘rtasida bevosita ijobiy bog‘liqlik mavjud. 2018–2024-yillar oralig‘ida O‘zbekistonda moliyaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan davlat dasturlari, xususan, Markaziy bank tashabbusi bilan o‘tkazilgan o‘quv loyihalari natijasida aholining moliyaviy ma’lumot darajasi sezilarli o‘sdi. Shu davrda aholining ish bilan band qatlami 56 foizdan 60 foizga ko‘tarilib, ayniqsa yoshlar va xotin-qizlar orasida tadbirkorlik tashabbuslari faollashgani kuzatildi.

Statistik tahlillar shuni ko‘rsatdiki, moliyaviy bilimga ega shaxslar o‘z byudjetini samarali boshqarish, kredit majburiyatlarini oqilona rejalashtirish va daromad manbalarini diversifikatsiya qilishga moyil bo‘ladi. Natijada ularning iqtisodiy barqarorligi ortadi, ishsizlik xavfi kamayadi va ijtimoiy farovonlik mustahkamlanadi. Masalan, moliyaviy savodxonlik bo‘yicha o‘quv kurslarida ishtirok etgan aholining 64 foizi o‘z biznesini boshlash yoki qo‘shimcha daromad manbaini yaratish istagini bildirgan. Bu holat moliyaviy ta’limning bandlik siyosatiga ijobiy ta’sirini yaqqol namoyon etadi.

Xalqaro tajribalarni tahlil qilish ham bu xulosani tasdiqlaydi. Janubiy Koreya va Polshada moliyaviy savodxonlik darajasi yuqori bo‘lgan aholida ishsizlik darajasi past va o‘rta sinf ulushi nisbatan keng. Bu mamlakatlarda moliyaviy ta’lim dasturlari nafaqat maktab yoki oliy ta’lim tizimida, balki jamoatchilik asosida — onlayn platformalar, banklar, sug‘urta kompaniyalari va nodavlat tashkilotlar orqali ham amalga oshiriladi. Shunga o‘xshash yondashuvni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish, ayniqsa hududlarda raqamli ta’lim vositalarini kengaytirish orqali aholi moliyaviy faolligini oshirish mumkin.

O‘zbekiston misolida esa moliyaviy savodxonlikning past darajasi ko‘plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarga sabab bo‘layotgani aniqlanmoqda. Aholining bir qismi hali ham kredit va investitsiya tushunchalariga nisbatan yetarli bilimga ega emas, bu esa ularning iqtisodiy imkoniyatlardan foydalanish darajasini cheklaydi. Shu nuqtai nazardan, moliyaviy ta’limni umumiy ta’lim tizimiga integratsiya qilish, o‘quv dasturlarini yoshga, kasbga va ijtimoiy qatlamga moslashtirish zarur.

Muhokama davomida aniqlangan muhim jihatlardan biri – moliyaviy savodxonlikning bandlikka bevosita ta’siri bilan birga, ijtimoiy farovonlikning psixologik va axloqiy jihatlariga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatishidir. Moliyaviy barqarorlikka ega fuqarolar o‘zini ishonchli his qiladi, ijtimoiy risklarga bardoshliligi ortadi va bu jamiyatda ijtimoiy totuvlik va farovonlikning oshishiga xizmat qiladi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari moliyaviy savodxonlikni oshirishni nafaqat iqtisodiy taraqqiyot, balki bandlik siyosati va ijtimoiy barqarorlikning muhim tarkibiy qismi sifatida ko‘rish zarurligini tasdiqlaydi.

Xulosa ва таклифлар. O‘tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, moliyaviy savodxonlikning oshishi aholining iqtisodiy faolligi, barqaror bandligi va ijtimoiy farovonlik darajasiga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Moliyaviy bilim va ko‘nikmalarga ega shaxslar nafaqat shaxsiy byudjetni oqilona boshqaradi, balki iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish orqali o‘z turmush sifatini yaxshilaydi hamda jamiyatdagi iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga hissa qo‘shadi.

Tadqiqot davomida aholining moliyaviy savodxonlik darajasi yuqori bo‘lgan hududlarda bandlik darajasi, ishchi kuchi ishtiroki va daromadlar barqarorligining nisbatan yuqori ekani kuzatildi. Shu bilan birga, moliyaviy bilim yetishmovchiligi mavjud hududlarda ishsizlik darajasi, ortiqcha qarzdorlik va iqtisodiy passivlikning yuqoriligi qayd etildi. Bu esa moliyaviy ta’limni kengaytirish, aholining barcha qatlamlarini qamrab olgan holda kompleks dasturlar ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

Yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalar asosida quyidagi Ilmiy-amaliy ahamiyatga ega **takliflarni** tavsiya etamiz:

1. Moliyaviy ta’limni tizimli ravishda bosqichma-bosqich joriy etish. Maktab, kollej va oliy ta’lim dasturlariga “Moliyaviy madaniyat asoslari” fanini kiritish orqali yosh avlodda erta moliyaviy tafakkurni shakllantirish zarur.
2. Raqamli platformalar asosida aholining moliyaviy bilimini oshirish. Mobil ilovalar, veb-portal va masofaviy kurslar orqali moliyaviy savodxonlikni oshirish aholining barcha qatlamlari uchun qulay va arzon mexanizm bo‘la oladi.
3. Bank-mijoz munosabatlarida ta’limiy komponentni kuchaytirish. Tijorat banklari kredit, depozit va investitsiya xizmatlaridan foydalanuvchi mijozlarga qisqa o‘quv modul yoki maslahat xizmatlarini taqdim etishi zarur. Bu nafaqat bank xizmatlari sifatini oshiradi, balki iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlaydi.
4. Mahalliy darajada moliyaviy trening va seminarlarni yo‘lga qo‘yish. Har bir viloyatda moliyaviy savodxonlik markazlarini tashkil etish, ayniqsa xotin-qizlar va yoshlarga

mo‘ljallangan dasturlarni amalga oshirish bandlikni rag‘batlantiruvchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

5. Moliyaviy savodxonlik indikatorlarini ishlab chiqish va baholash tizimini yaratish. Aholining moliyaviy bilim darajasi, qaror qabul qilish xulqi va byudjetni boshqarish ko‘nikmalarini muntazam o‘lchash orqali davlat siyosati samaradorligini baholash mumkin.

6. Ijtimoiy-iqtisodiy siyosatda moliyaviy ta’limni integratsiyalash. Moliyaviy savodxonlikni oshirish faqat iqtisodiy masala emas, balki bandlik, ijtimoiy himoya, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va barqaror rivojlanish siyosatlarining tarkibiy qismi sifatida qaralishi kerak.

7. Ilmiy-amaliy tadqiqotlarni kengaytirish. Aholining moliyaviy savodxonligi bilan farovonlik darajasi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni muntazam monitoring qilish, statistik va psixologik omillarni tahlil etish orqali milliy model ishlab chiqish tavsiya etiladi.

Хулоса. Xalqaro tajribalar tahlili ham shuni tasdiqladiki, moliyaviy savodxonlik darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatlarda ijtimoiy tengsizlik kamayadi, aholi o‘zining iqtisodiy imkoniyatlarini to‘liqroq ro‘yobga chiqaradi va barqaror bandlik siyosati samarali ishlaydi. Shu sababli, O‘zbekiston sharoitida moliyaviy savodxonlikni oshirish masalasi milliy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. – Toshkent, 2021-yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. “Moliyaviy savodxonlikni oshirish milliy strategiyasi – 2030”. – Toshkent, 2022.
3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. “Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari bo‘yicha yillik hisobot”. – Toshkent, 2024.
4. Jahon banki. Enhancing Financial Capability and Inclusion in Emerging Economies. – Washington D.C., 2023.
5. OECD (Organisation for Economic Co-operation and Development). OECD/INFE International Survey of Adult Financial Literacy Competencies. – Paris, 2023.
6. IMF (International Monetary Fund). Financial Literacy, Inclusion and Stability: Policy Lessons from International Experience. – Washington D.C., 2022.
7. Lusardi, A., & Mitchell, O. S. (2014). The Economic Importance of Financial Literacy: Theory and Evidence. Journal of Economic Literature, 52(1), 5–44.
8. Atkinson, A., & Messy, F.-A. (2012). Measuring Financial Literacy: Results of the OECD/INFE Pilot Study. OECD Working Papers on Finance, Insurance and Private Pensions, No. 15.
9. Klapper, L., Lusardi, A., & van Oudheusden, P. (2016). Financial Literacy around the World: Insights from the Standard & Poor’s Ratings Services Global Financial Literacy Survey. – Washington, D.C.: World Bank.

10. Xodjayeva, M. (2021). Moliyaviy savodxonlik va iqtisodiy barqarorlik o‘rtasidagi bog‘liqlik. – Iqtisodiyot va ta’lim, №3, 45–51-betlar.
11. Rasulova, D. (2022). Moliyaviy madaniyatni shakllantirishda ta’lim tizimining o‘rni. – Oliy ta’limda innovatsiyalar jurnali, №6, 72–79-betlar.
12. Yusupov, I. (2020). Aholining moliyaviy savodxonligini oshirishning institutsional mexanizmlari. – Toshkent moliya instituti ilmiy axborotnomasi, №4, 38–44-betlar.
13. OECD/INFE. (2020). National Strategies for Financial Education: OECD/INFE Policy Handbook. – Paris: OECD Publishing.
14. Asian Development Bank. (2021). Financial Literacy and Inclusion in Central Asia: Regional Diagnostic Study. – Manila, ADB Publications.
15. Central Bank of Uzbekistan. (2023). Annual Report on Financial Literacy and Inclusion. – Tashkent.

Юлдуз Пирназаровна Урунбаева
Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти и.ф.ф.док., доцент
Темирова Шалола Эркиновна
мустақил изланувчи

ЎЗБЕКИСТОНДА ТАЪЛИМ ХИЗМАТЛАРИ РИВОЖЛАНИШНИНГ БОСҚИЧЛАРИ ВА ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ

Инсоният цивилизациясида таълим ижтимоий-иқтисодий ҳамда техник тараққиётнинг муҳим ҳаракатлантирувчи кучи ҳисобланган. Таълим хизматлари маърифатни-маданиятни ривожлантиришда, комил инсон тарбиясида ва миллий мафкурани шакллантиришда доимо етакчи бўлиб келган. Айниқса, бугунги кунда таълим хизматлари ижтимоий-иқтисодий ривожланишнинг барча босқичларида инсонни ривожлантиришнинг асосий мақсади - жамият интеллектуал салоҳиятини, фан сиғими юқори бўлган илм талаб соҳаларни ривожлантиришда, аҳолининг турмуш фаровонлигини ошириш, барқарор ривожланиш имкониятини берадиган ижтимоий-иқтисодий, маданий ва экологик муҳитни шакллантириш жараёнларида янада аҳамияти ортмоқда.

Шу ўринда юртимизда таълим хизматларининг юзага келиши ва эволюцион ривожланиши ўтмишдаги авлодларимиз ижтимоий-иқтисодий тафаккуридаги юксалишлар ва маданийлашиш натижасида юзага келганлигини таъкидлаш лозим.

Кишилик жамиятининг илк босқичи бўлган тош асрига оид тош битиклар, манбалар, турли тасвирлар, расмлар ва айни чоғда тошдан ясалган меҳнат қуролларининг дастлабки намуналари одамлар ижодкорлигининг натижасидир. Инсон табиат мўъжизаларини ва унинг сир-асрорларини тасаввур этиш

туфайли тирик жонзотларга тақлид қилган, уларнинг қиёфаларини яратишган[191].

Минтақа шаҳарлари тарихида V аср охири VI аср бошлари катта жонланиш йиллари бўлгани маълум. Айниқса, кичик шаҳарларнинг тезлик билан ўсиб бориши, ҳашаматли бинолар бўлган алоҳида-алоҳида қўрғонларнинг юзага келиши ва кўпайиши Хоразм, Суғдиёна ва Бактрия вилоятларида кенг кузатилади. Бундан иқтисодий савдо муносабатларининг изчил йўлга қўйилиши ҳам ўз таъсирини кўрсатган[192].

Осиё ва Европанинг савдо йўли – Буюк ипак йўли чорраҳасида жойлашган ўзбек замини асрлар оша Шарқ ва Ғарб ўртасида ўзига хос кўприк бўлиб келди.

Ўрта Осиё ва Шарқнинг буюк мутафаккирлари Нажмиддин Кубро, Махмуд аз-Замахшарий, Абу Али ибн Сино, Абу Наср ал Фаробий, Абу Райҳон Беруний, Маҳмуд Қошғарий, Юсуф Хос Ҳожиб, Амир Темур, Мирзо Улуғбек, Мир Алишер Навоий, Заҳириддин Муҳаммад Бобур, Абдулла Авлоний, Абдулла Қодрийнинг асарларидаги умумбашарий иқтисодий тафаккур, комил инсон баркамоллигига бағишланган тарбиявий-ўгиту маслаҳатлари, тижорат, мулкдорлик ҳунари сирларидан иборат яхлит миллий-умуминсоний қадриятлар шаклланишида, иқтисодий онг ва қарашлардаги меросимизнинг бойишида алоҳида ўрин тутганлигини кўрамиз. Мухтассар қилиб айтганда авлодларимизда юзага келган маданият ва маърифий ҳулқ-атвор таълим хизматларининг юзага келишига хизмат қилди.

Юртимизда таълим хизматлари ривожланишининг хусусиятларини ўзида акс эттирувчи эволюциясидан келиб чиқиб, унинг вужудга келиши ва ривожланишини асосан тўрт босқичини Чор россиясининг Туркистонни истилосига қадар бўлган давр, Чор россияси даври, мустақилликкача ва мустақлликдан кейинги даврини фарқлаш мумкин (1-расм).

Биринчи босқич милоддан кейинги узоқ даврларни ташкил қилувчи Чор россиясининг Туркистонни истилосига қадар бўлган даврни ўз ичига олади. Бу даврда таълим маданийлашмаган, тарқоқ ва ундан фойдаланувчилар сони камчиликни ташкил қилиб, пули борларгина фойдалана олган.

Дастлабки даврларда таълим хизматларнинг инсоният тараққиётида эгаллаган улуши ва мавқеи ниҳоятда озлигини содда ва оддийлигининг гувоҳи бўламиз. Масалан, саводхонлик айрим кишиларга ёки дин арбобларига муқаддас ёзувларни ўқиш ва мутолаа қилиш учун зарур бўлган. У пайтларда деҳқончилик, чорвачилик ва хўжалик ишлари билан шуғулланиш кундалик юмуш ҳисобланган.

[191] С.Турсунов ва бошқалар. Шеробод тарихидан лавҳалар- Т.: “YAngi nashr”, 2014. – Б.35.
[192] З.Саидбобойев Тарихий география-Т.: “Ношир”, 2010. –Б. 100.



1-расм. Юртимизда таълим хизматлари ривожланишнинг босқичлари[193]

Таълим хизматлари кўпроқ диний кўринишда бўлиб, у дин вакиллари томонидан тақдим этилган. Дин вакиллари ижтимоий гуруҳ ҳисобланиб, беморларни даволаш, таълим бериш, инсонни ривожлантириш ва диний таълимотларни тарғиб қилиш билан машғул бўлишган.

Қадимги савдо йўли "Буюк ипак йўли"нинг мамлакатимиз ҳудудидан ўтиши туфайли маълум масофаларда карвонсаройлар қурилган. Карвонсарой ва бозорларда нарх-наво, савдо ҳақида сўнги маълумотлар эшиттирилган. Бу пайтларда мактаб ва мадрасалар фаолият кўрсата бошлаган.

Амир Темур замонида маданий-маърифий масалалар устун даражада ривожлантирилган. Мусиқа, бадий адабиёт, рассомчилик санъати ривож топиб, шеър ёзиш, расм чизиш, мусиқа асбобларини чалиш, китобхонлик ривожланган. Ёшларни мард ва жасур қилиб тарбиялашга алоҳида эътибор қаратилган.

Юқоридагилардан хулоса қилиш мумкинки, ижтимоий-маданий хизматлар ривожланишининг биринчи босқичи узоқ тарихий ривожланиш йўлини босиб, келгусида унинг ривожланишига замин яратувчи эволюцион босқичлардан ўтди.

Иккинчи босқич Чор Россиясининг Туркистонни истелосидан бошланиб, шўролар даврига қадар бўлган даврни ўз ичига олади. Бу даврдан бошлаб Чор Россиясининг юртимизда ўз яшаш шарт-шароитини жорий этишга ва аҳолининг турмуш тарзини ўзгартиришга уриниши, Европанинг маданий-маърифий оламига тақлид қилиш аста-секин ёйила бошлади. Чор Россиясининг мустамамлакани мустахкамлаш, саноатлаштириш тадбирлари ва ўз тараққиётининг шу даврдаги босқичи учун зарур ва қулай шартидан келиб чиқиб олиб борган сиёсати ҳамда рус тилида гаплашувчи фуқароларнинг кўчиб келиши таълим хизматларда ўзгариш ясади. Масалан, Фарғонада 1899 йилда

[193] Муаллиф томонидан тузилган

шаҳарларда ҳарбий офицерлар ва амалдоларнинг фарзандлари учун кутубхона, музей очилади. 1906 йил 3 январда Фарғона шаҳрида биринчи газета нашр этилган. Дастлаб у "Фергана", кейинчалик эса "Новая Фергана" номлари билан чоп қилинган[194]. XIX асрнинг 80 йилларида Чор Россиясининг Марказий Осиё халқларини руслаштириш сиёсатидан келиб чиқиб, Туркистоннинг йирик шаҳарларида янги мактаблар ташкил қилинди. Бироқ мазкур мактабларда исломиядан сабоқ берилмаганлиги сабабли, маҳаллий аҳоли болалари ниҳоятда камчиликни ташкил қилган. Шу билан бирга, бу пайтда масжидлар қошидаги мусулмон мактаблари ва мадрасаларда сабоқ бериш учун босмохонада чоп қилинган дарсликлар пайдо бўлди.

XX аср бошларига келиб, Туркистон ўлкасида йирик марказий шаҳарларда олий таълим маскани ҳисобланган қуйидаги мадрасалар: Бухорода-80, Қўқонада-40, Самарқандда-22, Марғилонда-28, Тошкентда-17, Хива хонлигида-130 мадраса мавжуд бўлиб, уларда 400 дан 5000 тагача талаба таҳсил олган. 1906 йилга келиб биргина Самарқанд вилоятининг ўзида 1510 мусулмон мактаблари бор эди, уларда 1482 ўқитувчи 12740 ўқувчига сабоқ берган[195].

Шу тариқа ушбу даврда аҳолига таълим хизмат кўрсатиш бирмунча кенгайиб борган бўлсада, улардан аҳолининг барча қатлами тенг ва тўла фойдалана олмаган.Учинчи босқич шўролар ҳукумронлик қилган даврдан мустақилликка қадар бўлган даврни ўз ичига олади. Ушбу даврда Ўзбекистон ижтимоий-маданий хизматлар соҳаси борасида бир қанча ютуқларга эришди. Таълим соҳаси ихтисослашиб, иқтисодий тизим сифатида шаклланди ва тармоқлари алоҳидалашди. Янги маънодаги таълим тизими алоҳида тармоқ сифатида шаклланди ва булардан фойдаланиш аҳоли кундалик ҳаётининг бир қисмига айланди. Урушдан олдинги беш йиллардаёқ республика бюджети харажатларида ижтимоий-маданий харажатларнинг хиссаси 68,8 фоизни ташкил қилди. Ижтимоий-маданий тадбирларга ажратилган харажатлар умумтаълим, саводсизликни тугатиш ва соғлиқни сақлаш соҳасида кўзга кўринарли муваффақиятларга эришишга имкон берди. Агар 1924-25 йилларда Ўзбекистонда совет типидаги 160 мактаб бўлган бўлса, 1941 йилга келиб бу мактаблар сони 5504 тага етди, ўқувчиларнинг сони 17209 тадан 1 млн. 315 минг кишига етди[196].

Шўролар ҳукуматининг саводсизликни тугатиш бўйича олиб борган сиёсати ва замонавий мактабларининг жорий қилиниши аҳоли саводсизлик даражасининг камайишига ва 1920 йилда Тошкентда Туркистон давлат университетининг ташкил этилиши олий таълим ривожида муҳим асос бўлди. Мазкур университет келгусида Ўзбекистонда ва Ўрта Осиёнинг бошқа

[194] Мансуров У. Фарғона тарихига доир жараёнлар //Жамият ва бошқарув. 2010. -№2. – Б. 65.
[195] Ҳашимов К. Нишонова С. Педагогика тарихи - Т.: "Ўзб. Миллий кутубхонаси", 2005. – Б. 182.
[196] Собиров Ҳ. Ўзбекистон давлат молияси тарихи -Т.: "Таълим манбаи". 2002. -Б. 110.

республикаларида янги олий ўқув юртларининг ташкил топишида асосий база бўлди.Бироқ шўролар даврида таълим хизматлари якка хукумронлик қилган Коммунистик мафкура таъсири доирасида фаолият кўрсатди. Марказдан тузилган режа асосида иш олиб борди. Бу ҳол соҳанинг интенсив ривожланишини чеклаб, экстенсив йўл асосида ривожланишига, бозор муносабатларидан мутлоқа узоқлашишига олиб келди. Сифат кўрсаткичларга эмас, кўпроқ миқдор кўрсаткичларга эътибор берилди. Натижада таълим хизматлари кўплаб тараққий этган мамлакатларга нисбатан ривожланишдан орқада қолди ва аҳоли турмуш даражаси пасайиб кетди.

Бу пайтнинг ижтимоий сиёсий манзарасига Республикамизнинг биринчи Президенти И.А.Каримов баҳо бериб, “Ижтимоий инфраструктура тармоқлари: соғлиқни сақлаш, халқ таълими, мактабгача болалар муассасалари жуда оғир аҳволга тушиб қолган. Мактаб ва касалхоналарнинг 60 фоизи нобоп биноларда жойлашган. Инсоннинг ҳар томонлама уйғун камол топиши. Унинг шахс сифатида маънавий ривожланиши бир ёқда турсин, кўпинча яшаш учун керак бўлган энг оддий нарсалар ҳам етишмаяпти” деганиди[197].

XX асрнинг 90-йилларига қадар ижтимоий маданий-мажмуа тармоқларини молиялаштиришнинг ягона манбаси давлат бюджети ҳисобланган ва барча ҳаражатлар махсус режа ҳужжати-сметага асосланган.

Ижтимоий-маданий мажмуа тармоқларини молиялаштиришнинг узоқ вақт амал қилган смета-бюджет тартиби таълим, соғлиқни сақлаш, маданият ва бошқа тармоқлар ривожланишига ижобий таъсир кўрсатди. Аммо бу тармоқлар асосан қолдиқ тамойили асосида молиялаштирилиб, хўжалик ҳисоби асосидаги товар-пул муносабатлари деярли ривожланмади[198].

Тўртинчи босқич республикамиз мустақилликни қўлга киритганидан бошлаб ҳозирги кунга қадар давом этмоқда. Бу даврнинг характерли томони шундаки, мамлакатимизнинг ижтимоий йўналтирилган бозор иқтисодиётига ўтиш йўлини танлади ва ижтимоий сиёсат юргизилди. Ушбу вазифаларни амалга оширишнинг муҳим шарти сифатида ижтимоий мажмуани ислоҳ қилишдан бошланди.Юқоридагилардан келиб чиқиб, таълим хизматлари ривожланишининг эволюциясини Ўзбекстон Республикаси ташкил этилиши нуқтаи назардан мустақилликкача бўлган даврдаги таълим хизматлари ва мустақилликдан кейинги даврдаги таълим хизматлари сифатида қараш мақсадга мувофиқ бўлади.

Республикамиз мустақилликка эришгандан сўнг таълим хизматлари соҳасида том маънода ислоҳотлар даври бўлди. Шу боис мамлакатимизда

[197] Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида – Т.: “Ўзбекистон”, 2011. – Б. 168.
[198]Тўхлиев Н. ва бошқалар. Ўзбекистон иқтисодий асослари -Т.: “Ўзб. Миллий Энцик”. 2006. -Б. 110.

таълим хизматлари ривожланишининг мустақиллкдан кейинги даврини шартли равишда уч босқичга бўлишимиз мумкин:

биринчи босқич, тикланиш босқичи бўлиб, бунга 1991-1996 йилгача бўлган даврни киритиш мумкин. Чунки ушбу давр мобайнида Ўзбекистоннинг мустақилликка эришиши асосида таълим соҳаси қайта тузилиб, ҳуқуқий, иқтисодий, молиявий асослари яратилди ва ривожланиш йўналишлари белгилаб олинди; иккинчи босқич, барқарорлаштириш даври ҳисобланиб, бу босқич 1997 - 2016 йилгача бўлган даврни ўз ичига олади. Бу даврда таълим соҳасининг ташкилий ҳуқуқий жиҳатлари такомиллаштирилиб, "Кадрлар тайёрлаш миллий дастури" асосида Республикада ўзаро мантиқий изчиллик асосида боғланган ҳамда соддадан мураккабга қараб ривожланиб борувчи ва бир-бирин тақозо этувчи босқичлардан иборат яхлит узлуксиз таълим тизими яратилди;

учинчи босқич, такомиллашув даври ҳисобланиб, 2017 йилдан ҳозиргача давом этмоқда. Мазкур даврда Ҳаракатлар стратегияси ва унинг мантиқий давоми саналмиш Тараққиёт стратегияси доирасида, ривожланган давлатлар каби узлуксиз таълим тизимини мунтазам такомиллаштириб бориш, сифатли таълим-тарбия бериш, малакали кадрларни тайёрлаш бўйича сезиларли ислоҳотлар амалга оширилди (1.2.2-расм).



2-расм. Ўзбекистонда мустақилликдан кейинги даврда таълим хизматлари ривожланишининг босқичлари[199]

[199] Муаллиф томонидан тузилган

Ўзбекистоннинг ижтимоий йўналтирилган бозор иқтисодиётига ўтиши шароитида таълим соҳасини ривожлантириш, мазкур секторнинг жамиятдаги мавқейини ошириш мамлакатимиз тараққиётининг энг устувор вазифаларидан бири бўлиб ҳисобланади. Ҳозирги пайтда ушбу соҳани ривожлантирмай туриб, миллий иқтисодиётни юқори пағоналарга кўтариш, инсоннинг қулай ва фаол яшашини таъминлаш, тафаккури ва онгини ривожлантириш каби муҳим ижтимоий-иқтисодий масалаларни ҳал қилиб бўлмайди. Шу боис республикамиз таълим соҳасида иқтисодий ислоҳотларни босқичма-босқич амалга оширишда бу масалага алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида – Т.: “Ўзбекистон”, 2011. – Б. 168.

2. З.Саидбобоев Тарихий география-Т.: “Ношир”, 2010. –Б. 100.

3.Ҳашимов К. Нишонова С. Педагогика тарихи - Т.: “Ўзб. Миллий кутубхонаси”, 2005. – Б. 182.

4.Собиров Ҳ. Ўзбекистон давлат молияси тарихи -Т.: “Таълим манбаи”. 2002. -Б. 110.

5.Тўхлиев Н. ва бошқалар. Ўзбекистон иқтисодий асослари -Т.: “Ўзб. Миллий Энцик”. 2006. -Б. 110.

6.Мансуров У. Фарғона тарихига доир жараёнлар //Жамият ва бошқарув. 2010. -№2. – Б. 65.

7. С.Турсунов ва бошқалар. Шеробод тарихидан лавҳалар- Т.: “Yangi nashr”, 2014. – Б.35.

Mukumova Nargis Nuriddinovna, Acting
Associate Professor, Samarkand State University of Architecture and Civil Engineering,
Rayimov Maruf Abdurashid ugli, Teacher
of the Samarkand State University of Architecture and Civil Engineering,

INVESTMENT OPPORTUNITIES AND THE IMPACT OF FOREIGN CAPITAL ON UZBEKISTAN’S ECONOMIC GROWTH

Abstract: This article describes the investment potential of the country. The role and importance of foreign investment for the development of the economy of Uzbekistan is revealed.

Key words: Foreign investments, direct investments, investment activity, investor.

Introduction. Today, the issue of the formation and development of investment activity in the Republic of Uzbekistan is very relevant. Modern Uzbekistan is the leading industrial state in the Central Asian region, ensuring stability and economic development of the region as a whole. Among the advantages offered by the modern economy of Uzbekistan for foreign companies are political and macroeconomic stability, favorable natural and climatic conditions, hospitable and hardworking people, and many others.

The investment legislation of the Republic of Uzbekistan is one of the most advanced in the system of legislation of the CIS countries, incorporating the main provisions of international investment law, in particular, the provisions on guaranteeing the rights of foreign investors, providing certain preferences for investors and others.

As the head of state Shavkat Miromonovich Mirziyoyev noted, over the past 5 years, the volume of foreign investment in the economy of Uzbekistan has increased 10 times and amounted to about $40 billion. “We have set ourselves the goal of doubling the gross domestic product over the next 10 years. We have enough will and opportunities for this,” he stressed.

To achieve these goals, Uzbekistan expects to increase the volume of investments to $120 billion over the next 5 years, including attracting at least $70 billion of foreign investment [2].

Main part. The concept of "investment" is used in both the broad and narrow sense of the word. It is very difficult to unambiguously determine its content and essence. In different sections of economic science, as well as in relation to various areas of practical activity, different meanings are invested in it, based on the characteristics of the sphere and objects of application. Literally translated from Latin, the word "invest" means "to invest".

Considering the essence of this category, it should be noted that in modern literature it is very often identified with the concept of "capital investments". In these cases, investments are defined as investments in the reproduction of fixed assets, but this is not entirely correct, since investments are made in current assets, and in certain types of intangible assets, and in various financial instruments.

In the popular textbook Investing, co-authored by Nobel Laureate in Economics (1990) W. F. Sharp, investment is defined as giving up some value in the present in order to gain (perhaps indefinite) value in the future. From the foregoing, it follows that investments are a concept that is much more capacious than "capital investments". Investments are involved in the processes of capital movement. They are linked for a certain time for specific assets. Their main goal is to preserve the value of capital or increase it, and their main difference from capital is that they predict risk and determine the rate of return.

The national legislation in the field of investment regulation in Uzbekistan consists of a number of legal acts adopted in the form of decisions of the President of the Republic of Uzbekistan and government decrees.

According to the law, Investments are tangible and intangible benefits and rights to them, including rights to intellectual property objects, as well as reinvestments invested by an investor on the terms of bearing risks in objects of the

social sphere, entrepreneurial, scientific and other types of activity in order to make a profit [1].

Uzbekistan is a huge market with an investment capacity of up to $4 billion annually. But at the same time, I want to emphasize that we attract investments not for the sake of investments, but are interested in attracting modern technologies and quality management systems, best practices in organizing production.

In this regard, I would like to briefly outline the prospects and priority areas for further cooperation in various fields.

First. Especially promising today, in our opinion, is a bilateral partnership in the energy sector.

The republic accounts for 74% of Central Asian gas condensate reserves, 30% of oil, 40% of natural gas, and 55% of coal. At the same time, the degree of depletion of explored oil and gas reserves is 30-32%. Explored coal reserves produce over 2 billion tons and we look forward to the broad development of investment cooperation. It should be noted that companies actively working in this direction are granted the most favored nation treatment, including extensive tax and customs benefits.[6]

Second. The Government of Uzbekistan supports the implementation of investment projects aimed at developing the textile sector, especially enterprises with a complete production cycle of finished products.

Being one of the world's leading producers of cotton fiber, Uzbekistan has a high potential for the development of the textile industry. About 3.5 million tons of raw cotton are harvested annually in the republic, from which up to 1.3 million tons of cotton fiber are produced. In recent years, the share of textile industry products in the gross volume of industrial production has increased to 21%, light industry enterprises of the republic process 27% of the volume of cotton fiber. In accordance with the program for the development of the textile industry, we plan to bring this figure up to 50% in the coming years.

The absence of export customs duties, a system of quotas and export licensing, and additional tax incentives stimulate the production and growth of exports of cotton products. In order to stimulate the attraction of investments in this industry, the Government of the Republic of Uzbekistan has provided an additional benefit in the form of exemption from customs payments for technological and auxiliary equipment imported to equip enterprises in the industry.

Third. We are also ready to expand bilateral cooperation in the creation of joint structures in the financial and banking sectors, marketing, engineering, leasing, auditing and investment companies.

It should be noted that the development of effective financial instruments will contribute to the expansion of cooperation in the financial sector. The incentive for the development of business contacts will also be the transfer of Uzbekistan to a more favorable category of insurance risk, as well as an increase in the limit of insurance guarantees for investment projects implemented in our country.

Fourth. Uzbekistan has a huge potential in the field of tourism, which is based on unique natural conditions, an abundance of national parks and reserves, numerous architectural and historical monuments and the spiritual and ethnic heritage of the

peoples inhabiting Central Asia, as well as the modern infrastructure of the tourism industry - a network of hotels, tourist bases, engineering and transport communications.

According to the World Tourism Organization (WTO), the capacity of tourism resources in Uzbekistan is 6 million person-days per year, or 1 million people per year with an average stay of 6 days, which creates real prerequisites for achieving world indicators in this area. At the same time, Uzbekistan occupies a very modest place in the world tourism market - less than 0.01% of the world tourist flow.

Fifth. The chemical industry of Uzbekistan, which has a significant production raw materials and scientific and technical potential, is one of the leading basic sectors of the economy of the republic.

The manufactured products of the chemical industry are widely used in the chemical, metallurgical, gold mining, textile, light, food industries, in agriculture of the republic and are also shipped for export.

In the last 3 years, the export potential of chemical industry enterprises has sharply increased. If in 2003 the export of products amounted to 42.4 million US dollars, in 2004 this figure amounted to 60.7 million US dollars, the growth rate was 143%. For 8 months of 2005, the industry's enterprises shipped products for export to the amount of 49.3 million US dollars.

In the share expression of exports of enterprises, the main part is occupied by the export of mineral fertilizers 67.3%, synthetic chemical fibers 7.0%, other products 25.7%. Joint development of investments in this direction will allow exporting products to Asian countries and the Central Asian region - Kazakhstan, Turkmenistan, Tajikistan, Kyrgyzstan, Afghanistan, Iran, China, the Russian Federation, Ukraine, Turkey.

Conclusion. All ongoing reforms contribute to a sharp increase in foreign investment in the country. In 2014-2022, the volume of foreign direct investment in Uzbekistan increased by 1.5 times.

Of these, by specialization: 12 FEZs are industrial, 6 are pharmaceutical, 2 are tourism and 2 are agricultural. Changes in legislation and created opportunities have a positive impact on the investment climate in the country.

For example, in 2019, Uzbekistan was included for the first time in the Index of Regulatory Restrictions Foreign Direct Investment" by the OECD, ranking 43rd in the world by 2020 and 7th in the Asian region.

Uzbekistan plans to implement investment projects worth about $52.15 billion in 2022-2024. This is stated in the draft presidential decree on the investment program of Uzbekistan for 2022-2024, published by the Ministry of Investment and Foreign Trade. According to the document, in 2022 Uzbekistan plans to implement projects worth $16.57 billion, of which $6 billion is foreign direct investment.

Currently, more than 50 countries are investing in the economy of Uzbekistan. The top five investor countries are as follows: China - $2.2 billion, Russia — $2.1 billion, Türkiye — $1.18 billion, Germany - $800.7 million, South Korea - $137.4 million. The following chart shows the Top 5 Top Investors:

Diagram 1. Top 5 leading investors in Uzbekistan.



Summing up the results of the study, I would like to note that foreign experience clearly shows that in the transition period, investments become the most important factor not only in reconstruction and renovation, but also in the creation of new industries and enterprises. Therefore, the attraction and use of foreign capital in the economy of Uzbekistan seems to be an essential regularity of the investment process at the present stage. At the same time, attraction of foreign investments should be carried out on the basis of the principles of socio-economic efficiency, environmental and economic security, mutual benefit and maintaining the priority of the state structural and reproductive policy.

Thus, having considered the dynamics of attracting foreign investment in the economy of the republic, we can conclude that the government's targeted policy is to attract foreign direct investment, which allows attracting not only the investor's own funds, but also modern advanced technologies.

A study of the advantages and disadvantages of existing forms of attracting foreign investment shows that direct investment can be considered the most acceptable, since they are characterized by the presence of long-term investor interests in the economy of the host country and cause greater benefits compared to external loans. The ongoing administrative reform in the country, aimed at reducing the role of the state in investment processes, contributes to a decrease in the volume of invested centralized funds.

List of used literature

1. Law of the Republic of Uzbekistan "On investments and investment activities" dated December 25, 2019 No. -ZRU -598

2. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan on additional measures to stimulate the attraction of foreign direct investment dated April 10, 2012 No. UP-4434

3. Gulyamov S. Climate for investors. Trud, 2005, No. 16, p. 9-10.

4. Ibadov A. Priority directions for attracting foreign investment in the Republic of Uzbekistan. Business partner of Uzbekistan, 2006, No. 13, p. 16-17.

5. Razakova M. Foreign investments in Uzbekistan. Market, money and credit, N2, 2001, p. 28-32.

6. Problemy inostrannykh investitsii v stanovlenii investitsionnogo puti razvitiya ekonomiki Uzbekistana / Khamrakulova O.D., Buriyev KH.T. // Studencheskiy vestnik. Nauchnyy zhurnal. 2019. - №9(59). - S. 25-27.

7. Official website of the State Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. Access mode: http://www.stat.uz.

Suyunova Kamilla Bakhromovna
Samarkand Institute of Economics and Service
Associate Professor of the Department
of "Marketing"
Tulanbayev Akbarjon Akramjanovich
Fourth year student at Samarkand Institute
of Economics and Service

HUMAN CAPITAL IN THE CONCEPT OF ECOLOGICAL-ECONOMIC SUSTAINABILITY OF THE NATIONAL ECONOMY

Annotation:This article examines the role of human capital in the concept of environmental and economic sustainability of the national economy. It focuses on the impact of intensive socioeconomic development on the environment and the need to develop an environmentally oriented economy. The authors emphasize the importance of increasing ecosystem resilience and social impact through human development as a key factor in sustainable development. The main environmental risks and challenges facing modern societies are presented.

Keywords:human capital, environmental and economic sustainability, sustainable development, national economy, environmental risks, social impact, ecosystem.

The early 20th century was marked by intense socioeconomic development, which caused significant damage to the environment. Rapid economic growth undoubtedly contributes to social and scientific progress, stimulates the development of science and technology, and improves the standard of living and life expectancy. However, the consequences of such growth are serious environmental risks: a sharp increase in the consumption of natural resources worldwide and an increase in the volume of industrial and household waste, including toxic waste. These processes lead to unprecedented anthropogenic pressure on the biosphere and an exacerbation of environmental tensions. [10]

In the modern world, economics and ecology are increasingly intertwined and becoming inseparable. Given this, the issue of developing an environmentally oriented economy aimed at increasing resource efficiency, ensuring ecosystem resilience, and enhancing social impact is urgent. In turn, strengthening the relationship between economics and ecology and creating a unified ecological-

economic development system is one of the fundamental principles of sustainable development. [6]

Sustainable development is understood as an innovative process in which the scale of natural resource use, investment trends, and the orientation of scientific and technological development are consistent with current and future needs. In other words, sustainable development is development in which human needs are met without harming future generations. [9] In our view, humans play a vital role in achieving sustainable development.

The concept of sustainable development was formed as a result of the synthesis of three main approaches: economic, environmental and social (see Figure 1).

Where the economic component is based on the theory of optimal use of limited resources and the introduction of nature-, energy-, and material-saving technologies, including the extraction and processing of raw materials, the creation of environmentally friendly products, and waste minimization.

The ecological approach focuses on the conservation of natural resources and the self-healing capacity of ecological systems. The social component of sustainable development is aimed primarily at individuals and the preservation of social systems. [12]

Balanced coordination of the three components of sustainable development is a priority task, the solution of which is assigned to people.

The nature of human capital as a significant resource for the modern economy is such that it seamlessly integrates the goals, means, and environmental priorities of economic growth. Undoubtedly, the formation and development of qualitative characteristics of human capital has a positive long-term impact on technological progress, the reduction of inequality, and the optimal use of natural resources.

However, based on historical evidence, it has been scientifically confirmed that the level of environmental impact is directly proportional to the level of societal development. That is, where human capital development is high, the environmental impact will be correspondingly significant. Thus, the Human Development Report notes that "countries with higher levels of human development tend to emit more carbon and have a larger ecological footprint." [3]

Despite this, in our opinion, further development of human capital will still contribute to the sustainable development of the national economy, since only highly developed human capital can provide an understanding of existing ecological and economic problems. This is confirmed by the development in the 21st century of theoretical and conceptual foundations of human capital, which are part of the achievement of global sustainable development goals implemented in conditions of increased instability of the socio-economic environment. [4]

Today, one of the most important areas of research within human capital theory is the environmental factor. Due to the increasing level of environmental threats, as well as the new system of values and needs that has emerged in the current stage of societal development, the concept of "ecological man" has emerged, becoming a crucial system-forming factor in the modern economic system. [1]

Thus, the formation of ecological intelligence, an integral element of human capital, influencing economic growth and representing a combination of ecological

knowledge, cultural aspects and acquired ecological competencies, predetermining the establishment of a certain way of life, building a level of ecological thinking and consciousness aimed at achieving the main goals and objectives of sustainable development. [2]

The impact of human capital on solving environmental and economic problems of sustainable development is manifested in the following:

- a high level of development of human capital and intellectual capital is associated with the development and implementation of technologies that contribute to a more optimal use of resources, a more active transition to renewable resources and a reduction in the costs of such transitions, the restoration of natural resources and the elimination of accumulated pollution;
- a high level of human capital development ensures the competitiveness of the economy, creates the potential for innovative development, and the development of creative industries;
- A high level of human capital development contributes to the growth of well-being, which ultimately allows for the formation of reserves of funds directed towards ensuring sustainable development.

Thus, mitigating the harmful effects of irrational human activity accumulated over centuries requires the creation of a conscious, widespread environmental culture within society. The development of diverse components of an individual's environmental intelligence enables the creation of fundamentally new ecological-economic interactions. Without the proper level of human capital development, solving ecological-economic problems is impossible.

Therefore, human capital can be defined as a strategically important factor in the sustainable development of the country.

References

1. Akhmetova D.Z. "The Ecological Man" in the Age of Digitalization // Higher Education in Russia. - 2020. - No. 5
2. Guryeva M.A., Davydova M.V., Plotnikova K.S., Petrenko L.D. On the definition of environmental intelligence in the concept of human capital theory // Issues of Innovative Economics. - 2023. - No. 13 (3)
3. Human Development Report 2023–2024. "Breaking the Deadlock: Rethinking Cooperation in a Polarized World." [Electronic resource]. URL:hdr2023-24overviewru.pdf (undp.org) (date of appeal: 09/30/2024).
4. Dorokhova N.V., Dashkova E.S., Dodokhan T.M. Innovative approaches to the development and use of human capital in modern conditions // Human Progress. - 2022. - No. 1.
5. Karginova-Gubinova V.V. Human capital and the environment as factors of sustainable development: priorities of enterprises in the Karelian Arctic // Vectors of well-being: economy and society. - 2022, - No. 2 (45)
6. Kozlova O.A., Antonova O.A. Main discourses of the ecosystem approach to the analysis of human capital // AlterEconomics, 2023. - No. 20 (4)
7. Kozmin V.S. Ecological consciousness and the evolution of ecological thinking // Social and humanitarian knowledge. - 2020. - No. 2

8. Kostova A.A. Features of environmental and economic problems in the modern world // Economic Sciences. – 2016. - No. 1
9. Ravino A.V. Environmental imperative of student education as an innovation in higher education // Proceedings of BSTU. – 2014. – No. 8
10. Tokareva, E. A. Social, environmental, economic problems and their interrelationships // Economic Science and Practice: Proceedings of the V International Scientific Conference, 2017.

Berdimurodov Azizjon Shukrilloyevich – *SamISI*
turizm kafedrasi v.b. professori

TURIZMDA YASHIL TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY VA IJTIMOIY ZARURIYATI

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy turizm sohasida “yashil texnologiyalar”ni — qayta tiklanuvchi energiya manbalari, suv va chiqindilarni boshqarish, ekologik transport yechimlari va raqamli monitoring tizimlarini joriy etish orqali turizm salohiyatini oshirish va barqaror rivojlanishni ta’minlashning imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan hamda tegishli tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: turizm, yashil texnologiyalar, barqaror turizm, qayta tiklanuvchi energiya, ekologik transport.

So‘nggi yillarda turizm sohasi dunyo iqtisodiyotining eng tez o‘sayotgan tarmoqlaridan biriga aylandi. Shu bilan birga, sayyohlik infratuzilmasining kengayishi, transport oqimining ko‘payishi va energiya iste’molining ortishi atrof-muhitga bosimni kuchaytirmoqda. Shu sababli, yashil texnologiyalarni joriy etish — bu tanlov emas, balki zarurat sifatida ko‘rilmoqda.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ekologik barqarorlikni ta’minlamagan turizm sohalari uzoq muddatda iqtisodiy foydasini yo‘qotadi, chunki tabiiy resurslar va madaniy meros degradatsiyaga uchraydi.

Yashil texnologiyalar — bu tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va energiyani samarali boshqarishga yo‘naltirilgan texnik yechimlar majmuasidir. Turizm sohasida quyidagi yo‘nalishlar alohida ajralib turadi: qayta tiklanuvchi energiya (quyosh, shamol), suvni tejash va qayta ishlash, chiqindilarni boshqarish, ekologik transport yechimlari (elektr transport va velosiped tizimlari), raqamli monitoring va “aqlli” tizimlar. Misol uchun, bir tadqiqotda smart green tourism technologies (SGTT) sayohatchilarning niyatini shakllantirishda muhim rol o‘ynashi qayd etilgan.

Rivojlangan davlatlarda turizm infratuzilmasida yashil texnologiyalar joriy etilishi keng tarqalgan, masalan, mehmonxonalar quyosh panellari bilan jihozlangan, qum-sohil hududlarida elektr transport vositalari ishlatilmoqda.

Bu kabi yechimlar nafaqat ekologik jihatdan foydali, balki sayyohlar uchun qo‘shimcha qiymat yaratadi. O‘z navbatida, texnologiyaning rivojlanishi turizm operatorlari va hududlarga raqobat ustunligini beradi.

O‘zbekistonda turizm sohasi asosan an’anaviy dam olish va tarixiy sayohatlar bilan cheklangan, lekin hududiy brendlar, tog‘-cho‘l yo‘nalishlari va agro-ekoturizm imkoniyatlari mavjud. Misol uchun, tog‘lar mintaqalarida kichik quyosh energiya tizimlari, mehmonxonada suvni tejash texnologiyalari qo‘llanilishi mumkin. Bizning fikrimizcha, quyidagilar istiqbolli yo‘nalishlardan hisoblanadi:

- mintaqaviy turizm markazlarida energiya va suv tejovchi infratuzilmani yaratish;
- ekologik transport (elektr avtobuslar, velosiped-marshrutlar) joriy etish;
- chiqindilarni qayta ishlash va biomassa-yoqilg‘i tizimlari bilan integratsiya.

Yashil texnologiyalar turizm sohasida bir necha afzalliklarni beradi:

- energetik xarajatlarni kamaytirish;
- sayohatchilar uchun ekologik brend qiymatini yaratish;
- mahalliy jamoa va xizmat ko‘rsatuvchi sektor uchun qo‘shimcha daromad manbai.

Yuqorida qayd etilganidek, turizmda yashil texnologiyalardan foydalanish ham iqtisodiy, ham ijtimoiy zaruriyatga aylanib bormoqda (1-chizma).



1-chizma. Turizmda yashil texnologiyalardan foydalanishning iqtisodiy va ijtimoiy zaruriyati

Tadqiqotimizga ko‘ra, O‘zbekistonda yashil texnologiyalarni tatbiq etishda quyidagi muammolar mavjud:

- moliyaviy mablag‘lar cheklanganligi;
- qayta tiklanuvchi energiya bo‘yicha mutaxassislar salohiyati kamligi;
- mavjud infratuzilmaning eskiligi;

Shu bois, strategik rejalashtirish va davlat-xususiy hamkorlik asosida yechimlar zarur.

Quyidagi jadvalda rivojlangan mamlakatlar tajribalari va uni O‘zbekistonda qo‘llash mumkin bo‘lgan yechimlar keltirilgan:

1-jadval.

Rivojlangan mamlakatlar tajribalari va uni O‘zbekistonda qo‘llash mumkin bo‘lgan yechimlar

Texnologiya turi	**Rivojlangan davlatlar misoli**	**O‘zbekiston sharoitida qo‘llash imkoniyati**
Quyosh panellari	Mehmonxonalar tomida elektr ta’minoti	Tog‘ va cho‘l zonalarida kichik energiya bloklari
Elektromobillar va velosiped tizimlari	Shahar va plyaj hududlarida	Turizm yo‘laklari va park zonalarda
Suvni qayta ishlash va tejash	Kurort infratuzilmasida	Agro-ekoturizm va tog‘ hududlarida
Smart monitoring (IoT / AI)	Jamoaviy turizm hududlarida kuzatuv va boshqaruv	O‘zbekistonda sayohatchilar oqimi va energiya tizimi uchun

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rish mumkinki, rivojlangan mamlakatlarda yashil texnologiyalar turizm infratuzilmasining ajralmas qismiga aylangan. Masalan, mehmonxonalarda quyosh panellari o‘rnatilib, energiya ta’minoti ekologik manbalarga asoslangan, kurort hududlarida suvni tejovchi va qayta ishlovchi tizimlar keng qo‘llanilmoqda, shahar markazlarida esa elektromobillar va velosiped tarmoqlari sayyohlar uchun qulay transport vositasi sifatida xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston sharoitida bu yechimlar bosqichma-bosqich tatbiq etilishi mumkin. Xususan, tog‘ va cho‘l zonalarida kichik quyosh energiya bloklari o‘rnatish, agro- va ekoturizm yo‘nalishlarida suvni tejash tizimlarini joriy etish, turizm yo‘laklarida ekologik transport va smart monitoring tizimlarini yo‘lga qo‘yish istiqbollari mavjud.

Shu yo‘sinda, mamlakatda barqaror turizm modelini shakllantirish imkoniyati kengayadi.

Shunday qilib, turizmda yashil texnologiyalardan foydalanish — bu atrof-muhitni himoya qilish bilan birga iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarni ham ta’minlaydigan yo‘nalishdir. O‘zbekistonda bu yo‘nalishda muhim imkoniyatlar mavjud.

Bizning fikrimizcha, qayta tiklanuvchi energiya tizimlarini joriy etish, ekologik transport va chiqindilarni qayta ishlash yechimlari hududiy turizm salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, rivojlangan davlatlar tajribasidan manfaatli xulosalar olgan holda, O‘zbekistonda yashil turizm infratuzilmasini rivojlantirish uchun kelgusida aniq siyosat va moliyalashtirish mexanizmlari zarur.

Tadqiqot natijasida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

O‘zbekistonda turizm sohasida yashil sertifikatlash tizimini joriy etish — mehmonxonalar va turistik xizmat ko‘rsatuvchi subyektlar uchun “Yashil turizm” belgilari belgilanishi;

mintaqaviy turizm markazlarida kichik quyosh elektr stansiyalarini va suv tejash infratuzilmasini loyihalash;

elektr transport vositalarini turizm yo‘nalishlari bo‘yicha joriy etish va sayohatchilar uchun velosiped ijarasi tizimini kengaytirish;

O‘zbekistonda turizm operatorlari va mahalliy aholini ekologik ong bo‘yicha tayyorlash bo‘yicha treninglar o‘tkazish;

xususiy sektor ishtirokida yashil innovatsiyalar uchun investitsiya jamg‘armasini tashkil etish va davlat qo‘shimcha imtiyozlar bilan qo‘llab-quvvatlash.

O‘ylaymizki, mazkur takliflarning amaliyotga joriy etilishi mamlakatimiz turizm sohasida yashil texnologiyalardan foydalanish darajasining oshishishi xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

7. Inmor, S. “The role of smart green tourism technologies in shaping tourist intentions in natural tourism settings.” *Sustainable Tourism Technologies Journal*, 2025.

8. Wallace, M. “5 Green Technologies That Support Sustainable Tourism.” *SeaGoingGreen Blog*, 2024.

9. Sun, J. “Green credit, tourism technology innovation, and sustainable development of tourism industry.” *Journal of Tourism Economics*, 2025.

10. Zhang, Y. “Exploring the nexus of smart technologies and sustainable ecotourism.” *Journal of Environmental Informatics & Tourism*, 2024.

11. Whitmore, G. “How cutting-edge sustainable travel technology is changing tourism.” *Forbes*, 17 September 2024.

Qandov Bekzod Bahodirovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi
Ilmiy rahbar: Allayarov Suxrob Rustamovich,
TDIU “Moliya va moliyaviy texnologiyalar” kafedrasi dotsenti, i.f.f.d.

O‘ZBEKISTON KONTEKSTIDA YASHIL IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH: YANGI STRATEGIYALAR VA TENDENSIYALAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada O’zbekistonda yashil iqtisodiyot konsepsiyasini joriy etishning dolzarb jihatlari, yangi strategik yondashuvlar va amaliy tendensiyalar tahlil qilinadi. Tadqiqotda milliy siyosiy dasturlar, Markaziy bank va Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari hamda xalqaro tajriba asosida O’zbekistonning yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayoni baholanadi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, mamlakatda

qayta tiklanuvchi energiya, ekologik infratuzilma va “yashil moliya” tizimi bosqichma-bosqich rivojlanmoqda. Shu bilan birga, iqtisodiy o‘sish va ekologik xavfsizlik o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash uchun davlat siyosatida institutsional islohotlarni chuqurlashtirish zarur. Maqola natijalari barqaror rivojlanish strategiyasini takomillashtirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so’zlar: yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, qayta tiklanuvchi energiya, yashil moliya, “Yashil makon” dasturi

Kirish. Yashil iqtisodiyot — bu iqtisodiy o‘sish va bandlikni ta’minlaydigan, ammo ekologik xavfsizlikni ham e’tiborga oladigan iqtisodiy modeldir. U tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atmosfera va suv havzolarining ifloslanishini kamaytirish, hamda barqaror ishlab chiqarish va iste’mol tizimlarini shakllantirishni maqsad qiladi. Zamonaviy davrda iqlim o‘zgarishi, ekologik muammolar va resurslar tanqisligi yashil iqtisodiyotga o‘tish zaruratini yanada kuchaytirmoqda. Shu nuqtai nazardan, O’zbekiston ham 2030-yilgacha mo‘ljallangan yashil iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqib, uni milliy taraqqiyot dasturlariga integratsiya qilmoqda. So‘nggi yillarda mamlakatimizda Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida yashil iqtisodiyotga o‘tish siyosati yangi bosqichga chiqdi. Davlatimiz rahbari o‘z chiqishlari va farmonlarida iqtisodiy o‘sishni ekologik barqarorlik bilan uyg‘unlashtirish O‘zbekiston taraqqiyotining strategik maqsadi ekanini alohida ta’kidlab kelmoqda.

Xususan, Prezidentimizning 2025-yil 14-yanvardagi nutqida “past-karbonli rivojlanish strategiyasi” ishlab chiqilgani va 2030-yilgacha issiqxona gazlari chiqindilarini 35 foizga kamaytirish rejalashtirilayotgani qayd etildi. Shuningdek, investitsiya loyihalarida “yashil komponent” ulushini 50 foizga yetkazish va qayta tiklanadigan energiya manbalariga e’tibor kuchaytirish maqsad qilib belgilangan.

2025-yil 4-aprel kuni o‘tkazilgan xalqaro forumda Prezidentimiz resurs tejovchi va ekologik toza iqtisodiy modelga o‘tish zarurligini ta’kidladi. Shu munosabat bilan qishloq xo‘jaligida suvni tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish, shuningdek, quyosh va shamol energiyasi ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish mamlakat uchun ustuvor yo‘nalish sifatida belgilandi.

2025-yil 10-iyun kuni bo‘lib o‘tgan Tashkent International Investment Forum doirasidagi chiqishida esa Prezidentimiz yashil energiyani iqtisodiyotning yangi o‘sish drayveri sifatida e’tirof etdi. Unga ko‘ra, yaqin besh yil ichida qayta tiklanadigan energiya manbalari ulushi 54 foizgacha oshiriladi.

Bundan tashqari, 2024-yil 21-noyabrda parlamentga yo‘llangan murojaatida Shavkat Mirziyoyev 2030-yilgacha elektr energiyasi ishlab chiqarishda qayta tiklanadigan manbalar ulushini 40 foizga yetkazish O‘zbekistonning iqlim siyosatidagi eng muhim vazifalardan biri ekanini alohida ta’kidladi.

Umuman olganda, Prezidentimizning ushbu tashabbuslari barqaror rivojlanish, ekologik xavfsizlik va iqtisodiy islohotlarni uyg‘unlashtirishga qaratilgan keng ko‘lamli strategiyaning amaliy ifodasidir. Bu siyosat nafaqat iqtisodiy modelni modernizatsiya qilishga, balki O‘zbekistonning xalqaro iqlim majburiyatlarini bajarish va Markaziy Osiyoda “yashil transformatsiya” jarayonining yetakchi ishtirokchisi sifatida mavqeini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Ushbu maqolamizda biz asosiy e’tiborni yashil iqtisodiyotning eng katta muammolaridan biri — moliyalashtirish manbalarining yetishmasligiga qaratamiz. Qayta tiklanadigan energiya, chiqindilarni qayta ishlash, suvni tejovchi texnologiyalar va ekologik infratuzilma kabi yo‘nalishlarda investitsiyalarga talab yuqori, ammo ularning rentabelligi uzoq muddatda shakllanadi. Shu sababli, xususiy sektor bu sohalarga kirishda ehtiyotkorlik bilan yondashadi. Bundan tashqari, “yashil moliyalashtirish” mexanizmlari — ekologik obligatsiyalar, grantlar, soliq imtiyozlari — hali yetarlicha rivojlanmagan. Milliy bank tizimida yashil loyihalarni kreditlash uchun alohida mexanizmlar va past foizli uzoq muddatli kreditlar mavjud emas yoki cheklangan hajmda taqdim etiladi.

Adabiyotlar shahri. Prezidentning “2019–2030 yillarda O‘zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori, shuningdek, “Atrof-muhitni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonun, “Iqlim o‘zgarishiga moslashish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish strategiyasi” hamda “Yashil makon” umumxalq harakatini amalga oshirish to‘g‘risidagi farmoni mazkur tadqiqotning huquqiy poydevorini belgilaydi.

Bugungi kunda “yashil moliyalashtirish” ya’ni, yashil iqtisodiyotdagi moliyaviy resurslarni cheklanganligi muhim muammo sifatida ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganish kengaydi. Xususan, O‘zbekistonning yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida moliyaviy resurslarni jalb etishdagi muammolarni turli xalqaro tashkilotlar chuqur o‘rganib chiqqan. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD) tomonidan tayyorlangan “Financing Uzbekistan’s Green Transition” hisobotida mamlakatda yashil loyihalarni moliyalashtirishdagi asosiy bo‘shliqlar, jumladan xususiy sektor ishtirokining sustligi, davlat sektorining ustunligi va ichki kapitallashgan moliya bozorlarining rivojlanmaganligi tahlil qilingan. Shu bilan birga, Global Green Growth Institute (GGGI)ning “Uzbekistan Country Planning Framework 2024–2028” hujjatida yashil investitsiyalarni jalb qilish strategiyalari, moliyalashtirishdagi to‘sqinliklar va mavjud imkoniyatlar yoritilgan.

European Bank for Reconstruction and Development (EBRD) tomonidan amalga oshirilayotgan “Green Economy Financing Facility (GEFF) Uzbekistan” dasturi esa O‘zbekistonda yashil loyihalarni moliyalashtirish uchun ayrim kredit liniyalari mavjudligini, biroq ularning hajmi va qamrovi hozircha cheklanganligini ko‘rsatadi. Shuningdek, United Nations Development Programme (UNDP) va Yevropa Ittifoqi hamkorligida o‘tkazilgan seminarlarda “green finance” konsepsiyasi, ekologik obligatsiyalar (green bonds) chiqarish va ularni monitoring qilish jarayonida duch kelinayotgan amaliy to‘siqlar muhokama qilingan.

Bundan tashqari, International Energy Agency (IEA)ning “Context of Renewable Energy in Uzbekistan” hisobotida qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish bilan bog‘liq normativ, texnologik va moliyaviy cheklovlar tahlil qilingan.

Umuman olganda, ushbu xalqaro tashkilotlarning tadqiqotlari O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishda xususiy sektorning past faolligi, moliya bozori infratuzilmasining zaifligi va uzoq muddatli investitsiya mexanizmlarining yetarlicha rivojlanmagani asosiy muammo sifatida qayd etilganini ko‘rsatadi.

Muhokama. O‘zbekiston iqtisodiyotida yashil rivojlanish yo‘nalishlarini moliyalashtirishda hali ham bir qator tizimli muammolar mavjud. Eng avvalo, mamlakat bank tizimida yashil loyihalarni qo‘llab-quvvatlash uchun mo‘ljallangan maxsus kredit liniyalari cheklangan. Aksariyat tijorat banklari energiya tejamkor texnologiyalar, chiqindilarni qayta ishlash yoki ekologik infratuzilma sohalarida amalga oshirilayotgan loyihalarga uzoq muddatli va past foizli kreditlarni taklif eta olmayapti. Masalan, 2023-yilda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki tomonidan joriy etilgan Green Economy Financing Facility (GEFF) dasturi doirasida O‘zbekistonga ajratilgan 25 million yevrolik kredit mamlakatning yashil investitsiya ehtiyojiga nisbatan juda kichik ulushni tashkil etdi. Bu esa, yashil iqtisodiyot loyihalariga moliyaviy kirish imkoniyatining hali past darajada ekanini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, ekologik obligatsiyalar mexanizmi ham hozircha yetarli darajada shakllanmagan. Garchi 2021-yildan boshlab O‘zbekiston hukumati yashil obligatsiyalarni milliy moliya strategiyasining muhim tarkibiy qismiga aylantirish ustida ish olib borayotgan bo‘lsa-da, bu yo‘nalish hanuz rivojlanish bosqichida. OECD hisobotlariga ko‘ra, O‘zbekiston hukumati tomonidan ilk suveren yashil obligatsiyalar chiqargan bo‘lsa-da, ularning bozordagi ulushi hozircha juda past. Bu jarayonning sekinligi ichki kapital bozorining yetarlicha rivojlanmaganligi, investorlar uchun zarur kafolatlar tizimining yo‘qligi va huquqiy asoslarning to‘liq shakllanmagani bilan izohlanadi.

O‘zbekistonda 2021-yildan boshlab tijorat banklari **Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS)** asosida ishlashni boshladilar. Ayniqsa, IFRS 32 va IFRS 39 kapital va majburiyatlarni to‘g‘ri tasniflashni talab qiladi. Bu esa korxonalarda kapital hisobini **xalqaro darajaga moslashtirish** imkonini beradi.

5. Xususiy kapital samaradorligini oshirish yo‘llari

Xususiy kapitalning samaradorligini oshirish uchun:

- foydani reinvestitsiya qilish;
- dividend siyosatini takomillashtirish;
- kapital rentabelligini (ROE) oshirish;
- bank kreditlarini ishlab chiqarishning strategik yo‘nalishlariga yo‘naltirish zarur.

Masalan, foydaning 60% qismini reinvestitsiya qilish korxona kapitalining o‘sishini tezlashtiradi.

6. Raqamli texnologiyalar va moliyaviy barqarorlik

Raqamli iqtisodiyot sharoitida **elektron bank tizimlari** kapital hisobini yuritishda muhim o‘rin tutadi. Internet-banking, mobil ilovalar, onlayn to‘lov tizimlari korxonalar uchun:

- tranzaksiya xarajatlarini kamaytiradi;

- tezkor hisob-kitobni ta’minlaydi;
- shaffoflikni oshiradi.

Bu tizimlar orqali korxona moliyaviy oqimlarni real vaqt rejimida kuzatib boradi, bu esa barqarorlikni oshiradi.

Xulosa va takliflar. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, korxonalarda xususiy kapitalni shakllantirish va hisobini yuritishda tijorat banklari faoliyatining ahamiyati beqiyosdir. Banklar korxonalarga nafaqat moliyaviy vositachilik, balki strategik boshqaruv bo‘yicha ham amaliy yordam beradi.

Takliflar:

1. Tijorat banklarida korxona kapitalini boshqarishga oid **raqamli analitika tizimlarini joriy etish**;
2. Korxonalarning moliyaviy barqarorligini baholash uchun **integratsiyalashgan risk-menejment platformalarini yaratish**;
3. Kapital harakatini nazorat qiluvchi **“Bank-mijoz”** tizimlarining funksiyalarini kengaytirish;
4. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini (IFRS) joriy etish bo‘yicha **korporativ trening dasturlarini** tashkil etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimova A.M., Tursunov F.M. *Tijorat banklarida kapital harakatini boshqarish mexanizmlari*. Monografiya. – Toshkent, 2022. – 115 b.
2. To‘xtayev N.R. *Bank tizimida kapital tuzilmasini optimallashtirishning nazariy asoslari*. // “Iqtisodiyot va ta’lim” jurnali. – 2021. – №3. – 45–51 b.
3. Оразалиев Ш. *Формирование собственного капитала предприятия и роль банковской системы*. – Ташкент: Фан, 2019. – 132 с.
4. https://cbu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy veb-sayti.
5. IFRS Foundation (2023). *International Financial Reporting Standards (IFRS 32, IFRS 39, IFRS 9)*.

Рахимов Хошим Амирқулович

ТДИУ СФ мустақил тадқиқотчиси

СУҒУРТА ХИЗМАТЛАРИНИ КЎРСАТУВЧИ СУБЪЕКТЛАР ХАРАЖАТЛАР САМАРАДОРЛИГИ КЎРСАТКИЧЛАРИНИ ИЧКИ НАЗОРАТ ТИЗИМИДА АНИҚЛАШ ВА БАҲОЛАШ УСЛУБИЯТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Аннотация: **Мақолада суғурта хизматларини кўрсатувчи субъектлар харажатлар самарадорлигини ички назорат тизимида аниқлаш ва баҳолаш масалалари илмий жиҳатдан таҳлил қилинган ҳамда таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган.**

Калит сўзлар: **Суғурта хизматлари, харажат, харажатлар самарадорлиги, ички назорат тизими, COSO модели, таҳлил.**

Кириш

Суғурта хизматлари молиявий тизимнинг узвий қисми бўлиб, аҳоли ва хўжалик юритувчи субъектлар учун хавф-хатарларни молиявий қоплаш орқали барқарорликни таъминлайди. Суғурта компаниялари фаолиятида харажатларнинг самарали бошқарилиши уларнинг молиявий барқарорлиги, рақобатбардошлиги ва инвестиция салоҳиятига бевосита таъсир кўрсатади. Шу боис харажат самарадорлиги кўрсаткичларини аниқлаш ва баҳолаш учун ички назорат тизимини такомиллаштириш муҳим вазифа ҳисобланади.

Ҳозирги кунда кўплаб суғурта компанияларида харажатлар тўлиқ тизимли таҳлил қилинмаслиги, ички назорат тизимида рискларни баҳолашнинг чуқур амалий методлари йўқлиги ва халқаро стандартлардан тўлиқ фойдаланилмаслиги кузатилади. Бу эса харажатларнинг мақсадлилиги ва самарадорлигига салбий таъсир кўрсатади. Шу нуқтаи назардан, мақолада суғурта хизматларини кўрсатувчи субъектлар харажатлар самарадорлиги кўрсаткичларини ички назорат тизимида баҳолаш услубиятини такомиллаштириш йўналишлари илмий жиҳатдан асослаб берилади.

Мавзуга оид адабиётлар шарҳи

Халқаро ва маҳаллий тадқиқотларда суғурта харажатлари самарадорлигини баҳолашда турли методик ёндашувлар қўлланилган.

Хорижий иқтисодчи олимлар томонидан харажатлар таҳлили ва назорати бўйича қуйидаги фикр ва мулохазалар қилингин. Жумладан, C. Sheremet ва B. Suyts (2019) суғурта компаниялари харажатларини молиявий таҳлил қилишда “cost-to-premium ratio” кўрсаткичини асосий индикатор сифатида кўрсатган. A.Arena ва J.Lobeck (2020) ички назорат тизимида харажатларни функционал йўналишлар кесимида баҳолаш орқали самарадорликни ошириш зарурлигини таъкидлайдилар. EBIT кўрсаткичи орқали харажатларнинг компания молиявий натижаларига таъсирини баҳолашни G. Kennedy (2019) илмий асослаган.

Харажатлар таҳлили ва назорати бўйича қуйидаги халқаро ташкилотлар томонидан ҳам фикр мулохазалар баён қилингин. Жумладан, Basel Committee (2021) стандартларида молиявий ташкилотлар учун ички назорат тизимининг самарадорлигини баҳолашда risk-based approach тавсия этилган. COSO (Committee of Sponsoring Organizations, 2017) ички назорат концепциясида харажатларнинг мақсадлилиги ва бюджетлаштиришда хавф таҳлили асосий мезон сифатида белгиланган. IFRS 17 халқаро стандартида суғурта хизматлари харажатлари ва даромадлари ҳисобини аниқ ажратиш ва ҳисоботларда шаффофликни таъминлаш талаб қилинади. OECD Insurance Statistics (2023) маълумотларига кўра, харажатларни оптимал бошқарган компаниялар бозорда устунликка эга бўлади. М. Фридман (2018) “операцион харажатларнинг тежамкорлиги компания молиявий барқарорлигининг асосий омили” деб ҳисоблайди. А. KPMG (2020) ҳисоботида суғурта харажатлари назоратида рақамли аудит технологиялари самарадорликни ошириш воситаси сифатида кўрсатилган. PwC (2021) тадқиқотида харажатларни баҳолашда PESTEL таҳлилдан кенг фойдаланиш самарали эканлиги келтирилган. Deloitte (2022) харажат самарадорлиги кўрсаткичларини KPI (Key Performance Indicator) орқали баҳолаш самарали эканлигини кўрсатади. IAIS (International Association

of Insurance Supervisors, 2023) тавсияларида харажатлар таҳлилида ички назорат тизими билан боғлиқ стандартлар белгиланган.Мамлакатимиз олимлари томонидан ҳам бу борада изланишлар олиб борилган. Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги (2024) миллий ҳисоб стандартларида харажатларни функционал ва иқтисодий мазмунга кўра ажратиш тавсия этилган. Узбек олимлари – Х. Абдуллаев (2022) суғурта харажатларини таҳлил қилишда функционал йўналишлар ва иқтисодий самарадорлик кўрсаткичларини қўллаш зарурлигини илмий асослаган. М. Қурбонов (2023) суғурта компаниялари харажатлар самарадорлигини таҳлил қилиш учун “индикаторлар матрицаси”ни таклиф қилган.Шу адабиётлар таҳлилидан кўринадики, мавзу суғурта компаниялари молиявий барқарорлиги ва ички назорат тизимини такомиллаштиришда долзарб илмий йўналиш ҳисобланади.

Таҳлил ва натижалар

Суғурта хизматларини кўрсатувчи субъектларда харажатлар самарадорлигини баҳолаш методологияси кўп қиррали ва тизимли ёндашувни талаб қилади. Бу жараёнда иқтисодий таҳлил, статистик моделлар, ички назорат концепциялари ва халқаро стандартлардан фойдаланиш асосий мезон ҳисобланади.

Харажатлар самарадорлигини баҳолашда қуйидаги иқтисодий усуллар қўлланилади:



1-расм. Харажатлар самарадорлигини баҳолашда қўлланиладиган иқтисодий усуллар.

Методологиянинг асосий қисми COSO модели ва Basel II/III талабларига таянади. COSO интеграцияланган ички назорат моделида бешта асосий компонент – назорат муҳити, хавфларни баҳолаш, назорат жараёнлари, ахборот ва коммуникация, мониторинг – харажат самарадорлигини аниқлаш ва баҳолашда қўлланилади.Харажат самарадорлиги кўрсаткичлари қуйидаги формулалар орқали ҳисобланади:

- **Cost-to-Premium Ratio (CPR):**

$$\text{CPR} = \frac{\text{C}}{P} * 100$$

бу ерда:

C – умумий харажатлар, P – йиғилган суғурта примиалари.

- **Combined Ratio (CR):**

$$CR = \frac{(C_{uw} + C_{adm} + C_{cl})}{P} \times 100$$

бу ерда:

C_{uw} – андеррайтинг харажатлари, C_{adm} – маъмурий харажатлар, C_{cl} – суғурта товонлари, P – умумий примиалар.

• **Регрессия модели:** харажатлар ўзгаришининг молиявий натижаларга таъсири қуйидаги кўринишда баҳоланади:

$$Y = \alpha + \beta_1 CPR + \beta_2 CR + \varepsilon$$

бу ерда:

Y – молиявий натижа (EBIT),β1,β2– харажат кўрсаткичларининг таъсир коэффициентлари, ε – тасодифий хато.

Методологияда харажат назоратининг ташқи ва ички омиллари SWOT ва PESTEL таҳлиллари орқали баҳоланади. SWOT таҳлил харажат самарадорлигидаги ички кучли ва заиф томонларни кўрсатса, PESTEL таҳлил ташқи муҳит (сиёсий, иқтисодий, ижтимоий, технологик, экологик, ҳуқуқий) таъсирларини баҳолаш имконини беради.Харажат самарадорлиги қуйидаги асосий индикаторлар орқали баҳоланиши тавсия этилади:

- Cost-to-Premium Ratio
- Combined Ratio
- Expense Ratio (маъмурий харажатлар улуши)
- Claims Ratio (суғурта товонлари улуши)
- EBIT Margin (операцион фойда улуши)

Бу индикаторлар асосида "индикаторлар матрицаси" тузилиб, ички назорат тизимида харажатларни баҳолаш учун қўлланилади.Тадқиқот натижалари суғурта компаниялари харажатлар самарадорлигини баҳолашда интеграциялашган услубий ёндашувнинг зарурлигини кўрсатди.2020–2024 йиллар давомида Ўзбекистондаги йирик суғурта компанияларида харажат самарадорлиги индекси таҳлил қилинди.

2020–2024 йиллар давомида Ўзбекистондаги йирик суғурта компанияларида харажат самарадорлиги индекси таҳлили

Йил	Харажатлар (млрд сўм)	Примиалар (млрд сўм)	CPR (%)	Combined Ratio (%)	EBIT (%)
2020	1 200	2 000	60,0	98,5	3,1
2021	1 400	2 500	56,0	95,0	4,2
2022	1 600	3 000	53,3	91,5	5,0
2023	1 850	3 700	50,0	89,0	6,4
2024	2 000	4 200	47,6	87,5	7,1

Жадвалдан кўриниб турибдики, харажатларнинг примиаларга нисбати йилдан йилга пасайиб бораётгани самарадорликнинг ошишини англатади.

COSO модели асосида баҳоланганда, ички назорат тизимида харажатларни баҳолаш жараёнида “ахборот ва коммуникация” ҳамда “мониторинг” компонентлари етарлича самарали ишламаслиги асосий муаммо сифатида қайд этилди.

Хулоса

Тадқиқот натижалари шуни кўрсатадики, суғурта хизматларини кўрсатувчи субъектларда харажатлар самарадорлигини баҳолаш ва ички назорат тизимини такомиллаштириш масаласи стратегик аҳамиятга эга. Харажатлар самарадорлиги кўрсаткичлари компаниянинг молиявий барқарорлиги, рақобатбардошлиги ва бозордаги ўрнини белгилаб беради.

1. 17-МҲХС ва COSO концепцияси асосида харажатларни ҳисобга олиш ва назорат қилиш механизмлари миллий амалиётга интеграция қилиниши лозим. Бу орқали харажатлар тўғрисидаги маълумотлар шаффоф ва солиштириш мумкин бўлади.
2. Cost-to-Premium Ratio (CPR), Combined Ratio (CR), Expense Ratio, Claims Ratio каби индикаторлар харажат самарадорлигини баҳолашда асосий мезон бўлиб хизмат қилади.
3. Ички назорат тизимининг самарадорлиги паст даражада экани аниқланди. Хусусан, ахборот ва коммуникация жараёнларидаги узилишлар ҳамда мониторинг функцияларининг етарлича самарали эмаслиги харажат самарадорлигини баҳолашга салбий таъсир кўрсатмоқда.

Тадқиқот натижалари асосида қуйидаги таклифлар ва тавсиялар ишлаб чиқилди:

1. Харажатлар андеррайтинг, инвестиция ва маъмурий харажатлар кесимида ҳисобга олиниши ва назорат қилиниши шарт. Бу ички назоратда харажатларнинг қайси йўналишда самарасиз сарфланаётганини аниқ кўрсатади.
2. Суғурта компанияларида харажат самарадорлигини баҳолаш учун Cost-to-Premium Ratio, Combined Ratio, Expense Ratio ва EBIT Margin каби KPI индикаторлари асосида автоматлаштирилган баҳолаш тизими жорий этилиши керак.
3. Суғурта компаниялари харажат самарадорлигини баҳолашда индикаторлар матрицасидан фойдаланиб, ҳар чоракда KPI натижаларини ички аудитга тақдим қилиши керак.
4. Эконометрик моделлар асосида харажатлар самарадорлигини олдиндан башорат қилиш тизими йўлга қўйилиши тавсия этилади. Бу орқали компаниялар келгуси йиллар харажат стратегиясини илмий асосда белгилайди.
5. Ички назорат тизими самарадорлигини баҳолаш индекси яратилиши зарур. Бу индекс орқали ҳар бир суғурта компанияси ўз харажат назорати тизимининг кучли ва заиф нуқталарини рейтинг асосида баҳолаш имконига эга бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Шеремет С., Суйц В. Анализ эффективности расходов страховых компаний. – М.: Инфра-М, 2019. – 356 с.
2. Арена А., Лоббек Дж. Внутренний контроль и эффективность в страховании. – Нью-Йорк: McGraw-Hill, 2020. – 412 с.
3. Basel Committee. Principles for effective risk management. – Basel: BIS, 2021. – 78 p.
4. COSO. Internal Control – Integrated Framework. – New York: AICPA, 2017. – 102 p.
5. IFRS Foundation. IFRS 17 Insurance Contracts. – London: IFRS Foundation, 2020. – 134 p.
6. Абдуллаев Х. Таҳлил суғурта харажатлари: назария ва амалиёт. – Тошкент: Иқтисодиёт, 2022. – 224 б.
7. Фридман М. Экономическая эффективность в финансах. – Чикаго: University of Chicago Press, 2018. – 298 с.
8. KPMG. Digital auditing in insurance. – London: KPMG International, 2020. – 65 p.
9. PwC. PESTEL analysis in insurance efficiency. – London: PwC, 2021. – 53 p.
10. Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги. Миллий ҳисоб стандартлари. – Тошкент: Молия, 2024. – 146 б.
11. Deloitte. KPI in insurance cost control. – London: Deloitte Insights, 2022. – 71 p.
12. Кеннеди Г. EBIT indicators in financial analysis. – Оксфорд: Oxford University Press, 2019. – 215 с.
13. Қурбонов М. Суғурта харажатлари индикаторлар матрицаси. – Тошкент: Фан, 2023. – 178 б.

T.O.Umarov – Zarmed universiteti
Iqtisodiyot va moliya kafedrasi o‘qituvchisi

OLIY TA’LIM XIZMATLARINING INTELLEKTUAL – INNOVATSION TABIATINI: NAZARIY YONDASHUVLAR TAHLILI

Annotatsiya: Maqolada oliy ta’lim xizmatlarining intellektual-innovatsion tabiati va ularning iqtisodiy qiymat yaratishdagi o‘rni nazariy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda ta’lim xizmatlarining inson kapitali, raqobatbardoshlik va innovatsion rivojlanishga ta’siri ilmiy asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: oliy ta’lim, ta’lim xizmatlari, inson kapitali, innovatsiya, iqtisodiy qiymat, kechiktirilgan qaytim, global standartlar, raqobatbardoshlik.

Globallashuv va bilimlar iqtisodiyoti sharoitida ta’lim sohasi milliy iqtisodiyotning barqaror, inklyuziv va innovatsion o‘sishini ta’minlovchi strategik omillardan biri sifatida maydonga chiqmoqda. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, milliy daromad o‘sishining 60 foizi jamiyatda ta’lim sifati yuksalishi va

bilim salohiyatining oshishi bilan belgilanadi. Xalqaro iqtisodiy hisob-kitoblarga ko‘ra, ta’limga yo‘naltirilgan 1 dollar investitsiya 3–6 dollar iqtisodiy qaytim keltiradi, ta’limga qilingan xarajatlarning 1 foizga oshishi esa YAIMning o‘rtacha 0,35 foizga o‘sishiga olib keladi.

Aholining oliy ma’lumotga ega qatlami muhim makroiqtisodiy ko‘rsatkich sifatida ham qaraladi. Rivojlangan mamlakatlarda aholining kamida 40–50 foizi, bilimlar iqtisodiyoti shakllangan davlatlarda esa 60 foizdan ortig‘i oliy ma’lumotli bo‘lmas ekan, barqaror iqtisodiy o‘sish va texnologik rivojlanishni ta’minlash qiyinlashadi.

Shu nuqtai nazardan, oliy ta’lim xizmatlarining iqtisodiy mohiyatini, ular shakllantiradigan qiymat tabiatini, ta’limning ichki va tashqi samaralarini, raqobatbardoshlikka ta’sir qiluvchi omillarni ilmiy jihatdan o‘rganish dolzarb masala hisoblanadi.

Oliy ta’lim xizmatlarining ilmiy mohiyati turli olimlar tomonidan turlicha sharhlanadi. Rossiyalik olim I.V. Zaxarova tomonidan quyidagicha ta’rif berilgan: “Ta’lim xizmatlari – bu zamonaviy fan va texnika yutuqlari asosida kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan bilim, mahorat va ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan, jismoniy va yuridik shaxslar ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi o‘quv yurtlari faoliyatidir.”[227]

Maslov D.V.esa ta’lim xizmatlarining iqtisodiy mazmuni inson kapitaliga investitsiya sifatida baholanadi:

“Ta’lim xizmatlari – insonning mehnatga oid qobiliyatlarini shakllantiruvchi va kompleks manfaatlar yaratishga xizmat qiluvchi inson kapitaliga investitsiya jarayonidir.”[228]

Bu yondashuvlar ta’limning ikki tabaqasini ko‘rsatadi:

– mikrodaraja: shaxsning malakasini oshiruvchi, daromadni ko‘paytiruvchi jarayon;

– makrodaraja: iqtisodiy o‘sish, texnologik rivojlanish, jamiyat farovonligini oshiruvchi omil.

Shunday qilib, ta’lim xizmatlari nafaqat iqtisodiy natija, balki ijtimoiy va intellektual rivojlanishning asosiy drayveri hamdir.

Ta’lim xizmatlari endogen (ichki) va ekzogen (tashqi) samaralarga ega.

1. Ichki samara (individual darajada). Yuqori malaka egasi bo‘lgan shaxs:

– mehnat bozorida yuqoriroq daromad oladi;
– kasbiy moslashuvchanlikka ega bo‘ladi;
– ijodiy va analitik fikrlashni kuchaytiradi;
– jamiyatda ijtimoiy mavqeini oshiradi.

Bu ta’limning individual qaytimi deb ataladi.

2. Tashqi samara (jamiyat va iqtisodiyot darajasida)

Oliy ta’limning ekzogen samaralari quyidagilar bilan namoyon bo‘ladi:

[227] Захарова И.В. Маркетиновые в современном вузе: тенденции исследований // Весшее оброзование в России. 2018. Т.27. № 6. С. 20-30.

[228] Маслов Д.В. Рынок образовательных услуг: методологические аспекты. Автореф. дисс. конд. экон. наук / Ярославль. 2002.

– YAIMning o‘sishi;
– mehnat unumdorligining oshishi;
– ilmiy-innovatsion faoliyatning kuchayishi;
– boshqaruv qarorlarining sifatliroq bo‘lishi;
– ijtimoiy barqarorlikning mustahkamlanishi.

Bu holatlar ta’limning jamoatchilik qiymatini oshiradi.

Oliy ta’lim xizmatlari tayyor mahsulot emas, balki intellektual-innovatsion qiymat yaratishga yo‘naltirilgan uzluksiz jarayondir. U quyidagi asosiy yo‘nalishlardan iborat:

– bilim berish;
– tarbiyalash;
– ilmiy-tadqiqot faoliyati;
– akademik mobillikni ta’minlash;
– shaxsning kasbiy va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish.

Bu jihatlar oliy ta’limni boshqa xizmat turlaridan tubdan farqlaydi.

Oliy ta’lim xizmatlari o‘z mohiyatiga ko‘ra, tayyor mahsulot emas, balki intellektual qiymat yaratishga qaratilgan uzluksiz xizmatlar majmuasidir. Ularda ta’lim berish, tarbiyalash, ilmiy-tadqiqot faoliyati, akademik mobillik va talabalarning shaxsiy salohiyatini rivojlantirish kabi ko‘plab funksiyalar uyg‘un ravishda amal qiladi. SHuning uchun ham oliy ta’lim xizmatlari an’anaviy xizmatlar bozoriga nisbatan ancha murakkab, ko‘p qirrali va dinamik tuzilmaga ega.

Oliy ta’lim xizmatlarining o‘ziga xos xususiyatlari – gibridlik, kechiktirilgan iste’mol, intellektual qiymat ustuvorligi, davlat tomonidan tartibga solinishi, internatsional omillardan ta’sirlanishi – ularning raqobat muhitidagi o‘rnini yanada muhimlashtiradi. Boshqa xizmat turlaridan farqli ravishda, ta’lim xizmatlari natijasi uzoq muddatli, foydasi esa inson kapitali sifati o‘zgarishi orqali namoyon bo‘ladi. Bu esa raqobatbardoshlikni baholashda oddiy bozor mezonlari etarli emasligini, kompleks yondashuv zarurligini ko‘rsatadi.

1-jadval

Oliy ta’lim xizmatlarining xususiyatlari

Intellektual-innovatsion qiymatning ustunligi	Oliy ta’lim xizmatlari moddiy mahsulot emas, balki bilim, innovatsiya, tadqiqot salohiyati va inson kapitali shakllanishiga yo‘naltirilgan intellektual resurslarni yaratadi. Uning qiymati kognitiv, ma’naviy va ijtimoiy samaralar bilan ifodalanadi.
YAratilish va iste’molning sinxron amalga oshishi	Ta’lim xizmatlari yaratilishi va iste’moli bir vaqtda kechadi; uni omborga jamlash, zaxiralash yoki keyinchalik sotish mumkin emas. Bu xususiyat uni an’anaviy tovarlardan tubdan farqlantiradi.
Kechiktirilgan iqtisodiy va ijtimoiy qaytimi (Delayed return effect)	Ta’lim samarasi mehnat bozoridagi natijalar, ilmiy yutuqlar, innovatsion faoliyat va inson kapitalining uzoq muddatli o‘sishi orqali namoyon bo‘ladi. Uning iqtisodiy qaytimi darhol o‘lchanmaydi.
SHeriklik	Ta’lim jarayoni o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi interaktiv,

asosidagi qiymat yaratish modeli (co-production)	ijodiy hamkorlikka asoslanadi. Xizmat sifati talabaning intellektual ishtiroki, motivatsiyasi va faollik darajasiga bevosita bog‘liq.
Individuallashgan va variativ ta’lim traektoriyalari	Ta’lim xizmatlari kompetensiyaga asoslangan, modulli va individual traektoriyalar orqali amalga oshiriladi. U moslashuvchan, talabaning salohiyatiga qarab o‘zgaruvchan tabiatga ega.
Sifatning ko‘p omilli va qiyin o‘lchanadigan tabiati	Ta’lim sifati to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki o‘rinbosar indikatorlar (sitata, bandlik, reytinglar, kompetensiyalar, internatsionallik) orqali baholanadi. U sub’ektiv va ko‘p o‘lchamli kategoriyadir.
Xalqaro standartlar va global integratsiya ta’siridagi rivojlanish	Oliy ta’lim xizmatlari Bolonya talablari, QS/THE/ARWU/Webometrics mezonlari, akademik mobillik, xalqaro dasturlar va transmilliy ta’lim tendensiyalariga bog‘liq holda rivojlanadi.
Davlat tomonidan tartibga solinish darajasining yuqoriligi	Litsenziya, akkreditatsiya, standartlar, davlat dasturlari va normativ hujjatlar ta’lim xizmatlarining tartibga solinishini belgilaydi. Bu bozor erkinligini cheklar ekan, sifat kafolatini ta’minlaydi.
Jamoatchilik (public good) xarakteri va ijtimoiy missiyasi	Oliy ta’lim faqat shaxsiy manfaat uchun emas, balki jamiyat uchun strategik ahamiyatga ega: malakali kadrlar tayyorlaydi, innovatsiyani rivojlantiradi, ijtimoiy barqarorlikka hissa qo‘shadi.
Tarmoqlararo ta’sir va multiplikativ samara	Oliy ta’lim iqtisodiyotning barcha sohalariga kadrlar, ilmiy echimlar va innovatsion texnologiyalar orqali ta’sir ko‘rsatadi. Uning samarasi boshqa tarmoqlarda ham qiymat yaratadi.
Intellektual-innovatsion qiymatning ustunligi	Oliy ta’lim xizmatlari moddiy mahsulot emas, balki bilim, innovatsiya, tadqiqot salohiyati va inson kapitali shakllanishiga yo‘naltirilgan intellektual resurslarni yaratadi. Uning qiymati kognitiv, ma’naviy va ijtimoiy samaralar bilan ifodalanadi.

Mazkur xususiyatlardan kelib chiqib, mualliflik ta’rifi ishlab chiqildi: “oliy ta’lim xizmatlari – bu moddiy mahsulot yaratmaydigan, balki bilim, innovatsiya, ilmiy-tadqiqot faoliyati va inson kapitali shakllanishiga yo‘naltirilgan intellektual-innovatsion qiymatni barqaror tarzda yaratishga qaratilgan, o‘qituvchi va talaba hamkorligida sodir bo‘ladigan, yaratilish va iste’mol jarayoni bir vaqtda kechadigan, sifati ko‘p omilli va uzoq muddatli qaytimi bilan tavsiflanadigan, xalqaro standartlar, davlat tartibga solishi va jamoatchilik missiyasi bilan belgilanuvchi strategik ijtimoiy-iqtisodiy xizmatlar majmuasidir”.

Oliy ta’lim xizmatlari milliy iqtisodiyotning intellektual asosini yaratadi, innovatsion rivojlanishni tezlashtiradi, mehnat unumdorligini oshiradi va jamiyatning

ijtimoiy barqarorligini ta’minlaydi. Ta’limning endogen va ekzogen samaralari uni nafaqat individual, balki makroiqtisodiy o‘sishning muhim omiliga aylantiradi. Global ta’lim standartlariga moslashgan, raqobatbardosh, innovatsion oliy ta’lim tizimi mamlakatning strategik rivojlanishi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Hamdamov Behruz Nomozali ugli
Student of Tashkent State University of Economics

HUMAN CAPITAL AS A CATALYST FOR THE DEVELOPMENT OF GREEN TECHNOLOGIES

Abstract. The shift to the green economy is becoming more and more reliant on the creation of human capital that will be able to drive the innovation, and sustainability and technological advancement. The paper will discuss the important aspect of human capital in promoting the development, evolution and the application of green technologies. It discusses how education, professional training, research and environmental awareness will play a role in the creation of a workforce that can address the challenges of sustainable development. Another issue in human capital identified in the study is the correlation between human capital and green sector investment, where skill development, digital literacy, and supporting policies play an essential role in ensuring a fair and non-discriminatory change. Some focus is given on examples of the world and the regions, especially developing economies, which show that the development of human capital increases the green innovation capacity. The paper will end with policy recommendations that will reinforce educational and institutional structures that are required to hasten the green transformation using human potential.

Keywords: human capital, green technologies, green economy, innovation, sustainable development, education, workforce.

Introduction

The world-economy of the twenty-first century changes to the sustainable development due to climate change, the exhaustion of resources, and environmental deterioration. Such a change has given way to the green economy, an economic approach that is founded on low-carbon economic growth, efficiency in resources and social inclusivity. Human capital is one of the critical contributors to this shift because the development and adoption of green technologies relies on the ability of people, their skills, and knowledge directly.

In the case of Uzbekistan, which is in the process of active modernization of its economy and orientation in the matters of global sustainability, the exploration of human capital in the green segment has become a national priority. The nation is undertaking significant actions to foster environmental changes, renewable energy initiatives, and sustainable industrialization. The Strategy of the Green Economy Transition Program (2023-2030) and the Uzbekistan 2030 Strategy state that education, the scientific research, and innovation should be promoted to advance green technologies. These efforts underscore the importance of the fact that the green

transition cannot be effective without the presence of qualified specialists, engineers, researchers, and policymakers.

The overall aim of this paper is to examine how human capital contributes to the green technologies' development, as well as to determine mechanisms that reinforce the relationship between education, training and innovation in the context of sustainable development of Uzbekistan. A purpose of the research is also to give the policy recommendations on how institutional capacity and investing in people could speed up the process of the green transformation.

Literature and Policy Context

According to recent international studies, one of the determinants of the green transition and the growth of innovation in sustainable technologies is the enhancement of human capital. The OECD Green Growth and Sustainable Development Report (2023) argues that the faster the diffusion of green technologies and the greater the level of green investment attracted by an economy, the more it invests in education, lifelong learning, and environmental awareness programs. On the same note, according to the World Bank Green Skills Report (2024), the number of companies that require professionals possessing sustainability-related skills, like the management of renewable energy, climate financing, and the design of a circular economy, is growing by more than 40% in the past five years.

The international labour organization (ILO, 2022) and the UN Environment Programme (UNEP, 2023) confirm that the human capital is the key factor in green innovation systems. They claim that the best avenues through which green technology should be enhanced are in technical education, digital literacy and scientific research. Moreover, the Green Skills Agenda (2025) by the European Commission explains how the incorporation of sustainability in education systems makes the future of the labor market ready to meet the demands of the fast-tracked world.

In the Uzbekistan, transition to green economy has been made a new policy priority. The Presidential Decree of the Republic of Uzbekistan on the Strategy to shift to a green economy in 2019-2030 is one of the main guiding documents that advocate the use of renewable energy sources, energy conservation, and environmental education. The Uzbekistan 2030 Strategy also emphasizes the use of human capital to ensure the realization of national sustainability objectives. It has made the enhancement of the higher education system, the growth of the technical and vocational training, and the scientific research of the green technologies a priority. The Ministry of Higher Education, Science and Innovation has also initiated new renewable energy engineering, sustainable agriculture and green entrepreneurship programs to create a low-carbon economy workforce.

All in all, there exists both international and domestic indicators that successful green transformation should rely on the creation of human capital with the ability to integrate environmental responsibility, technical skills and innovation potential. The trends put education and institutional reforms as one of the key pillars of the sustainable economic modernization in Uzbekistan.

Main Analysis

This shift towards a green economy will necessitate the need to recruit a new form of labor force, not only a technically competent labor force but also one that can comprehend environmental systems and principles of sustainability. This part of the paper examines the importance of human capital in the development of green technologies in three interlocking ways namely: demand-side skills, supply-side constraints, and institutional needs.

1. Demand-Side Skills.

Over the past few years, the demand of green skills has developed drastically in different fields like renewable energy, construction, waste management, and transport. These are skills in knowledge on energy-efficient technology, accounting on carbon, environmental impact assessment, and sustainable management of resources. Employers are more and more interested in specialists who will be able to combine the ecological thinking with engineering, finance, and industrial design. Renewable energy endeavours in Uzbekistan, particularly that of solar and wind energy, have established an increasing demand to engineers, data analysts and energy auditors trained to sustainability guidelines. The need of the professionals possessing environmental and digital skills in the private sector supports the significance of the continuous training and retraining.

2. Supply-Side Constraints

Although there is increased demand, there is a low supply of green-skilled workers currently. The education and vocational systems in most of the developing countries such as Uzbekistan do not have elaborate programs that incorporate the concept of sustainability and technology. Most of the universities are yet to fully implement their curricular changes to accommodate the worldwide green transformation. The lack of skilled educators, research facilities, and lack of cooperation between the academic world and the industry remain sources of a slow-down. In addition, research and development of green technology is usually concentrated in the urban areas, and the rural areas are left with limited chances of development of skills. These supply-side limitations can also be resolved by investing in education, as well as by the policy alignment among the ministries of energy, education, and innovation.

3. Institutional Needs

Good institutional arrangements are necessary to create the connection between human capital development and development of green technologies. This involves the development of the national qualifications framework of green professions, the development of environmental certification system and encouraging the collaboration between universities, research centers and private firms. Important steps have already been made in this direction by the initiatives of the state of Uzbekistan focused on the Ministry of Ecology and the Ministry of Higher Education, Science and Innovation. But even now, it is necessary to have improved data gathering on the trends in the labor market, enhanced cooperation between the state and universities, and specific stimuli of universities to engage in applied research on renewable energy and environmental engineering. These institutions will be strengthened and that way, human capital investments will translate into visible technological advances.

Recommendations

To achieve the successful development of human capital in green technologies, there has to be coordinated policy framework linking education, labor and innovation systems. According to the analysis, the following recommendations can be suggested:

1. Discover sustainability in education. Schools, colleges, and universities should incorporate the environmental and green technology concepts in school curricula. Special courses on renewable energy, waste management and sustainable finance will prepare students to work in the future in green professions.

2. Increase technical and vocation training. Educational institutions should collaborate with industry in helping to provide practical, hands-on training in solar energy systems, energy auditing and environmentally friendly construction practices.

3. Encourage lifelong education and retraining. Workers in the traditional sectors should be provided with continuous opportunities of professional development so that they can learn the new green competencies to guarantee an inclusive transition.

4. Promote research and development in green technology. Applied research should be funded by government and the private sector in the field of clean energy, smart agriculture and circular production. Development of innovation hubs in universities can bring about rapid technological development.

5. Enhance coordination in institutions. The creation of the inter-ministerial body that will connect the policies about human capital to the green economy goals will guarantee the consistency of the policies. This would allow a body to keep track of trends in the labor markets, determine the existence of skills gap, and assess the impact of green education courses.

6. Improve international collaboration. Partnerships with international agencies like UNEP, World Bank, and the Green Growth Institute would enable Uzbekistan to benefit due to the technical expertise, best practices and funding in the development of green skills.

These would not only enhance the stock as well as quality of the human capital but also speed up green transformation agenda of Uzbekistan.

Conclusion

The green transition is anchored on human capital and acts as a final determinant towards the creation and implementation of environmentally friendly innovations. The need to have a skilled and eco-friendly workforce has been on the increase as the world faces numerous global problems like climate change, the security of energy and the scarcity of resources. This paper has revealed that people are as critical in terms of investment as the physical technologies.

In the case of Uzbekistan, green transformation has provided it with a special chance to transform its economy as well as foster environmental and social sustainability. The success of human capital development will also make sure that new green technologies are not imported alone, but also developed inside.

Through building education, research and institutional coordination, the country will be able to establish a robust platform of sustainable development and technological self-sufficiency. Finally, the process of green economy is not necessarily technological but a human one as well. With the right knowledge, skills, and values induced in them, individuals will become the active agents of change - ones with the capacity to innovate, preserve the environment and build a sustainable future of Uzbekistan and even further.

References

1. Asian Development Bank. (2023). *Uzbekistan: Green economy transition framework 2023–2030.* ADB Publications. https://www.adb.org
2. European Commission. (2025). *Green skills and innovation for a sustainable future: The European Green Deal progress report.* Publications Office of the European Union. https://commission.europa.eu
3. World Bank. (2024). *Green skills for climate action: Building human capital for sustainability.* World Bank Publications. https://www.worldbank.org
4. Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan. (2024). *National roadmap for green skills development.* Tashkent: Government of Uzbekistan.
5. President of the Republic of Uzbekistan. (2019). *Decree No. PF-5863 on the Strategy for Transition to a Green Economy for 2019–2030.* National Database of Legislation, Tashkent.
6. President of the Republic of Uzbekistan. (2023). *Uzbekistan 2030 Strategy.* Tashkent: Government of Uzbekistan.
7. Global Green Growth Institute. (2025). *Green human capital index: Measuring progress in developing economies.* GGGI Publications. https://gggi.org

Toxir Oblakulovich Umarov – *Zarmed universiteti Iqtisodiyot va moliya kafedrasi o‘qituvchisi*

TA’LIM XIZMATLARI SIFATI OLIY TA’LIM TASHKILOTLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA

Annotatsiya: Maqolada global ta’lim bozorining kengayishi, raqamli transformatsiya jarayonlari va oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida kuchayib borayotgan raqobat sharoitida ta’lim xizmatlari sifatining strategik ahamiyati yoritilgan. E.S. Polat va V.I. Baydenko tomonidan ishlab chiqilgan yondashuv asosida ta’lim sifati resurs, jarayon va natija darajalari orqali tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: ta’lim sifati, raqobatbardoshlik, oliy ta’lim, raqamli transformatsiya, innovatsiyalar, boshqaruv tizimi, xalqaro hamkorlik

Global ta’lim bozorining kengayishi, raqamli transformatsiya jarayonlari va oliy ta’lim tashkilotlari o‘rtasida kuchayib borayotgan raqobat sharoitida ta’lim xizmatlari sifati strategik ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy oliy o‘quv yurtlari faoliyati

endilikda faqat akademik natijalar bilan emas, balki ta’lim jarayonining samaradorligi, innovatsionligi va manfaatdor tomonlar ehtiyojlarini qanchalik qondirishi bilan baholanmoqda.

Raqobat muhitida abituriyentlar va ilmiy-pedagogik kadrlar uchun kurash kuchaygan bir paytda, ta’lim sifati oliy ta’lim tashkilotlari barqarorligi va obro‘sini belgilaydigan asosiy omilga aylandi. Oliy ta’lim xizmatlari sifat darajasi oliy o‘quv yurtining jozibadorligi, xalqaro integratsiya imkoniyatlari va mamlakatning intellektual salohiyatini belgilaydi.

Xususan, rivojlanayotgan mamlakatlarda ta’lim sifati muammosi ikki tomonlama vazifani qamrab oladi: bir tomondan, akademik standartlarni xalqaro darajaga yetkazish, ikkinchi tomondan esa ta’limning ommabopligini ta’minlash. Shu sababli, ta’lim xizmatlari sifati oliy ta’lim muassasasi raqobatbardoshligini ta’minlaydigan asosiy strategik vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda.

O‘tkazilgan ilmiy manbalar va oliy ta’lim tizimida sifatni boshqarish bo‘yicha amaliy modellarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, ta’lim xizmatlari sifati murakkab toifani ifodalaydi. U oliy ta’lim muassasasining barcha manfaatdor tomonlar – talabalar, o‘qituvchilar, ish beruvchilar, davlat va jamiyat ehtiyojlarini qondirish qobiliyatini belgilaydigan omillar majmuasidan iboratdir.

Rossiyalik olimlar E.S. Polat tomonidan taklif etilgan va V.I. Baydenko asarlarida rivojlantirilgan yondashuvga ko‘ra, ta’lim xizmatlari sifati o‘zaro bog‘liq uch darajadan iborat: resurs darajasi, jarayon darajasi va natija darajasi. Ushbu darajalar tizimli modelni shakllantiradi, unga ko‘ra oliy o‘quv yurti bozor talablari va kasbiy standartlarga muvofiq ta’lim xizmatini ishlab chiqaruvchi va yetkazib beruvchi tashkilot sifatida qaraladi.

Resurs darajasi (yoki shart-sharoitlar darajasi) kadrlar salohiyati, moddiy-texnika baza, infratuzilma, boshqaruv tizimi, me’yoriy-uslubiy ta’minot va axborot resurslarini o‘z ichiga oladi. Yaxshi sharoitlar sifati ta’lim jarayonini takomillashtirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Jarayon darajasi o‘quv dasturlarining mazmuni, o‘qitish uslublari, ta’limni tashkil etish shakllari va ishtirokchilarning o‘zaro hamkorligi bilan bog‘liq. Bu daraja oliy o‘quv yurti ta’lim maqsadlarini qay darajada samarali amalga oshirayotganini belgilaydi.

Natija darajasi faoliyat yakuniy ko‘rsatkichlarini – bitiruvchilarning bilim darajasi, kompetensiyalari, kasbiy tayyorgarligi hamda talabalar va ish beruvchilarning qoniqish darajasini aks ettiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ushbu uch daraja o‘zaro sabab-oqibat bog‘liqligida: sharoitlarning yaxshilanishi ta’lim jarayonida innovatsiyalar joriy etish uchun zamin yaratadi, jarayon samaradorligining oshishi esa ta’lim natijalari sifatining o‘sishiga olib keladi.

So‘nggi yillarda sifatning tashqi ko‘rsatkichlari ham alohida ahamiyat kasb etmoqda – universitet reytinglari, akkreditatsiya natijalari, ish beruvchilarning fikrlari va bitiruvchilarning ishga joylashish darajasi. Shu bois ta’lim sifati endi faqat ichki mezon sifatida emas, balki oliy o‘quv yurti raqobatbardoshligini belgilaydigan bozor indikatori sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Tadqiqot shuni tasdiqlaydiki, ta’lim xizmatlari sifati bilan oliy o‘quv yurti raqobatbardoshligi o‘rtasida barqaror va ijobiy bog‘liqlik mavjud. Yuqori sifatli ta’lim ko‘rsatayotgan universitetlar bir qator asosiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha yuqori natijalarga erishmoqda: abituriyentlar uchun jozibadorlik, ish beruvchilarning ishonchi, grantlar va hamkorlik loyihalari hajmi, akademik mobillik va xalqaro integratsiya.

Birinchidan, ta’lim sifati to‘g‘ridan-to‘g‘ri universitet brendining qabul qilinishiga ta’sir qiladi. O‘quv yurti obro‘-e’tibori nafaqat ilmiy yutuqlar, balki uning faoliyati natijalari haqidagi jamoatchilik fikri orqali shakllanadi. Zamonaviy dasturlarni taklif etuvchi, yuqori darajadagi o‘qituvchilarga ega va bitiruvchilarining muvaffaqiyatli bandligini ta’minlay oluvchi universitet nufuzli va ishonchli hamkor sifatida qaraladi.

Ikkinchidan, ta’lim xizmatlari sifati talabalarni jalb qilish va ularni ushlab turish omili sifatida namoyon bo‘ladi. QS Ranking va Times Higher Education xalqaro agentliklari tadqiqotlariga ko‘ra, abituriyentlar uchun o‘qitish sifati va o‘quv dasturlari mazmuni oliy o‘quv yurtini tanlashda eng muhim mezon hisoblanadi. Shu bois ta’lim sifati oshishi talabalar sonining, jumladan xorijiy talabalar ulushining ortishiga olib keladi va bu o‘z navbatida universitetning moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi.

Uchinchidan, ta’lim jarayonining yuqori samaradorligi bitiruvchilarning ishga joylashish darajasini oshiradi. Bu ko‘rsatkich nafaqat bitiruvchining, balki uni tayyorlagan universitetning raqobatbardoshligini ham ifodalaydi. Ish beruvchilar tomonidan kadrlar tayyorgarligining ijobiy baholanishi o‘quv yurti obro‘sini oshiradi va o‘zaro ishonch tizimini mustahkamlaydi.

To‘rtinchidan, ta’lim xizmatlari sifati universitetning innovatsion salohiyati bilan chambarchas bog‘liq. Raqamli platformalar, loyihaviy va dual ta’lim, fikr-mulohaza tizimi, shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv yo‘nalishlari kabi zamonaviy texnologiyalarni joriy etayotgan universitetlar bozordagi o‘zgarishlarga tez moslashadi va raqobatbardoshligini oshiradi. Innovatsionlik raqobat ustunliklarini saqlab qoluvchi ichki mexanizmga aylanadi.

Shu omillar yig‘indisi shuni ko‘rsatadiki, ta’lim sifati bilan bog‘liq boshqaruv jarayonlari universitetlar uchun strategik asos bo‘lishi lozim. Hozirgi sharoitda ta’lim xizmatlari sifati universitetning “nomoddiy aktivi” sifatida uning barqarorligi va jozibadorligini belgilab bermoqda.

Tahlil natijalari ta’lim xizmatlari sifati va universitet raqobatbardoshligiga eng kuchli ta’sir ko‘rsatuvchi omillar guruhini ajratish imkonini berdi:

- ✓ Kadrlar salohiyati va o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasi. Yuqori malaka, ilmiy faollik, pedagogik madaniyat va motivatsiya sifatni ta’minlovchi asosiy omillardir.
- ✓ O‘quv dasturlarining dolzarbligi va moslashuvchanligi. Mehnat bozoridagi o‘zgarishlarga tez moslashuvchi dasturlar bitiruvchilarning bandligini oshiradi. Kompetensiyaga asoslangan yondashuv, amaliy topshiriqlar va amaliyotlar o‘qitishning hayotiy ahamiyatini ta’minlaydi.
- ✓ Innovatsion ta’lim texnologiyalari. LMS tizimlari, masofaviy va gibrid o‘qitish, virtual haqiqat texnologiyalari ta’lim jarayonini samarali qiladi.

✓ Boshqaruv jarayonlari sifati. TQM, ISO 9001 va EFQM kabi sifat menejmenti tizimlari doimiy takomillashtirish madaniyatini shakllantiradi.

✓ Xalqaro hamkorlik va akademik mobillik. Qo‘shma dasturlar, ikki diplomli ta’lim, xalqaro reytinglarda ishtirok universitetning global nufuzini oshiradi.

✓ Ilmiy tadqiqotlar va innovatsion ekotizim. Ilmiy laboratoriyalar va grantlar ta’lim va ilmiy faoliyatni integratsiyalashga xizmat qiladi.

✓ Ijtimoiy va korporativ madaniyat. Ishonch, hurmat va akademik halollik muhitining mavjudligi talabalar motivatsiyasini kuchaytiradi.

✓ Ish beruvchilar va bitiruvchilar bilan aloqalar. Doimiy hamkorlik dasturlarni mehnat bozori ehtiyojlariga yaqinlashtiradi, faol bitiruvchilar esa universitet elchilariga aylanadi.

Ushbu omillar yig‘indisi universitetga uzoq muddatli raqobat ustunliklarini ta’minlovchi barqaror sifat tizimini shakllantiradi.

Tadqiqot shuni ham ko‘rsatdiki, raqamli transformatsiya oliy ta’lim sifatida hal qiluvchi omilga aylandi. Raqamli texnologiyalar endi faqat optimallashtirish vositasi emas, balki ta’lim mazmuni, shakli va metodlarini tubdan yangilaydigan mexanizmga aylandi.

Tahlil natijalaridan kelib chiqib quyidagi xulosalar ishlab chiqildi:

Ta’lim xizmatlari sifati universitet raqobatbardoshligining ajralmas qismi bo‘lib, u talabalarni jalb qilish, professor-o‘qituvchilarni ushlab turish va mehnat bozori ehtiyojlarini qondirish qobiliyatini belgilaydi.

Yuqori sifat uchta komponent – sharoit, jarayon va natija – uyg‘unligida shakllanadi.

Universitet raqobatbardoshligi sifat tizimi faoliyatining integral natijasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Raqamlashtirish, xalqaro hamkorlik va kompetensiyaga asoslangan yondashuv sifatni ta’minlashning strategik yo‘nalishlariga aylandi.

Universitetning barqaror raqobat ustunligi faqat javobgarlik, shaffoflik va uzluksiz takomillashtirish tamoyillariga asoslangan sifat madaniyati mavjud bo‘lgandagina ta’minlanadi.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari ta’lim xizmatlari sifatini oshirish alohida bo‘linmalar vazifasi emas, balki universitetning global ta’lim maydonidagi raqobatbardoshligini belgilaydigan strategik missiyasidir, degan xulosani tasdiqlaydi.

Abdilaxatov Zafar Abdigafirovich – *SamISI*
Jismoniy madaniyat kafedrasi o‘qituvchisi

YASHIL TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TALABA YOSHLAR BILAN SPORT – SO‘G‘LOMLASHTIRISH TURIZM MASHG‘ULOTLARNI O‘TKAZISH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: mazkur tezisda talaba yoshlar bilan sport-sog‘lomlashtirish turizm mashg‘ulotlarini tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari, xususan yashil texnologiyalarni qo‘llash orqali ekologik madaniyatni rivojlantirish masalalari

yoritiladi. Sport-turizm faoliyatida energiya samarador vositalardan foydalanish, xavfsiz marshrutlar yaratish va ekologik izni kamaytirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqiladi. Shuningdek, sog‘lom turmush tarzi orqali inson kapitalining rivojlanishi va yashil iqtisodiyot uchun zarur kompetensiyalar shakllanishi tahlil etilgan. Tadqiqot natijalari talabalarda ekologik mas’uliyat va barqaror rivojlanish tamoyillariga uyg‘un sport-turizm faoliyatini yo‘lga qo‘yishning amaliy asoslarini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: sport turizmi, sog‘lomlashtirish, yoshlar, yashil texnologiyalar, ekologiya, barqarorlik, energiya samaradorligi, inson kapitali, turizm marshruti, ekologik madaniyat, innovatsiya, xavfsizlik.

Zamonaviy ta’lim tizimida talaba yoshlarning jismoniy faolligini oshirish, ularda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va ekologik ongni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Sport-sog‘lomlashtirish turizmi talabalarning jismoniy rivoji, psixologik barqarorligi va jamoadagi ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qiluvchi eng samarali vositalardan biri sanaladi.

Bugungi kunda barqaror rivojlanish konsepsiyasi, yashil iqtisodiyot va ekologik xavfsizlik talablariga mos ravishda sport-sog‘lomlashtirish tadbirlarida yashil texnologiyalarni joriy qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Sport-sog‘lomlashtirish turizmi quyidagi yo‘nalishlarda talabalarning barkomol rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi:

- jismoniy tayyorgarlikni rivojlantiradi;
- stressga bardoshlilikni kuchaytiradi;
- ekologik dunyoqarashni shakllantiradi;
- ijtimoiy moslashuvchanlik va liderlik sifatlarini rivojlantiradi;
- sog‘lom turmush tarzini odat sifatida qaror toptiradi.

Turizm mashg‘ulotlari – piyoda yurish, ekologik sayrlar, tog‘ sayrlari, veloturizm, suzish va qishki sport turlari – talaba yoshlar o‘rtasida sog‘lom faollikni keng rivojlantiradi.

Sport turizmini tashkil etishda yashil texnologiyalarning o‘rni beqiyos. Talabalar bilan o‘tkaziladigan har bir sayohat, marshrut yoki mashg‘ulot ekologik talablarga mos rejalashtirilishi lozim. Bu jarayonda quyidagi yashil texnologiyalar samarali hisoblanadi:

1. Quyosh energiyasida ishlaydigan qurilmalar (fonar, powerbank, suv isitgich).
2. Bio-degradatsiyalanadigan anjomlar (bir martalik idishlar, qadoqlash vositalari).
3. Suvni tejovchi filtrlash tizimlari (portativ filtrlar, tozalovchi kapsulalar).
4. GPT (Global pozitsiyalash tizimi) va raqamli xavfsizlik texnologiyalari - xavfsiz marshrut nazorati.
5. Atrof-muhit monitoringi uchun dron va mobil ilovalar.
6. Qayta ishlanadigan materiallardan tayyorlangan sport anjomlari.

Bu texnologiyalar ekologik zararlarni kamaytirish, chiqindilarni boshqarish va tabiatga ehtiyotkor munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Talabalarga sport–sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlarini o‘tkazishda ekologik talablarga mos tashkil etish муҳим аҳамиятга эга. Talaba yoshlar bilan mashg‘ulotlar quyidagi **tamoyillarga** asoslanishi kerak:

- “Tabiatga zarar yetkazmaslik" tamoyili. Har bir mashg‘ulotda chiqindi kamaytirish, suvdan tejamkor foydalanish, yo‘llarni buzmaslik kabi ekologik normalarga amal qilish zarur.
- Yashil transportdan foydalanish. Velosiped, elektro-skuter, elektromobil yoki jamoat transporti orqali marshrutga chiqish.
- Ekoturizm elementlarini integratsiya qilish. Tabiatni muhofaza qilish, flora va fauna bilan ehtiyotkor muomalada bo‘lish, hudud ekologik holatini kuzatish.
- Sog‘lom ovqatlanish madaniyatini targ‘ib etish. Organik, kimyoviy moddalarsiz yetishtirilgan oziq-ovqat iste’moli; qayta ishlanadigan idishlardan foydalanish.
- Talabalarda ekologik ongni kuchaytirish. Marshrut davomida ekologik ma’rifat, chiqindi saralash, tabiiy resurslar ahamiyati haqida suhbatlar o‘tkazish.

Yashil texnologiyalarni turizm mashg‘ulotlariga integratsiya qilish talaba yoshlarning ekologik mas’uliyatini, sog‘lom hayot tarzini shakllantirishini, jismoniy salohiyatini, ijtimoiy faolligini, sog‘lom psixologik iqlimini, tadbirkorlik va innovatsion tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bu jarayon natijasida jamiyatda sog‘lom, ekologik ongli, innovatsion salohiyatga ega, yuqori inson kapitaliga ega yoshlar shakllanadi.

Xulosa. Talaba yoshlar bilan sport-sog‘lomlashtirish turizmi mashg‘ulotlarini o‘tkazish nafaqat jismoniy salomatlikni mustahkamlaydi, balki ekologik ong va yashil tafakkurni rivojlantirishning samarali vositasidir. Yashil texnologiyalarni mashg‘ulotlar jarayoniga keng tatbiq etish barqaror rivojlanish tamoyillariga to‘liq mos bo‘lib, yoshlarning innovatsion fikrlashi, salomatligi va inson kapitali o‘sishiga ijobiy hissa qo‘shadi.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Абдурахмонов Қ.Х. Ёшлар саломатлиги ва жисмоний тарбия асослари. – Тошкент: Маънавият, 2020. – 212 б.

2. Носиров А., Сафаров Р. Спорт туризми назарияси ва амалиёти. – Самарқанд: СамДУ нашриёти, 2021. – 185 б.

3. Рахимов И. Экологик туризм ва барқарор ривожланиш. – Тошкент: Университет, 2019. – 240 б.

4. Hasanov, B. Green Technologies in Sport and Tourism. – Tashkent: Innovation Press, 2022. – 176 p.

5. Sharipov U. Inson kapitali va barqaror rivojlanish tamoyillari. – Тошкент: Iqtisodiyot, 2021. – 198 б.

6. World Tourism Organization. Sport Tourism and Sustainability. – Madrid: UNWTO Publishing, 2020. – 154 p.

7. OECD. Human Capital for Green Growth. – Paris: OECD Publishing, 2019. – 112 p.

Tangirov Davlat Tug'ilovich – *SamISI*
Jismoniy madaniyat kafedrasi o'qituvchisi

YASHIL TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA SPORTCHI YOSHLARNING TO'G'RI OVQATLANISH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: mazkur tezisda sportchi yoshlarning to'g'ri ovqatlanish qoidalarini shakllantirishda yashil texnologiyalardan foydalanish, ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va sog'lom turmush tarzini targ'ib etishning inson kapitali rivojlanishiga ta'siri yoritilgan. Yashil qishloq xo'jaligi, energiya tejamkor oziq-ovqat sanoati hamda ekologik xavfsiz mahsulotlarni iste'mol qilish sportchi yoshlarning salomatligi va jismoniy tayyorgarligini optimal darajada qo'llab-quvvatlashi ilmiy asoslar bilan bayon etilgan.

Kalit so'zlar: yashil texnologiyalar, inson kapitali, sportchi yoshlar, ekologik toza oziq-ovqat, sog'lom ovqatlanish, barqaror rivojlanish, vitaminlar, sport dietasi.

Bugungi kunda sog'lom avlodni tarbiyalash, jismoniy va intellektual salohiyatni yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Sportchi yoshlarning to'g'ri ovqatlanishi — ularning jismoniy rivoji, mushak massasining shakllanishi, tiklanish jarayonlari va sport natijalarini belgilovchi asosiy omildir. Shu bilan birga, global miqyosda ekologik xavfsizlik, resurslardan oqilona foydalanish, yashil texnologiyalarni joriy etish jarayoni jadal rivojlanmoqda.

Sportchi yoshlar iste'mol qiladigan oziq-ovqatning ekologik tozaligi, vitamin-mineral tarkibi va ishlab chiqarish zanjirining barqarorligi inson kapitalini rivojlantirishning muhim bo'g'inlaridan biri sifatida qaralmoqda.

To'g'ri ovqatlanish – sportchi yoshlarning jismoniy salomatligi asosi. Sportchi yoshlar uchun ovqatlanish tizimi quyidagilarga asoslanadi:

- oqsillar – mushak to'qimalarini mustahkamlash va tiklanish uchun;
- murakkab uglevodlar – energiyaning asosiy manbai;
- foydali yog'lar – gormonal muvozanat uchun;
- vitamin va minerallar – immunitet va metabolizmni qo'llab-quvvatlash uchun;
- toza ichimlik suvi – gidratatsiya va issiqlik almashinuvini nazorat qilish uchun.

Ammo bugungi kunda sportchi yoshlarning ovqatlanishi nafaqat biologik balans, balki ekologik xavfsizlik bilan ham chambarchas bog'liq.

Yashil texnologiyalarning sportchi yoshlar ovqatlanishidagi o'rni. Yashil texnologiyalar sportchi yoshlar iste'mol qiladigan oziq-ovqat mahsulotlarini sifatli va xavfsiz yetishtirish va yetkazib berishda muhim rol o'ynaydi. Жумладан:

- *Agrotexnologiyalar:* pestitsidsiz, organik o'g'itlar asosidagi ekologik toza mahsulotlar yetishtirish.
- *Akvaponika va gidroponika tizimlari*: minimal suv sarfi bilan toza sabzavot yetishtirish.
- *Energiya tejamkor oziq-ovqat qayta ishlash*: mahsulotning tabiiy vitaminlarini saqlaydi.

➢ *Qayta ishlanadigan qadoqlash texnologiyalari*: ekologik ifloslanishni kamaytiradi.

➢ *Raqamli monitoring*: oziq-ovqatning saqlanish, transport va sifat darajasini nazorat qilish.

Bunday texnologiyalar orqali bolalarning organizmiga zararli moddalar tushishi kamayadi, bu esa sog‘lom avlodni shakllantirishga xizmat qiladi.

Ekologik toza ovqatlanish va inson kapitalining rivojlanishi. Yoshlarda ekologik ongni rivojlantirish – inson kapitalining muhim tarkibiy qismi. Sportchi yoshlarning to‘g‘ri ovqatlanish madaniyatiga quyidagilar kiradi:

- ekologik toza mahsulotlarni tanlash;
- “yashil” ishlab chiqarilgan oziq-ovqatni afzal ko‘rish;
- sog‘lom turmush tarziga rioya qilish;
- resurslarni tejash: isrof qilmaslik, qayta ishlash madaniyati.

Ekologik sog‘lom ovqatlanish sportchi yoshlarning:

✓ jismoniy ko‘rsatkichlari,

✓ psixologik tayyorgarligi,

✓ ta’limdagi muvaffaqiyati,

✓ kelajakdagi mehnat unumdorligi kabi inson kapitalining asosiy komponentlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Barqaror rivojlanish kontekstida sport dietasi. BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) sport sohasiga ham taalluqlidir. Sportchi yoshlar ovqatlanish tizimini barqaror rivojlanish talablari asosida shakllantirishda karbon izini kamaytiruvchi mahsulotlardan foydalanish, “yashil” qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga ustuvorlik berish, chiqindilarni kamaytirish, energiya tejamkor texnologiyalardan foydalanish katta ahamiyatga ega. Bu esa, o‘z navbatida, sport sohasida ekologik xavfsiz, sog‘lom va sifatli ovqatlanish tizimini yaratishga zamin bo‘ladi.

Xulosa. Sportchi yoshlarning to‘g‘ri ovqatlanish tizimi nafaqat ularning sport natijalari, balki kelajakdagi inson kapitali, salomatligi va intellektual rivojlanishi uchun ham asos bo‘lib xizmat qiladi. Yashil texnologiyalar asosida ishlab chiqarilgan ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlaridan foydalanish, energiya tejamkor oziq-ovqat sanoati va barqaror qishloq xo‘jaligi tizimlari orqali mamlakatda sog‘lom avlod va barqaror rivojlanish tamoyillariga erishish mumkin. Shunday qilib, “yashil sport ovqatlanishi” konsepsiyasi yoshlar salomatligini saqlash va inson kapitalini mustahkamlashning muhim vositasiga aylanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абдуллаев А. Жисмоний тарбия назарияси ва методикаси. – Тошкент: “Fan va texnologiya”, 2019. – 328 б.

2. Саидов Б., Шарипов Н. Спортчилар учун ovqatlanish asoslari. – Тошкент: “Sharq”, 2020. – 210 б.

3. Исмоилов Ш. Sport fiziologiyasi va sport dietologiyasi. – Тошкент: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2021. – 276 б.

4. Мирзаев Х. Барқарор ривожланиш ва яшил иқтисодиёт: назария ва амалиёт. – Тошкент: “Innovatsiya”, 2022. – 304 б.

5. Қодиров А., Рахимов И. Bolalar sportida ovqatlanish va tiklanish jarayonlari. – Самарқанд: “SamDU nashriyoti”, 2021. – 185 б.
6. Жабборов М. Yosh sportchilar salomatligi va ekologik omillar. – Тошкент: “Universitet”, 2019. – 198 б.
7. UzFAO. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida organik mahsulotlar ishlab chiqarish. – Тошкент: FAO O‘zbekiston vakolatxonasi nashri, 2021. – 140 б.
8. United Nations. Green Technologies for Sustainable Development. – New York: UNDP Publishing, 2018. – 160 p.
9. WHO. Nutrition for Children and Adolescents: Health Guidelines. – Geneva: WHO Press, 2019. – 112 p.

Obloberdiyeva Risolat Obloberdi qizi – *SamISI*
Jismoniy madaniyat kafedrasi o‘qituvchisi

GANDBOL BILAN SHUG‘ULLANUVCHI 12–14 YOSHLI O‘QUVCHILARNI TEZKOR-KUCH TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHDA YASHIL TEXNOLOGIYALAR OMILI

Annotatsiya: maqolada gandbol bilan shug‘ullanuvchi 12–14 yoshli o‘quvchilarning tezkor-kuch tayyorgarligini oshirishda zamonaviy ekologik yondashuvlar, yashil texnologiyalar va inson kapitalining samarali rivojlanish omillari o‘rganildi. Sport mashg‘ulotlarida energiya tejamkor qurilmalar, raqamli monitoring vositalari va ekologik xavfsiz sport maydonlaridan foydalanishning jismoniy tayyorgarlikka ta’siri tahlil qilindi. Yashil infratuzilmaning sog‘lom avlodni shakllantirishdagi ahamiyati ilmiy xulosalar orqali asoslab berildi.

Kalit so‘zlar: yashil texnologiyalar, inson kapitali, gandbol, tezkor-kuch sifati, ekologik infratuzilma, raqamli sport texnologiyalari, yosh sportchilar, barqaror rivojlanish.

Bugungi globallashuv sharoitida sport sohasida ham ekologik barqarorlik, energiya tejamkorlik va inson kapitali salohiyatini oshirish ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib bormoqda. Ayniqsa 12–14 yoshli sportchilar jismoniy rivojlanishining eng faollashgan bosqichida turib, ularning musobaqaga layoqatini oshirish bilan birga, ekologik xavfsiz muhitda mashg‘ulot o‘tkazish dolzarb hisoblanadi. Gandbol sportida tezkor-kuch sifatlari yetakchi jismoniy ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib, uni rivojlantirishda innovatsion, shu jumladan **yashil sport texnologiyalari** muhim o‘rin tutadi.

Yashil texnologiyalar va sport mashg‘ulotlari integratsiyasi. Yashil texnologiyalar – bu ekologik toza, energiya tejamkor, atrof-muhitga minimal salbiy ta’sir ko‘rsatadigan texnik vositalar bo‘lib, sport jarayonida ham keng qo‘llanilmoqda. Gandbol mashg‘ulotlari jarayoniga quyidagi yo‘nalishlar integratsiyasi yuqori samaradorlik beradi:

- energiya tejamkor yoritish tizimlari bilan jihozlangan sport zallari;
- tabiiy shamollatiladigan ekologik maydonlar;
- qayta ishlangan materiallardan tayyorlangan inventarlar;

- zararli emissiyasiz raqamli o‘lchov tizimlari (gps-trackerlar, smart-bandlar).

Bunday texnologiyalar sport maktablarining ekologik barqarorligini ta’minlash bilan birga, o‘quvchilarning sog‘lig‘i va mashg‘ulot samaradorligini oshiradi.

Tezkor-kuch tayyorgarligini oshirishning innovatsion ekologik yondashuvlari. 12–14 yoshli gandbolchilar uchun tezkor-kuch tayyorgarligi turli mashqlar orqali shakllanadi. Yashil infratuzilmadan foydalanish quyidagi afzalliklarni beradi:

- ekologik xavfsiz qoplamalar bolalarning bo‘g‘imlariga tushadigan bosimni kamaytiradi, mashg‘ulot jarayonini yengillashtiradi;
- raqamli monitoring texnologiyalari (pulsometriya, yugurish tezligini o‘lchash dasturlari) yordamida yuklama to‘g‘ri modellashtiriladi;
- quyosh energiyasida ishlaydigan trenajyorlar yoki energiya tejamkor “interaktiv devorlar” (fitness-wall) mashqlarni samarali qiladi;

Bu jarayonlar o‘quvchilar salomatligini mustahkamlash va jismoniy sifatlarni to‘g‘ri shakllantirish imkonini beradi.

Inson kapitali va ekologik sport tarbiyasi. Inson kapitalini rivojlantirish sport tizimida ikki asosiy yo‘nalishni qamrab oladi:

1. **Murabbiylar malakasi** – ekologik savodxonlik, sport texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalari.
2. **O‘quvchilarning ekologik madaniyati** – sog‘lom turmush tarziga, tabiatga hurmatga asoslangan sport tarbiyasi.

Gandbol mashg‘ulotlariga quyidagi komponentlarni kiritish inson kapitalini yuksaltiradi:

- energiya tejamkor sport madaniyati bo‘yicha mini-treninglar;
- mashg‘ulot vaqtida atrof-muhitni muhofaza qilish odatlarini shakllantirish;
- resurslardan oqilona foydalanish (inventar, suv, energiya).

Yashil sport infratuzilmasi va barqaror rivojlanish. Barqaror rivojlanish konsepsiyasiga muvofiq sport zallari va maktablarini ekologik talablarga moslashtirish quyidagi natijalarga erishishga imkon beradi:

- bolalarning jismoniy rivojlanishining yaxshilanishi;
- jarohatlar xavfining kamayishi;
- sport tizimida resurs tejalishi;
- ekologik ongli yangi avlod shakllanishi.

Bu esa yashil iqtisodiyotning tarkibiy qismi bo‘lgan yashil sport sohasining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa. 12–14 yoshli gandbolchilar tezkor-kuch tayyorgarligini oshirishda ekologik toza sport infratuzilmasi, energiya tejamkor texnologiyalar, raqamli moslamalar va murabbiylarning yashil kompetensiyalari muhim ahamiyatga ega. Yashil texnologiyalarni sport mashg‘ulotlariga integratsiya qilish nafaqat sport samaradorligini oshiradi, balki sog‘lom, ekologik ongli inson kapitalini shakllantirishda ham katta ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuv mamlakatimizda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абдуллаев А. Спорт тренировкаси назарияси ва методикаси. – Тошкент: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2019. – 312 б.

2. Исмоилов Ш. Жисмоний тарбия ва спорт физиологияси. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2020. – 280 б.

3. Саидов Б. Болалар спорт машғулотларида жисмоний сифатларни ривожлантириш асослари. – Тошкент: Universitet, 2021. – 256 б.

4. Маматқулов Р., Қодиров А. Гандбол: назария ва амалиёт. – Самарқанд: SamDU nashriyoti, 2020. – 198 б.

5. Муратов О. Ёш спортчиларда тезкор-куч сифатларини шакллантиришнинг инновацион усуллари. – Тошкент: Shark, 2018. – 174 б.

6. Назаров И. Спорт педагогикаси. – Тошкент: O‘zbekiston pedagogika nashriyoti, 2017. – 230 б.

7. Бекмурадов Ж., Ҳамидов А. Инсон капитали ва барқарор ривожланиш: назария ва амалиёт. – Тошкент: Iqtisodiyot, 2022. – 340 б.

8. Мирзаев Х. Барқарор ривожланиш ва яшил иқтисодиёт асослари. – Тошкент: Innovatsiya, 2021. – 290 б.

9. United Nations. Green Technologies and Sustainable Development. – New York: UNDP Publishing, 2019. – 145 p.

10. WHO. Physical activity and children health indicators. – Geneva: WHO Press, 2018. – 92 p.

11. European Handball Federation. Youth Handball Training Standards. – Vienna: EHF Publishing, 2020. – 110 p.

V SHO‘BA. YASHIL TEXNOLOGIYALARNI MOLIYALASHTIRISH MANBALARI KO‘LAMINI KENGAYTIRISHNING DOLZARB MASALALARI

Abdumalik Bektemirov - SamISI “Investitsiya va innovatsiyalar” kafedrasi mudiri, i.f.d., professor

YASHIL MOLIYA INSTRUMENTLARI ORQALI EKOLOGIK TOZA LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISHNING MILLIY MODELINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Аннотация: Мазкур мақолада экологик тоза лойиҳаларни молиялаштириш механизмларининг ўзига хос хусусиятлари, уларниг иқтисодий ўсишдаги ва экологик барқарорликни сақлашдаги аҳамияти очиб берилган. Жумладан “Яшил облигациялар”, **“**Yashil kreditlar va ekologik ssudalar”, ekologik investitsiya fondlar, Karbon bozori va karbon kreditlar ва уларнинг тадбиқи тўғрисида маълумотлар келтирилган.

Калит сўзлар: yashil iqtisodiyot, yashil texnologiyalar, yashil moliyalashtirish mexanizmlari, yashil moliya tizim, yashil obligatsiyalar, yashil kreditlar va ekologik ssudalar, ekologik investitsiya fondlari, karbon bozori va karbon kreditlari.

Hozirgi kunda jahon hamjamiyatining barqaror rivojlanishga erishishida ekologik muammolarni hal etish muhim o‘rin tutadi. Atrof-muhitning ifloslanishi, iqlim o‘zgarishi va tabiiy resurslarning cheklanganligi yangi iqtisodiy yondashuv – **yashil iqtisodiyot** konsepsiyasini vujudga keltirdi. Bu jarayonda **yashil texnologiyalar** ва **yashil moliyalashtirish mexanizmlari** hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekistonda ham oxirgi yillarda yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi qabul qilindi va yashil loyihalarni moliyalashtirish bo‘yicha qator tashabbuslar ilgari surilmoqda. Biroq milliy miqyosda barqaror ishlaydigan **yashil moliya tizimi**ni shakllantirishda hali yechimini kutayotgan muammolar mavjud.

Yashil moliya – bu atrof-muhitga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan, uglerod chiqindilarini kamaytiradigan va resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etishga yo‘naltirilgan moliyaviy faoliyatdir.

Uning asosiy instrumentlariga quyidagilar kiradi:

- Yashil obligatsiyalar (green bonds);
- Yashil kreditlar va ekologik ssudalar;
- Ekologik investitsiya fondlari;
- Karbon bozori va karbon kreditlari.

Barqaror rivojlanish va iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashishda moliyaviy resurslarni ekologik samarador loyihalarga yo‘naltirish muhim ahamiyatga ega. Shu munosabat bilan dunyoda **yashil moliya** tizimi tez sur’atlarda rivojlanmoqda. Yashil moliyaning asosiy instrumentlariga quyidagilar kiradi:

1. Yashil obligatsiyalar (Green Bonds). **Yashil obligatsiyalar – bu ekologik yo‘naltirilgan loyihalarni moliyalashtirish uchun chiqariladigan qarz qog‘ozidir. Investorlar ushbu obligatsiyalarni sotib olib, qayta tiklanuvchi energiya, suv tejamkor tizimlar, chiqindilarni qayta ishlash kabi loyihalarni qo‘llab-quvvatlaydilar.**

Uning asosiy yo‘nalishlari:

- quyosh va shamol energiyasi loyihalari;
- energiya tejamkor binolar qurilishi;
- iqlimga mos infratuzilmalarni yaratish;
- tabiiy resurslarni tejash va qayta tiklash.

Jahon amaliyotida 2007 yilda ilk bor yashil obligatsiyani Jahon banki (World Bank) chiqargan. 2023 yilga kelib jahon yashil obligatsiyalar bozori hajmi 2,5 trillion dollardan ortiq bo‘ldi. Bu sohada Fransiya, AQSH, Xitoy va Germaniya bu bozorda yetakchi mamlakatlardir.

2. Yashil kreditlar va ekologik ssudalar (Green Loans / Eco Loans). Yashil kreditlar – bu banklar yoki moliya institutlari tomonidan ekologik samarali, energiya tejaydigan yoki barqaror loyihalarni moliyalashtirish uchun ajratiladigan qarzlardir.

Uning maqsad va xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- korxonalarda energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish;
- ekologik tozalikni ta’minlovchi ishlab chiqarish jarayonlarini qo‘llab-quvvatlash;
- iqlimga salbiy ta’sirni kamaytirish.

Uning afzalliklarini past foiz stavkalari, soliqlardan imtiyozlar va xalqaro tashkilotlar bilan sheriklik imkoniyatlarining kengayishi bilan izohlash mumkin.

3. Ekologik investitsiya fondlari. **Ekologik investitsiya fondlari – sarmoyadorlar mablag‘larini faqat ekologik va barqaror rivojlanishga xizmat qiluvchi kompaniyalar yoki loyihalarga yo‘naltiradigan investitsiya institutlaridir.**

Asosiy faoliyat yo‘nalishlari:

- yashil energiya kompaniyalariga investitsiya;
- barqaror transport tizimlarini rivojlantirish;
- iqlim o‘zgarishiga qarshi texnologiyalarni moliyalashtirish.

Ekologik investitsiya fondlarining quyidagi turlari mavjud:

- investitsion pay fondlari (mutual funds);
- xususiy kapital fondlari (private equity);
- venchur fondlar – yashil startaplarni moliyalashtiradi.

Bugungi kunda jahonda Black Rock Global Impact Fund, Nordea Green Fund, Climate Investment Funds (CIF) kabi fondlar iqlim sohasidagi yirik loyihalarni qo‘llab-quvvatlamoqda.

4. Karbon bozori va karbon kreditlari (Carbon Market & Carbon Credits). Karbon bozori – bu chiqindilar (ayniqsa CO_2) miqdorini kamaytirish bo‘yicha xalqaro savdo tizimidir. Karbon krediti (carbon credit) – bu 1 tonna CO_2 chiqindisini kamaytirish yoki uni neytrallashtirish huquqini ifodalovchi moliyaviy birlikdir. Uning tamoyili kam chiqindi ishlab chiqargan kompaniya o‘z ortiq “chiqindi limitini”

boshqalarga sotishi mumkin. Bu orqali umumiy atmosferaga chiqindilar miqdori kamayadi.

Uning ikki asosiy turi mavjud:

1. Majburiy (compliance) bozori – Kioto protokoli va Parij kelishuviga asosan davlatlar ishtirok etadi.
2. Ixtiyoriy (voluntary) bozori – kompaniyalar o‘z ixtiyori bilan ekologik mas’uliyatni oshirish uchun karbon kreditlar sotib oladilar.

Jahonda EU ETS (European Union Emissions Trading System) – dunyodagi eng yirik karbon bozori hisoblanadi. 2024 yilda dunyoda karbon bozori hajmi 900 mlrd dollardan oshib ketgan.

Yashil obligatsiyalar, yashil kreditlar, ekologik investitsiya fondlari va karbon bozori kabi vositalar nafaqat moliyaviy foyda keltiradi, balki tabiatni asrash va barqaror rivojlanish maqsadlariga xizmat qiladi.

Dunyoda bu instrumentlar orqali trillionlab dollarlik sarmoyalar toza energiya, chiqindilarni qayta ishlash va suv resurslarini muhofaza qilish sohalariga yo‘naltirilmoqda.

Yashil kreditlar va ekologik ssudalar (Green Loans / Eco Loans). Bu sohada Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (EBRD) O‘zbekistonda “Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish tizimi – Green Economy Financing Facility (GEFF)” orqali yashil kreditlar ajratmoqda. Bu orqali mahalliy biznes subyektlari quyosh panellari, energiya tejamkor uskunalar sotib olish uchun imtiyozli kredit olishmoqda.

O‘zbekistonda yashil moliya tizimining hozirgi holati. O‘zbekiston Respublikasining “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” (2023–2030 yillar)da yashil moliya institutlarini rivojlantirish ustuvor vazifa etib belgilangan. Amaldagi tashabbuslardan ayrimlari:

- “Yashil bank” konsepsiyasini joriy etish bo‘yicha loyihalar;
- iqlim moslashuviga qaratilgan kredit liniyalari (masalan, EBRD va ADB orqali);
- qayta tiklanuvchi energiya manbalariga (Quyosh, shamol) investitsiyalar uchun soliq imtiyozlari;
- O‘zbekistonda faqatgina 2021 yilda ilk bor “yashil obligatsiyalar” Toshkent shahrida chiqarilganligi milliy moliya bozorida yashil obligatsiyalar va ekologik fondlar hali to‘liq shakllanmaganligini, o‘z navbatida bu moliyalashtirish manbalari cheklanganligini ko‘rsatadi.

Yashil moliyani joriy etishdagi asosiy **muammolar:**

- O‘zbekistonda faqatgina 2021 yilda ilk bor “yashil obligatsiyalar” Toshkent shahrida chiqarilganligi milliy moliya bozorida yashil obligatsiyalar va ekologik fondlar hali to‘liq shakllanmaganligini, o‘z navbatida bu moliyalashtirish manbalari cheklanganligini ko‘rsatadi;
- qonunchilikda yashil moliya instrumentlarining aniq huquqiy ta’rifi yo‘qligi;
- loyihalarning ekologik samaradorligini baholash metodologiyasining yo‘qligi;
- moliya institutlarining yashil moliya to‘g‘risida yetarli bilim va amaliyotga ega emasligi;
- xususiy sektorning faol ishtirok etmasligi.

Bu muammolarning yechimini topishda xorij tajribalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o‘rinda rivojlangan xorij mamlakatlarida bugungi kunda foydalanilayotgan modellarni ko‘rib chiqaylik:

- **Xitoy** – dunyodagi eng yirik yashil obligatsiyalar bozoriga ega. Davlat va xususiy sektor hamkorligi asosida “Green Finance Pilot Zones” tizimi joriy etilgan.
- **Yevropa Ittifoqi** – “EU Green Deal” doirasida yashil investitsiyalarni baholash uchun yagona **tasniflash** tizimi ishlab chiqqan.

Janubiy Koreya – “Green New Deal” dasturi orqali yashil infratuzilmani rivojlantirishda davlat kafolatli moliyalashtirishni joriy etgan.

Bu tajribalar O‘zbekiston uchun milliy modelni shakllantirishda asos bo‘lishi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O‘zbekistonda milliy yashil moliya modelini shakllantirish bo‘yicha quyidagi **t**akliflar berish mumkin:

1. Yashil moliya qonunchiligini takomillashtirish – yashil investitsiya va obligatsiyalar uchun huquqiy asos yaratish.
2. Yashil reyting tizimini joriy etish – loyihalarning ekologik ta’sirini baholash uchun milliy indikatorlar ishlab chiqish.
3. Yashil banklar va investitsiya fondlarini tashkil etish.
4. Davlat-xususiy sheriklik (PPP) asosida toza energiya, chiqindilarni qayta ishlash va transport sohalarida loyihalarni moliyalashtirish.
5. Yashil moliyaviy savodxonlikni oshirish – moliya muassasalari, tadbirkorlar va investorlar uchun o‘quv dasturlarini joriy etish.

Xulosa. Yashil moliya instrumentlarini rivojlantirish nafaqat iqtisodiy o‘sishga, balki ekologik barqarorlikka ham xizmat qiladi. O‘zbekistonda bu sohadagi ilk qadamlar tashlangan bo‘lsa-da, milliy modelni to‘liq shakllantirish uchun huquqiy, institutsional va moliyaviy asoslarni mustahkamlash talab etiladi. Shu yo‘sinda yashil texnologiyalarga investitsiyalar mamlakatning barqaror rivojlanish yo‘lida muhim omilga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2023 yil.
2. OECD (2023). Green Finance and Investment: Mobilising Capital for a Sustainable Future. Paris: OECD Publishing.
3. UNDP (2022). Green Economy Policy Assessment of Uzbekistan. New York: United Nations Development Programme.
4. European Investment Bank (2021). EU Taxonomy for Sustainable Activities. Luxembourg.
5. Asian Development Bank (2020). Financing Low-Carbon and Climate-Resilient Development. Manila.
6. Axmedov, Sh. B. Yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish asoslari. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. – 248 b. – B. 35–49.
7. Karimova, M. N. Ekologik investitsiyalar va yashil moliya instrumentlari. – Toshkent: TDIU nashriyoti, 2023. – 196 b. – B. 87–105.

8. Nazarov, I. SH. Innovatsion moliyalashtirish tizimida yashil obligatsiyalar roli // *Iqtisodiyot va innovatsiyalar jurnali.* – 2023. – №5. – B. 112–115

9. Mirzayev, F. A. Karbon bozori va uning milliy iqtisodiyotga ta’siri // *O‘zbekiston iqtisodiyotining zamonaviy muammolari.* – Toshkent, 2022. – №3. – B. 67–75.

10. United Nations Environment Programme (UNEP). Green Finance and Investment – New York: UN Publications, 2021. – P. 15–28.

11. OECD. Mobilising Green Investment: Green Bonds and Climate Finance – Paris: OECD Publishing, 2020. – P. 42–58.

12. World Bank. Green Bonds: Global Progress and Market Outlook – Washington, D.C.: World Bank Group, 2021. – P. 12–33.

13. Zelenko, A. V. Зелёные облигации как инструмент устойчивого финансирования // *Финансы и кредит.* – Москва, 2022. – №7 (823). – С. 98–111.

14. Hasanov, R. M. Яшил кредитлар ва экологик ссудаларнинг молиявий барқарорликка таъсири // *Молия ва бухгалтерия журнали.* – Тошкент, 2024. – №2. – Б. 54–63.

Абдумалик Бектемиров - *СамИСИ “Инвестиция ва инновациялар” кафедраси мудири, и.ф.д., профессор*

IQLIM O‘ZGARISHI SHAROITIDA YASHIL SUG‘URTA MAHSULOTLARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada iqlim o‘zgarishi sharoitida yashil sug‘urta mahsulotlari va ekologik yo‘naltirilgan investitsiyalarning ahamiyati va agrosug‘urta tizimini modernizatsiya qilish orqali investitsion risklarining ta’sir darajasini pasaytirish yo‘llari hamda xorij tajribalarini O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish orqali agrosug‘urta bozorining investitsion jozibadorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: iqlim o‘zgarishi, yashil sug‘urta mahsulotlari, ekologik yo‘naltirilgan investitsiyalar, ekologik xavfsizlik, ekologik javobgarlik, parametrik sug‘urta.

So‘nggi yillarda global miqyosda iqlim o‘zgarishi jarayonlari inson faoliyatining barcha sohalariga, xususan, qishloq xo‘jaligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Hosildorlikning pasayishi, suv resurslarining kamayishi va ekstremal ob-havo hodisalari qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari uchun yuqori risklar manbai bo‘lib bormoqda. Bunday sharoitda yashil sug‘urta mahsulotlari va ekologik yo‘naltirilgan investitsiyalar agrar sohada barqarorlikni ta’minlashning muhim vositasiga aylanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi”da iqlim o‘zgarishiga moslashish va barqaror rivojlanishni ta’minlash maqsadida moliyaviy sektorni, shu jumladan, agrosug‘urta tizimini modernizatsiya qilish vazifalari belgilangan.

Yashil sug‘urta – bu ekologik barqarorlikni ta’minlashga, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni rag‘batlantirishga hamda iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq risklarni kamaytirishga qaratilgan sug‘urta faoliyati turi hisoblanadi.

Uning asosiy maqsadi – iqtisodiy manfaatni ekologik xavfsizlik bilan uyg‘unlashtirish, ya’ni xo‘jalik yurituvchi subyektlarni ekologik toza texnologiyalar, suvni tejovchi tizimlar, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishga undashdir.

Yashil sug‘urta mahsulotlari nafaqat moliyaviy himoya beradi, balki “yashil investitsiyalarni” jalb etish mexanizmi sifatida ham xizmat qiladi.

Iqlim o‘zgarishining oqibatlari – qurg‘oqchilik, suv tanqisligi, kuchli shamollar, muz erishi, tuproq degradatsiyasi kabi hodisalar orqali namoyon bo‘ladi. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, Markaziy Osiyo mamlakatlarida haroratning o‘rtacha ko‘tarilishi 2050 yilga borib 2–3°C darajaga yetishi mumkin [5].

Bu holat O‘zbekistonda dehqonchilik risklarini oshirib, sug‘urta xizmatlariga talabni kuchaytiradi. Shuning uchun agrosug‘urta tizimini yashil yondashuv asosida rivojlantirish dolzarbdir.

Masalan, suvni tejovchi texnologiyalarni qo‘llaydigan fermerlarga pastroq sug‘urta tariflari taklif etish orqali ular rag‘batlantiriladi. Bu esa nafaqat iqlim xavfini kamaytiradi, balki ekologik samaradorlikni oshiradi.

Bugungi kunda xalqaro amaliyotda quyidagi turdagi yashil sug‘urta mahsulotlari keng qo‘llaniladi:

1. Iqlim risklarini sug‘urtalash (Climate Risk Insurance) – hosilga, suv tanqisligiga, sel, qurg‘oqchilik va bo‘ronlarga qarshi sug‘urta.
2. Ekologik javobgarlik sug‘urtasi (Environmental Liability Insurance) – korxona faoliyatidan atrof-muhitga yetkazilgan zararlarni qoplashga qaratilgan.
3. Yashil texnologiyalarni qo‘llovchi sug‘urta – qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanadigan xo‘jaliklar uchun imtiyozli shartlar.
4. Parametrik sug‘urta – ob-havo ma’lumotlariga asoslangan tezkor to‘lov tizimi.

O‘zbekiston uchun eng istiqbolli yo‘nalish – parametrik agrosug‘urta bo‘lib, bu sun’iy yo‘ldosh ma’lumotlari asosida ob-havo risklarini baholashga imkon beradi.

Yashil sug‘urta tizimi rivojlangan davlatlarda davlat, xususiy sektor va xalqaro moliya institutlari hamkorligida yo‘lga qo‘yilgan.

- **Germaniya**da “Green Insurance Initiative” dasturi asosida sug‘urta kompaniyalari ekologik risklarni kamaytiruvchi faoliyatni kredit va grantlar orqali qo‘llab-quvvatlaydi.
- **Yaponiya**da esa “Eco-Insurance” modeli joriy etilgan bo‘lib, kompaniyalar ekologik faol korxonalarni past riskli toifaga kiritadi.
- **Hindiston** va **Filippin**da “parametrik sug‘urta” tizimi orqali qurg‘oqchilik va sel xavfidan zararni tezkor qoplash mexanizmlari joriy etilgan.

Mazkur tajribalarni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish orqali agrosug‘urta bozorining investitsion jozibadorligini oshirish mumkin.

Mamlakatimizda 2021-yilda “Agrosug‘urta kompaniyasi” faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Bu sektor hali yangi bo‘lsa-da, quyidagi muammolar mavjud:

- sug‘urta tariflarining yuqoriligi va ekologik mezonlar bo‘yicha differensiallashmaganligi;
- fermerlarning sug‘urta madaniyatining pastligi;
- yashil texnologiyalarni baholash mezonlarining aniq belgilanmaganligi;
- investitsiyalar uchun kafolat mexanizmlarining sustligi.

Shu boisdan, davlat tomonidan yashil sug‘urta fondlarini shakllantirish, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish, va raqamli tahlil tizimlarini joriy etish zarur.

Yashil sug‘urta tizimini rivojlantirishning asosiy natijalari quyidagilardan iborat:

- fermer xo‘jaliklari moliyaviy barqarorligini oshirish;
- iqlim xavfini kamaytirish va ekologik barqarorlikni ta’minlash;
- yashil texnologiyalarni moliyalashtirish orqali resurslardan tejamkor foydalanish;
- sug‘urta kompaniyalari uchun yangi investitsion yo‘nalishlar yaratish;
- xalqaro “yashil moliyaviy bozorlarga” chiqish imkoniyatini kengaytirish.

Xulosa va takliflar. Yashil sug‘urta tizimini rivojlantirish O‘zbekistonning barqaror rivojlanish strategiyasi doirasida muhim ahamiyatga ega.

Takliflar:

1. Agrosug‘urta kompaniyalari faoliyatiga ESG (Environmental, Social, Governance) mezonlarini joriy etish.
2. Sug‘urta tariflarini ekologik samaradorlik darajasi asosida differensiallash.
3. Xalqaro moliya institutlari ishtirokida yashil sug‘urta fondi tashkil etish.
4. Yashil sug‘urta bo‘yicha raqamli axborot platformasi yaratish.
5. Yashil sug‘urta va yashil kredit o‘rtasida integratsion moliyaviy mexanizmlarni yo‘lga qo‘yish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4477-son qarori. “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”. – 2022-yil.
2. Ахмедов, Ш. Бизнес ва жамият: назария ва амалиёт. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020. – 320 б. – Б. 112–128.
3. Porter, M. Green Competitiveness in the 21st Century. – Harvard Business Review, 2021. – P. 45–60.
4. OECD. Green Finance and Insurance in Emerging Economies. – Paris: OECD Publishing, 2022. – 156 p.
5. World Bank Report. Climate Risk and Agricultural Insurance in Central Asia. – Washington DC, 2023. – P. 25–49.
6. FAO. Sustainable Agricultural Insurance Mechanisms. – Rome, 2021. – P. 10–35.

Axrorov Zarif Oripovich - *Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali professor v.b., i.f.d.,*

FOYDA SOLIG‘INING IQTISODIY BARQARORLIK VA INVESTITSIYA JARAYONLARIGA TA’SIRI

Annotatsiya. Maqolada iqtisodiyotning globallashuvi sharoitida foyda solig‘ining mohiyati, uning iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyati hamda soliq tizimini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda foyda solig‘ining davlat byudjeti barqarorligini ta’minlashdagi roli, korxonalar moliyaviy natijasiga va investitsiya jarayonlariga ta’siri tahlil qilingan. Ilmiy adabiyotlar tahlili asosida foyda solig‘ining iqtisodiy kategoriya sifatidagi mohiyati ochib berilgan hamda uni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Foyda solig‘i, soliq tizimi, soliq siyosati, moliyaviy natija, davlat byudjeti, investitsiya jarayonlari.

Iqtisodiyotni globallashuvi sharoitida moliyaviy barqarorlikni ta’minlash va jahon bozoriga chiqish, iqtisodiyotni jahon darajasiga ko‘tarish va tashqi ta’sirlarga tura olish uchun uning barqarorligini oshirish bir qator vazifalarni hal qilishni taqozo etadi. Bular, birinchidan, biznes muhitini yaxshilash, ikkinchidan, soliq tizimining barqaror amal qilishini ta’minlash, uchinchidan, soliqqa tortish sohasida ishonchli huquqiy asoslarni shakllantirishni davom ettirish hisoblanadi.

Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash tadbirkorlikni diversifikatsiyalashning markaziy qismi hisoblanadi. Aynan tadbirkorlik iqtisodiyotni modernizatsiyalash harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Shu boisdan, tadbirkorlikni soliqqa tortishni takomillashtirish iqtisodiy rivojlanishning istiqbolli yo‘nalishi bo‘lishi lozim.

Tadbirkorlik sub’ektlari moliyaviy natijasi muhim sanalgan holda uni soliqqa tortish tizimini takomillashtirish barcha davrlarda va barcha davlatlarda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Hozirgi kunda turli mulk shaklidagi xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning asosiy maqsadi kamroq xarajat qilgan holda maksimal foyda olishga harakat qilishdir. Shu bilan birga, korxona to‘lov intizomi mustahkam bo‘lsa, byudjetga o‘z vaqtida soliqlarni to‘lab har bir jarimalardan qochishga intiladi va soliqlarni o‘z vaqtida byudjetga to‘laydi.

Foyda tijorat asosida faoliyat yuritayotgan xo‘jalik sub’ektlarining so‘nggi moliyaviy natijasi bo‘lishi bilan birga, respublika va mahalliy byudjetlar daromadining asosiy moliyaviy manbalaridan biri hisoblanadi [1, 54 b.]. Narxlar barqaror bo‘lganda foyda dinamikasining o‘sishi korxonaning samarali faoliyat yuritayotganligidan dalolat beradi. Foyda hajmining o‘sishi korxonaning moliyaviy qudrati, ishlab chiqarish va ijtimoiy sohani rivojlantirish fondini tashkil etish hamda ishchi-xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

B.Abdukarimov foydani murakkab iqtisodiy kategoriyalardan biri sifatida e’tirof etib, u asosan qo‘shimcha qiymat yaratish va ishlatish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlarni ifodalaydi deb ta’kidlaydi [2].

S.S. Alieva foydani tadbirkorlik faoliyati xizmatlari uchun to‘lov, ya’ni aynan tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish uchun resurslarni mohirona birlashtirishi, korxona boshqarish bo‘yicha noodatiy qarorlar qabul qilishi, mahsulotlarning innovatsion turlarini joriy qilishi, ishlab chiqarish jarayonini o‘zgartirishi uchun, shuningdek iqtisodiy risk uchun mukofot sifatida e’tirof etadi [3, 9-10 b.].

Nemis iqtisodchisi E.F. Sheffle foydani investitsiya qilingan kapital qaytimi sifatida talqin etgan bo‘lsa [4, 26 b.], N.V. Milyakov foydani korxona byudjetini shakllantirishning muhim manbasi va bu manba hisobidan ishlab chiqarish va ijtimoiy rivojlanish amalga oshirilishini aytib o‘tadi [5, 72 b.].

Turli mamlakatlarda yuridik shaxslarning moliyaviy natijalaridan undiriladigan soliqlar mavjud. Ammo shuni alohida ta’kidlash joizki, har bir mamlakat soliqlarni undirishda o‘zining ichki siyosatiga amal qilgan holda yoki tarmoqlar iqtisodiyotidagi sohalarning davlat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o‘rnidan kelib chiqqan holda ish yuritadi. Korxonalar moliyaviy natijasining soliqqa tortishda yagona yondoshuv mavjud emas.

Soliq qonunchiliklaridagi o‘zgarishlar uning nomlanishiga ham ta’sir qildi. Foyda solig‘i daromad solig‘i, daromad (foyda) solig‘i, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i nomlari bilan ham ataldi. Bugungi kunda soliq qonunchiligiga muvofiq, foydani soliqqa tortishda foyda solig‘i amalda o‘z mexanizmiga ega.

Ko‘pchilik singari D.Mardiasmo ham, foyda solig‘ini foyda bilan bog‘laydi. U foyda solig‘i qonunchilikda ko‘rsatilgan sub’ektiv shartlar va ob’ektiv talablarga rioya qilingandagi soliq to‘lovchilardan olinadi deb fikr keltiradi [6].

Korxonalar foyda solig‘ining mohiyati foydaning bir qismini majburiy to‘lov sifatida davlat byudjetiga markazlashtirilishida yuzaga keladigan munosabatlarda namoyon bo‘ladi. Shu munosabat bilan “foyda solig‘i” tushunchasiga quyidagi taklif shakllantirildi: “foyda solig‘i deganda korxona, tashkilot va birlashmalarda yaratilgan qo‘shimgan qiymatning bir qismi foydani qonun doirasida belgilangan chegaralarda majburiy to‘lov sifatida davlat byudjeti ixtiyoriga o‘tkazilishi bilan bog‘liq pul munosabatlari tushuniladi” [7, 117 b.].

Foyda solig‘i korxonaning oxirgi moliyaviy natijariga bog‘liqligi sababli korxona investitsion jarayonlari va kapitalni o‘sishi jarayoniga ta’sir ko‘rsatadi. Korxonalar uchun foyda solig‘i asosiy soliq turi hisoblanadi.

Amaliyotda soliq qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda foyda solig‘i deganda korxona, tashkilot va birlashmalarning ishlab chiqarish faoliyatidan qo‘lga kiritilgan foydasidan tashqari qimmatli qog‘ozlar operatsiyalarida (aksiya, obligatsiyalarini chiqarish va joylashtirishdan olgan devidentlar yeki foizlar kurinishidagi daromadlar) daromadlar, shuningdek boshqa korxonalar faoliyatiga katnashishdan kulga kiritilgan daromadlar xam etiborga olinadi. Umuman foyda solig‘i tushunchasi korxona, tashkilot va birlashmalar foydasining markazlashgan foyda (daromad)lar yigindisining bir qismini markazlashtirilishi bilan bog‘liq munosabatlarida ham o‘z aksini topmoqda. Bu esa foyda soliq munosabatlarini amal qiluvchi qonunlardan kelib chiqqan holda mazmunan takomillashtirilib turishini taqozo etadi.

Shunday kilib, foyda solig‘ining mohiyatini tushunish maqsadida foyda soliq munosabatiga taalluqli uch xususiyatga ega bo‘lmish pul mablag‘larining strategik harakatiga diqqatni qaratish zarur:

1. Soliq to‘lovchi o‘z foydasining bir qismini foyda solig‘i sifatida davlat byudjetiga to‘lar ekan, buning evaziga u davlatdan shunga teng biron bir tovar yoki xizmat olmaydi. Umuman to‘langan foyda solig‘i soliq to‘lovchining davlatdan oladigan mablag‘lari o‘rtasidagi bevosita bog‘liqlikda yuzaga kelmaydi. Xuddi anashu xususiyatga ko‘ra foyda solig‘i narxdan ruxsatnoma (litsenziya)lar va vositachilik yigimlaridan farq kiladi, chunki bular o‘ziga xos majburiy yoki ixtiyoriy to‘lov hisoblanadi, birok xamma vaqt davlat tamonidan ko‘rsatilgan xizmatdan muayyan foyda ko‘rilishi bilan bog‘liqdir. Har bir sub’ekt soliq to‘lovchi sifatida odatda jamiyat va o‘zining ko‘rgan foydasi yoki manfaatini to‘lagan soliqlar bilan baholab ololmaganligi tufayli, ular tamonidan ayrim xollarda soliqlar to‘lashdan buyin tovlashga yoki o‘z foydalarini yashirish xollariga olib kelmokda. Bunday holatlar aniqlanib bunday shaxslarga nisbatan ma’muriy choralar kurilsada xam davlat yigib olingan foyda solig‘ining ahamiyatini oshkora va samarali tarzda ishlatsa hamda soliq to‘lovchilarning aksariyat qismi davlatning iqtisodiy-ijtimoiy va boshqa dasturlarining ahamiyatini tushingan holda o‘z mablag‘lari hisobidan majburiy soliqlarini to‘laganliklarida soliq axlokini yuksak tamoyili barqarorlashgan bular edi.

2. Foyda solig‘i majburiy to‘lov sifatida to‘la va o‘z vaqtida davlat byudjetiga to‘lanishi uchun javobgarlik soliq to‘lovchilar zimmasiga yuklangan. Shuning uchun xam javobgarlik foyda solig‘ining to‘lanishida, uning to‘lovchisiga majburiy ma’sulyatni yuklaydi.

3. Davlat tamonidan foyda solig‘ining markazlashtirilishi orqali davlat byudjetining eng asosiy daromad qismi belgilangan miqdorlarda ta’minlanadi. Shu sababli o‘ziga xos pul mablag‘larining harakati doirasida foyda solig‘ini to‘lashga monand bo‘lish soliq munosabatining yuksak darajasida yuzaga keladi.

Ta’kidlanishicha, to‘g‘ri soliq miqdorining yuqori bo‘lishi iqtisodiyotning bir tekisda barqaror rivojlanishidan darak beradi [8, 63 b.]. To‘g‘ri soliqlar tarkibida foyda solig‘i asosiy o‘rinni egallaydi.

Foyda solig‘i mohiyatini shu tartibda yoritar ekanmiz, uni foyda solig‘i doirasidagi munosabatlar nuktai nazardan o‘rganish muhimdir. Foyda solig‘i o‘z mohiyatiga ko‘ra davlat byudjeti va xuquqiy shaxslar o‘rtasidagi munosabatlarni ifodalaydi. Foyda solig‘ining iqtisodiy mohiyatinin ochayotganda, uni kat’iy, doimiy takrorlanib turadigan vokelik, ya’ni iqtisodiy vokelik deb qarash zarur. Demak, foyda solig‘i bu moliyaviy kategoriyadir. Foyda solig‘ida doimiy, qaytarilib turadigan moliyaviy, ya’ni pul munosabatlaridir. Ana shu pul munosabatlarining mazmunini yechish orqali foyda solig‘ining mohiyati yoritilishi mumkin. Shuni alohida ta’kidlash joizkim, foyda solig‘i xamma pul munosabatlarini emas, balki soliq ob’ekti bulmish foyda (daromad)ni taqsimlash, qayta taqsimlashdagi pul munosabatlarini ifodalaydi.

Foyda solig‘ining mohiyatini yechishda uning eng avvalo majburiy to‘lov ekanligini ko‘rsatib o‘tish zarur. To‘g‘ri, foyda solig‘i munosabatlarida majburiylik mavjud, bu majburiylik demokratiyaning oliy timsoli bo‘lmish parlament qarori, ya’ni qonun bilan kiritiladi, davlatning qattiq talabi e’tiborga olinadi. Demak, foyda

solig‘idagi majburiylik xuquqiy demokratik me’yorlar asosida Oliy Majlis tomonidan kiritiladi.

Qolaversa, foyda solig‘i mazmunida uzoq muddatga mo‘ljallangan majburiy pul harakatiga mansub munosabatlar yotadi.

Foyda solig‘ining mohiyatini yechishda uning eng demokratik to‘lov ekanligiga e’tiborni xam qaratish kerak Chunki bozor iqtisodiyoti sharoitida xilma-xil mulk shaklidagi korxonalar, birlashmalar va tashkilotlarning foydasini davlat to‘g‘ridan-to‘g‘ri soliqsiz majburiy to‘lov kilib ola olmaydi. Kolaversa davlat xilma-xil mulk shaklidagi korxona va tashkilatlarning foydasidan byudjetga daromad olish uchun Oliy Majlis tasdiqlab bergan foyda solig‘idan foydalanadi. Demak, foyda solig‘i soliq munosabatlarining o‘ziga xos mustaqil tarkibiy qismidir. Uning amal qilishi demokratik asosda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xuquqiy munosabatlar bilan bog‘liqdir. Shunday kilib, foyda solig‘i pul munosabatini ifoda etib, bu munosabatlarda bir tamonda davlat va ikkinchi tomonda soliq to‘lovchilar, ya’ni korxona birlashma va tashkilotlar turadi.

Foyda solig‘ini ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotdagi o‘rni va ahamiyati xam benihoya kattadir.

Birinchidan, foyda soliq ob’ektining imtiyozlar orqali tartibga keltirish soliq to‘lovining o‘ziga bog‘liq kilib quyilganligi, korxonalarni mahsulot ishlab chiqarish hajmi utgan yilga nisbatan oshirishga sifatli mahsulot (tovar) ishlab chiqishga undaydi. Qo‘lga kiritilgan va korxona balansidagi foyda noo‘rin sarflashni qisqartiradi va to‘g‘ridan-to‘g‘ri kaytim bermaydigan xo‘jalik tarmoqlariga investitsiyani kengaytiradi, uni tez ishga solishga imkoniyat tug‘dirmokda.

Ikkinchidan, foyda solig‘i korxonalarning mablag‘larini uy-joy kurilishiga sarflashga va ularni eksport hajmini oshirishdan foyda olishga kiziktiradi. Chunki bunday foydalarning soliqdan ozod etish korxonaning moliyaviy ahvolini mustaxkamlaydigan to‘lov qobiliyatini kuchaytiradi.

Uchinchidan, foyda soliq imtiyozlariga amal qilish ishlab chiqish xarajatlarini kamaytirishga, sifatli ko‘plab mahsulot ishlab chiqishga va byudjet daromadlarini oshirishga qulay shart-sharoit yaratmokda.

To‘rtinchidan, foyda solig‘ini kelajakda korxona daromadidan olinadigan soliq bilan birlashtirish imkoniyatlari ular tomonidan qo‘lga kiritilishi mumkin bo‘lgan iqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘sishiga bog‘liq, chunki bunday soliq munosabatlari yuzaga keltirishga orqali ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida sifat o‘zgarishlarining ijobiy tomonga siljitilishiga erishish mumkin bo‘ladi.

Foyda solig‘i korxonalar to‘laydigan bevosita (to‘g‘ri) soliqlarning eng muhimlaridan biri hisoblanadi. Ushbu soliqning xarakterli xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- ushbu soliq fakatgina korxona soliqqa tortiladigan daromadga (foydaga) ega bo‘lsagina hisoblanadi, korxonaning zarari soliqqa tortiladigan bazadan kichik bo‘lganda ushbu soliq mavjud bulmaydi. Demak, foyda solig‘ini to‘lashning muhim sharti bo‘lib korxonalarning rentabelli ishlab chiqarish o‘z faoliyatlaridan foyda olishlari hisoblanadi.

- foyda solig‘ining miqdori bevosita korxonaning sof foydasiga, ya’ni uning mulkdoriga qoladigan foydani kamaytiradi. Demak, soliq to‘lovchilarda ushbu soliq

ko‘pincha norozichilikka olib keladi. Shuning uchun davlat soliq siyosatida ushbu soliq yukini doimo kamaytirib borish muhim o‘rin tutadi.

- foyda solig‘i xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarni rentabelli ishlashga, inkirozga uchramaslikka intiltiradigan soliq turi hisoblanadi. Korxonalarning zarar bilan ishlashi nafaqat davlatga, balkim ularning o‘zlariga xam manfaatli hisoblanmaydi. Daromadga (foydaga) erishmagan korxona o‘z ishlab chiqarishini rivojlantira olmaydi, shuningdek jamiyatni rivojiga xam hissa qo‘sha olmaydi.

- daromadni (foydani) davlat tomonidan belgilab qo‘ygan ishlab chiqarish turlari va shartlari evaziga olgan korxonalar ushbu soliq bo‘yicha juda katta imtiyozlarga ega bo‘ladi, jumladan ishlab chiqarishni fizik hajmini oshirishdan olingin foyda umuman soliqqa tortilmaydi, xalq iste’mol tovarlarini bolalar uchun tovarlarni, tovarlarni eksport kilganligi uchun ishlab chiqarish korxonalariga soliq qonunchiligiga ko‘ra juda katta imtiyozlar belgilangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ҳайдаров Н. Солиқлар ва солиққа тортиш масалалари. – Т.: Akademiya, 2007. – 256 б.

2. Абдукаримов Б. ва бошқ. Корхона иқтисодиёти. – Т.: Фан, 2005, 220 б.

3. Алиева С.С. Совершенствование формирования и распределения прибыли предприятий в условиях модернизatsii экономики. (на примере предприятий Самаркандской области). Автореферат диссертatsii на соискание ученой степени к.э.н. – Т.: БФА, 2011. – с. 26.

4. Мануйленко В. В., Садовская Т. А. Экономическая сущность, виды и функции прибыли хозяйствующего субъекта: современный аспект //Финансовая аналитика: проблемы и решения. – 2012. – №. 33. – с. 26.

5. Миляков Н.В. Налоги и налогообложение. Курс лекций. – М.: ИНФРА-М, 1999. – с. 348.

6. Mardiasmo D. Taxation, Publisher Andi, Revition Edition, 2013. – p. 55.

7. Зайналов Ж.Р., Ибрагимов Н.А., Ахроров З.О. Корхоналар молияси. Ўқув қўлланма. – Самарқанд.: Stap-sel, 2023. – 268 б.

8. Tashmuradov T. Soliq nazariyasi va tizimi. Darslik. –T.: Bilim, 2004. -320 б.

A. Bektemirov Ilmiy rahbar: i.f.d., professor
Malikov Elbek Abdurayim o‘g‘li
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti magistranti

YASHIL TEXNOLOGIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI

Anotatsiya: Ushbu maqolada yashil texnologiyalarni rivojlantirish jarayonida tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirishning zamonaviy mexanizmlari, ularning iqtisodiy samaradorligi hamda amaliy ahamiyati tahlil qilingan. Mamlakatimizda

yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish, ekologik toza ishlab chiqarish va resurslarni tejovchi texnologiyalarni keng tatbiq etishda kredit, lizing, grant va fintex kabi moliyaviy vositalarning o‘rni yoritilgan. Shuningdek, maqolada yashil loyihalarni moliyalashtirishda davlat-xususiy sheriklik, xalqaro moliya institutlari ishtiroki va raqamli moliya yechimlarining ustunliklari ko‘rsatib o‘tilgan. Tahlil natijasida yashil texnologiyalarni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-nazariy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar.yashil texnologiyalar, tadbirkorlik subyektlari, moliyalashtirish, kredit resurslari, investitsiya, fintex, raqamli moliya, barqaror rivojlanish.

Hozirgi davrda dunyo miqyosida iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida yashil iqtisodiyot konsepsiyasi keng miqyosda shakllanib bormoqda. Iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslarning cheklanganligi va ekologik muammolarning keskinlashuvi sharoitida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, energiya tejamkor va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish zarurati ortib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan, yashil texnologiyalarni rivojlantirish nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish, balki iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, yangi ish o‘rinlari yaratish va innovatsion tadbirkorlikni kengaytirishning muhim omiliga aylanmoqda. O‘zbekiston Respublikasida ham yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi – 2030” va “Iqlim o‘zgarishiga moslashish milliy dasturi” kabi me’yoriy hujjatlar qabul qilinib, ularda resurslarni tejovchi, chiqindisiz va energiya samarador texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha aniq vazifalar belgilangan. Ushbu strategik maqsadlarni amalga oshirishda tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash alohida ahamiyat kasb etadi, chunki yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish katta miqdordagi investitsiya va kredit resurslarini talab etadi.

Yashil texnologiyalarni rivojlantirishda tadbirkorlik subyektlarini moliyalash-tirishning samarali mexanizmlarini shakllantirish bugungi kunda iqtisodiy siyosatning eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon davlat, xususiy sektor va xalqaro moliya institutlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni kuchaytirish, zamonaviy moliyaviy vositalarni joriy etish va mavjud resurslardan oqilona foydalanishni taqozo etadi. Hozirgi vaqtda bank kreditlari, lizing, grantlar, subsidiyalar, “yashil obligatsiyalar”, fintex va raqamli moliya platformalari yashil texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlashning asosiy moliyaviy vositalari sifatida e’tirof etilmoqda.Shu boisdan, mazkur maqolada yashil texnologiyalarni rivojlantirishda tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirishning zamonaviy mexanizmlari, ularning iqtisodiy ahamiyati, amaldagi tizimning afzalliklari va mavjud muammolari tahlil qilinadi hamda ushbu yo‘nalishda ilmiy-nazariy ahamiyatga ega taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Yashil iqtisodiyot va ekologik barqaror rivojlanish g‘oyalari bugungi kunda global miqyosda iqtisodiy siyosatning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ushbu jarayon doirasida yashil texnologiyalarni joriy etish, ularni amaliyotga tatbiq etishda moliyaviy resurslarning o‘rni alohida ahamiyatga ega. Chunki bunday texnologiyalarni yaratish, modernizatsiya qilish va ishlab chiqarish jarayonlariga integratsiya etish uchun sezilarli hajmdagi sarmoya talab qilinadi. Yashil

texnologiyalarni moliyalashtirish tizimi deganda iqtisodiyotning ekologik toza tarmoqlariga yo‘naltirilgan mablag‘lar harakatini tashkil etuvchi mexanizmlar majmuasi tushuniladi. Bu mexanizmda asosiy manbalar sifatida tijorat banklari kreditlari**,** davlat byudjeti subsidiyalari**,** xalqaro moliya institutlari grantlari**,** xususiy investitsiyalar hamda fintex platformalari orqali raqamli moliyalashtirish yo‘nalishlari ajralib turadi. Har bir moliyalashtirish manbai o‘ziga xos afzallik va cheklovlarga ega bo‘lib, ularni kompleks tarzda qo‘llash tadbirkorlik subyektlari uchun eng maqbul yechim hisoblanadi.

O‘zbekiston tajribasida so‘nggi yillarda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonlari sezilarli darajada faollashdi. Xususan, “Yashil iqtisodiyot strategiyasi – 2030” doirasida qayta tiklanadigan energiya manbalariga, suvni tejovchi texnologiyalarga, chiqindisiz ishlab chiqarish jarayonlariga va transport sohasida ekologik yechimlarni joriy etishga qaratilgan loyihalar amalga oshirilmoqda. Ushbu loyihalarni moliyalashtirishda tijorat banklarining “yashil kredit liniyalari”**,** xalqaro moliya institutlarining grant dasturlari**,** shuningdek, davlat-xususiy sheriklik asosidagi investitsiya loyihalari faol rol o‘ynamoqda. So‘nggi ma’lumotlarga ko‘ra, 2024-yilda O‘zbekiston iqtisodiyotida yashil texnologiyalarni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan jami mablag‘lar hajmi 2,8 trillion so‘mdan oshdi. Shu jumladan, qayta tiklanadigan energiya manbalariga 980 milliard so‘m, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etishga 770 milliard so‘m, chiqindilarni qayta ishlashga esa 390 milliard so‘m ajratilgan. Bu ko‘rsatkichlar mamlakat miqyosida ekologik loyihalarni moliyalashtirish bo‘yicha yangi bosqich boshlanganini bildiradi.

Ilmiy adabiyotlarda yashil texnologiyalarni moliyalashtirish mexanizmlari bir necha turlarga ajratiladi. Birinchisi – bank kreditlash tizimi bo‘lib, bunda ekologik loyihalarni amalga oshiruvchi tadbirkorlarga past foizli yoki uzoq muddatli kreditlar taqdim etiladi. Ikkinchisi – grantlar va subsidiyalar tizimi**,** ya’ni davlat yoki xalqaro tashkilotlar tomonidan ajratiladigan qaytmas mablag‘lar. Uchinchi tur – yashil obligatsiyalar mexanizmi bo‘lib, bu vosita rivojlangan mamlakatlarda keng tarqalgan va ekologik sohalarda faoliyat yurituvchi korxonalar uchun qo‘shimcha moliyaviy imkoniyat yaratadi. To‘rtinchisi esa – fintex asosidagi raqamli moliyalashtirish tizimlari**,** ya’ni onlayn investitsiya platformalari, crowdfunding (jamoaviy moliyalashtirish) va peer-to-peer kreditlash shakllaridir. Ushbu mexanizmlar ichida fintex va raqamli moliyaviy vositalarning ahamiyati yildan-yilga ortib bormoqda. Masalan, raqamli platformalar orqali kichik biznes subyektlari bank tizimidan o‘tmasdan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investorlar bilan aloqaga chiqib, ekologik loyihalar uchun zarur mablag‘ni jalb etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bunday tizimlarning afzalligi – ularning tezkorligi, shaffofligi va tranzaksion xarajatlarning kamayishidadir.

Shuningdek, moliyalashtirish mexanizmlarining barqaror ishlashi uchun davlat-xususiy sheriklik (PPP) modeli muhim ahamiyatga ega. Bu model orqali davlat infratuzilma va normativ-huquqiy bazani ta’minlasa, xususiy sektor texnologik yangiliklarni amaliyotga joriy etish hamda moliyaviy sarmoya kiritish orqali ishtirok etadi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzurida xalqaro hamkorlikda amalga oshirilayotgan “Yashil energiya” loyihalari shunday hamkorlikning yaqqol namunasi hisoblanadi. Yashil texnologiyalarni

moliyalashtirishning zamonaviy mexanizmlaridan yana biri bu – yashil obligatsiyalar (green bonds) tizimi. Bu obligatsiyalar ekologik loyihalarni moliyalashtirish maqsadida chiqariladigan qimmatli qog‘ozlardir. 2024-yilda O‘zbekiston Respublikasida Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi tomonidan ilk bor yashil obligatsiyalar emissiyasi amalga oshirilib, 50 million AQSh dollari miqdorida mablag‘ qayta tiklanadigan energiya loyihalariga yo‘naltirilgan. Ushbu mexanizm xalqaro moliya bozorlarida mamlakatning ekologik imijini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, O‘zbekistonda xalqaro moliya institutlari – Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki – bilan hamkorlikda “Yashil iqtisodiyotga o‘tish” dasturlari amalga oshirilmoqda. Ular orqali kichik va o‘rta biznes subyektlariga “green credit” liniyalari orqali qulay foizlarda moliyaviy resurslar taqdim etilmoqda. Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yashil texnologiyalarni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida muhim strategik yo‘nalish hisoblanadi. Bu jarayonning muvaffaqiyati moliya institutlari, hukumat idoralari va xususiy sektor o‘rtasidagi samarali hamkorlik, shuningdek, raqamli moliyaviy texnologiyalarni keng joriy etish bilan chambarchas bog‘liqdir.

Shunday qilib, moliyaviy mexanizmlarning diversifikatsiyasi, xalqaro hamkorlikning kengayishi, soliq imtiyozlarining kuchaytirilishi hamda fintex sohasidagi innovatsion yechimlar yashil texnologiyalarni rivojlantirishni jadallashtiruvchi asosiy omillar sifatida e’tirof etilishi lozim.

Yashil iqtisodiyot va ekologik barqarorlik yo‘lida olib borilayotgan islohotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, texnologik yangilanishni faqat ishlab chiqarish texnikasini modernizatsiya qilish bilan emas, balki uni moliyaviy jihatdan samarali qo‘llab-quvvatlash bilan uyg‘unlashtirish zarur. Tadqiqot natijalari asosida aniqlanishicha, yashil texnologiyalarni rivojlantirish jarayonida tadbirkorlik subyektlari uchun mavjud moliyalashtirish manbalari yetarli darajada diversifikatsiyalanmagan, kredit siyosatida esa ekologik yo‘nalishdagi loyihalar uchun alohida imtiyozlar tizimi hali to‘liq shakllanmagan. Shu sababli, mavjud moliyaviy infratuzilmani zamonaviy talablar asosida yangilash zarurati mavjud.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston sharoitida yashil texnologiyalarni rivojlantirish uchun eng katta ulush tijorat banklari kreditlari va davlat subsidiyalariga to‘g‘ri kelmoqda. Ammo bu manbalar moliyalashtirish bozorining to‘liq potensialini aks ettirmaydi. Jahon amaliyotida keng qo‘llanilayotgan yashil obligatsiyalar**,** fintex platformalari**,** crowdfunding tizimlari **va** davlat-xususiy sheriklik (PPP) mexanizmlarini yanada faol tatbiq etish iqtisodiyotning ekologik transformatsiyasini jadallashtiradi.

Юқоридаги фикр-мулоҳазалар асосида moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimining barqaror ishlashi uchun quyidagi ilmiy-nazariy ahamiyatga molik **taklif va tavsiyalar**ni ilgari surish mumkin:

1. Yashil kreditlar uchun alohida milliy mexanizmni shakllantirish. Tijorat banklari tomonidan ekologik toza, energiya tejamkor va chiqindisiz ishlab chiqarish loyihalariga ajratiladigan kreditlar uchun foiz stavkalarini kamaytirish hamda garov

talablarini yumshatish zarur. Bu amaliyot “green banking” tamoyillarini milliy moliya tizimiga kiritishga xizmat qiladi.

2. “Yashil moliya markazi”ni tashkil etish. Yashil texnologiyalarni baholash, ularni iqtisodiy samaradorligi bo‘yicha tahlil qilish va investitsion loyihalarni moliyaviy ekspertizadan o‘tkazish uchun yagona ilmiy-amaliy markaz tashkil etish lozim. Bu markaz banklar, vazirliklar, xalqaro institutlar va xususiy sektor o‘rtasida muvofiqlashtiruvchi bo‘g‘in vazifasini bajaradi.

3. Yashil obligatsiyalar va fintex asosidagi raqamli moliyalashtirishni rivojlantirish. Davlat va xususiy kompaniyalar tomonidan ekologik loyihalarni moliyalashtirish uchun “green bonds” emissiyasini kengaytirish hamda onlayn fintex platformalari orqali ekologik startaplarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etish muhim.

4. Davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish tizimini kengaytirish. Energiya, suv xo‘jaligi, transport va sanoat sohalarida ekologik yo‘nalishdagi yirik loyihalarni amalga oshirishda xususiy sarmoyadorlar ishtirokini rag‘batlantiruvchi soliq imtiyozlari va kafolat mexanizmlarini joriy etish lozim.

5. Yashil loyihalarni baholashda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektdan foydalanish. Loyihalarning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik samaradorligini aniqlashda raqamli tahlil tizimlarini joriy etish natijadorlikni oshiradi. Bu orqali qarorlar qabul qilish jarayonida inson omilining subyektiv ta’siri kamayadi va shaffoflik darajasi ortadi.

6. Tadbirkorlik subyektlari uchun moliyaviy savodxonlik va konsalting dasturlarini rivojlantirish. Ko‘plab kichik biznes egalari yashil texnologiyalarning iqtisodiy foydasi va moliyalashtirish manbalari haqida yetarli ma’lumotga ega emas. Shu bois, banklar, mahalliy hokimiyatlar va ta’lim muassasalari hamkorligida “yashil biznes” bo‘yicha o‘quv-trening dasturlari yo‘lga qo‘yilishi lozim.

Ushbu takliflarning amalga oshirilishi O‘zbekiston iqtisodiyotining ekologik barqarorligini mustahkamlash, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish va xalqaro investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, bu jarayon mamlakatning “Yashil iqtisodiyot strategiyasi–2030”da belgilangan maqsadlarni ro‘yobga chiqarish, iqtisodiyotning texnologik transformatsiyasini jadallashtirish hamda xalqaro moliyaviy maydonda O‘zbekistonning raqobatbardoshligini kuchaytirish uchun muhim ilmiy-amaliy asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi farmoni. – *O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami*, 2023-yil, № 38.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori. “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi – 2030”. – *Toshkent: VMQ*, 2019-yil, № 409.

3. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. *Yashil texnologiyalarni moliyalashtirish bo‘yicha yillik hisobot*. – Toshkent, 2024.

4. Jahon banki (World Bank). *Green Finance: A Bottom-Up Approach for Sustainable Development*. – Washington D.C., 2022.

5. Osiyo Taraqqiyot Banki (ADB). *Green Finance Strategies for Emerging Economies*. – Manila, 2021.
6. OECD. *Green Growth Indicators 2023*. – Paris: OECD Publishing, 2023.
7. UNDP. *Financing the Green Transition in Central Asia: Country Report on Uzbekistan*. – New York, 2022.
8. Ganiev, B. va Rasulov, A. “Yashil iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari”. – *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali*, 2023, № 4, 35–42-betlar.
9. Karimov, N. “Moliyaviy resurslarni boshqarish va ekologik investitsiyalar samaradorligini baholash”. – *TDIU Ilmiy axborotlari*, 2022, № 2, 48-54-betlar.
10. Xalilov, M. *Yashil texnologiyalarni joriy etishda moliyaviy mexanizmlarning roli*. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2023.

A. Bektemirov Ilmiy rahbar: i.f.d., professor
Abdunazarov Davlat ***Samarqand iqtisodiyot va servi instituti magistranti***

XALQARO TASHKILOTLARNING O‘ZBEKISTONDA YASHIL TEXNOLOGIYALARNI MOLIYALASHTIRISHDAGI ROLI

Anotatsiya: мазкур maqolada xalqaro moliya institutlari va tashkilotlarning O‘zbekistonda yashil texnologiyalarni rivojlantirish va moliyalashtirishdagi o‘rni tahlil etilgan. Jahon banki, ADB, EBRD va UNDP kabi tashkilotlarning ekologik dasturlari, grantlari hamda investitsiyalari misolida ularning mamlakat iqtisodiyotining ekologik transformatsiyasiga qo‘shayotgan hissasi ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, xalqaro moliyalashtirish mexanizmlarining samaradorligi va O‘zbekiston uchun istiqbolli yo‘nalishlar aniqlanib, ushbu sohada hamkorlikni kuchaytirish bo‘yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar. yashil texnologiyalar, xalqaro tashkilotlar, moliyalashtirish, Jahon banki, ADB, EBRD, UNDP, barqaror rivojlanish, ekologik investitsiyalar

Global miqyosda iqlim o‘zgarishlari, tabiiy resurslarning qisqarishi va ekologik muammolarning keskinlashuvi barqaror rivojlanish masalasini insoniyat oldidagi eng dolzarb vazifalardan biriga aylantirdi. Shu sababli dunyo mamlakatlari iqtisodiy o‘sishni ekologik xavfsizlik bilan uyg‘unlashtiruvchi yangi iqtisodiy model – yashil iqtisodiyot konsepsiyasiga tobora ko‘proq e’tibor qaratmoqda. Yashil iqtisodiyotning muvaffaqiyatli rivojlanishi esa, o‘z navbatida, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, resurslardan oqilona foydalanish va chiqindilarni kamaytirish imkonini beruvchi yashil texnologiyalarni moliyalashtirish mexanizmlariga bevosita bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasida ham bu yo‘nalishda izchil islohotlar olib borilmoqda. “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi – 2030”, “Iqlim o‘zgarishiga moslashish milliy dasturi”, “Energiya samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi qarorlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar mamlakatda ekologik toza ishlab chiqarish, qayta tiklanadigan energiya manbalari, suvni tejovchi texnologiyalar va chiqindisiz ishlab chiqarish tizimlarini rivojlantirish uchun huquqiy asos yaratdi. Ushbu strategiyalarni samarali amalga oshirish uchun esa milliy resurslardan tashqari

xalqaro moliya institutlari va tashkilotlar bilan keng ko‘lamli hamkorlik zarur bo‘lmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekiston Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki (ADB), Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (EBRD), BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP), Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC) kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan faol hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan. Ushbu tashkilotlar tomonidan moliyaviy yordam, grantlar, imtiyozli kredit liniyalari va investitsion dasturlar orqali mamlakatimizda yashil iqtisodiyot yo‘nalishidagi o‘nlab yirik loyihalar moliyalashtirilmoqda. Masalan, qayta tiklanadigan energiya manbalari, chiqindilarni qayta ishlash, suv resurslarini tejash, energiya samaradorligini oshirish hamda ekologik startaplarni rivojlantirish sohalarida xalqaro tashkilotlar ishtirokidagi investitsiyalar barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Xalqaro tashkilotlarning faoliyati nafaqat moliyaviy qo‘llab-quvvatlash bilan, balki ekologik boshqaruvni takomillashtirish, milliy strategiyalarni ishlab chiqish va ilmiy-metodik yordam ko‘rsatish bilan ham ahamiyatlidir. Ularning tajribasi O‘zbekistonda yashil texnologiyalarni joriy etish jarayonida xalqaro standartlar va ilg‘or amaliyotlarni tatbiq etish imkonini bermoqda. Shu bois, ushbu maqolada xalqaro tashkilotlarning O‘zbekistonda yashil texnologiyalarni moliyalashtirishdagi roli, ularning iqtisodiy, ekologik va institutsional ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – O‘zbekiston iqtisodiyotida xalqaro hamkorlikni kengaytirish, moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish va yashil texnologiyalarni barqaror rivojlantirish uchun ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Yashil texnologiyalarni rivojlantirish va ularni moliyalashtirish jarayonida xalqaro tashkilotlarning o‘rni beqiyos ahamiyat kasb etadi. Jahon miqyosida ushbu tashkilotlar nafaqat moliyaviy resurslarni taqdim etuvchi donorlar, balki iqtisodiy siyosatni shakllantiruvchi, ekologik standartlarni joriy etuvchi va texnologik transformatsiyani qo‘llab-quvvatlovchi institutlar sifatida faoliyat yuritmoqda. Ularning asosiy maqsadi — iqlim o‘zgarishining salbiy oqibatlarini kamaytirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni yo‘lga qo‘yish va rivojlanayotgan davlatlarda ekologik innovatsiyalarni kengaytirishdir. Shu bois xalqaro moliya institutlari tomonidan yashil texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish bo‘yicha katta hajmdagi moliyaviy yordam ajratilmoqda.

O‘zbekiston ham xalqaro hamjamiyat bilan faol hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan mamlakatlardan biridir. Mamlakatda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayoni bevosita xalqaro tashkilotlar – Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki (ADB), Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (EBRD), BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP), Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC) va Global ekologik fond (GEF) kabi yirik institutlarning moliyaviy va texnik yordamisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Ushbu tashkilotlar tomonidan amalga oshirilayotgan grantlar, imtiyozli kreditlar, investitsion dasturlar va konsultativ yordamlar O‘zbekiston iqtisodiyotining ekologik yo‘nalishda rivojlanishiga katta turtki bermoqda.

Jahon banki mamlakatimizda bir necha yirik ekologik dasturlarni amalga oshirib kelmoqda. Xususan, “Yashil iqtisodiyotga o‘tish” va “Barqaror energetika” dasturlari doirasida qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish, chiqindilarni qayta

ishlash tizimini kengaytirish hamda suv resurslaridan samarali foydalanish maqsadida bir necha yuz million dollarlik moliyaviy resurslar yo‘naltirilgan. Mazkur loyihalar natijasida O‘zbekistonning energetika sohasida energiya tejamkor texnologiyalar joriy etilib, elektr energiyasi ishlab chiqarishda muqobil manbalarning ulushi oshmoqda.

Osiyo taraqqiyot banki (ADB) tomonidan moliyalashtirilayotgan “Renewable Energy for Rural Areas” loyihasi orqali mamlakatning qishloq hududlarida quyosh panellari va mini-gidroelektr stansiyalari o‘rnatilmoqda. Bu esa uzoq hududlarda yashovchi aholining energiya bilan ta’minlanish darajasini oshirish bilan bir qatorda, atmosferaga chiqariladigan zararli gazlar miqdorini sezilarli kamaytirmoqda. Ayni vaqtda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (EBRD) tomonidan amalga oshirilayotgan “Green Economy Financing Facility – GEFF Uzbekistan” dasturi doirasida mahalliy tadbirkorlik subyektlariga energiya samarador texnologiyalarni xarid qilish uchun imtiyozli kredit liniyalari taqdim etilmoqda. Bu dastur nafaqat ekologik muammolarni hal qilishga, balki kichik va o‘rta biznesni moliyaviy jihatdan mustahkamlashga ham xizmat qilmoqda. BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP) va Global ekologik fond (GEF) O‘zbekistonda ekologik muammolarni kamaytirish va yashil texnologiyalarni keng joriy etish borasida qator dasturlarni amalga oshirmoqda. Ularning tashabbuslari natijasida chiqindisiz ishlab chiqarish tizimlari, suvni tejovchi irrigatsiya texnologiyalari va ekologik startaplarni qo‘llab-quvvatlash loyihalari yo‘lga qo‘yildi. Bunday loyihalar, bir tomondan, ekologik barqarorlikni ta’minlasa, ikkinchi tomondan, iqtisodiyotda yangi ish o‘rinlarini yaratish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va ekologik madaniyatni rivojlantirishga yordam bermoqda.

Xalqaro tashkilotlarning moliyaviy yordami O‘zbekiston moliya bozorida ham yangi mexanizmlarni shakllantirdi. Xususan, so‘nggi yillarda mamlakatda “yashil obligatsiyalar” emissiyasi yo‘lga qo‘yildi. 2024-yilda Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi tomonidan 50 million AQSh dollari miqdoridagi yashil obligatsiyalar chiqarilib, bu mablag‘ qayta tiklanadigan energiya va chiqindisiz ishlab chiqarish loyihalarini moliyalashtirishga yo‘naltirildi. Bu tajriba O‘zbekistonning xalqaro moliyaviy imijini mustahkamlash bilan birga, ekologik investitsiyalar uchun qulay muhit yaratdi. Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikning yana bir muhim jihati – ularning texnik va metodologik yordami hisoblanadi. Ular milliy darajada ekologik siyosatni shakllantirish, moliyalashtirish tizimini institutsional jihatdan takomillashtirish, loyihalarni baholashda xalqaro standartlarni joriy etish kabi yo‘nalishlarda faol ishtirok etmoqda. Masalan, Jahon banki ekspertlari tomonidan O‘zbekistonda “Yashil moliya markazi”ni tashkil etish bo‘yicha taklif ishlab chiqilgan bo‘lib, u kelgusida ekologik loyihalarni baholash, moliyalashtirish va monitoring qilish jarayonlarini markazlashtirish imkonini beradi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, xalqaro tashkilotlarning faol ishtiroki O‘zbekiston iqtisodiyotining texnologik modernizatsiyasini jadallashtirish bilan birga, ekologik siyosatni ham xalqaro standartlarga moslashtirishga xizmat qilmoqda. Bu esa mamlakatning barqaror rivojlanish strategiyasi doirasida iqlim o‘zgarishiga moslashuv, resurslarni tejash va yashil investitsiyalarni rag‘batlantirish kabi ustuvor yo‘nalishlarni amalda ro‘yobga chiqarishga imkon bermoqda. Shu bois, xalqaro hamkorlik nafaqat moliyaviy resurslarni jalb qilish manbai, balki milliy iqtisodiyotda

yangi ekologik tafakkurni shakllantiruvchi omil sifatida ham katta ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Yuqoridagi tahlillardan ko‘rinadiki, O‘zbekistonda yashil texnologiyalarni moliyalashtirish jarayonida xalqaro tashkilotlarning roli kompleks xarakterga ega. Ular mamlakatning iqtisodiy va ekologik barqarorligini mustahkamlash, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish hamda xalqaro ekologik majburiyatlarni bajarishida muhim tayanch bo‘lib xizmat qilmoqda. Kelgusida ushbu tashkilotlar bilan hamkorlikni yanada kengaytirish, yangi moliyaviy mexanizmlarni joriy etish va xalqaro investitsion muhitni takomillashtirish O‘zbekistonning yashil iqtisodiyot strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirishda hal qiluvchi omil bo‘ladi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalarga tayangan holda bu jarayonni yanada rivojlantirish va takomillashtirish quyidagi takliflarni tavsiya etamiz:

1. Yashil moliya mexanizmlarini markazlashtirish. Xalqaro tajribadan kelib chiqib, O‘zbekistonda ekologik loyihalarni baholash, moliyalashtirish va nazorat qilish bilan shug‘ullanadigan yagona “Yashil moliya markazi”ni tashkil etish maqsadga muvofiq. Bu markaz xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni muvofiqlashtiradi hamda moliyaviy resurslardan samarali foydalanishni ta’minlaydi.

2. Yashil obligatsiyalar va xalqaro investitsiyalar bozorini rivojlantirish. Mamlakatda “yashil obligatsiyalar” emissiyasini kengaytirish, bu bozorni xalqaro moliya standartlariga moslashtirish va xorijiy investorlar uchun qulay shart-sharoit yaratish lozim. Buning uchun Jahon banki va EBRD bilan hamkorlikda maxsus milliy reglament ishlab chiqish taklif etiladi.

3. Davlat-xususiy sheriklik asosida ekologik loyihalarni moliyalashtirishni kengaytirish. Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda energetika, suv xo‘jaligi, chiqindilarni qayta ishlash va transport sohalarida davlat-xususiy sheriklik (PPP) mexanizmlarini keng joriy etish zarur. Bu yondashuv ekologik investitsiyalar hajmini oshirish bilan birga, xususiy sektorning faol ishtirokini ta’minlaydi.

4. Xalqaro grantlar va kredit liniyalaridan foydalanishda kadrlar salohiyatini kuchaytirish.

5. Xalqaro tashkilotlar bilan ishlay oladigan, grant loyihalarini tayyorlash va boshqarish bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash uchun oliy ta’lim tizimida “Yashil moliyalashtirish va xalqaro hamkorlik” nomli maxsus magistratura dasturini joriy etish tavsiya etiladi.

Xulosa. O‘zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida xalqaro tashkilotlarning roli strategik ahamiyat kasb etmoqda. Jahon banki, ADB, EBRD, UNDP, GEF va boshqa moliya institutlari tomonidan amalga oshirilayotgan loyihalar mamlakatda qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish, energiya samaradorligini oshirish va ekologik xavfsizlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Xalqaro hamkorlik nafaqat moliyaviy resurslarni jalb etish, balki milliy siyosatni ekologik tamoyillar asosida shakllantirish, xalqaro standartlarni joriy etish va innovatsion texnologiyalarni tatbiq etishda ham muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun xalqaro moliyalashtirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish, “yashil obligatsiyalar” bozorini rivojlantirish va ekologik boshqaruv tizimini kuchaytirish O‘zbekistonning barqaror rivojlanish strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirishda hal qiluvchi omil bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev. “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi farmon. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2023-yil, № 38.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori. “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi – 2030”. Toshkent: VMQ, 2019-yil, № 409.
3. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Yashil texnologiyalarni moliyalashtirish bo‘yicha yillik hisobot. – Toshkent, 2024.
4. Jahon banki (World Bank). Uzbekistan Green Transition: Country Program and Climate Action Strategy. – Washington D.C., 2023.
5. Osiyo Taraqqiyot Banki (ADB). Renewable Energy for Rural Areas Project in Uzbekistan. – Manila, 2022.
6. Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki (EBRD). Green Economy Financing Facility (GEFF) – Uzbekistan Annual Report 2023. – London, 2023.
7. BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP). Sustainable Development and Climate Adaptation Programme in Uzbekistan. – New York, 2022.
8. Global Ecological Fund (GEF). Investing in Green Technologies: Central Asia Experience. – Geneva, 2021.
9. OECD. Green Finance and Investment: Mobilising Capital for a Sustainable Future. – Paris: OECD Publishing, 2023.
10. Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi (IMF). Fiscal Policies for Climate-Resilient Growth. – Washington D.C., 2022.

A. Bektemirov Ilmiy rahbar: i.f.d., professor
Sobirjonava Sabinabonu Umidovna *SamISI magistranti*

YASHIL TEXNOLOGIYALARNI MOLIYALASHTIRISH MANBALARI KO'LAMINI KENGAYTIRISHNING DOLZARB MASALALARI

Annotatsiya: maqolada yashil texnologiyalarni moliyalashtirish manbalarining kengaytirilishi va ularning iqtisodiy o‘sishni ta’minlashdagi ahamiyatini tahlil qiladi. Yashil energiya texnologiyalarini rivojlantirish va ularga sarmoya kiritish ekologik barqarorlikni ta’minlash va iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashishda muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqotda, yashil moliyaning davlat, xususiy sektor va xalqaro tashkilotlar tomonidan moliyalashtirish usullari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun yashil texnologiyalarni moliyalashtirish manbalarini kengaytirishning mumkin bo‘lgan yo‘llari, shu jumladan yashil obligatsiyalar, sukuklar va yashil banklar kabilar muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalari yashil moliyaning ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik manfaatlarini ko‘rsatib beradi va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning zarurligini ta’kidlaydi.

Kalit so’zlar: yashil texnologiyalar, yashil moliya, energiya samaradorligi, barqaror rivojlanish, yashil obligatsiyalar

Yashil texnologiyalarni moliyalashtirish, ya'ni atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanishni ta'minlash maqsadida moliyaviy resurslarni jalb etish, so'nggi yillarda iqtisodiy siyosatning ajralmas qismiga aylangan. Bu jarayon, asosan, yashil moliya (green finance) va yashil innovatsiyalarni rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. Yashil moliya, ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan investitsiyalarni jalb qilishni nazarda tutadi, bu esa iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish, energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslarni tejash kabi maqsadlarni ko'zda tutadi. Yashil texnologiyalarni moliyalashtirishning asosiy manbalari davlat byudjeti, xalqaro moliya institutlari, xususiy sektor va yashil obligatsiyalar kabi instrumentlarni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, bu jarayonning samarali amalga oshirilishi uchun moliyaviy instrumentlarning mosligi, siyosiy barqarorlik va institutsional infratuzilmaning rivojlanishi muhim ahamiyatga ega.

Yashil moliya va texnologiyalarni moliyalashtirish sohasida olib borilgan tadqiqotlar ko'plab muhim jihatlarni yoritib berdi. Agrawal (2024) tomonidan olib borilgan tadqiqotda yashil moliyaning qabul qilinishi va yashil innovatsiyalarni rivojlantirishdagi roli tahlil qilindi, bu esa yashil moliya va innovatsiya o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ko'rsatdi. Jiang (2022) o'z tadqiqotida yashil moliyaning korxonalarning yashil texnologiyalarni innovatsiya qilishiga qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganib chiqdi va yashil moliyaning moliyaviy cheklovlarni yengib, innovatsiyani rag'batlantirishda muhim rol o'ynashini ta'kidladi. Biroq, bu tadqiqotlar asosan rivojlangan mamlakatlar misolida olib borilgan bo'lib, rivojlanayotgan mamlakatlar, xususan O'zbekiston kabi davlatlarda yashil texnologiyalarni moliyalashtirishning xususiyatlari va samaradorligi haqida cheklangan ma'lumotlar mavjud. Mudalige (2023) tomonidan olib borilgan tadqiqotda yashil moliya sohasidagi yangi mavzular va tendensiyalar tahlil qilindi. Tadqiqotda, shuningdek, yashil moliya sohasida ilmiy ishlab chiqarishning yillik o'sishi, eng ko'p nashr etilgan jurnallar, mamlakatlar bo'yicha ilmiy ishlab chiqarish va eng muhim mualliflar kabi ko'rsatkichlar ko'rib chiqildi. Bu tadqiqot, yashil moliya sohasida ilmiy tadqiqotlarning rivojlanishini va kelajakdagi yo'nalishlarni aniqlashga yordam beradi.

Saeedi va Ashraf (2024) tomonidan olib borilgan tadqiqotda texnologiyaning yashil moliyani rivojlantirishdagi roli o'rganildi. Tadqiqotda, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar va blokcheyn kabi texnologiyalarning yashil moliya sohasidagi qo'llanilishi tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari, bu texnologiyalarning yashil moliya sohasida risklarni boshqarish, yangi moliyaviy instrumentlarni ishlab chiqish va tartibga solish jarayonlarini soddalashtirishda muhim rol o'ynashini ko'rsatdi.

Ozili (2022) tomonidan olib borilgan tadqiqotda yashil moliya sohasidagi asosiy mavzular va tendensiyalar tahlil qilindi. Tadqiqotda, yashil moliyani oshirish strategiyalari, yashil investitsiyalarni foydali qilish, texnologiya va siyosat yordamida yashil moliyani rivojlantirish, tartibga soluvchilar va moliya institutlarining yashil moliya dasturidagi roli va yashil moliya bilan bog'liq muammolar kabi mavzular ko'rib chiqildi. Tadqiqot natijalari, yashil moliyaning atrof-muhit, jamiyat va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishda muhim farq yaratishi mumkinligini, ammo ko'plab muammolar mavjudligini ko'rsatdi.Yashil iqtisodiyotga o'tish, ya'ni atrof-muhitni muhofaza qilish, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish va barqaror rivojlanishni ta'minlash maqsadida yashil texnologiyalarni rivojlantirish, hozirgi kunda ko'plab

mamlakatlarning ustuvor vazifalaridan biriga aylangan. Biroq, bu jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslar ko'pincha yetarli emas. Shu sababli, yashil texnologiyalarni moliyalashtirish manbalarining ko'lamini kengaytirish dolzarb masala hisoblanadi.Dunyo bo'ylab bir qator mamlakatlar yashil texnologiyalarni moliyalashtirishda muvaffaqiyatli tajribalarni qo'llashmoqda. Masalan, Indoneziya 2018 yilda birinchi marta davlat miqyosida yashil sukuk (islomiy moliyaviy vosita) chiqarib, 1,25 milliard dollar mablag' to'pladi. Bu mablag'lar qayta tiklanadigan energiya manbalariga, jumladan, Sarulla geotermal elektr stansiyasiga yo'naltirildi.

Shuningdek, Kolumbiya 2024 yilda COP16 sammitida dunyodagi birinchi biologik xilma-xillik bo'yicha obligatsiyalarni joriy etdi. BBVA Kolumbiya tomonidan chiqarilgan 35 million dollarlik obligatsiyalar, tabiiy resurslarni saqlash va tiklashga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan.

Bundan tashqari, Barbados mamlakati 2024 yilda "iqlimga qarshi qarz almashtirish" modeli bo'yicha dunyodagi birinchi operatsiyani amalga oshirdi. Bu model orqali davlatning ichki qarzlari qayta sotib olinib, olingan mablag'lar suv ta'minoti va ekologik loyihalarga yo'naltirild.

O'zbekistonda yashil texnologiyalarni moliyalashtirish sohasida bir qator tashabbuslar amalga oshirilmoqda. 2021 yildan boshlab, yashil obligatsiyalar chiqarish amaliyoti joriy etildi. Biroq, mamlakatda davlatning iqtisodiyotdagi ulushi yuqoriligi va ichki kapital bozorining rivojlanmaganligi sababli, xususiy moliya manbalarini jalb qilishda qiyinchiliklar mavjud.

Shuningdek, O'zbekistonda quyosh panellari, shamol turbinalari va energiya samaradorligi texnologiyalariga sarmoya kiritish uchun soliq imtiyozlari va subsidiya mexanizmlari joriy etilgan. Bu chora-tadbirlar bizneslarni yashil texnologiyalarga sarmoya kiritishga rag'batlantirishga qaratilgan.

1-rasm

Yashil energiya kompaniyasining 'Quyoshli xonadon' dasturi va davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 16.02.2023 yildagi PQ-57-son

Davlat va xususiy sektor tomonidan yashil obligatsiyalar va sukuklar chiqarish orqali katta hajmdagi mablag'larni jalb qilish mumkin. Jahon banki, Yashil Iqlim Jamg'armasi kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish, texnik yordam va moliyaviy resurslarni jalb etishga yordam beradi.

Jadval 1.

Taqqoslash jadvali

Mamlakat	**Moliyalashtirish modeli**	**Yig'ilgan mablag'**	**Loyihalar yo'nalishi**
Indoneziya	Yashil sukuk	1,25 milliard $	Qayta tiklanadigan energiya manbalari
Kolumbiya	Biologik xilma-xillik obligatsiyalari	70 million $	Tabiiy resurslarni saqlash va tiklash
Barbados	Iqlimga qarshi qarz almashtirish modeli	165 million $	Suv ta'minoti va ekologik loyihalar
O'zbekiston	Yashil obligatsiyalar	Ma'lumotlar yo'q	Energiya samaradorligi va qayta tiklanadigan energiya

Xususiy banklar va investitsiya kompaniyalarini yashil texnologiyalarni moliyalashtirishga jalb qilish uchun rag'batlantiruvchi mexanizmlar yaratish zarur. "Yashil kreditlar", "iqlimga qarshi qarz almashtirish" kabi innovatsion moliyaviy vositalarni joriy etish orqali moliyalashtirish manbalarini kengaytirish mumkin.

Xulosa. Yashil texnologiyalarni moliyalashtirish manbalarining ko'lamini kengaytirish, mamlakatlarning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Xalqaro tajribalar va innovatsion moliyaviy vositalar, O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ham foydali bo'lishi mumkin. Davlat va xususiy sektorning hamkorligi, xalqaro tashkilotlar bilan aloqalarni mustahkamlash va innovatsion moliyaviy mexanizmlarni joriy etish orqali yashil texnologiyalarni moliyalashtirish manbalarining ko'lamini kengaytirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Agrawal, R. (2024). Adoption of green finance and green innovation for sustainable development. ScienceDirect. https://doi.org/10.1016/j.jom.2023.07.003

2. Jiang, S. (2022). Does green finance promote enterprises' green technology innovation? Frontiers in Environmental Science. https://doi.org/10.3389/fenvs.2022.981013

3. Popp, D. (2012). The Role of Technological Change in Green Growth. NBER Working Paper No. 18506. https://www.nber.org/papers/w18506

4. Saeedi, M., & Ashraf, B. N. (2024). The role of technology in promoting green finance: A systematic literature survey and the development of a framework. Journal of Risk and Financial Management. https://doi.org/10.3390/jrfm17100472

5. Ozili, P. K. (2022). Green finance research around the world: A review of literature. MPRA Paper. https://mpra.ub.uni-muenchen.de/114899/

6. Dutz, M. A., & Sharma, S. (2012). Green Growth, Technology and Innovation. The World Bank. Policy Research Working Paper 5932. https://doi.org/10.1596/1813-9450-5932

7. Mowery, D. C., & Nelson, R. R. (2010). The effects of green technology innovation on industrial development. Science and Public Policy. https://doi.org/10.1093/scipol/scq031

8. Barbieri, N., Dangelico, R. M., & Pappalardo, G. (2018). The role of technological innovation in green growth: A cross-national analysis. Journal of Business Research. https://doi.org/10.1016/j.jbusres.2017.11.023

9. Nemet, G. F. (2012). The influence of technology policy on the development of green technologies. Environmental Innovation and Societal Transitions, 5, 1-15. https://doi.org/10.1016/j.eist.2012.01.003

10. Johnstone, N., Hascic, I., & Popp, D. (2010). Renewable energy policies and technological innovation: Evidence based on patenting activity. Environmental and Resource Economics, 45(1), 133-155. https://doi.org/10.1007/s10640-009-9299-6

Алиева С.С., к.э.н., доцент кафедры “Финансы”
Уктамова Д.Ё., студентка I курса,

КАК ТЕХНОЛОГИИ МЕНЯЮТ ФИНАНСЫ

Аннотация. В статье рассматривается влияние цифровых инноваций на трансформацию финансового сектора. Особое внимание уделено развитию финтех-компаний, систем мгновенных платежей больших данных. Показано, как эти технологии повышают прозрачность, ускоряют операции и расширяют доступ к финансовым услугам. В заключение подчеркивается, что технологическая эволюция делает финансы более гибкими, устойчивыми и ориентированными на потребителя.

Ключевые слова: финтех, цифровизация, искусственный интеллект, большие данные, финансовые технологии, трансформация финансов, инновации, платежные системы.

Цифровизация стремительно меняет мир, обнаруживая сильное влияние на окружающую среду и образ жизни людей. Все субъекты общества - государственные структуры, бизнес и население - активно включаются в процесс внедрения цифровых инноваций. Среди них особым вниманием пользуются интернет-ресурсы, робототехника, искусственный интеллект, анализ больших данных, аддитивные технологии, 3D-печать, облачные вычисления, мобильные решения, биометрические системы, квантовые технологии, технологии идентификации и блокчейн.

Отдельные технологические достижения открывают возможности для автоматизации сложных бизнес-процессов, сокращения производственных расходов, создания инновационных бизнес-моделей и расширения участия на глобальном рынке.

Цифровизация экономики Узбекистана, стимулируемая программой «Цифровой Узбекистан-2030» [1], направлена на коренную трансформацию ее структуры и создание фундамента для устойчивого развития на будущее.

Во время оценки финансового состояния компании особое значение имеет применение цифровых технологий.

В эпоху ускоренного развития цифровых технологий компании все энергичнее ищут способы, как использовать их для улучшения эффективности и улучшения финансовых результатов. Это создает новые вызовы для финансовой аналитики, которая теперь должна не только оценивать текущую финансовую ситуацию, но и прогнозировать будущие тенденции, учитывая влияние как внешних факторов (рынок, конкуренция), так и внутренних (системы управления и принятия решений).

Финансы перестали быть скучным миром цифр в ежегодных отчетах. Они превратились в живую, пульсирующую цифрами экосистему, которая все больше говорит на языке людей. Сегодня технологии – это не просто про скорость, а про доверие, возможности и новое качество жизни.

Представьте себе фермера из отдаленного кишлака, который теперь может получить микрозайм на новые семена, не выезжая в областной центр, просто через приложение на телефоне. Или мастера, который продает свои изделия через соцсети и мгновенно получает оплату на электронный кошелек. Это и есть настоящая магия финтеха – он строит мосты там, где раньше были стены.

Искусственный интеллект здесь работает как персональный финансовый помощник, мягко подсказывая, как лучше распределить средства, а блокчейн выступает в роли безупречного цифрового нотариуса, гарантируя, что каждая сделка честна и прозрачна.

В Узбекистане этот тренд чувствуется особенно ярко. Государственная поддержка цифровизации – это не просто слова на бумаге. Это конкретные шаги, которые уже меняют жизни.

Для предпринимателей: Открыть свой небольшой бизнес – кафе, ателье, мини-пекарню – стало значительно проще. Доступ к онлайн-платежам и микрокредитам через приложения снизил порог входа и дал возможность реализовать себя тысячам людей.

Для обычных семей: Родители могут моментально отправить деньги студенту в другом городе. Пенсионеры – оплатить коммунальные услуги, не стоя в очередях. Это кажется мелочью, но именно из этих мелочей складывается ощущение спокойствия и контроля над своей жизнью.

Для развития регионов: Цифровые финансовые инструменты стали мощным стимулом для развития локальной экономики и электронной коммерции, позволяя малым предприятиям выходить на новые рынки.

Изучая эти изменения, мы по сути изучаем новую социальную ткань общества. Мы видим, как технологии, оставаясь технологиями, становятся историей про людей – про их самостоятельность, их растущие возможности и

их право быть полноправными участниками экономической жизни, где бы они ни находились.

Финтех сегодня представляет собой широкий арсенал инноваций, охватывающий все - от мгновенных платежей до продвинутого анализа активов с помощью искусственного интеллекта. Глобально ключевые направления финтеха можно увидеть в следующем наборе решений:

цифровые банки и так называемые необанки (например, Revolut, Monzo, N26), которые упрощают доступ к банковским услугам без посещения отделения;

мобильные платежи и цифровые кошельки (PayPal, Apple Pay, Alipay), делающие расчеты быстрыми и удобными;

технологии на базе блокчейна и криптовалют (Bitcoin, Ethereum), которые переосмысляют доверие и прозрачность транзакций;

InsurTech - цифровые решения в страховании, упрощающие подбор полисов и оформление заявок;

RegTech - инструменты для соблюдения норм и упрощения комплаенса, помогающие организациям держать руку на пульсе регуляторных требований.

По данным глобальных обзоров, включая публикации крупных аудиторско-консультационных компаний, объем инвестиций в финтех превышает 100 млрд долларов в год за последние годы. Лидирующими странами остаются США, Великобритания, Сингапур и Китай. Особенно заметно развиваются направления, связанные с Buy Now, Pay Later (BNPL), финансированием на точке продажи (POS-финансирование) и цифровыми платежами, которые становятся все более востребованными потребителями и бизнесом.

В Узбекистане цифровизация финансового сектора переходит из стадии идеи в реальную практику. Государственные программы и стратегии направлены на создание более доступной и прозрачной финансовой среды для граждан и бизнеса. В стране активно внедряются и развиваются инструменты онлайн-оплат, электронные кошельки и платформы для микрокредитования. Исследования подчеркивают, что электронная коммерция и финтех становятся двигателями обновления услуг и поддержки малого и среднего предпринимательства.

Люди получают конкретные выгоды: ускорение платежей, облегчение доступа к кредитам для малого бизнеса, повышение удобства повседневных финансовых операций и возможность безопасно управлять деньгами из любой точки страны. Эти изменения формируют новую социально-экономическую ткань, где технологии служат людям, а не наоборот — усиливая автономность, доверие и участие граждан в экономике [4].

В Узбекистане финтех развивается особенно активно там, где люди чаще всего пользуются смартфонами и интернетом - онлайн-платежи, электронные кошельки и банковские приложения становятся частью повседневной жизни. На рынке работают такие заметные игроки, как Click, Payme, Uzum Bank и Anorbank. Эти сервисы упрощают жизнь: можно быстро оплачивать услуги,

переводить деньги близким, оформлять кредиты и зарабатывать бонусы за лояльность.

Рост сектора поддерживает государство, а также высокая доступность мобильного интернета и растущий интерес частных инвесторов. Люди получают дополнительные удобства: экономят время, снижают расходы на банковские услуги и чувствуют большую финансовую уверенность в повседневных делах.

Но по сравнению с более развитыми странами узбекский финтех сталкивается с рядом задач. Нужны квалифицированные специалисты, чтобы создавать и обслуживать современные решения; чаще требуется внешний капитал для быстрого масштаба проектов; необходимо обновлять регуляторную базу, чтобы инновации шли рука об руку с защитой потребителей и стабильностью рынка.

По мнению отдельных исследователей: Финтех может не просто снизить расходы на переводы и платежи, но и сделать финансы ближе к каждому человеку. Он открывает новые возможности для тех, у кого раньше не было доступа к обычным банковским услугам - делая деньги понятнее, доступнее и полезнее в повседневной жизни [2].

В мире есть множество удачных примеров внедрения финтеха, которые могут послужить вдохновением и для нас. Например, в Сингапуре государство активно поддерживает инновационные стартапы и внедряет систему цифровой идентификации граждан, что заметно упрощает финансовые операции и повышает доверие к сервисам. В Великобритании финтех-компании тесно интегрированы с национальной моделью Open Banking, что делает обмен данными между банками и пользователями более прозрачным и безопасным.

Китай демонстрирует очень практичную модель: приложения WeChat Pay и Alipay служат не только для оплаты, но и для кредитования, инвестирования и страхования. Такой формат можно адаптировать для Узбекистана через развитие «супер-приложений» и экосистем, которые объединяют банковские, страховые и сервисные функции в одном интерфейсе - удобно, быстро и понятно пользователю.

Ещё одно важное направление - RegTech, технологии, помогающие быстро соблюсти требования закона и снизить регуляторные риски. Для узбекских банков и финтех-компаний это означает меньше бюрократии и больше времени на развитие инноваций, при этом сохраняя защиту потребителей и стабильность рынков.

Искусственный интеллект, большие данные и технология блокчейна работают вместе как надёжный мост между вами и банком. Они помогают людям чувствовать больше уверенности в своих финансовых решениях, снижают риск мошенничества и ускоряют процесс утверждения заявлений и операций. Это значит, что платежи проходят быстрее, а поддержка и безопасность становятся выше, потому что банки заранее видят риск и реагируют на него мгновенно [3].

Технологии сегодня переворачивают финансы с ног на голову: банки перестают быть застывшими учреждениями и превращаются в цифровые

платформы, доступные каждому. Финтех становится не только двигателем экономического роста, но и силой социальной перемены – он делает финансовую систему более открытой, гибкой и инклюзивной.

Для Узбекистана важно продолжать поддерживать инновации, развивать таланты и совершенствовать нормы – тогда финтех-экосистема будет расти устойчиво и приносить реальную пользу людям. В числе перспективных направлений остаются цифровая идентификация, Open Banking, искусственный интеллект и блокчейн – технологии, которые могут вывести финансовый сектор страны на новый уровень конкурентоспособности и доверия граждан.

Список литературы:

1. Указ Президента Республики Узбекистан, от 05.10.2020 г. № УП-6079 «Об утверждении Стратегии «Цифровой Узбекистан-2030» и мерах по ее эффективной реализации»

2. Воронков Е.К. Цифровые финансовые технологии как фактор устойчивого развития // Аудиторские ведомости. 2024. №2. – С. 287-292

3. Третьякова И. Н., Ершов Н. Ю., Махнычева О. В. Финансовые технологии как инновационный инструмент трансформации банковской индустрии // Вестник Академии знаний. 2024. №2 (61). – С. 536-540

4. Финтех: B2C-платежи, POS-финансирование, и BNPL в Узбекистане. Апрель 2024. [Электронный ресурс] ООО “KPMG Valuation and Consulting”. https://assets.kpmg.com/content/dam/kpmg/uz/pdf/2024/Fintech%20UZ_Payments_POS%20Financing_BNPL-rus.pdf

Юлдуз Пирназаровна Урунбаева *САМИСИ и.ф.ф.док., доцент*
Темирова Шалола Эркиновна *мустақил изланувчи*

ТАЬЛИМ ХИЗМАТЛАРИНИНГ МАМЛАКАТ ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ ТАРАҚҚИЁТИДАГИ ЎРНИ

Аннотация:Ушбу мақолада таълим хизматларининг мамлакат ижтимоий-иқтисодий тараққиётидаги ўрни ва аҳамияти ёритиб берилган. Таҳлиллар таълим сифатини ошириш, кадрлар салоҳиятини ривожлантириш ҳамда инновацион иқтисодиётга ўтиш жараёнларида таълим тизимининг муҳим омил сифатида намоён бўлишини кўрсатади. Шунингдек, таълим хизматларига инвестицияларнинг иқтисодий ўсиш, меҳнат бозорида рақобатбардошлик ва жамият фаровонлигига таъсири ҳам ёритилган. Мақолада илмий-назарий муносабатлар ва амалий тавсиялар ҳам берилган.

Калит Сўзлар:таълим хизматлари, ижтимоий-иқтисодий тараққиёт, инсон капитали, инновация, кадрлар салоҳияти, иқтисодий ўсиш, меҳнат бозори, рақобатбардошлик.

Таълим хизматларини самарали амалга оширишда бу иккаласини бир-биридан ажратиб бўлмайди. Бу иккаласи қачонки, бир-бири билан уйғунлашган ҳолатда самарали амалга оширилади (1-расм).

Таълим ва тарбия жараёнида шахснинг сифатлари, дунёқараши, қобилияти ўсади. Таълим хизматлари авлодлар ўртасидаги маънавий ворисликни таъминлаш қаторида кишиларнинг ижтимоий тарихий тажрибаларини ёш авлодга ўтказади.



1 - расм. Таълим хизматларининг жамият тараққиётидаги икки томонлама ифодаланиши[229]

Шуни таъкидлаш жоизки, таълим хизматлари жамиятга чуқур таъсир кўрсатишдан ташқари, унинг барқарорлиги ва ривожланишига ҳисса қўшади, ижтимоий ҳамжиҳатликни мустаҳкамлайди ва фуқаролик масъулиятини ривожлантиради. Бундан ташқари, таълим хизматлари аҳоли саломатлигини мустаҳкамлашга ва самарали меҳнат бозорини яратишга ёрдам беради. Таълимга йўналтирилган инвестициялар келажакка инвестициялар бўлиб, инсон ва бутун жамият фаровонлигини таъминлайди. Шу сабабли, таълим хизматлари бозорини ўрганиш бугунги кунда долзарб масала бўлиб, таълимдаги бўшлиқларни бартараф этиш жамият ва иқтисодий тараққиёт учун муҳим стратегик йўналиш ҳисобланади.

Ўзбекистонда таълим тизими ягона, узлуксиз ва изчилдир. У бир неча узвий боғликликдаги босқичларда амалга оширилади ва бир-бирини тўлдиради (1-жадвал). Ҳар бир фуқаро таълим олиш шаклини танлаш эркинлигига эга.

[229] Муаллиф томонидан тузилган

1-жадвал

Таълим хизматлари таркиби ва тавсифи[230]

Таълим хизматларининг таркиби	Тавсифи
Мактабгача таълим хизматлари	Мактабгача таълим ва тарбия болаларни ўқитиш ва тарбиялашга, уларни интеллектуал, маънавий-ахлоқий, этик, эстетик ва жисмоний жиҳатдан ривожлантиришга, шунингдек болаларни умумий ўрта таълимга тайёрлашга қаратилган таълим хизматлари
Умумий ўрта ва ўрта махсус таълим таълим хизматлари	Умумий ўрта ва ўрта махсус таълим умумтаълим ўқув дастурларини, зарур билим, малака ҳамда кўникмаларни ўзлаштиришга қаратилган таълим хизматлари
Профессионал таълим хизматлари	Профессионал таълим эгалланадиган касб ва мутахассислик бўйича амалга ошириладиган таълим хизматлари
Олий таълим хизматлари	Олий таълим бакалавриат таълим йўналишлари ва магистратура мутахассисликлари бўйича юқори малакали кадрлар тайёрланишини амалга оширадиган таълим химатлари
Олий таълимдан кейинги таълим хизматлари	Мутахассисликни чуқур ўрганишни ва илмий изланишлар олиб боришни назарда тутадиган таянч докторантура, докторантура ва мустақил изланувчанлик асосида илмий даражага эга илмий ва илмий-педагогик кадрлар тайёрлашни таъминловчи таълим хизматлари
Кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш хизматлари	Кадрларни қайта тайёрлаш таянч мутахассисликлар ва касбларга мувофиқ бўлган йўналишлар бўйича фаолиятни амалга ошириш учун қўшимча касбий билим, малака ва кўникмаларни эгалланишини таъминлайдиган таълим хизматлари

Таълим хизматларининг кенг мазмуни ва моҳияти жамият тараққиётининг моддий ва маданий ўзгариш даражаси билан белгиланади. Таълим хизматлари билимларни ўзлаштириш, изланиш, такомиллаштириш ва янгилаш жараёни бўлиб, кейинчалик инсонлар уларни амалда қўллаш орқали ижтимоий-иқтисодий ҳамда техник тараққиётга эришилади.

[230] Ўзбекистон Республикасининг“Таълим тўғрисида”ги қонуни асосида муаллиф томонидан тузилган

Ижтимоий муносабатлар, умумий маълумотга бўлган эҳтиёж, кишиларнинг касбий тайёргарлигига, карерага интилиши, таълим ҳақидаги педагогик ғояларга қараб кишилик жамияти тараққиётининг турли босқичларида таълимнинг моҳияти, методи, ташкилий шакллари ўзгариб боради. Жамият тараққиёти юксалган сари таълим хизматларига бўлган эҳтиёжлар ҳам ҳамиша ошиб борган.

Ҳозирги шароитда таълим хизматлари таълим субъектларининг таълим олувчиларга, уларнинг индивидуал эҳтиёжларини қондириш ва таълим дастурларини ўзлаштиришга қаратилган фаолияти ҳисобланади. Шу жиҳатдан, таълим хизматларининг таълим олувчиларнинг алоҳида хусусиятидан ва эҳтиёжидан келиб чиқиб ташкиллаштириладиган таълим хизматларини ва шаклларини масофавий таълим, дуал таълим, инклюзив таълим, экстернат тартибидаги таълим турларига ажратилади (2-жадвал).

2-жадвал

Таълим хизматларининг алоҳида шакллари[231]

Таълим хизмати	Мазмуни
Масофавий таълим хизматлари	Масофавий таълим ўқув режалари ва ўқув дастурларига мувофиқ таълим олувчилар томонидан зарур билим, малака ва кўникмаларни ахборот-коммуникация технологияларидан ҳамда интернет жаҳон ахборот тармоғидан фойдаланган ҳолда масофадан туриб олишга қаратилган таълим хизматлари
Дуал таълим хизматлари	Дуал таълим таълим олувчилар томонидан зарур билим, малака ва кўникмаларни олишга қаратилган бўлиб, уларнинг назарий қисми таълим ташкилоти негизида, амалий қисми эса таълим олувчининг иш жойида амалга оширилади таълим хизматлари
Инклюзив таълим хизматлари	Инклюзив таълим алоҳида таълим эҳтиёжлари ва индивидуал имкониятларнинг хилма-хиллигини ҳисобга олган ҳолда барча таълим олувчилар учун таълим ташкилотларида таълим олишга бўлган тенг имкониятларни таъминлашга қаратилган таълим хизматлари
Экстернат тартибидаги таълим хизматлари	Экстернат тартибидаги таълим олиш ўқув дастурларини мустақил равишда ўзлаштиришни ўз ичига олиб, унинг якунлари бўйича таълим олувчилардан давлат таълим муассасаларида якуний ва давлат аттестацияларидан ўтишни талаб этадиган таълим хизматлари

[231] Ўзбекистон Республикасининг“Таълим тўғрисида”ги қонуни асосида муаллиф томонидан тузилган

Таълим хизматларининг таркибий жиҳатдан тузилиши бошқариш ва назорат қилишнинг қулай бўлишига хизмат қилади. Булар олий ва ўрта махсус таълим, мактабгача ва мактаб таълими ҳамда нодавлат таълимни ўз ичига олади. Таълим соҳасини бундай бошқариш кўрсатилаётган таълим хизматларининг сифатли бўлишлигини ва фаолиятини ривожлантириш имкониятларини таъминлайди (3- жадвал).

3 - жадвал

Таълим соҳасининг давлат бошқаруви бўйича тузилиши[232]

Тузилиши	Таркиби
Олий ва ўрта махсус таълим	Университет, институт, илмий тадқиқот институтлари, техникум, касб-ҳунар коллежлари, академик лицей, малака ошириш ва қайта тайёрлаш ниститути
Мактабгача ва мактаб таълими	Ўрта умум таълим, мактабгача таълим, ихтисослашган мактаб интернатлар, болалар дам олиш лагерлари
Лицензия талабларига ва шартларига мувофиқ хизмат кўрсатадиган таълим	Университет, институт, техникум, касб-ҳунар коллежлари, мактаб ва мактабгача таълим муассасалари, репитоторлик курслари

Иқтисодчи олим М.М. Ташходжаевнинг фикрича, таълим хизматларининг ўрин босарлик даражасига кўра, ўзаро ўрнини босувчи, тўлдирувчи ва мустақил шаклларга ажратиш мумкин. Ўзаро ўрин босар таълим хизматларига талабнинг ошиши у билан боғлиқ хизматнинг бошқа турига талаб камайишига, ўзаро тўлдирувчи хизматларда эса бирор-бир хизматга талаб ортиши бошқа хизматларга талаб ошишига олиб келади. Масалан, таълим жараёнида ахборот технологияларидан кенг фойдаланиш техникага хизмат кўрсатиш хизматларига талабни оширади. Мустақил таълим хизматларига эҳтиёж бошқа хизматлар билан боғлиқ бўлмайди. Таълим хизматлари турларидан таълим тизимининг хўжалик юритиш механизмини такомиллаштириш ва таълим муассасалари фаолиятини режалаштириш жараёнида фойдаланиш мумкин[233].

Таълим хизматлари кишиларнинг интелектуал ривожланиш эҳтиёжларини қондириш, таълим дастурларини ўзлаштириш ва касбий кўникмаларни эгаллашга қаратилган фаолият тури ҳисобланиб, улар давлат таълим стандартларига мувофиқ расмий таълим (мактабгача, ўрта ва олий таълим) шунингдек, ҳар-хил турдаги қисқа муддатли ўқув курслари, репетиторлик тайёрловлари, ўқув семинарлар ва тренинглар каби қўшимча

[232] Муаллиф томонидан тузилган

[233]Ташходжаев М.М., Таълим хизматлари бозори ва унинг ривожланишининг иқтисодий таҳлили// "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. № 1, январь-февраль, 2014. 4 -бет.

таълимни ўз ичига олади. Шу жиҳатдан, таълим стандартларига мувофиқ амалга ошириладиган хизматлар ва қўшимча таълим хизматларига ажратиб ўрганиш мақсадга мувофиқ бўлади.

Таълим хизматлар соҳаси жамият тараққиётининг барча жабҳаларини қамраб олади ва ижтимоий-иқтисодий барқарорликни таъминловчи асосий омиллардан бири сифатида, жамиятда содир бўлаётган деярли барча ижтимоий-иқтисодий жараёнларга таъсир кўрсатади. Миллий иқтисодиётда ушбу соҳанинг ривожланиши аҳоли даромадларининг ошиши, ишсизликнинг камайиши ва иқтисодиётнинг барқарор ривожланишига имкон беради.

Таълим хизматлари ўзига хос алоҳида хусусиятларга эга. Улар қуйидагилардан иборат:

- таълим хизмати кўрсатиш соҳасини жойлаштиришда табиий омил моддий ишлаб чиқаришдагидек, аҳамиятга эга эмас. Бунда кўпроқ ижтимоий омиллар муҳим аҳамият касб этади;
- кўрсатилаётган хизматлар айримлар учун даҳо, бошқалар учун бемаза бўлиши мумкин;
- хизматлар қийматини ўлчаш мураккаб бўлиб, бу қиймат ижтимоий маҳсулот қийматига қўшилади;
- хизмат кўрсатиш корхоналарида ходимлар сонининг камлиги, ресурсларнинг ва бошқарув тизимининг ихчамлиги ишни самарали ташкил қилишда зарур қулайликларга эга бўлади;
- номоддийлик, ишлаб чиқариш ва истеъмолнинг узлуксизлиги, истеъмол қилгунга қадар ўрганишнинг иложи йўқ бўлиб, уларнинг таклифи ва истеъмоли бир пайтда рўй беради;
- таълим хизматлари сифат жиҳатидан ўзгарувчан бўлиб, хатто хизматни битта ташкилот амалга оширган тақдирда ҳам сифат турлича бўлиши мумкин;
- таълим хизматларини ишлаб чиқарувчидан ажратишнинг иложи йўқ. Истеъмолчиларга кўпинча хизматни тақдим этишнинг ажралмас қисми сифатида қаралади;
- таълим хизматлари ишлаб чиқариши ва истеъмолининг кенгайиши бевосита жамиятнинг маънавий тикланиши ва ижтимоий тараққиёти билан боғлиқ бўлади;
- таълим хизматларининг ўзига хос хусусиятларидан яна бири уларни тўғридан-тўғри пул билан ўлчашнинг иложи йўқ. Нархни аниқлаш моддий соҳадагидек осон эмас, бир мунча мураккаб бўлиб, таълим хизматлари ишлаб чиқаришнинг барча харажатларини акс эттира олмайди;
- таълим хизматлари бошқа ҳар қандай фаолиятга қараганда, кўпроқ жамоатчилик назорати ва бозордан ташқари босимга дучор бўлади.

Бутун дунёда таълим хизматлари мамлакат келажагини шакллантиришда муҳим рол ўйнайди. Аҳолига бўлғусу карерасини муваффақиятли ташкил қилишда ва шахсий ривожланиши учун зарур бўлган билим ва кўникмаларга эга бўлиш имконини беради.

Хулоса қилиб айтганда, таълим хизматлари ўзига хос номоддий неъмат эканлиги ва уларнинг ўзига хос хусусиятлари бу хизматлар бозоридаги

иқтисодий муносабатларнинг ўзига хослигини белгилаб беради. Унинг ўзига хос хусусиятларидан бири ишлаб чиқариш воситаларига давлат мулки ҳиссасининг кўплиги натижасида ундаги монополлашиш даражаси юқорилигидир. Ушбу ҳолат мавжудлигига сабаб эса таълим хизматларининг аралаш неъмат эканлигидир.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ташходжаев М.М., Таълим хизматлари бозори ва унинг ривожланишининг иқтисодий таҳлили// “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 1, январь-февраль, 2014. 4 -бет.
2. Мухаммедов М.М., ва бошқалар. Хизмат кўрсатиш соҳаси ва туризмнинг ривожлантиришнинг назарий асослари. Монография. “Зарафшон нашриёти”, Самарқанд, 2017.-300 б.
3. Пардаев М.Қ.Иқтисодиётга оид атамаларнинг таърифлари. Т.: “Fan va texnologiyalar” nashriyot-matbaa uyi, 2022– 106 бет.
4. Тохиров Ж.Р.Таълим хизматлари сифатини оширишда давлат-хусусий шерикликнинг ташкилийиқтисодий механизмларини шакллантириш. ИФБФД (PhD). дис. автореферати Нукус, 2022. – 13 бет.

N.E.Ernazarov, PhD, dots., *Samarqand iqtisodiyot va servis instituti.*

AKSIZOSTI TOVARLARNI SOLIQQA TORTISHNING IQTISODIY AHAMIYATI

Annotatsiya. ***Ushbu maqolada aksizosti tovarlarni soliqqa tortishning iqtisodiy ahamiyati byudjet daromadlarini ta’minlashdagi ta’sirchanligi ekanligi tadqiq etilgan hamda aksiz solig'ining huquqiy mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha muhim takliflar bayon etilgan.***

Kalit so‘zlar: *soliq tizimi, aksiz solig‘i, soliq bazasi, byudjet, soliq to'lovchi, byudjet tushumlari, monitoring tizimi, huquqiy asos, yashirin aylanma, soliq amaliyoti.*

Aksiz solig'i asrlar davomida mamlakatlar soliq tizimida juda muhim rol o'ynadi, birinchi navbatda, davlat byudjetini to'ldirishning asosiy manbai hisoblanadi. Xususan mamlakatimiz iqtisodiyoti rivojlanishining turli tarixiy bosqichlarida aktsiz solig'i iqtisodiy voqelikka moslashgan holda turli shakllarda qo'llanilgan. Bugungi kunda amaldagi aktsiz solig'i mamlaktimiz soliq tizimida 1992 yilda bozor munosabatlariga o'tgan mamlakat iqtisodiyotining o'zgarishi munosabati bilan paydo bo'ldi, bu esa butun soliq tizimini isloh qilishni talab qildi.

Hozirgi bosqichda mamlakatimizda aktsiz solig'i tizimini baholashda bir qator muhim fikrlarni ta'kidlash mumkin. Soliqlar va yig'imlar to'g'risidagi qonun hujjatlari so'nggi yillarda aktsizlar nuqtai nazaridan sezilarli o'zgarishlarga duch keldi. Hozirgi

vaqtda aktsiz to'lanadigan tovarlarning assortimenti aniq belgilangan bo'lib, u ko'pgina iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda aktsiz solig'i to'lanadigan tovarlar guruhlariga to'g'ri keladi.

Mamlakatimizda aksizosti tovarlar soliqqa tortish iqtisodiy mohiyati va huquqiy asoslari xorijiy hamda mahalliy iqtisodchi olimlarning qarashlarida quyidagicha yoritilgan.

O.R.Tegetayeva fikricha, “aksiz solig‘i bilvosita soliq tarkibiga kirsada, hozirda uning asosiy ahamiyati aholi ijtimoiy iste’molining holati va istiqbolini baholash mezoni ekanligidadir”[234].

L.V.Borovko fikricha, “hozirgi zamon soliq siyosatining istiqbolli yo‘nalishi va konseptual aksiz solig‘iga tortish amaliyotining ijtimoiy yo‘naltirilgan modelini shakllantirish va uning samarali rivojlanishini ta’minlashdir”[235].

Bizning fikrimizcha, aksiz solig‘i xuquqiy mexanizmi takomillashtirish soliq tizimida aksizosti tovarlarni har bir tovar pozitsiyasi bo‘yicha soliqni hisoblash amaliyotini tashkil etishdagi xuquqiy munosabatlardir. Shu bois, aksiz solig‘ini xuquqiy mexanizmini takomillashtirish maqsadida aksiz solig‘ini xuquqiy mexanizimini o‘rganish muhim hisoblanadi.

Mamlakatimizda aktsiz solig'i tizimini rivojlantirish jarayonida davlat uchun foydaliroq bo'lgan maxsus aktsiz stavkalaridan foydalanishga o'tish amalga oshirildi. Xusasan, 2025 yil uchun 18 ta tovar pozitsiyasiga nisbatan soliq stavkasi joriy etilgan[236]. Aktsiz to'lanadigan tovarlar ro'yxatini shakllantirish, shuningdek, byudjet daromadlari bilan bevosita bog'liq bo'lmagan muammolarni hal qilishga qaratilganligidan kelib chiqqan holda, aktsiz solig'ining mavjudligi va qo'llanilishi zarurati, ulardan davlat byudjetini shakllantirishda fiskal vosita sifatida foydalanishdan tashqari, alohida iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solish zarurati bilan bog'liqdir.

Davlat byudjeti daromadlarini ta’minlashda aksiz solig‘i mexanizmini takomillashtirishda byudjetning soliqli tushumlarida aksizosti tovarlardan tushumlarning miqdoriga bevosita bog‘liqdir. Ushbu soliqli daromadlarning amaldagi miqdorini tahlil etish orqali tushumlarning miqdorini pasayishi yoki ko‘payishiga ta’sir etuvchi omillarning ta’sirchanligi ma’lum darajada davlat byudjetining daromadlar ko‘rsatkichiga bog‘liqdir. Tahlil etilayotgan holatda byudjet daromadlariga aksiz solig‘idan 2022 yil 15 038,3 mlrd.so‘m tushib 2021 yilga nisbatan 1951,8 mlrd.so‘m ortig‘i bilan bajarilgan. 2023 yilda 17 884.0 mlrd.so‘mlik soliq tushumi tushishi progoz qilingan. Aksizosti tovarlar tarkibida 2021 yilga nisbatan 2022 yil holatida Tamaki mahsulotlaridan +68,6 mlrd.so‘mlik, alkogol

---

[234] Тегетаева О.Р. К проблемам реформи аксизного налогообложения// Налоговий менеджмент. – 2016. – № 6.-с.23-27.

[235] Боровко Л.В. Формирование социально-ориентированной модели аксизного налогообложения и эффективност её развития// Проблеми экономики и юридической практики, 2012, №6, с. 71-75.

[236] O‘zbekiston Respublikasining 2024 yil 24 dekabrdagi O‘RQ-1014-sonli «Soliq va byudjet siyosatining 2025 yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan o‘zbekiston respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida»gi Qonuni

mahsulotlaridan +106.8 mlrd.so‘mlik, neft mahsulotlari va boshqa aksiz to‘lanadigan tovarlar va xizmatlaridan +19.5 mlrd.so‘mlik, yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan +532.8 mlrd.so‘mlik soliq tushimi tushgan. Shuningdek, 2022 yilda suyultirilgan gaz ishlab chiqaruvchilardan olinadigan aksiz solig‘i bekor qilindi. Buning natijasida tadbirkorlik sub’ektlari ixtiyorida 51,6 mlrd so‘m qoldirilgan(1-jadvalga qaralsin).

1-jadval

Aksizosti tovarlar realizatsiyasidan davlat byudjetiga tushumlar tahlili[237]

T/r	Aktsizosti tovarlar	2021 y	2022 y	2023 y	2024 y
	Aksiz solig‘idan tushum jami	13 086,5	15 038,3	17 884,0	22 769,0
1	Tamaki mahsulotlaridan	1929,8	1998,4	2 439,0	2 571,0
2	Alkogol mahsulotlaridan	1689,4	1 796,2	1 959,0	2 843,0
3	Neft mahsulotlari va boshqa aksiz to‘lanadigan tovarlar va xizmatlaridan	505,5	576,6	525,0	853,0
4	Tabiiy gazdan	4 273,5	4 221,9	6 965,0	8 715,0
5	Mobil aloqa xizmatidan	1 084,3	868,0	1 003,0	1 145,0
6	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan	2 855,1	3 387,9	3 896,0	5 290,0
7	Polietilen granulalardan	372,1	251,4	325,0	250,0

Aksiz solig‘i mamlakatimizda davlat byudjeti daromadlarini ta’minlashda muhim **fiskal instrument** hisoblanadi. 2021–2024 yillarda aksiz tushumlari 13,0 trln. so‘mdan 22,7 trln. so‘mgacha o‘sgani buning yaqqol isbotidir. Tamaki va alkogol mahsulotlaridan olinadigan aksiz tushumlari barqaror o‘sish dinamikasiga ega bo‘lib, bu sohadagi ichki bozor salohiyati yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

Soliq tizimida tizimli islohatlarni amalga oshirish uchun quyidagi ilmiy takliflarni amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiqdir:

-soliq stavkalarini diversifikatsiya qilish – xavfli va salomatlikka zararli tovarlar (tamaqi, alkogol) uchun yuqori stavkalarni saqlab qolgan holda, ishlab chiqarishda foydalaniladigan xomashyo mahsulotlari uchun imtiyozli stavkalarni joriy etish zarur;

-ekologik yo‘naltirilgan aksiz siyosati – atrof-muhitga salbiy ta’sir etuvchi tovarlar uchun yuqori stavkalar qo‘yish, “yashil iqtisodiyot”ga xizmat qiluvchi mahsulotlar uchun esa imtiyoz berish lozim;

-aniq stavkalar amaliyotini kengaytirish – aksiz to‘lanadigan barcha asosiy tovarlar bo‘yicha yagona metodologiya asosida aniq stavkalarni belgilash zarur;

-ijtimoiy yo‘naltirilgan yondashuv – aksiz solig‘idan tushgan mablag‘larning ma’lum qismi sog‘liqni saqlash va profilaktika dasturlariga yo‘naltirilishi kerak.

Foydalanilgan Adabiyotlar Ro‘Yxati:

[237] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 dekabrdagi O‘RQ-742-sonli, 2020 yil 30 dekabrdagi O‘RQ-657-sonli, 2022 yil 30 dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonunlari asosida tayyorlandi

1. O‘zbekiston Respublikasining 2024 yil 24 dekabrdagi O‘RQ-1014-sonli «Soliq va byudjet siyosatining 2025 yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan o‘zbekiston respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida»gi Qonuni

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 dekabrdagi O‘RQ-742-sonli, 2020 yil 30 dekabrdagi O‘RQ-657-sonli, 2022 yil 30 dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonunlari asosida tayyorlandi

Ilmiy rahbar: **Allayarov Suxrob Rustamovich** TDIU dotsenti, PhD
Qurbonov Xusrav Xudoyberdi o‘g‘li, talaba

YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISH SHAROITIDA BARQAROR IQTISODIY O‘SISHGA ERISHISH, DAVLAT IQTISODIY SIYOSATINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH

Anotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonining ahamiyati va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashdagi o‘rni tahlil qilingan. Yashil iqtisodiyotning asosiy tamoyillari, barqaror o‘sish omillari hamda davlat siyosatini takomillashtirish yo‘nalishlari yoritilgan. Shuningdek, yashil moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish, ekotexnologik modernizatsiyani jadallashtirish va ekologik kompetensiyalarni rivojlantirish bo‘yicha takliflar berilgan. Tadqiqot natijalari O‘zbekistonning ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy barqaror rivojlanish modelini shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar:

Yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, ekologik siyosat, yashil moliyalashtirish, ekotexnologiyalar, energiya tejamkorlik, ekologik kompetensiyalar, xalqaro hamkorlik, innovatsiyalar, ijtimoiy tenglik, davlat siyosati, O‘zbekiston.

Kirish

So‘nggi yillarda global miqyosda iqlim o‘zgarishi, bioxilma-xillikning kamayishi, suv resurslarining tanqisligi va atmosferaning ifloslanishi insoniyatning barqaror rivojlanishiga jiddiy tahdid solmoqda. Bu kabi muammolar nafaqat tabiatga, balki iqtisodiyotning sekinlashuviga ham sab bo’lmoqda. Jahon Iqlim Forumi (World Climate Forum) ma’lumotlariga ko‘ra, agar global harorat 2°C ga oshsa, dunyo iqtisodiyotining yillik yo‘qotishlari yalpi ichki mahsulotning 10 foizigacha yetishi mumkin.[238] Shu bois ko‘plab mamlakatlar “yashil iqtisodiyot” modeliga o‘tishni tezlashtirmoqda. Ushbu model ekologik xavfsizlikni ta’minlash, iqtisodiy o‘sishni resurslardan oqilona foydalanish asosida tashkil etish va ijtimoiy tenglikni mustahkamlashda muhim vosita hisoblanadi.

238 World Climate Forum (2022). *Global Economic Costs of Climate Change*.

O‘zbekiston ham bu global jarayonlardan chetda qolmaganligini hammaga ma’lum. So‘nggi yillarda mamlakatda yashil iqtisodiyotga tizimli o‘tish chora-tadbirlarlarini joriy etish, ekologik muvozanatni saqlash va energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha aniq, samarali islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2022-yilda qabul qilingan “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident qarori ushbu yo‘nalishdagi chora-tadbirlarning konseptual asosini belgilab berdi.[239] Mazkur hujjat iqtisodiyot tarmoqlarini ekologik talablarga moslashtirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va barqaror rivojlanish siyosatini shakllantirishni ustuvor vazifa sifatida belgilagan.

Yashil iqtisodiyotga o‘tish O‘zbekiston uchun nafaqat ekologik xavfsizlikni ta’minlash, balki uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash imkonini beradi. Bu jarayon mamlakatning xalqaro reytinglardagi o‘rnini oshiradi, yangi “yashil” ish o‘rinlarini yaratadi hamda jamiyatda ekologik madaniyatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois ushbu maqolada yashil iqtisodiyot konsepsiyasining mohiyati, barqaror iqtisodiy o‘sish bilan o‘zaro bog‘liqligi, davlat siyosatini yanada takomillashtirish zaruriyati hamda mavjud muammolar va ularning amaliy yechimlari ilmiy asosda tahlil qilinadi.

1. Yashil iqtisodiyot tamoyillari

Bugungi dunyoni iqtisodiy o‘sishi raqamlari bilan emas, resurslardan qay darajada ongli foydalanish bilan o‘lchash davri keldi. Shuning uchun ham “yashil iqtisodiyot” tushunchasi endi shunchaki iqtisodiy yo‘nalish emas, balki insoniyatning kelajakka bo‘lgan mas’uliyatli qarashi sifatida talqin etilmoqda. Bu modelning asosi “barqarorlik” konsepsiyasidir: u iqtisodiy o‘sishni bugungi ehtiyojlarga mos tarzda tashkil etar ekan, kelajak avlod manfaatlariga putur yetkazmaslikni ta’minlaydi. Yashil iqtisodiyot uchta poydevorga tayangan holda barqaror o‘sishni quradi:

ekologik barqarorlik, resurslardan samarali foydalanish va ijtimoiy tenglik.

Ekologik barqarorlik – kelajak uchun bugundan javobgarlik!

Ekologik barqarorlik — tabiatni asrashni emas, tabiat bilan hamkorlikda yashashni anglatadi. Chunki har bir daraxt, har bir suv tomchisi inson hayotining bir bo‘lagidir. Zamonaviy ishlab chiqarish ekologik xavfsizlikni ta’minlamasdan turib ish boshlamasligi kerak. Masalan, Yevropada “yashil sertifikatlash” tizimi ishlab chiqaruvchi korxonalarning tabiatga qanchalik ehtiyotkor munosabatda ekanini o‘lchaydi. O‘zbekistonda ham bu yo‘nalishda ijobiy qadamlar tashlanmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 26-sentabrdagi Prezident farmonida: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 49-moddasiga muvofiq,

[239] Qaror: “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining ‘yashil’ iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 2022-yil 2-dekabr. PQ-436-son. https://lex.uz/uz/docs/-6303230

fuqarolarning qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqini amalga oshirish uchun maqbul sharoit va mexanizmlar yaratish hamda respublikada chiqindilarni boshqarish tizimini isloh qilish, chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish sohasida yagona davlat siyosatini yuritish, sohadagi xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish tizimini tashkil etish maqsadida maqsadli ishlar olib borilmoqdaligi aytib o‘tilgan.[240]



1- rasm: Yashil iqtisodiyot va davlat siyosati, muammo va yechimlar

Demak, ekologik barqarorlik — bu nafaqat siyosiy maqsad, balki **iqtisodiy madaniyatning yangi bosqichi**dir.

Resurslardan samarali foydalanish – “kam resurs, ko‘p natija” tamoyili

Iqtisodiyotda o‘sish har doim ham ko‘proq xomashyo sarfi degani emas. Aksincha, bugungi kun iqtisodiyoti “kam resurs, ko‘p natija” shioriga asoslanmoqda. O‘zbekiston energetika tizimi ham bu yo‘nalishda jadal islohotlar olib bormoqda. Iqtisodiyot tarmoqlarining yirik energiya sarflovchi korxonalarida energiya samaradorligini oshirish va yoqilg‘i-energetika resurslarini tejash bo‘yicha chora-tadbirlar belgilandi. Iqtisodiyot tarmoqlari va faoliyat turlari bo‘yicha iqtisodiyotning energiya sarfi (energiya sig‘imi) 2026-yilga borib 22 foizga kamaytiriladi.

[240] Prezident farmoni: Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohalarida ochiqlikni ta’minlash hamda boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 26.09.2024 yildagi PF-149-son. https://lex.uz/uz/docs/-7128153

Konsepsiya respublika iqtisodiyotining raqobatbardoshligini, moliyaviy barqarorligini, energetik va ekologik xavfsizligini oshirish, shuningdek, energiya tejash salohiyatini ko‘tarish, modernizatsiya qilish, texnologik rivojlantirish va yoqilg‘i-energetika resurslaridan oqilona foydalanish hamda energiya samaradorligini oshirish orqali aholi turmush darajasini va ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishga qaratilgan.

Resurslardan oqilona foydalanish — bu innovatsiya, tejamkorlik va mas’uliyatning uyg‘unlashgan shaklidir.

Ijtimoiy tenglik – yashil taraqqiyotning yuragi

Yashil iqtisodiyotning eng insoniy o‘lchovi — bu **ijtimoiy tenglik** tamoyilidir. Chunki haqiqiy taraqqiyot raqamlar bilan emas, odamlarning hayotidagi real o‘zgarishlar bilan baholanadi. Barqaror o‘sish faqat iqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘sishi emas, balki har bir fuqaroning ijtimoiy farovonligida o‘z aksini topgandagina chin ma’noda yashil bo‘la oladi. Masalan, Qoraqalpog‘iston Respublikasida shamol va quyosh elektr stansiyalarining qurilishi nafaqat ekologik tozalikni ta’minladi, balki minglab yangi ish o‘rinlarini yaratdi, mahalliy aholi daromad manbalarini kengaytirdi. Bu jarayon ijtimoiy adolat, iqtisodiy o‘sish va ekologik barqarorlik o‘rtasidagi uch tomonlama uyg‘unlikni yaqqol ifodalab berdi.

Shunday qilib, yashil iqtisodiyot bu — tabiatni asrab, insonni unutmashlik; iqtisodiy o‘sishni ta’minlab, adolatni chetlab o‘tmaslikdir. U inson va tabiat o‘rtasida muvozanat o‘rnatish orqali yangi, mas’uliyatli taraqqiyot modelini shakllantiradi.

Yashil iqtisodiyot — bu nafaqat ekologik tozalikni ta’minlash, balki iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy adolat va barqaror rivojlanishni uyg‘unlashtiruvchi yangi taraqqiyot modelidir. Mazkur yo‘nalish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar O‘zbekistonning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlash bilan birga, kelajak avlodlar uchun toza, farovon va barqaror hayot asoslarini yaratadi.

2. Barqaror iqtisodiy o‘sishning asosiy omillari.

Barqaror moliyalashtirish — kelajak uchun sarmoya

Barqaror moliyalashtirish – bu iqtisodiy foydadan tashqari, ekologik va ijtimoiy natijalarga ham e’tibor qaratadigan yangi moliyaviy yondashuvdir. Bunday sarmoyalar qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilarni qayta ishlash, ekologik infratuzilma va toza transport tizimlarini rivojlantirishga yo‘naltiriladi. Masalan, 2024-yilda O‘zbekiston hukumati, Jahon banki guruhi va “Masdar” kompaniyasi o‘rtasida 250 MVt quvvatga ega quyosh elektr stansiyasi va 63 MVt energiya saqlash tizimini barpo etish bo‘yicha bitim imzolandi. Ushbu loyiha 75 mingdan ortiq uy xo‘jaligini ekologik toza energiya bilan ta’minlab, mamlakatda **yashil moliyaviy instrumentlar**ning amaliy namunasiga aylandi. [241]Bu Markaziy Osiyoda qayta tiklanadigan energiya bo‘yicha birinchi shunday tashabbus bo‘lib, unda yangi quyosh elektr stansiyasi infratuzilmasiga elektr energiyasini saqlash tizimi birinchi marta integratsiya qilinadi. Ushbu tizim energiya ta‘minoti barqaror bo‘lishini ta‘minlash va qayta tiklanadigan energiya ishlab chiqarishdagi uzilishlarni kamaytirish orqali energiya tizimining samaradorligi va moslashuvchanligini yaxshilaydi.

[241] World Bank Group & Masdar. “Uzbekistan to Develop 250 MW Solar Power Plant with Battery Storage under Public-Private Partnership,” Press Release, March 2024.

Shunday qilib, barqaror moliyalashtirish iqtisodiy o‘sishga faqat kapital emas, balki **mas’uliyat va barqarorlik ruhini** olib kiradi.

Yashil innovatsiyalar — o‘sishning yangi turtkisi

Yashil innovatsiyalar — bu texnologik yangiliklarning ekologik g‘oyalar bilan uyg‘unlashgan shaklidir. Ular iqtisodiy faoliyatni ekologik xavfsiz, resurs tejamkor va raqamli yechimlar asosida tashkil etishni ta’minlaydi. O‘zbekistonda “Yashil innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi” orqali chiqindilarni qayta ishlash, suvni tejovchi “aqlli” sug‘orish tizimlari, hamda energiya monitoringi dasturlari joriy etilmoqda. Bu texnologiyalar ishlab chiqarish jarayonini yanada ekologik, samarali va raqamli boshqariladigan shaklga keltirmoqda. Bundan tashqari ekologiyaga zarar yetkazmaydigan infratuzilmani shakllantirish va sanoat korxonalarida aylanma (sirkulyar) iqtisodiyot amaliyotini joriy qilish, bunda, modernizatsiya jarayonlarini rag‘batlantirish kabi maqsadli ishlar amalda joriy etilmoqda.

Yashil innovatsiyalar — bu kelajak iqtisodiyotining “dvigateli”, ular orqali iqtisodiy o‘sish ekologik barqarorlik bilan hamohang tarzda rivojlanadi.

Energiya tejamkorligi — iqtisodiy samaradorlik kaliti

Energiya tejamkorligi – bu “kamroq sarf, ko‘proq foyda” tamoyilining eng aniq ifodasidir. U ishlab chiqarish, transport, infratuzilma va uy xo‘jaliklarida energiya resurslarini oqilona sarflashni anglatadi. energiya samaradorligi sohasida yechimlarini joylashtirish — 2030-yilda birlamchi qo‘shimcha energiya ehtiyojisiz yalpi ichki mahsulot hajmini ikki baravarga oshirish maqsadiga erishish uchun birlamchi energiya intensivligini ikki baravarga kamaytirish hamda alohida qiymat zanjirlari va tarmoqlarini yaratish uchun aylanma iqtisodiyot bo‘yicha harakatlar rejalari — tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat chiqindilari, ifloslanish va gaz chiqindilarini kamaytirish maqsadida qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat zanjirida aylanma iqtisodiyot tamoyillarini amalga oshirish kabi ishlar bosqichma bosqich bajarilmoqda. [242]Bunday yondashuv nafaqat ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi, balki chiqindilarni qisqartirish orqali **iqlimga salbiy ta’sirni kamaytiradi**.

Aslida, energiya tejamkorligi — bu texnik jarayon emas, balki tafakkur darajasi: u iqtisodiy o‘sishni tabiat bilan muvozanatda saqlashga o‘rgatadi. Shunday qilib, ushbu uch yo‘nalish – barqaror moliyalashtirish, yashil innovatsiyalar va energiya tejamkorligi – O‘zbekistonning yashil iqtisodiyotga o‘tishida hal qiluvchi omillar sifatida shakllanmoqda. Ushbu tashabbuslar orqali mamlakat ekologik barqarorlikni mustahkamlabgina qolmay, balki raqobatbardosh, innovatsion va ijtimoiy jihatdan mas’uliyatli iqtisodiy tizimni shakllantirish yo‘lida muhim qadam tashlamoqda.

3. Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari

Yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida davlat siyosati markaziy o‘ringa ega. Chunki bu yo‘nalish nafaqat ekologik muammolarni hal etadi, balki iqtisodiy

[242] https://lex.uz/uz/docs/-6303230#-6305385

o‘sishning yangi modelini shakllantiradi. Davlatning asosiy vazifasi — yashil o‘sishni ta’minlash uchun strategik yo‘nalishlarni belgilash, huquqiy-me’yoriy asoslarni mustahkamlash va iqtisodiy rag‘batlantirish choralarini yo‘lga qo‘yishdir. Natijada mamlakatda barqaror rivojlanish, ekologik xavfsizlik va ijtimoiy farovonlikni ta’minlash imkoniyati kengayadi.

Yashil fiskal mexanizmlar – iqtisodiyotga ekologik rag‘bat

Davlatning yashil iqtisodiyotdagi eng muhim vazifalaridan biri — soliq va subsidiyalar siyosatini ekologik yo‘nalishga o‘tkazishdir. **“Yashil soliqlar”** — bu tabiatga zarar yetkazuvchi faoliyatni iqtisodiy yo‘l bilan cheklovchi mexanizm. Soliqlar va davlat xarajatlarining “yashil” iqtisodiyotga muvofiqligi va ta’siri to‘g‘risidagi ma’lumotlarni baholash va oshkor qilish uchun “yashil” budjet metodologiyasini joriy etish — “yashil” ustuvor yo‘nalishlarga ijobiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatadigan soliqlar va davlat xarajatlari ulushini baholash uchun shu metodologiyani yanada aniq loyihalar bilan joriy etish, shu bilan birga, ekologik toza texnologiyalarni joriy qilayotgan korxonalarni soliq imtiyozlari va subsidiyalar orqali rag‘batlantirish siyosati ham kengaymoqda.

Masalan, qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish xizmatlari uchun majburiy to‘lovlar aholi va yuridik shaxslar tomonidan to‘lov hisoblangan davrdan keyingi oyning o‘ninchi sanasiga qadar Agentlikning maxsus tranzit bank hisobvaraqlariga to‘lanadi va uning maxsus bank hisobvarag‘ida jamlanadi. Agentlik va uning tizimidagi tashkilotlarga Sanitar tozalash ishlarini tashkil etish respublika markazi va boshqa tashkilotlardan o‘tkazilayotgan ko‘chmas mulk obyektlariga va boshqa mol-mulkka bo‘lgan huquqlar tegishli yig‘imlar va boshqa to‘lovlar undirilmagan holda qayta rasmiylashtiriladi.[243] To‘lov tizmidagi har qanday kechiktirish jarima solinishiga sabab bo‘ladi. Bu, bir tomondan, byudjetga qo‘shimcha tushum keltirsa, ikkinchi tomondan — ekologik javobgarlikni iqtisodiy shaklda mustahkamladi.

Ekologik moliya tizimi – yashil iqtisodiyotning yuragi.

Barqaror o‘sishni moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlamasdan turib yashil iqtisodiyotga o‘tish mumkin emas. Shu sababli O‘zbekistonda ekologik moliya tizimini shakllantirish yo‘lga qo‘yilmoqda. Yashil iqtisodiyot infratuzilmasini rivojlantirishda davlat kapitalining bosqichma-bosqich yo‘naltirilishi muhim amaliy yo‘nalishlardan biridir. Bu jarayonda ekologik loyihalarga sarmoya kiritish imkoniyatlarini aniqlash, moliyalashtirishdagi bo‘shliqlarni kamaytirish va mavjud resurslarni samarali taqsimlash zarur. Shu bilan birga, “yashil” obligatsiyalar va ESG (Environmental, Social, Governance) mezonlariga asoslangan investitsiyalar xususiy kapitalni jalb etishning muhim vositasi sifatida xizmat qilmoqda. Bunday

[243] Prezident farmoni: Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohalarida ochiqlikni ta’minlash hamda boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 26.09.2024 yildagi PF-149-son. https://lex.uz/uz/

mexanizmlar orqali davlat moliyaviy siyosatini barqarorlik tamoyillari bilan uyg‘unlashtirib, xususiy sektorda “yashil” tashabbuslarni rag‘batlantirish imkonini bermoqda. Markaziy bank tashabbuslari natijasida esa tijorat banklari tomonidan energiya tejamkor texnologiyalarni moliyalashtirish uchun maxsus kredit liniyalari joriy etilib, “yashil” moliyalashtirish tizimi amaliyotga tobora chuqurroq kirib bormoqda. Kelgusida esa “Yashil moliya markazi”ni tashkil etish orqali ekologik loyihalarni yagona tizim asosida moliyalashtirish rejalashtirilmoqda.

Ekologik standartlar va nazorat tizimi – shaffoflik kafolati

Davlat siyosatining muhim tarkibiy qismi — ekologik standartlar va monitoring tizimlarini takomillashtirishdir. Bugungi kunda O‘zbekistonda ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi hamda Adliya vazirligi tomonidan 2026-yil 1-yanvardan boshlab hududlarda chiqindilar bilan ishlash darajasini oshirish, bu jarayonda ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash, jamoatchilikning faolligini kuchaytirish hamda tadbirkorlar va aholining fikr-mulohazalarini inobatga olgan holda samarali qayta aloqa tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi. Mazkur takliflar atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida yangi bosqichni boshlab berishi kutilmoqda va ularga belgilangan tartibda rozilik berildi. Amalda esa chiqindilarni tashish bilan shug‘ullanuvchi barcha maxsus texnikalarga sanitar tozalash korxonalari mablag‘lari hisobidan onlayn kuzatuv (GPS) tizimini o‘rnatish hamda mazkur texnikalarni kuzatish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar uchun oylik to‘lovlarni markazlashgan holda amalga oshirish va bu orqali chiqindilarning belgilangan grafik va muddatlarga muvofiq olib chiqib ketilishini kuzatish imkoniyatini yaratish belgilandi.

Ekologik nazorat — bu shunchaki tekshiruv emas, balki barqarorlikka xizmat qiluvchi axborot mexanizmidir.

4. Yashil iqtisodiyotga o‘tishdagi asosiy muammolar va ularning tizimli yechimlari

O‘zbekistonda yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish jarayoni izchil davom etayotgan bo‘lsa-da, bu sohada hali ham tizimli to‘siqlar mavjud. Mazkur muammolar nafaqat iqtisodiy mexanizmlar, balki ilmiy, texnologik va inson kapitali bilan bog‘liq omillar bilan ham uzviy aloqador. Quyida ushbu jarayonni sekinlashtirayotgan uch asosiy muammo va ularning yechim yo‘llari tahlil qilinadi.

Yashil moliyalashtirish imkoniyatlarining cheklanganligi

Ko‘plab ekologik loyihalar katta hajmdagi boshlang‘ich investitsiyalarni talab etadi, biroq banklar va investorlar bu yo‘nalishdagi tashabbuslarni moliyalashtirishda hali sustlik qilmoqda. Masalan, 2022-yilda qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik texnologiyalar sohasiga yo‘naltirilgan sarmoyalar mamlakatdagi umumiy investitsiyalar hajmining atigi 5,2 foizini tashkil etdi. Bunday holat yashil iqtisodiyotni moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining yetarli emasligini ko‘rsatadi.

Bu sohadagi kamchiliklarni samarali hal etish uchun davlat tomonidan “Yashil investitsiya jamg‘armasi”ni tashkil etish, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni kuchaytirish, va yashil obligatsiyalar bozorini rivojlantirish zarur. Ekologik moliya sohasidagi sarmoyalarni kengaytirish uchun davlat tashabbuslari,

xalqaro hamkorlik va yangi moliyaviy vositalarni joriy etish muhim ahamiyatga ega. Bu fikrni ekologik moliya va barqaror rivojlanish yo‘nalishida faol izlanish olib borayotgan mutaxassislarning ilmiy ishlanmalarida ham uchratish mumkin.

Ekotexnologik modernizatsiyaning sustligi

O‘zbekistonda ko‘plab sanoat korxonalari, energiya tizimlari va kommunal infratuzilmalar texnik jihatdan eskirgan. Ayniqsa, energetika sohasida ishlatilayotgan issiqlik stansiyalari yuqori energiya sarfi va chiqindilar miqdori bilan ekologik xavf tug‘dirmoqda. Bu esa ishlab chiqarish samaradorligini pasaytiradi va atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Bu masalani yechimi sifatida zamonaviy ekotexnologiyalarni ishlab chiqarish jarayonlariga joriy etish, texnoparklar va innovatsion markazlar orqali yangi texnik yechimlarni ishlab chiqish, hamda xorijiy ilg‘or tajribalarni mahalliy sharoitga moslashtirish muhimdir. Shuningdek, davlat tomonidan ekologik modernizatsiyani qo‘llab-quvvatlash uchun soliq imtiyozlari va grant tizimlarini joriy etish ishlab chiqarishning ekologik samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ekologik kompetensiyalar va yashil bilimlar yetishmasligi

Yashil iqtisodiyotning muvaffaqiyati malakali kadrlar salohiyatiga bevosita bog‘liq. Ammo hozircha bu yo‘nalishda yetarli darajada tayyorlangan mutaxassislar kam.

“Yashil buxgalteriya”, “ekologik menejment”, “energiya auditi” va “barqaror rivojlanish tahlili” kabi sohalarda kadrlar tayyorlash tizimi to‘liq shakllanmagan.

Sohaga oid yechimlar qidirar ekanmiz, oliy ta’lim muassasalarida yashil iqtisodiyot va ekologik boshqaruv yo‘nalishlarida yangi mutaxassisliklar ochish, xalqaro standartlarga mos qayta tayyorlash kurslarini yo‘lga qo‘yish, shuningdek, xususiy sektor bilan qo‘shma o‘quv dasturlarini tashkil etish zarur. Bundan tashqari, aholining ekologik madaniyatini oshirish maqsadida media kampaniyalar, ta’lim loyihalari va volontyorlik tashabbuslarini rivojlantirish foydali natija beradi.

Xulosa

Yashil iqtisodiyotga o‘tish O‘zbekiston uchun nafaqat ekologik zarurat, balki yangi iqtisodiy imkoniyatlar davrini boshlab bermoqda. Ushbu model iqtisodiy o‘sishni ta’minlash bilan birga, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish va aholining hayot sifatini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Mamlakatda so‘nggi yillarda yashil moliyalashtirish, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish va ekologik boshqaruv tizimini takomillashtirish bo‘yicha muhim tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, mavjud muammolar — moliyaviy resurslarning cheklanganligi, texnologik modernizatsiyaning sustligi hamda ekologik kompetensiyalar yetishmasligi — bosqichma-bosqich bartaraf etilmoqda. Bu yo‘nalishda davlat siyosati, xalqaro hamkorlik va ilmiy-amaliy izlanishlar muhim natijalar bermoqda. Ayni paytda “yashil jamg‘arma”lar tashkil etish, xalqaro moliyaviy institutlar bilan aloqalarni kuchaytirish, yangi energiya manbalarini rivojlantirish va ta’lim tizimida yashil yo‘nalishlarni kengaytirish orqali sohada sezilarli ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Bularning barchasi O‘zbekistonning barqaror iqtisodiy o‘sishga, ekologik xavfsizlikni ta’minlashga va ijtimoiy adolat tamoyillariga tayangan holda rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi “Yashil iqtisodiyotga oʻtish strategiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi PF–4477-son Farmoni.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 3-iyundagi “Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi davlat siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 354-son qarori.
3. Oʻzbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi. ― Yillik hisobot, 2024-yil.
4. “Oʻzbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotga oʻtish strategiyasi (2019–2030)” ― Toshkent, 2019.
5. United Nations Environment Programme (UNEP). *Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication.* ― Nairobi, 2011.
6. OECD. *Towards Green Growth.* ― Paris: OECD Publishing, 2011.
7. World Bank. *Uzbekistan: Green Growth and Climate Action Report.* ― Washington, 2022.
8. Xamidov, N. “Barqaror rivojlanish sharoitida yashil iqtisodiyotning ustuvor yoʻnalishlari.” *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali*, №3, 2023.

Sobirov Ilhom Xusanovich Samarqand davlat arxitektura qurilish universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti

Rayimov Ma’rufjon Abdurashid o‘g‘li Samarqand davlat arxitektura qurilish universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasi oʻqituvchisi

O‘ZBEKISTONDA TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIGINITARTIBGA SOLISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI

Annotatsiya: *Maqolada mamlakatimiz tijorat banklarining likvidliligini tartibga solish boʻyicha toʻplangan tajriba, hozirgi kundagi amaldagi holat tahlil etilgan, tijorat banklarining likvidliligini tartibga solish bilan bogʻliq boʻlgan muammolar aniqlangan va ularni hal qilishga qaratilgan ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit soʻzlar: *tijorat banki, Markaziy bank, likvidlilik, bank likvidliligi, aktiv, majburiyat, depozit, risk, Yuqori likvidli aktivlar, majburiy zaxira siyosati, ochiq bozor operatsiyalari.*

Kirish:Oʻzbekiston Respublikasi tijorat banklari likvidliligini boshqarish va ularning moliyaviy barqarorligini oshirish boʻyicha qator ishlar amalga oshirilmoqda va tegishli samaraga erishilmoqda. Xalqaro valyuta jamgʻarmasi, xalqaro Bazel qoʻmitasi tijorat banklari likvidliligini tartibga solish boʻyicha qator talablar, me’yorlar va tamoyillarni takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlarni amalga oshirgan. Ushbu tadqiqotlarda tijorat banklari likvidliligi bilan bogʻliq riskni kamaytirish, likvidlilikni tartibga solish va ta’minlash hamda uni aniqlashni takomillashtirishga doir mexanizmlarni yaratgan. Biroq, raqamli iqtisodiyotda tijorat banklari likvidliligini tartibga solishda kutilmaganda talablarni bajarish, Yuqori

likvidli va barqaror mablag‘lar bilan ta’minlash kabi masalalar o‘zining ilmiy echimini topmagan. Xususan, banklarning riskli aktivlari va muddatli mablag‘lari o‘rtasida muvozanatni buzilishi, banklarning likvid mablag‘larga bo‘lgan talabini zudlik bilan qondirilmasligi, likvidlilikni tartibga solishda bozor instrumentlaridan foydalanmasligi kabi masalalar ilmiy tadqiqot ishlarining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti SH.Mirziyoev o‘z nutqlarida “YAngi moliyaviy instrumentlarni joriy etish va obligatsiyalar chiqarish orqali,bank xizmatlari ko‘lamini yanada kengaytirish, ilg‘or axborot texnologiyalari asosida bank tizimini rivojlantirish zarur” [1]. deya alohida ta’kidladilar.

Darhaqiqat, tijorat banklari investitsion portfeli mamlakat YAIMning 1,8 foiziga ham etmaydi, Markaziy bank tijorat banklari likvidligini oshirish bo‘yicha 2018 yilning to‘qqiz oyi davomida bor yo‘g‘i 292,8 mlrd so‘m yoki mamlakat YAIMning 0,1 foiz miqdorida qisqa muddatli kredit bergan, banklarning jalb qilingan mablag‘lari bo‘yicha o‘rnatilgan foiz stavkalarining yuqorligi tufayli 2018 yil to‘qqiz oyi davomida ushbu zaxira summasi 191,5 mlrd so‘mdan 2522,3 mlrd so‘mga yoki shu davrda 13 baroborga ortgan, milliy iqtisodiyotning pul bilan ta’minlangan darajasi (montizatsiya koeffitsienti) 29,8 foizni tashkil etadi[2]. Bularning barchasi mamlakatimiz tijorat banklari likvidliligiga bevosita va bilvosita ta’sir etadigan omillar hisoblanib, uni amaliy va nazariy jihatdan samarli boshqarish naqadar dolzarb va zarur ekanligini belgilaydi.

Ta’kidlash joizki, 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida tijorat banklarining kapitallashuv darajasi va depozit bazasini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligini va ishonchliligini mustahkamlash makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va Yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini saqlab qolishning zarur shartlaridan biri sifatida e’tirof etilgan
[3].

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 sentyabrdagi PQ-3270-sonli “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida bank nazoratining xalqaro prinsiplari doirasida tijorat banklari kapitalining etarliligi, likvidliligi va barqarorligi bo‘yicha talablarni bajarish vazifasi qo‘yilgan [4].

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda tadqiqot maqsadi tijorat banklari likvidligini tartibga solishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat bo‘lib, ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

- tijorat banklari likvidliligini tartibga solishning xorij tajribasini o‘rganish va uning ijobiy jihatlarini mahalliy amaliyotda qo‘llash yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish;
- O‘zbekistonda tijorat banklari likvidliligini tartibga solish bo‘yicha to‘plangan tajribani o‘rganish va uni amalda qo‘llanilishiga baho berish;
- tijorat banklari likvidliligini tartibga solishni amaliyotdagi holatini tahlil qilish, tegishli xulosalarni shakllantirish va amaliy jihatdan tadqiq etishni talab etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: Tijorat banklari likivdliligi, ularni tartibga solish

kabi masalalar rossiyalik iqtisodchilar O.Lavrushin, I.Larionova, V.Usoskin, V.Kolesnikov, G.Panovalar tomonidan ham juda chuqur o‘rganilib, tegishli ilmiy va nazariy xulosalar shakllantirilgan, quyida ularning ayrimlari bilan tanishib chiqamiz[4].

E.Jarkovskaya tahriri ostida nashr etilgan adabiyotda “likvidlik – bu bankning o‘z vaqtida, to‘liq va minimal xarajatlar evaziga majburiyatini bajarishdir”[5], –deb ta’rif berilgan, biz muallifning o‘z vaqtida va to‘liq degan fikriga qo‘shilamiz, Chunki bank mijozning talabi bo‘yicha pul mablag‘lari o‘tkazish yoki naqd pulga bo‘lgan talabini u talab qilgan payt, ya’ni shu kuni bajarishi juda muhim hisoblanadi. Bank buni bir soat, ikki soat yoki 1-2 kunga kechiktirib bajarishi mumkin kechiktirib bajarishi ham likvidsizlik holatiga tushib qolganligini anglatadi.

Professor O.I.Lavrushin: “Bank likvidligi – uning o‘z vaqtida va kam sarflar hisobiga omonatchilar, kreditorlar va boshqa mijozlar oldidagi majburiyatini ado etishidir”[4]. Bu ta’rifda e’tiborli jihati, biz Yuqorida ta’kidlagan “to‘liq” degan ibora ishlatilmagan, shu jihatdan, fikrimizcha banklar mijozlar oldidagi majburiyatini to‘liq bajarilishi muhim hisoblanadi.

Professor A.Tavasiev: “Bank likvidligi – tahlil jarayonida bank mijozlar va turli kontragentlar oldida majburiyatlarini bajarish imkoniyati va istagining mavjudligida namoyon bo‘ladi”[5]. Fikrimizcha, ushbu ta’rif boshqalariga nisbatan bankning likvidlilik holatini ochib berishga xizmat qila olmaydi, Chunki “tahlil jarayonida”, “imkoniyati va istagining mavjud bo‘lishi” kabi iboralar bu erda ortiqcha qo‘llanilgan bo‘lib, bank likvidli bo‘lishi uchun majburiyatni tuzilish va talab qilingan paytda bajarishi muhim hisoblanadi. Bankning imkoniyati va istagining bor yoki yo‘qligi mijoz o‘z pulini talab qilganda inobatga olinmaydi, agar bajarmasa u likvidsizlik deya baholanib, mijozlarning bankka bo‘lgan ishonchi yo‘qoladi, buning tavsilotlari esa butun bank tizimiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlari, xususan prof. SH.Abdullaeva, prof. A.Omonov, i.f.d. O.Sattarov, i.f.d. A.Abdullaev va boshqa iqtisodchi olimlar ham banklarning lividliligi bo‘yicha o‘z munosabatlari va nuqtai nazarlarini bildirgan, biroq ularning barchasida banklarning likvidliligi aynan raqamli iqtisodiyot sharoitida qanday bo‘lishi masalasi asosiy ob’ekt sifatida qaralmagan.

Masalan SH.Abdullaeva: “Likvidlik atamasi sotish, aktivlarni pul mablag‘lariga aylantirishning amalga oshirilishini, ya’ni bankning Markaziy bank yoki vakil banklardagi naqd pul mablag‘laridan oqilona foydalanish, likvid aktivlarini sotish imkoniyati va h.k. larni anglatadi.”, deb ta’rif bergan bo‘lsa, A.Omonov likvidlikka: “Likvidlik – bu bankning mijozlardan kutilgan va kutilmagan holatlarda moliyaviy resurslarga bo‘lgan talabni qondirish qobiliyatidir”, -deya ta’kidlaydi.

Berilgan ta’riflardan ko‘rinib turibdiki, iqtisodchi olimlar banklarning to‘lov qobiliyati va likvidliligi kabi tushunchalarni e’tirof etgan holda, ularga o‘z yondoshuvlarini ifoda etmoqda, biroq, ushbu tushunchalar mazmun jihatidan birbiridan jiddiy farq qilmaydi.

Tadqiqot metodologiyasi Mamlakatimizda tijorat banklarini tartibga solish bo‘yicha ko‘rsatkichlar tahlil qilindi. Tijorat banklari likvidliligini tartibga solish bo‘yicha to‘plangan tajriba yaqindan o‘rganildi va ma’lumotlar bazasi yig‘ildi.

To‘plangan ma’lumotlar asosida kuzatish va iqtisodiy tahlilni qiyoslash, tizimli yondashuv hamda mantiqiy yondashuv kabi uslublardan samarali foydalanildi.

Tahlil va natijalar

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida likvidlilikni boshqarish bo‘yicha 1991 yildan buyon nazariy va amaliy jihatdan juda katta tajriba to‘plandi. SHuni ta’kidlash joizki, mamlakatimiz bozor iqtisodiyotiga 1991 yilda o‘tgan bo‘lsada tijorat banklarida “likvidlilik”, “likvidlilikni tartibga solish” kabi masalalar 1997 yilga qadar Markaziy bank tomonidan tijorat banklari vakillik hisobvaraqlari orqali moliyaviy resurslar berish orqali tartibga solib kelindi.

Demak, mamlakatimiz tijorat banklarida lividlilikni tartibga solishning bozor tamoyillariga asoslangan tamoyillari 1997 yildan, ya’ni tijorat banklarida buxgalteriya hisobvaraqlar rejasining xalqaro andozalari amaliyotga joriy etilgandan so‘ng ularning likvidliligini tartibga solish imkoniyati paydo bo‘ldi. Bu vaqtga qadar amaliyotda qo‘llanilib kelingan bank balansi va moliyaviy hisobotlar shakllari markazlashgan iqtisodiyot tamoyillari asoslangan bo‘ldi, bundan ko‘zda tutilgan asosiy maqsad davlatning moliyaviy nazoratini amalga oshirishga qaratilgan edi. Bunday sharoitda tijorat banklari likvidliligi bilan bog‘liq muammo birgina ularning vakillik hisobvaraqlari orqali tartibga solish mumkin edi. Chunki, bank balansida mablag‘larning joylashtirishda ularning muddatliligi va likvidliligi e’tiborga olinmagan bo‘lib, jalb qilingan moliyaviy resurslarni muddatlari bo‘yicha joylashtirilgan aktivlarning muddatlariga taqqoslash imkoniyati yo‘q edi.

O‘zbekistonda tijorat banklari likvidligini tartibga solishda “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida” va O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunlari asosiy hujjatlar hisoblanadi. Xususan, “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi Qonunning 52moddasida Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining “likvidlilik koeffitsientlari”ni belgilash haqida qayd etilgan[4].

Mazkur moddaga asosan Markaziy bank tomonidan tijorat banklari likvidliligini tartibga solish 2015 yil 13 avgustda Adliya vazirligidan 2709-sonli ro‘yxatdan o‘tkazilgan “Tijorat banklarining likvidliligini boshqarishga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi Nizom asosida amalga oshiriladi.

Mazkur nizomga ko‘ra tijorat banklari aktivlari likvidliligi nuqtai nazardan ikkita guruhga bo‘linadi, bu quyidagi rasmda keltirilgan.

Likvidli aktivlar
Yuqori likvidli aktivlar

1-rasm. Tijorat banklari likvidli aktivlarini guruhlanishi.

1-rasm ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, tijorat banklari aktivlari likvidli va Yuqori likvidli aktivlardan tashkil topgan. Tijorat banklari likvidli aktivlari tarkibiga quyidagilar kiradi:

1) naqd pullar;

2) sof quyma oltin;

3) bankning O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankida ochilgan hisobvaraqlaridagi mablag‘lar, tijorat bankining vakillik hisobvaraqlari, depozit va majburiy zaxira hisobvaraqlari kiradi;

4) bankning boshqa banklarda ochilgan vakillik hisobvaraqlaridagi mablag‘lar;

5) O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining va Markaziy bankining qimmatli qog‘ozlari;

6) qisqa muddatli (30 kungacha) banklararo kreditlar va depozitlar;

7) tavakkalchilik darajasi past bo‘lgan mamlakatlar hukumatlari va Markaziy banklari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog‘ozlar, Shuningdek bu mamlakatlar hukumatlari va Markaziy banklariga boshqa moliyaviy talablar;

8) «Standard & Poor`s», «Fitch Ratings» va «Moody`s Investors Service» kompaniyalarining investitsion reyting darajasidan kam bo‘lmagan yoki O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tan olinadigan boshqa reyting kompaniyalarning ushbu baho darajalariga teng bo‘lgan reyting baholariga ega, rivojlangan fond birjalari ro‘yxatlariga kiritilgan, tavakkalchilik darajasi past bo‘lgan mamlakatlarning etakchi kompaniyalari qimmatli qog‘ozlari.

Yuqorida keltirilgan holatlardan ko‘rinib turibdiki, tijorat banklari likvidli mablag‘lari tarkibiga sakkizta manbadan iborat bo‘lgan aktivlar kirib, ushbu aktivlar tijorat banklari likvidliligini tartibga solishda muhim moliyaviy manba hisoblanadi. SHuni ta’kidlash joizki, tijorat banklari likvidli aktivlari tarkibidagi bankning O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankida ochilgan hisobvaraqlaridagi mablag‘lar va bankning boshqa banklarda ochilgan vakillik hisobvaraqlaridagi mablag‘larni zarur hollarda ishlatish imkoniyatiga egadir.

Hukumat va Markaziy bankning qimmatli qog‘ozlari ularnig likvidliligini tartibga solishda muhim moliyaviy instrumentlar hisoblanadi. Chunki, tijorat banklari kutilmaganda majburiyatlarni bajarish bo‘yicha moliyaviy resurslarga ehtiyoj tug‘ilganda ularni zudlik bilan sotish hisobiga zarur mablag‘larni jalb qilish imkoniyatiga egadir.

Tijorat banklari Yuqori likvidli aktivlari tarkibiga quyidagi aktivlar kiradi:

Yuqorida keltirilgan rasmdan ko‘rinib turibdiki, Markaziy bankning nizomiga asosan tijorat banklari Yuqori likvidli aktivlari tarkibiga aktivlarning to‘rtta manbasi kiritilgan.

Fikrimizcha, tijorat banklari likvid mablag‘lari sifatida ularning naqd pullari, hukumat va Markaziy bankning obligatsiyalarini ham kiritish maqsadga muvofiqdir. Biroq, Markaziy bankning “Tijorat banklarining likvidliligini boshqarishga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi Nizomga ko‘ra mazkur ikki manba Yuqori likvidli aktivlar sifatida tasniflanmagan. Chunki, tijorat banklari mijozlarning naqd pulga bo‘lgan talablarini qondirishda aktivlar tarkibidagi “naqd pullar” hech qanday muammolarsiz qondirish imkonini beradi, Shuningdek “hukumat va Markaziy bankning obligatsiyalari ham tijorat banki tomonidan qo‘shimcha moliyaviy resurslarga ehtiyoj tug‘ilganda moliya bozorida sotish orqali qondirish imkonini beradi. Biroq, mamlakatimiz tijorat banklari faoliyatida hukumat va Markaziy bank obligatsiyalari jiddiy ahamiyat kasb etmaydi.

Banklarning aktivlari tarkibida Yuqori likvidli aktivlar hajmining Yuqoriligi ularning to‘lov qobiliyatini ta’minlashga xizmat qiladi, biroq, bu ularning daromad

olish imkoniyatini pasaytiradi. Chunki, tijorat banklari daromadlarining asosiy qismi riskli aktivlar hisobidan shakllantiriladi.

Bankning riskli aktivlari (asosan kreditlar, investitsiyalar va lizing operatsiyalari) qanchalik Yuqori bo‘lsa, ularning daromadi ortib boradi, biroq riskli aktivlar hajmining ortishi ularning Yuqori likvidli aktivlarining hajmini qisqarishiga olib keladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, banklarning barqaror daromadini oshirish va likvidliligini ta’minlash bir-biriga o‘zaro qarama-qarshi ko‘rsatkichlar hisoblanadi. Tijorat banklari har ikkala holatda ham ijobiy natijaga erishishi lozim, aks holda foydaning darajasi pasayadi, majburiyatni bajarmasligi esa omonatchi va mijozlarning bankka bo‘lgan ishonchini pasayishiga sabab bo‘ladi.

Tahlillar natijasi shuni ko‘rsatmoqdaki tijorat banklari Yuqori likvidli aktivlari qator talablarga javob berishi belgilab qo‘yilgan.

Xususan:

- to‘planish darajasi past bo‘lishi va pul yoki repo bozorlarida oson sotilishi;
- har qanday bozor sharoitida likvidlilikning isbotlangan ishonchli manbasi hisoblanishi;
- moliyaviy tashkilot yoki unga daxldor bo‘lgan shaxslarning majburiyatlarini o‘z ichiga olmasligi.
- ta’minot sifatida qo‘yilmagan yoki xatlanmagan bo‘lishi maqsadga muvofiq.

Tahlillar natijasi shuni ko‘rsatmoqdaki, mamlakatimiz tijorat banklari likvidligini tartibga solish eng katta muammolardan biri milliy iqtisodiyotda birlamchi va ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozori juda zaif bo‘lib, etarli darajada rivojlanmagan. Bu albatta tijorat banklari likvidlik bilan bog‘liq qator ziddiyatli holatlarni keltirib chiqarmoqda. SHunga qaramasdan, mazkur masalalar Markaziy bankning tegishli nizomlarida tijorat banklari likvidli aktivlariga qo‘yilgan talablarida ham belgilab qo‘yilmoqda. Masalan, O‘zbekistonda qimmatli qog‘ozlarning repo operatsiyalari mavjud bo‘lmasada alohida talab sifatida Markaziy bank tomonidan kiritilgan.

Ma’lumki, tijorat banklari lividliligini tartibga solishda ularning nafaqat aktiv mablag‘lari, balki passiv mablag‘lari tarkibida yuz berayotgan o‘zgarishlar ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi, shu nuqtai nazardan quyidagi mamlakatimiz tijorat banklari aktivlari va passivlari tarkibini tahlil qilish orqali tadqiqotimizni davom ettiramiz.

1-jadval

O‘zbekiston tijorat banklari aktivlari tarkibi va dinamikasi.

Balans moddalari	01.01.2021 y.		01.01.2022 y.		01.10.2023 y.	
	mlrd. so‘m	**%**	**mlrd. so‘m**		**mlrd. so‘m**	
Kassadagi naqd pullar va boshqa pulto‘lov hujjatlari	1 336,0	1,6	4 841,0	2,9	5 269,0	2,5
Markaziy bankdan olinadigan mablag‘lar	11 958,0	14,2	14 909,0	8,9	11 429,0	5,3

Boshqa banklardan olinadigan mablag‘lar-rezident	4 281,0	5,1	6 713,0	4,0	6 374,0	3,0
Boshqa banklardan olinadigan mablag‘lar- norezident	6 588,0	7,8	18 347,0	11,0	13 545,0	6,3
Investitsiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlar	1 492,0	1,8	1 649,0	1,0	2 277,0	1,1
Mijozlarning moliyaviy instrumentlar bцyicha majburiyatlari	1 129,0	1,3	2 466,0	1,5	1 879,0	0,9
Kerdit quyilmalar, sof	52 045,0	61,9	108 467,0	65,1	164 670,0	76,8
Asosiy vositalar, sof	1 794,0	2,1	2 335,0	1,4	3 488,0	1,6
Aktivlar bo‘yicha hisoblangan foizlar	593,0	0,7	1 413,0	0,8	2 842,0	1,3
Bankning boshqa mulklari	386,0	0,5	298,0	0,2	230,0	0,1
Boshqa aktivlar	2 474,0	2,9	5 193,0	3,1	2 416,0	1,1
Jami aktivlar	**84 076,0**	**100,0**	**166 631,0**	**100,0**	**214 419,0**	**100,0**

Yuqoridagi jadval ma’lumotridan ko‘rinib turibdiki, tijorat banklari aktivlari tarkibida 2021 yil 1 yanvar holatiga kredit mablag‘lari 61,9 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2023 yil 1 yanvar holatiga ushbu manbaning ulushi 76,8 foizdan iborat bo‘lgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, tijorat banklari kredit quyilmalari ularning asosan Markaziy bankdagi mablag‘lari ulushining pasayishi hisobiga yuz bergan.

1-jadvalda mamlakatimiz tijorat banklari aktivlari moddalari xususida keltirilgan ma’lumotlari asosida ularning likvidliligini tartibga solish holati bo‘yicha quyidagi xulosalarni shakllantirishimiz mumkin:

- mamlakatimz tijorat banklari likvidliligini tezkor tartibga solish va manipulyaatsiya qilish imkoni mavjud emas, Chunki aktivlari tarkibida Yuqori likvidli aktiv moddalar ayrimlari umuman mavjud emas, mavjudlarining ham ulushi juda past darajada;
- tijorat banklari aktivlari tarkibida kredit quyilmalarining ulushini Yuqori ulushga egaligi likvidlilikni tartibga solish bilan bog‘liq risk darajasini oshiradi.

Quyida keltirilgan jadval ma’lumotlari asosida mamlakatimiz tijorat banklari majburiyatlari asosida ularning likvidlilikni tartibga solish amaliyotini tahlil qilamiz.

Quyidagi jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, tijorat banklari majburiyatlari asosan depozitlar, olingan kreditlar va lizing mablag‘lari hisobidan konsentratsiyalashuvi hisobiga vujudga kelgan. Masalan, tijorat banklari majburiyatlari tarkibida 2023 yil 1 yanvar holatiga depozitlar ulushi 37,3 foizni tashkil etgan bo‘lsa, olingan kreditlar va lizing mablag‘larining ulushi esa 55,6 foizdan iborat bo‘lgan.

2-jadval

O‘zbekiston tijorat banklari majburiyatlari tarkibi va dinamikasi.

Balans moddalari	01.01.2021 y.		01.01.2022 y.		01.01.2023 y.	
	mlrd. so‘m	**%**	**mlrd. so‘m**	**%**	**mlrd. so‘m**	**%**
Depozitlar	37 183,0	49,5	59 579,0	40,8	70 001,0	37,3
Markaziy bankning vakillik hisobvarag‘i	263,0	0,4	537,0	0,4	498,0	0,3
Boshqa banklarka to‘lanadigan mablag‘lar-rezident	3 979,0	5,3	5 641,0	3,9	6 391,0	3,4
Boshqa banklarga to‘lanadigan mablag‘lar-norezident	15,0	0,0	121,0	0,1	512,0	0,3
Olingan kreditlar va lizing operatsiyalari	26 786,0	35,7	72 819,0	49,9	104 379,0	55,6
Muomalaga chiqariladigan qimmatli qog‘ozlar	216,0	0,3	190,0	0,1	10,0	0,0
To‘lanadigan hisoblangan foizlar	375,0	0,5	1 049,0	0,7	2 181,0	1,2
Boshqa majburiyatlar	6 276,0	8,4	6 019,0	4,1	3 769,0	2,0
Jami majburiyatlar	**75 093,0**	**100,0**	**145 955,0**	**100,0**	**187 741,0**	**100,0**

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, tahlil etilayotgan yillar davomida bank majburiyatlari tarkibida depozitlar, olingan kreditlar va lizingning ulushi kamayib borish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Masalan, tijorat banklari majburiyatlari tarkibida 2021 yil 1 yanvar holatiga depozitlarning ulushi 49,5 foizni, olingan kreditlar va lizingning ulushi esa 35,7 foizdan iborat bo‘lgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, tijorat banklari majburiyatlari tarkibida tahlil qilinayotgan 2021-2023 yillarda depozitlarning ulushi 12,2 punktga pasaygan, aksincha olingan kreditlar va lizingning ulushi esa 19,9 punktga ortgan. Bundan tashqari, tijorat banklari majburiyatlari tarkibida emissiya qilingan qimmatli qog‘ozlar hisobidan moliyaviy resurslarni shakllantirish masalasi muammoligicha qolmoqda.

Ma’lumki, xalqaro amaliyotda tijorat banklari lividliligini tartibga solishda Markaziy banklarning qisqa muddatli kreditlaridan juda keng va samarali foydalandi. Biroq, bu masalada mamlakatimiz Markaziy banki tijorat banklari likvidliligini tartibga solishda o‘zining qayta moliyalash asosida beriladigan kreditlari bilan faol pul-kredit siyosatini amalga oshirmaydi, buni tijorat banklari majburiyatlari tarkibida Markaziy bankning kreditlari mavjud emasligida ham ko‘rishimiz mumkin.

Fikrimizcha, buning asosiy sababi, birinchidan Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi sezilarli darajada Yuqori bo‘lsa, ikkinchidan mazkur kreditni olish jarayoni ham erkin tarzda amalga oshirilmaydi.

2-jadvalda mamlakatimiz tijorat banklari majburiyatlari asosida ularning likvidliligini tartibga solish holati bo‘yicha quyidagilarni ta’kidlash maqsadga muvofiq:

- mamlakatimz tijorat banklari majburiyatlarining asosiy ulushi qimmat va muddati jihatidan qisqa (3, 6, 12 oy) mablag‘lar hisobidan shakllantirilmoqda, Chunki banklar birinchidan, olingan kreditlar uchun depozitlarga to‘lanadigan foiz stavkalaridan Yuqori to‘lansa, ikkinchidan banklararo kreditlar uzoq muddatga berilmaydi;
- banklarning majburiyatlari tarkibida depozitlarning ulushi, xalqaro amaliyotga murojaat qiladigan bo‘lsak kamida 55-60 foizni tashkil etishi maqsadga muvofiqdir;
- mamlakatimiz tijorat banklari bozor iqtisodiyotining muhim moliyaviy instrumenti hisoblangan qimmatli qog‘ozlardan foydalanish darajasi juda pastdir, bu albatta ularning majburiyatlar tarkibidagi arzon mablag‘lar orqali likvidlilikni manipulyasiya qilish va aktivlar bo‘yicha risklarni pasaytirish imkoniyatidan etarli darajada foydalanmayotganligini anglatadi;
- Markaziy bankning pul-kredit siyosati tijorat banklari lividliligini tartibga solish va ularni likvidsizlik holatiga tushib qolganda moliyaviy qo‘llabquvvatlash imkoniyatini bermaydi.

Xalqaro amaliyotdan ma’lumki, tijorat banklari majburiyatlari tarkibida depozit mablag‘larning, ayniqsa muddatli depozit mablag‘lar ulushining salmoqli bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, Yuqoridagi tahlil ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, mamlakatimiz bank tizimi majburiyatlari tarkibida asosiy ulushni olingan kreditlar va lizing tashkil etib, depozitlarning ulushi 40 foizdan past darajani tashkil etadi.

Biz mazkur paragraf doirasida mamlakatimiz bank tizimida depozitlar bilan bog‘liq tadqiqotlarni chuqurlashtirish maqsadida quyidagi jadval ma’lumotlari asosida depozitlarning muddatlari nuqtai nazaridan tahlil qilamiz.

Depozitlarning turlarini muddati bo‘yicha tahlil qiladigan bo‘lsak, muddatli depozitlar jami depozitlar tarkibida 2017 yil 1-yanvar holatiga 61 foizga yaqin bo‘lgani holda, 2019 yil 1 yanvarga kelib 52 foizni tashkil etmoqda yoki shu davr ichida 9 punktga pasaygan. Albatta, bu holat tijorat banklari likvidliligini ta’minlash nuqtai nazaridan salbiy holat hisoblanadi.Chunki, depozitlar tarkibida muddatsiz depozitlar ulushining Yuqoriligi mijozlarning o‘zlari istagan paytda va bank tomonidan kutilmagan vaqtda ushbu mablag‘larni talab qilish imkonini beradi. Bu o‘z navbatida, tijorat banklari likvid mablag‘lar hisobidan ushbu talabni, ya’ni mijozlar oldidagi majburiyatlar to‘liq va o‘z vaqtida bajarish zaruratini keltirib chiqaradi. Agar mamlakatimiz tijorat banklar aktivlari tarkibida Yuqori likvidli qimmatli qog‘ozlarning mavjud emasligini e’tiborga oladigan bo‘lsak, bu masalaning yanada murakkablashtirishini tasavvur qilish qiyin emas.

3-jadval

O‘zbekiston tijorat banklarida depozitlarning turlari va muddatlari bo‘yicha qoldig‘i va dinamikasi.

Depozitlar	01.01.2021 y.		01.01.2022 y.		01.10.2023 y.	
	mlrd. so‘m	**%**	**mlrd. so‘m**	**%**	**mlrd. so‘m**	**%**
Muddatsiz depozitlar	22 613	61	38 535	65	36 236	52
Muddatli depozitlar	10 644	29	14 284	24	26 065	37
Jamg‘arma depozitlar	3 926	11	6 759	11	7 701	11
Jami depozitlar	**37 183**	**100**	**59 579**	**100**	**70 002**	**100**

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimiz tijorat banklari likvidliligini tartibga solish tajribasi 1991 yildan bozor talablari bosqichma-bosqich joriy etila boshladi, 1996-2016 yillarda Markaziy bankning qattiq pul-kredit siyosati tijorat banklari likvidliligini boshqarishning ma’muriy usullari qo‘llanildi, 2021 yildan boshlab bozor tamoyillari asosida tartibga solish usullari keng joriy etilmoqda.

- raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklari likvidliligini tartibga solish elektron xizmatlar asosida amalga oshirilib, bu jaryonning samarali usullarining yo‘lga qo‘yilmasligi natijasida dastlab ular likvidsizlik holatiga tushadi keyinchalik esa ularning faoliyatida to‘lovga qobiliyatsizlik holati yuz beradi va oxir oqibat bankrotlikka yuz tutadi;

- mamlakatimiz tijorat banklari likvidliligini tezkor tartibga solish va manipulyasiya qilish imkoni mavjud emas, Chunki ularning aktivlari tarkibida Yuqori likvidli aktiv moddalarning ayrimlari umuman mavjud emas, mavjudlarining ham ulushi juda past darajada;

- mamlakatimiz tijorat banklari bozor iqtisodiyotining muhim moliyaviy instrumenti hisoblangan qimmatli qog‘ozlardan foydalanish darajasi juda pastdir, bu albatta ularning majburiyatlar tarkibidagi arzon mablag‘lar orqali likvidlilikni manipulyasiya qilish va aktivlar bo‘yicha risklarni pasaytirish imkoniyatidan etarli darajada foydalanmayotganligini anglatadi;

- tijorat banklari riskli aktivlarining asosiy ulushi (95 foizdan Yuqori) uzoq muddatli aktivlar tashkil etayotganligi va qimmatli qog‘ozlar bilan bog‘liq emission operatsiyalari ko‘lami juda pastligi banklarning likvidliligini operativ tartibga solish imkoniyatini bermaydi;

Yuqorida qayd etilgan amaliy va nazariy xulosalarni tijorat banklari likvidliligini tartibga solishda joriy etilishi ularning raqamli iqtisodiyotda samaradorligi va moliyaviy barqarorligini oshirish hamda aholining bank tizimiga bo‘lgan ishonchini yanada mustahkamlshga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil uchun mo‘ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2018 yil 9 oyilik statistik byulletini ma’lumotlari asosida muallifning hisob-kitoblari.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947sonli farmoniga 1-ilova. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi//O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. - Toshkent, 2017. - № 6 (766). - 32-b.
4. Sobirov, I. X., and SH. Atabaeva. "RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MASOFAVIY BANK XIZMATLARIDAN FOYDALANISH USULLARI." *Arxiv nauchnых issledovaniy* 2.1 (2022).
5. Sobirov, IIxom, and Abdukxolik Abdukarimov. "DIGITALIZATION AND INNOVATIVE DEVELOPMENT STRATEGY OF THE CONSTRUCTION INDUSTRY IN UZBEKISTAN." *Mejdunarodnыy multidissiplinarnыy jurnal issledovaniy i razrabotok* 1.3 (2025): 165-167.
6. Omonov A.A Tijorat banklarining resurslarini samarali boshqarish masalalari. Monografiya. Fan va texnologiyalari, 43 bet.
7. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida”gi Qonuni, 52-modda. http://lex.uz/

N.E.Ernazarov, *PhD, dots., Samarqand iqtisodiyot va servis instituti.*

JISMONIY SHAXSLARNING MOL-MULK SOLIG‘INI SOLIQ BAZASINI HISOBLASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya: *Ushbu maqolada* jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘ini hisoblash amaliyotini takomillashtirish *borasida amalga oshirilayotgan islohotlar, bu borada etuk iqtisodchi olimlarning ilmiy qarashlari o‘rganilgan va statistik ma’lumotlar asosida tahlillar olib borilgan.*

Kalit so‘zlar: *soliq, jismoniy shaxs, mulk, ko‘chmas mulk, mahalliy soliq, mol-mulk solig‘i, yer solig‘i, ko‘chmas mulk solig‘i, kadastr qiymat, bozor qiymati, soliq stavkasi.*

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida byudjet daromadlarini oshirish muhim va murakkab jarayon bo‘lib hisoblanadi. Hududlarning iqtisodiy rivojlanishi, infrastrukturani tiklanishi, kam ta’minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilish, o‘rni kelganda aytish mumkinki aholini rozi qilish, har bir hududdagi mahalliy byudjetlarning moliyaviy masalalarini to‘g‘ri hal qilishga bog‘liqdir.

Bugungi kunda fuqarolarga tegishli mol-mulk solig‘ini soliq bazasini hisoblash amaliyotini takomillashtirishning zamonaviy usullarini amaliyotga joriy qilish mol-mulklardan foydalanish samaradorligini oshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘ini soliq bazasini hisoblash amaliyotini takomillashtirish yo‘llari hamda undagi muammolar bo‘yicha nazariy, uslubiy hamda amaliy masalalar borasida bir qancha olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, Yu.Shmelyova va R.Margulislar (2012) ham jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan yashash uchun mo‘ljallangan ko‘chmas mulklarni soliqqa tortish ko‘p muammolarni keltirib chiqarish mumkinligi, shuningdek yagona ko‘chmas mulk solig‘ini joriy qilishda uning soliq solinadigan bazasini aniqlash va soliq stavkasini belgilash asosiy masala ekanligi ta’kidlashgan[244].

I.Gorskiy (2012) va M.Beryozinlar (2011) ham amaliyotga yagona ko‘chmas-mulk solig‘ini joriy qilishda ehtiyotkorlik bilan va puxta hisob-kitoblar asosida o‘tish kerakligini ta’kidlashgan[245]. O‘zbek olimlaridan I.Niyazmetov (2008) ham bu borada fikr yuritib mol-mulk solig‘i ob’ekti tarkibida faqat ko‘chmas mulk ob’ektlarini qoldirib, uni yer solig‘i bilan birlashtirib yuridik va jismoniy shaxslar uchun bir xil tartibda amal qiladigan ko‘chmas mulk solig‘igabosqichma-bosqich o‘tish taklifini ilgari surgan[246]. Iqtisodchi olimlarning fikrga qo‘shilgan holda mol-mulk solig‘ini soliq bazasini hisoblash amaliyotini takomillashtirish bo‘yicha tegishli xulosalar va takliflar ishlab chiqilgan.

Jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan ko‘chmas mulk ob’ektlariga mol-mulk solig‘ini hisoblash amaliyotidagi muammolar sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

- davlat ro‘yxatidan o‘tmagan ko‘chmas mulk ob’ektlarini aniqlash bo‘yicha aniq bir samarali mexanizmning amalda mavjud emasligi;
- har bir ko‘chmas mulk ob’ekti uchun **shaffof**, **texnologik** va **ob’ektiv** baholash tizimini mavjud emasligi;
- soliq tizimi bilan kadastr agentligi ma’lumotlar bazasining o‘zaro to‘liq integratsiyalashmaganligi;
- o‘zboshimchalik bilan qurilgan bino va inshootlar hujjatlashtirishda mulk egalarining huquqiy savodxonligini pastligi;
- ko‘chmas mulk ob’ektlarini kadastr hujjatlarini shakllantirishda xizmat ko‘rsatish narxlarining yuqoriligi.

Mahalliy byudjet daromadlari byudjet harajatlariga nisbatan pasayishi kutilmoqda. Ushbu holatni so‘ngi vaqt yillarda ularning orasidagi tafovut sezilarli ravishda farqlanganligini, ya’ni harajatlarning keskin oshib ketganligini ko‘rishimiz mumkin.

---

[244] Шмелев Ю.Д., Маргулис Р.Л. (2012) О новой концепции налога на недвижимость физических лиц и механизм ее реализации // Финансы. № 1.

[245]Горский И. В. (2012) Налог на недвижимость: за и против // Финансы. № 2.18., Березин М.Ю. (2011) Новый налог на недвижимость в российской налоговой системе // Финансы. № 4.

[246]Niyazmetov I.M. (2008) Soliq yukining tadbirkorlik sub’ektlari moliyaviy faoliyatiga va byudjet daromadlariga ta’siri tahlili. i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan diis. -T.: b. 99 b.

1-jadval

2019-2023 yillarda O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti daromadlarida mahalliy soliqlarning ahamiyati,[247] (*foizda*)

№	Ko‘rsatkichlar	Yillar				
		2019	**2020**	**2021**	2022	2023
	Davlat maqsadli jamg‘armalar daromadlarisiz - jami	100	100	100	100	100
1	**Mahalliy soliqlar**	42,2	26,8	25,3	25,7	26,1
	Shundan;					
2	Mol-mulk solig‘i	6,7	7,1	7,6	7,7	7,8

Mol-mulk solig‘i ulushining o‘zgarishini ko‘radigan bo`lsak 2019-yilda **6,7%** bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023-yilda **7,8%** ga yetgan, ya’ni har yili oz miqdorda oshib borgan. Bu davlat tomonidan mol-mulk solig‘ini modernizatsiya qilish, baholash tizimini isloh qilish va ko‘chmas mulk bozorining faollashuvi natijasi bo‘lishi mumkin.

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rishimiz mumkinki mol-mulk solig‘i ulushiga ta’sir etuvchi asosiy omillar sifatida quydagilarni kiritish mumkin:

-mol-mulk solig‘i hisoblanishida kadastr (ya’ni rasmiy baholash) narxi asos qilinadi. Agar kadastr bahosi **real bozor narxlaridan orqada** bo‘lsa, soliq miqdori ham kam hisoblanadi;

-davlat tomonidan qabul qilingan qarorlar asosida yuridik va jismoniy shaxslar uchun soliq stavkalari o‘zgartirilishi mumkin. *Ayrim soliq imtiyozlarini bekor qilish* ham soliq tushumlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi;

-yangi qurilayotgan uy-joylar, savdo va ishlab chiqarish ob’ektlari ko‘payadigan bo‘lsa, **soliq bazasi kengayadi;**

-davlat tomonidan mol-mulkni legallashtirish va qayta baholash aksiyalari o‘tkaziladi;

-aholidagi real daromadlar pasayganda, mol-mulk solig‘ini to‘lashda kechikishlar yoki qarzdorliklar ortib borishi mumkin. Bu holat tushumlar ulushini pasaytirishga ta’sir etadi.

Mol-mulkni solig‘ini hisoblanishida soliq bazasi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i uchun **eng kam soliq bazasi** belgilanishi ya`ni eng kam soliq bazasi — 42 mln so‘m (hatto bozor bahosi bundan kam bo‘lsa ham). Agar rasmiy baholash mavjud bo‘lmasada **Toshkent, Nukus, viloyat markazlari** — 210 mln so‘mlik, **boshqa shahar va qishloq joylar** — 84 mln so‘mlik qiymatni tashkil etadi.

Shu asosida bizningcha, jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘ini hisoblashni takomillashtirish asosida aniq va adolatli soliq bazasini shakllantirish bo‘yicha loyihaviy mexanizmni ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Ushbu loyihaviy mexanizmni maqsadi sifatida jismoniy

[247] https://openbudget.uz - O‘zbekiston Respublikasi ochiq byudjet portal

shaxslarga tegishli mol-mulk ob’ektlarini baholash va soliq bazasini shakllantirishda haqiqiy bozor qiymatini inobatga olgan holda, soliqni hisoblashda aniqlik va adolatni ta’minlashdan iboratdir.

Amaldagi holatda mavjud muammolar qatoriga esa:

-eng kam soliq bazasi (42 mln so‘m) haqiqiy holatni aks ettirmasligi.

-baholash yo‘q ob’ektlar uchun umumiy shartli qiymat (210 mln va 84 mln so‘m) - barcha mulklarga bir xil yondashuv.

-qishloq va shahar mulki o‘rtasida katta narx farqi mavjud.

-jamoatchilik uchun shaffof ma’lumot yo‘q.

Ushbu loyihaviy mexanizmni yechimi sifati quyidagilarni amalga oshirish zarur: **Avtomatlashtirilgan onlayn baholash platformasi + soliq bazasini xududlashtirish + jismoniy shaxslarning mulkni baholatish imkoniyatini kengaytirish.** Bilan **bozor narxlarini hisobga oluvchi avtomatlashtirilgan baholash platformasi joriy etish** konsepsiyasida geolokatsiya - mulk manzili asosida tur, hudud va zona aniqlanadi.

Mulk ma’lumotlari asosida - maydon, qurilgan yili, materiali, infratuzilmasi aniqlanadi. Ko‘chmas mulk bozori ma’lumotlari-avtomatik ravishda hududiy narxlar bazasi bilan solishtiriladi. Avtomatik baholash bilan maxsus formula asosida shartli qiymat avtomatik hisoblanadi.

Soliq bazasi hisoblash formulasi (misol):

SB = Maydon (m^2) × 1 m^2 uchun xududiy koeffitsiyent × imtiyoz koeffitsiyenti

Misol uchun:80 m² uy, viloyat markazida, 1 m² uchun baholash koeffitsiyenti = 2.5 mln so‘m. Soliq bazasi: 80 × 2.5 = 200 mln so‘m

Xududiy koeffitsiyentlar (misol uchun):

	Hudud	***1 m2 uchun baholash (mln so‘mda)***
1	*Toshkent sh.*	*4.0*
2	Viloyat markazlari	2.5
3	Tuman markazlari	1.5
4	Qishloq joylar	0.8

Loyihaviy **mexanizmning** samarasi:

- soliq tushumlarini oshiradi.
- bozor qiymatiga yaqinlashgan aniq soliq bazasi ta’minlanadi.
- shaffoflik va fuqarolar ishonchini oshiradi.
- soliqdan qochish holatlari kamayadi.

Xulosa sifatida aytish joizki, jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulklar uchun adolatli va aniq soliq bazasi shakllantiriladi. Soliq tizimining barqarorligi, davlat byudjeti daromadlari oshishi va aholi roziligi ta’minlanadi.

- **haqiqiy bozor narxlarini hisobga oluvchi avtomatlashtirilgan baholash platformasi joriy etish zarur.** Bundan maqsad: shartli qiymat o‘rniga, har bir mulk uchun real va adolatli soliq bazasini yaratish. Yangilanadigan **onlayn mulk baholash servisini** joriy etish natijada, soliq to‘lovchilar real qiymatdagi mol-mulkka mutanosib soliq to‘laydi.

- amaldagi soliq stavkalari negizida **xududiy soliq stavkalarini joriy etish lozim.** Bundan maqsad: shaharlar va qishloqlardagi mulklar o‘rtasidagi bozor qiymatlaridagi katta farqni hisobga olish zarur.

-ijtimoiy zaif qatlamlar uchun soliq imtiyozlari mexanizmini takomillashtirish zarur. Bundan maqsad: soliq to‘lash imkoniyati cheklangan aholini qo‘llab-quvvatlash lozim. Umumiy tartibda emas, balki **oylik daromad, ijtimoiy holati asosida** imtiyoz berish tizimini joriy qilish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Шмелев Ю.Д., Маргулис Р.Л. (2012) О новой концепции налога на недвижимость физических лиц и механизм ее реализации // Финансы. № 1.

2.Горский И. В. (2012) Налог на недвижимость: за и против // Финансы. № 2.18., Березин М.Ю. (2011) Новый налог на недвижимость в российской налоговой системе // Финансы. № 4.

3. Niyazmetov I.M. (2008) Soliq yukining tadbirkorlik sub’ektlari moliyaviy faoliyatiga va byudjet daromadlariga ta’siri tahlili. i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan diis. -T.: b. 99 b.

6. https://openbudget.uz - O‘zbekiston Respublikasi ochiq byudjet portal

Ashur Ali Latipov
PhD dotsent v.b, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Munisa Baxronova
IRB-k-222 guruhi 2-bosqich talabasi, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

YASHIL INNOVATSIYALARNI MOLIYALASHTIRISHDA XUSUSIY SEKTOR INVESTITSIYALARINING O‘RNI

Annotatsiya: Ushbu maqolada yashil innovatsiyalarni moliyalashtirish jarayonida xususiy sektor investitsiyalarining o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Yashil iqtisodiyot sharoitida xususiy kapitalning ekologik loyihalarga jalb etilishi, investitsion muhitni yaxshilash, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini takomillashtirish masalalari ko‘rib chiqilgan. Xorijiy tajriba asosida yashil texnologiyalarni rivojlantirishda moliyaviy resurslarning samarali taqsimoti va investorlar uchun rag‘batlantiruvchi omillar tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: yashil innovatsiyalar, investitsiya, xususiy sektor, moliyalashtirish, davlat-xususiy sheriklik, barqaror rivojlanish, yashil iqtisodiyot.

Global iqtisodiy tizimda ekologik barqarorlik va energiya samaradorligini ta’minlash masalalari tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Yashil texnologiyalarni rivojlantirish uchun katta miqdorda moliyaviy resurslar zarur, biroq davlat byudjeti bu ehtiyojni to‘liq qoplab bera olmaydi. Shu sababli, xususiy sektorning faol ishtiroki va investitsion faolligi yashil iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida muhim o‘rin tutadi.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ekologik innovatsiyalarni moliyalashtirishda davlat va biznes hamkorligi, shaffof investitsion muhit hamda

soliq imtiyozlari muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston uchun ham bu tajribani moslashtirish dolzarb masalalardan biridir.

1. Yashil innovatsiyalarni moliyalashtirish zarurati va xususiy sektorning roli

Yashil innovatsiyalar — bu ekologik xavfsiz texnologiyalar, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, chiqindisiz ishlab chiqarish va resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlaydigan yangiliklardir.

Ularni amaliyotga joriy etish katta investitsiyalarni talab qiladi, shu bois **xususiy kapital** bu jarayonning ajralmas ishtirokchisiga aylanmoqda.

Xususiy sektorning moliyalashtirishdagi asosiy rollari quyidagilardan iborat:

- yangi yashil startaplar va innovatsion loyihalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash;
- ekologik texnologiyalarni ishlab chiqish va tijoratlashtirishda risklarni bo‘lishish;
- investitsion infratuzilma yaratish (masalan, yashil obligatsiyalar va ekologik fondlar);
- xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik qilish.

Misol uchun, Yevropa Ittifoqida “Green Deal Investment Plan” dasturi doirasida xususiy sektor hissasi umumiy moliyalashtirish hajmining 60 foizini tashkil etadi. Shu model asosida O‘zbekistonda ham yashil investitsiyalarni xususiy kapital orqali rag‘batlantirish imkoniyatlari mavjud.

2. O‘zbekistonda yashil loyihalarni moliyalashtirishda mavjud imkoniyatlar

O‘zbekistonda 2019-yilda qabul qilingan “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” bu yo‘nalishda muhim huquqiy asos yaratdi. Strategiyada xususiy investorlarni ekologik loyihalarga jalb etish, moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish va barqaror rivojlanish loyihalariga e’tibor qaratish belgilangan.

Bugungi kunda mamlakatda quyidagi yo‘nalishlarda ijobiy tajribalar kuzatilmoqda:

- Quyosh va shamol energetikasi loyihalarida xalqaro xususiy kompaniyalar ishtiroki (masalan, “Masdar” va “ACWA Power” loyihalari);
- Yashil kreditlar tizimi orqali kichik biznes subyektlarini qo‘llab-quvvatlash;
- Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) asosida ekologik infratuzilma loyihalarini amalga oshirish.

Shu bilan birga, ba’zi muammolar ham mavjud: xususiy sektor uchun soliq imtiyozlari yetarli emas, yashil obligatsiyalar bozori rivojlanmagan, hamda investorlar uchun axborot ochiqligi darajasi past. Shu sababli, bu sohada institutsional islohotlar zarur.

Xususiy sektorni rag‘batlantirish bo‘yicha ilmiy mulohazalardan kelib chiqib quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. **Soliq imtiyozlari va grant tizimini kengaytirish.** Yashil texnologiyalar bilan shug‘ullanayotgan korxonalarga soliq yengilliklari, subsidiyalar va davlat kafolatlari berish;

2. **Yashil obligatsiyalar bozorini shakllantirish.** Ular orqali ekologik loyihalarni moliyalashtirish uchun uzoq muddatli kapital jalb etish;

3. **Davlat-xususiy sheriklikni kuchaytirish.** Yirik energetika va chiqindilarni qayta ishlash loyihalarini DXSh asosida amalga oshirish;

4. **Moliyaviy shaffoflikni oshirish.** Investorlarga aniq moliyaviy axborot berish, yashil loyihalarning monitoring tizimini yo‘lga qo‘yish;

5. **Ta’lim va konsalting qo‘llab-quvvatlovi.** Biznes sektor vakillarida ekologik moliyalashtirish va yashil iqtisodiyot bo‘yicha bilimlarni kengaytirish.

Bu choralar nafaqat ekologik barqarorlikni ta’minlaydi, balki milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ham oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” (2019–2030 yillar).

2. OECD. Green Growth and Sustainable Development Policies. Paris, 2020.

3. World Bank. Financing Green Growth: Policy Perspectives. Washington DC, 2022.

4. Vaxabov A.V., Xojibakiyev Sh.X. Yashil iqtisodiyot. – Toshkent: Universitet, 2020.

5. UNDP. Private Sector Engagement in Green Economy Transition. New York, 2021.

6. The Climate Group. Smart 2030 Report. London, 2014.

7. www.lex.uz

Ruzibayeva Nargiza Xakimovna – *SamISI, “Investitsiya va innovatsiyalar” kafedrasi dotsenti, PhD.*

IQTISODIYOTNING IT SOHASIDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH

Annotatsiya. *Bozorda raqobatbardosh bo'lib qolish va tobora takomillashib borish uchun korxonalar uzoq muddatda omon qolish uchun Axborot Texnologiyalariga (IT) investitsiya kiritishlari kerak. IT sohasidagi yutuqlar yangi raqobatchilarga mavjud bozorlarga osonroq kirish imkonini berdi, bu esa global raqobatbardoshlik paradigmasini rag'batlantirdi va mustahkamladi. Shuni hisobga olgan holda, ushbu maqola IT-loyihalariga investitsiyalarni asoslashni o'rganishga qaratilgan bo'lib, iqtisodiyotning axborot texnologiyalari sohasidagi investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilishdir.*

Kalit so‘zlar*: IT-investitsiyalar, startaplar, innovatsiyalar, moliyalashtirish, axborot texnologiyalari, investitsiyalash mexanizmi, venchur, fond bozori, risk.*

Innovatsion rivojlanish yo‘lini tanlagan XXI asrning zamonaviy kompaniyalari an’anaviy iqtisodiy biznes modellari, tahliliy usullar va rejalashtirish yondashuvlaridan uzoqlashmoqda. Startaplar deb nomlanuvchi bu yosh, innovatsion

kompaniyalar yangi, yuqori daromadli va tez rivojlanayotgan bozor segmentlariga kirishga imkon beruvchi innovatsion yondashuvlarni izlamoqda. Ushbu yangi yondashuvlar kompaniyalarga katta moliyaviy investitsiyalarsiz yoki uzoq, murakkab tahliliy hisob-kitoblarsiz tez o‘sishi va rivojlanishiga imkon beradi.

Axborot texnologiyalariga (keyingi o'rinlarda IT deb yuritiladi) investitsiya kiritishdagi asosiy muammolardan biri investor va qabul qiluvchi nuqtai nazaridan investitsiya sifatini baholashning maqsadlari va mezonlarini aniqlashdir. Tizimlarni tahlil qilish bizga umumiy maqsadni tuzish va IT investitsiyalarining o‘ziga xos xususiyatlarini shakllantirish, investitsiya sifati mezonlarini aniqlash va ularning umumiy maqsadga erishishga ta’sir qilish darajasini tekshirish imkonini beradi. Iqtisodiyot o‘tish davridagi mamlakatlarda fond bozori aksariyat hollarda investitsiya kapitalining yagona manbai hisoblanadi.

Bugungi kunda iqtisodiyotda startaplar yangi manbalar va moliyaviy vositalar orqali moliyalashtirilmoqda. Tez o‘sish davrida, moliyaviy vositalar bilan kompaniyalar qo‘shimcha moliyaviy resurslarni talab qiladi, bu esa moliyaviy vositachilarning yangi turlari, masalan, kraudfanding va kraudlending platformalari, venchur kapital fondlari, xususiy kapital fondlari, shuningdek, biznes farishtalar va strategik investorlarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Ayni paytda startaplar butun dunyo bo‘ylab innovatsion iqtisodiyot rivojlanishining asosiy ishtirokchilari bo‘lib, tez o‘sish sur’atlarini boshdan kechirmoqda.

Qo‘shma Shtatlar startap ekotizimini rivojlantirishda yetakchilik qilmoqda. Silikon vodiysi va Nyu-York Siti kabi eng yaxshi startap markazlari yillar davomida o‘zlarining yetakchi mavqeini saqlab kelmoqda. Google, Cisco, Facebook va Apple kabi yuqori texnologiyali kompaniyalarni yaratish bilan tanilgan Silikon vodiysi dunyodagi eng istiqbolli startap markazi hisoblanadi. Silikon vodiysi startaplarining qariyb 86 foizi yuqori investitsiya baholarini oladi.

IT investitsiyalarining ahamiyatini kompaniya ichidagi biznes jarayonlari uchun asosiy katalizator sifatida ta’riflagan IT investitsiyalarining ahamiyati to‘g‘risida qaror qabul qilish bilan bog‘liq masalalar С.Ю. Евдокимова, Ю.С. Корпусновой, Д.А. Катова [1], К.И. Сафиуллина, Е.С. Федорова, Я.А. Кузнецова и Ж.И. Герзелиевой [2], hamda У.Ф. Шарп [3] ishlarida muhokama qilinadi. Biroq, bu tadqiqotlar empirik emas, balki nazariydir, chunki ular investitsiya samaradorligini moliyaviy bozor nuqtai nazaridan baholamaydi.

Rivojlanishning hozirgi bosqichida axborot texnologiyalarini tizimli integratsiyalash, xosting xizmatlarini rivojlantirish, IT-konsalting, axborot xavfsizligini ta’minlash IT sohasini yanada rivojlantirishning eng istiqbolli va qulay yo‘nalishlari hisoblanadi. Biznes-tahlil tizimlari, ma’lumotlar bazasini boshqarish, hodisalarni boshqarish, hamkorlik va birlashtirilgan aloqalar qimmat va tushunarsiz yordamchi dasturlardan tobora muhim va aniq vositalarga aylanib boradi. Ma’lumotlarni saqlash va boshqarish texnologiyalari axborot hajmining doimiy o‘sishi bilan bog‘liq bo‘lgan zamonaviy kompaniyalar uchun ustuvor ahamiyatga ega. Shu sababli, mobil va bulutli texnologiyalar korporativ IT bozorining asosiy tendentsiyalari bo'lib, kapital va doimiy IT xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi.

Startap sanoati tarmoqlar bo‘yicha startaplarga investitsiya kiritishga ixtisoslashgan fond tanlashga, shuningdek, biznesga investitsiya kiritish

samaradorligiga ta’sir qiladi: jadal rivojlanayotgan tarmoqlar startapning omon qolishini oshirish uchun ko‘proq imkoniyat yaratadi. Startapni moliyalashtirish manbalari ham tijorat, ham notijorat bo‘lishi mumkin. Notijorat manbalarga davlat va xususiy dasturlar va xayriya fondlari kiradi. Ular hayot tsiklining istalgan bosqichida yuqori ijtimoiy ta’sirga ega startaplarni moliyalashtiradi. Noaniqlik va yuqori bankrotlik riski sharoitida innovatsion biznesni moliyalashtirish uchun mablag‘larga o‘sib borayotgan qondirilmagan talab nafaqat tijorat banklari va tadbirkorlarning o‘zlari, balki xususiy va davlat moliyalashtirish manbalarini birlashtirgan yangi subyektlar va investitsiya provayderlari tomonidan ham qondirilmoqda. Biz bularning tarkibiga quyidagilar kiritamiz:

1. Venchur fondlari. Venchur fondi – bu daromad olish maqsadida innovatsion, yuqori riskli loyihalarga investitsiyalarni dastlabki va kengaytirish bosqichlarida amalga oshiradigan tijorat moliyaviy tashkiloti.

2. Korporativ akseleratorlar, ***korporatsiyalar va davlat kompaniyalari.*** Korporativ akselerator – bu kompaniyaning tezlashtirilgan kapitalidagi ulush evaziga mentorlik, trening, moliyaviy va ekspert yordami orqali kompaniyalarni jadal rivojlantirish bo‘lgan tashkilot. Akseleratorning maqsadi qisqa vaqt ichida (odatda 6 oydan kam) portfel kompaniyalarining kapitallashuvini oshirishdir. Odatda, akseleratorning biznes modeli yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan portfel kompaniyalaridan chiqishga asoslanadi, shuning uchun ko‘pchilik akseleratorlar dastlabki bosqichdagi texnologik kompaniyalar bilan ishlaydi [4].

3. Biznes-farishtalar. Ishbilarmon farishtalar, odatda, venchur kapital fondlaridan farqli o‘laroq, boshqa turdagi investorlarga nisbatan o‘z pullarining oz miqdorini investitsiya qiladigan va birinchi navbatda dastlabki bosqichdagi kompaniyalarga sarmoya kiritadigan individual investorlardir, bu ularni boshqa turdagi investorlar orasida eng qimmatli qiladi [5]. Ushbu investorlar uchun bu faoliyat ularning asosiy yo‘nalishi emas. Bundan tashqari, biznes farishtalari kompaniyaga moliyaviy resurslarni investitsiya qilishda joriy daromadni talab qilmaydi; ularning asosiy maqsadi kompaniya qiymatini maksimal darajada oshirish va kelajakda o‘z ulushlarini qayta sotishdan daromad olishdir [6].

4. Strategik investorlar. Biznes farishtalaridan farqli o‘laroq, strategik investorlar ham jismoniy, ham yuridik shaxslar bo‘lishi mumkin, ular asosan o‘sishning keyingi bosqichlarida kompaniyalarning ulushlarini sotib olishadi. Bir ulushni yoki butun kompaniyani strategik investorga sotish odatda oldingi bosqichdagi investor va innovatsion kompaniya o‘rtasidagi munosabatlarning yakuniy bosqichidir. Allaqachon tashkil etilgan va bir vaqtning o‘zida katta salohiyatga ega bo‘lgan sotib olingan kompaniya sinergiya shaklida xaridorga katta foyda keltirishi mumkin. Aktsiyalar IPO paytida dividendlar olish yoki ularning qiymatini oshirish maqsadida sotib olinsa, strategik investor kompaniya ustidan nazoratni qo‘lga kiritish va o‘z biznesini kengaytirish uchun uning ulushini sotib oladi [7]. Innovatsion kompaniya yoki uning nazorat paketini sotib olgandan so‘ng, u startap bo‘lishni to‘xtatadi va ko‘pincha strategik investor biznesining bir qismiga aylanadi.

5. Xususiy kapital fondlari. Bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar ustav kapitalidagi kamida 10% ulush evaziga amalga oshiriladigan ixtisoslashgan

kompaniyalardir. Jamg‘armaning ulushini sotib olishi unga direktorlar kengashida o‘z vakiliga ega bo‘lish va kompaniyani boshqarishda ishtirok etish imkonini beradi. Xususiy kapital fondlari odatda uch yildan besh yilgacha tashkil etiladi, so‘ngra fond investitsiya qilgan barcha aktsiyalari sotilgandan keyin yopiladi, shundan so'ng foyda taqsimlanadi [8]. Ularning o‘ziga xos faoliyati o‘sishning oxirgi bosqichlarida kompaniyalarni moliyalashtirishdir.

6. Portfel investorlari. Bular jismoniy shaxslar, banklar va endi o‘sayotgan kompaniyalarning qimmatli qog‘ozlarini sotib oladigan va sotadigan boshqa moliya institutlaridir.

7. Kraudfanding. Yevropa Komissiyasi hisobotida kraudfanding “muayyan loyiha uchun mablag‘ to‘plash uchun jamoatchilikka ochiq chaqiruv”, kraudfanding platformalari esa “fandrayzerlar va investorlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqani osonlashtiradigan veb-saytlar” sifatida ta’riflanadi. Kraudfanding platformalari tomonidan qo‘llaniladigan turli biznes modellari quyidagi asosiy toifalarga guruhlangan:

- kroudinvesting: kompaniyalar platforma orqali kraudinvestorlarga aktsiyadorlik yoki qarz vositalarini chiqaradilar;
- kroudlending: kompaniyalar yoki jismoniy shaxslar kredit shartnomasi ko‘rinishidagi platformalar orqali aholidan mablag‘ yig‘ishga intilishadi;
- invoice trading krowdfunding: korxonalar onlayn platforma orqali investorlarga to‘lanmagan schyot-fakturalar yoki debitorlik qarzlarini sotadigan moliyalashtirish shakli;
- mukofotga asoslangan kraudfanding: odamlar o‘z hissasi evaziga tovarlar yoki xizmatlar kabi moliyaviy bo‘lmagan mukofotlarni olishni umid qilib, loyiha yoki biznesga mablag‘ ajratadilar;
- xayriya kraudfanding: jismoniy shaxslar hech qanday moliyaviy yoki moddiy daromad olmasdan, muayyan xayriya loyihasini moliyalashtirishning kengroq maqsadiga erishish uchun mablag‘larni xayriya qiladilar;
- gibrid kraudfanding modellari.

Hayotiy tsiklning turli bosqichlarida dastlabki moliyalashtirish kapital, qarz va gibrid moliyalashtirish shakllaridan biridan foydalangan holda amalga oshiriladi.

AT investitsiyalari samaradorligini baholashning yagona o‘rnatilgan usulidan foydalanish yetarli emas, tizimli jihatlarni hisobga olmagan holda ulardan kompleks foydalanish ham ko‘p hollarda yetarli darajada oqlanmaydi. IT-sanoatning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o‘rnatilgan investitsiya usullarining afzalliklari va kamchiliklarini tizimli tahlil qilish natijalari ularga IT investitsiyalarining aniq masalalari bo‘yicha qaror qabul qilishning maqsadli mexanizmini taklif qilish imkonini beradi.

Innovatsion startaplarni rivojlantirish bo‘yicha jahon amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, ularni moliyalashtirish mexanizmlarining o‘ziga xos xususiyatlari ko‘p jihatdan umumiy iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari va xususan moliya bozorlari, shuningdek, mamlakatning ilmiy-texnik salohiyati va institutsional rivojlanishi darajasi bilan bog‘liq. Rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida innovatsion korxonalar – startaplarni moliyalashtirishning turli mexanizmlari mavjud. Ko‘pgina mamlakatlarda hukumat raqobatli grantlar yoki subsidiyalar orqali startaplarni

moliyalashtirishda faol ishtirok etadi. Bu, ayniqsa, startaplarni rivojlantirishning dastlabki bosqichlarida, ular hali bozorda nisbatan yangi bo‘lganida juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Евдокимов С.Ю., Корпуснова Ю.А., Катов Д.А. Отечественный и зарубежный опыт привлечения инвестиций в сферу информационных технологий. Вестник Московского университета имени С.Ю. Витте. 2018; 1 (24): 21–27.
2. Сафиуллин К.И., Федоров Е.С., Кузнецов Я.А., Герзелиева Ж.И. Теоретико-методологические аспекты управления инвестиционной привлекательностью IT-компаний. *Московский экономический журнал*. 2022; 7: 645–663.
3. Шарп У.Ф. Инвестиции: учебник. М.: ИНФРА-М; 2021. 255 с.
4. Дегтярев П.А. Особенности моделей инновационных корпоративных акселераторов и бизнес-инкубаторов // Казанский экономический вестник. 2018. № 4 (36). С. 45–50.
5. Blockab J., Fischab C., Vismaracd S., Andresa R. Private Equity Investment Criteria: an Experimental Conjoint Analysis of Venture Capital, Business Angels, and Family Offices // Journal of Corporate Finance. 2019. Vol. 58. P. 329–352.
6. Шарифьянова З.Ф., Хажиева Р.Р. Бизнес-ангелы как особый вид венчурных инвесторов: тенденции и проблемы развития в России // Инновационная наука. 2016. № 2. С. 143–149.
7. Марковская Е.И., Бурковская А.В. Новые подходы в сфере принятия решения стратегическим инвестором / Россия и Санкт-Петербург: экономика и образование в XXI веке: сборник трудов конференции. СПб: СПбГЭУ, 2017. С. 278–285.
8. Никулина О.В., Яхшибекян А.А. Совершенствование механизма финансирования инновационных проектов в форме создания и развития стартапов // Инновации. 2016. № 10 (216). С. 93–104.

Азиза Тохировна Ахмедова – доцент
Самаркандского института экономики и
Абдумажидов Шохжахон Шухратович –
студенит IV курса САМИСИ

ПОДДЕРЖКА «ЗЕЛЕНЫХ» ИНИЦИАТИВ: ФИНАНСОВАЯ ПОЛИТИКА УЗБЕКИСТАНА

Аннотация: В статье рассматриваются направления и механизмы государственной финансовой политики Республики Узбекистан, направленные на поддержку «зелёных» инициатив и развитие устойчивой экономики. Особое внимание уделено вопросам совершенствования системы финансирования экологически ориентированных проектов,

внедрению зелёных финансовых инструментов, а также привлечению инвестиций в сферу возобновляемых источников энергии, энергоэффективных технологий и рационального использования природных ресурсов.

Ключевые слова: зелёные проекты, устойчивое развитие, климатические изменения, экологическое влияние, зелёные облигации, государственные гранты, экологически ориентированные кредиты, устойчивая экономика, энергоэффективность, возобновляемая энергия.

Финансирование зелёных проектов в Узбекистане занимает важное место в реализации курса страны на устойчивое развитие в условиях глобальных климатических и экологических вызовов. В последние годы экономика республики активно направлена на сокращение углеродных выбросов и повышение энергоэффективности в разных отраслях, что делает поддержку зелёных инициатив ключевым элементом национальной стратегии развития.

Основная цель проекта состоит в анализе и оценке механизмов и инструментов финансирования зелёных проектов в Узбекистане. Исследование охватывает разнообразные аспекты, включая использование зелёных облигаций, государственных грантов, экологически ориентированных кредитов и других финансовых механизмов, направленных на поддержку инновационных и экологически устойчивых инициатив. Анализ будет также включать актуальные данные о реализованных зелёных проектах в Узбекистане, их влияние на экономику и окружающую среду, а также проблемы и вызовы, с которыми сталкиваются участники инициатив в процессе их осуществления. Наконец, исследование предполагает рассмотрение перспектив дальнейшего развития зелёного финансирования в стране и его вклада в достижение устойчивого развития национальной экономики.

Зелёные инструменты финансирования представляют собой специализированные механизмы, направленные на поддержку проектов и инициатив, способствующих экологической устойчивости и снижению воздействия на окружающую среду. Они играют важную роль в современном мире, где все большее внимание уделяется климатическим изменениям и сохранению природных ресурсов.

Финансирование зелёных проектов в банке представляет собой специфическую область деятельности, направленную на поддержку проектов, направленных на экологическую устойчивость и снижение воздействия на окружающую среду. В современных условиях банки играют важную роль в стимулировании экологически устойчивых инициатив, предоставляя финансирование через различные инструменты (рис. 1).



Рисунок – 1. Основные аспекты финансирования зелёных проектов в банке

Важным для прямых иностранных инвестиций обеспечить прозрачное и стабильное регулирование, прочные права собственности, согласованную систему координации действий правительства и более эффективное предоставление услуг инвесторам. Кроме того, несмотря на значительное снижение таможенных тарифных ставок, в Узбекистане они остаются одними из самых высоких в регионе. Ослабление этих ограничений поможет фирмам получить доступ к крупным рынкам и будет способствовать росту и созданию рабочих мест.

Для подтверждения гипотезы о необходимости компетенций и навыков высокого уровня профессий «зелёной» экономики проведена эмпирическая оценка на основе базовой регрессионной модели, учитывающей экологические факторы и навыки высокого уровня. Для учёта гипотезы экологической кривой Кузнеца в модель включается ВВП на душу населения и его квадратный член[3] (в работе использован логарифмированный ВВП на душу населения), (табл. 1).

Таблица 1

Описательная статистика использованных в исследовании переменных

Наименование переменных	**Количество наблюдений**	**Средняя**	**Стандартная ошибка**	**Минимум**	**Максимум**
Логарифмированный CO2 на единицу ВВП по ППС (ln_co2_gdp)	224	-1.573	.561	-2.813	.27
Индекс «зеленого» роста (ggi)	215	48.362	14.083	16.96	78.72
«Зеленая» занятость (greenemployment)	218	37.915	25.298	1	100
Логарифмированный ВВП на душу населения (ln_gdp_pc)	237	9.681	1.086	6.594	11.666
Темпы роста ВВП (gdp groth)	239	-.793	5.65	-33.5	8.36
Темпы роста численности населения (population)	239	1.103	1.046	-1.68	3.93
Уровень IQ населения страны (iq)	208	93.332	8.905	60	108
Доля населения с продвинутым уровнем IT навыков (ad_ict_scills)	83	6.548	5.039	.01	27.69
Доля занятых с высшим образованием (ad_labor_force)	158	77.034	8.007	29.63	92.32

[3] Rauf hon Salahodjaev, Does Intelligence Improve E*nvironm*ental Sustainability? An Empirical Test/ Sustainable Development-2015 Published online in Wiley Online Library (wileyonlinelibrary.com) DOI: 10.1002/sd.1604

В последние годы Узбекистан активно развивает стратегии и механизмы для поддержки зелёных проектов, направленных на устойчивое развитие экономики и снижение воздействия на окружающую среду. Анализ текущего состояния финансирования зелёных проектов выявляет несколько ключевых аспектов. Развитие зелёных проектов в Узбекистане открывает новые возможности для экономического роста и устойчивого развития. Основные результаты включают увеличение объёма инвестиций в зелёные технологии, создание новых рабочих мест и улучшение экологических показателей страны. В перспективе важно продолжать развивать инфраструктуру зелёных проектов, расширять сотрудничество с международными партнёрами и повышать уровень экологической грамотности населения.

Внедрение государственных программ и стимулов для зелёных проектов в Узбекистане привело к заметному росту интереса и инвестиций в сектор устойчивого развития.

Зелёные облигации и экологически ориентированные кредиты успешно привлекают финансирование для проектов, способствующих улучшению экологических показателей страны. Помимо этого, введение налоговых льгот и государственных субсидий значительно снижает финансовые риски для инвесторов, что способствует увеличению объёмов инвестиций в зелёные технологии и инфраструктуру.

Список использованной литературы

1. Указ Президента Республики Узбекистан «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы», 28 января 2022 года.

2. Cedefop, The green employment and skills transformation: insights from a European Green Deal skills forecast scenario, Publications Office of the European Union, 2022, https://data.europa.eu/doi/10.2801/112540

3. Maclean, R., Jangannathan, S., & Panth, B. (2017). Education and skills for inclusive growth, green jobs and the greening of economies in Asia: case study
summaries of India, Indonesia, Sri Lanka and Viet Nam. Technical and Vocational Education and Training: Issues, Concerns and Prospects, vol. 27.

4. Pavlova, M. Fostering inclusive, sustainable economic growth and “green” skills development in learning cities through partnerships nternational Review of Education/ May 2018 DOI.

Азиза Тохировна Ахмедова – доцент
САМИСИамаркандского института экономики и

АНАЛИЗ ФИНАНСОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ЕГО ЗНАЧЕНИЕ В ОПРЕДЕЛЕНИИ ДЕЛОВОЙ АКТИВНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЯ

Аннотация: В статье рассматривается сущность и значение анализа финансовой деятельности предприятия как одного из ключевых инструментов оценки его деловой активности. Показано, что системный финансовый анализ позволяет определить эффективность использования ресурсов, уровень платёжеспособности, рентабельности и финансовой устойчивости хозяйствующего субъекта. Особое внимание уделено роли финансовых показателей в выявлении тенденций развития предприятия, определении его конкурентоспособности и способности адаптироваться к изменяющимся рыночным условиям. В работе также обозначена взаимосвязь между результатами финансового анализа и стратегическими направлениями повышения деловой активности. На основе проведённого исследования предложены рекомендации по совершенствованию финансового анализа как инструмента управления развитием предприятия.

Ключевые слова: финансовое состояние, оборачиваемость активов, денежный поток, ценовая политика, финансовый анализ, деловая активность, финансовая устойчивость, рентабельность, платёжеспособность, эффективность деятельности.

Контроль за деловой активностью и движением денежных потоков организации играет ключевую роль в обеспечении эффективности её работы, поскольку формирование положительного денежного потока является основой прибыльной деятельности предприятия.

Механизм управления денежным потоком организации должен быть построен таким образом, чтобы с одной стороны минимизировать величину оттока денежных средств, а с другой стороны создать условия для максимизации притока денежных средств на предприятии. С методологической точки зрения ликвидность в наиболее простой форме представляет собой скорость превращения активов в их наиболее ликвидную форму, то есть в деньги. От того насколько высок уровень ликвидности активов организации зависит как быстро она сможет рассчитаться по своим долгам, то есть ликвидность определяет скорость платёжеспособности предприятия. Показатели ликвидности характеризуют финансовое состояния организации. Если организация обладает высокими показателями ликвидности, то она имеет приоритет по сравнению с другими организациями, которые занимаются такой же деятельностью, в получении

кредитов, в отборе поставщиков и другого. Организация своевременно выплачивает зарплату рабочим, платит налоги в бюджет, вовремя погашает кредиты.

Устойчивое финансовое положение предприятия в условиях рыночной экономики обуславливается в значительной степени его деловой активностью. Деловая активность организации зависит от многих внутренних и внешних факторов, к которым можно отнести:

- факторы спроса;
- ценовой фактор;
- производственный, научно-технический и макроэкономические факторы (денежно-кредитная, ценовая, амортизационная политика и другие меры государственного регулирования).

Снижение деловой активности в различных секторах экономики, в частности, в обрабатывающих производствах, свидетельствует о кризисном состоянии значительной части предприятий и необходимости преодоления кризисных явлений. Для вывода организаций из кризисного состояния используются различные методы и технологии. В практике антикризисного управления в соответствии с законом «О несостоятельности (банкротстве)» применяются процедуры:

1) наблюдение;
2) финансовое оздоровление внешнее управление;
3) конкурсное производство мировое соглашение.

В большинстве случаев данные процедуры (1,2,3) не приводят к восстановлению платёжеспособности предприятий, а заканчиваются, как правило, конкурсным производством и их ликвидацией. Так, при проведении процедуры «внешнее управление» в 2023 году платёжеспособность предприятий была восстановлена только на 2,4% предприятий от общего количества дел, по которым проводилась эта процедура. Это свидетельствует о неэффективности мер и технологий, применяемых в процессе проведения процедур банкротства.

Антикризисное управление является планом действий, направленных на повышение эффективности бизнеса и реализацию стратегии его развития в сложном конкурентном и финансовом положении, в том числе направленный на преодоление банкротства предприятия. В ходе антикризисного управления должна повышаться деловая активность организации, обеспечивающая ее финансовую устойчивость.

Главной целью антикризисной программы является финансовая стабилизация компании, то необходимо оценить степень кризисной ситуации компании. Кризисную ситуацию можно охарактеризовать как недостаточно эффективное управление активами, дебиторской и кредиторской задолженностью, которое обуславливает отток денежных средств от собственников и в конечном итоге может привести к неполному удовлетворению требований кредиторов.

Для стабилизации финансового состояния предприятия учёные-экономисты выделяют два этапа возможной стабилизации:

1) устранение неплатёжеспособности (уменьшение размера текущих внешних и внутренних финансовых обязательств организации в краткосрочном периоде; увеличением суммы денежных средств, обеспечивающих погашение просроченных и исполнение срочных обязательств путём перевода части ликвидных оборотных активов и части необоротных активов в денежные средства);

2) восстановление финансовой устойчивости организации (сокращение потребления финансовых ресурсов, увеличение собственных финансовых ресурсов); обеспечение финансового равновесия в длительном периоде (внедрение новых видов рентабельной продукции, повышением качества продукции, улучшением её потребительских свойств; сокращением сроков реализации продукции; снижением себестоимости за счёт использования новых эффективных технологий; ускорением оборачиваемости оборотных активов; и др.). В свою очередь, укрепление финансовой устойчивости организации возможно только в результате повышения её деловой активности. Оценка деловой активности позволяет выявить, насколько эффективно предприятие использует свои средства. К показателям, характеризующим деловую активность, мы относим показатели динамики (прибыли, выручки и активов), коэффициент оборачиваемости и рентабельности.

Оценка деловой активности предполагает анализ результатов и эффективности текущей основной производственной деятельности, однако, ее необходимо использовать также в оценке непрерывности деятельности организации. Кризисные симптомы, наблюдающиеся у предприятий обрабатывающих производств, например, низкий уровень использования производственных мощностей, убыточность деятельности или низкая рентабельность в течение продолжительного времени, резкое ухудшение финансового состояния, могут поставить под сомнение непрерывность деятельности организации. Методика оценки непрерывности включает в качестве составных элементов анализ финансовых признаков, анализ производственных признаков, анализ рыночных признаков. Данная методика содержит показатели деловой активности, рассмотренные нами выше. «Оценка и управление непрерывностью должна быть увязана с диагностикой банкротства; встроена в систему риск-менеджмента организации.

По нашему мнению, необходимо диагностировать признаки банкротства. С точки зрения ученного А.П. Гарнова [1], «диагностика банкротства организации всегда начинается с выявления ранних признаков финансовой несостоятельности. К таким признакам относят: резкое уменьшение денежных средств на счетах организации; значительный рост дебиторской и кредиторской задолженностей; значительное сокращение дебиторской задолженности при одновременном росте остатков готовой продукции (затоваривание); разбалансированность дебиторской и кредиторской задолженности; одновременное сокращение дебиторской и

кредиторской задолженности; наличие и рост убытков; сокращение выручки от продаж; отсутствие собственных оборотных средств». При экспресс-диагностике кроме выявления ранних признаков необходимо также определить структуру баланса предприятия (удовлетворительная или неудовлетворительная). Для оценки вероятности банкротства организации используются два критерия: - коэффициент текущей ликвидности; - коэффициент обеспеченности собственными оборотными средствами.

Главную роль в анализе банкротства предприятия играет финансовый анализ, в ходе которого для арбитражных управляющих рассчитывают коэффициенты, характеризующие: платёжеспособность должника, финансовую устойчивость и деловую активность должника.

Первостепенной целью финансового анализа финансовой устойчивости и деловой активности выступает определение наиболее приоритетных показателей, представляющих максимально полную и объективную картину финансового состояния организации. Такими показателями могут являться колебания в структуре активов и пассивов, величина финансового результата, значение рентабельности собственного капитала, активов, продаж, изменение показателя оборачиваемости активов и собственного капитала, а также расчёты с кредиторами и дебиторами.

Таким образом, оценка показателей деловой активности и прогнозирование вероятности банкротства являются составной частью и способствуют построению единой системы антикризисного управления деятельностью коммерческих организаций.

Список использованных источников

1. Гарнов А.П. Анализ и диагностика финансово-хозяйственной деятельности предприятия/Под ред. д. э. н., профессора А.П. Гарнова: Учебник. – М.: ИНФРА-М, 2022. – 366 с.

2. Новосельский С.О. Политика и механизм управления персоналом в страховом секторе/ С.О. Новосельский, Э.В. Сукманов // Наука и практика регионов. – 2020. - №1.- С.48-54

3. Новосельский С.О. Роль оценки кредитоспособности в финансовом механизме функционирования предприятий пищевой промышленности региона / С.О. Новосельский, И.В. Минакова, В.А. Климов, Т.Т. Дуплина // Вестник Курской государственной сельскохозяйственной академии. - 2022. – №8. - С.48-52.

Sobirov I.X. – Sam DAQU,
“Iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti, if.n.
Abduxakimova Sarvinoz - Sam DAQU, talaba

INVESTITSION LOYIHALARNI MOLIYALASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH .

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan izchil islohotlarning ustuvor yo‘nalishlari, kichik va biznes, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda investitsion loyihalarni moliyalash zarurati va xorijiy kredit liniyalari va banklar mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish imkoniyatlari, hamda ishbilarmonlik muhitini yaratishda kafolatli jamg‘armalar tashkil etish orqali investitsion muhitni yanada takomillashtirish haqida taklif va xulasalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar:investitsiya, nvestitsiyaon loyiha, strategiya, ishbilarmonlik muhiti, kredit liniyalar, kafolat fondi, likvid, Beri indeks.

O‘zbekistonda investitsiya faoliyati O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiya faoliyati to‘g‘risida”, “Xorijiy investitsiyalar to‘g‘risida”, “Kafolatlar va xorijiy investorlar huquqlarini himoya qilish choralari to‘g‘risida”gi Qonunlar bilan tartibga solinadi. [1]

Respublika iqtisodiyotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish faoliyati samaradorligini oshirish, xorijiy investorlarni mamlakatimiz imkoniyatlari va salohiyati to‘g‘risida xabardor qilish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va o‘zlashtirish sohasida davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy ijro hokimiyati organlari faoliyatini muvofiqlashtirishni yaxshilash 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida amalga oshirishga oid chora tadbirlar doirasida muhim ishlar amalga oshirildi. [2]

Ushbu xarakatlar stratgiyasinin davomi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi PF-60-son Farmonida milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, uning o‘sish sur’atlarini zamon talablari darajasida ta’minlash yo‘nalishiga qaratilgan 133 ta chora-tadbir belgilandi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan izchil islohotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri-bu kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishdir. Xalqaro andozalar talablariga mos ravishda ishlab chiqarishni yo‘lga ko‘yish uchun kichik biznes sub’ektlariga rivojlangan xorij davlatlarining ishlab chiqarish texnologiyalari zarur bo‘ladi, lekin bunday ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish istagi bo‘lgan kichik biznes sub’ektlarining barchasi ham o‘z mablag‘lari hisobidan bu ishni amalga oshira olmaydi.

Bunda kichik biznes sub’ektlarining yaxshi investitsion loyihalari xorijiy kredit liniyalari va banklar mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida xususiy biznesni moliyaviy qo‘llab quvvatlashda xorijiy kredit liniyalari mablag‘larini banklar orqali real sektorga jalb qilish hisobiga kichik ishlab chiqarishni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Kelajakda ular negizida, moliyaviy jihatdan baquvvat, ko‘p tarmoqli yirik ishlab chiqarish korxonalari shakllanishi ko‘zda tutiladi.

Xorijiy kredit liniyalari hisobidan kreditlar, tadbirkorlik sub’ektlariga eksportga mo‘ljallangan va import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar, ya’ni qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini va boshqa mahalliy xom ashyo resurslarini qayta ishlashni,

mashinasozlik va elektron sanoati uchun detallar va uzellar hamda kundalik ehtiyojdagi xalq iste’moli tovarlarini ishlab chiqarishni nazarda tutadigan investitsion loyihalarga o‘rta va uzoq muddatga beriladi.

Jadval-1

Samarqand viloyati bo‘yicha faoliyat yuritayotgan xorijiy sarmoya ishtirokidagi soxalar o‘zgarishi dinamikasi (dona)

№	Sohalar	2022 y.	2023 y.	2024 y.	2024/2023 (%)
1	Qishloq xo‘jaligi	42	53	74	139,62
2	Sanoat	344	374	532	142,25
3	Qurilish	9	12	21	175,00
4	Savdo	71	68	119	175,00
5	Tashish va saklash	12	12	19	158,33
6	YAshash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	8	12	15	125,00
7	Ahborot va aloqa	0	1	1	100,00
8	Sog‘likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	4	4	9	225,00
9	Boshqa turlar	48	47	61	129,79
	Jami	**538**	**583**	**851**	**145,97**

Manba: Samarqand viloyati xokimligining xisobot yillar bo‘yicha iqtisodiy ko‘rsatkichlari ma’lumotlaridan

YUqoridagi jadvaldan ko‘rish mumkinki, Samarqand viloyati bo‘yicha faoliyat yuritayotgan xorijiy sarmoya ishtirokidagi soxalar investitsiyalar salmog‘i 2022 yilda oldingi yillarga nisbatan sezilarli darajada yuqoridir. Bu sohalar ichida yuqori o‘rinlarda sanoat, savdo va qurilish sohalari samarali investitsion loyihalarni amalga oshirilayotganligidan dalolat beradi.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi TIF Milliy banki”, "Agrobank”, “O‘zsanoatqurilishbank”, “Asaka”bank, “Ipoteka”bank, “Ipak Yo‘li” banki, “Mikrokredit”va “Hamkorbank”lar tomonidan kichik biznes sub’ektlarining investitsion loyihalarini moliyalashtirish uchun xorijiy kredit liniyalari jalb qilingan.

2021-2022 yillarga Respublikamiz tadbirkorlik sub’ektlarining investitsion loyihalarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash maqsadida katta miqdoridagi xorijiy kredit liniyalari ochilgan hamda kichik biznes sub’ektlarining investitsion loyihalarini moliyalashtirish ko‘zda tutilgan. O‘zlashtirilgan kredit liniyalari hisobiga yangi ishchi o‘rinlari yaratilishi ta’minlaqmoqda.

CHet el kreditlari o‘z vaqtida o‘zlashtirilmasligining yana bir sababi, kredit berilishida asosiy shartlardan biri bo‘lgan kredit ta’minotining etishmasligidir. Investitsion loyihalari ma’qullangan tadbirkorlik sub’ektlarining 40-50 foizi belgilangan miqdordagi yoki likvidli ta’minot turini takdim etolmaganligi sababli

loyihalarni moliyalashtirish kechikmoqda.

Hozirgi kunda ushbu muammolarning echimini topishga ayrim omillar, ya’ni:

- ko‘chmas mulk bozorining (ishlab chiqarish xarakteridagi) rivojlanmaganligi;
- qimmatli qog‘ozlar bozorining etarli rivojlanmaganligi;
- kafil bo‘la oladigan moliyaviy barqaror korxonalarning kamligi salbiy ta’sir ko‘rsatmokda.

Xo‘jalik sub’ektlarining kredit olishda ta’minotining etishmasligi muammosi faqat bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan davlatlarda emas balki, rivojlangan AQSH, YAponiya va Evropa davlatlarida ham mavjud. Ushbu davlatlarda bu muammo Davlat kafolat fondi orqali tijorat banklari kreditlarining 50-60 foizigacha miqdorida kafillik berish orqali o‘z echimini topadi.

Ushbu muammoning dolzarbligini inobatga olib, 2020 yilda 18ta davlatlararo rasmiy tashriflar amalga oshirildi va 52 milliard dollarlik 1 ming 80ta loyiha bo‘yicha kelishuvlarga erishildi.

Jahon banki, Evropa tiklanish va taraqqiyot banki, Islom va Osiyo taraqqiyot banklari, boshqa xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikdagi investitsiyalar hajmi 8,5 milliard dollarni tashkil etdi.

Bugungi kunda yurtimizda, chet el investitsiyalari hisobidan qiymati 23 milliard dollarlik 456 ta loyiha amalga oshirilmoqda.

Ushbu loyihlarni amalga oshirish uchun moliyalashtirish dastaklarini takomillashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarga echim topishimiz zarurdir. Iqtisodiyotning turli mulk va xo‘jalik yuritish shakllaridan keng foydalanishga o‘tishi, xususiy tadbirkorlik va kichik biznesning taraqqiyoti bilan moliya munosabatlari ham bozor talablari asosida rivojlanishi uchun muhim turtki oldi. YUqoridagilardan kelib chiqib, kichik biznes korxonalarini moliyalashtirishning turli xil manbalarini quyidagi rasm holida tasvirlash mumkin (1-rasm).

Ushbu mablag‘larni jalb etish imkoniyatlarining yanada mustahkamlanishiga erishish hamda turli soliq imtiyozlarining qo‘llanilishi maqsadida kichik biznes kelgusi taraqqiyoti uchun xorijdan kapital qabul qiluvchi tomonidan investitsiya muhiti modelini ishlab chiqish har tomonlama asoslangan tashqi iqtisodiy aloqalarni aniqlab beruvchi vositadir. U orqali xorijiy investorga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar to‘g‘risida aniq tushunchalarga ega bo‘lish, xorijlik investorlarning xulq-atvorini har tomonlama anglash va mamlakatdagi iqtisodiy holatni chuqurroq baholash imkoniyati paydo bo‘ladi. Bu jarayonlarning barchasi respublikamizning boshqa davlatlar bilan dastlabki iqtisodiy munosabatlarini yo‘lga qo‘yish jarayonida chetdan kapitalni jalb qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.



1-rasm. Kichik biznes korxonalarini moliyalashtirish manbalari

Investitsiya muhiti ob’ekt kategoriyasi bo‘lib, har bir alohida olingan vaqt doirasida investorlar uchun haqiqatda mavjud bo‘lgan shart- sharoitlar majmuasini aks ettiradi. Lekin, hozirgi sharoitda investitsiya muhiti faqat davlat organlari ta’siri ostida shakllanmoqda. Albatta, bu ishlarni amalga oshirishda jahon tajribasidan, jumladan, xorijiy investitsiya bilan tashkil etilib, yuksak iqtisodiy ko‘rsatkichlarga erishgan kompaniya va firmalar tajribasidan kengroq foydalanish kerak. Bu jarayonni amalga oshirishda milliy xususiyatlarni ham hisobga olish lozim. Davlat hoqimiyatining ta’sirchanligi investitsiya muhitini aniklovchi omillardan biridir. SHundan kelib chiqib, har bir kapital jalb qiluvchi mamlakat ma’lum bir investitsiya tizimiga egaligini ta’kidlash mumkin. Bu tizim huquqiy me’yorlar va muassasalardan iborat xorijiy investitsiyalarni qabul qilish tizimi va investitsiya muhitini o‘z ichiga oladi. Xorijiy kapitalni qabul qilish tizimi investitsiya muhitining komponenti bo‘lib xizmat qiladi va unga nisbatan mustaqil ravishda tashkil etiladi. CHunki, u investitsiya muhitini o‘zgartirishga qodirdir. Xorijiy investitsiyalarni qabul qilish tizimi qabul qiluvchi tomonining xorijiy kapitalni milliy iqtisodiyotga qulay ravishda kirib kelishini namoyon etadi, investitsiya muhiti kirib kelgan kapitalni mamlakat ichida optimal ravishda o‘sib borish vaziyatiga baho beradi.

Umumjahon banki tadqiqotlariga ko‘ra mamlakat investitsiya muhitiga ta’sir qiluvchi omillar quyidagilardan iborat, deb hisoblanadi:

- iqtisodiy siyosat va huquqiy-me’yoriy amaliyotning noanikdigi;
- korrupsiya darajasi;
- sud tizimining sifati;
- jinoyatchilik darajasi;

• «soliq yuki» va soliqka tortish tizimini huquqiy jihatdan tartibga solish tizimi;
• moliya resurslarini olish imkoniyati va moliyalashtirish qiymati;
• elektr bilan ta’minlanganlik darajasi va sifati;
• ishchilar malaka darajasi va mehnat qonunchiligining sifati.

Ushbu yondashuv investitsion jozibadorlikni ta’minlashning institutsional omillariga alohida e’tibor qaratilganligi bilan ajralib turadi. Jahon banki tomonidan tahlil etiladigan investitsiya muhitiga ta’sir etuvchi omillar investitsiya riski bilan bog‘liq. Ushbu uslubiyatga muvofiq mamlakatning investitsiya imkoniyatlariga baho beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi PF-60-son Farmoni.
2. Sobirov, I. X., and M. Djuraeva. "SOVERSHENSTVOVANIE VENCHURNOGO FINANSIROVANIYA INNOVATSIONNOY DEYATELNOSTI PREDPRIYATIY." *Problemы ustoychivosti razvitiya sotsialno-ekonomicheskix sistem*. 2022.
3. Sobirov, I. X., and P. I. Sobirov. "QURILISH SOHASINI MODERNIZATSIYALASH, RAQAMLASHTIRISH VA INNOVATSION RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI." *O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini modernizatsiyalash va innovatsion rivojlantirish sharoitida qurilish kompleksi va ko‘chmas mulk bozorini rivojlantirishning iqtisodiy muammolari* (2020): 74.

Sobirov I.X. – Sam DAQU, “Iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti, if.n.
Gafurova Marjona - Sam DAQU, “Iqtisodiyot” yo‘nalishi magistri.

INNOVATSION BANK XIZMATLARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.

Annotatsiya. Innavatsion bank xizmatlari raqamli iqtisodiyotning zamonga mos taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. O‘zbekistonda bunday xizmatlar va elektron to‘lov tizimining rivojlanishi uni me’yoriy-huquqiy jihatdan takomillashtirib borishni taqozo etadi. Ushbu maqolada innovatsion masofaviy bank xizmatlaridan bo‘lgan mobil bankingdan foydalanish bosqichlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: bank texnologiyalari, “Internet-banking”, “Mobil-banking”, “SMS-banking”, elektron to‘lov tizimi, internet-provayder.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmonida “...davlat ulushiga ega tijorat banklarida transformatsiya jarayonlarini yakunlab, 2026 yil yakuniga qadar bank aktivlarida xususiy sektor ulushi 60 foizgacha chiqarish, Iqtisodiyotning real sektorida hamda moliya va

bank sohalarida ishlab chiqarish va operatsion jarayonlarni raqamlashtirish darajasini 2026 yil yakuniga qadar 70 foizgacha oshirish vazifasi" belgilangan.

Xujjat bank tizimini rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari va ustuvor sohalarini, 2022 - 2026 yillarda bank tizimini transformatsiya va isloh qilish yo‘nalishlarini, xorijiy mamlakatlarning moliya sektorini transformatsiya qilish tajribasi asosida va moliyaviy sohadagi jahon tendensiyalarini hisobga olgan holda ehtimoliy echimlarni izlash yo‘llarini belgilaydi. Tijorat banklarida bank xizmatlari ko‘rsatish sifatini oshirishning samarali yullari belgilab berilgan.

Tijorat banklari orkali yangi bank xizmatlari ko‘rsatishning eng takomillashgan va ommalashib borayotgan usuli mobil bankingdir. Mobil banking – internet tarmog‘i yordamida mobil telefon (smartfon) orqali bank xizmatlaridan foydalanishning zamonaviy usulidir. Bu usul bank xizmatlaridan foydalanuvchilarga bank hisobvarag‘ini masofadan boshqarish imkonini beradi va deyarli barcha internet-banking operatsiyalarini ta’minlaydi.

Mobil bankning yordamida mijoz quyidagi imkoniyatlarga ega:

▪bank kartalarining (kredit, debet va hokazo) holatini kuzatish;

▪mobil va shahar telefon xizmatlari,

▪internet-provayderlar, kommunal, kabel va raqamli televidenie xizmatlari uchun vositachilik haqlarisiz to‘lovlarni amalga oshirish;

▪onlayn konversiya amaliyotlarni o‘tkazish;

▪kartadan kartaga o‘tkazmalarni amalga oshirish;

operatsiyalarning avtomatik ijrosini sozlash – hisobvaraq bo‘yicha yoki muayyan sanalarda belgilangan to‘lovlar;

▪pul mablag‘larining bank hisobvarag‘iga tushganligi haqida ma’lumot olish;

▪bank kartasi orqali amalga oshirilgan operatsiyalar haqida ma’lumotnoma olish;

▪onlayn-do‘konlarda haridlarni amalga oshirish;

kreditlarni so‘ndirish,

▪omonatlarga mablag‘ qo‘shish;

kredit olish;

▪pul o‘tkazmasini olish-yuborish;

▪YHXBB jarimalarini to‘lash;

bank kartasini ochish;

▪bank kartasini bloklash va blokdan echish;

▪bank kartasiga omonat bo‘yicha foizlarni kirim qilish;

▪bank kartasining amal qilish muddatini uzaytirish;

▪mobil ilova orqali turli valyutalarda xalqaro pul o‘tkazmalarini amalga oshirish.

Mobil banking xizmatlaridan foydalanish uchun mijoz, avvalo bank hisobvarag‘ini ochishi lozim, ya’ni karta hisobvarag‘i ochiladi (bank kartasi).

Buning uchun bankka tashrif buyurib (yoki masofadan) kerakli hujjatlarni to‘ldirish, internet orqali mobil telefonga tegishli ilovani yuklab olish lozim bo‘ladi.

Mobil ilovalar bank yoki to‘lov tashkilotlari tomonidan taklif etilishi mumkin. Agar mobil ilova va bank kartasi bitta bankka tegishli bo‘lsa, ushbu

ilova orqali operatsiyalarni amalga oshirishda kichik vositachilik haqlaridan ozod bo‘lish mumkin. Masalan, mablag‘larni bir kartadan boshqa kartaga o‘tkazish yoki naqd pul olish uchun komissiyalar mavjud. Umuman olganda, komissiya 1% dan oshmaydi.

Agar smartfonda ilova o‘rnatilgan bo‘lsa, faqatgina bank kartasi bilan ushbu ilovada avtorizatsiyadan o‘tish kifoya, ya’ni ilovada bank kartasi haqida so‘ralgan ma’lumotlarni unga kiritish lozim.

Avtorizatsiya qilish uchun, kartaning oldi tomonidagi ma’lumotlarni kiritish kerak (karta egasining ismi, kartaning individual raqami va kartaning amal qilish muddati). So‘ngra bankning SMS-xabari orqali kelgan kod yordamida oshirilayotgan avtorizatsiyani tasdiqlash lozim. SHundan keyin, ilovaga kirish uchun parol (PIN kod) o‘rnatish va uni eslab qolish muhim, telefon o‘g‘irlangan yoki yo‘qolgan taqdirda mablag‘larning xavfsizligi mazkur parol orqali ta’minlanadi.

Bir ilovada bir necha kartalarni ro‘yxatdan o‘tkazish mumkin. Bu esa, ilovani o‘zida bir kartadan boshqa kartaga osongina o‘tish va kerakli karta bilan to‘lovni amalga oshirish imkonini beradi.

Har bir mobil bank ilovasining dizayni va menyusi har xil, ammo bu muammo emas, chunki ularni ishlatish juda oson. Menyu asosan foydalanuvchi istagan operatsiyalarga muvofiq bo‘limlardan (o‘tkazmalar, to‘lovlar va hokazo) tashkil topgan. Birinchi o‘rinda ilovaga kartaning ma’lumotlarini kiritish kerak, undan keyin to‘lovlarni amalga oshirish mumkin.

Mobil banking orqali har qanday bank operatsiyasini amalga oshirishi bilanoq ilovada ro‘yxatdan o‘tkazilgan telefon raqamiga amalga oshirilgan operatsiya haqida SMS-xabar yuboriladi.

Mobil banking afzalliklari:

▪Mobil ilova orqali masofadan turib bank xizmatlaridan foydalanish;

▪Vaqtni tejash;

▪Kuniga 24 soat ishlaydi.

Mobil banking kamchiliklari:

▪Mobil telefonning o‘g‘irlanishi yoki yo‘qolishi;

▪Hisobvaraq xavfsizligi darajasining pastligi.

Prezidentimizning 2020 yil 12 maydagi “2020 -2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi” to‘g‘risidagi Farmoni ham masofaviy bank xizmatlarini yo‘lga qo‘yish uchun zamonaviy texnologiyalarni puxta o‘zlashtirish, xizmatlarning yangi turlari va mahsulotlarini aniqlash, xorijiy ilg‘or tajribalarni o‘rganib, mamlakatimiz bank xizmatlari ommabopligini oshirishda foydalanish, iste’molchilar huquqlarini himoyalash, aholining moliyaviy savodxonligini yuksaltirish davrimizning dolzarb masalalari sirasiga kirishiga alohida ahamiyat qaratilgan. SHu bois bu qaror bank xizmatlari rivojida yangi bosqichni boshlab berdi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi PF-60-son Farmoni.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi “2020 -2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi” to‘g‘risidagi PF-5992-son Farmoni.

3. Sobirov, I. X., and SH. Atabaeva. "RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MASOFAVIY BANK XIZMATLARIDAN FOYDALANISH USULLARI." *Arxiv nauchnых issledovaniy* 2.1 (2022).

4. Sobirov, IIxom, and Abdukxolik Abdukarimov. "DIGITALIZATION AND INNOVATIVE DEVELOPMENT STRATEGY OF THE CONSTRUCTION INDUSTRY IN UZBEKISTAN." *Mejdunarodnыy multidissiplinarnыy jurnal issledovaniy i razrabotok* 1.3 (2025): 165-167

Sobirov I.X. – Sam DAQU,
“Iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti, if.n**.**
Tursunov Muhammadazim - Sam DAQU, magistrant

RAQAMLI BANKNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI.

Annotatsiya*: Maqolada O‘zbekistonda raqamli bank rivojlantirish muammolari o‘rganilgan va aniq takliflar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *raqamli bank, onlayn taxlil, masofaviy bank maxsuloti.*

Taraqqiyot iste’mol bozorini ham keskin o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. Iste’molchilarning istak va xoxishlari ham zamonda paydo bo‘layotgan tendensiyalarga xos bo‘lib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta’kidlanganidek, “taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda. Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko‘p mablag‘ va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq, qanchalik qiyin bo‘lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, ertaga juda kech bo‘ladi. SHu bois, raqamli iqtisodiyotga faol o‘tish – kelgusi 5 yildagi eng ustuvor vazifalarimizdan biri bo‘ladi.

Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi”.

Prezident ta’kidlaganidek bank tizimi raqamli texnologiyalarni qo‘llash, yangi bank mahsulotlarini joriy etish va dasturiy ta’minotlar bo‘yicha zamon talablaridan 10-15 yil orqada qolmoqda.

2021 yildan boshlab har bir bankda keng ko‘lamli transformatsiya dasturlari amalga oshirilmoqda. Bu borada banklarimizning kapital, resurs bazasi va daromadlarini oshirishga alohida e’tibor berilmoqda.

Xizmat ko‘rsatish va sotish bozori o‘zgarish bilan birgalikda, bank sektori ham o‘zgarib bormoqda. Umumiy olib qaraganda – bozor virtual olamga transformatsiya bo‘lish jarayonida.

Banklarni rivojlanish tarixiga e’tibor beradigan bo‘lsak, dastlab banklar faqat o‘z filiallari orqali xizmat ko‘rsatishni tashkil etgan bo‘lsa, keyinchalik:

• 1970 yillarda bankomatlar ixtiro qilindi.

• 1980 yillarda banklarda koll – sentr orqali xizmat ko‘rsatish joriy qilindi.

• 1990 yillarda internet banking va 2000 yillarga kelib esa bank tizimiga internet va mobil texnologiyalar kirib keldi. Elektron tijorat rivojlana boshladi.

• 2010 yildan boshlab Evropa va AKSHda an’anaviy banklarni rakamli bankga tranformatsiyasi boshlandi. Natijada banklar o‘z filiallarini qisqartira boshladi.

Raqamli bank – Bank biznesidagi yangi model. Internet texnologiyalarga asoslangan xolda masofadan bank xizmatlarini mijozlarga etkazib berish tushuniladi.

Raqamli bankka o‘tish - bank bozorida raqobatdosh bo‘lish va samaraga erishish uchun quydagilar talab etiladi:

Mijoz uchun ishlash

- Mijoz to‘g‘risida barcha ma’lumotlarga ega bo‘lish (“zolotaya zapis”)
- Mijoz xarakatlarini va tarixini taxlil qilish
- O‘z fokusini yuqori texnologiyalarga yo‘naltirish

Raqamli xizmatlarni ko‘rsatish:

- “Qiyin” maxsulotlar bo‘yicha yagona darcha
- Tovar va xizmatlar uchun Marketpleys
- Robotizatsiyani joriy etish

Ofislarda xizmat ko‘rsatishdan raqamli kanallarga o‘tish

- Sayt va mobil ilovalar
- Talablarni oldindan bila olish
- bir nechta turli xil tizimlarni, xizmat kanallarini yoki kommunikatsiyalarni yagona oyna (darchada, xavola, tugmacha) orqali taqdim etish (Omnikanalnost) prinsiplarini joriy etish

Onlayn taxlil va o‘zini o‘zi o‘qituvchi texnologiyalarni (iskusstvennыy intellekt) joriy etish

- Neyron tizimlardan foydalanish
- Ochiq ma’lumotlar bazalaridan foydalanish
- Big Data taxlili asosida prognozlashtirish

Ijtimoiy tarmoqlarda aktiv pozitsiyaga ega bo‘lish, raqamli marketing instrumentlaridan faol foydalanish – raqamli bankning xarakatlantiruvchi vositasi hisoblanadi. CHunki raqamli bankning asosiy iste’molchilari internet tarmog‘ini faol foydalanuvchilaridur.

Ijtimoiy tarmoqlarning raqamli bankni rivojlantirishdagi axamiyati quydagilardan iborat:

1. Bank maxsulotlari va xizmatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tez tarqalishiga olib keladi;
2. Bankning moliyaviy maslaxatchi sifatida roli ortib boradi;
3. Axolining moliyaviy savodxonligini tez rivojlanadi;
4. Ijtimoiy tarmoqlarda foydalanuvchilar o‘rtasida o‘zaro taklif va tavsiyalarga ishonch ortib boradi;
5. Ijtimoiy tarmoqda bank foydalanuvchilar bilan xamkorlikda xech qanday korrupsiyasiz muloqot qilish maydoni yuzaga keladi. Ular bilan faqat sotish emas balki taklif va tavsiyalarga asoslangan munosabat o‘rnatiladi. Buning natijasida foydalanuvchilar – potensial mijozlar o‘rtasida bankga nisbatan ishonch paydo bo‘ladi, bank promoutorlari soni ortadi.

Raqamli texnologiyalar davrida mijozlarni jalb qilish va bank imidjini oshirishning eng samarali vositasi – bu bankning ijtimoiy tarmoqlardagi faolligini oshirish va rivojlantirishidir.

O‘zbekistonda raqamli bank joriy qilishdagi muammolar:

1. Jismoniy shaxslar va YATTlar uchun yagona identifikatsiya tizimining mavjud emasligi;
2. Bank maxsulot va xizmatlarini masofadan sotish imkonini berishga to‘skinlik kiluvchi normativ xujjatlarning mavjudligi;
3. Biznes jarayonlarning to‘liq avtomatlashmaganligi;
4. Skoring tizimining mavjud emasligi;
5. Majburiy tashqi tizimlar (NIKI, garov reesti va boshqalar) bilan integratsiya yo‘lga qo‘yilmaganligi;
6. EOPS bilan ma’lumotlar almashishdagi muammolar.

Raqamli bankingni joriy qilishda amalga oshirish lozim bo‘lgan ishlar:

1. CHakana bank maxsulot va xizmatlarini standartlashtirish. Barcha xududlarda yagona tarif siyosatini yuritish.
2. Bankni ijtimoiy tarmoqlardagi faolligini oshirish.
3. Internet marketing (SMM) komandasini tashkil qilish.
4. Bank saytida belgilangan maxsulot va xizmatlar uchun onlayn zayavkalarni amaliyotga joriy qilish.
5. Masofadan bank maxsulotlarini sotish va rivojlantirish komandasini tashkil qilish.
6. Mijozlarni segmentlarga ajratish va xizmat ko‘rsatish modelini ishlab chiqish.
7. Masofaviy sotish kanallari: veb-sayt, mobil banking, ijtimoiy tarmoqlar, koll sentr funksionallarini qayta ko‘rib chiqish va rivojlantirish. CRM bilan integratsiya qilish.
8. Masofadan bank xizmatlarini ko‘rsatish tizimlari (mobil va internet banking) tizimlarini takomillashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi PF-60-son Farmoni.

2. Sobirov, I. X., and SH. Atabaeva. "RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MASOFAVIY BANK XIZMATLARIDAN FOYDALANISH USULLARI." *Arxiv nauchnых issledovaniy* 2.1 (2022).

3. Sobirov, I. X., and R. Ganiev. "RAQAMLI BANK-TARAQQIYOT TALABI." *BBK 65.011. 6 I 26* (2021): 642.

Ashur Ali Latipov PhD dotsent v.b, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Munisa Baxronova IRB-k-222 guruhi 2-bosqich talabasi, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

YASHIL INNOVATSIYALARNI MOLIYALASHTIRISHDA XUSUSIY SEKTOR INVESTITSIYALARINING O‘RNI

Annotatsiya: Ushbu maqolada yashil innovatsiyalarni moliyalashtirish jarayonida xususiy sektor investitsiyalarining o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Yashil iqtisodiyot sharoitida xususiy kapitalning ekologik loyihalarga jalb etilishi, investitsion muhitni yaxshilash, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini takomillashtirish masalalari ko‘rib chiqilgan. Xorijiy tajriba asosida yashil texnologiyalarni rivojlantirishda moliyaviy resurslarning samarali taqsimoti va investorlar uchun rag‘batlantiruvchi omillar tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: yashil innovatsiyalar, investitsiya, xususiy sektor, moliyalashtirish, davlat-xususiy sheriklik, barqaror rivojlanish, yashil iqtisodiyot.

Global iqtisodiy tizimda ekologik barqarorlik va energiya samaradorligini ta’minlash masalalari tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Yashil texnologiyalarni rivojlantirish uchun katta miqdorda moliyaviy resurslar zarur, biroq davlat byudjeti bu ehtiyojni to‘liq qoplab bera olmaydi. Shu sababli, xususiy sektorning faol ishtiroki va investitsion faolligi yashil iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida muhim o‘rin tutadi.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ekologik innovatsiyalarni moliyalashtirishda davlat va biznes hamkorligi, shaffof investitsion muhit hamda soliq imtiyozlari muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston uchun ham bu tajribani moslashtirish dolzarb masalalardan biridir.

1. Yashil innovatsiyalarni moliyalashtirish zarurati va xususiy sektorning roli

Yashil innovatsiyalar — bu ekologik xavfsiz texnologiyalar, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, chiqindisiz ishlab chiqarish va resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlaydigan yangiliklardir.

Ularni amaliyotga joriy etish katta investitsiyalarni talab qiladi, shu bois **xususiy kapital** bu jarayonning ajralmas ishtirokchisiga aylanmoqda.

Xususiy sektorning moliyalashtirishdagi asosiy rollari quyidagilardan iborat:

- yangi yashil startaplar va innovatsion loyihalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash;
- ekologik texnologiyalarni ishlab chiqish va tijoratlashtirishda risklarni bo‘lishish;
- investitsion infratuzilma yaratish (masalan, yashil obligatsiyalar va ekologik fondlar);
- xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik qilish.

Misol uchun, Yevropa Ittifoqida “Green Deal Investment Plan” dasturi doirasida xususiy sektor hissasi umumiy moliyalashtirish hajmining 60 foizini tashkil etadi. Shu model asosida O‘zbekistonda ham yashil investitsiyalarni xususiy kapital orqali rag‘batlantirish imkoniyatlari mavjud.

2. O‘zbekistonda yashil loyihalarni moliyalashtirishda mavjud imkoniyatlar

O‘zbekistonda 2019-yilda qabul qilingan “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” bu yo‘nalishda muhim huquqiy asos yaratdi. Strategiyada xususiy investorlarni ekologik loyihalarga jalb etish, moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish va barqaror rivojlanish loyihalariga e’tibor qaratish belgilangan.

Bugungi kunda mamlakatda quyidagi yo‘nalishlarda ijobiy tajribalar kuzatilmoqda:

- Quyosh va shamol energetikasi loyihalarida xalqaro xususiy kompaniyalar ishtiroki (masalan, “Masdar” va “ACWA Power” loyihalari);
- Yashil kreditlar tizimi orqali kichik biznes subyektlarini qo‘llab-quvvatlash;
- Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) asosida ekologik infratuzilma loyihalarini amalga oshirish.

Shu bilan birga, ba’zi muammolar ham mavjud: xususiy sektor uchun soliq imtiyozlari yetarli emas, yashil obligatsiyalar bozori rivojlanmagan, hamda investorlar uchun axborot ochiqligi darajasi past. Shu sababli, bu sohada institutsional islohotlar zarur.

Xususiy sektorni rag‘batlantirish bo‘yicha ilmiy mulohazalardan kelib chiqib quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

6. **Soliq imtiyozlari va grant tizimini kengaytirish.** Yashil texnologiyalar bilan shug‘ullanayotgan korxonalarga soliq yengilliklari, subsidiyalar va davlat kafolatlari berish;
7. **Yashil obligatsiyalar bozorini shakllantirish.** Ular orqali ekologik loyihalarni moliyalashtirish uchun uzoq muddatli kapital jalb etish;
8. **Davlat-xususiy sheriklikni kuchaytirish.** Yirik energetika va chiqindilarni qayta ishlash loyihalarini DXSh asosida amalga oshirish;
9. **Moliyaviy shaffoflikni oshirish.** Investorlarga aniq moliyaviy axborot berish, yashil loyihalarning monitoring tizimini yo‘lga qo‘yish;
10. **Ta’lim va konsalting qo‘llab-quvvatlovi.** Biznes sektor vakillarida ekologik moliyalashtirish va yashil iqtisodiyot bo‘yicha bilimlarni kengaytirish.

Bu choralar nafaqat ekologik barqarorlikni ta’minlaydi, balki milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ham oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

8. O‘zbekiston Respublikasi “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” (2019–2030 yillar).
9. OECD. Green Growth and Sustainable Development Policies. Paris, 2020.
10. World Bank. Financing Green Growth: Policy Perspectives. Washington DC, 2022.
11. Vaxabov A.V., Xojibakiyev Sh.X. Yashil iqtisodiyot. – Toshkent: Universitet, 2020.
12. UNDP. Private Sector Engagement in Green Economy Transition. New York, 2021.
13. The Climate Group. Smart 2030 Report. London, 2014.
14. www.lex.uz

Sobirov Ilhom Xusanovich Samarqand davlat arxitektura qurilish universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti
Maxmudova Dilafruz Raxmonovna – mustaqil izlanuvchi.

TIJORAT BANKLARIDA TO‘LOV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI.

Annotatsiya: *Maqolada raqamli iqtisodiyotga o‘tish jarayonida tijorat banklarida to‘lov tizimini takomillashtirishning mohiyati, mamlakatimizda to‘lov tizimini rivojlanish darajasi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilib, hozirgi globallashuv sharoitida mamlakatimiz barcha sohalarini, jumladan bank tizimini ham raqamli iqtisodiyotga o‘tishining obektiv zaruriyat ekanligini yoritib berishga harakat qilingan.*

Kalit so‘zlari: *raqamli iqtisodiyot, to‘lov tizimi, internet, mobil tarmoq aloqalari, biznes, “axborotlashgan jamiyat”*

Raqamli iqtisodiyotga o‘tish barcha davlatlar va albatta xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar uchun kechiktirib bo‘lmaydigan, o‘ta dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Ilmiy adabiyotlarda va matbuot sahifalarida raqamli iqtisodiyotga ko‘plab ta’riflar berilgan, jumladan, xorijiy manbalarda raqamli iqtisodiyotga raqamli axborot texnologiyalari va iqtisodiy agentlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanish deb, boshqalarida esa uni xo‘jalik sub’ektlarining internet bilan bog‘langan holdagi iqtisodiy rivojlanish natijasi deb, ayrimlarida raqamli texnologiyalar va tegishli mahsulotlar va xizmatlarni yaratish, tarqatish va ulardan foydalanish bo‘yicha faoliyat, degan, ta’riflar mavjud.

Raqamli iqtisodiyotga berilgan boshqa ta’riflarni ham keltirish mumkin. Darhaqiqat, raqamli iqtisodiyotga berilgan bu kabi ta’riflar uning mohiyatini

to‘g‘ri ifodalab beradi, chunki raqamli iqtisodiyotga texnologiyalar va iqtisodiy agentlar yoki internet bilan bog‘langan rivojlanish jarayoni sifatida qarash o‘rinli, ammo unchalik etarli emas, chunki raqamli iqtisodiyot, avvalo raqamli axborot texnologiyalarining rivojlanishi va barcha davlatlar ijtimoiy-iqtisodiy yo‘nalishlari taraqqiyotini ta’minlash bilan bog‘langan. SHu sababdan raqamli iqtisodiyotga har bir mamlakat milliy iqtisodiyotining barcha tarmoqlariga va ijtimoiy hayotining turli jabhalariga zamonaviy axborot texnologiyalari yutuqlarini joriy qilish va undan unumli foydalanish natijasida iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotni ta’minlash, deb ta’rif berilsa yanada to‘laroq bo‘lar edi, deb hisoblaymiz.

Raqamli iqtisodiyot axborot texnologiyalari bilan bog‘langan elektron tijorat, tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish sohalari bilangina cheklanib qolmasdan, shu bilan birga, milliy iqtisodiyotning sog‘likni saqlash, fan va ta’lim, qurilish, energetika, qishloq va suv xo‘jaligi, transport, geologiya, kadastr, arxiv, internetbanking kabi tarmoqlariga, ijtimoiy va huquqni muhofaza qilish sohalariga ham jadal kirib bormoqda va ularning har birida yuqori samara berishi ta’minlanmoqda.

Raqamli iqtisodiyotning dastlabki poydevori axborot texnologiyalari hisoblanadi. Uni raqamli axborot texnologiyalari, deb atashsa to‘g‘riroq bo‘lar edi, chunki axborot texnologiyalarining asosida tegishli raqamlar yotadi. Ularning evolyusiyasi bir necha bosqichlarga bo‘linadi va o‘ziga xos xususiyatlarga ega. SHubhasiz, raqamli axborot texnologiyalarining paydo bo‘lishi va rivojlanishi jamiyat taraqqiyotining talabidan kelib chiqqan obektiv jarayondir. Bugungi kunda raqamli axborot texnologiyalarini targ‘ib qilishning asosiy maqsadi har qanday strategik vazifalarni hal etishga, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni optimal boshqarishni amalga oshirish bo‘yicha qarorlar qabul qilishga imkon beradigan darajadagi axborot texnologiyalari tizimini yaratishdir. Bu esa raqamli iqtisodiyotning rivojlanishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatmasdan qolmaydi. SHuni alohida ta’kidlash lozimki, shaxsiy kompyuterlarning paydo bo‘lishi raqamli axborot texnologiyalarini rivojlantirishda muhim bosqich bo‘ldi.

YAngi axborot texnologiyalari tizimlarini yaratish va undan foydalanish - bu mavjud ehtiyojlarni qondirish imkoniyatidir. Bunday holatda barcha foydalanuvchilar raqamli axborot texnologiyalarini ilgari surishda faol ishtirok etadilar.

Bugunga kelib raqamli axborot texnologiyalari axborotlarni ommaviy va tezkor ishlov berishga yo‘naltirilgan. Ular rahbarlarning oqilona qarorlar qabul qilishiga, o‘zgaruvchan bozorning mumkin bo‘lgan kutilmagan hodisalaridan himoyalanishiga, raqobatbardoshlikni ta’minlash uchun kerakli shart-sharoitlar yaratib, natijada muvaffaqiyatga erishishlariga yordam berishlari kerak. Hozirgi davrda raqamli axborot texnologiyalarini rivojlantirishning eng mashhur va keng tarqalgan texnologik vositalari “Internet” hisoblanadi.

Jahonda axborot texnologiyalarining uzoq vaqt davomida tarqalishi mamlakatlar milliy iqtisodiyotining rivojlanish yo‘llarini belgilab berdi, insonlar hayotidagi tub o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi va fanda raqamli iqtisodiyot terminining paydo bo‘lishiga tamal toshini qo‘ydi. Bu har bir mamlakat milliy

iqtisodiyotini optimal darajada rivojlantirish va shu orqali xalqning moddiy farovonligini ta’minlashdan iboratdir.

Milliy iqtisodiyot tarmoqlarida va ijtimoiy sohaning barcha jabhalarida raqamli axborot texnologiyalarini jadal sur’atlar bilan joriy etish barcha mamlakatlar uchun ustuvor masaladir. Materiallar va usullar. Bugun jadallik bilan kechayotgan raqamlashuv jarayoni «yangi iqtisodiyot»ni, ya’ni raqamli iqtisodiyotni vujudga keltirdi. Kam o‘rganilgan va kun sayin chuqur tomir otib borayotgan bu iqtisodiyot ishlab chiqaruvchilarga tadbirkorlikda va ijtimoiy sohalarda samarali marketing faoliyatini uyushtirish, xarajatlarni minimal miqdorda kamaytirib, maksimal foyda olish, tovarlarni sotish va xizmatlar ko‘rsatishni muvaffakiyatli amalga oshirishga katta imkoniyatlar yaratib bermoqda.

Keyingi yillarda dunyo miqiyosida tadbirkorlik va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatda raqamli axborot texnologiyalarining yangi avlodi paydo bo‘lib, ularning rivojlanish ko‘lami tufayli fanda “sun’iy intellekt”, “robototexnika”, “narsalarning interneti”, “simsiz texnologiyalar” va boshqa terminlar paydo bo‘ldi. Bularning barchasi raqamli iqtisodiyotning elementlaridir.

Hisob-kitoblarga ko‘ra raqamli iqtisodiyotga o‘tish mamlakat milliy iqtisodiyotida faoliyat olib borayotgan firmalardagi mehnat unumdorligini, ularning ish samaradorligini oshirish, ishlab chiqarishda o‘sish, faoliyat shaffofligini ta’minlash, mahsulot mutloq miqdorining o‘sishi va uning tannarxini keskin kamaytirish imkonini beradi. Bu uning eng katta ustunlik tomonidir.

Raqamli iqtisodiyot vositasida iste’molchi, xaridor va mijozlarga sifatli xizmat ko‘rsatiladi va boshqa bir qator qo‘layliklar yaratiladi. Bu vaktingiz tig‘iz paytida tushlikka buyurtma berish, taksi chaqirtirish, uzokdagi yakiningizga pul jo‘natish, transchegaraviy biznes hamkorlik, elektron tijorat maydoni, masofaviy ofis kabilarni ham qamrab olmoqda.

Raqamli texnologiyalarni joriy qilish va uni jadal sur’atlarda rivojlantirish qator davlatlar uchun ustuvor yo‘nalishlarning eng asosiysiga aylanib ulgurdi. Ular raqamli rivojlanishni amalga oshirish davrining uzoq davom etishi, ustuvorliklarning uzluksizligi, asosiy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yaratishdan boshlab, ushbu sohada maqbul siyosatni shakllantirishga va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish dasturlarini qo‘llab-quvvatlashi bilan ajralib turadi.

YUrtboshimiz SH.M.Mirziyoev ta’kidlab o‘tganidek, iqtisodiy o‘sishni yuqori darajada ta’minlagan holda korrupsiya illatining oldini oladi va unga barham beradi. Iqtisodchi olimlar tomonidan 2025 yilga kelib dunyo yalpi ichki mahso‘lotining qariyb yarmi raqamli iqtisodiyot hissasiga to‘g‘ri kelishi bashorat qilinayotgan bir sharoitda yangi iqtisodiyotni rivojlantirish zaruriyati yanada dolzarb tus oladi.

Ayrim manbalarda iqtisodiy rivojlantirishda dunyoda etakchilik qilib kelayotgan davlatlardan biri bo‘lmish Angliyada raqamli iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 12 foizni tashkil qilgani holda, mamlakatimizda bu ko‘rsatkich 2020 yilda 8 foizni tashkil qilgan, xolos. YUrtimizda 2025 yilga kelib, bu ko‘rsatkichni 3 martaga oshirish ko‘zda tutilgan. Dunyoning ko‘pchilik

taraqqiy etgan davlatlari raqamli iqtisodiyot asosida rivojlanayotgan bir paytda mamlakatimiz milliy iqtisodiyoti barcha tarmoq va sohalarini raqamlashtirish - jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv, dunyo bozorida o‘z o‘rniga ega bo‘lish, iqtisodiy barkarorlikni ta’minlash, samaradorlikka erishish va fuqarolarimizga etarli qulayliklar yaratib berishning asosiy shartidir.

Mamlakatimizda 2020 yilni «Ilm - fan, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili» deb e’lon qilinishi natijasida banklarni raqamlashtirishda katta yutuqlarga erishildi. SHu yilning o‘zida bank tizimini to‘liq raqamlashtirish belgilandi. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini barcha manfaatdor vazirliklar, idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlariga ko‘rib chiqish, elektron raqamli imzodan foydalangan holda kelishish (viza qo‘yish) uchun yagona elektron tizim- «project.gov.uz» joroiy etildi.

YUrtimizda internet tizimini keng joriy qilish negizida raqamli iqtisodiyotga o‘tishda jismoniy va yuridik shaxslarning davlat organlari bilan aloqa qilish shakllarini yanada rivojlantirish yuzasidan «YAgona interaktiv davlat xizmatlari» portali yangi versiyasining, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining tadbirkorlar murojaatlarini ko‘rib chikishi uchun virtual qabulxonasi – «business.gov.uz» portalining ishga tushurilishi muhim tadbirlarning boshlanishi, deb qaralishi mumkin.

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarni rivojlantirish vazirligi axborot xizmati bergan ma’lumotlarga ko‘ra, telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishida ham bir qator ishlar amalga oshirilgan, jumladan, respublika bo‘yicha 237 ta ob’ektda magistral telekommunikatsiya tarmoqlari kengaytirilib, ularning uskunalari modernizatsiya qilinib, magistral telekommunikatsiya tarmoqlari o‘tkazuvchanlik qobiliyati viloyatlararo darajada 200 G bit s.ga, tumanlararo darajada esa 40 Gbit s.ga etkazildi. Biroq bularning barchasi etarli, degan xulosani bermaydi. Demak, mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotga o‘tish borasida ayrim ijobiy siljishlar bilan birga echimini kutayotgan masalalar ham etarlicha.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, «YUrtimiz xalqaro axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish indeksi bo‘yicha 2019 yilda 8 pog‘onaga ko‘tarilgan bo‘lsada, hali juda ham orqadamiz. Aksariyat vazirlik va idoralar, korxonalar raqamli texnologiyalardan mutlaqo yiroq desak, bu ham haqiqat». E’tiborlisi, mamlakatimizda terminal orqali to‘lovlar sonini oshirib borishga keng imkoniyatlar yaratilmokda. Bu borada shuni ta’kidlash joizki, O‘zbekiston internet tezligi bo‘yicha Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlaridagi o‘rtacha ko‘rsatkichdan ikki barobar pastdir.

Tadbirkorlar mana shu jihatni inobatga olgan holda dunyoga mashhur «biznes biznes uchun» emas, «biznes iste’molchi uchun tamoyili asosida o‘z faoliyatini tashkil etishi maqsadga muvofiq.

SHuningdek, uzoq vaqt davomida byudjet tashkilotlarida texnik xodim hisoblangan axborot texnologiyalari mutaxassislariga yuqori maosh berilmagani ham raqamli iqtisodiyotni joriy etishdagi muammo bo‘lgan. Sababi, malakali dasturchilar bu lavozimda uzoq qolmagan. Ular xalqaro tashkilotlar, qo‘shma korxonalar, chet ellik buyurtmachilar uchun ishlashni ma’qul ko‘rgan. Endilikda

ularga ustama berish mexanizmi joriy etilgan. Demak, mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni keng joriy qilishdagi muammolar etarli. Bularning echimida shu yilning oktyabr oyida Prezident Farmoni bilan tasdiqlangan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” Dasturining qabul qilinishi dasturil amal bo‘lib xizmat qilishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga murojaatnomasi.//Xalq so‘zi, 2020 yil 25 yanvar, 19-soni.
2. Sobirov, I. X., and R. Ganiev. "RAQAMLI BANK-TARAQQIYOT TALABI." *BBK 65.011. 6 I 26* (2021): 642.
3. Sobirov, I. X., and D. I. Abiev. "TO‘LOV XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISHDAMARKAZIY BANKNING O‘RNI." *BBK 65.011. 6 I 26* (2021): 644.

Sobirov Ilhom Xusanovich Samarqand davlat arxitektura qurilish universiteti
Rayimov Ma’rufjon Abdurashid o‘g‘li “Iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti o‘qituvchisi

TIJORAT BANKLARIDA RISKLARNI BOSHQARISH VA UNI BAHOLASH

Annotatsiya: *Maqolada mamlakatimiz tijorat banklarida risklarni boshqarish va baholash bo‘yicha to‘plangan tajriba, hozirgi kundagi amaldagi holat tahlil etilgan, tijorat banklarining risklarni boshqarish va baholash bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar aniqlangan va ularni hal qilishga qaratilgan ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *tijorat banki, Markaziy bank, risklarni boshqarish va baholash risk, yuqori likvidli aktivlar, majburiy zaxira siyosati, ochiq bozor operatsiyalari,* kredit tavakkalchiligi.

Ma’lumki, tijorat banklarida risk-menejmentni tashkil etish Markaziy bank tomonidan qo‘yilgan talablar, Shuningdek, har bir tijorat bankining kengashi tomonidan belgilangan risk siyosati asosida amalga oshiriladi.
2019 yil 11 noyabrda O‘RQ-582 raqam bilan qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi qonunning 61-moddasiga muvofiq, Markaziy bank tomonidan turli risklarni chegaralash maqsadida banklar uchun majburiy bo‘lgan me’yorlar belgilanadi[248]. Xususan, Markaziy bank:

– bir qarz oluvchi yoki bir-biriga daxldor qarz oluvchilar guruhiga tavakkalchilikning eng ko‘p miqdorini;

– yirik kredit tavakkalchiligi va investitsiyalarning eng ko‘p miqdorini;

– aktivlarni tasniflash va baholashga doir talablarni, Shuningdek bunday tasniflar asosida bankning operatsion xarajatlari jumlasiga kiritiladigan chegirmalardan shubhali va harakatsiz qarzlarga qarshi tashkil etiladigan zaxiralarni shakllantirishni;

– qarzlarga doir foizlarni hisoblab chiqarish va ularni bank daromadlari hisobvarag‘iga kiritishga doir talablarni belgilaydi.

Bundan tashqari, respublikamizda tijorat banklari faoliyatidagi Risklarni boshqarishga nisbatan minimal talablar “Tijorat banklarining bank tavakkalchiliklarini boshqarishiga nisbatan qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi Nizomda ifodalangan.

Ushbu Nizomga muvofiq, bank risklarini boshqarish bank o‘z faoliyatini yuritishi va bank operatsiyalarini o‘tkazishida paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan risklarni aniqlash, ularning oldini olish, bartaraf etish, kamaytirish va ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararlarni boshqa moliyaviy vositalar orqali qoplash bo‘yicha bank tomonidan amalga oshiriladigan harakatlar majmui sifatida e’tirof etilgan.

Ta’kidlash lozimki, bank faoliyatidagi risklarni boshqarish quyidagi asosiy maqsadlarni ko‘zda tutishi zarur:

– bank omonatchilari va kreditorlari, aksiyadorlari manfaatlarini himoya qilish;

– bank risklarini kamaytirish, bartaraf etish va oldini olish; – bank faoliyatining etarli darajadagi barqarorligini ta’minlash.

Ayni paytda, bank risklarini boshqarishda tijorat bankidan quyidagilar talab etiladi:

– bank risklarini boshqarish vazifalari yuklangan tarkibiy bo‘linmani tashkil etish;

– bank risklarini boshqarish bo‘linmasini tajribali va malakali mutaxassislar bilan ta’minlash;

– bank yangi xizmatlarni joriy qilishda, yirik bitimlarni tuzishda, xorijiy moliya institutlari bilan aloqalar o‘rnatishda, investitsiyalar kiritishda, xorijiy valyutadagi mablag‘larni aktivlarga joylashtirishda, yangi xodimlarni ishga qabul qilishda bank risklarini boshqarish bo‘linmasi bilan kelishuvni amalga oshirish.

Endi tijorat banklari faoliyatidagi alohida risk turlari bo‘yicha me’yoriy talablarni ko‘rib chiqamiz.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan “Tijorat banklari likvidliligini boshqarishga bo‘lgan talablar to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq, tijorat banklari likvidliligini boshqarishga nisbatan minimal talablar belgilangan. Ta’kidlash joizki, banklarda etarli likvidlilikni ta’minlash zarurati foyda olishga bo‘lgan intilishni muvozanatda saqlab turishi va tijorat banki hech qachon daromadlilik hisobiga likvidlilikni suiiste’mol qilmasligi zarur.

Mazkur Nizomga binoan, tijorat banklari joriy likvidlilik koeffitsientining talab qilingan darajasini ta’minlashi zarur. Bunda joriy likvidlilik koeffitsienti likvidli aktivlar va so‘ndirish muddati 30 kungacha bo‘lgan boshqa aktivlarning talab qilib olinguncha va so‘ndirish muddati 30 kungacha bo‘lgan majburiyatlarga nisbati ko‘rinishida aniqlanadi. Ushbu koeffitsientning minimal darajasi 30 foizni tashkil etadi.

Tijorat banklarida valyuta riskini boshqarishga nisbatan talablar Markaziy bankning “Ochiq valyuta pozitsiyasini yuritish qoidalari”da belgilangan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklarining ochiq valyuta pozitsiyalariga nisbatan 2019 yilning 1 yanvaridan avgustidan boshlab quyidagi cheklovlar o‘rnatildi:

– tijorat bankining bitta valyutadagi ochiq valyuta pozitsiyasining miqdori uning regulyativ kapitalining 10 foizidan oshib ketmasligi lozim;

– tijorat bankining barcha valyutalardagi ochiq valyuta pozitsiyasining miqdori uning regulyativ kapitalining 20 foizidan oshib ketmasligi lozim.

Tijorat banklarining ochiq valyuta pozitsiyalari limitdan oshgan hollarda zaruriy muvozanatlashtiruvchi bitimlar yordamida o‘rnatilgan limit ta’minlanishi zarur. Ayni paytda, tijorat banklari o‘z filiallari uchun mustaqil ravishda ochiq valyuta pozitsiyasi limitlarini o‘rnatishlari mumkin.

Tijorat banklari faoliyatidagi kredit risklarini boshqarishni samarali tashkil qilishda Markaziy bank boshqaruvining 2000 yil 22 fevraldagi 429-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Tijorat banklari kredit siyosatiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi Nizom alohida ahamiyatga ega. Unga ko‘ra, bankning kredit siyosati kreditlash jarayonida yuzaga keluvchi risklarni boshqarishda bank rahbariyati tomonidan qabul qilinadigan choralar va uslublarni belgilovchi hamda bank rahbariyati va xodimlarini kreditlar portfelini samarali boshqarishga doir ko‘rsatmalar bilan ta’minlovchi hujjat hisoblanadi.

Bundan tashqari, kredit siyosati tijorat bankining kredit faoliyati maqsadlarini aniq ko‘rsatishi va aniqlab berishi zarur. Ushbu hujjatning naqadar muhimligini uning alohida hujjat sifatida ishlab chiqilishi va bank kengashi tomonidan tasdiqlanishi bilan ham izohlash mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 1998 yil 2 dekabrdagi 557-sonli “Bir qarzdor yoki o‘zaro daxldor bo‘lgan qarzdorlar guruhiga to‘g‘ri keluvchi tavakkalchilikning eng yuqori darajasi to‘g‘risida”gi Nizomida tijorat banklarining qarz oluvchilar bilan bog‘liq operatsiyalardagi risk darajasi bo‘yicha cheklovlar ifodalangan. Ushbu Nizomga muvofiq, I darajali bank regulyativ kapitalining 10 foizdan oshgan kredit yirik kredit sifatida e’tirof etiladi. Bundan tashqari, tijorat banklari har oyda bir marotaba kreditlarga doir yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan barcha yirik zararlar to‘g‘risidagi ma’lumotni Markaziy bankka taqdim etishi zarur.

Markaziy bankning 1998 yil 9 noyabrdagi 242-son “Tijorat banklari va ularning filiallari tomonidan aktivlar sifatini tasniflash, ssudalar bo‘yicha yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan yo‘qotishlar o‘rnini qoplash uchun tashkil etiladigan zaxirani shakllantirish va undan foydalanish” tartibi tijorat banklarining kredit qo‘yilmalarini tasniflash va ular bo‘yicha kredit riskining amalga oshishidan

yuzaga keladigan zararlarni qoplash bo‘yicha maxsus zaxiralarni shakllantirish talablarini belgilab beradi.

Shuningdek, tartibga ko‘ra tijorat banklari kreditlari yaxshi, standart, substandart, shubhali va umidsiz kreditlarga ajratiladi. SHunga mos ravishda, mazkur kreditlar bo‘yicha zaxiralar kredit miqdorining 0, 10, 25, 50 va 100 foizi miqdorida shakllantiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining “Aktivlar sifatini tasniflash, tijorat banklari tomonidan ular bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralarni shakllantirish va undan foydalanish tartibiga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 2011 yil 10 sentyabrdagi 26/1-sonli qarori 2011 yilning 2 oktyabridan boshlab kuchga kirdi.

Ushbu qarorga ko‘ra, Markaziy bankning “Aktivlar sifatini tasniflash, tijorat banklari tomonidan ular bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralarni shakllantirish va undan foydalanish tartibi”ga quyidagi o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritildi:

–Markaziy bankda tijorat banki aktivlari bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralanadigan majburiy zaxira depoziti tashkil qilindi hamda ushbu majburiy zaxira depozitiga tijorat banklari o‘z aktivlari bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarga qarshi shakllantirilgan maxsus zaxiralar summasiga teng miqdordagi mablag‘larni vakillik

hisobvaraqlaridan o‘tkazib borish talabi qo‘yildi;

–majburiy zaxira depozitiga o‘tkazilishi lozim bo‘lgan mablag‘lar miqdori har oyning 10, 20-sanalari va oy yakuni bo‘yicha shakllantirilgan aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarga qarshi zaxira summasidan kelib chiqib qayta hisob-kitob qilinadi;

–hisob-kitob natijalariga ko‘ra, uch ish kuni mobaynida tijorat banklari maxsus zaxiralar summasiga etmayotgan miqdordagi mablag‘larni majburiy zaxira depozitiga o‘tkazishi yoki tijorat banklarining asoslantirilgan murojaatiga ko‘ra Markaziy bank tomonidan ortiqcha mablag‘lar banklarga qaytariladi;

–shartnoma muddatida to‘lanmagan va grafik bo‘yicha asosiy qarz va foizlar bo‘yicha oraliq to‘lovlar 180 kundan kechiktirilgan barcha kreditlar “umidsiz” sifatida tasniflanadi. Bundan tashqari, sud jarayonidagi aktivlar, qarzdorning moliyaviy holati yomonligi va to‘lovga qobiliyatsizligi sababli to‘lov muddati uzaytirilgan aktivlar hamda bank faoliyatida foydalanilmaydigan, muammoli kreditlarni qoplash uchun olingan mulklar, ular bank balansiga olingan kundan boshlab uch oy muddatda sotilmagan aktivlar ham “umidsiz” sifatida tasniflanadi;

–agar tijorat banklari belgilangan talablarga amal qilmagan taqdirda, Markaziy bank majburiy zaxira depozitiga o‘tkazilishi lozim bo‘lgan mablag‘larni bankning Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag‘idan undirib oladi va bankka nisbatan O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi qonunining 53-moddasiga muvofiq tegishli chora va sanksiyalarni qo‘llaydi.

Umuman olganda, Markaziy bankning tijorat banklarida risklarni tartibga solish va boshqarishga nisbatan talablari va me’yorlarini 1 –jadval orqali ifodalash mumkin.

Tijorat banklarida risklarni boshqarishning amaldagi holatini tahlil qilish uning barcha faoliyatini alohida-alohida ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Tijorat banklari faoliyatidagi aktiv va passiv operatsiyalar, kreditlar, depozitlar, turli xalqaro valyutalar va fond bozoridagi aksiyalar, obligatsiyalar bilan bog‘liq operatsiyalarning riskka tortilish darajasini o‘rganish ular faoliyatining barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining iqtisodiy me’yorlari

№	Ko‘rsatkich	Me’yoriy darajasi
1	***2***	***3***
1.	Bir qarzdor yoki o‘zaro daxldor qarzdorlar guruhiga berilgan kredit (ta’minlangan)	Kredit summasi / I darajali kapital 25 %
2.	**Bir qarzdor yoki o‘zaro daxldor qarzdorlar guruhiga berilgan kredit (ta’minlanmagan)**	**Kredit summasi / I darajali kapital 5 %**
3.	Jami yirik kreditlar	Barcha yirik kreditlarining umumiy hajmi/ I darajali kapital 800 %
4.	Jami lizing operatsiyalari	Jami lizing summasi / I darajali kapital < 25 %
5.	Jami daxldor shaxslarga berilgan kreditlar	Jami kreditlar summasi / I darajali kapital 100 %
6.	Bitta emitentning qimmatli qog‘ozlariga investitsiyalarning maksimal miqdori	Bitta emitentning qimmatli qog‘ozlariga investitsiyalar / I darajali kapital 15 %
7.	Oldi-sotdi maqsadlarida qimmatli qog‘ozlarga investitsiyalarning umumiy miqdori	Oldi-sotdi maqsadlarida qimmatli qog‘ozlarga investitsiyalar / I darajali kapital 25 %
8.	Bank tomonidan muomalaga chiqariladigan obligatsiyalar	Bank tomonidan muomalaga chiqariladigan obligatsiyalarning umumiy miqdori ≤ bank ustav kapitali
9.	Joriy likvidlilik koeffitsienti	Min. 0,30
10.	Ochiq valyuta pozitsiyasiga limitlar	– Bitta xorijiy valyutadagi ochiq pozitsiya miqdori / regulyativ kapital 10%; – Jami xorijiy valyutadagi ochiq pozitsiya miqdori / regulyativ kapital 20%

11.	Kapital etarliligiga talablar	Regulyativ kapital / Riskka tortilgan aktivlar ≥ 10% I darajali kapital / Regulyativ kapital ≥ 50% I darajali kapital / (umumiy aktivlarnomoddiy aktivlar) ≥ 6%

Mamlakatimiz banklari risk-menejmentida berilgan kreditlar sifat jihatdan tasniflanadi. Bank kreditlari tarkibida yaxshi kreditlarning asosiy salmoqni (91,1 foizni) tashkil etishi va uning 2024 yilda 2019 yilga nisbatan 20,4 f.p.ga o‘sganligi milliy bank tizimining o‘tish iqtisodiyoti davrida qo‘lga kiritgan ijobiy yutuqlaridan biri hisoblanadi. Mazkur o‘zgarish standart kreditlar hisobiga sodir bo‘lgan, ya’ni ularning salmog‘i 2024 yilda 2019 yilga nisbatan 15,2 f.p.ga pasaygan. Shuningdek, substandart, shubhali, umidsiz kreditlar salmog‘i ham pasayish tendensiyasiga ega bo‘lmoqda. Bu esa, banklarning riskli aktivlari kamayib borayotganligidan dalolat beradi (1- jadval).

Tijorat banklari kreditlarining sifat jihatdan tasniflanishi (%da)

Ko‘rsatkichlar	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.	2024yilda 2019 yilga nisbatan o‘zgarish, f.p.
YAxshi	70,7	70,5	73,6	78,6	86,8	91,1	20,4
Standart	20,9	11,3	12,6	10,4	9,0	5,7	-15,2
Substandart	6,0	15,3	11,2	8,2	3,0	2,2	-3,8
SHubhali	1,2	2,5	2,0	2,3	1,0	0,7	-0,5
Umidsiz	1,2	0,4	0,6	0,6	0,2	0,2	-1,0
Jami kreditlar	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	–

Banklarning bozor riskini yana bir asosiy ko‘rinishi bu valyuta riski hisoblanadi. Mamlakatimizda valyuta riski jahonda etakchi bo‘lgan AQSH dollari, evro, Buyuk Britaniya funt sterlingi, YAponiya ienasida, yirik tashqi iqtisodiy hamkor mamlakatlar valyutalarida, xususan Rossiya rublida va boshqa valyutalarda hisoblanishi mumkin. Shuningdek, tijorat banki valyuta riskini hisoblashda chet el valyutasi kursi, ochiq valyuta pozitsiyasining uzun va qisqa shakllari, valyuta pozitsiyalarining bankning regulyativ kapitaliga nisbatlari inobatga olinadi. Boshqa xorijiy valyutalarga nisbatan AQSH dollaridagi ochiq valyuta pozitsiyasining yuqoriligi bank mijozlarining valyuta hisobvaraqlarida uning miqdorini ko‘pligi bilan izohlanadi.

Umuman olganda, respublikamiz banklari faoliyatidagi risklarni boshqarish borasida bir qator muammolar mavjud bo‘lib, ularni bartaraf etish, xalqaro standartlar asosida zamonaviy risk-menejment tizimini tashkil etish mamlakatimiz bank tizimi barqarorligini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida”gi Qonuni, 61-modda. http://lex.uz/
2. Sobirov, I. X., and SH. Atabaeva. "RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MASOFAVIY BANK XIZMATLARIDAN FOYDALANISH USULLARI." *Arxiv nauchnых issledovaniy* 2.1 (2022).
3. Sobirov, I. X., and R. Ganiev. "RAQAMLI BANK-TARAQQIYOT TALABI." *BBK 65.011. 6 I 26* (2021): 642.
4. Sobirov, I. X., and D. I. Abiev. "TO‘LOV XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISHDAMARKAZIY BANKNING O‘RNI." *BBK 65.011. 6 I 26* (2021): 644

Нозимов Элдор Анварович
Самаркандский институт экономики и сервиса
Старший преподаватель кафедры «Инвестиции и инновации»

ФИНАНСОВЫЕ ИНСТРУМЕНТЫ ПОДДЕРЖКИ ВНЕДРЕНИЯ ЗЕЛЁНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ

Аннотация: В статье рассматриваются современные подходы к формированию и использованию финансовых инструментов, направленных на поддержку внедрения зелёных технологий в национальной экономике. Особое внимание уделено роли зелёных облигаций, кредитных программ, налоговых льгот и инвестиционных фондов в стимулировании перехода к устойчивому развитию. Проанализированы ключевые направления государственной и частной поддержки экологически ориентированных проектов, а также обозначены перспективы совершенствования финансово-институциональной инфраструктуры зелёного финансирования.

Ключевые слова: зелёные технологии, зелёное финансирование, устойчивое развитие, инвестиции, зелёные облигации, экологические инновации, государственная поддержка, зелёная экономика.

В современных условиях переход к устойчивому развитию становится одной из приоритетных задач экономической политики большинства стран мира. Углубляющиеся климатические изменения, дефицит природных ресурсов, ухудшение состояния окружающей среды и рост социальной ответственности бизнеса требуют внедрения новых технологических решений, способных минимизировать негативное воздействие производства на природу. Именно в этом контексте развитие зелёных технологий рассматривается как стратегическое направление модернизации национальной экономики. Однако успешное внедрение таких технологий

невозможно без формирования эффективной системы финансовой поддержки, обеспечивающей приток долгосрочных инвестиций и устойчивое финансирование экологических проектов.Финансовые инструменты, направленные на развитие зелёных технологий, представляют собой совокупность методов, механизмов и институтов, которые обеспечивают движение капитала в сферу экологически ориентированных инноваций. Среди них особое место занимают **зелёные облигации**, **зелёные кредиты**, **государственные субсидии**, **инвестиционные фонды** и **налоговые стимулы**. Каждый из этих инструментов выполняет важную функцию — снижает финансовые барьеры для бизнеса, повышает инвестиционную привлекательность проектов и способствует формированию устойчивого инвестиционного климата.

Зелёные облигации (green bonds) сегодня являются наиболее динамично развивающимся инструментом на международном финансовом рынке. Их главная особенность заключается в целевом использовании привлечённых средств — исключительно на проекты, направленные на защиту окружающей среды и устойчивое развитие. Мировой рынок зелёных облигаций уже превышает триллион долларов, при этом наблюдается ежегодный рост эмиссии на 20–25%. Эти инструменты активно применяются в энергетике, транспорте, коммунальном хозяйстве и промышленности. Для развивающихся стран, включая Узбекистан, выпуск зелёных облигаций открывает новые возможности для привлечения международного капитала на льготных условиях, что способствует развитию «зелёной» инфраструктуры и инновационных производств.

Зелёные кредиты также становятся важным инструментом поддержки предприятий, внедряющих энергоэффективные и экологически безопасные технологии. Банки и финансовые институты предлагают льготные условия кредитования, если проект соответствует установленным экологическим критериям. В некоторых странах такие кредиты частично компенсируются государством или международными организациями, что делает их более доступными для малого и среднего бизнеса. Кроме того, создаются специализированные **зелёные банки**, аккумулирующие средства для финансирования устойчивых проектов. Например, в Китае и Южной Корее действуют государственные зелёные банки, предоставляющие долгосрочные кредиты на модернизацию производственных мощностей и внедрение чистых технологий.

Неотъемлемой частью системы финансовой поддержки являются **государственные субсидии и гранты**, которые направляются на научно-исследовательские работы, разработку и внедрение экологических

инноваций. Такие меры позволяют снизить издержки компаний в начальных стадиях внедрения новых технологий, способствуют ускорению технологического прогресса и повышению конкурентоспособности национальной экономики. В ряде стран действуют специальные **государственные программы поддержки зелёных инвестиций**, предусматривающие предоставление грантов, гарантий и компенсаций затрат на сертификацию продукции в соответствии с международными экологическими стандартами.Особое внимание уделяется **налоговым стимулам** как инструменту формирования благоприятных условий для экологически ответственного бизнеса. Введение налоговых льгот, пониженных ставок налога на прибыль, освобождение от уплаты налога на имущество для предприятий, реализующих зелёные проекты, создаёт прямой экономический интерес к внедрению устойчивых технологий. Кроме того, для инвесторов, приобретающих зелёные облигации или вкладывающих средства в экологические фонды, могут применяться дополнительные налоговые вычеты, что способствует развитию частных инвестиций в зелёную экономику.

Инвестиционные и венчурные фонды играют ключевую роль в финансировании стартапов и инновационных компаний, работающих в области возобновляемой энергетики, переработки отходов, водных технологий и экологического мониторинга. Такие фонды обеспечивают не только финансовую поддержку, но и консультационную помощь, способствуя коммерциализации инновационных решений. На мировом рынке наблюдается тенденция роста числа специализированных фондов устойчивого развития, что свидетельствует о росте интереса частного капитала к экологическим проектам.

Существенное значение для развития зелёного финансирования имеет **институциональная и нормативно-правовая база**, определяющая стандарты, критерии и принципы устойчивых инвестиций. Международные организации, включая ОЭСР, Всемирный банк, ЕБРР и UNEP, активно содействуют странам в разработке национальных стратегий зелёного финансирования, внедрении механизмов оценки экологического воздействия проектов и создании прозрачных систем отчётности. В странах Европейского союза уже действует **таксономия устойчивых инвестиций**, определяющая перечень экономических видов деятельности, которые могут считаться «зелёными». Подобные подходы постепенно внедряются и в развивающихся странах, что способствует гармонизации правил и повышению доверия инвесторов.

Для эффективного функционирования всей системы зелёного финансирования необходимо обеспечить **взаимодействие государства, частного сектора и международных институтов**. Государство должно формировать благоприятную среду для инвестиций через совершенствование законодательства, гарантии инвесторам и создание механизмов софинансирования. Частный сектор, в свою очередь, обязан внедрять принципы корпоративной экологической ответственности и развивать внутренние стандарты устойчивого менеджмента. Международные финансовые институты могут обеспечивать техническую и консультационную поддержку, а также привлекать внешние ресурсы в национальные проекты.Таким образом, финансовые инструменты поддержки внедрения зелёных технологий являются важнейшим фактором стимулирования экологических инноваций и основой перехода к устойчивому развитию. Эффективное использование этих инструментов способствует формированию новой экономической модели, в которой инновации, экология и финансы объединяются в единую стратегию роста. В перспективе развитие комплексной системы зелёного финансирования позволит укрепить конкурентоспособность национальной экономики, повысить энергетическую независимость, снизить углеродный след и обеспечить гармоничное взаимодействие человека и природы.

Современное развитие национальной экономики невозможно без учёта экологических факторов и устойчивого использования природных ресурсов. Финансовые инструменты поддержки внедрения зелёных технологий играют ключевую роль в обеспечении перехода к устойчивому типу роста, основанному на инновациях, энергоэффективности и экологической ответственности. Проведённый анализ показал, что активизация процессов «зелёного» финансирования требует комплексного подхода, включающего развитие нормативной базы, формирование эффективных финансовых механизмов и расширение участия частного сектора.Применение таких инструментов, как зелёные облигации, льготные кредиты, инвестиционные фонды и налоговые стимулы, создаёт реальные предпосылки для ускорения экологической модернизации промышленности и повышения инвестиционной привлекательности зелёных проектов. При этом важным направлением становится формирование благоприятного институционального и правового пространства, способствующего прозрачности финансовых потоков и повышению доверия со стороны инвесторов.

Для эффективного внедрения зелёных технологий и дальнейшего развития зелёной экономики целесообразно реализовать следующие **предложения**:

1. Совершенствовать законодательную и нормативную базу в сфере зелёного финансирования, обеспечив чёткие критерии и стандарты экологических инвестиций, соответствующие международным требованиям.

2. Создать специализированные зелёные финансовые институты (например, зелёные банки и фонды устойчивого развития), аккумулирующие ресурсы для финансирования долгосрочных экологических проектов.

3. Расширить участие частного капитала в финансировании зелёных проектов за счёт внедрения налоговых льгот, гарантий и механизмов государственно-частного партнёрства.

4. Развивать рынок зелёных облигаций и устойчивых инвестиций, стимулируя эмиссию корпоративных и муниципальных инструментов, направленных на модернизацию инфраструктуры и энергетику.

5. Повысить уровень финансовой грамотности и экологической ответственности бизнеса, внедряя принципы ESG (экология, социальная ответственность и корпоративное управление) в систему корпоративного менеджмента.

6. Активизировать международное сотрудничество, используя ресурсы и опыт международных финансовых организаций (Всемирного банка, ЕБРР, UNEP) для привлечения внешних инвестиций и внедрения передовых практик зелёного финансирования.

7. Разработать национальную стратегию зелёного финансирования, которая определит приоритетные направления, источники ресурсов и механизмы их эффективного использования.

Реализация предложенных мер позволит создать целостную систему финансовой поддержки зелёных технологий, укрепить конкурентоспособность национальной экономики, стимулировать развитие инновационного потенциала и обеспечить устойчивое взаимодействие между экономическим ростом и охраной окружающей среды. Таким образом, зелёное финансирование становится не просто инструментом экологической политики, а стратегическим фактором формирования новой модели экономического развития страны.

Список использованной литературы

1. Сулейманов Ш. Ш. *Инструменты экологического финансирования и их роль в устойчивом развитии национальной экономики*. — Ташкент: Иқтисодиёт, 2022.

2. Назаров А. Р. *Зелёные инвестиции и инновации в экономике Узбекистана*. — Ташкент: Иқтисодиёт, 2023.

3. Ахмедова Н. М. *Экологизация финансовых механизмов в условиях устойчивого развития экономики Узбекистана*. — Ташкент, 2021.

4. Халилова Д. А. *Финансово-инвестиционные инструменты поддержки зелёных технологий в Центральной Азии*. — Журнал «Экономические исследования», №4, 2023.

Насиров Дилшод Фархадович
САМИСИ Старший преподаватель кафедры «Инвестиции и инновации»

РАСШИРЕНИЕ ИСТОЧНИКОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ «ЗЕЛЕНЫХ» ТЕХНОЛОГИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация: *статья исследует роль расширения источников финансирования "зеленых" технологий в переходе к устойчивой экономике на примере Узбекистана. На основе анализа вторичных данных из открытых отчетов международных организаций (World Bank, OECD, GGGI) и национальных стратегий за 2023–2025 годы подчеркивается необходимость многоуровневой финансовой экосистемы, включающей долговые инструменты (зеленые облигации), партнерства с частным сектором и международное финансирование. Результаты показывают, что в 2025 году Узбекистан привлек €1,1 млрд через зеленые облигации и проекты ВИЭ мощностью 1,5 ГВт, с прогнозом 18 млрд долларов инвестиций к 2030 году. Обсуждение подтверждает, что интегрированный подход минимизирует риски и ускоряет зеленый переход, с рекомендациями по усилению ГЧП и исламских финансов. Ограничения связаны с зависимостью от доступных данных, подчеркивая потенциал для дальнейших исследований.*

Ключевые слова: *зеленые технологии, устойчивая экономика, финансирование, зеленые облигации, Узбекистан-2030, возобновляемая энергия, международное сотрудничество, энергоэффективность, исламские финансы, климатические изменения.*

Введение: В условиях глобальных климатических изменений расширение источников финансирования "зеленых" технологий становится ключевым элементом перехода к устойчивой экономике. Этот процесс позволяет преодолевать барьеры в реализации проектов по возобновляемой энергии, энергоэффективности и снижению эмиссий, способствуя экономическому росту без ущерба для окружающей среды. Согласно данным World Bank, глобальные инвестиции в зеленые технологии превысили 1,5 трлн долларов США в 2024 году, с прогнозом роста до 2,5 трлн долларов к 2030 году, где развивающиеся страны, такие как Узбекистан, могут привлечь до 20% от этого объема через международное сотрудничество. Актуальность темы усиливается для Центральной Азии, где дефицит финансирования тормозит зеленый переход: UNEP подчеркивает, что комбинация государственных, частных и международных механизмов

может увеличить эффективность инвестиций на 30–40%, минимизируя риски и стимулируя инновации.[249][250][251][252]

Для Узбекистана тема особенно актуальна в 2025 году, объявленном: "Годом защиты окружающей среды и 'зеленой' экономики". Стратегия "Узбекистан-2030" направлена на диверсификацию энергетики и привлечение 18 млрд долларов инвестиций в зеленые проекты к 2030 году, включая ВИЭ и энергоэффективность. В глобальном контексте многоуровневая финансовая экосистема — от долговых инструментов (зеленые облигации) до долевых (венчурные фонды) и государственных субсидий — обеспечивает покрытие рисков на разных стадиях проектов. Настоящая статья анализирует опыт Узбекистана в формировании такой экосистемы, аргументируя, что интегрированный подход к финансированию является ключом к ускорению устойчивого развития.[253][254][255]

Методология: Исследование проведено с использованием вторичных данных из открытых источников. Основные методы включают систематический обзор и контент-анализ опубликованных отчетов, стратегий и аналитических материалов международных организаций и национальных институтов за период 2020–2025 годов.

Данные собраны через поиск в открытых репозиториях и официальных сайтах, с фокусом на ключевые индикаторы: объем инвестиций, типы финансовых инструментов (зеленые облигации, сукук, гранты) и их влияние на зеленый переход. Для анализа применен качественный подход: категоризация механизмов финансирования по уровням (государственный, частный, международный) и стадиям проектов (R&D, пилотные, масштабирование), с оценкой рисков и эффективности на основе описательных статистик из отчетов. Количественные метрики (например, прогнозы инвестиций до 2030 года) взяты напрямую из источников без дополнительной обработки.

Обсуждение: Результаты анализа подтверждают ключевой тезис: устойчивое расширение источников финансирования "зеленых" технологий требует формирования многоуровневой финансовой экосистемы, где долговые, долевые, государственные и международные инструменты взаимодействуют для покрытия рисков на всех стадиях жизненного цикла проектов — от исследований и разработок (R&D) до масштабирования и коммерциализации. В контексте Узбекистана такая экосистема, включающая зеленые облигации, партнерства с частным сектором (например, ACWA Power и Masdar) и финансирование от международных банков (AIIB, ADB, IsDB), позволяет не только диверсифицировать

[249] https://blogs.worldbank.org/en/climatechange/uzbekistan-s-green-leap-
[250] https://www.fortunebusinessinsights.com/green-technology-and-sustainability-market-102221
[251] https://www.statista.com/topics/3001/clean-technology-investments/?srsltid=AfmBOop3rJAQFWjUZsy22xKiiGQoFHOORLduSMO7mnyK2VqwKAgYyzvF
[252] https://aifc.kz/wp-content/uploads/2024/07/1.3-ca-to-publish-eng_compressed.pdf
[253] https://uz.kursiv.media/en/2025-01-09/uzbekistan-develops-national-green-finance-programme/
[254] https://gov.uz/en/eco/news/view/28064
[255] https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/publication/ccdr

источники средств, но и ускорить зеленый переход, минимизируя дефицит финансирования и стимулируя инновации. Выпуск суверенных зеленых облигаций на €500 млн в 2025 году демонстрирует эффективность долговых инструментов в привлечении частных инвестиций для устойчивых проектов, что соответствует глобальным тенденциям, где зеленые облигации покрывают до 20% инвестиций в развивающихся странах.[256][257][258]

Однако, несмотря на прогресс, существуют барьеры, такие как регуляторные риски, ограниченная институциональная зрелость и зависимость от международного финансирования, что может замедлить реализацию проектов в Центральной Азии. Например, дефицит частного капитала в зеленом переходе Узбекистана, как отмечается в отчете OECD, требует усиления мер по мобилизации внутренних ресурсов и снижения рисков для инвесторов через гарантии и субсидии. Интеграция исламских финансов, включая зеленые сукук от IsDB, может повысить инклюзивность, особенно в сельских районах, где традиционные кредиты ограничены, и способствовать привлечению инвестиций из стран Залива.[259][260][261][262][263][264]

Рекомендации включают усиление государственно-частных партнерств (ГЧП) для проектов ВИЭ, как в случае с ветровыми станциями ACWA Power мощностью 1,5 ГВт, и развитие национальной программы зеленого финансирования к декабрю 2025 года для заполнения пробела в 18 млрд долларов к 2030 году. Кроме того, интеграция с рамками GGGI (Country Planning Framework 2024-2028) позволит мобилизовать 1 млрд долларов через смешанное финансирование, фокусируясь на энергоэффективности и снижении эмиссий. Будущие исследования должны оценивать долгосрочное воздействие этих механизмов на экономику региона, включая анализ ROI (возврат инвестиций) и влияние на уровень бедности, с использованием обновленных данных за 2025–2030 годы.

Список литературы:

1. https://blogs.worldbank.org/en/climatechange/uzbekistan-s-green-leap-
2. https://www.fortunebusinessinsights.com/green-technology-and-sustainability-market-102221

[256] https://www.oecd.org/en/publications/2023/12/financing-uzbekistan-s-green-transition_6ebf6b94.html
[257] https://www.aiib.org/en/projects/details/2025/proposed/uzbekistan-green-and-resilient-market-economy-program.html
[258] https://www.adb.org/news/adb-acwa-power-build-central-asia-first-wind-power-plant-battery-energy-storage
[259] https://www.isdb.org/news/historic-multi-million-tripartite-partnership-of-isdb-government-and-unicef-delivers-on-uzbekistans-education-reform
[260] https://www.bloomberg.com/news/articles/2025-10-06/uzbekistan-mulls-islamic-finance-new-esg-bond-to-diversify-debt
[261] https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2023/12/financing-uzbekistan-s-green-transition_6ebf6b94/27d2489d-en.pdf
[262] https://www.oecd.org/en/publications/2023/12/financing-uzbekistan-s-green-transition_6ebf6b94.html
[263] https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/2025-05/undp-kfh-green-sukuk-tool-for-sustainable-financing.pdf
[264] https://www.bloomberg.com/news/articles/2025-10-06/uzbekistan-mulls-islamic-finance-new-esg-bond-to-diversify-debt

3. https://www.statista.com/topics/3001/clean-technology-investments/?srsltid=AfmBOop3rJAQFWjUZsy22xKiiGQoFHOORLduSMO7mnyK2VqwKAgYyzvF
4. https://aifc.kz/wp-content/uploads/2024/07/1.3-ca-to-publish-eng_compressed.pdf
5. https://uz.kursiv.media/en/2025-01-09/uzbekistan-develops-national-green-finance-programme/
6. https://gov.uz/en/eco/news/view/28064
7. https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/publication/ccdr
8. https://www.oecd.org/en/publications/2023/12/financing-uzbekistan-s-green-transition_6ebf6b94.html
9. https://www.aiib.org/en/projects/details/2025/proposed/uzbekistan-green-and-resilient-market-economy-program.html
10. https://www.adb.org/news/adb-acwa-power-build-central-asia-first-wind-power-plant-battery-energy-storage
11. https://www.isdb.org/news/historic-multi-million-tripartite-partnership-of-isdb-government-and-unicef-delivers-on-uzbekistans-education-reform
12. https://www.bloomberg.com/news/articles/2025-10-06/uzbekistan-mulls-islamic-finance-new-esg-bond-to-diversify-debt
13. https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2023/12/financing-uzbekistan-s-green-transition_6ebf6b94/27d2489d-en.pdf
14. https://www.oecd.org/en/publications/2023/12/financing-uzbekistan-s-green-transition_6ebf6b94.html
15. https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/2025-05/undp-kfh-green-sukuk-tool-for-sustainable-financing.pdf
16. https://www.bloomberg.com/news/articles/2025-10-06/uzbekistan-mulls-islamic-finance-new-esg-bond-to-diversify-debt

Рузиев Ғанишер Усарович *Тошкент давлат иқтисодиёт университети Солиқ ва солиққа тортиш кафедрасининг катта ўқитувчиси*

ЎЗБЕКИСТОНДА “ЯШИЛ” ЭНЕРГИЯНИ ФИСКАЛ РАҒБАТЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Аннотация. Мақолада Ўзбекистонда қайта тикланувчи энергияни ривожлантириш борасида амалга оширилаётган ислоҳотлар ўрганилиб, “яшил” энергетика учун фискал рағбатлантириш бўйича халқаро тажриба таҳлил қилинган ва молиявий рағбатлантиришнинг мавжуд усуллари аниқлангани ҳолда мамлакатда ушбу соҳани фискал рағбатлантириш масалаларига доир таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган

Калит сўзлар: қайта тикланувчи энергия, “яшил” энергетика, молиявий рағбатлантириш, солиқ имтиёзлари.

Қайта тикланадиган энергетиканинг ривожланиши, глобал энергия истеъмолининг сезиларли даражада ўсиши шароитида, Ўзбекистон иқтисодиётига салбий таъсир қилувчи бир қатор глобал инсоний муаммоларни, жумладан қазиб олинадиган ёқилғининг камайиши ва атроф-муҳитнинг ҳалокатли ифлосланиши каби муаммоларни ҳал қилишга ёрдам беради. Шунга кўра, "Ўзбекистон иқтисодиётининг асосий тармоқларини иқлим ўзгаришларига мослаштириш, углерод нейтраллигига эришиш ва "яшил" энергетика улушини кескин ошириш"[265] мамлакат олдидаги муҳим стратегик вазифа ҳисобланади. Қолаверса, "Ўзбекистон- 2030" стратегиясида "Яшил иқтисодиёт"га ўтиш, унинг асоси бўлган қайта тикланувчи энергиядан фойдаланиш кўрсаткичларини кескин ошириш"[266] асосий мақсадлардан бири ҳисобланади. Стенфорд университети профессори Марк Жейкобснинг сўзларига кўра, дунёнинг етти мамлакати, жумладан Албания, Бутан, Эфиопия, Конго Демократик Республикаси, Непал, Парагвай ва Исландия давлатлари аллақачон деярли барча электр энергиясини қайта тикланадиган манбалардан ишлаб чиқармоқда. Халқаро қайта тикланадиган энергия манбалари агентлиги (IRENA) маълумотларига кўра, яна 40 та давлат, жумладан, 11 та Европа давлати барча электр энергиясининг 50% дан ортиғини ушбу энергия манбалари орқали ишлаб чиқармоқда. Маълумотларга кўра, 2023 йил ҳолатига Ўзбекистонда ишлаб чиқарилган умумий энергиясида мазкур энергия манбаларининг улуши 9,25 фоизни ташкил этиб, дунёдаги 206 та давлатлар қаторида 151-ўринда туради[267].

Бугунги кунда Ўзбекистонда умумий қуввати 4 682 мегаватт бўлган 12 та қуёш фотоэлектр станцияси ва 5 та шамол электр станцияси ишлаб турибди. Натижада 2025 йил бошидан 23 сентябрь ҳолатига Ўзбекистонда йил бошидан буён қуёш ва шамол электр станциялари томонидан ишлаб чиқарилган электр энергияси миқдори 8 млрд kVt·соатни ташкил қилади. Ўзбекистон 2030 йилга қадар қайта тикланадиган энергия манбалари улушини 25 фоизгача оширишни режалаштирган. Ўз навбатида, қайта тикланувчи энергия манбаларининг жами истеъмолдаги улуши 2025 йилда 25 фоизга етиши кутиляпти[268]. Мутахассислар томонидан 2035 йилда электр истеъмоли 121 млрд kVt·соат бўлиши ҳисоб-китоб қилинган. Шу боис, 2030 йилга бориб, жами генерацияда "яшил" энергия улушини 54 фоизга етказиш режалаштирилган. Натижада 2025 йилнинг ўтган даври мобайнида "яшил" энергия ҳисобидан 2 млрд 424 млн куб метр табиий газ тежалишига эришилди ҳамда атмосферага 3 млн 552 минг тонна зарарли моддалар чиқишининг олди олинди.

[265] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 78-сессиясидаги нутқи. https://gov.uz/uz/news/view/2716

[266] Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. "Ўзбекистон - 2030" стратегияси тўғрисида. ПФ-158-сонли, 2023 йил 11 сентябрь

[267] https://web.stanford.edu/group/efmh/jacobson/WWSBook/Countries100Pct.pdf

[268] https://president.uz/uz/lists/view/8068

Дунё амалиётида қайта тикланувчи энергия соҳасида фискал рағбатлантириш механизми инвестицияларни кўпайтириш, ишлаб чиқариш харажатларини камайтириш ва технологик инновацияларни қўллаб-қувватлаш, аҳоли ва хўжалик юритувчи субъектларнинг қайта тикланувчи энергия қурилмаларини сотиб олишини рағбатлантириш, “яшил” энергия салмоғи ва уни ишлаб чиқарувчилар даромадларини янада оширишга хизмат қилади. Қайта тикланувчи энергияни фискал рағбатлантириш бўйича ҳар бир мамлакат ўзининг иқтисодий, иқлимий ва сиёсий шароитларига мос ёндашувни танлаган. Масалан, Германияда “Renewable Energy Sources Act (EEG)” орқали “feed-in tariff” (FIT) тизими жорий этилган бўлиб, бу тизимга кўра, қайта тикланувчи энергия ишлаб чиқарувчиларга давлат томонидан кафолатланган юқори нархда электр энергиясини сотиш имконияти берилади. Шунингдек, қайта тикланувчи энергия ускуналари учун ҚҚС имтиёзлари, фойда солиғи чегирмалари қўлланилади. Францияда қайта тикланувчи энергия ишлаб чиқарувчилар учун инвестицион субсидиялар ва электр энергиясини кафолатли нархда сотиш механизмлари мавжуд. Япония эса 2011 йилдан бошлаб Германия давлати каби “feed-in tariff” тизимини жорий қилиб, қайта тикланувчи энергия лойиҳаларига солиқ имтиёзлари, паст фоизли кредитлар ва технологик грантлар ажратмоқда.

Америка Қўшма Штатлари (АҚШ)да эса қайта тикланувчи энергияни фискал рағбатлантириш “Investment Tax Credit (ITC)” ва “Production Tax Credit (PTC)” дастурлари орқали амалга оширилади. ITC дастури асосида қуёш ёки шамол электр станциялари қурилишига сарфланган капитал харажатларнинг 30 фоизигача миқдорида солиқ чегирмаси берилади. PTC эса ишлаб чиқарилган ҳар бир киловатт-соат энергия учун белгиланган солиқ имтиёзини тақдим этади. Хитойда давлат томонидан қайта тикланувчи энергиянии ишлаб чиқарувчиларга катта миқдорда субсидиялар, ҚҚСни камайтириш, фойда солиғидан озод этиш каби имтиёзлар берилади.

Ўзбекистонда ҳам қайта тикланувчи энергия манбаларидан кенг фойдаланишни янада қўллаб-қувватлаш, уларни солиқлар воситасида рағбатлантириш мақсадида мазкур қурилмаларни ўрнатган ва ундан фойдаланувчи солиқ тўловчиларга мол-мулк ва ер солиғидан қуйидагича имтиёзлар жорий этилган:

1-жадвал.

Қайта тикланувчи энергия манбалари (ҚТЭМ) қурилмаларини ўрнатиш ва улардан фойдаланишга доир солиқ имтиёзлари

№	Имтиёз тури	Имтиёз қўлланиладиган	
		солиқ тури	солиқ тўловчилар
1.	Умумий қуввати қуйидагича бўлган ҚТЭМ қурилмалари солиқ солишдан озод этилади: 100 кВтгача бўлган - ҚТЭМ қурилмалари фойдаланишга	Мол-мулк соли	Юридик шахс

	топширилган ойдан эътиборан уч йил муддатга, қуёш панелларининг қувватига нисбатан 25 фоиздан кам бўлмаган қувватга эга электр энергиясини тўплаш тизими билан қуёш панеллари ўрнатилганда эса - ушбу панеллар фойдаланишга топширилган ойдан эътиборан ўн йил муддатга; 100 кВт ва ундан ортиқ бўлган - улар фойдаланишга топширилган ойдан эътиборан ўн йил муддатга;	ғи	лар
2.	Уй-жой фондининг кўчмас мулк объектларида умумий қуввати 100 кВтгача бўлган ҚТЭМдан фойдаланувчи шахслар учун солиқ суммаси ҚТЭМ қурилмалари ўрнатилган ойдан эътиборан уч йил давомида, қуёш панеллари қувватидан 25 фоиздан кам бўлмаган қувватга эга электр энергиясини тўплаш тизими мавжуд бўлган қуёш панеллари ўрнатилганда эса мазкур панеллар фойдаланишга топширилган ойдан эътиборан ўн йил давомида базавий ҳисоблаш миқдорининг икки бараваридан ошмайдиган суммага камайтирилади.	Мол-мулк соли ғи	Жисмо-ний шахс лар
3.	ҚТЭМнинг умумий қуввати қуйидагича бўлган алоҳида турувчи қурилмалари билан банд бўлган ер участкаларига солиқ солинмайди: 100 кВтгача - ҚТЭМ қурилмалари фойдаланишга топширилган ойдан эътиборан уч йил муддатга, қуёш панеллари қувватидан 25 фоиздан кам бўлмаган қувватга эга электр энергиясини тўплаш тизими мавжуд бўлган қуёш панеллари ўрнатилганда эса - ушбу панеллар фойдаланишга топширилган ойдан эътиборан ўн йил муддатга; 100 кВт ва ундан кўпроқ - улар фойдаланишга топширилган ойдан эътиборан ўн йил муддатга.	Мол-мулк соли ғи	Юриди к шахс лар
4.	Уй-жой фондининг кўчмас мулк объектларида умумий қуввати 100 кВтгача бўлган ҚТЭМдан фойдаланувчи шахслар учун солиқ суммаси ҚТЭМ қурилмалари ўрнатилган ойдан эътиборан уч йил давомида, қуёш панеллари қувватидан 25 фоиздан кам бўлмаган қувватга эга электр энергиясини тўплаш тизими мавжуд бўлган қуёш панеллари ўрнатилганда эса мазкур панеллар фойдаланишга топширилган ойдан эътиборан ўн йил давомида БҲМнинг бир бараваридан ошмайдиган суммага камайтирилади.	Ер соли ғи	Жисмо-ний шахс лар

Қайта тикланувчи энергия манбалари қурилмаларини ўрнатиб, улардан фойдаланган ҳолда ишлаб чиқарилган электр энергиясини давлат умумий тармоқларига реализация қиладиган юридик ва жисмоний шахслар учун мазкур даромадлари бўйича қуйидагича имтиёзлар жорий этилган: Жумладан,

2-жадвал.

Ишлаб чиқарилган қайта тикланувчи электр энергиясини реализация қилишдан олинган даромадларга нисбатан солиқ имтиёзлари

№	Имтиёз тури	Имтиёз қўлланиладиган	
		солиқ тури	солиқ тўловчилар
1.	“Яшил энергия” сертификатлари савдосидан тушган даромадлар фойда солиғини солишда ҳисобга олинмайдиган даромадлар таркибига киритилган. “Яшил энергия” сертификати- ҚТЭМдан фойдаланган ҳолда электр энергияси ишлаб чиқарилганлигини тасдиқловчи электрон ҳужжат.[269]	Фойда солиғи	Юридик шахслар, ЯТТлар
2.	Умумий қуввати 100 кВтгача бўлган ҚТЭМ қурилмаларидан фойдаланган ҳолда умумий тармоққа электр энергиясини реализация қилишдан олинган фойдага нисбатан фойда солиғи ставкаси “0”. 0 фоиз миқдоридаги солиқ ставкаси ҚТЭМ қурилмалари фойдаланишга топширилган ойдан эътиборан уч йил мобайнида, қуёш панеллари-нинг қувватига нисбатан 25 фоиздан кам бўлмаган қув-ватга эга электр энергиясини тўплаш тизими билан қуёш панеллари ўрнатилганда эса - ушбу панеллар фойдаланишга топширилган ойдан эътиборан ўн йил мобайнида қўлланилади.	Фойда солиғи	Юридик шахслар, ЯТТлар
3.	Жисмоний шахсларга тегишли объектларда ўрнатилган қуёш панелларида ишлаб чиқарилган ва ўз истеъмолидан орттириб ягона электр энергетика тизимига узатилган электр энергияси учун давлат бюджетидан ажратиладиган субсидия тўловлари жисмоний шахсларнинг жами даромадлари таркибига киритилмайди. Субсидия ҳар ой якуни билан жисмоний шахслар томонидан ягона электр энергетика тизимига узатилган энергия ҳажми ва тизимдан истеъмол қилинган электр энергияси ҳажми ўртасидаги ижобий тафовут миқдоридан келиб чиқиб ҳисобланади	Даромад солиғи	Жисмоний шахслар

Юқорида қайд этилган солиқ имтиёзлар доирасида, масалан 2025 йилнинг биринчи ярим йиллиги давомида жами 28538 нафар жисмоний шахс қуёш панелларида ишлаб чиқарилган электр энергиясини давлатга сотиш ҳисобига 63 млрд 498 млн сўм миқдорида давлат бюджетидан субсидия тарзидаги солиққа тортилмайдиган даромадга эга бўлган.

[269] Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. Қайта тикланувчи энергия манбаларидан фойдаланиш тўғрисида. ЎРҚ-539-сонли, 2019 йил 21 май. 3-модда

Хулоса қилиб айтганда, қайта тикланувчи энергия манбаларини ривожлантириш фискал сиёсатнинг муҳим йўналишларидан бири ҳисобланади ва солиқлар ва молиявий имтиёзлар орқали бу соҳада тезкор ютуқларга эришиш мумкин. Шунга кўра, Ўзбекистонда қайта тикланувчи энергияга доир солиқ имтиёзлари кўламини кенгайтириш ва мавжуд имтиёзлар қўлланилиш механизмларини такомиллаштириш мақсадида қуйидагилар таклиф этилади:

1. Мамлакатда қайта тикланувчи энергия манбаларидан фойдаланишни адолатли ва тўлақонли рағбатлантириш, асосий мақсад энергия барқарорлигини таъминлаш ва “яшил” энергияни ривожлантириш эканлигидан келиб чиқиб, қайта тикланувчи энергия манбаларини ўрнатишга доир мулк ва ер солиқларидан қўлланилаётган имтиёзларни жисмоний шахсларнинг фақатгина уй-жой фондларига нисбатан эмас, балки нотурар объектларига нисбатан ҳам қўллаш мақсадга мувофиқ.

2. Жисмоний шахсларнг маҳаллий ишлаб чиқарувчилар томонидан ишлаб чиқарилган қайта тикланувчи энергия манбалари қурилмаларини харид қилиш йўналтирилган даромадларини, шунингдек ушбу мақсадда олинган кредитларни ва улар бўйича ҳисобланган фоизларни сўндиришга йўналтирилган даромадларини (энергия қурилмалари нархнининг маълум бир қисми миқдорида) солиқдан озод қилиш.

3. Қуёш энергиясини сақлаш технологиялари (батареялар)ни қўллаб-қувватлаш, уларни импорт қилиш, ишлаб чиқариш ва харид қилинишини фискал рағбатлантириш мақсадида сарфланган ишлаб чиқариш харажатларининг 30 фоизигача миқдорида солиқ чегирмаси берилиши, импорт қилишда ҚҚСни камайтириш тарзидаги имтиёзларни қўллаш лозим.

Юқорида санаб ўтилган бу чора-тадбирлар мамлакатда энергия барқарорлигини таъминлаш, “яшил” энергияга ўтиш орқали экологик хавфсизликни мустаҳкамлаш, шунинг билан биргаликда пировардида аҳоли реал даромадларининг ошишига хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси. Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик маълумотлари миллий базаси. https://lex.uz/docs/4674902. Мурожаат қилинган сана 2025 йил 6 октябрь

2. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. Қайта тикланувчи энергия манбаларидан фойдаланиш тўғрисида. ЎРҚ-539-сонли, 2019 йил 21 май.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. “Ўзбекистон - 2030” стратегияси тўғрисида. ПФ-158-сонли, 2023 йил 11 сентябрь

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори. “Яшил энергия” сертификатлари тизимини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида. ПҚ-156-сонли, 2023 йил 12 май

5. Кормишкина Л.А., Королева Л. П. Зарубежный опыт фискального стимулирования развития возобновляемой энергетики // Финансы и кредит. - 2018. - Т. 24, № 8. - С. 1891 - 1905. https://doi.org/10.24891/fc.24.8.1891

6. Бучнев А. Регулирование и стимулирование развития возобновляемых источников энергии // Государственная служба. 2015. № 5. С. 108-111. http://pa-journal.ranepa.ru/articles/r47/3382

7. Яшалова Н.Н. Обзор мировой и отечественной практики по экономическому стимулированию развития возобновляемой энергетики // Ученые записки Череповецкого государственного университета. 2015. № 2. С. 29-34.

8.https://web.stanford.edu/group/efmh/jacobson/WWSBook/Countries100Pct.pdf

Ashurova Oltin Yuldashevna SAMISI *katta o'qituvchi,*
Abdulxamitova Yulduz – 4 kurs talabasi

"YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TISH JARAYONINI MOLIYALASHTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotga o'tish jarayonini moliyalashtirishning asosiy yo'nalishlari, xorijiy mamlakatlar tajribasidan foydalanish hamda zamonaviy innovatsion texnologiyalarni jalb qilish masalalari yoritilgan. Bugungi kunda iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashning ustuvor vazifalaridan biri "yashil moliya"ni rivojlantirishning umumiy yo'nalishlarini aniqlash, moliyalashtirish va "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish, shuningdek, "yashil" iqtisodiyotning eng muhim yo'nalishlarini o 'rganishning ahamiyati ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: "Yashil" iqtisodiyot, "yashil moliya", "yashil" standartlar, innovatsion texnologiyalar, portfel investitsiya, "yashil moliyalashtirish", "yashil obligatsiyalar", "yashil kreditlar" tizimlari.

"Yashil moliyalashtirish"tushunchasi Jahon moliya tizimidagi tub tarkibiy o'zgarishlar makroiqtisodiy dinamikaning uzoq muddatli tendensiyalari bilan belgilanadi. Ular orasida so'nggi o'n yillikda ekologik iqlim muammolarining ahamiyati ortib bormoqda. Bugungi kunda iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashning ustuvor vazifalaridan biri jahonda barqaror rivojlanishning muhim sharti bo'lgan "yashil moliya"ni rivojlantirishning umumiy yo'nalishlarini aniqlash, moliyalashtirish va "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish, shuningdek, "yashil" iqtisodiyotning eng muhim yo'nalishlarini o 'rganishdir. "Yashil" iqtisodiyotga o 'tish nafaqat alohida milliy iqtisodiyotni, balki butun sayyora barqarorligini belgilaydigan global tendensiya hisoblanadi. Asosiy maqsadlaridan biri tabiat va uning boyliklarini nafaqat bugungi avlodga yetkazish, balki, kelgusi avlodga ham asrab-avaylagan holda yetkazishdan iborat.

"Yashil" iqtisodiyotga o'tishdagi muhim masalalardan biri ushbu jarayonni moliyalashtirish hisoblanadi. "Yashil moliya" va "yashil" iqtisodiyot bir - biriga uzviy bog'liq jarayon hisoblanadi. Yashil moliyaning maqsadi barqaror biznes

modeliga o‘tish uchun kapitalga o‘sib borayotgan talabni qo'llab-quvvatlashga qodir bo‘lgan tizimni yaratishdir. Global miqyosida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish jarayonida asosiy e’tibor tiklanadigon energiya manbalaridan samarali foydalanish, energiyani tejaydigon texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilganligi uzoq muddatni va katta miqdordagi investitsiyalar talab etishi bilan ajralib turadi. Umumiy tarzda “Yashil moliyalar” (“Green finance”) deyilganda, ekologik toza, energiya samaradorligi yuqori va past uglerodli loyihalarni amalga oshirishga yo‘naltirilgan investitsiyalar va boshqa moliyaviy dastaklar yig‘indisini tushuntirish mumkin.

“Yashil” iqtisodiyotga o‘tish juda katta moliyaviy hamda inson resurslarini talab qiluvchi uzoq muddatli jarayon hisoblanadi. Hozirda O‘zbekiston Respublikasida yirik soliq to'lovchi sanoat sektori o‘z aktivlarini modemizatsiya qilishga ehtiyoj sezmoqda, biroq bu juda katta kapitalni jalb qilish evaziga amalga oshadigan jarayondir. O'zbekistondagi bank sektori sanoat sektoridagi keng ko‘lamli investitsion dasturlariga bo‘lgan talabni o‘z resurslari evaziga amalga oshirishni qondira olmaydi. Yechim esa global resurslarni ishga solgan holda “yashil moliyalashtirish, “yashil obligatsiyalar”, “yashil kreditlar” tizimlari hamda ESG fondlarini tashkil etish bilan hal bo‘ladi. Moliya bozorini isloh qilishda moliya bozori ishtirokchilari “yashil” moliyalashtirish vositalarini joriy etish platformasiga ega bo‘ lishi uchun institutsional tuzilmani ishlab chiqish zarur. Bu “yashil” standartlar, moliyaviy vositalarni baholash metodologiyalari, sertifikatlar va bozorni yanada boshqaradigan boshqa fundamental qoidalarni anglatadi. Buni qanchalik tez amalga oshirsak, shunchalik tez “yashil” moliyaviy vositalar bilan ishlashni boshlashimiz mumkin. Xususan, “yashil” iqtisodiyotga o‘tish resurslardan samarali foydalanish, ekologik muvozanatni ta’minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish, barqaror iqtisodiy o'sishni ta’minlash imkonini beradi. Barqaror rivojlanishni ta’minlashda yashil iqtisodiyotning o‘rni ko‘plab rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy strategiyalari, dastur va rejalariga kiritilgan. “Yashil” iqtisodiyotga o‘tishning asosiy vazifalaridan biri iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishdan iborat. Bunga texnologiyalarni modernizatsiyalash va moliyaviy mexanizmlami rivojlantirish orqali erishiladi.

”Yashil moliyalashtirish” tizimining tarkibi va amal qilish xususiyatlari so'nggi 15 yil ichida dunyoda sayyoramizdagi ekologik muammolarni hal etish yoki kamaytirishni ko‘zda tutuvchi investitsiyalarni kiritishning yangi mexanizmlari hamda vositalari ishlab chiqildi. “Yashil moliyalashtirish” manbalarini quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- davlat byudjeti mablag‘lari;
- xalqaro moliya tashkilotlari mablag‘lari;
- xususiy sektor mablag‘lari (ichki va tashqi).

“Yashil bydjetlashtirish”- ekologik va iqlim maqsadlariga erishish uchun budjet siyosatini shakllantirish vositalaridan foydalanish jarayoni, bu budjet va soliq siyosatining atrof-muhitga ta'sirini baholashni, uning milliy va xalqaro majburiyatlar bajarilishiga muvofiqligini baholashni o‘z ichiga oladi. “Global Landscape of Climate Finance” e ’lon qilgan so‘nggi hisobotga ko‘ra, 2020-2024-

yillarda iqlim bilan bog‘liq moliyalashtirishning umumiy hajmi 632 milliard AQSH dollarini tashkil qilgan. Buning 321 milliard dollari jamoatchilik manbalari hisobidan, 310 milliard dollari esa xususiy manbalar tomonidan moliyalashtirilgan.

“Yashil” loyihalarni moliyalashtirishning muhim vositalari: “Yashil” kreditlar,

“Yashil” obligatsiyalar, “Yashil” investitsiya fondlari Aktivlar bilan ta’minlangan qimmatli qog‘ozlar. Yashil kreditlar - bu ekologik loyihalarni moliyalashtirishga qaratilgan kredit. O‘zbekistonda aholining qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda ushbu qurilmalarni sotib olish uchun “yashil” iste’mol kreditlari ajratiladi. “Yashil” iste’mol krediti — quyosh fotoelektr stansiyasi, quyosh suv isitkichlari va shamol elektr stansiyalarini o‘rnatish maqsadlari uchun jismoniy shaxslarga milliy valyutada ajratiladigan kredit. “Yashil obligatsiyalar” ekologik vaziyatni yaxshilashga qaratilgan loyihalar va hududlarni moliyalashtirish asosda taqdim etiladigan qimmatli qog‘ozlardir. Bunday obligatsiyalar yashil iqtisodiyotning ajralmas qismi hisoblanadi. “Yashil obligatsiyalar”ini chiqarish orqali tashkilotlar bir qator muhim imtiyozlarga ega bo‘ladi: imijini yaxshilash, yangi investorlar oqimi va qulay shartlarda ekologik loyihalar uchun resurslarni jalb qilish imkoniyatini beradi. Mexanika bo‘yicha “yashil obligatsiyalar” oddiy obligatsiyalardan hech ham farq qilmaydi. Bu qat’iy daromadga ega qarz qog‘ozlaridir. Investor o‘z mablag'larini ma’lum muddatga obligatsiyalar chiqargan emitent tashkilotlarga qarzga beradi. Biroq, bu holda jalb qilingan mablag‘lar ekologik vaziyatni yaxshilash va tabiatga yetkazilgan zararni minimallashtirish, jumladan, qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish, biologik xilma-xillikni saqlash, yerlarni rekultivatsiyalash, chiqindilarni qayta ishlash majmualarini qurish, elektr transportini joriy etish, tozalash inshootlarini takomillashtirish, iqlim o‘zgarishiga moslashish va hokazolarga yo‘naltiradi.

“Yashil loyihalar” davlat siyosatining eng muhim vositasiga aylanmoqda, uning maqsadi yashil innovatsiyalar sohasida davlat xususiy sheriklikni kengaytirish, “yashil energiya”ni yaratish va yoqilg‘i-energetika tarmoqlarini modernizatsiya qilish muammolarini hal qilishdir. Loyihalarni amalga oshirish mamlakatning yetakchi ilmiy maktablari, ilmiy-tadqiqot institutlari, konstruktorlik va servis kompaniyalari, asbob-uskunalar ishlab chiqaruvchi korxonalar, yoqilg‘i-energetika kompleksi korxonalarini birlashtirishni nazarda tutadi.

“Yashil investitsiyalar” - bu atrof-muhitni asrashga yo'naltirilgan, yangi asrovchi texnologiyalarni joriy etishni, yashil moliyaviy mahsulotlarni, muqobil energetikaning yangi bozorlarini va yashil energiya turlarini rivojlantirishni ko'zda tutuvchi loyihalar va modellarni moliyalash manbalaridir. Moliya bozorining segmenti sifatida “yashil moliyalashtirish” tiklanish bosqichida turganiga qaramay, “yashil kreditlar”, “yashil” obligatsiyalar, “yashil investitsiyalar” fondi va “yashil” fond indekslari kabi moliyaviy vositalar jadal rivojlanishni namoyish etmoqdalar. Ekspertlar baholashlariga ko‘ra, 2030-yilda

dunyoda “yashil” loyihalarni amalga oshirishga taqriban 93 trln dollar sarflanadi, ularni ta’minlash uchun tegishli moliyaviy vositalardan keng foydalanish kerak bo'ladi. Investitsiyalar obyekti ekologik foydali loyiha bo’ladimi yo‘qligini aniq belgilash muhim masalaligicha qolmoqda. Shuning uchun quyidagi ustuvor yo‘nalishlar belgilab berildi:

- investitsiya siyosati va loyihalarga “yashil” investitsiyalar konsepsiyasini integratsiyalash;
- sanoat korxonalari infratuzilmasini moliyalashtirish imkoniyati va salohiyatini kengaytirish orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiyotdagi rolini kuchaytirish;
- xususiy sektoming milliy iqtisodiyotdagi ishtirokini oshirish;
- davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi muloqotni mustahkamlash;
- davlat xaridlarining shaffof va raqobatbardosh tartibini takomillashtirish;
- hukumat faoliyati samaradorligini oshirish uchun elektron hukumat va davlat boshqaruvi salohiyatini mustahkamlash;
- davlat boshqaruvi organlarining innovatsiyalar va investitsiyalar bo‘yicha salohiyatini kuchaytirish hamda davlat xizmatlari va jarayonlarini raqamlashtirishni qo‘llab-quvvatlash;
- bilim va axborot almashinuvini osonlashtirish uchun AKT tuzilmasi va infratuzilmasini kengaytirish;
- innovatsion tizimda siyosiy boshqaruv va mexanizmlar samaradorligini oshirish;
- ilm-fan va sanoat o‘rtasidagi aloqalami mustahkamlash:
- ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining salohiyatini mustahkamlash;
- tadbirkorlik sohasida modernizatsiya va texnologiyalar transferini ta’minlash uchun xorijiy texnologiya yetkazib beruvchilar ishtirokini oshirishda tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash;
- qishloq xo'jaligi sohasidagi tadbirkorlaming raqamli savodxonligini ko‘tarish va onlayn platformalardan foydalanishni rivojlantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10- iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo‘ ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to‘ g‘risida” gi PF-6024-son Farmoni.

2. Milliy “yashil” iqtisodiyot taksonomiyasini tasdiqlash to‘ g‘ risida.O‘ zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 25.10.2023 yildagi 561-son qarori. https://lex.uz/uz/docs/-6644013

3. Яшил иктисодиёт: Дарслик. /А.В.Вахабов, Ш.Х.Хажибакиев ва бошкалар. —Тошкент.: “ Universitet” , 2020. -262 б.

4. Липина С.А., Агапова Е.В., Зеленая экономика. Глобальное развитие. - М.: Изд-во Проспект, 2016. - с. 234

Qarajanova Gulnoza Tolliyevna
SamISI, Investitsiya va innovatsiyalar kafedrasi katta o'qituvchsi

YASHIL TEXNOLOGIYALARNI MOLIYALASHTIRISH MANBALARINI KENGAYTIRISHDA INNOVATSION INVESTITSIYALARNING ROLI: 2025-YIL TENDENSIYALARI VA STRATEGIK YECHIMLAR

Annotatsiya. Ushbu maqola yashil texnologiyalarni moliyalashtirish manbalarini kengaytirishda innovatsion investitsiyalarning rolini tahlil qiladi, 2025-yil tendensiyalari va strategik yechimlar kontekstida dolzarb masalalarni ko‘rib chiqadi. Global energiya investitsiyalari 2025-yilda 3,3 trillion dollarga yetadi, shundan 2,2 trillion dollar toza texnologiyalarga yo‘naltiriladi (IEA, 2025). O‘zbekistonning "Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi" (2019-2030) uglerod emissiyasini 35% ga kamaytirish va qayta tiklanuvchi energiyani 40% ga oshirishni maqsad qiladi, ammo moliyaviy manbalar cheklangan: 2024-yilda venchur kapital (VC) atigi 100 million dollar (Jahon banki, 2025). Tadqiqot SWOT tahlili, korrelatsiya tahlili va case studylarga asoslanib, masalalarni (risklar, regulatsiya, manbalar diversifikatsiyasi etishmasligi) va yechimlarni (yashil obligatsiyalar, PPP, karbon kreditlari) ko‘rsatadi. Natijalar investorlar, siyosatchilar va startaplar uchun strategik tavsiyalar beradi. Maqola IMRAD tizimida yozilgan bo‘lib, empirik ma‘lumotlar va tahlillar bilan boyitilgan.

Kalit so‘zlar: yashil texnologiyalar, innovatsion investitsiyalar, moliyalashtirish manbalari, venchur kapital, yashil obligatsiyalar, davlat-xususiy hamkorlik, karbon kreditlari, O‘zbekiston yashil strategiyasi, global tendensiyalar, barqaror rivojlanish.

Kirish

Yashil texnologiyalar – iqlim o‘zgarishi va resurs tanqisligiga qarshi global kurashning markazida turibdi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (SDGs), xususan SDG 7 (qayta tiklanuvchi energiya) va SDG 13 (iqlim harakatlari), moliyalashtirish manbalarini kengaytirishni talab etadi. Innovatsion investitsiyalar – venchur kapital (VC), yashil obligatsiyalar va davlat-xususiy hamkorlik (PPP) – bu jarayonda asosiy vosita: ular yuqori riskli startaplarni moliyalashtirib, innovatsiyalarni tezlashtiradi va manbalarni diversifikatsiya qiladi. 2025-yilda global energiya investitsiyalari 3,3 trillion dollarga yetadi, shundan 2,2 trillion dollar toza texnologiyalarga, jumladan quyosh PV (700 milliard dollar) va uglerod tutishga (200 milliard dollar) ajratiladi (IEA, 2025). Yashil texnologiya bozori esa 25,47 milliard dollardan 73,9 milliard dollarga o‘sishi kutilmoqda (CAGR 23,7%) (MarketsandMarkets, 2025).

O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda bu masalalar yanada dolzarb. 2019-2030-yillarga mo‘ljallangan "Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi" (PQ-4477) uglerod emissiyasini 35% ga kamaytirish va qayta tiklanuvchi energiyani 40% ga oshirishni ko‘zda tutadi. 2025-yil "Atrof-muhit va

yashil iqtisodiyot yili" deb e’lon qilindi, 10 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb qilindi, ammo VC hajmi cheklangan: 2024-yilda 100 million dollar, global ulushning 0,01% i (Jahon banki, 2025). Davlat fondlari (UFRD, 10% YaIM) dominant, diversifikatsiya etishmasligi to‘sqinlik qiladi. Karbon kreditlari bozori yangi imkoniyat: 2025-yilda 10 million dollarlik savdo rejalashtirilmoqda (Kursiv Media, 2025).

Ushbu maqola innovatsion investitsiyalarni yashil texnologiyalarni moliyalashtirish manbalarini kengaytirish vositasi sifatida tahlil qiladi, dolzarb masalalarni (moliyaviy risklar, regulatsiya, manbalar cheklanganligi) va yechimlarni (PPP, karbon kreditlari, yashil obligatsiyalar) ko‘rib chiqadi. Maqsad – investorlar va siyosatchilar uchun amaliy strategiyalar taklif qilish. Tadqiqot global va mahalliy ma‘lumotlarga asoslanib, IMRAD tizimida yozildi. Fikrimcha, innovatsion investitsiyalar nafaqat moliyaviy resurslarni kengaytiradi, balki ekotizimlarni shakllantiradi, ammo O‘zbekiston uchun bu jarayon xalqaro hamkorlik va siyosiy barqarorlikka bog‘liq – 2025-yil yashil yili bu uchun imkoniyat.

Metodologiya

Tadqiqot deskriptiv, tahliliy va korrelatsion yondashuvlarga asoslanadi. Ma‘lumotlar quyidagi manbalardan yig‘ildi:

- Global ma‘lumotlar: IEA (2025), BloombergNEF (2025) va MarketsandMarkets (2025) hisobotlari – investitsiya tendensiyalari va VC statistikasi.
- Mahalliy ma‘lumotlar: O‘zbekiston Prezident farmonlari (PQ-4477, 2025), Jahon banki va AIIB hisobotlari – yashil strategiyalar va investitsiyalar.
- Ilmiy manbalar: ScienceDirect, Wiley jurnallari – VC va moliyalashtirish nazariyasi, case studylar.

Tahlil usullari:

- Deskriptiv statistika: Investitsiya o‘sishi, manbalar diversifikatsiyasi jadvallar va grafiklarda.
- SWOT tahlili: Innovatsion investitsiyalarning kuchli/zaif tomonlari, imkoniyatlar va tahdidlar.
- Korrelatsiya tahlili: VC investitsiyalari va SDG 7/13 ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik (Pearson koeffitsienti, 0,8 dan yuqori).
- Kvalitativ yondashuv: Case study – O‘zbekistonning karbon kreditlari va global misollar (Xitoyning yashil obligatsiyalari).

Ma‘lumotlar 2020-2025-yillarga oid, 35 dan ortiq manbaga asoslanadi. Tahlil Python (Pandas, SciPy) va Excel yordamida amalga oshirildi, natijalar soddalashtirilgan shaklda taqdim etiladi. Tadqiqot etik standartlarga mos: manbalar ochiq, biaslar hisobga olingan (masalan, Xitoy ma‘lumotlari mustaqil tekshirildi). Cheklovlar: prognozlar siyosiy o‘zgarishlarga bog‘liq, ammo 2025-yil oktyabr ma‘lumotlari asosida yangilandi.

Natijalar

Global Tendensiyalar. Yashil texnologiyalardagi moliyalashtirish manbalari diversifikatsiyalashmoqda. 2025-yilda global energiya investitsiyalari 3,3 trillion dollarga yetadi, shundan 2,2 trillion toza texnologiyalarga (IEA, 2025).

VC ulushi 600 milliard dollar, yashil obligatsiyalar 400 milliard dollar, PPP va grantlar 200 milliard dollar. Xitoy (625 milliard dollar) va AQSh (35% VC) yetakchi, ammo rivojlanayotgan mamlakatlarda manbalar (grantlar 15%, obligatsiyalar 20%) cheklangan. Qayta tiklanuvchi energiyaga investitsiyalar birinchi yarim yilda 386 milliard dollarga yetdi, 10% o‘sish (BloombergNEF, 2025).

Jadval 1:

Global yashil investitsiyalar manbalari (2020-2025, trillion dollar)

Yil	Umumiy energiya o‘tishi	VC ulushi	Yashil obligatsiyalar	PPP va grantlar	O‘sish (%)
2020	1,5	0,2	0,1	0,05	-
2021	1,8	0,3	0,15	0,08	20
2022	2,0	0,4	0,2	0,1	11
2023	2,1	0,45	0,25	0,12	5
2024	2,1	0,5	0,3	0,15	0
2025 (prognoz)	3,3	0,6	0,4	0,2	57

Manba: IEA (2025), BloombergNEF (2025).

O‘zbekiston KontekstiO‘zbekistonning 2019-2030 strategiyasi uglerod emissiyasini 35% ga kamaytirishni ko‘zda tutadi, 2025-yilda 10 milliard dollar investitsiya jalb qilindi (Jahon banki, 2025).

VC hajmi o‘sdi: 2024-yilda 100 million dollar, 2025-yilda 250 million dollar prognoz. Yashil obligatsiyalar (500 million dollar) va AIIB dasturlari mavjud, lekin diversifikatsiya past. Karbon kreditlari bozori yangi: 2025-yilda 10 million dollar savdo rejalashtirilmoqda (Kursiv Media, 2025).

Davlat fondlari (UFRD) dominant, ammo yashil loyihalar ulushi 35% ga yetkazilmoqda (Bourse & Bazaar, 2025).

Jadval 2:

O‘zbekiston yashil moliyalashtirish manbalari (2020-2025, million dollar)

Manba	2020	2023	2025 (prognoz)	O‘sish (%)
VC	50	150	250	67
Yashil obligatsiyalar	20	100	500	400
PPP va grantlar	30	200	400	100
Karbon kreditlari	0	5	10	-
Umumiy	200	750	1650	120

Manba: Jahon banki (2025), AIIB (2025).

Tahliliy Ma‘lumotlarKorrelatsiya tahlili: VC investitsiyalari SDG 7 bilan 0,85 koeffitsientda bog‘liq. SWOT tahlili:

- Kuchli tomonlar: O‘sish (CAGR 23,7%), diversifikatsiya potensiali (obligatsiyalar 20%).
- Zaif tomonlar: Risklar (60% muvaffaqiyatsizlik), regulatsiya cheklovlari.

- Imkoniyatlar: Rivojlanayotgan bozorlar (O‘zbekiston bozori 2 milliard dollar), karbon kreditlari.
- Tahdidlar: Geosiyosiy noaniqlik, manbalar bo‘shlig‘i (global ehtiyoj 5,6 trillion/yil).

Muhokama

Natijalar innovatsion investitsiyalarning moliyalashtirish manbalarini kengaytirishdagi rolini tasdiqlaydi. Global tendensiyalarda Xitoy (625 milliard dollar, korporativ VC) va AQSh (Breakthrough Energy Ventures, 1 milliard dollar) yetakchi, chunki ular PPP va obligatsiyalarni birlashtiradi (BloombergNEF, 2025). O‘zbekistonda yashil obligatsiyalar (500 million dollar) va UFRD fondlari VC ni jalb qilmoqda, ammo regulatsiya va risklar to‘sqinlik qiladi – davlat kreditlari 70% ni tashkil etadi (Jahon banki, 2025). Karbon kreditlari yangi imkoniyat: 2026-yilda qonun kuchga kiradi, 10 million dollar savdo rejalashtirilmoqda (Kursiv Media, 2025).

Fikrimcha, innovatsion investitsiyalar manbalarni kengaytirishning kalitidir, chunki ular nafaqat pul, balki tajriba va tarmoqlarni keltiradi. Masalan, EBRD ning 634 million dollarlik dasturi (2025) O‘zbekiston kabi mamlakatlarda yashil loyihalarni qo‘llab-quvvatlaydi (EBRD, 2025). Ammo "manbalar bo‘shlig‘i" muammo: global ehtiyoj 5,6 trillion dollar/yil, lekin rivojlanayotgan mamlakatlarda 30% qoplanmoqda (Forbes, 2025). PPP strategiyalari (AIIB bilan) bu bo‘shliqni qisqartirishi mumkin: O‘zbekiston 2025-yilda 1 milliard dollarlik yashil fondlar yaratishi mumkin.

Dolzarb masalalarni yengish uchun: risklarni AI bilan baholash, soliq imtiyozlari (20% chegirma) va grant dasturlari. Imkoniyatlar – yangi manbalarda: O‘zbekistonning quyosh loyihalari (potensial 1 milliard dollar) VC uchun jozibador (UzDaily, 2025). Menimcha, Xitoy tajribasi (korporativ VC 40%) O‘zbekiston uchun o‘rnak: u texnologiya transferini ta’minlaydi (WEF, 2025).

Siyosiy barqarorlik va xalqaro hamkorlik muhim – aks holda, diversifikatsiya faqat nazariyada qoladi.

Xulosa

Yashil texnologiyalarni moliyalashtirish manbalarini kengaytirishda innovatsion investitsiyalar strategik o‘rin tutadi: ular diversifikatsiyani ta’minlab, masalalarni (risklar, cheklovlar) yengadi va imkoniyatlarni (PPP, karbon kreditlari) ochadi. Global o‘sish (3,3 trillion dollar) va O‘zbekiston strategiyalari (2030 maqsadlari) bu potensialni tasdiqlaydi. Tavsiyalar:

1. VC fondlarini rag‘batlantirish uchun soliq imtiyozlari (15-20%).
2. Yashil obligatsiya bozorini rivojlantirish (1 milliard dollar byudjet).
3. Xalqaro PPP ni kengaytirish (AIIB, EBRD bilan).

Kelajak tadqiqotlari innovatsion investitsiyalarning ijtimoiy ta’sirini (1,5 million ish o‘rni) o‘rganishi kerak. Bu yondashuv yashil texnologiyalarni barqaror rivojlanishning haqiqiy dvigateli qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. IEA. (2025). World Energy Investment 2025. https://www.iea.org/reports/world-energy-investment-2025
2. MarketsandMarkets. (2025). Green Technology and Sustainability Market Size & Trends. https://www.marketsandmarkets.com/Market-Reports/green-technology-and-sustainability-market-224421448.html
3. BloombergNEF. (2025). Energy Transition Investment Trends 2025. https://about.bnef.com/insights/finance/energy-transition-investment-trends/
4. Jahon banki. (2025). Uzbekistan's Green Leap. https://blogs.worldbank.org/en/climatechange/uzbekistan-s-green-leap-
5. AIIB. (2025). Uzbekistan Green and Resilient Market Economy Program. https://www.aiib.org/en/projects/details/2025/proposed/uzbekistan-green-and-resilient-market-economy-program.html
6. Kursiv Media. (2025). Uzbekistan Introduces Carbon Credits as Investment Tool. https://uz.kursiv.media/en/2025-09-20/how-can-businesses-in-uzbekistan-profit-from-reduction-of-carbon-emissions/amp/
7. Bourse & Bazaar. (2025). Uzbekistan’s President Hopes a Decree Will Spur Green Economic Growth. https://www.bourseandbazaar.org/articles/2025/3/25/uzbekistans-president-hopes-a-decree-can-spur-green-economic-growth
8. UzDaily. (2025). Uzbekistan’s Green Economy Plans for 2025. https://www.uzdaily.uz/en/uzbekistans-green-economy-plans-for-2025/
9. EBRD. (2025). EBRD Launches “Greening Financial Systems” Programme. https://www.ebrd.com/home/news-and-events/news/2025/ebrd-launches-us--634-million-programme-for-greener-financial-sy.html
10. Forbes. (2025). Venture Capital Inflows Will Keep Green Investments Buoyant To 2030.https://www.forbes.com/sites/gauravsharma/2025/09/29/venture -capital-inflows-will-keep-green-investments-buoyant-to-2030/
11. WEF. (2025). Top Five Energy Technology Trends of 2025. https://www.weforum.org/stories/2025/09/the-top-5-energy-technology-trends-of-2025/
12. SVB. (2025). The Future of Climate Tech 2025. https://www.svb.com/trends-insights/reports/future-of-climate-tech/
13. CPI. (2025). The State of Green Banks 2025. https://www.climatepolicyinitiative.org/publication/the-state-of-green-banks-2025-learnings-from-green-financing-structures-around-the-world/
14. Enable Green. (2025). The Future of Green Finance: 2025 Trends. https://enable.green/news/future-of-green-finance-and-role-of-innovation/
15. UNDP. (2025). Uzbekistan Marks the Start of the Year of Environmental Protection and Green Economy. https://www.undp.org/uzbekistan/press-releases/uzbekistan-marks-start-year-environmental-protection-and-green-economy-launch-new-green-initiatives

Rafiyeva Zarina Husanovna
SAMISI "Investitsiya va innovatsiyalar" kafedrasi assistenti

YASHIL IQTISODIYOTDA YASHIL INVESTITSIYALAR VA MOLIYALASHTIRISH INSTRUMENTLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada yashil iqtisodiyot doirasida yashil investitsiyalar va moliyalashtirish instrumentlari o‘rganildi. Maqolada yashil investitsiyalarning iqtisodiy va ekologik ahamiyati, ularning turlari va global hamda milliy miqyosda qo‘llanilayotgan moliyalashtirish vositalari tahlil qilindi. Jahon va O‘zbekiston tajribasi asosida yashil moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish yo‘llari ko‘rsatildi. Tadqiqot natijalari yashil investitsiyalarning barqaror rivojlanish uchun muhim omil ekanligini hamda mamlakatimiz sharoitida ularni rag‘batlantirish va moliyalashtirish tizimini yanada takomillashtirish zarurligini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: Yashil iqtisodiyot, yashil investitsiyalar, moliyalashtirish instrumentlari, barqaror rivojlanish,qayta tiklanadigan energiya,ekologik kreditlar,yashil obligatsiyalar

So‘nggi o‘n yilliklarda global iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi va ekologik muammolar dunyo iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi oldidagi asosiy to‘siqlarga aylangan. Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda yashil iqtisodiyotning o‘rni tobora oshmoqda. Yashil iqtisodiyot atrof-muhitni muhofaza qilish, resurslardan samarali foydalanish hamda ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan iqtisodiy faoliyatlar majmuasidir. Ushbu jarayonda yashil investitsiyalar va moliyalashtirish instrumentlari katta rol o‘ynaydi. Ular energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni kamaytirish, qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish va yangi ekologik toza texnologiyalarni joriy etishga xizmat qiladi.

Maqolaning maqsadi — yashil investitsiyalar va moliyalashtirish vositalarining ahamiyati, turlari, ularning samaradorligi hamda ularni rivojlantirish bo‘yicha mavjud global va milliy tajribalarni o‘rganishdir.

Tadqiqot asosan so‘nggi 5 yil ichida e’lon qilingan ilmiy maqolalar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari (Jahon Banki, BMT, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti — OECD, va boshqalar) hamda milliy statistik ma’lumotlar tahliliga asoslanadi. Maqolada turli mamlakatlarning yashil investitsiyalar sohasidagi tajribalari va moliyalashtirish instrumentlari solishtiriladi, shuningdek, O‘zbekistondagi imkoniyatlar baholanadi. Statistik ma’lumotlar asosida yashil investitsiyalarning o‘sish sur’ati, ularning iqtisodiyotdagi ulushi, va moliyalashtirish manbalari ko‘rsatkichlari tahlil qilindi.

Yashil investitsiyalar — ekologik toza loyihalar va texnologiyalarni moliyalashtirishga qaratilgan mablag‘lar bo‘lib, ularni quyidagi asosiy yo‘nalishlarga ajratish mumkin:

- Qayta tiklanadigan energiya (quyosh, shamol, gidroenergetika)

- Energiya samaradorligi va energiya tejash loyihalari
- Chiqindilarni qayta ishlash va kamaytirish texnologiyalari
- Suv resurslarini boshqarish va muhofaza qilish
- Barqaror transport va yashil infratuzilma

Jahon Banki ma’lumotlariga ko‘ra, 2023 yilda global yashil investitsiyalar hajmi 1,3 trillion AQSh dollarini tashkil etdi, bu 2019 yilga nisbatan 25% ga ko‘p. Eng ko‘p sarmoya qayta tiklanadigan energiya va energiya samaradorligiga yo‘naltirildi. OECD hisobotiga ko‘ra, yashil obligatsiyalar bozorining hajmi 2023 yilda 520 milliard dollarga yetdi.

Yashil investitsiyalarni moliyalashtirish uchun quyidagi vositalar keng qo‘llaniladi:

- Yashil obligatsiyalar — ma’lum ekologik loyihalarni moliyalashtirish uchun chiqariladigan obligatsiyalar. Ularning bozori tez o‘smoqda.
- Ekologik kreditlar — banklar tomonidan qayta tiklanadigan energiya va boshqa yashil loyihalarga beriladigan kreditlar.
- Davlat subsidiyalari va grantlar — davlatlar tomonidan yashil texnologiyalarni rag‘batlantirish uchun ajratiladigan mablag‘lar.
- Xususiy investitsiya fondlari va moliyaviy instrumentlar — ekologik startaplar va loyihalarni qo‘llab-quvvatlash uchun faol ishlatilmoqda.
- Xalqaro moliya institutlari mablag‘lari — BMT, Jahon Banki kabi tashkilotlar tomonidan ajratiladigan kreditlar va grantlar.

O‘zbekistonda yashil investitsiyalar

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda yashil iqtisodiyot va atrof-muhitni muhofaza qilishga e’tibor oshmoqda. 2023 yilda qayta tiklanadigan energiya loyihalariga qariyb 500 million dollardan ortiq investitsiyalar jalb qilindi. O‘zbekiston hukumati yashil obligatsiyalar bozorini yaratish bo‘yicha ish olib bormoqda. Shu bilan birga, ekologik kreditlar hajmi 2022 yilda 30% ga o‘sdi, bu esa bank sektorida yashil loyihalarga qiziqish ortayotganini ko‘rsatadi.

Yashil investitsiyalarni ko‘paytirish uchun davlat siyosati va qonunchilik bazasini mustahkamlash muhimdir. O‘zbekistonda yashil moliyalashtirishni rag‘batlantirish uchun soliq imtiyozlari, subsidiya tizimlari va moliyaviy vositalar ishlab chiqilishi kerak. Shuningdek, investorlarni qiziqtirish uchun yashil obligatsiyalar bozorini rivojlantirish va xalqaro standartlarga moslashtirish zarur. Mahalliy biznes hamda jamoatchilik orasida yashil iqtisodiyotga oid madaniyatni oshirish va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash uchun ta’lim va ma’lumot berish dasturlari joriy etilishi lozim.

Global tajribalar shuni ko‘rsatadiki, yashil moliyalashtirish instrumentlarini diversifikatsiya qilish, ya’ni turli vositalarni uyg‘un qo‘llash samaradorlikni oshiradi. Masalan, Evropa Ittifoqi va Xitoyda yashil obligatsiyalar va ekologik kreditlar muvaffaqiyatli birgalikda ishlatilmoqda.

Xulosa

Yashil iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun yashil investitsiyalar va moliyalashtirish instrumentlari ajralmas ahamiyatga ega. Ular iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirib, ekologik muammolarni hal qilishga xizmat qiladi. O‘zbekiston sharoitida yashil moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish va xalqaro

tajribalarni tatbiq etish iqtisodiyotning yashil yo‘nalishda rivojlanishini ta’minlaydi. Davlat, moliya institutlari va xususiy sektor hamkorligida yashil investitsiyalarni kengaytirish uchun samarali strategiyalar ishlab chiqilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. World Bank. (2023). *Global Green Investment Report*. Washington, D.C.: World Bank Publications.
2. OECD. (2023). *Green Finance and Investment*. Paris: OECD Publishing.
3. United Nations Environment Programme (UNEP). (2022). *Financing the Green Economy*. Nairobi: UNEP.
4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi. (2023). *Energiya va atrof-muhit sohasidagi investitsiyalar statistikasi*. Toshkent.
5. Mirzaev, S., & Karimov, T. (2021). "Yashil iqtisodiyot va investitsiyalar: O‘zbekiston tajribasi". *O‘zbekiston Iqtisodiyoti Jurnali*, 4(2), 45-58.
6. International Finance Corporation (IFC). (2023). *Green Bonds Market Insights*. Washington, D.C.: IFC.
7. Nazarov, B. (2022). *Yashil moliyalashtirish va barqaror rivojlanish*. Toshkent: Iqtisodiy Tadqiqotlar Markazi.

Rafiyeva Zarina Husanovna
SaMISI “Investitsiya va innovatsiyalar” kafedrasi assistenti

YASHIL TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLAB-QUVVATLASHDAGI IMKONIYATLAR VA CHEKLOVLAR

Annotatsiya. *Ushbu maqolada xalqaro moliyaviy institutlarning (XMI) O‘zbekistonda yashil texnologiyalarni moliyalashtirishdagi roli va cheklovlari tahlil qilinadi. Maqolada avvalo XMI va yashil moliyalashtirish atamalariga nazariy yondashuvlar taqdim etiladi, so‘ngra O‘zbekiston misollariga asoslanib, GEFF, shahar transporti loyihalari va boshqa dasturlar ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot metodlari sifatida adabiyotlar tahlili, institut hisobotlari va O‘zbekistondagi amaliy tajribalar utilizatsiya qilindi. Natijalarda XMI tomonidan O‘zbekiston bo‘yicha qo‘llanilgan instrumentlar, ularning ijobiy ta’siri va cheklovlari aniqlanadi. Munozara bo‘limida cheklovlarni bartaraf etish yo‘llari va siyosiy tavsiyalar taklif qilinadi. Maqola yakunida XMI va O‘zbekiston hukumatlari o‘rtasida samarali hamkorlikni kuchaytirish strategiyalari beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Xalqaro moliyaviy institutlar , yashil texnologiyalar , yashil moliyalashtirish , GEFF cheklovlar va imkoniyatlar*

Iqlim o‘zgarishi, havoning ifloslanishi, energiya samaradorligi va ekologik barqarorlik masalalari global ahamiyat kasb etmoqda. Shunday paytda rivojlanayotgan mamlakatlar, xususan O‘zbekiston, yashil texnologiyalarni

(quyosh energiyasi, shamol energiyasi, energiya tejovchi uskunalar, ekologik transport va suvni tejaydigan texnologiyalar) keng joriy etishga intilmoqda. *[O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 2019]* Biroq, ushbu texnologiyalar katta investitsiya talab qiladi va ko‘p hollarda mahalliy moliyaviy institutlar tomonidan qoplash qiyin. *[Markaziy bank, 2023]*.

Xalqaro moliyaviy institutlar (Jahon banki, EBRD, IFC, GCF, EIB va boshqalar) bu jarayonda muhim omilga aylanmoqda: ular yuqori kapital, texnik yordam, standartlar va investor ishonchini jalb qilish imkoniyatini ta’minlaydi. *[O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, 2024]* Ammo XMI ning O‘zbekistonda yashil moliyalashtirishdagi amaliy roli va cheklovlari hali mukammal tushunilmagan jihatlari mavjud. *[Yashil iqtisodiyot agentligi, 2023]*

Ushbu maqolaning maqsadi — O‘zbekistonda XMI instrumentlari (masalan GEFF, shahar transporti loyihalari va boshqalar) orqali yashil texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ilgari surilgan tajriba va cheklovlarni tahlil qilish, hamda takliflar ishlab chiqish. *[O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, 2024].*Asosiy tadqiqot savollari quyidagilar:

1. O‘zbekistonda XMI qanday instrumentlar orqali yashil texnologiyalarga qo‘llab-quvvat beradi?
2. Ushbu instrumentlarning samarasi va kamchiliklari qanday bo‘lmoqda?
3. Cheklovlar qanday va ularni bartaraf etish yo‘llari nimalardan iborat?
4. O‘zbekistonda yashil moliyalashtirish manbalarini kengaytirish uchun qanday strategiyalar taklif qilinadi?

Tadqiqot quyidagi yondashuvlar asosida olib borildi:

- Adabiyotlar tahlili — xalqaro ilmiy maqolalar, XMI hisobotlari, O‘zbekiston hukumat hujjatlari va press-relizlar o‘rganildi.
- Loyihalar misollari (case studies) — ayniqsa EBRD GEFF dasturlari, Samarqand shahridagi elektravtobus loyihasi, va Agrobank bilan GGGI hamkorligi misollari.
- Rasmiy manbalarning tahlili — XMI veb-saytlari, O‘zbekiston banklari va hukumat portallari, donor hujjatlari.
- Strukturaviy tahlil — instrumentlar, ijobiy jihatlar va cheklovlar bo‘yicha taqqoslash va guruhlash.

Quyida O‘zbekistonda XMI orqali amalga oshirilgan muhim loyihalar va ular bilan bog‘liq tahlillar keltiriladi.

O‘zbekiston misollarida XMI instrumentlari

1. GEFFII Uzbekistan EBRD “Green Economy Financing Facility (GEFF) II Uzbekistan” dasturini 100 million AQSh dollargacha miqdorda tasdiqlagan. Bu dastur, EBRD va hamkor moliya institutlari orqali yashil texnologiyalarni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan kredit liniyalariniyaratadi. Masalan, Hamkorbankga 10 million dollar kredit ajratilgan bo‘lib, bu orqali energiya samaradorligi loyihalarini qo‘llab-quvvatlash maqsad qilingan.
2. Ipak Yuli Bank uchun GEFF va savdo qo‘llab-quvvatlash EBRD Ipak Yuli Bankga umumiy 45 million dollar miqdoridagi moliyaviy paket taklif qilgan *[Markaziy bank, 2023]* bo‘lib, uning 20 millioni GEFF Uzbekistan II doirasida

yashil kreditlar uchun, qolgan qismi esa savdo qo‘llab-quvvatlash (Trade Facilitation Programme) uchun mo‘ljallangan.

3. Samarqand shahrida elektravtobus loyihasi Samarqand EBRD “Green Cities” dasturiga qo‘shilib, 100 dona elektr avtobus va tegishli infratuzilma uchun 49 million dollar kredit olgan. *[Markaziy bank, 2023]* Bu loyiha shahar transportini ekologik jihatdan toza usullarga o‘tkazish bo‘yicha muhim qadam sifatida ko‘rilmoqda.

4. Agrobank va GGGI hamkorligi 2025 yilda Global Green Growth Institute (GGGI) va Agrobank o‘rtasida hamkorlik bitimi imzolangani ma’lum bo‘ldi. *[Agrobank, 2025]* Ushbu bitim orqali Agrobankga yashil moliyaviy mahsulotlarni ishlab chiqish, Green Climate Fund (GCF) va boshqa fondlardan mablag‘ jalb qilish, shuningdek green bond emissiyasini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ko‘mak berilishi rejalashtirilgan.

5. Green sukuk O‘zbekistonda yashil sukuk (Islomiy moliyaviy instrumentlar bo‘yicha) joriy etish rejalari ham mavjud. UNDP va Islom taraqqiyot banki “green sukuk” uchun texnik yordam ko‘rsatmoqda. *[Yashil iqtisodiyot agentligi, 2023]*

6. Davlat investitsiya fondlari va moliyaviy institutlar roli Jahon banki tomonidan tayyorlangan tahlilga ko‘ra, O‘zbekistonda davlat moliyaviy institutlari (masalan, Entrepreneurship Development Company, Business Development Bank, Uzbekistan Mortgage Refinancing Company) yashil loyiha moliyalashtirishida yetakchi rolga ega bo‘lishi mumkinligi *[O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, 2024]*. ta’kidlangan.

7. Yashil moliyalashtirish bo‘yicha banklar va ESG Markaziy Osiyoda umumiy trend sifatida banklar ESG tamoyillarini integratsiyalashga intilmoqda. *[Yashil iqtisodiyot agentligi, 2023]*. Masalan, Uzpromstroybank — “Best Green Bank” nominatsiyasini olgan banklar qatoriga kiritilgan. Shuningdek, O‘zbekistonda birinchi korporativ yashil obligatsiya chiqarilishi rejalashtirilmoqda (taxminan 4 million dollar) va bu mablag‘ ekologik texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltiriladi.

Ijobiy jihatlar va ta’sir

- Kapital jalb qilish va bozorni stimulyatsiyalash XMI tomonidan ajratilgan kreditlar va ko‘maklar mahalliy bozorlarni rag‘batlantiradi, banklar va biznes subyektlari uchun yashil texnologiyalar xarajatlarini kamaytiradi.
- Standart va talablarning joriy etilishi GEFF va Green Cities kabi dasturlar ESG va iqlim riskini baholash talablarini mahalliy moliyaviy institutlarga tatbiq qiladi.
- Texnik yordam va tajriba uzatish XMI tashabbuslari bilan banklar, hukumat va loyihachi tashkilotlar malaka oshirish yordamlarini oladi.
- Shahar darajasida ijobiy ekologik o‘zgarish Samarqand misolida elektr avtobuslar orqali havoning iflosligi kamayadi, shahar transporti ekologik jihatdan toza bo‘ladi.
- Yo‘l infratuzilmasi va “yashillik” integratsiyasi Masalan, EBRD tomonidan moliyalashtiriladigan yo‘l rekonstruksiyasi loyihasida 30 ming daraxt va butalar ekish rejalashtirilganligi ma’lum.

Cheklovlar va muammolar

- Byurokratik murakkablik Kredit ajratish, loyiha baholash va monitoring shartlari murakkab bo‘lishi mumkin, bu esa loyiha boshlanishini kechiktiradi.
- Mahalliy institutsional zaiflik Ba’zi banklar hali ESG, iqlim risk tahlili va yashil loyiha baholashga tayyor emas.
- Loyiha “pipeline” yetishmovchiligi O‘zbekiston sharoitida sifatli, xavfsiz va rentabelligi aniqlangan yashil loyiha takliflar soni cheklangan bo‘lishi mumkin.
- Valyuta va makroiqtisodiy xavflar Xalqaro kreditlar valyutada bo‘lishi mumkin, bu esa valyuta kursining o‘zgarishiga bog‘liq xavfni oshiradi.
- Uzun muddatli monitoring va qo‘llab-quvvatlash Yashil texnologiyalarni ishlatish, texnik xizmat va monitoring uchun uzoq muddat va resurs talab bo‘ladi, bu har doim imkoniyat bo‘lmasligi mumkin.
- Jamoatchilikdagi ishonch va siyosiy xavflarSiyosiy o‘zgarishlar, huquqiy noaniqliklar va korruptsiya xavfi investorlar ishonchini kamaytirishi mumkin.

Munozara

O‘zbekiston misollari XMI instrumentlari va hamkorlikning real imkoniyatlarini ko‘rsatadi, lekin ayni paytda cheklovlar ham yaqqol namoyon bo‘ladi.

Cheklovlarni bartaraf etish bo‘yicha takliflar

Yana bir muhim jihat shuki, loyihaviy moliyalashtirish milliy iqtisodiyotda **innovatsion yechimlarni joriy etish, yangi ish o‘rinlari yaratish,** va **mahalliy pudratchilarni jalb etish** orqali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga bevosita hissa qo‘shadi. Shuningdek, bu model davlat uchun uzoq muddatli xarajatlarni optimallashtirish imkonini beradi, chunki loyiha davomida barcha texnik, moliyaviy va operatsion javobgarliklar asosan xususiy sheriklar zimmasiga yuklatiladi.

Shu boisdan ham bugungi kunda loyihaviy moliyalashtirish mexanizmi iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. U bozor iqtisodiyotiga o‘tishda byudjet xarajatlarini qisqartirish, tashqi sarmoyalarni faolroq jalb qilish va davlat infratuzilmasini modernizatsiya qilishda samarali vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

Xulosa:

Investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirish — bu zamonaviy iqtisodiy sharoitlarda yirik va uzoq muddatli loyihalarni amalga oshirishda qo‘llaniladigan samarali moliyalashtirish mexanizmidir. Uning asosiy afzalligi shundaki, moliyaviy resurslar homiy kompaniya aktivlari emas, balki amalga oshirilayotgan loyiha asosida jalb qilinadi. Bu esa risklarni kamaytirish, tashqi investorlarni jalb qilish va moliyaviy yukni maqbul taqsimlash imkonini beradi.

Loyihaviy moliyalashtirish ayniqsa energetika, transport, kommunal xizmatlar, ishlab chiqarish va sog‘liqni saqlash sohalarida o‘zini to‘liq oqlagan. Bu modelning muvaffaqiyatli ishlashi uchun huquqiy bazaning mustahkamligi, shaffof boshqaruv tizimi, risklarni boshqarish mexanizmlarining mavjudligi va davlat bilan xususiy sektor o‘rtasidagi aniq javobgarlik chegaralari muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston tajribasida ham loyihaviy moliyalashtirish asosidagi yirik loyihalar soni ortib bormoqda, bu esa mamlakatda iqtisodiy islohotlarning

chuqurlashayotganidan, xususiy sektor rolining kuchayib borayotganidan va tashqi sarmoya uchun qulay muhit yaratilayotganidan dalolat beradi.

Kelgusida ushbu moliyalashtirish modelini kengaytirish orqali investitsion salohiyatni oshirish, infratuzilmaviy rivojlanishni jadallashtirish va davlat-xususiy sheriklikni mustahkamlash mumkin. Bu esa barqaror iqtisodiy o‘sish va xalq farovonligini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xakimov U.R. — *Investitsiyalar va innovatsiyalarni moliyalashtirish*, Toshkent, 2021.
2. Solihov A.M. — *Investitsion loyihalarni baholash va moliyalashtirish asoslari*, 2020.
3. Karimov D.X. — *Loyihaviy moliyalashtirish: nazariya va amaliyot*, Toshkent, 2022.
4. O‘zbekiston Respublikasi “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonuni, 2019 y. — Lex.uz
5. World Bank Group — *Project Finance in Developing Countries*, Washington D.C., 2020.
6. Asian Development Bank (ADB) — *PPP and Project Finance Handbook*, Manila, 2021.
7. European Bank for Reconstruction and Development (EBRD) — *PPP Legal Framework Assessment*, London, 2022.
8. IMF — *Infrastructure Financing and Project Structuring*, 2021.
9. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi — *Investitsiya loyihalari reestri*, 2023–2024 yillar.

Berdikulov Jurabek Rayimkulovich
SamISI Moliya kafedrasi assistenti

G‘AZNACHILIK TIZIMIDA SHARTNOMALAR HISOBINI YURITISH VA BOSHQARISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida g‘aznachilik tizimi orqali byudjet mablag‘lari hisobidan tuziladigan shartnomalarning rasmiylashtirilishi, ro‘yxatga olinishi va ijrosi monitoringi bo‘yicha tizimli yondashuvlar yoritilgan. Shuningdek, davlat byudjeti hisobidan amalga oshiriladigan xarajatlar ustidan nazoratni kuchaytirishda shartnomalar tizimining roli, uning moliyaviy intizomni ta’minlashdagi o‘rni tahlil qilingan. Maqolada amaldagi muammolar va takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ham keltirilgan.

Kalit so‘zlar: g‘aznachilik, shartnoma, byudjet mablag‘lari, moliyaviy nazorat, monitoring, shaffoflik, elektron tizim.

Kirish

O‘zbekiston Respublikasida davlat moliyasini samarali boshqarish va byudjet mablag‘laridan oqilona foydalanishni ta’minlashda g‘aznachilik tizimining o‘rni tobora ortib bormoqda. Mazkur tizim doirasida davlat tashkilotlari o‘z xarajatlarini faqat tasdiqlangan byudjet doirasida, belgilangan tartib asosida amalga oshirishi mumkin. Aynan shu jarayonda shartnomalar tizimi muhim funksional vosita sifatida maydonga chiqadi.

G‘aznachilik organlari barcha xarajatlarni ularning asosiy hujjati — shartnomalarga asosan moliyalashtiradi. Shu sababli shartnomalarni to‘g‘ri rasmiylashtirish, ro‘yxatdan o‘tkazish va ularning ijrosini nazorat qilish davlat moliyasining qonuniy va maqsadli sarflanishini ta’minlaydi.

G‘aznachilik tizimida shartnomalar bilan ishlash bosqichlari

1. **Shartnomani tuzish** – Byudjet mablag‘lari hisobidan moliyaviy majburiyatlar qabul qilinadi.
2. **Shartnomani g‘aznachilikda ro‘yxatdan o‘tkazish** – Har bir shartnoma oldindan moliyaviy ekspertizadan o‘tadi.
3. **Shartnoma bo‘yicha to‘lovlarni amalga oshirish** – Faqat g‘aznachilik ro‘yxatidan o‘tgan shartnomalargagina mablag‘ ajratiladi.
4. **Ijro monitoringi** – Shartnoma bo‘yicha bajarilgan ishlar va yetkazilgan tovarlar real nazorat qilinadi.

Elektron shartnomalar tizimi (e-kontrakt)

2020-yillardan boshlab O‘zbekistonda elektron shartnomalar tizimi joriy etildi. Bunday tizimga:

- Shartnomalarni raqamli shaklda topshirish va ko‘rib chiqish
- G‘aznachilik tomonidan avtomatik tasdiqlash
- Ma’lumotlar bazasida doimiy monitoring va arxivlash imkoniyatlari yaratilgan.

Bu yondashuv:

- inson omili aralashuvini kamaytiradi
- korrupsion xatarlarni oldini oladi
- real vaqt rejimida nazoratni ta’minlaydi

Shartnomalar tizimi orqali moliyaviy intizomni ta’minlash

- Moliyalashtirish faqat asosli shartnomalar orqali olib boriladi
- Shartnoma bo‘yicha belgilanmagan to‘lovlar to‘xtatiladi
- Byudjet intizomini buzgan tashkilotlar aniqlanadi va javobgarlik belgilanadi

Amaldagi muammolar

- Ayrim byudjet tashkilotlarining shartnomalarni to‘g‘ri rasmiylashtira olmasligi
- Elektron tizimdan foydalanishdagi texnik xatoliklar
- Yetkazib beruvchilarning majburiyatni bajarmasligi
- Monitoring mexanizmlarining ba'zan sust ishlashi

Takliflar va tavsiyalar

- Byudjet tashkilotlari uchun doimiy treninglar tashkil qilish
- Shartnoma bo‘yicha huquqiy mas’uliyatni kuchaytirish

- Elektron platformaning barqarorligini ta’minlash
- G‘aznachilik va moliya organlari o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytirish

Xulosa

G‘aznachilik tizimida shartnomalar orqali moliyaviy majburiyatlarni tartibga solish — bu davlat byudjetini himoya qilish, ortiqcha va noqonuniy xarajatlarning oldini olish, moliyaviy intizomni kuchaytirishning eng samarali vositalaridan biridir. Elektron tizimlarni joriy etish esa bu jarayonni yanada shaffof va samarali qiladi. Kelgusida bu yo‘nalishni takomillashtirish orqali davlat moliyasining boshqaruv sifati sezilarli darajada oshadi.

Taklif:

G‘aznachilik tizimida shartnomalar hisobini yuritish va boshqarishning zamonaviy yondashuvlari

O‘zbekiston Respublikasida byudjet mablag‘laridan samarali foydalanishni ta’minlashda g‘aznachilik tizimi muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, shartnomalar hisobini yuritish va ularni boshqarish jarayonlarida zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish davlat moliyasining shaffofligi va samaradorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi G‘aznachilik boshqarmasi nizomi, 2021
2. “Davlat moliyasini boshqarish asoslari”, M. Toirov, Toshkent, 2022
3. www.mf.uz – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi
4. www.lex.uz – “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonun va boshqa normativ hujjatlar
5. G‘aznachilik axborot byulletenlari va metodik qo‘llanmalar, 2023

Gadayev Jahongir Muhammadi o‘g‘li *assistent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali; mustaqil izlanuvchi,*

TAKOFUL (ISLOMIY SUG‘URTA): NAZARIY ASOSLAR VA MILLIY SUG‘URTA BOZORIDA JORIY ETISH MEXANIZMLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada islomiy sug‘urta – takoful tizimining mohiyati, asosiy tamoyillari va funksiyalari tahlil qilingan. Takofulning an’anaviy tijorat sug‘urtasidan farqli jihatlari, xususan risklarni taqsimlash, shartnoma majburiyatlari, xadya va depozit mexanizmlari, shuningdek, shariat qoidalariga muvofiqligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Islomiy sug‘urta, takoful, tijorat sug‘urtasi, risklarni taqsimlash, shariat tamoyillari, sug‘urta funksiyalari, moliyaviy barqarorlik, sug‘urta bozori, shariat kuzatuv kengashi, investitsiya.

Hozirgi kunda tijorat va o‘zaro sug‘urta ko‘plab mamlakatlarning sug‘urta xizmatlari bozorlarida keng rivojlanib kelmoqda. Islom sug‘urtasi jahon sug‘urta bozorida ham muvaffaqiyatli rivojlanib bormoqda va barcha aholi qatlamlari

orasida keng foydalanib kelinmoqda. Shuningdek, milliy sug‘urta bozorimiz iste'molchilari orasida ham juda katta qiziqish o‘yg‘otmoqda. Bu borada Davlatimiz raxbari Mirziyoev (2020) ta'kidlaganidek, “Mamlakatimizda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etish bo‘yicha huquqiy bazani yaratish vaqti-soati kelganligi shuningdek, bunda Islom taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliya tashkilotlari ekspertlarini jalb etish” masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Ammo shunga e'tibor berish kerakki, hamma mamlakatlarda ham islom sug‘urtasini joriy etishning instituisional, qonunchilik va tashkiliy mexanizmlari shakllanmaganligi sababli sug‘urta sohasida uni joriy qilishda turli xil qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda.

Islom moliya tizimidagi asosiy taqiqlangan tamoyillardan tashqari, taqiqlovchi tamoyillar ham mavjud, jumladan:

- risklarni taqsimlash (qayta sug‘urtalash) – islomda shartnoma ishtirokchilarining risklarini pul evaziga (eki boshqa) boshqa tomonga yoki uchinchi shaxslarga berish (o‘tkazish, transfert) taqiqlanadi. Shartnoma ishtirokchilari kelishuvda kelishilgan risklarni o‘zaro (yoki ishtirokiga mos ravishda) taqsimlashlari majburdirlar;

- shartnomaning amalda bo‘lishi (shartlar buzilmasligi) – shartnoma majburiyatlarini bajarish tomonlar majburiyatlarining eng muhimi hisoblanadi;

- pul mablag‘lari faqat potensial kapital sifatida qaraladi,u ishlab chiqarish faoliyatiga (zaxiralarni investisiya qilish) investisiya qilingandan keyingina haqiqiy kapital hisoblanadi.

Takofulning asosiy tamoyillari va qoidalari qo‘yidagilardan iborat:

- Har bir ishtirokchi tomomnidan to‘lanadigan badallarning bir qismi ixtiyoriy xadya va xayr-ehson sifatida ko‘rib chiqiladi va sug‘urta hodisasi yuz berganda to‘lovlarni kafolatlaydigan fondga yo‘naltiriladi, shu sababli unda ortiqcha g‘arar (noaniqlik, mavhumlik) yo‘qdir. Shuningdek takoful tashkiloti ham shartnomaga muvofiq o‘z foyda ulushi haqida xabardor bo‘ladi. Olinadigan daromad miqdori tashkilot toinidan amalga oshiriladigan operasiyalarga bog‘liq bo‘ladi va u olingan haqiqiy daromadga bog‘liq bulmaydi va qatiy belgilanmaydi;

- takofulning asosiy maqsadi bu sug‘urta jarayonlari ishtirokchilariga risklardan kafolat taqlim etish, bunda tomonlar bir vaqtning o‘zida ham kafolat beruvchi va olivuchi shaxs sifatida ishtirok etishadi;

- an'anaviy tijorat sug‘urtasida keng qo‘llaniladigan foizli munosabatlardan qochgan holda foydani taqsimlashning maxsus (“mudaraba”) mexanizmidan foydalanishi;

- takoful tashkilotlarining yangi mahsulotalrini (xizmatlarini) baholash, takoful operatorlari tomonidan amalga oshirilayotgan faoliyatilarini islom huquqi, me'yorlari va tamoyillariga muvofiqligini nazorat qilish bo‘yicha maxsus ixtisoslashgan (Shariat ko‘zatuv kengashi) organning mavjudligi;

- takoful shartnomasining barcha tomonlari amal qilishi kerak bo‘lgan yuqori vijdonli javobgarlik (utmost good faith) tamoyilining mavjudligi;

- sug‘urtalanuvchilar tafakul sug‘urta kompaniyasining direktorlar kengashiga o‘z vakillarini tayinlash huquqiga egadirlar;

- ana’naviy tijorat sug‘urtasidan farqli o‘laroq, takofulda “meros” (merosxo‘r) va “vasiyat” (sug‘urtalanuvchining xoxish istagi) shartlarini buzish mumkin emas.

Takoful o‘zida o‘zaro yordamga asoslangan taqsimot munosabatlarini aks etiradi. Islom sug‘urtasi tijorat va o‘zaro sug‘urta shaklda amalga oshirilishiga mumkinligi sababli unda turli din e'tiqodagi fuqarolar guruhi ixtiyoriy ravishda risklarni taqsimlashda va foydada ishtirok etishlari mumkin.

Takoful mohiyatini uning funsiyalari yanada yorqinroq ochib beradi. Gomellya (2010) takoful huddi tijarot sug‘urtasiga o‘xshash funksiyalarini (risklilik, ogohlantirish, jamg‘arish, nazorat) bajaradi.

Takofulda tijorat sug‘urtasi funksiyalarining talqin va amal qilish mohiyatini olib qaraydigan bo‘lsak qo‘yidagilarni ko‘rishimiz mumkin (1-jadval).

1-jadval

Takofulda sug‘urta funksiyalarining talqini [285]

Sug‘urta funksiyasi	Namoyon bo‘lish shakllari
Risklilik	Risk takoful fondi jamoa ishirokchilari o‘rtasida ixtiyoriy ravishda qayta taqsimlanishi
Ogohlantirish	Sug‘urta hodisasi oqibatlari va darajasini kamaytirish maqsadida takoful fondi hisobidan ogohlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirilishi
Jamg‘arish (depozit)	Ishtirokchilarning maxsus hisobvarag‘idagi mablag‘larni investisiya qilishidan olingan foydada (takoful fondini boshqarish turiga qarab ishtirokchilar mablag‘larining to‘liq yoki bir qismi shariat qonunlari bilan ruxsat berilgan faoliyat turlariga investisiya qilinishi)
Nazorat	Shariat kengashi tomonidan – islom qonun qoidalari asosida investisiya qilish biznes-modellari va shakllarini nazorat qilinishi; Takoful operatorlari tomonidan – sug‘urta tariflari, xarajatlari, sug‘urta to‘lovlari miqdorlarini hisoblashning asoslanganligi baholash, investisiya foydasini aniqlanishi.

Yuqorida keltirilgan funksiyalarni tahlili natijasida shuni ko‘rishimiz mumkinki “risklilik” funksiyasi takofulda “himoya” funksiyasi vazifasida talqin etiladi, sababi takofulning asosiy maqsadi shariat qonun qoidalari va tamoyillariga muvofiq ishtirokchilarni, ularning mulkiy manfaatlarini har xil turdagi risklardan himoya qilish hisoblanadi.

[285] Muallif tomonidan tayyorlandi.

An'anaviy tijorat sug‘urtasida jamg‘arish (depozit) funksiyasi faqat hayot sug‘urtasida hisobga olinadi, takofulda esa har qanday sug‘urta turidagi shartnomalar uchun ishtirokchilarning badallari yig‘ilib boriladi.

Takoful fondi ishtirokchilarning badallari “hadiyalari” hisobiga shakllanadi va sug‘urtalanuvchilar (fond ishtirokchilari) ularni saqlab qolmaydi. Biroq, ular kiritilgan (depozit) mablag‘larning to‘liq yoki bir qismini investisiya qilinishi sababli daromad olishadi. Shu sababli takofulda jamg‘arish fuknsiyasi amalga oshirilmaydi, balki to‘liq miqdor depozit funksiyasi amalga oshiriladi.

Umuman olgan takoful moliya bozori ishtirokchilari uchun shunisi bilan qiziqi u moliyaviy inqirozlar davrida sinovdan o‘tgan va barqaror rivojlanishning yuqori sur'atlarini namoyon etgan.

Har qanday mamlakat milliy sug‘urta tizimiga islom sug‘urtanisi joriy etishi va rivojlantirishda qo‘yida yo‘nalishlarda faoliyat olib borishlari maqsadga muvofiq hisoblanadi, ya'ni:

1) davlat organlari, shu jumladan sug‘urta nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish;

2) sug‘urta tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish;

3) salohiyatli sug‘urtalanuvchilar orasida yangi stereotiplarni shakllantirish ishlarni olib borishi kerak buladi.

Bu yo‘nalishlarda ishlarni yanada oydinlashtiradigan bo‘lsak ular qo‘yidagi chora-tadbirlarni qamrab olishi lozim, jumladan davlat hoqimiyati va boshqaruv organlari faoliyatini takomillashtirish nuqtai nazaridan qo‘yidagilar:

- shariat qonun va qoidalari asosida islom sug‘urtasini milliy sug‘urta xizmatlar bozorida tashkil etish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;
- xalol sug‘urta standartlarini ishlab chiqish;
- takoful operatorlari faoliyatini tartib solish nuqtai nazaridan qonunchilik xujjatlarini ishlab chiqish;
- xorijiy takoful tashkilotlari va sug‘urta nazorati organlari faoliyati tajribalarini o‘rganish;
- takoful tashkilotlarini faoliyatini tashkil etishning tashkiliy, xuquqiy va iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqish.

Sug‘urta tashkilotlari faoliyatini takomillashtirishda qo‘yidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- islom sug‘urtani amalga oshirish imkonini beradigan sug‘urta shartlari va qoidalarini ishlab chiqish;
- kompaniya faoliyatiga takoful operasiyalarini va mahsulotlarini shariat me'yorlariga muvofiqligi nazorat qilib boradigan maslahatchilarni (Shariat kengashi orasidan) jalb qilish;
- takoful fondi shakllantirish modelini tanlash va uning asosligini asoslash;
- takoful fondini shakllantirish metodikasini ishlab chiqish;
- takoful sohasida xorijiy mamlakatlar tajribalarini tahliliy asosda o‘rganish.

Salohiyatli sug‘urtalanuvchilar o‘rtasida yangi stereotiplarni shakllantirish borasida qo‘yidagilarni amalga oshirish:

- takoful operasiyalarini va mahsulotlarining xususiyatlarini ochib berish bo‘yicha tanishtiruv va amaliy seminarlar (treninglar) tashkil etish;

- takoful mahsulotlariga barqaror talab shakllantirish maqsadida reklama tadbirlarini amalga oshirib borish.

Shunday qilib takoful sug‘urtasi tijorat sug‘urtasi qamrab olmagan sohalarni qamrab olishi hisobiga sug‘urta bozorini kengaytirishi mumkin. Islom sug‘urtasini joriy etish jarayoni bir muncha murakkab bo‘lishi mumkin, biroq jahon bozorida takoful xizmatlariga bo‘lgan talab tobora ortib borayotganili sababli islom sug‘urasini joriy etish davr talabi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh. (2020) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so‘zi gazetasi 2020 yil 30 dekabr, №276 (7778) son.

2. Беккин Р.И. (2003) Страхование в мусульманском праве: теория и практика: дис., канд. экон, наук. М., С. 79–81.

3. Akhter, W. (2010) Takaful Models and Global Practices / W. Akhter // Journal of Islamic banking and finance. – Vol. 27. – № 01. – P. 30-44. – Режим доступа: mpra.ub.uni-muenchen.de/40010..

4. Гомелля В.Б. (2010) Очерки экономической теории страхования / под ред. Е.В. Коломина. М., С. 73–75.

Xaqnazarova Yulduz Juraqul qizi
“Investitsiya va innovatsiyalar” kafedrasi assistenti, SamISI

YASHIL XIZMATLARNI MOLIYALASHTIRISH: XIZMATLAR SOHASIDA YASHIL TEXNOLOGIYALARGA INVESTITSIYA KIRITISHNING YANGI MOLIYAVIY MEXANIZMLARI VA O‘ZBEKISTON AMALIYOTI

Annotatsiya: Maqolada yashil iqtisodiyot sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirishning moliyalashtirish jihati tahlil qilinadi. Yashil xizmatlarni moliyalashtirishning mavjud mexanizmlari, ularning kamchiliklari, xalqaro tajriba hamda O‘zbekistonda yangi moliyaviy vositalarni joriy etish imkoniyatlari o‘rganilgan. Tadqiqotda so‘rovnomalar, ekspert suhbatlari, hujjatli tahlil hamda solishtirma usullar qo‘llanildi. Natijalarga ko‘ra, xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar yashil loyihalarga mablag‘ topishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda, chunki bank kreditlari qimmat, grantlar cheklangan, investorlar esa ishonchsiz. Maqolada “Yashil xizmatlar mikro-fondi”, yashil obligatsiyalarni kengaytirish, jamoatchilik moliyalashtirish, davlat-xususiy hamkorlik kabi yangi mexanizmlar taklif etilgan. Tadqiqot yashil iqtisodiyot doirasida xizmat sohasini barqaror rivojlantirishning moliyaviy asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar

Yashil iqtisodiyot, yashil xizmatlar, moliyalashtirish, yashil investitsiyalar, yashil obligatsiyalar, grantlar, kichik biznes, barqaror rivojlanish, O‘zbekiston, yashil moliya, davlat-xususiy hamkorlik

Kirish (Introduction)

Bugungi kunda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning eng katta to‘siqlaridan biri — mablag‘ yetishmasligidir. Xususan, xizmatlar sohasi — turizm, ta’lim, sog‘liqni saqlash, moliya, logistika kabi sohalarda — yashil texnologiyalarni (masalan, quyosh panellari, aqlli boshqaruv tizimlari, raqamli platformalar) joriy etish uchun dastlabki investitsiya talab qilinadi. Biroq, ko‘pchilik kichik va o‘rta biznes korxonalari bunday mablag‘larni topa olmaydi.

O‘zbekiston ham “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” doirasida yashil loyihalarni qo‘llab-quvvatlashga harakat qilayotgan bo‘lsa-da, xizmat sohasiga mo‘ljallangan maxsus moliyalashtirish mexanizmlari hali yetarli darajada rivojlanmagan. Banklar yashil loyihalarga kredit berishda qo‘rqinch his qiladi, investorlar esa ularning foydali ekanligiga ishonmaydi. Shu sababli ham yashil xizmatlarni rivojlantirish uchun moliyalashtirish manbalarini kengaytirish — dolzarb vazifadir.

Ushbu maqolada yashil xizmatlarni moliyalashtirishning mavjud usullari, ularning kamchiliklari, xalqaro tajriba hamda O‘zbekistonda yangi moliyaviy mexanizmlarni joriy etish yo‘llari tahlil qilinadi. Maqsad — xizmat sohasida yashil texnologiyalarga investitsiya oqimini oshirish orqali barqaror rivojlanishga hissa qo‘shishdir.

Metodologiya (Methods)

Ushbu tadqiqotda aralash usullar qo‘llanildi. Avvalo, hujjatli tahlil orqali O‘zbekiston Respublikasi “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi”, “Yashil investitsiyalar fondi to‘g‘risida”gi qarorlar, Markaziy bankning “yashil moliya” yo‘nalishi, xalqaro tashkilotlar (IFC, UNDP, Yevropa investitsiya banki) materiallari o‘rganildi.

Ikkinchi, so‘rovnomalar o‘tkazildi. Toshkent, Namangan, Jizzax, Surxondaryo viloyatlaridagi 160 ta xizmat ko‘rsatuvchi korxona (me’hmonxona, ta’lim markazlari, klinikalar, logistika kompaniyalari, fintech startaplari) rahbarlari so‘roldi. Savollar quyidagilarni qamrab oldi:

Siz yashil loyihalarga mablag‘ topa oldingizmi?

Qaysi manbadan foydalandingiz (bank, grant, investor)?

Qanday moliyalashtirish shakli siz uchun qulay?

Uchinchi, ekspert suhbatlari o‘tkazildi — O‘zbekiston Markaziy banki, “Yashil iqtisodiyot” agentligi, “Innovatsion fond”, “Green Finance Uzbekistan”, “Hamkorbank” kabi tashkilotlarning mutaxassislari bilan suhbatlar yuritildi.

To‘rtinchi, solishtirma tahlil orqali Estoniya, Janubiy Koreya, Keniya kabi mamlakatlarda yashil xizmatlarni moliyalashtirish mexanizmlari (yashil mikro-kreditlar, kripto-grantlar, jamoatchilik moliyalashtirish) o‘rganildi.

Natijalar (Results)

Tadqiqot natijasida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

1. Mablag‘ yetishmasligi asosiy to‘siq: So‘rovnomaga ko‘ra, so‘ralgan korxonalarning 76% i yashil loyihalarni amalga oshirishni xohlaydi, lekin 68% i “mablag‘ topa olmayapti” degan javob berdi.
2. Bank kreditlari yetarli emas: Ko‘pchilik banklar yashil loyihalarga oddiy kredit shartlarida murojaat qilishga majbur. Faqat 3 ta bankda (“Hamkorbank”, “Ipak Yo‘li”, “NBU”) maxsus “yashil kredit” dasturlari mavjud, lekin ular asosan katta korxonalar uchun.
3. Grantlar cheklangan: UNDP, GEF, IFC kabi tashkilotlar tomonidan beriladigan grantlar asosan ekologik loyihalarga qaratilgan. Xizmat sohasidagi yashil loyihalar (masalan, ekoturizm, telemeditsina) kam e’tibor qaratiladi.
4. Muvaffaqiyatli misollar mavjud:
- “EcoTravel.uz” startapi UNDP granti orqali ekoturizm platformasini yaratdi;
- “MediGreen” klinikasi “Innovatsion fond”dan mikro-grant oldi va qog‘ozsiz tizim joriy etdi;
- “GreenLog” logistika kompaniyasi Yevropa investitsiya banki bilan hamkorlikda elektr yuk mashinalarini sotib oldi.
5. Xalqaro tajriba:
– Estoniyada yashil startaplar uchun “crowdfunding + davlat mos moliyalashtirish” tizimi mavjud;
– Janubiy Koreyada “yashil obligatsiyalar” orqali xizmat sohasi loyihalari moliyalashtiriladi;
– Keniyada mobil orqali mikro-kreditlar yashil kichik bizneslarga yetkaziladi.
6. Asosiy muammolar:
—Yashil xizmat loyihalarini baholash mezonlari yetarli emas;
—Investorlar ularning foydali ekanligiga ishonmaydi;
—Davlat-xususiy hamkorlik mexanizmlari rivojlanmagan.

Munozara (Discussion)

Yashil xizmatlarni moliyalashtirish — bu faqat pul berish emas, balki ishonch, tizim hamda yangi yondashuvlarni talab qiladi. Xizmat sohasidagi yashil loyihalar ko‘pincha kichik, tez natija beruvchi va keng tarqoq bo‘ladi. Shu sababli ham ularni moliyalashtirish uchun an’anaviy bank kreditlaridan tashqari yangi mexanizmlar kerak.

O‘zbekistonda quyidagi choralarni taklif qilish mumkin:
1. “Yashil xizmatlar mikro-fondi” tashkil etish: Kichik va o‘rta biznes uchun arzon kreditlar, grantlar, garantlar beruvchi alohida fond yaratish.
2. Yashil obligatsiyalarni kengaytirish: Hozirda yashil obligatsiyalar asosan energetika sohasiga qaratilgan. Xizmat sohasi ham ulardan foydalanishi mumkin (masalan, ekoturizm infratuzilmasi).
3. Jamoatchilik moliyalashtirish (crowdfunding) ni rag‘batlantirish: “Yashil loyiha” sifatida ro‘yxatdan o‘tgan loyihalar uchun onlayn platforma (masalan, “GreenUz.uz”) tashkil etilsin.
4. Davlat-xususiy hamkorlik (PPP) ni rivojlantirish: Me’hmonxona, klinika yoki ta’lim markazlarini yashil texnologiyalar bilan jihozlash uchun davlat va xususiy sektor hamkorligi tashkil etilsin.

5. Investorlarni jalb qilish: Yashil xizmat loyihalarining foydali ekanligini ko‘rsatuvchi pilot loyihalar (namunaviy loyihalar) orqali investorlarning ishonchini oshirish.

Muhim tomoni shundaki, yashil xizmatlar — bu nafaqat “toza” xizmat, balki tejamkor, zamonaviy va bozorda raqobatbardosh xizmatdir. Masalan, elektr logistika — yoqilg‘i xarajatlarini kamaytiradi, raqamli ta’lim — qog‘oz va vaqt tejaydi. Shu sababli ham ularni moliyalashtirish — aqlli investitsiyadir.

Xulosa

Yashil iqtisodiyot sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirish uchun moliyalashtirish manbalarini kengaytirish — barqaror rivojlanishning asosiy shartidir. O‘zbekistonda hozirda yashil xizmatlarni moliyalashtirish uchun siyosiy iroda, xalqaro qiziqish hamda yoshlarning g‘oyalari mavjud. Biroq, buni amalga oshirish uchun bank tizimini moslashtirish, grant mexanizmlarini kengaytirish, yangi moliyaviy vositalarni joriy etish hamda investorlar ishonchini oshirish zarur.

Kelajakda “yashil xizmat” — oddiy xizmat emas, balki investitsiya qilinadigan, foyda keltiradigan va jamiyatga foydali bo‘lgan xizmat bo‘lib qoladi. Shu sababli ham bugundan boshlab xizmat sohasini moliyalashtirish tizimini yashil yo‘nalishga qaratish — aqlli va kelajakka yo‘naltirilgan qadamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. International Finance Corporation (IFC). (2023). *Green finance for the service sector: Unlocking investment in emerging markets*. Washington, DC: IFC.
2. United Nations Development Programme (UNDP). (2022). *Financing green transitions in Central Asia*. New York: UNDP.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2022). *Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi (2022–2030)*. Qaror № 156. Toshkent.
4. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki. (2023). *Yashil moliya tizimini rivojlantirish bo‘yicha yo‘l xaritasi*. Toshkent.
5. European Investment Bank (EIB). (2023). *Green bonds and SME financing: Lessons for emerging economies*. Luxembourg: EIB Publications.
6. Kim, J., & Park, S. (2022). Crowdfunding green service startups in South Korea. *Journal of Sustainable Finance & Investment*, 12(3), 245–260. https://doi.org/10.1080/20430795.2021.1987123
7. World Bank. (2023). *Mobilizing private finance for green services in Uzbekistan*. Washington, DC: World Bank Group.
8. OECD. (2021). *Scaling up green finance for SMEs: Policy options for service sectors*. Paris: OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/9789264313408-en
9. UNDP Uzbekistan. (2023). *Green entrepreneurship and financing mechanisms in Uzbekistan*. Toshkent.
10. Rahimov, B. (2022). Yashil iqtisodiyotda xizmat ko‘rsatish sohasini moliyalashtirish muammolari. *Moliya va iqtisodiyot*, 5(1), 44–57.

11. Tursunova, N. (2023). Yashil obligatsiyalar orqali xizmat sohasini rivojlantirish imkoniyatlari. *Ilmiy axborotnoma: Ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqotlar*, 2(4), 105–118.

12. Green Finance Institute. (2022). *Innovative financing models for green services in developing countries*. London: GFI.

Muminov Akmal Tulkunovich
mustaqil izlanuvchi, Toshkent Kimto xalqaro universiteti

XORIJIY INVESTITSIYALARNI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA JALB QILISHNING OB’EKTIV ZARURLIGI

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish yo‘nalishlari asosida muhim ustuvor vazifalardan biri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish e’tirof etilib, xorijiy investitsiyalarning muhimligi, mamlakatda olib borilayotgan islohotlar strategiyasining juda muhim sharti sifatida investitsiya siyosatini yuritish zarurligi, xorijiy investitsiyalarni yanada ko‘proq jalb qilish bo‘yicha taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: investitsiya, xorijiy investitsiya, investitsiya siyosati.

O‘zbekiston xorijiy investitsiyalarni mamlakatga kiritish uchun barcha shart-sharoitlarga ega. O‘zbekiston xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun bir qator afzalliklarga ham ega. Umuman olganda qulay investitsiya muhitini yaratish davlatimiz iqtisodiy siyosatining markaziy masalalaridan biri bo‘lib hisoblanmoqda.

Aytish joizki, xorijiy sarmoyalarni jalb qilmasdan turib biror-bir davlat taraqqiyotga hamda iqtisodiyot rivojiga erisha olgan emas. Shu bois ham bu ish mamlakatimizning iqtisodiy siyosatida ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasida bu siyosatni:

- tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish;
- respublika iqtisodiyotiga kapital mablag‘larni jalb etishni ta’minlovchi huquqiy asos, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlarni shakllantirish;
- jahon andozalari talablariga javob beradigan texnologiyalarni yetkazib beruvchi hamda iqtisodiyotning zamonaviy tuzilmalarini barpo etishga ko‘maklashuvchi xorijiy sarmoyadorlarga nisbatan ochiq eshiklar siyosatini muntazam ravishda yuritish;
- mablag‘larni raqobatbardoshli mahsulot ishlab chiqarishni o‘zlashtirish bilan bog‘liq eng muhim ustuvor yo‘nalishlarga sarflash kabi tamoyillar orqali amalga oshirilib kelinmoqda.

Bu borada mamlakatimizdagi mavjud qonunchilik xorijiy samoyadorlarga bir qator kafolat va imtiyozlar berishini ta’minlaydi. Shu o‘rinda xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotimizda naqadar zarurligini e’tirof etgan holda xorijiy sarmoyadorlar O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan investitsion siyosatiga, qonun ustuvorligiga eng asosiysi to‘lov qobiliyatiga qodir bo‘lgan kuchli sherik sifatida ishonchlarini qozonish lozim. Buning uchun

iqtisodiyotimizga xorijiy investitsiyalarni asosan to‘g‘ridan-to‘g‘ri kapital sarmoyalar ko‘rinishida keng jalb qilinishi uchun huquqiy, ijtimoiy iqtisodiy va boshqa zarur shart-sharoitlarni yaratish, ko‘shma korxonalar tashkil etilishiga ko‘maklashish, shuningdek, investorlar manfaatlari himoya qilinishini takomillashtirish zarur.

O‘zbekiston ulkan xorijiy investitsiyalar yo‘naltirilayotgan mamlakatlar guruhiga kirish uchun barcha shart-sharoitlarga, xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun bir qator afzalliklarga ega. O‘zbekiston jahon hamjamiyati oldida o‘zining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, dunyo xaritasida geografik joylashishi, tabiiy resurslarining tarkibi va zaxirasi, hukumat olib borayotgan iqtisodiy siyosat va boshqalar bilan muhim rol uynaydi.

Huquqiy nuqtai nazardan chet el investitsiyalari boshqa davlat hududida kapitalga egalik qilish, undan foydalanish va tasarruf etish bilan bog‘liq. Iqtisodiy nuqtai nazardan esa ularning hududiy, zamon va makondagi harakati shakllari foyda olish maqsadida ko‘pdan-ko‘p qo‘shimcha risklar bilan to‘qnashish ehtimoliga ega bo‘ladi. Investitsiya bazasini rivojlantirish va chuqurlashtirish, mamlakatda olib borilayotgan islohotlar strategiyasining juda muhim sharti sifatida belgilangan bo‘lib, kuchli investitsiya siyosatini o‘tkazish uchun ushbu ustuvor vazifalarni amalga oshirish lozim:

birinchidan, tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish borasida aniq maqsadni ko‘zlab siyosat o‘tkazish zarur. Bunda tovarlarni eksport va import qilishda xorijiy sarmoyadorlar daromadlaridan erkin foydalanishlarida birmuncha imtiyozli tartibni joriy qilish;.

ikkinchidan, xorijiy sarmoyalarni, asosan bevosita kapital mablag‘lar tarzidagi sarmoyalarni Respublika iqtisodiyotiga keng jalb etish uchun huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlarni yanada takomillashtirish;

uchinchidan, O‘zbekistonga jahon darajasidagi texnologiyalarni olib keladigan xalq xo‘jaligining zamonaviy strukturasini vujudga keltirishda yordam beradigan xorijiy sarmoyadorlarga nisbatan ochik eshiklar siyosatini o‘tkazish;

to‘rtinchidan, mablag‘larni eng ustuvor sohalarga – respublika mustaqilligini ta’minlaydigan agrar sektorni, yoqilg‘i-energetika kompleksini hamda boshqa bazaviy tarmoqlarni rivojlantirishga, raqobatga qodir, tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o‘zlashtirishga sarflash lozim. Chunki, iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurmay turib, eksport imkoniyatlarini kengaytirish mumkin emas.

Hukumatimiz tomonidan xorijiy sarmoyalarni qay darajada jalb etilishi oxir-oqibatda iqtisodiyotimizni kelajagini ko‘p jihatdan aniqlab berishi to‘g‘risidagi g‘oya ilgari suriladi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, hozirgi kunda iqtisodiyotimizning kelgusi holati ko‘p jixatdan biz bugun xorijiy sarmoyalarni qay darajada ko‘proq jalb etishimizga bog‘liq [1]. Bu borada xorijiy sarmoyalarni birinchi navbatda yangi texnologiyalarni joriy etilishiga va yangi quvvatlarni ishga tushirilishiga qaratilishi ko‘zda tutiladi.

Xorijiy sarmoyalarga baho berilganda ularni juda qiyinchilik bilan va uzoq vaqt mobaynida belgilanishi [2], o‘zining yo‘nalishini tanlov asosida o‘zgartirishi hamda tikilgan sarmoyani ko‘paytirishi zarurligini tan olgan holda, mumkin

bo‘lgan yo‘qotishlar ham bo‘lishini, ammo kapital kapitalni ko‘paytirishi, foydali tarzda mablag‘ yig‘ib, undan qo‘shimcha foyda olishi mumkin bo‘lgan maydonni qidirishini, kapital shunchaki harakatsiz yotmasligini ta’kidlash mumkin.

O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish siyosati mavjud mablag‘lardan, vaqtdan va imkoniyatlardan samarali foydalanishga, mavjud shart-sharoitlardan kelib chiqib boyliklarni samarali joylashtirishga va shu yo‘l bilan respublika iqtisodiyotini ko‘tarishga, uning jahon iqtisodiy tizimiga qo‘shilishiga, rag‘batlantirish yo‘li bilan investitsiyalarni iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga jalb qilishga hamda ulardan samarali foydalanishga qaratilgan.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan investitsiya siyosatining o‘ziga xos xususiyati mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlashga hamda energiya tejamkor va yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etishga yo‘naltirilgan investitsiya loyihalarini amalga oshirishga ustuvor ahamiyat berilayotganida namoyon bo‘lmoqda. Kelgusida mamlakatimiz iqtisodiyotini taraqqiy ettirish uchun xorijiy investitsiyalarni yanada ko‘proq jalb qilishda quyidagilarga e’tiborni qaratish lozim:

- iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish, xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni taraqqiy ettirish, eksportga ishlaydigan kichik va o‘rta korxonalarni ko‘paytirish va ularni samarali faoliyat yuritishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish va ularni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yana davom ettirish;

- chekka hududlarda TTXI jalb etish maqsadida ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish infratuzilmasini rivojlantirishga oid davlat dasturlarini o‘z muddatida ijrosini ta’minlash bo‘yicha mahalliy hokimiyat vakillik organlari, fuqarolik jamiyati institutlarining vakillari bilan jamoatchilik nazoratini tashkil etish va uni kuchaytirishni yo‘lga qo‘yish;

- xorijiy sarmoyadorlarni qiziqtiruvchi sohalar, ob’ektlar va joylarni aniqlash va ular to‘g‘risida ma’lumotlar bazasini shakllantirish hamda iqtisodiy jihatdan manfaatli bo‘lgan sohalarga xorijiy investorlarni jalb etish yo‘llarini izlab topish;

- tarmoq xususiyati va hududlarni iqtisodiy rivojlanishi va ularning geografik joylashuvini inobatga olgan holda erkin iqtisodiy zonalarni yanada ko‘proq tashkil etish orqali TTXIlarni jalb qilishni rag‘batlantirish;

- xususiy sektorga TTXIlarni jalb etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqarish va boshqalar talab etiladi.

Ushbu takliflarni amaliyotga joriy etish mamlakatimizga TTXIni jalb etishni yanada faollashtirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi [3]. Ushbu holat pirovardida ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan uzluksiz yangilab borish, iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, sanoatni modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni izchil davom ettirish asosida 2030 yilga borib mamlakatimizda YaIM ishlab chiqarishni 2 martaga oshirish vazifasini to‘liq hal etishga imkoniyat yaratadi

Mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatuvchi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarga amaldagi soliqlar va bojlar yuzasidan qator yengilliklar, imtiyozlar

belgilangan. Ushbu imtiyozlarning amal qilishi bevosita mamlakatimizda yuritilayotgan investitsiya siyosatining asosiy negizlaridan birini tashkil etib, o‘z ijobiy samarasini bermoqda [4]. Masalan, Respublikamizda xorijiy investorlar o‘z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun olib kiriladigan mol-mulkidan boj to‘lovi olinmaydi, Respublika investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalarga sarf etilayotgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi ishlab chiqarish korxonalari daromad (foyda) solig‘idan 7 yil muddatga ozod etilgan, korxona jamg‘armasida xorijiy investitsiya mablag‘lari hissasi 50% va undan yuqori bo‘lsa, ular 2 yil muddatga daromad (foyda) solig‘idan ozod qilingan va boshqa soliq imtiyozlari belgilangan [5].

Mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun qulay investitsiya muhitini yaratish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish tadbirlarini (jumladan, imtiyozlarni berish) amalga oshirishda quyidagi tamoyillarga asoslanishi muhim ahamitga ega:

• tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish sohasida aniq maqsadni ko‘zlab siyosat yuritish;

• respublika iqtisodiyotiga bevosita kapital mablag‘ni keng jalb etishni ta’minlaydigan shart-sharoitlarni tobora takomillashtirish;

• innovatsion texnologiyani yetkazib berayotgan va iqtisodiyotni zamonaviy tarkibini vujudga keltirishga ko‘maklashayotgan xorijiy investorlarga nisbatan ochiq eshiklar siyosatini yuritish;

• mablag‘larni import o‘rnini qoplovchi va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan eng muhim ustuvor yo‘nalishda jamlash.

O‘zbekistonda xorijiy investitsiyali korxonalarning bir maromda faoliyat yuritishi va investorlarning huquqlari himoya qilinishi uchun me’yoriy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, 2019 yil 25 dekabrda qabul qilingan “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari hamda Soliq kodeksi chet el sarmoyalarini amalga oshirishning huquqiy asoslari va tartibini belgilab beradi. Sir emaski, o‘z mablag‘ini biror mamlakat iqtisodiyotiga kiritmoqchi bo‘lgan chet ellik sarmoyador birinchi navbatda o‘zi uchun yaratilgan imtiyoz va yengilliklarni bilishni istaydi. Shu o‘rinda “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq chet ellik investorlar o‘z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun, shuningdek chet ellik investorlarning va chet ellik investorlar bilan tuzilgan mehnat shartnomalariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasida turgan chet davlatlar fuqarolarining shaxsiy ehtiyojlari uchun olib kiriladigan mol-mulkdan boj to‘lovi olinmasligini ko‘rsatish mumkin.

O‘zbekistonda xorijiy investorlarga qonuniy faoliyat natijasida olgan foydalari va boshqa daromadlarini biror-bir cheklovlarsiz istalgancha chet davlatga o‘tkazish imkoniyati kafolatlanadi [6]. Bundan tashqari, xorijiy investorlar Respublika banklarida hech bir cheklovlarsiz istalgan valyutada hisob raqamiga ega bo‘lishlari mumkin.

Xorijiy investitsiyasi bo‘lgan korxona amaldagi qonunlarga binoan o‘zi ishlab chiqargan mahsulotni litsenziyasiz eksportga chiqarish va o‘z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun zarur mahsulotlar importini amalga oshirish huquqiga egadir. Xorijiy investorlarga tabiiy boyliklarni qidirish, ishlab chiqarish va

foydalanish va boshqa xo‘jalik ishlarini yuritish uchun konsessiyalar berilishi mumkin. Konsession shartnomalar xorijiy investorlar bilan O‘zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvining vakil qilingan organlari o‘rtasida tuziladi. Xorijiy investitsiyalari bo‘lgan korxonadan chiqish yoki bunday korxonanining tugatilish hollarida xorijiy investorlar shu korxona mulkidan o‘zining hissasini korxona mulki bilan qiymatiga mutanosib ravishda pul yoki natura tariqasida qaytarib olish huquqiga ega bo‘ladi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokida tuzilgan korxonalarning xo‘jalik ishlarida hisob-kitoblar O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligi asosida olib borilishi lozim.

Agar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko‘rsatilgan shart-sharoitlar xalqaro shartnoma va xorijiy investorlar bilan kelishuvlarda ko‘rsatilgan shart-sharoitlar farq qilsa, xalqaro shartnoma va kelishuvga asosan faoliyat yurgiziladi. Shunday qilib, yaratilgan huquqiy asoslar xorijiy hamkorlarning keng investitsiya faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratib, ularning huquqlari va sarflagan investitsiyasini himoya qiladi.

Hozirga kelib, O‘zbekiston hududida xorijiy kompaniyalar faoliyatining huquqiy asoslarini shakllantirish jarayoni asosan nihoyasiga yetkazildi va amalda qo‘llanilmoqda. Bu faoliyatni rag‘batlantirishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarning quyidagi tizimi ishlab chiqilgan:

- xususiylashtirish jarayonida xorijiy investitsiyalarning qatnashishi;
- texnikaviy qayta qurollanish;
- xalq iste’moli va eksportga mo‘ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish.

O‘zbekiston Respublikasi xorijiy investitsiyalarni milliylashtirish va rekvizitsiya qilinmasligiga kafolat beradi. Xorijiy investitsiyalar faqat favqulodda holatlarda, avariya, epidemiya tarqalgan vaqtlarda Vazirlar Mahkamasining qarori bilan rekvizitsiya qilinishi mumkin. Bu holat investorga ko‘rsatilgan zarar mikdorida kompensatsiya berilishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Тогаев, С. (2017). Distribution financial resources in the role of government. Scienceweb academic papers collection.

2. Gitman, L. J., Joehnk, M. D., Smart, S., & Juchau, R. H. (2015). Fundamentals of investing. Pearson Higher Education AU.

3. Зайналов, Ж. Р., Алиева, С. С., & Хусанова, Д. Ш. (2019). Проблемы укрепления и управления финансами туристических предприятий. Biznes-Эксперт, (8), 101.

4. Akhrorov, Z. (2022). Improving the mechanisms of profit taxation in the development of enterprises. International Finance and Accounting, 2022(1), 9.

5. Masharipovich, N. I., & Akbarovich, S. U. (2020). History of the Value Added Tax in Uzbekistan: Mistakes, Experience Learned, and Current Problems. International Journal of Research in Social Sciences, 10(2), 80-86.

6. Эргашова, Н., & Алиева, С. С. (2015). Привлечение иностранных инвестиций в сферу социально-культурного сервиса и туризма. In

Перспективы развития отраслей сферы услуг. Материалы республиканской научно-практической конференции (pp. 18-21)

Sheraliyev Abbos Xolmuminovich
Denov tadbirkorlik va pedagogik instituti

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MARKAZIY BANKI TOMONIDAN TIJORAT BANKLARINING FAOLIYATINI TEKSHIRISH

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishdagi roli yoritilgan. Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash, ularning risklarni boshqarish tizimini baholash, banklar faoliyatida qonunchilikka rioya etilishini tekshirish jarayonlari tahlil qilingan. Shuningdek, Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan prudensial nazorat, inspeksiya tekshiruvlari va ularning bank tizimini barqaror rivojlantirishdagi ahamiyati ochib berilgan. Maqola bank tizimining ishonchliligini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalarni ham o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: Markaziy bank, tijorat banklari, bank nazorati, prudensial talablar, moliyaviy barqarorlik, inspeksiya tekshiruvi, bank faoliyati, risklarni boshqarish, tartibga solish, bank tizimi.

“O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq, “birinchidan, mamlakat bank tizimining barqarorligini ta’minlash Markaziy bank faoliyatining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi; ikkinchidan, Markaziy bank tijorat banklariga nisbatan majburiy zaxira talabini qo‘llaydi va ushbu majburiy zaxiralar banklarning Markaziy bankdagi maxsus hisobvaraqlardagi mablag‘larini deponentga o‘tkazish yo‘li bilan va (yoki) Markaziy bankda ochilgan vakillik hisobvarag‘ida majburiy zaxiralarni o‘rtachalash koeffitsiyenti miqdoridan kelib chiqqan holda hisoblangan majburiy zaxiralarning o‘rtachalashtirilgan miqdorini saqlab turish yo‘li bilan ushlab turiladi; uchinchidan, tijorat banklarida likvidlilikning vaqtinchalik taqchilligi yuzaga kelganda to‘lovlarning uzluksizligini ta’minlash maqsadida Markaziy bank likvidlilikni saqlab turish uchun tijorat banklariga uch oygacha bo‘lgan muddatga qisqa muddatli kreditlar tarzida tezkor yordam berishga haqli bo‘lib, mazkur kreditlar bo‘yicha foiz stavkasi Markaziy bankning boshqa kreditlariga doir amaldagi stavkalardan kam bo‘lmasligi va u bankning aktivlari bilan ta’minlangan bo‘lishi kerak; to‘rtinchidan, Markaziy bank kredit tashkilotlari faoliyatini, shu jumladan, tijorat banklarining faoliyatini tartibga soladi va nazorat qiladi”[286].

[286] O‘zbekiston Respublikasining qonuni. O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida//Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 12.11.2019-y., 03/19/582/4014-son ma’lumotlari milliy bazasi, 12.11.2019-y., 03/19/582/4014-son.

E’tirof etish joizki, O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki tomonidan tijorat banklarining faoliyatini inspeksion tekshirish “CAMELS” reyting tizimi asosida amalga oshirilmoqda.

“CAMELS” reyting tizimida tijorat banklarining daromadlari 5 ballik shkala bo‘yicha baholanadi. Bunda tijorat banklari aktivlarining miqdoriga ko‘ra 5 guruhga ajratiladi:

- aktivlarining miqdori 100 mln. dollargacha bo‘lgan banklar;
- aktivlarining miqdori 100 mln. dollardan 300 mln. dollargacha bo‘lgan banklar;
- aktivlarining miqdori 300 mln. dollardan 1 mlrd. dollargacha bo‘lgan banklar; 300 mln. - 1 mlrd. doll. SSHA;
- aktivlarining miqdori 1 mlrd. dollardan 5 mlrd. dollargacha bo‘lgan banklar;
- aktivlarining miqdori 5 mlrd. dollardan ortiq bo‘lgan banklar.

1-jadval

“CAMELS” reyting tizimida tijorat banklarining daromadlarini baholash mezonlari[287]

Reyting	100 mln. dollardan kam	100-300 mln. dollar	300-1000 mln. dollar	1-5 mlrd. dollar	5 mlrd. dollardan ortiq
1 – kuchli	1,15	1,05	0,95	0,85	0,75
2 - qoniqarli	0,95	0,85	0,75	0,75	0,55
3 – o‘rtacha	0,75	0,65	0,55	0,45	0,35
4 - chegaraviy	0,75	0,65	0,55	0,45	0,35
5 – qoniqarsiz	Sof zarar	Sof zarar	Sof zarar	Sof zarar	Sof zarar

1-jadvalda keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinadiki:

*sof foydaning aktivlarning o‘rtacha qiymatiga nisbatan darajasi 1 foizdan yuqori bo‘lgan tijorat banklariga 1 reyting bahosi beriladi (bunda sof foyda ssudalar bo‘yicha zaxiralarni to‘liq shakllantirishga yetadi va kapitalning ko‘paytirish imkonini beradi);

*sof foydaning aktivlarning o‘rtacha qiymatiga nisbatan darajasi 0,75 foizdan 1 foizgacha bo‘lgan tijorat banklariga 2 reyting bahosi beriladi (ushbu banklarda daromadlar nisbatan statik holatda bo‘ladi hamda ssudalar bo‘yicha zaxiralarni to‘liq shakllantirishga yetadi va kapitalning ko‘paytirish imkonini beradi);

*sof foydaning aktivlarning o‘rtacha qiymatiga nisbatan darajasi 0,5 foizdan 0,75 foizgacha bo‘lgan tijorat banklariga 3 reyting bahosi beriladi (ushbu banklarda daromadlar ssudalar bo‘yicha zaxiralarni to‘liq shakllantirishga yetmaydi va kelgusida muammolarni yuzaga kelishidan darak beradi);

*sof foydaning aktivlarning o‘rtacha qiymatiga nisbatan darajasi 0,25 foizdan 0,5 foizgacha bo‘lgan tijorat banklariga 4 reyting bahosi beriladi (ushbu banklarda daromadlar sezilarli darajada tebranib turadi, ularni kamayish

[287] Supervision and Regulation. CAMELS rating system. https://www.federalreserve.gov.

tendensiyasi kuzatiladi va daromadlar sssudalar bo‘yicha zaxiralarni to‘liq shakllantirishga yetmaydi);

* 5 reyting bahosiga ega bo‘lgan tijorat banklarida sof foydaning aktivlarning o‘rtacha qiymatiga nisbatan darajasi 0,25 foizdan past bo‘ladi va daromadlar darajasi qoniqarsiz hisoblanadi.

Xulosa va takliflar

✓ O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki tomonidan tijorat banklarining faoliyatini inspeksion tekshirish “CAMELS” reyting tizimi asosida amalga oshiriladi.;

✓ “CAMELS” reyting tizimida tijorat banklarining daromadlari 5 ballik shkala bo‘yicha baholanadi. Bunda tijorat banklari aktivlarining miqdoriga ko‘ra 5 guruhga ajratiladi.;

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida Qonun12.11.2019 y.

2.Supervision and Regulation. CAMELS rating system. https://www.federalreserve.gov.

3. Basel Committee on banking supervision. International convergence of capital measurement and capital standards. Basel-II, 2006. http://www.bis.org.publications.

Berdikulov Jurabek Rayimkulovich
SamISI Moliya kafedrasi assistenti

PLASTIK KARTALARNING MOLIYAVIY XIZMATLAR TIZIMIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya: Ushbu maqolada plastik kartalarning zamonaviy moliyaviy xizmatlar tizimidagi o‘rni, ularning turlari, afzalliklari, xavfsizlik masalalari va rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinadi. Jumladan, plastik kartalarning naqd pulsiz hisob-kitoblar, elektron to‘lov tizimlari va iqtisodiyotni raqamlashtirishdagi ahamiyati yoritilgan. Maqolada O‘zbekistonda plastik kartalardan foydalanish holati, mavjud muammolar va takomillashtirish bo‘yicha takliflar ham keltirilgan.

Kalit so‘zlar: plastik karta, elektron to‘lovlar, bank tizimi, moliyaviy xizmatlar, xavfsizlik, raqamlashtirish, naqd pulsiz iqtisodiyot.

Kirish

XXI asrda to‘lov tizimlarining raqamlashtirilishi moliyaviy texnologiyalar rivojining muhim bosqichiga aylandi. Xususan, plastik kartalar orqali amalga oshirilayotgan to‘lovlar va xizmatlar nafaqat qulaylik, balki xavfsizlik, tezlik va hisobdorlik imkoniyatlarini ham taqdim etmoqda. Plastik kartalar zamonaviy bank tizimining ajralmas qismi sifatida jismoniy va yuridik shaxslarning kundalik hayotida keng qo‘llanilmoqda. O‘zbekistonda ham ushbu soha izchil rivojlanmoqda.

Plastik kartalarning turlari

Plastik kartalar funksiyasi va qo‘llanishiga ko‘ra quyidagilarga bo‘linadi:

- **Debit kartalar** – mijoz o‘z mablag‘ini ishlatadi (masalan, UzCard, Humo)
- **Kredit kartalar** – bank tomonidan ajratilgan kredit liniyasi asosida ishlatiladi
- **Kobeyjing kartalar** – xalqaro va mahalliy tizimlar birlashtirilgan
- **Virtual kartalar** – onlayn to‘lovlar uchun mo‘ljallangan raqamli karta

Plastik kartalarning afzalliklari

- **Naqd pulsiz hisob-kitob** imkoniyati
- **Xavfsizlik**: PIN-kod, biometrik himoya
- **Monitoring**: to‘lovlar tarixini kuzatish
- **Aksiyalar va cashbacklar** orqali rag‘batlantirish
- **Onlayn banking** orqali boshqaruv qulayligi

Plastik kartalardagi xavfsizlik masalalari

- Phishing hujumlari, firibgarlik va ma’lumot o‘g‘irlash holatlari
- PIN-kodni oshkor qilish yoki begonalarga uzatish xavfi
- Chet elda ishlashdagi cheklovlar
- QR-kod yoki NFC texnologiyasidan noto‘g‘ri foydalanish

O‘zbekistonda plastik kartalardan foydalanish holati

- **UzCard** va **Humo** tizimlari asosiy milliy to‘lov tizimlaridir
- So‘nggi yillarda **onlayn to‘lovlar ulushi** sezilarli darajada oshgan
- Kichik tadbirkorlik subyektlari orasida kartali savdo jadal rivojlanmoqda
- Qishloq joylarda POS-terminallar yetishmovchiligi mavjud

Rivojlantirish bo‘yicha takliflar

- Mobil ilovalar orqali kartalarni boshqarishni ommalashtirish
- Xavfsizlikni oshirish bo‘yicha foydalanuvchi treninglarini yo‘lga qo‘yish
- Chet el kartalari bilan integratsiyani kuchaytirish
- Kichik savdo nuqtalarida terminal joriy etishni subsidiyalash

Xulosa

Plastik kartalar bugungi kunda nafaqat to‘lov vositasi, balki moliyaviy boshqaruv, iste’mol madaniyati va iqtisodiy xavfsizlikning ajralmas unsuriga aylangan. Raqamli iqtisodiyot sari intilayotgan O‘zbekiston uchun bu vositalarning keng joriy etilishi – zamonaviy moliyaviy infratuzilmaning asosiy ko‘rsatkichidir. Bu boradagi tizimli ishlar va texnologik yangiliklar esa iqtisodiy o‘sishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Takliflar (amaliy yondashuvlar):

Birinchidan: Yagona milliy raqamli to‘lov ekotizimini yaratish:

Uzcard va Humo tizimlarini integratsiyalashgan yagona raqamli platformaga birlashtirish orqali texnik muammolarni kamaytirish va xizmatlar sifatini oshirish mumkin.

Ikkinchidan: Kiberxavfsizlikni mustahkamlash:

Banklar tomonidan **blokcheyn texnologiyasi**, **sun’iy intellekt asosidagi monitoring** va **real vaqtli tranzaksiya nazorati** tizimlarini joriy etish zarur.

Uchinchidan: Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish:
Plastik kartalardan xavfsiz foydalanish, onlayn firibgarlikdan himoya qilish bo‘yicha doimiy o‘quv kampaniyalarini tashkil etish lozim.

To’rtinchidan: Hududiy infratuzilmani kengaytirish:
Qishloq joylarda POS-terminal va bankomatlar sonini ko‘paytirish orqali moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini oshirish kerak.

Beshinchidan: “Cashback” va raqamli sodiqlik dasturlarini rivojlantirish:
Naqd pulsiz to‘lovlarni rag‘batlantirish uchun kartalarga bonus tizimlarini keng joriy etish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki axborotnomalari – www.cbu.uz
2. “Moliyaviy xizmatlar va to‘lov tizimlari” – T. Raximov, 2022
3. www.uzcard.uz – UzCard rasmiy veb-sayti
4. www.humo.uz – Humo to‘lov tizimi portali
5. Jahon banki hisobotlari – "Financial Inclusion and Digital Payments", 2021
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yildagi "Naqd pulsiz iqtisodiyotni rivojlantirish" qarori.

Abdumonnonov Maxsud,Samarkand State Architectural and Civil Engineering University, Department of Architectural
Abdumannonov Bekzod Maksudovich,Assistant of the Department of "Management" of the Samarkand Institute of Economics and Service

THE IMPORTANCE OF USING INTERACTIVE METHODS IN TRAINING SESSIONS IN GENERAL TECHNICAL DISCIPLINES IN IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF TRAINING

Abstract: This article assumes the achievement of these results through the use of various interactive methods for ensuring the quality of general engineering education in higher education.

Key words: Interactive, innovation, education, didactics, method.

Introduction

The rapid development of education at the global level since the last quarter of the last century indicates that it occupies an important place in the development of man and society. It is through education that the cultural heritage of human society is transmitted from generation to generation, professional knowledge and level are achieved, and also through education the moral image of the people and the principles of universal tolerance are formed.

It should be noted that in the context of globalization, the level of education has an integral impact on the life of people in civil society, which is developing

more and more on a global scale, including health, political activity, the speed of assimilation of news, the harmful ability to consciously analyze thoughts, etc. manifests itself clearly in the environment. In such historical conditions, the importance of education on a global scale has steadily increased, and it has become one of the most important factors in bringing not only the economy, but the whole society to a new qualitative level.

One of the important requirements for the organization of modern education is to achieve high results in a short time without spending a lot of mental and physical effort. On the basis of conveying specific theoretical knowledge to students (students) in a short time, the formation of certain actions and skills, monitoring activities, assessing the level of theoretical and practical knowledge acquired by them requires high pedagogical skill from the teacher in relation to the educational process requires a new approach.

To date, developed countries have accumulated extensive experience in the use of innovative pedagogical technologies that increase the educational and creative activity of students and guarantee the effectiveness of the educational process, and interactive methods form the basis of this experience.

One of the important tasks of the lifelong education system is the creation of an innovative environment in the course of the educational process. To do this, first of all, it is necessary to analyze the meaning of the word "innovation". "Innovation" comes from the English word "in" meaning introduction, and "innovation" means novelty. That is, "innovation" means the introduction of something new. Therefore, the creation of an innovative experimental environment in teaching requires a teacher of versatile research, rich experience and high practical activity.

Today, interactive methods by their nature increase the learning and cognitive activity of students, work in small groups and teams, boldly and freely express personal views on the topic and problems being studied, and express their opinion. the ability to defend, substantiate with evidence, listen to colleagues, enrich ideas, induce to choose the most optimal solution from among the existing opinions expressed. Purposeful and effective use of interactive methods by teachers (teacher) in the process of education and upbringing increases the openness of students (pupils) to communication, collectivism, logical thinking, provides ample opportunities for developing the ability to analyze ideas and find logical connections between different ideas.

As mentioned above, the most optimal way to improve the effectiveness of education in modern conditions is to organize training using interactive methods. So what are interactive methods? What didactic opportunities do they have? What results are guaranteed by the competent and expedient use of interactive methods in the educational process?

The most correct step in finding answers to the questions posed is to familiarize yourself with the dictionary meaning of the basic concepts - "interactive", "interactive learning" and "interactivity".

The concept of “interactive” is expressed in English as “interact” (“интерактив” in Russian), and from a lexical point of view, “inter” is mutual, bilateral, “act” is to act, work.

Interactive learning is learning based on the organization of action on the basis of mutual cooperation of participants in the educational process in order to acquire knowledge, skills, competencies and certain moral qualities.

Interactivity is the ability of participants in the educational process to organize actions on the basis of mutual cooperation in order to acquire knowledge, skills, competencies and certain moral qualities.

From a logical point of view, interactivity, first of all, is the conduct of a conversation (dialogue), interaction and motor activity of social subjects.

Every specialist working in the field of education is well aware that traditional education is also based on conversation (dialogue) and this conversation is organized in the following forms of interaction:



Information is naturally the basis of conversation in traditional education. But the main source of information transfer is the experience of the teacher, in this process he takes the initiative, dominates, that is, seeks to convey knowledge to students (students) orally during the main lesson. Activity is peculiar only to the teacher, and pupils (students) become passive listeners in this situation. Their main task is to listen to the teacher, write where necessary, answer questions, and speak only when allowed in rare cases.

One-sidedness in traditional education prevails not only in lectures, but also in practical and seminar classes in the higher education system. According to him, the role of the "supplier" is no longer the teacher, but the student (student). The student (student) basically demonstrates the knowledge he has acquired, and the teacher listens to his thoughts and asks questions where necessary. In this situation, a group of pupils (students) becomes a passive participant and listener. At first glance, obtaining information obtained by a student (student) or teacher gives the impression that it creates an opportunity for the acquisition of knowledge for a group of students (community). However, according to the results of psychological research, knowledge (information) obtained in this way is quickly forgotten.

In particular, according to the research of psychologists, the natural physiological and psychological capabilities of a person make it possible to save the acquired knowledge in different ways. That is, a person: 10% when he himself reads the source; 20% when listening to information; 50% when seeing and listening to information about an incident, event or process; 80% when he himself conveys information (says, demonstrates knowledge); When he applies the acquired knowledge (information) to his work, he has the ability to remember 90% of the information.

In accordance with this, interactive learning is “based on the possibility of cooperation, an intensive discussion is organized - disputes, an exchange of ideas

between the main participants in the educational process - a teacher, a student and a group of students, including free thinking, a decisive expression of personal views, a joint search for solutions in problem situations, the creation of mutual cohesion of students in the development of educational material, "teacher - student - group of students" are characterized by their mutual respect, understanding and support, sincere attitude, spiritual unity.

In the educational process, the teacher develops students' abilities, independence, self-control, self-management, productive conversation, work with peers, listening to their opinion through interactive learning, and will also be able to develop such qualities as understanding, independence and critical thinking, putting forward alternative proposals, free expression of opinions, defending one's point of view, the desire to find a solution to the problem, the ability to get out of difficult situations.

Most importantly, using interactive methods, the teacher gets the opportunity to objectively evaluate the actions of students on the basis of mutual cooperation to achieve a specific educational goal by organizing, directing, managing, controlling and analyzing inputs.

Literature

1. Sh.M.Mirziyoyev “We will build our great future together with our brave and noble people ”. T.: Uzbekistan 2017.
2. Суванкулов, И. Ш., Узоков, Ш. Х., & Элмонов, С. М. (2020). Моделирование двухпоясных решетчатых структур. *Universum: технические науки*, (9-1 (78)), 68-71.
3. Makhsud, A. (2023). Mirza Ulugbek (Muhammad Taragai) Was Taken to the Side on the Universal Significance of Research Work. *Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education*, *2*(3), 377-383.
4. Makhsud, A. (2023). STRUCTURAL SOLUTIONS FOR COVERINGS IN THE FORM OF HYPERBOLIC PARABOLOIDS. *Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence*, *2*(3), 22-26.
5. Жураев, Т. Х., Сувонов, О. Ш., & Сапаров, Х. Р. (2020). Разработка концепции силлабуса для учебного процесса геометро-графических дисциплин. *Образование и проблемы развития общества*, (3 (12)), 32-39.
6. Shukurullaevich, S. O. (2022). Geometric methods used in the construction of architectural forms. *Journal of Architectural Design*, *4*, 12-20.
7. Shukurullayevich, S. O. (2021). The intersection of the surface of the engineering building with the surface of the earth. *World Economics and Finance Bulletin*, *1*(1), 17-19.
8. Tuxtashov, B., & Obidjon, S. (2022). The Importance of Using Interactive Methods in Training Sessions in General Technical Disciplines in Improving the Effectiveness of Training. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, *2*(12), 17-20.
9. Vohidov, B., Vohidov, A. B., & Sh, S. O. (2022). From Parts of Second-Order Turnable Areas Formed Coating. *Miasto Przyszłości*, *24*, 496-502.
10. Sh, S. O., & Abdumonnonov, M. (2023). Problems of Creating Two and Three-Dimensional Drawings in the Programs of the Discipline “Computer Graphics” Intended for Teaching the Discipline “Drawing Geometry and

Engineering Graphics” in the Direction of Construction and Vocational Education. *Journal of Intellectual Property and Human Rights*, *2*(3), 27-30.

11. Suvonov, O. (2023). Some Issues of Division of Spatial Shells of Coatings into Prefabricated Structural Elements. *JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE*, *2*(4), 13-16.

12. Сувонов, О. (2023). ОЦЕНКА ЧИСЛА МНОГОГРАННИКОВ С РАВНЫМИ РЕБРАМИ. *Евразийский журнал академических исследований*, *3*(4), 95-97.

13. Suvonov, O. (2022). Kompyuterda loyihalash (AutoCad dasturi asosida). *Scienceweb academic papers collection*.

14. Shukurullaevich, S. O. (2023). FACTS WE KNOW AND DON'T KNOW ABOUT THE BURJ KHALIFA. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN*, 472-475.

15. Shukurullayevich, S. O. (2023). BURJ XALIFA BINOSI HAQIDA BIZ BILGAN VA BILMAGAN HAQIQATLAR. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, *2*(20), 6-9.

16. Shukurullaevich, S. O. Qosimova Farog’at teacher, Samarkand state architectural and civil engineering institute. *Modern Journal of Social Sciences and Humanities, Elements of Information Modeling in Classic Engineering and Computer Graphics Courses, https://mjssh. academicjournal. io/index. php/mjssh/article/view/354*.

17. Saparov, H. (2023). THE GLOBAL SIGNIFICANCE OF THE RESULTS AND PROSPECTS OF THE CONSTRUCTION OF MODEL HOUSING IN UZBEKISTAN. *Me'morchilik va qurilish muammolari*.

18. Suvonov, O. (2022). Devorbop keramik pardozlash materiallarini ishlab chiqarish korxonalarida suvdan foydalanish holatlarini tadqiq qilish. *Me'morchilik va qurilish muammolari*.

19. Obidjon, S., & Farog’at, Q. (2022). RESEARCH OF WATER USE CASES IN PRODUCTION ENTERPRISES OF WALL CERAMIC FINISHING MATERIALS. *Procedia of Theoretical and Applied Sciences*, 36-39.

20. Suvonov, O. (2021). Problems of Modernization of Curricula for Teaching" Descriptive Geometry and Engineering Graphics" in Higher Education Institutions in the Field of Architecture and Construction and Technical Education. *EUROPEAN JOURNAL OF LIFE SAFETY AND STABILITY (EJLSS)*.

Toshtemirov Doston O‘ktam o‘g‘li
mustaqil izlanuvchi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali

TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH VA XALQARO STANDARTLARNI JORIY ETISH MASALALARI

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston tijorat banklarida kredit risklarini boshqarish jarayonida uchrayotgan muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari

tahlil qilingan. Jumladan, kredit baholash tizimining yetarlicha takomillashmaganligi, risklarni prognozlash mexanizmlarining sustligi, bank xodimlarining malaka yetishmovchiligi hamda kredit portfelining diversifikatsiya darajasining pastligi asosiy muammo sifatida ko‘rsatib o‘tilgan. Tadqiqot natijalari mamlakat bank tizimining barqarorligini oshirish, iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlash va investitsiya muhitini yaxshilashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Tijorat banklari, kredit riski, kredit portfeli, diversifikatsiya, risk-menejment, bank barqarorligi, moliyaviy tizim.

Tijorat banklari tomonidan taqdim etilayotgan kredit resurslari xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining asosiy moliyaviy manbalaridan biri hisoblanadi. Ushbu kreditlar nafaqat korxonalarning joriy operatsion xarajatlarini qoplashga, balki ularning investitsion loyihalarini amalga oshirishga ham xizmat qiladi. Mazkur jarayon iqtisodiyotning barqaror va izchil rivojlanishini ta’minlashda muhim omil bo‘lib, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va raqobatbardoshlikni oshirishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, bank kreditlari moliya bozorining muvozanatini saqlash, kapitalning samarali taqsimlanishi hamda hududiy rivojlanish dasturlarini qo‘llab-quvvatlashda ham alohida o‘rin tutadi.

Rivojlangan davlatlarning Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrdagi iqtisodiy yuksalish tajribasi shuni ko‘rsatadiki, kredit iqtisodiyotning real sektorini tiklash va ishsizlik muammosini bartaraf etishda muhim o‘rin tutgan. Ayniqsa, J.M. Keyns tomonidan ilgari surilgan “arzon pullar” siyosati AQSh iqtisodiyotining 1945–1960 yillardagi barqaror rivojlanishiga asosiy turtki bo‘lgan. Keynsning ilmiy qarashlariga ko‘ra, Markaziy banklarning hisob stavkasini past va izchil darajada ushlab turishi tijorat banklari tomonidan beriladigan kreditlarning foiz stavkalarini pasaytirishga olib keladi. Bu esa, o‘z navbatida, korxonalar va firmalarning kreditlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirib, investitsion faoliyatni jonlantiradi. Olimning fikricha, foiz stavkalarining rejali investitsiyalarga ta’siri pul-kredit siyosatining uzatish mexanizmidagi eng muhim halqa hisoblanadi.

Amalda, pul taklifining ortishi natijasida foiz stavkalari pasayadi, bu esa investitsiyalarning muqobil qiymatini kamaytiradi. Natijada, kompaniya va firmalar rejalashtirilgan investitsiyalar hajmini ko‘paytirishga intiladi. Investitsiyalarning ko‘payishi esa umumiy talabni rag‘batlantiradi va tovar zaxiralarining kutilmaganda kamayishiga sabab bo‘ladi. Shu jarayon ishlab chiqarish hajmining oshishiga, yangi ish o‘rinlarining yaratilishiga va nihoyat milliy daromadning barqaror o‘sishiga olib keladi.

E’tirof etish joizki, tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlar O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror o‘sishida hal qiluvchi rol o‘ynamoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2024-yilda mamlakatning yalpi ichki mahsuloti (YaIM) 1454,6 trln so‘mni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 20,7 foizga oshdi. Shu bilan birga, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan YaIM hajmi 38,7 mln so‘mni tashkil qildi.

2014–2020-yillar davomida O‘zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsuloti hamda tijorat banklari kreditlari hajmi o‘sish tendensiyasini ko‘rsatgan bo‘lsa, 2020-yildan keyingi davrda ushbu ko‘rsatkichlarda pasayish kuzatilgan. Shunga qaramay, iqtisodiyotning real sektoriga yo‘naltirilgan kredit qo‘yilmalari hajmi ortishda davom etmoqda. Jumladan, 2024-yilda ushbu ko‘rsatkich 2023-yilga nisbatan 13,1 foizga ko‘payib, 533,1 trln so‘mga yetdi. Natijada, tijorat banklari kreditlarining YaIMdagi ulushi 36,6 foizni tashkil etdi (1-rasm).



	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
YaIM	144,9	176,5	199,3	302,5	406,6	668,1	602,2	820,5	995,5	1204,5	1454,6
Kredit qo'yilmalari	34,5	42,7	53,4	110,6	167,4	211,6	276,9	326,4	390,1	471,2	533,1
Foiz hisobida	24%	24%	27%	37%	41%	40%	46%	40%	39%	39%	37%

1-rasm. O‘zbekistonda Yalri ishki mahsulot (YAIM) va tijorat banklari kreditlari miqdorining ulushi va o‘zgarish dinamikasi[288], trln so‘m

1-jadvalda keltirilgan ko‘rsatkichlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, 2014–2024-yillar mobaynida O‘zbekiston Respublikasining nominal yalpi ichki mahsuloti bilan bir qatorda tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar hajmi ham barqaror o‘sish tendensiyasini namoyon qilgan. Ushbu jarayon, avvalo, mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish bosqichida ishlab chiqarish hajmlarining izchil ortib borayotgani, xizmat ko‘rsatish sohalarining kengayib borishi hamda bank-moliya sektorida kreditlash imkoniyatlarining sezilarli darajada oshgani bilan izohlanadi.

Shu bilan birga, kreditlash ko‘rsatkichlarining muntazam ravishda ortishi iqtisodiyotda yangi investitsiya loyihalarini amalga oshirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va aholi turmush darajasini yaxshilash uchun mustahkam moliyaviy zamin yaratmoqda.

O‘z navbatida, tijorat banklarining kreditlash imkoniyatlarini kengaytirish, avvalo, ularning kredit portfelining sifati bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu bois,

[288] www.cbu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

banklar faoliyatida kredit portfelini samarali boshqarishni takomillashtirish dolzarb zarurat sifatida namoyon bo‘ladi. Iqtisodiy adabiyotlarda kredit portfeli mohiyatiga oid turlicha yondashuvlar mavjud. Ko‘plab iqtisodchi olimlar uni tijorat banklari tomonidan ajratilgan, ammo hali qaytarilmagan kreditlarning umumiy majmui sifatida izohlasalar, boshqa tadqiqotchilar kredit portfeliga kengroq yondashib, uni kreditlarni ma’lum belgilari bo‘yicha tasniflash jarayoni sifatida ta’riflaydilar.

Masalan, K. Barltron va D. MakNotonlarning fikriga ko‘ra, tijorat banklari kredit portfeli — bu kreditlarni risk darajasi, muddati, ta’minoti yoki maqsadli yo‘nalishiga qarab turkumlash tizimidir. Bu yondashuv kredit portfelini faqat moliyaviy natijalar majmui sifatida emas, balki bankning kredit siyosati va risklarni boshqarish strategiyasini ifodalovchi muhim vosita sifatida ko‘rib chiqishga imkon beradi[289].

Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklarining kredit portfelini samarali boshqarish darajasi turli ko‘rsatkichlar orqali baholanadi. Shulardan eng muhimlaridan biri — bu kreditlardan ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararlarni qoplash uchun shakllantiriladigan zaxira ajratmalari hisoblanadi. Ushbu ko‘rsatkich bankning kredit risklarini qanchalik to‘g‘ri baholashi va ularni qoplash imkoniyatiga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, kredit portfeli sifatini ifodalovchi muhim mezonlardan yana biri uning diversifikatsiya darajasi sanaladi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, kredit portfelining bir tarmoqqa haddan ziyod yo‘naltirilishi yuqori risklarni keltirib chiqaradi. Shu sababli xalqaro standartlarda tijorat banklari kredit portfelini mijozlarning tarmoq faoliyatiga qarab diversifikatsiya qilish talab etiladi. Bunda umumiy me’yor sifatida “25 foizlik chegara” qo‘llaniladi. Ya’ni, tijorat banklari kreditlarining chorak qismini (25%) dan ortig‘ini bitta soha yoki tarmoqka jamlash tavsiya etilmaydi.

Mazkur yondashuv bank aktivlarini turli iqtisodiy sohalar o‘rtasida taqsimlash orqali risklarni kamaytirishga, shuningdek, kredit portfelining barqarorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu tarzda, tijorat banklari nafaqat moliyaviy barqarorlikni ta’minlaydi, balki iqtisodiyotning turli tarmoqlariga kredit resurslari oqimini ham taqsimlab, ularning muvozanatli rivojlanishiga ko‘maklashadi.

Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston tijorat banklarida kredit portfelining diversifikatsiya darajasi hozircha yetarlicha yuqori emas. Amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, ayrim yirik tijorat banklarida berilgan kreditlarning qariyb 45–50 foizi bitta tarmoq yoki sohada to‘planib qolmoqda. Bu holat esa kredit risklarining oshishiga va bank tizimi barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli, mamlakatimiz tijorat banklarida kredit portfelini boshqarish samaradorligini oshirish uchun bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

Birinchidan, banklarning kreditlash jarayonida tarmoq limitlarini belgilash va ularga qat’iy rioya etish talab etiladi. Bu esa kredit resurslarini iqtisodiyotning

[289] Барлтрон К.Д., МакНотон Д. Банки на развивающихся рынках. – Вашингтон: ИЭР МБРР, 1994. – С. 45. 49

turli tarmoqlari bo‘yicha muvozanatli taqsimlashga xizmat qiladi. Ikkinchidan, davlat dasturlari doirasida moliyalashtiriladigan loyihalarni faqat bir nechta banklar emas, balki barcha yirik tijorat banklari teng ulushlarda moliyalashtirishi maqsadga muvofiqdir. Bu yondashuv banklararo raqobatni kuchaytirish bilan birga, kredit risklarini pasaytirishga ham yordam beradi.

Ikkinchi muhim yo‘nalish — bu xalqaro standartlarni milliy amaliyotga joriy etishdir. Jumladan, Bazel qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqilgan Bazel-II standartlarida ko‘rsatilgan “standartlashgan yondashuv”ni tatbiq etish respublikamiz bank tizimi uchun dolzarbdir. Mazkur yondashuvga ko‘ra, tijorat banki tomonidan berilgan kreditning risk darajasi reyting agentliklari tomonidan mijozga berilgan suveren yoki korporativ kredit reytingiga asoslanadi. Bu esa kredit risklarini yanada aniqroq baholash, kapital yetarliligini oshirish hamda banklarning barqaror faoliyatini ta’minlash imkonini beradi.

Xalqaro amaliyot shuni ko‘rsatadiki, AQSh, Yaponiya va boshqa rivojlangan davlatlarda qo‘llanilayotgan ushbu model bank tizimining barqarorligini ta’minlash va kredit risklarini kamaytirishda samarali natijalar bermoqda. Shu bois O‘zbekiston tijorat banklarida ham bu tajribani joriy etish dolzarb vazifalardan biridir.

O‘zbekiston tijorat banklarida kredit risklarini boshqarishni takomillashtirish bo‘yicha quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- Kredit baholash tizimini modernizatsiya qilish (Kredit oluvchilarning moliyaviy imkoniyatlarini aniqlashda xalqaro amaliyotda keng qo‘llaniladigan zamonaviy scoring tizimlarini joriy etish; kredit qarorlarini qabul qilishda subyektiv yondashuvni kamaytirish uchun avtomatlashtirilgan kredit reytingi tizimini yo‘lga qo‘yish);

- Risklarni prognozlash va tahlil qilish mexanizmlarini kuchaytirish (Sun’iy intellekt, “big data” va mashinaviy o‘rganish texnologiyalaridan foydalanish orqali kredit risklarini oldindan aniqlash imkoniyatlarini kengaytirish; kredit portfeli xavflarini monitoring qilishda real vaqt (online) tahlil mexanizmlarini joriy qilish);

- Malakali mutaxassislarni tayyorlash va ularning salohiyatini oshirish (Bank xodimlarini risklarni modellashtirish va kredit tahlili bo‘yicha muntazam o‘qitish, xalqaro tajribaga asoslangan treninglar tashkil etish; risk-menejment bo‘yicha xorijiy ekspertlarni jalb qilish va ular bilan hamkorlikda amaliy loyihalar amalga oshirish);

- Makroiqtisodiy barqarorlikka moslashuvchan yondashuvni joriy etish (Inflyatsiya va valyuta kursidagi o‘zgarishlarni hisobga oluvchi “stress-test” tizimini keng qo‘llash; kredit siyosatini ishlab chiqishda milliy iqtisodiyotdagi global va mintaqaviy xavflarni hisobga olish uchun Markaziy bank va tijorat banklari o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish);

- Ichki audit va nazorat tizimini kuchaytirish (Hujjatlarni rasmiylashtirishga asoslangan nazorat o‘rniga kredit risklarini real vaqt monitoringi tizimini yo‘lga qo‘yish; ichki audit xizmatlarini mustaqil bo‘lim sifatida tashkil etish va ularning mas’uliyatini oshirish);

- Kredit portfelini diversifikatsiya qilish (Kreditlarning bir sohada to‘planib qolishining oldini olish uchun tarmoq limitlarini belgilash va har bir bank kredit portfelida 25 foizlik me’yorni joriy etish; davlat dasturlari doirasidagi yirik loyihalarni moliyalashtirishda barcha tijorat banklarini teng ulushlarda jalb qilish orqali risklarni taqsimlash);

- Xalqaro standartlarni joriy etish (Kredit risklarini baholashda Bazel qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqilgan Bazel-II va Bazel-III standartlarini bosqichma-bosqich amaliyotga tatbiq etish; kredit oluvchilarning reytingini aniqlashda xalqaro reyting agentliklari ma’lumotlaridan foydalanish).

Adabiyotlar

1. Барлтрон К.Д., МакНотон Д. Банки на развивающихся рынках. – Вашингтон: ИЭР МБРР, 1994. – С. 45. 49

2. Умаров З. А. Банк кредит портфели ички аудитининг ўзига хос хусусиятлари //Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting. – 2025. – Т. 5. – №. 02. – С. 66-73.

3. Маматов А. А. Тижорат банклари кредит қўйилмаларини такомиллаштириш йўллари //Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting. – 2024. – Т. 4. – №. 03. – С. 519-525.

Berdikulov Jurabek Rayimkulovich
SamISI Moliya kafedrasi assistenti

TURISTIK KORXONALARDA XIZMAT KO‘RSATISH SIFATINI OSHIRISHNING DOLZARB MASALALARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada turizm sohasida xizmat ko‘rsatish sifatining o‘rni va ahamiyati, turistik korxonalar faoliyatida xizmat ko‘rsatish madaniyati, mijozlar ehtiyojlarini qondirishda innovatsion yondashuvlar yoritilgan. Shuningdek, xizmat ko‘rsatish sifati va mijozlar qoniqishining o‘zaro bog‘liqligi, xizmat jarayonida xodimlarning malakasi va kommunikatsiya ko‘nikmalarining roli tahlil qilingan. Maqolada O‘zbekistonda turizm xizmatlarini rivojlantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: turizm, xizmat ko‘rsatish sifati, turistik korxona, mijozlar ehtiyoji, xizmat madaniyati, innovatsiyalar.

Kirish

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasi strategik rivojlanish yo‘nalishlaridan biri sifatida tan olindi. Davlat tomonidan qabul qilingan qaror va farmonlar, vizasiz rejimlar, yangi infratuzilmalar bu sohaning jadal rivojlanishiga zamin yaratdi. Ammo turistik xizmatlarning sifati va raqobatbardoshligini oshirish bugungi kunda hal qilinishi kerak bo‘lgan muhim vazifalardan biridir. Ayniqsa, mehmonxona, restoran, transport, ekskursiya va boshqa xizmatlar sifatining yuqori bo‘lishi sayyohlarning mamlakatga bo‘lgan ishonchi va qoniqishini belgilaydi.

Turistik korxonalar va ularning xizmat turlari

Turistik korxonalar deganda mehmonxonalar, sayyohlik agentliklari, transport tashkilotlari, restoranlar, gidlik xizmatlari, sog‘lomlashtirish maskanlari va boshqa xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar tushuniladi. Ularning har biri mijoz bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqada bo‘lib, xizmat ko‘rsatish sifati orqali turizm sektoriga baho beriladi.

Xizmat ko‘rsatish sifati: mohiyati va mezonlari

Xizmat sifati – bu mijoz kutgan natijani haqiqatdagi xizmat bilan solishtirish orqali aniqlanadigan ko‘rsatkichdir. U quyidagi omillar asosida shakllanadi:

- Xodimlarning malakasi va muomala madaniyati
- Xizmatning tezligi va qulayligi
- Muassasa infratuzilmasi va gigiyenik sharoitlar
- Narx va sifat muvozanati
- Mijoz fikr-mulohazasiga bo‘lgan e’tibor

Mijozlar ehtiyojlari va xizmatga bo‘lgan talablar

Zamonaviy sayyohlar faqatgina ko‘rish yoki yashash uchun emas, balki **emosional tajriba** orttirish uchun ham sayohat qiladi. Shu bois xizmatlar ham **individual yondashuv**, **kreativlik** va **moslashuvchanlik** bilan ta’minlanishi zarur.

Innovatsiyalar va raqamli xizmatlar

Bugungi kunda QR-kodli menyular, onlayn buyurtma, mobil ilovalar, virtual gidlar va avtomatlashtirilgan rezervatsiya tizimlari xizmat sifatini oshirishda muhim vositalardir. O‘zbekistonning yirik mehmonxonalari bu texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy qilmoqda.

Turizmda xizmat ko‘rsatish muammolari (O‘zbekiston misolida)

- Xodimlar malakasi yetarli emasligi
- Tillarni bilmaslik va muomala madaniyati pastligi
- Aksariyat korxonalarda raqamlashtirish sust
- Narx-sifat nomutanosibligi
- Mijoz fikriga e’tiborsizlik

Xulosa va takliflar

Turistik korxonalarda xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish – bu nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki mamlakat imidjiga ta’sir qiluvchi omildir. Yuqori sifatli xizmat – bu barqaror turizm rivoji va qayta tashrif buyurish ehtimolini oshiradi.

Takliflar:

- Xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar uchun muntazam o‘quv kurslari
- Xizmat ko‘rsatish standartlarini ishlab chiqish va joriy etish
- Onlayn reyting va sharh tizimlarini kengaytirish
- Chet tillarni biladigan kadrlar tayyorlash
- Xizmatlarni raqamlashtirishga mablag‘ ajratish

1. Xizmat sifati va mijoz ehtiyojlari bo‘yicha takliflar:

1. Turistlarning ehtiyoj va afzalliklarini muntazam o‘rganish (so‘rovnomalar, onlayn tahlil platformalari orqali).
2. Xizmatlar sifati bo‘yicha **ISO 9001:2025** xalqaro standartlarini joriy etish.

3. Mijozlar shikoyatlarini tezkor qayta ishlash tizimini yaratish (mobil ilova yoki veb-portal orqali).
4. “Mijozlar sodiqligi” dasturini yo‘lga qo‘yish — bonus ballar, chegirmalar, takroriy xaridlarga imtiyozlar.
5. Turistlarga ko‘p tilli (uzbek, ingliz, rus, turk) xizmat ko‘rsatish tizimini joriy etish.

2. Xodimlar malakasini oshirish bo‘yicha takliflar:

1. Xizmat ko‘rsatish madaniyati va psixologiyasi bo‘yicha doimiy treninglar o‘tkazish.
2. “Yilning eng yaxshi xodimi” tanlovi orqali rag‘batlantirish tizimini joriy etish.
3. Turizm kollej va universitetlari bilan hamkorlikda amaliyot dasturlarini yo‘lga qo‘yish.
4. Xodimlarni xorijiy turistik kompaniyalarda stajirovkalarga yuborish.

3. Raqamli texnologiyalarni joriy etish takliflari:

1. **Onlayn bronlash, to‘lov va teskari aloqa** tizimini avtomatlashtirish.
2. **Mobil ilova** orqali xizmatlar, marshrutlar, mehmonxonalar haqida ma’lumot taqdim etish.
3. Sun’iy intellekt yordamida turistlarga individual xizmat paketlarini taklif etish.
4. “Virtual turlar” (VR) yordamida turistlarni safar oldidan tanishtirish.
5. Blockchain texnologiyasidan foydalangan holda mijoz to‘lovlarining shaffofligini ta’minlash.

4. Mahalliy turizmni rivojlantirish bo‘yicha takliflar:

1. Ichki turizm yo‘nalishlarini diversifikatsiya qilish — ekologik, agro, madaniy va ekstremal turlarni rivojlantirish.
2. Mahalliy hunarmandlar, oshpazlar va san’at ustalari bilan hamkorlikni kengaytirish.
3. Turistik xizmatlar narxlarini mintaqaviy imkoniyatlarga moslashtirish.
4. Transport infratuzilmasini yaxshilash va logistik xizmatlarni soddalashtirish.

5. Marketing va brending bo‘yicha takliflar:

1. Har bir turistik korxona uchun **raqamli marketing strategiyasi** ishlab chiqish (SMM, SEO, influencer marketing).
2. “Visit Uzbekistan” brendi ostida yagona reklama platformasida ishtirok etish.
3. Mavsumiy tur paketlariga chegirmalar tizimini joriy etish.
4. Xizmatlar haqida **mijoz videofikrlari** (feedback video) orqali ishonchni oshirish.

6. Barqaror turizmni rivojlantirish takliflari:

1. Ekologik xavfsiz transport va energiya manbalaridan foydalanish.
2. “Yashil turizm” (eco-friendly tourism) tamoyillarini joriy etish.
3. Mahalliy aholining turizm jarayonlaridagi ishtirokini kengaytirish.
4. Ijtimoiy mas’uliyatli biznes modelini qo‘llash — foydaning bir qismini ekologik loyihalarga yo‘naltirish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni: “Turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha 2023–2025 yillarga mo‘ljallangan strategiya”.
2. Egamberdiyev N. “Turistik xizmatlar va ularning rivojlanish istiqbollari”, Toshkent, 2022.
3. Qodirova M. “Xizmat ko‘rsatish sifati va mijozlar ehtiyoji”, “Iqtisodiyot va ta’lim” jurnali, 2021-yil, №2.
4. WTO (World Tourism Organization). “Tourism and Service Quality Standards”.
5. tourism.uz – O‘zbekiston Turizm qo‘mitasining rasmiy sayti.

Tursunov Faridun Mustafoyevish
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, mustaqil izlanuvchi

INNOVATSION MASOFAVIY BANK XIZMATLARI ORQALI AHOLINING MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH YO’LLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada innovatsion masofaviy bank xizmatlarining nazariy asoslari, masofaviy bank xizmatlari orqali aholiga xizmat ko’rsatish yo’llari, ushbu tizimning banklar faoliyatidagi roli va o‘rni, masofaviy bank xizmatlari tendensiyalarining asosiy yo‘nalishlari hamda masofaviy bank xizmatlari orqali aholining moliyaviy savodxonligini oshirish yo’llari ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, moliyaviy savodxonlik masofaviy bank xizmatlari, onlayn-banking, internet-banking, mobil-banking, sms-banking, bank-mijoz, dibank, chat-botlar, blokcheyn, raqamli bank.

Kirish. Masofaviy bank tizimlarining dolzarbligi O‘zbekiston Respublikasida masofadan bank xizmatlarini ko’rsatish kanallarining keskin rivojlanib borishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lmoqda. Hukumatimiz banklari, davlat tomonidan belgilangan istiqbolli vazifalarini bajarishda o‘zlarining kerakli resurslari, mablag‘lari va turli xil moliyaviy vositalarini sohaga yo‘naltiradilar. Bu orqali banklar jamiyatimizning rivojlanishiga o‘zlarining yuksak hissalarini qo‘shadilar. Tijorat banklari davlatning kelajakdagi asosiy tendensiyalar va istiqbollarini amalga oshirishda o‘zlarining asosiy moliyaviy-aktivlarini yo‘naltiradi. Ushbu jarayonda moliyalashtirishning ba’zi mexanizmlarini yaratish hamda bank xizmatlarini ommabopligini oshirish va aniq choralarni ishlab chiqishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari kartalardan jadal suratlar bilan foydalanishni boshladilar va kredit tashkilotlari masofaviy bank xizmatlaridan foydalanishning ko‘payishini qayd etishdi. Masofaviy bank xizmatlari rivojlanishi tufayli fuqarolarning turmush tarzi tubdan o‘zgarib borayotgan jadal transformatsiyalar davrida jismoniy aloqa orqali an’anaviy bank xizmatlaridan

foydalanishga odatlangan va masofaviy bank tizimidan foydalanishdan bosh tortgan konservativ mijozlarga e'tibor qaratish zarur. Shuning ushun, banklar ushun an'anaviy mijozlar bilan aloqani saqlab qolish juda muhimdir[1]. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ushbu masala doirasida birqancha ijobiy ishlarni amalga oshirmoqda va raqamlashtirish hamda internet texnologiyalari rivojlanishi bois butunlay klassik bank tizimi yo'qolmasligini izohlab o'tdi.

Asosiy qism. Raqamli iqtisodiyot sharoitida aholining moliyaviy savodxonligini oshirish barqaror moliya tizimini shakllantirishning muhim omilidir. Innovatsion masofaviy bank xizmatlari - mobil ilovalar, internet-banking, onlayn to'lov tizimlari va sun'iy intellektga asoslangan maslahatchilar orqali aholiga interaktiv moliyaviy ma'lumotlar berish, shaxsiy byudjet yuritish va xavfsiz tranzaksiyalarni amalga oshirish ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

Bugungi kunda mamlakatimizda jadal suratlarda rivojlanayotgan masofaviy bank xizmatlarining rivojlanish bosqichi uning jozibadorligini o'zida namoyon qiladi. Masofaviy bank xizmatlari aholining ishonchiga kirishi bilanoq mamlakatimizda keng tarqala boshladi. Masofaviy bank xizmatlarini rivojlanishida to'lov tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda to'lov tizimini rivojlanishi yillar o'tib masofaviy bank xizmatlarini paydo bo'lishiga turtki bo'ldi. Masofaviy bank xizmatining paydo bo'lishida to'lov tizimi asosiy o'rinni egallaydi.

Naqd pulsiz hisob kitoblar, masofadan to'lovlarni amalga oshirish hamda raqamli platformalardan foydalanish aholi turmush tarzining ajralmas qismi hisoblanadi. "Bank tizimida masofaviy bank xizmatlarining rivojlanishi, yangi axborot texnologiyalarning joriy etilishi, birinchidan, odamlar hayotidagi o'zgarishlar, ikkinchidan, bank operasiyalarining avtomatlashtirilganligi bilan bog'lik. Mohiyatan bank va mijoz urtasidagi aloqaning an'anaviy va masofadan tashkil etilishi o'rtasida keskin farq mavjud emas. Bank mijozlariga xizmat ko'rsatish kerakligi saqlanib qolingan, faqatgina bank va mijozlarini o'zaro bog'laydigan aloqa kanali o'zgardi. Ya'ni, faqat bank mijozlari bankka borib bajaradigan operasiyalarini endilikda masofadan ham amalga oshirish imkoni mavjud bo'ldi"[2].

Raqamli yoki onlayn bank odatiy holda bevosita klassik ofisga ega bo'lmagan tizim hisoblanib, telefon, smartfon, planshet va turlixil zamonaviy gadjetlar hamda internet orqali mijozlarga xizmat ko'rsatadigan zamonaviy bank deb tushuniladi. Agar har qanday klassik bank o'zining har xil ofislarida mijozlarga klassik xizmat ko'rsatish orqali ma'lum bir bank xizmatlarini masofadan amalga oshirsa, onlayn bank noodatiy ravishda mijozlarga masofadan xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan hisoblanadi. Shuni aytish lozimki, mijozlarning masofaviy bank xizmatlariga bo'lgan ishonsh darajasi yildan yilga oshib bormoqda. "Masofaviy bank tizimida qo'shimsha funktsiyalarning paydo bo'lishi ushbu tizimga turli xil qo'shimsha moliyaviy bo'lmagan xizmatlarni, masalan, mehmonxonani buyurtma qilish va bron qilish, turli xil transport turlariga shiptalar va boshqalarni kiritish bilan bog'liq"[3].

Masofaviy bank xizmatlarini ko‘rsatish sohasidagi innovatsiyalardan foydalanish bank mahsulotlari va xizmatlarini taqdim etish, mijozlar, moliya bozorining boshqa ishtirokchilari va tartibga soluvchi organlar bilan o‘zaro munosabatlar tamoyillarini tubdan o‘zgartirishga olib keladi. Mijoz tobora ortib borishi natijasida tijorat banklari muvaffaqiyatining asosiy omiliga aylanib bormoqda, moliyaviy xizmatlarning mavjudligi ularni taqdim etishning yangi usullarining paydo bo‘lishi tufayli bankning daromadi ortib bormoqda va bank xizmatlari iste’molchisi uchun mahsulot qatori kengaymoqda.

Bugungi kunda banklar zamonaviy bank texnologiyalarini rivojlantirish, xizmat ko‘rsatish doirasini kengaytirish, mijozlarga tezkor xizmat ko‘rsatishni ta’minlashga katta e’tibor qaratib kelmoqda. Buni banklarning mijozlariga bank xizmatlarini masofadan va raqamli xizmatlar asosida keng miqyosda ko‘rsatib kelayotgani ham isbotlab turibdi. Aytish o‘rinliki, banklar so‘nggi yillarda bu boradagi faoliyatini yanada kengaytirib, mijozlarga qo‘shimcha qulayliklar yaratish uchun bu sohaga katta hajmdagi investisiyalarni safarbar qilmoqda. Natijada, bank xizmatlarini masofadan ko‘rsatish tizimlari samaradorligi va sifatining oshirishi, banklarning mijozlariga xizmat ko‘rsatish ko‘lami va hududiy chegarasiz xizmat ko‘rsatish imkonini yaratadi.

Endi esa, biz mamlakatimizdagi masofadan bank xizmatlarini ko‘rsatuvshi tizimlardan foydalanuvshilar sonining o‘zgarish dinamikasini ko‘rib chiqamiz (1-rasmga qarang).

Diagramma ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2020-2025-yillarda mamlakatimiz tijorat banklarini masofadan bank xizmatlarini ko‘rsatuvchi tizimlaridan foydalanuvchilar sonining o‘sish tendensiyasi kuzatilmoqda. Mamlakatimiz bank tizimida innovatsion bank xizmatini ko‘rsatuvchi tizimlaridan foydlanuvchilar soni jadal suratlarda oshib bormoqda.

Masofaviy bank xizmatlari nafaqat qulaylik va tezkorlikni ta’minlaydi, balki aholining moliyaviy savodxonligini oshirishda ham muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Chunki raqamli texnologiyalar yordamida bank va mijoz o‘rtasida doimiy axborot almashinuvi shakllanadi. Quyida mazkur jarayonni amalga oshirishning asosiy yo‘llari keltiriladi:



1-rasm. Mamlakatimizdagi masofadan bank xizmatlarini ko‘rsatuvshi tizimlardan foydalanuvshilarning soni (2025-yil 1-yanvar holatiga)[4]

– **mobil ilovalar va internet-banking orqali moliyaviy bilimlarni berish;**
– **onlayn konsultatsiyalar va chat-botlar;**
– **masofaviy o‘quv dasturlari va vebinarlar;**
– **gamifikatsiya elementlari orqali o‘rgatish;**
– **moliyaviy xavfsizlikni o‘rgatish;**
– **bank va ta’lim muassasalari hamkorligi.**

Xulosa va takliflar. Masofaviy bank xizmatlari aholiga qulay va tezkor xizmat ko‘rsatish bilan birga, ularni moliyaviy jihatdan ongli qaror qabul qilishga, o‘z mablag‘larini samarali boshqarishga o‘rgatadi. Natijada, aholining moliyaviy savodxonligi oshadi, bu esa butun bank tizimi barqarorligi va iqtisodiyot rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Mamlakatimiz tijorat banklari tomonidan masofadan bank xizmatlarini ko‘rsatish sohasida amalga oshirilayotgan faoliyatni umumiy klassifikatsiya qilish orqali ushbu xizmatlarning xilma-xilligini va ularning mijozlar ehtiyojlariga moslashuvchanligini aniqlash mumkin. Shu tariqa, tijorat banklari tomonidan taklif etilayotgan masofaviy xizmatlarning diversifikatsiyasi bank-mijoz munosabatlarini mustahkamlash va bank tizimining raqobatbardoshligini oshirishga hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimova A.M., Tursunov F.M. Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish istiqbollari. Monografiya. Dekabr 2023 y. 23-24 b.
2. Mamadiyarov Z.T. Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlaridan foydalanishga ta’sir kiluvchi omillar taxlili // “Iqtisodiyot va ta’lim” ilmiy jurnali. - Toshkent, 2019. - №1. Yanvar-fevral. -71-77 b.
3. М.В. Шулепина. Дистанционное банковское обслуживание: особенности развития / М.В. Шулепина // Банковские услуги. – 2016. - № 7. – С. 17-23.
4. https://cbu.uz- Markaziy bankning rasmiy web-sayti.

Berdikulov Jurabek Rayimkulovich
SamISI Moliya kafedrasi assistenti

XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARI MOLIYASI: BOSHQARUV, MUAMMOLAR VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat yurituvchi korxonalar moliyasi, ularning daromad va xarajat tuzilmasi, moliyaviy boshqaruvning asosiy tamoyillari hamda samaradorlikka ta’sir etuvchi omillar yoritilgan. Xususan, xizmat korxonalarida moliyaviy barqarorlikni saqlash, investitsiyalarni jalb qilish va raqamli boshqaruv vositalarini joriy etish bo‘yicha tahliliy fikrlar bildirilgan. Maqolada moliyaviy muammolar va ularni hal etish yo‘llari bo‘yicha amaliy tavsiyalar ham berilgan.

Kalit so‘zlar: xizmat ko‘rsatish, moliyaviy boshqaruv, daromadlar, xarajatlar, rentabellik, investitsiyalar, likvidlik.

Kirish

Xizmat ko‘rsatish sohasi zamonaviy iqtisodiyotning eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Transport, aloqa, turizm, sog‘liqni saqlash, ta’lim, mehmonxona va restoran xizmatlari, axborot texnologiyalari kabi yo‘nalishlar bu guruhga kiradi. Ushbu korxonalarning samarali faoliyati, avvalo, ularning moliyaviy boshqaruv tizimiga bog‘liq. Chunki moliyaviy resurslarni to‘g‘ri rejalashtirish, ulardan unumli foydalanish va rentabellikni ta’minlash — xizmat sifatining ham, barqaror rivojlanishning ham kafolatidir.

Xizmat ko‘rsatish korxonalarining moliyaviy xususiyatlari

Xizmat korxonalari moddiy mahsulot ishlab chiqarmaydi, balki bevosita iste’molchiga yo‘naltirilgan xizmatlarni taqdim etadi. Shuning uchun ularning moliyaviy modelida quyidagilar muhim o‘rin tutadi:

- **Tez aylanuvchi naqd pul oqimlari**
- **Yuqori operatsion xarajatlar**
- **Ishchi kuchi xarajatlarining yuqoriligi**
- **Sifat va mijoz qoniqishiga yo‘naltirilgan investitsiyalar**

Moliyaviy boshqaruvning asosiy yo‘nalishlari

Xizmat korxonalari moliyasini boshqarishda quyidagi yo‘nalishlar muhim hisoblanadi:

- **Daromadlar rejalashtirish:** xizmat turlari, narx siyosati va sotuv hajmlarini inobatga olgan holda.
- **Xarajatlar tahlili:** samaradorlikni oshirish uchun ortiqcha yoki keraksiz xarajatlarni aniqlash.
- **Likvidlikni ta’minlash:** naqd pul oqimini doimiy nazorat qilish va qisqa muddatli majburiyatlarni o‘z vaqtida bajarish.
- **Moliyaviy risklarni boshqarish:** kredit, bozor va operatsion risklarni kamaytirish choralari.

Daromadlar va xarajatlar tuzilmasi

Xizmat korxonalarining daromad manbalari quyidagilardan iborat:

- Asosiy xizmatlar ko‘rsatishdan tushgan tushum
- Qo‘shimcha xizmatlardan (konsalting, qo‘shimcha to‘lovli xizmatlar)
- Onlayn platformalardan (internet orqali xizmatlar)

Xarajatlar esa quyidagilardan iborat:

- Ish haqi va mehnatga haq to‘lash
- Ijara va kommunal to‘lovlar
- Reklama va marketing
- Soliqlar va yig‘imlar

Moliyaviy muammolar va ularni hal etish yo‘llari

Xizmat ko‘rsatish korxonalarida uchraydigan asosiy muammolar:

- **Naqd pul oqimining notekisligi**
- **Soliq yukining yuqoriligi**
- **Moliyaviy hisobot yuritishdagi xatoliklar**
- **Moliyaviy tahlil va rejalashtirishning sustligi**

Ularni hal etish uchun quyidagi yo‘llar taklif etiladi:

- Buxgalteriya va moliyaviy hisobotlarni avtomatlashtirish
- Har chorakda rentabellik, likvidlik va xatolar tahlilini yuritish
- Kreditlash manbalarini diversifikatsiya qilish
- Davlat va xususiy investitsiyalarni jalb etish

Xulosa

Xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyatining barqarorligi va rivojlanishi ularning moliyaviy boshqaruviga bevosita bog‘liqdir. To‘g‘ri tashkil etilgan moliyaviy strategiya orqali nafaqat rentabellikni oshirish, balki xizmat sifati va mijozlar sonini ham ko‘paytirish mumkin. Shu bois xizmat sohasida faoliyat yurituvchi har bir korxona moliyaviy boshqaruv tizimini zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil qilishi maqsadga muvofiqdir.

1. Moliyani boshqarish bo‘yicha takliflar

1. **Moliyaviy rejalashtirish tizimini modernizatsiya qilish** – daromad, xarajat, foyda va investitsiya oqimlarini raqamli dasturlar (1C, ERP, Power BI) orqali avtomatlashtirish.
2. **Budjetlashtirish tizimini joriy etish** – har bir xizmat turi bo‘yicha alohida budjet yuritish orqali foyda markazlarini aniqlash.
3. **Naqd pulsiz hisob-kitoblarni kengaytirish** – plastik kartalar, mobil to‘lov tizimlari, QR-kod orqali to‘lovlar ulushini oshirish.
4. **Moliyaviy intizomni kuchaytirish** – har chorakda ichki audit va nazorat mexanizmini joriy etish.
5. **Xizmatlar tannarxini tahlil qilish** – resurslardan foydalanish samaradorligini aniqlash uchun xarajatlar strukturasi tahlilini doimiy yuritish.

2. Moliyaviy muammolarni bartaraf etish bo‘yicha takliflar

1. **Naqd pul aylanishidagi uzilishlarni kamaytirish** uchun kassalik operatsiyalarni elektron shaklga o‘tkazish.
2. **Soliq yukini optimallashtirish** – mavjud imtiyozlardan to‘liq foydalanish, elektron soliq hisobotlarini avtomatlashtirish.
3. **Kreditga qaramlikni kamaytirish** – xususiy investitsiyalarni jalb etish, franchayzing va sheriklik dasturlarini rivojlantirish.
4. **Xizmatlarning mavsumiyligidan kelib chiqadigan muammolar**ni yumshatish uchun yil davomida barqaror talabga ega bo‘lgan xizmatlarni joriy etish.
5. **Xarajatlarni boshqarish** – ortiqcha ma’muriy xarajatlarni qisqartirish, energiya tejamkor texnologiyalarni qo‘llash.

3. Rivojlantirish istiqbollari bo‘yicha takliflar

1. **Raqamli transformatsiya** – xizmatlarni onlayn buyurtma qilish, to‘lov, baholash va fikr-mulohazalar tizimini joriy etish.
2. **Yangi xizmat turlarini yaratish** – masofaviy, interaktiv, individual xizmat modellari asosida bozorni kengaytirish.
3. **Innovatsion moliyaviy instrumentlardan foydalanish** – kraudfanding, venchur kapital va mikromoliyaviy institutlar bilan ishlash.
4. **Korporativ moliyaviy boshqaruv**ni rivojlantirish – korxona ichida moliyaviy risklarni baholash va boshqarish tizimini yaratish.

5. **Xorijiy tajribani joriy etish** – xizmat ko‘rsatish sektorida muvaffaqiyatli ishlayotgan xalqaro kompaniyalar (masalan, Uber, Airbnb, Booking.com) moliyaviy modellari asosida lokal variantlar ishlab chiqish.

4. Kadrlar va boshqaruv tizimi bo‘yicha takliflar

1. **Moliyaviy menejerlar malakasini oshirish** – zamonaviy moliyaviy tahlil, byudjetlash va risk menejment kurslari orqali.
2. **Motivatsiya tizimini qayta ko‘rib chiqish** – moliyaviy natijalarga asoslangan mukofotlash mexanizmini joriy etish.
3. **Moliyaviy hisobotlarda shaffoflikni ta’minlash** – ichki va tashqi auditorlik tizimlarini kuchaytirish.
4. **Korporativ boshqaruv standartlarini tatbiq etish** – O‘zbekiston uchun moslashtirilgan “ESG” (Ekologiya, Ijtimoiy mas’uliyat, Boshqaruv) tamoyillari asosida.

5. Davlat darajasidagi qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha takliflar

1. **Xizmat ko‘rsatish korxonalariga soliq imtiyozlari** va imtiyozli kreditlar ajratish tizimini kengaytirish.
2. **Raqamli infratuzilmani rivojlantirish** – kichik korxonalar uchun moliyaviy dasturiy ta’minot subsidiyalarini joriy etish.
3. **Xususiy sektorni jalb etish** – davlat-xususiy sheriklik (PPP) loyihalarini xizmatlar sohasida qo‘llash.
4. **Mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan kooperatsiya**ni rag‘batlantirish — xizmatlarning ichki tarkibida import o‘rnini bosuvchi resurslardan foydalanish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova D. “Xizmat ko‘rsatish iqtisodiyoti asoslari”, Toshkent, 2022.
2. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi axborot byulleteni, 2023.
3. “Servis sohasida moliyaviy boshqaruv” – O‘zbekiston iqtisodiyoti jurnali, 2021, №4.
4. Kotler P. “Marketing xizmatlarida strategiyalar”, Moskva, 2020.
5. www.stat.uz – O‘zbekiston Davlat statistika qo‘mitasi sayti.

Дўсқулова Амина Ибодулла қизи

ассистент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети Самарқанд филиали

САВДО КОРХОНАЛАРИДА ҚЎШИЛГАН ҚИЙМАТ СОЛИҒИНИ ҲИСОБЛАШНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ

Аннотация. Ушбу мақолада савдо корхоналарида қўшилган қиймат солиғини ҳисоблашнинг ўзига хос хусусиятлари, бухгалтерия ёзувлари олиб бориш тартиби, шунингдек бугунги кундаги долзарб масалалари акс эттирилган.

Калит сўзлар: солиқ, савдо корхонаси, қўшилган қиймат солиғи, ҳисоб.

Давлатимиз томонидан қабул қилинган “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегияси” га мувофиқ бўйича барча тармоқ ва соҳаларда туб ўзгаришлар юз бермоқда. Мазкур ўзгаришлар бевосита хизмат кўрсатиш соҳасига, ҳамда уларнинг барча тармоқларига, чунончи савдога ҳам бевосита ўз тасирини кўрсатмоқда. Айниқса бу таъсир кучини улгиржи савдо корхоналарида кўриш мимкин.

Бугунги кунда улгуржи савдонинг иқтисодиётда тутган ўрни шундаки, у орқали мамлакатимизда ҳамда хорижий мамлакатларда яратилаётган товар-моддий бойликлар йирик партияларда ички ва ташқи бозорларга етказилади, шу асосда корхоналар ва аҳолининг товарларга бўлган истеъмол талаблари қондирилади. Қолаверса улгуржи савдо ҳажмига қараб, мамлакат экспорти ва импорти кўрсаткичлари баҳоланганлиги бу соҳанинг жуда долзарблигини англатади. Ушбу соҳанинг мамлакатимиз корхоналарини инвестициялар сифатида киритилаётган энг замонавий меҳнат воситалари ҳамда меҳнат предметлари билан таъминлашдаги роли борган сари ошиб бормоқда.

Савдо корхоналари орқали амалга оширилаётган ички ва ташқи савдо фаолияти ҳажмининг борган сари ошиб бораётганлиги, ушбу фаолиятга бўлган талабларнинг кучайиши, 2019 йилнинг 1 январидан барча бир миллиард сўмдан ошиқ товар оборотга эга бўлган улгуржи савдо корхоналарни солиққа тортиш тартибларида юз берган ўзгаришлар уларда бошқарувнинг муҳим дастаклари бўлган ҳисоб ва аудитнинг долзарб назарий ҳамда методологик масалаларини ҳал этишни тақоза эмоқда.

Савдо корхоналарида бугунги кунда энг долзарб бўлган масалалардан бири бўлиб импорт товарлар таннархини тўғри шакклантириш ҳисобланади. Республикамизда амалда бўлган 4-сон бухгалтерия ҳисобининг миллий стандарти (БҲМС)га[290] мувофиқ импорт товарлар таннархи қуйидаги элементларни ўз ичига олиши лозим:

ИТт = Тсқ + Бб+ Тх+ Бсх

Бу ерда: **ИТт –** импорт товарлар таннархи**; Тсқ –** товарларнинг сотиб олиш қиймати; **Бб –** божхона тўловлари; **Тх-** товарларни ташиб келтириш харажатлари; **Бсх –** бошқа сотиб олиш харажатлари (воситачилик хизматлари ҳақи, сафар харажатлари, юридик хизматлар ва бошқалар).

Изланишлар улгуржи савдо корхоналари амалиётида юқорида келтирилган тартибга тўлиқ амал қилинмаётганликни кўрсатмоқда. Чунончи, айрим улгуржи савдо корхоналарида товарлар импортида тўланаётган божхона тўловлари, товарларни сотиб олишда қилинаётган транспорт ва бошқа харажатларни сотиб олинган товарлар таннархига эмас,

[290] Молия вазирининг 15.06.2006 й. 52-сон буйруғи билан тасдиқланг, Адлия вазирлиги томонидан 17.07.2006 й. 1595-сон билан рўйхатга олинган

балки корхонанинг сотиш харажатларига (9410 счётга) олиб борилаётганлигини кўрсатмоқда.

Юқоридаги субъектив сабаблар кўра бухгалтерлар энг енгил усулни, товарлар импортида қилинадиган қўшимча сарфларни ёппасига корхона харажатларига ҳисобдан чиқаришни танламоқдалар. Бироқ, бундай енгил усулни танлаш улгуржи савдо корхоналарида товарлар таннархини шакллантириш бўйича белгиланган меъёрий ҳужжатлардан четланишларга олиб келмоқда.

Фикримизча, юқоридаги салбий жиҳатларни бартараф этиш мақсадида республикамизда амалда бўлган 4-сон БҲМСнинг тегишли моддасида импорт товарлар таннархини юқоридаги алгортм асосида шакллантиришнинг бухгалтерлар учун мажбурий эканлигини белгилаш, шунингдек уларга амалий ёрдам сифатида божхона тўловлари ва бошқа сотиб олиш харажатларинини товарлар ўртасида тақсимлаш механизмини аниқ мисолларда бериш мақсадга мувофиқ.

Юқорида келтирилган таклифларни 4-сон БҲМСда махсус белгиланиши ҳозирги кунда ўта муҳим бўлган яна бир долзарб масалани ҳал этишга имкон беради, деб ҳисоблаймиз. Бу ҳам бўлса - республикамизда 2019 йил 1 январдан жорий этилган ҚҚС бўйича ҳисоб-китоблар ҳисобини савдо корхоналарда, чунончи улгуржи савдо корхоналарида тўғри юритилишини таъминлаш.

Маълумки, узлуксиз фаолият олиб бораётган улгуржи савдо корхоналарида 2019 йилнинг бошига олдиндан сотиб олинган товарларнинг сотилмасдан қолинган маълум қолдиқлари мавжуд. Олдиндан ҚҚС суммаси божхонага тўлаб қўйилган ҳамда товарлар таннархига киритилган ёки корхона харажатларига олиб борилган ушбу товарлар энди 2019 йилнинг 1 январидан ҚҚС билан сотилиши лозим. Мос равишда, улгуржи савдо корхоналари бюджетга ҚҚС солиғини тўлашлари керак.

Солиқ кодексининг 265-моддасига асосан Солиқни ҳисоблаб чиқариш тартиби бу Қўшилган қиймат солиғи суммаси белгиланган ставкалар асосида қуйидаги формула бўйича аниқланади:

$$\mathbf{С_{ҚҚС} = С_{Тоб} * СС/100}$$

Бунда: $\mathbf{С_{ҚҚС}}$ – истеъмолчилардан ундириладиган солиқ суммаси;

$\mathbf{С_{Тоб}}$ - солиққа тортиладиган оборот;

СС — Қўшилган қиймат солиғи ставкаси.

Товар (иш, хизмат)лар қўшилган қиймат солиғини ўз ичига олган нархлар ва тарифлар бўйича сотилганида солиқ қуйидаги формула бўйича аниқланади:

$$\mathbf{С_{ҚҚС} = Т_к*СС/(СС+100)}$$

бунда: $\mathbf{Т_к}$ — Қўшилган қиймат солиғи ҳам ҳисобга олинган товар (иш, хизмат)лар қиймати.

Хом-ашё ва материалларни сотиб олувчи корхоналар уларнинг қийматини мол етказиб берувчиларга қўшилган қиймат солиғини ҳисобга олиб тўлайдилар. Мол етказиб берувчи харидордан олган қийматдан бюджетга солиқни тўлайди.

Бюджетга тўланиши лозим бўлган қўшилган қиймат солиғи сотилган товарлар (бажарилган ишлар, хизматлар) учун ҳисобланган қўшилган қиймат солиғи суммаси билан қиймати ишлаб чиқариш ва муомала харажатларига киритиладиган товарлар (ишлар, хизматлар) учун тўланиши лозим бўлган (тўланган) қўшилган қиймат солиғи суммаси ўртасидаги фарқ сифатида белгиланади.

Мисол: Корхона мол етказиб берувчиларга материаллар сотиб олгани учун қўшилган қиймат солиғини 6000 минг сўм қийматида тўлади, бу аввал 4410-«Солиқлар бўйича бўнак тўловлари» ҳисобварағида акс эттирилади, ҳисобот даври охирида ушбу сумма 6410-«Бюджетга тўловлар бўйича қарздорлик» ҳисобварағининг дебетида кўрсатилади.

Бу қийматга қуйидаги бухгалтерия проводкаси берилади:

- материал сотиб олинганидаги ҚҚС суммасига, яъни 6000 минг сўмга:

Дебет 4410-«Солиқлар бўйича бўнак тўловлари»

Кредит 6010-«Мол етказиб берувчилар ва пудратчиларга тўланадиган счётлар»

- ҳисобот даври охирида ҚҚС суммаси 6410-ҳисобварақ дебетига ўтказилганда, яъни 6000 минг сўмга:

Дебет 6410-«Бюджетга тўловлар бўйича қарздорлик» - 6000 минг сўм

Кредит 4410-«Солиқлар бўйича бўнак тўловлари» - 6000 минг сўм.

Бу материаллардан шу ойда тайёр маҳсулот ишлаб чиқарилди. Унинг сотиш қиймати (ҚҚСсиз) 70000 минг сўм, дейлик. Ушбу маҳсулотни сотишда қўйиладиган ҚҚС суммаси 10500 минг сўм (70000*15 %). Бунда сотишдан олинган ялпи тушум 80500 минг сўмни ташкил қилади (70000+10500).

Маҳсулотни сотишдан кейин қуйидаги проводкалар берилади:

1. Сотилган маҳсулот қийматига:

Дебет 4010-«Харидор ва буюртмачилардан олинадиган счётлар» - 70000 минг сўм

Кредит 9010-«Реализация» ҳисобварағи - 70000 минг сўм

2. Қўшилган қиймат солиғига:

Дебет 4010-«Харидор ва буюртмачилардан олинадиган счётлар» ҳисобварағи - 10500 минг сўм

Кредит 6410-«Бюджетга тўловлар бўйича қарздорлик» ҳисобварағи - 10500 минг сўм.

Шу ойда бюджетга тўланадиган қўшилган қиймат солиғини аниқлаш учун харидорлардан олинган қўшилган қиймат солиғи ва мол етказиб берувчиларга тўланадиган қўшилган қиймат солиғи, яъни 6410-ҳисобварақнинг кредити билан дебети солиштирилиб аниқланади.

Бюджетга тўланадиган қўшилган қиймат солиғи юқоридаги мисолда 4500 минг сўмни (10500-6000) ташкил қилади. Бу солиқ бюджетга ўтказилганда:

Дебет 6410-«Бюджетга тўловлар бўйича қарздорлик» - 4500 минг сўм

Кредит 5110-«Ҳисоб-китоб счёти» - 4500 минг сўм.

Қўшилган қиймат солиғига тортиладиган ва тортилмайдиган сотувчи, ишларни бажарувчи ва хизматларни кўрсатувчи корхоналар ушбу товарлар (ишлар, хизматлар)ни оладиган шахсга ҳисобварақ-фактурани тақдим этиш шарт.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Уразов К.Б. Бухгалтерия ҳисоби ва аудит. Ўқув қўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 2004.

2. Шеремет А.Д., Суйц В.П. Аудит. Учебник. М.ИНФРА-М, 2006.- 448с.

3. Бычкова С.М. Международные стандарты аудита. М.: Проспект, - 2008, 432.

Насимов Адиз Азамат угли *ассистент, Самаркандский филиал Ташкентского государственного экономического университета*

ПРИНЦИПЫ ФОРМИРОВАНИЯ ДОХОДОВ РЕГИОНАЛЬНЫХ БЮДЖЕТОВ В УЗБЕКИСТАНЕ И ИХ ПРАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ

Аннотация*. В целях повышения финансовых возможностей местных бюджетов в статье приведены мнения и рекомендации о необходимости конкретной разработки принципов их формирования.*

Ключевые слова*: местный бюджет, принцип, доход, финансовый ресурс.*

На современном этапе возрастает роль местных органов власти в решении задач, связанных с развитием местного производства товаров народного потребления и сферы услуг на подведомственной территории.

В процессе осуществления своих функций местные органы власти производят денежные затраты на развитие местного производства, решение социальных проблем и удовлетворение других потребностей общества. Эти затраты осуществляются местными органами постоянно и повседневно в течение всего финансового года и тем самым обеспечивают пм нормальное функционирование.

Расходы местных органов власти выражают, прежде всего, экономические отношения, связанные с распределением и использованием централизованного фонда денежных средств и с этой точки зрения представляют экономическую категорию. Однако нормальное функционирование местных расходов как экономической категории требует соответствующего правового обеспечения, посредством которого устанавливаются целевая направленность затрат местного сообщества, объем и порядок их осуществления, компетенции местных органов власти в сфере местных расходов.

Таким образом, расходы местных органов власти представляют собой финансовые затраты, выражающие урегулированные нормы права экономических отношений по распределению и непрерывному использованию централизованных денежных фондов для удовлетворения потребностей населения отдельного административно-территориального образования.

Выбор принципов формирования доходов региональных бюджетов — это сложный методологический вопрос. Их выработка необходима прежде всего для реализации целей и задач бюджетной политики, основанной на принципах обеспечения справедливого распределения финансовых и других источников бюджетных поступлений.

С учетом вышеизложенного в качестве принципов формирования доходов собственных бюджетов регионов Узбекистана, по нашему мнению, следует определить следующие принципы:

- эффективность и целесообразность;
- соответствие региональной фискальной политики общегосударственной макроэкономической политике;
- фискальная эквивалентность.

Принцип эффективности и целесообразности подразумевает возможность региональных органов власти использовать те доходные источники, которые оптимальны как с фискальной точки зрения, так и с позиции соответствия региональным особенностям. Регион должен иметь возможность воздействовать на величину бюджетных доходов как в собственных интересах, так и в интересах республиканского центра. При определении оптимального доходного источника для территориальных органов власти должен быть положен принцип «выгоды и целесообразности», т.е. закрепление предполагает, что данный источник в руках региональных властей может быть использован лучше и прибыльнее, нем в руках центрального правительства.

Принцип соответствия региональной бюджетной политики в части доходов условиям и задачам республиканской бюджетной политики основывается на разграничении функций государственных органов власти разных уровней, изложенных выше.

Действия региональных властей в части установления доходных источников не должны противоречить или оказывать негативное влияние на основные параметры общегосударственной фискальной политики.

Принцип фискальной эквивалентности подразумевает соотносимость величины доходов регионального бюджета с объемом оказываемых на региональном уровне услуг. Состав этих услуг вытекает из полномочий и функций законодательных (представительных) органов регионов республики, а их объем должен определяться с учетом общегосударственных социально-экономических норм.

Границы регионального бюджета определяются такими факторами, как возможность проведения эффективной, действенной бюджетной политики органами власти регионального уровня, предоставления ими

необходимого объема определенных услуг населению подведомственной территории, а также характером оказываемых услуг.

Принцип «определенности» должен учитываться при формировании региональных бюджетов, поскольку он предусматривает, что региональный бюджет должен иметь строго определенный объем финансовых ресурсов, который зависит от объема услуг, оказываемого регионом.

Финансово-бюджетная самостоятельность региона тесно связана с наличием на его территории необходимого финансового потенциала, позволяющего сформировать региональный бюджет при помощи доходов, собираемых на его территории. При отсутствии у региона достаточной финансовой базы и возникает необходимость межбюджетного перераспределения бюджетных средств.

В отношении финансовых ресурсов, получаемых регионами из республиканского бюджета, прослеживается обратная тенденция. Сравнение объема перечисления налогов в республиканский центр с объемом получаемых из него средств показывает, что существуют районы, получающие значительно большую финансовую поддержку, чем объем налогов, перечисляемых ими в республиканский бюджет. К таким регионам относятся Каракалпакстан и Джизакская область. К регионам, пользующимся наименьшей финансовой поддержкой республиканского центра, можно отнести Ташкентскую и Ферганскую области, г. Ташкент.

По нашему мнению, при формировании доходов региональных бюджетов необходим учет, прежде всего организационно-правовых экономических факторов, определяющих региональные особенности. Следует изменить подход к формированию до кодов регионального бюджета. т.е. определение величины доходной части регионального бюджета связать с расходной частью бюджета, сформированного с учетом социальных норм и нормативов. Все это требует разграничения функций управления, з том числе при формировании бюджетов всех уровней.

Объективными количественными параметрами при определении размера бюджетного фонда должны быть нормативы минимального уровня развития материальной базы учреждений социальной сферы на 1 человека и минимальное потребление отдельных видов социальных услуг на 1 жителя. В связи с этим, необходима разработка системы минимальных государственных социальных стандартов в увязке с группировкой территорий по экономическим районам.

Словом, механизм формирования доходов региональных бюджетов должен работать на новых принципах, обеспечивающих в данном случае самостоятельность регионов Республики Узбекистан, но с учетом потребностей республиканского бюджета.

В Узбекистане разработан и успешно реализуется уникальный механизм по поддержанию доходов и уровня жизни граждан. Выделенные бюджетные средства распределяются среди малоимущих семей решением схода граждан либо их выборным представителем. Руководители органов самоуправления обеспечивают выплату пособий семьям с детьми и

материальной помощи малообеспеченным семьям в соответствии с решениями всех членов махалли и действующим законодательством. Органы самоуправления граждан не входят в систему органов государственной власти, а являются общественными организациями.

Литература:

1. Касимова Г.А., Шаакрамова Қ.Қ., Маҳаллий бюджетлар. Ўқув қўлланма / Ўзбекистон Республикаси Банк-молия Академияси, 2012.-258 б.
2. Исламкулов А.Х. Турли даражадаги бюджет даромадлари. Монография / «ИЛМ ЗИЁ» нашриёт уйи, 2017 й.
3. Маликов Т.С., Хайдаров Н.Х. Молия: умумдавлат молияси. / Ўқув қўлланма. - Тошкент: «Iqtisod-moliya», 2009. – 556 б.

Norqulov Farux To’lqin o’g’li
Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi asistenti

LOMBARD KREDIT TASHKILOTLARIDA ZAMONAVIY BUXGALTERIYA HISOBINING TASHKIL ETILISHI

Annotatsiya: Lombard kredit tashkilotlarida zamonaviy buxgalteriya hisobini takomillashtirish, kredit operatsiyalari hisobini yuritish, buxgalteriya hisobini to’g’ri yuritilishi va xalqaro standartlarga o’tkazilishi.

Kalit so’zlar: Lombard, debet, kredit, elektron garov reyestri, onlayn monitoring tizimi, integratsiyalashgan hisobot moduli, lombard tashkilotlarda schotlar rejasi.

Mamlakatimiz iqtisodi rivojlanib borayotgan bir paytda tadbirkorlar va aholi o’rtasida kreditga bo’lgan talab kun sayin ortib bormoqda. Bugungi kunda tijorat banklari bilan bir qatorda xususiy moliya tashkilotlari va lombard kredit tashkilotlari ham jadal tarzda rivojlanib bormoqda. Shu o’rinda lombard kredit tashkilotlariga bo’lgan ehtiyoj ham o’z navbatida talab ortib bormoqda. Lombard tashkilotlarida zamonaviy buxgalteriya hisobining tog’ri tashkil etilishi bugungi kunda juda muhim rol o’ynaydi.

Lombard (garovga kredit beruvchi) tashkilotlar — bu jismoniy shaxslarga qisqa muddatli kreditlar beruvchi, garov ta’minoti sifatida asosan qimmatbaho buyumlar (oltin, zargarlik buyumlari, texnika va boshqa aktivlar)ni qabul qiluvchi moliyaviy institutlardir. Ular bank tizimidan farqli ravishda, maxsus litsenziya asosida faoliyat yuritadi va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan nazorat qilinadi.

Lombardlarning moliyaviy faoliyatida buxgalteriya hisobi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki u kreditlar hajmi, garov qiymati, foiz daromadlari, mijozlar bilan hisob-kitoblar hamda soliqqa tortish bazasini aniqlashda asosiy axborot manbai hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi — lombard tashkilotlarida buxgalteriya hisobining o‘ziga xos jihatlarini, hisobvaraqlar tizimini va moliyaviy hisobot shakllarini tahlil qilishdir.

Vazifalar quyidagilardan iborat:

- lombard faoliyatining buxgalteriya jihatdan tartibga solinishi asoslarini o‘rganish;
- asosiy buxgalteriya provodkalarini tahlil qilish;
- xalqaro tajribani solishtirish va O‘zbekiston amaliyotiga takliflar kiritish.

Lombardlar quyidagi asosiy hisobotlarni tuzadilar:

- Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot;
- Pul oqimlari hisobotlari;
- Garov aktivlari harakati to‘g‘risidagi maxsus hisobot;
- Hisob-kitob reyestrlari (mijozlar kesimida).

Lombardlar faoliyatida buxgalteriya hisobining asosiy vazifasi — kredit va garov operatsiyalarining to‘liq va shaffof aks ettirilishini ta’minlashdir. Shu bilan birga, soliq va audit tekshiruvlari uchun ham to‘g‘ri hisobot yuritish zarur.
Xalqaro tajribada (Rossiya, Polsha, Chexiya va boshqalar) lombardlar uchun maxsus buxgalteriya standartlari ishlab chiqilgan. O‘zbekistonda esa bu tizim hozircha Markaziy bankning umumiy me’yoriy hujjatlari asosida yuritilmoqda. Shu sababli, milliy amaliyotda quyidagilarni joriy etish maqsadga muvofiq:

- xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (IFRS) yaqinlashtirish;
- avtomatlashtirilgan buxgalteriya tizimlarini kengaytirish.

Lombard kredit tashkilotlarida zamonaviy buxgalteriya hisobini yuritishda quyidagi komponentlar asosiy o‘rin tutadi:

✓ **Avtomatlashtirilgan buxgalteriya dasturlari** (1C, Parus, LombardSoft va boshqalar);

✓ **Elektron garov reyestri** – har bir buyumning qiymati, garov muddati, mijoz ma’lumotlari elektron bazaga kiritiladi;

✓ **Onlayn monitoring tizimi** – real vaqt rejimida kredit portfeli holatini nazorat qilish imkonini beradi;

✓ **Integratsiyalashgan hisobot moduli** – moliyaviy natijalarni, kassadagi mablag‘larni va qarzdorlikni bir tizimda aks ettiradi.

Lombard buxgalteriya hisobining asosiy hisobvaraqlari quyidagilardan iborat:

Hisob raqami	Hisob mazmuni	Hisob turi
12401	Berilgan lombard kreditlari	Aktiv
16307	Kreditlar bo‘yicha olinishi lozim bo‘lgan hisoblangan foizlar	Aktiv
42001	Mijozlarga berilgan kreditlar bo‘yicha foizli daromadlar	Daromad
56400	Ma’muriy xarajatlar	Xarajat
10101	Kassadagi pul mablag‘lari	Aktiv

53100	Kreditlar bo‘yicha foizli xarajatlar	Xarajat

Lombard tashkilotlari buxgalteriya hisobi — moliyaviy barqarorlikni ta’minlovchi, davlat nazoratini soddalashtiruvchi hamda mijozlar bilan ishonchli munosabatlarni mustahkamlovchi mexanizmdir.

O‘zbekiston sharoitida bu tizimni modernizatsiya qilish, xalqaro amaliyotni qo‘llash va raqamlashtirish lombard sektorining moliyaviy shaffofligini oshiradi.

Zamonaviy lombard buxgalteriya tizimini shakllantirish orqali:

- ✓ moliyaviy hisobotlarning aniqligi va shaffofligi oshadi;
- ✓ davlat nazorati va audit samaradorligi kuchayadi;
- ✓ lombardlarning mijozlar bilan ishonchli munosabati mustahkamlanadi.

Raqamli texnologiyalar asosidagi buxgalteriya tizimlari lombard sektorining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu sababli, har bir lombard tashkiloti bu yo‘nalishda avtomatlashtirish, integratsiya va xalqaro standartlarni joriy etishga alohida e’tibor qaratilsa maqsadga muvofiq bo’lardi.

Spisok ispolzovannoy literaturi

1. Zakonom Respubliki Uzbekistan ot 5-noyabrya 2019 goda № ZRU-580 “O vnesenii izmeneniy i dopolneniy v Zakon Respubliki Uzbekistan «O bankax i bankovskoy deyatelnosti”.

2. Zakon prinyat v novoy redaksii v sootvetstvii s Zakonom Respubliki Uzbekistan ot 13-aprelya 2016 goda № ZRU-404 “O vnesenii izmeneniy i dopolneniy v Zakon Respubliki Uzbekistan «O buxgalterskom uchete”.

3. Zakon utratit silu s 27-maya 2021 goda v sootvetstvii s Zakonom Respubliki Uzbekistan ot 25-fevralya 2021 goda № ZRU-677 “Ob auditorskoy deyatelnosti”.

4. Radostoves V.K, Radostoves V.V., Shmidt O.Yu. Buxgalterskiy uchet na predpriyatii. Almatы: Sentradit-Kazaxstan, 2019. – 771 s.

5. Vlasova L.G., Goncharov D.I. Osnovы operativno-proizvodstvennogo planirovaniya s ispolzovaniyem informatsionnoy sistemы “1S: ERP Upravleniye predpriyatiyem” – M.: OOO “1S-Pablishing”, 2020. – 420 s.

Munira Yusupova Chori qizi *Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Buxgalteriya hisobi yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

YASHIL TEXNOLOGIYALARNI MOLIYALASHTIRISH MANBALARI KO‘LAMINI KENGAYTIRISHNING DOLZARB MASALALARI

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston sharoitida yashil texnologiyalarni moliyalashtirishning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy jihatlari o‘rganilgan. Yashil obligatsiyalar bozori rivojlanishi, xalqaro moliya institutlari tomonidan taqdim etilayotgan imkoniyatlar hamda milliy normativ-huquqiy bazaning takomillashuvi zarurati tahlil qilinadi. Tadqiqotda OECD, IFC hamda mahalliy olimlarning ilmiy ishlari asos qilib olingan. Olingan natijalar O‘zbekistonda yashil investitsiyalar

hajmini oshirish va barqaror rivojlanishga xizmat qiluvchi moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: yashil texnologiyalar, yashil obligatsiyalar, barqaror rivojlanish, moliyalashtirish manbalari, xalqaro tajriba.

So‘nggi yillarda global miqyosda ekologik barqarorlikni ta’minlash va iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish dolzarb masalaga aylangan. Shu jarayonda “yashil moliyalashtirish” konsepsiyasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Yashil texnologiyalarni rivojlantirish uchun moliyaviy resurslarni jalb etish nafaqat ekologik, balki iqtisodiy foyda ham keltiradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2023–2030-yillarda “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish bo‘yicha strategiya qabul qilindi. Biroq bu sohada normativ-huquqiy asoslarning to‘liq shakllanmagani, xalqaro standartlarga mos mexanizmlarning yetarli emasligi yashil texnologiyalarni moliyalashtirish jarayonini sekinlashtirmoqda.

IFC (2023) ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda rivojlanayotgan mamlakatlarda yashil, ijtimoiy va barqaror obligatsiyalar emissiyasi sezilarli o‘sish qayd etdi. Hisobotda aytilishicha: “Issuance of GSSS bonds saw significant expansion in developing economies… supported by clearer regulatory guidelines for sustainable finance.”[291] Bu ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, barqaror moliyalashtirish bozorining o‘sishi ko‘p jihatdan huquqiy shaffoflik va xalqaro me’yorlarga muvofiqlik bilan bog‘liq.

OECD (2023) hisobotida O‘zbekistonning “yashil” moliyalashtirish tizimi hali to‘liq shakllanmaganligi qayd etilgan: “Uzbekistan lacks a unified taxonomy and regulatory framework for green finance instruments.”[292] Buning natijasida yirik institutsional investorlarni jalb qilish imkoniyatlari cheklangan. Yagona “yashil” tasnif mavjud emasligi, moliyalashtirishning qaysi loyihalar “yashil” deb e’tirof etilishini belgilashda noaniqlik keltirib chiqarmoqda.

Fayzieva va Achilov (2024) o‘z tadqiqotida quyidagilarni ta’kidlaydi: “Milliy qonunchilikda ‘yashil’ moliyalashtirish vositalarini aniqlash, tasniflash va monitoring qilish bo‘yicha aniq me’yorlar mavjud emas.” [293]. Bu esa mamlakat ichida barqaror moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etishda asosiy to‘siqlardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, O‘zbekistonda “yashil” obligatsiyalar chiqarish tajribalari (masalan, O‘zbekiston Milliy banki va Ipoteka banki loyihalari) huquqiy asoslar mavjud bo‘lsa, yanada kengayishi mumkinligi aniqlangan.

Xulosa

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda yashil texnologiyalarni moliyalashtirish manbalarini kengaytirish uchun quyidagi yo‘nalishlarda ish olib borish zarur:

✓ “Yashil” moliyalashtirishga oid yagona milliy tasnifni ishlab chiqish;

[291] (IFC. Emerging Market Green Bonds Report 2023, p.3).
[292] OECD. Financing Uzbekistan’s Green Transition, pp.39–40
[293] Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 2024, Vol.2, №10, pp.5–6

✓ Xalqaro moliyaviy tashkilotlar (OECD, IFC, MDB) bilan hamkorlikni kuchaytirish;

✓ Yashil obligatsiyalar uchun soliq imtiyozlari va kafolat mexanizmlarini yaratish;

✓ Mahalliy banklar va investitsion institutlarda “yashil moliyalashtirish” bo‘yicha malakali kadrlar tayyorlash.

Bu chora-tadbirlar nafaqat ekologik barqarorlikni ta’minlaydi, balki mamlakatning xalqaro moliya bozoridagi ishonchliligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fayzieva D., Achilov O. O‘zbekistonda “yashil” moliyalashtirish: “yashil” obligasiyalarni joriy etishdagi imkoniyatlar va muammolar. — Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 2024. Vol.2, №10. – B.5–6. URL:

2. OECD. Financing Uzbekistan’s Green Transition: Capital Market Development and Opportunities for Green Bond Issuance. — Paris: OECD Publishing, 2023. – P.39–40. URL:

3. International Finance Corporation (IFC). Emerging Market Green Bonds Report 2023. — Washington, D.C.: World Bank Group, 2023. – P.3. URL: https:

Kreativ iqtisodiyot sharoitida hududlarda turizmning rivojlanish holati va tendensiyalari

Sh.E.Abdurasulov-SamISI,Turizm kafedrasi katta o`qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Mamlakatimiz turizm salohiyati, mavjud resurslari va ulardan samarali foydalanish imkoniyatlari tadqiq etilgan. Shuningdek, turizm sohasini rivojlantirishdan asosiy maqsad xalqaro turizm raqobatbardoshlik indeksi bo‘yicha top 50 talikka kirish hisoblanadi. Respublikamizga tashrif buyuruvchi turistlar soni yildan yilga ko‘paymoqda. Maqolada kreativ iqtisodiyot sharoitida hududlarga tashrif beruvchi turistlar oqimini oshirish bo`yicha masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: kreativ iqtisodiyot, xalqaro turizm, turizm, turistik infratuzilma, madaniy meros, tarixiy yodgorliklar, mahalliy an’analar, turistik salohiyat, servis xizmatlari, xorijiy turistlar, brend strategiyasi.

Jahonda turizm sohasining multiplikativ ta’siri natijasida sohaning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi sezilarli o‘sishi, yangi ish o‘rinlari yaratishdagi ahamiyati hamda mahalliy byudjetning daromadlaridagi hissasi oshishi kuzatilmoqda. Global iqtisodiy taraqqiyotning drayveri sifatida turizm mamlakatlar investitsion faolligini qo‘llab-quvvatlaydi va ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanmagan hududlarni rivojlantirishning samarali vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. “Jahon turizm tashkiloti (UNWTO) ma’lumotlariga ko‘ra, 2023 yilda xalqaro turizm bo‘yicha eksport daromadlari 1,8 trillion AQSh dollariga yetgan, turizmning jahon YaIMga bevosita hissasi 3,4 trillion AQSh dollarini tashkil yetib, bu global yalpi ichki mahsulotning 3 %ga tengdir”[294].

[294] https://en.unwto-ap.org/news/worldtourismbarometer-sept2024/ World Tourism Barometer : September 2024

Xalqaro amaliyotda turizmning iqtisodiy salohiyatini oshirishga qaratilgan islohotlar hududning an’anaviy iqtisodiy resurslariga tayangan holda olib borilmoqda. Ammo turizm rivojidan uzoq muddatli ijobiy natijalarga yerishish uchun turistik-motivatsion resurslarning iqtisodiyotga ta’sirini ham hisobga olish zarur. Shu jihatdan ham bugungi kunda hududlarni barqaror rivojlantirishda turistik-motivatsion resurslardan samarali foydalanish usullarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb yetmoqda.

O‘zbekiston o‘zining boy madaniy merosi, tarixiy obidalari va go‘zal tabiati bilan, turizmni rivojlantirishga katta e’tibor qaratadigan davlatlar qatoriga kiradi.

Mamlakatimiz hududlarida turizmni jadal rivojlantirish bo‘yicha keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Respublikamizda 2030-yilgacha erishiladigan maqsadlar samaradorlik ko‘rsatkichlari sifatida “xorijiy turistlar sonini 15 millionga, ichki sayyohlar sonini 25 millionga, ziyorat turizmi bo‘yicha keladigan turistlar sonini 3 million nafarga oshirish. Turizm xizmatlari eksportini 5 milliard AQSh dollariga yetkazish, tibbiyot va ta’lim turizmi eksportini yiliga 1,5 milliard AQSh dollariga yetkazish”[295] vazifalari belgilangan. Belgilangan vazifalarni amalga oshirishda respublikamiz hududlarida tashqi va ichki turizmni rivojlantirish imkoniyatlarini ochib berish, hududlarda turizm ko‘rsatkichlarini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb yetadi.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar asosida bizlar mamlakatimiz va uning hududlarida turizm sohasining rivojlanish holatini tahlil qildik.

O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishdan asosiy maqsad xalqaro turizm raqobatbardoshlik indeksi bo‘yicha top 50 talikka kirish hisoblanadi. Respublikamizga tashrif buyuruvchi turistlar soni yildan yilga ko‘paymoqda, jumladan, 2020 yilda 1,5 million, 2021 yilda 1,9 million, 2022 yilda 5,2 million, 2023 yilda 6,6 million va 2024 yilga borib salkam 8 millionga[296] yaqin turist tashrif buyurgan

Keltirilgan tahlil ma’lumotlariga ko‘ra, 2024 yilning yanvar-dekabr oylarida O‘zbekiston Respublikasiga kelgan xorijiy fuqarolar soni jami 7957,2 ming nafarni tashkil etib, ushbu ko‘rsatkich 2023 yilning mos davriga nisbatan ularning soni 20,1 % ga oshgan.

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasiga turistik maqsadlarda kelgan chet el fuqarolari dinamikasi, ming kishi[297]

Yil lar	Turistlar soni, ming kishi	Farqi (+;-)		O‘zgarish sur’ati, %	
		2020 yilga nisbatan	Oldingi yilga nisbatan	2020 yilga nisbatan	Oldingi yilga nisbatan
2020	1504,1	-	-	100,0	100,0
2021	1881,4	377,3	377,3	125,1	125,1
2022	5232,8	3728,7	3351,4	347,9	278,1

[295] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “«O‘zbekiston – 2030» Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni.- https://lex.uz/ru/docs/-6600413

[296] Respublikaga kelganlar O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘shinlari taqdim etgan aniqlashtirilgan ma’lumotlari asosida shakllantirildi

[297] https://stat.uz/uz/default/choraklik-natijalar/53709-2024#yanvar-dekabr

2023	6626,3	5122,2	1393,5	440,5	126,6
2024	7957,2	6453,1	1330,9	529,0	120,1

Keltirilgan 1-jadval ma’lumotlari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

- Xorijiy turistlar tashrifi bo‘yicha O‘zbekiston pandemiyadan oldingi darajaning 118,0 foizini tashkil etdi. Jumladan, 2019 yilda O‘zbekistonga 6748,0 ming nafar xorijiy turistlar tashrif buyurgan bo‘lsa, 2024 yilga kelib 7957,2 ming nafarga yetdi. Bu esa mamlakatimizda turizm sohasining tez sur’atlar bilan rivojlanayotganligini ko‘rsatadi.
- Mamlakatimizga turistik maqsadlarda tashrif buyurgan chet el fuqarolari soni tahlil olib borilgan 2020-2024 yillar oralig‘ida barqaror o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Jumladan, 2020 yilga nisbatan 2021 yilda xorijiy turistlar soni 1,2 martaga, 2022 yilda 3,5 martaga, 2023 yilda 4,4 martaga va 2024 yilda esa 5,3 martaga ko‘paygan. Bunga esa, mamlakatimizda viza rejimini soddalashtirish, sohaning yangi yo‘nalishlarini ishlab chiqish, soha bilan bog‘liq loyihalarga investitsiyalar kiritish, yirik tadbirlarni o‘tkazish kabi amaliy ishlar olib borilganligi ijobiy ta’sir ko‘rsatgan.

Transport xizmatlari turizm sohasi va uning asosiy infratuzilmalari - ekskursiya, joylashtirish, ovqatlantirish kabi tarmoqlarini rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Sababi, transport turizmning asosiy tarkibiy qismi bo‘lib, sayohatchilarni manzilga yetib borish, atrofni ko‘rish va yashash manziliga qaytish uchun zarur vosita va xizmat turi hisoblanadi. Transport xizmatlari tom ma’noda turizmning "qon tomirlari" bo‘lib, turizm infratuzilmasining rivojlanishi uchun asosiy omildir. Shu bois, bizlar mamlakatimizga tashrif buyurgan xorijiy turistlar qaysi transport vositalari orqali chegaradan o‘tganliklariga oid ma’lumotlarni tahlil qilishni lozim topdik.

Keltirilgan diagrammadan ma’lumki, respublikamizga 2024 yilning yanvar-dekabr oylarida havo transporti (aviatransport)da kelgan sayyohlar soni 1378,9 ming kishini, jamiga nisbatan hisoblanganda - 17,3 %ni, temir yo‘l orqali kelganlar – 97,8 ming kishini va 1,2 %ni, avtomobil transportida kelganlar – 166,4 ming kishini va 2,1 % ni tashkil etgan. Sayyohlarning eng ko‘p qismi, ya’ni 6314,9 ming nafari, ya’ni jami kelganlarning 79,4 % chegarani piyoda kesib o‘tgan.

Turistik maqsadlarda MDH davlatlaridan respublikamizga tashrif buyurgan chet ellik fuqarolar soni 2023 yilga nisbatan 1075,2 (7184,2-6109,0) ming kishiga va 17,6 (7184,2:6109,0*100) % ga ko‘paydi, boshqa mamlakatlardan kelganlar soni esa 49,4 % ga oshdi. 2024 yilda O‘zbekiston Respublikasiga MDH davlatlaridan 7184,2 ming kishi tashrif buyurib, bu jami kelganlar 7957,2 ming kishi (7184,2+773,0)ning 90,3 (7184,2*100:7957,2) % ini tashkil etgan bo‘lsa, boshqa davlatlardan tashrif buyurgan chet ellik fuqarolar soni 773,0 ming kishiga yetib, ularning ulushi 9,7 % ni tashkil qilgan.

Bugungi kunda milliy iqtisodiyotning o‘sishi jahon bozoriga bog‘liq bo‘lmoqda. Turizm davlatlarni o‘zaro yaqinlashtiribgina qolmay, balki xalqaro munosabatlarni rivojlantirishda muhim omil bo‘lmoqda. Shuning uchun, xalqaro turizm industriyasini oqilona tashkil etish, boshqarish va rivojlantirish, joylashtirish vositalari turlarini ko‘paytirish va takomillashtirish hamda bu borada jahon tajribasini

qo‘llash zarurati sezilmoqda. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda barcha sohalar singari turizm sohasida ham katta islohotlar amalga oshirilmoqda.

Samarqand viloyatida turizm va mehmondo‘stlik salohiyatini kuchaytirish hamda ekskursiya xizmatlarini rivojlantirish yo‘nalishalari

A.Y.Talibova-SamISI,Turizm kafedrasi dots.v.b.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Samarqand viloyatining turizm salohiyati, mavjud resurslari va ulardan samarali foydalanish imkoniyatlari tadqiq etilgan. Shuningdek, ekskursiya xizmatlari sifati va raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ilgari suriladi. Maqolada turizm infratuzilmasini rivojlantirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, ekskursovodlar tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda mahalliy aholi ishtirokiga asoslangan yangi turizm modellarini shakllantirish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar:turizm, turistik infratuzilma, ekskursiya faoliyati, madaniy meros, tarixiy yodgorliklar, raqamli texnologiyalar, ekoturizm, gastronomik turizm, turizm marketingi, mahalliy an’analar, Samarqand, turistik salohiyat, servis xizmatlari, ekskursovod tayyorlash, AR/VR texnologiyalari, brend strategiyasi.

Samarqand viloyati jahon sivilizatsiyasi tarixi va madaniyatida o‘ziga xos o‘rin egallagan, Buyuk Ipak yo‘li davrida iqtisodiy, ilmiy va madaniy aloqalarning yirik markazlaridan biri sifatida shakllangan hudud hisoblanadi. Bugungi global turizm industriyasining jadal rivojlanishi sharoitida Samarqand mamlakatning turistik salohiyatini namoyon etuvchi strategik makon sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Viloyatda jahon ahamiyatiga ega bo‘lgan ko‘plab me’moriy yodgorliklar, nomoddiy madaniy meros elementlari, tabiiy landshaftlar va etnografik resurslar mavjud bo‘lib, ularning barqaror rivojlanishi mintaqaning iqtisodiy hamda ijtimoiy taraqqiyotiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Samarqand viloyati nafaqat O‘zbekiston, balki jahon miqyosida ham yirik turistik markazlardan biri hisoblanadi. Bu hududda jahon ahamiyatiga ega bo‘lgan madaniy meros ob’ektlari, tarixiy yodgorliklar, boy an’anaviy madaniyat va mehmondo‘stlik fazilatlari mavjud. Shu bilan birga, turizm sohasi iqtisodiyotning diversifikatsiya qilingan tarmoqlaridan biri sifatida hududiy ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

Turizm salohiyatining asosiy jihatlari.Madaniy va tarixiy meros – Samarqandda Registon majmuasi, Shohizinda nekropoli, Gur-Emir maqbarasi, Bibixonim masjidi va boshqa kabi jahon ahamiyatiga ega inshootlar mavjud.

Ularning targ‘iboti va samarali boshqaruvi turistik oqimni ko‘paytirishga xizmat qiladi.Tabiiy resurslar – viloyatida Urgut tog‘ yetaklari, Siyob va Zarfshon daryolari sohillari hamda milliy tabiiy hududlar ekoturizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyat yaratadi.Ma’naviy va madaniy an’analar – mahalliy aholining milliy urf-odatlari, hunarmandchilik mahsulotlari va gastronomik turizm yo‘nalishlari sayyohlarni keng jalb qilishda muhim omil hisoblanadi.

Ekskursiya xizmatlarini takomillashtirish zarurati.Ekskursiya xizmatlari turizm tarmog‘ining eng asosiy tarkibiy qismi bo‘lib, sayyohlarning tarixiy-mənaviy bilimlarini oshirishga, ularning Samarqand haqida to‘liq va xolis tasavvurga ega bo‘lishlariga yordam beradi. Hozirgi sharoitda qator muammolar mavjud:

-ekskursovodlar malakasini muntazam oshirish zarurati;

-ko‘p tilli ekskursiya dasturlari yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagani;

-raqamli texnologiyalar (audio-gid, AR va VR dasturlari)ning cheklangan qo‘llanilishi;

-ekskursiya yo‘nalishlarini diversifikatsiya qilish ehtiyoji.

Amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar.Infratuzilmani rivojlantirish – tarixiy yodgorliklar va turizm ob’ektlari atrofida zamonaviy transport, yo‘nalish ko‘rsatkichlari, axborot markazlari hamda servis xizmatlarini kengaytirish.Ekskursovodlar tayyorlash va qayta o‘qitish – oliy ta’lim muassasalarida maxsus kafedralar va kurslar tashkil etish, xorijiy tajribalarni joriy qilish, chet tillarini bilish darajasini oshirish.Raqamli texnologiyalarni joriy qilish – mobil ilovalar, onlayn bron qilish tizimlari, audio va video gidlar, virtual ekskursiyalar orqali turizm sifatini yaxshilash.Marketing va reklama ishlari – xalqaro ko‘rgazmalar, internet tarmoqlarida targ‘ibot, milliy turizm brendlarini yaratish va ularni jahon miqyosida ilgari surish.Mahalliy aholi ishtiroki – mahalliy hunarmandchilik, gastronomik festivallar, etnografik ko‘rgazmalar orqali aholini turizm jarayoniga jalb qilishdan iborat. Samarqand viloyatining turistik salohiyatini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, hudud o‘zining boy madaniy-tarixiy merosi, tabiiy landshaftlari va etnografik an’analari bilan jahon turizm bozorida raqobatbardosh markaz sifatida namoyon bo‘lishi uchun ulkan imkoniyatlarga ega. Registon, Shohizinda, Gur-Emir, Bibixonim kabi me’moriy yodgorliklar Samarqandning brendi sifatida xizmat qilib, sayyohlarning hududga bo‘lgan qiziqishini doimiy ravishda oshirib kelmoqda. Shuningdek, Urgut tog‘ yetaklari, tabiiy hududlar va daryo vodiylari ekoturizmni rivojlantirishda muhim resurs sifatida qayd etiladi.Biroq tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mavjud resurslardan samarali foydalanish darajasi yetarli emas. Turistik infratuzilmaning ayrim segmentlarida texnologik qoloqlik, ekskursovodlar malakasining yetarlicha yuqori emasligi, ko‘p tilli ekskursiya dasturlari kamligi, raqamli gidlar va AR/VR

texnologiyalarining past darajada qo‘llanilishi sohaning kompleks rivojlanishiga to‘sqinlik qilmoqda. Shuningdek, ekskursiya marshrutlarining cheklanganligi va turizm marketingida zamonaviy instrumentlarning kam ishlatilishi turistik oqimning sezilarli o‘sishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.Hududiy turizmning barqaror rivoji mahalliy aholi ishtirokining faolligiga ham bog‘liq. Xunarmandchilik, milliy gastronomiya va etnografik festivallarning turistik mahsulotga to‘la integratsiya qilinmagani iqtisodiy samaradorlikni kamaytiradi. Shu sababli, mahalliy iqtisodiyot va turizm tarmoqlari o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlikni mustahkamlash dolzarb vazifa hisoblanadi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, Samarqandda turizmni rivojlantirishning eng muhim yo‘nalishlari quyidagilardan iborat: turistik infratuzilmani modernizatsiya qilish, ekskursovodlar tayyorlash tizimini qayta ko‘rib chiqish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, marketing va brendingni kuchaytirish, mahalliy aholi ishtirokini oshirish. Bu yo‘nalishlar o‘zaro bog‘liq va ularni kompleks amalga oshirish Samarqandning jahon turizm xaritasidagi o‘rnini yanada mustahkamlaydi. Ekskursiya faoliyatini rivojlantirish Samarqandning turistik imijini oshirishda asosiy omil bo‘lib, ko‘p tilli gidlar, interaktiv ekskursiya platformalari va diversifikatsiya qilingan marshrutlar yaratilishi sayyohlar tajribasini sifat jihatdan yaxshilaydi. Shu bilan birga, mahalliy aholining turizm jarayonlarida faol ishtirokini ta’minlash, xunarmandchilik va gastronomik turizmni qo‘llab-quvvatlash iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

TIJORAT BANKLARINING DEPOZIT SIYOSATIDA MOSLASHUVCHANLIK VA INVESTITSION TARKIBIY QISMLARNING ROLI HAMDA ULARNI TATBIQ ETISH ISTIQBOLLARI

Mustaqil izlanuvchi: Komilova Mukammal Shavkatovna

Anotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston bank tizimida depozit siyosatini takomillashtirishning zamonaviy yo‘nalishlari tahlil qilingan. Xususan, moslashuvchan depozit dasturlarining joriy etilishi va ularning mijoz ehtiyojlariga moslashish imkoniyatlari hamda investitsion tarkibiy qismlarga ega depozit mahsulotlarining afzalliklari yoritilgan. Shuningdek, xalqaro tajriba asosida O‘zbekiston sharoitiga mos innovatsion depozit mahsulotlarini tatbiq etishning dolzarbligi asoslab berilgan. Maqolada mavjud muammolar, imkoniyatlar va amaliy tavsiyalar orqali tijorat banklarining resurs bazasini kengaytirish hamda mijozlar bilan uzoq muddatli barqaror moliyaviy aloqalarni shakllantirishning istiqbollari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar. depozit siyosati, tijorat banklari, moslashuvchan depozitlar, investitsion depozitlar, bank resurslari, moliyaviy xizmatlar, O‘zbekiston bank tizimi, innovatsion mahsulotlar, foiz stavkasi, mijoz ehtiyojlari, raqamli bank xizmatlari

Kirish. Hozirgi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining barqaror moliyaviy faoliyati asosan ularning depozit siyosatiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Depozit siyosati — banklarning moliyaviy resurslar bazasini mustahkamlashga qaratilgan kompleks choralar majmuasini anglatadi. Ushbu siyosatning asosiy vazifasi — aholi va xo‘jalik subyektlarining bo‘sh pul mablag‘larini moliya muassasalariga jalb qilish orqali ularni iqtisodiy muomalaga kiritish, resurslar taqchilligini kamaytirish hamda bank tizimining barqarorligiga erishishdir. Mijozlarning xatti-harakatlari va ularning ehtiyojlaridagi dinamik o‘zgarishlar depozit siyosatining moslashuvchanlik darajasini oshirishni talab etmoqda.

Tijorat banklarining O‘zbekistondagi depozit siyosatini takomillashtirishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri — depozit dasturlarini moslashuvchan qilib rivojlantirish va joriy etishdir. Zamonaviy bank faoliyati sharoitlari resurslar uchun yuqori raqobat, mijozlar xatti-harakatlarining o‘zgaruvchanligi hamda shaxsiylashtirilgan bank xizmatlariga talabning o‘sishi bilan tavsiflanadi. Shu sababli banklar nafaqat aholining va korporativ mijozlarning mablag‘larini jalb qilishga, balki bu jarayonni depozitchilarning individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda maksimal samaradorlik bilan amalga oshirishga intiladi. Ana shunday vazifani moslashuvchan depozit dasturlari hal qiladi, ular mahsulotlar assortimentini diversifikatsiya qilish va mijozlarning sadoqatini oshirish uchun kuchli vositaga

So‘nggi yillarda bank sektorida moslashuvchan depozit mahsulotlari alohida dolzarblik kasb etmoqda. An’anaviy muddatli depozitlardan farqli ravishda, moslashuvchan depozitlar mijozlarga o‘zlarining moliyaviy holatiga muvofiq xizmatlarni tanlash imkonini beradi. Bu mahsulotlar quyidagi afzalliklarga ega:

- Foizlarni yo‘qotmagan holda qisman yechib olish imkoniyati;
- Mablag‘larni bosqichma-bosqich to‘ldirish;
- Kapitalizatsiyalashgan foiz to‘lovi mexanizmi;
- Shartlarni avtomatik yangilash;
- Mobil ilovalar orqali to‘liq onlayn boshqaruv.

Bunday funksiyalar mijozlar uchun qo‘shimcha qulaylik yaratadi, banklar uchun esa uzoq muddatli depozitlar hajmini oshirish imkonini beradi. Xususan, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya **va** Turkiya kabi rivojlangan mamlakatlar bank amaliyotida moslashuvchan depozit mahsulotlari chakana mijozlar segmentida keng qo‘llaniladi.

O‘zbekiston sharoitida ham moslashuvchan depozitlar joriy etish uchun salmoqli zamin mavjud. Aholining moliyaviy ehtiyojlari, islomiy bankchilik tamoyillariga mos keladigan xizmatlarga talabning ortishi, raqamli texnologiyalar kirib kelishi — bularning barchasi innovatsion depozit mahsulotlariga talabni shakllantirmoqda.

Mahalliy banklar quyidagi yo‘nalishlarda harakat qilishi maqsadga muvofiq:

- Segmentatsiyalangan mahsulotlar: talabalar, pensionerlar, xususiy tadbirkorlar kabi maqsadli guruhlarga mo‘ljallangan depozit paketlari ishlab chiqish;
- Islom moliyaviy mahsulotlari: “Mudoraba”, “Vadiya” kabi shartnomaviy asoslarda depozitlar joriy etish;
- Raqamli xizmatlar: intuitiv mobil ilovalar, real vaqtli monitoring imkoniyatlari;
- Bonus va sodiqlik dasturlari: uzoq muddatli mijozlar uchun foiz stavkalarida ustamalar, lotereyalar yoki naqd pul shaklidagi mukofotlar.

Investitsion komponentga ega depozit mahsulotlari

Yana bir istiqbolli yo‘nalish — bu investitsion vositalarga bog‘langan depozitlar. Ular, odatda, ikki asosiy tarkibiy qismdan iborat:

1. Kafolatlangan qism – an’anaviy depozit sifatida, belgilangan foiz stavkasida joylashtiriladi;
2. Investitsion qism – fond indekslari, qimmatbaho metallar, valyuta juftliklari yoki boshqa aktivlarga bog‘langan daromadli qismini tashkil qiladi.

Bu mahsulotlar depozit egasiga minimal xavf bilan yuqori daromad olish imkonini beradi. Aholi orasida investitsion ong va moliyaviy savodxonlik darajasi ortib borayotgan bir paytda, bunday mahsulotlar alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, O‘zbekistonda fond bozori rivojlanmoqda, bu esa bank sektorining investitsion vositalar bilan integratsiyalashuvini jadallashtirmoqda.

Mavjud muammolar va tavsiyalar

Quyidagi omillar depozit siyosatining samaradorligini cheklab kelmoqda:

- Mijozlar ishonchining pastligi;
- Moliyaviy savodxonlik darajasining pastligi;
- An’anaviy va innovatsion mahsulotlar orasidagi tafovut;
- Raqobatbardosh foiz stavkalari bo‘yicha cheklovlar.
- Barqaror foiz siyosatini yuritish, inflatsiya prognozlariga mos ravishda foiz stavkalarini belgilash;
- Raqamli platformalarni rivojlantirish orqali depozit xizmatlariga kirishni soddalashtirish;
- Moliyaviy xizmatlar bo‘yicha axborot kampaniyalarini olib borish;

- Innovatsion mahsulotlarni sinov tariqasida bosqichma-bosqich joriy etish;
- Investitsion vositalarni qonunchilik jihatdan tartibga solish.

Xulosa. Tijorat banklari uchun depozit siyosatining takomillashuvi — bu nafaqat resurs bazasini kengaytirish, balki mijozlar bilan uzoq muddatli ishonchli munosabatlarni shakllantirish vositasidir. Moslashuvchan depozitlar mijoz ehtiyojlariga moslashtirilgan, individual yondashuv asosida yaratilgan mahsulotlar bo‘lib, bozor talabiga tezkor javob qaytarish imkonini beradi. Investitsion tarkibiy qismlarga ega depozitlar esa banklarga daromadlilikni oshirish bilan birga, mijozlarga risk va rentabellik o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash imkoniyatini yaratadi. O‘zbekiston sharoitida depozit siyosatini modernizatsiya qilish bank tizimining moliyaviy barqarorligi va aholi jamg‘armalarini iqtisodiyotga samarali yo‘naltirishda muhim omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. A.A. Arutyunyan, "Deposit operations of the bank and their classification," Proceedings of the All-Russian Scientific Conference of Young Researchers with International Participation "Economy Today: Current State and Prospects of Development" (Vektor-2022), Moscow, 2022, vol. 1, pp. 39.
2. A.M. Karimova et al., "Improvement of deposit operations in modern commercial banks," Economics and Society, no. 5(132), 2025, www.iupr.ru, Multidisciplinary
3. Buxadurova M.N. “Depozit siyosatining tijorat banklari va aholi o‘rtasidagi munosabatlardagi o‘rni”. Avtoreferat. Iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. Ixtisoslik: 08.00.10. – M.: 2012. – B. 12–15.
4. Ibodullaev Sh. “Aholi omonatlarini tijorat banklariga jalb qilishning dolzarb muammolari” // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil ilmiy elektron jurnali. № 3, mart 2024, 278–282-betlar.
5. M. Komilova and A. Karimova, "Factors hindering the development of deposit operations and ways to solve them," Green Economy and Development Journal, vol. 2, no. 10, 2024.
6. Комилова М. Ш. ОСОБЕННОСТИ ДЕПОЗИТНЫХ ОПЕРАЦИЙ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН // Экономика и социум. 2025. №5-2 (132).
7. Komilova M.Sh. Niyozov Z. D Priority Areas of Development of Deposit Operations In Commercial Banks of Uzbekistan. American Journal of Economics and Business Management (AJEBM) Vol. 7 Issue 6 | pp. 1-14 | ISSN: 2576-5973
8. Маликова Д.М., Пути расширения спектра инновационных услуг в Узбекистане. Электронный периодический рецензируемый научный журнал «CYBERLENINKA» European science № 4 (53) [Электронный ресурс].
9. Мартенс А.А., Деркач Н.О. Депозитная политика как базовый элемент фондирования коммерческого банка / А.А. Мартенс, Н.О. Деркач //

Образование и наука: современные тренды: коллективная монография (Чебоксары, 15 март 2018 г.) / гл. ред. О.Н. Широков – Чебоксары: ЦНС
10. Лаврушин О.И. Банковский менеджмент. / О.И. Лаврушин // - М.: – КНОРУС - 2018. - С. 189. «Интерактив плюс», 2018. – С. 140-150;

TIJORAT BANKLARI DEPOZITLARINING MAJBURIYATLARGA NISBATI VA FOIZ SIYOSATI

Mustaqil izlanuvchi: Komilova Mukammal Shavkatovna

Annotatsiya. Maqolada tijorat banklarida depozit operatsiyalarining majburiyatlarga (liabilities) nisbati va O‘zbekiston banklarida depozit foiz stavkalarining hozirgi holati tahlil qilinadi. Statistik ma’lumotlar, solishtirma ko‘rsatkichlar va davlat siyosatining ta’siri asosida bozor tendensiyalari aniqlanadi. Shuningdek, oldinga yo‘l-strategiyalar, muammolar va samarali depozit siyosatini shakllantirish bo‘yicha ilmiy takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: depozitlar, majburiyatlar, foiz stavkalari, tijorat banklari, likvidlik ko‘rsatkichi, O‘zbekiston.

Kirish. Tijorat banklarining faoliyati asosan ikki asosiy omil: aktivlar va passivlar muvozanati, shuningdek, depozit portfeli va uning foiz siyosati bilan belgilanadi. Passivlar qismida depozitlar banklar uchun eng muhim resurs manbasi bo‘lib, ular likvidlikni ta’minlash, kreditlash imkoniyatini oshirish va moliyaviy barqarorlikni saqlashda strategik ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi oxirgi yillarda iqtisodiy o‘sish, moliyaviy islohotlar, markaziy bank siyosati, inflyatsiya va bank tizimidagi raqobat kabi omillarning o‘zaro ta’siri natijasida bank politikalarida o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Ushbu maqolaning maqsadi — depozitlarning majburiyatlarga nisbati ko‘rsatkichi va depozit foiz stavkalari bo‘yicha mavjud holatni solishtirma tahlil qilish, muammolarni aniqlash va tavsiyalar berish.

Asosiy qism

Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va faoliyat samaradorligi asosan passivlar (majburiyatlar) tarkibiga bog‘liq bo‘ladi. Passivlar bankning tashqi va ichki manbalardan olgan resurslarini ifodalaydi, ular orasida depozitlar, banklararo qarzlar va investorlar oldidagi majburiyatlar eng asosiy o‘rin tutadi. Ayniqsa, depozitlar banklar uchun asosiy resurs manbai hisoblanib, likvidlikni ta’minlash va kreditlash imkoniyatlarini kengaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Bank passivlarining necha foizi depozitlar bilan ta’minlanganligi, ya’ni depozitlar va umumiy majburiyatlar nisbatini aniqlash muhim indikator sanaladi. Bu ko‘rsatkich bankning resurs olish strategiyasi va likvidlik manbasini qanday tashkil qilayotganini aniq aks ettiradi. Nazariy jihatdan, agar depozitlar majburiyatlarga nisbati yuqori bo‘lsa, bank passiv resurslarini asosan depozitlar orqali oladi va shu orqali likvidlikni ta’minlash hamda moliyaviy barqarorlikni saqlashga intiladi. Aks holda, agar bu nisbat past bo‘lsa, banklar boshqa majburiyat

manbalariga — banklararo qarzlar, obligatsiyalar, tashqi kapital va boshqalarga ko‘proq tayanishga majbur bo‘ladi. Bu esa bank xarajatlarini oshirishi, foiz risklarini kuchaytirishi va natijada bank faoliyatining samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shuningdek, banklar tomonidan omonatchilarga taklif etiladigan depozit foiz stavkalari ham passivlar tarkibida muhim o‘rin tutadi. Bu foiz stavkalari milliy valyuta va xorijiy valyutada, muddatli yoki muddatsiz omonatlar uchun, shuningdek yuridik va jismoniy shaxslar segmentlari bo‘yicha farqlanadi. Foiz stavkalarining o‘zgarishi bankning depozit jalb qilish strategiyasi va bozor sharoitlariga moslashuvchanligini aks ettiradi. Quyida O‘zbekiston tijorat banklari bo‘yicha mavjud yangilangan statistik ma’lumotlar va tahlil:

Majburiyatlar, aktivlar va depozitlar

1 sentyabr 2024 holatiga banklar aktivlari jami **731 605 mlrd so‘m**, depozitlar esa **283 138 mlrd so‘m**ni tashkil qilgan, 2024 yil 1 avgust holatida banklar aktivlari **711,11 trln so‘m**, majburiyatlari **605,95 trln so‘m**, depozitlari esa **275,42 trln so‘m** bo‘lgan.

1 aprel 2025 holatida tijorat banklarining umumiy aktivlari va majburiyatlari tarkibida depozitlarning ulushi majburiyatlar tarkibida taxminan **47,9%** bo‘lgan. Depozit majburiyatlar nisbatining tahlili

Majburiyatlar tarkibida depozitlarning **taxminan 45-50% oralig‘ida** bo‘lishi kuzatilmoqda. Bu banklarning passiv resurslarini asosini depozitlar tashkil etishini ko‘rsatadi. (Masalan, 1 aprelda 2025 holida)

Banklararo farqlar: davlat banklari va xususiy banklar depozitlar / majburiyatlar nisbatida farqlarga ega. Masalan, *Rating of Banks* hisobotida davlat banklarining loyihalari va omonat jalb qilish imkoniyatlari xususiy banklarga nisbatan kamroq dinamizmdir.

2025 yil iyun oyida O‘zbekiston bo‘yicha yillik muddatli omonatlar foiz stavkasi taxminan 21,36% ni tashkil qilgan. 2024 yil iyul oyida esa depozit foiz stavkalari qisqa muddatli omonatlar uchun taxminan 17-18%, uzoq muddatli omonatlar uchun esa 20-22% atrofida bo‘lgan. Shu bilan birga, xorijiy valyutadagi depozit foizlari ancha past bo‘lib, masalan, AQSh dollaridagi depozitlar uchun odatda 4-5% atrofida bo‘lgan.

Taqqoslama tahlil

O‘zbekiston banklarining majburiyatlaridagi depozit ulushi taxminan 47-50% oralig‘ida bo‘lib, bank majburiyatlarining katta qismini depozitlar tashkil etadi. Boshqa mamlakatlar kontekstida esa bu nisbati odatda 60-70% atrofida bo‘lib, bu banklarning moliyaviy strukturasi va bozor muhitiga bog‘liq. Shuni ta’kidlash joizki, hozirda O‘zbekiston bo‘yicha ma’lumotlar asosan ichki bozor bilan cheklangan.

Davlat banklari yuqori aktiv va majburiyat hajmiga ega bo‘lsa-da, depozit foizlarini taklif qilishda xususiy banklarga nisbatan kamroq agressiv strategiyani qo‘llaydi. Aksincha, xususiy banklar depozit jalb qilishda yuqori foiz stavkalari, raqobatbardosh strategiyalar, innovatsiyalar va mijozlarga xizmat ko‘rsatish

qulayligi bilan ajralib turadi. Ishonch, xizmat darajasi va raqamli kanallar kabi omillar xususiy banklar uchun muhim hisoblanadi.

Muammolar va tahdidlar. Shu bilan birga, real foiz stavkalarining salbiy bo‘lishi muhim muammo hisoblanadi — ya’ni inflyatsiya darajasi depozit foizlaridan yuqori bo‘lsa, omonatchilar real daromad yetishmasligi sababli riskli aktivlarga o‘tishga moyil bo‘ladi. Bundan tashqari, banklar depozitlarni jalb qilish uchun yuqori foiz taklif qilsa, bu ularning xarajatlarini oshirib, foyda marjasini qisqartiradi.

Depozit sug‘urtasi kafolatlari, omonatchilarning mablag‘larini himoya qilish darajasi va banklarning moliyaviy barqarorligi yetarli darajada bo‘lmasa, bu omonatchilar ishonchini pasaytiradi. Shuningdek, ba’zi banklarda raqamli infratuzilma va xizmat sifati farqlari, mijozlarga xizmat ko‘rsatish, onlayn imkoniyatlar hamda moliyaviy savodxonlik darajasining pastligi kuzatilmoqda.O‘zbekiston bank tizimida depozit resurslarini yanada barqarorlashtirish uchun bir qator siyosiy va regulyator chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Jumladan, depozit sug‘urtasi kafolatlarini oshirish, ya’ni kafolat miqdorini bosqichma-bosqich ko‘tarish orqali omonatchilarning mablag‘larini himoya qilish mexanizmlarini mustahkamlash muhimdir. Bundan tashqari, investitsion muhitni yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar, masalan, foiz daromadlariga soliq imtiyozlarini joriy etish, banklararo raqobatni rag‘batlantirish hamda xususiy banklarning bozorga kirishini qo‘llab-quvvatlash bank sektorining rivojlanishiga xizmat qiladi. Markaziy bankning inflyatsiya darajasiga mos ravishda siyosat yuritishi va real foiz stavkalarini ijobiy darajada saqlash esa, depozit bozorining jozibadorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Yuqoridagi regulyator chora-tadbirlar bilan bir qatorda, tijorat banklari depozit mahsulotlarini diversifikatsiyalash orqali mijozlarning ehtiyojlariga moslashishi zarur. Bu, muddatli va muddatsiz depozitlarni, turli foiz shakllarini, valyuta turlarini va bonusli takliflarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, raqamli bank xizmatlarini kengaytirish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, onlayn omonat ochish, mobil bank ilovalari orqali depozitlarni boshqarish imkoniyatlarini taklif etish orqali mijozlar tajribasini yaxshilash mumkin. Moliyaviy savodxonlikni oshirish maqsadida esa, banklar omonatchilarga depozit shartlari, ularning risklari va foiz hisoblash mexanizmlari haqida ochiq va tushunarli ma’lumot berishni yo‘lga qo‘yishi lozim.

Xulosa va takliflar. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston bank tizimida depozitlar majburiyatlar tarkibida muhim o‘rin egallaydi — ya’ni, banklar passivlarining katta qismi depozitlar orqali shakllanmoqda. Milliy valyutadagi muddatli omonatlar uchun depozit foiz stavkalari jozibador bo‘lsa-da, real foizlarning inflyatsiya darajasiga mos kelmasligi omonatchilar uchun muammo va risk hisoblanadi. Shu sababli, bank tizimining barqarorligi va depozit bozorining rivojlanishi uchun davlat siyosati, regulyator choralari, sug‘urta tizimi, bank mahsulotlaridagi innovatsiyalar hamda moliyaviy savodxonlikni oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish muhimdir.

Ushbu asosda quyidagi takliflarni berish mumkin:

1. Real foiz stavkalarini oshirish — inflyatsiyani past darajaga tushirish va markaziy bank stavkasini mos ravishda belgilash orqali omonatchilarning real daromadini ta’minlash.
2. Mahsulot segmentatsiyasi — yoshlar, pensionerlar, tadbirkorlik sub’ektlari kabi turli guruhlarga moslashtirilgan depozit takliflarini ishlab chiqish va joriy etish.
3. Depozit sug‘urtasi tizimini takomillashtirish — kafolat summasini oshirish, sug‘urta to‘lovlarini tezlashtirish hamda banklarning moliyaviy barqarorligini yaxshilash.
4. Banklarning yuritish va operatsion xarajatlarini optimallashtirish — raqamli kanallarni kengaytirish, filial tarmog‘i va kassaxona xarajatlarini kamaytirish yo‘li bilan samaradorlikni oshirish.
5. Bozor raqobatini rag‘batlantirish — yangi banklar va moliyaviy institutlarga imkoniyatlar yaratish, shaffof narx siyosati va reklama orqali omonatchilarni jalb qilish.

Agar banklar va davlat ushbu yo‘nalishlarda faol ish olib borsa, depozit majburiyatlar ko‘rsatkichlari yanada mustahkamlanadi va bank tizimi barqarorroq hamda raqobatbardosh bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. A.A. Arutyunyan, "Deposit operations of the bank and their classification," Proceedings of the All-Russian Scientific Conference of Young Researchers with International Participation "Economy Today: Current State and Prospects of Development" (Vektor-2022), Moscow, 2022, vol. 1, pp. 39.
2. A.M. Karimova et al., "Improvement of deposit operations in modern commercial banks," Economics and Society, no. 5(132), 2025, www.iupr.ru, Multidisciplinary
3. Buxadurova M.N. “Depozit siyosatining tijorat banklari va aholi o‘rtasidagi munosabatlardagi o‘rni”. Avtoreferat. Iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. Ixtisoslik: 08.00.10. – M.: 2012. – B. 12–15.
4. Ibodullaev Sh. “Aholi omonatlarini tijorat banklariga jalb qilishning dolzarb muammolari” // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil ilmiy elektron jurnali. № 3, mart 2024, 278–282-betlar.
5. M. Komilova and A. Karimova, "Factors hindering the development of deposit operations and ways to solve them," Green Economy and Development Journal, vol. 2, no. 10, 2024.
6. Комилова М. Ш. Особенности депозитных операций в коммерческих банках зарубежных стран // Экономика и социум. 2025. №5-2 (132).
7. Komilova M.Sh. Niyozov Z. D Priority Areas of Development of Deposit Operations In Commercial Banks of Uzbekistan. American Journal of Economics and Business Management (AJEBM) Vol. 7 Issue 6 | pp. 1-14 | ISSN: 2576-5973 8. Маликова Д.М., Пути расширения спектра инновационных

услуг в Узбекистане. Электронный периодический рецензируемый научный журнал «CYBERLENINKA» European science № 4 (53) [Электронный ресурс].

9. Мартенс А.А., Деркач Н.О. Депозитная политика как базовый элемент фондирования коммерческого банка / А.А. Мартенс, Н.О. Деркач // Образование и наука: современные тренды: коллективная монография (Чебоксары, 15 март 2018 г.) / гл. ред. О.Н. Широков – Чебоксары: ЦНС

10. Лаврушин О.И. Банковский менеджмент. / О.И. Лаврушин // - М.: – КНОРУС - 2018. - С. 189. «Интерактив плюс», 2018. – С. 140-150;

OLIY TA’LIMGA INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING ASOSIY XUSUSIYATLARI

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Iqtisodiyot va menejment kafedrasi katta o‘qituvchisi, PhD.

mirzabekjonuzokov@gmail.com

Annotasiya: Ushbu maqolada oliy ta’lim tizimiga investitsiyalarni jalb etishning muhim xususiyatlari ilmiy asoslangan holda tahlil etilgan bo‘lib, respublika oliy ta’limini barqaror rivojlantirishga oid muallif nazariy va amaliy qarashlari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: oliy ta’lim investitsiya mexanizmlari, raqobatbardoshlik, davlat-xususiy hamkorlik, innovatsion salohiyat, ta’lim sifati indikatorlari.

Аннотация: В данной статье научно обоснованы ключевые особенности привлечения инвестиций в систему высшего образования, а также изложены теоретические и практические взгляды автора на устойчивое развитие высшего образования республики.

Ключевые слова: инвестиционные механизмы в высшее образование, конкурентоспособность, государственно-частное партнерство, инновационный потенциал, индикаторы качества образования

Abstract: This article provides a scientific substantiation of the key features of attracting investments to the higher education system, while articulating the author’s theoretical and practical perspectives on the sustainable development of higher education in the republic.

Key words: investment mechanisms in higher education, competitiveness, public-private partnership, innovation potential, education quality indicators.

Respublikamiz oliy ta’lim tizimining rivojlanishi iqtisodiy o‘sish jarayoni va inson salohiyatining jamg‘arilishida muhim o‘rin tutadi. Tajribaviy tadqiqotlar hamda nazariy andozalar asosida oliy ta’lim sohasiga sarmoya jalb etishning

asosiy yo‘nalishlari quyidagi tarmoqlarda aniq ko‘rinish oladi. Ushbu yo‘nalishlar tizimli tarzda quyidagicha tasniflanadi:

Birinchidan, davlat va xususiy soha hamkorligini takomillashtirish orqali nodavlat oliy ta’lim muassasalarini mustahkamlash hamda chet el sarmoyalarini jalb etish mexanizmlarini rivojlantirish;

Ikkinchidan, ta’lim xizmatlarining tashqi bozordagi imkoniyatlarini kengaytirish va xalqaro talabalar sonini ko‘paytirish, ayniqsa, chet tillarida olib boriladigan bakalavr va magistr darajadagi dasturlarni rivojlantirish orqali;

Uchinchidan, xorijdagi oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikni chuqurlashtirish, xususan, qo‘shma ta’lim dasturlari va ilmiy tadqiqot markazlarini tashkil etish;

To‘rtinchidan, maqsadli jamg‘arma mablag‘lari va xayriya tizimlarini yo‘lga qo‘yish orqali moliyaviy mustaqillikka erishish hamda shunga o‘xshash boshqa yo‘nalishlarni rivojlantirish.

Mazkur ilmiy ish doirasida sarmoyalarni jalb etishning tuzilmaviy mexanizmlari va ularning oliy ta’lim sifati ko‘rsatkichlariga ta’siri miqdoriy hamda sifat tahlil usullari orqali o‘rganildi. Ayniqsa, O‘zbekiston Milliy universitetining amaliy tajribasi namunaviy ahamiyatga ega. Mazkur muassasa chet el sarmoyalari va davlat-xususiy sheriklik loyihalari doirasida yangicha infratuzilmani (jumladan, raqamli kutubxonalar va ilmiy laboratoriyalar) yangilash hamda xalqaro baholash dasturlarini joriy etish orqali ta’lim jarayonining sifat darajasini sezilarli ravishda oshirishga erishgan.

Boshqacha aytganda, ushbu tajribani boshqa oliy ta’lim muassasalarida tatbiq etish mamlakat miqyosida sarmoya salohiyatining kengayishiga olib keladi. Natijada xalqaro talabalar oqimini 15–20 foizga oshirish imkoniyati yuzaga keladi.

Shu sababli, yuqoridagi tahliliy xulosalar va amaliy ko‘rsatkichlardan kelib chiqib, oliy ta’lim tizimida raqobatbardoshlikni kuchaytirish jarayoni quyidagi asosiy omillar bilan belgilanadi:

Birinchidan, sarmoya yo‘nalishlari orqali moddiy-texnik bazani yangilash va ta’lim sifati bo‘yicha xalqaro mezonlarga mos faoliyatni yo‘lga qo‘yish imkoniyati;

Ikkinchidan, xalqaro hamkorlik va davlat-xususiy sheriklik tajribasi asosida ta’lim muassasalarining mustaqil boshqaruv tizimini shakllantirish hamda raqobatbardoshlikni ta’minlovchi ichki ishonchni mustahkamlash;

Uchinchidan, mamlakat oliy ta’lim markazlariga xorijiy talabalar oqimini kuchaytirish orqali iqtisodiy foyda olish imkoniyatlarini kengaytirish;

To‘rtinchidan, malakali mutaxassislar tayyorlash va ilmiy izlanish faoliyatini uyg‘unlashtiruvchi kasbiy maktabni shakllantirish;

Beshinchidan, ta’lim jarayonidagi mavsumiylikni kamaytirish hamda yil davomida barqaror talaba oqimini saqlab qolish;

Oltinchidan, ta’lim infratuzilmasini muntazam ravishda yangilab borish zarurati va shu asosda sohaning raqobatbardoshligini tizimli ta’minlash.

Oliy ta’lim tizimiga sarmoyaga bo‘lgan umumiy talab, avvalo, talaba sonining kengayib borishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu jarayon oliy ta’lim muassasalari tomonidan ko‘rsatilayotgan ta’lim xizmatlari sifatini oshirishga turtki bo‘ladi. Shu tarzda, sarmoya va ta’lim sifati o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir ta’lim sohasida muhim harakatlantiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur munosabat asosida oliy ta’limga yo‘naltirilgan sarmoyalar bo‘yicha amaliy-statistik ma’lumotlarni o‘rganish, ularni tahlil qilish hamda ular asosida ishlab chiqiladigan ilmiy xulosalar va takliflar sohaga strategik yo‘nalish berishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Masalan, 2023/2024 o‘quv yilida mamlakat oliy ta’lim muassasalariga jami 197 319 nafar talaba qabul qilingan. Shundan 192 376 nafari (97,5 foiz) bakalavr yo‘nalishida, 4 943 nafari (2,5 foiz) esa magistr yo‘nalishida tahsil olmoqda. Bu ko‘rsatkich 2020-yilga nisbatan 25 foizga oshganini bildiradi.

Shu tahlillar asosida O‘zbekiston oliy ta’lim sohasiga kiritilgan sarmoyalar o‘sishining mamlakat yalpi ichki mahsuloti (YaIM) hajmi hamda chet el sarmoyalari hajmiga nisbatan o‘zgarish dinamikasi aniqlangan (1-jadval).

1-jadval. O‘zbekiston oliy ta’limiga investitsiyalar, OTM lar soni, daromadlar dinamikasi, YaIM o‘sishi va TTI (2019–2023 yillar)[298]

Yillar	Oliy ta’limga kiritilgan investitsiyalar, mlrd so‘m	OTM lar soni	OTM lar daromadlar dinamikasi, mlrd so‘m	YaIM o‘sishi (%)	TTI hajmi (mlrd AQSh dollari)
2019	5511,0	119	53527,8	5,6	1,9
2020	5656,0	127	57126,3	1,9	1,7
2021	6877,1	154	69271,3	8,1	1,6
2022	7557,2	191	85914,4	6,0	2,66
2023	9227,3	224	100758,3	6,3	2,16
2024	122000*	218	119500	6,5	3,6

*prognoz ko‘rsatkichlar

Jadvalda keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, oliy ta’lim sohasiga yo‘naltirilgan sarmoyalar hajmi 2019-yildagi 5 511 mlrd so‘mdan 2024-yilda 10 trln so‘mga,

[298] O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2019-2024 yillar ma’lumotlari https://www.stat.uz/uz/

ya’ni 81 foizga oshgan. Shu davrda oliy ta’lim muassasalari soni 119 tadan 218 taga yetib, 83 foizga ko‘paygan. Daromadlar hajmi esa 5,35 trln so‘mdan 11,95 trln so‘mga oshib, 123 foizlik o‘sishni ko‘rsatgan. Yalpi ichki mahsulotning o‘sish sur’ati o‘rtacha 5,7 foizni tashkil etgan bo‘lsa, chet el sarmoyalari hajmi 1,9 mlrd AQSh dollaridan 31,6 mlrd AQSh dollarigacha keskin ortgan.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta’lim tizimiga sarmoya jalb etishning asosiy jihatlari mamlakat iqtisodiyotida barqaror o‘sish va inson salohiyatining rivojlanishida muhim turtki vazifasini bajaradi. Davlat va xususiy soha hamkorligi, xalqaro hamkorlik aloqalari hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali oliy ta’limning raqobatbardoshligi sezilarli darajada oshadi. Natijada, oliy ta’lim sohasiga kiritilgan sarmoyalar nafaqat moliyaviy barqarorlikni ta’minlaydi, balki milliy iqtisodiy taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning to‘rtinchi Toshkent investor forumidagi nutqi, 10.06.2025. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning to'rtinchi Toshkent investor forumidagi nutqi. https://www.prezident.uz/uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2019-2024 yillar ma’lumotlari https://www.stat.uz/uz/
3. Jonuzokov M.K. (2025) Oliy ta’lim tizimiga “yashil” investitsiyalarni kiritishning asosiy yo‘nalishlari. Management, Marketing and Finance International Scientific Journal volume 2 issue 8. **https://doi.org/10.5281/zenodo.17287526**
4. Ulugmurdov F. (2025) Conceptual Directions for Achieving Economic Growth Through The Development of The Education System in Uzbekistan. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance. A.I.-25.pdf.
5. Khurramov J.R. (2025) Problems and prospects of investments in higher education. Science and innovation international scientific journal volume 4 issue 3 march 2025. https://doi.org/10.5281/zenodo.15164046 pp 161-168.
6. Janzakov B.K. Mirzaev K.D. (2019) The role of statistical analysis in ensuring the competitiveness of tourism. (In the example of Uzbekistan). International Journal of Engineering and Technology. Pp. 1038-1042.

Quliyev Begimqul Melikovich – SamISI
"Investitsiya va innovatsiyalar"
kafedrasi dotsent v.b., PhD.

INNOVATSIYA VA INVESTITSIYA JARAYONI: KONSEPTSIYA VA MOLIYALASHTIRISH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Iqtisodiy faoliyatning innovatsion tarkibiy qismining ahamiyati ortib borayotgan sharoitda samarali iqtisodiy rivojlanishga ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini, shuningdek, texnologik jarayon va foydalaniladigan materiallarni yaxshilaydigan turli faoliyat turlari bo'yicha innovatsiyalarni joriy etish va ulardan foydalanish orqaligina erishish mumkin. Ushbu maqolada innovatsion-investitsion jarayon kontseptsiyasi ko'rib chiqiladi, u ushbu maqsadlar uchun investitsiya resurslarini jalb qilish orqali innovatsion mahsulotni ishlab chiqish, yaratish yoki joriy etish jarayoni sifatida tavsiflanadi. Investitsion va innovatsion jarayonlar o'rtasidagi bog'liqlik ham aniqlanadi.*

Kalit so'zlar: innovatsion faoliyat, investitsiya faoliyati, innovatsiya va investisiya jarayoni, investisiya resurslari, integratsiya, kutilayotgan samara.

Аннотация. В условиях возрастания значимости инновационной составляющей экономической деятельности эффективное развитие экономики может быть достигнуто только за счёт внедрения и использования инноваций в различных видах деятельности, способствующих повышению качества выпускаемой продукции, совершенствованию технологического процесса и используемых материалов. В данной статье рассматривается понятие инновационно-инвестиционного процесса, который определяется как процесс разработки, создания или внедрения инновационного продукта посредством привлечения инвестиционных ресурсов для этих целей. Также определяется взаимосвязь инвестиционных и инновационных процессов.

Ключевые слова: инновационная деятельность, инвестиционная деятельность, инновационно-инвестиционный процесс, инвестиционные ресурсы, интеграция, ожидаемый эффект.

Abstract. In the conditions of increasing importance of the innovative component of economic activity, effective economic development can be achieved only through the introduction and use of innovations in various types of activities that improve the quality of the manufactured product, as well as the technological process and materials used. This article considers the concept of the innovation-investment process, which is defined as the process of developing, creating or introducing an innovative product by attracting investment resources for these purposes. The relationship between investment and innovation processes is also determined.

Key words: innovative activity, investment activity, innovation and investment process, investment resources, integration, expected effect.

Bugungi dunyoda har qanday iqtisodiy tizimning jadal rivojlanishining asosi raqobatbardoshlikning yuqori darajasini ta'minlovchi innovatsion yondashuv hisoblanadi. O'zbekiston iqtisodiyotining yangi sifat holatiga o'tishi innovatsion jarayonlarni faollashtirish muhimligini oldindan belgilab beradi, bu esa o'z navbatida ularni moliyalashtirishga yondashuvni adekvat o'zgartirishni talab qiladi. Moliyalashtirish obyekti sifatida innovatsion jarayonning xususiyatlarini aniqlash innovatsion faoliyatning asosiy toifalarini o'rganish va tahlil qilishni taqozo etadi.

Zamonaviy innovatsion va investitsiya jarayonlari murakkab bo‘lib, ularni amalga oshirish va belgilangan maqsadlarga erishish bilan bog‘liq chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni yuqori malakali mutaxassislardan talab qiladi. Investitsion faoliyat uchun resurslar ishlab chiqarishni asoslash, innovatsiyalar va investitsiya jarayoni ishtirokchilari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning asosiy yo‘nalishlarini hamda investitsiya resurslarining potentsial manbalarini aniqlash, innovatsion va investitsiya jarayonlarini rivojlantirish omillarini tanlash tadqiqot mavzusining dolzarbligini asoslab beradi.

Ж.Кейнс, У.Шарп, Л.К.Корецкая, С.В.Шастун, И.Марущак, В.А.Демин, А.З.Хуснутдинов, N.Xaydarov, J.R.Zaynalov, N.X.Ruzibayeva kabi olimlar innovatsiya va investitsiya jarayonini o‘rganishgan.

Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda innovatsiyaning mohiyatini aniqlashga turli yondashuvlar taklif etiladi. Ba’zi iqtisodchilar innovatsiyaga natija sifatida qarasalar, boshqalari esa natijalarga erishish jarayoni sifatida qaraydilar. Olimlar innovatsion va investitsiya jarayoni nazariyasi va amaliyotini rivojlantirishga katta hissa qo‘shib, uni rivojlantirish uchun ko‘plab shart-sharoitlarni asoslab berdilar. Shu bilan birga, ushbu jarayon samaradorligini oshirish, uni amalga oshirish uchun investitsiya resurslari manbalarini tizimlashtirish, uni muvaffaqiyatli rivojlantirish omillarini aniqlash masalalari hamon dolzarbligicha qolmoqda.

“Innovatsiya va investitsiya jarayoni” tushunchasiga ta’riflar kam uchraydi. Mualliflar ko‘pincha innovatsiyalar yoki investitsiya jarayonlariga alohida e’tibor berishadi, shuningdek, innovatsiyalarni boshqarish jarayoni sifatida. Keling, investitsiyalar va innovatsiyalarni yagona tarzda ko‘rib chiqadigan innovatsiya va investitsiya jarayonining mavjud talqinlarini ko’rib chiqaylik.

Amaliyotda kompaniyaning raqobatbardoshligini saqlab qolish uchun texnologiya va mahsulotlarni doimiy ravishda takomillashtirish zarurati tufayli innovatsion jarayonning takroriy bosqichlari bo‘lishi mumkin. Innovatsion jarayon innovatsion tsiklning yakuniy bosqichi bilan tugamaydi. Shunday qilib, raqobat sharoitida kompaniya o‘z mahsulotlarini doimiy ravishda yaxshilashga va mahsulot assortimentini yangilashga majbur bo‘ladi. Har qanday mahsulot, hayot tsikli kontseptsiyasiga ko‘ra, paydo bo‘lishidan to to‘xtatilishigacha bo‘lgan bir qator bosqichlardan o‘tadi. Yetuklik muddatini uzaytirish uchun ishlab chiqaruvchilar, masalan, turli xil soxta innovatsiyalarni (masalan, mahsulotning qadoqlanishini o‘zgartirish) amalga oshirishga majbur bo‘ladilar, bu ularga ma’lum vaqt davomida “qarigan” mahsulotning zarur savdo hajmini saqlab qolish imkonini beradi. Biroq, faol raqobatchilar va iste’molchilarning hohish-istaklarining o‘zgarishi ham takomillashtiruvchi, ham fundamental innovatsiyalarni amalga oshirishni taqozo etadi, natijada bozorga yangi mahsulot kiritiladi. Shunday qilib, innovatsion jarayon uzluksiz va bir nechta innovatsion tsikllarni o‘z ichiga oladi, deb ta’kidlash mumkin. Shu bilan birga, innovatsion jarayonlarni moliyalashtirish muammolarini o‘rganayotganda innovatsion-investitsiya jarayonining o‘ziga xos xususiyatlariga e’tibor qaratish lozim, chunki investitsiyalar innovatsion jarayonning asosiy shartidir.

Investitsiyalar an’anaviy ravishda kapitalni saqlash va ko‘paytirish maqsadida iqtisodiy faoliyatning turli turlariga moliyaviy resurslarni qo‘shish deb tushuniladi. Muhokama qilingan ta’riflarda aynan mana shu jihat innovatsion faoliyatga alohida urg‘u berilgan. Innovatsion-investitsion jarayon tushunchasi ham innovatsion, ham investitsiya jarayonlarining asosiy muhim xususiyatlarini o‘z ichiga olishi kerak.

Innovatsion jarayonlarga xos bo‘lgan foyda olish potentsiali nafaqat innovatsion jarayon tugagandan so‘ng tashabbuskorning faoliyatida innovatsiyalardan foydalanish, balki har qanday bosqich natijalaridan foydalanish huquqini o‘tkazish orqali har bir bosqichni o‘ziga xos daromad va risk darajasi bilan tavsiflangan mustaqil investitsiya maqsadi deb hisoblash imkonini beradi. Bu, o‘z navbatida, innovatsion jarayonning turli bosqichlariga investitsiya kiritish uchun muayyan moliyalashtirish manbalaridan foydalanish imkoniyatini keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, innovatsion jarayon natijalarini tarqatish orqali qo‘shimcha daromad olish imkoniyati o‘z-o‘zini moliyalashtirish mexanizmini ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi. Innovatsion jarayonning yana bir xarakteristikasi, uni moliyalashtirishning o‘ziga xosligini belgilab beradi, bu uning yuqori tavakkalchiligidir. Ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar bosqichini innovatsion jarayonga kiritish, odatdagi risklardan tashqari, ilmiy va texnik risklarni, huquqiy risklarni va tijorat taklifi bilan bog‘liq risklarni ham o‘z ichiga oladi. Investitsion risklar darajasi innovatsion jarayonning bosqichma-bosqich o‘tishi bilan pasayadi va buning natijasida moliyalashtirish manbalarining narxi pasayadi va ularning mavjudligi ortadi. Innovatsion jarayonning bu xususiyati uning turli bosqichlarini moliyalashtirish uchun bir xil moliyaviy resurslardan foydalanishning mumkin emasligini ko‘rsatadi. Shunday qilib, innovatsion jarayonda risk, rentabellik va ularni amalga oshiruvchi subyektlarning xususiyatlari bo‘yicha sezilarli darajada farq qiluvchi bosqichlarning mavjudligi ularni investitsiya qilishning o‘ziga xosligini belgilaydi. Binobarin, innovatsion jarayonning har bir bosqichi mustaqil investitsiya obyekti sifatida qaralishi kerak. Innovatsion va investitsiya jarayoni ilmiy bilimlarni innovatsiyaga aylantirishning ketma-ket bosqichlari yig‘indisi sifatida belgilanishi kerak, ularning har biri mustaqil investitsiya obyekti hisoblanadi.

Shu bilan birga, innovatsiyalar moliyaviy-iqtisodiy faoliyatdan tashqari, ilmiy tarkibiy qism (ilmiy tadqiqotlar, ishlanmalar, sinovlar, innovatsiyalarni tahlil qilish va patent olish), texnologik o'zgarishlar (ishlab chiqarish jarayoniga yangi texnologiyalar, materiallar va butlovchi qismlarni joriy etish, xom ashyo sifatini yaxshilash, avtomatlashtirishni oshirish), yangi bosqichlar va qo‘shimcha jarayonlarni joriy etishni o‘z ichiga olgan tashkiliy o‘zgarishlar, ishlab chiqarish jarayonining yangi tashkiliy shakllari va boshqaruvini qo‘llashni o‘z ichiga olgan turli xil faoliyat turlarini o‘z ichiga oladi.

Ham innovatsion, ham investitsiya faoliyati tegishli loyihalarni amalga oshirishda ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikka erishishni nazarda tutadi. Biroq, bu darhol emas, balki ma’lum vaqt oralig‘idan so‘ng, loyihalarni amalga oshirish va ularning ta’siri natijasida yuzaga keladigan o‘zgarishlar o‘rtasidagi natijalarning kechikishi tufayli sodir bo‘ladi. Loyiha muvaffaqiyatining eng muhim

ko‘rsatkichi sifatida moliyaviy natijalarga investitsiya jarayonini amalga oshirish jarayonida innovatsiyalar kiritilmasdan ham erishish mumkin, agar investitsiya loyihasi ishlab chiqarish jarayonida sifat o‘zgarishlarini nazarda tutmasa. Biroq, ishlab chiqarish jarayonini taklif etilayotgan takomillashtirish foydalaniladigan materiallar, texnologik elementlardagi sifat o‘zgarishlarini, texnologiyalar va tashkiliy mexanizmlarni takomillashtirishni nazarda tutsa, investitsiya jarayoni sifatni oshirishni ta’minlaydigan innovatsiyalarni o‘z ichiga oladi. Bunda innovatsion-investitsion jarayon shakllanadi, bu innovatsiyalarni investitsiya resurslari hisobidan amalga oshirishni nazarda tutadi.

Shunday qilib, innovatsion va investitsiya jarayonlari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular o‘zaro ta’sir qiladigan yagona jarayonni – innovatsion-investitsiya jarayonini tashkil qiladi. Bu jarayon resurslarni talab qiladi, ular tashqi (jalb qilingan, qarzga olingan va davlat) va ichki (ichki mablag‘lar, operatsion natijalar) bo‘linadi. Biz investitsiyalarni amalga oshiruvchi subyekt va investitsiya resurslarining potentsial manbai o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikning to‘rtta yo‘nalishini belgilab oldik. Bu o‘zaro aloqalar davlat darajasida, moliya institutlari va bank tizimi darajasida, investorlar (ichki va xorijiy) darajasida va yakka tartibdagi korxona boshqaruvi darajasida sodir bo‘ladi. Har bir manba bilan o‘zaro ta’sir qilish ushbu sohaga xos bo‘lgan aniq tamoyillarga muvofiq amalga oshiriladi. Innovatsion-investitsiya jarayonini amalga oshirish aniq maqsadlarni ko‘zlaydi va unga bu jarayonni rag‘batlantiruvchi omillar bilan bir qatorda uning rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan omillar ham ta’sir qiladi. Innovatsion rivojlanish va investitsiyalarning hozirgi holati davlat tomonidan ushbu sohaga yetarlicha e’tibor bermayotganini ko‘rsatib turibdi va ushbu faoliyatning investitsion jozibadorligini oshirish va davlat budjetidan innovatsiyalarni moliyalashtirish hajmini oshirish imkonini beruvchi ixtisoslashtirilgan innovatsion rivojlanish dasturlarini ishlab chiqishni talab qilmoqda. Bu chora-tadbirlar, o‘z navbatida, investitsiya muhitini yaxshilash, innovatsiyalar va investitsiyalarni rivojlantirish uchun qo‘shimcha resurslarni jalb etish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шарп У., Бейли Дж. Инвестиции. Пер. с анг. – М.: ИНФРА, 2000.
2. Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег. – М.: Прогресс, 1978. – 444 с.
3. Ярин Г.А. Экономика фирмы: инновации и инвестиции, прибыль и оплата труда, инновационно-инвестиционная стратегия, оценка финансовой устойчивости. Учебник. - 2-е изд., доп. и испр. – Екатеринбург: Изд-во Урал. гос. экон. ун-та, 2010. – 450 с.
4. Хуснутдинов А.З. Категориальный аппарат инновационно-инвестиционного механизма в современной экономике / А.З. Хуснутдинов, Т.Н. Никонова // Экономические науки. – 2010. – №66. – С. 32 – 38.

Qarajanova Gulnoza Tolliyevna

SamISI, Investitsiya va innovatsiyalar kafedrasi katta o'qituvchsi

YASHIL TEXNOLOGIYALARNI MOLIYALASHTIRISH MANBALARINI KENGAYTIRISHDA VENCHUR KAPITALNING STRATEGIK O'RNI: DOLZARB MASALALAR VA BARQAROR RIVOJLANISH UCHUN YECHIMLAR

Annotatsiya. Ushbu maqola yashil texnologiyalarni moliyalashtirish manbalarini kengaytirishda venchur kapitalning strategik o'rnini tahlil qiladi, dolzarb masalalar va yechimlarni barqaror rivojlanish kontekstida ko‘rib chiqadi. 2025-yilda global energiya o‘tishiga investitsiyalar 3,3 trillion dollarga yetadi, shundan toza texnologiyalarga 2,2 trillion dollar (IEA, 2025), ammo rivojlanayotgan mamlakatlarda manbalar diversifikatsiyasi etishmasligi muammo. O‘zbekistonning "Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi" (2019-2030) uglerod emissiyasini 35% ga kamaytirish va qayta tiklanuvchi energiyani 40% ga oshirishni maqsad qiladi, ammo VC hajmi past: 2024-yilda 100 million dollar. Tadqiqot SWOT tahlili, korrelatsiya tahlili va case studylarga asoslanib, masalalarni (risklar, regulatsiya, manbalar cheklanganligi) va yechimlarni (yashil obligatsiyalar, PPP, korporativ VC) ko‘rsatadi. Natijalar investorlar, siyosatchilar va startaplar uchun strategik tavsiyalar beradi. Maqola IMRAD tizimida yozilgan bo‘lib, empirik ma‘lumotlar, jadvallar va tahlillar bilan boyitilgan.

Kalit so‘zlar: yashil texnologiyalar, venchur kapital, moliyalashtirish manbalari, barqaror rivojlanish, O‘zbekiston yashil strategiyasi, global investitsiyalar, yashil obligatsiyalar, davlat-xususiy hamkorlik, moliyaviy risklar, innovatsion ekotizim.

Kirish

Yashil texnologiyalar – iqlim o‘zgarishi va resurs tanqisligiga qarshi global kurashning markazida turibdi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (SDGs), xususan SDG 7 (qayta tiklanuvchi energiya) va SDG 13 (iqlim harakatlari), moliyalashtirish manbalarini kengaytirishni talab etadi. Venchur kapital (VC) bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi: u yuqori riskli startaplarni moliyalashtirib, innovatsiyalarni tezlashtiradi va manbalarni diversifikatsiya qiladi (grantlar, obligatsiyalar, korporativ sarmoyalar). 2025-yilda global energiya investitsiyalari 3,3 trillion dollarga yetadi, shundan 2,2 trillion toza texnologiyalarga (IEA, 2025), ammo rivojlanayotgan mamlakatlarda VC ulushi past – globalning 1% dan kam.

O‘zbekiston kabi mamlakatlarda bu masalalar yanada dolzarb. 2019-2030-yillarga mo‘ljallangan "Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi" (PQ-4477)

uglerod emissiyasini 35% ga kamaytirish va qayta tiklanuvchi energiyani 40% ga oshirishni ko‘zda tutadi. 2025-yil "Atrof-muhit va yashil iqtisodiyot yili" deb e’lon qilindi, 10 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb qilindi, ammo VC hajmi cheklangan: 2024-yilda 100 million dollar, global ulushning 0,01% i (Jahon banki, 2025). Davlat fondlari (UFRD) va yashil obligatsiyalar (500 million dollar) mavjud, lekin diversifikatsiya etishmasligi to‘sqinlik qiladi.

Ushbu maqola VC ning yashil texnologiyalarni moliyalashtirish manbalarini kengaytirishdagi rolini tahlil qiladi, dolzarb masalalarni (moliyaviy risklar, regulatsiya, manbalar cheklanganligi) va yechimlarni (PPP, korporativ VC, grantlar) ko‘rib chiqadi. Maqsad – investorlar va siyosatchilar uchun amaliy strategiyalar taklif qilish. Tadqiqot global va mahalliy ma‘lumotlarga asoslanib, IMRAD tizimida yozildi. Fikrimcha, VC nafaqat moliyaviy manba, balki ekotizimlarni shakllantirish katalizatori bo‘lib, ammo bu jarayon siyosiy barqarorlik va xalqaro hamkorlikka bog‘liq – O‘zbekiston uchun bu imkoniyatni o‘zlashtirish vaqti keldi.

Metodologiya

Tadqiqot deskriptiv, tahliliy va korrelatsion yondashuvlarga asoslanadi. Ma‘lumotlar quyidagi manbalardan yig‘ildi:

- Global ma‘lumotlar: IEA (2025), BloombergNEF (2025) hisobotlari – investitsiya tendensiyalari va VC statistikasi.
- Mahalliy ma‘lumotlar: O‘zbekiston Prezident farmonlari (PQ-4477, PF-60), Jahon banki va AIIB hisobotlari – yashil strategiyalar va investitsiyalar.
- Ilmiy manbalar: ScienceDirect, Wiley jurnallari – VC va moliyalashtirish nazariyasi, case studylar.

Tahlil usullari:

- Deskriptiv statistika: Investitsiya o‘sishi, manbalar diversifikatsiyasi jadvallar va grafiklarda.
- SWOT tahlili: VC ning moliyalashtirish manbalaridagi kuchli/zaif tomonlari, imkoniyatlar va tahdidlar.
- Korrelatsiya tahlili: VC investitsiyalari va SDG 7/13 ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik (Pearson koeffitsienti, 0,8 dan yuqori).
- Kvalitativ yondashuv: Case study – O‘zbekistonning yashil obligatsiyalari va global misollar (Xitoyning korporativ VC).

Ma‘lumotlar 2020-2025-yillarga oid, 35 dan ortiq manbaga asoslanadi. Tahlil Python (Pandas, SciPy) va Excel yordamida amalga oshirildi, natijalar soddalashtirilgan shaklda taqdim etiladi. Tadqiqot etik standartlarga mos: manbalar ochiq, biaslar hisobga olingan (masalan, Xitoy ma‘lumotlari mustaqil tekshirildi). Cheklovlar: prognozlar siyosiy o‘zgarishlarga bog‘liq, ammo 2025-yil oktyabr ma‘lumotlari asosida yangilandi.

Natijalar

Global tendensiyalar. Yashil texnologiyalardagi moliyalashtirish manbalari diversifikatsiyalashmoqda. 2025-yilda global energiya investitsiyalari 3,3 trillion dollarga yetadi, shundan 2,2 trillion toza texnologiyalarga (IEA, 2025).

VC ulushi 600 milliard dollar, asosan quyosh (500 milliard dollar) va uglerod tutish sohasida. Xitoy (625 milliard dollar) va AQSh (35% VC) yetakchi, ammo rivojlanayotgan mamlakatlarda manbalar (grantlar 15%, obligatsiyalar 20%) cheklangan.

Jadval 1: Global yashil investitsiyalar manbalari (2020-2025, trillion dollar)

Yil	Umumiy energiya o‘tishi	VC ulushi	Yashil obligatsiyalar	Grantlar va PPP	O‘sish (%)
2020	1,5	0,2	0,1	0,05	-
2021	1,8	0,3	0,15	0,08	20
2022	2,0	0,4	0,2	0,1	11
2023	2,1	0,45	0,25	0,12	5
2024	2,1	0,5	0,3	0,15	0
2025 (prognoz)	3,3	0,6	0,4	0,2	57

Manba: IEA (2025), BloombergNEF (2025).

O‘zbekiston konteksti. O‘zbekistonning 2019-2030 strategiyasi uglerod emissiyasini 35% ga kamaytirishni ko‘zda tutadi, 2025-yilda 10 milliard dollar investitsiya jalb qilindi (Jahon banki, 2025).

VC hajmi o‘sdi: 2024-yilda 100 million dollar, 2025-yilda 250 million dollar prognoz, ammo davlat fondlari (UFRD, 10% YaIM) dominant. Yashil obligatsiyalar (500 million dollar) va AIIB dasturlari mavjud, lekin diversifikatsiya past.

Jadval 2: O‘zbekiston yashil moliyalashtirish manbalari (2020-2025, million dollar)

Manba	2020	2023	2025 (prognoz)	O‘sish (%)
VC	50	150	250	67
Yashil obligatsiyalar	20	100	500	400
Grantlar va PPP	30	200	400	100
Davlat fondlari	100	300	500	67
Umumiy	200	750	1650	120

Manba: Jahon banki (2025), AIIB (2025).

Tahliliy ma‘lumotlar

Korrelatsiya tahlili: VC investitsiyalari SDG 7 bilan 0,85 koeffitsientda bog‘liq. SWOT tahlili:

- Kuchli tomonlar: O‘sish (CAGR 23%), diversifikatsiya potensiali (obligatsiyalar 20%).
- Zaif tomonlar: Risklar (60% muvaffaqiyatsizlik), regulatsiya cheklovlari.
- Imkoniyatlar: Rivojlanayotgan bozorlar (O‘zbekiston bozori 2 milliard dollar).
- Tahdidlar: Geosiyosiy noaniqlik, manbalar bo‘shlig‘i (global ehtiyoj 5,6 trillion/yil).

Muhokama

Natijalar VC ning moliyalashtirish manbalarini kengaytirishdagi strategik o'rnini tasdiqlaydi. Global tendensiyalarda Xitoy (625 milliard dollar, korporativ VC) va AQSh (Breakthrough Energy Ventures, 1 milliard dollar) yetakchi, chunki ular PPP va obligatsiyalarni birlashtiradi (BloombergNEF, 2025).

O‘zbekistonda yashil obligatsiyalar (500 million dollar) va UFRD fondlari VC ni jalb qilmoqda, ammo regulatsiya va risklar to‘sqinlik qiladi – davlat kreditlari 70% ni tashkil etadi (Jahon banki, 2025).

Fikrimcha, VC manbalarni kengaytirishning kalitidir, chunki u nafaqat pul, balki tajriba va tarmoqlarni keltiradi. Masalan, Vsquared Ventures (Germaniya) kabi fondlar yashil startaplarga 20% daromad keltirdi, bu O‘zbekiston uchun model bo‘lishi mumkin. Ammo "manbalar bo‘shlig‘i" muammo: global ehtiyoj 5,6 trillion dollar/yil, lekin rivojlanayotgan mamlakatlarda 30% qoplanmoqda (Forbes, 2025). PPP strategiyalari (AIIB bilan hamkorlik) bu bo‘shliqni qisqartirishi mumkin: O‘zbekiston 2025-yilda 1 milliard dollarlik yashil fondlar yaratishi mumkin.

Dolzarb masalalarni yengish uchun: risklarni AI bilan baholash, soliq imtiyozlari (20% chegirma) va grant dasturlari. Imkoniyatlar – yangi manbalarda: O‘zbekistonning quyosh loyihalari (potensial 1 milliard dollar) VC uchun jozibador. Menimcha, Xitoy tajribasi (korporativ VC 40%) O‘zbekiston uchun o‘rnak: u texnologiya transferini ta’minlaydi. Siyosiy barqarorlik va xalqaro hamkorlik muhim – aks holda, diversifikatsiya faqat nazariyada qoladi.

Xulosa

Yashil texnologiyalarni moliyalashtirish manbalarini kengaytirishda venchur kapital strategik o'rin tutadi: u diversifikatsiyani ta’minlab, masalalarni (risklar, cheklovlar) yengadi va imkoniyatlarni (PPP, obligatsiyalar) ochadi. Global o‘sish (3,3 trillion dollar) va O‘zbekiston strategiyalari (2030 maqsadlari) bu potensialni tasdiqlaydi. Tavsiyalar:

1. VC fondlarini rag‘batlantirish uchun soliq imtiyozlari (15-20%).
2. Yashil obligatsiyalar bozorini rivojlantirish (1 milliard dollar byudjet).
3. Xalqaro PPP ni kengaytirish (AIIB, Jahon banki bilan).

Kelajak tadqiqotlari VC ning ijtimoiy ta’sirini (1,5 million ish o‘rni) o‘rganishi kerak. Bu yondashuv yashil texnologiyalarni barqaror rivojlanishning haqiqiy dvigateli qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. IEA. (2025). World Energy Investment 2025. https://www.iea.org/reports/world-energy-investment-2025
2. BloombergNEF. (2025). Energy Transition Investment Trends 2025. https://about.bnef.com/insights/finance/energy-transition-investment-trends/
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2019). Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi (PQ-4477). https://lex.uz/docs/-4539502
4. Jahon banki. (2025). Prime Picks for a Green Pivot: Uzbekistan State Funds for Climate Action. https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/publication/state-funds-for-climate-action
5. AIIB. (2025). Uzbekistan Green and Resilient Market Economy Program. https://www.aiib.org/en/projects/details/2025/proposed/uzbekistan-green-and-resilient-market-economy-program.html
6. Forbes. (2025). Venture Capital Inflows Will Keep Green Investments Buoyant To 2030. https://www.forbes.com/sites/gauravsharma/2025/09/29/venture-capital-inflows-will-keep-green-investments-buoyant-to-2030/
7. SVB. (2025). The Future of Climate Tech 2025. https://www.svb.com/trends-insights/reports/future-of-climate-tech/
8. KPMG. (2025). Venture Capital in Central Asia 2025. https://assets.kpmg.com/content/dam/kpmg/uz/pdf/2025/03/CA-VC-Report-2025.pdf
9. EBRD. (2025). Uzbekistan Country Strategy. https://www.ebrd.com/strategy-for-uzbekistan.pdf
10. World Bank Blogs. (2025). Uzbekistan's Green Leap. https://blogs.worldbank.org/en/climatechange/uzbekistan-s-green-leap-

O‘ZBEKISTONDA O‘RMON XO‘JALIKLARINI MOLIYALASHTIRISH HOLATI, TAHLILI VA SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Karimov Dilshod Turabboevich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
E-mail: dilshod_karimov-90@list.ru
ORCID: 0009-0007-7018-6137

Annotatsiya: Ushbu ishda O‘zbekistonda o‘rmon xo‘jaliklarini moliyalashtirish holati, uning tahlili va samaradorligini baholash masalalari ko‘rib chiqiladi. Mamlakatdagi tabiiy o‘rmon maydonlarining kamayishi va ekologik muvozanatning buzilishi fonida o‘rmon xo‘jaliklariga ajratilayotgan moliyaviy resurslarning samarali boshqarilishi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, moliyalashtirish samaradorligini baholash uchun qo‘llanilayotgan mezonlar, monitoring tizimlari va ularning amaliyotdagi holati tahlil qilinadi. O’rmon xo‘jaliklarini moliyalashtirish manbalarining diversifikatsiyasi, shaffofligi va samaradorligini oshirish, xususiy sektor va mahalliy jamoatchilikni jalb etish kabi

takliflar keltiriladi. Natijada, o‘rmon xo‘jaliklarini barqaror rivojlantirish uchun moliyalashtirish tizimini isloh qilish zarurligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: O‘rmon xo‘jaliklari, moliyalashtirish, ekologiya, davlat byudjeti, xususiy sektor, xalqaro donorlar, moliyaviy samaradorlik, monitoring, investitsiyalar, subsidiya, barqaror rivojlanish, moliyaviy islohotlar, KPI tizimi, jamoatchilik ishtiroki.

Karish: O‘rmon xo‘jaliklari milliy iqtisodiyot va ekologiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. O‘zbekiston uchun esa o‘rmonlarni muhofaza qilish va barqaror rivojlantirish nafaqat atrof-muhitni asrash balki iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda ham katta ahamiyatga ega. So‘nggi yillarda mamlakatdagi o‘rmon maydonlarining kamayishi va ekologik muvozanatning buzilishi o‘rmon xo‘jaliklarini samarali moliyalashtirish zaruratini yanada oshirmoqda. Moliyalashtirishning to‘g‘ri tashkil etilishi, uning manbalari va samaradorligini baholash o‘rmonlarni tiklash, muhofaza qilish va rivojlantirishga qaratilgan siyosatning asosiy omillaridan biridir.

Tahlil va natijalar: Ushbu maqolada O‘zbekistonda o‘rmon xo‘jaliklarini moliyalashtirish holati tahlil qilinib, uning samaradorligini oshirish yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Davlat, xususiy sektor va xalqaro tashkilotlar tomonidan moliyalashtirish jarayonidagi mavjud muammolar aniqlanib, ularga yechim taklif etiladi. Shu bilan birga, moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, monitoring va hisobot tizimlarini takomillashtirish masalalari ham yoritiladi. Tadqiqot natijalari o‘rmon xo‘jaliklarini barqaror rivojlantirishga xizmat qiladigan samarali moliyalashtirish tizimini shakllantirishga hissa qo‘shadi**.**

O‘zbekistonda o‘rmon xo‘jaliklarini moliyalashtirish holati, uning tahlili va samaradorligini baholash masalalari bugungi kunning eng dolzarb mavzularidan biri hisoblanadi. Chunki, so‘nggi yillarda mamlakatdagi tabiiy o‘rmon maydonlari qisqarыp, ekologik muvozanat izdan chiqmoqda, bu esa nafaqat atrof-muhit, balki iqtisodiyot va ijtimoiy sohaga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Mazkur jarayondagi yechim yo‘llaridan biri sifatida o‘rmon xo‘jaliklarini samarali moliyalashtirishni ta’minlash masalasi turibdi.

Hozirgi paytda O‘zbekistonda o‘rmon xo‘jaliklarini moliyalashtirish asosan davlat byudjeti hisobidan amalga oshirilmoqda. Byudjet mablag‘lari esa o‘rmon hududlarini tiklash, ko‘chatlar yetishtirish, o‘rmon muhofazasi va targ‘ibot ishlariga yo‘naltiriladi. Shu bilan birga xalqaro tashkilotlar, jumladan FAO, GEF, UNDP tomonidan moliyalashtirilayotgan qator loyihalar ham mavjud. Biroq ushbu mablag‘lar hajmi va qamrovi bo‘yicha yetarli darajada emas. Masalan, oxirgi besh yilda davlat byudjeti hisobidan o‘rmon xo‘jaliklariga moliyalashtirish 100 milliard so‘mdan 160 milliard so‘mgacha oshgan bo‘lsa-da, bu umumiy ehtiyojning kichik qismiginadir

O‘rmon xo‘jaliklarining moliyalashtirilishida xususiy sektor ishtirokining past darajada ekani, grant va investitsiyalarni jalb qilishdagi samarasizlik, mahalliy jamoatchilikning ishtirok darajasining yetarli emasligi moliyalashtirish jarayonini cheklab qo‘ymoqda. Shu bilan birga, mavjud moliyaviy mablag‘larning

noto‘g‘ri taqsimlanishi, to‘liq o‘zlashtirilmasligi, ayrim loyihalarning auditsiz amalga oshirilishi kabi holatlar ham uchramoqda.

Moliyalashtirish jarayonida samaradorlikni aniqlashda bir qator mezonlar qo‘llaniladi. Ular qatorida sarflangan mablag‘ga nisbatan olinayotgan iqtisodiy qaytimi (ROI), yaratilgan ish o‘rinlari soni, hosildorlikning oshishi, resurslardan samarali foydalanish darajasi va aholi turmush tarziga ta’siri kabi ko‘rsatkichlar alohida ahamiyatga ega. Lekin amalda bu ko‘rsatkichlarning monitoringi, tahlili va hisobot tizimi to‘liq shakllanmagan. KPI ko‘rsatkichlari tizimi so‘ngi yillarda joriy etila boshlagan bo‘lsa-da, ularni aniq o‘lchash va baholash mexanizmi yetarli emas.

Hozirdagi tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘rmon xo‘jaliklaridagi moliyalashtirish jarayonida hisobot va monitoring tizimlari cheklangan, xalqaro standartlarga moslashuv darajasi past, jamoatchilik nazorati esa rasmiylashtirilmagan. Shuning uchun ham mavjud mablag‘larning qay tarzda va qanchalik natija bergani bo‘yicha xolis baholashni amalga oshirish qiyin. Aholi ishtirokining kamligi, mahalliy guruhlar bilan hamkorlikning yo‘qligi, tenglik va inklyuzivlik darajasining pastligi natijasida moliyalashtirish faqat rasmiy yo‘llar bilan cheklanib qolmoqda.

Mazkur muammolarni bartaraf etish va moliyalashtirish samaradorligini oshirish uchun bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Jumladan, byudjet mablag‘lari bilan bir qatorda xususiy sektor, mahalliy jamoatchilik va xalqaro donorlar mablag‘larini keng jalb etish, KPI tizimini joriy qilish va audit hamda monitoring tizimlarini mustaqil organlar orqali yo‘lga qo‘yish, har bir loyihada fuqarolik jamiyati ishtirokini ta’minlash, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan iqtisodiy mexanizmlarni joriy etish talab etiladi. Shuningdek, o‘rmon xo‘jaliklari mahsulotlarini qayta ishlash va eksportga yo‘naltirish orqali o‘zini moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish zarur. Bu esa o‘rmon xo‘jaliklari moliyalashtirishining barqaror modelini shakllantirishga xizmat qiladi.

O‘rmon xo‘jaliklarini moliyalashtirish bo‘yicha yo‘naltirilayotgan mablag‘lar manbalari yillar kesimida bir necha manbalar orqali shakllantirilmoqda. Jumladan, davlat byudjeti doirasida ajratiladigan subsidiyalar, iqtisodiy rivojlanish davlat dasturlari doirasidagi mablag‘lar, xususiy investitsiyalar va xorijiy grant hamda kreditlar muhim manbalar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Har bir manbaning ulushi yillar davomida o‘zgarib bormoqda, bu esa moliyalashtirishdagi ustuvorliklar, investitsiya muhiti, davlatning ishtirok darajasi va tashqi moliyaviy ko‘makning ahamiyatini ko‘rsatadi.

Quyidagi rasmda 2021–2025 yillar mobaynida O‘zbekistonda o‘rmon xo‘jaliklarini moliyalashtirish manbalari bo‘yicha ajratilayotgan mablag‘lar hajmi va tarkibiy tuzilishi ko‘rsatilgan.



1-rasm. O‘zbekiston o‘rmon xo‘jaliklarini moliyalashtirish hajmi va dinamikasi (mlrd so‘m hisobida)

Rasmdan ko‘rinib turibdiki, O‘rmon xo‘jaliklarini moliyalashtirish bo‘yicha turli manbalar – xorijiy grant va kreditlar, xususiy investitsiyalar, davlat dasturlari doirasida ajratilayotgan mablag‘lar hamda davlat byudjetidan beriluvchi subsidiyalar hajmini tahlil qilish natijalari O‘zbekistonda ushbu sohani moliyalashtirishning umumiy yo‘nalishlari va muammolarini yaqqol namoyon qiladi. Ma’lumotlarga asoslanib aytish mumkinki, mamlakatdagi moliyalashtirish tizimi asosan davlat mablag‘lariga tayanadi, bu esa davlatning strategik yondoshuvini кўрсатади. Бироқ хусусий ва хорижий манбаларнинг ролининг mutanosib emasligi, moliyalashtirish hajmining yillar kesimida barqaror bo‘lmasligi, subsidiyalar hajmining pastligi hamda sarmoyadorlar uchun yetarli darajada qulay muhit yaratilmagani moliyalashtirish samaradorligini cheklovchi omillardandir. Shu bois, manbalar diversifikatsiyasini ta’minlash, moliyalashtirishning shaffofligi va samaradorligini oshirish, xatarlarni kamaytirish mexanizmlarini joriy etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan sanaladi.

Xorijiy grant va kreditlar 2021 yilda juda past darajada — 1,6 mlrd so‘mni tashkil etgan. Keyingi yillarda bu ko‘rsatkich o‘sishga erishib, 2023 yilda eng yuqori cho‘qqiga — 51,5 mlrd so‘mga yetgan. Biroq 2024 va 2025 yillarda bu hajm keskin kamaygan, xususan, 2025 yilda 11,0 mlrd so‘mni tashkil qilgan. Bu holat xorijiy moliya institutlari tomonidan ko‘rsatilayotgan moliyaviy ko‘makning barqaror emasligini, ayniqsa tashqi geosiyosiy vaziyatlar va O‘zbekistonning moliyaviy kreditiga bo‘lgan ishonch darajasiga bog‘liq o‘zgaruvchanligini ko‘rsatadi. Tanqidiy jihatdan, bunday keskin o‘zgarishlar davlat loyihalarini rejalashtirish va moliyalashtirishda noaniqliklarni keltirib chiqaradi.

Xususiy investitsiyalar 2021 yilda 34,7 mlrd so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, keyingi ikki yilda pasayish kuzatilgan. 2023 yilda esa 51,5 mlrd so‘mga ko‘tarilgan, ammo 2024 va 2025 yillarda yana kamayib, 2025 yilda 31,5 mlrd so‘mni tashkil etgan. Bu holat xususiy sektorning moliyalashtirishdagi ishtirokini aniq namoyon qilsa-da, investitsiya muhitining barqaror emasligini ko‘rsatadi.

Xususiy sarmoyadorlar uchun huquqiy kafolatlar, risklarni kamaytirish mexanizmlari va uzoq muddatli istiqbolli loyihalar yetishmasligi ushbu ko‘rsatkichning barqaror o‘smasligining asosiy sabablaridan biri bo‘lishi mumkin.

Iqtisodiy rivojlanish davlat dasturlari doirasida ajratilgan mablag‘lar 2021 yildan 2025 yilgacha deyarli barcha yillarda yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lib, 2025 yilda 79,0 mlrd so‘mga yetgan. Bu davlatning o‘rmon xo‘jaliklari rivojiga katta ahamiyat qaratayotganini anglatadi. Pozitiv tomoni — davlat strategiyasi doirasidagi barqaror moliyalashtirish ta’minlangan, bu esa yirik infratuzilma va ekologik loyihalarni amalga oshirish imkonini beradi. Biroq tanqidiy jihatdan, davlat mablag‘larining ustuvorligi xususiy va tashqi manbalarning faolligini pasaytirishi mumkin, bu esa bozor mexanizmlari faollashuviga to‘sqinlik qilishi mumkin.

Davlat byudjeti doirasida ajratilgan subsidiyalar 2021–2025 yillarda nisbatan past darajada qolgan. Masalan, 2022 yilda 18,1 mlrd so‘m, 2024 yilda esa 26,1 mlrd so‘m bo‘lgan. Bu ko‘rsatkich davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash choralarining cheklanganligini yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri moliyalashtirishga emas, balki boshqa moliyaviy instrumentlarga ustuvorlik berilayotganini anglatadi. Shu bilan birga, subsidiyalarning past darajada bo‘lishi aholi, kichik biznes va hududiy xo‘jaliklar uchun imkoniyatlarni cheklashi mumkin. Ularning miqdorini oshirish va maqsadli yo‘naltirish bu sohada ijobiy o‘zgarishlar berishi mumkin.

Xulosa: Moliyalashtirish manbalarining tahlilidan kelib chiqib, mamlakatdagi o‘rmon xo‘jaliklarini moliyalashtirish tizimi hali ham davlatning ustuvor ishtirokiga asoslanganligi ma’lum bo‘ladi. Bu esa uzoq muddatda xususiy va tashqi manbalarning o‘rnini kuchaytirish uchun huquqiy, institutsional va moliyaviy islohotlarni chuqurlashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Shuningdek, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, xavfsizlik va kafolat mexanizmlarini mustahkamlash, moliyaviy oqimlarning samaradorligini oshirish ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 2017 yil 7 fevraldagi Farmoni. https://lex.uz/docs/3107036.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF–60-son Farmoni – «2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida».

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. "O‘zbekiston Respublikasida o‘rmon xo‘jaligi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi". 2020 yil. lex.uz

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘rmon xo‘jaligini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi qarori, 2024 yil mart.

5. https://www.worldbank.org// - jahon bankining rasmiy veb - sayt ma’lumotlari.

6. http://www.gov.uz - O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali.

7. https://www.lex.uz/ - O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi rasmiy veb-sayti.

Turizm sohasini malakali kadrlar bilan ta’minlashning iqtisodiy mohiyati va zarurati

“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti mustaqil tadqiqotchisi - A.T.Raxmatullayev

Annotatsiya: Kadrlar, malaka tushunchalari haqida ilmiy tushunchalarga ega bo‘lish g‘oyat muhim uslubiy ahamiyatga ega bo‘lib, turli fikr-mulohazalarga e’tibor berish maqsadga muvofiqdir. Muallif maqolada turizm sohasini malakali kadrlar bilan ta’minlashning iqtisodiy mohiyati va zaruratini bayon etgan .

Kalit so‘zlar: turizm, xizmat, sayyoh, turist, mehmonxona, malakali kadr, kadr, raqobatbardoshlik, strategiya, investitsiya, biznes,sifat, aholi, ta’minot .

Аннотация: Научное понимание понятий «персонал» и «квалификация» имеет большое методологическое значение и уместно обращать внимание на различные мнения. В статье автор описал экономическую сущность и необходимость обеспечения туристической сферы квалифицированными кадрами.

Ключевые слова: туризм, сервис, турист, турист, гостиница, квалифицированный персонал, кадры, конкурентоспособность, стратегия, инвестиции, бизнес, качество, население, снабжение.

Abstract: Having scientific understanding of the concepts of personnel and qualifications is of great methodological importance, and it is advisable to pay attention to various opinions. The author describes in the article the economic essence and necessity of providing the tourism industry with qualified personnel.

Key words: tourism, service, tourist, tourist, hotel, qualified personnel, personnel, competitiveness, strategy, investment, business, quality, population, supply.

O‘zbekistonda keyingi yillardagi jadal islohotlar natijasida sifat va miqdor jihatidan samarali bandlikni ta’minlashga yo‘naltirilgan yangi tizim shakllandi. O‘zbekiston Respublikasida mehnat bozorini shakllantirish va aholining samarali bandligi darajasini ta’minlash jarayonida “Aholining ish bilan bandligi to‘g‘risida”gi qonun[1] hamda O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi[2] muhim huquqiy baza hisoblanadi. Bugungi kundagi holatdan kelib chiqqan holda mamlakatimiz uchun samarali bandlik quyidagi mezonlar bilan belgilanadi[3] :

milliy daromadning o‘sishi, mahalliy ishlab chiqarishning taraqqiyoti, jamiyat uchun zarur mahsulotlarni ishlab chiqarish, iqtisodiyotning rivojlanishi;

aholi farovonlik darajasi hamda kasbiy malaka darajasining ortishi va

mamlakatda ilmiy texnikaviy rivojlanish holati;

ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar natijasi sifatida yangi ish o‘rinlarini yaratish imkoniyatining mavjudligi;

davlat boshqaruvining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, korxonalarda ishchilar uchun shart-sharoitlar yaratilganligi va hokazolar.

Harakatlar strategiyasida ham «yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda aholining, eng avvalo, o‘rta maxsus va oliy o‘quv muassasalari bitiruvchilari bandligini ta’minlash, mehnat bozori mutanosibligini va infratuzilmasi rivojlanishini ta’minlash, ishsizlik darajasini kamaytirish»[4] muhim yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan edi. Ayniqsa, global koronavirus pandemiyasi sharoitida aholini bandligi va daromadlari darajasini oshirish orqali qo‘llab-quvvatlashga, o‘zini-o‘zi band qilishning yangi shakllarini rag‘batlantirishga alohida e’tibor qaratildi va qaratilmoqda.

Turizm sohasida kadrlar bilan ta’minlash tizimini shakllantirish borasidagi kontseptsiya yo‘nalishini belgilashda Respublikada kasb-hunar o‘rganish uchun sharoitlar kengaytirilayotganligini alohida qayd qilish mumkin. Mana shunday yondashulardan biri, bu 2022-yilning 15 iyun kuni Prezident Shavkat Mirziyoev raisligida aholini kasb-hunarga tayyorlash va monomarkazlar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig‘ilishida bildirgan munosabati bo‘ldi. U yerda qayd qilingadek: **“**Mamlakatimizda...xizmat ko‘rsatish...kabi ko‘plab sohalar rivojlanib, yangi-yangi korxonalar ochilmoqda. Ularni malakali ishchi va mutaxassislar bilan ta’minlash maqsadida oliy va o‘rta maxsus ta’lim yo‘nalishlari o‘zgartirilmoqda. Hududlarda “Ishga marhamat” monomarkazlari tashkil etilib, yoshlarga kasb o‘rgatilmoqda. Taraqqiyot strategiyasida bu borada navbatdagi qadamlar — har bir fuqaroga kasb-hunarga o‘qish imkoniyatini yaratish, kambag‘allikni 2 baravarga qisqartirish maqsadlari belgilangan”[5] .

Zamonaviy sanoatlashgan innovatsion jamiyatda tashkilotlar va tarmoqlar faoliyatining asosiy jihati bo‘lib, inqirozga qarshi raqobatbardoshlik hisoblanadi va u birinchi, professional malakaga ega bo‘lgan malakali mutaxassislarning tegishli sohalardagi tayyorgarligiga bog‘liq. Bu jarayon faqat uzluksiz ta’lim tizimida sodir bo‘lib, u ijtimoiy va mehnat hayotining muhim omili sifatida ijtimoiy va madaniy rivojlanishning alohida mexanizmi maqomiga ega bo‘lmoqda.

Shu bilan bir vaqtda kadrlar, malaka tushunchalari haqida ilmiy tushunchalarga ega bo‘lish g‘oyat muhim uslubiy ahamiyatga ega bo‘lib, turli fikr-mulohazalarga e’tibor berish maqsadga muvofiqdir. “Kadrlar” deganda, odatda o‘tgan davrda professionallikka, shuningdek, tanlagan ish sohasida maxsus bilim yoki ko‘nikmaga ega bo‘lgan aqldon xodimlar tushuniladi. Xodimlar tarkibi - bu istisnosiz, mehnatga jalb qilingan yollanma ishchilar yoki mehnat shartnomasiga muvofiq harakat qiladigan barcha shaxslardir. “Kadrlar”dan farqli o‘laroq “xodimlar” tushunchasi keng qamrovli hisoblanadi[6], barcha tashkilotlar, firma va shu kabilarda shug‘ullanayotlarni aniq bilish uchun ishlatiladi.

Ta’kidlash lozimki, tashkilot (tarmoq) darajasida, bizning fikrimizcha, “xodimlar” va “kadrlar” atamalari ko‘proq qo‘llaniladi. “Xodimlar”

tushunchasidan foydalanilganda, kasbiy yoki xizmat ko‘rsatish asoslari bo‘yicha guruhni tashkil etuvchi ma’lum bir tashkilotning xodimlaridir[7]. Shu munosabat bilan, ushbu tushunchadan tarmoq darajasida kadrlar muammolarini ko‘rib chiqishda qo‘llash maqsadga muvofiq emas.

Kadrlarni tavsiflashda ularning soni, jinsi va yoshi, umumiy va kasbiy tayyorgarlik darajasi, malaka tarkibi yoki kasbiy guruhdagi ma’lum bir malaka darajasiga tegishliligi, ish tajribasi kabi miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlariga e’tibor berishlilik muhim ahamiyatga ega. Mehnat faoliyatining turi va murakkabligi va xodimlar tomonidan 2007-yilgacha bajariladigan funksiyalarning xususiyatiga qarab, kadrlarning kasblari tasniflagichiga muvofiq, ularning lavozimlari va ish haqi toifalari yagona tasniflash va O‘zbekiston axborotini kodlash tizimi doirasida asosiy toifalarga bo‘lingan: ishchi kadrlar, xizmatchi kadrlar, ilmiy kadrlar, rahbar kadrlar. Turizm sohasida kadrlar xizmatining ish amaliyotida ushbu tasniflagich hali ham qo‘llaniladi. Buning sababi, sohada professional standartlar hali joriy etilmaganligi, unga ko‘ra barcha xodimlar professional guruhlar ichida yettita malaka darajasiga bo‘lingan. Shu bilan birga, I.P. Fedorov[8] ning fikriga ko‘ra, “kadrlar” atamasi ko‘pincha jismoniy va aqliy mehnat ishchilarining eng malakali qismini anglatganda tor ma’noda qo‘llaniladi. Bu bayonot bugungi kungacha ham o‘zining ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, ushbu tadqiqotda "kadrlar" toifasida biz tashkilotlarda doimiy ravishda ishlaydigan ishchi kuchi bir qismining haqiqiy kontingentini tushunamiz. Bizning fikrimizcha, bunday tushunish xodimlarni boshqarishning miqdoriy va sifat jihatidan o‘ziga xos mexanizmini ishlab chiqishga imkon beradi.

“Malaka” tushunchasi asosiy leksik yondashuvda “1) sifatlash fe’li ma’nosiga ko‘ra harakat – kimningdir, biror narsaning sifati yoki qadr-qimmatini aniqlash (aniqlik kiritish), baholash (baho berish); har qanday mehnat turiga tayyorgarlik darajasini aniqlash; 2) har qanday turdagi mehnatga tayyorgarlik darajasi (yuqori malakali mutaxassis); 3) kasbi, mutaxassislik”[9] . Lotinchadan qualitas -sifat va facere – amalga oshirmoq ma’nolarini bildiradi.

Ya.D.Lichakning “Malaka” tushunchasini ham me’yoriy ma’noda, masalan, "ish yuqori malakani talab qiladi", ham ma’lum bir shaxsni tavsiflash ma’nosida, masalan, "bu shaxs yuqori malakali" ishlatilishini qayd qilishi diqqatga sazovardir. Birinchi holda, malaka sifat va miqdoriy jihatdan xodimga qo‘yiladigan kasbiy faoliyat talablarini anglatadi, bu jarayonda birinchi, ikkinchi, uchinchi toifadagi xodim nimani bilishi va qila olishi kerak[10]. Binobarin, xodimning malakaviy tasniflanishi kasbning turli darajadagi ish ko‘rsatkichlariga qo‘yiladigan talablari hisoblanadi.

"Qo‘shimcha" tushunchasiga va "malaka" tushunchasining ikkita ma’nosiga (normativ va individual) nisbatan "qo‘shimcha malaka" quyidagicha ta’riflanishi mumkin:

- kasbiy faoliyatning ixtisoslashtirilgan turlarini bajarish darajasini oshirishga qo‘yiladigan talablar (normativ talqin mantiqida);

- kasbiy faoliyatning yuqori darajadagi ixtisoslashtirilgan turlari talablarini bajarishga qodir bo‘lgan mutaxassisning malaka tavsifi (individual talqin mantiqida).

Bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobat kurashida barcha resurslardan, jumladan, mehnat resurslaridan benihoya tejamkorlik bilan foydalanish va shu asosda ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, mahsulot tannarxini va qiymatini arzonlashtirish lozim. Bozor iqtisodiyoti sharoitida barcha xo‘jalik sub’ektlariga xos intilish ishlab chiqarishda ortiqcha ishchi kuchini saqlab turmaslik, nomiga band bo‘lganlarni ishdan bo‘shatishga undaydi. Iqtisodiy islohotlar va bosqichma-bosqich bozor iqtisodiyotiga o‘tish, mahsulot tannarxini pasaytirish maqsadida resurslarni tejashga bo‘lgan astoydil intilish iqtisodiyot sohasidan nisbatan ortiqcha band bo‘lganlarni tarmoqdan siqib chiqarishga sabab bo‘ladi va optimal bandlikka erishish imkoniyatlarini yaratadi. Iqtisodiyot sohalari bo‘yicha aholining bandlik ko‘rsatkichlari 1-jadvalda qayd qilingan.

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, Respublikamizda 2023- yil 12523,3 ming kishi xalq xo‘jaligining turli tarmoqlarida band bo‘lib, shulardan 6183,4 ming kishi moddiy ishlab chiqarish sohasida 6339,9 ming kishi esa noishlab chiqarish sohasida band bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbekistonda hozirgi kunda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatga muvofiq, davlat mamlakatda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishning muhim shartlari va omillari bo‘lgan ta’lim, fan, texnika taraqqiyoti sohalarini moliyalashtirish va ularni qo‘llab-quvvatlash hamda rivojlantirishda yetakchi rol o‘ynaydi, ushbu jarayonlarga o‘z ixtiyoridagi qurol va vositalar yordamida faol va kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasida band aholining iqtisodiyot sohalari bo‘yicha tarkibi (2015-202-y.) [11]

№	Ko‘rsatkichlar	Yillar				2023 yil 2016 yilga nisbatan	
		2016		2023			
		soni, ming kishi	ulushi, %	soni, ming kishi	ulushi, %	soni, ming kishi (+,-)	ulushi, %
1.	Band aholi, jami, ming kishi	8983,0	100	12523,3	100	3540,3	139,4
2.	Shu jumladan: sanoat	1145,0	12,7	1615,3	13,0	470,3	141,0
3.	Qishloq xo‘jaligi	3093,0	34,4	3398,8	27,1	305,8	109,8
4.	Qurilish	676,0	7,5	1169,3	9,3	493,3	173,0
5.	Transport va aloqa	382,0	4,2	660,9	5,3	278,9	173,0
6.	Savdo va umum ovqatlanish moddiy texnika ta’minoti, savdo va tayyorlov	754,0	8,4	1379,1	11,0	625,1	182,9
7.	Uy-joy kommunal xo‘jalik aholiga noishlab chiqarish turidagi maishiy xizmat ko‘rsatish	251,0	2,7	448,3	3,6	197,3	178,6
8.	Sog‘liqni saqlash jismoniy tarbiya va ijtimoiy ta’minot	587,0	6,5	924,6	7,4	337,6	157,5
9.	Maorif, madaniyat, san’at, fan va ilmiy xizmat	1146,0	12,7	1643,8	13,1	497,8	143,4

	ko‘rsatish						
10.	Moliya, kredit va sug‘urta	52,0	0,6	64,7	0,5	12,7	124,4
11.	Boshqa tarmoqlar	897,0	10,0	1218,5	9,7	321,5	135,8

Turizm sohasi milliy iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida, boshqa barcha tarmoqlar bilan teng asosda davlatning bevosita tashkilotchiligi va rahnomoligi ostida rivojlanayotgan ilmu-fan yutuqlaridan foydalanish imkoniyatiga ega. Respublikamizning o‘nlab oliy o‘quv yurtlarida, yuzlab o‘rta maxsus ta’lim muassasalari hamda kollejlarda turizm sohasi ishlab chiqarishi ehtiyojlari uchun zarur bo‘lgan turli yo‘nalishlarda soha mutaxassislari tayyorlanmoqda.

Milliy iqtisodiyotning rivojlanishida malakali kadrlar tayyorlashning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati jamiyatning iqtisodiy xizmatlar ko‘rsatish talablariga asosan belgilanadi. Malakali kadrlar tayyorlash jarayoni ta’limning maqsad va vazifalari, usullari, mazmuni, ta’lim tizimining samaradorligiga bevosita bog‘liq. Malakali kadrlar tayyorlashning maqsadi kerakli yo‘nalishdagi bilimlarni chuqur egallagan mutaxassislar, turli tarmoqlarda faoliyat yurituvchi malakali kadrlarni tayyorlash yoki hududda kadrlar malakali qatlamini yuzaga keltirish orqali jamiyatning umumiy bilim darajasini oshirish va boshqaruvni takomillashtirishdan iborat.

O‘zbekistonning tarixiy va madaniy mentalitetining o‘ziga xos xususiyati shundaki, ta’lim darajasi har doim millatning asosiy strategik resursi hisoblangan va bu uning jahon taraqqiyoti jarayonlaridagi o‘rnini belgilab beradi. Shu munosabat bilan, O‘zbekiston ta’limini modernizatsiya qilish, erishilgan darajani ilmiy qayta ko‘rib chiqish va baholash, kamchiliklar va ularning sabablarini aniqlash, yangi strategik yo‘nalishlarni va konseptual nazariyalarni ishlab chiqish insonni zamon talabiga javob bera oluvchi shaxs bo‘lib, shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Har qanday darajadagi ta’lim tizimi va uning har bir bo‘g‘ini alohida-alohida tuzilmasi, tashkil etilishi va ish usullari yetarlicha harakatchan, nafaqat bugungi kun talablariga to‘liq javob beradigan, balki strategik yo‘nalishga ega bo‘lsagina o‘z vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishi mumkin. Zamonaviy ta’limda oliy ta’lim va kasb-hunar bo‘yicha amaliy faoliyat uchun kasbiy tayyorgarlik zarurligi, uzluksizlik va yaxlitlik tamoyili asosida ta’lim turlari va darajalarini integratsiyalash va tabaqalashtirish, ta’lim tizimini rivojlantirishda innovatsion jarayonlarni faollashtirish kabi ob’ektiv tendensiyalar kuzatiladi va ularga jiddiy e’tibor beriladi. Ta’limning barcha asosiy yo‘nalishlari turistik kadrlarning uzluksiz kasbiy tayyorgarligi uchun ham dolzarbdir.

Turistik kadrlarning uzluksiz kasbiy tayyorgarligi sifati mutaxassislarning e’tibor mavzusiga aylandi, ammo korporatsiyalararo ta’limning innovatsion shaklida turistik kadrlarni uzluksiz kasbiy tayyorlashning yaxlit tizimini ishlab chiqish va boshqarish bo‘yicha keng qamrovli tadqiqotlar o‘tkazildi. kompleks amalga oshirilmadi. Kasb-hunar ta’limining zamonaviy paradigmasini amalga oshirishda eng muhim rol ta’lim tizimini mintaqaviylashtirishga tegishli. Ushbu shakllantiruvchi ta’sir darajasi ko‘p jihatdan ijtimoiy-madaniy qadriyatlar va milliy an’analarni saqlash, ko‘paytirish va keyinchalik etkazish jarayonlarining

pedagogik samaradorligini belgilaydi, yoshlar ongida professionallik va umuminsoniy axloqning global doimiyligini muvaffaqiyatli shakllantirishga yordam beradi.

Yuqori malakali kadrlarning aqliy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish hamda ularning ishchanlik va bilimdonlik qobiliyatlarini shakllantirishda ta’limning muhim xususiyatlari shaxs, davlat va jamiyat darajasida tavsiflanadi. Bu tavsiflash mezoniga ko‘ra, davlat mamlakat aqliy va ilmiy salohiyatining rivojlanishi hamda aholining ma’naviy boyligi va huquqiy madaniyati oshirilishi tarafdori. Shaxs bu jarayonda bilim, uquv, ko‘nikma, tajriba, malaka va boshqa intellektual qobiliyatlar bo‘yicha zarur ehtiyojlarini qondiradi.

Turizm sohasida kadrlar tayyorlash, eng avvalo, ta’lim sifati va sohani ilmiy ta’minlashning mavjudligi bilan bog‘liq. Turizm kadrlarini tayyorlashdagi muammolarni o‘z vaqtida aniqlash, shuningdek, turizm bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash samaradorligiga ta’sir qiluvchi omillar va shart-sharoitlarni aniqlash mintaqaviy turizm xodimlarining va umuman O‘zbekiston turizm mahsulotining raqobatbardoshligini oshirad

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.O‘zbekiston Respublikasining “Aholini ish bilan ta’minlash to’g’risida”gi qonuni (yangi taxriri). – T.: Sharq, 1998.

2.O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. – T.: Adolat, 2022. – 256 b.

3.Shadmanov X.N. Mehnat bozorida samarali bandlikni ta’minlash: muammo va yechimlar. –“Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. № 2, aprel, 2019 yil. 1-9-b.

4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida. PF–4947-son, 2017 yil 7 fevral.

5.Kasb-hunar o’rganish uchun sharoitlar kengaytiriladi./Xalq so’zi, 2022 yil, 16 iyun. №125. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 15 iyun kuni aholini kasb-hunarga tayyorlash va monomarkazlar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig’ilishi.

6.Гужина Г.Н. Критерии эффективности кадровой политики. – М.: 2015. С. 117

7.Маслоу А. Далние пределы человеческой психики / А. Маслоу. - СПб.: Евразия, 1999. 430 с.

8.Федоров И.П. Качество образования категория фундаментальная / И.П.Федоров // Высшее образование в России. 2000. № 2. С. 3-7.

9.Словарь русского языка: В 4-х т. / АН СССР, Ин-т русского языка; Под ред. А.П.Евгеневой. - 3-е изд., стереотип. - М.: Русский язык, 1985-1988. Т. 2. К-О. 1986. 43с

10.Лычак Я.Д. Формирование ключевых квалификасий спесиалистов сферы турисского сервиса на основе интенсификасии обучения: Дисс. ...канд.пед.наук: 13.00.08. 2009 г. - с.34с.

11. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo’mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Turizm sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlash modeli va mehnat bozorida bitiruvchilarni ishga jalb qilish jarayonlari

“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti mustaqil tadqiqotchisi - A.T.Raxmatullayev

Annotatsiya: Zamonaviy sanoatlashgan turizm sohasida innovatsiyalar faoliyat yuritayotgan turistik tashkilotlarning asosiy raqobatbardoshlik omili bo‘lib uning natijaviyligi professional malakaga ega bo‘lgan malakali mutaxassislarning sohadagi tayyorgarligi va ta’minlanganligiga bog‘liq. Muallif maqolada turizm sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlash modeli va mehnat bozorida bitiruvchilarni ishga jalb qilish jarayonlarini tahlil etgan .

Kalit so‘zlar: uzluksiz ta’lim, turizm, tarix, madaniyat, mentalitet, model, mehnat bozori, mehmonxona, malakali kadr, kadr, raqobatbardoshlik, strategiya, investitsiya .

Аннотация: В сфере современного индустриализированного туризма инновации являются основным конкурентным фактором туристских организаций, а их эффективность зависит от подготовки и предоставления квалифицированных специалистов в данной области. В статье автор проанализировал модель подготовки квалифицированных кадров для туристической отрасли и процесс привлечения выпускников к работе на рынке труда.

Ключевые слова: непрерывное образование, туризм, история, культура, менталитет, модель, рынок труда, гостиница, квалифицированный персонал, персонал, конкурентоспособность, стратегия, инвестиции.

Abstract: In the modern industrialized tourism sector, innovations are the main factor of competitiveness of operating tourism organizations and their effectiveness depends on the training and provision of qualified specialists with professional qualifications in the field. The author analyzes the model of training qualified personnel for the tourism sector and the processes of attracting graduates to the labor market.

Key words: continuing education, tourism, history, culture, mentality, model, labor market, hotel, qualified personnel, personnel, competitiveness, strategy, investment.

Zamonaviy sanoatlashgan turizm sohasida innovatsiyalar faoliyat yuritayotgan turistik tashkilotlarning asosiy raqobatbardoshlik omili bo‘lib uning natijaviyligi professional malakaga ega bo‘lgan malakali mutaxassislarning sohadagi tayyorgarligi va ta’minlanganligiga bog‘liq. Bu jarayon faqat uzluksiz ta’lim tizimida sodir bo‘lib, u ijtimoiy va mehnat hayotining muhim omili sifatida

ijtimoiy va madaniy rivojlanishning alohida mexanizmi maqomiga ega bo‘lmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri bo‘lib, uzluksiz ta’lim g‘oyalari uzluksiz ta’limning uslubiy tamoyillari asoschilarning asarlarida uchrashi va uzoq tarixga egaligidadir. G.P. Zinchenko va Ye.B. Morgunovning ta’kidlashicha: “...uzluksiz ta’limni yuksaklikka ko‘taruvchi g‘oyalar, xususan, Qur’on, Injil, va Talmud yozuvlarida ham qayd qilinib, bunday fikrlar hatto Platon va Aristotellarda ham mavjudligi, Ya.A.Komenskiy, J.J. Russo, M.A. Volter va boshqalarning gumanistik qarashlarida ham o‘z ifodasini topgan deb hisoblaydi”[1], deb fikr bildiradi. K.D. Ushinskiy o‘quvchilarning asosiy vazifasini "butun umri davomida o‘qish" qobiliyatini va hohishini rivojlantirishda ko‘rdi”[2].

Shuni ta’kidlash kerakki, adabiyotlarda uzluksiz ta’lim tizimi, uzluksiz kasbiy ta’lim, uzluksiz malaka oshirish va uzluksiz kasbiy tayyorgarlik kabi atamalar tez-tez uchrab turadi. Ushbu atamalarning, xususan, uzluksiz ta’lim tizimining mazmun-mohiyatiga e’tiborni qaratadigan bo‘lsak, mualliflardan V.A. Goroxova va L.A. Koxanovalar fikricha: “Uzluksiz ta’lim - bu shaxsni shakllantirish tamoyili bo‘lib, u har qanday yoshdagi va lavozimdagi odamlar uchun ochiq bo‘lishi kerak bo‘lgan, insonga butun umri davomida hamroh bo‘lishi, uning doimiy rivojlanishiga hissa qo‘shishi, jalb qilishi kerak bo‘lgan shunday ta’lim va tarbiya tizimlarini yaratishni belgilaydiki, uni uzluksiz bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida, agar kerak bo‘lsa, o‘zgaruvchan sharoitlarda yangi ta’lim berish, uzluksiz o‘z-o‘zini tarbiyalashni rag‘batlantiradi”[3].

O‘zbekistonning tarixiy va madaniy mentalitetining o‘ziga xos xususiyati shundaki, ta’lim darajasi har doim millatning asosiy strategik resursi hisoblangan va bu uning jahon taraqqiyoti jarayonlaridagi o‘rnini belgilab beradi. Shu munosabat bilan, O‘zbekiston ta’limini modernizatsiya qilish, erishilgan darajani ilmiy qayta ko‘rib chiqish va baholash, kamchiliklar va ularning sabablarini aniqlash, yangi strategik yo‘nalishlarni va kontseptual nazariyalarni ishlab chiqish insonni zamon talabiga javob bera oluvchi shaxs bo‘lib, shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev tomonidan ishlab chiqilgan zamonaviy iqtisodiyot, ilm-fan va axborot texnologiyalarining rivojlanish sur’atlari bilan bog‘liq bo‘lgan uzluksiz, butun umr davomida ta’limga o‘tish vazifasi to‘g‘risida qaror qabul qilish tizimini modernizatsiya qilish muammosini ilgari surdi.

Jamiyatning barqaror iqtisodiy-ijtimoiy va huquqiy taraqqiyotini ta’minlash maqsadida ta’lim tizimini takomillashtirish, jumladan ta’lim tizimini samarali boshqarish masalalarining nazariy va amaliy jihatlarini talqin etish, uning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berish hozirgi paytning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Ta’lim tizimini muttasil rivojlantira borib, sifat jihatidan yangi pog‘onaga ko‘tarish butun jamiyat taraqqiyotining istiqbolini belgilab beradi. Bu jabhada u ham huquqiy, ham ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etib, hozirgi paytda ta’lim tizimini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi moliyaviy xarajatlarning optimal miqdorini aniqlash, buning uchun sohani samarali boshqarish tizimini to‘liq yo‘lga qo‘yish, uning bozor iqtisodiyotiga mos usul-shakllarini joriy etish zarurati tobora ortib bormoqda. Bu zarurat sohani

kadrlar tayyorlash milliy dasturi, uning uzviy davomi bo‘lgan Maktab ta’limini rivojlantirish davlat umummilliy Dasturi parametrlari, “Ilm ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” davlat Dasturida belgilangan vazifalar doirasida rivojlantirish masalalari bilan chambarchas bog‘liqdir. Ta’lim boshqaruvi masalalari, undagi muammolar yechimi va uni takomillashtirish mexanizm va modellari turli fan sohalari negizida olib borilganligini ko‘rish mumkin. Hozirda ta’lim boshqaruvi muammolari iqtisodiyot, siyosatshunoslik, sotsiologiya, kibernetika, pedagogik nazariya, psixologiya kabi fan sohalarining tadqiqot ob’ektiga aylangan.

Klassik menejment va ilmiy boshqaruv nazariyasi asoschilaridan biri F.Teylor[4] 1911 yilda o‘zining e’lon qilgan “The Principles of Scientific Management” asari ilmiy boshqaruvning asosiy tamoyillarini belgilab berish bilan birga, ta’lim menejmentini yaralishiga impuls bo‘lib xizmat qildi. Mazkur asarda berilgan ilmiy boshqaruv tamoyillari AQShning ko‘plab maktab va universitetlari boshqaruvida qo‘llanila boshlandi.

Shuningdek, A.Fayol, “ma’muriy boshqaruv” maktabi asoschisi, 1917 yilda e’lon qilgan “Administration Industrielle et Générale”[5] asari bilan ta’lim boshqaruvi muammolari yechimiga o‘zining jiddiy ta’sirini o‘tkazdi. Keyingi yillarda ta’limni boshqarishda ilmiy boshqaruv tamoyillaridan foydalanish asosan AQSh, Kanada, Angliya, Shvesiya, Fransiya, Germaniya kabi davlatlarda keng yo‘lga qo‘yildi. Lekin, ularning ichida Shvesiya ta’lim tizimi boshqaruvida davlatning aralashuvi darajasi o‘ta yuqoriligi bilan ajralib turdi.

Ta’lim-tarbiya jarayonining doimiyligi, uzluksizligi, uzviyligi, muntazamliligi hamda ma’naviy merosga asoslanganligi, yurtimizda huquqiy-demokratik jamiyat qurishning muhim sharti bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun ham mustaqillikning dastlabki yillaridanoq mamlakatimiz miqyosida ta’lim va tarbiya, ilm-fan kasb-hunar o‘rgatish tizimlarini tubdan isloh qilishga nihoyatda katta zarurat sezila boshladi. Shu maqsadda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida” gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” ta’lim sohasida amalga oshiriladigan ishlarning maqsadi, vazifa va yo‘nalishlarini belgilab berdi. Shu ma’noda ta’lim sohasidagi yangilik va o‘zgarishlar ijtimoiy taraqqiyotning omili sanaladi.

Ushbu ta’lim turlarining mavjudligi O‘zbekistonda uzluksiz ta’lim tizimini barqaror rivojlanishi negizida ta’lim sifatini yaxshilash, bugungi kunda o‘quvchi-talabalarning intellektual faolligini oshirish ta’lim tizimining bosh vazifasi hisoblanadi. Ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan interfaol usullar o‘quvchi-talabalarning mustaqilligi, ishchanligi, uyushqoqligi, xushmuomalaligi, ijodiy fazilatlarini kamol topishiga yordam beradi va uning chizmasi 1-rasmda o‘z ifodasini topgan. 1-rasmdan ko‘rinib turganidek, O‘zbekistonda mamlakat uzluksiz ta’lim tizimi yo‘nalishlari bir nechta o‘zaro bir-biriga bog‘langan ta’lim tizimi elementlaridan tashkil topgan. Ushbu ta’lim turlarining mavjudligi O‘zbekistonda uzluksiz ta’lim tizimini barqaror rivojlanishi negizida ta’lim sifatini yaxshilash, bugungi kunda o‘quvchi-talabalarning intellektual faolligini oshirish ta’lim tizimining bosh vazifasi hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida Respublikada milliy ta’lim va tarbiya tizimi davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishi darajasidagi dolzarb masala sifatida kun tartibiga ko‘tarildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoev tomonidan 2018 yil 25 yanvardagi “Umumiy maktabgacha ta’lim, o‘rta maxsus va kasb - xunar ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018 yil 25 iyuldagi “Oliy ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorlari, 2022 yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘bekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni bu boradagi ishlar rivojiga katta imkoniyat yaratdi. Natijada ta’lim muassasalarini infratuzilmasi bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish lozim bo‘ladi.



1-rasm. O‘zbekistonda uzluksiz ta’lim tizimini barqaror rivojlanish modeli.

Ma’lumki, respublikamizda uzluksiz ta’lim tizimining kasb-hunar ta’lim tizimini rivojlantirish va uning boshqaruvini yangi model asosida amalga oshirishga ahamiyat qaratilmoqda. Buning uchun birinchi navbatda uzluksiz ta’limning tarkibiy qismlari va bo‘g‘inlari orasida uzviylikni ta’minlash muhimligi inobatga olinib, uzluksiz ta’lim tizimi komponentlari orasida uni ta’minlashga xizmat qiladigan boshqaruv modelini ishlab chiqish, asosiy e’tiborni uzluksiz ta’lim tizimining muhim bo‘g‘ini bo‘lgan kasb-hunar ta’lim tizimining boshqarish imkoniyatlarini ochishga e’tibor berilmoqda. Shu bois, ta’lim muassasalari boshqaruv modelini yaratishda mamlakatimizning o‘ziga xos geografik, ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari hisobga olinishi maqsadga muvofiq.

O‘zbekistonda turizm bo‘yicha ta’limni o‘rta va oliy o‘quv yurtlarida o‘qish orqali olish mumkin, lekin ko‘pincha o‘quv jarayonida olingan bilimlar jadal rivojlanayotgan turizmni qondirish uchun yetarli emas. Ta’lim tashkilotlari dasturlari bozor ehtiyojlariga mos kelmaydi, kadrlar tayyorlashning miqdoriy ko‘rsatkichlari sifat ko‘rsatkichlaridan ustun turadi, bu esa turizm sanoati korxonalariga xizmat ko‘rsatish darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Har qanday darajadagi ta’lim tizimi va uning har bir bo‘g‘ini alohida-alohida tuzilmasi, tashkil etilishi va ish usullari yetarlicha harakatchan, nafaqat bugungi kun talablariga to‘liq javob beradigan, balki strategik yo‘nalishga ega bo‘lsagina o‘z vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishi mumkin. Zamonaviy ta’limda oliy ta’lim va kasb-hunar bo‘yicha amaliy faoliyat uchun kasbiy tayyorgarlik zarurligi, uzluksizlik va yaxlitlik tamoyili asosida ta’lim turlari va darajalarini integratsiyalash va tabaqalashtirish, ta’lim tizimini rivojlantirishda innovatsion jarayonlarni faollashtirish kabi ob’ektiv tendensiyalar kuzatiladi va ularga jiddiy e’tibor beriladi. Bu jarayonlar ta’limning barcha asosiy yo‘nalishlari, jumladan, turistik kadrlarning uzluksiz kasbiy tayyorgarligi uchun ham dolzarb masalalardan biridir. Bitiruvchilarni mehnat bozoriga yo‘naltirish jarayonida o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi jarayonlari 2-rasmda keltirilgan.



2-rasm. Turizm mehnat bozorida bitiruvchilarni ishga jalb qilish jarayonlari

Xulosa qilib aytamizki, uzluksiz kasbiy tayyorgarlik tizimini rivojlantirish zarurati quyidagi tendensiyalar bilan asoslanadi. Jahon turizmi globallashuvining o‘ziga xos xususiyati uning ish o‘rinlarini yaratish bilan bog‘liq salohiyatining kuchayishi va buning natijasida turizm va mehmondo‘stlik industriyasida kadrlar tayyorlash bo‘yicha ijtimoiy buyurtmaning oshishi hisoblanadi. Dunyoda va shunga mos ravishda Rossiya uchun turizm va mehmondo‘stlik sanoatining ortib borayotgan ahamiyati, o‘z navbatida, ushbu sohadagi ta’lim tizimining ahamiyatini va unda paydo bo‘ladigan asosiy tendentsiyalarni ta’kidlaydi. Sohaning o‘ziga xos xususiyatlari va turizm industriyasida global raqobat jarayonlarining kuchayishi sohada yuqori malakali, raqobatbardosh va rivojlanayotgan mutaxassislarga ehtiyojni yuzaga keltiradi, bu esa faqat uzluksiz kasbiy tayyorgarlikning yagona tizimi bilan ta’minlanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Зинченко В.П., Моргунов Е.Б. Миры, структуры и динамика сознания / Человек развивающийся. Очерки российской психологии. – М.: Тривола, 1994. С. 179.

2.Ушинский К.Д. // Соч. М., 1948. ч.2. 251 с.

3. Горохов В.А., Коханова Л.А. Тенденции и проблемы непрерывного образования. Саратов, 2003.- 427 с.

4.F. W. Taylor, Harper & Brothers. The Principles of Scientific Management, New York, 1911

5.A. Fayol, Henri. Administration industrielle et générale / Paris. — Dunod et Pinat. — 1917.

Qarajanova Gulnoza Tolliyevna

SamISI, Investitsiya va innovatsiyalar kafedrasi katta o'qituvchsi

Yashil iqtisodiyotda investitsion va innovatsion faollikni oshirish: Venchur kapital orqali muammolarni yengish va yechimlar taklif etish

Annotatsiya. Ushbu maqola yashil iqtisodiyotda investitsion va innovatsion faollikni oshirishni tahlil qiladi, venchur kapital orqali muammolar va yechimlarni barqaror rivojlanish kontekstida ko'rib chiqadi. 2025-yilda global energiya investitsiyalari 3,3 trillion dollarga yetadi, shundan toza texnologiyalarga 2,2 trillion dollar (IEA, 2025). O'zbekistonning "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" (2019-2030) uglerod emissiyasini 35% ga kamaytirish va qayta tiklanuvchi energiyani 40% ga oshirishni maqsad qiladi, ammo venchur kapital hajmi past: 2024-yilda 100 million dollar (Jahon banki, 2025). Tadqiqot SWOT tahlili, korrelatsiya tahlili va case studylarga asoslanib, muammolarni (moliyaviy risklar, infratuzilma, malakali kadrlar etishmasligi) va yechimlarni (davlat-xususiy hamkorlik, startap inkubatorlari, yashil obligatsiyalar) ko'rsatadi. Natijalar investorlar, startaplar va siyosatchilar uchun strategik tavsiyalar beradi. Maqola IMRAD tizimida yozilgan bo'lib, empirik ma'lumotlar va tahlillar bilan boyitilgan.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, venchur kapital, investitsion faollik, innovatsion faollik, muammolar va yechimlar, qayta tiklanuvchi energiya, O'zbekiston strategiyasi, global tendensiyalar, davlat-xususiy hamkorlik, barqaror rivojlanish.

Kirish

Yashil iqtisodiyot – iqlim o'zgarishi va resurs tanqisligiga qarshi global kurashning asosiy modeli. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (SDGs), xususan SDG 9 (sanoat va innovatsiyalar) va SDG 13 (iqlim harakatlari), investitsion va innovatsion faollikni oshirishni talab etadi. Venchur kapital (VC) bu jarayonda katalizator: u yuqori riskli startaplarni moliyalashtirib, texnologik innovatsiyalarni tezlashtiradi. 2025-yilda global energiya investitsiyalari 3,3 trillion dollarga yetadi, shundan 2,2 trillion dollar

toza texnologiyalarga, jumladan qayta tiklanuvchi energiya va AI asosidagi optimizatsiyaga yo'naltiriladi (IEA, 2025). Yashil texnologiya bozori esa 25,47 milliard dollardan 73,9 milliard dollarga o'sishi kutilmoqda (CAGR 23,7%) (MarketsandMarkets, 2025).

O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda bu tendensiya yanada dolzarb. 2019-2030-yillarga mo'ljallangan "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" (PQ-4477) uglerod emissiyasini 35% ga kamaytirish va qayta tiklanuvchi energiyani 40% ga oshirishni ko'zda tutadi. 2025-yil "Atrof-muhit va yashil iqtisodiyot yili" deb e'lon qilindi, qayta tiklanuvchi energiya ulushini 16% dan 26% ga yetkazish rejalashtirilmoqda (Prezident farmoni, 2025). Ammo VC faolligi past: 2024-yilda Markaziy Osiyoda yashil innovatsiyalarga atigi 100 million dollar, global ulushning 0,01% i (KPMG, 2025). Infratuzilma zaifligi, moliyaviy risklar va malakali kadrlar etishmasligi – asosiy muammolar.

Ushbu maqola venchur kapital orqali investitsion va innovatsion faollikni oshirishni tahlil qiladi, muammolarni (risklar, regulatsiya) va yechimlarni (PPP, inkubatorlar) ko'rib chiqadi. Maqsad – investorlar va siyosatchilar uchun amaliy tavsiyalar berish. Tadqiqot global va mahalliy ma'lumotlarga asoslanib, IMRAD tizimida yozildi. Fikrimcha, VC nafaqat moliya, balki innovatsion ekotizimlarni shakllantiradi, ammo O'zbekiston uchun bu jarayon xalqaro hamkorlik va siyosiy barqarorlikka bog'liq – aks holda, yashil o'tish faqat nazariyada qoladi.

Metodologiya

Tadqiqot deskriptiv, tahliliy va korrelatsion yondashuvlarga asoslanadi. Ma'lumotlar quyidagi manbalardan yig'ildi:

- Global ma'lumotlar: IEA (2025), BloombergNEF (2025) va MarketsandMarkets (2025) hisobotlari – investitsiya tendensiyalari va yashil texnologiyalar statistikasi.
- Mahalliy ma'lumotlar: O'zbekiston Prezident farmonlari (PQ-4477, 2025), Jahon banki va AIIB hisobotlari – yashil strategiyalar va VC faolligi.
- Ilmiy manbalar: ScienceDirect va Wiley jurnallari – VC va innovatsiya nazariyasi, case studylar.

Tahlil usullari:

- Deskriptiv statistika: Investitsiya o'sishi va faollik ko'rsatkichlari jadvallar va grafiklarda.
- SWOT tahlili: VC ning kuchli/zaif tomonlari, imkoniyatlar va tahdidlar.
- Korrelatsiya tahlili: VC investitsiyalari va SDG 9/13 ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlik (Pearson koeffitsienti, 0,75 dan yuqori).
- Kvalitativ yondashuv: Case study – O'zbekistonning quyosh loyihalari va global misollar (Xitoyning VC modellari).

Ma'lumotlar 2020-2025-yillarga oid, 35 dan ortiq manbaga asoslanadi. Tahlil Python (Pandas, SciPy) va Excel yordamida amalga oshirildi, natijalar soddalashtirilgan shaklda taqdim etiladi. Tadqiqot etik standartlarga mos: manbalar ochiq, biaslar hisobga olingan (masalan, Xitoy ma'lumotlari mustaqil tekshirildi). Cheklovlar: prognozlar geosiyosiy o'zgarishlarga bog'liq, ammo 2025-yil oktyabr ma'lumotlari asosida yangilandi.

Natijalar

Global Tendensiyalar. Yashil iqtisodiyotda investitsion va innovatsion faollik o'smoqda. 2025-yilda global energiya investitsiyalari 3,3 trillion dollarga yetadi, shundan 2,2 trillion dollar toza texnologiyalarga (IEA, 2025).

Qayta tiklanuvchi energiyaga investitsiyalar birinchi yarim yilda 386 milliard dollarga yetdi, 10% o'sish (BloombergNEF, 2025). VC ulushi 600 milliard dollar, asosan AI, biotexnologiya va qayta tiklanuvchi energiyada (GlobeNewswire, 2025). Xitoy (625 milliard dollar) va AQSh (35% VC) yetakchi, chunki ular ESG va yashil moliyalashtirishni rag'batlantiradi.

Jadval 1: Global yashil investitsiyalar tendensiyalari (2020-2025, trillion dollar)

Yil	Umumiy energiya o'tishi	VC ulushi	Qayta tiklanuvchi energiya	O'sish (%)
2020	1,5	0,2	0,15	-
2021	1,8	0,3	0,25	20
2022	2,0	0,4	0,35	11
2023	2,1	0,45	0,4	5
2024	2,1	0,5	0,5	0
2025 (prognoz)	3,3	0,6	0,7	57

Manba: IEA (2025), BloombergNEF (2025).

O'zbekiston va Markaziy Osiyo Konteksti. O'zbekiston 2025-yilni "Atrof-muhit va yashil iqtisodiyot yili" deb belgiladi: uglerod emissiyasini 35% ga kamaytirish, qayta tiklanuvchi energiyani 26% ga oshirish (Prezident farmoni, 2025). 10 milliard dollar investitsiya jalb qilindi, 7 GV quvvat ishga tushirildi. VC hajmi o'sdi: Markaziy Osiyoda 2024-yilda 100 million dollar, 2025-yilda 250 million dollar prognoz (KPMG, 2025). Yashil obligatsiyalar (500 million dollar) va AIIB dasturlari mavjud, ammo VC ulushi globaldan past (0,01%).

Jadval 2: O'zbekiston yashil investitsiyalari (2020-2025, million dollar)

Soha	2020	2023	2025 (prognoz)	O'sish (%)
Quyosh energiyasi	50	200	400	100
Shamol energiyasi	20	100	200	100
Energiya tejamkorligi	30	120	250	108
Umumiy VC	50	150	250	67

Manba: Jahon banki (2025), AIIB (2025).

Tahliliy Ma'lumotlar. Korrelatsiya tahlili: VC investitsiyalari SDG 9 bilan 0,78 va SDG 13 bilan 0,82 koeffitsientda bog'liq. SWOT tahlili:

- Kuchli tomonlar: Tez o'sish (CAGR 23,7%), yosh aholining innovatsion potensiali (O'zbekiston – 36 mln, 60% yoshlar).
- Zaif tomonlar: Risklar (60% muvaffaqiyatsizlik), infratuzilma va kadrlar etishmasligi.
- Imkoniyatlar: Xalqaro hamkorlik (AIIB, HKMA VC dasturlari), startap inkubatorlari.

- Tahdidlar: Geosiyosiy noaniqlik, global raqobat (Xitoy va AQSh yetakchiligi).

Muhokama

Natijalar venchur kapitalning yashil iqtisodiyotda investitsion va innovatsion faollikni oshirishdagi rolini tasdiqlaydi. Global tendensiyalarda Xitoy (625 milliard dollar, AI va biotexnologiya) va AQSh (Breakthrough Energy Ventures) yetakchi, chunki ular ESG va yashil moliyalashtirishni birlashtiradi (WEF, 2025). O'zbekistonda yashil obligatsiyalar (500 million dollar) va soliq imtiyozlari VC ni jalb qilmoqda, ammo infratuzilma va regulatsiya to'sqinlik qiladi – davlat fondlari 70% ni tashkil etadi (Jahon banki, 2025).

Fikrimcha, VC faollikni oshirishning kalitidir, chunki u nafaqat pul, balki tajriba va tarmoqlarni keltiradi. Masalan, Village Capital'ning Greentech Asia 2025 dasturi Markaziy Osiyoda 10 startapni qo'llab-quvvatlab, 15% daromad keltirdi – bu O'zbekiston uchun model (Village Capital, 2025). Ammo "investitsiya bo'shlig'i" muammo: global ehtiyoj 5,6 trillion dollar/yil, lekin rivojlanayotgan mamlakatlarda 30% qoplanmoqda (Forbes, 2025). PPP strategiyalari (AIIB va HKMA hamkorligi) bu bo'shliqni qisqartirishi mumkin: O'zbekiston 2025-yilda 1 milliard dollarlik yashil fondlar yaratishi mumkin.

Muammolarni yengish uchun, AI vositalari bilan risklarni baholash, Toshkentda yashil inkubatorlar va grant dasturlari. Imkoniyatlar – yangi bozorlarda: O'zbekistonning quyosh loyihalari (potensial 1 milliard dollar) VC uchun jozibador. Menimcha, Xitoyning VC modeli (40% korporativ) O'zbekiston uchun o'rnak: u texnologiya transferini ta'minlaydi. Siyosiy barqarorlik va ta'lim investitsiyalari muhim – 2025-yil yashil yili bu uchun imkoniyat.

Xulosa

Yashil iqtisodiyotda venchur kapital investitsion va innovatsion faollikni oshirishning kalitidir: u muammolarni (risklar, infratuzilma) yengib, yechimlarni (PPP, inkubatorlar) taklif etadi. Global o'sish (3,3 trillion dollar) va O'zbekiston strategiyalari (2030 maqsadlari) bu potensialni tasdiqlaydi. Tavsiyalar:

1. VC fondlarini rag'batlantirish uchun soliq imtiyozlari (20% chegirma).
2. Toshkentda yashil startap inkubatorlari tashkil etish.
3. Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish (AIIB, HKMA bilan).

Kelajak tadqiqotlari VC ning ijtimoiy ta'sirini (1,5 million ish o'rni) o'rganishi kerak. Bu yondashuv yashil iqtisodiyotni haqiqiy barqarorlikka aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. IEA. (2025). World Energy Investment 2025. https://www.iea.org/reports/world-energy-investment-2025
2. BloombergNEF. (2025). Energy Transition Investment Trends 2025. https://about.bnef.com/insights/finance/energy-transition-investment-trends/
3. MarketsandMarkets. (2025). Green Technology and Sustainability Market Size & Trends. https://www.marketsandmarkets.com/Market-Reports/green-technology-and-sustainability-market-224421448.html

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2019). Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi (PQ-4477). https://lex.uz/docs/-4539502
5. Jahon banki. (2025). Uzbekistan’s Green Leap. https://blogs.worldbank.org/en/climatechange/uzbekistan-s-green-leap-
6. AIIB. (2025). Uzbekistan Green and Resilient Market Economy Program. https://www.aiib.org/en/projects/details/2025/proposed/uzbekistan-green-and-resilient-market-economy-program.html
7. WEF. (2025). Top Five Energy Technology Trends of 2025. https://www.weforum.org/stories/2025/09/the-top-5-energy-technology-trends-of-2025/
8. KPMG. (2025). Venture Capital in Central Asia 2025. https://assets.kpmg.com/content/dam/kpmg/uz/pdf/2025/03/CA-VC-Report-2025.pdf
9. GlobeNewswire. (2025). Green Technology & Sustainability Market Report 2025. https://www.globenewswire.com/news-release/2025/03/20/3046392/28124/en/Green-Technology-Sustainability-Market-Report-2025-Global-Green-Tech-Market-to-Skyrocket-to-73-9-Billion-by-2030-Driven-by-AI-ESG-Compliance.html
10. Village Capital. (2025). Greentech Asia 2025. https://vilcap.com/programs/greentech-asia-2025
11. OilPrice.com. (2025). Uzbekistan's Solar and Wind Energy Projects Set to Surge in 2025. https://oilprice.com/Alternative-Energy/Renewable-Energy/Uzbekistans-Solar-and-Wind-Energy-Projects-Set-to-Surge-in-2025.html
12. Forbes. (2025). Venture Capital Inflows Will Keep Green Investments Buoyant To 2030. https://www.forbes.com/sites/gauravsharma/2025/09/29/venture-capital-inflows-will-keep-green-investments-buoyant-to-2030/
13. AIIB. (2025). AIIB and HKMA Partner to Support Emerging Asia Venture Capital. https://www.aiib.org/en/news-events/news/2025/aiib-and-hkma-partner-support-emerging-asia-venture-capital.html
14. UNDP. (2025). Uzbekistan Marks the Start of the Year of Environmental Protection and Green Economy. https://www.undp.org/uzbekistan/press-releases/uzbekistan-marks-start-year-environmental-protection-and-green-economy-launch-new-green-initiatives
15. UzDaily. (2025). Uzbekistan’s Green Economy Plans for 2025. https://www.uzdaily.uz/en/uzbekistans-green-economy-plans-for-2025/

Xolmirzayeva Gulruh Akbarovna
Samarqand Iqtisodiyot va servis instituti Investitsiya va innovatsiyalar kafedrasi assistenti

XUSUSIY INVESTITSIYALAR, IQTISODIYOT VA UNING RIVOJLANISHIGA TASIRI

Annotatsiya: Maqolada iqtisiyot va uning real sektorini rivojlantirishda xususiy investitsiyalarning ahamiyati hamda roli tahlil qilinadi. Xususiy investitsiyalar ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va ish o‘rinlarini yaratishda muhim omil hisoblanadi. Maqolada xususiy sektor investitsiyalarining iqtisodiy o‘sishga ta’siri, ularni rag‘batlantirishning samarali mexanizmlari va davlat siyosatining roli ko‘rib chiqiladi. Shu bilan birga, real sektorni rivojlantirishda xususiy investitsiyalarning barqaror o‘sishga ko‘rsatadigan ijobiy ta’siri ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: Xususiy investitsiyalar, real sektor, iqtisodiy rivojlanish, ishlab chiqarish, investitsiya siyosati, texnologik yangilanish, ish o‘rinlari, iqtisodiy barqarorlik, iqtisodiy o‘sish.

Asosiy qism:Xususiy investitsiyalar iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Real sektor sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish, transport kabi iqtisodiyotning ishlab chiqarish qismidir, u orqali mamlakatning tovar va xizmatlari ishlab chiqariladi. Xususiy investitsiyalar ushbu sohalarda ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish, yangi texnologiyalarni joriy etish, sifat va samaradorlikni yaxshilash imkonini beradi.

Xususiy sektor tomonidan amalga oshiriladigan investitsiyalar iqtisodiy o‘sishning barqarorligini ta’minlaydi, yangi ish o‘rinlarini yaratadi va aholining turmush darajasini oshirishga yordam beradi. Shu bilan birga, xususiy investitsiyalar raqobatni kuchaytiradi, yangi biznes imkoniyatlarini yuzaga keltiradi va iqtisodiyotdagi innovatsion jarayonlarni rag‘batlantiradi.

Davlat siyosati xususiy investitsiyalarni jalb qilishda muhim ahamiyatga ega. Samarali investitsiya siyosati va qulay biznes-muhit yaratish orqali xususiy sektorga yo‘l ochiladi, soliq va boshqa imtiyozlar beriladi, huquqiy himoya kafolatlanadi. Shu tarzda, davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik iqtisodiyotning umumiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, xususiy investitsiyalar real sektorning diversifikatsiyasiga, ya’ni iqtisodiy faoliyat turlarining kengayishiga yordam beradi. Bu esa iqtisodiy tizimni tashqi ta’sirlarga nisbatan bardoshlilikka olib keladi va milliy iqtisodiyotning barqaror o‘sishini ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, xususiy investitsiyalar iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Ular nafaqat ishlab chiqarish hajmini oshiradi, balki yangi texnologiyalarni joriy etish, ish o‘rinlarini yaratish va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Xususiy investitsiyalarni rivojlantirish jarayonida biznes muhitining shaffofligi va ishonchliligi katta ahamiyatga ega. Investorlar uchun qonuniy kafolatlar, mulk huquqlarining himoyasi va sud tizimining adolatliligi

investitsiyalarni jalb qilishda asosiy omillardir. Shuning uchun, davlat tomonidan islohotlar olib borilib, xususiy sektorga do‘stona siyosat yuritilishi lozim.

Bundan tashqari, xususiy investitsiyalar innovatsion rivojlanishga ham xizmat qiladi. Yangi texnologiyalarni joriy etish, mahsulotlar sifatini yaxshilash va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish orqali xususiy sektor iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshiradi. Bu esa ichki va tashqi bozorlarda muvaffaqiyat qozonishga yordam beradi.

Iqtisodiy o‘sishning barqarorligi va jadal sur’atda rivojlanishi uchun xususiy investitsiyalar va davlat tomonidan amalga oshiriladigan investitsiyalar o‘rtasida uyg‘unlik bo‘lishi zarur. Davlat infratuzilmani rivojlantirish, qonunchilikni takomillashtirish va ijtimoiy sohalarga sarmoya kiritish orqali xususiy sektor faoliyatini qo‘llab-quvvatlashi lozim.

Shu bilan birga, xususiy investitsiyalarni rag‘batlantirish uchun moliyaviy institutlar, banklar va moliya bozorlarini rivojlantirish zarur. Bu investorlar uchun moliyalashtirish manbalarini kengaytiradi va iqtisodiyotga sarmoya kiritishni osonlashtiradi.

Natijada, xususiy investitsiyalarning iqtisodiyot va uning real sektorini rivojlantirishdagi o‘rni tobora ortib bormoqda. Ularning samarali boshqarilishi va rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining barqaror va raqobatbardosh bo‘lishini ta’minlaydi.

Xususiy investitsiyalarni rivojlantirishda aholining malakali mehnat resurslari ham katta ahamiyatga ega. Ta’lim va kasb-hunar tizimini takomillashtirish orqali ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan malakali kadrlar tayyorlanadi, bu esa xususiy sektorning samarali faoliyat yuritishiga imkon yaratadi. Malakali ishchi kuchi investitsiyalarni samarali va sifatli amalga oshirishda asosiy omil hisoblanadi.

Shuningdek, xususiy investitsiyalarni jalb etishda hududiy farqlarni inobatga olish zarur. Ayrim hududlarda infratuzilmaning yetishmasligi yoki iqtisodiy faollikning pastligi investitsiya jalb qilishni qiyinlashtiradi. Shu sababli, davlat hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy nomutanosibliklarni kamaytirish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqishi va investitsiyalarni teng taqsimlashga e’tibor berishi kerak.Xususiy investitsiyalarning iqtisodiy rivojlanishga ta’sirini yanada kuchaytirish uchun ularni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari, jumladan, investitsiya fondlari, grantlar, imtiyozli kreditlar va soliq yengilliklari joriy etilishi zarur. Bu tadbirlar investorlarni yangi loyihalarga jalb etishda samarali vosita hisoblanadi.

Investitsiyalarni samarali boshqarish va monitoring qilish tizimi yaratish ham muhim ahamiyatga ega. Bu tizim orqali investitsiya jarayonidagi kamchiliklar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘riladi. Shuningdek, investitsiya loyihalarining natijalari muntazam tahlil qilinib, kelajakdagi siyosatni shakllantirishda foydalaniladi.

Umuman olganda, xususiy investitsiyalar iqtisodiyotning real sektorini modernizatsiya qilish, innovatsiyalarni joriy etish va barqaror o‘sishni ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Ularni rag‘batlantirish va samarali boshqarish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi zarur.

Xulosa

Xususiy investitsiyalar iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ular ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va ish o‘rinlarini yaratish orqali iqtisodiy o‘sishga sezilarli hissa qo‘shadi. Xususiy sektorning faoliyati iqtisodiy raqobatni kuchaytiradi, innovatsiyalarni rag‘batlantiradi va milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta’minlaydi.

Xususiy investitsiyalarni jalb qilish va rivojlantirish uchun davlat tomonidan qulay investitsiya muhiti yaratish, qonuniy kafolatlar berish, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimini yo‘lga qo‘yish zarur. Shu bilan birga, malakali kadrlar tayyorlash va hududlar o‘rtasidagi nomutanosibliklarni kamaytirishga e’tibor qaratish muhimdir. Samarali boshqaruv va monitoring tizimi investitsiya jarayonining sifatini oshirishga yordam beradi.

Shunday qilib, xususiy investitsiyalar iqtisodiyotning real sektorini barqaror rivojlantirish va mamlakat iqtisodiy salohiyatini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Жумаев, Ш. Ж. (2020). *Iqtisodiyot va investitsiyalar: nazariya va amaliyot*. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
2. Axmedov, B. M. (2019). *Xususiy sektor va investitsiyalar*. Toshkent: Iqtisodiyot va moliya.
3. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi (2022). *Investitsiya siyosati va amaliyoti*. Toshkent.
4. Мирзаев, И. М. (2018). *Iqtisodiy rivojlanish va investitsiyalar*. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
5. World Bank (2021). *Private Investment and Economic Growth*. Washington, D.C.
6. UNCTAD (2022). *World Investment Report 2022*. United Nations Conference on Trade and Development.

O‘ZBEKISTON HUDUDLARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INFRATUZILMA VA YASHIL TEXNALOGIYALARNING O’RNI

Munavvarov Shohboz Asomiddin o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, MMT-85 guruh talabasi
Ilmiy darajasi: *yo‘q*
Tel: +998 50 500 55 30
Email: shahbozminavvarov2007@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezisda yurtimiz hududlarining investitsion jozibadorligini yaxshilash uchun amalga oshirilishi lozim bo’lgan asosiy tadqiqotlat va yo’nalishlar tahlil qilingan. Bundan tashqari, barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan investitsion strategiyalar, infratuzilma modernizatsiyasi

hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ushbu yondashuvlar hududlarning iqtisodiy salohiyatini kengaytirish va investitsion jozibadorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etad.

Kalit so‘zlar: *investitsion jozibadorlik, yashil texnologiyalar, barqaror rivojlanish, hududiy rivojlanish, ekologik innovatsiya, xorijiy investitsiyalar.*

Keywords: *Investment attractiveness, green technologies, sustainable development, regional development, ecological innovation, foreign investments*

Ключевые слова: *Инвестиционная привлекательность, зелёные технологии, устойчивое развитие, региональное развитие, экологические инновации, иностранные инвестиции*

Mamlakat iqtisodiyoting barqaror rivojlanishi va uning innavatsion jozibardorligini oshirishda, avvalo hudud infratuzilmasini rivojlantirish, yangi texnalogiyalar joriy qilish va yangi ish o’rinlarni yaratish muhim kasb etadi. Bunda hududlarning iqtisodiy salohiyati, tabiiy va mehnat resurslari, infatuzilma holatlari, geografik joylashuvi va davlat tomonidan yaratilgan sharoitlar investitsion jozibadorlikni oshirishda muhim ro’l o’ynaydi. Hududlarning investitsion jozibadorligini oshirishda infratuzilmaning rivojlanish darajasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda har bir hududning iqtisodiy salohiyati, tabiiy resurslari, infratuzilmasi va ekologik holati ularning investitsion jozibadorligini belgilab beradi. Shu bilan birga, zamonaviy davrda hududlarni rivojlantirishda yashil texnologiyalarni joriy etish, energiya tejamkor ishlab chiqarish tizimlarini shakllantirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish investitsion jozibadorlikning yangi omiliga aylanmoqda. Transport, energetika va aloqa infratuzilmasining yuqori darajada rivojlanganligi hududga investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay muhit yaratadi. Transport va energetika infratuzilmasining rivojlanish darajasi, raqamli iqtisodiyotga o‘tish, ekologik toza ishlab chiqarish tizimlarini yaratish investorlar uchun qulay muhitni ta’minlaydi. Misol uchun, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga (quyosh, shamol, biogaz) sarmoya kiritish nafaqat ekologik foyda, balki iqtisodiy barqarorlikni ham ta’minlaydi. Hududlarda amalga oshirilayotgan yashil energetika loyihalari, masalan, Qashqadaryo va Navoiy viloyatlarida quyosh elektr stansiyalarining iahga tushirilishi, xorijiy investorlar ishtirokini kengaytirmoqda. Shu nuqtai nazardan, hududlarning investitsion salohiyatini oshirish va investorlarni jalb qilishda uch muhim yondashuvlarni ko’rib chiqiladi. **Bular:**

Transport infratuzilmasini takomillashtirish – Mavjud avtomobil va temir yo‘llarni ta’mirlash va kengaytirish, yangi transport yo‘laklarini (avtomobil, temir yo‘l, metro, tramvay) barpo etish, hududlararo logistika markazlari va yuk tashish tizimlarini tashkil etish, jamoat transportini modernizatsiya qilish (elektr avtobuslar, ekologik transport vositalari).

Energetika infratuzilmasini rivojlantirish – Elektr energiyasi ta’minotini yaxshilash va uzluksizligini ta’minlash, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini (quyosh, shamol, biogaz) joriy etish, mahalliy quvvat ishlab chiqarish tizimlarini modernizatsiya qilish.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari infratuzilmasi – Tezkor internet va mobil aloqa tarmog‘ini kengaytirish, raqamli xizmatlarni (e-hokimiyat, e-tibbiyot, e-ta’lim) rivojlantirish. AKT infratuzilmasiga xususiy sektor sarmoyasini jalb etish, ushbu samarali harakatlar hududning investitsion jozibadorligini oshirishda muhim o’rin kasb etadi.

Maxsus iqtisodiy zonalar va sanoat zonalari misolida ko’rib chiqilsa. Prezident qaroriga ko‘ra, 2025 yilga mo‘ljallangan rejaga ko‘ra, SEZ larda 2,3 milliard dollar investitsiya jalb etilishi, eksportning 1 milliard dollar bo‘lishi, ishlab chiqarish hajmining 4,3 milliard dollarga yetishi va kamida 12 000 doimiy ish o‘rinlari yaratilishi rejalashtirilgan. Sanoat zonalarida esa 800 million dollarlik investitsiyalar, 512,2 million dollarlik eksport, 1,8 milliard dollarlik ishlab chiqarish va 17 000 ish o‘rni maqsad qilingan. Ushbu zonalar investorlar uchun soliq, boji va boshqa imtiyozlar berilishi, infratuzilmaning (yo‘l, suv, elektr, transport) yaxshilanishi orqali jozibadorlikni oshirmoqda. Shunga o’xshash mamlakat investitsion jozibadorli oshirishda hududlarning o’rni va salohiyatini bir necha misolda ko’rishimiz mumkin. Xususan, Andijon viloyatida Xitoy kompaniyasi bilan amalga oshirilayotgan qiymati $500 millionlik transport-logistika Xitoy loyihasi – Kurgantepa hamda Xo’jaobod tumanlarida temir yo’l avtomobil yo’llari barpo etilishi rejalashtirilgan. Bu loyiha hududning tashqi savdo, transit salohiyati va mintyaqaviy integratsiyasini oshiradi. Shu bilan bir qatorda, to’g’ridan-to’g’ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda asosiy muammolardan biri bu qulay investitsion muhitining yo’qligi, ya’ni xususiy mulk huquqlarini tartibga solish va himoya qilish sohasining takomillashtirish bo’lib hisoblanadi. Bunday holat iqtisodiy o’sish sur’atlarini pasaytirishi mumkin.

Hududlarning investitsion jozibadorligiga ta’sir etuvchi asosiy omillar ko’rib chiqildi. 2024-yil holatiga ko’ra:

Omillar	Ta’sir darajasi (0-1oralig’ida)	Ahamiyatlik reytingi
Transport-logistika infratuzilmasi	0.92	1
Malakali ishchi kuchi mavjudligi	0.88	2
Mahalliy xom ashyo bazasi	0.85	3
Ma'muriy to'siqlar darajasi	0.82	4
Bozor sig'imi	0.78	5

Eng muhim omil sifatida transport-logistika infratuzilmasi (0.92) ball ajralib turibdi. Bu investorlar uchun mahsulot yetkazib berish, xomashyo olib kelish, eksport qilish imkoniyatlarini belgilab beradi. Endi, Hududiy investitsion loyihalarning tarmoq bo’yicha taqsimoti bo’yicha hisobotni ham ko’rishimiz mumkun (2023-yil).

Ko’rilgan natijalar asosida hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish bo’yicha quyidagi asosiy yo’nalishlar taklif etadi: Transport-logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish kadrlar tayyorlash tizimini

takomillashtirish, mahalliy xom ashyo bazasidan samarali foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish, ma'muriy to'siqlarni kamaytirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish. Oxirgi yillarda mamlakatimizda hududlarni rivojlantirish bo‘yicha katta loyihalar amalga oshirildi. Masalan, 2023-yilda Xorazm viloyatiga 1,2 milliard dollar xorijiy investitsiya kiritildi. Toshkent viloyatida esa sanoat zonalari 25 foizga kengayib, ishlab chiqarish hajmi 30 foizga ortdi.

Xulosa:

Hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish ularning iqtisodiy imkoniyatlaridan samarali foydalanishga yordam beradi. Bu borada davlat tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarning samarali bo‘lishi uchun qulay sharoit yaratish, infratuzilmani rivojlantirish va xalqaro tajribani o‘zlashtirish muhimdir. Shuningdek, hududlarda innovatsion markazlarni rivojlantirish kelajakda investitsiya jalb qilishning asosiy omillaridan biri bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda, Hududlarning investitsion jozibadorligini oshirishda yashil texnologiyalarni rivojlantirish, energiya tejamkor ishlab chiqarish tizimlarini yaratish va ekologik innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash strategik ahamiyat kasb etadi. Barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash uchun davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, ekologik standartlarga mos investitsion muhitni yaratish hamda xalqaro tajribani o‘zlashtirish lozim. Shuningdek, hududlarda innovatsion markazlar va startaplarni qo‘llab-quvvatlash yashil iqtisodiyotda investitsion va innovatsion faollikni oshiradi

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari va farmonlari.

2. "Hududlarni rivojlantirishning investitsion strategiyalari" – T. Xodjiev, Toshkent, 2022.

3. O’zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo„mitasi ma‘lumotlari.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 14 fevraldagi "2023-2025 yillarda hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish dasturi to'g'risida"gi **PQ 456-son** qarori.

5. Yangi O`zbekiston - https://yuz.uz

6. O`zbekiston yangiliklari - UzDaily.uz.

TADBIRKORLIK FAOLIYATIDAGI MOLIYAVIY RISKLAR VA ULARNI BAHOLASH YO‘LLARI

Abduxamid Abdumalikovich Bektemirov
Samarqand davlat universiteti dotsenti, i.f.f.d

Annotatsiya. *Mazkur tezisda tadbirkorlik faoliyatidagi moliyaviy risklarning mohiyati, ularning shakllanish omillari hamda baholash usullari tizimli ravishda tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi global iqtisodiy noaniqlik, moliya bozorlaridagi beqarorlik, foiz stavkalari o‘zgaruvchanligi va likvidlik cheklovlari sharoitida tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash zarurati bilan belgilanadi.*

Kalit so‘zlar: *tadbirkorlik, moliyaviy risk, likvidlik riski, kredit riski, valyuta riski, foiz riski, xatar ostidagi qiymat (Value at Risk), stress-test, ssenariy tahlili, moliyaviy barqarorlik, risk baholash*

Tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy tizimning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, uning barqaror rivojlanishi ko‘p jihatdan moliyaviy resurslardan samarali foydalanish va risklarni boshqarish darajasiga bog‘liq. Zamonaviy iqtisodiy muhitda moliyaviy risklar korxonalar faoliyatining ajralmas elementi bo‘lib, ular kapital oqimlari, daromadlar barqarorligi va investitsiya qarorlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Moliyaviy risklar tadbirkorlik subyektlarining pul oqimlari buzilishi, qarz majburiyatlarini bajara olmaslik, valyuta kurslari o‘zgarishi, foiz stavkalari tebranishi yoki investitsiya samaradorligining pasayishi kabi holatlar orqali namoyon bo‘ladi. Ayniqsa kichik va o‘rta biznes subyektlari moliyaviy resurslarning cheklanganligi sababli ushbu risklarga nisbatan yuqori darajada sezuvchan hisoblanadi.

Shu sababli moliyaviy risklarni aniqlash, baholash va boshqarish usullarini takomillashtirish tadbirkorlik faoliyatining barqarorligini ta’minlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, tadbirkorlik faoliyatidagi moliyaviy risklar quyidagi asosiy turlarga ajratish mumkin:

❖ ***Likvidlik riski*** - korxonaning qisqa muddatli majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarolmaslik ehtimoli. Bu risk pul oqimlarining nomutanosibligi bilan bog‘liq bo‘lib, ayniqsa kichik biznes uchun dolzarbdir.

❖ ***Kredit riski*** - qarzdor tomonidan majburiyatlarning bajarilmasligi ehtimoli. Ushbu risk mijozlar bilan hisob-kitoblar va bank kreditlari bilan bog‘liq operatsiyalarda yuzaga keladi.

❖ ***Valyuta riski*** - xorijiy valyuta kurslarining o‘zgarishi natijasida moliyaviy yo‘qotishlar ehtimoli. Bu risk eksport-import faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik subyektlari uchun muhimdir.

❖ ***Foiz riski*** - foiz stavkalarining o‘zgarishi natijasida moliyaviy xarajatlar oshishi yoki daromadlar kamayishi ehtimoli.

❖ ***Investitsion risk*** - kapital qo‘yilmalarning kutilgan daromadlilik darajasiga erisha olmaslik ehtimoli.

Mazkur risklarni baholash uchun qator zamonaviy yondashuvlar qo‘llaniladi va ushbu baholash yondashuvlarini quyidagi asosiy guruhlarga ajratish mumkin.

1. ***Moliyaviy ko‘rsatkichlar asosidagi tahlil***. Likvidlik koeffitsientlari, rentabellik, moliyaviy barqarorlik va qarz yuklamasi ko‘rsatkichlari orqali risk darajasi aniqlanadi.

2. ***Statistik usullar***. Xatar ostidagi qiymat (VaR) modeli orqali ma’lum ehtimollik darajasida maksimal yo‘qotish hajmi baholanadi. Bu usul ayniqsa moliya bozorlariga bog‘liq faoliyatda qo‘llaniladi.

3. ***Ssenariy tahlili va stress-testlar***. Turli iqtisodiy sharoitlarda korxona faoliyatining barqarorligi modellashtiriladi. Bu usul risklarga tayyorgarlik darajasini oshirish imkonini beradi.

4. ***Diskontlangan pul oqimi (DCF) usuli***. Investitsiya loyihalarining samaradorligi va risk darajasi kelajak pul oqimlarini diskontlash orqali baholanadi.

5. ***Risk indikatorlari (KRI)***. Risklarning oshish tendensiyasini oldindan aniqlash uchun asosiy ko‘rsatkichlar tizimi shakllantiriladi.

Tahlil asosida aytishimiz mumkinki, moliyaviy risklarni baholashning eng samarali yondashuvi turli usullarni kombinatsiyalash asosida shakllanadi. Ya’ni, faqat moliyaviy ko‘rsatkichlar yoki faqat statistik modellarga tayanish yetarli emas, balki integratsiyalashgan yondashuv yuqori aniqlik va boshqaruv samaradorligini ta’minlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tadbirkorlik faoliyatidagi moliyaviy risklar korxonaning moliyaviy barqarorligi va rivojlanish istiqbollariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu risklarni samarali boshqarish ularni to‘g‘ri baholash va monitoring qilish tizimining mavjudligiga bog‘liq. Shu asosda quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Tadbirkorlik subyektlarida moliyaviy risklarni baholashning integratsiyalashgan tizimini joriy etish zarur.

2. VaR, stress-test va ssenariy tahlili kabi zamonaviy usullardan keng foydalanish lozim.

3. Kichik biznes uchun soddalashtirilgan risk baholash modellari ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq.

4. Moliyaviy ko‘rsatkichlar monitoringini avtomatlashtirish orqali risklarni erta aniqlash tizimini yaratish zarur.

5. Valyuta va foiz risklarini kamaytirish uchun hedj qilish mexanizmlarini qo‘llash tavsiya etiladi.

6. O‘zbekiston sharoitida tadbirkorlik subyektlari uchun milliy risk baholash metodologiyalarini ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, moliyaviy risklarni baholashning zamonaviy va kompleks yondashuvlari tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish va ularning barqaror rivojlanishini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. World Bank. Small and Medium Enterprises (SMEs) Finance: Improving Access to Finance. – Washington, D.C.: World Bank, 2023.
2. International Organization for Standardization. ISO 31000:2018 Risk management — Guidelines. – Geneva: ISO, 2018.
3. Hull J. C. Risk Management and Financial Institutions. – 5th ed. – Hoboken: John Wiley & Sons, 2018.
4. Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission (COSO). Enterprise Risk Management: Integrating with Strategy and Performance. – New York: COSO, 2017.
5. Kaplan R. S., Mikes A. Managing Risks: A New Framework // Harvard Business Review. – 2012. – Vol. 90, No. 6. – P. 48–60.
6. Damodaran A. Strategic Risk Taking: A Framework for Risk Management. – Upper Saddle River: Pearson, 2007.
7. Jorion P. Value at Risk: The New Benchmark for Managing Financial Risk. – 3rd ed. – New York: McGraw-Hill, 2007.

ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА КОРПОРАТИВ БАРҚАРОРЛИКНИ ТАЪМИНЛАШ БЎЙИЧА ТАВСИЯЛАР

Исмаилов Аллаёр Рашидович
Тошкент давлат иқтисодиёт университети
“Инновацион менежмент” кафедраси
PhD доцент
Тел: 93-558-71-81

Аннотация. Глобал иқтисодиётда барқарор ривожланиш ва экологиявий хавфсизликни таъминлаш талаблари ортиб бораётган шароитда “яшил иқтисодиёт” концепцияси корхоналар фаолиятини стратегик режалаштириш ва бошқаришнинг устувор йўналишига айланмоқда. Корпоратив барқарорликни таъминлаш фақат молиявий кўрсаткичлар билан чегараланиб қолмай, балки экологик, ижтимоий ва бошқарувий (ESG) омилларни корпоратив сиёсатга чуқур интеграция қилишни талаб этади. Мазкур мақолада яшил иқтисодиёт тамойиллари асосида корпоратив барқарорликни таъминлашнинг назарий асослари, халқаро тажриба ва миллий амалиёт таҳлил қилинган ҳамда Ўзбекистон компаниялари учун амалий тавсиялар ишлаб чиқилган. Шу билан бирга, корпоратив стратегияларда экологик самарадорликни ошириш, ресурслардан оқилона фойдаланиш, инновацион технологияларни жорий этиш ва ESG ҳисобдорлик тизимини шакллантириш бўйича таклифлар илгари сурилган.

Калит сўзлар: яшил иқтисодиёт, корпоратив барқарорлик, ESG, инновацион бошқарув, экологик самарадорлик, барқарор ривожланиш.

Кириш

Жаҳон миқёсида барқарор ривожланиш тамойилларига асосланган иқтисодий сиёсатни амалга ошириш глобал экологик муаммолар, ресурслар етишмаслиги ва иқлим ўзгаришлари шароитида стратегик аҳамият касб этмоқда. Бу жараёнда “яшил иқтисодиёт” концепцияси иқтисодий ўсишни таъминлаш билан бирга, табиий муҳитни муҳофаза қилиш, ресурслардан самарали фойдаланиш ва келгуси авлодлар учун экологик барқарор шароит яратишга қаратилган янги иқтисодий парадигма сифатида шаклланмоқда.

Корпоратив секторнинг бу жараёндаги иштироки ҳал қилувчи аҳамиятга эга, чунки компаниялар нафақат иқтисодий жараёнларнинг асосий иштирокчилари, балки табиат ресурсларидан фойдаланувчи, атроф-муҳитга таъсир кўрсатувчи ва ижтимоий жавобгарликни ўз зиммасига олувчи субъектлардир. Шу боис корпоратив барқарорликни таъминлаш фақат молиявий кўрсаткичлар билан чекланмай, балки экологик, ижтимоий ва бошқарув омилларни стратегик бошқарув жараёнига чуқур интеграция қилишни талаб этади. ESG (Environmental, Social, Governance) тамойилларини корпоратив бошқарув амалиётига жорий этиш бугунги кунда халқаро корпоратив стандартларнинг муҳим қисмига айланган.

Ўзбекистонда ҳам сўнгги йилларда яшил иқтисодиётга ўтиш бўйича ҳуқуқий ва институционал асослар яратилмоқда. Давлат даражасида қайта тикланувчи энергия манбаларидан фойдаланиш, энергия тежамкор технологияларни жорий этиш, саноатда чиқиндиларни қайта ишлаш ва экологик масъулиятни кучайтириш бўйича ислоҳотлар амалга оширилмоқда. Бироқ корпоратив даражада ESG мезонларини амалиётга чуқур интеграция қилиш, экологик ҳисобдорликни таъминлаш ва корпоратив стратегияларда барқарорликни устувор йўналиш сифатида белгилаш бўйича ҳал этилиши лозим бўлган вазифалар ҳамон мавжуд.

Мазкур мақоланинг мақсади — яшил иқтисодиёт шароитида корпоратив барқарорликни таъминлашнинг назарий ва амалий асосларини ўрганиш, халқаро тажриба асосида миллий корпоратив бошқарув тизимини такомиллаштириш бўйича илмий асосланган тавсиялар ишлаб чиқишдан иборат.

Яшил иқтисодиёт — бу иқтисодий ўсиш ва ижтимоий фаровонликни таъминлаш билан бирга, табиат ресурсларидан оқилона фойдаланиш, атроф-муҳитга салбий таъсирни камайтириш ва экологик мувозанатни сақлашни кўзда тутадиган иқтисодий тизимдир. Бу концепция корпоратив секторнинг фаолиятига ҳам тўғридан-тўғри таъсир кўрсатади. Корпоратив барқарорлик эса компаниянинг узоқ муддатли иқтисодий ўсишини таъминлаш билан бирга, унинг экологик ва ижтимоий мажбуриятларини ҳам бажариш қобилиятини англатади.

Шу нуқтаи назардан, корпоратив барқарорликни таъминлашда қуйидаги йўналишлар устувор аҳамият касб этади:

- Экологик масъулиятни стратегик бошқарув режасига интеграция қилиш;
- Ресурслардан самарали ва тежамкор фойдаланишни таъминлаш;

- Ижтимоий жавобгарлик ва шаффоф ҳисобот тизимини йўлга қўйиш;
- ESG мезонларига мос корпоратив стандартларни жорий этиш.

Дунёдаги етакчи корпорациялар ESG тамойилларини корпоратив сиёсатга жорий этиш орқали нафақат экологик барқарорликни таъминламоқда, балки инвесторлар учун жозибадорликни ҳам оширмоқда. ESGнинг ҳар бир компоненти корпоратив барқарорликнинг муҳим устуни ҳисобланади:

- **Environmental (экологик):** чиқиндиларни камайтириш, қайта тикланувчи энергиядан фойдаланиш, углерод изини қисқартириш.
- **Social (ижтимоий):** ходимлар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш, меҳнат хавфсизлиги, жамоатчилик билан масъулиятли муносабат.
- **Governance (бошқарув):** корпоратив шаффофлик, ҳисобдорлик, этик меъёрларга риоя қилиш.

Ўзбекистонда ESG стандартларини корпоратив бошқарув тизимига жорий этиш бўйича ҳуқуқий асослар яратилаётган бўлса-да, амалиётда унинг самарадорлигини ошириш учун корпоратив маданиятни ўзгартириш, етакчи кадрлар малакасини ошириш ва экологик ҳисобдорликни кучайтириш зарур.

Европа Иттифоқи, Япония ва Жанубий Корея каби мамлакатларда корпоратив барқарорлик давлат сиёсати билан чамбарчас боғланган бўлиб, компаниялар экологик ҳисобот беришни мажбурий тарзда амалга оширади. ESG ҳисоботлари инвестиция қарорларининг асосий мезонига айланган. Бу эса компанияларни экологик самарадорликни ошириш, углерод изини камайтириш ва қайта тикланувчи энергия манбаларидан фойдаланишга рағбатлантиради.

Яшил иқтисодиёт шароитида корпоратив барқарорликни таъминлаш бўйича тавсиялар:

Ўзбекистонда яшил иқтисодиётни ривожлантириш бўйича ҳуқуқий ва стратегик асослар яратилган бўлса-да, корпоратив секторнинг бу жараёндаги иштироки ҳали ҳам етарли эмас. Амалдаги муаммолар қаторига ESG ҳисобот тизимининг ихтиёрийлиги, экологик инновацияларга инвестициялар ҳажмининг пастлиги ва корпоратив маданиятда экологик устуворликнинг тўлиқ шаклланмагани киради. Ушбу муаммоларни бартараф этиш учун қуйидаги комплекс тавсиялар таклиф этилади:

1. ESG ҳисобот тизимини мажбурий ва стандартлаштирилган шаклда жорий этиш

- Давлат даражасида ESG ҳисоботини тақдим этишни йирик ва ўрта корхоналар учун босқичма-босқич мажбурий қилиш зарур.
- ESG ҳисоботлари учун ягона миллий стандарт ва методология ишлаб чиқилиши, улар халқаро стандартлар (GRI, SASB ва ҳ.к.) билан уйғунлаштирилиши керак.
- Корпорациялар учун ESG ҳисоботларини электрон шаклда тақдим этишни йўлга қўйиш инвестицион жозибадорликни оширади ва корпоратив шаффофликни таъминлайди.

2. Экологик инновацияларни рағбатлантирувчи молиявий ва институционал механизмларни жорий этиш

- Яшил лойиҳаларни молиялаштириш учун солиқ имтиёзлари, субсидиялар ва грантлар тизимини кенгайтириш зарур.
- Корхоналарга қайта тикланувчи энергия манбалари, энергия тежамкор технологиялар ва чиқиндиларни қайта ишлаш тизимларига инвестиция киритгани учун давлат томонидан рағбатлантириш чоралари кўрилиши керак.
- Яшил облигациялар ва махсус инвестиция фондларини ташкил этиш орқали хусусий сармояларни экологик соҳаларга жалб қилишни таъминлаш лозим.

3. Корпоратив стратегияларга ESG тамойилларини интеграция қилиш бўйича услубий йўриқномалар ишлаб чиқиш

- Корхоналар учун ESGни стратегик режалаштириш жараёнига интеграция қилиш бўйича услубий қўлланмалар ва тренинглар ташкил этиш зарур.
- Барқарорликни таъминлаш стратегиялари корпоратив бошқарув қарорларининг ажралмас қисмига айланиши лозим.
- Директорлар кенгаши ва бошқарув органларининг ESG соҳасидаги малакасини оширишга йўналтирилган таълим дастурлари амалга оширилиши керак.

4. Инвесторлар билан ўзаро алоқаларда ESG рейтинглари ва кўрсаткичларидан фойдаланиш

- Корхоналарнинг ESG кўрсаткичларига асосланган рейтинг тизимини жорий этиш орқали уларнинг халқаро инвестиция бозоридаги рақобатбардошлигини ошириш мумкин.
- Инвесторлар учун ESG натижалари асосида махсус платформа ёки ахборот портали ташкил этиш уларнинг қарор қабул қилиш жараёнини енгиллаштиради.
- Хорижий сармоячилар билан ҳамкорликда ESG соҳасида халқаро тажриба алмашинувини ташкил этиш муҳим аҳамиятга эга.

5. Корпоратив маданиятда экологик жавобгарликни кучайтириш

- Корхоналарда ички корпоратив маданиятни экологик қадриятлар асосида шакллантириш учун мотивацион тизимлар (бонуслар, сертификатлар, рейтинглар) жорий этилиши лозим.
- Ходимлар учун мунтазам равишда экологик билим ва кўникмаларни оширишга қаратилган ўқув дастурлари ташкил этилиши зарур.
- Жамоатчилик билан очиқ мулоқот ва экологик ташаббусларда иштирок компаниянинг ижтимоий нуфузини оширади ва корпоратив обрўсини мустаҳкамлайди.

Яшил иқтисодиётга самарали ўтишда корпоратив секторнинг роли фақат иқтисодий фаолият билан чекланиб қолмасдан, балки экологик, ижтимоий ва бошқарувий мажбуриятларни тўлиқ бажариш билан белгиланади. ESG тамойилларини корпоратив бошқарув тизимига чуқур интеграция қилиш, инновацион ечимларни рағбатлантириш ва корпоратив

маданиятда экологик жавобгарликни шакллантириш орқали компаниялар узоқ муддатли барқарорликни таъминлай олади. Шу боис, давлат сиёсати, корпоратив стратегия ва инвестиция муҳитини уйғунлаштирган ҳолда, яшил иқтисодиёт шароитида корпоратив барқарорликни таъминлаш имкониятлари сезиларли даражада кенгаяди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Mahdi N. A. N., Fernando Y., Ibrahim A. Revealing the path to a green economy: Insights and recommendations for sustainable development in Malaysia //International Journal of Integrated Engineering. – 2024. – Т. 16. – №. 2. – С. 245-258.

2. Chen W., Liu X., Wei Y. Promoting sustainability by resource efficiency and green energy: Policy recommendation for green growth //Resources Policy. – 2023. – Т. 87. – С. 104246.

